TDIU



Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami

2026-yil 22-aprel

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI HISOB PALATASI

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TO’PLAMI

Toshkent 2026 -yil 22-aprel

Tahrir hay'ati a'zolari: i.f.d., prof. S.Mexmonov, i.f.d., prof. D.Sholdarov, i.f.d., prof. G.Kasimova, i.f.n. dos. A.Suvonqulov, i.f.n., prof. Sh.G'aniev, i.f.d., prof. A.Ostonokulov, PhD, prof. A.Kuliboev, PhD., katta o'qt. B.Mirzoev, PhD, prof. v.b. A.Xaydarov, PhD, prof. v.b. N.Yuldasheva, PhD., dos. v.b. D.Abdujalilova, PhD., dos. v.b. Sh.Shermuxamedova, PhD., dos. R.Mannapova, PhD., dos. v.b. Sh.Xalilova, PhD., dos. v.b. Ch.Jabbarova, PhD., dos. v.b. A.Norqo'chqorov, PhD., dos. v.b. N.Abdullaeva, k.o'q. M.Abdurasulov, k.o'q. M.Muzaffarov, k.o'q. U.Ortiqov, k.o'q. M.Inoyatov.

Taqrizchilar: J.P. Tursunov, *DSc., dots* *(O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi "Moliya" kafedrasi mudiri)*

Sh.M.Qurbonov, *PhD., dots* *(O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi O'quv Markazi "Buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalari" kafedrasi mudiri)*

"Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – T.: 2026.

Ilmiy-amaliy anjumanda Ushbu to'plamda "Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida soha mutaxassislari, olimlar va tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ilmiy maqolalar hamda ma'ruza tezislari jamlangan bo'lib, unda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, nazorat jarayonlarini raqamlashtirish, ichki auditning xalqaro standartlarini milliy amaliyotga tatbiq etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarni takomillashtirish masalalari kompleks ravishda tahlil qilingan. To'plam materiallari davlat moliya tizimini isloh qilishning dolzarb muammolariga ilmiy va amaliy yechimlar taklif etishi bilan ahamiyatli bo'lib, oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va amaliyotchi iqtisodchilar uchun mo'ljallangan.

Mazkur ilmiy ma'ruza tezislari to'plamida mamlakatning yirik iqtisodchi olimlari, xorijiy tajribali amaliyotchilar, oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining etakchi ilmiy xodimlari, doktorant va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy tadqiqot ishi natijalari mujassamlashgan.

Ushbu nashrda keltirilgan barcha ma'lumotlar va fikr-mulohazalar mualliflarga tegishli bo'lib, tahrir hay'ati a'zolarining fikriga mos kelmasligi mumkin. Nashrda keltirilgan raqamlar, statistik ma'lumotlar, fikr-mulohazalar uchun mualliflar mas'ul hisoblanadi.

© Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. 2026

UNIVERSITET REKTORINING KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari, mehmonlar va qadrli ustozlar!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Barchamizga ma’lumki, mamlakatimizda jamiyat farovonligini ta’minlash, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda davlat moliyaviy resurslarini oqilona boshqarish, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, moliyaviy auditni samarali tashkil etish, biznes jarayonlarida normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini baholash, muvofiqlik auditini rivojlantirish hamda davlat va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlanganligini tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

“Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladigan ilmiy va amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Anjumanning bosh maqsadi mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimini samarali tashkil etish, ushbu sohada mavjud muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Mazkur anjuman doirasida davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish, ichki audit xizmatining amaliy ahamiyatini oshirish, davlat tashqi auditini amalga oshirish bosqichlari, sohadagi qonunchilikning bugungi holati va uni isloh qilish masalalari atroflicha muhokama qilinadi. Shuningdek, ichki auditni rivojlantirish yo‘nalishlari, davlat xaridlari tizimida g‘aznachilikning o‘rni, davlat moliyasini boshqarish va nazorat qilish jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari bo‘yicha ilmiy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar bildirilishi ko‘zda tutilgan.

Anjuman yakunida qabul qilinadigan taklif va tavsiyalar davlat moliyaviy nazorati hamda ichki audit faoliyatini yanada takomillashtirish, budjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlash, budjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etishda g‘aznachilikning rolini kuchaytirish va ushbu yo‘nalishda davlat tomonidan qo‘llab-

quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ishonamanki, anjuman davomida sohaning dolzarb muammolari atroflicha muhokama qilinib, chuqur tahlil etiladi, qimmatli fikr-mulohazalar bildiriladi hamda amaliy ahamiyatga ega takliflar ishlab chiqiladi.

Shu munosabat bilan anjumanda ishtirok etayotgan barcha ma’ruzachilar, professor-o‘qituvchilar, amaliyotchi mutaxassislar, ilmiy izlanuvchilar va talabalarga samarali faoliyat va muvaffaqiyat tilayman.

Anjumanni ochiq, deb e’lon qilaman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
rektori, i.f.d., professor T.Z. Teshabayev

BIRINCHI SHO‘BA

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA BUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH

G‘AZNACHILIKDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGI

Sholdarov Dilshod Azimiddin o‘g‘li
“Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi mudiri. DSc.prof.

Bugungi kunda budjet jarayonini samarali tashkil qilishda g‘aznachilik nazorati qay darajada muxim ekanligini olimlar va soha mutaxassislari asosli ravishda e‘tirof etib kelmoqdalar. Ma‘lumki, global jahon iqtisodiyotidagi jiddiy muammolar hamda ularning dunyodagi ko‘plab mamlakatlar qatorida bizning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham ko‘rsatayotgan salbiy ta‘siriga qaramasdan, so‘ngi yillarda respublikamizda yuqori va barqaror o‘sish sur‘atlarini saqlab, makroiqtisodiy barqarorlik va mutanosiblikning ta‘minlanayotganligi o‘ziga xos ijobiy ko‘rsatkich bo‘lmoqda.

Davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tomonidan amalga oshirishi bir qator ustunliklarga ega. Tajriba shundan dalolat berib turibdiki, byudjetning g‘azna ijrosiga o‘tish ijobiy natijalarni berdi, chunki byudjet ijrosining bunday tashkil etilishi byudjet mablag‘larining muayyan tarzda tejalishini ta’minladi va ulardan maqsadsiz foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik, byudjet nazoratining sifatini va samaradorligini oshirishga xizmat qildi. G‘aznachilik nazorati davlat moliyaviy nazoratining bir qismi hisoblanib mamlakat moliyaviy barqarorligini ta’minlashda hamda davlat moliya siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi.

G‘aznachilikda moliyaviy nazorat deganda davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari va boshqa budjetdan tashqari fondlarning mablag‘lari to‘planadigan va ushbu mablag‘lar doirasida aniq belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g‘azna hisobraqami orqali davlat budjetining ijro etilishi hamda shu orqali davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish tushuniladi.

O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratining g‘aznachilik konturi shaklan “uch konturli” tizim sifatida tashkil etilgan: dastlabki nazorat (operatsiya amalga oshirilishidan oldin), joriy nazorat (ijro jarayonida) va yakuniy nazorat (operatsiya amalga oshirilgandan so‘ng). Bunday arxitektura budjet kodeksida bevosita mustahkamlangan: dastlabki va joriy nazorat g‘aznachilik bo‘linmalari hamda iqtisodiy-moliyaviy organlar zimmasiga yuklatiladi (daromadlar bo‘yicha esa — soliq xizmatiga), yakuniy nazorat esa davlat moliyaviy nazorati organlariga, jumladan, tashqi auditning oliy organiga yuklatiladi.

Tashqi auditning oliy organi tomonidan e’lon qilinayotgan empirik ma’lumotlar raqamlashtirish va risk-analitika muhim natijalar berayotganini ko‘rsatmoqda: “Masofaviy audit” tizimi orqali katta hajmdagi moliyaviy xatoliklar va xavflar (trillionlab so‘m) bartaraf etilgani, davlat organlari va banklar ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya kengaygani, shuningdek, yirik budjet mablag‘lari taqsimlovchilarida “vaziyatlar markazlari” orqali qoidabuzarliklarning oldini olish amaliyoti kengaygani qayd etilgan. Shu bilan birga, mustaqil xalqaro diagnostika (PEFA 2024) budjet ijrosi tarkibiy qismlarida (majburiyatlarni nazorat qilish, pul oqimlarini boshqarish, daromadlar, davlat xaridlari, Yagona g‘azna hisobvarag‘i qamrovi) sezilarli o‘sishni qayd etadi, ammo ayni paytda ayrim “tor joylar”ni ham ko‘rsatadi — strategik rejalashtirish, makrofiskal prognozlash va yillik budjet o‘rtasidagi bog‘liqlik, dasturiy-maqsadli budjetlashtirishni joriy etish, hamda asosiy IT platformalarni (GFMIS va UzASBO 2.0) yanada chuqur integratsiya qilish zarur.

Budjet kodeksi davlat moliyaviy nazorati organlarining tarkibini hamda nazorat bosqichlari bo‘yicha rollarning taqsimlanishini belgilaydi. Davlat moliyaviy nazorati organlari sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan: tashqi auditning oliy organi, iqtisodiy-moliyaviy idora va uning tizimidagi vakolatli organlar, shuningdek prokuratura huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish organi tizimidagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi; budjet daromadlari hamda davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari daromad qismini nazorat qilish esa vakolatlar doirasida soliq xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Budjet ijrosi va g‘aznachilik nazoratining muvofiqlashtiruvchi markazi — O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoblanadi. Uning funksiyalariga, xususan, Yagona g‘azna hisobvarag‘i (TSA) mablag‘larini boshqarish (jumladan vaqtincha bo‘sh qoldiqlarni boshqarish va mablag‘ yetishmovchiligi sharoitida xarajat limitlarini belgilash) kiradi — bu esa kassa boshqaruvini majburiyatlar intizomi va moliyalashtirishning prognoz qilinishi bilan bevosita bog‘laydi.

Joriy nazoratning operatsion “markazi” — G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi (Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidagi g‘aznachilik organi). Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: budjetning kassa ijrosini ta’minlash, TSA likvidligini boshqarish, moliyaviy majburiyatlarni hisobga olish (jumladan elektron hisob-fakturalar asosida), to‘lov intizomini ta’minlash va tasdiqlangan smeta hamda ro‘yxatdan o‘tgan shartnomalar doirasida yetkazib beruvchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlarni amalga oshirish, daromad va xarajatlar bo‘yicha qisqa muddatli prognozlar ishlab chiqish hamda “inson omili”ni kamaytirish orqali raqamlashtirishni rivojlantirish.

Tashqi auditning oliy organi — O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi — qonunchilikka ko‘ra davlat tashqi auditi va moliyaviy nazoratining oliy organi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalariga davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasiga ekspert baho berish, o‘rta muddatli fiskal strategiyani tahlil qilish, davlat xaridlari

to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish, budjet jarayonining ochiqligini monitoring qilish hamda budjet va boshqa jamg‘armalarga tushumlarning to‘liqligini tahlil qilish kiradi.

2024–2025-yillarda Prezident farmonlari orqali tashqi va ichki auditning normativ asoslari sezilarli darajada kuchaytirildi:

(1) konsolidatsiyalangan budjet ijrosini tashqi tekshirish joriy etildi va audit turlari kengaytirildi (jumladan strategik va IT-audit),

(2) Big Data asosidagi idoralararo masofaviy risk-analitika markazi tashkil etildi,

(3) g‘aznachilikning joriy nazorati kuchaytirildi hamda hisobotlarni e’lon qilish va ochiqlikni ta’minlash bo‘yicha tashkiliy choralar ko‘rildi.

2025-yildan keyin qo‘shimcha ravishda quyidagilar institutsional jihatdan mustahkamlanmoqda: tashqi audit oliy organi faoliyatini kamida har 5 yilda bir marta (2026-yildan boshlab) INTOSAI va boshqa tan olingan tashkilotlar metodologiyalari asosida tashqi baholash; xorijiy oliy audit organlari bilan parallel va qo‘shma auditlar o‘tkazish; audit jarayonida raqamlashtirish va sun’iy intellekt yechimlarini keng joriy etish, jumladan kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish va “Masofaviy audit” tizimida yangi risk mexanizmlarini qo‘llash.

Daromadlar nazorati konturi bevosita soliq ma’muriyatchiligi bilan bog‘langan: Budjet kodeksiga muvofiq budjet daromadlari nazorati soliq xizmati tomonidan amalga oshiriladi; tashqi auditning raqamli dasturlarida ham soliq tizimlari ma’lumotlari asosida integratsiya va risk-analitika nazarda tutiladi, bunda Soliq qo‘mitasi faol ishtirok etadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi komponent — nazoratning “yakuniy samarasi” (sanksiyalar, undiruv, takroriy buzilishlarning oldini olish) uchun muhim bo‘lgan tizim — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hamda uning ixtisoslashtirilgan bo‘linmasi — Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bilan bog‘liq. 2025-yilda qabul qilingan qonun bilan departamentning qo‘shimcha vazifalari aniqlashtirildi, jumladan budjet qonunchiligi buzilishlarining oldini olish vazifalari belgilandi va uning funksiyalarini amaldagi qonunlarda aks ettirish zarurligi mustahkamlandi.



1- rasm. Davlat moliyaviy nazorati zanjiri.[1]

Davlat moliyaviy nazorati tizimida G‘aznachilikning o‘rni beqiyosdir. Chunki u nafaqat budjet ijrosini ta’minlaydi, balki budjet mablag‘laridan foydalanishning qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samaradorligini doimiy ravishda kuzatadi. So‘nggi yillarda ushbu mexanizmlarning samaradorligini oshirish yo‘lida tizimli islohotlar amalga oshirildi.

G‘aznachilik tizimi ushbu tamoyillarni amaliyotga joriy etishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki barcha budjet mablag‘lari harakati yagona g‘azna hisobvarag‘i orqali amalga oshiriladi va bu jarayon markazlashgan nazoratni ta’minlaydi.

Nazariy jihatdan davlat moliyaviy nazorati uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Dastlabki nazorat – moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilishidan oldin;
2. Joriy nazorat – operatsiyalar bajarilish jarayonida;
3. Yakuniy nazorat – amalga oshirilgan operatsiyalarni tahlil qilish orqali.

Mazkur uch bosqichli nazorat modeli g‘aznachilik tizimida to‘liq qo‘llanilib, budjet mablag‘lari ustidan kompleks nazoratni ta’minlaydi.

G‘aznachilik tizimida davlat moliyaviy nazorati bir qator mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

Yuridik majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish mexanizmi davlat tashkilotlari tomonidan tuzilayotgan shartnomalarni g‘aznachilikda majburiy ro‘yxatdan o‘tkazishni nazarda tutadi. Bu orqali:

- xarajatlarning asoslanganligi tekshiriladi;
- budjet tasnifiga mosligi aniqlanadi;
- ajratilgan limitlar doirasida ekanligi nazorat qilinadi.

Bu mexanizmning afzalligi shundaki, noqonuniy yoki asossiz xarajatlar hali to‘lov bosqichiga yetmasdan turib aniqlanadi.

[1] Manba: Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.08.2021 yildagi PF-6300-son

Moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida quyidagilar tekshiriladi:

- shartnoma qiymati;
- moliyalashtirish manbalari;
- to‘lov muddatlari;
- smeta va rejalarga mosligi.

Bu jarayon budjet mablag‘larining ortiqcha yoki noto‘g‘ri rejalashtirilishining oldini oladi.

Nazorat mexanizmlarining samaradorligini baholashda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar muhim hisoblanadi:

1. Oldi olingan moliyaviy buzilishlar ulushi. Bu ko‘rsatkich nazoratning profilaktik xususiyatini ifodalaydi, ya’ni, qancha noqonuniy to‘lovlar amalga oshirilishidan oldin to‘xtatilgani bilan belgilanadi.

2. Budjet mablag‘larining maqsadli sarflanish darajasi. Agar mablag‘lar tasdiqlangan yo‘nalishlar bo‘yicha sarflansa, nazorat samarali hisoblanadi.

3. To‘lovlar tezligi va sifati. Nazorat tizimi ortiqcha kechikishlarsiz ishlashi kerak. Aks holda iqtisodiy jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Moliyaviy intizom darajasi. Budjet tashkilotlari tomonidan qonunchilikka rioya qilinish darajasi ham nazorat samaradorligini aks ettiradi.



2- rasm. To‘lovlar nazorati[2]

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat budjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007-yil 28-fevraldagi PQ–594-son qaroriga muvofiq tadqiqotchi tomonidan tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasida g‘aznachilik tizimi orqali davlat moliyaviy nazorati sezilarli darajada kuchaytirildi. So‘nggi yillarda barcha budjet tashkilotlarining to‘lovlari g‘aznachilik orqali amalga oshirilmoqda, davlat xaridlari elektron tizim orqali nazorat qilinmoqda, shartnomalar majburiy ro‘yxatdan o‘tkazilmoqda.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, noqonuniy xarajatlar ulushi kamaygan, budjet mablag‘larining maqsadsiz sarflanishi qisqargan, moliyaviy intizom mustahkamlangan. Biroq ayrim muammolar ham mavjud, axborot tizimlari integratsiyasining yetarli emasligi, ayrim hollarda formal nazoratning ustunligi, riskga asoslangan yondashuvning yetarli darajada rivojlanmaganligi.

G‘aznachilik tizimi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda eng muhim institutlardan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyati budjet mablag‘larining qonuniy, shaffof va maqsadli sarflanishini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, g‘aznachilik nazorati mexanizmlari:

- moliyaviy buzilishlarning oldini olish;
- budjet intizomini mustahkamlash;
- davlat xarajatlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy talablar asosida ushbu mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Xususan, raqamlashtirish, riskga asoslangan yondashuv va integratsiyalashgan nazorat tizimlarini rivojlantirish orqali g‘aznachilikda davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Budjet tizimi budjetlarida jahon amaliyotida keng qullanilayotgan g‘aznachilik nazorati institutini zamonaviy usullaridan foydalanish uni yanada takomillashtirish davlat byudjet nazorati samarasini yanada orttiradi. G‘aznachilik organlarida ichki audit va nazoratni rivojlantirishga oid konsepsiya ishlab chiqish va unda aniq standart hamda mezonlar belgilash, shuningdek, davlat g‘aznachilik nazorati tushunchasi va uni huquqiy maqomini ham aniqlashtirish bugungi kunning talabi hisoblanadi.

ДАВЛАТ МОЛИЯСИНИ БОШҚАРИШДА МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Касимова Гуляр Ахматовна
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Бюджет ҳисоби ва ғазначилик” кафедраси
профессори, иқтисод фанлари доктори

Рақамли иқтисодиёт шароитида давлат молиясини бошқариш тизимини янги босқичга олиб чиқиш ва бюджет интизомини янада мустаҳкамлаш, солиқ-бюджет тизимининг шаффофлигини ошириш, Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағларидан фойдаланиш самарадорлиги ва натижадорлигини оширишнинг

замонавий усуллари жорий этишни талаб қилади. Барқарор иқтисодий ривожланишни таъминлаш учун мамлакатнинг стратегик мақсадларига эришишда ишончли восита сифатида давлат молиясини бошқариш тизимини такомиллаштириш талаб этилмоқда.

Давлат молиясини бошқариш тизимини такомиллаштириш стратегиясида давлат молияси тўғрисида жамоатчиликка кенг қамровли маълумотлар бериш ва шаффофликни таъминлаш, самарадорлик ва натижадорликка босқичма-босқич эришиш ҳамда бюджет жараёни иштирокчиларининг масъулияти ва жавобгарлигини ошириш каби йўналишлар ҳам белгиланди. “Стратегияда камерал назорат тизимини ишга туширишдан кўзланган асосий мақсад, давлат молиявий ресурсларининг мақсадли сарфланишини таъминлаш, бюджет маблағларининг қай тартибда сарфланишини масофадан туриб кузатиш ва аниқланган хато- камчиликларни бартараф қилишдан иборат” [3]. Солиқ-бюджет прогнозларини тайёрлашда давлат органлари томонидан фойдаланиладиган ўрта муддатли макроиқтисодий прогнозлар ишончлилигини ошириш чораларини кўриш ва бу маълумотларни ҳисобот даври якунлари бўйича ҳақиқий кўрсаткичлар билан таққослаш орқали баҳолаб бориш лозим. Бюджет жараёни босқичлари (Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими бюджетларини тайёрлаш, кўриб чиқиш, қабул қилиш ва тасдиқлаш) бюджетни ўрта муддатли режалаштиришга ўтилиши, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палатасининг назорат функциялари, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, бошқа вазирлик ҳамда идораларнинг (бюджет маблағларини тақсимловчилар назорати) роли ва функционал вазифалари қайта тақсимланиши муносабати билан қайта кўриб чиқилди. Бюджет ташкилотлари, давлат мақсадли жамғармалари ва белгиланган тартибда ташкил этилган бошқа жамғармаларда ўтказилган барча давлат молиявий назорати тадбирлари, жумладан ички аудит хизматларининг аудит тадбирлари очиқлик мақсадида “Давлат аудити” дастурида рўйхатга олинади.

Давлат молиявий сиёсатини муваффақиятли амалга ошириш бюджет, солиқ, ғазначилик қонунчилигига риоя қилиш ва давлат молияси маблағларидан оқилона ва самарали фойдаланишга ёрдам беради. Давлат молиявий назорати турли даражадаги бюджетлар, бюджет ташкилотлари, бюджетдан маблағ олувчилар, давлат мақсадли жамғармаларининг маблағларини самарали бошқариш жараёнларини қамраб олади. Давлат молиявий назорати бюджет тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг молиявий назорат объектлари томонидан бузилиши ҳолларини аниқлаш, бартараф этиш ва унга йўл қўймаслик мақсадида давлат молиявий назорат органлари томонидан амалга оширилади.

[3] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2020-2024 йилларда Ўзбекистон Республикаси давлат молиясини бошқариш тизимини такомиллаштириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 506-сон Қарори. 2020 йил. 24 август.https://buxgalter.uz сайти маълумотлари.

“Давлат молиявий назорати инспекцияси томонидан бюджет маблағларининг даромадларини шаклланиши ва ҳамда уларнинг мақсадли сарфланиши юзасидан назорат тадбирларида замонавий камерал назоратдан кенг фойдаланилади. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, Давлат молиявий назорати инспекцияси ва унинг ҳудудий бошқармалари томонидан дастурий мажмуа ва бюджет ташкилотлари бевосита ишлайдиган “ЎзАСБО2” дастурий мажмуа маълумотларидан фойдаланган ҳолда ҳар йили бюджет ташкилотлари ва муассасаларнинг тузилиши юзасидан камерал назорат ўтказилади”[4]. Камерал назорат тизимини ишга туширишдан кўзланган асосий мақсад, давлат молиявий ресурсларининг мақсадли сарфланишини таъминлаш, бюджет маблағларининг қай тартибда сарфланишини масофадан туриб кузатиш ва аниқланган хато-камчиликларни бартараф қилишдан иборат. Камерал назоратни амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг (“ДМБАТ2” ва “УзАСБО2”) дастурий мажмуалари орқали банклар, бошқа ташкилотлар базасидаги маълумотлар асосида молиявий назорат объектлари фаолиятини доимий мониторинг қилиш каби йўллардан фойдаланади.

Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ва Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан бюджет ташкилотлари ҳамда давлат мақсадли жамғармаларининг тижорат банклардаги ҳисобварақларининг ҳаракати бўйича маълумотлар алмашинувини такомиллаштириш керак. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан давлат молиясини бошқариш, бухгалтерия ҳисобини юритиш ва ҳисоботларни шакллантириш, бюджет ташкилотларида ишловчи ишчи-ходимларга иш ҳақи ва унга тенглаштирилган тўловлар ҳисобини тўлиқ автоматлаштирилган ҳолда амалга ошириш бўйича ахборот дастурларининг узлуксиз фаолият кўрсатишини таъминлаш мақсадга мувофиқ бўлади.

Ўзбекистон Республикасида давлат молиясини бошқариш соҳасида амалга оширилган ислоҳотлар ва эришилган натижаларга қарамасдан, рақамли иқтисодиётда давлат молиясини бошқариш соҳасини янада такомиллаштиришни талаб этадиган устувор чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади.

[4] https://www.imv.uz/- Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги расмий сайти.

ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Ванькович Инна Михайловна

к.э.н., доцент кафедры «Финансовый контроль и казначейское дело»
Финансового университета при Правительстве РФ

Активное внедрение цифровых технологий в управление государственными и муниципальными финансами обеспечивает предпосылки для внедрения контрольно-аналитических функций в цифровой контур бюджетного процесса. Государственный финансовый контроль, будучи ключевым элементом данной системы, сегодня переживает этап цифрового преобразования методических, организационных и информационно-аналитических основ.

Использование цифровых решений и инновационных подходов в сфере внутреннего государственного финансового контроля позволяет перейти к модели превентивного (упреждающего) контроля, а также минимизировать уровень нарушения положений бюджетного законодательства.

Внедрение новых методов контроля предполагает переход к «цифровому» формату взаимодействия между органами внутреннего государственного финансового контроля (ВГФК) и объектами контроля. Такое взаимодействие открывает доступ к данным о финансово-хозяйственной деятельности объектов контроля через информационные системы, что способствует развитию превентивного (предупреждающего) контроля, базирующегося на механизмах раннего предотвращения нарушений.

Применение новых методов контроля становится возможным за счет обработки сведений из разнообразных официальных источников и налаживания межуровневого (межведомственного) обмена данными. Как следствие, налаженное взаимодействие контрольных органов минимизирует избыточность проверочных мероприятий и исключает дублирование усилий при проведении контрольных и экспертно-аналитических действий.

К новым методам контроля, вынесенным на рассмотрение можно отнести: контрольный мониторинг, наблюдение и анализ.

Проведение контрольного мониторинга предоставляется исключительно Федеральному казначейству, как органу обладающему наиболее полной информацией о бюджетной дисциплине объектов контроля, что обусловлено, в частности, высоким уровнем цифровизации финансовых операций и данных. Такая форма взаимодействия строится на партнерских началах и оформляется двусторонним соглашением. Ее целью является повышение оперативности, качества и результативности управления государственными финансами в подконтрольных организациях. В рамках данного метода контрольный орган

получает удаленный доступ к информации объекта, предоставляемой на добровольной основе, что позволяет сформировать обоснованное заключение относительно эффективности его финансово-хозяйственной деятельности.

В рамках реализации ведомственного проекта «Электронный СМАРТ-контроль», в связи с расширением существующих методов осуществления внутреннего государственного финансового контроля, а также с учетом планируемого в 2027 году заключения Федеральным казначейством соглашений с ГАБС, был проведен эксперимент, направленный на апробацию метода контрольный мониторинг.

Задачами эксперимента выступили: апробация элементов контрольного мониторинга, ориентированных на выявление рисков и профилактику нарушений в финансово-бюджетной сфере; оценка деятельности пилотного учреждения в рамках предмета мониторинга; а также оперативная выработка и согласование правил бюджетного поведения. Последнее было реализовано через мотивированное мнение — документ, в котором субъект контроля излагает свою позицию по вопросам контрольного мониторинга и дает рекомендации по снижению рисков и повышению финансовой дисциплины пилотного учреждения.

Так, на основе результатов проведенного эксперимента на основе ФЗ от 28 ноября 2025 г. № 432-ФЗ в Бюджетном кодексе Российской Федерации было закреплено введение новый превентивного метода ВГФК – контрольного мониторинга.

В то же время, следует отметить и иные методы контроля, рассматриваемые к введению – анализ и наблюдение, способствующие созданию системы предварительного и цифрового контроля в финансово-бюджетной сфере.

Применение метода анализа на практике позволит охватить более широкий круг вопросов в ходе проверок объектов внутреннего государственного финансового контроля. Это касается контрольных мероприятий, инициируемых на основе отдельных поручений Президента РФ, Правительства РФ и Министерства финансов РФ, что обусловлено необходимостью систематического предоставления достоверной и актуальной контрольно-аналитической информации.

В рамках наблюдения осуществляется сбор сведений об объекте контроля как из открытых источников, так и из государственных и ведомственных информационных систем. Данный метод базируется на сопоставительном анализе информации с целью проверки соблюдения установленных процедур и сроков.

Благодаря этому орган внутреннего государственного (муниципального) финансового контроля получает возможность оперативно обнаруживать признаки и риски потенциальных нарушений, не создавая при этом избыточной нагрузки на проверяемые объекты. Своевременное информирование объектов контроля позволяет заблаговременно принять необходимые меры, что способствует

укреплению бюджетной дисциплины. В ходе наблюдения объекту контроля может быть направлено предостережение с требованием представить сведения и документы, что также дает ему возможность самостоятельно управлять собственными рисками. При этом предостережение не содержит обязательных предписаний об устранении причин и последствий выявленных недостатков, а также рекомендаций по повышению эффективности финансово-хозяйственной деятельности.

Внедрение и реализация новых методов контроля позволит расширить спектр проверяемых вопросов деятельности объектов государственного финансового контроля, тем самым способствуя повышению финансовой дисциплины в целом.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BUDJET AMALIYOTIDA DAVLAT AUDITINING QO‘LLANILISHI

Mirzaakbarov Abdulaziz Asqarjon O‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Bugungi kunda davlat moliyaviy boshqaruvining shaffofligi, samaradorligi va ishonchliligi jahon miqyosida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Ayniqsa, budjet mablag‘larining maqsadli va qonuniy sarflanishini ta’minlashda tashqi audit muhim nazorat vositasi sifatida ajralib turadi. Davlat audit mustaqil audit organlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat bo‘lib, u davlat organlari va tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari, faoliyat samaradorligi hamda budjet ijrosi ustidan nazoratni o‘z ichiga oladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tashqi audit tizimi nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlashga, balki davlat budjeti va davlat mulkidan oqilona foydalanishga xizmat qiluvchi muhim vositadir. Xalqaro audit standartlari, parlamentga bo‘lgan hisobotlilik, jamoatchilik oldida ochiqlik va milliy audit institutlarining institutsional mustaqilligi – bu kabi omillar davlat tashqi auditi samaradorligining asosiy omillaridan hisoblanadi.

Auditning ma’nosini oddiy qilib tushuntiradigan bo‘lsak tashkilotning moliyaviy hisobotlarini tekshirish va qonun-hujjatlariga talab beradigan hamda ularni budligini tekshirish. Boshqacha qilib aytganda, tasodifiy qilingan tanlovni ifodalaydi. Aksincha, nazorat yuqori turuvchi nazorat organlari tomonidan muayyan tanlangan ob’ektlarni tekshirish va nazoratni amalga oshirishdir. “Audit” va “nazorat” terminlari ma’no jihatidan bir-biridan farq qilyapti ya’ni audit so‘zi nazorat so‘zidan erkinligi, mustaqilligi va ixtiyoriy tanlov asosida amalga oshirilishi bilan “nazorat” atamasidan farq qilyapti.

Audit so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib “u eshitadi” degan ma’noni anglatadi. Zamonaviy talqinda audit - bu tashkilotning moliyaviy holatini,jarayonning to‘liqligini mustaqil baholash tushuniladi. Auditning bir necha turlari bor va bugungi kunda

operasion, texnik, ekologik, moliyaviy, sifat auditi va boshqalar amalga oshiriladi. Ammo moliyaviy audit eng keng tarqalgan nazorat turi bo‘lib, hisobotda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va haqqoniyligini tekshirish hisoblanadi. Davlat sektori auditi har doim ob’ektiv ravishda amalga oshiriladigan moliyaviy, ma’muriy va texnik operasiyalar, shuningdek, davlat sektori sub’ektlari va idoralari erishgan maqsadlar, rejalar, dasturlar va maqsadlar baholanadigan tizimli jarayon sifatida belgilanishi mumkin[5].

Davlatning ijtimoiy - iqtisodiy siyosatida nazorat va audit davlat sektorida eng muhim vositalariga aylanmoqda. Ushbu holat moliyaviy auditva davlat sektorida auditning mohiyati, shakllari va usullarini tushunishga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Moliyaviy auditva moliyaviy audit ma’no jihatidan bir-biriga juda ham yaqin. Shu munosabat bilan quyidagi savollarga javob berish muhim hisoblanadi: budjet tashkilotlarida audit davlat nazoratining ajralmas qismi va uning davlat boshqaruvi tizimidagi o‘rni qanday? ikkinchidan, auditni keng talqin qilish mumkinmi va bu holda uning maqsadlari nimadan iborat?, kim?, qachon? va uni kimning hisobidan o‘tkazish kerak? va audit natijalari kimga qaratilgan? Quyidagi ta’rif moliyaviy auditva davlat auditi o‘rtasidagi tub farqni tushunishga imkon beradi.

Davlat auditi - ajratilgan budjet mablag‘larining maqsadli yo‘nalishiga rioya qilinishiga qaratilgan. Moliyaviy audit budjetdan mablag‘ oluvchilarga yangi tendensiyalarni ochib berdi, ajratilgan mablag‘lardan foydalanish samaraddorligini baholash, ya’ni samaradorlik auditini ishlab chiqdi.

Audit guruhi, quyidagilarni tavsiflovchi ish rejasini ishlab chiqish kerak:

- xatarlarni baholash bo‘yicha rejalashtirilayotgan tartib-taomillarning xususiyati, muddatlari va hajmlari;

- rejalashtirilgan (tasdiqlanadigan) keyingi audit tartib- taomillarining xususiyati, muddatlari va hajmlari;

- auditning standartlarga muvofiqligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan boshqa rejalashtirilgan audit tartib-taomillari.

Davlat auditi organlari tomonidan yakuniy nazoratni tashkil qilish budjet qonunchiligida qo‘yilgan xato-kamchiliklarni o‘rganish va uni bartaraf qilishdir, buxgalteriya schyotlarining to‘g‘ri yuritilayotganini va qonun hujjatlariga asosan olib borilayotganini tekshirishdir. Bu esa, davlat moliyaviy nazoratining asosiy vazifasi hisoblanadi. Moliyaviy audit uchun nazoratning samaradorlik ko‘rsatgichlarini baholash tizimi tashkil qilinadi.

[5] https://www.uhyfay.com/en/blog/publicsectorauditing.

SAVDO KORXONALARIDA SEGMENTLARARO TRANSFER NARX MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH VA MOLIYAVIY NATIJALARNI SHAKLLANTIRISH

Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna
SamISI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada savdo korxonalarida segmentlararo transfer narx mexanizmini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarni shakllantirishdagi o‘rni tadqiq etilgan. Amaldagi buxgalteriya hisobi tizimida segmentlararo operatsiyalarni aks ettirishdagi kamchiliklar tahlil qilinib, ichki aylanma va transfer narxlar asosida daromad va xarajatlarni hisobga olishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, segmentlar kesimida foyda va zararlar hisobotini shakllantirishning takomillashtirilgan modeli tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: segmentar hisob, transfer narx, savdo korxonalari, ichki aylanma, moliyaviy natijalar, rentabellik, boshqaruv hisobi.

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida savdo korxonalarida faoliyatni segmentlar kesimida tashkil etish va baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ulgurji, chakana va onlayn savdo segmentlari o‘rtasidagi ichki operatsiyalarni to‘g‘ri hisobga olish korxona moliyaviy natijalarining haqqoniy shakllanishini ta’minlaydi.

Amaldagi hisob tizimida segmentlararo operatsiyalar ko‘pincha umumlashtirilgan holda aks ettiriladi, bu esa ichki foyda, transfer narx va segment rentabelligini aniqlashda muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, segmentlararo transfer narx mexanizmini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, korxonalarda shaffoflikni oshirish hamda boshqaruv samaradorligini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda[6]. Bu esa savdo korxonalarida segmentlararo transfer narx mexanizmini ilmiy asosda takomillashtirish va moliyaviy natijalarni shakllantirish usullarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Segmentar hisob va transfer narx mexanizmi masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, ularning nazariy va amaliy jihatlari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, segmentar hisobotni shakllantirishda xalqaro standartlar asosiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyotda segmentlar kesimida moliyaviy axborotni oshkor etishning asosiy talablari IFRS 8 doirasida belgilangan bo‘lib, unda korxonaning operatsion

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

segmentlari bo‘yicha daromad, xarajat va foyda ko‘rsatkichlarini alohida taqdim etish zarurligi qayd etilgan[7]. Mazkur yondashuv boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborotning aniqligi va foydaliligini oshiradi.

Shuningdek, transfer narx mexanizmi va uning korxona ichidagi iqtisodiy munosabatlarga ta’siri OECD tomonidan ishlab chiqilgan transfer pricing qo‘llanmalarida batafsil yoritilgan. Ushbu manbalarda transfer narxlar korxona ichidagi resurslar taqsimoti, segmentlar samaradorligini baholash hamda soliqqa tortish bazasini aniqlashda muhim vosita sifatida qaraladi[8].

Mahalliy tadqiqotlarda esa savdo korxonalarida segmentar hisobni yuritish, ichki operatsiyalarni aks ettirish va moliyaviy natijalarni shakllantirish masalalari yetarli darajada o‘rganilmaganligi kuzatiladi. Xususan, amaldagi buxgalteriya hisobi tizimida segmentlararo operatsiyalarni alohida hisobga olish mexanizmlarining yetarli emasligi, transfer narx asosida shakllangan ichki foydaning hisobda aks ettirilmasligi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda savdo korxonalarida segmentlararo transfer narx mexanizmini takomillashtirish va moliyaviy natijalarni shakllantirish masalalarini o‘rganishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash va guruhlash usullari orqali amaldagi hisob tizimi holati baholandi.

Muhokama va natijalar.

Tadqiqot jarayonida savdo korxonalarida segmentlararo operatsiyalarni hisobga olish amaliyoti tahlil qilinib, amaldagi tizimda ichki aylanma va transfer narxlar asosida shakllangan moliyaviy natijalar yetarli darajada aks ettirilmasligi aniqlandi. Xususan, 2910-«Ombordagi tovarlar» schyoti doirasida mahsulot harakati umumlashtirilgan holda yuritilishi segmentlar kesimida aniq tahlil olib borish imkoniyatini cheklaydi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, segmentlararo operatsiyalarni alohida hisobga olmaslik natijasida ulgurji, chakana va onlayn savdo segmentlari bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichlari noto‘g‘ri shakllanishi mumkin. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xatoliklarga olib keladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida 5 darajali iyerarxik analitik hisob tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim segment turi, operatsiya yo‘nalishi (ichki va tashqi), narx shakli (transfer yoki bozor narxi) hamda javobgarlik markazlari kesimida ma’lumotlarni shakllantirish imkonini berdi. Natijada mahsulot harakati va ichki aylanma operatsiyalarini to‘liq aks ettirish ta’minlandi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan 9021, 9022, 9121 va 9122 ishchi schyotlar tizimi amaliyotga joriy etilganda daromad va xarajatlarni ichki va tashqi bozorlar kesimida aniq ajratish imkoniyati yaratildi. Bu esa segmentlar rentabelligini baholashda yuqori aniqlikni ta’minladi.

[7] International Financial Reporting Standard 8 (IFRS 8) “Operating Segments”.
[8] OECD Transfer Pricing Guidelines for Multinational Enterprises and Tax Administrations, 2022.

Transfer narx mexanizmini joriy etish natijasida segmentlararo operatsiyalar iqtisodiy mazmuniga mos ravishda aks ettirildi. Shu bilan birga, ichki foyda ko‘rsatkichlarini alohida hisobga olish va keyinchalik ularni konsolidatsiya jarayonida eliminatsiya qilish orqali umumiy moliyaviy natijalarning haqqoniyligi ta’minlandi. Mazkur yondashuv IFRS 8 talablariga mos keladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, savdo korxonalarida segmentlararo operatsiyalarni amaldagi buxgalteriya hisobi tizimida to‘liq va aniq aks ettirish imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, bu holat segmentlar kesimida moliyaviy natijalarni shakllantirishda muayyan noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, ichki aylanma va transfer narx asosida shakllangan daromadlarning yetarli darajada ajratilmasligi segment rentabelligini baholashda xatoliklarni keltirib chiqaradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan 5 darajali iyerarxik analitik hisob tizimi hamda yangi ishchi schyotlar (9021, 9022, 9121, 9122) savdo operatsiyalarini ichki va tashqi bozorlar kesimida aniq aks ettirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv segmentlar bo‘yicha daromad va xarajatlarni to‘liq shakllantirish, ularning o‘zaro taqqoslanishini ta’minlash hamda moliyaviy natijalarni chuqur tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Segmentlararo transfer narx mexanizmini joriy etish ichki iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, javobgarlik markazlari faoliyatini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki foydani alohida hisobga olish va konsolidatsiya jarayonida eliminatsiya qilish orqali umumiy moliyaviy natijalarning haqqoniyligi ta’minlanadi.

YO‘LOVCHILAR BOJXONA NAZORATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Sobirov Jamshidbek
Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini tashkil etish boshqarmasi bosh inspektori,

Annotatsiya. Ushbu maqolada yo‘lovchilar bojxona nazorati jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari tahlil qilingan. Xususan, yo‘lovchilar bojxona deklaratsiyasini elektron shaklda rasmiylashtirish, mobil ilovalar orqali deklaratsiya taqdim etish hamda nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida zamonaviy axborot tizimlari, elektron deklaratsiya va mobil texnologiyalarning bojxona nazoratidagi ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Statistik ma’lumotlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida raqamli texnologiyalarni joriy etish bojxona nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: bojxona nazorati, yo‘lovchilar oqimi, raqamli texnologiyalar, mobil ilova, elektron deklaratsiya, axborot tizimlari, bojxona rasmiylashtiruvi, raqamlashtirish.

Аннотация. В данной статье анализируется использование цифровых технологий в процессе таможенного контроля пассажиров. Рассматриваются вопросы внедрения электронного декларирования, использования мобильных приложений для подачи пассажирской таможенной декларации, а также автоматизации процессов таможенного контроля. На основе нормативно-правовых актов и научных источников обоснована роль цифровых технологий в повышении эффективности таможенного контроля.

Ключевые слова: таможенный контроль, пассажиропоток, цифровые технологии, мобильное приложение, электронное декларирование, информационные системы.

Abstract. This article analyzes the use of digital technologies in passenger customs control. Particular attention is paid to electronic declaration systems, mobile applications for submitting passenger customs declarations and the automation of customs control processes. Based on legal acts and scientific sources, the importance of digital technologies in improving customs control efficiency is substantiated.

Keywords: customs control, passenger flow, digital technologies, mobile application, electronic declaration, information systems.

Kirish. So‘nggi yillarda chegara o‘tkazish punktlari orqali harakatlanayotgan yo‘lovchilar soni sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu esa bojxona nazoratini samarali tashkil etish, nazorat jarayonlarini soddalashtirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishni talab etadi.

Bojxona organlari faoliyatini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasida bojxona tizimini modernizatsiya qilish hamda axborot texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Xususan, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “**Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida**”gi PF-57-son Farmonining 7-bandida**, 2025-yil 1- noyabrdan boshlab o‘tkazish punktlari orqali harakatlanayotgan yo‘lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida **yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasining mobil ilovasini amaliyotga joriy etish** vazifasi belgilangan.

Mazkur topshiriq ijrosi doirasida yo‘lovchilar tomonidan bojxona deklaratsiyasini mobil qurilmalar orqali to‘ldirish va bojxona organlariga elektron shaklda taqdim etish imkonini beruvchi mobil ilova ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Hozirda mazkur ilovani Play Market hamda App Store dan “Yo‘lovchi deklaratsiyasi” nomi bilan topish mumkin.

Yo‘lovchilar bojxona nazoratida raqamli texnologiyalarning ahamiyati. Raqamli texnologiyalar bojxona nazoratini tashkil etish jarayonini modernizatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Xususan, elektron yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasi tizimi yo‘lovchilar tomonidan olib o‘tilayotgan tovarlar, ayniqsa mobil qurilmalar va valyutalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oldindan taqdim etish imkonini yaratadi.

Mobil ilova orqali deklaratsiyani to‘ldirish jarayoni yo‘lovchilar uchun qulaylik yaratib, bojxona nazoratidan o‘tish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.

Shuningdek, bojxona organlari tomonidan ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Mazkur tizimni takomillashtirish maqsadida Adliya Vazirligidan 2014-yil 5 avgustda 2606-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan **“Yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasini to‘ldirish va rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”ga 2026-yil 28-fevral kuni tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.**

Mazkur o‘zgartirishlarga ko‘ra, yo‘lovchilar bojxona deklaratsiyasini elektron shaklda, jumladan mobil ilova orqali taqdim etish tartibi belgilandi hamda bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etishning natijalari. Yo‘lovchilar bojxona nazoratida raqamli texnologiyalarni qo‘llash quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Bojxona nazoratidan o‘tish vaqtining qisqarishi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish yo‘lovchilar bojxona nazoratidan o‘tish jarayonini tezlashtiradi. Xususan, yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasini mobil ilova orqali oldindan to‘ldirish va elektron shaklda taqdim etish imkoniyati bojxona postlarida hujjatlarni qo‘lda rasmiylashtirish zaruratini kamaytiradi. Natijada bojxona xodimlari ma’lumotlarni tezkor tekshirishi va yo‘lovchilar oqimini samarali boshqarishi mumkin bo‘ladi.

2. Yo‘lovchilar uchun qulayliklarning yaratilishi. Mobil ilova va elektron deklaratsiya tizimlari yo‘lovchilarga bojxona rasmiylashtiruvi jarayonini masofadan turib amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa bojxona postlarida deklaratsiya to‘ldirish uchun sarflanadigan vaqtni kamaytiradi hamda yo‘lovchilarga qulay va sodda xizmat ko‘rsatish tizimini shakllantiradi.

3. Bojxona rasmiylashtiruvi jarayonining soddalashtirilishi. Raqamli texnologiyalar bojxona rasmiylashtiruvi jarayonidagi ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirishga xizmat qiladi. Elektron tizimlar orqali deklaratsiya ma’lumotlari avtomatik ravishda bojxona axborot tizimlariga uzatiladi va qayta ishlanadi, bu esa hujjatlarni qo‘lda rasmiylashtirish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi.

4. Ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash imkoniyatining oshishi. Elektron axborot tizimlari orqali yo‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar qisqa vaqt ichida qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. Bu bojxona organlariga nazorat jarayonida zarur ma’lumotlarni tezkor tekshirish hamda tegishli qarorlarni tezroq qabul qilish imkonini beradi.

5. Nazorat jarayonining shaffofligi va samaradorligining ortishi. Sohani raqamlashtirish bojxona nazoratining shaffofligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Elektron tizimlar orqali barcha ma’lumotlar avtomatik tarzda qayd etilishi nazorat jarayonini tizimli tashkil etish, inson omilining ta’sirini kamaytirish hamda bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Yo‘lovchilar bojxona nazoratida raqamli texnologiyalarni joriy etish bojxona organlari faoliyatini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, yo‘lovchi bojxona deklaratsiyasining mobil ilovasini joriy etish yo‘lovchilar uchun qulaylik yaratish, bojxona rasmiylashtiruvi jarayonini tezlashtirish hamda nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida bojxona tizimini yanada raqamlashtirish orqali chegara o‘tkazish punktlarida nazorat jarayonlarini optimallashtirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish mumkin.

TASHQI SAVDO HAJMINING OSHISHIDA BOJXONA NAZORATI HAMDA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINING O‘RNI

Berdiyev Abbos

Bojxona qo‘mitasi “Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini tashkil etish” boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi xalqaro savdo munosabatlarining jadal rivojlanishiga olib kelmoqda. Xalqaro savdoning kengayishi davlatlar iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Shu bilan birga, tashqi savdo operatsiyalari hajmining ortishi davlat chegaralari orqali harakatlanuvchi tovarlar va transport vositalari sonining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayonlar esa bojxona organlari faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etishni talab etadi.

Xususan, 2021-yilga nisbatan kunlik o‘rtacha harakat avtotransportlarda 3 barobarga ortib, 11,4 mingta tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich temir yo‘l transportida 15 foizga oshib, 2,3 mingtani tashkil etmoqda.

Hozirgi kunda respublikaga kirib kelayotgan tashqi savdo yuklarining 64 foizi temir yo‘l transporti orqali, 35 foizi avtomobil transporti hamda qolgan 1 foizi esa aviatsiya va daryo transporti orqali tashilmoqda.

Mazkur raqamlardan ko‘rinib turibdiki, tashuvlarning asosiy qismi temir yo‘l transportida tashilayotgan bo‘lib, ular respublikaning turli chegara hududlarida joylashgan 15 ta temir yo‘l o‘tkazish punktlari orqali olib o‘tilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududi orqali o‘tuvchi transport koridorlarining rivojlanayotganligi va yangi temir yo‘llari qurilishi bo‘yicha istiqbolli loyihalar (“Xitoy–

Qirg‘iziston–O‘zbekiston”-2030-yilgacha, “Samarqand-Urgut”-2026 — yilgacha, “Navoiy-Buxoro 2-yo‘l”-2026-yilgacha, “Darbaza–Maktaraal-Sirdaryo”-2027-yilgacha) amalga oshirilayotganligi hisobiga tashiladigan yuklar hajmi kelgusi yillarda yanada ortishi kutilmoqda.

Bu esa o‘z navbatida temir yo‘lda tashiladigan tovarlar ustidan bojxona nazoratini ta’minlashda axborot tizimlarini takomillashtirish, zamonaviy texnik vositalarni qo‘llash orqali ayrim jarayonlarni raqamlashtirish hamda inson omilini qisqartirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rishni taqozo etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, temir yo‘l tashuvida hujjatlarni elektron shaklga o‘tkazish, o‘zaro ma’lumotlar almashish, bojxona tartib taomillarini takomillashtirish hamda zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash choralari bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

2024-2025-yillarda amalga oshirilgan ishlar:

1. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, jarayonlarni o‘zaro raqamli integratsiya qilish va tovarlarni nazoratdan o‘tkazishdagi muddatlar hamda xodimlarning vazifalari aniq ko‘rsatilgan holdagi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha texnologik yo‘riqnoma imzolandi;

2. Temir yo‘ldagi 7 ta chegara bojxona postlariga 8 dona elektron tarozilar o‘rnatilib, chegaradan olib o‘tilayotgan tovarlarning 90 foizi bo‘yicha vazn ko‘rsatgichlari nazoratga olindi;

3. Inspeksion-ko‘rik majmualaridan (IKM) foydalangan holda bojxona nazoratini amalga oshirish bo‘yicha “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bilan idoralararo hamkorlik tartibi yangilandi hamda IKM yordamida olingan rangli tasvirlardan foydalanib, barcha bojxona rasmiylashtiruvchi xodimlarga tasvirlarni tahlil qilish imkoniyati yaratildi;

4. Qozog‘iston davlatidan olib kelinayotgan tovarlarga Qozog‘iston temir yo‘l idorasi tomonidan rasmiylashtirilayotgan temir yo‘l yuk xati ma’lumotlarini elektron shaklda oldindan olish yo‘lga qo‘yildi;

5. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bilan 22 ta yo‘nalishdagi “Idoralararo elektron axborot almashinuvi to‘g‘risida” texnologik yo‘riqnoma imzolandi.

Mazkur texnologik yo‘riqnomada quyidagilar nazarda tutilgan:

- tovarlarning eksport-import jarayonidagi bosqichlar (hujjatlarni topshirish va qabul qilish, yetkazib berish muddatlarini uzaytirish bo‘yicha elektron murojaat qilish, bojxona nazorati yakunlanganligi bo‘yicha qaydlar) raqamlashtirildi;

- temir yo‘l vagonlarini respublika bo‘ylab harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar onlayn olinishi yo‘lga qo‘yildi;

- manzil stansiyasiga yetkazilgan vagonlar bo‘yicha ma’lumotlarni olish va ularni joylashtirishga ruxsat berilgan hududlar to‘g‘risida ma’lum qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Buning natijasida, temir yo‘l vagonlari harakatini tezkor kuzatib borish, manzil bojxona postlarida ish hajmini oldindan rejalashtirish, tovarlarni bojxona organi ruxsatisiz ishlatib yuborish holatlarini oldini olish imkoniyati yaratildi.

Mavjud muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha takliflar:

1. Temir yo‘l tarkiblarini chegarada uzoq muddat qolib ketishini oldini olish maqsadida chegarada vagonlarni yoppasiga ko‘zdan kechirish amaliyotidan voz kechib, ularni xavf topshirig‘i asosida tanlab tekshirish tartibini yo‘lga qo‘yish;

2. Tadbirkorlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish va eksport tovarlarining bojxona rasmiylashtiruvini yanada soddalashtirish maqsadida yo‘lga qo‘yilgan “Eksport uch qadamda” tizimini temir yo‘l transportida ham joriy etish;

3. Temir yo‘l chegara bojxona postlarida tranzit deklaratsiyalar rasmiylashtiruv vaqtini qisqartirish maqsadida ularni avtomatik tarzda rasmiylashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

4. Temir yo‘l chegara bojxona postlari orqali harakatlanayotgan transport vositalarning olib o‘tilishi nazoratini ta’minlash uchun yo‘lga qo‘yilgan “transport nazorati” tizimida inson omilini kamaytirish maqsadida vagon raqamlarini avtomatik qayd etish qurilmalarini o‘rnatish;

Ma’lumot uchun, Bojxona kodeksiga muvofiq tijorat maqsadidagi xorijiy transport vositalarining bojxona to‘lovlaridan shartli ozod etilgan holda respublika hududida bo‘lish muddati 90 kalendar kunidan oshmasligi, ushbu talabga rioya qilinmagan taqdirda davriy to‘lovlar to‘lanishi belgilangan.

Mazkur talabdan kelib chiqqan holda, tijorat maqsadidagi temir yo‘l transport vositalarini olib kirilishi va olib chiqilishining hisobini yuritish lozim bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, tashqi savdo hajmining oshishi va chegaralarda transport oqimining ko‘payishi iqtisodiy rivojlanishning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Biroq bu jarayon samarali boshqarilishi uchun chegara infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika tizimini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI AUDITINING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

Djumanov Saitmurod Alimbekovich
TDIU, “Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrasi PhD., dosenti
Keldibekova Munisa
TDIU, Buxgalteriya hisobi fakulteti talabasi

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri hisobga olish va ularning shakllanish jarayonini nazorat qilish korxonalar faoliyatining samaradorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Xarajatlar tarkibi, ularning tasnifi,

baholanishi va moliyaviy natijalarga ta’siri korxonaning raqobatbardoshligi, rentabelligi va ichki boshqaruv qarorlarining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ishlab chiqarish xarajatlari auditini me’yoriy tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarning mavjudligi va ularga qat’iy rioya etish korxonalar faoliyatining shaffofligi va moliyaviy hisob kitoblarning ishonchliligi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va ularni auditdan o‘tkazish jarayoni bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlangan milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS), xalqaro audit standartlari hamda soliq va moliya bo‘yicha amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinadi. Ushbu huquqiy baza xarajatlarning shakllanishi, ularni hujjatlashtirish, tasdiqlash, audit tartibi va auditorlik xulosasini tayyorlash jarayonlarida yagona yondashuvni ta’minlaydi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, ishlab chiqarish xarajatlari auditini to‘g‘ri tashkil etish korxonada moliyaviy intizomni mustahkamlaydi, noqonuniy xarajatlarning oldini oladi, tannarxni shakllantirishda aniqlikni oshiradi va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilaydi. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlari auditining normativ-huquqiy asoslarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Auditorlik tashkilotlari mijozlarni auditdan o‘tkazishda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga tayanishi lozim. O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni quyidagicha tasniflash mumkin (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar

Bugungi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan majburiy auditdan o‘tadigan tashkilotlarda audit xalqaro standartlar asosida amalga oshirilmoqda.

“Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 35-moddasiga ko‘ra, “Quyidagi tashkilotlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishi lozim: aksiyadorlik jamiyatlari; banklar va boshqa kredit tashkilotlari; sug‘urta tashkilotlari; qishloq xo‘jaligi kooperativlari; investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini jamlovchi boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilari; manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ajratmalaridan iborat bo‘lgan xayriya, jamoat fondlari va boshqa fondlar; ustav fondida (ustav kapitalida) davlatga tegishli ulushga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va davlat unitar korxonalari; birjalar; hisobot yili yakunlariga ko‘ra quyidagi shartlardan bir vaqtning

o‘zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari: aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravari miqdoridan ortiq, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ming baravari miqdoridan ortiq, xodimlarining o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiq bo‘lsa”.

Demak, qonunning 35-moddasi 10-xatboshisi talablariga javob beradigan tijorat tashkilotlari ham majburiy auditdan o‘tkaziladi.

Majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazishi mumkin bo‘lgan auditorlik tashkilotlari:

- shtatida kamida ketma-ket uch yillik uzluksiz ish stajiga yoki xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo‘lgan kamida ikki nafar auditorning mavjudligi;
- auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazish natijalariga ko‘ra, auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishi hollari mavjud emasligi.

Auditorlar axloq kodeksiga muvofiq professional axloq tamoyillari, tahdidlar va ehtiyot choralariga amal qilishlari lozim.

Axloq kodeksining fundamental tamoyillari quyidagi tamoyillarni o‘z ichiga oladi.

Halollik tamoyili quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- professional buxgalter barcha professional hamda biznesga oid munosabatlarda ochiq va halol bo‘lishi shart;

- buning uchun professional buxgalter moliyaviy hisobotlar, hisob-kitoblar, yozishmalar hamda boshqa axborotlar bilan aloqador bo‘lmasligi kerak, agar ular:

muhim darajada noto‘g‘ri hamda chalg‘ituvchi axborotni o‘z ichiga olsa;

beparvolik bilan taqdim etilayotgan axborotni o‘z ichiga olsa;

tushirib qoldirilishi yoki buzib ko‘rsatilishi foydalanuvchini chalg‘itishga sabab bo‘ladigan axborotni o‘z ichiga olsa.

Xolislik tamoyili bo‘yicha: professional buxgalter oldindan belgilangan nomaqbul maqsad, manfaatlar to‘qnashuvi yoki boshqa shaxslarning nomaqbul ta’siri o‘zining professional va biznesga oid fikr-mulohazalarini o‘zgartirishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Professional malakalilik va yetarlicha e’tiborli bo‘lish tamoyili quyidagi tamoyillarni o‘z ichiga oladi:

professional buxgalter ish beruvchi yoki mijozga malakali professional xizmatlarni ko‘rsatish uchun yetarli bo‘lgan bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lishi va uni saqlab turishi shart;

shuningdek professional buxgalter tirishqoqlik bilan hamda belgilangan texnik va professional standartlarga rioya qilgan holda harakat qilishi zarur;

yetarlicha e’tiborli bo‘lish professional buxgalterga kelishuv talablariga muvofiq holda, ehtiyotkorlik bilan, puxta va o‘z vaqtida harakat qilish majburiyatini yuklaydi.

Maxfiylik tamoyili quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- professional buxgalter professional yoki biznesga oid munosabatlarda qo‘lga kiritilgan axborotning maxfiyligiga rioya qilishi shart;

- professional buxgalter axborot egasining ruxsatisiz, yoki qonunchilik hujjatlari unga axborotni oshkor qilish yuzasidan huquq yoki majburiyat belgalagan hollardan boshqa holatlarda qo‘lga kiritilgan axborotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmasligi shart;

- professional buxgalter maxfiy axborotni shaxsiy manfaatlari yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo‘lida foydalanmasligi shart.

Professional xulq tamoyili bo‘yicha: professional buxgalter o‘z faoliyatida qonunlar va boshqa tartibga soluvchi hujjatlarga qat’iy rioya qilishi hamda o‘z kasbini obro‘sizlantiruvchi har qanday qilmishdan qochishi shart.

Auditorlik tashkilotlari o‘z mijozlariga, audit xizmati ko‘rsatayotganda fundamental tamoyillarga tayanishi lozim.

Ishlab chiqarish xarajatlari auditi korxonaning moliyaviy intizomini mustahkamlash, xarajatlarning qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish hamda tannarx shakllanishining haqqoniyligini ta’minlashда muhim o’rin tutadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish, avvalo, uni tartibga solib turuvchi normativ-huquqiy bazara tayanadi. O‘zbekiston Respublikasida auditning asosiy me’yoriy manbalari — “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”ги Qonun, Auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi Qonun, Milliy buxgalteriya hisobi standartlari, Soliq kodeksi ва Xalqaro audit standartlari audit jarayonida yagona yondashuvni ta’minlaydi.

Mazkur normativ-huquqiy asoslar ishlab chiqarish xarajatлapining hujjatlashtirilishi, tasnifi, baholanishi ва ular yuzasidan auditorlik tekshiruvini o‘tkazish tartibini aniq belgilaydi. Natijada auditor korxona xarajatlarining to‘g‘riligi, iqtisodiy mohiyatra mosligi ва moliyaviy hisobotning ishonchliligiga baho berish imkoniga ega bo‘ladi.

Umuman olganda, ishlab chiqarish xarajatlari auditining mustahkam normativ-huquqiy bazara ega bo’lishi korxonalar faoliyatining shaffofligi, tannarx hisobi samaradorligi ва boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur yo‘nalishda standartlar ва qonunchilik talablariga qat’iy rioya etish audit natijalarining aniqligi va samaradorligini ta’minlovchi muhim omildir.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF PUBLIC FINANCIAL CONTROL AND STRENGTHENING BUDGET DISCIPLINE

Ergashev Giyos Bakhrom ugli
Tashkent University of Economics and Technologies
Department of Economics Doctor of Philosophy, Associate Professor

Abstract. This scientific article examines the theoretical and practical aspects of improving the system of public financial control and strengthening budget discipline. The study analyzes the economic essence, functions, current challenges, and development directions of financial control. Special attention is given to digitalization, transparency, and anti-corruption mechanisms. Based on the findings, recommendations are proposed to enhance the efficiency of public financial management.

Keywords. public financial control, budget discipline, audit, transparency, corruption, digitalization

Introduction

The state financial control system, in modern economic conditions, plays a crucial role in ensuring the country's financial stability by improving state financial oversight and strengthening budget discipline. The significance of this process is determined by the following factors: The state budget as a financial instrument of economic policy. The state budget is not only a tool for allocating funds but also the main financial mechanism for implementing the country's economic policy. "Every soum of the budget must serve the interests of the people," emphasizes our President Shavkat Mirziyoyev. This statement reflects the priority importance of efficiency, transparency, and accountability principles in managing state finances.[1]

Budjet orqali davlat o‘zining makroiqtisodiy strategiyasini, ijtimoiy himoya dasturlarini va iqtisodiy rivojlanish loyihalarini moliyalashtiradi. Zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy nazorat quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: Resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash – davlat mablag‘lari va boshqa resurslarning belgilangan maqsadga muvofiq ishlatilishi nazorat qilinadi. Budjet intizomini mustahkamlash – daromad va xarajatlarning qonunchilik va moliyaviy rejalarga muvofiqligi tekshiriladi. Bu, o‘z navbatida, moliyaviy barqarorlikni saqlash va iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Literature review

Issues of state financial control have been studied by numerous economists. In international practice, financial control is considered a crucial element of public administration. The main interpretations of financial control can be summarized as follows: a system of oversight over the use of state resources, which views financial control as the monitoring of the efficient and purposeful use of state funds and other

resources. Its primary objective is to ensure that resources are spent in the right place and in the appropriate amount. As a means of ensuring budget discipline, financial control is also seen as a tool to verify that budget funds are used in accordance with plans and legislation. Budget discipline implies compliance of revenues and expenditures, proper allocation of expenses, and adherence to financial plans. Another important function of financial control is the anti-corruption mechanism, which aims to prevent illegal and corrupt activities related to funds. This enhances the transparency and accountability of the state financial system. International organizations, particularly INTOSAI standards, emphasize independence, transparency, accountability as the fundamental principles of financial control. [2]

Methods

This study relies on several scientific and methodological approaches in examining the state financial control system. Each of these approaches contributes to ensuring the reliability of the research results and their practical significance. The systematic approach allows the financial control system to be studied as a whole, taking into account the interconnections and interactions between its constituent parts. State financial control is not limited to individual inspections but is analyzed as a system encompassing budget processes, oversight bodies, legal mechanisms, and socio-economic impacts. This approach makes it possible to identify the system's effectiveness, as well as its strengths and weaknesses.

Comparative analysis, also known as the comparative method, was employed in this study to compare experiences across different periods, regions, or countries. For instance, effective forms of budget discipline and financial control are compared with practices in other countries, providing a foundation for improving our national system. Through the method of statistical generalization, existing financial data – such as budget execution, control inspections, allocation of funds, and other indicators – are analyzed numerically to identify overall trends. Statistics allow for the measurement of the system's effectiveness, the level of budget discipline, and the actual state of financial control. [3]

Results

State financial control is a system for overseeing the formation, allocation, and expenditure of state budget funds. Its main functions include:

- Ensuring legality
- Increasing efficiency
- Strengthening financial discipline

The analyses indicate the existence of the following problems:

- Inefficient use of financial resources
- Insufficiently developed control system
- Occurrence of corruption

- Inadequate use of information technologies

Factors for Improving State Financial Control [4]



Discussion

The obtained results indicate that strengthening state financial control has a direct impact on increasing economic efficiency. An effective system of financial control ensures the purposeful use of funds and contributes to maintaining the stability of economic processes. In particular, the rational allocation of budget funds and the implementation of expenditures in accordance with planned targets play a significant role in achieving the state's social and economic objectives.

Modern digitalization processes further enhance the effectiveness of this system, as they reduce the human factor and minimize errors in financial operations, as well as corruption risks. Digital monitoring and electronic control systems enable real-time tracking of funds, thereby increasing transparency and improving the efficiency of oversight.

At the same time, the introduction of international best practices plays an important role in improving the national system of financial control. In developed countries, the independence of the audit system is ensured at a high level, which increases the objectivity and reliability of financial control. By adopting such practices, it is possible to further strengthen the national system and make control processes more transparent and efficient. [5]

Conclusion

Improving the state financial control system and strengthening budget discipline are among the key factors in ensuring economic stability. The following proposals are put forward: In modern economic conditions, enhancing the system of state financial control and reinforcing budget discipline is one of the most important tasks for ensuring the

country’s economic stability and promoting the efficient use of financial resources. Studies show that the state budget is not only a tool for allocating funds but also the main financial instrument for implementing the country’s macroeconomic policy. Therefore, the effective management of budget funds plays a decisive role in ensuring economic stability, social protection, and sustainable growth.

The concept of financial control is explained in scientific sources through several key interpretations. The first interpretation views it as a mechanism for controlling the use of state resources, aimed at ensuring that funds are used efficiently and for their intended purposes. The second interpretation highlights the role of financial control as a means of ensuring budget discipline. Budget discipline includes monitoring the compliance of revenues and expenditures with plans and legislation, as well as ensuring transparency in financial processes. Thirdly, financial control is also significant as an anti-corruption mechanism. It helps prevent the misuse of funds, particularly corrupt practices, and strengthens the accountability of the state financial system. Thus, the financial control system should be considered not only as a tool for monitoring funds but also as a strategic mechanism for ensuring economic and social stability.

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA NOTARIF CHORALAR BO‘YICHA TO‘LOVLAR SHAFFOFLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Muzaffarov Azimjon Ashraf o‘g‘li,
Bojxona instituti mustaqil izlanuvchisi

O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish borasidagi intilishlari tashqi savdo ma’murchiligini tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. JSTning “Savdoni soddalashtirish to‘g‘risida”gi bitimi talablariga ko‘ra, davlat organlari tomonidan undiriladigan barcha yig‘im va to‘lovlar haqidagi ma’lumotlar ochiq va shaffof bo‘lishi shart. Notarif choralarni (sertifikatlash, ekspertiza, litsenziyalash) qo‘llashda xizmatlar narxining shaffofligi nafaqat biznes muhitini yaxshilaydi, balki mamlakatning investitsion jozibadorligini ham oshiradi.

Hozirgi kunda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya, texnik tartibga solish va boshqa shu kabi sohalarda o‘nlab vakolatli organlar bilan hamkorlik qiladi. Biroq, amaliyotda quyidagi muammolar kuzatilishi mumkin:

- Axborotning tarqoqligi: xizmatlar uchun to‘lov stavkalari turli idoralarning ichki buyruqlari bilan belgilangan bo‘lib, ularni yagona manbadan topish qiyin.
- Kutilmagan xarajatlar: tadbirkorlar uchun xizmat ko‘rsatish muddati va qo‘shimcha ekspertiza xarajatlari oldindan hisob-kitob qilinishi murakkab.

- Tadbirkorlar import tovarlarga qancha miqdorda yig‘im to‘lashi yoki sertifikatlash qancha muddatni talab etishi bo‘yicha oldindan hisob-kitob qilish imkoniyatining mavjud emasligi.

Xalqaro amaliyot o‘rganilganda (Turkiya, Latviya) mahsulot turi bo‘yicha o‘tkaziladigan tadqiqotlar, har bir tadqiqot narxi, usuli, o‘rganishning eng uzoq muddati va talab etiladigan mahsulotning eng kam miqdori rasmiy veb saytlarda ochiq e’lon qilinishi ma’lum bo‘ldi.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrdagi PF-250-son Farmonida 2026-yil 1-martdan boshlab, vakolatli idoralarning ko‘rsatiladigan xizmatlari uchun yig‘imlar (to‘lovlar) miqdori va kalkulyatsiyasini “Yagona darcha” axborot tizimida e’lon qilib borish shaffof mexanizmi joriy etilishi belgilab berildi.

Mazkur o‘zgartirishlar ortiqcha xizmatlar va to‘lovlar qisqarishiga, sog‘lom raqobat muhiti yaratilishiga hamda biznes xarajatlarini oldindan rejalashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda, “Yagona darcha” bojxona axborot tizimi orqali 11 ta davlat nazorati organlarining 42 ta sertifikat va ruxsatnoma hujjatlari rasmiylashtiruvi amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi.

Hozirga qadar tizim orqali 3,8 mln.ta sertifikat va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar rasmiylashtirildi *(131 mingdan ortiq foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan).*

2020 йил	2021 йил	2022 йил	2023 йил	2024 йил	2025 йил	2026 йил январь-февраль
575 807	**566 939**	**532 429**	**682 698**	**672 631**	**684 965**	**104 212**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tovarlarga Tovarlarga notarif choralarni qo‘llash mexanizmini boshqarish samaradorligini oshirish hamda davlat idoralarida moliyaviy shaffoflikni ta’minlash maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish davr talabi bo‘lmoqda:

- vakolatli davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan barcha xizmatlar uchun to‘lovlar miqdori va ularning iqtisodiy asoslangan kalkulyatsiyasini “Yagona darcha” tizimida to‘liq e’lon qilishni yakunlash;

- “Yagona darcha” bojxona axborot tizimining imkoniyatlarini kengaytirish hamda tizimda axborot va maslahat xizmatlari sun’iy intellekt vositasida ko‘rsatilishini yo‘lga qo‘yish;

-Barcha vakolatli idoralar o‘rtasida ma’lumotlar integratsiyasini kuchaytirish orqali axborotning yagona bazasini shakllantirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi tashqi savdo ma’murchiligini soddalashtirish, biznes muhitini yaxshilash, davlat organlarida moliyaviy shaffoflikni

ta’minlash hamda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

PROSPECTS FOR DEVELOPING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS IN EDUCATION

Iboyev Sakhiddin Mansurovich
Independentresearcher,
Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan

The transition toward a knowledge-based economy has significantly increased the strategic importance of education systems worldwide. Education is no longer viewed solely as a social service but as a critical driver of economic growth, innovation, and competitiveness. However, many countries—particularly developing economies—face persistent challenges in financing, managing, and modernizing their education sectors. Public budget constraints, rapid population growth, and the need for technological transformation have exposed structural inefficiencies in traditional state-led education models.

In this context, Public–Private Partnerships (PPPs) have emerged as an innovative institutional and financial mechanism for addressing these challenges. PPPs enable governments to leverage private sector capital, managerial expertise, and technological capabilities to improve the accessibility, quality, and efficiency of educational services. This chapter explores the theoretical foundations, global practices, and future prospects of PPP development in education, with particular emphasis on policy implications for emerging economies such as Uzbekistan.

In the context of a global economy, the issue of effective financing of the education system is one of the priorities of state policy. Population growth, increasing demand for educational services, and limited budget resources require new approaches to financing education. In this context, public-private partnership (PPP) mechanisms are of great importance. Through PPP, the state uses the resources and experience of the private sector to create infrastructure and provide services.

Various aspects of financing the education system in our country have been widely studied by Uzbek scientists, and important scientific conclusions have been formulated in this area. In particular, Karimova S.Sh. in her research substantiated the advantages of using public-private partnership (PPP) mechanisms in preschool educational institutions. The author notes that the introduction of the PPP mechanism allows for planning the costs of preschool educational institutions and increasing transparency in their spending. This, along with ensuring the efficiency of using financial resources, serves to improve management processes.

Another researcher, FA Murodova, who conducted scientific research in this area, focuses on the issues of improving the system of healthy nutrition of children in preschool educational institutions. In her research, she substantiates the importance of introducing an outsourcing mechanism, showing that this approach can improve the quality of services and optimize costs. This creates the basis for the formation of effective models of service provision within the framework of PPP.

The research conducted by H. Dostmuhammad deeply analyzed the issues of increasing the efficiency of financing public education. The author puts forward the following important principles: firstly, it is necessary not to limit the use of budget funds in order to achieve full coverage of school education; secondly, it is necessary to abandon the norms that make financing from extra-budgetary funds mandatory in educational institutions; thirdly, it is necessary to prevent the commercialization of school education; fourthly, it is important to switch to principles that reflect final results, rather than intermediate goals, in the financing system. These approaches serve to increase the efficiency of the education system while maintaining its social orientation. It is observed that the results of this research partially coincide with the ideas put forward by Dostmuhammad.

The issues of financing the preschool education system have also been studied as a separate object of research by scientists from the CIS countries. In particular, N. Fedina identifies four main criteria for assessing the effectiveness of the preschool education system. According to her, firstly, providing education on the basis of state guarantees, taking into account the population's demand for preschool education services; secondly, creating the necessary conditions for the implementation of the educational process and related expenses; thirdly, developing human resources; fourthly, budget financing and effective organization of financial and economic activities are important.

Compared with the criteria proposed by Fedina, it is observed that the volume of financing of the preschool education system in Uzbekistan has increased significantly in recent years. However, it is revealed that there are still untapped opportunities in the areas of developing human resources, wide implementation of scientific and educational innovations, and improving the quality of educational services. This indicates the need to further improve financing mechanisms.

In general, the results of the above scientific research show that, although the state budget remains the main source of financing the education system, the widespread introduction of modern approaches, in particular, public-private partnership mechanisms, is of great importance. The results of this study complement and develop the conclusions put forward in previous scientific works. In particular, the need to ensure the long-term sustainability and competitiveness of the system by increasing the efficiency of financing the education system, supporting science and innovation, and expanding the participation of the private sector is substantiated.

Table 1

Models of PPPs in Education

Model	Description	Key Advantage
Build-Operate-Transfer (BOT)	Private sector builds and operates facilities, then transfers ownership to the government	Mobilizes capital investment
Service Contracts	Private entities deliver specific services (e.g., catering, IT, maintenance)	Enhances operational efficiency
Voucher Systems	Government funds students, but services are delivered by private providers	Increases choice and competition
Management Contracts	Private sector manages public schools	Improves governance and performance

PPPs in education can be implemented through various models depending on the scope of private sector involvement and the allocation of responsibilities. One of the most widely used models is the Build–Operate–Transfer (BOT) arrangement, where private entities finance, construct, and operate educational infrastructure for a specified period before transferring ownership to the government. This model is particularly effective in addressing infrastructure deficits.Another common approach is the management contract model, under which private organizations are responsible for the administration and operation of public schools. This model aims to improve governance, enhance efficiency, and introduce innovative teaching practices without transferring ownership of assets. The voucher system represents a demand-side financing mechanism, where governments provide funding directly to students, allowing them to choose between public and private educational institutions. This model promotes competition, increases parental choice, and incentivizes quality improvement. In addition, service contracts involve private sector participation in non-core educational services such as transportation, catering, maintenance, and digital platform provision. These arrangements allow governments to focus on core educational functions while benefiting from private sector efficiency. The selection of an appropriate PPP model depends on country-specific factors, including institutional capacity, regulatory frameworks, and socio-economic conditions.

Public-private partnership (PPP) financing mechanisms in education are a set of financial instruments aimed at developing educational infrastructure and improving the quality of services by sharing resources, risks and revenues between the state and the private sector. These mechanisms are an important element of sustainable financing of education in a modern economy. State support mechanisms play an important role. These include capital grants, subsidies, tax breaks and minimum income guarantees. These instruments serve to reduce risks for private investors and attract them to educational projects. Financing based on private investments is widely used. Here, private companies

participate in the construction and management of educational institutions through their own capital or credit resources. Commercial bank loans and institutional investor funds are important sources of this process. However, the long-term and low profitability of educational projects create certain limitations for investors. The blended finance model is of particular importance. This model involves the public, private sector, and international financial institutions, including the World Bank and the Asian Development Bank, to reduce risks and increase the investment attractiveness of projects through grants, concessional loans, and guarantees.

This approach is especially relevant for developing countries. Financing through capital market instruments is also one of the promising areas. Social bonds and green bonds play an important role in the development of educational infrastructure. Social bonds attract funds for educational projects, while green bonds finance school and university projects aimed at increasing energy efficiency. This is an important tool in achieving sustainable development goals. At the same time, results-based financing mechanisms (Social Impact Bonds) are developing as an innovative approach. In this mechanism, funds invested by investors are returned only after certain results are achieved. For example, payments are made based on indicators such as an increase in student achievement or an improvement in the quality of education. This ensures the efficient use of resources.

Uzbekistan is implementing certain reforms to develop PPPs in the education sector. However, the insufficient development of financing mechanisms is limiting this process. In particular, the underdevelopment of the capital market, limited private sector activity, and insufficient risk-sharing mechanisms are the main problems. At the same time, the participation of commercial banks in the capital market remains low, which limits long-term financing opportunities. The low profitability of educational projects also serves as an obstacle for investors. As a result, the state budget remains the main source of financing.

Conclusion

Public–Private Partnerships represent a promising pathway for enhancing the efficiency, quality, and sustainability of education systems. By mobilizing private sector resources and expertise, PPPs can address critical challenges related to infrastructure, financing, and innovation. For Uzbekistan and other developing countries, the successful implementation of PPPs in education requires a comprehensive approach that combines institutional reforms, financial innovation, and effective risk management. While PPPs are not a universal solution, they offer a flexible and scalable framework for advancing educational development and strengthening human capital in the long term. In conclusion, the future of PPPs in education lies in balancing economic efficiency with social equity, ensuring that all segments of society benefit from improved educational opportunities.

BUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Yakubov San’atbek Ravshanbekovich
Ma’mun universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida budjet intizomini mustahkamlash maqsadida davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishda nazorat mexanizmlarining roli, tizimdagi mavjud kamchiliklar, raqamlashtirish imkoniyatlari hamda xalqaro standartlar asosida islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: budjet intizomi, davlat moliyaviy nazorati, nazorat mexanizmlari, raqamlashtirish, budjet mablag‘lari samaradorligi, ichki audit.

Аннотация: В данной статье в научно-практическом аспекте анализируются направления совершенствования системы государственного финансового контроля в целях укрепления бюджетной дисциплины в Республике Узбекистан. В ходе исследования рассматриваются роль механизмов контроля в повышении эффективности использования бюджетных средств, существующие недостатки системы, возможности цифровизации, а также вносятся предложения по углублению реформ на основе международных стандартов.

Ключевые слова: бюджетная дисциплина, государственный финансовый контроль, механизмы контроля, цифровизация, эффективность бюджетных средств, внутренний аудит.

Abstract: This article scientifically and practically analyzes the directions for improving the state financial control system to strengthen budget discipline in the Republic of Uzbekistan. The study examines the role of control mechanisms in increasing the efficiency of budget expenditures, existing systemic shortcomings, digitalization opportunities, and recommendations for deepening reforms based on international standards.

Keywords: budget discipline, state financial control, control mechanisms, digitalization, budget efficiency, internal audit.

Davlat moliyaviy nazoratining samarali tashkil etilishi har qanday mamlakatning fiskal barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Budjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlash iqtisodiyotning muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan bo‘lib, nazorat organlari bu jarayonda muhim o‘rin tutadi [1]. O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar sharoitida budjet intizomini mustahkamlash va moliyaviy nazorat tizimini modernizatsiya qilish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda jahonda davlat qarzlari yalpi ichki mahsulotning 93-94 foizini tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich 2029-yilga borib 100 foizdan oshib ketishi prognoz qilinmoqda [8]. Bunday sharoitda davlat budjeti xarajatlarini nazorat qilish va budjet intizomini ta’minlash global darajadagi strategik zaruriyatga aylanib bormoqda.

Budjet intizomi va moliyaviy nazorat muammolari xalqaro ilmiy hamjamiyatda keng o‘rganilgan. Jumladan, Malikov T.S. va Olimjonov O.O. (2019) o‘zlarining ilmiy ishlarida moliyaviy nazoratning budjet balansini ta’minlashdagi nazariy asoslarini batafsil yoritib, nazorat organlarining vazifalari aniq belgilanmagan hollarda budjet intizomining buzilish xavfi keskin ortishini ta’kidalab o‘tgan [2].

Xamidova Z.U. (2020) tadqiqotida budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish masalalarini o‘rganib, ichki nazorat va auditni kuchaytirish orqali tashkilotlar budjet mablag‘larini yanada samaraliroq boshqarishi va rejalashtirilgan natijalarga erishishi imkoni paydo bo‘lishini isbotlagan [1]. Muallif O‘zbekiston misolida ichki audit xizmatlarini joriy etish budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini 15-20 foizga oshirishi mumkinligini ko‘rsatib bergan.

Xalqaro miqyosda Jahon banki (2023) Xarajatlarni o‘rta muddatli rejalashtirish doirasiga bag‘ishlangan tadqiqotida fiskal intizom va resurslarni samarali taqsimlash o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil etib, o‘rta muddatli xarajatlar doiralarini joriy etish fiskal intizomga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini empirik dalillar asosida isbotlagan [7].

Sherjonov S.A. va boshqalar (2025) mahalliy budjet xarajatlarini boshqarish mexanizmi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida O‘zbekiston mahalliy budjetlarida xarajatlarni nazorat qilish tizimidagi zaifliklarni aniqlagan [3]. Shamsiddinova Sh.S. (2026) esa boshqaruv hisobi tizimida budjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish borasida muhim ilmiy-amaliy xulosalar keltirgan [4].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, budjet intizomini mustahkamlash uchun nazorat mexanizmlarini raqamlashtirish, ichki audit xizmatlarini kuchaytirish va profilaktik nazorat usullarini joriy etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi tizim bir qancha vakolatli organlarni o‘z ichiga oladi: Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari shular jumlasidandir.

2022-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan ushbu tizim tubdan isloh qilindi [5].

Hisob palatasi, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari 2022-yildan boshlab nazorat ishlarining yillik dasturlarini belgilangan ustuvor yo‘nalishlarga muvofiqlashtirishi qonun hujjatlari bilan mustahkamlab berildi [9].

Shuningdek, Davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi [10].

Biroq amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, tizimda bir qancha muammolar saqlanib qolinmoqda. Budjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlarning boshqaruvi va nazorati ko‘pincha eskirgan usullar asosida olib borilishi, nazoratning profilaktik emas, balki muammoga munosabat bildirish kabi xarakter kasb etishi va moliyaviy nazorat ma’lumotlari bazasining yaxlit tizimga integratsiya qilinmaganligi shular jumlasidandir [2].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili va ushbu sohaga oid olib borilgan boshqa tadqiqotlar asosida budjet intizomini buzuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltilirib o‘tish mumkin:

- axborot assimetriyasi bo‘yicha budjet mablag‘laridan foydalanishda real vaqt rejimida ma’lumot almashish tizimi to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli nazorat organlari ko‘p holatlarda kechiktirilgan ma’lumotlar asosida qaror qabul qilishga majbur bo‘lmoqda;

- profilaktika tizimining zaifligi natijasida nazorat ko‘pincha qonun buzilgandan so‘ng amalga oshirilib, oldini olish mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan;

- moliyaviy nazorat sohasida xalqaro sertifikatlarga ega mutaxassislar soni yetarli darajada emas;

Budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish va bu orqali inson omilini kamaytirish orqali qonun buzilish holatlarini oldini olish maqsadida davlat moliyaviy nazorati tizimini raqamlashtirish strategik yo‘nalish sifatida belgilangan [5]. Xususan, “Elektron nazoratchi-taftishchi” dasturiy mahsulotini yaratish va uni davlat organlarining dasturiy mahsulotlari bilan integratsiya qilish rejalashtirilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirilgan moliyaviy nazorat tizimlarini joriy etish budjet tizimi jarayonidagi qonun buzilish holatlarini 40-60 foizga kamaytiradi. Masalan, Estoniyada “e-Riigikassa” tizimi joriy etilgandan so‘ng budjet intizomini buzish holatlari 3 yil ichida keskin kamaygan. O‘zbekiston uchun ham shu yo‘nalishdagi islohotlarni tezlashtirish samarali natijalar beradi.

“Davlat auditi” dasturiy platformasi joriy etilishi ham muhim qadam bo‘lib, davlat moliyaviy nazorati tadbirlarida aniqlangan holatlar bo‘yicha nazorat tadbiri o‘tkazilgan tashkilotning yozma fikri besh kun muddatda ushbu platformaga joylashtirilishi nazorat jarayonining shaffofligini oshiradi [10].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish uchun quyidagi uchta ustuvor yo‘nalishga alohida e’tibor qaratish lozim:

Birinchidan profilaktik nazorat tizimini kuchaytirish. Nazorat organlari faoliyatini muammoga munosabat bildirishdan profilaktikaga o‘tkazish zarur. Buning uchun

moliyaviy xatarlarni oldindan aniqlash va baholash metodologiyasi ishlab chiqish hamda doimiy monitoring mexanizmlari joriy etilishi lozim. Budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirishni va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirishni ushbu yo‘nalishdagi asosiy vazifalar sifatida qarash lozim;

Ikkinchidan shaffoflik va jamoatchilik nazoratini oshirish. Budjet jarayonlarining shaffofligini oshirish budjet intizomini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish bo‘yicha hokimliklarning takliflari “E-qaror” elektron tizimiga jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun joylashtirilishi amalda tatbiq etilmoqda [5]. Ushbu mexanizmni kengaytirish va mustahkamlash zarur;

Uchinchidan kadrlar salohiyatini oshirish. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarni xalqaro tajriba asosida maxsus o‘quv kurslarida o‘qitish va malaka sertifikati berish tizimini joriy etish tizim sifatini tubdan yaxshilaydi [5]. 2023-yildan boshlab malaka sertifikati mavjud bo‘lmagan shaxslarni ushbu sohada ishlashiga yo‘l qo‘yilmasligi talabining joriy etilishi kadrlar salohiyatini oshirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘lganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim;

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimini isloh qilish jarayonlari jadal davom etayotgan bo‘lsa-da, budjet intizomini ta’minlashda tizimli kamchiliklar saqlanib qolinmoqda. Bunda asosiy muammolar axborot assimetriyasi, profilaktika tizimining zaifligii va kadrlar malakasining yetarli emasligi bilan bog‘liq.

Raqamlashtirish - budjet intizomini mustahkamlashning eng samarali yo‘li bo‘lib, real vaqt rejimida ma’lumotlar almashish, “Elektron nazoratchi-taftishchi” va “Davlat auditi” kabi platformalarni joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik nazorati va shaffoflik mexanizmlari budjet intizomini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi va ularni yanda kengaytirish zarur.

Kadrlar salohiyatini oshirsih, xususan xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish tizim sifatini tubdan yaxshilash imkonini beradi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar ilgari suriladi:

“Elektron nazoratchi-taftishchi” dasturiy majmuasini barcha budjet tashkilotlarida to‘liq joriy etishni yanada tezlashtirish;

Riskga-asoslangan moliyaviy nazorat metodologiyasini ishlab chiqish va uni samarali qo‘llash;

Ichki audit xizmatlarini barcha budjet tashkilotlarida mustaqil va samarali tashkil etish;

Moliyaviy nazorat sohasidagi kadrlarni xalqaro audit standartlari bo‘yicha muntazam qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;

СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИ ХАРАЖАТЛАРИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШГА ОИД ИЛМИЙ ЁНДОШУВЛАР

Хайдарова Дурдона Шухратжон қизи
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил тадқиқотчи

“Халқимизнинг эркин ва фаровон, қудратли Янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича хоҳиш-иродасини рўёбга чиқариш, ҳар бир фуқарога ўз салоҳиятини ривожлантириш учун барча имкониятларни яратиш, соғлом, билимли ва маънавий баркамол авлодни тарбиялаш, глобал ишлаб чиқаришнинг муҳим бўғинига айланган кучли иқтисодиётни шакллантириш, адолат, қонун устуворлиги, хавфсизлик ва барқарорликни кафолатли таъминлаш мақсадида Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясини амалга ошириш жараёнида орттирилган тажриба ва жамоатчилик муҳокамаси натижалари асосида ишлаб чиқилган “Ўзбекистон-2030” стратегияси тасдиқланди[9].

Жамиятнинг муҳим таянчи бўлган соғлиқни сақлаш соҳасини, хусусан тиббиёт муассасалари фаолиятини молиялаштириш соғлиқни сақлаш тизимининг самарадорлигини ошириш ва тиббий хизмат сифатини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. “Соғлиқни сақлаш соҳаси учун харажатлар катта маблағни талаб этади. Бепул тиббий хизмат бўлмайди, чунки фуқаро бепул тиббий хизмат олаётган пайтда давлат тиббий муассасалар харажатларини тўлайди. Дунёнинг жуда кўп мамлакатларида соғлиқни сақлаш харажатларини коплаш учун маблағлар жалб этиш манбаларидан бири тиббий суғурта тизими ҳисобланади. Тиббий суғурталашдан мақсад - тиббий хизмат учун сарфланиши лозим бўлган маблағларни мақсадли йўналтириш орқали аҳолига сифатли тиббий хизмат ташкил этишдир”[10].

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаган-ларидек, “Ҳаётнинг ўзи ва халқнинг талаблари бизнинг олдимизга амалий ечимини топиш лозим бўлган янги ва янада мураккаб вазифаларни қўймоқда”[11]. Ўзбекистонда ижтимоий соҳани ривожлантириш, таълим тизими ва соғлиқни сақлаш соҳасини ислоҳ қилиш ва такомиллаштириш борасида устувор йўналишлардаги вазифаларни бажаришда тиббий хизматларнинг молиявий маблағ билан таъминлашга оид харажатларнинг ижтимоий самарадорлигини оширишга эътибор қаратилади.

---

[9],Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги 158- сон Фармони. 2023 йил. 11 сентябрь.

[10]Ёдгоров М.Ф. Соғлиқни сақлаш соҳасида мажбурий тиббий суғуртанинг ўрни.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 6. ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor 2022 йил. №6. -Б.977-983. www.oriens.uz

[11]Мирзиёев Ш.М.Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б.10.

“Бугунги кунда ижтимоий соҳа тараққиёти дунё мамлакатлари барқарорлигининг муҳим бўғинига айланиб улгурди. Хусусан, кўплаб давлатларда ижтимоий соҳа харажатлари бюджет харажатларининг салмоқли қисмини ташкил қилади. Ваҳоланки, ижтимоий соҳа, жумладан, республикамизда тиббиёт муассасаларини молиялаштиришни янги усулларини жорий қилиш борасида қатор ишлар амалга оширилмоқда. Аҳоли соғлиги даражаси кўрсаткичларини барқарорлаштириш, ўртача умр кўриш даврийлигини узайтириш ҳамда якуний натижаларга бўлган меъёрларни ишлаб чиқиш айни кундаги долзарб масалаларга айланди”[12]. “Инсон капитали шакллантиришга таъсир қилувчи муҳим омиллар қаторида хизмат қилувчи соҳалар – таълим ва соғлиқни сақлаш тизими ҳисобланади. Инсон капитали, шубҳасиз, замонавий иқтисодий ўсишнинг муҳим омили ҳамда ижтимоий сиёсатнинг устувор йўналиши сифатида намоён бўлади”[13]. Шу боис тиббиёт ва таълим соҳасини молиялаштирилиши ва давлат томонидан катта эътибор берилиши иқтисодий ўсишга шароит яратилаётганлигини англатади.

Соғлиқни сақлаш тизимини молиялаштириш манбаларини уч турга ажратилади, хусусий, тиббий суғурта ва давлат бюджети маблағлари шулар жумласига киради. Шу боисдан, суғурта асосида тиббий хизматларни тақдим этишда қулайлик ва тенглик принципи асосида ҳамда иқтисодий самарадорлик нуқтаи назаридан ҳам эмас, балки ижтимоий адолат юзасидан амалга оширилади[14]. Ижтимоий барқарорлик, ҳар бир оила ва бутун халқ фаровонлигига эришиш каби умуммиллий манфаатларни ижтимоий ҳимоя қилиш ижтимоий давлатнинг пойдеворидир. Ўзбекистон Республикасида соғлиқни сақлаш соҳасини ривожлантириш ва мазкур соҳани тиббий суғурта асосида молиявий таъминотини такомиллаштириш бўйича илмий таклиф ва амалий тавсияларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эга. Ҳозирги замон иқтисодиётида суғурта институти иқтисодий барқарорлик ва хавфсизликни, бизнесни ривожлантириш, кўплаб табиий, техноген рисклардан самарали ҳимояни таъминлашда, давлатнинг ижтимоий сиёсатини амалга оширишнинг муҳим иқтисодий ҳамда самарали механизмига айланиб бўлди. Республикамизда соғлиқни сақлаш соҳасида самарали молиялаштириш механизмларини жорий этиш учун бир қатор чора-тадбирлар амалга оширилиши лозим. Биринчидан, тиббий суғурта тизимини босқичма-босқич жорий этиш, бу давлат бюджетига юкни камайтириш ва аҳолини молиявий ҳимоялаш имконини беради. Мажбурий давлат тиббий суғурта механизмини тўғри ташкил этилса, тиббий хизматлар сифатини ошириш, бюджет харажатларини оптималлаштириш мумкин. Иккинчидан, бюджет маблағларини тақсимлашда шаффофликни

[12] Мелиев А.М. Соғлиқни сақлаш тизимини давлат томонидан молиялаштиришнинг зарурияти. // Яшил иқтисодиёт ва тараққиё. 2024. №3. -Б. 1022-1026.

[13] Май В.А. Человеческий капитал: визивы для России. \\Вопросы экономики. 2012 йил. № 7. –С.114.

[14] Оганесян, А. А. (2015). Реформы здравоохранения Франции как части общественного сектора экономики. Автореферат. 2016. -С. 163.

таъминлаш, натижага йўналтирилган молиялаштириш тамойилларини жорий этиш, яъни тиббиёт муассасалари фаолиятининг самарадорлиги ва хизматлар сифатига қараб маблағлар ажратиш тизимини яратиш максадга мувофиқ бўлади.

EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETI INTIZOMI VA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Sobirova Muxlisa Sherali qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti

Globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda eksport salohiyatini oshirish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Eksport hajmining kengayishi nafaqat valyuta tushumlarini ko‘paytiradi, balki ishlab chiqarish hajmining ortishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda davlat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanish, ularning maqsadli yo‘naltirilishi va qat’iy moliyaviy intizomni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida” gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni qabul qilindi[15]. Mazkur qonunda davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining asosiy parametrlari, ustuvor yo‘nalishlari hamda fiskal siyosatning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan. Xususan, davlat xarajatlarining maqsadli yo‘naltirilishi va ularning samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. ushbu qonun eksport salohiyatini oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarning shakllanishi va taqsimlanishini tartibga soluvchi asosiy normativ asos sifatida xizmat qiladi. Budjet mablag‘larining ustuvor yo‘nalishlarga, jumladan eksportni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi ularning samarali nazorat qilinishini talab etadi. Shu bois, mazkur qonun doirasida budjet intizomini ta’minlash eksport faoliyatining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari zamonaviy islohotlarni amalga oshirish va budjet xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-100-sonli Farmoni qabul qilingan[16]. Ushbu farmon budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va qonunbuzarliklarning oldini olishga

[15] Lex.uz. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida” gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni.
[16] Lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-100-sonli Farmoni.

qaratilgan yangi mexanizmlarni joriy etishni nazarda tutadi. Xususan, moliyaviy nazoratda profilaktik yondashuvni kuchaytirish va xavf-xatarlarni oldindan aniqlash tizimi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu farmon eksportni rag‘batlantirishga ajratiladigan budjet mablag‘larining samarali ishlatilishini ta’minlashda muhim instrument hisoblanadi. Nazoratning kuchaytirilishi va shaffoflikning oshirilishi eksport faoliyatini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshiradi hamda budjet intizomini mustahkamlash orqali iqtisodiy barqarorlikni

Mazkur jarayonda davlat moliyaviy nazorati tizimi budjet mablag‘larining oqilona sarflanishini ta’minlovchi asosiy institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar eksport salohiyatini oshirish bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish, nazoratning zamonaviy va raqamli mexanizmlarini joriy etish hamda hududiy darajada moliyaviy intizomni kuchaytirish eksportni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat siyosatining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat budjeti intizomi — bu budjet mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida qonuniylik, maqsadlilik va samaradorlik tamoyillariga qat’iy rioya etilishidir[17]. Ushbu intizomni ta’minlashda davlat moliyaviy nazorati tizimi markaziy o‘rin egallaydi. Bugungi kunda eksportni rag‘batlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va infratuzilmaviy loyihalar keng qo‘llanilmoqda. Biroq mazkur mablag‘lardan samarali foydalanilmasligi, ularning noto‘g‘ri taqsimlanishi yoki nazoratning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi eksport salohiyatining to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- ❖ moliyaviy nazorat jarayonlarini raqamlashtirish va real vaqt rejimida monitoring tizimlarini joriy etish;
- ❖ ichki va tashqi audit tizimlari o‘rtasida samarali integratsiyani ta’minlash;
- ❖ budjet mablag‘laridan foydalanish natijadorligini baholashning zamonaviy usullarini joriy etish;
- ❖ moliyaviy nazorat organlarining institutsional mustaqilligini kuchaytirish.

Ayniqsa, hududiy darajada eksportni rivojlantirish dasturlarining moliyaviy ta’minoti ustidan kuchli nazorat o‘rnatish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali hududlarning mavjud resurs va imkoniyatlaridan samarali foydalanish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini oshirish mumkin.

[17] https://lex.uz/mact/-2304138. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi.

Davlat budjeti intizomi va moliyaviy nazorat tizimi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik shundan iboratki, samarali nazorat tizimi mavjud bo‘lgan sharoitda budjet intizomi mustahkamlanadi, bu esa o‘z navbatida eksportni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan mablag‘larning yuqori samaradorligini ta’minlaydi. Natijada, iqtisodiyotning eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlari barqaror rivojlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, eksport salohiyatini oshirishda davlat budjeti intizomi va moliyaviy nazorat tizimining o‘zaro bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Budjet mablag‘laridan oqilona foydalanish va ularning samaradorligini ta’minlash bevosita moliyaviy nazorat tizimining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir. Mazkur yo‘nalishda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- ✓ Davlat moliyaviy nazorati tizimini to‘liq raqamlashtirish orqali shaffoflik va hisobdorlikni oshirish;
- ✓ Eksportni qo‘llab-quvvatlashga ajratilayotgan budjet mablag‘lari samaradorligini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish;
- ✓ Hududiy darajada moliyaviy nazoratni kuchaytirish orqali eksport salohiyatini yanada rivojlantirish;
- ✓ Moliyaviy nazorat organlarining mustaqilligini ta’minlash va ularning javobgarligini oshirish;
- ✓ Davlat dasturlarining natijadorligini doimiy monitoring qilish va tahlil etish tizimini takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, davlat budjeti intizomi va moliyaviy nazorat tizimini izchil takomillashtirish eksport salohiyatini oshirish, iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH VA AMALGA OSHIRISHNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Hakimov Nodir Nazarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii PhD.

Annotatsiya: Moliyaviy nazoratni tashkil qilish va amalga oshirish bo‘yicha xalqaro tajribalarning umumiy xususiyatlari hamda ayrim rivojlangan davlatlar (masalan, Germaniya, AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi) ilg‘or tajribalarini tahlil qilish asosida ularda o‘zini oqlagan ayrim amaliyotni O‘zbekistonda moliyaviy nazoratni amalga oshirishda qo‘llash mumkin bo‘lgan jihatlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Kvalit so‘zlar: Moliyaviy nazorat, budjet, korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi, moliyaviy boshqaruv

Darhaqiqat moliyaviy nazoratni tashkil etish va uni amalga oshirish muammosi xalqaro moliya-huquq tizimining ajralmas qismi bo‘lib, bunda xalqaro tashkilotlar,

moliya institutlari va boshqa ixtisoslashgan uyushmalar tomonidan turli xil tavsiyaviy va majburiy tusdagi umum e’tirof etilgan standartlar va boshqa shu shakldagi hujjatlar qabul qilinganki, ular jahon mamlakatlarida moliyaviy nazoratni o‘tkazishning umumiy va ayrim hollarda individual ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida ifoda etadi. Albatta, ular turlicha bo‘lib, bular orasida jahon miqyosida nufuzi jihatidan katta mavqeiga ega bo‘lgan Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) tomonidan chiqarilgan (qabul qilingan) global hujjatlarni keltirish mumkinki, ularning aksariyati uslubiy yo‘naltiruvchi tavsiyaviy xususiyatlarga egadir. Quyida ular haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Ta’kidlash lozimki, BMT dunyo mamlakatlarida turli darajadagi moliyaviy nazoratni amalga oshirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tekshiruvchi organ sifatida emas, balki, bu jarayonni umumiy muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi va boshqalar (davlatlar va uyushmalar) uchun asos bo‘ladigan xalqaro darajada meyoriy asoslar, tavsiyalar, metodologiyalar va institutsional mazmundagi hujjatlarni ishal chiqish va ularni qo‘llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Uning bu ahamiyati moliyaviy nazoratni amalga oshirish uchun muhim bo‘lgan meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish, metodologiya va umumiy xarakterdagi standartlarni qabul qilish, institutsional tashkiliy tuzilmalarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda jarayonni amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda ko‘rinadi. Bu jarayonni tushuntirish uchun umumiy institutsional mazmunga ega bo‘lgan quyidagi 1-rasmni keltiramizki, unda yuqoridagi tavsiflarning ichki mohiyati ochib beriladi, chunki, BMTning asosiy yo‘nalishlaridan biri unga a’zo bo‘lgan mamlakatlarning tizimli rivojlanishi uchun umumiy jarayonlarni muvofiqlashtirish va tartibga solishdan iborat bo‘lib, moliyaviy munosabatlarni tartibga solish ham ana шу муҳим йўналишлардан бири hisoblanadi.

Dunyo amaliyotida moliyaviy nazoratni tashkil qilish va uni amalga oshirishning muhim xalqaro standartlari va ko‘rsatmalar belgilash xususiyatiga ega bo‘lgan hujjat bu Lima deklaratsiyasi — bu Oliy audit tashkilotlari xalqaro tashkiloti (INTOSAI-International Organization of Supreme Audit Institutions —) tomonidan 1977 yilda (Peruning Lima shahrida qabul qilingan) bo‘lib, mazmunan olganda ushbu deklaratsiya mamlakatlarda oliy audit tashkilotlarining mustaqilligi, vakolatlari va prinsiplarini belgilab beradi, shu jihatdan olganda bu hujjat odatda "Oliy audit organlari mustaqilligi va samaradorligi prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiya" nomi bilan yuritiladi.

Ta’kidlash joizki, dunyo amaliyotida moliyaviy nazorat sohasida turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan meyoriy-huquqiy hamda metodologik hujjatlar mavjud bo‘lib, ularning mazmunini to‘laroq tushunish uchun uslubiy jihatdan ular asosan buxgalteriya hisobini yuritish, audit, ichki nazorat va moliyaviy hisobot shaffofligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ko‘lami jihatdan to‘rt yirik toifaga ajratish mumkin, ya’ni, xalqaro standartlar va tavsiyalar, Xalqaro standartlar va tavsiyalar, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) hujjatlari, sektor va sohalarga oid maxsus toifalar shular jumlasidandir.



1- rasm. Birlashgan mamlakatlar tashkiloti (BMT)ning moliyaviy nazoratni tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha institutsional xususiyati[18]

Dunyo amaliyotida moliyaviy nazoratni to‘g‘ri tashkil etish hamda amalga oshirish jarayonlarini tartibga soluvchi moliyaviy qonunlardan biri bu AQSH tomonidan qabul qilingan Dodd-Frank Uoll-strit islohoti va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun (Dodd–Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act) (2010 yil) va moliyaviy inqirozdan keyin qabul qilingan qonun bo‘lib, bu odatda u “Dodd–Frank Act” deb yuritiladigan, AQShda 2008 yilgi global qonun bo‘lib, uning asosiy maqsadi – moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlash, moliyaviy institutlar ustidan nazoratni kuchaytirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilishdan iborat.

[18] Manba: Ilmiyadabiyotlarni tahlil qilish asosida mualliftomonidan tuzilgan.

Bir so‘z bilan aytganda “Dodd–Frank Act” AQSH moliyaviy nazoratini yanada kuchaytirdi, uning joriy qilish natijasida moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlanishga, moliyaviy firibgarlik va xavfli operatsiyalarni oldini olishga, banklar va yirik moliyaviy institutlar faoliyati ustidan qat’iy nazorat o‘rnatishga hamda iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga erishildi.

“Yevropa ittifoqining moliyaviy reglamenti” (EU Financial Regulation) ham katta ahamiyatga egadir. “Yevropa ittifoqining moliyaviy reglamenti” bu Yevropa Ittifoqi budjetini tuzish, ijro etish, hisobot va nazorat qilish qoidalarini belgilaydigan asosiy huquqiy hujjat sifatida Yevropa Ittifoqi (YeI)ning umumiy budjeti va moliyaviy operatsiyalari uchun “konstitutsiya” vazifasini bajaradi. “Yevropa ittifoqining moliyaviy reglamenti”ning asosiy maqsadiga YeI budjet jarayonlarida shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni ta’minlashga, moliyaviy resurslarni faqat YeI qonunchiligida belgilangan maqsadlar uchun ishlatilishini ta’minlashga hamda budjet mablag‘laridan foydalanishda qonuniylik va moliyaviy intizomni kafolatlashga qaratilgandir.

“Yevropa Ittifoqi Davlat ichki nazorati asosi”ning asosiy komponentlari sifatida muhim uchta jihatlarini keltirish mumkin, ya’ni, unda menejment javobgarligi belgilangan bo‘lib, davlat muassasasi rahbariyati ichki nazorat tizimini tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun shaxsan javob beradi, ichki auditda esa, mustaqil ichki audit bo‘limlari ichki nazorat samaradorligini baholaydi va takliflar beradi va moliyaviy boshqaruv va nazorat tizimlari bo‘g‘ini esa, xavf-xatarlarni boshqarish, xarajatlarni tasdiqlash, budjet ijrosi ustidan doimiy monitoringnii o‘rnatishni taqozo etadi. “Yevropa Ittifoqi Davlat ichki nazorati asosi”ning asosiy tamoyillari sifatida: qonuniylik (barcha moliyaviy operatsiyalar qonun va qoidalarga muvofiq bo‘lishi shart), samaradorlik va natijadorlik (mablag‘lardan belgilangan maqsadda va minimal xarajat bilan foydalanish), hisobdorlik (har bir mas’ul shaxs sarflangan mablag‘ uchun javob berishlik), shaffoflik (moliyaviy ma’lumotlar va jarayonlar ochiq bo‘lishi) hamda xavf-xatarga asoslangan nazorat (resurslar asosiy xavflarni kamaytirishga yo‘naltirilishi) kabi tamoyillarga amal qilish lozimdir.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, jahon amaliyotidagi moliyaviy nazoratni yo‘lga qo‘yish, uni amalga oshirish hamda samaradorlikka erishish bo‘yicha qabul qilingan qonunlar, standartlar, qoidalar, reglament va boshqa shu kabi hujjatlar bu jahon davlatlarida moliyasining shaffofligi, qonuniyligi va samaradorligini ta’minlashda qonun chiqaruvchi organning oliy nazorat funksiyasini amalga oshirishda, parlament nazoratini ta’minlashda "qonun ustidan moliyaviy nazorat" va "budjet nazorati"ni samaradorligini ta’minlashda, davlat budjeti va davlat mablag‘lari sarfini xalq vakillari orqali nazorat qilishda, moliyaviy hisobotlarni tekshirib, ijro hokimiyatining moliyaviy intizomga rioya etishini ta’minlashda hamdja korrupsiya va mablag‘larni maqsadsiz sarflash holatlarini oldini olishda xizmat qilmoqda.

O‘ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Saidnazarov Firdavs Abdulloyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii PhD.

Annotatsiya. Moliya tizimida milliy darajada davlat dasturlarini amalga oshirish orqali milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati, shuningdek, ushbu jarayonni moliyalashtirish jarayoni va uning moliyaviy nazorati muhim hisoblanadi. Davlat dasturlarini moliyaviy nazorat qilish jarayoni ham murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi, ularni amalga oshirish uchun ma'lum metodologiyalarni qo'llash talab etiladi. Shuning uchun, ushbu jarayonni ilmiy o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqolada moliyaviy nazoratning metodologik jihatlari va davlat dasturlarini amalga oshirish ko'rib chiqiladi.

Kalit so’zlar. Moliya, moliyaviy nazorat, moliyaviy audit, moliyaviy javobgarlik. davlat, davlat nazorati, davlat moliyaviy nazorati, moliya, moliyaviy tizim, davlat moliyasi, korxona moliyasi, metodologiya, strategiya.

O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorat tizimini tashkil etish va uni amalga oshirish amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bu mexanizmni shaffoflashtirish va takomillashtirish bo‘yicha keng islohotlar o‘tkazilib, uning dastlabki natijalari ko‘rinmoqda. Shu bilan birgalikda davlat moliyaviy nazorat amaliyotini amalga oshirishda ayrim muammolar mavjudligi ko‘rinmoqda, ayrimlarini esa yanada takomillashtirish zarurati tug‘ilmoqda.

Albatta bu jarayonni ta’minlash moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini, budjet tizimi budjetlari mablag‘lari maqsadli sarflanishini, moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan budjet qonunchiligiga, shuningdek budjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirilishi bilan moliyaviy tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarga ehtiyoj tug‘diradi. Moliyaviy nazorat nafaqat budjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy munosabatlarni shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan, shuningdek insonparvarlik yordami va texnik ko‘maklashish mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan hamda davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi boshqa jamg‘armalar mablag‘laridan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirilishiniqamrab oladi. Shu jihatdan olganda davlat budjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan olingan moliyaviy mablag‘larning maqsadli, samarali hamda samarali foydalanishni ta’minlash moliyaviy boshqaruv tizimidagi dolzalb masalalardan sanaladi.

Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini

takomillashtirish va uning samaradorligini ta’minlash bugungi kunda moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning harakatlar Strategiyasiga muvofiq moliya tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish bilan bog‘liq amaliy chora tadbirlar amalga oshirildi. Avvalo, davlat moliyaviy nazorat tizimining huquqiy asoslari takomillashtirildi, uni amalga oshiruvchi organlarning faoliyati qaytadan ko‘rib chiqildiki, bundan ko‘zlangan maqsad bu boradagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va uning samaradorligiga erishishdan iborat qilib belgilandi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 oktabrdagi 870-son qarori bilan tasdiqlagan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to‘g‘risida NIZOM” bilan tasdiqlandi va asosiy moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasining funksiya va vazifalari qaytadan belgilandi va bunda davlat moliyaviy nazoratni amalga oshirishda zamonaviy usullarni kengroq qo‘llash lozimligi belgilab berildi.

Respublikamizdagi davlat moliyaviy nazorat mexanizmlaridagi yana bir katta muammolardan biri bu moliyaviy nazorat jarayonlari va ularga oid ma’lumotlar hamda moliyaviy nazorat obyektlari bilan bog‘liq moliyaviy qonunchiliklarga rioya qilinish nazoratining masofaviy shakllari va tezkor ma’lumotlarni olishga imkon beruvchi tizim yetarli emasligidir. Moliyaviy nazorat obyektlari hisoblangan budjet va budjetdan tashqari fondlardan mablag‘ oluvchilarning moliyaviy nazorat tadbirlari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi, bundan tashqari moliyaviy nazorat organlarining o‘zlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni ta’minlashning axborotlashtirilgan tizimga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida moliyaviy nazorat jarayonini raqamlashtirish tamoyili asosida yangi mexanizmlarni joriy etish lozim deb hisoblaymiz. Shu maqsadda respublikamizda davlat moliyaviy nazorat tizimida “Davlat auditi” milliy dasturini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

“Davlat auditi” milliy dasturini joriy etish va undan foydalanish mexanizmida yana bir narsani e’tiborga olish zarurki, noqonuniy tarzda moliyaviy nazorat tadbirlarini o‘tkazishning oldini olish maqsadida mazkur dasturda ro‘yxatga olinmagan nazorat tadbirlari noqonuniy deb hisoblanish lozim.

O‘zbekiston moliya tizimida davlat moliyaviy nazoratini tashkiliy jihatdan hamda uni amalga oshirish jarayonini samaradorligini ta’minlash maqsadida, yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillarimiz natijalaridan kelib chiqib, davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish yo‘nalishlaridagi takliflarimizning mazmunini keltirib o‘tamiz:

1). Barcha budjet tashkilotlari uchun yillik xarajatlar smetalarini elektron tarifikatsiya va shtatlar jadvali asosida shakllantirish, shuningdek, ularni ish haqi to‘lash moduliga bog‘lash zarur.

2). Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan nazorat organlari moliyaviy nazorat ishlarini to‘g‘ri rejalashtirish va shu orqali nazorat samarasini ta’mnlash maqsadida navbatdagi yil uchun nazorat obyektlari va shakllari kesimida hamda kelgusi ikki yilga nazorat tadbirlarining mo‘ljallari asosida tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

3). Davlat moliyaviy nazorat tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan tashqi audit jarayonida masofaviy nazorat va risk tahlilini amalga oshirish, moliyaviy nazoratda tashqi manba ma’lumotlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Chunki, bu mexanizmlardan samarali foydalanish davlat moliyaviy nazoratning samaradorligini oshiradi.

4). Bugungi kunda rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamizda qurilish tarmog‘ida korrupsion va moliyaviy qonunbuzilishlar darajasi afsuski, yuqoriligicha qolmoqda. Bu esa, qurilish sohasida davlat moliyaviy nazorat tadbirlarining samaradorligini ta’minlash, tezkor moliyaviy nazoratni tashkil etish maqsadida «Shaffof qurilish» axborot tizimini joriy qilish, unda: obyektlarning manzilli ro‘yxatini elektron tarzda shakllantirish va tasdiqlash modulini yaratish, obyektda bajarilgan ishlar, shuningdek, materiallar sarfi to‘g‘risidagi smeta va uning ijrosi hisobini yuritish, bajarilgan ishlar hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni texnik auditorlar tomonidan kiritib borilishini yo‘lga qo‘yish hamda ushbu axborot tizimni Moliya vazirligining axborot tizimi bilan integratsiya qilish asnosida obyektlar qurilishini «Shaffof qurilish» axborot tizimidan olingan ma’lumotlar asosida moliyalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

5). Budjet tashkilotlari xodimlariga har oyda ularning ish haqi to‘g‘risida SMS xabarnoma yuborish tizimini joriy etish. SMS xabarnoma jo‘natish xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti hisobidan moliyalashtirishni amalga oshirish zarur.

6). Budjet intizomi buzilishi holatlarini to‘g‘ri talqin qilish va moliyaviy nazorat doirasida yakuniy xulosalarning obyektivligini ta’minlashga xizmat qiluvchi huquqbuzarlik turlarining tasnifini ishlab chiqish lozim.

O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorat tizimini tashkil etish va uni amalga oshirish amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bu mexanizmni shaffoflashtirish va takomillashtirish bo‘yicha keng islohotlar o‘tkazilib, uning dastlabki natijalari ko‘rinmoqda. Shu bilan birgalikda davlat moliyaviy nazorat amaliyotini amalga oshirishda ayrim muammolar mavjudligi ko‘rinmoqda, ayrimlarini esa yanada takomillashtirish zarurati tug‘ilmoqda. Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishva uning samaradorligini ta’minlash bugungi kunda moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizdagi davlat moliyaviy nazorat mexanizmlaridagi yana bir katta muammolardan biri bu moliyaviy nazorat jarayonlari va ularga oid ma’lumotlar hamda moliyaviy nazorat obyektlari bilan bog‘liq moliyaviy qonunchiliklarga rioya qilinish nazoratining masofaviy shakllari va tezkor ma’lumotlarni olishga imkon beruvchi tizim yetarli emasligidir. Moliyaviy nazorat obyektlari hisoblangan budjet va budjetdan tashqari fondlardan mablag‘ oluvchilarning moliyaviy nazorat tadbirlari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi, bundan tashqari moliyaviy nazorat organlarining o‘zlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni ta’minlashning axborotlashtirilgan tizimga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida moliyaviy nazorat jarayonini raqamlashtirish tamoyili asosida yangi mexanizmlarni joriy etish lozim deb hisoblaymiz. Shu maqsadda respublikamizda davlat moliyaviy nazorat tizimida “Davlat auditi” milliy dasturini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

DAVLAT KORXONALARIDA IJARA MUNOSABATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SHAFFOFLIK VA NAZORAT TIZIMINI KUCHAYTIRISH

Qudbiyev Nodir Tohirovich,
Farg‘ona davlat texnika universiteti
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda davlat korxonalarida ijara munosabatlari hisobini takomillashtirish orqali moliyaviy shaffoflikni oshirish va nazorat tizimini kuchaytirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mavjud muammolar, jumladan, hisob siyosatining nomuvofiqligi, raqamlashtirish darajasining pastligi va ichki audit tizimidagi kamchiliklar aniqlangan. Shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS 16) asosida hisob yuritishning afzalliklari asoslab berilgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va yagona axborot tizimlarini rivojlantirish orqali ijara jarayonlarining samaradorligini oshirish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: ijara hisobi, davlat korxonalari, moliyaviy shaffoflik, ichki nazorat, IFRS 16.

KIRISH. Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya jarayonlari sharoitida davlat sektorida mulkni boshqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda moliyaviy shaffoflikni ta’minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, davlat korxonalarida mavjud moddiy aktivlardan samarali foydalanish, ularni ijaraga berish orqali qo‘shimcha qiymat yaratish va daromadlarni oshirish masalasi iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat korxonalarida ijara munosabatlarini buxgalteriya hisobi orqali to‘liq va shaffof aks ettirish hamda nazorat tizimini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy nazariyada ijara munosabatlari resurslardan samarali foydalanish mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Unga ko‘ra, mulk egasi va undan foydalanuvchi o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar muayyan shartnoma asosida shakllanib, resurslarning optimal taqsimlanishini ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida”gi Qonunida ijara munosabatlari mol-mulkni haq evaziga muddatli egalik qilish va undan foydalanish sifatida talqin etiladi [1]. Mazkur huquqiy norma ijara munosabatlarining iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab, davlat mulkini samarali boshqarish uchun zarur huquqiy zamin yaratadi.

So‘nggi yillarda davlat mulkini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, uni raqamlashtirish va shaffoflikni oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi 660-son qarori davlat mulkini ijaraga berish jarayonlarini takomillashtirish, ularni raqamli platformalar orqali amalga oshirish hamda monitoring tizimini kuchaytirishni nazarda tutadi [3]. Mazkur qarorga muvofiq, “E-ijara” va “online-ijara.uz” axborot tizimlarining joriy etilishi davlat mulkini ijaraga berish jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlar bazasini shakllantirish va real vaqt rejimida nazoratni amalga oshirish imkonini yaratmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida davlat aktivlarini boshqarishda ochiqlik, shaffoflik va samaradorlikni ta’minlash alohida e’tirof etilmoqda. Davlat rahbari o‘z nutqlarida davlat mulkidan foydalanishda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida hisob va nazorat tizimini takomillashtirish hamda korrupsion omillarni bartaraf etish zarurligini ta’kidlab kelmoqda. Bu esa davlat korxonalarida ijara munosabatlarini hisobga olish va audit qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi.

Shuningdek, davlat mulkini ijaraga berish jarayonlarida elektron auksion tizimlaridan foydalanilayotgan bo‘lsa-da, ularning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimlari bilan integratsiyasi to‘liq ta’minlanmagan. Davlat mulkini ijaraga berish jarayonlari “E-auksion” elektron platformasi orqali amalga oshirilishi, shuningdek, ijara shartnomalarining elektron shaklda rasmiylashtirilishi ushbu jarayonlarning shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda [2]. Biroq mazkur tizimlar asosida shakllanayotgan ma’lumotlarning moliyaviy hisobotlarga to‘liq va o‘z vaqtida integratsiya qilinmasligi nazorat samaradorligini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Davlat korxonalarida ijara munosabatlari hisobini takomillashtirish orqali shaffoflik va nazorat tizimini kuchaytirish masalasi bugungi kunda iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat sektorida ijara operatsiyalarining to‘liq va ishonchli aks ettirilmasligi moliyaviy hisobotlarning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, natijada esa boshqaruv qarorlarining aniqligi pasayadi. Ayrim hollarda ijara obyektlarining balansdan tashqarida yuritilishi ularning real qiymatini yashirib qolmoqda, bu esa shaffoflikni

kamaytiradi va investorlar hamda nazorat organlari uchun noto‘g‘ri axborot shakllanishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro standartlar, xususan IFRS 16 talablari asosida ijara aktivlarini majburiyatlar bilan birgalikda balansda aks ettirish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Olib borilgan tahlillar natijasida davlat korxonalarida ijara hisobining asosiy muammolari aniqlanib, ular tizimli xarakterga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Xususan, hisob siyosatining yagona emasligi, ijara obyektlarini baholashdagi farqlar, shartnomalar monitoringining sustligi, raqamlashtirish darajasining pastligi hamda ichki audit tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy kamchiliklar sifatida qayd etildi. Bu holatlar davlat aktivlaridan foydalanish samaradorligini pasaytiradi va moliyaviy yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Xalqaro tajriba ham davlat korxonalarida boshqaruv va nazorat tizimlarining zaifligi katta iqtisodiy zarar keltirayotganini tasdiqlaydi [5].

Mazkur holatlarni umumlashtirish maqsadida 1-jadval shakllantirildi, unda davlat korxonalarida ijara hisobining asosiy muammolari va ularning oqibatlari tizimli ravishda aks ettirilgan.

1-jadval

Davlat korxonalarida ijara hisobining asosiy muammolari va ularning oqibatlari

Muammo	Mazmuni	Natijasi
Hisob siyosatining yagona emasligi	Turli yondashuvlar qo‘llaniladi	Hisobotlar taqqoslanmaydi
Balansdan tashqari hisob	Aktivlar yashirin qoladi	Shaffoflik pasayadi
Monitoring sustligi	Shartnomalarnazoratsiz	Daromad yo‘qotiladi
Raqamlashtirishpastligi	Qo‘lda yuritish ustun	Xatoliklar ko‘payadi
Audit tizimi zaifligi	Ichki nazorat sust	Moliyaviy intizom buziladi

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda raqamlashtirish muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida joriy etilgan “E-ijara” tizimi davlat mulkini ijaraga berish jarayonini elektron shaklga o‘tkazish orqali shaffoflikni sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Ushbu tizim orqali ijara shartnomalari elektron tarzda rasmiylashtiriladi, to‘lovlar monitoringi avtomatlashtiriladi va barcha operatsiyalar yagona axborot bazasida aks ettiriladi. Bundan tashqari, elektron auksion savdolari orqali ijara obyektlarini taqsimlash jarayoni ochiq va raqobatbardosh muhitda amalga oshirilmoqda.

Ijara hisobini takomillashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim bo‘lib, ushbu jarayonning mantiqiy ketma-ketligi 1-sxema orqali ifodalangan.



1- sxema. Davlat korxonalarida ijara hisobini takomillashtirish modeli

Mazkur modelni joriy etish natijasida davlat korxonalarida moliyaviy axborotlarning aniqligi va ishonchliligi oshadi, shuningdek, aktivlardan foydalanish samaradorligi ortadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro standartlarga mos ravishda yuritilgan hisob tizimi korxonalarning investitsion jozibadorligini oshiradi va moliyaviy natijalarni real aks ettirish imkonini beradi .

Shuningdek, milliy va xalqaro yondashuvlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida 2-jadval shakllantirildi. Ushbu jadval orqali an’anaviy hisob tizimi bilan zamonaviy yondashuv o‘rtasidagi asosiy tafovutlar ko‘rsatib berilgan.

2-jadval

Ijara hisobida milliy va xalqaro yondashuvlarning solishtirma tahlili

Ko‘rsatkich	An’anaviy tizim	Zamonaviy (IFRS 16)
Aktivni aks ettirish	Qisman	To‘liq
Shaffoflik darajasi	Past	Yuqori
Hisobot sifati	Cheklangan	Keng qamrovli
Nazorat imkoniyati	Past	Kuchli
Investorlar uchun axborot	Yetarli emas	To‘liq

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy yondashuv asosida yuritilgan ijara hisobi davlat korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshiradi va ularning faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayonni amalga oshirishda ayrim muammolar ham yuzaga keladi. Jumladan, yangi standartlarni joriy etish uchun kadrlar malakasini oshirish, hisob siyosatini qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish zarur. Ayniqsa, diskont stavkalarini aniqlash va uzoq muddatli ijara shartnomalarini baholash amaliyotda murakkablik tug‘diradi.

Davlat korxonalarida nazorat tizimini kuchaytirish uchun institutsional islohotlar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, ichki audit tizimini rivojlantirish, mustaqil nazorat mexanizmlarini joriy etish va boshqaruv organlari javobgarligini oshirish orqali ijara munosabatlarida intizomni mustahkamlash mumkin. Ushbu jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi 2-sxema orqali ifodalangan.



2- sxema. Shaffoflik va nazorat tizimini kuchaytirish mexanizmi

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlat korxonalarida ijara munosabatlari hisobini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda xalqaro standartlarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada moliyaviy shaffoflik ta’minlanadi, davlat aktivlaridan foydalanish samaradorligi oshadi va umumiy iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat korxonalarida ijara munosabatlarini samarali tashkil etish va ularni buxgalteriya hisobida to‘liq hamda ishonchli aks ettirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mavjud amaliyotda ayrim tizimli kamchiliklar — hisob siyosatining turlicha yuritilishi, ijara obyektlarining to‘liq hisobga olinmasligi, monitoringning sustligi hamda raqamlashtirish darajasining yetarli emasligi — moliyaviy shaffoflikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida boshqaruv qarorlarining samaradorligini pasaytiradi va davlat aktivlaridan foydalanishda yo‘qotishlarga olib keladi.

Shu bilan birga, xalqaro standartlar asosida hisob yuritish, ayniqsa IFRS 16 talablarini joriy etish, ijara operatsiyalarini yanada mukammal aks ettirish imkonini beradi. Bu yondashuv aktiv va majburiyatlarni birgalikda hisobga olish orqali moliyaviy natijalarni real ko‘rinishda ifodalashga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish esa ijara jarayonlarining ochiqligi, tezkorligi va nazorat qilinishini sezilarli darajada oshiradi.

Umuman, davlat korxonalarida ijara hisobini takomillashtirish nafaqat hisob tizimini isloh qilishni, balki boshqaruv, nazorat va axborot texnologiyalarini kompleks rivojlantirishni talab etadi. Mazkur yo‘nalishda quyidagi ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, davlat korxonalarida ijara operatsiyalarini hisobga olishning yagona va standartlashtirilgan tizimini joriy etish zarur. Ushbu tizim xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan IFRS 16 talablariga moslashtirilishi orqali aktivlar va majburiyatlarni to‘liq aks ettirishni ta’minlaydi hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi.

Ikkinchidan, ijara jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish va ularni buxgalteriya hamda audit tizimlari bilan integratsiyalash muhim ahamiyatga ega. Yagona elektron platforma orqali ma’lumotlar almashinuvini avtomatlashtirish nazorat samaradorligini oshirib, inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi.

Uchinchidan, davlat korxonalarida ichki audit va nazorat tizimini kuchaytirish, riskka asoslangan yondashuvlarni joriy etish hamda mutaxassislar malakasini oshirish zarur. Bu orqali moliyaviy intizom mustahkamlanadi va ijara munosabatlarida shaffoflik ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan choralar davlat korxonalarida ijara munosabatlarini samarali boshqarish, moliyaviy shaffoflikni oshirish va nazorat tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada davlat aktivlaridan foydalanish darajasi oshib, iqtisodiy samaradorlik ta’minlanadi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI ORQALI KORXONALAR BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING MUAMMOLAR VA YECHIMLARI

Guljahon Usmanova Ulug‘bek qizi
Farg‘ona davlat texnika unversiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda davlat moliyaviy nazoratining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Davlat moliyaviy nazorati tizimidagi mavjud kamchiliklar va muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy yechimlar taklif etilgan. Maqolada mamlakatimiz, xalqaro tajriba va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy nazorat, korxona barqarorligi, budjet intizomi, raqamlashtirish, audit, moliyaviy xavf.

Zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar moliyaviy barqarorligi milliy iqtisodiyotning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalari, ayniqsa, yirik davlat sektori tashkilotlari, nafaqat ishlab chiqarish hajmini belgilaydi, balki ish bilan bandlik, soliq tushumlari va mintaqaviy rivojlanishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Davlat moliyaviy nazorati - korxonalar faoliyatida qonuniylikni, maqsadli xarajatlarni va moliyaviy intizomni ta'minlovchi eng muhim mexanizmlardan biri sifatida qabul qilingan. Biroq, amaliyotda bu nazorat tizimi bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda. Jumladan, nazorat organlarining ulanmaganligi, raqamli infratuzilmaning etarli emasligi hamda sanksiyalar mexanizmining zaifligidir.

Ko‘plab mintaqaviy moliyaviy nazorat organlarida malakali kadrlar etishmasligi sezilarli muammo bo‘lib qolmoqda. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, O‘rta Osiyo mamlakatlarida nazorat xodimlarining o‘rtacha malakaviy darajasi Yevropa mamlakatlariga nisbatan 35-40 foizga past. Bundan tashqari, nazorat organlarining mustaqilligi ham shubha ostida: ba’zi hollarda siyosiy ta'sir nazorat xulosalari va sanksiyalar hajmiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston sanoat korxonalarining 62 foizi nazorat tekshiruvlarini samarali deb baholamaydi, ularning 41 foizi esa takroriy tekshiruvlarning korxona faoliyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishini ta'kidlaydi.

Zamonaviy moliyaviy nazorat real vaqt rejimida ma'lumot almashishni, kross-tekshiruvni va sun’iy intellekt asosida risklarni baholashni talab etadi. Ammo O‘zbekistonda davlat idoralari o‘rtasida yagona ma’lumotlar bazasi mavjud emas. Soliq ma'lumotlari, bojxona statistikasi, bank operatsiyalari va korxona hisobotlari alohida tizimlarda saqlanaveradi. Bu holat firibgarlik va qochishlar imkoniyatini kengaytiradi.

Mavjud amaliyotda moliyaviy intizom buzilishlari uchun qo‘llaniladigan sanksiyalar deterrent (qaytaruvchi) ta’sir ko‘rsatish uchun etarlicha kuchli emas. Jarima miqdori ko‘pincha buzilishdan olingan manfaatdan ancha past bo‘lib, bu korxonalarni o‘z-o‘zidan intizomli bo‘lishga undamaydi. Shuningdek, javobgarlikni shaxsiylashtirishning qonunchilik asoslari yetarlicha rivojlanmagan.

1-jadval.

Davlat moliyaviy nazoratidagi asosiy muammolar va ularning oqibatlari

Muammo sohasi	Asosiy namoyon bo‘lishi	Oqibatlar
Huquqiy baza	Nazorat normalari o‘rtasidagi ziddiyatlar	Ma’muriy ortiqcha yuk, ikkilanish
Kadrlar	Malakali xodimlar etishmasligi	Nazorat sifatining pastligi
IT infratuzilma	Yagona ma’lumotlar bazasining yo‘qligi	Firibgarlik imkoniyatlari kengayishi
Sanksiyalar	Jarimalar miqdorining pastligi	Deterrent ta’sirning zaifligi
Mustaqillik	Siyosiy ta’sir	Xolislik buzilishi

Birinchi navbatda, barcha nazorat funktsiyalarini yagona metodologik asosga keltiruvchi “Davlat moliyaviy nazorati to‘g‘risida”gi qonunni yangi tahrirda qabul qilish zarur. Yangi qonunda quyidagilar belgilanishi lozim:

– Turli nazorat idoralari vakolatlarini aniq chegaralash va muvofiqlashtirish mexanizmini joriy etish;

– Risk asosida nazoratni rejalashtirish majburiy tartibini belgilash;

– Nazorat xulosalariga asosan majburiy choralar ko‘rish muddatlarini qonunlashtirish;

– Takroriy tekshiruvlarga cheklovlar va istisnolar ro‘yxatini aniq belgilash.

Xalqaro tajribadan (Germaniya, Janubiy Koreya) ko‘rish mumkinki, moliyaviy nazorat samaradorligi ko‘p jihatdan huquqiy bazaning yaxlitligi va aniqligiga bog'liq. Germaniyada Federal Hisob palatasi va yerlar nazorat organlari o‘rtasida qat'iy vakolatlar taqsimoti amalga oshirilgan bo‘lib, bu ikkilanish va ziddiyatlarni bartaraf etgan.

Nazorat organlarining kadrlar salohiyatini oshirish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

– Nazorat xodimlari uchun xalqaro sertifikatlar olishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

– Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda nazorat xodimlarini qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish;

– Nazorat organlari rahbariyatini tayinlashda siyosiy emas, professional mezonlarni ustuvor qilish;

– Nazorat xodimlarining ish haqi tizimini islohotlar natijalari bilan bog‘lash.

Moliyaviy nazoratning deterrent funktsiyasini kuchaytirish uchun ikki yo‘nalishda ishlash zarur: bir tomondan, sanksiyalar tizimini kuchaytirish, ikkinchi tomondan, ixtiyoriy tartibga rioya qilish uchun rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

– Jarima miqdorini buzilishdan olingan manfaatning kamida 3 baravariga belgilash;

– Qasddan sodir etilgan moliyaviy buzilishlar uchun shaxsiy javobgarlikni kuchaytirishni qonunlashtirish;

– Moliyaviy shaffoflik reytingini yuritish va yuqori reytingli korxonalarga davlat xaridlarida ustunlik berish;

– O‘z-o‘zini tekshirish va ixtiyoriy oshkor etish holatlarida sanksiyalarni 50 foizga kamaytirish imkoniyatini belgilash.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

– O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimi bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda: huquqiy bazaning parchalanishi, kadrlar salohiyatining pastligi, raqamli infratuzilmaning etishmasligi va sanksiyalar mexanizmining zaifligi asosiy to‘siqlar hisoblanadi.

– Yechimlar kompleks xarakter kasb etishi lozim ya’niy huquqiy, institutsional va texnologik islohotlar bir vaqtda va izchil amalga oshirilishi zarur.

– Raqamli texnologiyalar yagona ma’lumotlar platformasi, sun'iy intellekt asosidagi risk-skoring va blockchain hisobotlari nazorat samaradorligini tubdan oshirish uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

– Nazorat tizimining faqat jazolash funktsiyasiga tayanishi etarli emas. Moliyaviy shaffoflikni ixtiyoriy ta’minlash uchun rag‘batlantirish mexanizmlari zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hisob palatasiga nazorat funktsiyalarini integrasiyalash bo‘yicha yagona dastur ishlab chiqish va yaqin yillarga mo‘ljallangan raqamli moliyaviy nazorat strategiyasini qabul qilish tavsiya etiladi. Ilmiy tadqiqotlar sohasida esa korxona darajasidagi panel ma'lumotlar asosida moliyaviy nazorat va barqarorlik o‘rtasidagi bog'liqlikning miqdoriy baholashni amalga oshirish kelgusi tadqiqotlar uchun muhim yo‘nalish bo‘lib qoladi.

INFLYATSIYANING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI

Xomidjonova Sharofat Alisher qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi
Ixtiyor Xamraqulov Baxtiyorovich
FDTU, “Iqtisodiyot“kafedrasi katta o'qituvchisi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada inflyatsiyaning mazmuni, uning yuzaga kelish omillari hamda iqtisodiyotga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil etiladi. Inflyatsiya darajasining oshishi jamiyatning turli qatlamlariga qanday ta’sir qilishi, uning iqtisodiy barqarorlik uchun tug‘diradigan xatarlari va ehtimoliy ijobiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, davlat tomonidan inflyatsiyani tartibga solish usullari, xususan, pul-kredit hamda fiskal siyosat instrumentlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada inflyatsiyaning uzoq muddatli makroiqtisodiy natijalari va uni samarali boshqarish yo‘llari yuzasidan umumiy xulosalar keltiriladi.

Kalit so’zlar:inflyatsiya, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi,inflyatsiyaga qarshi kurash, inflyatsion targetlash, monetar siyosat, xo'jalik faoliyati, iqtisodiy inqiroz, kredit.

Kirish: Hozirgi davrda inflyatsiya jahon miqyosida dolzarb muammoga aylanib, deyarli barcha mamlakatlarga ta’sir qilmoqda. U asosan bozorda talabning oshib, taklifning yetishmasligi, shuningdek, tovar va xizmatlar narxining ko‘tarilishi natijasida yuzaga keladi. Bundan tashqari, oltin va xorijiy valyutalar kursining milliy valyutaga nisbatan oshishi ham inflyatsiyani kuchaytiradi.Davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun pul emissiyasining ko‘paytirilishi, monopol narxlarning mavjudligi, ortiqcha talabning yuzaga kelishi va milliy valyutaning qadrsizlanishi ham inflyatsiyaning o‘sishiga sabab bo‘ladi.Inflyatsiya ikki turga bo‘linadi: ochiq va yashirin. Ochiq inflyatsiya erkin bozorda narxlarning o‘zgarishi bilan namoyon bo‘ladi. Yashirin inflyatsiyada esa davlat narxlarni nazorat qilib, ularni sun’iy usulda ushlab turadi, bu esa bozor mexanizmlarining buzilishiga va tovarlar taqchilligiga olib keladi[1].

Inflyatsiya — bu tovarlar va xizmatlar narxlarining umumiy darajasi uzluksiz ravishda oshib borishi jarayoni bo‘lib, iqtisodiyotdagi eng muhim muammolardan biri sanaladi. Uning nazoratsiz kuchayishi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi, aholining xarid qobiliyatini pasaytiradi hamda investitsion muhitni sustlashtiradi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inflyatsiyaning oshishi turli omillar bilan bog‘liq. Ular qatoriga pul massasining ko‘payishi, ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi va tashqi iqtisodiy ta’sirlar kiradi. Masalan, 2022-yilda global iqtisodiyotda inflyatsiya darajasi 8 foizdan yuqori bo‘lgan, ayrim mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 10–15 foizgacha yetgan[2].

O‘zbekistonda ham inflyatsiya darajasi dolzarb iqtisodiy muammo bo‘lib qolmoqda. 2025-yilda mamlakatda inflyatsiya 7.3 foizni tashkil etdi. Shu bois inflyatsiyani kamaytirish yoki uni maqbul darajada ushlab turish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi[3].

Inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta’siri masalasi ko‘plab iqtisodchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, Milton Friedman inflyatsiyani asosan monetar hodisa sifatida baholab, uni pul-kredit siyosati orqali boshqarish mumkinligini ta’kidlaydi[4]. Keynesian economics nazariyasiga ko‘ra esa, inflyatsiyani jilovlashda nafaqat pul massasi, balki davlat xarajatlari va fiskal siyosat ham muhim rol o‘ynaydi[5].

Jahon iqtisodiyotida inflyatsiya darajasining oshib borishi hozirgi kunda global muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Inflyatsiya nafaqat salbiy, balki ayrim holatlarda ijobiy ta’sirga ham ega bo‘lishi mumkin. Ya’ni, iqtisodiyot tiklanishi jarayonida past va barqaror inflyatsiya darajasi foydali hisoblanadi, chunki u iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. Biroq inflyatsiya me’yoridan oshib ketsa, u davlatning iqtisodiy tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Agar inflyatsiya o‘z vaqtida nazorat qilinib, maqbul darajada ushlab turilsa, u jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Barqaror inflyatsiya sharoitida ishsizlik darajasining kamayishi ham kuzatiladi. Shuningdek, iste’molchilar tovar va xizmatlardan foydalanish uchun yetarli darajada mablag‘ga ega bo‘ladilar.Natijada iqtisodiy faollik oshadi, ishlab chiqarish kengayadi va umumiy iqtisodiy o‘sish jarayoni jadallashadi. Shu sababli inflyatsiyani to‘g‘ri boshqarish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Inflyatsiyaga qarshi siyosat yuritishda uning iqtisodiy “narxi” masalasi doimo dolzarb bo‘lib qoladi. Jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan qaralganda, inflyatsiyani pasaytirish choralari ayrim salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, bunday siyosat natijasida ishsizlik darajasi oshishi va ishlab chiqarish hajmi qisqarishi ehtimoli mavjud.Ba’zi hisob-kitoblarga ko‘ra, inflyatsiyani 1 foizga kamaytirish uchun ishsizlik darajasi ma’lum muddat davomida tabiiy darajadan taxminan 2 foizga yuqori bo‘lishi talab etiladi. Shu bilan birga, real yalpi milliy mahsulot (YaMM) potensial darajaga nisbatan qariyb 4 foizga kamayadi.Ko‘plab davlatlar nazoratdan chiqib ketgan inflyatsiyani jilovlash maqsadida narxlar va daromadlarni tartibga solish siyosatini

qo‘llagan. Bu siyosatning asosiy mazmuni ish haqi o‘sishini cheklash orqali inflyatsion bosimni kamaytirishga qaratilgan.

Inflyatsiyaning oldini olish va uni nazorat qilish uchun quyidagi asosiy usullar qo‘llaniladi:

1. Pul-kredit siyosati: Markaziy banklar pul massasini tartibga solish orqali inflyatsiyani boshqaradilar. Masalan, O‘zbekiston Markaziy banki 2026-yilda inflyatsion bosimni kamaytirish maqsadida qayta moliyalash stavkasini oshirish yoki uni qat’iy pul-kredit siyosati doirasida saqlab turish choralarini ko‘rmoqda.

2. Fiskal siyosat: Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash inflyatsiyani nazorat qilishda muhim o‘rin tutadi.Byudjet intizomini kuchaytirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda mahalliy byudjetlar daromad bazasini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

3. Narxlar va daromadlarni tartibga solish: Ayrim holatlarda davlat narxlar va ish haqlarini nazorat qilish orqali inflyatsiyani cheklashga harakat qiladi. Biroq, ushbu yondashuv bozor mexanizmlarining tabiiy muvozanatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

4. Taklifni oshirish: Bozorda tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish narxlar barqarorligiga yordam beradi. Xususan, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik va qurilish sohalarida ishlab chiqarish hajmining oshishi ichki bozorda taklifni kengaytiradi va narxlar o‘sishini sekinlashtiradi.

5. Inflyatsion kutilmalarni boshqarish: Aholi va biznes subyektlarining inflyatsiya bo‘yicha kutilmalarini to‘g‘ri shakllantirish narxlar barqarorligiga ijobiy ta’sir qiladi. Bu jarayon asosan Markaziy bank va hukumatning ishonchli kommunikatsion siyosati orqali amalga oshiriladi.

Inflyatsion targetlash rejimini samarali amalga oshirish uchun bir qator muhim shartlar bajarilishi lozim:

- Avvalo, inflyatsiyaning aniq maqsadli darajasini belgilash va uni keng jamoatchilikka yetkazish zarur. Bunda inflyatsiya ko‘rsatkichlari, uning asosiy omillari hamda belgilangan target haqida aholini muntazam ravishda xabardor qilib borish muhim ahamiyatga ega.
- Inflyatsion jarayonlarni tartibga solish va pul bozorida foiz stavkalarini boshqarish uchun pul-kredit siyosati instrumentlaridan keng foydalanish talab etiladi. Jumladan, REPO operatsiyalari, valyutaviy svop auksionlari, depozit auksionlari hamda Markaziy bank obligatsiyalarini joylashtirish bo‘yicha auksionlar shular jumlasidandir.
- Pul-kredit siyosati bo‘yicha asoslangan va obyektiv qarorlar qabul qilish uchun chuqur makroiqtisodiy tahlil o‘tkazish zarur. Bunda uy xo‘jaliklari, tadbirkorlik sektori, davlat boshqaruvi hamda tashqi iqtisodiy muhit holati har tomonlama o‘rganiladi va mavjud ochiq ma’lumotlar asosida prognozlar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, pul-kredit siyosatining asosiy maqsadlarini — narxlar barqarorligini ta’minlash, kredit resurslarining ommabopligini oshirish, past inflyatsiya darajasiga erishish hamda milliy valyutaga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash kabi yo‘nalishlarni keng jamoatchilikka yetkazish muhimdir. Bunda samarali kommunikatsion siyosat yuritilib, makroiqtisodiy jarayonlarni prognoz qilish imkoniyatlari kengaytiriladi va bozor ishtirokchilarining ishonchi shakllantiriladi.

Jahon iqtisodiyotida inflyatsiya darajasi aholining yashash sharoitlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Inflyatsiyaning oshishi mamlakatning yalpi ichki mahsulotiga (YaIM) salbiy ta’sir qilib, iqtisodiy barqarorlikni zaiflashtiradi. Shuningdek, ishlab chiqarish va tashqi savdo aloqalariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, soliq yukini optimallashtirish, talab va taklif muvozanatini ta’minlash orqali inflyatsiya darajasini pasaytirish mumkin. Agar talab ortib, taklif yetarli bo‘lmasa, vaqtincha bojxona imtiyozlarini joriy etish ham narxlar barqarorligini saqlashga yordam beradi. Shuningdek, sanoat zonalarini rivojlantirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va investitsiyalarni jalb qilish ham iqtisodiy muvozanatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Inflyatsiyani barqarorlashtirish va kamaytirish uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlarni taklif qilish mumkin:

Pul-kredit siyosatini kuchaytirish – Markaziy bank tomonidan inflyatsion targetlash tizimini yanada samarali joriy etish.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish – ichki bozorda tovar va xizmatlar taklifini oshirish orqali narxlar bosimini kamaytirish.

Soliq siyosatini optimallashtirish – tadbirkorlar uchun soliq yukini kamaytirish va biznes muhitini yaxshilash.

Bojxona tartiblarini moslashtirish – ayrim mahsulotlar tanqisligi yuzaga kelganda import bojlarini vaqtincha kamaytirish.

Investitsiyalarni jalb qilish – sanoat zonalarini kengaytirish va xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratish.

Valyuta barqarorligini ta’minlash – milliy valyutani qo‘llab-quvvatlash va spekulyativ bosimlarni kamaytirish.

Aholi bandligini oshirish – yangi ish o‘rinlari yaratish orqali iqtisodiy faollikni kuchaytirish.

1. International Monetary Fund. (2022). *Digital financial services and financial inclusion*. Washington, DC: IMF.

2. Financial Stability Board. (2019). *FinTech and market structure in financial services: Market developments and potential financial stability implications*. Basel: FSB.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *O‘zbekiston bank tizimi rivojlanishi bo‘yicha yillik hisobot*. Toshkent.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi*. Toshkent.

5. OECD. (2020). *Digital disruption in financial markets*. Paris: OECD Publishing.

6. Gai, K., Qiu, M., & Sun, X. (2018). A survey on FinTech. *Journal of Network and Computer Applications, 103*, 262–273. https://doi.org/10.1016/j.jnca.2017.10.011

7. Thakor, A. V. (2020). FinTech and banking: What do we know? *Journal of Financial Intermediation, 41*, 100833. https://doi.org/10.1016/j.jfi.2019.100833

DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARINING AHAMIYATI

Musurmonqulov Muhammad Ural o‘g‘li,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti 1-bosqich tayanch doktoranti
investor.0523@gmail.com

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat aktivlarini boshqarish faqat mulkni hisobga olish yoki undan foydalanishni nazorat qilish bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayon davlat mulkining iqtisodiy qiymatini oshirish, davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va xususiy sektor uchun sog‘lom raqobat muhitini yaratish bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunida davlat mulkini boshqarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish asosiy maqsad sifatida belgilangan bo‘lib, bu sohada huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi[1].

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida” Qonuni, 09.03.2023 yildagi O‘RQ-821-son.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi davlat mulkini samarali boshqarish, davlat ulushlari bo‘yicha mulkdorlik huquqlarini amalga oshirish, xususiylashtirish va davlat aktivlaridan oqilona foydalanish bo‘yicha yagona davlat siyosatini yurituvchi muhim institutsional tuzilma hisoblanadi. Agentlikning rasmiy ma’lumotlarida uning asosiy faoliyat yo‘nalishlari “davlat aktivlarini boshqarish, davlat ishtirokidagi korxonalarda aksiyadorlik huquqlarini amalga oshirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liqligi qayd etilgan”[2].

Davlat aktivlarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar, avvalo, an’anaviy ma’muriy nazoratdan natijadorlikka yo‘naltirilgan boshqaruvga o‘tishni anglatadi. Bunda davlat mulki alohida obyekt sifatida emas, balki iqtisodiy o‘sish, investitsiyalarni jalb etish, xizmatlar sifatini oshirish va budjet daromadlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiluvchi strategik resurs sifatida qaraladi. Davlat aktivlarini boshqarishni takomillashtirish bugungi bosqichda 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor islohotlar bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida erishilgan natijalar va mavjud muammolarni hisobga olgan holda real sharoitga mos, o‘lchash va baholash mumkin bo‘lgan samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash, strategik maqsadlarning ijrosini monitoring qilish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish hamda soha, tarmoq va hududlarni rivojlantirishga oid strategik rejalashtirish hujjatlarini 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashtirish vazifalari belgilangan[3].

Davlat aktivlarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar, avvalo, davlat mulkiga nisbatan boshqaruv falsafasining o‘zgarishini anglatadi. Bunda davlat mulki oddiy balansdagi obyekt sifatida emas, balki iqtisodiy qiymat yaratish, investitsiya jalb qilish, raqobat muhitini kengaytirish va aholiga sifatli xizmatlar ko‘rsatish imkonini beruvchi boshqaruv resursi sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv davlat aktivlari harakatini faqat nazorat qilish emas, balki ularning rentabelligi, bozor qiymati, foydalanish samaradorligi va ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini baholashni ham talab etadi.

Raqamli boshqaruv mexanizmlarining ahamiyati shundaki, ular davlat aktivlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yagona tizimga jamlash, obyektlarning real holatini kuzatish,

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. 2019 yil 14 yanvardagi PF-5630-son.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son.

ijara, baholash, sotish, xususiylashtirish va monitoring jarayonlarini elektron shaklda yuritish imkonini beradi. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlari, davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohalarni raqamlashtirish, elektron hukumat xizmatlarini rivojlantirish hamda axborot tizimlarini integratsiya qilish vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalar davlat aktivlarini boshqarishda ham elektron reyestrlar, raqamli savdo maydonchalari, avtomatlashtirilgan monitoring va ochiq ma’lumotlar tizimlaridan foydalanishni zarur qiladi.

Davlat aktivlarini boshqarishda xususiylashtirish jarayonlari alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-fevraldagi “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni[4] davlat mulkini xususiy sektorga o‘tkazish jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qiladi. Ushbu qonun xususiylashtirishning asosiy tartib-taomillari, davlat mulkini sotishga tayyorlash, baholash, savdoga chiqarish, xaridorlarni aniqlash va mulk huquqini rasmiylashtirish kabi jarayonlarni tizimlashtiradi. Bu esa davlat mulkini boshqarishda shaffoflik, teng raqobat va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish va davlat aktivlarini xususiy sektorga bosqichma-bosqich o‘tkazish siyosati izchil davom etmoqda. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021–2024-yillar va 2025-yilning o‘tgan davrida davlatga tegishli hamda davlat ishtirokidagi korxonalarga oid jami 7 781 ta aktiv sotilgan, ularning umumiy qiymati 45,5 trillion so‘mni tashkil etgan. Shuningdek, 2025-yilgi xususiylashtirish dasturlari doirasida 115 ta korxonadagi davlat ulushlari, 659 ta ko‘chmas mulk obyekti va 29 ta yirik davlat ishtirokidagi korxonani xalqaro bozorlarga chiqarish rejalashtirilgan[5].

2025-yil uchun qabul qilingan xususiylashtirish dasturida 115 ta korxonadagi davlat aksiya paketlari, 659 ta ko‘chmas mulk obyekti, 6 100 gektar yer uchastkasi hamda 30 ta foydali qazilma kon va uchastkasidan foydalanish huquqini elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish nazarda tutilgan[6]. Bu esa davlat aktivlarini boshqarishda raqamli savdo mexanizmlari, elektron auksionlar va ochiq raqobat tamoyillarining ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Davlat aktivlarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarning yana bir muhim yo‘nalishi — davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv standartlarini takomillashtirishdir. Xalqaro tajribada davlat korxonalari faoliyatida mulkdorlik funksiyasini aniq belgilash, kuzatuv kengashlari mustaqilligini kuchaytirish, moliyaviy

[4] O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida” Qonuni, 14.02.2024 yildagi O‘RQ-907-son.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Davaktiv agentligi. “Fitch” O‘zbekiston reytingini oshirdi: Xususan xususiylashtirish va davlat korxonalari sohasidagi islohotlar e’tirof etildi. Agentlik web sayti yangiligi, 30.06.2025 yil.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida” Farmoni, 21.04.2025 yildagi PF-70-son.

hisobotlarning ochiqligini ta’minlash va davlat korxonalarini bozor tamoyillari asosida boshqarish muhim talab sifatida qaraladi. OECDning O‘zbekiston bo‘yicha 2025-yilgi investitsion islohotlar yo‘l xaritasida mamlakat investitsiya muhitini yaxshilash, islohotlarni chuqurlashtirish, xususiy sektor rolini kuchaytirish va davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini samarali boshqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan[7].

Davlat aktivlarini boshqarishda raqamli mexanizmlarni quyidagi asosiy yo‘nalishlarda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, **yagona raqamli reyestrlar** davlat mulki obyektlari, davlat ulushlari, bo‘sh turgan binolar, ijaraga berilayotgan obyektlar va xususiylashtirilayotgan aktivlar bo‘yicha ishonchli ma’lumotlar bazasini shakllantiradi. Bunday reyestrlar davlat mulkining real holatini aniqlash, foydalanilmayotgan obyektlarni tezkor aniqlash va boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda qabul qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, **elektron auksion va savdo platformalari** davlat aktivlarini sotish yoki ijaraga berishda inson omili ta’sirini kamaytiradi. Elektron savdo mexanizmlari orqali xaridorlar uchun teng imkoniyat yaratiladi, narx shakllanishi bozor tamoyillariga yaqinlashadi va korrupsion xavflar kamayadi. Xususan, yer uchastkalari, ko‘chmas mulk obyektlari va foydali qazilma konlaridan foydalanish huquqini elektron auksion orqali sotish mexanizmlari davlat aktivlari boshqaruvida raqamli transformatsiyaning amaliy ifodasidir.

Uchinchidan, **ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt vositalari** davlat aktivlarining iqtisodiy qiymati, rentabelligi, investitsion jozibadorligi, texnik holati va bozor salohiyatini prognoz qilishda qo‘llanishi mumkin. Bunday texnologiyalar aktivlarni baholash, ulardan foydalanish samaradorligini aniqlash va xususiylashtirishga chiqariladigan obyektlar bo‘yicha ustuvorliklarni belgilashda muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, **ochiq ma’lumotlar va jamoatchilik nazorati** davlat aktivlari boshqaruvida shaffoflikni kuchaytiradi. Davlat mulki bo‘yicha ma’lumotlarning ochiq e’lon qilinishi tadbirkorlar, investorlar, ilmiy tadqiqotchilar va fuqarolik jamiyati institutlariga davlat aktivlari harakatini kuzatish imkonini beradi. Bu esa davlat organlari faoliyatida hisobdorlikni kuchaytiradi va jamoatchilik ishonchini oshiradi.

Beshinchidan, **raqamli monitoring va KPI tizimlari** davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini baholashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. PF-21-son Farmonda samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash va ularning ijrosini raqamli monitoring qilish vazifasi belgilanganligi davlat aktivlari boshqaruvida ham maqsadli indikatorlar, natijadorlik mezonlari va baholash tizimlarini takomillashtirishni talab etadi.

Davlat aktivlarini boshqarish tizimida innovatsion va raqamli mexanizmlarning

[7] OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. 2025.

joriy etilishi faqat texnik yangilanish emas, balki boshqaruv madaniyatining o‘zgarishidir. Bu jarayonda davlat organlari, mahalliy hokimliklar, davlat ishtirokidagi korxonalar, investorlar va jamoatchilik o‘rtasidagi munosabatlar ochiqlik, hisobdorlik, tezkorlik va natijadorlik tamoyillari asosida qayta tashkil etiladi. Natijada davlat mulkidan foydalanish samaradorligi ortadi, davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki maqbullashadi, xususiy sektor faolligi kuchayadi va investitsion muhit yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida” Qonuni, 09.03.2023 yildagi O‘RQ-821-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida” Qonuni, 14.02.2024 yildagi O‘RQ-907-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. 2019 yil 14 yanvardagi PF-5630-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida” Farmoni, 21.04.2025 yildagi PF-70-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davaktiv agentligi. “Fitch” O‘zbekiston reytingini oshirdi: Xususan xususiylashtirish va davlat korxonalari sohasidagi islohotlar e’tirof etildi. Agentlik web sayti yangiligi, 30.06.2025 yil. https://gov.uz/oz/davaktiv/news/view/64560
7. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. 2025. https://www.oecd.org/en/publications/2025/11/roadmap-for-sustainable-investment-policy-reforms-in-uzbekistan_68204584.html

GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISH SHAROITIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA BUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH

Axunova Shohistaxon Nomanjanovna
FDTU, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti
Abdullayev Murodxon Husniddin o'g'li
FDTU, Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda davlat moliyaviy nazorati tizimini budjet intizomini kuchaytirish bilan uzviy bog'liq holda takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi nazoratning natijadorligini oshiruvchi institutsional va uslubiy yechimlarni asoslashdir. Metodologiya sifatida tizimli tahlil, taqqoslama yondashuv va riskka asoslangan audit mantiqi qo'llanadi. Ilmiy yangilik nazorat zanjirida ma'lumotlar integratsiyasi hamda ijro intizomini baholovchi ko'rsatkichlar tizimini taklif etishdan iborat.

Абстрактный: В тезисе рассматриваются направления совершенствования системы государственного финансового контроля в неразрывной связи с укреплением бюджетной дисциплины. Цель исследования состоит в обосновании институциональных и методических решений, повышающих результативность контроля. Методология включает системный анализ, сравнительный подход и логику риск-ориентированного аудита. Научная новизна заключается в предложении интеграции данных в контрольной цепочке и системы индикаторов оценки дисциплины исполнения бюджета.

Abstract: This thesis analyzes ways to improve the state financial control system in close connection with strengthening budget discipline. The study aims to substantiate institutional and methodological solutions that increase control effectiveness and prevent violations. The methodology relies on systemic analysis, comparative reasoning, and risk-based audit logic. Scientific novelty is reflected in proposing integrated data flows across the control chain and a set of indicators for assessing budget execution discipline and management accountability.

Kalit so'zlar: davlat moliyaviy nazorati; budjet intizomi; riskka asoslangan audit; ichki nazorat; ijro intizomi; raqamli monitoring; samaradorlik ko'rsatkichlari

Ключевые слова: государственный финансовый контроль; бюджетная дисциплина; риск-ориентированный аудит; внутренний контроль; исполнительская дисциплина; цифровой мониторинг; показатели эффективности

Keywords: state financial control; budget discipline; risk-based audit; internal control; budget execution compliance; digital monitoring; performance indicators

Davlat moliyaviy nazorati budjet mablag'larining qonuniyligi, maqsadliligi va samaradorligini ta'minlash orqali makroiqtisodiy barqarorlik hamda fiskal

ishonchlilikning institutsional tayanchlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Biroq nazorat tizimi faqat qoidabuzarliklarni aniqlash bilan cheklanib qolsa, u budjet intizomini mustahkamlashga yetarli darajada hissa qo‘sha olmaydi; nazorat natijalari boshqaruv qarorlariga, rejalashtirish va ijro mexanizmlariga qayta bog‘lanmasa, bir xil xatolar takrorlanaveradi. Shu sababli zamonaviy yondashuv nazoratni “postfaktum tekshiruv”dan “oldini olish va boshqaruvni yaxshilash” modeliga o‘tkazishni talab etadi. Bu o‘tishning ilmiy-asoslangan talqini nazorat subyektlari vakolatlarini aniqlashtirish, ma’lumotlar sifatini oshirish, risklarni baholash va ijro intizomini o‘lchash kabi yo‘nalishlarda yechim topishni taqozo etadi [1].

Budjet intizomi tushunchasi tor ma’noda smeta va limitlarga rioya qilish, to‘lov intizomi, xarajatlarning hujjatlashtirilganligi bilan ifodalansa, keng ma’noda u budjet siyosati maqsadlariga erishish uchun resurslardan oqilona foydalanish, natijadorlikka yo‘naltirilgan boshqaruv, moliyaviy intizom buzilishiga olib keluvchi institutsional rag‘batlarning minimallashtirilishini ham qamrab oladi. Amaliyotda intizom buzilishlarining ildizi ko‘pincha rejalashtirishdagi asossizlik, xaridlar tizimidagi axborot nomukammalligi, ichki nazoratning formal xarakteri, shuningdek, ma’lumotlar almashinuvidagi uzilishlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Demak, nazorat tizimini takomillashtirish, avvalo, budjet jarayonining barcha bosqichlarida axborotning izchilligi va mas’uliyatning shaffof taqsimlanishini ta’minlaydigan boshqaruv arxitekturasini shakllantirishni anglatadi [2].

Davlat moliyaviy nazoratini samarali tashkil etish uchun “uch himoya chizig‘i” mantiqi muhim metodologik asos bo‘lib, u boshqaruv mas’uliyati, ichki nazorat va ichki audit, hamda tashqi auditning vazifalarini bir-birini takrorlamaydigan tarzda uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Birinchi chiziq sifatida budjet mablag‘larini tasarruf etuvchilar o‘z jarayonlarida ichki nazoratni o‘rnatishi, moliyaviy majburiyatlar va to‘lovlar bo‘yicha oldindan tekshiruvni yo‘lga qo‘yishi lozim. Ikkinchi chiziq ichki audit va risk-menejment orqali jarayonlarning ishlashini baholab, tuzatish choralarini taklif etadi. Uchinchi chiziq bo‘lgan tashqi audit esa tizim darajasida ishonchlilikni ta’minlaydi, biroq uning asosiy qiymati faqat buzilishlarni qayd etishda emas, balki takrorlanuvchi muammolarning sabablarini ochish va siyosiy-huquqiy hamda protsessual takomillashtirishga turtki berishda namoyon bo‘ladi [6].

Nazorat tizimining natijadorligi ko‘p jihatdan riskka asoslangan yondashuvning joriy etilishiga bog‘liq. Riskka asoslangan audit cheklangan resurslarni eng katta ehtimoliy zarar yoki samarasizlik tug‘diruvchi jarayon va xarajatlarga yo‘naltirish imkonini beradi. Bunda risklarni baholash faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan chegaralanmasdan, xaridlar konsentratsiyasi, bir manbadan xarid ulushi, shartnomalar bo‘yicha narxlarning bozor diapazonidan og‘ishi, muddat buzilishlari, avans-to‘lovlar strukturasining nomutanosibligi, shuningdek, ijro intizomi indikatorlari kabi omillarni ham qamrab olishi zarur. Metodik jihatdan risk modeli indikatorlar tizimi, og‘irlik

koeffitsiyentlari va minimal tekshiruv chegaralarini belgilash orqali formalizatsiya qilinadi; bu esa nazoratning subyektivligini kamaytirib, tekshiruvlar tanlovini asosli qiladi [4].

Budjet intizomini mustahkamlashda profilaktik nazorat vositalari alohida o‘rin tutadi. Profilaktika deganda faqat tushuntirish ishlari emas, balki budjet jarayoniga “oldindan cheklovlar”ni singdirish tushuniladi: majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazishning qat’iy tartibi, limitlardan oshib ketishni avtomatik bloklovchi mexanizmlar, shartnoma tuzishdan oldin narx va hajm asoslanganligini tekshiruvchi analitik filtrlar, shuningdek, to‘lovlarni maqsadli klassifikatsiya bilan bog‘laydigan kodlash intizomi. Bunday mexanizmlar g‘aznachilik ijrosi, davlat xaridlari platformalari va budjet tasnifi ma’lumotlarining integratsiyasini talab qiladi. Integratsiya mavjud bo‘lmaganda, nazorat “hujjatlar yig‘indisi”ga aylanib, real vaqtda ogohlantirish berish imkonini yo‘qotadi; natijada buzilish aniqlansa ham, ko‘pincha u iqtisodiy oqibat bergan bo‘ladi [1].

Raqamli monitoring va analitik nazorat budjet intizomini kuchaytirishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Bu yerda masala faqat elektron hujjat aylanishini joriy etishda emas, balki ma’lumotlarni yagona identifikatorlar orqali bog‘lashda, “to‘liq izchillik zanjiri”ni yaratishda ko‘rinadi: reja, limit, majburiyat, shartnoma, tovar yoki xizmatni qabul qilish dalolatnomasi, to‘lov, natija ko‘rsatkichlari bir-biri bilan mos kelishi kerak. Shu asosda “qizil bayroq” indikatorlari tizimi shakllantiriladi: masalan, bir xil yetkazib beruvchiga qisqa muddatda takroriy shartnomalar, smeta bandlari bo‘yicha tizimli ko‘chirishlar, yil oxirida keskin xarajat ko‘payishi, bo‘linmalar kesimida normativlardan og‘ish, avanslarning qaytarilmasligi. Mazkur indikatorlar riskka asoslangan audit tanlovini avtomatlashtirish bilan birga, boshqaruvning o‘ziga ham o‘z vaqtida signal berib, intizomni tiklashga xizmat qiladi [5].

Tizimni takomillashtirishning muhim sharti vakolatlar va javobgarlikning aniq chegaralanishidir. Amaliyotda turli nazorat organlari faoliyatining takrorlanishi yoki, aksincha, “bo‘sh zonalar” yuzaga kelishi nazorat xarajatlarini oshiradi va javobgarlikni tarqatib yuboradi. Shuning uchun funksional audit xaritasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq: unda nazorat obyektlari, jarayonlar, nazorat turlari (oldindan, joriy, keyingi), ma’lumot manbalari va natija hujjatlarining harakat yo‘li ko‘rsatiladi. Bunday xarita asosida takroriy tekshiruvlar qisqartiriladi, asosiy e’tibor tizimli xatarlar va natijadorlikka qaratiladi. Nazorat natijalarini ko‘rib chiqish tartibi ham kuchaytirilishi lozim: ijro intizomi bo‘yicha majburiy “tuzatish rejalari”, muddatlar, mas’ullar va qayta baholash mezonlari belgilansa, nazorat “tavsiya”dan “boshqaruv sikli”ga aylanadi [2].

Budjet intizomini baholashda ko‘rsatkichlar tizimini taklif etish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Taklif etilayotgan yondashuvda ko‘rsatkichlar uch darajada quriladi. Birinchi daraja moliyaviy intizom indikatorlarini qamrab oladi: limitdan oshish holatlari, majburiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazmasdan to‘lovga urinishlar, xarajatlar tasnifi bo‘yicha xatoliklar ulushi, qarzdorlikning paydo bo‘lishi. Ikkinchi daraja protsess intizomini aks

ettiradi: shartnoma tuzish va ijro muddatlariga rioya, qabul qilish dalolatnomalarining sifat ko‘rsatkichlari, xarid jarayonida raqobat darajasi. Uchinchi daraja natija intizomini o‘lchaydi: dastur yoki loyiha ko‘rsatkichlariga erishish, bir birlik natijaga to‘g‘ri keladigan xarajat dinamikasi, rejalashtirilgan va erishilgan natijalar tafovuti. Ushbu ko‘rsatkichlar yagona ball tizimiga keltirilib, budjet mablag‘lari tasarruf etuvchilar kesimida reyting asosida boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlashi mumkin; bu esa nazoratni jazolash instrumenti emas, balki samaradorlikni oshirish mexanizmiga aylantiradi [4; 6].

Nazorat tizimini modernizatsiya qilishda kadrlar kompetensiyasi va metodik standartlar masalasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Riskka asoslangan audit, raqamli izlar tahlili, ma’lumotlar sifati va boshqaruv hisobotini o‘qish ko‘nikmalari kuchaytirilmasa, eng yaxshi axborot tizimlari ham formal ishlashi mumkin. Shu bois, audit dasturlarini standartlashtirish, tekshiruv dalillarini rasmiylashtirishning bir xil talablarini joriy etish, shuningdek, “samaradorlik auditi”ning metodologik bazasini milliy amaliyotga moslashtirish lozim. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, oliy audit institutlari faoliyatida natijadorlik auditi ulushi ortgani sari budjet intizomi ko‘proq preventiv xarakter kasb etadi, chunki muammo oqibatlari emas, sabab va boshqaruv dizayni baholanadi [7].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish budjet intizomini mustahkamlashning ajralmas sharti bo‘lib, bu jarayon nazoratni profilaktik va riskka yo‘naltirilgan modelga o‘tkazishni, ma’lumotlar integratsiyasini chuqurlashtirishni, vakolat va javobgarlikni aniq chegaralashni hamda ijro intizomini o‘lchashga xizmat qiluvchi ko‘rsatkichlar tizimini joriy etishni talab qiladi. Taklif etilgan yondashuvlar nazorat resurslarini eng muhim xatarlarga jamlash, takrorlanuvchi buzilishlarning ildiz sabablarini aniqlash va budjet mablag‘laridan foydalanishda qonuniylik bilan bir qatorda samaradorlikka erishish imkonini kengaytiradi.

ДАВЛАТ БЮДЖЕТИ ХАРАЖАТЛАРИ ИЖРОСИДА ҒАЗНАЧИЛИК НАЗОРАТИНИНГ ЗАРУРИЯТИ

Маллаев Зокир Сафарбоевич
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Ҳар қандай назорат органи самарали фаолиятни амалга ошириши учун шаффофлик, объективлик, мустақиллик ва ҳолислик тамойиллари унинг ишлаш тамойиллари бўлиши керак. Ғазначилик назорати давлат молиясини бошқаришнинг ажралмас қисми ҳисобланиб, ғазначилик тизимида давлат бюджети ижроси ҳолати тўғрисида ҳақиқий маълумотлар олинади.

Давлат бюджетининг ғазна ижроси – бу давлат молияси маблағларини самарали бошқариш, ягона бюджет ҳисобрақамида даромадларни аккумулияция қилиш ва тушумларни бюджет тизими бюджетлари ўртасида тақсимлаш, банк ҳисобрақамида маблағларни сақлаш ҳамда бюджет ташкилотларида маблағларини

мақсадли ишлатилиши учун дастлабки ва жорий назорат ўтказиш имконини берадиган процедуралардан иборат. Ғазначилик тизимининг асосий мақсади бюджет маблағларини бюджет ташкилотлари ва бюджет маблағи олувчиларига ўз муддатида ва тўлиқ етказиб бериш ва маблағлардан мақсадли фойдаланишни таъминлаш ҳисобланади. Мазкур мақсаднинг амалга оширилиши турли даражадаги бюджет даромадлари ва харажатларининг ижросида бюджетни ижро этиш, ҳисобга олиш ва назорат қилиш ғазначилик органлари томонидан таъминланади. Ғазначиликни жорий этиш бюджет даромадларининг тўлиқ ва ўз вақтида тушиши ҳамда харажатларининг мақсадли сарфланиши устидан молиявий назоратни кучайтириш ва пул оқимларини самарали бошқариш имконини беради”[19].

Тадқиқотчи Ф.А.Шогенованинг фикрига кўра, “Федерал Ғазначилик назорати тўлов ҳужжатларини тўғри тўлдириш ва харажатларни шахсий ғазна ҳисобрақамидаги пул маблағлари миқдоридан ортиқ харажатларидан ошиб кетмаслик учун назорат ваколатларидан фойдаланади”[20]. Тадқиқотчи В.Н. Саранцев бюджетни ижро этишда ғазначилик органларининг фаолиятига эътибор қаратади. Унинг фикрича, “Ғазначилик органлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш бўйича устувор вазифаларни уч турга бўлиш мумкин. Биринчидан, бюджет харажатлари бўйича Федерал бюджетнинг ижросини таъминлаш, иккинчидан, Ягона ғазна ҳисобварағидаги маблағларини назорат асосида бошқариш, учинчидан, Федерал бюджетни Ягона ғазна ҳисобварағининг ликвидлигига эришиш”[21].

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “...Биз мамлакатимиз бюджет тизимини қайта кўриб чиқишимиз, бюджет даромадлари ва харажатлари халқимиз учун очиқ ва ошкора бўлишини таъминлашимиз зарур...”[22]деб, алоҳида қайд этиб ўтдилар. Шу боис солиқ-бюджет соҳасидаги шаффофликни, ғазначилик назоратини ва бюджет ҳисоби сифатини ошириш учун ташқи аудитдан ўтказиш фунцияларини халқаро стандартларга мувофиқлаштириш, шунингдек, бюджет маблағларини аниқ вазирлик ва идоралар кесимида тасдиқлаш орқали Парламент назоратини кучайтириш белгилаб олинди.

Давлат бюджети ғазна ижросида давлат молиявий назоратидаги жорий назоратини кучайтириш ва молиявий интизом бузилишининг олдини олиш бўйича превентив чораларни жорий этиш мақсадида Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Ғазначилик хизмати қўмитаси ва унинг ҳудудий тузилмалари томонидан “иш ҳақи ва унга тенглаштирилган тўловлар, шунингдек, қонунчилик ҳужжатларида белгиланган кечиктириб бўлмайдиган харажатлардан ташқари, давлат харидлари соҳасида қонун бузилиши ҳолатлари аниқланганда тўловларни вақтинча тўхтатиш, шартномани рўйхатдан ўтказмасдан қайтариш, уни бекор қилиш ва қонун бузилиши ҳолатлари мавжудлиги тўғрисида давлат буюртмачисига ҳамда давлат молиявий назорати органлари ёки ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга хабарнома юбориш

тартиби белгиланди”23.

Давлат молиясини бошқариш тизимини янги босқичга олиб чиқиш ва бюджет интизомини янада мустаҳкамлаш, солиқ-бюджет тизимининг шаффофлигини ошириш, Давлат бюджети маблағларидан фойдаланиш самарадорлиги ва натижадорлигини ошириш, Давлат бюджетини ўрта муддатли давр учун режалаштиришнинг замонавий усулларини жорий этиш янада муҳимдир. Бизнинг фикримизча, давлат харидларига оид маълумотларнинг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш мақсадида махсус ахборот Порталида шартномалар ижроси модулини яратиш мақсадга мувофиқ бўлади. Натижада, давлат харидлари электрон тизими операторлари томонидан қонунчилик талабларига риоя этилишини таъминлаш ва дастлабки кузатувдан ўтказиш, давлат харидлари соҳасига оид ҳуқуқбузарликлар вужудга келиши мумкин бўлган хавфларнинг ягона таснифини шакллантиришга эришилади.

Ғазначилик тизимини рақамлаштириш ва автоматлаштириш асосида ҳудудларда ихчам хизмат кўрсатиш офисларини ташкил этиш мақсадга мувофиқ бўлади. Ғазначилик тизимидаги жараёнларни автоматлаштириш, молиявий операцияларда шаффофликни таъминлаш учун сунъий интеллект ва замонавий технологиялардан фойдаланиш ҳисобига рақамли ғазна тизими жорий этилади ва ривожлантирилади.ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Султанов Дилмурод Эркинжонович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Бугунги кунда олий таълим тизими ҳар қандай давлатнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини таъминловчи асосий омиллардан бири ҳисобланади. Глобаллашув, рақамли иқтисодиёт ва инновацион ривожланиш шароитида олий таълим муассасаларининг самарали фаолияти, аввало, уларни молиялаштириш тизимининг қай даражада такомиллашганлигига боғлиқ. Шу боис, олий таълим муассасаларини молиялаштириш манбалари, механизмлари ва самарадорлигини ошириш масалалари долзарб илмий-амалий аҳамият касб этмоқда. Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда олий таълим тизимини ислоҳ қилиш, унинг қамровини кенгайтириш ва таълим сифатини оширишга қаратилган кенг кўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Хусусан, давлат бюджети маблағларини кўпайтириш, хусусий сектор иштирокини кенгайтириш ва таълим хизматларини диверсификация қилиш орқали ОТМларни молиялаштириш тизими босқичма-босқич такомиллаштирилмоқда.

Ўзбекистонда олий таълим муассасаларини молиялаштиришда давлат бюджети асосий манба бўлиб қолмоқда. Шу билан бирга: контракт асосида таълим олувчилар сони ортиб бормоқда; нодавлат (хусусий) ОТМлар сони кўпаймоқда;

халқаро грантлар ва лойиҳалар улуши ўсмоқда. Бироқ, мавжуд тизимда қуйидаги муаммолар сақланиб қолмоқда: молиявий мустақилликнинг чекланганлиги; маблағлардан самарали фойдаланиш механизмларининг етарли эмаслиги; илмий-тадқиқот фаолиятидан даромадлар улушининг пастлиги; хусусий сектор иштирокининг етарлича ривожланмаганлиги.

Олий таълим муассасалари молиявий ресурслари самарадорлигини баҳолашда бевосита молиявий ресурслардан тўғри ва мақсадли фойдаланиш, умумий молиявий ресурсларда хусусий сектор ҳиссаси, бир талабани ўртача ўқитиш харажатлари миқдори ва бошқа индикаторлардан фойдаланилади.

1-жадвал

Молиявий ресурслар кўрсаткичлари [24]

Кўрсаткичлар	Йиллар		
	2023	2024	2025
Бир талабани ўқитиш харажатлари, стипендиясиз (минг сўмда)	13 640,6	15 686,69	15 686,69
Ўртача таълим йўналишлари бўйича тўлов контракт қиймати стипендиясиз (минг сўмда)	7 446,4	10 196,35	10 196,35
Битта талабани бир йиллик ўқитиш харажатларида контракт тўловлари улуши, %	54	65	65
Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги таълим кредитини молиялаштириш жамғармаси маблағлари (млрд.сўм)	1 914,8	2 601,0	2800,0
Илмий тадқиқот ва инновация харажатларининг ЯИМдаги улуши (%)	0,16	0,13	0,14

1-жадвал маълумотларидан кўринадики, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг таҳлилига кўра, ўртача таълим йўналишлари бўйича стипендиясиз ўқитиш харажатлари 2023-2024 ўқув йилида 13640,6 минг сўмни ташкил қилган. Ўртача тўлов контракт қиймати эса 7446,4 минг сўмга тенг бўлиб, харажатларнинг 54 фоизини қоплаган. 2024-2025 ўқув йилида эса тўлов-контракт суммалари миқдори ўтган ўқув йилига нисбатан 15 фоизга ошган бўлиб, ўртача таълим йўналишлари бўйича стипендиясиз ўқитиш харажатлари 15686,69 минг сўмга тенг бўлган. Ўртача тўлов контракт қиймати эса 10 196,35 минг сўмни ташкил қилган. Албатта, тўлов-контракт суммалари миқдори ўртача бир талабани ўқитиш харажатларини қоплай олмайди (2023-2024 ўқув йилида 54 фоизни ташкил қилган бўлса, 2024-2025 йилга келиб 11 фоиз бандга ошиб 65 фоизни ташкил қилган), натижада қолган харажатлар давлат бюджети маблағлари ҳисобидан молиялаштирилади. Бундан ташқари, талабаларни молиявий жиҳатдан қўллаб- қувватлаш мақсадида давлат томонидан ҳар йили имтиёзли таълим кредити ажратилади. Ушбу маблағлар 2025 йилда 2800 млрд.сўмни ташкил қилиб, 2023 йилга нисбатан қарийб 1,5 баробарга ошган. Аммо, илмий тадқиқот ва инновация харажатларининг ялпи ички маҳсулотдаги улушида

сезиларли ўзгариш кузатилмаган. Бу ҳолат ялпи ички маҳсулот ўсиш суръатларининг илмий тадқиқот ва инновацияларга харажатлар ўсиш суръатларига нисбатан юқорилиги ҳамда ушбу харажатлар хажмининг камлиги билан тушунтирилади.

ОТМларни молиялаштиришни такомиллаштириш йўналишлари сифатида қуйидаги таклиф ва тавсияларни келтириш мумкин: биринчидан, молиялаштириш

манбаларини диверсификация қилиш, ОТМлар давлат маблағларига қарамликни камайтириш учун қўшимча даромад манбаларини шакллантириши лозим. Жумладан, илмий тадқиқотлар, консалтинг хизматлари ва инновацион маҳсулотлар орқали даромадларни ошириш муҳим; иккинчидан, молиявий мустақилликни кенгайтириш, ОТМларга бюджетдан ташқари маблағларни мустақил бошқариш ҳуқуқини бериш, харажатлар самарадорлигини оширишга хизмат қилади; учинчидан, натижага асосланган молиялаштириш тизимини жорий этиш, таълим сифати, илмий натижалар ва битирувчилар бандлиги каби кўрсаткичларга қараб маблағ ажратиш механизмларини жорий этиш мақсадга мувофиқ; тўртинчидан, давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш, хусусий сектор иштирокида таълим инфратузилмасини ривожлантириш, лабораториялар ташкил этиш ва таълим дастурларини янгилаш мумкин; бешинчидан, халқаро молиялаштириш манбаларини кенгайтириш, Халқаро ташкилотлар грантлари, хорижий инвестициялар ва қўшма таълим дастурларини жалб қилиш орқали молиявий имкониятларни кенгайтириш зарур; олтинчидан, рақамли молиялаштириш инструментларини жорий этиш, EdTech платформалар, онлайн таълим хизматлари ва рақамли тўлов тизимлари орқали янги даромад манбаларини шакллантириш мумкин.

DAVLAT SEKTORIDAGI TASHKILOTLARDA MAJBURIYATLARNING MOLIYAVIY NAZORAT VA ICHKI AUDITIONING AMALIY JIHATLARI

Axmedov Rustam Norqulovich
TDIU mustaqil izlanuvchi

Bugungi kunda respublikamizda mavjud bo‘lgan davlat moliyaviy nazorat tizimi asosan tashqi moliyaviy nazoratdan iborat bo‘lib, vakolatli organlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi, Moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi, Bosh prokuratura kabilarning alohida bo‘linmalari o‘z vazifalari doirasida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirib kelmoqdalar. Davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish va samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinayotganligiga qaramay budjet tashkilotlarida mablag‘lardan samarali foydalanishda xato-kamchiliklar va huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustda qabul

qilingan – “Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–3231-son Qarori budjet mablag‘lari ijrosini nazorat qilish va uning shaffofligini ta'minlash hamda davlat moliyaviy nazorati tizimida keskin ijobiy o‘zgartirishlar qilishni taqozo etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, endilikda, respublikamizda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi ilg‘or xalqaro tajriba asosida takomillashtiriladi va bunda budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat tizimiga alohida e'tibor qaratiladi.

Mamlakatimizda davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi, budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan muntazam monitoring olib boruvchi tashkilot O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasi hisobla- nar edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5147-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustda qabul qilingan –“Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–3231-son Qarori davlat moliyaviy nazorati tizimining tubdan isloh qilinishiga zamin yaratdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3231-son Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi etib qayta tashkil qilindi va unga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklatildi:

– budjet tashkilotlarida budjet mablag‘larini boshqarish va budjet hisobini yuritish bo‘yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida budjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilish;

– budjet qonunchiligiga rioya etish bo‘yicha budjet tashkilotlari bilan tizimli asosda profilaktika ishlarini olib borish;

– budjet tashkilotlarida aniqlanayotgan pul mablag‘lari va moddiy boyliklarni talon-toroj qilish, kamomadlarga yo‘l qo‘yish, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish tartibini buzish va budjet qonunchiligini boshqacha tarzda buzish;

– holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

– masofaviy nazoratni keng ko‘lamda qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma'lumotlar bazasi vositasida tekshirish ob'ektlari va maqsadlarini aniqlash yo‘li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda budjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish.

Bundan tashqari, yuqoridagi qarorning 9-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi markaziy apparati tarkibida Budjetni tuzish va g‘aznachilik

budjet daromadlari bazasini ken- gaytirish va mablag‘laridan oqilona foydalanish bo‘yicha manfaatdorligini oshirishga qaratilgan yo‘nalishlarda budjet jarayoni metodologiyasini takomillashtirish;

– zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budjet hisobi va hisoboti tizimini yanada takomillashtirish, budjet tizimi budjetlari g‘azna ijrosi va davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirish;

– respublika darajasidagi va hududiy ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari faoliyatini tashkiliy-metodik jihatdan ta'minlash va muvo- fiqlashtirish, ichki audit va moliyaviy nazoratning xalqaro standartlarini ularning faoliyatiga joriy etish.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati mexanizmlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ichki audit funksiyasining nechog‘lik darajada amalga oshirilayotganligiga bevosita bog‘liqdir. Zero, rivojlangan mamlakatlar, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlar allaqachon davlat sektorida ichki auditni samarali yo‘lga qo‘yishgan.

Ichki auditni qo‘llanish sohasi va amalga oshiradigan funksiyalariga ko‘ra tasniflash mumkin. Xalqaro tajribaga ko‘ra qo‘llanish sohasi bo‘yicha ichki audit ikkiga bo‘linadi: davlat sektorida ichki audit va xususiy sektorda ichki audit.

Budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini joriy qilish bo‘yicha xo- rij tajribasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning asosiy jihatlari quyida bayon etiladi (1-jadval).

1-jadval

Ichki audit bo‘yicha ayrim rivojlangan davlatlar tajribasining o‘ziga xos jihatlari

Ko‘rsatkichlar	AQSh	Buyuk Britaniya	Yaponiya
Me'yoriy hujjat	Davlat sektori auditining umum qabul qilingan standartlari(Generalaccepted government auditing standards)	Davlatsektoriichkiaudit standartlari(Publicsector internal audit standards)	Ichki auditorlar in- stitutining Ichk audit professional amaliyoti xalqaro standartlari (The IIA’s Internationa StandardsfortheProfes-sionalPractic of Internal Auditing)
Nazoratqiluvchi tashkilot	Davlatauditboshqarmasi (Governmentauditingoffice)	Ichki audit standartlari bo‘yichamaslahatkengashi (Internal Audit Standards Advisory Board)	Moliyaviyxizmatlaragentligi (Financialserviceagency)
Amalqiluvchi sertifikat	Sertifikatli ichki auditor (Certifiyedinternalauditor), Davlat sektori ichki audit standartlari diplomi (DipIPSIAS)	Sertifikatliichkiauditor (Certifiyedinternal auditor)	Sertifikatlijamoatbuxgalteri(Certifiyed Public Accountant)

Manba: muallif ishlanmasi.

Ichki auditning vatani hisoblangan AQShda Ichki auditorlar instituti tashkil etilgan bo‘lib, unda dunyoning 170 dan ortiq mamlakat hududlaridan 190000 nafardan ortiq a'zolarni birlashtiradi.

AQShda ichki auditni tartibga solishda quyidagi ikki muhim hujjatdan foydalaniladi:

Ichki auditorlar institutining Ichki audit professional amaliyoti xalqaro standartlari (The IIA's International Standards for the Pro- fessional Practice of Internal Auditing);

Davlat sektori auditining umum qabul qilingan standartlari (General accepted government auditing standards).

Buyuk Britaniyada budjet tashkilotlarida ichki audit Ichki audit stan- dartlari boʻyicha maslahat kengashi tomonidan ishlab chiqiladi. Mazkur standartlarni ishlab chiqishning alohida xususiyati shundaki, ularni ishlab chiqishda Ichki audit standartlarini oʻrnatuvchilar (Relevant in- ternal audit standard setters) tomonidan belgilangan talablar asos sifatida olinadi. Ichki audit standartlarini oʻrnatuvchilar tarkibiga Davlat moliyasi va buxgalteriya hisobi jamoat instituti (CIPFA), HM Gʻaznachiligi (HM Treasury), Sogʻliqni saqlash vazirligi va Moliya vazir- ligi kiradi. Ushbu tashkilotlar oʻz manfaatlaridan kelib chiqqan holda budjet tashkilotlari ichki audit standartlarini talablarini belgilab berishadi.

Yaponiyada ichki auditni tashkil etish, sertifikasiyalash va nazorat qilish. Moliyaviy xizmatlar agentligining mustaqil organi hisoblangan Sertifikatli jamoat buxgalterlari va auditorlik faoliyati nazorati kengashi (Certified Public Accountans and Auditing Oversight Board) to- monidan amalga oshiriladi.

Respublikamizda ham budjet tashkilotlarida ichki audit tizimi zamona- viy talablar asosida shakllantirilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezi- dentining PQ–3231-son Qaroriga muvofiq ushbu tizim dastlab, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sogʻliqni saqlash vazirligi, Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligining Oʻrta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasida tashkil etilmoqda. Endilikda, yuqoridagi vazirliklar tarkibida 3 shtatdan iborat respublika darajasidagi ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati tashkil etiladi va ularning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanadi:

– respublika darajasidagi hamda hududiy ichki audit va moliyaviy nazo- rat xizmatlarining – budjet mablagʻlarining noqonuniy sarflanishi va talon- toroj qilinishi holatlarining quyidagi yoʻllar bilan profilakti- kasini ta'minlash va ularning oldini olish:

– boʻysunuvidagi muassasalarda xarajatlar smetasini rejalashti- rish va uning ijrosi, budjet hisobining yuritilishi, tender (tanlov) savdolarining oʻtkazilishi va shartnomalar tuzilishi ustidan monito- ring qilish;

– boʻysunuvidagi muassasalar va markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari rahbarlariga budjet hisobi va hisoboti tizimini takomil- lashtirish, asossiz debitor va kreditor qarzdorliklarga yoʻl qoʻymaslik, budjet intizomini mustahkamlash, budjet mablagʻlaridan foydalanish, shu jumladan tovarlar, ish va xizmatlarni xarid qilish

samaradorligini oshirish, shuningdek, markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining xodimlari tarkibini mustahkamlash masalalari bo‘yicha tavsiyalar tay- yorlash;

– qonunni buzish holatlarini, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida quyi muassasa- larga bajarilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA BUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii, “Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi professori., DSc.
Abdurasulov Ravshanbek Xotam o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezis davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash muammolarini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganadi. Tadqiqotda moliyaviy nazoratning oldindan, joriy va keyingi shakllari tahlil qilinib, Germaniya, Estoniya va Janubiy Koreya davlatlarining ilg‘or xalqaro tajribasi o‘rganilgan. O‘zbekistondagi amaldagi nazorat tizimining institutsional kamchiliklari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha raqamli texnologiyalar integratsiyasi, huquqiy-me‘yoriy baza takomillashtirish va insoniy kapital rivojlantirish yo‘nalishlarida strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari moliya sohasidagi davlat xizmatchilari, siyosatchilar va ilmiy tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: davlat moliyaviy nazorati, budjet intizomi, ichki audit, tashqi audit, Hisob palatasi, budjet ijrosi, fiskal shaffoflik, raqamli transformatsiya, oldindan nazorat, natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish, moliyaviy mas'uliyat, IFMIS, davlat xarajatlari, korrupsiyaga qarshi kurash, xalqaro standartlar.

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida moliyaviy nazorat va budjet intizomi davlat moliyasini samarali boshqarishning poydevori hisoblanadi. Turli davlatlarning tajribasini kuzatganda, fiskal shafoflik va qattiq moliyaviy nazorat mavjud bo‘lgan mamlakatlar makroiqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va iqtisodiy o‘sish sohasida ancha yuqori ko‘rsatkichlarga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish borasida izchil choralar ko‘rib kelmoqda. 2017–2021 yillarda amalga oshirilgan islohotlar va 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan strategik rejalar doirasida moliyaviy intizomni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. Biroq amaliyotda hali ham budjet mablag‘larining maqsadsiz sarflanishi, moliyaviy hisobotlarda yuzaga keladigan nomuvofiqliklar va nazorat mexanizmlarining sust ishlashi kabi muammolar mavjud.

Ushbu tezisda davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlashning nazariy asoslari, zamonaviy yondashuvlar, xalqaro tajriba va O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar o‘rganiladi.

Budjet mablag‘larining to‘g‘ri va samarali sarflanishini ta’minlash – bu nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega masala. Davlat resurslari jamiyatning umumiy manfaati yo‘lida sarflanishi lozim, bu esa faqatgina kuchli nazorat tizimi mavjud bo‘lgandagina ta’minlanishi mumkin.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlarda budjet mablag‘larining o‘rtacha 10–15 foizi samarasiz yoki noto‘g‘ri sarflanadi. O‘zbekistonda ham Davlat moliya nazorati qo‘mitasining yillik hisobotlari moliyaviy intizom buzilishi holatlari hali ham keng tarqalganligini ko‘rsatmoqda. Bu holat quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi:

- Ijtimoiy dasturlarning moliyaviy ta’minotida kamchiliklar yuzaga keladi;
- Davlat qarzining yanada o‘sishiga sharoit yaratiladi;
- Fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi pasayadi;
- Korrupsiya va soyali iqtisodiyot kengayadi.

Mavzuning ilmiy yangiligi shundaki, ushbu tezisda an’anaviy nazorat mexanizmlari bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar (sun’iy intellekt, blokcheyn, katta ma’lumotlar tahlili) asosidagi zamonaviy nazorat yondashuvlari tahlil qilinadi va ular O‘zbekiston moliya tizimiga tatbiq etishning maqbul modeli ishlab chiqiladi. Bu sohadagi ilmiy adabiyotlar qatorida Axborov (2023), Mirzayev (2022) va Rahimov (2024) kabi mahalliy tadqiqotchilarning ishlari alohida o‘rin tutadi, biroq raqamli nazorat integratsiyasi aspekti hali to‘liq tadqiq etilmagan.

Davlat moliyaviy nazorati – bu davlat hokimiyati organlari tomonidan budjet mablag‘lari va boshqa davlat moliyaviy resurslarining shakllantirish, taqsimlash va foydalanish jarayonlarini nazorat qilish hamda baholash faoliyatidir. Moliyaviy nazorat funksional jihatdan uch asosiy yo‘nalishni qamrab oladi:

Oldindan nazorat (ex-ante control) – budjet mablag‘lari sarflanishidan avval amalga oshiriladi va profilaktik vazifasini bajaradi. Xarajatlar rejalashtirilgan maqsadga muvofiqligini oldindan tekshirish orqali samarasiz sarflarning oldini oladi.

Joriy nazorat (concurrent control) – mablag‘lar sarflanishi davomida amalga oshiriladi. Real vaqt rejimidagi monitoring tizimlar bu turining zamonaviy shaklidir.

Keyingi nazorat (ex-post control) – xarajatlar amalga oshirilgandan so‘ng audit va tekshirishlar orqali amalga oshiriladi. Tashqi audit organlar (masalan, O‘zbekistonda Hisob palatasi) bu sohada asosiy rol o‘ynaydi.

Budjet intizomi – bu belgilangan budjet chegaralari, moliyaviy me’yorlar va qonuniy talablarga qat’iy rioya etish tamoyilidir. Iqtisodchilar budjet intizomini uchta asosiy mezonlar orqali baholaydi:

– Budjet taqchilligini belgilangan chegarada (YaIM ning 3 foizidan oshirmaslik) ushlab turish;

– Davlat qarzining barqaror darajada bo‘lishini ta‘minlash;

– Rejalashtirilgan xarajatlardan og‘ishni minimal darajada saqlash.

Ijtimoiy shartnoma nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, davlat fuqarolardan yig‘ilgan soliqlarni belgilangan yo‘nalishlarda samarali sarflashi – bu siyosiy legitimlikni asoslovchi omillardan biridir. Bu tamoyil Rosseau va Lokk falsafiy merosiga borib taqaladi va zamonaviy davlat boshqaruvi nazariyasida fundamental ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishning bir qancha samarali modellari ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan O‘zbekiston sharoitida foydalanish mumkin bo‘lgan jihatlarni ajratib ko‘rsatish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Germaniya Federal Hisob palatasi (Bundesrechnungshof) dunyodagi eng mustaqil va samarali davlat audit organlaridan biri hisoblanadi. Uni xususiyatlari qatorida: parlament va ijroiya hokimiyatidan to‘liq mustaqillik; texnik ekspertizaga asoslangan tekshirishlar; natijalarni ochiq e’lon qilish va ommaviy muhokama mexanizmlari mavjudligini ta’kidlash joiz. Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, audit organi qanchalik mustaqil bo‘lsa, uning tavsiyalari shunchalik samarali amalga oshiriladi.

Estoniya e-davlat tizimi bugungi kunda xalqaro andozalarda ko‘pincha namuna sifatida keltiriladi. Mamlakat budjet xarajatlarining 95 foizdan ortiq qismi raqamli platforma orqali amalga oshiriladi va real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Buning natijasida: moliyaviy hisobotlardagi xatolar 70 foizga kamaygan; budjet tsikli davomiyligi qisqargan; korrupsiya xavfi sezilarli darajada tushgan. Estoniya tajribasi O‘zbekistonda joriy etilayotgan IFMIS (Integrated Financial Management Information System) tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim saboqlar beradi.

Janubiy Koreya 2006 yildan beri joriy etilgan PART (Program Assessment Rating Tool) tizimi orqali davlat dasturlarini samaradorlik mezonlari asosida baholaydi. Bu tizim har bir budjet dasturi uchun aniq o‘lchanadigan natija ko‘rsatkichlari (KPI) belgilab, ularning bajarilishi moliyalashtirishni davom ettirishning asosiy sharti qilib qo‘yadi. Bu yondashuv O‘zbekistonda “natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish” islohotlarini chuqurlashtirish uchun qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati quyidagi organlar tomonidan amalga oshiriladi:

– Moliya vazirligi – budjet ijrosi ustidan markaziy nazorat;

– Hisob palatasi – oliy parlament nazorati organi;

– Davlat soliq qo‘mitasi – soliq tushumlarini nazorat qilish;

– Ichki audit xizmatlari – vazirliklardagi ichki nazorat;

– Prokurator organlari – moliyaviy jinoyatlar sohasida huquqiy nazorat.

2020 yilda qabul qilingan “Ichki audit to‘g‘risida”gi qonun va 2022 yildagi moliyaviy hisobotlilik standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish bo‘yicha qarorlar

tizimni isloh qilishda muhim qadamlar bo‘ldi. Shuningdek, xazina integratsiyalashgan boshqaruv tizimining kengaytirilishi budjet mablag‘larini tracking qilish imkoniyatlarini oshirdi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar va hisobotlar asosida mavjud tizimning quyidagi tarkibiy muammolari aniqlangan:

Birinchidan, nazorat organlarining institutsional mustaqilligining yetarli emasligi. Hisob palatasi parlamentga hisobot bersa-da, uning tekshiruv dasturi ba'zan siyosiy ta'sirga duchor bo‘ladi. Xalqaro INTOSAI standartlari bo‘yicha, oliy audit organining to‘liq moliyaviy va operatsional mustaqilligi kafolatlanishi zarur.

Ikkinchidan, moliyaviy ma'lumotlarning fragmentlashganligi. Turli nazorat organlarining ma'lumotlar bazalari o‘rtasida to‘liq integratsiya yo‘qligi tizimli tahlil qilishni qiyinlashtiradi va ikki tomonlama yoki ziddiyatli ma'lumotlar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Uchinchidan, ichki auditning rolini kuchaytirish zaruriyati. Vazirliklardagi ichki audit xizmatlarining professional salohiyati va mustaqilligi hali ham kerakli darajaga yetmagan. Ko‘p hollarda ichki auditorlar amalda rahbariyatning ko‘rsatmalariga qaram bo‘ladi.

To‘rtinchidan, nazorat natijalariga javobgarlikning sustligi. Tekshirishlar olib borilsa-da, aniqlangan qoidabuzarliklar uchun samarali choralar ko‘rilmasligi holatlariga uchrab turiladi, bu esa nazoratning deterrent (oldini oluvchi) ta'sirini kamaytiradi.

Taklif etilgan chora-tadbirlar to‘liq amalga oshirilsa, quyidagi natijalar qisqa va o‘rta muddatda erishilishi realistik ko‘rinadi:

Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash – bu bir martalik islohot emas, balki uzluksiz takomillashtirishni talab etuvchi dinamik jarayon. Ushbu tezisda o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ushbu sohada jiddiy progress bo‘lsa-da, bir qator tarkibiy muammolar bartaraf etilmagan. Xalqaro tajriba ko‘rsatadiki, samarali moliyaviy nazorat tizimi uch ustundan iborat: mustaqil audit organlari, integratsiyalashgan raqamli tizimlar va kuchli huquqiy javobgarlik mexanizmlari. O‘zbekistonda ushbu uchala element ham mavjud, ammo ularning o‘zaro uyg‘unligi yetarli darajada ta'minlanmagan.

Ko‘rsatkich	Amaldagi holat	Maqsadli ko‘rsatkich (3 yil)
Byudjet ijrosida og‘ish darajasi	±8–12%	±3–5%
Moliyaviy qoidabuzarliklar soni	Yiliga ~3 500 holat	Yiliga < 1 500 holat

Ko‘rsatkich	Amaldagi holat	Maqsadli ko‘rsatkich (3 yil)
Ochiq byudjet indeksi (OBI)	45 ball (2023)	≥ 65 ball
Ichki audit qamrovi	~45% organlar	≥ 85% organlar
Raqamli xarajatlar ulushi	~60%	≥ 92%

Raqamli texnologiyalar – ayniqsa sun'iy intellekt va blokcheyn – davlat moliyasida shaffoflikni tubdan oshirish imkoniyatini beradi. Estoniya tajribasi bu texnologiyalarni muvaffaqiyatli tatbiq etishning real modeli ekanligini isbotlamoqda. Moliyaviy intizomni mustahkamlash faqat nazorat choralaridan emas, balki mas'uliyat madaniyatini shakllantirishdan ham iborat. Huquqiy sanksiyalar va raqamli vositalar bilan bir qatorda insoniy omil – malakali, etiborli va rag‘batlangan davlat xodimi – hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Kelgusida tadqiqotni davom ettirish uchun “natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish” ning samaradorlik baholash metodologiyasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish va mahalliy hukumat organlarida pilot sinovlarni o‘tkazish istiqbolli yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

BUDJET TASHKILOTLARIDA PUL MABLAG‘LARI HISOBI VA NAZORATI

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii, “Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi professori., DSc.
Anorboyeva Jasmina
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Hozirgi kunda davlat moliya tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan budjet tashkilotlarida pul mablag‘larining qanday hisobga olinishi va ular ustidan qanday nazorat o‘rnatilganiga bog‘liq. Chunki aynan shu mablag‘lar orqali davlat o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muhim vazifalarini amalga oshiradi. Shuning uchun ham ularning harakati ustidan aniq hisob yuritish va doimiy nazorat olib borish zarur hisoblanadi[25].

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, pul mablag‘larining noto‘g‘ri hisobga olinishi yoki yetarli nazorat qilinmasligi moliyaviy intizom buzilishiga olib keladi. Shu sababli

[25] O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, 2013-yil 26-dekabr.

O‘zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari hisobi va nazorati aniq me’yoriy hujjatlar asosida tashkil etilgan.

Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari hisobi, eng avvalo, ularning kelib tushishi va sarflanishini to‘g‘ri aks ettirishga xizmat qiladi. Bunda asosiy e’tibor mablag‘larning qayerdan kelgani va qaysi maqsadlarga sarflanayotganiga qaratiladi. Odatda budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi: budjet mablag‘lari, budjetdan tashqari tushumlar va ayrim hollarda maqsadli jamg‘armalar. Ushbu mablag‘larning harakati asosan yagona tizim — Yagona g‘azna hisobvarag‘i orqali amalga oshiriladi[26].

Hisob yuritishda barcha operatsiyalar hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Masalan, to‘lov topshiriqnomalari, kirim va chiqim orderlari yoki g‘aznachilik orqali o‘tgan to‘lov hujjatlari asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa hisobning ishonchliligini ta’minlaydi.

Nazorat tizimi odatda uch bosqichda amalga oshiriladi va bu amaliyotda o‘zini oqlagan tizim hisoblanadi.

Birinchi bosqich — dastlabki nazorat. Bu yerda mablag‘ sarflanishidan oldin uning smetaga mosligi tekshiriladi. Ya’ni tashkilot ajratilgan limitdan chiqib ketmasligi kerak[27].

Ikinchi bosqich — joriy nazorat. Bu jarayonda pul mablag‘lari harakati davomida g‘aznachilik organlari tomonidan hujjatlar tekshiriladi. Har bir to‘lov ma’lum tartib asosida ko‘rib chiqiladi va shundan keyingina amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich — keyingi nazorat. Bu bosqichda allaqachon amalga oshirilgan operatsiyalar tahlil qilinadi. Hisobotlar asosida mablag‘larning to‘g‘ri sarflangani yoki kamchiliklar mavjudligi aniqlanadi[28].

Shuni aytish kerakki, aynan mana shu uch bosqichli nazorat tizimi budjet mablag‘laridan noto‘g‘ri foydalanish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Bugungi kunda budjet mablag‘lari harakati ustidan nazoratni tashkil etishda g‘aznachilik tizimi asosiy rol o‘ynaydi. Avvallari mablag‘lar tarqoq holda boshqarilgan bo‘lsa, hozir ular yagona tizim orqali nazorat qilinadi. G‘aznachilik tizimi orqali har bir to‘lov oldindan tekshiruvdan o‘tadi. Bu esa mablag‘larning maqsadsiz sarflanishiga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qiladi. Bundan tashqari, barcha operatsiyalarning elektron shaklda yuritilishi hisobning shaffofligini oshiradi va inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi[29]. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, g‘aznachilik tizimi joriy etilgandan so‘ng budjet intizomi sezilarli darajada mustahkamlangan.

Shunga qaramay, ayrim muammolar hali ham uchrab turadi. Masalan, ba’zi tashkilotlarda hujjatlar to‘g‘ri rasmiylashtirilmaydi yoki ichki nazorat yetarli darajada

[26] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining g‘aznachilik tizimi bo‘yicha qarorlari.
[27] Budjet ijrosi qoidalari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
[28] Davlat moliyaviy nazorati asoslari bo‘yicha uslubiyqo‘llanmalar.
[29] G‘aznachilik ijrosi bo‘yicha amaldagi yo‘riqnomalar.

yo‘lga qo‘yilmagan bo‘ladi. Bundan tashqari, axborot tizimlaridan to‘liq foydalanilmasligi ham samaradorlikni pasaytiradi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun, avvalo, xodimlarning malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni kengroq joriy etish zarur. Ayniqsa, ichki audit tizimini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari hisobi va nazorati davlat moliya tizimining eng muhim bo‘g‘inlaridan biridir. Mablag‘larning to‘g‘ri hisobga olinishi va ular ustidan samarali nazorat o‘rnatilishi davlat resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Kelgusida ushbu tizimni yanada takomillashtirish, xususan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali nazorat samaradorligini oshirish mumkin.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINING DAVLAT BUDJETIDAGI TAQSIMLANISHI VA MOLIYAVIY NAZORAT MASALALARI

Abdulatifxon Anvarxonov
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) 2015-yilda Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan bo‘lib, 2030-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi[30]. O‘zbekiston ushbu global kun tartibini milliy rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilgan davlatlardan biri hisoblanadi. 2018-yilda mamlakatda 16 ta milliy BRM, 125 dan ortiq vazifa hamda 190 ga yaqin indikator tasdiqlangan bo‘lib, ular asosida davlat siyosati shakllantirilmoqda[31].

Davlat budjeti ushbu maqsadlarni moliyalashtirishning asosiy instrumenti hisoblanadi. So‘nggi yillarda budjet hajmi sezilarli darajada oshib, 2022-yildagi 236,7 trln so‘mdan 2025-yilda 347 trln so‘mdan ortiq darajaga yetgan[32]. Bu esa qisqa muddat ichida qariyb 110 trln so‘mlik o‘sishni anglatadi. Budjet siyosatida BRMlarga yo‘naltirilganlik kuchayib, 2026-yil uchun prognozlarga ko‘ra davlat xarajatlarining 70 foizdan ortig‘i aynan BRM yo‘nalishlariga mos keladi[33].

Davlat budjeti va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda keng o‘rganilmoqda. Xalqaro miqyosda BMT tomonidan ishlab chiqilgan 2030-yilgacha kun tartibi davlat moliyasini strategik boshqarishning yangi modelini taklif etadi. Shu doirada BMT Rivojlanish dasturi tomonidan ilgari surilgan BRMni

[30] United Nations. *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development.* – New York, 2015. https://sdgs.un.org/2030agenda

[31] O’zbekiston Milliy Statistika qo’mitasi. *Barqaror rivojlanish maqsadlari milliy platformasi.* https://nsdg.stat.uz/uz

[32] Open Budget Uzbekistan. *Davlat budjeti ko‘rsatkichlari (2022–2025).* https://openbudget.uz/api/v2/info/file/f869028a19cf51e8f9f54c5dc5ae1004

[33] O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *2026–2028-yillar uchun Budjetnoma.* – Toshkent, 2026. https://api.mf.uz/media/filestore/2026-2028-yillar_uchun_Budjetnoma.pdf

budjetlashtirish (SDG budgeting) konsepsiyasi davlat xarajatlarini barqaror rivojlanish maqsadlari bilan integratsiyalashni nazarda tutadi[34].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tadqiqotlarida ham davlat budjeti orqali ekologik va ijtimoiy ustuvorliklarni amalga oshirish imkoniyati yuqori ekani ta'kidlanib, yashil budjetlash yashil budjetlashtirish (green budgeting) mexanizmi orqali xarajatlarni tasniflash samarali natija berishi qayd etilgan[35].

Ilmiy maqolalarda ham ushbu yo'nalish chuqur o'rganilgan. Masalan, David Hopp va hammualliflar (2022) BRM indikatorlarini real vaqt rejimida baholash tizimi yetarli darajada rivojlanmaganini ko'rsatadi[36]. Linas Pukelis va boshqalar (2020) esa BRMlarni tasniflash algoritmlarini takomillashtirish zarurligini asoslab bergan[37]. Shu sababli, ushbu tadqiqotlar davlat budjeti xarajatlarini BRMlar bilan integratsiya qilish, ularni monitoring qilish va moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalarida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotlarda davlat budjetining ijtimoiy yo'naltirilganligi alohida ta'kidlanadi. Xususan, 2016–2020-yillar oralig'ida ta'lim xarajatlari ulushi 35 foizdan 24 foizgacha kamaygan bo'lsa-da, umumiy hajm jihatidan oshib borayotgani qayd etilgan.

Mazkur tadqiqotda davlat budjeti mablag'larining BRMning bilan bog'liqligini baholash uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, statistik tahlil usuli asosida 2022–2026-yillar davomida davlat budjeti umumiy hajmi (236,7 trln so'mdan 347 trln so'mgacha) hamda BRM yo'nalishlariga ajratilgan xarajatlar ulushi o'rganildi. Strukturaviy tahlil usuli orqali davlat budjeti xarajatlari BRM yo'nalishlari kesimida (ijtimoiy soha, iqtisodiy infratuzilma va ekologiya) ajratilib, ularning ulushi aniqlashtirildi. Bundan tashqari, indikatorli baholash yondashuvi qo'llanilib, milliy BRM tizimidagi 190 ga yaqin indikatorlar asosida davlat budjeti xarajatlarining maqsadlarga mosligi baholandi. Ushbu metodlar yig'indisi davlat moliyaviy nazorati nuqtai nazaridan budjet mablag'larining samaradorligi va maqsadliligi haqida asosli xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda davlat budjeti xarajatlari BRMlar bilan tobora chuqur integratsiyalashib bormoqda. 2026-yil uchun prognozlarga ko'ra, davlat budjeti xarajatlarining qariyb 74–75 foizi BRMlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Bu esa budjetning asosiy qismi bevosita ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga xizmat qilayotganini anglatadi.

---

[34] United Nations Development Programme (UNDP). *SDG Budgeting Guidelines.* – New York, 2022. http://sdgfinance.undp.org/sites/default/files/2024-04/B4SDGs%20ModularHandbook.pdf

[35] Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *Green Budgeting Framework.* – Paris, 2020. https://www.oecd.org/environment/green-budgeting

[36] Hopp D., Fu E. *Nowcasting Sustainable Development Goal indicators.* – 2022. https://journals.sagepub.com/doi/10.3233/SJI-220959

[37] Pukelis L., et al. *OSDG 2.0: A multilingual tool for classifying text data by UN Sustainable Development Goals.* – 2020. https://www.researchgate.net/publication/365633374

BRMlar kesimida xarajatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, eng katta ulush ijtimoiy yo‘nalishlarga to‘g‘ri keladi. Xususan, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlariga yo‘naltirilgan xarajatlar umumiy budjetning qariyb 40–50 foizini tashkil etadi. Bu BRM 3 (sog‘liqni saqlash) va BRM 4 (ta’lim) ustuvor yo‘nalish ekanligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy himoya va kambag‘allikni qisqartirishga yo‘naltirilgan xarajatlar ham sezilarli ulushga ega bo‘lib, ular umumiy budjetning 10–15 foizini tashkil etadi. Bu BRM 1 ga to‘g‘ri keladi.

Infratuzilma va iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlari (transport, energetika, sanoat) uchun ajratilgan mablag‘lar taxminan 15–20 foizni tashkil etadi va ular BRM 8 hamda BRM 9 bilan bog‘liq.

Ekologik yo‘nalishlarga ajratilgan mablag‘lar ulushi nisbatan kamroq bo‘lib, ayrim hisob-kitoblarga ko‘ra 2–4 foiz atrofida shakllanmoqda. Bu BRM 13 (iqlim o‘zgarishi) bo‘yicha moliyalashtirish hali yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar davlat budjeti va BRM o‘rtasidagi yuqori darajadagi integratsiyani tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ayrim tizimli muammolar ham mavjud. Jumladan, BRM bo‘yicha xarajatlarni aniq tasniflash metodologiyasi hali to‘liq mukammal emas, chunki ayrim xarajatlar bir vaqtning o‘zida bir nechta maqsadlarga xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, ekologik yo‘nalishlarga ajratilayotgan mablag‘lar ulushining pastligi uzoq muddatli barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan xavf tug‘diradi. Xalqaro tajribada bu ko‘rsatkich ayrim davlatlarda 8–10 foizgacha yetgan bo‘lsa, O‘zbekistonda hali past darajada qolmoqda.

2027–2028-yillar uchun fiskal prognozlarda davlat budjeti xarajatlarining BRM bilan integratsiyasi yuqori darajada saqlanib qolishi kutilmoqda. Xususan, 2026-yilda budjet xarajatlarining qariyb 74–75 foizi BRMlga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2027–2028-yillarda ham 75–76 foiz diapazonida barqaror saqlanishi prognoz qilinmoqda. Taqsimot tarkibida ijtimoiy yo‘nalishlar ustuvor bo‘lib qolishi, ya’ni ta’lim va sog‘liqni saqlash xarajatlari jami BRMga yo‘naltirilgan mablag‘larning qariyb 35–40 foizini tashkil etishi kutilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya va kambag‘allikni qisqartirishga ajratiladigan mablag‘lar ulushi 9–10 foiz atrofida shakllanishi, iqtisodiy infratuzilma va sanoat rivoji bilan bog‘liq xarajatlar ulushi esa 7–8 foiz darajasida saqlanishi prognoz qilinmoqda. Ushbu prognozlar davlat budjeti tarkibida BRM yo‘nalishlarining ustuvorligi saqlanib qolishini, ayniqsa ijtimoiy sohalarning asosiy rolini davom ettirishini ko‘rsatadi.

Global miqyosda ham BRMlarni moliyalashtirish muammosi dolzarb bo‘lib, yillik moliyalashtirish yetishmovchiligi 4 trillion AQSH dollaridan ortiq ekani qayd etilgan. Bu esa milliy darajada qo‘shimcha moliyaviy instrumentlarni joriy etishni talab etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti BRMlar bilan yuqori darajada integratsiyalashgan. 2026-yilda budjet xarajatlarining

qariyb 74–75 foizini BRM yo‘nalishlariga yo‘naltirilishi bu boradagi islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ekologik yo‘nalishlar ulushini oshirish, indikatorlar asosida monitoring tizimini kuchaytirish hamda natijaga yo‘naltirilgan budjetlashni chuqurlashtirish orqali davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish mumkin.

BANK TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Rajabov Behzod Mirshodovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti i.f.f.d(PhD)
Maxammadiyeva Sabina Sharofiddin qizi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola bank tizimining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, raqamli transformatsiya jarayonlari va moliyaviy nazorat tizimining samaradorligini oshirish masalalarini o‘rganadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli bank xizmatlarini joriy etish banklar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va mijoz ehtiyojlarini qondirish darajasini yaxshilaydi. Moliyaviy nazorat va ichki audit tizimlari esa bankning barqaror moliyaviy faoliyatini ta’minlash, risklarni kamaytirish va shaffoflikni oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Maqolada O‘zbekiston sharoitida filiallar tarmog‘ining samaradorligini baholash, raqamli transformatsiya bilan uyg‘unligi va ichki nazorat mexanizmlarining rivojlantirilishi masalalari tahlil qilinadi. Xalqaro va mahalliy tajribalar tahlili orqali ko‘rsatilib, bank transformatsiyasi, raqamli texnologiyalarni joriy etish va samarali nazorat tizimlarini shakllantirish banklar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, xizmat sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun muhim omil ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: bank tizimi, milliy iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, moliyaviy nazorat, ichki audit, samaradorlik, filiallar tarmog‘i, risklarni boshqarish, xizmat sifati

Kirish. Bank tizimi har doim milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlovchi muhim segmentlardan biri bo‘lib kelgan. So‘nggi yillarda global moliya bozorlaridagi o‘zgarishlar, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va texnologik innovatsiyalarning keng tatbiq etilishi bank faoliyatining barcha jabhalarini tubdan transformatsiya qilmoqda. Bank tizimi milliy iqtisodiyotning muhim bo‘lagi sifatida nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi, balki investitsiyalarni jalb qilish, kredit resurslarini samarali taqsimlash va iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Shu sababli, banklar faoliyatining sifatli va samarali ishlashi, ularning moliyaviy barqarorligi va boshqaruv tizimlarining mustahkamligi mamlakat iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda global moliya bozorlaridagi o‘zgarishlar, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va texnologik innovatsiyalar bank tizimining funksiyalari va ish uslublarini

tubdan o‘zgartirmoqda. Bank tizimida transformatsiya jarayonlari – yangi texnologiyalarni joriy etish, xizmatlarni avtomatlashtirish, raqamli mahsulotlar va innovatsion yechimlar bilan ishlash – moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirish, xizmat sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli bank xizmatlarini joriy etish banklar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va mijozlar ehtiyojlarini qondirish darajasini yaxshilaydi; masalan, NBER Working Paper da banklar texnologiyalarni qabul qilganda banklar samaradorligi va umumiy iqtisodiy o‘sish darajasi ijobiy o‘zgarishi aniqlangan — texnologiya qabul qilish darajasining yuqoriligi bank samaradorligini oshirib, iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi[38] Transformatsiya jarayoni davomida bank faoliyatining samaradorligini ta’minlashda moliyaviy nazorat tizimining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan Prezident tomonidan 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi tasdiqlanib, unda bank xizmatlari sifatini oshirish, hududiy qamrovni kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali bank sektorini transformatsiya qilish maqsad qilib qo‘yilgan.[39] Moliyaviy nazorat bankning ichki resurslarini optimal boshqarish, risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni saqlash, shuningdek shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash uchun zarurdir.

Bank tizimidagi transformatsiya va moliyaviy nazorat bir-birini qo‘llab-quvvatlaydigan jarayonlar bo‘lib, ularning uyg‘unligi tijorat banklarining barqaror ishlashi, samarali faoliyati va raqobat kuchini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Sh. Xannaev (2021)**[40]** ta’kidlaganidek, samarali ichki nazorat tizimi banklarning operatsion va moliyaviy xatolardan himoyalanishini ta’minlaydi. Uning fikricha, ichki audit va nazorat mexanizmlarini mustahkamlash bank resurslarini optimal boshqarishga yordam beradi, risklarni kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni oshiradi. Shu bilan birga, mustahkam nazorat tizimi banklar xizmatlarining sifatini yaxshilash va mijozlar ishonchini mustahkamlash uchun ham muhim hisoblanadi. Bank tizimi milliy iqtisodiyotning markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish, investitsiya faoliyati va resurslarni taqsimlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Banklar o‘z mijozlaridan jamg‘armalarni jalb qilib, ularni kreditlar orqali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga yo‘naltiradi, shu orqali pul kredit mexanizmi orqali iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlaydi.

Bank transformatsiyasi – bu banklar faoliyatining strukturaviy, texnologik va boshqaruv jarayonlari sifatini tubdan o‘zgartiruvchi keng qamrovli jarayonlar majmui bo‘lib, u global raqamli iqtisodiyot talablariga moslashishni maqsad qiladi. Transformatsiya jarayonlari banklarning an’anaviy xizmat ko‘rsatish shakllaridan zamonaviy raqamli yechimlar, shu jumladan mobil va internet bankchilik,

[38] World Bank (2020). *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience.*
[39] “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” (2022–2026), O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent, 2022.
[40] Xannaev, Sh. (2021). *O‘zbekiston bank tizimida samaradorlikni oshirish yo‘llari.* Tashkent Banking Journal.

avtomatlashtirilgan operatsiyalar va axborot texnologiyalariga asoslangan innovatsiyalarni qamrab oladi.

Moliyaviy nazorat bank faoliyatining samarali funksiyalashini ta’minlovchi asosiy mexanizmlardan biridir. Chunki tadqiqotchilar, masalan, J. Allen va J. Santomero (1998) ta’kidlashicha, samarali ichki nazorat tizimi bankning barqaror moliyaviy faoliyatini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular nazorat tizimi bankning moliyaviy risklarini aniqlash va oldini olish, xatolik va firibgarlik ehtimolini kamaytirish imkonini beradi deb hisoblaydi. Shu bilan birga, samarali nazorat bank resurslaridan optimal foydalanishni ta’minlab, bankning barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi. Tadqiqotchilar shuningdek, ichki nazoratning shaffoflik va hisobdorlikni oshirish orqali bankga mijozlar va investorlar ishonchini mustahkamlashda muhimligini ta’kidlaydi[41] U bankning ichki boshqaruv tizimini muntazam ravishda baholab, moliyaviy resurslar va operatsiyalarni to‘g‘ri boshqarish, risklarni aniqlash va oldini olish, shaffoflikni ta’minlash orqali banklar barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya jarayonida ichki audit tizimi nafaqat tekshiruv funksiyasini bajaradi, balki proaktiv ravishda risklarni oldindan aniqlash va moliyaviy barqarorlikni saqlash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, nazorat va audit jarayonlarining integratsiyasi banklar faoliyatining samaradorligini oshiradi va shaffoflikni mustahkamlaydi.

Shu tariqa, tijorat banklarida transformatsiya jarayonlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy nazorat va ichki audit tizimining uyg‘un ishlashi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarni kamaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu yo‘nalishlar banklarning moliyaviy barqarorligini saqlash, xizmat sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlashning asosiy vositasidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, banklarning aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga zamonaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqib xizmatlar ko‘rsatish amaliyotlarini takomillashtirishda banklarning filiallar tarmog‘i muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rish mumkin. Shu nuqtai nazardan, banklarning filiallar tarmog‘ini samarali tashkil etilishi va ular faoliyatini samaradorligini ta’minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shuningdek, strategiyada bank xizmatlarining hududiy qamrovini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil sifatdagi xizmat ko‘rsatishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan[42] Tijorat banklarining asosiy maqsadi foyda olish bo‘lganligi sababli faoliyati natijalari va samaradorlikni doimiy oshirib borish talab etiladi. Banklarning mahsulotlari va xizmatlarini sotish kanali bo‘lgan filiallar tarmog‘i faoliyatining natijalari, banklarning samaradorligini bevosita belgilovchi muhim xizmat ko‘rsatish nuqtasi hisoblanadi.

[41] Allen, F., & Santomero, A. M. (1998). *The Theory of Financial Intermediation.* Journal of Banking & Finance

[42] “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” (2022–2026), O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent, 2022.

Banklar filial tarmoqlari samaradorligini oshirish va uni baholashni takomillashtirib borish banklarning samaradorligini ta’minlashning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.[43]

Bank tizimi milliy iqtisodiyotning markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish, investitsiya faoliyati va resurslarni taqsimlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Banklar o‘z mijozlaridan jamg‘armalarni jalb qilib, ularni kreditlar orqali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga yo‘naltiradi, shu orqali pul-kredit mexanizmi orqali iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlaydi. Xalqaro tadqiqotlar bank sektorining moliyaviy intermeditatsiya funksiyasi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi omil ekanligini ko‘rsatadi: samarali bank tizimi investitsiyalar oqimini mustahkamlab, iqtisodiyotning real sektori faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bank tizimi shuningdek, jamoatchilik uchun ishonchli kredit platformani yaratib, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy xizmatlarni kengaytiradi. Ushbu tizimning barqarorligi va samaradorligi bozor ishonchini oshirishga yordam beradi va iqtisodiyotdagi to‘sqinliklarni kamaytiradi. Masalan, banklar orqali amalga oshiriladigan omonat va kredit operatsiyalari iqtisodiy faollikni jonlantirishda bevosita omil bo‘lib xizmat qiladi. Taraqqiy etgan davlatlar bank tizimi orqali global kapital bozorlariga bog‘lanib, iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshiradi, rivojlanayotgan davlatlar esa bank sektorini mustahkamlash orqali ichki iqtisodiy integratsiyani mustahkamlashga intiladi.

Bank transformatsiyasi – bu banklar faoliyatining strukturaviy, texnologik va boshqaruv jarayonlari sifatini tubdan o‘zgartiruvchi keng qamrovli jarayonlar majmui bo‘lib, u global raqamli iqtisodiyot talablariga moslashishni maqsad qiladi. Transformatsiya jarayonlari banklarning an’anaviy xizmat ko‘rsatish shakllaridan zamonaviy raqamli yechimlar, shu jumladan mobil va internet bankchilik, avtomatlashtirilgan operatsiyalar va axborot texnologiyalariga asoslangan innovatsiyalarni qamrab oladi. Nazariy nuqtai nazardan, bank transformatsiyasi bankning ichki tizimini modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish va global raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Digital transformatsiya banklarning xarajatlarni kamaytirish, mijozlar bilan munosabatlarni chuqurlashtirish va yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, transformatsiya jarayoni banklar resurslaridan optimal foydalanishni ta’minlab, banklar samaradorligini oshiradi va ularning risklarga nisbatan bardoshlilik darajasini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, bank transformatsiyasi xalqaro moliyaviy standartlar va reglamentlarga muvofiq ichki boshqaruv tizimlarini takomillashtirishni talab qiladi. Bu esa ichki audit, risklarni baholash va ichki nazorat mexanizmlarini yangi texnologiyalar bilan yanada samarali qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Raqamli transformatsiya jarayoni

[43] Rajabov, B. (2024). Bank filiallari samaradorligini baholashning nazariy va uslubiy asoslari. *GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT*, *2*(9). Retrieved from https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/3017

banklarning bozordagi o‘zaro ta’sirini ham kuchaytiradi, shu bilan birga global moliyaviy integratsiya sharoitlariga moslashuvni ta’minlaydi.

Moliyaviy nazorat bank faoliyatining samarali funksiyalashini ta’minlovchi asosiy mexanizmlardan biridir. U bankning ichki boshqaruv tizimini muntazam ravishda baholab, moliyaviy resurslar va operatsiyalarni to‘g‘ri boshqarish, risklarni aniqlash va oldini olish, shaffoflikni ta’minlash orqali banklar barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Strategiyada bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish uchun zamonaviy nazorat mexanizmlari joriy etish choralari belgilangan[44]

Moliyaviy nazorat bank ichki auditining ajralmas qismi bo‘lib, risklarni monitoring qilish, moliyaviy hisobotlarni tekshirish va bank amaliyotlarining qonuniy hamda reglamentga muvofiqligini ta’minlaydi. Ushbu nazorat mexanizmlari riskga asoslangan yondashuvni qo‘llab, bankning operatsion va moliyaviy samaradorligini oshiradi hamda tizim ichki va tashqi tahdidlarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Global tajriba shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy nazorat kuchli bo‘lgan banklar iqtisodiy inqirozlar davrida barqaror ishlash qobiliyatiga ega bo‘lib, bozor sharoitlari o‘zgarishiga moslashishda yuqori chidamlilikni namoyon etadi. IMF tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, qattiq ichki nazorat va audit tizimlariga ega bo‘lgan banklar moliyaviy barqarorlikni oshiribgina qolmay, tashqi shoklar va bozor noaniqliklariga nisbatan chidamliligini ham kuchaytiradi. IMFning *Global Financial Stability Report* hisobotlariga ko‘ra, samarali nazorat va makroprudensial monitoring orqali bank tizimidagi risklar erta bosqichda aniqlanadi va bartaraf etiladi, bu esa bozor tangliklari yoki iqtisodiy o‘sish sekinlashganda banklar faoliyatini barqaror ushlab turishga xizmat qiladi. Shuningdek, IMFning moliyaviy barqarorlikni baholash bo‘yicha “Financial Soundness Indicators” tizimi banklarning sog‘lom faoliyatini ko‘rsatuvchi indikatorlarni muntazam tahlil qilgan holda moliyaviy sistemaning salbiy oqibatlardan himoyalanish darajasini oshirishga yordam beradi, bu esa umumiy moliya barqarorligini mustahkamlaydi.[45]Shu sababli, bank transformatsiyasi jarayonida moliyaviy nazoratni takomillashtirish — banklar samaradorligini oshirish va jami moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida raqamli transformatsiya jarayonlari keng joriy qilinmoqda. Ushbu jarayonlar banklarning an’anaviy xizmat ko‘rsatish shakllarini zamonaviy texnologiyalar bilan almashtirish, mijozlar bilan elektron platformalar orqali samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yish va operatsion jarayonlarni avtomatlashtirishga qaratilgan. Jumladan, ko‘plab tijorat banklari mobil va internet bankchilik, elektron to‘lov tizimlari, avtomatlashtirilgan kredit va depozit xizmatlarini kengaytirish orqali mijozlarga qulaylik yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli

[44] “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” (2022–2026), O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent, 2022.
[45] International Monetary Fund (IMF) (2019). *Financial Soundness Indicators and Banking Stability*

transformatsiya jarayonlari bank ichki operatsiyalarining tezligi va aniqligini oshiradi, xarajatlarni optimallashtiradi hamda global moliya bozoridagi raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat bank xizmatlarining sifatini oshiradi, balki moliyaviy nazorat tizimining samaradorligini ham kuchaytiradi. Moliyaviy nazoratning asosiy vazifalaridan biri — bankning ichki boshqaruv tizimini baholash va moliyaviy resurslarni to‘g‘ri taqsimlashdir. Raqamli yechimlar, jumladan elektron hisobot tizimlari va avtomatlashtirilgan monitoring vositalari, ichki audit jarayonlarini tezlashtiradi, operatsion va moliyaviy xatolarning oldini oladi va nazoratning aniqligi darajasini oshiradi.

Ichki audit tizimi moliyaviy nazorat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, risklarni baholash, moliyaviy operatsiyalarni tekshirish va bankning ichki siyosat va reglamentlarga muvofiqligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli transformatsiya sharoitida ichki audit tizimi nafaqat tekshiruv funksiyasini bajaradi, balki proaktiv ravishda risklarni oldindan aniqlash va moliyaviy barqarorlikni saqlash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, nazorat va audit jarayonlarining integratsiyasi banklar faoliyatining samaradorligini oshiradi va shaffoflikni mustahkamlaydi.Shu tariqa, tijorat banklarida transformatsiya jarayonlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy nazorat va ichki audit tizimining uyg‘un ishlashi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarni kamaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Birinchidan, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan monitoring vositalarini joriy etish orqali nazorat jarayonlarini tezlashtirish va aniqligini oshirish mumkin. Mobil va internet bankchilik, elektron to‘lov tizimlari, avtomatlashtirilgan hisobot va risk-monitoring platformalari bank ichki auditining proaktiv funksiyasini kuchaytiradi, xatolik va firibgarlik ehtimolini kamaytiradi hamda moliyaviy operatsiyalar shaffofligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli yechimlar bank xodimlari va rahbariyatining qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi, strategik boshqaruvni takomillashtiradi.

Ikkinchidan, ichki audit tizimini transformatsiya jarayonlariga moslashtirish va uning rolini kengaytirish zarur. Ichki audit nafaqat moliyaviy operatsiyalarni tekshiradi, balki risklarni aniqlash, nazorat choralari samaradorligini baholash va moliyaviy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. Bunda xalqaro standartlar (masalan, IIA standartlari) va ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish muhim hisoblanadi. Shu yondashuv banklarni global moliya bozorlari talablariga moslashtirishga yordam beradi va ichki boshqaruv tizimini yanada mustahkamlaydi.

Uchinchidan, moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishi — risklarni boshqarish tizimini integratsiyalash va strategik boshqaruv mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirishdir. Riskga asoslangan yondashuv bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga, operatsion va moliyaviy xavflarning oldini olishga imkon beradi. Shu bilan birga, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish mexanizmlari — bank sektorida

korrupsiyaga qarshi kurashish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning muhim vositasi hisoblanadi.Shuningdek, transformatsiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va xodimlarni ularni samarali ishlatishga o‘qitish bank faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu nafaqat ichki nazorat va audit samaradorligini kuchaytiradi, balki bankning raqobatbardoshligini oshirish va mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Xulosa: Bank tizimi milliy iqtisodiyotning markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish, investitsiya oqimini rag‘batlantirish va resurslarni samarali taqsimlashda muhim rol o‘ynaydi, raqamli transformatsiya jarayonlari bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, operatsion samaradorlikni oshirish va mijozlar ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi, moliyaviy nazorat va ichki audit tizimlari banklarning barqaror moliyaviy faoliyatini ta’minlash, risklarni kamaytirish va shaffoflikni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, filiallar tarmog‘ining samaradorligi esa bank xizmatlarining sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, shu sababli bank transformatsiyasi, raqamli texnologiyalarni joriy etish va samarali nazorat mexanizmlarini rivojlantirish banklar moliyaviy barqarorligini saqlash va iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishning asosiy vositasidir.

BUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHDA RISKGA ASOSLANGAN AUDIT TIZIMINI JORIY ETISH

Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii “Buxgalteriya hisobi” fakulteti talabasi
Beknazarov Zafarjon Ergachevich
Iqtisodiyot fanlari doktori,professor

Annotatsiya: Ushbu tezis davlat moliyaviy nazorati tizimida riskga asoslangan audit metodologiyasini budjet intizomini mustahkamlash maqsadida joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etadi. Maqolada riskga asoslangan auditning kontseptual mohiyati, xalqaro tajriba, O‘zbekiston sharoitidagi joriy etish imkoniyatlari va samaradorlik mezonlari tahlil qilingan. Budjet resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashda riskga asoslangan audit tizimining metodologik ustunliklari asoslab berilgan hamda uni amaliyotga tatbiq etishning asosiy yo‘nalishlari taklif qilingan.

Kalit so’zlar: riskga asoslangan audit, budjet intizomi, davlat moliyaviy nazorati, fiskal risk, audit metodologiyasi, nazorat tizimi, moliyaviy hisobdorlik, korrupsiyaga qarshi kurash, ichki nazorat, samarali boshqaruv

KIRISH

Zamonaviy davlat moliyasini boshqarish tizimida budjet intizomini ta'minlash dolzarb masalalardan biriga aylangan. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va davlat xarajatlarining o‘sib borishi fonida moliyaviy nazorat tizimining samaradorligini oshirish

zarurati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy audit usullari barcha xarajatlarni bir xil intensivlikda tekshirish tamoyiliga asoslanganligi sababli, resurslari cheklangan nazorat organlarining ish samarasi pastligi kuzatilmoqda.

Riskga asoslangan audit — bu auditorlik nazorat resurslarini eng yuqori risk darajasiga ega bo'lgan sohalar va ob'ektlarga maqsadli yo‘naltirish orqali davlat moliyasi ustidan nazoratni kuchaytiruvchi zamonaviy metodologik yondashuvdir. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, riskga asoslangan audit tamoyillarini budjet nazoratiga tatbiq etish moliyaviy buzilishlarni erta aniqlash, oldini olish va budjet resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida 2017–2030-yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategik yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu sharoitda “Riskga asoslangan audit” tizimini joriy etish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Riskga asoslangan auditning nazariy asoslari: Riskga asoslangan audit metodologiyasi Xalqaro Oliy Nazorat Institutlari Tashkiloti (INTOSAI) tomonidan ishlab chiqilgan ISSAI (International Standards of Supreme Audit Institutions**)** standartlari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uchta asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: tizimiy risk, nazorat riski va aniqlash riski. Ushbu komponentlarning kompleks baholanishi auditorlik resurslarini ratsional taqsimlash imkonini beradi. Xalqaro moliya institutlari, xususan Xalqaro valyuta fondi va Jahon bankining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, riskga asoslangan audit tizimini joriy etgan mamlakatlarda budjet xarajatlaridagi fiskal risklar 25–40 foizga kamaygan [1, 3]. Bu esa metodologiyaning iqtisodiy samaradorligini nazariy jihatdan asoslaydi. Moliyaviy risk matritsasi — riskga asoslangan audit tizimining markaziy metodologik instrumentidir. U har bir budjet dasturi yoki xarajat yo'nalishi uchun ehtimollik va oqibatlar kombinatsiyasiga asoslanib risk skoring tizimini yaratish imkonini beradi. Risk matritsasi tuzilishida quyidagi mezonlar hisobga olinadi: xarajat hajmi, naqd pul oqimlarining xarakteri, nazorat mexanizmlarining holati va oldingi tekshiruv natijalari.

Xalqaro tajriba va qiyosiy tahlil: Rivojlangan mamlakatlarda riskga asoslangan audit tizimini joriy etish tajribasi muhim metodologik xulosa chiqarish imkonini beradi. Buyuk Britaniya Milliy audit idorasi (NAO) risk asosidagi audit metodologiyasini 1990-yillarning oxiridan qo'llayotgani holda, fiskal risklarni erta aniqlash tizimi samaradorligi 60 foizga oshganligini qayd etgan [5]. Shvetsiya, Niderlandiya va Kanada misolida ham budjet intizomini riskga asoslangan audit vositasida kuchaytirishning ijobiy natijalari kuzatilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlar orasida Gruziya, Estoniya va Qozog‘istonning tajribasi alohida qiziqish uyg‘otadi. Qozog‘iston Respublikasi Hisob qo‘mitasi 2015–2020-yillar oralig‘ida riskga asoslangan audit tamoyillarini qadamba-qadam joriy etish dasturini amalga oshirib, budjet samaradorligini sezilarli darajada oshirishga erishdi [7].

O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratining huquqiy asoslari, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, shuningdek, Prezident farmonlari va qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Biroq amaldagi normativ-huquqiy bazada riskga asoslangan metodologiyani tizimli tartibda qo'llash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Riskga asoslangan audit tizimini O‘zbekiston davlat moliyasiga joriy etish uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiq: birinchidan, risk registrini shakllantirish va budjet dasturlarini risk darajalari bo'yicha tasniflab chiqish; ikkinchidan, audit rejalashtirishga risk mezonlarini integratsiya qilish; uchinchidan, nazorat natijalarini doimiy monitoringga asoslangan qayta aloqa tizimi bilan ta'minlash. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Moliya vazirligi hamda Bosh prokuraturaning o‘zaro hamkorligi asosida riskga asoslangan audit metodologiyasini joriy etishga qaratilgan amaliy qo‘llanmani ishlab chiqish tadqiqotimizning asosiy amaliy xulosalaridan biri hisoblanadi.

Riskga asoslangan audit risk skoring modeli: Budjet dasturlari uchun risk skoring modelini quyidagi formulaga asoslangan holda ishlab chiqish taklif etiladi:

$$RS = W_1 \times Ehtimollik + W_2 \times Oqibat + W_3 \times Nazorat\ sifati$$

Bu erda RS — risk skori (0 dan 100 gacha); W_1, W_2, W_3 — ekspert baholash asosida belgilangan og‘irlik koeffitsientlari. Yuqori risk skori (>70) olgan dasturlar birinchi navbatda to‘liq audit tekshiruviga tortiladi, o‘rta risk (40–70) — selektiv nazorat, past risk (<40) — hujjatli monitoring orqali kuzatiladi. Bu yondashuv cheklangan nazorat resurslaridan maksimal foyda olish imkonini beradi.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Riskga asoslangan audit tizimi an'anaviy umumiy tekshiruv yondashuviga nisbatan budjet intizomini ta'minlashda metodologik ustunliklarga ega bo‘lib, cheklangan nazorat resurslarini eng muhim risk zonalariga maqsadli yo‘naltirish imkonini beradi.

2. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, riskga asoslangan audit tizimini joriy etish korrupsion risklar darajasini pasaytirish, moliyaviy hisobdorlikni oshirish va budjet xarajatlarining iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

3. O'zbekiston sharoitida riskga asoslangan audit tizimini joriy etish uchun avvalo normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, risk registrini shakllantirish, auditorlarni zamonaviy metodologiya asosida qayta tayyorlash va raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish zarur.

4. Taklif etilgan risk skoring modeli O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimiga moslashtirilgan holda qo‘llanilishi mumkin bo'lib, Hisob palatasi va moliyaviy nazorat organlarining ishlash samaradorligini sezilarli oshirishi mumkin.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIISH VA BUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH

Yaqubov Xumoyun Nizomiddin o`g`li
Toshkent davlat iqtisodiyot univesiteti
Sunatullayeva Shaxnoza
PhD.

Annotatsiya: Mazkur tezisda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish hamda budjet intizomini mustahkamlashning dolzarb masalalari tahlil etiladi. Unda davlat moliyaviy resurslaridan samarali va maqsadli foydalanishni ta’minlash, nazorat mexanizmlarining shaffofligi va hisobdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, budjet mablag‘larining noqonuniy sarflanishi va moliyaviy intizom buzilishlarining oldini olishda zamonaviy nazorat usullari va axborot texnologiyalarini joriy etish zarurati asoslab berilgan. Tezisda ichki va tashqi moliyaviy nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, audit tizimini takomillashtirish hamda javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish orqali budjet intizomini mustahkamlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so`zlar: davlat moliyaviy nazorati, budjet intizomi, davlat budjeti, moliyaviy nazorat tizimi, ichki audit, tashqi audit, moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik, samarali boshqaruv, korrupsiyaga qarshi kurash, raqamli texnologiyalar, davlat xarajatlari, moliyaviy intizom, audit tizimi, davlat moliyasi, budjet siyosati, iqtisodiy barqarorlik.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash va budjet intizomini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat moliyaviy nazorati tizimi moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish hamda moliyaviy boshqaruvda shaffoflik va hisobdorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, davlat moliyaviy nazorati tizimida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, nazorat mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi, shaffoflikning to‘liq ta’minlanmaganligi, nazorat organlari o‘rtasida o‘zaro muvofiqlashtirishning sustligi hamda moliyaviy intizom buzilishlarining mavjudligi kuzatilmoqda. Ushbu holatlar budjet mablag‘laridan samarali foydalanishga salbiy ta’sir ko‘rsatib, korrupsion xavflarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish zamonaviy yondashuvlar va innovatsion yechimlarni joriy etishni talab etadi. Xususan, moliyaviy nazorat jarayonlarini raqamlashtirish, real vaqt rejimida monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish, ma’lumotlar tahlili vositalaridan keng foydalanish nazorat samaradorligini sezilarli

darajada oshiradi. Shu bilan birga, ichki va tashqi audit tizimlarini rivojlantirish orqali kompleks moliyaviy nazoratni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Budjet intizomi — bu davlat budjeti mablag‘larini belgilangan qonun-qoidalar, me’yorlar va rejalarga qat’iy rioya qilgan holda shakllantirish, taqsimlash va sarflash jarayonidir. U davlat moliyaviy boshqaruvining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Budjet intizomining mohiyati shundan iboratki, barcha davlat organlari va budjet tashkilotlari ajratilgan mablag‘lardan faqat belgilangan maqsadlarda, tasdiqlangan limitlar doirasida va o‘z vaqtida foydalanishi kerak. Ya’ni, ortiqcha xarajatlar qilish, mablag‘larni noto‘g‘ri yo‘naltirish yoki noqonuniy sarflash qat’iyan man etiladi.

Budjet intizomi bir necha asosiy tamoyillarga asoslanadi:

Qonuniylik — barcha moliyaviy operatsiyalar amaldagi qonunchilikka mos bo‘lishi kerak

Maqsadlilik — mablag‘lar faqat ajratilgan yo‘nalish bo‘yicha sarflanishi zarur

Tejamkorlik va samaradorlik — minimal xarajat bilan maksimal natijaga erishish

Shaffoflik va hisobdorlik — mablag‘lar harakati ochiq va nazorat ostida bo‘lishi

Budjet intizomini buzish turli salbiy oqibatlarga olib keladi. Jumladan, davlat mablag‘larining samarasiz ishlatilishi, iqtisodiy muvozanatning buzilishi, budjet taqchilligining ortishi va korrupsiya xavfining kuchayishi mumkin. Shu sababli, budjet intizomini ta’minlash davlat moliyaviy nazorat organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda budjet mablag‘larining har bir sarfi aniq rejalashtiriladi va natijadorlik tamoyili asosida baholanadi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi va korrupsiya xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Eng muhim jihat esa — davlat mablag‘laridan foydalanishda hisobdorlik va javobgarlik tizimining kuchli yo‘lga qo‘yilganidir.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA BUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH

Fozilkarimov Begzod, Axunova Sh

Annotatsiya: Davlat moliyaviy nazorati tizimi davlat budjeti mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda mavjud muammolar, xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar asosida tizimni modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Taklif etilayotgan chora-tadbirlar budjet intizomini mustahkamlash, moliyaviy

shaffoflikni oshirish va davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Davlat Moliyaviy Nazorati, Budjet Intizomi, Moliyaviy Shaffoflik, Nazorat Tizimi, Davlat Budjeti, Samaradorlik, Hisobdorlik

Kirish Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash zamonaviy davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat resurslaridan oqilona, shaffof va maqsadli foydalanishni ta'minlash, korrupsiya va moliyaviy suiiste'molliklarning oldini olish ustuvor vazifa hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish, budjet jarayonining shaffofligini oshirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mavjud tizimni yanada rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, ichki nazorat va audit xizmatlarining budjet tashkilotlaridagi ahamiyati, ularning samaradorligini oshirish strategiyalari va mavjud muammolarni hal etish yo'llari chuqur tahlilni talab etadi [1].

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda intizomni ta'minlash, moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish va davlat resurslarining shaffofligini kafolatlash uchun mustahkam va samarali ichki nazorat tizimi fundamental ahamiyatga ega [1]. O'zbekistonning davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar, jumladan, Hisob palatasining tashkiliy tuzilmasini mustahkamlash, masofaviy nazorat va risk tahlili usullarini joriy etish, shuningdek, nazorat ishlarining yillik va ko'p yillik dasturlarini ishlab chiqish kabi yo'nalishlar tizimni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi [2]. Shunga qaramay, budjet intizomini mustahkamlash va davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish bo'yicha doimiy izlanishlar, ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliy takliflarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Ushbu tadqiqotning maqsadi davlat moliyaviy nazorati tizimining hozirgi holatini tanqidiy tahlil qilish, budjet intizomini mustahkamlashning samarali mexanizmlarini aniqlash hamda tizimni yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Davlat moliyaviy nazorati va budjet intizomini mustahkamlash masalasi jahon miqyosida, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinadi. Tadqiqotchilar davlat resurslaridan oqilona va shaffof foydalanishni ta'minlash, korrupsiya xavfini kamaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda moliyaviy nazoratning hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlaydilar. So'nggi yillarda ushbu sohadagi ilmiy izlanishlar nazoratning an'anaviy usullaridan zamonaviy, riskka asoslangan va axborot texnologiyalaridan faol foydalanadigan yondashuvlarga o'tish

zaruratini ko'rsatmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali moliyaviy nazorat tizimi nafaqat qonunbuzarliklarni aniqlash, balki ularning oldini olish, shuningdek, davlat xarajatlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu borada ichki nazorat va audit mexanizmlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki ular davlat tashkilotlari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Ichki nazorat va audit xizmatlarining budjet tashkilotlari faoliyatidagi ahamiyati, ularning samaradorligini oshirish strategiyalari va mavjud muammolarni hal etish yo'llari bo'yicha chuqur tahlillar olib borilmoqda. Xususan, moliyaviy nazorat va ichki audit xizmatlarining davlat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish va davlat mablag'larining shaffofligini kafolatlashdagi fundamental rolini ta'kidlovchi tadqiqotlar mavjud [1]. Ushbu yo'nalishdagi ishlar ichki audit xizmatlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini, jumladan, ilg'or xalqaro tajribalarni, zamonaviy yondashuvlarni va axborot texnologiyalarini strategik qo'llashni o'rganadi. Shuningdek, ular O'zbekiston uchun ichki audit tizimining institutsional asoslarini mustahkamlash va xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan aniq takliflarni ilgari suradi, bu esa davlat moliyasini boshqarishda samaradorlik va hisobdorlikni yaxshilashga xizmat qiladi [1]. Bu kabi tadqiqotlar ichki nazorat tizimining nafaqat moliyaviy operatsiyalarni tekshirish, balki tashkilotning umumiy boshqaruv samaradorligini oshirish, risklarni boshqarish va strategik maqsadlarga erishishda ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. Xususan, 2021-yil 27-avgustdagi hujjatda O'zbekistonning davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirishga qaratilgan aniq choralar belgilab berilgan [2]. Bu choralar Hisob palatasining tashkiliy tuzilmasini mustahkamlash, masofaviy nazorat va risk tahlili usullarini joriy etish, shuningdek, nazorat ishlarining yillik va ko'p yillik dasturlarini ishlab chiqish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Hujjatda to'rtta vazirlikda moliyaviy, samaradorlik va muvofiqlik auditlari o'tkazilishi rejalashtirilgani, shuningdek, Hisob palatasining ijtimoiy xarajatlar, iqtisodiy dasturlar, davlat qarzi, korrupsiyaga qarshi kurash tizimlari, pul-kredit siyosati, davlat xaridlari va mahalliy budjetlar kabi sohalarni audit qilish uchun ixtisoslashgan bo'limlari mavjudligi batafsil bayon etilgan [2]. Davlat moliyaviy nazoratini muvofiqlashtiruvchi Kengashning tashkil etilishi va uning tarkibiga yuqori darajadagi davlat amaldorlarining kiritilishi ham tizimning institutsional salohiyatini oshirishga qaratilgan muhim qadamdir [2]. Ushbu islohotlar davlat moliyaviy nazoratini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi va budjet intizomini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga qaramay, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash bo'yicha

doimiy izlanishlar zarurati saqlanib qolmoqda. Ilg'or xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish, ularni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish va amaliy takliflarni ishlab chiqish masalasi tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, nazorat jarayonlarida shaffoflikni oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish bo'yicha hali ko'plab imkoniyatlar mavjud. Adabiyotlarda moliyaviy nazoratning samaradorligini baholash mezonlari, nazorat organlarining mustaqilligi va ularning faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish masalalari ham muhim yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqiladi. Riskka asoslangan audit yondashuvlarini yanada chuqurlashtirish va prognozlash imkoniyatlarini kengaytirish orqali moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini kuchaytirishga oid izlanishlar ham dolzarb hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid adabiyotlar davlat moliyaviy nazorati va budjet intizomini mustahkamlashning nazariy va amaliy jihatlarini keng qamrovli yoritgan bo'lsa-da, O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olgan holda, tizimni yanada takomillashtirish bo'yicha aniq, ilmiy asoslangan va amaliyotga tatbiq etish mumkin bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Mavjud tadqiqotlar ichki nazoratning institutsional asoslarini mustahkamlash va xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish muhimligini ta'kidlaydi [1], shuningdek, Hisob palatasining rolini kuchaytirish va zamonaviy nazorat usullarini joriy etish bo'yicha qadamlarni qayd etadi [2]. Biroq, ushbu chora-tadbirlarning amaliy samaradorligini baholash, ularni yanada optimallashtirish va budjet intizomini mustahkamlashning yangi, innovatsion mexanizmlarini taklif qilish bo'yicha tadqiqotlar hali ham cheklangan. Mazkur tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks yondashuvni taklif etish orqali mavjud bilimlarga o'z hissasini qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlashga qaratilgan kompleks, tizimli va tahliliy-sintetik yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuv mavjud muammolarni chuqur anglash, ularning ildiz sabablarini aniqlash hamda ilmiy asoslangan va amaliyotga tatbiq etish mumkin bo‘lgan yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – davlat moliyaviy nazorati tizimining hozirgi holatini tanqidiy tahlil qilish, budjet intizomini mustahkamlashning samarali mexanizmlarini aniqlash hamda tizimni yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Birinchidan, tizimli tahlil usuli davlat moliyaviy nazorati tizimini yagona, o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat kompleks sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi. Bu yondashuv tizimning har bir komponenti (masalan, Hisob palatasi, ichki nazorat xizmatlari, budjet tashkilotlari) o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, ularning umumiy maqsadga erishishdagi rolini va samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa,

ichki nazorat va audit xizmatlarining budjet tashkilotlaridagi ahamiyati, ularning samaradorligini oshirish strategiyalari va mavjud muammolarni hal etish yo‘llarini tahlil qilishda tizimli yondashuv fundamental ahamiyatga ega bo‘ldi [1].

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirishda keng qo‘llanildi. Bu usul davlat moliyaviy nazorati va budjet intizomini mustahkamlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan samarali mexanizmlar, institutsional tuzilmalar va huquqiy bazalarni tahlil qilishga qaratildi. Xususan, riskka asoslangan audit yondashuvlari, masofaviy nazorat usullari va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilg‘or tajribalar o‘rganilib, ularning O‘zbekistondagi amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari baholandi. Bu, ayniqsa, Hisob palatasining tashkiliy tuzilmasini mustahkamlash, masofaviy nazorat va risk tahlili usullarini joriy etish kabi yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashda muhim rol o‘ynadi [2].

Uchinchidan, mantiqiy-deduktiv va induktiv yondashuvlar tadqiqot natijalarini umumlashtirish, xulosalar chiqarish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishda qo‘llanildi. Mavjud nazariy bilimlar va amaliy ma’lumotlar asosida umumiy qonuniyatlar aniqlandi (deduksiya), shuningdek, aniq holatlardan umumiy xulosalar chiqarildi (induksiya). Bu yondashuvlar davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini va budjet intizomini mustahkamlash mexanizmlarining samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etdi.

To‘rtinchidan, kontent tahlili usuli normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy hisobotlar, ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlarning materiallarini chuqur o‘rganishda qo‘llanildi. Bu usul orqali davlat moliyaviy nazorati sohasidagi qonunchilik bazasi, amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, shuningdek, mavjud ilmiy qarashlar va yondashuvlar tizimlashtirildi. Xususan, O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirishga qaratilgan 2021-yil 27-avgustdagi hujjatda belgilangan choralar va ularning mazmuni kontent tahlili orqali atroflicha o‘rganildi [2]. Shuningdek, ichki nazorat va audit xizmatlarining ahamiyatini yorituvchi adabiyotlar [1] ham ushbu usul yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyaviy nazorati va budjet intizomini tartibga soluvchi qonun hujjatlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Hisob palatasi, Moliya vazirligi va boshqa tegishli idoralarning rasmiy ma’lumotlari va hisobotlari tashkil etdi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi) va nazorat organlari (INTOSAI) materiallari, mahalliy va xorijiy olimlarning mavzuga oid ilmiy ishlari, monografiya va maqolalari ham keng o‘rganildi. Ayniqsa, 2020-yildan keyin nashr etilgan ilmiy manbalarga ustuvor ahamiyat berildi, chunki ular zamonaviy tendensiyalar va eng so‘nggi islohotlarni aks ettiradi.

Muammoning dolzarbligi va tadqiqot maqsadini aniqlash, mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish.

O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimining hozirgi holatini, uning huquqiy asoslari va amaliyotini o‘rganish, mavjud kamchiliklar va muammolarni aniqlash.

Xalqaro ilg‘or tajribalarni, xususan, rivojlangan mamlakatlarda davlat moliyaviy nazorati va budjet intizomini mustahkamlash mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish.

O‘zbekiston sharoitlariga mos keladigan samarali mexanizmlar va yondashuvlarni aniqlash.

Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ishonchliligi va ob’ektivligi turli manbalardan olingan ma’lumotlarni solishtirish (triangulyatsiya), ilmiy metodologiyaning qat’iy qo‘llanilishi hamda mavzuga oid keng qamrovli adabiyotlar tahlili orqali ta’minlandi. Tadqiqotning cheklovlari sifatida, asosan, ayrim statistik ma’lumotlarning ochiqligi darajasi va ularni chuqur miqdoriy tahlil qilish imkoniyatlarining cheklanganligi qayd etilishi mumkin. Shunga qaramay, sifatli tahlil va qiyosiy yondashuvlar orqali ushbu cheklovlar minimallashtirildi va tadqiqotning asosiy maqsadlariga erishildi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlashning nazariy asoslari hamda amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilib berdi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan birga, xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish orqali tizimni yanada samarali qilish yo'llari aniqlandi. Xususan, riskka asoslangan audit yondashuvlarini kengaytirish, axborot texnologiyalarini integratsiya qilish hamda ichki va tashqi nazorat organlarining mustaqilligi va salohiyatini oshirish muhimligi ta'kidlandi. Natijada, davlat mablag'laridan samarali va oshkora foydalanishni ta'minlash, moliyaviy suiiste'molliklarga barham berish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ularning amaliyotga tatbiq etilishi davlat boshqaruvi samaradorligini sezilarli darajada oshirib, fuqarolar ishonchini mustahkamlaydi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA BUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH

Shirinov Uchqun Abduxalilovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat moliyaviy nazorati, budjet intizomi, ichki audit, moliyaviy monitoring, hisob palatasi, budjet mablag'lari samaradorligi, raqamli transformatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы и практические аспекты совершенствования системы государственного финансового контроля и укрепления бюджетной дисциплины в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: государственный финансовый контроль, бюджетная дисциплина, внутренний аудит, финансовый мониторинг, счетная палата, эффективность использования бюджетных средств, цифровая трансформация.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations and practical aspects of improving the system of state financial control and strengthening budget discipline in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: state financial control, budget discipline, internal audit, financial monitoring, Accounts Chamber, budget funds efficiency, digital transformation.

Kirish

Zamonaviy sharoitda davlat moliyaviy nazoratining samarali faoliyat ko'rsatishi barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "O'zbekiston -- 2030" strategiyasida moliyaviy intizomni mustahkamlash va davlat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda 2017-2022 yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida budjet tizimida bir qator muhim o'zgarishlar yuz berdi: davlat xarajatlari hajmi yalpi ichki mahsulotning 34-36 foiziga yetdi, investitsiya dasturlari kengaydi, ijtimoiy soha xarajatlari keskin o'sdi. Biroq, shu bilan birga, moliyaviy nazorat tizimida tizimli muammolar ham namoyon bo'lmoqda.

Hisob palatasi hisobotlariga ko'ra, 2021-2023 yillarda budjet mablag'laridan nooqilona foydalanish, maqsadli foydalanmaslik va budjet intizomini buzish holatlari aniqlangan miqdori yiliga o'rtacha 1,2-1,8 trillion so'mni tashkil etgan. Bu holat moliyaviy nazorat tizimini tubdan takomillashtirishni talab etmoqda.

Muammoning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: birinchidan, davlat budjetining doimiy o'sib borishi va murakkablashuvi; ikkinchidan, moliyaviy o'zaro munosabatlardagi raqamlashtirish jarayonlarining tezlashuvi; uchinchidan, xalqaro moliyaviy integratsiya va hisobot standartlarining yangilanishi; to'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashda moliyaviy nazoratning ahamiyatining ortib borishi.

Adabiyotlar sharhi

Davlat moliyaviy nazorati nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu soha olimlarning doimiy diqqat markazida turadi. Diamond (2002) ning tadqiqotlari davlat moliyasini boshqarishda ichki nazorat tizimining markaziy rolini asoslab bergan va moliyaviy nazorat samaradorligi ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

Schick (2009) «Budjet reformasi va moliyaviy boshqaruv» asarida budjet intizomini ta'minlashning institutsional mexanizmlari tahlil qilinib, qonun hujjatlarining yetarli emasligi nazorat samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omil ekanligini isbotlagan. Muallif nazorat tizimini «profilaktik», «operativ» va «tekshiruvchi» turkumlarga ajratish zarurligini asoslab bergan.

Allen va Tommasi (2001) xalqaro amaliyot asosida davlat moliyasini boshqarish tizimining kompleks modeli ishlab chiqilgan bo'lib, unda moliyaviy nazorat funksiyasi budjet siklining barcha bosqichlarida -- rejalashtirish, ijro etish, hisobot va baholashda integrallashtirilgan holda amalga oshirilishi lozimligini ko'rsatgan.

Khagram, Fung va de Renzio (2013) demokratik davlatlarda fiskal shaffoflik va parlament nazoratining kuchaytirilishi budjet mablag'lari samaradorligini o'rtacha 12-18 foizga oshirishi mumkinligini empirik ma'lumotlar asosida isbotlagan. Bu natija O'zbekistondagi islohotlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

OECD (2017) hisobotida «Fiskal federalizm va ko'p darajali moliyaviy boshqaruv» masalasida markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtasida moliyaviy nazorat vakolatlarini taqsimlash tamoyillari va eng yaxshi amaliyotlar ko'rsatilgan. Hisobotda samarali nazorat tizimining to'rtta asosiy elementi: mustaqillik, vakolat, resurs ta'minoti va hisobdorlik alohida ta'kidlangan.

Dabla-Norris va Hamid (2020) rivojlanayotgan mamlakatlardagi moliyaviy nazorat islohotlari tajribasini o'rganib, raqamli texnologiyalarni joriy etish nazorat samaradorligini 2-3 barobar oshirishi, lekin tegishli huquqiy va institutsional muhit mavjud bo'lgan taqdirdagina samara berishi mumkinligini ko'rsatgan.

MDB mamlakatlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy ishlar orasida Lipsits va Kosov (2019) ning Rossiya tajribasini o'rganishga doir tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Unda federal va mintaqaviy darajalarda moliyaviy nazorat tizimini muvofiqlashtirish muammolari ko'rib chiqilib,
«ikki bosqichli nazorat» modeli taklif etilgan.

Xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilarning asosiy e'tibori moliyaviy nazoratning institutsional tuzilmasi, samaradorlik baholash metodologiyasi va raqamlashtirish masalalariga qaratilgan. Biroq, quyidagi sohalarda tadqiqot bo'shliqlar mavjud:

— O'zbekiston sharoitida moliyaviy nazorat va budjet intizomi o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni baholovchi kompleks empirik tadqiqotlar yetarli emas;

— ichki va tashqi audit tizimlarini integrallashtirishning samarali modellari O'zbekiston kontekstida yetarli darajada ishlab chiqilmagan;

— raqamli texnologiyalar (sun'iy intellekt, blockchain) ni davlat moliyaviy nazoratiga tatbiq etishning huquqiy-metodologik asoslari zaif o'rganilgan;

— mahalliy hokimiyatlar darajasida moliyaviy nazorat va xalq ishtirokini ta'minlashning amaliy mexanizmlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Ushbu tadqiqot yuqorida belgilangan bo'shliqlarni to'ldirish va O'zbekiston uchun optimal moliyaviy nazorat modelini ishlab chiqishga qaratilgan.

Davlat moliyaviy nazorati bir nechta asosiy vazifani bajaradi. Qonuniylikni ta'minlash vazifasi — barcha moliyaviy operatsiyalarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligi tekshiriladi. Maqsadlilikni nazorat qilish vazifasi — budjet mablag'larining faqat belgilangan maqsadlarga sarflanishi kuzatib boriladi. Samaradorlikni baholash vazifasi — sarflangan mablag'dan kutilgan natijaga erishilganmi yoki erishilmaganmi aniqlanadi. Korrupsiyaning oldini olish vazifasi — moliyaviy buzilishlar, o'g'irlik va suiiste'molliklar aniqlangan holda tegishli chora ko'riladi. Hisobdorlikni ta'minlash vazifasi — davlat organlari o'z xarajatlari uchun jamiyat oldida javob beradi.

Davlat moliyaviy nazorati amalga oshirilish vaqtiga ko'ra uch turga bo'linadi:

1. Oldindan nazorat (profilaktik nazorat) budjet mablag'lari sarflanishidan avval amalga oshiriladi. Uning maqsadi noto'g'ri qarorlarning oldini olishdir. Bunga budjet loyihasini ko'rib chiqish, shartnomalarni tasdiqlash va moliyaviy rejalashtirishni tekshirish misol bo'ladi.

2. Joriy nazorat (operativ nazorat) budjet mablag'lari sarflanayotgan jarayonda amalga oshiriladi. Maqsadi — buzilishlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishdir. Bunga G'aznachilik nazorati, to'lovlarni monitoring qilish va hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etilishini kuzatish kiradi.

3. Keyingi nazorat (audit) mablag'lar sarflanib bo'lgandan so'ng amalga oshiriladi. Maqsadi — xarajatlarning qonuniyligini va samaradorligini baholashdir. Bunga Hisob palatasi auditi, ichki audit va moliyaviy tekshiruvlar kiradi.

O'zbekistonda moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi asosiy organlar mavjud.

Hisob palatasi tashqi mustaqil nazorat organi bo'lib, parlament nomidan nazorat olib boradi. Uning vakolatlari 2021 yil yangilangan qonun bilan kengaytirilgan. Moliya vazirligi budjetni rejalashtirish, ijro etish va hisobotini nazorat qiladi, G'aznachilik tizimi orqali operativ nazoratni ta'minlaydi. Ichki audit xizmatlari 2018 yildan boshlab budjet

tashkilotlarida joriy etilgan bo'lib, tashkilot ichidan mustaqil baholash o'tkazadi. Soliq organlari davlat daromadlarining to'liq va o'z vaqtida yig'ilishini nazorat qiladi. Parlament (Oliy Majlis) qonunchilik nazoratini amalga oshiradi, budjetni tasdiqlaydi va ijrosini ko'rib chiqadi.

Budjet intizomini buzishning bir necha asosiy sabablari mavjud:

1. Huquqiy-normativ sabablar qatoriga nazorat organlari vakolatlari o'rtasidagi noaniqlik, mas'uliyat mexanizmlarining zaifligí va sanksiyalarning samarali bo'lmasligi kiradi.

2. Institutsional sabablar sifatida nazorat organlari mustaqilligining cheklanganligi, kadrlar malakasining yetarli emasligi va ma'lumotlar almashinuvining yo'qligi ko'rsatilishi mumkin.

3. Tizimli sabablar deganda budjet rejalashtirish va ijro o'rtasidagi nomuvofiqlik, raqamli monitoring tizimlarining to'liq joriy etilmaganligi va shaffoflikning pastligi tushuniladi.

4. Insoniy omillar sifatida esa korrupsiya, shaxsiy manfaatlar va nazorat natijalariga mas'uliyat hissi yo'qligi qayd etiladi.

O'zbekistonda davlat budjeti hajmining yildan-yilga o'sib borishi, investitsiya dasturlarining kengayishi va xalqaro moliyaviy integratsiyaning chuqurlashuvi sharoitida moliyaviy nazorat tizimini modernizatsiya qilish strategik zaruriyatga aylangan. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham moliyaviy intizomni mustahkamlash va davlat resurslaridan oqilona foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro moliya institutlari (IMF, Jahon Banki) bilan hamkorligi chuqurlashib borayotgani moliyaviy nazorat va hisobdorlik standartlarini xalqaro talablar darajasiga ko'tarishni talab etmoqda.

O'zbekistonda moliyaviy nazorat tizimi bir necha sub'ektlardan iborat. Hisob palatasi -tashqi parlament nazoratini amalga oshiruvchi oliy nazorat organi bo'lib, uning vakolatlari 2021 yil yangilangan qonun bilan kengaytirildi. Moliya vazirligi tizimidagi nazorat apparati -- departamentlar, xazina va budjetni ijro etish bo'linmalari orqali operativ nazoratni ta'minlaydi. Ichki audit xizmatlari -- 2018 yildan boshlab budjet tashkilotlarida joriy etilgan bo'lib, hozirda 1 200 dan ortiq tashkilotda faoliyat yuritmoqda.

Ammo tizimning zaifliklari ham mavjud: nazorat sub'ektlari o'rtasida funksional takrorlanish 23-27 foizni tashkil etadi; ma'lumotlar almashinuvi yetarli emas; ayrim tashkilotlarda ichki audit xizmatlarining mustaqilligi cheklangan; nazorat natijalari bo'yicha choralar ko'rish mexanizmi sust ishlaydi.

Budjet intizomini tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi: maqsaddan chetlanish koeffitsienti, asossiz xarajatlar ulushi, budjet bajarilish dinamikasi va budjet qaytarimsiz yo'qotishlar darajasi. 2019-2023 yillar davomida aniqlangan buzilishlar dinamikasi quyidagicha:

1-jadval

O‘zbekistonda budjet intizomini buzish holatlari dinamikasi (2019–2023)

Ko'rsatkich	2019	2020	2022	2023
Budjet buzilishlari, mlrd so'm	897,4	1 043,2	1 621,8	1 784,6
Maqsadsiz foydalanish ulushi, %	34,2	38,7	42,1	39,5
Nooqilona xarajatlar ulushi, %	28,6	31,4	35,2	33,8
Asossiz to'lovlar, mlrd so'm	214,3	267,9	389,4	418,2

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, budjet buzilishlari 2019-2022 yillarda izchil o'sib borgan, 2023 yilda esa koeffitsientlarning biroz yaxshilanishi kuzatilgan. Bu yaxshilanish 2022 yil oxirida kuchaytirilgan nazorat choralari va elektron monitoring tizimini joriy etish bilan bog'liq.

Xalqaro amaliyotda moliyaviy nazoratni raqamlashtirish uchun Integrallashtirilgan Moliya Boshqaruv Axborot Tizimi (IFMIS -- Integrated Financial Management Information System) keng qo'llaniladi. O'zbekistonda G'aznachilik tizimi 2018 yildan boshlab yangi axborot platformasiga o'tkazila boshlandi. 2023 yilga kelib, davlat budjetining 78 foizi elektron tarzda amalga oshirilmoqda, bu 2019 yilgi 43 foizdan sezilarli o'sishni anglatadi.

Biroq, bir qancha muammolar mavjud: mahalliy budjetlarning faqat 61 foizi to'liq elektron tizimga ulangan; ma'lumotlarning real vaqtda uzatilishi ta'minlanmagan; tizimlar o'rtasidagi integratsiya yetarli emas; kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi bo'yicha normativ baza yangilanishni talab etadi.

Xulosa

Amalga oshirilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga imkon berdi:

Birinchidan, O'zbekistonda moliyaviy nazorat tizimi institutsional jihatdan shakllanib, asosiy tarkibiy qismlari — tashqi audit (Hisob palatasi), ichki audit va operativ nazorat (Moliya vazirligi) faoliyat ko'rsatmoqda. Biroq OECD/SIGMA (2021) baholashiga ko'ra, tizim yaxlit integratsiyalashgan model sifatida emas, balki alohida bo'g'inlar sifatida faoliyat yuritmoqda va bu nazorat samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omil sifatida qayd etilgan.

Ikkinchidan, budjet intizomini mustahkamlash masalasi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining yillik hisobotlarida muntazam ko'tarilmoqda. Budjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanish, asossiz xarajatlar va nazorat natijalariga ko'ra choralar ko'rish mexanizmining sustligi tizimli muammo sifatida qayd etilgan.

Uchinchidan, raqamlashtirish moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi IMF (2020) va Jahon Banki tadqiqotlarida isbotlangan. O'zbekistonda G'aznachilik tizimining modernizatsiyasi ijobiy natijalar bergan, lekin to'liq qamrov va tizimlar integratsiyasi hali maqsad darajasiga yetmagan.

To'rtinchidan, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, INTOSAI ISSAI standartlari asosida qurilgan integrallashgan nazorat modeli budjet samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin (Diamond, 2002; Schick, 2009). O'zbekiston ushbu xalqaro standartlarga to'liq o'tish jarayonida ekanligini OECD/SIGMA monitoring hisoboti tasdiqlaydi.

Beshinchidan, parlament nazoratini kuchaytirish va fuqarolik jamiyatining monitoring jarayonlariga jalb etilishi Khagram, Fung va de Renzio (2013) tadqiqotlarida budjet samaradorligini oshiruvchi hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatilgan. O'zbekistonda bu yo'nalish hali yetarlicha rivojlanmagan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqilgan.

1. Institutsional islohotlar bo'yicha Hisob palatasi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi va Soliq qo'mitasi o'rtasida yagona ma'lumotlar almashinuvi platformasini yaratish maqsadga muvofiq. Barcha budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatlarining funksional mustaqilligini ta'minlash va ularni bevosita boshqaruv kengashiga hisobdor qilish, shuningdek nazorat organlarida riskga asoslangan audit yondashuvini joriy etish tavsiya etiladi.

2. Raqamlashtirish bo'yicha IFMIS tizimini barcha mahalliy budjetlarni qamrab olgan holda to'liq joriy etish va real vaqtli monitoring funksiyasini ta'minlash tavsiya etiladi.

3. Shaffoflik va fuqarolik nazorati bo'yicha ochiq budjet portalini yangilash va fuqarolar uchun interaktiv budjet vizualizatsiya xizmatini yaratish maqsadga muvofiq.

ALOQA XIZMATLARINI KO’RSATUVCHI TASHKILOTLARDA ICHKI VA TASHQI AUDITNI TASHKIL ETISH

X.U.Po’latov
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti I.f.f.d. dotsent v.b.
F.A.Toshbekov
1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi tashkilotlarda ichki va tashqi audit o’tkazishning maqsadi, ularning vazifalari haqida mulohazalar keltirilgan.

Respublikamizda xizmat ko’rsatuvchi korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish, sodir bo’lgan xo’jalik muomalalarini amaldagi me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini ta’minlash ular amaliyotida auditorlik xizmatidan unumli foydalanishni taqozo etadi.

Xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda auditorlik ichki va tashqi ko’rinishda bo’lishi mumkin.Ichki audit korxona rahbariyatiga bo’ysinuvchi va xodimlar shtatida hisobga olinadigan shaxsalar tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi savdo korxonasida aktivlarning but saqlanishini, xodimlarning o’z vazifalarini to’g’ri bajarishni

tekshirish hisob siyosatiga rioya etilishini ta’minlaydigan usul chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat. Tashqi audit esa tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi, maxsus litsenziyaga ega bo’lgan mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan o’tkaziladi. Shuningdek, xizmat ko’rsatuvchi korxonalarda tashqi audit xizmatini tashkil etish va samaradorligini oshirish uning me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bevosita bog’liq.

Ichki audit xizmati aynan aksiyadorlik jamiyatlarida faoliyat yuritishi qimmatli qog‘ozlar bozorining ham rivojlanishiga asos bo‘ladi. Umuman olganda ichki auditorlar o‘zlari ishlaydigan korxonalar faoliyatini tekshiradi. Ular qoidaga ko‘ra, korxonaning kuzatuv kengashi tarkibiga kiradilar. Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi subyektlarda ichki auditni tashkil etish o’ziga xos yondashuvni talab etadi. Chunki aloqa xizmatlari bu ham moddiy ham nomoddiy ko’rinishga ega bo’lgan xizmatlarni o’zida jamlovchi faoliyat turidir. Bundan tashqari ichki auditordan ham axborot texnologiyalar sohasidan yuqori bilimga ega bo’lishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib ichki audit xizmatlarini bir nechta guruhlarga ajratish mumkin. Bular:

1- navatorlar (15%) – iqtisodiyot sohasi, kompaniya hajmi yoki mintaqasidan qat’i nazar, hamma joyda mavjud. Bu shuni ko’rsatadiki texnologiyani qabul qilishdagi stereotipik to’siqlarni (xizmat hajmi va byudjeti) yengib o’tishi mumkin; 2- izdoshlar (47%) – navatorlaga e’tiborni qaratishadi va ular ortidan texnologiyalarni qo’llashda ergashishadi, lekin juda sekinlik bilan; 3- kuzatuvchilar (38%) – ushbu gurux vakillari texnologiyalardan past darajada foydalanishadi yoki umuman foydalanishmaydi. Ular texnologiyalarning yetishmasligi, kompaniyadagi ma’lumotlar sifati pastligi yoki sarmoya kiritish uchun resurslar yetishmasligi bilan cheklanishi mumkin yoki korxona madaniy jixatdan tayyor bo’lmasligi mumkin.

Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi subyektlar kuzatuv kengashini ishonchli axborot bilan ta’minlash ichki auditorning asosiy vazifasidan biridir. Chunki kuzatuv kengashi auditorning axborotlari asosida korxona kelajagini belgilovchi qarorlarni qabul qiladi. Bu esa korxona kelajakda katta naf olishiga asos yaratishi mumkin. Ichki auditor korxona faoliyatini takomillashtirishga, xarajatlarni kamaytirishga doir takliflarni ham tayyorlashi lozim. Bundan tashqari ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan korxona boshqaruv organlariga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilib borishi lozim.

Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi subyektlarda ichki auditning asosiy vazifalari	
kuzatuvchi kengashni ishonchli axborot bilan ta’minlash va ichki audit amalga oshirilishi natijalari bo’yicha korxona faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash	ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan korxona boshqaruv organlariga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish

Aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi subyektlarda ichki audit texnologiyasini rivojlanayotgan iqtisodiyotga moslashtirib borishi lozim. Ichki audit texnologiyasini takomillashtirishning muhim yo’nalishi – bu tekshiruv o’tkazishni tashkil etish va uni takomillashtirish yo’llarining samaradorligini oshirish hamda uning zaif tomonlarini aniqlashdir. Shu sababdan auditorlik tekshiruvi bosqichlarining ketma-ketligi, uning borishi va natijaviyligi ichki auditorlik nazorati samaradorligi va holatini belgilab beradi. Aloqa korxonalarida ichki audit xizmatining maqsadi tashqi auditorlik faoliyatidan farqli o‘laroq, ular korxonaning moliyaviy xo‘jalik faoliyatini doimiy nazorat qilish maqsadida oldiga bir qancha maqsadlarni qo‘yadi: aktivlar holatining nazorati, ichki tizimdagi nazorat jarayonlarini tasdiqlash, ichki nazorat va axborot qayta ishlovi tizimining samarali ishlovining tahlili, boshqaruvning axborot tizimi tomonidan beriladigan ma’lumotlarinnig sifatliligini baholash. Bizning fikrimizcha, aloqa korxonalarida ichki audit xizmatining maqsadi – jamiyatning kuzatuv kengashi va aksiyadorlarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida axborot bilan taminlash, korxonaning moliyaviy xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish, ishlab chiqarish imkoniyatlarini baholab borish hamda korxonani barqaror faoliyat yuritishini ta’minlashdar. Agar korxonalarda ichki audit tashkil etilgan bo’lsa tashqi auditor uning yordamidan foydalanishi mumkin. Tashqi audit tashkilotning bugalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining haqqoniyligini ob’ektiv baholash maqsadida shartnoma asosida auditorlik kompaniya yoki yakka auditorlar tomonidan o’tkaziladi. Birgina misol, “O‘zbektelekom” AK moliyaviy hisobotning shaffofligi, haqqoniyligini ta’minlash va qonunchilik talablariga rioya etish maqsadlarida 2024-yil uchun auditorlik tekshiruvi 2024-yil uchun Barqaror rivojlanish hisoboti tayyorlanishi paytida FE Audit Company “Ernst & Young” LLC bilan hamkorlikda o‘tkazilgan. Tashqi audit har yili amalga oshiriladi va moliyaviy hisobotni, operatsion jarayonlarni va hisobot davridagi korporativ boshqaruvning asosiy jihatlarini qamrab oladi. Mustaqil auditorlik kompaniyasini tanlash tanlov asosida, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi, bu baholashning xolisligi va adolatliligini kafolatlaydi. Auditorlik tekshiruvlarining natijalari Kompaniyaning boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish va aksiyadorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar ishonchini oshirish uchun qo‘llaniladi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA BUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH

Abdullayev Muhammadzohid Azizjon o’g’li
Farg’ona davlat universiteti Iqtisodiyot yo’nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash masalalari yoritilgan. Unda davlat mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlash, moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, audit tizimini rivojlantirish hamda shaffoflikni oshirishning ahamiyati tahlil qilingan.

Shuningdek, budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlash orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Kalit so‘zlar:

Davlat moliyaviy nazorati, budjet intizomi, davlat budjeti, moliyaviy nazorat tizimi, audit, shaffoflik, samaradorlik, davlat xarajatlari, korrupsiya, raqamlashtirish.

Bugungi kunda davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish har bir mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat budjeti mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishi iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik hamda aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati — bu davlat tomonidan budjet mablag‘larining shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi ustidan olib boriladigan nazorat tizimidir. Ushbu tizim davlat mablag‘laridan noqonuniy yoki samarasiz foydalanishning oldini olishga xizmat qiladi. Moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Raqamlashtirish jarayoni orqali budjet mablag‘larining harakati ustidan real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyati yaratiladi. Bu esa shaffoflikni oshirish va korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, ichki va tashqi audit tizimlarini rivojlantirish zarur. Ichki audit tashkilot ichidagi moliyaviy intizomni mustahkamlasa, tashqi audit mustaqil baho berish orqali umumiy tizim samaradorligini oshiradi. Audit natijalari asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish davlat moliyaviy boshqaruvining sifatini yaxshilaydi. Budjet intizomini mustahkamlashda mablag‘larni rejalashtirish va ulardan foydalanish ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish muhimdir. Har bir ajratilgan mablag‘ aniq maqsad asosida sarflanishi lozim. Shu bilan birga, davlat organlari va mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish ham katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, moliyaviy nazorat tizimida ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlash zarur. Ochiq budjet tizimi orqali fuqarolar davlat xarajatlari ustidan nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa jamiyatda davlat boshqaruviga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omilidir. Zamonaviy nazorat mexanizmlarini joriy etish, audit tizimini rivojlantirish, shaffoflikni oshirish va raqamlashtirish orqali davlat mablag‘laridan samarali foydalanish mumkin. Bu esa mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

G’aniyev Shahriddin Vohidovich
“Budjet hisobi va g’aznachilik” kafedrasi Professori
Rajabova Ma’mura Abduraxim Qizi
Toshent davlat iqtisodiyot universiteti Magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda davlat moliyaviy nazoratining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati yoritilgan. Unda davlat moliyaviy nazoratining budjet mablag‘laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlashdagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so’zlar: davlat moliyaviy nazorati, budjet, moliyaviy intizom, shaffoflik, natijadorlik, audit, Hisob palatasi, risk-tahlil, masofaviy audit, budjet kodeksi.

Davlat moliyaviy nazorati davlat boshqaruvi tizimining eng muhim tarkibiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Uning iqtisodiy mohiyati davlat tomonidan jamlangan moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi ustidan tizimli kuzatuv, baholash va ta’sir choralarini amalga oshirish orqali budjet mablag‘laridan foydalanishning qonuniyligi, maqsadliligi, tejamkorligi va natijadorligini ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Davlat budjeti va boshqa markazlashgan moliyaviy fondlar iqtisodiy rivojlanish, aholi farovonligi, ijtimoiy himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ustuvor vazifalarni moliyalashtirish manbai bo‘lib xizmat qilgani sababli, ularning harakati ustidan samarali nazoratni tashkil etish davlat moliyasini boshqarishning obyektiv zaruratiga aylanadi. Shu jihatdan davlat moliyaviy nazoratini faqat tekshiruv vositasi sifatida emas, balki budjet boshqaruvining ajralmas va strategik instituti sifatida baholash lozim.

Mavzuga oid ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati turli mualliflar tomonidan turlicha izohlangan bo‘lsa-da, ularning barchasida umumiy bir jihat mavjud: nazorat moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini baholash bilangina cheklanmaydi, balki resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashga ham qaratiladi. Ayrim yondashuvlarda moliyaviy nazorat davlat va jamoat organlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan olib boradigan vakolatli nazorati sifatida talqin qilinadi. Boshqa yondashuvlarda esa u boshqaruv obyektining iqtisodiy samaradorligi va natijadorligini tahlil qiluvchi kompleks mexanizm sifatida ko‘riladi. Demak, ilmiy nuqtai nazardan davlat moliyaviy nazorati ikki tomonlama tabiatga ega: bir tomondan u moliyaviy intizom va qonuniylikni ta’minlaydi, ikkinchi tomondan esa davlat mablag‘lari evaziga erishilgan iqtisodiy va ijtimoiy natijalarni baholaydi.

Davlat moliyaviy nazoratining nazariy mohiyatini chuqurroq ochish uchun uning uchta asosiy jihatini ajratish maqsadga muvofiq. Birinchi jihat huquqiy mazmundir. Bu yerda davlat moliyaviy nazorati budjet to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya

etilishini ta’minlash, moliyaviy buzilishlarni aniqlash, bartaraf etish va kelgusida ularning oldini olishga xizmat qiladi. Ikkinchi jihat boshqaruv xarakteriga ega bo‘lib, unda nazorat moliyaviy oqimlarni tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash, resurslardan foydalanish darajasini baholash va boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga ko‘maklashadi. Uchinchi jihat natijadorlik bilan bog‘liq bo‘lib, sarflangan mablag‘lar evaziga qanday iqtisodiy va ijtimoiy samara olinayotganini aniqlashni nazarda tutadi. Aynan shu uchlik davlat moliyaviy nazoratining mazmunini belgilaydi va uni oddiy tekshiruv modelidan kengroq strategik boshqaruv mexanizmiga aylantiradi.

Budjet kodeksida davlat moliyaviy nazoratining rasmiy huquqiy mazmuni alohida belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, davlat moliyaviy nazorati budjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlarini aniqlash, bartaraf etish va ularga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek budjet sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Bu nazorat respublika va mahalliy budjetlar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari, shuningdek budjet ijrosining asosiy elementlari ustidan olib boriladi. Demak, huquqiy jihatdan davlat moliyaviy nazorati faqat xarajatlar qismini emas, balki daromadlar, jamg‘armalar va umumiy budjet ijrosining barcha asosiy tarkibiy qismlarini qamrab oladi. Bu esa uning kompleks va tizimli xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Davlat moliyaviy nazoratining institutsional tuzilmasi ham uning iqtisodiy mohiyatini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi huquqiy tartibga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tasarrufidagi vakolatli organlar, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha boshqa vakolatli tuzilmalar tomonidan amalga oshiriladi. Daromadlar qismi bo‘yicha nazorat esa tegishli vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan olib boriladi. Bunday ko‘p bo‘g‘inli tizim davlat moliyaviy nazoratining bir markazli emasligini, balki funksiyalar bo‘yicha taqsimlangan, o‘zaro bog‘langan va bir-birini to‘ldiruvchi murakkab institut ekanini anglatadi. Mazkur tizim moliyaviy resurslar harakatining turli bosqichlarida nazoratni ta’minlash imkonini beradi.

Davlat moliyaviy nazoratining asosiy prinsiplari ham uning mazmunini ochib beruvchi muhim omildir. Kodeksda qonuniylik va mustaqillik bilan bir qatorda, nazorat natijalarining ishonchliligi va xolisligi asosiy tamoyillar sifatida qayd etilgan. Mazkur tamoyillar nazorat faoliyatining faqat rasmiy huquqiy talablarga mos bo‘lishini emas, balki dalillarga asoslangan, tashqi ta’sirdan holi va obyektiv baholash mezonlariga tayanishini ham anglatadi. Shu sababli davlat moliyaviy nazorati tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan ana shu prinsiplarning amaliyotda qay darajada ro‘yobga chiqarilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Bugungi kunda davlat moliyaviy nazoratining ahamiyati ayniqsa kuchayib bormoqda. Buning sababi shundaki, hozirgi bosqichda davlat budjeti mablag‘larining

shunchaki sarflangani emas, balki ular qanday natija bergani, qanday ijtimoiy va iqtisodiy samara keltirgani birlamchi ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro audit tamoyillarida ham davlat auditi qonuniylikni tekshirish bilan cheklanmasdan, davlat siyosati, dasturlari va operatsiyalarining samaradorligi hamda boshqaruv sifati yuzasidan mustaqil va obyektiv baho berishi zarurligi ko‘rsatiladi. Shu ma’noda, davlat moliyaviy nazoratining markazida mablag‘ sarflandimi degan savoldan ko‘ra, mablag‘ qanday natija berdi degan savol turishi zarur. Bu yondashuv, ayniqsa, ijtimoiy soha xarajatlari ko‘lami yuqori bo‘lgan sharoitda yanada muhimdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimining raqamlashtirish, masofaviy audit, risk-tahlil va samaradorlik auditiga asoslangan yangi bosqichga o‘tayotgani kuzatilmoqda. Bu esa an’anaviy tekshiruv modelidan natijadorlikka va risklarni oldindan aniqlashga yo‘naltirilgan audit modeliga o‘tish jarayoni kechayotganini bildiradi. Mazkur o‘zgarishlar nazorat tizimini yanada moslashuvchan, tezkor va tahliliy qobiliyatga ega mexanizmga aylantirmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalardan foydalanish budjet mablag‘larining harakatini tezkor monitoring qilish, moliyaviy buzilishlarni erta aniqlash va qaror qabul qilish sifatini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan davlat moliyaviy nazoratining modernizatsiyasi nafaqat tashkiliy yangilanish, balki uning iqtisodiy mohiyatini ham kengaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Davlat moliyaviy nazoratining amaliy ahamiyati, eng avvalo, moliyaviy intizomni mustahkamlashda ko‘rinadi. Budjet mablag‘laridan maqsadsiz yoki samarasiz foydalanish davlat dasturlarining bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ijtimoiy islohotlar samaradorligini pasaytiradi va korrupsiyaviy xavflarni kuchaytiradi. Davlat moliyaviy nazorati esa aynan ana shu xavflarni kamaytirish, budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlash va sarflangan mablag‘larni real ijtimoiy natijaga aylantirishga xizmat qiladi. Shu sababli uni davlat moliyasini boshqarish tizimida strategik institut sifatida baholash ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

Agar masalaga ijtimoiy soha xarajatlari nuqtai nazaridan yondashilsa, davlat moliyaviy nazoratining roli yanada yaqqol ko‘rinadi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, madaniyat va boshqa yo‘nalishlarga ajratilayotgan mablag‘larning oqilona va shaffof sarflanishi fuqarolarning turmush darajasini oshirishga, inson kapitalini rivojlantirishga va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois ijtimoiy xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish nafaqat iqtisodiy samaradorlik masalasi, balki ijtimoiy siyosatning muvaffaqiyati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Mazkur holat tadqiqot mavzusining ilmiy-amaliy dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Umumlashtirib aytganda, davlat moliyaviy nazorati davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida budjet resurslari hamda boshqa markazlashgan moliyaviy fondlarning shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi jarayonida qonuniylik, maqsadlilik, tejamkorlik, shaffoflik va natijadorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv-huquqiy

mexanizm hisoblanadi. Uning bugungi kundagi mazmuni qoidabuzarliklarni aniqlash bilan cheklanmay, davlat siyosati va budjet xarajatlarining real samaradorligini baholash, boshqaruv qarorlarini takomillashtirish va moliyaviy resurslardan foydalanish sifatini oshirish bilan belgilanadi. Shu sababli davlat moliyaviy nazoratini bosqichda oddiy nazorat vositasi sifatida emas, balki davlat moliyasini samarali boshqarishning strategik instituti sifatida ko‘rish maqsadga muvofiqdir

KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT TUZISH SHAROITIDA ICHKI AUDITNING ROLI

Hojiyeva Gulnora Xabibullayevna
“Audit” kafedrasi o’qituvchisi

Iqtisodiy munosabatlar yaxshi rivojlanayotgan bugungi Yangi O’zbekistonda ko’plab sohalar qatorida auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Shu o’rinda, bundan bir necha yil oldin O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ushbu sohani isloh qilish uchun qabul qilingan qonun hujjatlarini e’tirof etish maqsadga muvofiqdir. Bunday islohotlar bugungi kunda ham ko’plab amalga oshirib kelinayotganligi amaldagi ijobiy o’zgarishlar orqali sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

Bugungi murakkab iqtisodiy munosabatlar sharoitida ichki auditning imkoniyatlari kengayib, turli sohalarda keng qo’llanmoqda, ayniqsa yirik aksiyadorlik jamiyatlari va transmilliy korporatsiyalar tomonidan tuzib taqdim etilishi kerak bo’lgan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni to’g’ri aks ettirilishida uning o’rni va ahamiyati katta bo’lib, bu esa uni, tashkilotning umumiy boshqaruvi va muvaffaqiyatiga sezilarli aviy hisobotlarta'sir ko'rsatishiga olib kelmoqda. Texnologiyalar rivojlanishi va global biznesni boshqarishning murakkablashuvi ichki auditning ahamiyatini yanada oshirib, uning zaruriyatini yuzaga olib chiqmoqda.

Islohotlarning amalga oshirilishida poydevor bo’lib xizmat qilayotgan ana shunday qonun hujjatlarining birida: “Mamlakatimizda auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo‘lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zaruriy darajasini, shu jumladan auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta’minlamayapti, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda” deyilgan edi.[46]

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugun O’zbekistonda ichki audit tizimi dunyoning eng yaxshi amaliyotlari asosida yangilanmoqda. Masalan, Auditning Xalqaro Standartlariga o’tish amaliyoti muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

[46] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi 3946-son Qarori.

Ichki audit o’zi nima va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishda kompaniyaga qay darajada foydali bo’lishi mumkin? Nima uchun ichki audit mulkdorlar e’tiborini tortgan?, kabi savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Ichki audit - tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini; korporativ boshqaruv prinsiplariga rioya qilinishini; buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini;

soliqlar va yig`imlar to`g`ri hisoblab chiqilishi va to`lanishini; moliya-xo`jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini; aktivlarning holatini; ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borish yo`li bilan faqat ichki audit xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.[47]

Albatta, aytish joizki, ichki audit yangi tushuncha bo’lmagani holda u uchinchi ming yillik boshlarida alohida e’tiborni torta boshladi. Bugun dunyoda unga bo’lgan qiziqishning ortib borayotganligi esa ko’plab omillarga bog’liq.

Birinchidan, ichki audit faoliyati to’g’ri yo’lga qo’yilishi va amalga oshirilishi natijasida, kompaniyaning past baholanayotgan ichki resurslarini aniqlanishi, ulardan oqilona foydalanish esa samaradorlikni bir necha barobarga oshirishi mumkin.

Ikkinchidan, ichki audit- ajralmas qismi hisoblangan kompaniyada yaxshi korporativ boshqaruvning mavjudligi potentsial investorlar va kreditorlar uchun ijobiy signal bo'lib, kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshiradi.

Uchinchidan, ichki audit sifatli va ishonchli faoliyat yuritayotgan kompaniyada moliyaviy barqarorlik yuqori bo’ladi va natijada kelajak uchun puxta moliyaviy rejalarni tuzish imkonini beradi.

Va nihoyat, qisqa yoki o'rta muddatli istiqbolda xalqaro kapital bozorlariga chiqish rejalari kompaniyalarga ichki audit xizmatlarini yaratish zarurligini taqozo qiladi. Fikrimiz dalili sifatida aytish mumkinki, allaqachon, g’arb davlatlarida amal qilayotgan yirik fond birjalarining qoidalari mavjud. Ulardan biriga ko’ra, kompaniyaning qimmatli qog’ozlarini birjaning kotirovka varaqalariga kiritishning majburiy sharti sifatida kompaniyada ichki audit mavjudligini nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ichki audit juda ko'plab vazifalarni hal qila oladi, ammo bu kompaniyaning mavjud barcha muammolariga universal yechim bo’ladi degani emas. Masalan, 1) Ichki audit barcha inson omili ishtirokidagi xatoliklarni yoki kasbiy suiiste’mollik holatlarini har doim ham bartaraf eta olmaydi, lekin u ularning yuzaga kelishini minimallashtirishi va erta aniqlashi mumkin (albatta sifatli audit amallari orqali). 2) Ichki audit har bir hisobga oid muomalalarni doimiy bir maromda tekshira olmaydi, lekin dastlabki xavflarni to’g’ri tahlil qilish orqali riskni pasaytirishi mumkin.

[47] O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-sonli Qaroriga 2-ilova.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA RISKKA ASOSLANGAN AUDIT TIZIMI

Xalilova Shoxsanam G`ayrat qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii dotsent v.b., PhD
Isroilova Sevinch Himoil qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii talabasi

Davlat moliyaviy nazorati va auditi davlatning iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar davlat moliyasini boshqarish tizimida samarasizlik, shaffoflikning yetishmasligi hamda daromadlar va xarajatlarning nazoratini to’liq amalga oshirolmaslik kabi muammolarga duch kelmoqda. Bu holatlar fiskal hisobdorlikni zaiflashtiradi, davlat xizmatlari samaradorligini kamaytiradi va jamoatchilik ishonchini pasaytiradi.

Audit davlat moliyaviy tizimlarining yaxlitligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. U qonunchilikka rioya etilishini nazorat qiladi, moliyaviy buzilishlarni aniqlaydi hamda davlat mablag‘laridan to‘g‘ri foydalanilayotganini tasdiqlaydi. Davlat moliyaviy nazoratida davlat organlari va mahalliy hokimiyatlar tomonidan davlat aktivlarini boshqarish hamda ulardan samarali foydalanish, xarajatlari va budjetdan tashqari daaromadlarini hisobini to’g’ri va aniq tashkil etish bo’yicha bir qancha kamchiliklar bilan bog’liq muammolarga duch kelmoqda. An’anaviy audit tizimi ushbu risklar bilan bog’liq muammolarni optimal darajada aniqlash va bartaraf etish uchun yetarli emas. Riskka asoslangan audit tizimi ushbu muammolarni oldindan aniqlagan holda ya’ni risk analitikasi yordamida davlat moliyaviy nazoratida yanada samaradorlik va fiskal shaffoflikni oshirishni taklif qiladi.

Riskga asoslangan audit audit faoliyatini potensial risk darajasiga qarab rejalashtiradigan metodologiya hisoblanadi.Bunda asosan risk darajasi yuqori bo’lgan sohalarga ko’proq e’tibor qaratiladi. RBA quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Risklarni aniqlash
- Risklarni baholash
- Risklarni ustuvorlashtirish
- Auditni rejalashtirish

Ushbu strukturalangan yondashuv auditlarni strategik jihatdan maqsadli qilishni ta’minlaydi, yuqori riskli sohalarga ko‘proq e’tibor qaratiladi va natijada moliyaviy javobgarlik yaxshilanadi hamda daromad oqimlaridagi yo‘qotish ehtimoli kamayadi.

Merilend universiteti professori Allen Shick fikriga ko’ra,davlat moliyaviy nazoratining an’anaviy muvofiqlik auditi tizimidan kelajakni ko‘zlovchi, natijaga yo‘naltirilgan tizimga o‘tishi zamonaviy boshqaruv uchun muhim ahamiyatga ega. Bu o‘zgarish davlat mablag‘lari faqat qonuniy talablarga rioya qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki belgilangan natijalarga erishishini ta’minlash uchun zarurdir.

Ushbu tizim O’zbekiston Respublikasida ham xorij tajribasidan olingan holda xalqaro audit standartlariga moslashtirilgan holda joriy etilmoqda. Bunga ko’ra, 2027-yil 1-yanvardan boshlab davlat xaridlari va to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qonunchilik buzilishi bilan bog‘liq moliyaviy xavflarni “E-risk” dasturiy majmuasida avtomatik aniqlash va aniqlangan xavflar asosida ogohlantirish hamda xabardor qilish mexanizmini joriy qilinadi hamda davlat moliyaviy nazoratida risk tahlilini amalga oshirish jarayonidan foydalanish tartibi Hisob palatasiga vazifa qilib qo’yildi.[48] Ushbu dastur doirasida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining
,,Davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-252-son farmoni tasdiqlandi va farmon doirasida xalqaro standartlar asosida davlat auditi va moliyaviy nazorati faoliyatini raqamlashtirish, moliyaviy boshqaruv sohasida ichki nazorat ko’lamini yanada kengaytirish hamda audit sohasida yetuk kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish bo’yicha vazifalar belgilangan. Kadrlar tayyorlash bo’yicha iqtidorli yoshlarni davlat auditi sohasiga maqsadli yo‘naltirish, sohada ta’lim va ilmiy-tadqiqot integratsiyasini ta’minlash maqsadida 2026/2027 o‘quv yilidan boshlab Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiida ta’lim yo‘nalishi shaklida huquqiy maqomi oliy ta’lim tashkiloti fakultetiga tenglashtirilgan Davlat auditi oliy maktabi tashkil etish vazifasi belgilandi.

Xulosa qilinganda, risk tahlilining davlat moliyaviy nazorat sohasi bilan birlashishi davlat mablag’laridan foydalanish samaradorligini yanada oshiradi va albatta iqtisodiy barqarorlikka erishish yo’lida muhim mexanizmlardan biri bo’lib xizmat qiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYA TIZIMINING RIVOJLANISHI

Maxliyo Jumaboyeva
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
Andijon fakulteti 3-kurs BHA-71/23 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy tizimining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o’rni, davlat byudjetini samarali boshqarish, moliyaviy resurslarni yanada adolatli taqsimlash, davlatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashdagi ahamiyati, moliya tizimining to'g'ri va samarali ishlashini ta'minlash orqali davlat byudjeti va boshqa moliyaviy resurslarni optimallashtirish, inflyatsiya, valyuta kurslari o‘zgarishi va boshqa iqtisodiy muammolarga qarshi kurashish orqali mamlakatning moliyaviy barqarorligini saqlashdagi roli va ahamiyati ko’rsatib berilgan.

Kalit so‘z: Moliya tizimi, inflatsiya, moliyaviy resurslar, davlat byudjeti, xalqaro valyuta va investitsiya,taqsimlash,nazorat,inflatsiya,davlat moliyasi.

[48] O’zbekiston Respublikasi Prezidenditing ,,Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan zamonaviy xizmatlarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-105-son farmoni

O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimining rivojlanishi mamlakat tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligiga erishilganidan so‘ng, respublikamiz moliya tizimining yangi asoslari yaratila boshlandi. Ushbu tizimning pravord maqsadi iqtisodiyotni barqaror holatga keltirish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va boshqarishdan iborat. Mustaqillik yillarining ilk yillarida davlat banklari, moliya institutlari va muassasalari, shuningdek, sug'urta kompaniyalari tashkil etildi.

1995 yilda O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Banki tashkil etilib, u moliyaviy barqarorlikni saqlash va davlat pul siyosatini amalga oshirish vazifasini bajarishni o‘z zimmasiga oldi. O‘zbekiston moliya tizimining eng muhim jihatlaridan biri xususiy sektorga bo'lgan e'tibor bo‘ldi. Xususiy moliya institutlari ko'paygani sayin iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda o‘z rolini oshira boshladi.

2000-yillarda O‘zbekistonda moliya tizimida tub o‘zgarishlar ro'y berdi. Xalqaro moliya muassasalari, jumladan, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan hamkorlik kuchaydi. Ushbu hamkorlik moliya resurslarini jalb qilish va moliya tizimining xususiy sektor bilan integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Davlat dasturlari doirasida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish uchun qator dasturlar amalga oshirildi.

Hozirgi paytda O‘zbekiston moliya tizimida islohatlar amalga oshirilmoqda hamda ular asosida ushbu tizim yanada jadal rivojlanmoqda. Misol tariqasida quyidagilarni aytish mumkin: Masalan, zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy qilinishi, innovatsion xizmatlar turlarini ko‘payib borishi[49], moliyaviy instrumentlar hamda moliyaviy vositchilar sonining oshib borishi, mobil ilovalar yordamida foydalanuvchilar bank operatsiyalarini mobil telefonlar orqali amalga oshirishi mumkin. Bundan tashqari, moliya tizimida innovatsiyalar joriy etilishining yana bir muhim jihati -bu ma'lumotlar va analitika sohasidagi yangiliklardir. Katta ma'lumotlar (big data), sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyasi kabi innovatsiyalar moliyaviy tahlilni yanada aniq va tezkor amalga oshirish imkonini yaratishi shular jumlasidandir.

Mamalakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda moliya tizimining barcha sohalarida jadal ishlar olib borilmoqda. Moliyaviy tizimni rivojlanishi natijasida iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, modernizasiyalashtirish uchun harakatlar davom etmoqda.

O‘zbekiston moliya tizimini rivojlantirishning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, moliyaviy barqarorlik hamda sog'lom raqobat muhitini yaratishga qaratilgan. Moliya tizimi mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda turli iqtisodiy sub’yektlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Moliya tizimi o‘z ichiga davlat moliyasi, moliyaviy institutlar, xo‘jalik yutituvchi sub’yektlar, uy xo‘jaliklari, moliyaviy

[49] Туйчиев, А. Г. (2019). Международные и региональные тенденции и проблемы финансирования инноваций и их трансферта в малый бизнес. Финансовый менеджмент, (5), 62-71

bozorlar, moliyaviy instrumentlar va moliyaviy siyosatni oladi. Bularning barchasi biri-biri bilan o‘zaro bog'liq bo'lib, moliya tizimida iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi.

Birinchidan, moliya tizimining asosiy unsurlaridan biri moliyaviy institutlardir. Ular banklar, sug'urta kompaniyalari, investisiya fondlari kabi muassasalardan iborat bo'lib, ular keng ko'lamli moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi. Masalan, banklar aholi va korxonalar uchun omonat va hisob kliring xizmatlarini ko'rsatadi, sug'urta kompaniyalari esa risklarni kamaytirish va ularni boshqarish bilan bog‘liq funksiyalarni bajaradi.

Ikkinchidan, moliyaviy bozorlar xavf va foyda o'rtasida muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ular yangi moliyaviy instrumentlarni yaratish, mavjud instrumentlarni sotish va sotib olish imkoniyatlarini taqdim etadi. Masalan, aksiyalar va obligatsiyalar bozorida investorlar o‘z sarmoyalarini joylashtirishi va foyda olish imkoniyatlarini yaratishi mumkin. Moliyaviy bozorlar moliya tizimining samaradorligini oshiradi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Uchinchidan, moliyaviy instrumentlar moliya tizimining yana bir muhim qismidir. Ular turli xil aktivlar va passivlarni hisobga oladi, jumladan aksiyalar, obligatsiyalar va kreditlar. Moliyaviy instrumentlar investorlar va qarz oluvchilar o'rtasidagi munosabatni belgilaydi va bu aloqalar moliya dasturlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Natijada, moliya tizimining iqtisodiy muhitda muhim rolini ko‘rsatib beradi. Ular resurslarni taqsimlash va risklarni boshqarishda muhim ahamiyatga egadir.

Moliyaviy tizimning qoidalari va qonunlari iqtisodiyotning xususiyatlarini belgilaydi. Moliya tizimi davlat moliyasidan tortib, banklar, sug'urta kompaniyalari, fond bozorlariga qadar mavjud muassasalarni o‘z ichiga oladi. Qonunchilik, shuningdek, moliyaviy bozorlarning ochiqligini va tartibga solinishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bunga misol sifatida moliya va bank sektori uchun qoidalarning ishlab chiqilishi, investorlarning himoyasi va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashni keltirish mumkin. Qonunlar va moliya tizimi munosabati vaqt o'tishi bilan o‘zgarib turadi. O‘zgarishlar, ko'pincha iqtisodiy sharoitlar, bozor talab va takliflari bilan bog'liq. Masalan, iqtisodiy krizis paytida davlatlar banklarni va boshqa moliya institutlarini qo'llab-quvvatlash uchun qonunlarni o‘zgartirishi mumkin. Bu kabi o‘zgarishlar moliya tizimining barqarorligini saqlash va iqtisodiy ishonchni tiklash uchun zarur hisoblanadi. Natijada, qonunchilik moliya tizimining asosiy poydevori hisoblanadi. Moliya tizimining muvaffaqiyati va barqarorligi qonunlarning amalga oshirilishi, muxandisligi va nazorati bilan bevosita bog'liqdir. Qonunchilik, o‘z navbatida, moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va optimalligi uchun zarur mezonlarni belgilaydi. Shuning uchun, qonunchilik va moliya tizimi o'rtasidagi o‘zaro aloqalar har qanday mamlakat uchun xalqaro moliyaviy tizimda ishonchli ishtirok etishning asosini tashkil etadi.

Moliya tizimi xalqaro aloqalar sohasida muhim rol o'ynaydi. Har bir davlatning moliyaviy resurslari, tashqi savdo munosabatlari, investitsiya strategiyalari va xalqaro

kredit tizimlari iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun imperativdir. Moliya tizimining xalqaro muvozanatini ta'minlashda bir qator muhim elementlar mavjud. Birinchidan, xalqaro valyuta tizimi mamlakatlar o'rtasida moliyaviy almashuvlarni amalga oshirishda asosiy jihatdir. U davlatlar o'rtasida valyuta kurslarini belgilaydi va xalqaro savdoda ishtirok etuvchi sub'yektlar uchun har bir transaktsiyaning moliyaviy shartlarini tartibga solidi. Xalqaro aloqalarning yana bir muhim jihati investorlar o'rtasidagi aloqalardir. Xalqaro investitsiya firmalari va moliyaviy institutlar, masalan, Bosh fondlar va pensiya fondlari, global miqyosda investitsiya qilish bilan bir qatorda, mamlakatlar ichidagi iqtisodiy rivojlanishga ham hissa qo'shadilar. Shuningdek, davlatlar o'rtasida soragandi va avtomatiklikni ta'minlash uchun moliyaviy hamkorlik muhimdir. Xalqaro moliya institutlari, bularni o‘z ichiga oladi, xalqaro moliya institutlari yig'in davrlarida moliyaviy muhokama va yordam taklif qiladilar. Bunga xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining misol sifatida keltirilishi mumkin. Xalqaro aloqalar doirasida moliya tizimi, shuningdek, qo'shni davlatlar o'rtasida iqtisodiy integratsiyani ta'minlashda ham muhimdir. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya, masalan, iqtisodiy ittifoqlar va savdo bitimlari orqali kuchayadi. Bu esa moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va iqtisodiy barqarorlikni oshiradi. Moliyaviy munosabatlar o‘zaro bog'liqlikni kuchaytiradi va bu jarayonlar mamlakatlar o'rtasida yanada mustahkam iqtisodiy aloqalar o'rnatulishiga olib keladi. Hozirgi zamonning dinamik va o‘zgaruvchan tabiatida har bir sohada qiyinchiliklar va chaqiriqalar vujudga kelmoqda. Bu qiyinchiliklar sanoat, iqtisodiyot, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda namoyon bo'ladi. Ularni aniqlash va hal etish muammolarni yengish uchun muhimdir. Bunday qiyinchiliklar xulosalar olib kelishi va jamiyatda alohida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Sanoat sohasida muhim qiyinchiliklardan biri texnologik yangilanishlardir. Yangiliklar tez o‘zgarayotgani sababli, korxonalar o‘zlarini moslashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Buning yechimi sifatida korxonalar innovatsion texnologiyalarni joriy etishlari va xodimlarni qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishlari mumkin. Shuningdek, mahalliy bozorlarni o'rganish va global tendentsiyalarni hisobga olish muhimdir. Iqtisodiyotda moliyaviy notekisliklar ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. O‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar va mablag' manbalarining kamayishi iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi. Bu jarayonda davlat muassasalari bilan xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash dolzarb vazifa sifatida ko'riladi.

Moliya tizimining samarali ishlashi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini va uni iqtisodiy o'sishini ta'minlashga yordam beradi. Bunadan tashqari investitsion faollikni tashkil etishda ham muhim rol o'ynaydi. Banklar moliyaviy tizimning eng muhim tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Ular naqd pulni to'plash va uni investitsiyalarga aylantirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi. Banklar depozitlarni qabul qilib, ularni kreditlar orqali sarflaydilar, shuning uchun ular iqtisodiy muhitda likvidlikni

ta'minlaydilar. Shuningdek, ular biri-birini moliyalashtirish va aktivlarni boshqarish imkoniyatlarini ham taqdim etadilar.

Investitsiya fondlari iqtisodiyotga moliyaviy resurslarni jalb etish orqali bozorning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ular investorlarning mablag'larini jamlab, ularni diversifikatsiya orqali xavf-xatarlarni kamaytirib, turli xil aktivlarga yo'naltiradilar. Bu, o‘z navbatida, yangi bizneslarni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyatlarini yaratadi. Davlat moliya muassasalari esa moliya bozorining barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ular iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda, moliyaviy monitoring va nazoratni olib borishda hamda ijro hukumatining moliyaviy resurslarini boshqarishda qatnashadilar.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy tizim tashkilotlari iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi hamda ko'plab investitsiyalar kiritish uchun zarur imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish moliya sohasini global miqyosda rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash, davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik qilish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish kabi yechimlar muammolarga efektiv javob beradi va jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDIT TIZIMIDA SHAFFOFLIKNI TA’MINLASH MASALALARI

Yusupova Farizabonu Zarifovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti i.f.f.d.(PhD)., Katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida shaffoflikni ta’minlashning ahamiyati, uning davlat moliyasini samarali boshqarishdagi o‘rni hamda ushbu tizimni takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat moliyaviy nazorati jarayonida ochiqlikni ta’minlash, axborot texnologiyalarini joriy etish, korrupsiyaning oldini olish hamda xalqaro tajribani qo‘llash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat moliyaviy nazorati, ichki audit, shaffoflik, moliyaviy nazorat, byudjet mablag‘lari, audit, boshqaruv samaradorligi.

Kirish

Bugungi kunda davlat moliyasini samarali boshqarish masalasi har bir mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat moliyaviy resurslarining oqilona va samarali boshqarilishi mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash hamda aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli davlat byudjeti mablag‘laridan oqilona foydalanish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va davlat moliyaviy

resurslarining maqsadli sarflanishini ta’minlash masalalari doimo dolzarb bo‘lib kelmoqda[1].

Davlat byudjeti mablag‘lari iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda davlat dasturlarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladi. Shu bois ushbu mablag‘larning samarali va shaffof sarflanishini ta’minlashda davlat moliyaviy nazorati muhim rol o‘ynaydi. Davlat moliyaviy nazorati davlat organlari tomonidan davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlarini monitoring qilish hamda baholashga qaratilgan nazorat tizimi hisoblanadi[2].

Davlat moliyaviy nazorati tizimi orqali byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish ustidan nazorat o‘rnatiladi, moliyaviy qonunbuzarliklar aniqlanadi va ularning oldini olish choralari ko‘riladi. Bu esa davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda davlat resurslaridan foydalanishning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi[2].

Mazkur jarayonda ichki audit tizimi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki audit tashkilot faoliyatini mustaqil baholash, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tekshirish hamda ichki nazorat tizimining samaradorligini aniqlashga qaratilgan muhim boshqaruv vositasidir. Ichki audit orqali tashkilot faoliyatida mavjud bo‘lgan moliyaviy risklar aniqlanadi, resurslardan foydalanish samaradorligi baholanadi hamda boshqaruv qarorlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga, ichki audit tizimi tashkilotlarda moliyaviy intizomni mustahkamlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimining samarali faoliyat yuritishi davlat moliyaviy boshqaruvining shaffofligi va hisobdorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy boshqaruv tizimida shaffoflik tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Shaffoflik moliyaviy jarayonlarning ochiqligi, axborotlarning ishonchliligi va jamoatchilik uchun ochiq bo‘lishini anglatadi. Shu sababli davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida shaffoflikni ta’minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati – bu davlat organlari tomonidan davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash hamda ulardan foydalanish ustidan amalga oshiriladigan nazorat tizimidir[3].

Davlat moliyaviy nazoratining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat byudjeti mablag‘laridan maqsadli foydalanishni ta’minlash;
- moliyaviy intizomni mustahkamlash;
- moliyaviy qonunbuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olish;
- davlat mulkidan samarali foydalanishni nazorat qilish;
- davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish.

Davlat moliyaviy nazorati mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Chunki davlat resurslaridan samarasiz foydalanish iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ichki audit tashkilot faoliyatini mustaqil baholashga qaratilgan nazorat tizimi bo‘lib, u boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ichki audit tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tekshirish;

2. Ichki nazorat tizimini baholash;

3. Tashkilot faoliyatidagi risklarni aniqlash;

4. Moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ichki audit tizimi samarali ishlagan taqdirda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi va tashkilot faoliyatida shaffoflik ta’minlanadi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimida shaffoflikni ta’minlash uchun bir qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

1. Axborot ochiqligini ta’minlash - davlat moliyaviy nazorati natijalari bo‘yicha axborotlarni jamoatchilikka ochiq e’lon qilish shaffoflikni oshiradi. Bu esa davlat organlari faoliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

2. Raqamli texnologiyalarni joriy etish - axborot texnologiyalaridan foydalanish nazorat jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradi. Elektron tizimlar orqali moliyaviy ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish mumkin.

3. Xalqaro audit standartlarini qo‘llash - ichki audit faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil etish audit sifatini oshiradi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlaydi.

4. Korrupsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish - shaffof nazorat tizimi korrupsion holatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli moliyaviy nazorat jarayonlarida ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlash muhimdir.

5. Mutaxassislar malakasini oshirish - davlat moliyaviy nazorati va audit sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning malakasini muntazam oshirib borish tizim samaradorligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida shaffoflikni ta’minlash davlat moliyaviy boshqaruvining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shaffoflik moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi, moliyaviy intizomni mustahkamlaydi hamda davlat boshqaruvida jamoatchilik ishonchini oshiradi.

Shu sababli davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, xalqaro standartlardan foydalanish, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish hamda mutaxassislarning kasbiy malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA BUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI

Meyliyev O.R
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasi professori

Zamonaviy sharoitda davlat moliyasini samarali boshqarish masalasi har bir mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotning globallashuvi, davlat xarajatlarining kengayib borishi hamda fiskal yuklamalarning ortishi davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida budjet tizimini isloh qilish, uning ochiqligi va shaffofligini oshirish, natijadorlikka yo'naltirilgan budjetlashtirish mexanizmlarini joriy etish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, budjet mablag'laridan foydalanishda ayrim kamchiliklar va moliyaviy intizom buzilishlari hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Xususan, davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan aniqlanayotgan qonunbuzilishlar hajmining mavjudligi nazorat tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Davlat budjeti xarajatlarining yildan-yilga ortib borishi, ijtimoiy sohalarga yo'naltirilayotgan mablag'lar ulushining yuqoriligi hamda infratuzilmaviy loyihalarning kengayishi budjet intizomini mustahkamlashni strategik vazifaga aylantirmoqda. Shu bilan birga, budjet defitsiti sharoitida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash va noqonuniy xarajatlarning oldini olish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi ham dolzarb muammolardan biridir. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda real vaqt rejimida monitoring, "katta ma'lumotlar" (big data) va sun'iy intellekt asosida moliyaviy nazorat mexanizmlari joriy etilgan bo'lsa, milliy amaliyotda ushbu yo'nalish hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Bundan tashqari, davlat moliyaviy nazorati tizimida quyidagi tizimli muammolar mavjud:

- nazorat organlari faoliyatining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi;
- riskga asoslangan audit tizimining to'liq shakllanmaganligi;
- ichki moliyaviy nazorat mexanizmlarining zaifligi;
- jamoatchilik nazoratining cheklanganligi.

Mazkur muammolar budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini pasaytiradi hamda davlat moliyasining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu jihatdan, davlat moliyaviy nazorati tizimini ilmiy asosda takomillashtirish, budjet intizomini mustahkamlash, moliyaviy qonunbuzilishlarning oldini olish va davlat

mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash masalalari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yuqori ahamiyat kasb etib, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Davlat moliyaviy nazorati tizimi davlat moliyasining barqarorligi va budjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlovchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. So‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlar jadallashuvi budjet intizomini mustahkamlashni dolzarb masalaga aylantirdi.

OECD tadqiqotlariga ko‘ra, davlat moliyaviy nazorati tizimi samaradorligini oshirishda natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish (Performance-Based Budgeting) muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tizimda budjet mablag‘lari sarfi aniq natijalar va indikatorlar bilan bog‘lanadi.

1-jadval

Davlat moliyaviy nazorati tizimining solishtirma tahlili

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston	OECD mamlakatlari
Tashqi audit	Markazlashgan (Hisob palatasi)	Mustaqil, parlamentga bo‘ysunuvchi
Ichki audit	Rivojlanish bosqichida	To‘liq joriy etilgan
Nazorat yondashuvi	Asosan post-faktum	Riskga asoslangan, proaktiv
Raqamlashtirish	Qisman joriy etilgan	To‘liq raqamlashtirilgan
Jamoatchiliknazorati	Cheklangan	Yuqori darajada rivojlangan

Tahlil natijalariga ko‘ra, OECD mamlakatlarida davlat moliyaviy nazorati tizimi institutsional jihatdan mustahkam va samarali faoliyat yuritadi. O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda sezilarli islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, tizim hali transformatsiya bosqichida ekanligi kuzatiladi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish budjet intizomini mustahkamlashning asosiy omili hisoblanadi. So‘nggi yillarda nazorat samaradorligi oshgan bo‘lsa-da, qonunbuzilishlar hajmi hali ham yuqori darajada qolmoqda.

Raqamlashtirish, riskga asoslangan yondashuv va jamoatchilik nazoratini kengaytirish orqali moliyaviy nazorat tizimini modernizatsiya qilish имконияти яратилади. Bu esa o‘z navbatida davlat moliyasining barqarorligini ta’minlash va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirish borasida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, budjet intizomi darajasini oshirishda hali foydalanilmagan imkoniyatlar

mavjud. Xususan, moliyaviy qonunbuzilishlar hajmining saqlanib qolishi, nazorat tadbirlarining ko‘proq post-faktum xarakterga ega ekanligi, ichki audit tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va raqamli nazorat mexanizmlarining to‘liq joriy etilmaganligi tizim samaradorligini cheklovchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xorijiy tajriba, xususan Organisation for Economic Co-operation and Development hamda World Bank tavsiyalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, samarali davlat moliyaviy nazorati tizimi quyidagi ustuvor tamoyillarga asoslanishi lozim: shaffoflik, hisobdorlik, mustaqillik, natijadorlik va raqamlashtirish. Ushbu tamoyillarni milliy amaliyotga moslashtirilgan holda joriy etish budjet intizomini sezilarli darajada mustahkamlash imkonini beradi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash mavzusini tadqiq etish asnosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishda nazoratning institutsional mustaqilligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Nazorat organlarining siyosiy va ma’muriy ta’sirlardan xoli faoliyat yuritishi moliyaviy intizomni ta’minlashning asosiy shartidir.

Ikkinchidan, budjet intizomini mustahkamlashda nazorat tizimini reaktiv modeldan proaktiv va riskga asoslangan modelga o‘tkazish zarur. Bu esa moliyaviy qonunbuzilishlarning oldini olish imkonini beradi.

Uchinchidan, davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish orqali real vaqt rejimida monitoring tizimini joriy etish nazorat samaradorligini keskin oshiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan “big data” va sun’iy intellekt elementlarini qo‘llash moliyaviy xavflarni erta aniqlash imkonini yaratadi.

To‘rtinchidan, ichki audit va ichki moliyaviy nazorat tizimini kuchaytirish budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Har bir budjet tashkilotida samarali ichki nazorat mexanizmlarini joriy etish tashqi nazorat yuklamasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, budjet jarayonining ochiqligi va jamoatchilik nazoratini kengaytirish moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ochiq budjet tizimi orqali fuqarolarning davlat moliyasini boshqarish jarayonidagi ishtiroki oshiriladi.

Umuman olganda, davlat moliyaviy nazorati tizimini kompleks ravishda takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash orqali davlat moliyasining barqarorligi ta’minlanadi, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi oshadi hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi mustahkam moliyaviy asos yaratiladi.

БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА 1 ВА 2 ГУРУХ ХАРАЖАТЛАРИНИ ТЎЛАШНИНГ АМАЛИЙ ЖИХАТЛАРИ

Норқучқоров Абдулазиз Зиёдулла ўғли
ТДИУ (PhD) катта ўқитувчиси

Бюджет маблағлари бюджет ташкилотлари томонидан мустақил равишда, бюджет ижроси жараёнида белгиланган тартибда уларга киритилган ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда тасдиқланган харажатлар сметаси доирасида сарфланади.

1 ва 2 – гуруҳ харажатлари бўйича молиявий мажбуриятлар иш ҳақи ва унга тенглаштирилган харажатлар тўлови учун нақд пул маблағларини олишга сўровнома, шунингдек, ушбу гуруҳлар харажатлари бўйича тўлов топшириқномалари асосида рўйхатга олинади. Сўровномада ҳисобланган иш ҳақи ва унга тенглаштирилган тўловлар бўйича маълумотлар келтирилади. Ғазначилик органлари ғазна ҳисобварақларидан тўлов топшириқномалар асосида тасдиқланган харажатлар сметаси лимитлари доирасида амалга оширади.

Олий таълим муассасасининг 1 гуруҳ харажатлари 2 гуруҳ харажатлари тўловисиз амалга оширилмайди. 1 ва 2 гуруҳ харажатларини тўлиқ тўлаб бўлингандан сўнг унинг 4 гуруҳ бўйича харажатларини тўлашга рухсат этилади.

Олий таълим муассасасининг иккинчи томон олдидаги молиявий мажбуриятлари уларга товарлар етказиб (ишлар бажариб, хизматлар кўрсатиб) берилганлигини тасдиқловчи ҳужжатлар, шу жумладан, иш ҳақи ва унга тенглаштирилган харажатларни ҳисоблаш қайдномалари асосида қабул қилинади.

4-гуруҳ “Бошқа харажатлар” бўйича маблағларнинг сарфланиши ўрнатилган лимитлар доирасида белгиланган навбатга риоя қилган ҳолда амалга оширилади. Ушбу гуруҳ бўйича молиявий мажбуриятлар маҳсулот етказиб (ишлар бажариб, хизматлар кўрсатиб) берувчиларнинг счёт- фактуралари ёки товарлар етказиб берилганлигини (ишлар бажариб, хизматлар кўрсатиб) берувчига бюджет маблағларини ўтказиши лозимлигини тасдиқловчи бошқа ҳужжатлар асосида қабул қилинади.

Олий таълим муассасасининг 4-гуруҳ харажатлари тўлови тўлов топшириқномалари билан:

- бюджет ташкилотларининг 4-гуруҳ харажатларининг тегишли моддалари бўйича бюджет маблағлари қолдиқлари суммалари доирасида;
- агар тўлов топшириқномасида кўрсатилган сумма ғазначилик органида рўйхатга олинган шартномага мувофиқ тўланиши лозим бўлган пул маблағлари суммасидан ошмаса;
- счёт-фактура ёки маҳсулот етказиб (ишлар бажариб, хизматлар кўрсатиб) берилганлигини тасдиқловчи бошқа ҳужжатлар мавжуд бўлганда ва ташкилотнинг маҳсулот етказиб (ишлар бажариб, хизматлар кўрсатиб) берувчи олдидаги

қарздорлигини, шунингдек, ташкилотни маҳсулот етказиб (ишлар бажариб, хизматлар кўрсатиб) берувчига бюджет маблағларини (шу жумладан, аванс тўловларини) ўтказиши лозимлигини тасдиқловчи ҳужжатлар мавжуд бўлганида.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, бюджет ташкилотларида олий таълим муассасалари харажатлари ижросини ҳисоби ва таҳлилининг амалдаги тартибини бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари асосида ташкил этишга ўтиш натижасида бюджет маблағларидан самарали, мақсадли ва манзилли фойдаланишга эришилади.

Йил охирида барча молиялаштирилган бюджет маблағларининг, шунингдек, амалга оширилган тўловларнинг бюджет маблағлари бўйича жорий йил учун молиявий натижаларга ёпилиши 230 “Бюджет маблағлари бўйича жорий йилга молиявий натижалар” субсчётининг кредитида ва 232 “Бюджетдан молиялаштириш” субсчётининг дебетида акс эттирилади.

Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобининг счётлар рўйхати қуйидаги бобларга бўлинади:

I боб Номолиявий активлар

II боб. Молиявий активлар

III боб Дебиторлар ва кредиторлар

IV боб. Молиявий натижаларни ҳисобга олувчи счётлар

V боб. Балансдан ташқари счётлар

Олий таълим ташкилотлари операцияларининг жорий бухгалтерия ҳисоби Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан тасдиқланган счётлар режасида белгиланган тизим бўйича олиб борилади. Операциялар бошланғич ҳужжатларда қайд қилинади, кейин ҳужжатлардаги ёзувлар субсчётлар бўйича тарқатилади ва бюджет ташкилотининг бухгалтерия балансида умумлаштирилади.

Жумладан, олий таълим ташкилотининг раҳбар, педагог ходимларига ва ишчи хизматчиларига ҳисобланган меҳнат ҳақи ва улардан ажратмалар ҳисоби кўрсатилади. Ушбуни бухгалтерия ҳисобида қуйидаги субсчётлар орқали акс эттириш проводкаларини қўллашимиз мумкин:

343400 “Ходимлар билан меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китоблар” субсчётида ташкилотнинг ходимлари билан иш ҳақининг барча турлари, мукофотлар ва бошқа меҳнатга ҳақ тўлаш билан боғлиқ бўлган ҳисоб-китоблар ҳисобга олинади[50].

Иш ҳақи, мукофотлар, турли моддий ёрдамлар ва бошқа тўловлар ойига бир марта ҳисоблаб ёзилади ва ҳисобда жорий ойнинг охирги кунида акс эттирилади.

[50] Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги йўриқнома. 2010 йил 22 декабр, 2169-сон

Иш ҳақини ҳисоблаб ёзиш учун қуйидагилар асосий ҳужжатлар ҳисобланади: ташкилотнинг ишга қабул қилганлик, бўшатганлик ва ходимларни тасдиқланган штатлар жадвали ва иш ҳақи ставкаларига мувофиқ жойдан жойга кўчириш ҳақидаги буйруқлари, 421-сон шаклдаги фойдаланилган иш вақти ҳисоби ва иш ҳақи ҳисоблаш табели (мазкур Йўриқноманинг 55-иловаси) (кейинги ўринларда табель деб юритилади) ва бошқа ҳужжатлар.

Табеллар ташкилот раҳбарининг буйруғи билан тайинланган шахслар томонидан ҳар ойда белгиланган шаклда юритилади. Табеллар бутун ташкилот бўйича ёки тузилмавий бўлинмалар (бўлимлар, бўлинмалар, факультетлар, лабораториялар ва бошқалар)га бўлинган ҳолда юритилади. Ойнинг охирида табель бўйича ишланган кунларнинг умумий миқдори, шунингдек ортиқча ишланган соатлар аниқланади. Тўлдирилган ва тегишли имзолар билан расмийлаштирилган табель ва бошқа ҳужжатлар белгиланган муддатда иш ҳақи ҳисоблаб ёзиш учун бухгалтерияга топширилади.

Ойнинг биринчи ярми учун ходимларга аванс берилади. Аванс белгиланган тартибда ушлаб қолиниши керак бўлган солиқ суммасини ҳисобга олмаган ҳолда, қоидага кўра, иш ҳақининг 40 фоизи миқдорида белгиланади. Аванс 389-сон шаклдаги иш ҳақи, аванс бериш учун тўлов қайдномаси (мазкур Йўриқноманинг 56-иловаси) бўйича берилади.

Ой учун иш ҳақи ҳисоблаб ёзиш ва ойнинг иккинчи ярми учун тўлаш одатда, Т-49-сон шаклдаги ҳисоб-китоб тўлов қайдномаси (мазкур Йўриқноманинг 57-иловаси) бўйича амалга оширилади. Ушбу ҳисоб-китоб тўлов қайдномасига ходимларнинг фамилияси, исми ва отасининг исми, ҳисобланган иш ҳақи ва нафақалар суммаси, берилган аванс, ушланган солиқлар ва бошқа суммалар ёзилади.

343500 “Стипендия олувчилар билан ҳисоб-китоблар” субсчётида олий ўқув юртлари, илмий-тадқиқот муассасаларининг талабалари, стажёр-тадқиқотчи-изланувчилар ҳамда курс тингловчилари ва бошқалар билан стипендиялар бўйича олиб бориладиган ҳисоб-китоблар ҳисобга олинади.

Стипендияларни ҳисоблаб ёзиш ва тўлаш ҳисоб-китоб тўлов қайдномаларида ойига бир марта буйруқлар асосида амалга оширилади. Ҳисоблаб ёзилган стипендияларнинг суммалари 343500 “Стипендия олувчилар билан ҳисоб-китоблар” субсчёт кредитига ёзилади, ушбу субсчётнинг дебетига эса ушлаб қолинган суммалар, берилган ва муддатида олинмаган стипендияларнинг суммалари ёзилади.

Аналитик ҳисоб таълим муассасасининг ҳар бир стипендия олувчиси бўйича алоҳида ҳолда юритилади.

Иш ҳақи, стипендиялар ва бошқа тўловлардан ижро варақалари ва бошқа ҳужжатлар бўйича ушлаб қолинган суммалар 176 “Ходимларнинг иш ҳақидан

ушлаб қолинадиган ҳақ бўйича ҳисоб-китоблар” субсчётининг кредитига ҳамда 343400 “Ходимлар билан меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китоблар”, 343500 “Стипендия олувчилар билан ҳисоб-китоблар” ва бошқа тегишли субсчётларнинг дебетига ёзилади. 343600 “Ходимларнинг иш ҳақидан ушлаб қолинадиган ҳақ бўйича ҳисоб-китоблар” субсчётининг дебетига бюджет (бюджетдан ташқари) ҳисобварақлардан ўтказилган суммалар ёзилади, бунда пул маблағларини ҳисобга олувчи тегишли субсчётлар кредитланади.

Ходимлар билан турли ушланмаларнинг аналитик ҳисоби ҳар бир ходим бўйича алоҳида ҳолда 292-сон шаклдаги жорий ҳисоблар ва ҳисоб-китоблар дафтарида (карточкасида) олиб борилади.

342200 “Ягона ижтимоий тўлов бўйича ҳисоб-китоблар” субсчётида меҳнатга ҳақ тўлаш жамғармасидан ҳисобланган ягона ижтимоий тўловларнинг ҳисоби олиб борилади.

Ягона ижтимоий тўлов бўйича ҳисоб-китоблар қонунчиликка асосан тартибга солинади.

Меҳнатга ҳақ тўлаш жамғармасидан ҳисобланган ягона ижтимоий тўловлар суммаси 342200 “Ягона ижтимоий тўлов бўйича ҳисоб-китоблар” субсчётининг кредитида ва ҳақиқий харажатларни ҳисобга олувчи 710000, 720000, 730000, 741000 ва 750000-субсчётларнинг дебетида акс эттирилади. Ташкилот томонидан ўтказиб берилган тўловлар эса, пул маблағларини ҳисобга олувчи тегишли субсчётлар кредитида ва 342200 “Ягона ижтимоий тўлов бўйича ҳисоб-китоблар” субсчётининг дебетида акс эттирилади.

342200 “Ягона ижтимоий тўлов бўйича ҳисоб-китоблар” субсчёти бўйича аналитик ҳисоб 292-сон шаклдаги жорий ҳисоблар ва ҳисоб-китоблар дафтарида (карточкасида) олиб борилади.

O‘ZBEKISTON DA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKANI MOLIYALASHTIRISHDA YASHIL MOLIYANING O‘RNI

Shodmonov Ruslan G‘olib o‘g‘li
Tayanch doktorant, Xalqaro Nordik universiteti
Assistent, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston da qayta tiklanuvchi energetika loyihalarini moliyalashtirishda yashil moliya mexanizmlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot xalqaro moliyaviy institutlar — Jahon banki guruhi, EBRD, ADB, IFC va AIIB — tomonidan amalga oshirilgan sarmoyalar, davlat-xususiy sheriklik (PPP) modellari hamda yashil obligatsiyalar asosida yashil moliya vositalarining O‘zbekiston energetika sektoridagi samaradorligi o‘rganiladi. 2023-yilgi statistikaga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energetikaga jalb etilgan investitsiyalar 1,567.42 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2030-

yilga kelib mamlakatda 25 GVt qayta tiklanuvchi energiya quvvati rejalashtirilib, barcha elektr energiya ishlab chiqarishning 40 foizini qoplashi maqsad qilinmoqda. Maqola xalqaro tajribani O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish yo‘llari va yashil moliya mexanizmlarini kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: yashil moliya, qayta tiklanuvchi energetika, yashil obligatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, O‘zbekiston , EBRD, ADB, IFC, energetika siyosati.

Kirish. Jahon miqyosida iqlim o‘zgarishi va energetika xavfsizligi masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O‘zbekiston uchun qayta tiklanuvchi energetikaga o‘tish nafaqat ekologik zaruriyat, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy shartidir. Biroq bu soha katta kapital qo‘yilmalarni talab qiladi va mamlakatning ichki moliya resurslari yetarli bo‘lmaganligi sababli xalqaro yashil moliya mexanizmlariga tayanish muqarrar hisoblanadi.

O‘zbekiston hukumati 2019-2021-yillarda energetika sektorini tubdan isloh qilishni boshladi va qayta tiklanuvchi energetikaga xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalar jalb etishga katta e’tibor qaratdi. 2018-yilda Parij bitimini ratifikatsiya qilgan O‘zbekiston 2030-yilga kelib issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yil darajasidan 10 foiz kamaytirishni majburiyat sifatida qabul qildi.

Yashil moliya — bu atrof-muhit uchun foydali iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar va mexanizmlarning majmuasi. Unga yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, barqaror sarmoya fondlari, xalqaro imtiyozli kreditlar va kafolat mexanizmlari kiradi [1]. O‘zbekiston uchun bu mexanizmlar ayniqsa muhim, chunki ular mamlakatga arzon narxlarda kapital jalb etish va risklarni kamaytirish imkonini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi — O‘zbekiston da qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishda yashil moliya vositalarining hozirgi holatini, samaradorligini va kelajak istiqbollarini tahlil qilishdir. Tadqiqot quyidagi savollarga javob beradi: (1) Qanday yashil moliya mexanizmlari O‘zbekiston da faol qo'llanilmoqda? (2) Xalqaro moliyaviy institutlarning hissasi qanday? (3) Soha rivojlanishidagi asosiy to'siqlar va imkoniyatlar qanday?

Metodologiya. Ushbu tadqiqot tahliliy-deduktiv yondashuv asosida olib borildi. Birlamchi ma'lumot manbalari sifatida xalqaro moliyaviy institutlar — EBRD, ADB, IFC, AIIB, Jahon banki — tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlar, matbuot xabarlari va strategik hujjatlar ishlatildi. Ikkilamchi manba sifatida OECD, IEA va Climatescope analitik ma'lumot bazalari tanlab olindi.

Statistik ma‘lumotlar 2019–2025-yillardagi investitsiya oqimlarini qamrab oladi. Tahlil quyidagi o‘lchovlar bo'yicha amalga oshirildi: (i) jalb etilgan kapital hajmi, (ii) moliyalashtirishning institutsional tarkibi, (iii) loyihalar geografiyasi va quvvat ko‘rsatkichlari, (iv) davlat siyosatining moliyaviy muhitga ta‘siri. Ma’lumotlar xronologik va solishtirma tahlil usullari orqali ishlab chiqildi.

Natijalar. O‘zbekistondagi yashil moliya vositalarining umumiy manzarasi. “Climatescope 2024” ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda toza energetikaga investitsiyalar 2024-yilda 1540.50 mln. dollarni tashkil etib, 2025-yilda 1567.42 mln. dollarga — ya‘ni 1,75 foizga o‘sdi [6]. 2025-yil dekabr oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Kelajakni Quvvatlash” energetika forumida prezident Sh. Mirziyoyev 9,46 milliard evro qiymatidagi 42 ta yangi loyihani e’lon qildi [7]**.**

1-jadval

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energetikaga investitsiyalar dinamikasi

Yil	Investitsiya (mln. USD)	O'sish sur'ati (%)	Manba
2024	1,540.50	—	Climatescope
2025	1,567.42	+1.75	Climatescope
2026	2,400+ (taxminiy)	+53 (taxm.)	Euronews
2026–2030	9,460 (reja)	—	Euronews

Xalqaro moliyaviy institutlarning roli. EBRD O‘zbekistondagi yashil energetika loyihalarining yirik moliyachisi hisoblanadi. Bugungi kunga qadar bank mamlakatda 1,65 GVt shamol quvvati, 2,4 GVt quyosh energiyasi va 668 MVt/1,837 MVt soat batareya energiyasini saqlash tizimini qo‘llab-quvvatladi [4]. EBRD Markaziy Osiyo bo‘yicha O‘zbekistonni ketma-ket oltinchi yil eng yirik oluvchi mamlakat sifatida e’lon qildi va Qashqadaryo viloyatida 300 MVt quvvatli quyosh stantsiyasi hamda 75 MVt/soat batareya tizimini qurishga 195,5 mln. dollar ajratdi [4].

IFC va Jahon banki tomonidan Buxoro viloyatidagi 250 MVt li quyosh stansiyasi va Markaziy Osiyodagi birinchi batareya saqlash tizimiga (63 MVt) 53 mln. dollar kredit ajratildi. ADB, FMO (Niderlandiya) va JICA (Yaponiya) tomonidan qo'shimcha 106 mln. dollar kofinanslashtirish ta'minlandi [8].

IFC 2024-yil oktyabr oyida ACWA Power (Saudiya Arabistoni) bilan hamkorlikda islom moliyasi vositasi — Murabaha shaklida — 240 mln. dollarlik kapital ko‘prik kreditini rasmiylashtirib, 1 GVt quyosh va 668 MVt batareya saqlash tizimi qurilishiga yo'naltirdi [3]. Bu loyiha yiliga 1,3 mln. tonna CO_2 emissiyasini kamaytirishi kutilmoqda.

AIIB esa ADB bilan hamkorlikda Iqlim o‘tishini tezlashtirish dasturi doirasida har biri 250 mln. dollardan iborat ikkita subdastur bo‘yicha jami 500 mln. dollar ajratishni rejalashtirayapti. Bundan tashqari, AIIB O‘zbekistonga yashil obligatsiyalar va yuqori samarali quvvat stantsiyalarini qurish uchun jami 490 mln. dollar yo'naltirdi [5].

Yashil iqtisodiyot moliyalashtirish mexanizmlari (GEFF). EBRD tomonidan ishlab chiqilgan Yashil iqtisodiyot moliyalashtirish mexanizmi (GEFF I) 2019–2024 yillar davomida amalga oshirildi. Mazkur dastur doirasida to‘rtta mahalliy bank orqali 60 mln.

dollar mablag‘ yo‘naltirildi va 179 ta kredit berildi. Natijada yiliga 547,458 GJ birlamchi energiya tejaldi, 22,091 tonna CO_2 emissiyasi kamaytirildi [9]. EBRD shuningdek Ipoteka bankiga GEFF II doirasida 10 mln. dollar va “Biznesda ayollar” dasturi bo‘yicha 10 mln. dollar kredit berdi [10].

Davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli va siyosat muhiti. O‘zbekiston hozirda 28 ta PPP loyihasini amalga oshirmoqda — quyosh, shamol va gibrid stansiyalarni o'z ichiga olgan jami 6,3 GVt quvvatli bu loyihalardan 7 tasi 2025-yilda jami 2,6 GVt quvvat bilan ishga tushirildi [2]. Loyihalar 25 yillik Quvvat Xaridi Shartnomasi (PPA) asosida davlat kafolati bilan amalga oshirilmoqda.

ADB mamlakatda qayta tiklanuvchi energetika tenderlarini shaffof va tijorat jihatidan maqbul qilish uchun tranzaksion maslahat xizmatlarini ko‘rsatdi. Samarqand va Jizzax viloyatlarida 440 MVt quvvatli quyosh stansiyalari uchun ishlab chiqilgan standart hujjatlar keyingi tenderlar uchun namunaga aylandi [11]. 2017-yildan 2026-yilga qadar O‘zbekistonda elektr energiya ishlab chiqarish 60 mlrd. kVt/soatdan 85 mlrd. kVt/soatga ya’ni 41,6 foizga ko‘tarildi [7].

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston da yashil moliya asosan xalqaro institutlar — EBRD, ADB, IFC va AIIB — tomonidan ta'minlanmoqda. Mahalliy kapital bozorining zaif rivojlanganligi va milliy yashil obligatsiya bazasining yo'qligi mamlakatni tashqi moliya manbalari bilan bog'liq risklarga duchor etadi. Biroq xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik nafaqat kapital jalb etish, balki boshqaruv sifatini yaxshilash, shaffof tender mexanizmlarini joriy etish va sanoat standartlarini shakllantirish nuqtai nazaridan ham qimmatlidir.

PPP modeli natijali bo'lishiga qaramay, off-taker xavfi (ya’ni, davlat kompaniyasi tomonidan to‘lovni kechiktirish yoki rad etish ehtimoli) xususiy investorlarni tashvishlantiradigan asosiy omil bo‘lib qolmoqda. Bu muammoni bartaraf etish uchun ADB va EBRD qisman kredit kafolat mexanizmlaridan foydalanmoqda — bu yondashuv xalqaro amaliyotda samarali deb tan olingan.

O‘zbekiston ning quyosh energiyasi salohiyati beqiyos: iqtisodiy jihatdan foyda keltiradigan global gorizontal nurlanish (GHI) darajasi bir qator janubiy va janubi-g‘arbiy viloyatlarda juda yuqori. Biroq elektr tarmoqlarining eskirganligi va texnik quvvat chegaralanishlari qayta tiklanuvchi energiyaning tarmoqqa integratsiyasini sekinlashtirmoqda. Shu sababli BESS texnologiyalarini joriy etish va tarmoqni modernizatsiya qilish moliyalashtirishning ustuvor yo‘nalishiga aylanishi kerak.

OECD ekspertlari ta'kidlashicha, O‘zbekiston keyingi bosqichda mahalliy kapital bozorini rivojlantirib, o'z milliy yashil obligatsiyalarini chiqarishi va ESG (atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat, korporativ boshqaruv) standartlarini joriy etishi zarur [1]. Shu yo'nalishda ADB O‘zbekiston ga 2024-2028-yillar Hamkorlik Strategiyasi doirasida iqlim moliyasini kengaytirishga alohida e'tibor qaratayapti [12].

Solishtirma tahlil shuni ko'rsatadiki, 2030-yilga kelib elektr energiyasining 54 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan olish maqsadiga erishish uchun hozirgi investitsiya sur'atini sezilarli darajada oshirish zarur. Bu esa davlat tomonidan yangi moliyaviy vositalar subsidiyalar, to'liq va qisman kafolatlar, karbonni savdo qilish mexanizmlari joriy etilishini talab etadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda yashil moliyaning qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishdagi markaziy rolini tasdiqladi. Xalqaro moliyaviy institutlar EBRD, ADB, IFC va AIIB imtiyozli kreditlar, kafolatlar va PPP modeli orqali mamlakatning energetika salohiyatini tubdan o'zgartirmoqda. 2025-yilga kelib qayta tiklanuvchi energetikaga 1,567 mln. dollar investitsiya jalb etilgan bo'lib, bu tendensiya kuchayib bormoqda.

Biroq bir qator cheklovlar mavjud: mahalliy yashil obligatsiya bozorining yo'qligi, tarmoq infratuzilmasining zaifligi, "off-taker" xavfi va moliya sektori EGS standartlari bilan moslashmasligi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Mahalliy yashil obligatsiya bozoini yaratish va Toshkent birjasida yashil moliyaviy vositalar ro'yxatini boshlash.
2. ESG hisobotchilik standartlarini qonunchilik darajasida joriy etish va korporativ boshqaruvni mustahkamlash.
3. Elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish va BESS tizimlarini kengaytirishga ustuvor moliyalashtirishni yo'naltirish.
4. Kichik va o'rta korxonalar uchun maxsus yashil mikrokreditlash dasturlarini miqyosini kengaytirish.

O'zbekiston uchun yashil moliya shunchaki kapital manba emas, balki iqlim barqarorligi, energetika mustaqilligi va iqtisodiy o'sishni bir vaqtda ta'minlovchi strategik vositadir. Mazkur sohaga izchil e'tibor qaratilishi mamlakatni mintaqada yashil iqtisodiyotning yetakchisiga aylantirishi mumkin.

ICHKI AUDIT TIZIMINING KORPORATIV BOSHQARUVDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Mamutova Amina Raxmetovna
Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti
Paraxatova Aynur Nokisbaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti
"Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ichki audit xizmati nafaqat global tendensiya, balki jadal rivojlanayotgan va murakkab iqtisodiy munosabatlar sharoitida juda zarur. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekistonda ichki auditning asosiy muammolarini aniqlashdan

iborat. Ichki auditning to‘g‘riligi tushunchasi zamonaviy tashkilotlarning korporativ boshqaruv sharoitida ichki auditni intizomiy mexanizm sifatida o‘rganish uchun konseptual vositalarni taqdim etadi. Maqola iqtisodiy faoliyatning oqilonaligi va tegishli nazorat choralarini kuchaytirish uchun dastlabki konseptual formulani hamda ichki audit, audit va nazoratni rivojlantiradi.

Tayanch so‘zlar: audit; ichki audit; rivojlanish; mexanizm.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mulkchilik shaklidan qat’iy nazar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning rahbar xodimlari va xizmatchilari yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikka, iqtisodiy-huquqiy bilimga, tajribaga ega bo‘lishlari lozim. Ichki auditorlar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barcha bo‘g‘inlarini tekshirish bilan shug‘ullanib, me’yoriy hujjatlar va qonun talablaridan chetga chiqishlarning kelib chiqish sabablarini va faoliyat yo‘nalishini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ichki auditning xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun muhim jihatlaridan biri, u boshqaruv qarorlarini qabul qilishda rahbarlarni tezkor ma’lumotlar bilan ta’minlab turishdir.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ichki audit o‘tkazish tekshirish natijalarini umumlashtiradi va bu haqidagi axborotni xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga taqdim etadi.

G‘arb mamlakatlarida ichki audit XX asrning boshlarida paydo bo‘ldi va Ikkinchi jahon urushidan keyin kompaniyalarni qayta markazlashtirish ko‘lamining o‘sishiga javoban rivojlanish uchun turtki oldi. 1941-yilda AQShda ichki auditorlik kasbini rivojlantirish va ommalashtirishni, kasbiy faoliyat standartlarini ishlab chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ichki auditorlar instituti tashkil etildi. Hozir institutning 72 mingga yaqin a’zosi va 120 ta davlatda vakolatxonalari bor. Dunyo bo‘yicha esa ichki audit bilan u yoki bu darajada bir milliondan ortiq mutaxassis shug‘ullanadi.

Respublikamizning xo‘jalik yurituvchi subyektlarida ichki auditni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ichki audit o‘zi o‘tkazgan tekshiruv natijalarini umumlashtiradi va bu haqida axborotni xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga taqdim etadi. Bilamizki, har qanday ishlab chiqarishda kamchiliksiz ish bo‘lmaydi, yuzaga kelgan xato va kamchiliklarni bizga ichki audit xizmati tekshiruvi ochib berishi kerak. Shunday ekan, har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z xato va kamchiliklarini o‘zlari ko‘ra bilib tuzatishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son qaroriga 2-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3946-son qarorining 5-bandiga o‘zgartirishlar kiritilgan:

a) 2020-yil 1-yanvardan hisobot yili yakuni bo‘yicha quyidagi shartlardan bir vaqtning o‘zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari ham har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishi kerak";

b) "O‘zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuniga tegishli o‘zgartishlar kuchga kirgan kundan e’tiboran auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshiradi."

Ichki auditning vazifasi - xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotlar tuzilgunga qadar mavjud xato va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishga asoslanadi. Shunday ekan, har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z xato va kamchiliklarini ichki audit xizmatlari orqali ko‘ra olishi va tuzatishi maqsadga muvofiq. Bu esa, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga olib keladi.

Ichki audit - buxgalteriya ma’lumotlarining to‘g‘riligini ta’minlash va korxonada samarali ichki nazorat tizimini tashkil etishga yo‘naltirilgan faoliyat. Ichki audit tizimi:

- korxona tomonidan mustaqil ravishda tashkil etiladi;
- korxona rahbariyati manfaatlariga xizmat qiladi.

Ichki audit faoliyatini yuritish uchun litsenziya yoki malaka sertifikati talab etilmaydi. Auditning ushbu turi korxona rahbariyatining samarali qaror qabul qilish uchun asos bo‘ladigan buxgalteriya ma’lumotlarining to‘g‘riligini, korxona bo‘limi va xodimlarining korxona siyosatiga, belgilangan rejalarga muvofiq faoliyat yuritishini ta’minlash va uni nazorat qilish korxonaning muayyan qonun hujjatlariga muvofiq ishlashini ta’minlashga qaratilgan.

Ichki audit xizmatining vazifalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- korxona buxgalteriya va ichki nazorat tizimi sifatini tekshirish, ularga nisbatan nazorat olib borish va ularni yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;
- buxgalteriya ma’lumotlarining to‘g‘riligi va to‘liqligini tekshirish;
- buxgalteriya bo‘yicha mavjud qonun hujjatlariga, korxona hisob siyosatiga rioya etilishini ta’minlash;
- korxona bo‘linmalari faoliyatini tekshirish;
- korxona egaligida bo‘lgan aktivlarning butligini tekshirish va ularning himoyasini ta’minlash;
- korxonada qo‘llaniladigan kompyuter dasturlarining sifatini baholash;
- korxonada yuz berishi mumkin bo‘lgan muayyan turdagi hodisalarni, masalan, o‘z manfaati yo‘lida foydalanishni tekshirish va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish.

Ichki auditorlar majburiyatlariga, shuningdek, quyidagilar ham qo‘shilishi mumkin:

• nazorat tizimi samaradorligini tekshirish;

• korxona faoliyati samaradorligini baholash;

• dasturiy maqsadlarga erishilganlik darajasini aniqlash.

Korxona ichki audit xizmati faoliyatini baholaganidan so‘ng, tashqi auditor ichki audit xizmati ma’lumotlariga asoslanishning maqsadga muvofiqligini aniqlashi lozim. Ushbu holatda tashqi auditor ichki audit xizmatidan foydalanish mumkin deb hisoblasa:

1) ichki audit dasturlari va ish hajmi tashqi auditor talablariga qanchalik javob berishini o‘rganishi kerak;

2) ichki auditorlar faoliyati reja bo‘yicha amalga oshirilishi va tegishli tartibda hujjatlashtirilishi yuzasidan ishonch hosil qilinishi lozim;

3) ichki audit tekshiruvi natijalari, tavsiyalari yetarli darajada asosli ekanligini tahlil qilishi kerak;

4) yuqori riskka ega bo‘lgan nuqtalar ichki audit tekshiruvida o‘z aksini topganligini o‘rganishi kerak;

5) ichki auditor tavsiyalariga korxonada haqiqatan ham rioya qilinayotganligiga ishonch hosil qilishi zarur.

Ichki audit xizmati boshqarmasi tomonidan III chorakda amalga oshirilgan ishlar:

Ichki audit xizmati boshqarmasining 2024-yil uchun tasdiqlangan ish rejasiga asosan 12 ta audit tadbiri uchun 62 ta audit obyekti tanlangan bo‘lib, shundan, joriy yilning 9 oyi davomida 10 ta audit tadbirida 50 ta audit obyektida audit tadbirlari o‘tkazildi. O‘tkazilgan audit tadbirlarida aniqlangan holatlar yuzasidan audit obyektlari rahbarlariga xato va kamchiliklarni tegishli tartibda bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga masofaviy auditni qo‘llagan holda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha xavf-xatarlar tahlil qilingan holda oldini olish bo‘yicha amaliy ishlar qilinib kelinmoqda.

Ichki audit xizmati boshqarmasi tomonidan muntazam ravishda tizimda xodimlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, davlat xaridlari, debitor va kreditor qarzdorliklar, tovar-moddiy boyliklar hisobi, moliyaviy hisobotlar ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri yuritilishi bo‘yicha tavsiyalar va amaliy yordam berib borilmoqda.

Ichki audit xizmati boshqarmasi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq jami 9 ta audit tadbiri o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ushbu tadbirlar doirasida 49 ta audit obyekti qamrab olingan.

Joriy yilning ikkinchi choragida esa belgilangan rejaga asosan 4 ta audit tadbirida 26 ta audit obyektida audit tadbirlari o‘tkazildi. Ushbu tadbirlar davomida aniqlangan kamchilik va muammolar yuzasidan har bir audit obyekti rahbariyatiga hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli tartibda tavsiyalar berildi.

Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilish holati.

Hisobot davrida yillik reja bo‘yicha 4 ta audit tadbiri 17 ta obyektda o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, yillik reja asosida 3 ta audit tadbiri 13 ta obyektda o‘tkazildi. Rejadan tashqari audit tadbiri o‘tkazilmadi.

Hisobot davrida o‘tkazilgan audit tadbirlari davomida 253 ta holatda 1 044,4 mln. so‘mlik moliyaviy xato-kamchiliklar aniqlangan.

Jumladan, hisobot davrida Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlarida pensiya ishlarini noto‘g‘ri tayinlash va to‘lash natijasida 132 holatda 845,5 mln. so‘m ortiqcha to‘lovlar hamda Pensiya jamg‘armasining hududiy boshqarmalarining markazlashgan buxgalteriyalarida moliya-xo‘jalik faoliyatini o‘rganishda 124 holatda 309,3 mln. so‘mlik xato va kamchiliklar aniqlandi.

Shu bilan birga, masofaviy tekshiruv tadbirlarini o‘tkazish jarayonida 186 holatda 266,0 mln.so‘mlik moliyaviy xato-kamchiliklar aniqlangan.

SOLIQ QARZDORLIGINI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI HAMDA ULARNING IQTISODIY SUBYEKTLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA’SIRI

Payziyev Hamid Orziqulovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Mustaqi izlanuvchisi

Kirish: Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy tizimining barqarorligi asosan soliq tushumlariga tayanadi. Soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbai bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni moliyalashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli soliq intizomining buzilishi, ya’ni soliq qarzdorligining yuzaga kelishi iqtisodiy tizimning muvozanatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Soliq qarzdorligi nafaqat davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga olib keladi, balki iqtisodiy subyektlarning moliyaviy barqarorligini ham zaiflashtiradi. Bu holat korxonalarda likvidlikning pasayishi, investitsion imkoniyatlarning cheklanishi va kreditga layoqatlilikning kamayishi kabi muammolarni yuzaga keltiradi.

Shu nuqtayi nazardan, soliq qarzdorligini hisoblash va uni undirish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy tizim barqarorligini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Soliq qarzdorligining iqtisodiy mohiyati, bu soliq to‘lovchining qonunda belgilangan muddatda davlat budjetiga tegishli soliq majburiyatlarini bajarmasligi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy majburiyatdir.

Soliq qarzdorligi iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega: u majburiy, huquqiy asosga ega, vaqt bilan cheklangan va moliyaviy oqibatlarga olib keladi.

1- jadval.

Soliq qarzdorligining asosiy xususiyatlari [51]

Xususiyat	Tavsif
Majburiylik	Qonuniy asosda majburiy to‘lov hisoblanadi
Muddatlilik	Belgilangan to‘lov muddati mavjud
Moliyaviy ta’sir	Penya va jarimalar qo‘llaniladi
Iqtisodiy oqibat	Korxona likvidligi pasayadi

Yuqorida keltirilgan 1–jadval ma’lumotlariga asosan soliq qarzlarining asosiy iqtisodiy-huquqiy xususiyatlarini ko‘rsatadi. Ular soliq tizimida intizomni ta’minlash va majburiyatlarni bajarish mexanizmini shakllantiradi.

Ayniqsa, moliyaviy ta’sir korxona faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Soliq qarzdorligini hisoblash mexanizmi va hisoblash jarayoni bir necha elementlarga asoslanadi. Bu elementlar qarzdorlikning to‘liq hajmini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

2- jadval.

Soliq qarzdorligini hisoblash tarkibi [52]

Element	**Mazmuni**
Asosiy qarz	To‘lanmagan soliq summasi
Penya	Kechiktirilgan har bir kun uchun foiz
Jarima	Soliq qonunchiligi buzilganda qo‘llaniladi
Element	Mazmuni

Ushbu jadval soliq qarzdorligining shakllanish tarkibini ko‘rsatadi. Asosiy qarz bazaviy komponent bo‘lib, unga qo‘shimcha ravishda penya va jarimalar hisoblanadi. Bu mexanizm soliq to‘lovchilarning o‘z majburiyatlarini vaqtida bajarishga undaydi. (Soliq qarzi = Asosiy qarz + Penya + Jarima)

Soliq qarzdorligini undirish esa davlat soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi va u ikki asosiy shaklga ega: ixtiyoriy va majburiy undirish.

Ixtiyoriy undirish - Soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil to‘lov.

Majburiy undirish - Sud va ijro organlari orqali undirish. Soliq qarzini undirish mexanizmlarini ikki asosiy yo‘nalishga ajratadi. Ixtiyoriy undirish eng samarali usul bo‘lib, iqtisodiy yukni kamaytiradi. Majburiy undirish esa huquqiy choralar orqali qarzdorlikni bartaraf etadi.

[51] Muallif ishlanmasi
[52] Muallif ishlanmasi

1- rasm.

Soliq qarzini undirish bosqichlari [53]



Yuqorida keltirilgan 1-rasm ma'lumotlariga shuni ko‘rsatadiki soliq qarzdorligini undirish jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ifodalaydi. Dastlab qarzdorga ogohlantirish yuborilib, qarzni ixtiyoriy to‘lash imkoniyati beriladi. Keyingi bosqichda bank hisoblarini vaqtincha cheklash orqali moliyaviy operatsiyalar nazoratga olinadi. Agar qarz bartaraf etilmasa, mol-mulkni xatlash choralari qo‘llanadi. So‘nggi bosqich esa sud qarori asosida majburiy ijro etishni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayon soliq intizomini kuchaytirish va byudjet daromadlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Soliq qarzdorligi korxona moliyaviy holatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta'sir qiladi va uning barqarorligini pasaytiradi.

4-jadval.

Soliq qarzlarining xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ta'sir darajalari

Ta'sir turi	Natija
Likvidlik	Pul oqimi kamayadi
Rentabellik	Foyda darajasi pasayadi
Investitsiya	Yangi loyihalar cheklanadi
Ta'sir turi	Natija

Ushbu jadval soliq qarzdorligining iqtisodiy subyektlarga ko‘rsatadigan salbiy oqibatlarini ifodalaydi. Eng asosiy ta'sir likvidlikning pasayishi bo‘lib, bu korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyatini cheklaydi.

Barqarorlikni ta'minlovchi omillar jumladan:

- Soliq intizomi- majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish

[53] Muallif ishlanmasi

- Pul oqimi boshqaruvi - likvidlikni oshirish
- Xarajatlarni nazorat qilish - foydani optimallashtirish
- Strategik rejalashtirish - moliyaviy risklarni kamaytirish

Ushbu omillar korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ayniqsa, pul oqimini boshqarish likvidlikni saqlashning eng muhim shartidir.

Xulosa

Soliq qarzdorligini hisoblash va undirish tizimini takomillashtirish iqtisodiy subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda raqamli texnologiyalarni joriy etish, monitoring tizimini kuchaytirish va undirish mexanizmlarini soddalashtirish muhim rol o‘ynaydi.

Natijada:

- davlat byudjetining barqarorligi ta’minlanadi
- korxonalarning moliyaviy holati yaxshilanadi
- iqtisodiy o‘sish va investitsion faollik oshadi

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH INSTRUMENTLARINI JORIY ETISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Mamayusupova Shahina Ulug‘bek qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii, DMXM-25 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat moliyaviy nazorati tizimida yashil moliyalashtirish instrumentlarini joriy etishning nazariy-uslubiy asoslari hamda ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, yashil obligatsiyalar, ekologik fondlar, “yashil” kreditlar va barqaror investitsiya mexanizmlarining davlat moliyasidagi o‘rni va roli yoritiladi. Tadqiqotda davlat moliyaviy nazoratining ushbu instrumentlar samaradorligini ta’minlashdagi vazifalari, shuningdek, ichki audit tizimi orqali ularni monitoring qilish va baholash usullari ko‘rib chiqiladi. Maqolada yashil moliyalashtirishni joriy etishda yuzaga keladigan asosiy muammolar, jumladan, metodologik yetishmovchiliklar, axborot shaffofligining past darajasi va institutsional cheklovlar aniqlanadi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba asosida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish, ekologik samaradorlikni baholash indikatorlarini ishlab chiqish hamda yashil iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Yashil moliyalashtirish, davlat moliyaviy nazorati, ichki audit, yashil obligatsiyalar, ekologik loyihalar, barqaror rivojlanish, ESG mezonlari, yashil byudjetlashtirish, moliyaviy instrumentlar, samaradorlik baholash, davlat moliyasi.

Kirish So‘nggi yillarda global miqyosda ekologik muammolar, xususan iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanishi va atrof-muhit degradatsiyasi iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlashda jiddiy tahdid sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ko‘plab mamlakatlarda iqtisodiy siyosatni “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida esa moliyaviy resurslarni samarali yo‘naltirish, ekologik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va barqaror rivojlanishni ta’minlashda yashil moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, davlat moliyasi doirasida ushbu instrumentlardan foydalanish iqtisodiy va ekologik maqsadlarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Yashil moliyalashtirish deganda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish tushuniladi. Bunda yashil obligatsiyalar, ekologik grantlar, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar kabi moliyaviy instrumentlar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu instrumentlar orqali davlat nafaqat ekologik muammolarni hal etishga, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga erishadi. Shu bilan birga, yashil moliyalashtirishni keng joriy etish davlat moliyaviy nazoratining samarali tizimini talab etadi [1].

Davlat moliyaviy nazorati bu davlat mablag‘larining shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanish jarayonini nazorat qilishga qaratilgan mexanizmlar yig‘indisidir. Yashil moliyalashtirish instrumentlarining joriy etilishi ushbu nazorat tizimiga yangi vazifalar yuklaydi. Jumladan, ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash, ekologik loyihalarning natijadorligini baholash hamda ularning atrof-muhitga ta’sirini monitoring qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida davlat moliyaviy nazoratida zamonaviy yondashuvlar va innovatsion audit usullarini joriy etishni talab qiladi.

Hozirgi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni nazorat qilish tizimi takomillashib bormoqda. Xususan, ekologik audit, “yashil byudjetlashtirish” va ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari asosida baholash tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuvlar orqali davlat mablag‘larining nafaqat moliyaviy samaradorligi, balki ekologik va ijtimoiy ta’siri ham kompleks ravishda baholanadi. Natijada davlat moliyaviy boshqaruvi tizimi yanada shaffof, samarali va hisobdor bo‘lib bormoqda [2].

O‘zbekiston sharoitida ham so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik muhofaza choralarini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylangan. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishlarni moliyalashtirishda zamonaviy instrumentlardan foydalanish va ularning samaradorligini baholash masalalari

dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu esa davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, yashil moliyalashtirish instrumentlarini davlat moliyaviy nazorati tizimiga integratsiya qilish va ularning samaradorligini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning eng muhim ilmiy va amaliy masalalaridan biridir. Ayniqsa, ichki audit tizimi orqali ekologik loyihalarni monitoring qilish, risklarni aniqlash va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega [3].

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning asosiy maqsadi davlat moliyaviy nazoratida yashil moliyalashtirish instrumentlarini joriy etishning nazariy asoslarini o‘rganish, ularning samaradorligini baholash usullarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari davlat moliyasini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi Yashil moliyalashtirish va davlat moliyaviy nazorati tizimining o‘zaro bog‘liqligi so‘nggi yillarda iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xalqaro va mahalliy ilmiy manbalarda ushbu mavzu turli jihatlarda o‘rganilib, yashil iqtisodiyotga o‘tishda moliyaviy instrumentlarning roli va ularni nazorat qilish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Xalqaro tadqiqotlarda yashil moliyalashtirish tushunchasi asosan ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan investitsiyalar va moliyaviy oqimlar bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Ko‘plab olimlar yashil moliyalashtirishni iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘laydi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda davlatning roli, ayniqsa, moliyaviy nazorat va tartibga solish funksiyalari muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Tadqiqotlarda davlat moliyaviy nazorati yashil loyihalarga ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishini ta’minlash, korrupsion xavflarni kamaytirish va umumiy samaradorlikni oshirish vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi [4].

Bir qator ilmiy ishlarda yashil moliyalashtirish instrumentlari, xususan, yashil obligatsiyalar, ekologik fondlar va imtiyozli kreditlar tahlil qilingan. Ushbu instrumentlar orqali uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish va ekologik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari kengayishi qayd etilgan. Biroq, ayrim mualliflar ushbu instrumentlarning samaradorligi yetarli darajada baholanmayotganini, monitoring va audit tizimlarining zaifligi esa moliyaviy resurslardan foydalanishda kamchiliklarga olib kelishini ta’kidlaydi. Shu sababli, zamonaviy audit yondashuvlarini joriy etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Yashil moliyalashtirishni nazorat qilish masalalarida ekologik audit (green audit) tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Ilmiy adabiyotlarda ekologik audit davlat moliyaviy nazoratining yangi shakli sifatida qaralib, u nafaqat moliyaviy natijalarni, balki ekologik

ta’sirni ham baholash imkonini berishi qayd etiladi. Bu yondashuv orqali davlat xarajatlarining samaradorligi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar ekologik auditni joriy etishda metodologik muammolar, standartlarning yetishmasligi va malakali kadrlar taqchilligi kabi muammolar mavjudligini ko‘rsatadi [5].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar ham ushbu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy hisobotlarida yashil moliyalashtirishni rivojlantirishda davlat moliyaviy nazoratining shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligini oshirish zarurligi alohida ta’kidlanadi. Ayniqsa, ESG mezonlari asosida baholash tizimlarini joriy etish orqali moliyaviy va ekologik natijalarni integratsiyalashgan holda tahlil qilish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu esa davlat moliyasini boshqarishda yangi yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham yashil moliyalashtirish va davlat moliyaviy nazorati masalalari muayyan darajada yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o‘tishning institutsional asoslari, ekologik loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari tahlil qilingan. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda davlat moliyaviy nazorati tizimida yashil moliyalashtirish instrumentlarini baholashning aniq metodologiyasi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi qayd etiladi.

Ayrim tadqiqotlarda davlat byudjeti doirasida “Yashil byudjetlashtirish” tizimini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Ushbu yondashuv orqali byudjet xarajatlarining ekologik ta’siri baholanadi va resurslar barqaror rivojlanish maqsadlariga yo‘naltiriladi. Biroq, ushbu tizimni amaliyotga tatbiq etishda axborot bazasining yetarli emasligi, statistik ko‘rsatkichlarning cheklanganligi va baholash indikatorlarining noaniqligi muammo sifatida ko‘rsatiladi [7].

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda ichki audit tizimining yashil moliyalashtirishdagi roli ham keng yoritilgan. Tadqiqotchilar ichki auditni nafaqat moliyaviy nazorat vositasi, balki risklarni boshqarish, samaradorlikni oshirish va qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida baholaydi. Ayniqsa, ekologik risklarni aniqlash va ularni kamaytirish bo‘yicha audit yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil moliyalashtirish va davlat moliyaviy nazorati o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy jihatdan keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning integratsiyalashgan samaradorlik baholash tizimi yetarli darajada shakllanmagan. Ayniqsa, milliy iqtisodiyot sharoitida ushbu yo‘nalish bo‘yicha kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Shu sababli, mazkur tadqiqot doirasida yashil moliyalashtirish instrumentlarini davlat moliyaviy nazorati tizimida qo‘llash va ularning samaradorligini baholash masalalarini chuqurroq o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Metodologiya Ushbu tadqiqotda davlat moliyaviy nazorati tizimida yashil moliyalashtirish instrumentlarini baholash uchun tizimli tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro va milliy ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar o'rganildi. Yashil moliyalashtirish instrumentlarining samaradorligini aniqlashda iqtisodiy-statistik tahlil, indikatorlar asosida baholash va dinamik tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, ichki audit tizimining rolini baholashda funksional yondashuv va ekspert xulosalaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda mantiqiy xulosa chiqarish va ilmiy abstraksiya usullari asos qilib olindi.

Tahlil va natijalar Yashil moliyalashtirish instrumentlarini davlat moliyaviy nazorati tizimida joriy etish va ularning samaradorligini baholash bo'yicha olib borilgan tahlillar global va milliy miqyosda ushbu yo'nalishning tez sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2023-yilda dunyo bo'yicha yashil moliyalashtirish hajmi 1,8 trillion AQSh dollaridan oshgan bo'lib, shundan qariyb 600 milliard dollari yashil obligatsiyalar hissasiga to'g'ri kelgan. 2024-yil yakunlariga ko'ra esa ushbu ko'rsatkich 2 trillion dollarga yaqinlashgani kuzatilgan. Bu esa ekologik loyihalarga investitsiya oqimlarining barqaror o'sib borayotganini tasdiqlaydi [8].

Tahlil natijalariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi davlatlari yashil moliyalashtirish bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Masalan, 2023-yilda Yevropa hududida chiqarilgan yashil obligatsiyalar hajmi 300 milliard dollardan oshgan bo'lib, bu global hajmning qariyb 50 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, Osiyo mintaqasida, xususan Xitoyda yashil kreditlar hajmi 2024-yil boshiga kelib 3,5 trillion dollarga yetgan. Ushbu ko'rsatkichlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va moliyaviy nazorat mexanizmlarining samarali yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi.

O'zbekiston tajribasi ham so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Xususan, 2020–2024-yillar davomida qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2 milliard AQSh dollaridan oshgan. 2023-yilda mamlakatda quyosh va shamol energetikasi loyihalariga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 800 million dollardan ortiqni tashkil etgan. Davlat byudjeti doirasida ekologik yo'nalishdagi xarajatlarning ulushi esa 2019-yildagi 3,2 foizdan 2024-yilda 5,8 foizga yetgan. Bu esa yashil moliyalashtirishning davlat moliyasidagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar davlat moliyaviy nazorati tizimida ayrim kamchiliklar mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, yashil loyihalarni baholash uchun yagona metodologiyaning yetishmasligi sababli ayrim hollarda mablag'larning samaradorligi to'liq aniqlanmayapti. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda amalga oshirilgan ekologik loyihalarning qariyb 18–20 foizida rejalashtirilgan natijalarga to'liq erishilmagan. Bu esa monitoring va audit mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

1-jadval:

Yashil moliyalashtirish instrumentlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari (2023–2024 yy.) [9]

Ko‘rsatkichlar	2023 yil	2024 yil	O‘sish sur’ati (%)
Yashil investitsiyalar hajmi (mlrd $)	1 800	2 000	11,1
Yashil obligatsiyalar (mlrd $)	600	700	16,7
Ekologik loyihalar soni (dona)	1 200	1 450	20,8
Karbon chiqindilarining kamayishi (mln t)	950	1 100	15,8
Energiya tejamkorligi (%)	12	15	25,0
Davlat nazorati samaradorligi (%)	70	78	11,4

Yuqoridagi jadvalda 2023–2024-yillar davomida yashil moliyalashtirish instrumentlarining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari dinamikasi aks ettirilgan. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda yashil investitsiyalar hajmi 1,8 trillion dollardan 2 trillion dollarga yetib, 11,1 foizga o‘sgan. Bu esa global miqyosda ekologik loyihalarga bo‘lgan e’tibor ortib borayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yashil obligatsiyalar hajmining 16,7 foizga oshgani ushbu instrumentning investitsiya jalb qilishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Ekologik loyihalar sonining 20,8 foizga ortgani davlat va xususiy sektor hamkorligining kengayayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, karbon chiqindilarining kamayishi 15,8 foizni tashkil etgani yashil moliyalashtirishning ekologik samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Energiya tejamkorligi ko‘rsatkichining 12 foizdan 15 foizga oshishi esa resurslardan oqilona foydalanish darajasi yaxshilanayotganini bildiradi.

Davlat moliyaviy nazorati samaradorligining 70 foizdan 78 foizga oshgani nazorat va audit tizimlarining takomillashayotganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, mazkur ko‘rsatkichlar yashil moliyalashtirish instrumentlari iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Ichki audit tizimi doirasida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ekologik loyihalarni nazorat qilishda risklarga asoslangan audit yondashuvi yetarli darajada qo‘llanilmayapti. Masalan, davlat ishtirokidagi ayrim yirik energetika loyihalarida audit tekshiruvlari faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib, ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari yetarlicha inobatga olinmagan. Natijada, ayrim loyihalarda energiya samaradorligi kutilgan darajadan 10–15 foizga past bo‘lgan holatlar kuzatilgan.



1-rasm. Yashil investitsiyalar hajmi (mlrd dollarda) [10]

Yuqoridagi diagrammada 2023–2024-yillar davomida yashil investitsiyalar hajmining dinamik o‘zgarishi aks ettirilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2023-yilda yashil investitsiyalar hajmi 1,8 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 2,0 trillion dollarga yetgan. Bu esa 11,1 foizlik o‘sish sur’atini ko‘rsatadi. Mazkur o‘sish global miqyosda ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan moliyaviy resurslarga bo‘lgan talab ortib borayotganini anglatadi.

Yashil investitsiyalar hajmining oshishi bir qator omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, davlatlar tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan siyosatlarning kuchaytirilishi muhim rol o‘ynagan. Ikkinchidan, xususiy sektor va xalqaro moliya institutlarining ekologik loyihalarga qiziqishi ortgan. Uchinchidan, ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarining keng joriy etilishi investitsiya qarorlarida ekologik omillarni asosiy mezonlardan biriga aylantirgan.

Diagramma shuni ko‘rsatadiki, yashil investitsiyalar hajmining barqaror o‘sishi davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarining ham yangi sharoitga moslashishini talab etadi. Chunki investitsiya hajmining oshishi bilan birga ularning samaradorligini nazorat qilish, mablag‘larning maqsadli sarflanishini ta’minlash va ekologik natijalarni baholash zarurati kuchayadi. Umuman olganda, mazkur diagramma yashil moliyalashtirishning global iqtisodiyotda strategik ahamiyat kasb etayotganini yaqqol ko‘rsatib beradi [11].

Yashil moliyalashtirish instrumentlarining samaradorligini baholashda indikatorlar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar samarali baholash uchun muhim hisoblanadi: karbon chiqindilarini kamaytirish darajasi, energiya tejamkorligi ko‘rsatkichlari, investitsiya qaytimi (ROI)

hamda ekologik ta’sir indekslari. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarida 1 million dollar investitsiya o‘rtacha hisobda yiliga 1,5–2 ming tonna karbon chiqindilarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa yashil moliyalashtirishning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samaradorligini ham tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil moliyalashtirish instrumentlarini samarali joriy etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim omil hisoblanadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda “raqamli audit” va “real vaqt monitoringi” tizimlari orqali loyihalar samaradorligi muntazam nazorat qilinmoqda. Natijada moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi 20–25 foizga oshgani qayd etilgan. O‘zbekiston sharoitida esa ushbu texnologiyalarni joriy etish endi rivojlanish bosqichida bo‘lib, bu yo‘nalishda katta imkoniyatlar mavjud [12].

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil moliyalashtirish instrumentlarini davlat moliyaviy nazorati tizimiga integratsiya qilish iqtisodiy va ekologik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Biroq, ushbu jarayonni to‘liq samarali amalga oshirish uchun yagona baholash metodologiyasini ishlab chiqish, ichki audit tizimini kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro tajribani faol qo‘llash zarur. Shu asosda davlat moliyasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash mumkin.

Xulosa Mazkur tadqiqotda davlat moliyaviy nazorati tizimida yashil moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish va ularning samaradorligini baholash masalalari kompleks tarzda o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil moliyalashtirish global iqtisodiyotda tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim moliyaviy vosita sifatida shakllanmoqda. Yashil obligatsiyalar, ekologik kreditlar va investitsiyalar hajmining ortishi davlatlarning ekologik siyosatida moliyaviy instrumentlarning rolini kuchaytirayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yashil moliyalashtirish samaradorligini ta’minlashda davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki ushbu tizimlar orqali mablag‘larning maqsadli sarflanishi, loyihalarning ekologik natijadorligi hamda risklarni boshqarish imkoniyatlari ta’minlanadi. Shu bilan birga, amaliyotda yagona baholash metodologiyasining yetishmasligi va monitoring tizimlarining to‘liq rivojlanmaganligi ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ESG mezonlari, yashil byudjetlashtirish va raqamli audit tizimlari yashil moliyalashtirish samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida ham ushbu yo‘nalishlarni joriy etish va takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, yashil moliyalashtirishni rivojlantirish davlat moliyasining samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga erishishda muhim omil hisoblanadi.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA BYUDJET INTIZOMINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Shovdirov Toxirmalik Nafasovich
ISFT - “International School of Finance Technology and Science” Instituti
Katta o‘qituvchi (Mustaqil tadqiqotchisi)
Aliboyeva Nozima Xoliyor qizi
ISFT - “International School of Finance Technology and Science” Instituti
“Xalqaro Buxgalteriya hisobi va Moliya” yo‘nalishi, 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorat tizimining joriy holati, uni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar, byudjet intizomidagi mavjud muammolar hamda istiqbolli yo‘nalishlar statistik tahliliy ma’lumotlar asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi faoliyati tahlil qilinib, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari umumlashtirilgan. Maqolada byudjet taqchilligi dinamikasi, hududlar moliyaviy munosabatlari, soliq tushumlari va davlat qarzi ko‘rsatkichlari statistik jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat moliyaviy nazorat, byudjet intizomi, Hisob palatasi, ichki audit, byudjet taqchilligi, fiskal siyosat, soliq intizomi, byudjet islohotlari.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish har qanday mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Byudjet mablag‘laridan oqilona va maqsadli foydalanish, davlat xarajatlarining samaradorligini ta’minlash, soliq intizomini mustahkamlash - bular zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar davlat moliyasini boshqarish tizimini tubdan yangilashga qaratilgan. 2017-yildan boshlab mamlakatda boshlangan iqtisodiy erkinlashtirish siyosati, shaffoflikni oshirish, byudjet jarayonida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi yo‘nalishlarda muhim qadamlar qo‘yildi. Biroq, bu sohadagi muammolar hali to‘liq bartaraf etilmagan va tizimli yechimlarni talab qilmoqda.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorat tizimining joriy holati, uning tarkibiy tuzilishi, faoliyatidagi muammolar hamda uni takomillashtirish yo‘llari statistik tahliliy ma’lumotlar asosida keng ko‘rib chiqiladi.

Davlat moliyaviy nazorati nazariyasi dunyo moliya fanida keng o‘rganilgan soha hisoblanadi. Jahon banki va XVF - Xalqaro valyuta fondi mutaxassislari davlat moliyaviy boshqaruvida “natijaga asoslangan byudjet” (results-based budgeting) tamoyiliga asoslangan tizimni joriy etishni tavsiya etishadi. Bu tizimda har bir byudjet dasturining samaradorligi konkret maqsadli ko‘rsatkichlar orqali o‘lchanadi va nazorat qilinadi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan M. Asrayeva [1] ichki audit xizmatining davlat boshqaruv tizimidagi roliga bag‘ishlangan ilmiy maqolasida quyidagini ta’kidlaydi:

Ichki auditning asosiy vazifalari moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligi va aniqligini ta’minlash, moliyaviy resurslarning samarali va maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish, tashkilotning ichki nazorat tizimini mustahkamlashni asosiy vazifa sifatida belgilaydi. Biroq, global iqtisodiy o‘zgarishlar, yangi texnologiyalar, xalqaro moliyaviy standartlar va audit usullarining rivojlanishi bilan ichki audit xizmati ham doimiy ravishda takomillashtirishni talab etmoqda.

Jahon banki O‘zbekistonga oid tadqiqot hisobotida [2] O‘zbekistonda so‘nggi yigirma yil ichida aholi jon boshiga YaIMning real o‘sish sur’ati yiliga o‘rtacha 5 foizni tashkil etgani, biroq bu o‘sish asosan davlat nazorati va markazlashgan rejalashtirish asosida amalga oshirilganiga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, davlat moliyasi shaffof boshqaruvining huquqiy asoslarini yaratish zaruriyati alohida ta’kidlangan.

Professor A. Ostonokulov va Sh. Qurbonov kabi yerli olimlar byudjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘larni samarali boshqarish va hisobotlarning aniqligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida nazorat mexanizmlarini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligini asoslaydilar.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, samarali davlat moliyaviy nazorati tizimi uchta asosiy ustunda quriladi: 1. mustaqil tashqi audit organi; 2. rivojlangan ichki audit tizimi; 1. parlament nazorati va jamoatchilik hisobdorligi. O‘zbekistonda ushbu uchlik tizim shakllantirilmoqda, biroq hali xalqaro me’yorlarga to‘liq muvofiq darajaga yetmagan.

O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorat tizimining tarkibiy tuzilishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, Tashkiliy tuzilma hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar tizimi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

1. Hisob palatasi - davlat tashqi auditi va moliyaviy nazoratning oliy organi;
2. Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi (Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida);
3. G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi;
4. Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari;
5. Soliq qo‘mitasi va Bojxona qo‘mitasi.

Hisob palatasi 2019-yilda O‘RQ-546-sonli Qonun asosida yangilangan vakolatlarga ega bo‘lib, hozirgi kunda dastlabki va yakuniy nazorat, taftish, tekshirish hamda o‘rganish shakllarida faoliyat yuritadi. Hisob palatasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va Senat tomonidan tasdiqlanadigan raisi boshchiligida ish olib boradi.

Hisob palatasining asosiy vazifalari va vakolatlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, hisob palatasi o‘z faoliyatini nazorat ishlarining yillik dasturi asosida amalga oshiradi.

Uning vakolatlariga quyidagilar kiradi: davlat byudjeti loyihasini ekspertizadan o‘tkazish, qabul qilinayotgan davlat dasturlarining moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlanganligi auditini amalga oshirish, davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik talablarining to‘g‘ri qo‘llanilishini nazorat etish, byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash, shuningdek yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan choralarni kuzatib borish.

2023-yildagi qonunchilik islohoti (O‘RQ-856) Hisob palatasi vakolatlarini yanada kengaytirdi: xususan, siyosiy partiyalar moliyaviy faoliyatini nazorat qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tizimini baholash kabi yangi funksiyalar qo‘shildi.

Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasining tashkil etilishi, 2022-yil fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori asosida Moliya vazirligi tarkibidagi Davlat moliyaviy nazorati departamenti negizida Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi tashkil etildi.

Respublika Davlat budjeti mablag‘larini sarflash samaradorligini oshirish, budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish maqsadida Hisob palatasi, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari 2022-yildan boshlab nazorat ishlarining yillik dasturlarini ustuvor yo‘nalishlarga muvofiqlashtirishi kerak.

Inspeksiyaga “Elektron nazoratchi-taftishchi” dasturiy majmuasini joriy etish, axborot texnologiyalari vositasida masofaviy nazoratni kengaytirish topshirildi. 2024-yil yanvarda esa bu inspeksiya Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga o‘tkazildi, chunki uning faoliyati qoniqarsiz deb baholandi.

Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari dinamikasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda O‘zbekiston davlat byudjeti ko‘rsatkichlari sezilarli o‘sish dinamikasini namoyon etmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda davlat byudjeti daromadlari 2023-yilga nisbatan 42,7 trln so‘mga ko‘payib, 18,3 foizga iqtisodiyotdagi faollikning oshishidan dalolat beradi [3].

1- jadval

Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari dinamikasi

Ko‘rsatgich	2022	2023	2024
Davlat byudjeti daromadlari (trln so‘m)	~228,0	321,0	274,4*
Davlat byudjeti xarajatlari (trln so‘m)	~263,0	380,0	310,9*
Byudjet taqchilligi (trln so‘m)	-35,2	-59,0	-36,5*
Taqchillik / YaIM nisbati (%)	~4,5%	5,5%	~3,5%*
Ta’limga xarajatlar (trln so‘m)	~50,0	61,2	71,2
Sog‘liqni saqlash (trln so‘m)	~26,0	31,1	36,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2024-yil byudjet ijrosi hisoboti.

1- Jadval ko‘rsatkichlaridan ko‘rinib turibdiki, 2023-yilda byudjet taqchilligi 59 trln so‘mga yetib, YaIMning 5,5 foizini tashkil etdi - bu avvalgi yillarga nisbatan mutlaq rekord hisoblanadi. 2024-yilda esa taqchillik 36,5 trln so‘mga kamaydi, bu esa fiskal intizomning biroz mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Biroq, hali ham yirik taqchillik saqlanib qolayotgani - moliyaviy nazorat va byudjet intizomini kuchaytirish zarurligi haqida signal beradi.

2023-yilda O‘zbekiston konsolidatsiyalashgan byudjeti daromadlari 321,0 trln so‘mga, xarajatlar 380,0 trln so‘mga yetdi. Bunda byudjet taqchilligi yuqori darajada o‘sib, qariyb 59 trln so‘mni (YaIMga nisbatan 5,5 foiz) tashkil etdi. Bu avvalgi yillarga qaraganda mutlaq rekord hisoblanadi [4].

O‘zbekistonda Mahalliy byudjetlar holatini tahlil qilish davomida hududlararo tafovutlarni ham kuzatish mumkin.

Byudjet intizomini tahlil qilishda hududlar moliyaviy holati alohida o‘rin tutadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda barcha viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlarida taqchillik qayd etilgan. Qashqadaryo viloyatida bu ko‘rsatkich eng yuqori bo‘ldi - 5,9 trln so‘m.

2- jadval

Mahalliy byudjetlar holati va hududlararo tafovutlar

Hududlar	**Daromad (trln so‘m)**	**Xarajat (trln so‘m)**	**Taqchillik (trln so‘m)**
Qashqadaryoviloyati	4,6	10,5	-5,9
Andijon viloyati	3,9	8,2	-4,3
Namangan viloyati	3,9	8,1	-4,2
Samarqand viloyati	5,1	8,8	-3,7
Toshkent viloyati	6,0	7,8	-1,8
Barcha hududlar (jami)	55,7	101,7	-46,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2023-yil mahalliy byudjetlar tahlili.

Hududlar bo‘yicha moliyaviy taqchillikning bunday farqlari byudjet resurslari taqsimotida hali ham nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, soliq tushumlari o‘sish sur’atlaridagi katta farqlar nazorat mexanizmlarining turli hududlarda har xil darajada ishlayotganidan dalolat beradi.

Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida soliq tushumlari 20 foiz o‘sgan bo‘lsa, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryoda bu ko‘rsatkich 7 foizga ham yetmagan. Bunday holatlar

hududiy soliq bo‘limi boshliqlari va o‘rinbosarlari, mahalladagi soliqchilarning ishi sustligini ko‘rsatadi [5].

2024-yil yanvar oyidagi videoselektor yig‘ilishida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat moliyasidagi muammolarga aniq statistik misollar keltirdi. Xususan, ayrim davlat korxonalari tomonidan dividend va soliq to‘lovlari bo‘yicha budjetga 8 trln so‘mlik tushum ta'minlanmaganiga e'tibor qaratildi.

Byudjet intizomidagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat: birinchidan, davlat xaridlari sohasida qonunchilik talablarining buzilishi hamda xarajatlarni maqsadsiz sarflash holatlari; ikkinchidan, soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini to‘liq bajarmaslik; uchinchidan, davlat korporatsiyalari va qo‘shma korxonalarning moliyaviy hisobotlarida sifat muammolari.

Yashirin iqtisodiyot va nazorat qiyinliklari, Bugungi kundagi eng dolzarb masala bu - yashirin iqtisodiyot. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdiki, xizmatlar, qurilish, sanoat sohalarida katta miqdordagi aylanma “soya”da qolmoqda [6].

Yashirin iqtisodiyot moliyaviy nazorat uchun jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Xizmatlar sohasida naqd pul muomalasining keng tarqalganligi, qurilish sektorida miqyosini aniqlash qiyinligi, elektron hujjat aylanishi to‘liq joriy etilmaganligi - bular nazorat samaradorligini pasaytiruvchi omillar jumlasidandir.

Nazorat organlarining institutsional muammolari, Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasining Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga o‘tkazilishi uning avvalgi faoliyati qoniqarsiz bo‘lganini rasman tan olish edi. Bu holat nazorat organlarining institutsional mustaqilligi va kadrlar salohiyati borasida jiddiy savollar tug‘diradi.

Shuningdek, nazorat organlari o‘rtasidagi vazifalar takrorlanishi va ma'lumot almashish mexanizmlarining zaifligini ham qayd etish zarur. Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi, ichki audit xizmatlari va soliq organlari o‘rtasida samarali koordinatsiya tizimi hali to‘liq shakllantiirilmagan.

Raqamlashtirish va texnologik muammolarga e’tibor beradigan bo‘lsak, 2022-yil qarorida “Elektron nazoratchi-taftishchi” dasturiy majmuasini joriy etish va 2023-yil yanvarga qadar masofaviy moliyaviy nazorat modulini yaratish rejalashtirilgan edi. Biroq bu jarayon belgilangan muddatlarda to‘liq amalga oshirilmadi, bu esa moliyaviy nazoratning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to‘liq foydalanish imkoniyati hali chekliqligicha qolayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston 2024-yil Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonunida yillik byudjetni shakllantirishda “natijaga asoslangan byudjet” tizimini bosqichma-bosqich to‘liq joriy etish ko‘zda tutilgan. Bu tizimda har bir byudjet dasturining samaradorligi aniq maqsadli ko‘rsatkichlar orqali o‘lchanadi: masalan, ta'lim sohasi uchun o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, sog‘liqni saqlash uchun kasallanish darajasi va umr ko‘rish sur'ati.

Hujjatda byudjet dasturlari uchun ajratilgan mablag‘larning alohida satrlarda ko‘rsatilishi nazarda tutilgan. Masalan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi joriy xarajatlari qatorida 11 ta, Sog‘liqni saqlash vazirligida 23 ta, Qishloq xo‘jaligi vazirligida 17 ta davlat dasturlari uchun ajratilgan mablag‘lar alohida qayd etiladi.

Raqamli texnologiyalarni keng joriy etishda byudjet intizomini mustahkamlashning eng samarali yo‘llaridan biri -moliyaviy ma'lumotlar bazasini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi axborot tizimlarini joriy etish. 2022-yil Prezident qarorida Moliya vazirligining moliyaviy nazorat ma'lumotlari bazasini ishga tushirish va vazirlik va idoralar bilan real vaqt rejimida axborot almashinuvi orqali byudjet qonunchiligini buzish xavfini tahlil qilish vazifasi belgilangan.

2024-yildan boshlab G‘aznachilik xizmati qo‘mitasiga byudjetdan tashqari jamg‘armalarga majburiy yig‘imlar, bojlar va jarimalar hisobidan kelib tushgan mablag‘larning 40 foizini avtomatik tarzda respublika budjetiga o‘tkazish mexanizmi joriy etildi - bu avtomatlashtirish orqali qo‘lda amalga oshiriladigan manipulyatsiya imkoniyatini kamaytirdi.

Xalqaro standartlarga moslashishda O‘zbekiston IMF va Jahon banki bilan hamkorlik doirasida davlat moliyaviy boshqaruvini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha bir qator majburiyatlarni olgan. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi: XDABS (Xalqaro davlat auditi byudjet standartlari) talablariga o‘tish; PIMA (Davlat investitsiyalarini boshqarishni baholash) mezonlariga muvofiqligini ta'minlash; “yashil byudjetlashtirish” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish.

Byudjet jarayonining ochiqligini ta'minlash - ham parlament, ham jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshirishning zarur sharti. O‘zbekiston 2017-yildan boshlab IMF ning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimiga (KMTUT) qo‘shildi. Shu yo‘nalishda Hisob palatasi veb-saytida byudjet ijrosi haqidagi hisobotlar, nazorat natijalari va taqdimnomalar e'lon qilinishi talab etilmoqda.

Mahalliy byudjetlardagi surunkali taqchillikni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur: bir tomondan, hududlarning o‘z soliq bazasini kengaytirish bo‘yicha rag‘batlar kuchaytiirilishi kerak; ikkinchi tomondan, markazdan ajratiladigan transfertlarning shaffofligi va maqsadliligini nazorat qilish mexanizmlari takomillashtirilishi lozim. 2024-yildan boshlab 40 mingta byudjet tashkiloti bilan ishlash vazifasi yangi tashkil etilgan tumanlararo byudjet tashkilotlari inspeksiyasiga o‘tkazildi va bu inspeksiya G‘aznachilik elektron tizimiga integratsiya qilindi.

Yuqoridagi fikr - mulohazalarni umumlashtirgan xolda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorat tizimi institutsional jihatdan tashkil etilgan bo‘lsa-da, uning samaradorligi hali xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmaydi. Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi va ichki audit xizmatlari o‘rtasidagi koordinatsiyani kuchaytirish zarur.

2. 2023-yilgi byudjet taqchilligi (YaIMning 5,5%) va hududiy byudjetlardagi nomutanosibliklar byudjet intizomini yanada mustahkamlash zarurligini ko‘rsatmoqda. Ayrim viloyatlarda soliq tushumlari o‘sish sur'atlarining pastligi hududiy darajadagi moliyaviy nazorat samaradorligiga jiddiy e'tibor qaratishni talab etadi.

3. “Natijaga asoslangan byudjet” tizimini joriy etish va raqamli axborot tizimlarini kengroq qo‘llash moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishning strategik yo‘li hisoblanadi. “Elektron nazoratchi-taftishchi” dasturiy majmuasini to‘liq ishga tushirish ustivorlikka ega.

4. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun naqd pulsiz to‘lovlarni kengaytirish, elektron hujjat aylanishini to‘liq joriy etish va soliq ma'muriyatini zamonaviylashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

5. Davlat korxonalari va byudjet tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, ichki audit xizmatlarining mustaqilligini ta'minlash, shuningdek nazorat natijalari bo‘yicha javobgarlikni kuchaytirish -byudjet intizomini mustahkamlashning asosiy shartlari.

Umuman olganda, O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish - bu faqat qonunchilikni yangilash yoki yangi organlar tashkil etishdan iborat vazifa emas. Bu, avvalambor, moliyaviy mas'uliyat va hisobdorlik madaniyatini shakllantirish, raqamli texnologiyalar yordamida nazorat jarayonini avtomatlashtirish va byudjet jarayonining barcha bosqichlarida shaffoflikni ta'minlashdan iborat tizimli ish hisoblanadi.

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA BYUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Farmonov Dilshodbek Daminovich
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida byudjet intizomini mustahkamlashning iqtisodiy va institutsional asoslari tahlil qilindi. Xususan, davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish, fiskal barqarorlikni ta’minlash hamda ekologik yo‘naltirilgan byudjetlash mexanizmlarini joriy etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish orqali byudjet intizomini mustahkamlash yo‘llari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, byudjet intizomi, fiskal siyosat, davlat moliyaviy nazorati, yashil byudjetlash, davlat xarajatlari samaradorligi

Kirish. Hozirgi davrda barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda davlat byudjeti mablag‘laridan samarali foydalanish, byudjet

intizomini mustahkamlash hamda fiskal barqarorlikni ta’minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ekologik yo‘naltirilgan dasturlarni moliyalashtirishda mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish talab etiladi. Mamlakatimizda bu borada izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2019-yil 4-oktabrdagi “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori hamda 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori ushbu yo‘nalishda muhim strategik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, Prezidentimizning 2024-yil 10-iyuldagi “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-son farmoni byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish va moliyaviy nazoratni kuchaytirishga qaratilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyoti izchil o‘sib borayotganligi natijasida davlat xarajatlari ham ortib bormoqda. So‘nggi 8 yil davomida byudjet xarajatlari 6 barobarga oshgan bo‘lsa, 2025-yilning dastlabki 6 oyida o‘tkazilgan audit tadbirlari natijasida 5 trillion 600 milliard so‘m samarasiz xarajatlar qisqartirilib, byudjetga 5 trillion so‘m qo‘shimcha tushum imkoniyatlari aniqlangan. Bu esa byudjet intizomini yanada mustahkamlash va moliyaviy nazoratni takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi[54]. Shuning uchun ham yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida byudjet intizomini mustahkamlashning iqtisodiy va institutsional asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalari Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida byudjet intizomini ta’minlash nafaqat fiskal barqarorlikni mustahkamlash, balki davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish, ekologik yo‘naltirilgan dasturlarni moliyalashtirishda shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirishni ham talab etadi. Bu esa o‘z navbatida davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishni, zamonaviy nazorat mexanizmlarini joriy etishni taqozo etadi. N. Ubaydullayev o‘zining ilmiy ishlarida yashil siyosatning tarkibiy bo‘g‘ini sifatida yashil byudjet siyosati milliy iqtisodiyotning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanishini[55] ta’kidlab o‘tganlar. Byudjet siyosatining yashil ahamiyat kasb etishi bugungi kundagi fiskal siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini ifoda etmoqda. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, yashil yondashuvning shakllanishi an’anaviy iqtisodiy o‘sishni barqaror iqtisodiy o‘sish bilan almashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni davlat moliyaviy resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni talab etadi. Ushbu jarayonda byudjet intizomi muhim iqtisodiy vosita sifatida namoyon bo‘lib, davlat xarajatlarining maqsadli, samarali hamda natijador yo‘naltirilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ekologik barqarorlikni ta’minlashga

[54] https://parliament.gov.uz/articles/1263

[55] Ubaydullayev N.I. – Yashil byudjet siyosatining nazariyasoslari va o‘ziga xos xususiyatlari – Social, economic, scientific, and technical academic journal 2025, iyul, 124-127 b.

qaratilgan dastur va loyihalarni moliyalashtirishda byudjet mablag‘laridan noto‘g‘ri foydalanish nafaqat iqtisodiy yo‘qotishlarga, balki atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatish xavfini ham yuzaga keltiradi. Byudjet intizomi yashil iqtisodiyot sharoitida fiskal barqarorlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Davlat xarajatlarining asossiz oshib borishi yoki samarasiz taqsimlanishi byudjet defitsitining ortishiga, natijada esa davlat qarzining ko‘payishiga olib kelishi mumkin. Bu holat esa yashil transformatsiyani moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli byudjet intizomini mustahkamlash orqali davlat moliyaviy resurslarining ustuvor yo‘nalishlarga, jumladan, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik loyihalarga yo‘naltirilishini ta’minlash zarur. Shu bilan birga, byudjet intizomini ta’minlash yashil byudjetlash mexanizmlarini joriy etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Yashil byudjetlash orqali davlat xarajatlarining ekologik ta’siri baholanadi hamda moliyaviy resurslar ustuvor ekologik maqsadlarga yo‘naltiriladi. Natijada byudjet siyosatining samaradorligi oshib, iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasida muvozanat ta’minlanadi.

1-jadval

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, o‘rmon xo‘jaligi va gidrometeorologiya sohalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hamda xalqaro moliya institutlarining kreditlari hisobidan moliyalashtiriladigan istiqbolli loyihalar[56]

T/r	Loyiha nomi	Qiymati *(mln AQSH dollari)*	Moliyalashtirish manbayi
1.	“Toshkent viloyatining “Ohangaron” va “Maydontol” maishiy chiqindilar poligonida hosil bo‘ladigan chiqindi gazidan (metandan) umumiy ishlab chiqarish quvvati kamida 16 MVt bo‘lgan muqobil elektr energiyasi ishlab chiqarish” loyihasi	55	Koreya Respublikasining “Sejin G&E So., Ltd.” kompaniyasi
2.	“Qattiq maishiy chiqindilarni to‘liq qayta ishlash va muqobil energiya ishlab chiqarish” loyihasi	30	Yaponiyaning “Itochu” kompaniyasi
3.	“Jizzax viloyatida qattiq maishiy chiqindilarni kompleks boshqarish” loyihasi	90	Koreya “Iqtisodiy rivojlanish sohasida hamkorlik” fondi(EDCF)
4.	“Farg‘ona viloyatida chiqindilarni	24,8	Finlyandiyaning

[56] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-171-son qarori

	boshqarish tizimini modernizatsiya qilish” loyihasi		“KaukoInternational Oy Ltd” kompaniyasi *(30 % — grant, 70% — kredit)*
5.	“Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida qattiq maishiy chiqindilarni kompleks boshqarish” loyihasi	120	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
6.	“Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida qattiq maishiy chiqindilarni kompleks boshqarish” loyihasi	210	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
7.	“Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qattiq maishiy chiqindilarni kompleks boshqarish” loyihasi	120	Jahon banki
8.	“Mashxur-Gold Greenhouse” MCHJ tomonidan innovatsion “kalsiy karbonatli pardoz g‘ishti” ishlab chiqarish loyihasi	3,3	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
9.	“Toshkent shahridagi oqova suvlarni tozalash inshootlaridagi (kanalizatsiya) chiqindi quyuqasidan muqobil elektr energiyasi ishlab chiqarish” loyihasi	62	Xorijiy investitsiya mablag‘lari

Yuqoridagi jadvalda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar asosan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash, chiqindilardan energiya ishlab chiqarish hamda ekologik infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu loyihalarning umumiy qiymati qariyb 714,1 mln AQSH dollarini tashkil etib, mazkur loyihalarning asosiy qismi xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilmoqda. Xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Koreya va Yaponiya kompaniyalari hamda boshqa xorijiy investorlar muhim moliyaviy manba sifatida ishtirok etmoqda. Bu esa yashil iqtisodiyotga o‘tishda davlat byudjeti yuklamasini nisbatan kamaytirish bilan birga, tashqi moliyalashtirishga qaramlikni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shu bilan birga, loyihalarning ayrimlarida grant va kredit mablag‘larining kombinatsiyasi (masalan, Finlyandiya loyihasida 30% grant va 70% kredit) qo‘llanilayotgani moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkonini oshiradi. Biroq kredit mablag‘larining yuqori ulushi kelgusida davlat qarzi yukining ortishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham byudjet intizomini mustahkamlash, ayniqsa, xalqaro moliyalashtirilayotgan yashil loyihalar doirasida shaffoflik, hisobdorlik va natijadorlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi hamda yashil byudjetlash mexanizmlarini joriy

etishda davlat moliyaviy nazorat va audit tizimini kuchaytirish, loyihalarni baholash va qarz yukini maqbul darajada saqlash va monitoring qilishni taqozo etadi. Mazkur choralar byudjet intizomini mustahkamlash orqali yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KREDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI

Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: bank faoliyatini tartibga solish bo’yicha “yo’l haritasi” tasdiqlandi; “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tashkil etildi; “Moliyaviy sektorni baholash” (FSA); Bazel qo’mitasining tamoyillari; tadbirkorlarni “chempion” tadbirkor toifasiga olib chiqish; Biznesni kafolatlash milliy kompaniyasi” AJ tashkil qilindi.

Kalit so’zlari: Tadbirkorlik faoliyati; yo’l haritasi; bank; moliya; kredit; sug’urta; chempion tadbirkor;investitsiya; strategiya

Kirish “2025–2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan “Yo‘l xarita” tasdiqlandi.2024–2025–yillarda Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki tomonidan Moliyaviy sektorni baholash dasturi (FSAP) doirasida O‘zbekistonning bank-moliya tizimi ilk marotaba kompleks baholashdan o‘tkazildi.Mazkur baholash natijasida Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki tomonidan “Moliyaviy tizim barqarorligini baholash” (FSSA), “Moliyaviy sektorni baholash” (FSA) va “Bank nazoratining samarali amalga oshirilishi bo‘yicha bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining asosiy tamoyillariga muvofiqligini baholash” (BCP) hisobotlari chop etildi hamda ushbu hisobotlarda bank-moliya tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator tavsiyalar berildi.

Mazkur hisobotlar hamda baholovchilarning tavsiyalari asosida 2025–2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan “Yo‘l xarita” ishlab chiqilib, Markaziy bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlandi.[2]

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Tadbirkorlik subyektlarini yangicha yondashuvlar asosida qo’llab quvvatlash chora tadbirlari to’g’risida, PF-176-son. Ushbu Farmonni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad etib 2026-2027-yillarda “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan 4 trillion so‘mlik moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralarini taqdim etish orqali 5 mingta tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish belgilangan.[1]

Adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyot fanida tadbirkorlik faoliyatiga doir dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda R. Kantilyon, A. Òyurgo, F. Kene, A. Smit va J.B. Sey asarlarida

amalga oshirila boshlandi. Biroq hozirga qadar jamoatchilik fikrida «tadbirkorlik» tushunchasining ko‘p ma’noliligi saqlanib qolmoqda.

Ko‘pincha ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha haqida, u favqulodda hodisaning iqtisodiy, tashkiliy va ruhiy tavsiflari to‘plamidan iborat, degan tasavvurlar mavjud «Biznes» so‘zi inglizcha bo‘lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha aytganda, kishilarning foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir.

«Biznesmen» (tadbirkor) atamasi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo‘lib, u «mulk egasi» degan ma’noni bildiradi. Jumladan, Adam Smit tadbirkorni mulk egasi sifatida ta’riflab, uni foyda olish uchun qandaydir tijorat g‘oyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boradigan kishidir, deb ta’kidlaydi.

Tadbirkorning o‘zi o‘z ishini rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, mahsulotni sotadi va olgan daromadiga o‘zi xo‘jayinlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunida tadbirkorlik faoliyati tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

«Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatidir»[3]

Tadqiqot metodalogiyasi. Tadbirkorlik faoliyatini kreditlashda, moliya muassasalari tomonidan juda ko’p amaliy ishlar qilinmoqda, bu ishlarni amalga oshirishda banklar, moliya tashkilotlari, sug’urta kompaniyalari ishtirok etib kelmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega, chunki mamlakat iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, raqamli transformatsiyani amalga oshirish va moliyaviy xizmatlar sohasida raqobatbardoshligini oshirishni maqsad qilmoqda. Tadqiqot ishini yoritishda ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, ma‘lumotlarni guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. 2026−2027-yillarda 4 trillion so‘mlik moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralarini taqdim etish orqali 5 mingta tadbirkorlik loyihalari amalga oshiriladi. Shuningdek, “Biznesni kafolatlash milliy kompaniyasi” tashkil qilinadi.

2026−2027-yillarda “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ (TRK) tomonidan 4 trillion so‘mlik moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralarini taqdim etish orqali 5 mingta tadbirkorlik loyihalari amalga oshiriladi. Bu prezidentning 26-sentabrdagi “Tadbirkorlik subyektlarini yangicha yondashuvlar asosida qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida [PF-176-son] ko‘zda tutilgan.

Hujjat prezidentning tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish maqsadida qabul qilingan. Tadbirkorlar yangicha yondashuvlar asosida qo‘llab-quvvatlanadi.

Farmonga ko‘ra, 2025-yil 1-noyabrdan TRK tomonidan tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi qo‘shimcha instrumentlar joriy etiladi:

tadbirkorlarni “chempion” tadbirkor toifasiga olib chiqishga ko‘maklashish uchun ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihalariga tijorat banklari orqali 10 mlrd so‘mgacha kreditlar ajratish uchun resurs joylashtirish;

kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va “yashil” iqtisodiyot yo‘nalishidagi mikroloyihalariga tijorat banklari tomonidan 500 mln so‘mgacha ajratilgan kreditlarni quyidagi shart va hollarda qayta moliyalashtirish:

ajratilgan kreditning foiz stavkasini 6 foizgacha, biroq Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkagacha kamaytirish;

kamida 1 yil faoliyat yuritgan va 2 nafar xodimi bo‘lgan tadbirkorlarining 5 ta va undan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratishni nazarda tutgan loyihalariga taqdim etish.

Tadbirkorlarga qo‘shimcha ravishda kafolatlar taqdim etiladi.Shuningdek, 2025-yil 1-dekabrdan TRK tomonidan qo‘shimcha ravishda kafolat yoki kafillik quyidagi shartlarda taqdim etiladi:

yirik tadbirkorlik subyektlariga 10 milliard so‘mgacha, biroq kredit, lizing, bank kafolati va akkreditivlarning 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda;

kompaniyaning kuzatuv kengashi qarori bilan belgilangan tartibda o‘rta va yirik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va “yashil” iqtisodiyot yo‘nalishidagi yirik loyihalariga ularning aylanmasidan kelib chiqib, 10 milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan miqdorda;

avval kafillikdan ijobiy foydalangan va yaxshi kredit tarixiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga amalda belgilangan kafillik miqdorini 1,5 baravargacha oshirgan holda;

garov ta’minoti bo‘yicha yuzaga kelgan taqchillikni bartaraf etish uchun barcha toifadagi tadbirkorlik subyektlariga belgilangan miqdorlar doirasida ajratilgan kredit, lizing, bank kafolati va akkreditivlarga.

“Biznesni kafolatlash milliy kompaniyasi” AJ tashkil etiladi.

Prezident farmoniga asosan TRK muassisligida “Biznesni kafolatlash milliy kompaniyasi” tashkil qilinadi. Bu Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish bo‘yicha yo‘l xaritasida ko‘zda tutilgan.Jamiyat o‘z faoliyatini noyabrdan boshlashi rejalashtirilgan. Unga qadar esa, TRK kafolat yoki kafillik berishda davom etadi. Qolaversa, TRKning “xizmatlar ipotekasi” va “ustav kapitaliga ulush kiritish” moliyaviy instrumentlarini tadbirkorlik subyektlariga taqdim etish vakolati “TRK Invest” MCHJga o‘tkaziladi.

Kredit (lizing) uchun resurs ajratish, kredit foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish tizimi takomillashtiriladi.2026-yil 1-yanvardan olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda ro‘yxatdan o‘tgan kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga ularga ajratilgan kreditlarning mos ravishda 1,5 milliard so‘mgacha va 5 milliard so‘mgacha bo‘lgan qismini kompaniya tomonidan Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkasigacha qayta moliyalashtirish orqali kompensatsiya taqdim etiladi.

Bunda kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalarning a’zolari tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lgan xodimlarning kamida:

5 nafarini tashkil qilganda - 2 foizgacha;

10 nafarini tashkil qilganda - 4 foizgacha;

20 nafarini tashkil qilganda - 6 foizgacha miqdorda qayta moliyalashtiriladi.[1]

“Yo‘l xarita”da quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilandi:

Markaziy bankning banklar faoliyatini tartibga solish hamda nazorat qilishga oid institutsional salohiyatini takomillashtirish maqsadida qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish;

Bazel III standartini, shu jumladan ikkinchi (Pillar 2) hamda uchinchi (Pillar 3) ustunlarini to‘liq joriy qilish;

banklarda korporativ boshqaruv hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlariga doir talablarni takomillashtirish;

Markaziy bankning bank nazoratiga oid ichki jarayonlarini takomillashtirish hamda tavakkalchilikka asoslangan bank nazorati tizimini to‘liq joriy qilish;

banklar va bank guruhlarida konsolidatsiyalashgan nazorat tizimini joriy etish;

banklarni sanatsiya qilish mexanizmini yolga qo‘yish, shiningdek banklarni tugatish tartib-taommillarini hamda omonatlarni kafolatlash tizimini takomillashtirish;

banklarni nazorat qilishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash;

moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan choralarni takomillashtirish.[2]

Xulosa Tadbirkoiqrlik faoliyatini rivojlantirishda iqtisodiyotimizning kelajagi uchun bu soha vakillarini yana ham ko’paytirish maqsadida imkoniyat va sharoitlar kengayib bormoqda. Prezidentimizning 26-sentabr 2025 yilda “Tadbirkorlik subyektlarini yangicha yondashuvlar asosida qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni “PF-176-son”da ko‘zda tutilgan. Bu imkoniyatlardan foydalanib ish boshlayotgan tadbirkorlar ko’p yutuqlarga erishmoqda. Bunday xizmatlarni yo’lga qo’yishda moliya tashkilotlarining o’rni katta.

Banklar o’z xizmatlari bilan yurtimizning barcha joylarida tadbirkorlarga kredit xizmatlarini ko’rsatib kelmoqda. “2025–2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan “Yo‘l xarita” tasdiqlandi. Bu xaritada banklarning dunyo reytingida tutgan o’rni, imidji va rivojlanish strategiyasi ko’rsatib o’tilgan.

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA ICHKI AUDITNING O‘RNI

Pulatova Marina
TDIU magistranti

Korporativ boshqaruv tizimi zamonaviy kompaniyalar faoliyatining samaradorligini oshirish, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish hamda moliyaviy

shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladigan muhim boshqaruv mexanizmlaridan biridir. Ushbu tizimda ichki audit xizmati alohida o‘rin egallaydi, chunki u tashkilot faoliyatini mustaqil baholash, risklarni aniqlash va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga ko‘maklashadi.

Ichki audit korporativ boshqaruvning muhim elementi bo‘lib, tashkilotda ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash hamda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Korporativ boshqaruvning agentlik munosabatlari, boshqaruv konsepsiyasi, strategik menejment konsepsiyasi va ijtimoiy javobgarlik nazariyasi kabi zamonaviy konsepsiyalari mavjud. Korporativ boshqaruv tizimining ichki auditining ichki audit sohalaridan biri sifatida ta’rifi shakllantirilgan, unga ko‘ra korxonaning ijtimoiy mas’uliyatini hisobga olgan holda amaldagi qonunchilik, tashqi va ichki me’yoriy hujjatlar (standartlar) hamda amaldagi amaliyot asosida korporativ munosabatlarning asosiy tarkibiy qismlarining belgilangan mezonlarga muvofiqligini va ularning samaradorligini mustaqil, xolisona baholash va tekshirish bo‘yicha nazorat-tahliliy jarayonlar majmuidir.

Ushbu ta’rifda: birinchidan, nazorat va tahliliy protseduralar majmuasi sifatida korporativ boshqaruv auditi faoliyatiga aniqlik kiritiladi; ikkinchidan, auditning maqsadi aniqlandi - bu korporativ boshqaruvning asosiy tarkibiy qismlari samaradorligini mustaqil baholash va belgilangan mezonlarga muvofiqligini tekshirish; uchinchidan, me’yoriy hujjatlar belgilangan mezonlarga muvofiq oshkor qilinadi (joriy qonunchilik, tashqi va ichki standartlar hamda korporativ boshqaruvning amaldagi amaliyoti); To‘rtinchidan, biznesning ijtimoiy mas’uliyatini tekshirishning muhimligi ta’kidlangan.



1-rasm. Korporativ boshqaruv tamoyillari[57]

[57] Muallif tomonidan tayyorlangan.

Korportaiv boshqaruvni tashkil etish bo‘yicha ikkita yondashuv mavjud, Tamoyillarga asoslangan korporativ boshqaruv. Bunda “Muvofiq bo‘lsin yoki tushuntiring” talabiga rioya qilinadi. Qoidalarga asoslangan korporativ boshqaruv. Korporativ boshqaruv standartlari qonunchilik bilan tasdiqlanadi, shuning uchun unga rioya etish majburiy. (Sarbeyns-Oksli qonuni (AQSh)) .

Ichki audit odatda korporativ boshqaruvning muhim elementi hisoblanadi va uning tamoyillariga ham asoslanadi. Korporativ boshqaruv – bu kompaniya boshqaruvini va faoliyati nazoratini amalga oshirishda qo‘llaniladigan ichki tizim yoki vositaliridir. Korporativ boshqaruv Direktorlar kengashi tomonidan har bir manfaatdor tomonlari uchun hisobdorlik, haqqoniylik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida qo‘llaniladigan amaliy usul va qoidalar konsepsiyasini tavsiflaydi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti «Korporativ boshqaruv tamoyillari»ni e’lon qilgan (1-rasm).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ichki audit tizimi tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va risklarni kamaytirishda muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib, ichki audit tashkilotning maqsadlariga erishishga hissa qo‘shadigan “qo‘shimcha qiymat” olib kelishi kerak. Shu bilan birga, biznes nazariyasi “tashkilot qanday maqsadlarni ko‘zlaydi?” degan savolga ikki xil javob beradi. Akademik hamjamiyatda ustun bo‘lgan manfaatdor tomonlar nazariyasiga ko‘ra, kompaniya o‘z maqsadlariga erishishda barcha manfaatdor tomonlarning (manfaatdor tomonlarning) manfaatlari va talablarini hisobga olishi va qondirishi kerak. Shu nuqtai nazardan, manfaatdor tomonlar nafaqat kompaniyaning egalari (aksiyadorlari), rahbariyati va xodimlari, balki davlat, kasaba uyushmalari, raqobatchilar va hatto kelajak avlodlar sifatida ham tan olinadi.

Neoliberal iqtisodiy nazariyaning mafkurasi va zamonaviy monetarizmning “asoschisi” Milton Fridman tomonidan ishlab chiqilgan aksiyadorlar nazariyasi tashkilotning kompaniya aksiyadorlari tomonidan qo‘yilgan yagona maqsad - foydani ko‘paytirishni ko‘zlab, sof pragmatik tarzda harakat qilishi kerakligini ta’kidlaydi.

Shunday qilib, bir tomondan, M. Fridmanning “biznes egoizmi”, biznes uchun nima foydali bo‘lsa, butun jamiyat uchun yaxshiroq bo‘ladi tamoyili, ikkinchi tomondan,
E. Frimanning “biznes altruizmi” jamiyat uchun nima foydali bo‘lsa, biznes uchun yaxshiroq bo‘ladi tamoyili mavjud.

Ikkala tushunchaning yaqqol mavhumligi amalda (kompaniya rahbariyatining bayonotlarida emas) quyidagilarda aniq ko‘rsatilgan: tijorat tashkiloti kapital to‘plash mantig‘iga amal qilib, foydani maksimallashtirishning yagona maqsadini ko‘zlaydi. Shu bilan birga, kompaniya bir vaqtning o‘zida boshqa “manfaatdor” tomonlarning manfaatlari va talablarini hisobga olishga majbur, lekin faqat uning faoliyatiga ma’lum (sezilarli) ya’ni pirovardida kompaniyaning asosiy maqsadiga erishish qobiliyatiga (foydani maksimal darajada oshirish) ta’sir ko‘rsatadigan tomonlarning manfaatini. Har

bir guruhning ta’sir darajasi va shunga mos ravishda kompaniya faoliyati uchun riskning ahamiyati o‘sha paytda va o‘sha joyda yuzaga kelgan muayyan vaziyatga bog‘liq.

Ichki auditni tashkilotga o‘z maqsadlariga erishishga yordam beradigan faoliyat sifatida ta’rifiga asoslanib, mulkdorlarning (aksiyadorlarning) maqsadlariga erishishda yordam berish ichki auditning asosiy vazifasi ekanligini tan olish kerak, chunki ushbu manfaatdor tomonlar guruhining manfaatlari va talablari kompaniya faoliyati uchun tuzilmani shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki audit korporativ boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U korxona faoliyatida ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash hamda risklarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ichki audit faoliyati orqali tashkilotda moliyaviy intizom mustahkamlanadi, boshqaruv qarorlarining asoslanganligi oshadi va xo‘jalik operatsiyalarining qonunchilik hamda ichki me’yoriy hujjatlarga muvofiqligi ta’minlanadi. Shu bilan birga, ichki audit korporativ boshqaruv tamoyillarini amaliyotga samarali joriy etishga xizmat qilib, aksiyadorlar va investorlar manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada korxonaning barqaror rivojlanishi va moliyaviy barqarorligi ta’minlanadi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

G’aniyev Shaxriddin Vohidovich ,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii, “Budjet hisobi va g’aznachilik” kafedrasi Professori, i.f.n.
Rajabova Ma’mura Abduraxim Qizi
Toshent davlat iqtisodiyot universiteti Magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda davlat moliyaviy nazoratining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati yoritilgan. Unda davlat moliyaviy nazoratining budjet mablag‘laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlashdagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so’zlar: davlat moliyaviy nazorati, budjet, moliyaviy intizom, shaffoflik, natijadorlik, audit, Hisob palatasi, risk-tahlil, masofaviy audit, budjet kodeksi.

Davlat moliyaviy nazorati davlat boshqaruvi tizimining eng muhim tarkibiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Uning iqtisodiy mohiyati davlat tomonidan jamlangan moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi ustidan tizimli kuzatuv, baholash va ta’sir choralarini amalga oshirish orqali budjet mablag‘laridan foydalanishning qonuniyligi, maqsadliligi, tejamkorligi va natijadorligini ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Davlat budjeti va boshqa markazlashgan moliyaviy fondlar iqtisodiy rivojlanish, aholi farovonligi, ijtimoiy himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ustuvor vazifalarni moliyalashtirish manbai bo‘lib xizmat qilgani sababli, ularning

harakati ustidan samarali nazoratni tashkil etish davlat moliyasini boshqarishning obyektiv zaruratiga aylanadi. Shu jihatdan davlat moliyaviy nazoratini faqat tekshiruv vositasi sifatida emas, balki budjet boshqaruvining ajralmas va strategik instituti sifatida baholash lozim.

Mavzuga oid ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati turli mualliflar tomonidan turlicha izohlangan bo‘lsa-da, ularning barchasida umumiy bir jihat mavjud: nazorat moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini baholash bilangina cheklanmaydi, balki resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashga ham qaratiladi. Ayrim yondashuvlarda moliyaviy nazorat davlat va jamoat organlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan olib boradigan vakolatli nazorati sifatida talqin qilinadi. Boshqa yondashuvlarda esa u boshqaruv obyektining iqtisodiy samaradorligi va natijadorligini tahlil qiluvchi kompleks mexanizm sifatida ko‘riladi. Demak, ilmiy nuqtai nazardan davlat moliyaviy nazorati ikki tomonlama tabiatga ega: bir tomondan u moliyaviy intizom va qonuniylikni ta’minlaydi, ikkinchi tomondan esa davlat mablag‘lari evaziga erishilgan iqtisodiy va ijtimoiy natijalarni baholaydi.

Davlat moliyaviy nazoratining nazariy mohiyatini chuqurroq ochish uchun uning uchta asosiy jihatini ajratish maqsadga muvofiq. Birinchi jihat huquqiy mazmundir. Bu yerda davlat moliyaviy nazorati budjet to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta’minlash, moliyaviy buzilishlarni aniqlash, bartaraf etish va kelgusida ularning oldini olishga xizmat qiladi. Ikkinchi jihat boshqaruv xarakteriga ega bo‘lib, unda nazorat moliyaviy oqimlarni tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash, resurslardan foydalanish darajasini baholash va boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga ko‘maklashadi. Uchinchi jihat natijadorlik bilan bog‘liq bo‘lib, sarflangan mablag‘lar evaziga qanday iqtisodiy va ijtimoiy samara olinayotganini aniqlashni nazarda tutadi. Aynan shu uchlik davlat moliyaviy nazoratining mazmunini belgilaydi va uni oddiy tekshiruv modelidan kengroq strategik boshqaruv mexanizmiga aylantiradi.

Budjet kodeksida davlat moliyaviy nazoratining rasmiy huquqiy mazmuni alohida belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, davlat moliyaviy nazorati budjet to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlarini aniqlash, bartaraf etish va ularga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek budjet sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Bu nazorat respublika va mahalliy budjetlar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari, shuningdek budjet ijrosining asosiy elementlari ustidan olib boriladi. Demak, huquqiy jihatdan davlat moliyaviy nazorati faqat xarajatlar qismini emas, balki daromadlar, jamg‘armalar va umumiy budjet ijrosining barcha asosiy tarkibiy qismlarini qamrab oladi. Bu esa uning kompleks va tizimli xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Davlat moliyaviy nazoratining institutsional tuzilmasi ham uning iqtisodiy mohiyatini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi huquqiy tartibga muvofiq,

O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tasarrufidagi vakolatli organlar, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha boshqa vakolatli tuzilmalar tomonidan amalga oshiriladi. Daromadlar qismi bo‘yicha nazorat esa tegishli vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan olib boriladi. Bunday ko‘p bo‘g‘inli tizim davlat moliyaviy nazoratining bir markazli emasligini, balki funksiyalar bo‘yicha taqsimlangan, o‘zaro bog‘langan va bir-birini to‘ldiruvchi murakkab institut ekanini anglatadi. Mazkur tizim moliyaviy resurslar harakatining turli bosqichlarida nazoratni ta’minlash imkonini beradi.

Davlat moliyaviy nazoratining asosiy prinsiplari ham uning mazmunini ochib beruvchi muhim omildir. Kodeksda qonuniylik va mustaqillik bilan bir qatorda, nazorat natijalarining ishonchliligi va xolisligi asosiy tamoyillar sifatida qayd etilgan. Mazkur tamoyillar nazorat faoliyatining faqat rasmiy huquqiy talablarga mos bo‘lishini emas, balki dalillarga asoslangan, tashqi ta’sirdan holi va obyektiv baholash mezonlariga tayanishini ham anglatadi. Shu sababli davlat moliyaviy nazorati tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan ana shu prinsiplarning amaliyotda qay darajada ro‘yobga chiqarilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Bugungi kunda davlat moliyaviy nazoratining ahamiyati ayniqsa kuchayib bormoqda. Buning sababi shundaki, hozirgi bosqichda davlat budjeti mablag‘larining shunchaki sarflangani emas, balki ular qanday natija bergani, qanday ijtimoiy va iqtisodiy samara keltirgani birlamchi ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro audit tamoyillarida ham davlat auditi qonuniylikni tekshirish bilan cheklanmasdan, davlat siyosati, dasturlari va operatsiyalarining samaradorligi hamda boshqaruv sifati yuzasidan mustaqil va obyektiv baho berishi zarurligi ko‘rsatiladi. Shu ma’noda, davlat moliyaviy nazoratining markazida mablag‘ sarflandimi degan savoldan ko‘ra, mablag‘ qanday natija berdi degan savol turishi zarur. Bu yondashuv, ayniqsa, ijtimoiy soha xarajatlari ko‘lami yuqori bo‘lgan sharoitda yanada muhimdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimining raqamlashtirish, masofaviy audit, risk-tahlil va samaradorlik auditiga asoslangan yangi bosqichga o‘tayotgani kuzatilmoqda. Bu esa an’anaviy tekshiruv modelidan natijadorlikka va risklarni oldindan aniqlashga yo‘naltirilgan audit modeliga o‘tish jarayoni kechayotganini bildiradi. Mazkur o‘zgarishlar nazorat tizimini yanada moslashuvchan, tezkor va tahliliy qobiliyatga ega mexanizmga aylantirmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalardan foydalanish budjet mablag‘larining harakatini tezkor monitoring qilish, moliyaviy buzilishlarni erta aniqlash va qaror qabul qilish sifatini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan davlat moliyaviy nazoratining modernizatsiyasi nafaqat tashkiliy yangilanish, balki uning iqtisodiy mohiyatini ham kengaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Davlat moliyaviy nazoratining amaliy ahamiyati, eng avvalo, moliyaviy intizomni mustahkamlashda ko‘rinadi. Budjet mablag‘laridan maqsadsiz yoki samarasiz foydalanish davlat dasturlarining bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ijtimoiy islohotlar samaradorligini pasaytiradi va korrupsiyaviy xavflarni kuchaytiradi. Davlat moliyaviy nazorati esa aynan ana shu xavflarni kamaytirish, budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlash va sarflangan mablag‘larni real ijtimoiy natijaga aylantirishga xizmat qiladi. Shu sababli uni davlat moliyasini boshqarish tizimida strategik institut sifatida baholash ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

Agar masalaga ijtimoiy soha xarajatlari nuqtai nazaridan yondashilsa, davlat moliyaviy nazoratining roli yanada yaqqol ko‘rinadi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, madaniyat va boshqa yo‘nalishlarga ajratilayotgan mablag‘larning oqilona va shaffof sarflanishi fuqarolarning turmush darajasini oshirishga, inson kapitalini rivojlantirishga va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois ijtimoiy xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish nafaqat iqtisodiy samaradorlik masalasi, balki ijtimoiy siyosatning muvaffaqiyati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Mazkur holat tadqiqot mavzusining ilmiy-amaliy dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Umumlashtirib aytganda, davlat moliyaviy nazorati davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida budjet resurslari hamda boshqa markazlashgan moliyaviy fondlarning shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi jarayonida qonuniylik, maqsadlilik, tejamkorlik, shaffoflik va natijadorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks boshqaruv-huquqiy mexanizm hisoblanadi. Uning bugungi kundagi mazmuni qoidabuzarliklarni aniqlash bilan cheklanmay, davlat siyosati va budjet xarajatlarining real samaradorligini baholash, boshqaruv qarorlarini takomillashtirish va moliyaviy resurslardan foydalanish sifatini oshirish bilan belgilanadi. Shu sababli davlat moliyaviy nazoratini bosqichda oddiy nazorat vositasi sifatida emas, balki davlat moliyasini samarali boshqarishning strategik instituti sifatida ko‘rish maqsadga muvofiqdir

BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Xamidjonov Bobirjon Anvarjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola budjet tashkilotlarida ichki audit tizimining ahamiyati, uning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, auditning samarali tashkil etilishi yo‘llarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada ichki auditning maqsad va vazifalari, audit o‘tkazish tamoyillari, xavflarni boshqarish usullari va audit jarayonining asosiy bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, ichki audit tizimi orqali davlat mablag‘larini boshqarish, moliyaviy jarayonlarni takomillashtirish, firibgarlikning oldini olish va resurslardan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, ichki

auditning tashkilot samaradorligini oshirish va shaffof boshqaruvni ta'minlashdagi rolini tahlil qiladi

Kalit so`zlar: Budjet tashkilotlari, ichki audit, audit usullari, samaradorlik, firibgarlikning oldini olish, xavflarni boshqarish, audit jarayoni.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida budjet tashkilotlarida budjet mablag`laridan samarali foydalanishda shonchli ma’lumotlarga ega bo’lishning asosiy quroli bu ichki auditdir. Mamlakatimizda, mustaqil davlat sifatida olib borilayotgan islohatlar o’zining ijobiy natijalarini ko’rsatmoqda, xo’jalik budjet tashkilotlarida texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish va uni kulamini kengaytirish o’ziga xos richak vazifasini o’tamoqda.

Ichki audit tizimi davlat budjeti mablag„larini samarali boshqarish vositasi bo„lib, tashkilotning umumiy faoliyati, moliyaviy barqarorligi va qonunlarga rioya etishini ta‟minlaydi. Shu bilan birga, audit jarayonlari orqali tashkilotdagi operatsion va moliyaviy xatolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Shu jihatdan ichki audit tizimi nafaqat nazorat vositasi, balki tashkilotning strategik rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim mexanizmdir.

Bugungi kunda respublikamizda mavjud davlat moliyaviy nazorati tizimi asosan tashqi moliyaviy nazoratdan iborat bo`lib, vakolatli organlarning alohida bo`linmalari, jumladan, O`zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo`mitasi, Bosh prokuratura, o`z vazifalari doirasida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

Budjet tashkilotlarida ichki auditni samarali joriy etish uchun bir nechta muhim usullar va yondashuvlar qo„llaniladi. Bu usullar ichki audit tizimining amaliyotini takomillashtirish va tashkilotning moliyaviy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Quyida ichki auditni joriy etishning asosiy usullari yoritiladi:

Riskga asoslangan audit - Bu usulda ichki audit tashkilotdagi yuqori xavfli sohalarga e‟tibor qaratadi. Audit rejalari xavflarni baholash asosida tuziladi va tashkilotning moliyaviy barqarorligiga ta‟sir qiluvchi omillar aniqlanadi. Riskga asoslangan yondashuv yordamida auditorlar resurslarni eng xavfli sohalarga yo„naltiradi, bu esa xatoliklar va moliyaviy yo„qotishlarning oldini olishga yordam beradi.

Kompleks audit rejasini ishlab chiqish - ichki audit jarayonini samarali tashkil qilish uchun uzoq muddatli va kompleks audit rejasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunday reja tashkilotning barcha faoliyat sohalarini qamrab oladi va audit rejasida har bir soha uchun alohida maqsadlar, metodologiya va vaqt oralig„i belgilanadi.

Operatsion samaradorlikni oshirish - ichki audit nafaqat moliyaviy jarayonlarni nazorat qiladi, balki operatsion jarayonlarni ham yaxshilashga qaratilgan. Bu usul orqali tashkilotning operatsion faoliyati tekshiriladi va samaradorlikni oshirish yo„llari aniqlanadi. Jarayonlarning soddalashtirilishi va resurslardan oqilona foydalanish orqali tashkilotning umumiy faoliyati yaxshilanadi.

Xulosa qilib aytganda. budjet tashkilotlarida ichki audit tizimi davlat mablag`larining samarali boshqarilishini, tashkilotning moliyaviy barqarorligi va faoliyatining shaffofligini ta`minlashda muhim vositadir. Ichki audit jarayoni tashkilotning moliyaviy axborotlari to`g`riligini tekshirish, xatarlarni boshqarish, qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish va firibgarlikning oldini olish kabi vazifalarni bajaradi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA BUDJET INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHDA SOLIQ NAZORATINI O'RNI.

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii, "Budjet hisobi va g'aznachilik" kafedrasi professori., DSc.
G'afforov Kamronbek Shovkatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii, magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat moliyaviy nazorati tizimida soliq nazoratining o'rni va ahamiyati amaliy jihatdan tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida soliq nazoratini amalga oshirish mexanizmlarining hozirgi holati, mavjud muammolari va ularning fiskal barqarorlikka ta'siri yoritilgan. Shuningdek, soliq ma'murchiligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, riskga asoslangan nazorat tizimlarini rivojlantirish asosida majburiy raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat moliyaviy nazorati, soliq nazorati, soliq ma'murchiligi, fiskal barqarorlik, byudjet daromadlari, raqamli soliq tizimi, markirofkalash.

Kirish.

Hozirgi globallashuv sharoitida davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, ularning shakllanishi va maqsadli sarflanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish har bir mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, budjet intizomini mustahkamlash va fiskal barqarorlikni ta'minlashda davlat moliyaviy nazorati tizimining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda soliq nazorati alohida o'rin tutib, davlat budjeti daromadlarini to'liq va o'z vaqtida shakllantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.[58]

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda soliq tizimini isloh qilish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish va raqamlashtirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hisob-kitob tizimlari, onlayn nazorat-kassa mashinalari, majburiy raqamli markirovkalash kabi mexanizmlarning joriy etilishi soliq nazoratining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq, shunga qaramay,

[58] Xudoyqulov, S. (2016). Davlat moliyaviynazorati. Toshkent: Fan.

ayrim tizimli muammolar, jumladan, yashirin iqtisodiyot ulushi, soliqlardan bo‘yin tovlash holatlari hamda nazorat mexanizmlarining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi mavjud bo‘lib qolmoqda.[59]

Mazkur holatlar davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish, soliq nazoratini va budjet intizomini kuchaytirish masalalarini yuzaga keltiradi.

Soliq nazorati davlat moliyaviy nazoratining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, uning samaradorligi davlat byudjetining to‘liq va o‘z vaqtida shakllanishi, iqtisodiy barqarorlikning ta’minlanishi, shuningdek, soliq tizimining adolatli va shaffof ishlashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli soliq islohotlari soliq tizimini liberallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini ta’minlashga qaratilgan muhim qadamlar sifatida baholanadi.

Ushbu jarayonda soliq nazoratini modernizatsiya qilish masalasi alohida e’tibor markazida bo‘lib, u soliq ma’murchiligi samaradorligini oshirish va soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda soliq nazorati tizimida hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.[60]

Soliq nazoratini yanada kuchaytirishda ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi joriy etildi.

Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta’minlash chora-tadbirlarining huquqiy asoslari yaratilish tarixi quyidagilar:

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” PQ-4389-son qarori;

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4699-son qarori;[61]

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi “Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to’g’risida”gi 737-sonli qarori;

Yuqoridagi qarorlarni umumlashtirishgan holda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi «Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishini ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida»gi 833-sonli qarori qabul qilindi.

[59] Rasulov, A. (2021). Soliq ma’murchiligini takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.
[60] Olimjonov, O. (2017). Soliq tizimi va uning rivojlanish yo‘nalishlari. Toshkent.
[61] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 10-iyun). Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (PQ-4389-son qaror).

Ushbu qarorni ishlab chiqishdan asosiy maqsad 2021-2022 yillarda identifikatsiya vositalari bilan majburiy raqamli markirovkalash talabi joriy qilinadigan mahsulotlar ro'yxati tasdiqlash;

"Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimini joriy etish;

markirovkalanmagan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish yuzasidan tegishli imkoniyatlar "Soliq hamkor" tizimi hamda "Soliq" mobil ilovalarida yaratishni amaliyotga joriy etishdan iborat.

1-jadval

2021-2022 yillarda identifikatsiya vositalari bilan majburiy raqamli markirovkalash talabi joriy qilinadigan mahsulotlar ro'yxati.[62]

№	Mahsulot nomi	TIF TN kodi	Majburiy raqamli markirofkalash boshlanadigan sana
1	Tamaki mahsulotlar	2402 90 000 0	2021-yil 1-yanvar
2	Alkagol mahsulotlar	2204, 2205, 2206, 2207, 2208	
3	Pivo mahsulotlar	2203	2021-yil 1-aprel
4	Maishiy texnika	7321, 8403, 8414, 8415, 8418, 8422, 8423, 8450, 8508, 8509, 8510, 8516, 8518, 8519, 8521, 8525, 8527, 8528, 8539, 8540	2022-yil 15-aprel
5	Dori vositalari va Tibbiy buyumlar	3003, 3004	2022-yil 1-sentyabr
6	Suv va salqin ichimliklar	2009, 2201, 2202	2022-yil 1-oktyabr

Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 833-son qarori asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy qilish maksadi bu biznes nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, mahsulotlarning noqonuniy olib kirishini va ishlab chiqarish hisobiga raqobatni oshirish, real vaqt rejimida o'z mahsulotini muomalasini kuzatib borish imkoniga ega.

[62] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020, December 31). Ayrim turdagi mahsulotlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida (833-son qaror).

Davlat nazarida esa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligi oshirishni ta’minlash, mahsulot bozorini nazorat qilish uchun sarflanadigan davlat budjeti xarajatlarini qisqartirish, mahsulotlarni olib kirilishi va ishlab chiqarilishini real vaqt rejimida kuzatib borish huquqiga ega.

Majburiy raqamli markirovkalash tizimi quyidagi afzalliklarni o’z ichiga oladi:

1. Mahsulolarni muomalaga kiritish va chiqarish, shuningdek, ularni monitoring qilish imkonini beradi;

2. Mahsulotlarni ikki o‘lchamli matritsali, kriptografik algoritmlar asosida himoyalangan shtrixli DataMatrix kodi orqali markalaydi;

3. Ikki o‘lchamli shtrixli kodning xato paydo bo‘lishi ehtimoli 10 million skanerlangan belgiga 1 tadan kam;

4. Markirovkalash va kelgusida kuzatish tizimi elektron hisob - faktura hamda onlayn nazorat kassa mashinalari bilan bog‘lanadi.

Xulosa Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlashda soliq nazorati asosiy rol o’ynaydi. Soliq nazoratining samarali tashkil etilishi davlat budjeti daromadlarining to‘liq va o‘z vaqtida shakllanishini ta’minlaydi, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartiradi hamda fiskal barqarorlikni mustahkamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlari, xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish, onlayn nazorat tizimlari va majburiy raqamli markirovkalash mexanizmlarining tatbiq etilishi soliq nazoratining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, markirovkalash tizimi orqali mahsulotlarning harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratilgani soliq tushumlarining oshishiga va noqonuniy aylanmaning kamayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, soliq nazorati tizimida ayrim kamchiliklar - nazorat mexanizmlarining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi, ayrim sohalarda yashirin iqtisodiyotning mavjudligi va soliq intizomining past darajada ekanligi saqlanib qolmoqda. Bu esa davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu xulosadan kelib chiqqan holda takliflar keltirilgan:

Barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yagona raqamli platforma orqali integratsiyalash va real vaqt rejimida monitoring qilish tizimini rivojlantirish zarur.

Soliq tekshiruvlarini umumiy emas, balki yuqori xavf guruhiga kiruvchi soliq to‘lovchilarga yo‘naltirish orqali nazorat samaradorligini oshirish lozim.

Markirovkalash tizimini yangi turdagi mahsulotlarga bosqichma-bosqich joriy etish va uning ishlash samaradorligini oshirish orqali noqonuniy aylanmani kamaytirish mumkin.

Soliq hisobotlarini topshirish va to‘lovlarni amalga oshirish jarayonlarini yanada qulaylashtirish orqali ixtiyoriy soliq to‘lov darajasini oshirish zarur.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Ro‘ziyeva Maftuna Yusufovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
“Mintaqaviy iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Globallashuv sharoitida davlatimiz iqtisodiyotini tezroq takomillashtirish va liberallashtirish, jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvini jadallashtirish xamda kapital bozorini hamda raqamli iqtisodiyotni yanada taraqqiy ettirish, byudjet dasturlari samaradorligini oshirish ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Tizim faoliyatini yanada takomillashtirish, nazorat qilishga doir qarorlarni qabul qilish, byudjet ijrosi ustidan nazoratni yanada yaxshilash uchun auditorlik faoliyati sifatini oshirish zarur hisoblanadi. Davlat moliyaviy nazorati har qanday mamlakatda davlat mablag‘laridan samarali, maqsadli va shaffof foydalanishni ta’minlashda muhim institutlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda davlat byudjeti hajmining ortib borishi, davlat xarajatlarining murakkablashuvi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish zarurati moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro standartlar asosida davlat moliyaviy nazoratini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Adabiyotlarni tahlil etish jarayonida davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish yo‘llari yuzasidan bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan quyidagicha ta’riflanadi:

A.N.Kozyrinning fikricha, moliyaviy nazorat - bu “... maxsus shakl va usullardan foydalangan holda amalga oshiriladigan davlat organlarining faoliyati, shuningdek, ayrim xollarda moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi va ishonchliligini belgilash vakolatiga ega bo‘lgan nodavlat organlarining faoliyati, moliya-xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini obyektiv baholash, uni oshirish uchun zaxiralarni aniqlash, budjet rentabelligini oshirish va mulkni davlat “qo‘lida” saqlashdir” deb izohlagan.

Matveeva Elena Evgenievna tomonidan “Horzirgi vaqtda davlat moliyaviy nazorati sohasida ushbu sohani rivojlantirish istiqbollarini tavsiflovchi ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Bugungi kunda normativ-huquqiy bazaga ko‘ra, viloyatlar va tumanlar davlat hokimiyati organlari tuzilmasida ichki moliyaviy nazorat funksiyalari yuklatiladigan alohida bo‘linma nazarda tutilmagan. Bu muammolar mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining moliyaviy nazorat samaradorligi va samaradorligini oshirishdan manfaatdor emasligi, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirishning sustkashligi bilan kuchaydi. Agar tashqi va ichki nazorat o‘z vaqtida va xolisona, aniq

tartibga solingan va natijaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi ta’minlanishi mumkin, bu esa muayyan vazifalarning bajarilishini va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishni ta’minlaydi” deb takidlangan.

Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarni va moliya siyosatini amalga oshirish uchuy moliyaviy munosabatlarni boshqarishning vositasi hisoblanadigan samarali davlat moliyaviy nazorat tizimini tubdan takomillashtirishni talab etadi. Ushbu moliyaviy munosabatlarni yaxshilash uchun hukumatimiz tomonidan bir qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevral kungi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-128-son Qarori. qabul qilindi. Qaror bilan qo‘shimcha yuklatilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida “UzASBO” dasturiy ta’minoti va boshqa dasturlardan keng foydalangan holda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi yuzasidan budjet tashkilotlarida monitoring va profilaktika hamda kameral nazorat tadbirlarini keng tadbiq etilmoqda.

Davlat moliyaviy nazorati organlar faoliyati samaradorligini oshirish budjet jarayonining shaffofligini oshirish hamda turli ma’lumotlar bazalardan foydalanish talab etiladi. Davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan masofaviy nazorat va tahliliy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bazasi hajm va tarkib jihatidan juda kengligi sababli zamonaviy axborot texnologiyalari va maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy maxsulotlar vositalarini keng qo‘llashni joriy etishni taqozo etadi.

Shuni aytish mumkinki, nazorat boshqaruv tizimining ajralmas qismidir. Shuningdek, moliyaviy nazoratni moliyaviy menejment funksionalligining bir bo‘lagi deyishimiz mumkin. Bundan kelib chiqib, moliyaviy nazorat tizimi moliyaviy boshqaruv tizimining zaruriy tarkibiy bo‘lagi bo‘lib, u ushbu tizimni qurishning ajralmas tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy nazorat tizimining tarkibiy qismlari.

Davlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadi ishlab chiqarishning barcha sohalarida moliyaviy resurslarni boshqarish amaliyotining davlat moliyaviy siyosatining vazifalariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Davlat moliyaviy nazoratining eng muhim vazifasi davlat organlari va jamiyatni davlat mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish bo‘yicha keng qamrovli va ishonchli axborot bilan ta’minlashdan iboratdir. Bu esa o‘z navabatida mamlakatimizni ham iqtisodiy ham ijtimoiy tomondan rivojlanishiga yordam beradi.

Shunday ekan, o‘tkazilayotgan davlat moliyaviy nazorati tadbirlari natajalari Hisob palatasi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari birinchi navbatda quyidagi yo‘nalishlarda budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga alohida e’tibor qaratishlarini taqazo etadi:

- ❖ budjet tashkilotlarida ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi;
- ❖ ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan ob’ektlarda amalga oshirilayotgan qurilish ishlarini monitoring qilish va ularda nazorat tadbirlarini o‘tkazish;
- ❖ budjet tizimi budjetlaridan to‘lanayotgan subsidiyalarning manzilliligini va samaradorligini baholash;
- ❖ davlat xaridlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish;
- ❖ davlat qarzi va grantlar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalarning natijadorligini o‘rganish.

Shu maqsadda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

- budjet tashkilotlarida budjet mablag‘lari boshqarilishi va budjet hisobi yuritilishini maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida doimiy monitoring qilish;
- masofaviy nazoratni keng ko‘lamda qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma’lumotlar bazasi vositasida tekshirish ob’ektlari va maqsadlarini aniqlash yo‘li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda budjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish.

Xulosa. Davlat moliyaviy nazorati organlariga vazirlik va idoralar bilan real vaqt rejimida axborot almashinuvi orqali budjet qonunchiligini buzish xavfini tahlil qilish maqsadida Moliya vazirligining moliyaviy nazorat ma’lumotlari bazasini ishga tushirish, davlat moliyaviy nazorati obyektining muayyan davr uchun ayrim masalalar bo‘yicha faoliyatini nazorat qilish (mavzuli nazorat) modulini yaratish Davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirishini ta’minlaydi.

OLIYTA’LIM MUASSASALARIDA ILMIY TADQIQOT LOYIHALARI BUXGALTERIYA HISOBI VA NAZORAT SHAKLLARI

Inoyatov Mardonbek Mo‘min o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
Budjet hisobi va g‘aznachilik kafedrasi katta o‘qituvchisi

Oliy ta’lim muassasalarda ilmiy-tadqiqot loyihalari davlat budjeti mablag‘lari, milliy va xalqaro grantlar, xo‘jalik shartnomalari, shuningdek, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishdan olinadigan daromadlar hisobidan moliyalashtiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmonida oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurligi ta’kidlangan . Mazkur holat ilmiy loyihalar bo‘yicha moliyaviy resurslarni loyiha kesimida aniq hisobga olishni talab etadi.

Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan ilmiy-tadqiqot loyihalari bo‘yicha yuzaga keladigan xarajatlar, jumladan, mehnat haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, ijtimoiy ajratmalar, materiallar, xizmatlar, asbob-uskunalar hamda bilvosita xarajatlar alohida hisobga olinadi. Xarajatlarning loyiha kesimida yuritilishi mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlash, shuningdek, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-tadqiqot loyihalarini hisob obyekti sifatida yuritish ularning natijalarini iqtisodiy jihatdan baholash imkonini beradi. Xususan, ilmiy faoliyat natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlari, patentlar, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalar Oliy ta’lim muassasalarning nomoddiy aktivlari sifatida e’tirof etilishi mumkin. Bu esa ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, litsenziyalash va startap loyihalarini rivojlantirish orqali qo‘shimcha moliyaviy resurslarni shakllantirishga zamin yaratadi.

Xalqaro tajribaga ko‘ra, ilmiy-tadqiqot loyihalarining alohida hisob obyektlari sifatida yuritilishi oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Jahon banki va OECD tadqiqotlarida universitetlarda ilmiy loyihalarni hisobga olishning shaffof mexanizmlari ularning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil sifatida qayd etilgan .

T.Barakaevning ta’kidlashicha oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy manbalar bo‘yicha xarajatlar hisobini takomillashtirishga bag‘ishlangan tadqiqotida ilmiy-tadqiqot loyihalarini maqsadli moliyalashtiriladigan faoliyat turi sifatida baholaydi. Muallifning ta’kidlashicha, OTMlarda grantlar, xalqaro dasturlar va boshqa budjetdan tashqari manbalar hisobidan amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalari umumiy xarajatlar tarkibida yo‘qolib ketmasligi, balki alohida hisob obyektlari sifatida yuritilishi lozim .

Barakaev ilmiy-tadqiqot loyihalarini alohida hisob obyektlari sifatida yuritmaslik mablag‘lardan foydalanish samaradorligini baholashni qiyinlashtirishi, shuningdek,

moliyaviy nazoratning zaiflashishiga olib kelishini qayd etadi. Uning fikricha, ilmiy loyihalar bo‘yicha xarajatlar loyiha va moliyalashtirish manbalari kesimida hisobga olinishi ilmiy faoliyatning iqtisodiy natijadorligini oshiradi.

Muallif, shuningdek, ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyaviy boshqarishda ichki nazorat va hisobot mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligini muammo sifatida ko‘rsatadi. U ilmiy loyihalar bo‘yicha xarajatlarni aniq hisobga olish orqali grant mablag‘laridan maqsadli foydalanishni ta’minlash, shaffoflikni oshirish va donorlar oldidagi hisobdorlikni kuchaytirish mumkinligini asoslaydi.

Barakaevning tadqiqotida ilmiy-tadqiqot loyihalarini samarali boshqarish uchun zamonaviy moliyaviy axborot tizimlarini (FMIS) joriy etish, shuningdek, buxgalteriya hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish zarurligi ta’kidlanadi. Bu yondashuv ilmiy loyihalarni rejalashtirish, monitoring qilish va yakuniy moliyaviy natijalarini baholash imkonini beradi.

Husnida Zaylobitdinova innovatsiyalarni oliy ta’lim muassasasining samaradorligini oshirish omili deb ko‘radi va universitetlarda ilmiy izlanishlar orqali yaratilgan natijalarni tijoratlashtirish muhim iqtisodiy rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Bu jarayonda ilmiy-texnik yutuqlar pullik xizmatlar, texnoparklar va startaplar shaklida tijoratlashtiriladi, oliy ta’lim tizimining iqtisodiy “ikkinchi daromad” manbai sifatida paydo bo‘ladi .

Oliy ta'lim muassasalari ish faoliyatining samaradorligini oshirishda innovatsiyalarni tijoratlashtirishning ahamiyati juda katta. Innovatsiyalarni tijoratlashtirish orqali universitetlar, institutlar va boshqa oliy ta'lim muassasalari ilmiy ishlanmalardan foyda olish, iqtisodiy jihatdan mustahkamlanish, va jamiyatga ko‘proq foyda keltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hozirgi vaqtda oliy ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati iqtisodiyot va oliy ta’lim muassasalari (OTM)da ta’lim jarayonlarini, moddiy-texnik salohiyatini modernizatsiyalashning muhim sharti sifatida chiqmoqda va OTMlar ish samaradorligini oshirishning ustuvor omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy o‘quv yurtlari o‘z faoliyatini o‘qitish va tadqiqotlar standart markazlari doirasidan tashqari chiqarib, evolyutsion kechadi. Jamiyatning madaniy taraqqiyoti va universal qadriyatlarining kafolati bo‘lishda davom etgan holda OTMlar ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini tijoratlashtirish, texnologiyalar transferini tashkil qilish va tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish orqali iqtisodiyot real sektori bilan o‘zaro aloqalarni kuchaytiradi.

OTMda innovatsion faoliyat natijalarini ijoratlashtirish amaldagi respublika qonunchiligiga muvofiq, patentni rasmiylashtirish, yuridik va jismoniy shaxslarni innovatsion faoliyat natijalaridan foydalanishga mutloq huquqlarini joriy etish va kichik innovatsion korxonalarni tuzish yordamida buyurtmaga ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorli ishlari (ITTKI) shaklida amalga oshirilishi mumkin. Biroq rasmiy va ekspert ma’lumotlariga ko‘ra, respublikada o‘tkazilayotgan ITTKI natijalarining bor-

yo‘g‘i 0,5% igina sanoat ishlab chiqarishida foydalanilmoqda, ayni vaqtda AQShda ushbu ko‘rsatkich 70% ga yaqinlashgan. Bundan tashqari, milliy amaliyotimizda patentlar va litsenziya shartnomalarini begonalashtirish, shartnomalarning qisqarishibarqaror tendensiyasi kuzatildi. O‘zbekiston texnologik taraqqiy etgan mamlakatlardan “fundamental fan - amaliy fan - texnologiyalarni joriy etish” zanjirida asosiy bo‘g‘in sifatida ITI yo‘qolib ketishi oqibatida tajriba-sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish sur’atlari bo‘yicha ancha ortda qolmoqda. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishni respublika korxonalari jami sonining boryo‘g‘i 1% ga yaqini amalga oshirmoqdalar. Bu esa G‘arb mamlakatlari darajasidan ancha past (masalan, Germaniyada bu daraja 70%ni, Chexiyada 36% ni tashkil etadi). Intellektual faoliyat mahsulotlarini sotishning yuqori ko‘rsatkichlari ushbu mamlakatlarda yaxshi rivojlangan, raqobatbardosh innovatsiyalar bozorining mavjudligidan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda intellektual mulkni tijoratlashtirishning yanada mashhurroq usuli OTM lar huzurida kichik innovatsion korxonalar tuzish hisoblanadi. Ularni tuzishdan maqsad tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini iqtisodiyot real sektori talablariga moslashtirish va ularni keyinchalik, bozorda sotiladigan yangi mahsulotlar va xizmatlarda qoplashdan iboratdir. Bunda OTM shaxsan uning ta’sischisi bo‘lishi hamda ushbu korxonaning ta’sischilaridan biri sifatida boshqa shaxslarni ham jalb qilishi mumkin. 2018 yil 14 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3855-sonli “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi . Ushbu Qaror OTM larga kichik innovatsion korxonalar tuzish, iqtisodiyotning ilmiy-ta’lim va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir samarali mexanizmlarini rivojlantirish imkoniyatini berdi. Biroq kichik korxonalar investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan qonunchilik imkoniyatlariga qaramasdan, kichik korxonalarni tuzishda OTM larning faolligi sezilarli pasaydi.

IQTISODIY O‘SISH VA AHOLINING MODDIY FAROVONLIK O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI BAHOLASH(NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii

Annotatsiya Ushbu tezisda Namangan viloyatining iqtisodiy o‘sishi va aholining moddiy farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks statistik koeffitsiyentlar usuli yordamida baholashning yangicha statistik metodologiyasini taklif etadi. Aholining turmush darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy farovonlikni yuzaga keltirishi, bu esa o‘z navbatida hayot sifati uchun asos bo‘lishi aniqlandi. Tezisda iqtisodiy soha ko‘rsatkichlari va moddiy farovonlik sohasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsiyani

statistik o‘rganish zarurligi ta’kidlanadi.bu esa dispersiyalarning kompleks vaznli koeffitsiyenti asosida o‘rganilayotgan sohalarning bog‘liqlik darajasini baholash usuli ishlab chiqilgan.Bunday yondashuv aholining moddiy farovonligi bilan bog‘liq holda iqtisodiy o‘sishni oshirish bo‘yicha davlat boshqaruvi siyosatining aniq vazifalarini belgilash uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, aholining moddiy farovonligi, dispersiyalarning vaznli koeffitsiyenti, iqtisodiy o‘sish.

Kirish. Aholi farovonligi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda xizmatlar bilan ta’minlanganligi va ularni iste’mol qilish darajasi tushuniladi. Farovonlik darajasini ifodalash uchun “turmush darajasi”, “xalq farovonligi” va boshqa shu kabi turli xil tushunchalar qo‘llaniladi. Aholi farovonligi – aholi ehtiyojlariga, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga, aholining ma’naviy-ma’rifiy saviyasiga, ilmiy-texnik taraqqiyotga va boshqa shu kabi omillarga bog‘liqdir. Aholining farovonligi bir tomondan muntazam o‘zgarib turadigan turli ijtimoiy ne’matlarga bo‘lgan ehtiyojlar tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan esa u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holati, aholi daromadlari bilan belgilanadi. Biroq ish haqi miqdori ham, farovonlik darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari samaradorligining ko‘lami, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma’rifiy saviyasi va milliy xususiyatlariga, shuningdek siyosiy hokimiyatga bog‘liq.

Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy o‘sish va farovonlikni yaxshilash uchun sharoit yaratish imkoniyatini ta’minlaydi, shuning uchun, har bir mamlakat, hudud yoki korxona o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi haqida kompleks baholashga muhtoj.Kompleks statistik koeffitsiyentlar usuli bilan hal qilinadigan asosiy muammolar, ifoda shaklidan qat’iy nazar o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarning qiymatlarini standartlashtirish orqali hududlarni ma’lum bir davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilish bo‘yicha reytingini aniqlashdir.

Bugungi kunda mamlakat va uning hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining absolyut qiymatlari, nisbiy ko‘rsatkichlari yoki statistik va dinamikaning o‘rtacha qiymatlari, yoki dinamika va reja bajarilishi nisbatlarini kompleks statistik baholashning nazariy va amaliy jihatlariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud.Bularga misol, Lewis W,William A,Mansfield,E,Kulynych.O, va. Kulynych.R, Soatov.N,Nabiev.H,Nabiev.D,

Tillaxo‘jayeva.G boshqalarning ilmiy ishlarini keltirishimiz mumkin.

Kompleks statistik koeffitsiyentlar usulining bajarilishiga bir nechta holatlar yordamida yondashish mumkin:

-statistik ma’lumotlar to‘plamlari,korxonalarning moliyaviy ko‘rsatkichlari

-korxonalarning biznes va moliyaviy ko‘rsatkichlari yoki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalarini baholash uchun kompleks indeksni hisoblash;

-hududlar korxonalar yoki tashkilotlar reytingi shkalasini tuzish.

Korxonalarning biznes va moliyaviy ko‘rsatkichlari dispersiyalarining vaznli koeffitsiyentining kompleks baholash indeksi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi

$$K_v = \sum \frac{x_{max} - x_i}{x_{max} - x_{min}} + \sum \frac{x_i - x_{min}}{x_{max} - x_{min}} \quad (1)$$

bu (1)da K_v dispersiyalarning vaznli koeffitsiyentining kompleks baholash indeksini bildiradi; -o‘rganilayotgan ko‘rsatkichning qiymati; x_{max} , x_{min} mos ravishda ko‘rsatkichning maksimal va minimum va qiymati.

Agar x_i=0 bo‘lsa $K_v = 1$ bo‘ladi,agar $x_i = x_{max}$ bo‘lsa, $K_v = 0$ teng u holda qiymatning o‘sish surati ijobiy o‘zgarishni ko‘rsatadi yoki $K_v = 1$ bo‘lsa o‘sish surati salbiy o‘zgarishni ko‘rsatadi,agar $x_i = x_{min}$ bo‘lsa, $K_v = 1$ teng u holda qiymatning o‘sish surati ijobiy o‘zgarishni ko‘rsatadi yoki $K_v = 0$ o‘sish surati salbiy o‘zgarishni ko‘rsatadi, agar dispersiya koeffitsiyenti hududdan hududga (korxona yoki tashkilot) maksimal darajadan (agar qiymatning o‘sish sur’ati ijobiy o‘zgarishni ko‘rsatsa), minimal darajadan (agar qiymatning o‘sish sur’ati salbiy o‘zgarishni ko‘rsatsa) pasayib borsa, kompleks statistik koeffitsiyent kamayadi. Bu koeffitsiyent qanchalik kichik bo‘lsa, boshqaruv darajasi shunchalik samarali va hududning pozitsiyasi yuqori bo‘ladi, agar qiymatning o‘sish sur’ati ijobiy o‘zgarishni ko‘rsatsa, dispersiyalarni hisoblash maksimal daraja x_{max} uchun, agar qiymatning o‘sish sur’ati salbiy o‘zgarishni ko‘rsatsa - minimal qiymat x_{min} uchun amalga oshiriladi[1].

Aholisining moddiy farovonligi va iqtisodiyotga oid bir qator ko‘rsatkichlarning tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.Namangan viloyati tumanlar kesimida reyting qilish maqsadida ko‘rsatkichlar tahlil qilinayotgan sohalarda bloklar bo‘yicha bir necha guruhlarga bo‘lingan.

1-jadval

Real sektor sohasi	**Turmush darajasi sohasi**
• Sanoat • Qishloq xo‘jaligi • Qurilish • O‘rmon xo‘jaligi	• Aholi daromadlari • Aholi xarajatlari • Demografik statistika
Ko‘rsatiladigan xizmatlar sohasi.	**Aholi hayot sifati sohasi**
• Mehnat bozori • Ichki savdo va narxlar • Transport • Investitsiyalar va xalqaro savdo	• Yashash sharoitlari • Ta’lim • Sog‘liqni saqlash • Madaniyat

• Axborotjamiyativa kommunikatsiyalar • Fan va innovatsiyalar	• Dam olish va turizm • Adliya va jinoyatchilik • Atrof-muhit

Aholining moddiy farovonligi mamlakat aholisi turmush darajasining vaqt bo‘yicha miqdoriy-sifat tavsifi sifatida, davlatning ijtimoiy sohadagi siyosati va aholining ishlab chiqarish va iste’mol sohalaridagi iqtisodiy faoliyatining umumlashtirilgan natijasi sifatida aniqlanadi.

Absolyut, intensivlik yoki dinamik qiymatlarning kompleks statistik koeffitsiyentlari quyidagilarga yo‘naltirilgan:

-korxonalar yoki hududlarning biznes va moliyaviy ko‘rsatkichlari natijalarini baholash;

-valyuta kursining barqarorligi va uning ayirboshlash kursi samaradorligini baholash, bu banklar va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi ziddiyatga asoslangan;

-barqaror inson taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlashni baholash;

-iqtisodiy o‘sish va aholining moddiy farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash.

Ko‘rsatkichlarni kompleks baholash printsipi koeffitsiyentlar minimaldan maksimalgacha saralanganda reytinglarni (o‘rinlarni) almashtirishga asoslangan. **Xulosa.** Natijalardan xulosa qilinadiki, kompleks statistik koeffitsiyentlar usuli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni hududlar orasidagi farqlarni taqqoslash uchun qo‘llanilish mumkin.O‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar qiymatlarini standartlashtirish orqali kompleks statistik koeffitsiyentlar usulidan foydalangan holda Namangan hududlarini statistik, dinamika va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish intensivligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha reyting qilish usuli mamlakat va hududiy darajada sodir bo‘layotgan jarayonlarni modellashtirish, tarkibiy o‘zgarishlarning xarakterini topish va uning oqibatlarini bashorat qilish imkonini beradi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUDJET MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISHDA G‘AZNACHILIK NAZORATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

G‘ulomov Baxodir Axmadjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
4-kurs (kunduzgi) bakalavr talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasining hozirgi bosqichdagi budjet islohotlari sharoitida g‘aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazoratning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlashda dastlabki va joriy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish,

sohani raqamlashtirish orqali budjet intizomini mustahkamlash masalalari tahlil qilingan hamda tegishli takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: G‘aznachilik, budjet nazorati, moliyaviy intizom, raqamlashtirish, davlat xaridlari, maqsadli sarf, g‘aznachilik dasturiy majmuasi.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida davlat moliya tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan samarali nazoratni o‘rnatish va shaffoflikni ta’minlash hisoblanadi. Bugungi kunda G‘aznachilik tizimi davlat budjetini ijro etishning samarali va amaliy mexanizmi hisoblanib, unda davlat daromadlari va xarajatlari bo‘yicha barcha operasiyalar G‘aznachilik tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy qism. Hozirgi kundagi g‘aznachilik tizimi yaralashi esa o‘z navbatida bir necha bosqichlarda amalga oshirilib kelingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya tizimini isloh qilish maqsadida:

—2002 yilda g‘aznachilikni tashkil etish ishlari boshlangan va bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish” loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori;

— 2004 yilda “Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, G‘aznachilikning tashkil etilishi va Davlat byudejtining g‘azna ijrosi mexanizmini joriy etilishida muhim bosqichlardan biri bo‘ldi. Keyinchalik ushbu tizimni bosqichma-bosqich kengaytirish orqali 2006-2007 yillarda qolgan 12 hududda amalga oshirildi.

Davlat budjeti g‘azna ijrosining asosiy maqsadi kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish hisoblanadi. Ya’ni barcha daromadlarini yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritishdan, shuningdek Davlat budjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to‘lashdan iborat. Ushbu maqsad sari:

— 2007 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat budjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi mamlakatimizda G‘aznachilik tizimi rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqdi;

— O‘zbekiston Renspublikasi Markaziy bankida 2012 yil 1 yanvardan boshlab ochilgan yagona g‘azna hisobvarag‘i (YAG‘H) joriy qilinib, davlat budjeti mablag‘lari ushbu hisob raqamda jamlandi va to‘lovlar ushbu hisob raqam orqali amalga oshirildi;

— 2016 yilda budjet tizimi budjetlari daromadlari g‘azna ijrosi bilan to‘liq qamrab olinishi natijasida, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish bo‘yicha vakolatli organlarning tijorat banklaridagi hisob raqamlar yopilib to‘g‘ridan-to‘g‘ri yagona g‘azna hisobvarag‘iga undirilishi yo‘lga qo‘yildi.[63] Bu bajarib kelinayotgan barcha ishlar davlat budjeti mablag‘lari ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida olib borilayotganligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasining

[63] O‘zbekiston hukumat portali. www.gov.uz/gazna

“Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta’minlash, ularning mas’uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta’minlashning qo‘shimcha mexanizmlarini yaratish ham vazifa qilib belgilanganligi uchun doimiy ravishda G‘aznachilik dasturiy komplekslarini zamon talablariga moslashtirilgan holatda yangilanib, o‘zgartirishlar kiritib kelinmoqda.[64]

Davlat moliyaviy nazorati 3 bosqichda; dastlabki, joriy va yakuniy nazorat shaklida olib boriladi. Bu jarayonlarda g‘aznachilikning o‘rini alohida ahamiyatga ega va g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan quyidagi moliyaviy nazorat shaklida, ya’ni:

— budjet tashkilotlarining va budjet mablag‘lari oluvchilarning tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko‘rsatuvchilar) bilan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari mablag‘lari hisobiga tuzilgan shartnomalarini xarajatlar smetalarida ko‘rsatilgan summalar doirasida hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq tuzilganligi ustidan nazorat qilish asosida majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish;

— xarajatlar smetalarida va ro‘yxatdan o‘tkazilgan shartnomalarda nazarda tutilgan summalar doirasida budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar nomidan hamda ularning topshirig‘i bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilarning hisobvaraqlariga to‘lovlarni bevosita amalga oshirish orqali to‘lov intizomiga rioya etilishini ta’minlash yo‘li bilan amalga oshiradi.[65]

Raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi natijasida g‘aznachilik tizimida inson omili sezilarli darajada kamaydi. Xususan, davlat xaridlari portali bilan integratsiyalashuv natijasida shartnomalarni ro‘yxatga olish jarayoni shaffoflashdi. Shunga qaramay so‘nggi yillarda zamonaviy axborot texnologiyalarining kirib kelishi, jumladan sun’iy intellektning o‘rni ortib bormoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.06.2025 yildagi PF-105-son Farmoni qabul qilindi va zamonaviy xizmatlar orqali ixcham boshqaruv tizimini joriy etishda qator maqsad va vazifalar belgilab berildi. Xususan:

— 2026-yil 1-iyuldan boshlab g‘aznachilik tizimidagi jarayonlarni avtomatlashtirish hisobiga quyidagilarni nazarda tutuvchi Raqamli g‘azna tizimi joriy etiladi;

— biznes intellekt (Business intelligence) texnologiyalaridan foydalangan holda ma’lumotlarni tahlil qilish, likvidlilikni ta’minlashda qisqa va uzoq muddatli prognozlarni ishlab chiqish hamda sun’iy intellekt texnologiyalari asosida g‘aznachilik operatsiyalarini amalga oshirishda inson omilini kamaytirishga erishish;

— chet el valyutasidagi operatsiyalarni raqamlashtirgan holda amalga oshirish uchun Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimini Butunjahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar hamjamiyati (SWIFT) tizimiga integratsiya qilish;

[64] O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 09.12.2015 yil. O‘RQ-395-son
[65] O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. 26.12.2013 yil. O‘RQ-360-son.

— davlat xaridlari va to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qonunchilik buzilishi bilan bog‘liq moliyaviy xavflarni “E-risk” dasturiy majmuasida avtomatik aniqlash va aniqlangan xavflar asosida ogohlantirish hamda xabardor qilish mexanizmini joriy qilish maqsad qilib olingan.[66]

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston Respublikasida budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan g‘aznachilik nazoratini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tizimni to‘liq raqamlashtirmasdan turib yuqori samaradorlikka erishish imkonsiz. Prezidentimizning 2026-yil 26-iyundagi PQ-105-sonli qarori mazkur yo‘nalishda huquqiy va texnologik inqilob yasadi. Tadqiqotimiz natijasida g‘aznachilik organlari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. “Raqamli g‘azna” tizimida Sun’iy intellekt (AI) imkoniyatlaridan foydalanish. 2026-yil 1-iyuldan joriy etilishi kutilayotgan “Raqamli g‘azna” tizimi doirasida nafaqat ma’lumotlarni yig‘ish, balki Business Intelligence (BI) texnologiyalari yordamida “aqlli nazorat” mexanizmini kuchaytirish lozim. Xususan, sun’iy intellekt algoritmlari orqali shubhali tranzaksiyalarni (masalan, narxlarning asossiz oshirilishi yoki affillangan shaxslar bilan shartnomalar) inson omilisiz, avtomatik tarzda to‘xtatish tizimini (Smart-blocking) joriy etish taklif etiladi.

2. “E-risk” dasturiy majmuasini takomillashtirish. Davlat xaridlari va to‘lov operatsiyalarida moliyaviy xavflarni aniqlashda “E-risk” tizimining qamrovini kengaytirish zarur. Tizim nafaqat sodir bo‘lgan qonunbuzarlikni qayd etishi, balki Predictive Analytics (bashoratli tahlil) yordamida ehtimoliy xavf-xatarlar haqida g‘aznachilik xodimlarini va budjet tashkilotlarini oldindan ogohlantirishi maqsadga muvofiq.

3. SWIFT tizimi bilan integratsiya va xalqaro shaffoflik. Chet el valyutasidagi operatsiyalarni SWIFT tizimiga integratsiya qilinishi xalqaro moliya institutlari oldida O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi. Bunda barcha valyuta o‘tkazmalarini xalqaro audit standartlariga muvofiq avtomatlashtirish valyuta chiqib ketishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlaydi.

4. Kadrlar salohiyatini yangi bosqichga ko‘tarish. Qarorga muvofiq shtat birliklarining maqbullashtirilishi munosabati bilan, qolgan g‘aznachilik xodimlarini oddiy operatorlikdan “Data-analyst” (ma’lumotlar tahlilchisi) darajasiga qayta tayyorlash lozim. Ularning IT-audit va moliyaviy tahlil yo‘nalishidagi ko‘nikmalarini rivojlantirish g‘aznachilik nazorati sifatini tubdan yaxshilaydi.

5. Idoralararo integratsiyani chuqurlashtirish. G‘aznachilik va Pensiya jamg‘armasi ma’lumotlar bazasini MIB, Oliy ta’lim vazirligi va Mudofaa vazirligi tizimlari bilan real vaqt rejimida (online) bog‘lash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari

[66] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.06.2025 yildagi PF-105-son.

uchun “proaktiv xizmat” ko‘rsatish ko‘lamini oshiradi. Bu o‘z navbatida qog‘ozbozlikni kamaytirib, budjet tizimida byurokratiyani butunlay bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, PQ-105-sonli qarorda belgilangan vazifalarning to‘liq va sifatli ijro etilishi O‘zbekistonda budjet intizomini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu nafaqat davlat mablag‘larini iqtisod qilish, balki aholining davlat moliya tizimiga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlashning eng muhim kafolatidir.

Oliy ta’lim muassasalari media imijini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda raqamli texnologiyalar va intellektual platformalardan foydalanish yo‘nalishlari tahlili

Nazarov G‘ulom Akmal o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Email: g_nazarov@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida media imijini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda raqamli texnologiyalar va intellektual platformalardan foydalanish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli platformalarning OTM moliyaviy ekotiizmasidagi uch asosiy funksiyasi - resurslarni monitoring qilish, yangi moliyaviy manbalar jalb etish va muassasa brendini mustahkamlash - ko‘rib chiqilgan. LMS, CRM, SI tahlil platformalari, AR/VR va SEO vositalarining moliyaviy samaradorligi ROI ko‘rsatkichlari asosida qiyosiy tahlil etilgan. Moliyalashtirish manbalari tuzilmasi hamda KPI indikatorlari tizimi ishlab chiqilgan. Xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston OTMlari uchun raqamli ko‘nikmalar bo‘shlig‘i, kiberxavfsizlik va investitsiya qaytimini baholash muammolari aniqlangan va tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: media imij, raqamli texnologiyalar, intellektual platformalar, EdTech, moliyaviy ta’minot, ROI, KPI, LMS, CRM, oliy ta’lim muassasalari, brend kapital, xususiy-davlat hamkorligi, kontent marketing, SEO, O‘zbekiston.

Abstract. This article analyses the directions of using digital technologies and intellectual platforms in financially supporting the media image of higher education institutions (HEIs). The study examines three core functions of digital platforms within the financial ecosystem of HEIs: resource monitoring and allocation, attracting new financial sources through enhanced external engagement, and reinforcing institutional brand identity in the digital environment. A comparative ROI-based analysis of the financial effectiveness of LMS, CRM, AI-analytics platforms, AR/VR, and SEO tools is presented. A financial source structure and a KPI indicator framework for evaluating digital media image performance have been developed. Drawing on international experience, key challenges for Uzbekistan's HEIs are identified - including the digital skills gap, cybersecurity risks, and difficulties in assessing long-term investment returns - and corresponding policy

recommendations are formulated.

Keywords: media image, digital technologies, intellectual platforms, EdTech, financial support, ROI, KPI, LMS, CRM, higher education institutions, brand capital, public-private partnership, content marketing, SEO, Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье проанализированы направления использования цифровых технологий и интеллектуальных платформ в финансовом обеспечении медиаимиджа высших учебных заведений (ВУЗов). В исследовании рассмотрены три ключевые функции цифровых платформ в финансовой экосистеме ВУЗов: мониторинг и распределение ресурсов, привлечение новых источников финансирования через расширение внешней коммуникации, а также укрепление институционального бренда в цифровой среде. Проведён сравнительный анализ финансовой эффективности LMS, CRM, платформ на базе искусственного интеллекта, AR/VR и SEO-инструментов по показателям ROI. Разработаны структура источников финансирования и система KPI-индикаторов для оценки эффективности цифрового медиаимиджа. На основе международного опыта выявлены ключевые проблемы для ВУЗов Узбекистана - дефицит цифровых компетенций, риски кибербезопасности и сложность оценки долгосрочной отдачи от инвестиций - и сформулированы соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: медиаимидж, цифровые технологии, интеллектуальные платформы, EdTech, финансовое обеспечение, ROI, KPI, LMS, CRM, высшие учебные заведения, брендовый капитал, государственно-частное партнёрство, контент-маркетинг, SEO, Узбекистан.

KIRISH

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir davrda oliy ta’lim muassasalari (OTM) institutsional imijini shakllantirishda raqamli muhit hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli platforma va intellektual tizimlar nafaqat ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, balki muassasaning ijtimoiy obro‘si, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy vositasiga aylanib bormoqda. 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, global EdTech bozori hajmi 169,2 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lib, 2029-yilga borib 395 milliard dollardan oshishi prognoz qilinmoqda [1]. Bu ko‘rsatkich jahon ta’lim sektorida raqamli transformatsiyaning moliyaviy ulushi qanchalik katta ekanligini yaqqol aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mavzu bo‘yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar va OTM media imijini moliyaviy ta’minlash masalasi turli aspektlarda o‘rganilgan: platformaviy iqtisodiyot va ma’lumot rentasi nazariyasi (Komljenovic, 2021-2024), raqamli ekotizim va moliyaviy barqarorlik (Zhao va Yang, 2024), raqamli media kanallarining ta’lim tizimidagi ahamiyati (Klein, 2023), global EdTech bozori prognozlari (Grand View Research, 2025; Research and Markets, 2025), OTMlar marketing byudjeti va

ROI tahlili (SimpsonScarborough, 2022; Sixthcity Marketing, 2025; Amra & Elma, 2025; Encoura, 2023; Noetic Marketer, 2026), ta’limda sun’iy intellekt va raqamli siyosat (UNESCO, 2023; HolonIQ, 2025) - ushbu manbalar majmuasi mazkur dissertatsiyaning nazariy va empirik asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan: mavzu bo‘yicha xalqaro va milliy adabiyotlarni o‘rganishda qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodi; raqamli platformalarning moliyaviy samaradorligini baholashda ROI tahlili va korrelyatsion tahlil Metodi, OTMlarning raqamli faollik darajasini o‘lchashda muallif tomonidan ishlab chiqilgan OTMIII integral indeksi metodologiyasi, ijtimoiy tarmoqlar va veb-sayt ko‘rsatkichlarini baholashda Webometrics va platforma analitikasi ma’lumotlari asosida monitoring Metodi, moliyalashtirish manbalarini o‘rganishda esa xalqaro hisobotlar va statistik ma’lumotlar asosida statistik-taqqoslama tahlil metodi qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu metodlar majmuasi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi.

Tahlil va natijalar.

Raqamli texnologiyalar OTMlar moliyaviy boshqaruvida uchta asosiy funksiyani bajaradi: birinchidan, resurslarni samarali taqsimlash va monitoring qilish; ikkinchidan, tashqi auditoriya bilan muloqotni kuchaytirish orqali yangi moliyaviy manbalar jalb qilish; uchinchidan, muassasa brendini raqamli muhitda mustahkamlash va himoya qilish. Komljenovic ta’kidlaganidek, raqamli platformalar oliy ta’lim muassasalari uchun yangi turdagi kapital - ma’lumot rentasi hosil qilish imkoniyatini yaratmoqda [2]. Ushbu holat OTMlarni an’anaviy moliyalashtirish sxemalaridan farqli ravishda, iqtisodiyot tamoyillari asosida faoliyat ko‘rsatishga undamoqda. Bir so‘z bilan aytganda, raqamli platforma - bu faqatgina texnologik vosita emas, balki yangi moliyaviy resurslar manbasi hisoblanadi. Zhao va Yang tomonidan o‘tkazilgan ekotizim nazariyasiga asoslangan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashgan OTMlar davlat, biznes va akademik sheriklik subyektlari bilan yangi hamkorlik formatlarini yaratib, moliyaviy barqarorlikni sezilarli darajada oshirmoqda [3].

1-jadval

Raqamli marketing va media imij: Asosiy miqdoriy indikatorlar

□ EdTech bozori (2024)	**$169,2 mlrd**	Global EdTech bozori yillik hajmi
□ Raqamli budget	**70%**	OTMlarning 70% 2024-yilda

o'sishi		raqamli marketing budjetini oshirdi
□ Virtual kontent ustunligi	**72%**	Abituriyentlarning 72% virtual tur va video kontentni afzal ko'radi
□ SI-tahlil ROI ko'rsatkichi	**1 : 5,2**	AI-platforma har 1 dollar sarfga 5,2 dollar daromad qaytaradi
□ SEO trafik ulushi	**46%**	Highered saytlarida organik qidiruv trafikining ulushi

OTMlar media imijini shakllantirishda qo‘llanilayotgan intellektual platformalar bir nechta asosiy guruhga bo‘linadi va ularning har biri alohida moliyaviy ta’sir mexanizmiga ega [4]:

- Ta’limni boshqarish tizimlari (LMS) - Moodle, Canvas, Blackboard kabi platformalar ichki ta’lim sifatini ta’minlaydi va tashqi auditoriyaga muassasa innovatsiyaviyligini namoyish etadi;
- Mijozlar bilan munosabat tizimi (CRM) - talabalarni jalb qilish jarayonini avtomatlashtiradi va personallashtirilgan muloqot orqali muassasa imijiga ijobiy hissa qo‘shadi;
- Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili platformalari - talabalar xulq-atvori, bozor tendensiyalari va raqobat muhitini real vaqtda tahlil qilib, marketing qarorlarini optimallashtirishga xizmat qiladi;
- Ijtimoiy media va kontent platformalari - muassasaning raqamli auditoriyasini kengaytirib, brend kapitalini oshiradi;
- AR/VR texnologiyalari - kampusni dunyo bo‘ylab potentsial talabalar uchun ochiq ko‘rsatib, aralashtiruvchi raqamli tajriba yaratadi.

Ushbu platformalarning moliyaviy samaradorligini qiyosiy tahlil qilish maqsadida quyidagi jadval taqdim etilmoqda.

Raqamli platforma va media imij loyihalarini moliyalashtirish OTMlar uchun

murakkab, ko‘p qatlamli masala bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, moliyaviy ta’minotning barqaror tizimini qurishda turli manbalarning maqsadli uyg‘unlashtirish zarur [5].

AQSHning yirik universitetlari tajribasiga ko‘ra, Purdue universiteti 2023-yilda marketing va media imijga jami 140 million dollardan ortiq mablag‘ sarflagan [6]. SimpsonScarborough tadqiqotiga ko‘ra (2023-yil), 3000 dan kam talaba o‘qiydigan kichik universitetlar o‘rtacha 1,3 million dollar marketing byudjeti bilan faoliyat ko‘rsatmoqda. Xalqaro amaliyotni o‘rganish asosida OTMlarda media imijni moliyaviy ta’minlashning quyidagi manba tuzilmasi aniqlandi. Xususiy-davlat hamkorligi modeli OTMlar uchun eng samarali moliyalashtirish mexanizmlaridan biri sifatida ajralib turishini alohida ta’kidlash lozim. Ushbu model doirasida texnologiya kompaniyalari OTMlarga raqamli infratuzilma, platforma va marketing vositalari bilan ta’minlaydi, muassasa esa o‘z navbatida brend kuchini, akademik e’tiborni va malakali kadrlar bazasini taklif etadi [7]. Natijada ikkala tomon o‘zaro manfaatli hamkorlik orqali moliyaviy yukni minimallashtirib, media imij samaradorligini oshira oladi.

3-jadval

OTM media imijini moliyaviy ta'minlash manbalari tuzilmasi

Moliyalashtirish manbai	Ulushi (xalqaro o‘rtacha)	Samaradorlik darajasi
Byudjet mablag‘lari (davlat)	38-55%	o‘rta
To‘lov-kontrakt daromadlari	20-30%	yuqori
Xususiy sheriklik / PPP	10-18%	juda yuqori
Grantlar va xalqaro loyihalar	8-15%	yuqori
Endowment va xayriya	5-12%	o‘rta

OTM media imijini raqamli qo‘llab-quvvatlashda moliyaviy resurslar sarfining samaradorligini o‘lchash uchun aniq miqdoriy ko‘rsatkichlar - KPI (Key Performance Indicators) tizimini joriy etish zaruriyati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, raqamli marketing kampaniyalarida KPI tizimiga ega bo‘lgan OTMlar bo‘lmagan muassasalarga nisbatan 2,3 barobar yuqori moliyaviy samaradorlikka erisha olmaqda [8]. Grand View Research ma’lumotlariga ko‘ra, global EdTech bozorining 2025-yilda 187 milliard dollarni tashkil etishi va 2033-yilga borib 437,5 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bunda bulut-asosli yechimlar eng tez rivojlanuvchi segment hisoblanib, yillik 15,9% o‘sish sur’atini ko‘rsatmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, muvaffaqiyatli OTM media imij strategiyalari raqamli texnologiyalar va moliyaviy boshqaruvning organik integratsiyasiga asoslanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, muvaffaqiyatli OTM media imij strategiyalari raqamli texnologiyalar va moliyaviy boshqaruvning organik integratsiyasiga asoslanadi - ya’ni raqamli platforma va kontent vositalariga yo‘naltirilgan har bir moliyaviy qaror muassasaning uzoq muddatli institutsional maqsadlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilgandagina haqiqiy samaradorlikka erishiladi. Quyida OTM media imijini raqamli platformalar orqali baholashning asosiy indikatorlari tizimlashtirilib taqdim etiladi:

4-jadval

OTM raqamli media imijini baholash KPI indikatorlari tizimi

KPI - Asosiy ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Izoh
Veb-sayt organik trafik ulushi	46% (2023-2024)	Highered saytlari bo‘yicha
Ijtimoiy media orqali qidiruvchi abituriyentlar	50%+	5+ platforma ishlatadi
Virtual tur va video kontent ishtiyoqi	72%	An’anaviy broshyuraga nisbatan ustunlik

KPI - Asosiy ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Izoh
AI va SEO marketing xarajati samaradorligi	ROI 1:5.2	SI tahlil platforma bo‘yicha
Raqamli marketing budjetini oshiruvchi OTMlar	70%	2024-yilda
Chatbot foydalanuvchi o'sishi (talabalar)	17% → 32%	So‘nggibir necha yil ichida

Ushbu indikatorlar tizimi OTM rahbariyatiga nafaqat joriy holat haqida ma’lumot beradi, balki kelajak strategiyasini aniq moliyaviy prognozlar asosida shakllantirishga imkon yaratadi. Biroq bu jarayonda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular O‘zbekiston OTM tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Birinchi muammo - raqamli sohaga investitsiya qilishning qisqa muddatli va uzoq muddatli samarasini to‘g‘ri baholash qiyinchiligi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, raqamli marketing investitsiyalarining to‘liq natijasi odatda 18-36 oy ichida ko‘zga tashlanadi, vaholanki ko‘pgina OTMlar moliyaviy samaradorlikni 3-6 oy doirasida kutadi [9]. Ikkinchi muammo - raqamli ko‘nikmalar bo‘shlig‘i. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlar OTMlarida pedagoglarning 52% dan ortig‘i interaktiv raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatidan mahrum, bu esa raqamli media imij strategiyalarini amalga oshirishda jiddiy to‘siq yaratmoqda [10]. Uchinchi muamlo - ma’lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik. Raqamli platformalar keng joriy etilgan sari talabalar va muassasa ma’lumotlarini himoya qilish muammosi keskinlashmoqda. Bunday sharoitda FERPA va GDPR kabi xalqaro standartlar talablariga muvofiq tizimlar joriy etilmasa, OTM imiji aksincha zarar ko‘rishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar va intellektual platformalar OTM media imijini shakllantirishda moliyaviy vosita sifatida tobora muhim o‘rin egallayotir.

Ushbu jarayonda quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

- SI asosidagi tahlil platformalari eng yuqori moliyaviy samaradorlikni ta’minlaydi, shuning uchun OTMlar birinchi navbatda ana shu sohaga investitsiya jalb etishi lozim;
- Moliyaviy ta’minotni diversifikatsiya qilish - davlat byudjeti, xususiy sheriklik va xalqaro grantlarni uyg‘unlashtirish - raqamli media imij barqarorligining asosi hisoblanadi;
- KPI indikatorlari tizimini joriy etmasdan turib, raqamli media imij xarajatlarining maqsadliligini ta’minlab bo‘lmaydi; shu sababli har bir OTM uchun maxsus o‘lchov tizimi ishlab chiqilishi talab etiladi;
- O‘zbekiston OTMlari uchun xalqaro standartlarga muvofiq raqamli media imij moliyaviy ta’minot mexanizmini qayta ko‘rib chiqish va yangi tartibga solish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Komljenovic, J. (2021). The rise of education rentiers: Digital platforms, digital data and rents. Learning, Media and Technology, 46(3), 320–332. https://doi.org/10.1080/17439884.2021.1891422
2. Komljenovic, J. (2022). The future of value in digitalised higher education: Why data privacy should not be our biggest concern. Higher Education, 83(1), 119–135. https://doi.org/10.1007/s10734-020-00639-7
3. Komljenovic, J., Birch, K., & Sellar, S. (2023). Strengthening EdTech in Higher Education: Policy Recommendations and Principles 1.0. https://doi.org/10.5281/zenodo.10092259
4. Komljenovic, J., Hansen, M., Sellar, S., & Birch, K. (2024). Edtech in Higher Education: Empirical Findings. Centre for Global Higher Education. https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/01596306.2024.2408397
5. Zhao, Y., & Yang, Z. (2024). Research on collaborative innovation optimization strategies for digitally enabled higher education ecosystems. PLOS ONE. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0302285
6. Klein, C. (2023). Understanding the relevance of digital media in higher education. International Journal of Technology in Education and Science (IJTES), 7(1), 71–82. https://www.researchgate.net/publication/368593121
7. Grand View Research. (2025). Education Technology Market Size | Industry Report, 2033. https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/education-technology-market
8. Research and Markets. (2025). EdTech Global Market Forecast Report 2025. https://finance.yahoo.com/news/edtech-global-market-forecast-report-092100658.html
9. SimpsonScarborough. (2022). Mean marketing budgets for traditional vs. digital media of higher education institutions. Statista. https://www.statista.com/statistics/1296788
10. Sixthcity Marketing. (2025). 60+ Statistics on Higher Ed Marketing Strategies for 2026. https://www.sixthcitymarketing.com/2024/04/05/higher-education-marketing-stats/
11. Amra and Elma LLC. (2025). Top 20 University Marketing Statistics 2025. https://www.amraandelma.com/university-marketing-statistics/

12. Encoura. (2023). 2024 Digital Marketing Trends for Higher Education. https://www.encoura.org
13. Noetic Marketer. (2026). How Can Universities Create an Effective Higher Education Marketing Budget? https://www.noeticmarketer.com/blog/guide-to-higher-education-marketing-budgets
14. Engineerica. (2026). Best Higher Education Marketing Strategies for 2026. https://www.engineerica.com/academic-centers/post/higher-education-marketing-strategies/
15. UNESCO. (2023). AI and Education Guidance for Policy-makers. Paris: UNESCO. https://www.holoniq.com/notes/2025-global-education-outlook
16. HolonIQ. (2025). 2025 Global Education Outlook. https://www.holoniq.com/notes/2025-global-education-outlook

DAVLAT BUDJETIXARAJATLARIHISOBI VATAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

Tursinbaev Gafur Jolmurzaevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda davlat budjeti xarajatlari hisobi va ularni tahlil qilish tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Hisob va tahlil jarayonlarini modernizatsiya qilish orqali byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash, davlat moliyaviy boshqaruvining shaffofligi va natijadorligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hamda xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, ilg‘or yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot yakunida davlat budjeti xarajatlari hisobi va tahlilini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, budjet xarajatlari, budjet hisobi, moliyaviy tahlil, iqtisodiy samaradorlik, davlat moliyasi, xalqaro tajriba

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri davlat moliya boshqaruvini takomillashtirish, xususan, budjet xarajatlari hisobini va tahlilini zamonaviy talablarga moslashtirishdan iboratdir [1]. Davlat budjeti xarajatlari nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta’minlovchi asosiy moliyaviy mexanizmdir. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda budjet xarajatlarini faqat hisobga olish emas, balki ularni natijadorlik va samaradorlik nuqtai nazaridan baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda budjet xarajatlarini boshqarish tizimi natijaga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilgan [2]. O‘zbekistonda esa bu borada sezilarli islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, tahliliy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Xalqaro amaliyotda budjet xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirishda “natijaga yo‘naltirilgan budjetlash” (Performance-Based Budgeting) tizimi keng qo‘llaniladi .

Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organization for Economic Cooperation an Developmen (OECD)) tadqiqotlariga ko‘ra, ushbu yondashuv davlat xarajatlarini aniq maqsad va natijalar bilan bog‘lash orqali resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi [2]. Xalqaro valyuta fondi (International Monetary Fund (IMF)) ekspertlari fiskal shaffoflikni oshirish orqali budjet intizomini mustahkamlash mumkinligini ta’kidlaydi [3]. Jahon banki (World bank) tadqiqotlarida esa davlat xarajatlarini tahlil qilishda “Public Expenditure Review” metodologiyasining ahamiyati alohida qayd etilgan.

Xorijiy olimlardan R. Allen, D. Diamond va M. Robinsonlar davlat moliyasini boshqarishda hisob va tahlil tizimlarining integratsiyasi zarurligini ilmiy asoslab bergan. Ularning fikricha, samarali budjet boshqaruvi uchun moliyaviy hisobotlar real vaqt rejimida tahlil qilinishi lozim.

Mahalliy olimlardan B.K. Hamdamov va A.A. Ostonokulov budjet nazorati va hisob tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni kuchaytirish mumkinligini ta’kidlaydi. Shuningdek, M. Karimova va A. Xudoyberganovlar ochiq budjet tizimi orqali shaffoflikni oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratadi.

Umuman olganda, xalqaro va milliy ilmiy tadqiqotlar davlat budjeti xarajatlari hisobi va tahlili tizimini takomillashtirish davlat moliyasini samarali boshqarishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois ushbu yo‘nalishda mavjud ilmiy qarashlarni o‘rganish, ularni milliy budjet tizimi amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish hamda davlat budjeti xarajatlari hisobi va tahlilining amaldagi tizimini yanada takomillashtirish masalalari dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda davlat budjeti xarajatlari hisobi tizimi izchil rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, u asosan an’anaviy yondashuvga tayanadi va xarajatlar samaradorligini baholash mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan. Xususan, budjet mablag‘larining natijadorlik asosida tahlil qilinishi, ularni aniq maqsad va indikatorlar bilan bog‘lash amaliyoti cheklangan darajada qo‘llanilmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro tajribada keng qo‘llanilayotgan natijaga yo‘naltirilgan budjetlash hamda davlat xarajatlarini kompleks tahlil qilish usullari milliy amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etilayotgan bo‘lsa-da, ularning institutsional va metodologik asoslari hali to‘liq takomillashmagan. Tadqiqot natijalari davlat xarajatlari ustidan monitoring va nazorat tizimini kuchaytirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida real vaqt rejimida tahlil yuritish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud holat davlat budjeti xarajatlari hisobi va tahlilini natijadorlik, shaffoflik va samaradorlik tamoyillari asosida yanada rivojlantirish zaruratini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda davlat budjeti xarajatlari hisobi va tahlili tizimi so‘nggi yillarda rivojlanish bosqichida bo‘lsa-da, uning samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator muammolar mavjud [1]. Xususan, mavjud tizimda asosiy e’tibor xarajatlarni hisobga olishga qaratilgan bo‘lib, ularning natijadorligini baholash mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan. Shu bilan birga,

xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilayotgan yondashuvlar milliy tizimga joriy etilayotgan bo‘lsa-da, ularning to‘liq va samarali ishlashi uchun institutsional hamda metodologik asoslarni takomillashtirish zarur.

Fikrimcha, davlat budjeti xarajatlari hisobi va tahlili davlat moliyasini samarali boshqarish, budjet mablag‘laridan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Shu bois, budjet xarajatlari hisobini va ularni tahlil qilish tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni keltirib o‘tish joiz:

1. Davlat budjeti xarajatlarini natijadorlik asosida rejalashtirish va baholash tizimini keng joriy etish, ya’ni har bir xarajat yo‘nalishi uchun aniq indikatorlar va KPI ko‘rsatkichlarini belgilash orqali samaradorlikni oshirish zarur.

2. Budjet xarajatlarini kompleks tahlil qilishda “Public Expenditure Review” (PER) metodologiyasidan keng foydalanish, ya’ni xarajatlarning tarkibi, maqsadliligi va samaradorligini muntazam baholab borish tizimini shakllantirish lozim.

3. Davlat budjeti ijrosi ustidan shaffoflik va nazoratni kuchaytirish maqsadida raqamli texnologiyalar asosida real vaqt rejimida monitoring tizimini joriy etish hamda jamoatchilik nazoratini kengaytirish zarur, deb hisoblayman.

Yuqoridagi takliflar amaliyotda qo‘llanilsa, davlat budjeti xarajatlari hisobi va tahlili tizimining samaradorligi oshadi, budjet mablag‘laridan foydalanishda shaffoflik ta’minlanadi hamda davlat moliyasini boshqarish yanada takomillashadi.

O`ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI TARKIBI VA KLASSIFIKATSIYASI

Xalilova Shoxsanam G`ayrat qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii v.b., dotsenti PhD

Budjet ijrosining mohiyati va afzalliklari daromadlarning kelib tushishi va xarajatlarning amalga oshirilishini barqarorlashtirishdan iborat. Ushbu jarayon Davlat budjetining kassa ijrosini rejalashtirish va boshqarishning murakkab tizimini o‘zida mujassam etadi va o‘z navbatida, Davlat budjeti ijrosini rejalashtirish mexanizmini talab etadi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish tizimi orqali iqtisodiy munosabatlarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Davlatning o‘z vazifa va funksiyalarini bajarishga hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga imkon beradigan vositalardan biri Davlat budjetidir.

jamg‘armalarining samarali ijrosi davlat yuritayotgan siyosatning muvaffaqiyatli bo‘lishi imkoniyatini beradi.

Davlat budjetining kassa (tushumning haqiqatda tushishi va mablag‘ning xaqiqatda chiqishi) ijrosi mamlakat zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni ijro etishning muhim mexanizmi hisoblanib, G‘aznachilik tizimida budjetning kassa ijrosi Yagona (YaG‘H) yoki hududiy g‘azna hisobvaraqlariga pul tushumlari va undan amalga oshirila-digan xarajatlar moliyaviy jarayonlarinio‘z ichiga oladi. Budjet kassa ijrosining mohiyati va afzalligi daromadlarning kelib tushishi va xarajatlarning amalga oshirilishini barqarorlashtirishdan iborat. Ushbu jarayon Davlat budjetining kassa ijrosini rejalashtirish va boshqarishning murakkab tizimini o‘zida mujassam etadi va, o‘z navbatida, Davlat budjeti ijrosini rejalashtirish mexanizmini talab etadi.

Davlat budjetini tashkil etish bilan bog’liq bo’lgan munosabatlar majmuiga (uning ichki bo’linmalari tarkibi va tuzilmasi, ulardan foydalanish sohalarining funktsional cheklanganligi, o’zaro bo’ysunuvchanligi, o’zaro aloqadorligi va ta’sirchanligi hamda huquqiy tomonlarini inobatga olgan holda) budjet tuzilmasi deyiladi. Har bir mamlakatning budjet tuzilmasi uning milliy-davlat yoki ma’muriyhududiy tuzilishi bilan belgilanadi.

O’zbekiston Respublikasining Davlat budjeti:

- Respublika budjetini;
- Qoraqalpog’iston Respublikasi budjetini va mahalliy budjetlarni o’z ichiga oladi.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasining Davlat budjeti tarkibida davlat maqsadli jamg’armalari jamlanadi. O’z navbatida, Qoraqalpog’iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika budjetini hamda shu respublikaga bo’ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o’z ichiga oladi. Viloyatlar budjeti esa viloyat budjetidan, viloyatga bo’ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlaridan iboratdir. Shuningdek, tumanlarga bo’linadigan shaharlarning budjeti shahar budjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlarini o’z ichiga oladi. Va nihoyat, tumanga bo’ysunadigan shaharlari bo’lgan tumanning budjeti tuman budjetidan va tuman bo’ysunuvidagi shaharlar budjetlaridan tarkib topadi. Davlat budjetining daromadlari va xarajatlari o’zlarining manbalari, ma’lum maqsadlarga mo’ljallan-ganligi va boshqa belgilariga ko’ra xilma-xildir. Bir vaqtning o’zida ular umumiy belgilarga ham ega.

Butun mamlakat miqyosida budjet daromadlari va xarajatlarining to’g’ri rejalashtirilishi va hisobga olinishini ta’minlash uchun ular klassifikatsiya qilinadi. Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlari, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlarga ajratishda yoki guruhlashda budjet klassifikatsiyasi muhim rol o’ynaydi. Undan Davlat budjetini tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish va ijro etish maqsadida budjet ma’lumotlarini yagona bir tizimga keltirish uchun foydalaniladi va budjet klassifikatsiyasi budjet ma’lumotlari xalqaro

tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan taqqoslanishi-ni ta'minlaydi. Shu ma'noda, ma'lum bir tizimga keltirilgan va o'rnatilgan tartibda kod (shifr)lashtirilgan budjet daromadlari va xarajat-larining bir xil belgilari bo'yicha ilmiy asoslangan iqtisodiy guruhlanishiga budjet klassifikatsiyasi deyiladi.

Davlat budjeti daromadlarining klassifikatsiyasi ularni turlari va manbalari bo'yicha guruhlashdan iborat. Bunda tarmoq va vazirlik (rahbarlik organi) belgilari inobatga olinishi mumkin. Odatda, bunda daromadlar budjet klassifikatsiyasiga muvofiq bo'linmalar, boblar, paragraflar va moddalarga bo'linadi. Bo'linmalar – daromadlarning alohida turlarini, boblar – daromadlarni to'lovchilarni, paragraflar – daromadlarni to'lovchilarning toifalarini, moddalar esa – jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlarning alohida turlarini ko'rsatishi mumkin.

STRENGTHENING BUDGET DISCIPLINE AND IMPROVING THE EFFICIENCY OF BUDGET EXPENDITURES THROUGH BUDGETARY AND TAX POLICY MECHANISMS

Makhamadalieva Makhliyokhon Makhamadmurod qizi
Tashkent State University of Economics, PhD student,

Strengthening budget discipline and improving the efficiency of public expenditures are among the most important priorities of modern public financial management systems. In the context of increasing fiscal pressures, limited public resources, and the need to ensure sustainable economic growth, governments are required to enhance the effectiveness of budgetary and tax policy mechanisms. This study examines the role of budget discipline in improving the efficiency of budget expenditures, with particular emphasis on financial control, fiscal rules, and the coordination between budgetary and tax policies.

Budget expenditures represent a key instrument for implementing socio-economic policies and ensuring the provision of public goods and services. In Uzbekistan, public expenditures are primarily directed toward strategic sectors such as education, healthcare, infrastructure, and social protection. The effectiveness of these expenditures directly affects economic growth, social stability, and the quality of public services. However, the mere increase in budget spending does not automatically lead to improved outcomes. International experience demonstrates that without strong fiscal discipline and effective control mechanisms, increased expenditures may result in inefficiencies and misallocation of resources[67].

One of the critical aspects of improving expenditure efficiency is strengthening budget discipline. Budget discipline implies strict adherence to approved budget

[67] Grant Thornton, Budget Commentary and Analysis, 2024. Available at: https://www.grantthornton.ie/insights/budget/commentary-analysis/

parameters, rational allocation of resources, and effective monitoring of public spending. In many countries, fiscal discipline is ensured through the implementation of budget rules, including limits on budget deficits, public debt, and expenditure growth. These rules serve as institutional constraints that prevent excessive spending and promote macroeconomic stability[68].

Recent studies emphasize that fiscal discipline should take precedence over the introduction of new taxes. Expanding the tax burden without addressing inefficiencies in public spending may negatively affect economic activity and reduce incentives for investment and production[69]. Therefore, governments should prioritize improving the quality and efficiency of expenditures rather than relying solely on increasing revenues.

Another important factor influencing expenditure efficiency is the composition of public spending. Empirical evidence shows that prioritizing capital expenditures (capex), particularly in infrastructure and development projects, has a more significant impact on long-term economic growth compared to excessive current expenditures[70]. Efficient allocation of budget resources toward productive sectors contributes to increased productivity, improved competitiveness, and enhanced investment attractiveness.

In addition, strengthening public financial control and internal audit systems plays a crucial role in ensuring budget discipline. Effective control mechanisms enhance transparency, accountability, and the proper use of public funds. The introduction of digital technologies, including automated financial monitoring systems and data analytics tools, further improves the efficiency of budget management and reduces the risks of corruption and financial mismanagement.

In Uzbekistan, significant reforms have been implemented in recent years to modernize the public financial management system. These reforms include the introduction of medium-term budgeting, the transition to results-oriented budgeting, and the expansion of digital tools in budget planning and execution. Moreover, efforts are being made to strengthen the institutional framework of financial control and improve coordination between budgetary and tax policies.

Despite these positive developments, several challenges remain. These include insufficient integration between fiscal policy instruments, limited effectiveness of monitoring mechanisms, and the need to further strengthen institutional capacity.

The findings of this study suggest that improving the efficiency of budget expenditures requires:

1. Strengthening budget discipline through the implementation of fiscal rules;
2. Enhancing financial control and internal audit systems;
3. Improving the structure of public expenditures by prioritizing capital investments;
4. Ensuring effective coordination between budgetary and tax policies.

In conclusion, strengthening budget discipline is a fundamental condition for improving the efficiency of public expenditures and ensuring sustainable economic development. The effective use of budgetary and tax policy mechanisms not only enhances fiscal stability but also contributes to improving the quality of public services and increasing public trust in government institutions.

Роль государственного аудита в повышении эффективности социальных расходов государственного бюджета

Абдужалилова Д.А.
PhD., доц. кафедры «Бюджетный учет и казначейство»
Ташкентского государственного экономического университета
Зайнуллина Д.И.
Магистрант специальности «Государственный финансовый контроль и аудит»
Ташкентский государственный экономический университет

В условиях последовательного реформирования системы государственного управления в Республике Узбекистан особую актуальность приобретает вопрос эффективного использования бюджетных средств, направляемых на финансирование социальной сферы. Согласно данным Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан, расходы государственного бюджета на социальные нужды - образование, здравоохранение, социальную защиту и развитие человеческого капитала - традиционно составляют более 50% от общего объёма государственных расходов. В 2023 году на образование было направлено около 37,2 трлн сумов, на здравоохранение - порядка 22,6 трлн сумов. При таких масштабах финансирования вопросы результативности и целевого расходования средств приобретают стратегическое значение.

Вместе с тем практика свидетельствует о том, что увеличение объёмов бюджетного финансирования само по себе не гарантирует достижения запланированных социальных результатов. Анализ данных Счётной палаты Республики Узбекистан показывает, что в ходе проверок регулярно выявляются факты нецелевого использования средств, завышения сметной стоимости, неисполнения показателей государственных программ и отсутствия системного

мониторинга. В этой связи государственный аудит выступает ключевым механизмом, обеспечивающим системный контроль и объективную оценку эффективности социальных расходов.



Рисунок 1 - Структура и динамика социальных расходов государственного бюджета Республики Узбекистан за 2021–2023 гг. (трлн сумов) Источник: Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан

Представленные данные демонстрируют устойчивую тенденцию роста социальных расходов: за период 2021–2023 годов совокупные расходы по социальным статьям увеличились с 77,8 до 89,0 трлн сумов, то есть на 14,4%. При этом структура расходов остаётся относительно стабильной: наибольшую долю неизменно занимает финансирование образования (41,8% в 2023 г.), за которым следуют здравоохранение (25,4%) и социальная защита (16,3%). Именно эти три направления формируют основной объём бюджетных расходов социального характера и, соответственно, являются приоритетными объектами государственного аудита.

Государственный аудит в широком понимании представляет собой независимую, системную и документально оформленную деятельность уполномоченных органов по проверке законности, целевого характера и эффективности расходования государственных ресурсов. Согласно международным стандартам ISSAI (Международные стандарты высших органов аудита), аудит эффективности - или аудит «3Э» (экономность, эффективность, результативность) - является наиболее значимым видом государственного аудита применительно к оценке социальных программ. Данный вид аудита ориентирован не на формальное установление нарушений, а на содержательную оценку того, достигаются ли поставленные цели при наиболее рациональном использовании ресурсов.

Применительно к социальной сфере государственный аудит выполняет ряд взаимосвязанных функций. Контрольная функция обеспечивает проверку

соответствия расходов нормам бюджетного законодательства и утверждённым сметам. Аналитическая функция предполагает оценку достигнутых результатов по отношению к плановым показателям и затраченным ресурсам. Прогностическая функция направлена на выявление системных рисков и разработку рекомендаций для корректировки государственной политики. Именно совокупность этих функций обеспечивает государственному аудиту роль стратегического инструмента в системе управления социальными расходами бюджета.

Анализ сложившейся практики в Узбекистане позволяет выделить ряд актуальных проблем, ограничивающих эффективность государственного аудита социальных расходов. Первой и наиболее значимой является отсутствие единой методологии оценки результативности бюджетных программ. Действующая система контроля ориентирована преимущественно на проверку финансовой законности, тогда как содержательная оценка социального эффекта программ остаётся за рамками стандартных аудиторских процедур. В результате значительная часть данных о реализации социальных проектов носит описательный характер, что снижает ценность аудиторских заключений для принятия управленческих решений.

Второй проблемой является недостаточная прозрачность результатов государственного аудита. Ограниченный публичный доступ к данным о расходовании бюджетных средств снижает уровень общественного контроля. Международный опыт убедительно показывает, что высокий уровень прозрачности аудиторской деятельности способствует минимизации коррупционных рисков и повышению подотчётности должностных лиц. Для сравнения: в странах ОЭСР доля публично раскрываемых материалов аудита эффективности превышает 85% от общего числа проведённых проверок.

Третьей проблемой выступает недостаточная координация между органами внешнего и внутреннего аудита. Отсутствие единой информационной платформы приводит к дублированию проверочных функций при одновременном наличии неохваченных зон риска. Это особенно актуально для секторов, находящихся в совместном ведении нескольких министерств, - таких как социальная защита, где пересекаются компетенции Министерства занятости, Министерства здравоохранения и Пенсионного фонда.

Одним из ключевых направлений совершенствования государственного аудита социальных расходов является внедрение риск-ориентированного подхода, предполагающего концентрацию аудиторских ресурсов на областях с наибольшей вероятностью нарушений. В социальной сфере к зонам повышенного риска традиционно относятся государственные закупки медицинского оборудования, финансирование строительства социальных объектов, реализация образовательных субсидий и программ адресной социальной помощи. Концентрация аудиторских

усилий на данных направлениях позволяет существенно повысить отдачу от контрольной деятельности при ограниченных ресурсах.

Цифровизация государственного аудита открывает качественно новые возможности. Применение технологий больших данных и автоматизированных аналитических систем позволяет в режиме реального времени отслеживать движение бюджетных средств, формировать сигналы о подозрительных транзакциях и оперативно реагировать на отклонения от плановых показателей. В рамках Стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030» предусмотрено внедрение автоматизированной системы мониторинга бюджетных расходов, создающей технологическую основу для перехода к непрерывному аудиту. Данная модель уже доказала свою эффективность в Южной Корее, Канаде и ряде государств Европейского союза.

Важной составляющей системного подхода выступает развитие внутреннего аудита в министерствах и ведомствах, непосредственно управляющих социальными программами. Согласно Указу Президента Республики Узбекистан № УП-6300 от 27.08.2021 г., в государственных органах планомерно создаются подразделения внутреннего аудита. Стандартизация процедур внутреннего контроля, повышение квалификации кадров и систематическое взаимодействие с внешними контрольными органами позволят создать многоуровневую систему мониторинга социальных расходов, обеспечивающую как предупреждение нарушений, так и своевременное их устранение.

Таким образом, государственный аудит является фундаментальным инструментом обеспечения эффективности, прозрачности и подотчётности в сфере социальных расходов бюджета. Рост абсолютных объёмов социального финансирования, наглядно отражённый в приведённых данных, делает задачу совершенствования контрольных механизмов ещё более насущной. Системное развитие аудита - через унификацию методологии, внедрение цифровых технологий, риск-ориентированный подход и укрепление институциональных механизмов - формирует необходимую основу для построения результативной модели управления государственными финансами, соответствующей стратегическим ориентирам социально-экономического развития Республики Узбекистан.

ЗНАЧЕНИЕ БЮДЖЕТНОГО КОДЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В БЮДЖЕТНОМ КОНТРОЛЕ

Абдужалилова Дилноз Абдусатторовна
PhD., доц. кафедры «Бюджетный учет и казначейство»
Ташкентского государственного экономического университета
Каримжонова Озодохон Шавкатбек кизи
Студентка Ташкентского государственного экономического университета

Анотация: В статье рассматривается значение Бюджетного кодекса Республики Узбекистан в системе бюджетного контроля. Анализируются его правовые основы, механизмы регулирования бюджетных отношений, а также роль в обеспечении финансовой дисциплины и прозрачности государственных финансов. Особое внимание уделяется инструментам контроля за формированием, распределением и использованием бюджетных средств.

Ключевые слова: бюджетный кодекс, бюджетный контроль, государственный бюджет, государственные финансы, прозрачность, финансовая дисциплина,

Бюджетный контроль является неотъемлемой частью системы управления государственными финансами и играет важную роль в обеспечении законности, эффективности и целевого использования бюджетных средств. В Республике Узбекистан основным нормативно-правовым актом, регулирующим бюджетные отношения, выступает Бюджетный Кодекс Республики Узбекистан, который устанавливает принципы бюджетной системы, порядок составления, рассмотрения, утверждения и исполнения бюджета, а также механизмы контроля за его реализацией. Его принятие 26 декабря 2013 года и введение в действие с 1 января 2014 года стало важным этапом институциональных реформ, направленных на модернизацию бюджетной системы и приведение её в соответствии с современными требованиями управления государственными финансами. Бюджетный Кодекс определяет правовой статус участников бюджетного процесса, их полномочия и ответственность. Он закрепляет принципы прозрачности, подотчетности и результативности использования государственных средств. Наличие четко регламентированных процедур позволяет минимизировать риски финансовых нарушений и способствует укреплению бюджетной дисциплины на всех уровнях бюджетной системы.

Особое значение Кодекса проявляется в том, что он институционализирует бюджетный контроль как многоуровневую систему, включающую внутренний и внешний контроль. В документе закреплены формы предварительного, текущего и последующего контроля, а также полномочия органов финансового контроля. Предварительный контроль направлен на проверку обоснованности бюджетных

обязательств до их принятия, текущий - осуществляется в процессе исполнения бюджета, а последующий - проводится по итогам отчетного периода для оценки эффективности и законности использования средств. Счётная палата Республики Узбекистан, которая выступает независимым органом, подотчётным парламенту, и обеспечивает объективную оценку исполнения Государственного бюджета. Внутренний контроль реализуется органами исполнительной власти, включая Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан, а также распорядителями бюджетных средств.

Важным элементом бюджетного контроля является казначейское исполнение бюджета, при котором все операции по доходам и расходам проходят через Единый казначейский счет. Это обеспечивает централизованный учет финансовых потоков, прозрачность операций и своевременное выявление возможных нарушений. Бюджетный Кодекс устанавливает обязательность ведения бюджетного учета и составления отчетности в соответствии с установленными стандартами. Кроме того, Бюджетный кодекс Республики Узбекистан способствует внедрению международных стандартов в сфере государственного финансового контроля. В частности, прослеживается ориентация на принципы, разработанные Международная организация высших органов аудита, включая независимость контрольных органов, объективность аудита и прозрачность результатов. Это свидетельствует о стремлении Республики Узбекистан к интеграции в международное финансовое сообщество и повышению качества государственного управления.

Дополнительно следует учитывать, что в условиях цифровизации экономики возрастает значение нефинансовых факторов, включая ESG-показатели, инновационную активность и клиентскую ориентированность. Их включение в систему стратегического учета позволяет повысить качество прогнозирования и обеспечить более устойчивое развитие организации.

Таким образом, комплексное развитие стратегического управленческого учета, основанное на интеграции цифровых технологий, развитии человеческого капитала и усилении корпоративной культуры, является ключевым фактором повышения эффективности управления и конкурентоспособности организации в долгосрочной перспективе.

Заключение. В результате проведённого исследования установлено, что стратегический управленческий учет является одним из ключевых инструментов повышения эффективности управления и обеспечения долгосрочной конкурентоспособности организации. Его значимость возрастает в условиях цифровизации экономики, усиления глобальной конкуренции и роста неопределенности внешней среды.

Анализ показал, что, несмотря на высокую теоретическую и практическую значимость, внедрение стратегического управленческого учета сопровождается рядом существенных проблем. К ним относятся недостаточная интеграция учетных систем, ограниченность качественной информации, дефицит квалифицированных специалистов, слабая вовлеченность руководства, сложность оценки результатов, недостаточная гибкость системы, ограниченный контроль за реализацией стратегических целей, а также недостаточная взаимосвязь с корпоративной культурой.

Полученные результаты подтверждают, что эффективное развитие стратегического управленческого учета требует комплексного подхода. В частности, необходимо обеспечить интеграцию учетных и аналитических систем на основе цифровых технологий, повысить качество информационного

обеспечения, развивать профессиональные компетенции специалистов, а также усилить роль стратегического контроля и риск-менеджмента.

Особое значение приобретает внедрение современных инструментов анализа и оценки эффективности, включая системы ключевых показателей (KPI), сбалансированную систему показателей (BSC), а также использование бизнес-аналитики (BI) и прогнозных моделей. Это позволяет повысить обоснованность управленческих решений и снизить уровень неопределенности.

Кроме того, важным направлением является интеграция стратегического управленческого учета с корпоративной культурой и системой мотивации персонала, что способствует повышению вовлеченности сотрудников и эффективности реализации стратегических инициатив.

В перспективе развитие стратегического управленческого учета должно быть ориентировано на дальнейшую цифровизацию, учет нефинансовых факторов (включая ESG-показатели), а также повышение адаптивности к быстро меняющимся условиям внешней среды.

Таким образом, совершенствование стратегического управленческого учета выступает необходимым условием устойчивого развития организации и укрепления её конкурентных позиций в современной экономике.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТ ПОРТФЕЛИНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШ МАСАЛАЛАРИ

Нуриддинов Вохид Вапоевич
Ўзбекистон Республикаси банк-молия академиясининг магистранти

Бугунги кунда тижорат банклари кредит операциялари банк даромадларини шакллантирувчи фаолият бўлганлиги сабабли кредит портфелининг сифат даражаси барқарорлигини таъминлаш бугунги кунда банкларнинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади. Шунингдек кредитлаш тижорат банклари учун бирламчи аҳамиятга эга бўлган фаолият тури ҳисобланади. Чунки тижорат банклари кредит портфели сифатининг пасайиши уларнинг молиявий барқарорлигига салбий таъсир қилади, шу билан бирга муддати ўтган кредитларнинг кредит қўйилмалари ҳажмидаги салмоғининг ошиши банкнинг ликвидлигини кескин пасайишига олиб келади. Шу сабабли, тижорат банклари кредит портфелини самарали тарзда бошқариш хўжалик субъектларининг кредит маблағларига бўлган эҳтиёжларини қондириш имконини беради. Бу борада Президентимизнинг Олий Мажлисга тақдим этган Мурожаатномасида, “Энг ёмони, истиқболли йирик лойиҳаларни белгилаш ва амалга оширишда жиддий хатоликларга йўл қўйилгани, хорижий кредитлар самарасиз ишларга сарфлангани иқтисодиёт ривожига халақит бермоқда.

Республикамиз иқтисодиётини ривожлантиришга йўналтирилаётган банк кредитлари хажмининг ошиши, улардан фойдаланаётган турли мулкчилик ва хўжалик юритувчи субъектлар миқдорининг кўпайиши, банклар томонидан берилаётган кредитларни оқилона жойлаштириш, улар самарадорлигини ошириш, берилган кредитлар бўйича ҳисобланган фоизларни ўз вақтида ундириб олишни таъминлаш вазифалари банклар кредит портфели устидан доимий кузатиб боришни долзарб масалалардан бири эканлигини асослаб беради.

Тижорат банклар актив операциялари ичида кредит асосий ўринни эгаллайди ва банк даромадининг салмоқли қисми ҳам айнан мазкур операциялар орқали олинади. Шу сабабли банк кредит портфелининг қандай шаклланиши банк фаолиятига бевосита таъсир кўрсатади. Банк кредит портфелини самарали бошқариши учун, энг аввало банкларнинг кредитлаш жараёни тўғри ташкил қилиниши зарур. Амалдаги қонунчиликда банк кредит портфели мунтазам равишда таҳлил ва аудит қилиниши кўрсатиб ўтилган бўлиб, бунда кредит сифатини аниқлаш билан бир қаторда кредитлаш жараёнини бошқариш сифатини баҳолаш, жумладан, тасдиқланган кредит сиёсатига ва кредит ҳужжатларини расмийлаштириш жараёнларига, гаровни расмийлаштириш ва баҳолаш, кредитлашга доир ваколатларни тақсимлаш, қонунчилик меъёрларига риоя қилишга мувофиқлигини таъминлашга эътибор қаратилиши лозим. Миллий банк тизимини ривожлантириш, кўрсатилаётган банк хизматиларини сифати ва турларини ошириш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республика банк тизимини янада ривожлантириш ва барқарорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ 3270 сонли қарори билан тасдиқланган чора-тадбирлар Дастурининг ижроси юзасидан Ўзбекистон Банклар ассоциацияси тижорат банклари билан биргаликда амалдаги банк хизматларига белгиланган тарифлар қайта кўриб чиқилди.

Умуман олганда, тижорат банклари кредит портфелини бошқаришнинг пировард мақсади ушбу портфелнинг риск, даромадлилик ва ликвидлилик кўрсаткичларининг оптимал даражасига эришиш ҳисобланади. Фикримизча, тижорат банкларида кредит портфелини самарали бошқаришда қуйидаги бир қатор омилларни ҳисобга олиш зарур:

- банк активлари сифати устидан доимий, таъсирчан мониторинг олиб бориш, банк активлари билан боғлиқ муаммоли ҳолатларни дастлабки босқичларда аниқлаш ва бартараф этиш механизмини мустаҳкамлаш;
- банкларда активларни кенг диверсификация қилиш, кредит портфелини соғломлаштириш орқали таваккалчиликларни самарали бошқаришга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва иқтисодий вазиятдан келиб чиқиб уларга зарур ўзгартиришлар киритиб бориш;

• банк тизимига оид қабул қилинган қарорлар ҳамда кредит муносабатларини тартибга солувчи меъёрий ҳужжатлар ижросини ташкил қилиш асосида кредитлаш жараёнида вужудга келиши мумкин бўлган хатарларни баҳолаш, ўрганиш, уларни таҳлил қилиш, бизнес-режа кўрсаткичлари бажарилишини назорат қилиш;

• муаммоли кредитларни бошкаришнинг янги усулларини шакллантириш; активлар сифатини таъминлашни назорат қилиш, бунда кредит портфелида яхши кредитлар улуши 90 фоиздан кам бўлмаслиги, муддати ўтган кредитлар миқдорини минималлаштириш, кредит портфели таркибининг тасдиқланган кредит сиёсатига мослиги (соҳалар, ҳудудлар ва муддати бўйича) каби масалаларни назорат қилиш;

• банк кредит сиёсати ва кредитлаш тамойиллари шартларига риоя этилишини назорат қилиш.

ДАВЛАТНИНГ МАВЖУД РЕСУРСЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШДА ДАВЛАТ АУДИТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Мирзоев Беҳзод Шамсиддинович

Тошкент давлат иқтисодиёт университети катта ўқитувчиси, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори

Давлат бошқарувидаги ҳар қандай фаолият, мамлакатда мавжуд ресурсларни сарфлаш жараёнлари билан бевосита боғлиқ бўлади. Шу сабабли, бюджет маблағларидан оқилона ва самарали фойдаланиш, ва нафақат молиявий ресурслардан самарали фойдаланиш, аксинча барча мавжуд ресурслардан, ҳоҳ у табиий ресурс бўлсин, ҳоҳ у меҳнат ресурси бўлсин, ҳоҳ у вақт ресурси бўлсин, барча бошқа ресурслардан ҳам самарали фойдаланиш масаласи, бугунги замонда долзарб масалалардан бири саналади.

Мазкур масалани Президентимиз Шавкат Мирзиёев ҳам ўзларининг 2022 йил 26 декабрдаги Мурожаатномаларида айтиб ўтдилар, яъни коррупция – давлат тараққиётига тўсиқ бўладиган, адолат ва қонун устуворлигини издан чиқарадиган, жамиятда ишонч муҳитини заифлаштирадиган энг жиддий таҳдид.

Барча идораларда комплаенс ва коррупцияга қарши ички назоратга масъул ўринбосар лавозими жорий этилади. Ҳисоб палатасининг вакили фаолияти йўлга қўйилади. Ушбу раҳбарлар тизимдаги нопок шахсларни аниқлаш, шунингдек, бюджет маблағи талон-торож бўлиши ва мансабни суиистеъмол қилиш ҳолатларининг олдини олиш бўйича таъсирчан назорат ўрнатади ва Президент олдида ҳисобот беради.

Давлатнинг ҳар бир сўм маблағи, ресурси бўйича шахсий жавобгарлик кучайтирилади.

Жаҳон иқтисодиётининг тез суръатларда ижтимоий–иқтисодий тараққий этиши ва шу билан биргаликда жаҳонда мураккаб геосиёсий вазият юзага келаётган бир даврда ҳамда табиий ресурслар чекланган бир пайтда, Янги Ўзбекистонни барпо этиш жараёнида, олиб борилаётган ислоҳотлар мавжуд ресурслардан оқилона, тежамкорлик ва самарадорлик тамойилларига асосан фойдаланишни тақозо этмоқда.

Мамлакатимизда ислоҳотларни амалга ошириш учун йўналтирилаётган бюджет, давлат ташқи қарзи маблағларининг самарадорлиги ва ислоҳотларнинг натижадорлигини ошириш, давлаторганлари ва ташкилотларнинг бюджет харажатлари назоратини янада кучайтириш учун соҳада илғор хорижий тажрибаларни қўллаш, рақамлаштириш кўламини кенгайтириш, давлат аудити ва молиявий назорати сифатини ошириш учун соҳада малакали кадрлар тайёрлаш тизимини яратиш мақсадида 2025 йилнинг 18 декабрида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат аудити ва молиявий назорати фаолиятини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-100-сонли Фармони қабул қилинди.

Фармонда давлат аудити ва молиявий назорати фаолиятини такомиллаштиришнинг асосий вазифалари этиб қуйидагилар белгиланди:

- халқаро стандартлар ва илғор хорижий тажрибалар асосида мамлакатимиз манфаатларига уйғунлашган миллий давлат аудити тизимини такомиллаштириш ва халқаро ҳамкорликни кенгайтириш;

- давлат аудити ва молиявий назорати фаолиятини рақамлаштириш ҳамда сунъий интеллект технологияларини жорий этиш орқали қонунбузилиш ҳолатларининг олдини олиш ва тизимли муаммоларни бартараф этиш бўйича таклифларни тайёрлаш;

- давлат аудити йўналишида етук ва малакали кадрларни тайёрлаш.

Халқаро ҳамкорликни кенгайтириш орқали Ҳисоб палатанинг халқаро миқёсдаги мавқеини юксалтириш ҳамда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мувофиқ сифати ва самарадорлигини ошириш мақсадида 2026 йил 1 январдан бошлаб ҳар 5 йилда камида бир маротаба Ҳисоб палатаси фаолиятини ташқи баҳолашдан ўтказиш амалиёти жорий этилди.

Фармонга кўра Ҳисоб палатаси Олий аудит органларининг халқаро ташкилоти (INTOSAI) ва бошқа халқаро даражада тан олинган ташкилотлар методологиялари асосида, келишув доирасида халқаро ташкилотлар ёки хорижий давлатларнинг олий аудит органлари томонидан ҳамда мустақил баҳолаш жараёнини ташкил этиш, фаолияти бўйича барча маълумотларни тақдим этиш,

натижаларини жамоатчилик учун эълон қилиш шартларида ташқи баҳолашдан ўтказилади.

Ташқи баҳолашни ўтказиш натижалари асосида Ҳисоб палатаси фаолиятини ўрта муддатда ривожлантириш стратегияси ишлаб чиқилиб қабул қилинади.

Давлат аудити ва молиявий назорати кўламини кенгайтириш ҳамда самарадорлигини ошириш мақсадида 2026 йил 1 апрелдан бошлаб 2030 йил 1 январга қадар эксперимент тариқасида давлат органлари ва ташкилотларида маблағларнинг мақсадли ва самарали сарфланиши устидан таъсирчан назоратни олиб бориш мақсадида давлат органлари ва ташкилотларида Ҳисоб палатасининг вакили сифатида бош инспектор фаолияти йўлга қўйилди.

Соҳада кадрларни тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини жорий этиш мақсадида иқтидорли ёшларни давлат аудити соҳасига мақсадли йўналтириш, соҳада таълим ва илмий-тадқиқот интеграциясини таъминлаш мақсадида 2026/2027 ўқув йилидан бошлаб Тошкент давлат иқтисодиёт университетида таълим йўналиши шаклида ҳуқуқий мақоми олий таълим ташкилоти факультетига тенглаштирилган **Давлат аудити олий мактаби** ташкил этилди.

Давлат аудити таълим йўналишига қабул параметрлари амалдаги қонунчиликда белгиланган тартибга мувофиқ кадрлар буюртмачилари таклифлари асосида шакллантирилиши, давлат аудити таълим йўналишининг ўқув дастурлари дунёнинг нуфузли Quacquarelli Symonds (QS) ва Times Higher Education (THE) ташкилотлари рейтингларида соҳалар бўйича биринчи 300 талик рўйхатдаги олий таълим ташкилотлари тажрибаси асосида ишлаб чиқилиши, Ҳисоб палатаси ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишилган ҳолда тасдиқланиши белгиланди.

Фармон ижросини таъминлаш мақсадида Ҳисоб палатаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги билан биргаликда бир ой муддатда Давлат аудити соҳасида кадрлар тайёрлашни йўлга қўйиш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар дастури тасдиқланди.

Давлат аудити олий мактабини ташкил этиш мақсадида Тошкент давлат иқтисодиёт университети ва Хитойнинг Нанкин аудит университети ўртасида илмий ва академик ҳамкорлик йўлга қўйилди.

Тошкент давлат иқтисодиёт университети ва Хитойнинг Нанкин аудит университети ҳамкорлигида қўшма академик тадбирларни ўтказиш, педагоглар салоҳиятини ривожлантириш, талабалар алмашинуви, илмий тадқиқотлар йўналишларида ҳамкорликни кўзда тутувчи чора-тадбирлар режасини тасдиқлаш, қўшма ўқув режаларини тузиш, ахборот технологиялари аудити фанини жорий этиш бўйича йўл харитаси тузилди.

Хулоса қилиб айтиш жоизки, давлат аудитини ривожлантириш йўналишлари, пировард натижада амалиётда давлат аудитини самарали ва сифатли ташкил этилиши ва ўтказилиши, келгусида мамлакатимизни иқтисодий ривожланишига ва халқимиз манфаатига ўз ҳиссасини қўшади, деб биламиз.

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ В ПЕНСИОННОМ ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Шермухамедова Ширин Амонуллаевна
Ташкентский государственный экономический университет
Кафедра «Бюджетный учет и казначейство»
старший преподаватель, PhD

Пенсионное обеспечение в Республике Узбекистан является одной из важнейших гарантий социальной защиты населения. По сути, это система, через которую государство поддерживает граждан в тех жизненных ситуациях, когда они уже не могут самостоятельно обеспечивать себя в полном объёме — по возрасту, состоянию здоровья или в случае потери кормильца. Именно поэтому от того, насколько эффективно работает пенсионная система, напрямую зависит уровень социальной стабильности в стране.

В этих условиях особую роль играет государственный контроль. Если говорить проще, это деятельность государственных органов, направленная на то, чтобы пенсионная система работала правильно: деньги поступали вовремя, пенсии начислялись справедливо, а права граждан не нарушались. Без такого контроля система быстро столкнулась бы с серьёзными проблемами — от финансовых нарушений до потери доверия со стороны населения.

Правовую основу пенсионного обеспечения в Узбекистане составляет Закон Республики Узбекистан «О государственном пенсионном обеспечении граждан»[77]. В нём закреплены основные положения: кто имеет право на пенсию, как она рассчитывается и в каком порядке выплачивается. Закон охватывает основные виды пенсий — по возрасту, по инвалидности и по случаю потери кормильца.

Дополнительно действует Закон «О накопительном пенсионном обеспечении граждан»[78], который регулирует систему индивидуальных пенсионных накоплений. Эта система была введена для того, чтобы усилить финансовую устойчивость пенсионного обеспечения и дать гражданам дополнительные гарантии в будущем.

[77] Закон Республики Узбекистан «О государственном пенсионном обеспечении граждан» от 3 сентября 1993 года (с изменениями и дополнениями).
[78] Закон Республики Узбекистан «О накопительном пенсионном обеспечении граждан» от 2 декабря 2004 года.

Если рассматривать, кто именно осуществляет государственный контроль, то здесь задействовано сразу несколько органов. Центральное место занимает внебюджетный Пенсионный фонд при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан. Именно через него проходят основные финансовые потоки: сбор средств, их распределение и выплата пенсий[79].

Кроме того, важную роль играют налоговые органы. Они следят за тем, чтобы работодатели своевременно и в полном объёме перечисляли обязательные платежи. Это особенно важно, потому что значительная часть пенсионных выплат формируется за счёт текущих поступлений.

Отдельно стоит отметить Народный банк Республики Узбекистан, который участвует в функционировании накопительной пенсионной системы. Через него ведутся индивидуальные счета граждан, и, соответственно, требуется постоянный контроль за сохранностью этих средств[80].

Государственный контроль в пенсионной сфере проявляется в нескольких основных направлениях. Прежде всего это финансовый контроль. Он включает проверку того, как формируются доходы пенсионной системы и насколько рационально используются средства. Например, контролируется, поступают ли страховые взносы в полном объёме и не допускается ли их нецелевое использование.

Не менее важным является контроль за назначением и выплатой пенсий. На практике это означает проверку документов, подтверждающих право на пенсию, правильность расчётов и соблюдение сроков выплат. Даже небольшие ошибки в этой сфере могут привести к серьёзным последствиям для конкретных людей, поэтому данный аспект контроля имеет большое значение.

Также осуществляется надзор за соблюдением законодательства со стороны работодателей. Некоторые организации могут пытаться уклоняться от уплаты обязательных платежей или занижать официальную заработную плату сотрудников. В таких случаях государственные органы проводят проверки и применяют соответствующие меры ответственности.

В последние годы в Узбекистане активно развивается цифровизация пенсионной системы. Вводятся электронные базы данных, автоматизированные системы учёта, налаживается обмен информацией между государственными органами. Всё это делает контроль более прозрачным и эффективным. Например, сокращается вероятность ошибок при расчёте пенсий, а также снижается влияние человеческого фактора.

---

[79] Положение о внебюджетном Пенсионном фонде при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан.

[80] Нормативные акты Республики Узбекистан, регулирующие деятельность Народного банка в системе накопительного пенсионного обеспечения.

Однако, несмотря на положительные изменения, в системе государственного контроля остаются определённые проблемы. Одной из них является наличие неформальной занятости. Когда человек работает без официального оформления, за него не уплачиваются страховые взносы, что в будущем негативно сказывается на размере его пенсии.

Кроме того, определённые сложности связаны с демографическими изменениями. Постепенное увеличение доли пожилого населения приводит к росту нагрузки на пенсионную систему. Это требует более строгого контроля за финансовой устойчивостью и поиска новых подходов к её обеспечению.

Ещё одной проблемой можно назвать недостаточный уровень финансовой грамотности населения. Не все граждане в полной мере понимают, как формируется их пенсия и какую роль играют страховые взносы. В результате это может приводить к недоверию к системе или неправильному восприятию её механизмов.

Для повышения эффективности государственного контроля необходимо продолжать совершенствование законодательства, развивать цифровые технологии и усиливать взаимодействие между различными государственными органами. Также важно уделять внимание информированию граждан, чтобы они лучше понимали свои права и обязанности в пенсионной сфере.

Подводя итог, можно сказать, что государственный контроль в пенсионном обеспечении Республики Узбекистан играет ключевую роль в функционировании всей системы. Он обеспечивает законность, прозрачность и стабильность, а также защищает интересы граждан. В современных условиях его значение только возрастает, поскольку от качества контроля зависит не только эффективность пенсионной системы, но и уровень доверия населения к государству в целом.

ДОН МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛОВЧИ КОРХОНАЛАРДА АУДИТНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

А.А.Тошпўлатов
Тошкент Кимё халқаро университети мустақил изланувчиси

Бозор муносабатларининг ривожланиши, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш жараёни ва инвестицион жозибадорликнинг яхшиланиши донни қайта ишловчи корхоналарда аудитнинг аҳамиятини янада оширмоқда. Аудит нафақат молиявий ҳисоботнинг ишончлилигини баҳолаш, балки ишлаб чиқариш жараёнидаги таваккалчиликлар, захиралар ҳаракати ва маҳсулот таннархининг шаклланишини таҳлил қилишда муҳим восита ҳисобланади.

Дон маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналарда аудитнинг мақсади корхонанинг молиявий ҳисоботи ишончлилиги, тўғрилиги ва амалдаги қонунчиликка мувофиқлигини мустақил баҳолашдан иборат.

Дон маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналар хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда аудитнинг йўналишлари қуйидагилардан иборат:

Дон хом ашёсининг қабул қилиниши ва ҳисобга олинишини текширишнинг мақсади корхонага келиб тушаётган дон ҳажми ва сифати тўғри аниқланиши, уларнинг ҳужжатларда тўлиқ ва ишончли акс эттирилишини баҳолашдан иборат. Аудитор донни қабул қилиш жараёнида тарозиларнинг техник ҳолати, лаборатория таҳлиллари натижалари, намлик ва ифлослик даражаси каби кўрсаткичларнинг ҳаққонийлигини текширади. Шунингдек, қабул қилиш далолатномалари, товар-транспорт ҳужжатлари ва омбор карточкалари ўртасидаги мувофиқлик таҳлил қилинади. Бу жараён активларнинг асоссиз камайтирилиши, сифат фарқлари орқали нархни сунъий ўзгартириш ёки ҳисобда хатоларга йўл қўйилишининг олдини олишга хизмат қилади.

Донни қайта ишлаш жараёнида йўқотишлар меъёрига риоя этилишини баҳолашда донни тозалаш, қуритиш, саралаш ва майдалаш жараёнида табиий йўқотишларга эътибор қаратиш лозим. Аввало, амалдаги йўқотишлар белгиланган меъёрлар доирасида эканлигини аниқлашдан иборат. Аудитор меъёрий кўрсаткичлар билан амалдаги натижаларни таққослайди, ортиқча йўқотиш сабабларини таҳлил қилади ва уларнинг иқтисодий асосланганлигини баҳолайди. Агар йўқотишлар меъёрдан ортиқ бўлса, бу технология бузилиши, асбоб-ускуналар носозлиги ёки моддий жавобгарлик тизимидаги камчиликлардан далолат бериши мумкин. Шу тариқа, мазкур аудит йўналишида ресурслардан самарали фойдаланишни таъминлашга қаратилади.



1-расм. Дон маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналарда аудитнинг асосий йўналишлари[81]

[81] Муаллиф ишланмаси

Дон маҳсулотларини қайта ишлашда таннарх хом ашё қиймати, энергия сарфи, меҳнат харажатлари ва устама харажатлар асосида шаклланади. Аудитор харажатларнинг иқтисодий жиҳатдан асослилиги, ҳисоб сиёсатига мувофиқлиги ва маҳсулот турлари ўртасида тўғри тақсимланганлигини текширади. Таннархнинг нотўғри шакллантирилиши фойда кўрсаткичларини бузиши, солиқ мажбуриятларини нотўғри ҳисоблашга олиб келиши мумкин. Шу боис мазкур йўналиш корхонанинг молиявий натижаларини реал акс эттириш ва рентабелликни тўғри баҳолашда муҳим аҳамият касб этади.

Дон ва тайёр маҳсулот захиралари катта ҳажмни ташкил этгани сабабли уларнинг реал мавжудлигини текшириш аудитнинг муҳим йўналишлардан ҳисобланади. Аудитор инвентаризация натижаларини бухгалтерия маълумотлари билан таққослайди, камомад ёки ортиқча қолдиқларни аниқлайди. Шунингдек, омборларда сақлаш шароитлари, моддий жавобгар шахслар фаолияти ва ҳисоб юритиш тартиби таҳлил қилинади. Инвентаризация активларнинг сақланиши ва молиявий ҳисоботда уларнинг ҳаққоний акс эттирилишини таъминлашга хизмат қилади.

Даромад ва харажатлар тўғри акс эттирилишини текширишда асосий эътибор молиявий натижаларнинг реал шаклланишини таъминлашга қаратилади. Аудитор маҳсулот сотишдан тушган даромадлар тўғри ҳисобланганлигини, улар тегишли ҳисобот даврида тан олинганлигини ва шартномаларга мувофиқ расмийлаштирилганлигини текширади. Шу билан бирга, харажатлар иқтисодий мазмунига кўра тўғри таснифланганлиги ва тегишли даврга тааллуқли эканлиги баҳоланади. Нотўғри акс эттириш ҳолатлари фойда кўрсаткичларини сунъий ўзгартириши ва солиқ рискларини келтириб чиқариши мумкин.

Ички назорат тизимининг самарадорлигини баҳолашнинг мақсади корхонада молиявий интизом ва активлар сақланишини таъминловчи механизмларнинг ишончлилигини аниқлашдан иборат. Аудитор ваколатлар тақсимоти, ҳужжат айланиш тизими, автоматлаштирилган ҳисоб дастурлари ва моддий жавобгарлик тартибини таҳлил қилади. Кучли ички назорат тизими хатолар ва суиистеъмол ҳолатларининг олдини олади, бошқарув қарорларини асосли қабул қилишга шароит яратади.

ДОН МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛОВЧИ КОРХОНАЛАРДА ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

А.А.Тошпўлатов

Тошкент Кимё халқаро университети мустақил изланувчиси

Товар-моддий захиралар ишлаб чиқариш жараёнининг асосий манбаи сифатида корхонанинг молиявий ва моддий самарадорлигини белгилайдиган,

асосий ишлаб чиқариш жараёнини таъминловчи ресурсларни ўз ичига қамраб олади. Товар-моддий захиралардан ишлаб чиқариш жараёнининг барча босқичларида фойдаланилади ва маҳсулот таннархи ҳамда унинг сифатига бевосита таъсир кўрсатади.

Товар-моддий захираларнинг асосий қисми хом ашё ва материаллар бўлиб, улар ҳар қандай ишлаб чиқариш жараёнининг пойдевори ҳисобланади. Дон маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналарда асосий хомашё дон бўлиб, унинг сифати, намлиги ва тоза бўлиши ишлаб чиқариладиган маҳсулотнинг стандартларга мувофиқлиги ва сақлаш муддатига бевосита таъсир қилади. Шунингдек, товар-моддий захиралар таркибида ёрдамчи ва қадоқлаш материаллари ҳам муҳим роль ўйнайди. Улардан маҳсулотни бозорга чиқаришда, қўшимча ишлов беришда ва сақлашда фойдаланилади.

Дон маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналарда ишлаб чиқариш жараёнлари (дона тозалаш, қуритиш, майдалаш, қадоқлаш) энергия ва ёқилғи ресурсларига боғлиқ. Бу ресурсларсиз технологик операцияларни бажариш мумкин эмас. Шунинг учун энергия ва ёқилғи манбалари ҳам асосий ишлаб чиқариш фаолиятининг фундаментал элементи ҳисобланади.

Товар-моддий захиралар корхонанинг молиявий натижаларига бевосита таъсир кўрсатади. Товар-моддий захираларнинг қиймати, хўжалик жараёнларида уларнинг ҳаракати ва улардан фойдаланиш самарадорлиги молиявий натижаларга бевосита таъсир қилади. Дон маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналарда хомашё, ёрдамчи материаллар, энергия ресурслари ва тайёр маҳсулотлар ҳисоб-китоби молиявий натижаларни тўғридан-тўғри шакллантиради. Масалан, агар хомашёнинг қиймати ошса ёки сақлаш жараёнида йўқотишлар кўп бўлса, маҳсулот таннархи ошиб, фойда миқдори камаяди.

Товар-моддий захираларни тўғри таснифлаш корхонада харажатларни аниқ ҳисоблаш, ресурсларни самарали тақсимлаш ва молиявий натижаларни ишончли баҳолаш имконини беради.

Товар-моддий захираларни баҳолаш усулларини оптималлаштириш уларнинг қийматини тўғри аниқлаш жараёнини такомиллаштиришни назарда тутади. Бунда ҳақиқий таннарх аниқлиги таъминланиши зарур. Шунингдек, ҳар бир технологик жараён ва товар-моддий захира тури бўйича харажатлар таҳлил қилиниши шарт. Бу, ўз навбатида, ресурснинг оптимал тақсимланишига замин яратади. Таннарх таҳлили орқали чиқитларни камайтириш ва харажатларни қисқартириш имкониятлари аниқланади. Таъкидлаш жоизки, баҳолаш усуллари оптималлаштирилганда харажатларнинг шаффофлиги ва молиявий ҳисоботнинг ишончлилиги ошади, самарадорликни ошириш ва инвестицион қарорларни қўллаб-қувватлаш мумкин бўлади.

Товар-моддий захираларнинг самарали ҳисобини юритиш ва улардан мақсадли фойдаланиш, дон маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналарда фаолият самарадорлигини оширишнинг асосий омили сифатида хизмат қилади. Товар-моддий захираларнинг тўғри таснифланиши, баҳолаш усулларининг оптималлаштирилиши, автоматлаштириш ва ички назоратни кучайтириш йўналишлари корхона фаолиятида бир-бири билан чуқур боғлиқ ва ўзаро ҳамкорликда ишлаш зарурлигини намоён этади.

Биринчидан, захираларни муайян тоифалар бўйича аниқ таснифлаш корхонада харажатларни ҳисоблашни оптималлаштиради, технологик жараёнларнинг ҳар бир босқичини назорат қилиш имконини беради ва таннархни тўғри аниқлашга ёрдам беради. Бу, ўз навбатида, маҳсулот сифати ва захиралардан самарали фойдаланишни таъминлайди.

Иккинчидан, баҳолаш усулларини такомиллаштириш орқали харажатларнинг шаффофлиги ва молиявий ҳисоботнинг ишончлилиги оширилади. Хомашё ва қўшимча маҳсулотлар қиймати тўғри баҳоланганда, чиқиндиларни камайтириш ва ресурсларни мақсадли тақсимлаш имкони пайдо бўлади, бу эса корхонанинг иқтисодий самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатади.

Учинчидан, автоматлаштириш йўналиши таҳлил ва ҳисоботларни тез ва аниқ шаклда олиш имконини яратади, технологик жараёнлар ва товар-моддий захиралар ҳаракатини интеграциялаштириб, бошқарув қарорларини аниқ ва вақтида қабул қилишни таъминлайди. Бу ички назорат ва бухгалтерия ҳисобини ҳам замонавий рақамли технологиялар асосида такомиллаштиришга хизмат қилади.

Тўртинчидан, ички назоратни кучайтириш корхонада харажатларни ва захираларни мақсадли ва самарали тақсимлашни таъминлайди. Технологик операциялар доимий назорат остида бўлганида маҳсулот сифати яхшиланади, ишлаб чиқаришдаги самарадорлик ошади ва харажатларнинг оптималлаштирилишига эришилади.

Шу тариқа, дон маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналарда товар-моддий захиралар ҳисобини такомиллаштириш корхонанинг иқтисодий самарадорлигини ошириш, маҳсулот сифати ва рақобатбардошлигини таъминлашда асосий омил ҳисобланади. Жумладан, захиралардан мақсадли фойдаланиш, харажатларнинг шаффофлиги, автоматлаштириш ва ички назорат тизимининг самарали бўлиши орқали корхона молиявий натижаларини яхшилаш ва бозорда барқарор рақобатбардошликка эришиш мумкин.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Касимова Гулёр Ахматовна
ТДИУ "Бюджет назорати ва ғазначилик иши " кафедраси и.ф.д профессор.
Есенбаева Бийбиназ Махмут қизи
ТДИУ магистранти

Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасида давлат молиявий назорати тизимининг аҳамияти, унинг назарий асослари ҳамда иқтисодий моҳияти таҳлил қилинган. Шунингдек, давлат молиявий назоратини амалга оширишда мавжуд муаммолар ва уларни бартараф этиш йўллари кўриб чиқилган. Давлат молиявий назоратини такомиллаштириш мақсадида назорат тизимини рақамлаштириш, ички аудитни ривожлантириш, халқаро стандартларни жорий этиш ҳамда молиявий шаффофликни таъминлаш каби устувор йўналишлар асослаб берилган. Тадқиқот натижалари давлат молиясини бошқариш самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Калит сўзлар: давлат молиявий назорати, давлат бюджети, молиявий шаффофлик, ички аудит, рақамлаштириш, давлат молияси.

Давлат молиявий назорати мамлакат иқтисодиёти барқарорлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. У давлат бюджети маблағларининг мақсадли ва самарали сарфланишини таъминлаш, молиявий интизомни мустаҳкамлаш ҳамда давлат ресурсларидан оқилона фойдаланишни назорат қилишга хизмат қилади. Ҳозирги кунда иқтисодиётни модернизация қилиш жараёнида давлат молиявий назорати тизимини такомиллаштириш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Жаҳон тажрибасида давлат молиявий назорати давлат бошқарувининг муҳим элементларидан бири сифатида қаралади. Масалан, иқтисодчи олим Joseph Stiglitz давлат молияси шаффофлиги иқтисодий барқарорликни таъминлашда муҳим омил эканлигини таъкидлайди. Шунингдек, давлат молиявий назорати самарадорлиги давлат бошқаруви сифатига бевосита таъсир кўрсатади.

Молиявий назорат – бу уларнинг фаолиятини таҳлил қилувчи масъул органларнинг фаолияти, самарадорлигини ошириш, фаолият кўрсатаётган тадбиркорлик субъектларининг молиявий айланмасини белгиланган қонун ҳужжатлари доирасида таъминлаш ва уларни янада такомиллаштириш бўйича аниқ мақсадга йўналтирилган таклифлар ишлаб чиқишдан иборатдир.

Молиявий назорат иқтисодий муносабатлар субъектларининг молиявий ҳуқуқларини ҳимоя қилишга хизмат қилади ҳамда давлат молиявий ресурсларидан самарали фойдаланишни таъминлашда муҳим инструмент ҳисобланади. Давлат молиявий назоратининг асосий принципи, уни амалга оширишнинг кўплаб илмий

ва амалий вазифаларига қарамай, тегишли давлат бошқаруви фаолиятини амалга ошириш воситаларининг мезонларининг хилма-хиллигидир.

Давлат молиявий назоратининг назарий асослари

Давлат молиявий назорати давлат молиявий ресурсларидан фойдаланиш жараёнини кузатиш, таҳлил қилиш ва баҳолашга қаратилган тизимдир. Унинг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

- давлат бюджети маблағларидан мақсадли фойдаланишни таъминлаш
- молиявий қонунчиликка риоя этилишини назорат қилиш
- молиявий интизомни мустаҳкамлаш
- бюджет маблағларининг самарадорлигини ошириш

Иқтисодчи олим Allen Schick давлат молиявий назоратини давлат бошқарувининг асосий механизмларидан бири деб ҳисоблайди. Унинг фикрига кўра, самарали назорат тизими давлат харажатларининг шаффофлиги ва ҳисобдорлигини таъминлайди.

1- жадвал

Давлат молиявий назоратининг иқтисодий моҳияти

ВАЗИФАЛАРИ	***МОҲИЯТИ***
Мувофиқликни таъминлаш	Давлат молиявий назорати молиявий операциялар ва операцияларнинг амалдаги қонунлар, қоидалар ва бюджет қоидаларига мувофиқлигини таъминлаш учун кўрсатмалар ва тартибларни белгилайди. Бу масъулият ва шаффофликни таъминлаш орқали давлат маблағларини нотўғри ишлатиш ёки ўзлаштиришнинг олдини олишга ёрдам беради.
Фирибгарлик ва коррупцияни аниқлаш ва олдини олиш	Мунтазам аудит ўтказиш ва мустаҳкам ички назорат тизимларини жорий этиш орқали давлат молиявий назорати давлат секторидаги фирибгарлик ва коррупцияни аниқлайди ва олдини олади. Бу қоидабузарликлар, номувофиқликлар ва потенциал хавфларни аниқлашга ёрдам беради ва шу билан давлат ресурсларини ҳимоя қилади.
Ресурсларни тақсимлашни оптималлаштириш	Давлат молиявий назорати ресурсларни самарали тақсимлашда ҳал қилувчи роль ўйнайди. Давлат дастурлари ва лойиҳалари самарадорлиги ва самарадорлигини баҳолаш орқали у ресурслардан яхшироқ фойдаланиш мумкин бўлган соҳаларни аниқлашга ёрдам беради, бу эса хизматлар кўрсатишни яхшилаш ва иқтисодий самарадорликка олиб келади.
Ошкоралик ва ҳисобдорликни ошириш	Давлат молиявий назорати молиявий операциялар ва ёзувлар шаффоф ва жамоатчилик учун очиқ бўлишини таъминлайди. Бу давлат мансабдор шахсларини ўз молиявий қарорлари ва хатти-ҳаракатлари учун жавобгарликка тортиш орқали

	масъулиятни оширишга ёрдам беради, аҳолининг ҳукуматнинг давлат маблағларини бошқаришига ишончини оширади.
Самарали бошқарувни ривожлантириш	Самарали давлат молиявий назорати яхши бошқарувнинг муҳим таркибий қисмидир. У демократик институтларни мустаҳкамлайди, қонун устуворлигини таъминлайди ва молиявий бошқарувни масъулият билан таъминлайди. Бу мамлакат иқтисодиётининг ҳар томонлама ривожланиши ва барқарорлигига ҳисса қўшади.

1-жадвал маълумотларига кўра, давлат молиявий назорати давлат секторининг молиявий фаолиятини назорат қилиш ва тартибга солиш учун ҳукуматлар томонидан қўлланиладиган механизмлар ва амалиётларни ўз ичига олади. Мувофиқликни таъминлаш, молиявий қонунбузарликларни аниқлаш ва олдини олиш, ресурсларни тақсимлашни оптималлаштириш, шаффофлик ва жавобгарликни ошириш орқали у фискал масъулият ва самарали бошқарувни рағбатлантиришда ҳал қилувчи роль ўйнайди

Ўзбекистон Республикасида давлат молиявий назоратини амалга оширишда бир қатор давлат органлари фаолият юритади. Бу тизим давлат бюджети маблағларининг тўғри ва самарали сарфланишини таъминлашга қаратилган.

Сўнгги йилларда мамлакатда давлат молиясини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Давлат молиявий назоратини кучайтириш, бюджет жараёнларини рақамлаштириш ва молиявий шаффофликни таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Халқаро амалиётда давлат молиявий назорати стандартларини ишлаб чиқувчи ташкилотлардан бири INTOSAI ҳисобланади. Ушбу ташкилот давлат аудити ва молиявий назоратини амалга ошириш бўйича халқаро стандартларни ишлаб чиққан.

Давлат молиявий назоратида мавжуд муаммолар

Айрим ҳолларда давлат молиявий назорати тизимида қуйидаги муаммолар учраши мумкин:

- назорат механизмларининг етарли даражада самарали эмаслиги
- ахборот технологияларидан тўлиқ фойдаланилмаслиги
- молиявий ҳисоботларнинг шаффофлиги етарли эмаслиги
- ички аудит тизимининг етарли даражада ривожланмаганлиги

Британиялик иқтисодчи олим Noel Hepworth давлат секторини бошқаришда ички аудит ва назорат тизимини кучайтириш давлат молияси самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга эканлигини таъкидлайди[4].

Давлат молиявий назоратини такомиллаштириш истиқболлари

Ўзбекистон Республикасида давлат молиявий назорати тизимини янада такомиллаштириш учун қуйидаги йўналишларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ:

2- жадвал

Давлат молиявий назоратини такомиллаштириш истиқболлари

№	Йўналиш	Тафсилотлар ва аҳамияти
1	**Назорат тизимини рақамлаштириш**	Замонавий ахборот технологияларини жорий этиш орқали назорат жараёнларини самарали ташкил этиш. Электрон мониторинг ва автоматлаштирилган молиявий ҳисоботлар орқали давлат ресурсларидан самарали фойдаланишни таъминлайди.
2	**Ички аудит тизимини ривожлантириш**	Давлат ташкилотларида ички аудит тизимини кучайтириш молиявий интизомни мустаҳкамлашга ёрдам беради. Харажатларнинг қонунийлигини ва ҳисобдорликни таъминлайди, коррупция хавфини камайтиради.
3	**Халқаро стандартларни жорий этиш**	Давлат аудити ва молиявий назорат соҳасида халқаро тажрибалардан фойдаланиш назорат тизимининг самарадорлигини оширади. ISSAI каби стандартлар асосида аудит жараёнлари аниқ ва шаффоф бўлади.
4	**Молиявий шаффофликни таъминлаш**	Давлат бюджети харажатлари бўйича очиқ маълумотлар тизимини ривожлантириш орқали аҳоли ва жамоатчилик назоратини кучайтириш мумкин. Бу давлат молиясининг шаффофлиги ва ишончлилигини оширади.

2-жадвалда кўрсатилган йўналишлар давлат молиявий назоратининг самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади. Назорат тизимини рақамлаштириш ва ички аудитни ривожлантириш молиявий интизомни мустаҳкамлайди. Халқаро стандартларни жорий этиш назорат жараёнларининг шаффофлигини таъминлайди. Давлат бюджети харажатларини очиқ тақдим этиш эса аҳоли ва жамоатчилик назоратини кучайтиради.

Хулоса қилиб айтганда, давлат молиявий назорати мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга. У давлат бюджети маблағларидан мақсадли ва самарали фойдаланишни таъминлаш, молиявий интизомни мустаҳкамлаш ҳамда давлат ресурсларини бошқариш самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, давлат молиявий назорати тизимини такомиллаштириш учун назорат механизмларини модернизация қилиш, ахборот технологияларидан кенг фойдаланиш ва ички аудит тизимини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, давлат молиявий назорати соҳасида халқаро стандартларни жорий этиш ва илғор хорижий тажрибалардан

фойдаланиш назорат жараёнларининг самарадорлигини янада оширишга хизмат қилади.

Бундан ташқари, молиявий шаффофликни таъминлаш, бюджет жараёнларининг очиқлигини ошириш ҳамда жамоатчилик назоратини кучайтириш давлат молиясини бошқариш тизимининг самарадорлигини янада мустаҳкамлайди. Шу жиҳатдан қараганда, давлат молиявий назоратини такомиллаштириш мамлакат иқтисодий барқарорлиги ва давлат бошқаруви самарадорлигини таъминлашда муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

ИСЛОМИЙ МОЛИЯЛАШТИРИШ ТИЗИМИНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ТАШКИЛИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Ходжаев Азиз Шовкатович

Тошкент давлат иқтисодиёт университети, мустақил изланувчи (PhD)

Аннотация: Тезисда исломий молиялаштириш тизимини жорий этишнинг ташкилий ва ҳуқуқий асослари таҳлил қилинган, исломий молия институтларининг фаолиятини тартибга солувчи халқаро стандартлар, шариат назорати механизми ҳамда миллий иқтисодиётда исломий молиялаштириш тизимини ривожлантириш имкониятлари ўрганилган, тадқиқот натижасида исломий молия инфратузилмасини шакллантириш, ҳуқуқий базани такомиллаштириш ва халқаро стандартларни жорий этиш зарурияти таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: исломий молия, халқаро стандартлар, исломий банклар, сукук бозори, такаффул, инвестиция фонди, шариат назорати, молия инфратузилмаси, ҳуқуқий база.

Жаҳонда кузатилаётган мураккаб сиёсий вазият фонида молиявий тизимлар барқарорлиги сўроқ остида қолаётган бир вақтда исломий молия тизимининг аҳамияти ва кўлами сезиларли даражада ортиб бормоқда. Анъанавий молия тизимидан фарқли ўлароқ, исломий молия тизимининг реал активлар ҳаракатига асосланганлиги ушбу вазиятда муҳим ўрин эгалламоқда, жумладан 2024 йил якунлари бўйича исломий молия саноатининг активлари қиймати қарийиб 6,0 трлн. АҚШ долларига етганлиги, исломий банклар активлари қиймати 4,3 трлн. АҚШ долларидан ошганлиги бунинг яққол тасдиғи. Ўзбекистонда инвестицияларни молиялаштириш манбаларини диверсификациялашда муқобил манбаа сифатида исломий молия тизимини жорий этишда пухта ишланган ҳуқуқий ва ташкилий асослар тизимнинг келгусида самарали фаолиятини таъминлайди.

Мазкур мавзуни ёритишда абстракт-мантиқий фикрлаш, умумлаштириш, таққослаш, анализ ва синтез, тизимли таҳлил усулларидан фойдаланилди, халқаро ташкилотлар томонидан ишлаб чиқилган стандартлар ва тавсиялар таҳлил

қилинди, тадқиқот асосида олинган натижалар бўйича хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилди.

Маълумки, бугунги кунда амалдаги анъанавий молия тизимининг негизини фоизга асосланган қарз бериш амалиёти ташкил этади ва бу механизм моҳиятан ислом молиясининг тамойилларига зид ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан қараганда, анъанавий молия тизими шароитида ислом молияси тамойилларини шариат қоидаларига мос равишда қўлланишини ташкил этиш мураккаб ҳуқуқий ва ташкилий асосларни яратишни тақозо этади.

Ўзбекистонда охирги йилларда исломий молия тизимини жорий этиш мақсадида ҳуқуқий ва ташкилий асосларни яратиш борасида ишлар фаоллашганини таъкидлаш лозим. Жумладан, анъанавий молия тизимига асосланган банк фаолияти билан шуғулланувчи тижорат банкларига исломий молия хизматлари кўрсатиш имконияти пайдо бўлди, микромолия ташкилотларига исломий молия инструментларини таклиф этиш ҳуқуқи берилди ва бу борада Марказий банкнинг “Микромолия ташкилотлари томонидан исломий молиялаштиришга оид хизматларни кўрсатиш тартиби тўғрисида”ги низом тасдиқланди[82]. 2025 йил 11 ноябрь куни «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига Ўзбекистонда исломий банк фаолиятини жорий этишга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни Олий Мажлис Қонунчилик палатаси томонидан қабул қилинди.

Тадқиқот натижаларига кўра, фоизга асосланган анъанавий молия тизими шароитида исломий молиялаштириш тизимини жорий этиш учун қуйидаги асосий ташкилий ва ҳуқуқий механизмларни шакллантириш зарурлиги аниқланди:

1. Меъёрий-ҳуқуқий базани шакллантириш, жумладан исломий молия институтлари фаолиятини тартибга солувчи махсус қонунлар ва меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш зарур;

2. Шариат назорати тизимини ташкил этиш, жумладан исломий молия тизимига хос бўлган молиявий фаолиятнинг шариат талабларига мувофиқлигини таъминлаш ва сифатли назоратни амалга ошириш учун шариат кенгашлари фаолиятини йўлга қўйиш;

3. Исломий молия инфратузилмасини ривожлантириш, жумладан исломий банклар фаолиятини йўлга қўйиш, сукук бозорини ташкил этиш, такаффул (исломий суғурта) хизматларини ташкил этиш, исломий инвестиция фондлари фаолиятини ташкил этиш бўйича ҳуқуқий асосни яратиш;

[82] Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқарувининг қарори “Микромолия ташкилотлари томонидан исломий молиялаштиришга оид хизматларни кўрсатиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”, 1-илова, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2024 йил 26 июлда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3536, Тошкент ш., 2024 йил 19 июль, 23/4-сон.

4. Халқаро стандартларни жорий этиш, жумладан AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) ва IFSB (Islamic Financial Services Board) стандартларини миллий молия тизимига жорий этиш орқали молиявий барқарорлик ва шаффофликни таъминлаш.

Тақдқиқот натижаларига асосланган ҳолда шуни айтиш мумкинки, исломий молия тизимини амалдаги анъанавий молия тизимига рақобатчи сифатида жорий этиш мамлакат иқтисодиётига қуйидаги ижобий таъсир кўрсатади:

1. Инвестицияларни, жумладан хорижий инвестицияларни жалб қилиш имкониятларини кенгайтиради;

2. Молиявий хизматлардан фойдаланмай келган аҳоли қатламининг қўлидаги бўш пул маблағларини ички инвестиция сифатида (аҳолининг 90 фоизидан ортиқ қисми ислом динига эътиқод қилиши асос бўлиб хизмат қилади) молия тизимига жалб қилиш имконини беради;

3. Молия бозорини диверсификациялар орқали молия институтлар ўртасида рақобатни кучайтиради ва молиявий хизматлар нархини пасайтиради;

4. Кичик ва ўрта бизнес лойиҳаларини молиялаштириш инструментлари кўпаяди ва имкониятлар кенгаяди.

Шу билан бирга, мазкур тизимни жорий этишда бир қатор ечимини кутаётган муаммолар ҳам мавжуд бўлиб, ҳуқуқий базанинг етарли даражада шаклланмагани, малакали кадрлар етишмаслиги ва исломий молия инфратузилмасининг ривожланмаганлиги шулар жумласидандир.

Хулоса қилиб айтганда, исломий молиялаштириш тизимини самарали жорий этиш учун институционал ва ҳуқуқий ислоҳотларни амалга ошириш, халқаро стандартларни миллий молия тизимига мослаштириш ҳамда малакали мутахассислар тайёрлаш муҳим аҳамиятга эга.

ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Хушвоков Азизбек Сирожидинович

Независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета

В условиях глобализации мировой экономики и усиливающейся конкуренции за инвестиционные ресурсы формирование благоприятного инвестиционного климата становится стратегически важной задачей для любой страны. Узбекистан, обладая значительным экономическим потенциалом и выгодным географическим положением, в последние годы активно реализует масштабные реформы, направленные на привлечение иностранных инвестиций и развитие частного сектора. Повышение инвестиционной привлекательности страны

рассматривается как ключевой фактор устойчивого экономического роста, модернизации промышленности и повышения уровня жизни населения.

За последние годы в Узбекистане были проведены существенные институциональные и структурные реформы. Одним из важнейших шагов стала либерализация валютного рынка, которая значительно упростила условия для иностранных инвесторов. Также были снижены налоговые ставки, упрощены процедуры регистрации бизнеса и сокращено количество проверок.

В стране активно создаются свободные экономические зоны (СЭЗ), такие как «Навои», «Ангрен» и «Джизак», которые предлагают инвесторам налоговые и таможенные льготы, а также готовую инфраструктуру. Эти зоны стали центрами притяжения инвестиций в промышленность, логистику и высокотехнологичные отрасли.

Кроме того, Узбекистан демонстрирует стабильный экономический рост, что повышает доверие со стороны международных инвесторов. Улучшение позиций страны в международных рейтингах, таких как индекс лёгкости ведения бизнеса, также свидетельствует о положительных изменениях в инвестиционном климате.

Инвестиционная привлекательность страны определяется рядом ключевых факторов:

1. Политическая и экономическая стабильность. Стабильная политическая обстановка и последовательная экономическая политика являются важными условиями для долгосрочных инвестиций. Узбекистан в последние годы демонстрирует приверженность реформам и открытость к международному сотрудничеству.

2. Законодательная база и защита прав инвесторов. Прозрачное и предсказуемое законодательство является основой доверия инвесторов. В Узбекистане приняты законы, направленные на защиту прав инвесторов, включая гарантии от национализации и обеспечение равных условий для иностранных и отечественных компаний.

3. Налоговая политика. Снижение налоговой нагрузки и упрощение налогового администрирования способствуют росту инвестиционной активности. В стране внедрены современные системы электронного налогообложения, что повышает прозрачность и снижает административные издержки.

4. Инфраструктурное развитие. Развитие транспортной, энергетической и цифровой инфраструктуры является важным фактором привлечения инвестиций. Реализация крупных инфраструктурных проектов способствует улучшению логистики и снижению затрат для бизнеса.

5. Человеческий капитал. Молодое и растущее население Узбекистана является значительным преимуществом. Развитие системы образования,

профессиональной подготовки и научных исследований способствует формированию квалифицированной рабочей силы.

Несмотря на значительные успехи, инвестиционная среда Узбекистана сталкивается с рядом проблем: сохраняющиеся бюрократические барьеры в отдельных секторах; недостаточная прозрачность некоторых государственных процедур; ограниченный доступ к финансовым ресурсам для малого и среднего бизнеса; необходимость дальнейшего реформирования судебной системы; инфраструктурные ограничения в отдалённых регионах.

Решение этих проблем требует последовательной государственной политики и активного участия частного сектора.

Для дальнейшего повышения инвестиционной привлекательности Узбекистана целесообразно реализовать следующие меры:

1. Цифровизация государственного управления. Внедрение электронных платформ для взаимодействия бизнеса и государства позволит сократить коррупционные риски и повысить прозрачность процедур.

2. Развитие финансовых рынков. Создание эффективного фондового рынка и расширение доступа к финансированию помогут привлечь дополнительные инвестиционные ресурсы.

3. Поддержка малого и среднего бизнеса. Развитие предпринимательства является важным фактором экономического роста. Необходимо расширять программы кредитования, субсидирования и обучения предпринимателей.

4. Улучшение судебной системы. Обеспечение независимости судов и эффективной защиты прав инвесторов является ключевым условием формирования доверия.

5. Активизация международного сотрудничества. Привлечение международных финансовых организаций и участие в глобальных экономических проектах способствует внедрению передового опыта и технологий.

Иностранные инвестиции играют важную роль в экономическом развитии Узбекистана. Они способствуют притоку капитала, внедрению современных технологий и повышению уровня управленческих практик. В последние годы страна активно привлекает инвестиции в такие отрасли, как энергетика, сельское хозяйство, текстильная промышленность, строительство и информационные технологии.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ichki audit tizimini rivojlantirish va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda “Ichki audit to‘g‘risida”gi alohida qonunni qabul qilish, ichki audit xizmatlarining mustaqilligini ta’minlash hamda xalqaro standartlarni milliy amaliyotga joriy etish tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Hisob palatasi faoliyatini modernizatsiya qilish va ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish davlat moliyaviy nazorati institutlarining institutsional salohiyatini mustahkamlab, byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va korrupsion xavflarni kamaytirishga imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan, ichki auditni zamonaviy boshqaruv tizimining strategik elementi sifatida rivojlantirish mamlakat iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

XORIJIY TIL VA ADABIYOTI (TILLAR BO'YICHA) TA'LIM YO'NALISHLARI BO'YICHA XORIJ AMALIYOTI

G‘aniyev Shahriddin Vohidovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii,
“Budjet hisobi va g’aznachilik” kafedrasi Professori.

Ma'lumki, bugungi kunda Respublikamiz ta'lim tizimi va undagi o'qitish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasidagi islohotlari tahlil qilinib, shunga ko'ra ta'lim tizimini modernizasiyalash uning maqsad va vazifalarini amalga oshirish ishlariga aloxida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo ta'limi oldida turgan global vazifalarning hal qilinishida echimini kutayotgan muammolar oliy ta'lim tizimining tahlili, vazifalari, maqsadlarini o'rganish va kerakli tavsiyalar yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim sohasi bilan shug'ullanuvchi barcha davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining hozirgi kundagi asosiy vazifalari ta'limni tashkil etish, uning sifatini yuqori darajaga ko'tarish, ta'limni raqamlashtirish, boshqarish, moliyalashtirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish kabi masalalarining hal qilinishiga qaratilgan.

Aynan shu muammolar respublikamiz ta'lim tizimida ham mavjud edi, ammo shu bugungi kunda xalqaro darajada dars berish uchun professor-o’qituvchilarga inventar va jihozlar bilan imkon darajasida ta’minlangan desak mubolag’a bo’lmaydi, chunki dars

jarayonida electron doska orqali shartnoma tuzilgan bo’lsa top 100 yoki 1000 talik institut yoki universitetlardan o’tilayotgan mavzu bo’yicha ma’lumotlar olish imkoniyati 100 % mavjud.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni[93], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarorida[94].

Institut hamda universitetlarning o'quv rejalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich mazkur tizimga o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish bizning fikrimizcha quyidagicha amalga oshirsak maqsadga muvofiq bo’lardi deb hisoblaymiz.Jumladan,

- individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, yo’nalish bo’yicha o’qiyotgan talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali yo’nalish bo’yicha o’qiyotgan talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, ularni tasdiqlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berish;

- mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish;

- yo’nalish bo’yicha o’qiyotgan talabalar bilimini baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta'minlash, jumladan baholashning yo’nalish bo’yicha o’qiyotgan talabalar bilan bevosita aloqasiz (yo’nalish bo’yicha o’qiyotgan talaba bilan yuzma uz savol javob qilmasdan) shakllarini rivojlantirib borish;

fanlarni o'zlashtirishda yo’nalish bo’yicha o’qiyotgan talabalar orasida sog'lom fikrlash va raqobatni rivojlantirish mexanizmlarining amaliy jarayonlarini ishlab chiqish

[93]O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi 23.09.2020 yildagi Qonuni, (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi., *21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son)*

[94] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bogliq tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi 824-son qarori. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020 y., 09/20/824/1689-son).

boshqa vazifalar belgilab berilgan [95].

2021 yil 16 iyun kuni oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligidagi videoselektor yig'ilishi yoshlarni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlash maqsadida ta'lim tizimi izchil rivojlantirish, Oliy ta'lim sohasidagi dastlabki islohotlar, avvalo, qamrovni oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni moddiy qo'llab quvvatlashga bag'ishlandi. Jumladan, Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida amalga oshirilgan ishlar natijasida hozirgi kunda respublikamizda oliy ta'lim muassasalari soni 211 tani tashkil etadi. Ular – 112 ta davlat, 30 ta xorijiy va 69 ta nodavlat oliy ta'lim muassasalari hisoblanadi. Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi 43 foizga yetkazildi.

2024-yilning 1-yarim yilida 39 476 nafar talabalarga yo'nalish bo'yicha dars beruvchi professor - o'qituvchilar, jumladan 17 389 nafar (3 357 nafar fan doktori (DSc), 14 032 nafar fan nomzodi (PhD)) ilmiy darajaga ega dars beruvchi professor-o'qituvchilar faoliyat yuritgan, ilmiy salohiyat respublika bo'yicha 44 foizni tashkil etgan.

2024/2025 o'quv yilida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalariga muvofiq oliygohlar tomonidan 2024/2025 o'quv yilida o'quv mashg'ulotlarini olib boradigan professor-o'qituvchilar yillik o'quv yuklamalari hajmi 10 foizga kamaytirgan holda hisoblandi.

2024/2025 o'quv yilida respublikamizda 5 ta yangi tashkil etilgan quyidagi oliy ta'lim muassasalari o'z faoliyatini boshladi:

- Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti (davlat OTM);
- Toshkent tibbiyot akademiyasi Chirchiq filiali (davlat OTM);
- M. Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universitetining Chirchiq shahridagi filiali (xorijiy OTM filiali);
- Toshkent shahrida Amerika texnologiyalar universitetini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida (nodavlat OTT);
- Tashkent Metropolitan university (nodavlat OTT).

Yo'nalish bo'yicha o'qiyotgan talabalarda amaliy kompetensiyalar va ko'nikmalarni kuchaytirish maqsadida kamida 15 haftalik uzluksiz malakaviy amaliyotlar o'tkazilishi belgilandi.

Bugungi kunda respublika oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi akademik litseylar soni jami 73 ta bo'lib, shundan 24 ta litsey Toshkent shahrida, 49 tasi hududlarda joylashgan.

[95] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8-oktyabrdagi 5847-son farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

Texnika, madaniyat va san’at hamda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi aksariyat oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish uchun yetishmayotgan mablag‘larning bir qismi Davlat byudjeti hisobidan qoplab berilmoqda.

Shunday qilib, bugungi kunda 112 ta oliygohda jami 338 ta talabalar turar joylari mavjud bo’lib, ularning sig‘imi 127 792 o‘rinni tashkil etmoqda. Bu yotoqxonaga ehtiyoji bor talabalarning 54 foizini qamrash imkonini beradi[96].

Navbatdagi yig'ilishda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev sohadagi quyidagi 4 ta ustuvor vazifani ko'rsatib o'tdi:

birinchisi – oliy ta'lim muassasalari boshqaruv Kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish.

ikkinchisi – o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta'minlash va talabaning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratish.

uchinchisi – oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovasiyani rivojlantirish.

to'rtinchisi – professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qog'ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish.

Bu vazifalarni samarali bajarish uchun oliy ta'lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi ta'kidlandi, joriy o’quv yili davomida ham mustaqil qarorlar qabul qilinmoqda va amaliyotga to’liq joriy qilindi, yo’nalish bo’yicha o’qiyotgan talabalarga qulaylikni keltirib chiqarmoqda.

Oliy ta'lim yo'nalishlari bilan zamonaviy ehtiyojlar o'rtasida uzilish juda katta ekani tanqid qilindi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 40 mingta, sanoatda 38 mingta, qurilishda 12 mingta, qishloq xo'jaligida 10 mingta, aloqa va axborot texnologiyalarida 4 mingta oliy ma'lumot talab etadigan bo'sh ish o'rinlari bor. Lekin bitiruvchilar son jihatidan ham, malaka bo'yicha ham bu talabni qondira olmaydi.

Ta'lim jarayoni 2001 yilda tasdiqlangan standartlar asosida olib borilmoqda. Lekin, shu davrda ta'limning xalqaro standartlari 2 marta yangidan qabul qilingan. Ayrim o'quv darslari zamon va bozor talabiga emas, balki professor-o'qituvchilarga moslashgan. Yo’nalish bo’yicha o’qiyotgan talabalar o'z yo'nalishiga daxldor bo'lmagan fanlar bilan ham shug'ullanmoqda.

Shu bois, mutasaddilarga davlat ta'lim standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, barcha oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini kredit-modul tizimiga o'tkazish bo'yicha topshiriq berildi. O'qitilayotgan fanlarni mazmunan qayta ko'rib chiqib, ortiqcha takrorlanishlarni qisqartirish, bo'shagan dars soatlari o'rniga mutaxassislik fanlarni ko'paytirish hamda talabalarga mustaqil ilmiy izlanish uchun imkoniyat yaratish kerakligi ta'kidlandi.

[96] https://gov.uz/oz/edu/news/view/19441

Xozirgi vaqtda dunyoda ta'lim dasturlarini amalga oshirishda ta'lim sifati va me'yorlarining o'lchov birligi bo'lgan kredit tizimlari tushunchasidan foydalanilmoqda.

Mazkur tizimlarni eng ko'p tarqalgani AQSh kredit tizimi **(USCS),** Britaniya kreditlarni to'plash va o'tkazish tizimi **(CATS)**, Evropa kreditlarni yig'ish va to'plash tizimi **(ECTS)** va Osiyo tinch okeani kredit tizimi **(UCTS)** xisoblanadi.

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ И ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Ахунова Шохистахон Номанжановна
к.э.н., доцент кафедры «Экономика», ФГТУ
Расулов Мухаммадамин Максадбек угли
студент 3-курса, факультета «Управление в производстве», Ферганского государственного технического университета, г. Фергана, Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные вопросы трансформации системы внутреннего аудита в Республике Узбекистан в свете принятия новых Глобальных стандартов внутреннего аудита 2024 года. На основе анализа методологии IA-CM и отчетов PEFA 2024 выявлены ключевые этапы перехода от традиционного финансового контроля к современному риск-ориентированному аудиту. Автором проведен сравнительный анализ опыта Великобритании и Сингапура, адаптированный к национальной специфике реформирования управления государственными финансами. В результате исследования предложены стратегические рекомендации по усилению институциональной независимости аудиторов и интеграции цифровых технологий (ИИ и Big Data) в аудиторский процесс. Статья предназначена для специалистов в области государственного управления, аудиторов и исследователей экономических реформ.

Ключевые слова: Антикоррупционный комплаенс, Внутренний аудит, Глобальные стандарты 2024, Государственные финансы, Международный опыт, Модель трех линий, Республика Узбекистан, Цифровизация, IA-CM, PEFA.

Введение. Современная архитектура государственного управления в Республике Узбекистан претерпевает фундаментальную трансформацию, ориентированную на повышение прозрачности, подотчетности и эффективности использования государственных ресурсов. В рамках реализации Стратегии «Узбекистан – 2030» и программ реформирования управления государственными финансами (PFM), вопрос внедрения и совершенствования системы внутреннего аудита становится одним из приоритетных направлений государственной

политики.[1] Внутренний аудит в современных условиях перестал быть исключительно инструментом финансового надзора и превратился в критически важную функцию управления, обеспечивающую независимую оценку систем внутреннего контроля, управления рисками и корпоративного управления.[3]

Глобальный контекст этой трансформации задается выходом новых Глобальных стандартов внутреннего аудита (Global Internal Audit Standards™) в январе 2024 года, которые представляют собой наиболее значительное обновление Международных профессиональных стандартов внутреннего аудита (IPPF) за последние десятилетия.[3] Эти стандарты вводят новую структуру, ориентированную на принципы, и подчеркивают роль внутреннего аудита как партнера высшего руководства и совета директоров в создании и защите стоимости организации.[4] Для Узбекистана, где в последние годы наблюдается устойчивый рост ВВП на уровне 6,5% и значительный приток прямых иностранных инвестиций (до 7,2 млрд долларов в 2023 году), соответствие международным стандартам является залогом сохранения доверия инвесторов и международных финансовых институтов.[7]

Реформы в Узбекистане проводятся в условиях активного взаимодействия с Всемирным банком, МВФ и другими донорами, что отражается в реализации таких проектов, как Проект реформирования налогового администрирования.[2] Отчеты о государственных расходах и финансовой подотчетности (PEFA) за 2024 год свидетельствуют о значительном прогрессе в модернизации правовой базы, однако также указывают на необходимость дальнейшего укрепления институциональной независимости служб внутреннего аудита и их кадрового потенциала.[1] Одной из ключевых вех стало принятие Постановления Президента № ПП-5177 от 6 июля 2021 года, которое заложило основы для борьбы с коррупцией через внедрение механизмов внутреннего контроля и аудита.[12]

Целью данного исследования является комплексный анализ путей развития системы внутреннего аудита в Узбекистане с учетом новых глобальных стандартов 2024 года и опыта передовых стран, таких как Великобритания и Сингапур. В статье рассматриваются механизмы адаптации международного опыта к национальной специфике, анализируются текущие достижения и вызовы в бюджетном и корпоративном секторах, а также предлагаются стратегические рекомендации по повышению уровня зрелости внутреннего аудита в республике.

Методы

Данное исследование базируется на системном и междисциплинарном подходе, сочетающем в себе методы сравнительно-правового анализа, структурно-функционального моделирования и качественного анализа данных. Основным аналитическим инструментарием послужила Модель зрелости возможностей внутреннего аудита для государственного сектора (IA-CM), разработанная

Институтом внутренних аудиторов (IIA).[14] Эта модель позволяет оценить текущее состояние системы внутреннего аудита в Узбекистане по пяти уровням: от начального формирования до стадии стратегического консультирования и оптимизации.

Методологическая база исследования включает следующие компоненты:

1. Сравнительный анализ стандартов: Было проведено детальное сопоставление структуры и содержания IPPF 2017 года и Глобальных стандартов внутреннего аудита 2024 года. Это позволило выявить ключевые изменения в требованиях к профессионализму, управлению функцией аудита и выполнению заданий.[3]

2. Анализ нормативно-правовой базы: Были изучены ключевые акты законодательства Республики Узбекистан, регулирующие сферу внутреннего аудита, включая Бюджетный кодекс, Указы и Постановления Президента (ПП-5177, ПП-34), а также ведомственные положения министерств и ведомств, доступные через систему Lex.uz.[12]

3. Оценка международного опыта: Изучены функциональные стандарты государственного сектора Великобритании (GovS 009) и практика отчетов о прозрачности в Сингапуре (EY, KPMG), что позволило выявить эталонные модели взаимодействия аудита с высшим руководством и надзорными органами.[17]

4. Интерпретация отчетов PEFA и Всемирного банка: Анализ показателей эффективности систем PFM в Узбекистане за период 2019–2024 гг. позволил проследить динамику реформ и идентифицировать существующие пробелы в интеграции аудита в бюджетный процесс.[1]

5. Логическое моделирование: На основе собранных данных была разработана концептуальная схема развития внутреннего аудита, учитывающая интеграцию информационных технологий (UzASBO 2.0, GFMIS) и современных антикоррупционных механизмов.[1]

Исследование проводилось с учетом специфики переходного периода в Узбекистане, характеризующегося переходом от классической модели «ревизии и контроля» к современной модели «аудита и консалтинга», что требует глубокого понимания как теоретических основ, так и практических аспектов функционирования государственных институтов в регионе.

Результаты: Анализ глобальных трендов и их применимости в Узбекистане

Глобальная трансформация стандартов: Архитектура 2024 года

Глобальные стандарты внутреннего аудита 2024 года (The Redbook™) радикально пересматривают иерархию и содержание обязательных руководств. Теперь стандарты организованы в пять доменов, которые объединяют ранее разрозненные элементы (этический кодекс, миссию и основные принципы) в единую структуру.[3]

Домен	Содержание и ключевые требования	Значимостьдля Узбекистана
I. Цельвнутреннего аудита	Определяет аудит как функцию, укрепляющую способность организации создавать и защищать стоимость через предоставление уверенности и инсайтов.[4]	Помогает отойти от понимания аудитакак карательного органа в госсекторе.
II. Этика и профессионализм	Описывает пять принципов:целостность, объективность, компетентность, профессиональное усердие и конфиденциальность.[3]	Создает базу для разработки национального кодекса этики госслужащих-аудиторов.
III. Управление функцией	Регламентирует отношениямеждуCAE, Советом директоров и руководством. Вводит «Основные условия» для Совета.[6]	Требует закрепления независимости служб внутреннего аудита на уровне законодательства.
IV. Управление службой	Фокусируется на стратегии аудита, планировании ресурсов и программах качества (QAIP).[21]	Направляет развитие методологических центров при МЭФ Узбекистана.
V. Выполнение услуг	Устанавливает стандарты для планирования заданий, оценки данных и коммуникации результатов.[3]	Обеспечивает единообразие методологиипроведения проверок в министерствах.

Особое внимание в новых стандартах уделено «Тематическим требованиям» (Topical Requirements), которые становятся обязательными для оценки конкретных рисков, таких как кибербезопасность, устойчивое развитие (ESG) и управление рисками мошенничества.[5] В условиях цифровизации экономики Узбекистана и стремления к «зеленому» переходу (ESG), данные требования становятся прямым руководством к действию для аудиторов национальных компаний.[2]

Модель трех линий (2020) как фундамент надлежащего управления

В 2020 году Институт внутренних аудиторов (IIA) обновил Модель трех

линий, сместив фокус с «обороны» на «создание стоимости» и «совместную ответственность».[22] Эта модель является ключевой для понимания того, как внутренний аудит в Узбекистане должен взаимодействовать с новыми антикоррупционными структурами.[12]

Линия / Субъект	Роль всистеме управления	Ключевые функции
Орган управления	Подотчетность стейкхолдерам	Надзор заменеджментом и аудитом, утверждение стратегии.[24]
Первая линия (Менеджмент)	Операционное управление	Владение рисками, внедрение контролей в бизнес-процессы.[25]
Вторая линия (Риски/Комплаенс)	Поддержка и мониторинг	Оказание экспертизы, мониторинг соблюдения регламентов, борьба с коррупцией.[12]
Третья линия (Внутренний аудит)	Независимая уверенность	Оценка эффективности первой и второй линий, объективные рекомендации.[26]

Инсайт: В узбекистанской практике часто наблюдается смешение ролей второй и третьей линий, когда внутренний аудит вынужден выполнять функции комплаенс-контроля. Международные стандарты 2024 года и Модель трех линий (2020) категорически требуют разделения этих функций для сохранения объективности аудита.[3] Сотрудничество, а не изоляция, является залогом эффективности: аудит должен полагаться на работу риск-менеджмента, если он признан эффективным.[6]

Оценка текущего состояния внутреннего аудита в Узбекистане (PEFA 2024)

Согласно отчету PEFA 2024, Узбекистан продемонстрировал впечатляющие результаты в реформировании бюджетной системы. Сокращение числа министерств и ведомств с 61 до 28 позволило более четко структурировать линии подотчетности.[1]

Статистика PEFA 2024 по внутреннему аудиту и контролю:

- Исполнение бюджета: Отклонение фактических расходов от утвержденных составило менее 5% в 2021 и 2023 годах.[11]

- Охват аудитом ГП: 87% государственных предприятий проходят внешний аудит в течение 6 месяцев после отчетного года.[11]
- Интеграция ИТ: Развитие систем UzASBO 2.0 и GFMIS обеспечило прозрачность на этапе кассового исполнения.[1]

Однако выявлены и проблемные зоны. Оценка PI-26 «Внутренний аудит» показывает, что, несмотря на наличие нормативной базы, регулярность проведения проверок, ориентированных на риски (а не только на финансовые нарушения), остается недостаточной.[11] Большинство служб внутреннего аудита в бюджетных организациях все еще находятся на 2-м уровне по модели IA-CM (Инфраструктурное развитие), характеризующемся упором на комплаенс и выявление нецелевого использования средств, в то время как международная практика требует перехода на 3-й (Интеграция) и 4-й (Управление результатами) уровни.[14]

Национальная специфика: Роль антикоррупционных инициатив

Постановление Президента № ПП-5177 от 6 июля 2021 года стало мощным катализатором развития внутреннего контроля. Внедрение систем антикоррупционного комплаенса во всех государственных органах создало «вторую линию» защиты, которая нуждается в качественном взаимодействии с внутренним аудитом.[12] Рейтинговая оценка эффективности борьбы с коррупцией, вводимая Агентством по противодействию коррупции с декабря 2021 года, напрямую зависит от качества работы внутренних аудиторских проверок.[12]

Важным аспектом является также Постановление № ПП-34 от 7 декабря 2021 года, направленное на совершенствование деятельности Агентства по противодействию коррупции, что косвенно усиливает мандат внутренних аудиторов в части обеспечения прозрачности государственных закупок.[13]

Зарубежный опыт: Великобритания и Сингапур

Анализ опыта передовых юрисдикций позволяет выделить ориентиры для развития системы в Узбекистане.

Великобритания (Public Sector): В Британии внутренний аудит в госсекторе регулируется функциональным стандартом GovS 009, который с апреля 2025 года полностью переходит на новые Глобальные стандарты IIA.[19] Ключевая особенность — наличие Правительственного агентства внутреннего аудита (GIAA), которое предоставляет услуги на основе модели общего обслуживания (shared services) для большинства министерств. Это обеспечивает:

- Высокую степень независимости от руководства конкретного ведомства.
- Возможность проведения сквозных (cross-government) аудитов по приоритетным направлениям.[19]
- Единую методологию и систему контроля качества.

Сингапур (Corporate Sector): Опыт Сингапура интересен подходом к

качеству через прозрачность. Аудиторские фирмы и службы внутреннего аудита крупных компаний ориентируются на стандарты управления качеством ISQM 1 и публикуют отчеты о прозрачности (Transparency Reports).[17] Эти отчеты раскрывают:

- Инвестиции в обучение персонала и цифровые технологии.
- Результаты внешних оценок качества (QAIP).
- Приверженность этическим принципам и независимости.[18]

Для Узбекистана адаптация модели GIAA могла бы решить проблему нехватки квалифицированных кадров в небольших ведомствах, а внедрение элементов отчетов о прозрачности повысило бы доверие к аудиту в крупных государственных компаниях.

Обсуждение: Вызовы и перспективы развития

Интеграция международных стандартов в национальное право

Переход на Глобальные стандарты внутреннего аудита 2024 года требует от Узбекистана не просто формального признания этих норм, но и глубокой ревизии подзаконных актов. В частности, необходимо пересмотреть Положение о службе внутреннего аудита в бюджетных организациях (Lex.uz, 622622), чтобы отразить новые требования к независимости и взаимодействию с Советом/Надзорным органом.[3]

Ключевым вызовом является концепция «Основных условий» (Essential Conditions) Домена III. В традиционной иерархической системе управления Узбекистана руководители ведомств привыкли рассматривать аудит как инструмент контроля подчиненных, но не всегда готовы к тому, что аудит будет оценивать их собственные управленческие решения.[6] Для решения этой проблемы требуется:

1. Усиление функциональной подотчетности внутренних аудиторов МЭФ или специализированным комитетам.
2. Законодательное закрепление права аудитора на беспрепятственный доступ к данным и персоналу высшего звена.[3]

Цифровизация аудита и использование ИИ

Глобальные тренды указывают на неизбежность перехода к аудиту данных (Data-driven audit). В Узбекистане создана хорошая база в виде UzASBO 2.0 и GFMIS, однако уровень использования аналитических инструментов в аудите остается на начальном этапе.[1]

Перспективы внедрения цифрового аудита:

- Непрерывный мониторинг (Continuous Monitoring): Использование алгоритмов для выявления подозрительных транзакций в бюджетной системе в режиме 24/7.
- Предиктивная аналитика: Оценка рисков на основе исторических данных,

что позволяет предотвращать нарушения до их совершения. Математическая модель риска может быть представлена как функция от вероятности события P и его влияния I:

$$R = \int_0^t P(t) \cdot I(t)\, dt$$

где t — временной горизонт планирования аудита.[29]

- Использование GenAI: Применение генеративного искусственного интеллекта для анализа больших массивов нормативно-правовых актов и подготовки проектов аудиторских отчетов, что существенно повышает производительность труда.[5]

Человеческий капитал и сертификация

Развитие внутреннего аудита невозможно без квалифицированных кадров. Глобальные стандарты 2024 года предъявляют повышенные требования к компетентности.[3] В Узбекистане наблюдается дефицит специалистов с международными сертификатами CIA или национальными сертификатами нового образца.

Для преодоления кадрового разрыва необходимо:

- Интегрировать международные стандарты (Redbook 2024) в программы высшего образования и повышения квалификации в Академии государственного управления.[12]
- Создать систему материальной и нематериальной мотивации для аудиторов, получивших международную сертификацию.
- Развивать soft skills (коммуникация, ведение переговоров), так как новые стандарты делают упор на партнерские отношения с менеджментом.[3]

Влияние на инвестиционный климат

Существует прямая корреляция между качеством внутреннего аудита и объемом прямых иностранных инвестиций (ПИИ). В 2023 году Узбекистан привлек 7,2 млрд долларов ПИИ, что вдвое превышает показатели предыдущего года.[7] Иностранные инвесторы, такие как те, что участвуют в Совете иностранных инвесторов (FICU), ожидают от узбекистанских компаний прозрачности, основанной на стандартах ОЭСР и IIA.[7]

Параметр реформы	Ожидаемый эффектдля инвестора	Источник уверенности
Внедрение стандартов 2024	Прозрачность корпоративного управления	Отчеты внешнего контроля качества.[3]
Антикоррупционный комплаенс	Снижениенерыночных рисков	Рейтинг Агентства по противодействию коррупции.[12]
Аудит по стандартам IPSAS	Понятнаяфинансовая отчетность	Заключения независимых аудиторов (например, World Bank projects).[1]

Укрепление внутреннего аудита в крупных государственных предприятиях (ГП) в рамках стратегии iSOEF Всемирного банка также является критическим фактором для их успешного выхода на IPO и привлечения частного капитала.[11]

Заключение

Исследование процесса развития внутреннего аудита в Республике Узбекистан в контексте глобальных трансформаций 2024 года позволяет сделать ряд выводов и сформулировать стратегические рекомендации.

Во-первых, система внутреннего аудита в Узбекистане успешно прошла этап «первоначального формирования» и в настоящее время активно движется к этапу «интеграции» по модели IA-CM.[14] Принятие современных антикоррупционных законов и модернизация бюджетного кодекса создали прочный фундамент для дальнейшего роста.[1]

Во-вторых, выход Глобальных стандартов внутреннего аудита 2024 года ставит перед республикой новые задачи по гармонизации национальной нормативно-правовой базы. Ключевым приоритетом должно стать обеспечение реальной независимости руководителей служб внутреннего аудита и внедрение «Тематических требований» к оценке киберрисков и ESG-факторов.[3]

В-третьих, международный опыт (Великобритания, Сингапур) подчеркивает важность использования цифровых технологий и систем управления качеством. Для Узбекистана актуальным является переход от ручного контроля к анализу больших данных в рамках систем UzASBO и GFMIS.[1]

Рекомендации:

1. На нормативном уровне: Министерству экономики и финансов следует инициировать разработку Новой национальной концепции внутреннего аудита до 2030 года, полностью базирующейся на Глобальных стандартах 2024 года. Необходимо законодательно закрепить статус внутреннего аудита как третьей линии защиты, независимой от функций менеджмента (второй линии).[3]

2. На институциональном уровне: Рассмотреть возможность создания

Централизованной службы внутреннего аудита для малых и средних бюджетных организаций (по модели GIAA в Великобритании) для обеспечения профессионализма и экономии ресурсов.[19]

3. В области технологий: Внедрить в практику внутреннего аудита инструменты Data Analytics и GenAI для перехода к риск-ориентированному планированию на основе данных в режиме реального времени.[21]

4. В области кадров: Запустить государственную программу грантов на международную сертификацию (CIA, ACCA) для сотрудников служб внутреннего аудита министерств и ведомств, а также внедрить ежегодную аттестацию на знание стандартов 2024 года.[3]

5. В области взаимодействия: Усилить роль комитетов по аудиту при наблюдательных советах ГП, наделив их исключительным правом назначения и увольнения руководителей служб внутреннего аудита.[6]

Реализация данных мер позволит превратить внутренний аудит в мощный инструмент обеспечения устойчивого экономического роста, повышения эффективности государственного управления и укрепления доверия международного сообщества к реформам в Узбекистане.[2]

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Davlatova Gulnora Muhammedjanovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti i.f.n.,

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish orqali biznes muhitini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt, Big Data va elektron audit tizimlarining moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishdagi roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta’minlash, inson omilini kamaytirish va nazorat tizimini profilaktik modelga o‘tkazish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: davlat moliyaviy nazorati, raqamlashtirish, elektron audit, sun’iy intellekt, Big Data, shaffoflik, biznes muhiti, iqtisodiy samaradorlik.

KIRISH. So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi davlat boshqaruvi tizimida ham tub islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, davlat moliyaviy nazoratini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy nazoratning samarali tashkil etilishi nafaqat byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishni ta’minlaydi, balki tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot tizimlarini keng joriy etish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish hamda boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish vazifalari belgilab berilgan [1]. Ushbu normativ-huquqiy hujjat davlat moliyaviy nazorat tizimini ham transformatsiya qilish uchun muhim institutsional asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, an’anaviy moliyaviy nazorat tizimining mavjud kamchiliklari bilan izohlanadi. Jumladan, inson omiliga yuqori darajada bog‘liqlik, tekshiruv jarayonlarining uzoq davom etishi, ma’lumotlar bazasining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi kabi holatlar nazorat samaradorligini pasaytiradi. Raqamlashtirish esa ushbu muammolarni bartaraf etish, real vaqt rejimida monitoringni yo‘lga qo‘yish hamda moliyaviy operatsiyalarni avtomatik tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida davlat moliyaviy nazoratining shaffofligi va ishonchliligini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va ortiqcha ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Xususan, davlat nazorat organlari faoliyatini takomillashtirish, tekshiruvlar sonini qisqartirish va ularni raqamlashtirish orqali biznes uchun qulay muhit yaratish zarurligi ta’kidlanadi. Bu esa davlat moliyaviy nazoratining zamonaviy, ya’ni analitik va profilaktik modelga o‘tishini talab etadi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda qabul qilinayotgan yangi normativ-huquqiy hujjatlar ham mazkur yo‘nalishda izchil islohotlar olib borilayotganini ko‘rsatadi. Xususan, 2024 va 2025-yillarga oid Prezident qarorlari va farmonlarida davlat moliyaviy boshqaruvi va nazorat tizimini raqamlashtirish, axborot tizimlarini integratsiyalash hamda ularning samaradorligini oshirish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [2; 3]. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Biroq, ushbu sohada bir qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, davlat organlari o‘rtasida axborot almashinuvi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli nazorat jarayonlarida takroriylik va ortiqcha byurokratiya kuzatiladi. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo‘lgan malakali kadrlar yetishmasligi muammosi mavjud. Uchinchidan, axborot xavfsizligi va ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq xatarlar ham dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish jarayonida kompleks va tizimli yondashuv zarur.

ASOSIY QISM. Davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish jarayonlari zamonaviy iqtisodiyot sharoitida biznes muhitini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida shakllanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni davlat moliyaviy nazorati tizimiga joriy etish nafaqat byudjet

mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy subyektlar faoliyatida shaffoflikni ta’minlab, sog‘lom raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladi. Ayniqsa, davlat moliyaviy resurslarining harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati paydo bo‘lishi moliyaviy intizomni kuchaytirib, noqonuniy xarajatlar va korrupsion holatlarning oldini olishga yordam beradi [4]. Shu bilan birga, raqamlashtirish orqali nazorat tizimi an’anaviy tekshiruvdan ko‘ra ko‘proq tahliliy va profilaktik xarakter kasb etib, risklarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Raqamlashtirilgan moliyaviy nazorat tizimlari davlat boshqaruvida yangi sifat bosqichini shakllantirib, moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish orqali inson omilini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa subyektiv qarorlar va xatoliklar ehtimolini pasaytiradi hamda nazorat jarayonlarining tezkorligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), blokcheyn va elektron audit tizimlari davlat moliyaviy nazoratining asosiy raqamli komponentlari hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida moliyaviy oqimlar ustidan uzluksiz monitoring o‘rnatilib, davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligi oshiriladi [5].

Quyidagi jadvalda davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va ularning iqtisodiyot hamda biznes muhitiga ta’siri umumlashtirilgan.

1-jadval.

Raqamlashtirilgan moliyaviy nazorat yo‘nalishlari va ularning ta’siri

Yo‘nalish	Mazmuni	Natijasi
Elektron byudjet	Byudjet jarayonlarini raqamlashtirish	Shaffoflik oshadi
Big Data	Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish	Risklar aniqlanadi
Sun’iy intellekt	Avtomatik nazorat tizimi	Inson omili kamayadi
Blokcheyn	O‘zgarmas ma’lumotlar bazasi	Ishonchlilik ortadi
Elektron audit	Masofaviy tekshiruvlar	Tezkorlik oshadi

Raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi ham sezilarli darajada yuqori bo‘lib, u nazorat xarajatlarini kamaytirish, byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi. Xususan, raqamli nazorat tizimlari joriy etilgan sharoitda moliyaviy qonunbuzarliklarni aniqlash darajasi oshib, tekshiruvlar sifati yaxshilanadi. Shu bilan birga, nazorat organlari faoliyati samaradorligi ortib, iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoni tezlashadi.

Quyidagi jadvalda raqamlashtirish natijasida erishilgan asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar ifodalangan.

2-jadval.

Raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Natija
Samarasiz xarajatlar	20–30% ga kamayadi

Qonunbuzarliklarni aniqlash	2 baravar oshadi
Nazorat xarajatlari	15–25% ga kamayadi
Tekshiruv muddati	30–40% ga qisqaradi

Davlat moliyaviy nazoratining raqamlashtirilishi biznes muhitiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, shaffoflikning oshishi tadbirkorlik subyektlari uchun teng raqobat sharoitini yaratadi. Ikkinchidan, nazorat jarayonlarining avtomatlashtirilishi ortiqcha tekshiruvlar sonini kamaytirib, biznes yuritish xarajatlarini qisqartiradi. Uchinchidan, investorlar uchun ishonchli va barqaror iqtisodiy muhit shakllanadi, bu esa investitsion jozibadorlikni oshiradi. Global tajribalar ham shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari yuqori bo‘ladi va innovatsion biznes rivoji tezlashadi [6].

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni institutsional o‘zgarishlarni ham talab qiladi. Xususan, davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish uchun mustahkam huquqiy baza, zamonaviy infratuzilma va malakali kadrlar zarur. Bu jarayon davlat boshqaruvining barcha darajalarida transformatsiyani talab etib, qaror qabul qilish mexanizmlarini optimallashtiradi. Natijada, davlat organlari faoliyati yanada ochiq va samarali tus oladi.

Raqamlashtirish jarayonining institutsional ta’siri shundan iboratki, avvalo huquqiy tizimda sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi, ya’ni davlat moliyaviy nazoratini raqamli shaklda amalga oshirishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza mustahkamlanadi va takomillashtiriladi. Shu bilan birga, boshqaruv tizimida qaror qabul qilish jarayoni ancha tezlashib, ma’lumotlarga asoslangan aniq va samarali qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi. Audit tizimida esa an’anaviy davriy tekshiruvlar o‘rnini doimiy va uzluksiz monitoring egallaydi, bu esa moliyaviy jarayonlarni real vaqt rejimida nazorat qilishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish natijasida kadrlar tizimida ham o‘zgarishlar kuzatilib, ayniqsa axborot texnologiyalari sohasida malakali mutaxassislarga bo‘lgan talab keskin ortadi.

Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, raqamlashtirish bilan bog‘liq ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, ular orasida infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kiberxavfsizlik tahdidlari va malakali mutaxassislar yetishmasligi alohida o‘rin tutadi. Shu sababli, raqamlashtirish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish hamda uni huquqiy va institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish biznesni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Bu jarayon orqali moliyaviy boshqaruv samaradorligi oshadi, iqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi va davlat hamda biznes o‘rtasida ishonchli hamkorlik muhitini shakllantirishga erishiladi. Natijada, raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat moliyaviy nazorati nafaqat nazorat vositasi, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveriga aylanadi.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlash hamda biznes muhitini yaxshilashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali moliyaviy nazorat tizimi an’anaviy tekshiruv shaklidan analitik va profilaktik modelga o‘tmoqda, bu esa moliyaviy intizomni mustahkamlash, qonunbuzarliklarni erta aniqlash va ularning oldini olish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish davlat organlari faoliyatida shaffoflikni oshirib, inson omiliga bog‘liqlikni kamaytiradi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aniqlikni ta’minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirilgan moliyaviy nazorat tizimi biznes subyektlari uchun teng va adolatli raqobat muhitini yaratadi, ortiqcha ma’muriy yuklamalarni kamaytiradi hamda investitsion jozibadorlikni oshiradi. Biroq, mazkur jarayonni amalga oshirishda axborot tizimlari integratsiyasining yetarli emasligi, malakali kadrlar yetishmasligi va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq muammolar mavjudligi aniqlangan. Shu sababli, davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish jarayoni kompleks va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishi zarur.

Birinchidan, davlat moliyaviy nazorati tizimida yagona integratsiyalashgan axborot platformasini yaratish zarur. Ushbu platforma orqali barcha davlat organlari va nazorat subyektlari o‘rtasida real vaqt rejimida ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yilib, takroriy tekshiruvlar va ortiqcha byurokratik jarayonlar qisqartiriladi. Bu esa nazorat tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalarini keng joriy etish lozim. Ushbu texnologiyalar yordamida moliyaviy operatsiyalarni avtomatik tahlil qilish, risklarni oldindan aniqlash va noqonuniy faoliyatni tezkor fosh etish imkoniyati yaratiladi. Natijada, nazorat tizimi yanada proaktiv va samarali tus oladi.

Uchinchidan, davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish jarayonida kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Xususan, axborot texnologiyalari, raqamli audit va kiberxavfsizlik yo‘nalishlarida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda mavjud xodimlarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, axborot xavfsizligini ta’minlash va ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Raqamli nazorat tizimlarida zamonaviy kiberxavfsizlik vositalarini joriy etish orqali ma’lumotlar daxlsizligini ta’minlash va tashqi tahdidlarga qarshi samarali himoya tizimini yaratish zarur.

Beshinchidan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish orqali raqamli moliyaviy nazoratni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash lozim. Bu esa davlat organlari faoliyatini yanada aniq tartibga solib, raqamlashtirish jarayonining izchil va samarali amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri sifatida namoyon bo‘lib, u orqali nafaqat moliyaviy intizom va shaffoflik ta’minlanadi, balki biznesni rivojlantirish uchun qulay va barqaror muhit yaratiladi. Mazkur yo‘nalishda izchil islohotlarni davom ettirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

KORXONALARDA ICHKI NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO ICHKI AUDIT STANDARTLARINING ROLI

Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti, “Xalqaro turizm va iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, PhD,

Annotatsiya. Mazkur o‘rganishda korxonalarda ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirishda xalqaro ichki audit standartlarining roli ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ichki auditning zamonaviy yondashuvlari, xususan, riskka yo‘naltirilgan audit, COSO va IPPF metodologiyalari asosida ichki nazorat tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy amaliyot qiyosiy tahlil qilinib, raqamli texnologiyalarning audit jarayonlariga ta’siri asoslab berilgan. Natijada, ichki audit tizimini rivojlantirish orqali moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va boshqaruv samaradorligini oshirish mumkinligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: ichki nazorat, ichki audit, xalqaro standartlar, risk-menejment, COSO modeli, IPPF, raqamli audit, moliyaviy shaffoflik.

KIRISH. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini ta’minlashda ichki nazorat tizimining roli tobora ortib bormoqda. Global iqtisodiy integratsiya, moliyaviy oqimlarning kengayishi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining murakkablashuvi ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirishni zaruratga aylantirmoqda. Shu jihatdan, ichki nazorat tizimini xalqaro talablar asosida rivojlantirish, xususan, xalqaro ichki audit standartlarini joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish, davlat ulushi mavjud korxonalarni transformatsiya qilish va moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ichki nazorat tizimiga bo‘lgan talabni keskin oshirdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida iqtisodiyotni boshqarishda ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash ustuvor vazifa ekanligini alohida ta’kidlab, zamonaviy audit va nazorat tizimlarini joriy etish zarurligini qayd etadi. Bu esa ichki audit xizmatlarining institutsional rivojlanishini ta’minlash va ularni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni talab etadi.

Mazkur yo‘nalishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ichki nazorat va audit tizimini institutsional jihatdan mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat

qilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) bosqichma-bosqich o‘tishni nazarda tutuvchi qarori korxonalarda buxgalteriya hisobi va audit tizimini xalqaro talablarga moslashtirishga qaratilgan muhim islohotlardan biridir [1]. Ushbu qaror asosida moliyaviy axborotlarning shaffofligi va ishonchliligini ta’minlash, xalqaro standartlarga mos professional kadrlar tayyorlash hamda audit faoliyatini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Natijada, mazkur islohotlar ichki audit tizimining metodologik asoslarini takomillashtirish va uning korxona boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun auditorlik faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab, audit tizimining tashkil etilishi, auditorlik tashkilotlari faoliyati va audit qo‘mitalarining funksiyalarini tartibga soladi [2]. Mazkur qonun ichki va tashqi audit tizimlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, audit natijalaridan samarali foydalanish hamda korxonalarda moliyaviy nazoratni kuchaytirish uchun muhim normativ asos hisoblanadi.

Shu bilan birga, ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish jarayonida xalqaro ichki audit standartlarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu standartlar ichki audit faoliyatini tashkil etishda yagona metodologik yondashuvni belgilab, audit jarayonining mustaqilligi, xolisligi va tizimliligini ta’minlaydi. Xususan, riskga asoslangan audit yondashuvi orqali korxona faoliyatidagi asosiy xavflarni aniqlash va ularni minimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga hamda korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda ichki nazorat tizimi bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud. Jumladan, ichki audit xizmatlarining yetarli darajada mustaqil emasligi, nazorat jarayonlarining formal xarakter kasb etishi, zamonaviy risklarni boshqarish tizimlarining to‘liq joriy etilmaganligi va malakali kadrlar yetishmasligi kabi kamchiliklar ichki nazorat samaradorligini pasaytiradi. Ayrim hollarda ichki audit faqat tekshiruv funksiyasi bilan cheklanib, boshqaruv jarayonlarida yetarli darajada ishtirok etmaydi. Bu esa ichki nazorat tizimining strategik ahamiyatini pasaytiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda xalqaro ichki audit standartlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu standartlar asosida ichki audit faoliyatini tashkil etish korxonalarda nazorat muhitini mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv tizimini takomillashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ichki auditning maslahat beruvchi funksiyasini rivojlantirish orqali korxona faoliyatida qo‘shimcha qiymat yaratish mumkin.

Hozirgi sharoitda korxonalarda ichki nazorat tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlash, balki investitsion jozibadorlikni oshirish, korrupsion xavflarni kamaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [3]. Shu bilan birga, ichki audit jarayonlarini raqamlashtirish,

avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini joriy etish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM. Korxonalarda ichki nazorat samaradorligini oshirishda xalqaro ichki audit standartlarining roli bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda ichki audit tizimi oddiy nazorat vositasidan strategik boshqaruv instrumentiga aylangan. Korxonalarda ichki nazorat tizimining samaradorligi, avvalo, uning qanchalik ilmiy asoslangan va xalqaro standartlarga mos tashkil etilganligiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda IPPF (Xalqaro professional amaliyotlar konsepsiyasi), COSO ERM modeli kabi metodologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ichki audit tizimi samarali yo‘lga qo‘yilgan korxonalarda moliyaviy xatoliklar kamayishi, operatsion samaradorlik oshishi hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligi yuqori darajada ta’minlanishi kuzatiladi [4].

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, ichki nazorat tizimining samaradorligi asosan risklarni boshqarish mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Xalqaro standartlar riskga yo‘naltirilgan yondashuvni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi va bu yondashuv orqali nazorat resurslari eng muhim va xavfli yo‘nalishlarga yo‘naltiriladi. Risk tushunchasi noaniqlikning korxona maqsadlariga ta’siri sifatida talqin qilinadi va uning to‘g‘ri baholanishi ichki nazorat tizimining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, risklarni tizimli baholash va monitoring qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan korxonalarda ichki nazorat tizimi yanada barqaror va moslashuvchan bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda an’anaviy va xalqaro standartlarga asoslangan ichki nazorat tizimlarining samaradorligi qiyosiy tahlil qilinadi.

1-jadval.

Ichki nazorat tizimlari samaradorligining qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy tizim	Xalqaro standartlarga asoslangan tizim
Risklarni aniqlash	Epizodik	Tizimli va uzluksiz
Nazorat jarayoni	Reaktiv	Proaktiv
Xatoliklar darajasi	Yuqori	Kam
Qarorlar sifati	Cheklangan	Tahliliy va asoslangan
Resurslardan foydalanish	Samarasiz	Optimallashtirilgan

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xalqaro standartlarga asoslangan tizimlarda nazorat jarayoni faqat xatolarni aniqlash bilan cheklanmay, balki ularning oldini olishga qaratilgan bo‘ladi. Bu esa korxonalarda strategik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy va mahalliy korxonalar tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda ichki audit tizimi korporativ boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi. U yerda ichki audit xizmatining mustaqilligi yuqori darajada ta’minlangan bo‘lib, audit qo‘mitalari faol ishlaydi va nazorat jarayonlari raqamlashtirilgan holda olib boriladi. Mahalliy korxonalarda esa bu jarayon hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, ichki audit ko‘pincha operatsion darajada cheklanib qolmoqda. Bu esa ichki nazorat tizimining umumiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Quyidagi jadvalda xorijiy va mahalliy ichki nazorat tizimlari o‘rtasidagi asosiy farqlar keltirilgan:

2-jadval.

Ichki nazorat tizimlarining xalqaro va mahalliy amaliyotdagi farqlari

Mezoni	Xorijiy amaliyot	Mahalliy amaliyot
Audit mustaqilligi	Yuqori	Nisbatan past
Risk boshqaruvi	Integratsiyalashgan	Qisman
Raqamlashtirish	Yuqori	Cheklangan
Monitoring	Uzluksiz	Davriy
Standartlardan foydalanish	To‘liq (IPPF, COSO)	Qisman

Mazkur tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalliy korxonalarda ichki nazorat tizimini rivojlantirish uchun xalqaro standartlarni keng joriy etish zarur. Ayniqsa, auditning mustaqilligini ta’minlash va risk boshqaruvini integratsiyalashgan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, zamonaviy sharoitda ichki audit samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Xususan, XBRL texnologiyalarining joriy etilishi nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash va monitoring qilish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali nazorat tizimida ortiqcha operatsiyalar kamayadi va resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi [5]. Bu esa ichki auditni yanada tezkor va aniq amalga oshirish imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda an’anaviy va raqamli audit tizimlarining samaradorligi taqqoslangan.

3-jadval.

Raqamli texnologiyalarning ichki audit samaradorligiga ta’siri

Ko‘rsatkich	An’anaviy audit	Raqamli audit
Ma’lumotlarni qayta ishlash	Sekin	Tez
Xatoliklar ehtimoli	Yuqori	Past
Nazorat qamrovi	Cheklangan	Keng
Shaffoflik darajasi	Past	Yuqori
Monitoring	Davriy	Uzluksiz

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish ichki audit tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ayniqsa, real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati risklarni tezkor aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki audit tizimining boshqaruv qarorlariga ta’siri ham alohida e’tiborga loyiq. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki audit samarali tashkil etilgan korxonalarda boshqaruv qarorlari aniq va ishonchli ma’lumotlarga asoslanadi. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, operatsion xarajatlarni kamaytirish va strategik rivojlanish yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi. Empirik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ichki audit tizimi rivojlangan korxonalarda nazorat zaifliklari kamayadi va boshqaruv samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Bundan tashqari, ichki audit tizimining samaradorligini oshirishda auditorlarning malakasi va professional tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar, jumladan, riskga yo‘naltirilgan audit, doimiy monitoring va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari ichki nazorat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [6]. Shu bois, auditorlarning malakasini oshirish va ularni xalqaro standartlar asosida tayyorlash zarur hisoblanadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro ichki audit standartlarini joriy etish korxonalarda ichki nazorat tizimini takomillashtirishning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Bu standartlar ichki nazorat tizimini yagona metodologik asosga olib keladi, risklarni boshqarish samaradorligini oshiradi va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish, audit mustaqilligini ta’minlash va professional kadrlarni tayyorlash orqali ichki audit tizimini yanada rivojlantirish mumkin. Natijada, korxonalarda moliyaviy shaffoflik, barqarorlik va raqobatbardoshlik sezilarli darajada oshadi.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalari korxonalarda ichki nazorat tizimini takomillashtirishda xalqaro ichki audit standartlarining o‘rni nihoyatda muhim ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ichki audit tizimi xalqaro talablar asosida tashkil etilgan korxonalarda moliyaviy barqarorlik yuqori, xatoliklar darajasi past va boshqaruv qarorlari yanada asoslangan holda qabul qilinadi. Aksincha, ichki nazorat tizimi yetarli darajada rivojlanmagan korxonalarda risklarni boshqarish sust, nazorat jarayonlari esa ko‘proq formal xarakterga ega bo‘lib qolmoqda.

Shuningdek, tahlillar ichki audit tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan uning mustaqilligi, riskga yo‘naltirilganligi va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashganlik darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, global iqtisodiy muhitda korxonalar uchun shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash ichki nazorat tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida qayta tashkil etishni talab etmoqda.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Birinchidan, ichki audit tizimini korporativ boshqaruvning ajralmas qismi sifatida qayta shakllantirish zarur. Bunda ichki audit xizmatining mustaqilligini kuchaytirish, uni strategik boshqaruv darajasiga olib chiqish muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, korxonalarda kompleks risk-menejment tizimini joriy etish lozim. Risklarni oldindan aniqlash va baholash asosida nazorat mexanizmlarini shakllantirish ichki nazorat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Uchinchidan, audit va nazorat jarayonlarini to‘liq raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Zamonaviy dasturiy vositalar orqali ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish va doimiy monitoringni yo‘lga qo‘yish ichki audit sifatini oshiradi.

To‘rtinchidan, ichki auditorlarning professional kompetensiyasini oshirish tizimini takomillashtirish lozim. Xalqaro sertifikatlash tizimlarini keng joriy etish va uzluksiz ta’limni tashkil etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlash mumkin.

Beshinchidan, ichki audit faoliyatining faqat nazorat bilan cheklanib qolmasdan, maslahat beruvchi funksiyasini ham rivojlantirish zarur. Bu esa korxonalarda boshqaruv samaradorligini oshirish va innovatsion qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki nazorat tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, uni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish va institutsional jihatdan mustahkamlash orqali korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin. Bu jarayon uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

BIOLOGIK AKTIVLAR BUXGALTERIYA HISOBIDA RAQAMLI BAHOLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Axmadaliyeva Zebo Abduxalimovna
Farg‘ona davlat texnika unversiteti,
“Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlarni samarali boshqarishda raqamli monitoring texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. IoT sensorlari, dronlar, sun’iy intellekt, GIS tizimlari kabi raqamli yechimlar yordamida o‘simliklar va chorva hayvonlarining rivojlanish holati, joylashuvi, sog‘lomligi va hosildorligi real vaqt rejimida nazorat qilinishi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari raqamli monitoring tizimlari aktivlar qiymatini adolatli baholash, kutilmagan yo‘qotishlarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: biologik aktivlar, raqamli monitoring, IoT, dronlar, GIS, qishloq xo‘jaligi, adolatli qiymat, sun’iy intellekt, aktivlarni boshqarish.

Kirish. Global iqtisodiyotda raqamlashtirish jarayonlari ishlab chiqarish, boshqaruv va moliyaviy tizimlarning tubdan yangilanishiga olib kelmoqda. Qishloq

xo‘jaligi ham raqamli transformatsiyadan chetda qolmayapti. Biologik aktivlar - chorva mollari, ko‘p yillik o‘simliklar, parrandalar va boshqa tirik organizmlar - o‘zining dinamik biologik xususiyati sababli buxgalteriya hisobida alohida yondashuvni talab qiladi.

Xalqaro amaliyotda biologik aktivlar hisobini tartibga soluvchi asosiy me’yoriy hujjat 41-sonli BHXS “Qishloq xo‘jaligi” hisoblanadi. Ushbu standart biologik aktivlarni adolatli qiymatda baholashni nazarda tutadi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish jarayonlari ko‘p omilli, mavsumiy va yuqori darajada xavf-xatarlidir. Biologik aktivlar – ya’ni hosildor o‘simliklar va tirik chorva hayvonlari – tirik organizmlar bo‘lgani sababli ularning o‘sishi, rivojlanishi va mahsuldorligi tashqi muhit sharoitlari, agrotexnik tadbirlar va boshqaruv sifatiga bevosita bog‘liq. An’anaviy nazorat va kuzatuv usullari ko‘p hollarda jarayonlarning real vaqt rejimidagi o‘zgarishlarini aks ettira olmaydi, buning natijasida aktivlar qiymatini baholashda aniqlik yetishmaydi, hosildorlik pasayishi va kutilmagan yo‘qotishlar yuzaga keladi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, xususan IoT sensorlari, dronlar, GIS tizimlari, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlili qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlarni boshqarishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu texnologiyalar orqali ekin maydonlari namligi, tuproq harorati, o‘simliklarning rivojlanish darajasi, chorva hayvonlari harakati va sog‘ligi kabi ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratildi. Bu esa biologik aktivlar holatini ob’yektiv baholash, resurslardan tejamkor foydalanish, xavf-xatarlarni oldindan prognozlash hamda adolatli qiymatni aniqlashda yuqori aniqlik ta’minlaydi.[7’b]

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi, xususan chorvachilik va ekin yetishtirish tarmoqlari barqaror rivojlanib borayotgan sohalardan biri bo‘lib, aholi sonining ortib borishi, oziq-ovqat xavfsizligiga bo‘lgan talabning oshishi biologik aktivlar – ya’ni tirik hayvonlar va o‘simlik resurslariga ehtiyojni oshirmoqda. Qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i bo‘lib, 2024-yilda mamlakatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 444,6 trillion so‘mni tashkil etgan, bu esa 2020-2024 yillarda 18,5 % o‘sishni ko‘rsatadi. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi “Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 12 foizgacha kengaytirish, 2 million gektar hajmda tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o‘simliklarini biobotanik tekshirishni har yili amalga oshirish, hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, biologik xilma-xillikka nisbatan aholining ekologik madaniyati va xabardorligi darajasini oshirish.” deb nomlangan 71-maqsad bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan.[1] Bunda biologik aktivlar hisobi va bahosining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash, ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish hamda O‘zbekiston tadbirkorlik subyektlari sharoitiga mos taklif va mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyatini

yuzaga kelishi ilmiy va amaliy nuqtai nazardan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Asosiy qism. Tadqiqot davomida qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlarni boshqarishda qo‘llanilayotgan raqamli monitoring texnologiyalarining amaliy samaradorligi, ularning iqtisodiy va boshqaruv jarayonlariga ta’siri chuqur o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamlashtirish jarayonlariga qadar biologik aktivlar bo‘yicha ma’lumotlar odatda vizual kuzatuv, davriy tekshiruv va qo‘lda yuritiladigan qaydlarga asoslangan bo‘lib, bu ma’lumotlarning aniqligi, to‘liqligi va vaqtga sezgirligi past bo‘lgan. Raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi ushbu jarayonlarni tubdan o‘zgartirdi.[2]

Birinchidan, IoT sensorlari yordamida ekin maydonlari va chorva mollarining holati real vaqt rejimida qayd etilishi boshqaruv samaradorligini keskin oshirdi. Tuproq namligi, havo harorati, o‘simlik ozuqa moddalarining yetarliligi, chorva hayvonlarining tana harorati va harakat faolligi kabi parametrlarning avtomatik o‘lchovi fermerga aniq qarorlar qabul qilish imkonini berdi. Tahlillar natijasida sensorlar qo‘llanilgan xo‘jaliklarda suv sarfi 18–25 foizga, o‘g‘it xarajatlari esa 10–15 foizga kamayganligi qayd etildi.

Ikkinchidan, dron texnologiyalari yordamida o‘simliklar rivojlanish dinamikasini masofadan tahlil qilish nisbatan keng hududlarda bir xil aniqlikda monitoring o‘tkazish imkonini berdi. Vegetatsiya indekslari (NDVI- Normalized Difference Vegetation Index, SAVI- Soil Adjusted Vegetation Index), o‘simlik zichligi va kasallik belgilari tezkor aniqlanib, agrotexnikarboro o‘z vaqtida qo‘llanilgan. Bu hosildorlikning o‘rtacha 12–20 foizga oshishiga olib kelgan.

Uchinchidan, GIS tizimlari va sun’iy intellekt asosidagi tahliliy modellar biologik aktivlarning joylashuvi, o‘sish intensivligi, xavf zonalari va hosil prognozini aniqlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Muayyan hududlarda tuproq sho‘rlanishi, suv yetishmovchiligi yoki kasallik tarqalishidan kelib chiqadigan risklarning oldini olish uchun geoxaritalar ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv aktivlarning qadrsizlanish ehtimolini 15–22 foizga kamaytirgan.[3]

To‘rtinchidan, raqamli monitoring tizimi biologik aktivlarning adolatli qiymatini belgilash jarayonini ancha soddalashtirdi. Oldin qiymat baholash jarayoni mavsumiy, subyektiv va o‘rtacha me’yorlarga asoslangan bo‘lsa, raqamli ma’lumotlar asosida aktiv holatini baholash ob’yektiv va izchil bo‘ldi. Bu esa moliyaviy hisobotlarda xatoliklar kamayishiga va baholashning xalqaro standartlarga moslashuvini ta’minladi.[4]

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli monitoring tizimlaridan foydalanayotgan xo‘jaliklarda quyidagi natijalar kuzatildi:

-hosildorlikning oshishi – 12 - 20%,

-xarajatlarning qisqarishi – 18 - 25%,

-aktivlar qadrsizlanishi riskining pasayishi – 15 - 22%,

-boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezligi - 30 - 40% ga yaxshilangan.

Ushbu raqamlar shuni tasdiqlaydiki, raqamli monitoring texnologiyalarining joriy etilishi qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlar boshqaruvini optimallashtirib, samaradorlikni oshirishga, resurslardan tejamkor foydalanishga va iqtisodiy natijalarni yaxshilashga sezilarli hissa qo‘shadi.[5]

Xulosa. Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlarni boshqarishda raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. IoT sensorlari, dronlar, GIS texnologiyalari va sun’iy intellektga asoslangan tahlil vositalarining qo‘llanilishi biologik aktivlarning holati, rivojlanish jarayoni, joylashuvi va ishlab chiqarish natijalarini real vaqt rejimida kuzatishga imkon yaratdi. Bu esa an’anaviy nazorat usullariga nisbatan ancha aniqlik, tezkorlik va ob’yektivlikni ta’minlab, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshiladi.[6]

Raqamli monitoringning amaliy joriy etilishi natijasida suv va o‘g‘it xarajatlarining keskin kamayishi, hosildorlikning oshishi, kasalliklar va nobud bo‘lish xavfini oldindan prognozlash imkoniyatining kuchayishi kuzatildi. Shuningdek, raqamli ma’lumotlar biologik aktivlarning adolatli qiymatini aniqlash jarayonini ancha osonlashtirib, moliyaviy hisobotlarda aniqlik va shaffoflikni ta’minladi.

Umuman olganda, raqamli monitoring tizimlari qishloq xo‘jaligi korxonalarida resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, aktivlar qadrsizlanishi riskini kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim innovatsion asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida ushbu texnologiyalarni yanada integratsiyalash, ma’lumotlarni sun’iy intellekt asosida chuqur tahlil qilish va ularni boshqaruvning barcha bo‘g‘inlariga tatbiq etish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLARINING ROLI VA AHAMIYATI

G‘anibayev Ilxomjon Shokiraliyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti, katta o‘qituvchi

Mamlakatimizda iqtisodiyotning jadal sur’atlarda rivojlanishi, xorijiy investitsiyalar jalb qilish, investorlarga to‘g‘ri va zarur axborotlarni yetkazib berish, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari, sug‘urta tashkilotlari va banklar faoliyatini takomillashtirish hamda ularni xalqaro bozorlarga olib chiqishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu jarayonni amalga oshirishda auditning xizmati kattadir. Shuningdek, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samaradorlik va unumdorlik ko‘rsatkichlariga asosan baholash, korxonalar boshqaruv va moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq muammoli masalalar yuzasidan asosli tavsiya hamda yo‘nalish berishda zamonaviy mustaqil auditning xizmati beqiyosdir. Bu esa milliy iqtisodiyotning xususiy

sektori rivojida, shu jum ladan, xususiy tadbirkorlik va moliyaviy munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash hamda mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Audit - bu iqtisodiy jarayon bo‘lib, unda yetarli bilimga ega bo‘lgan va maxsus malaka sertifikatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy axboroti to‘g‘riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlab, o‘z fikrini bildirishidir [1].

Ichki audit- bu xo‘jalik ichida uning faoliyatining samaradorligini tekshirish va aniqlashda mustaqil baho berishdir. Ichki audit uchun korxonani o‘zi yoki uning bir bo‘limi –korxona ichidagi nazorat bo‘limi javob beradi. Ichki auditning maqsadi-korxona xizmatchilariga o‘zlarini majburiyatlarini a’lo darajada bajarishga yordam berishdir. Ichki auditning vazifasi – xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotlar tuzilgunga qadar mavjud xato va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishga asoslanadi. Shunday ekan, har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z xato va kamchiliklarini ichki audit xizmatlari orqali ko‘ra olishlari va tuzatishlari maqsadga muvofiqdir. Bu esa, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga olib keladi [2].

Ichki auditorlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar barcha bo‘g‘inlarini tekshirish bilan shug‘ullanib, me’yoriy hujjatlar va qonun talablaridan chetga chiqishlarning vujudga kelish sabablari va faoliyat yo‘nalishini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Auditorlik faoliyati audit standartlari talablari asosida amalga oshiriladi.

Audit standartlari – bu umumiy materiallar bo‘lib, ular auditorlarga tugallangan moliyaviy hisobotning auditini o‘tkazishda ko‘maklashadi. Standartlarda mustaqillik va mas’uliyatlilik kabi kasbiy sifat belgilari auditorlik xulosalari va tasdiqnomalariga qo‘yiladigan talablar keltirilgan [3].

Auditning xalqaro standartlari auditorning umumiy majburiyatlarini, shuningdek bunday majburiyatlarni muayyan vazifalarga nisbatan qo‘llashda auditor tomonidan ko‘rib chiqiladigan maxsus masalalarni tavsiflaydi. Muayyan auditorning xalqaro standartlarining qo‘llash doirasi, kuchga kirish sanasi va uni qo‘llashga nisbatan har qanday maxsus cheklash auditning xalqaro standartlarining o‘zida aniq ko‘rsatiladi [4].

Ichki auditni samarali tashkil etishda xalqaro standartlarning o‘rni va ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Hozirgi sharoitda korxonalar faoliyatining shaffofligi, ishonchliligi va samaradorligini ta’minlash uchun ichki audit tizimi xalqaro talablar asosida tashkil etilishi zarur. Avvalo, ichki audit — bu tashkilot faoliyatini mustaqil baholash, risklarni aniqlash va ularni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar beruvchi muhim boshqaruv vositasidir.

Xalqaro standartlarning asosiy ahamiyati shundaki, ular ichki audit jarayonlarini tizimli ravishda tashkil etishga yordam beradi. Masalan, auditni rejalashtirish, dalillarni yig‘ish, xulosa chiqarish va hisobot tayyorlash bosqichlari aniq tartibga solinadi. Natijada audit natijalari yanada ishonchli va solishtiriladigan bo‘ladi. Bundan tashqari, standartlar

asosida ishlash korxona ichida nazorat tizimining samaradorligini oshiradi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat — xalqaro standartlar riskga asoslangan yondashuvni qo‘llashni talab qiladi. Bu esa auditorlarga eng muhim va xavfli sohalarga e’tibor qaratish imkonini beradi. Natijada resurslar oqilona taqsimlanadi va audit samaradorligi oshadi. Shu bilan birga, ichki audit funksiyasi korxona strategik maqsadlariga erishishda faol ishtirok etadi.

Xalqaro standartlarning joriy etilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

- audit jarayonlarining tizimliligi va izchilligi ta’minlanadi;
- auditorlarning kasbiy malakasi va mas’uliyati oshadi;
- audit xulosalarining ishonchliligi kuchayadi;
- tashkilot faoliyatida shaffoflik ortadi.

Ichki audit xalqaro standartlar asosida tashkil etilganda u korporativ boshqaruv tizimining ajralmas qismiga aylanadi. Xalqaro standartlarga muvofiq olib borilgan ichki audit tashkilot barqarorligi va ishonchliligini oshiradi hamda investorlar ishonchini mustahkamlaydi .

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, ichki audit tizimini samarali rivojlantirish xalqaro standartlarga asoslanishni talab etadi, ushbu standartlar korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ichki audit faoliyatini yagona metodologiya asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro standartlar ichki auditning innovatsion rivojlanishiga xizmat qilmadi. Shu sababli, milliy iqtisodiyotda ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlarni joriy etish va ularni amaliyotga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИНИ БИРИНЧИ МАРТА ҚЎЛЛАШ

Шеримбетов Иномжон
ТДИУ “Аудит” кафедраси доценти, PhD

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4611-сон қарорида белгиланган топшириқлар ижроси бўйича акциядорлик жамиятлари республика ҳудудида қўллаш учун тан олинган молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига мувофиқ бухгалтерия ҳисобини ва молиявий ҳисоботини тайёрлаш талаби белгиланганлигидан келиб чиқиб, хусусий капитал ҳисоби ва уни ҳисоботда акс эттириш жараёнини халқаро стандартларга мувофиқлаштирилиши лозим.

Бизнинг фикримизча, ҳозирги кунда мамлакатимизда молиявий ҳисоботнинг

халқаро стандартлари асосида молиявий ҳисоботни тайёрлашда жамиятлар бир қатор ёндашувлардан фойдаланмоқда. Биринчи ёндашувга кўра молиявий ҳисоботни трансформация қилиш асосида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари мувофиқ молиявий ҳисоботни тақдим этиш. Иккинчи ёндашувда параллел бухгалтерия ҳисобини юритиш, яъни бир пайтнинг ўзида ҳам миллий стандарт, ҳам халқаро стандарт асосида бухгалтерия ёзувларини қайд этиш орқали молиявий ҳисоботни тайёрланади. Учинчи ёндашув Президент қарорининг тўғридан-тўғри ижросини таъминлайдиган усул бўлиб, тадбиркорлик субъектларига бухгалтерия ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари талабларига мувофиқ юритиш ва молиявий ҳисоботни тақдим этишни кўзда тутади.

Бизнинг фикримизча, биринчи ёндашувда молиявий ҳисоботни тақдим этиш бир қатор саволларни келтириб чиқаради, хусусан, ушбу ёндашув қўлланилганда мувофиқ бухгалтерия ҳисобининг объектлари халқаро стандартлар қоидаларига мувофиқ тан олиш, баҳолаш мезонларига мослиги шунингдек, молиявий ахборотларнинг ўринлик ва ишончлилик каби сифат тамойилларининг бажарилиши, энг асосийси молиявий ҳисоботнинг прогнозлаш қиймати мавжудлиги юзасидан шубҳа уйғонади. Иккинчи ёндашувда эса юқоридаги муаммолар билан биргаликда жамиятга бухгалтерия ҳисобини автоматлаштирилган тизимида параллел равишда ҳисоб юритиш тартибини жорий этиш учун қўшимча харажатлар юзага келади. Шунингдек, мазкур ҳолат бухгалтерия хизмати ходимларига қўшимча юкламалар олиб келади. Демак, тадбиркорлик субъектлари томонидан биринчи ёки иккинчи ёндашувда ҳисоб сиёсати қоидалари миллий стандартларга мувофиқ тайёрланган бўлади. Учинчи ёндашувда эса ҳисоб сиёсати қоидалари тайёрлашда миллий стандарт қоидалари инобатга олинмайди, балки тўлиқ халқаро стандартларга мос қоидаларни ишлаб чиқиш талаб этилади. Шунингдек, жамият томонидан счётлар режасини ишлаб чиқиш ҳам талаб этилади. Бизнинг фикримизча, счётлар режасига ишлаб чиқишда иккита ёндашувни амалга ошириш мумкин. Биринчи ёндашувга мувофиқ, жамият ўзининг фаолияти хусусиятидан келиб чиқиб, янги счётлар режасини ишлаб чиқиши талаб этилади. Албатта мазкур ҳолат жамият учун қўшимча харажатларни, бухгалтерия хизмати ходимлари учун эса юклама келтириб чиқаради. Иккинчи ёндашувда эса мавжуд счётлар режасига молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига мувофиқ қўшимча счетларни киритиш талаб этилади. Фикримизча, жамиятлар ушбу ёндашувни қўллагани мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Тадбиркорлик субъектлари молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларини биринчи марта қўллайдиган бўлса, унда «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини биринчи марта қўллаш» номли 1-сон стандартдан фойдаланиши лозим. Мазкур стандартда Ўзбекистон бухгалтерия ҳисоби

амалиётида муҳимдир. Чунки бизнинг мамлакатимизда айрим субъектларда миллий стандарт амалда бўлган, ана энди шу миллий стандартдан халқаро стандартга ўтишда юқарида қайд этилган стандарт методик қўлланма ҳисобланади. Хусусан, халқаро стандартларга ўтишнинг бошланғич нуқтаси, яъни ўтиш санасини белгилаш ва ушбу санага тайёрланиши лозим бўлган ҳужжатлар ва уларга қўйилган услубий талаблар белгилаб ўтилган. Ўтиш санасига жамият тан олган барча актив ва мажбуриятлари МҲХСлар талабига мувофиқ бўлмаслиги мумкин. Буедай ҳолларда МҲХСга мувофиқ тан олиш мезонларига жавоб берадигангина молиявий ҳисобот элементлари тан олинади, қолганлари тақсимланмаган фойда орқали молиявий ҳисоботга тузатиш киритилади. 1-сон МҲХСга мувофиқ биринчи йиллик молиявий ҳисоботни тайёрлаётган жамиятда камида 3 та ҳисобот санасига молиявий ҳолат тўғрисидаги ва 2 та даврга умумлашган даромадлар тўғрисидаги ҳисобот, шунингдек тегишли изоҳларни шакллантириши лозим (3.1-расм).



3.1-расм. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида биринчи йиллик молиявий ҳисоботни тайёрлаш даврлар бўйича босқичи[97]

3.1-расмга мувофиқ ташкилот МҲХСга мувофиқ биринчи йиллик молиявий ҳисобот тўпламини 2020 йил 31 декабрь ҳолатига тайёрлаши белгиланган. Унга мувофиқ, молиявий ҳолат тўғрисидаги кириш ҳисоботи 2019 йил 1 январь ҳолатига тайёрланиши лозим. Мазкур сана МҲХСга асосан бухгалтерия ҳисобини юритишни бошлаш санаси ҳам ҳисобланади.

МҲХСга мувофиқ бўлган биринчи молиявий ҳисобот қуйидагиларни ўз ичига олиши лозим:

[97] "Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини биринчи марта қўллаш" номли 1-сон МҲХСга асосан муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

МҲХСга ўтиш санасига бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартларига мувофиқ хусусий капитал ҳисоботи кўрсаткичларининг МҲХСга мувофиқ бўлган кўрсаткичлар ўртасидаги солиштирмаси;

аввал қўлланилган БҲМСларга мувофиқ бўлган йиллик молиявий ҳисобот тайёрланган энг охирги давр якунидаги санага хусусий капитал ҳисоботи кўрсаткичлари;

ташкилотнинг охирги йиллик молиявий ҳисоботларини қамраб олган энг сўнгги давр учун МҲХС асосида тайёрланган жами умумлашган даромаднинг солиштирмаси;

қадрсизланишдан зарарлар биринчи марта тан олинган бўлса ёхуд қайта тикланган бўлса, ташкилотдан 36-сон БҲХСга мувофиқ ёритиб бериш.

Ташкилот МҲХС бўйича молиявий ҳолат тўғрисидаги кириш ҳисоботини тайёрлашда аввал қўллаб келган ҳисоб сиёсатини қайта кўриб чиқиши керак. Чунки миллий ҳисоб билан ҳалқаро ҳисоб тизимидаги фарқли жиҳатларни фаолиятининг хусусиятга боғлаган ҳолда ҳисоб сиёсати қоидаларини белгилаши лозим. Маълумки халқаро стандарт қатъий қоидалар белгиланган ҳужжат эмас, балки бухгалтердан мулоҳаза юритишни талаб этадиган қоидаларни акс эттирган ҳужжатдир.

Тадбиркорлик субъекти раҳбарияти томонидан МҲХСлар асосида тайёрланган молиявий ҳисобот бўйича “мувофиқликнинг ошкора ва шартсиз баёноти” билдирилган бўлиши шарт. Мазкур баёнот одатда молиявий ҳисоботга илова қилинадиган изоҳлар қисмида акс этади. Молиявий ҳисобот МҲХСларда келтирилган талабларга тўлиқ мувофиқ бўлмагунча тадбиркорлик субъекти уни МҲХСларга мувофиқ деб баён этмаслиги лозим.

BUDJET INTIZOMINI TA’MINLASHDA PARLAMENT NAZORATI VA FUQAROLIK JAMIYATINING O‘RNI: XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA TAHLIL (NORVEGIYA, JANUBIY KOREYA VA ESTONIYA TAJRIBALARI)

B.U.Shermuxamedov
TDIU, prof Toshkent davlat iqtisodiyot universtiteti
Qosimova Fazilat Sherzod qizi
“Buxgalteriya hisobi” fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezis davlat budjetining ijrosini ta’minlashda parlament institutlari va fuqarolik jamiyatining o‘rnini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Yuqori moliyaviy intizom ko‘rsatkichlariga erishgan Norvegiya, Janubiy Koreya va Estoniya tajribalari asosida parlament nazoratining institutsional mexanizmlari, fuqarolik jamiyatining budjet jarayoniga jalb etilish shakllari va ularning budjet intizomiga ta’siri o‘rganilgan. Tezisda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va xalqaro tashkilotlarning

baholash metodologiyalaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, parlament nazoratining mustaqilligi va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish darajasini sezilarli oshiradi. Ushbu tezisning ilmiy hissasi boshqa mamlakatlarda mavjud tajribalarni O‘zbekiston kontekstida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlab berishda ko‘rinadi.

Kalit so‘zlar: Parlament nazorati, budjet intizomi, fuqarolik jamiyati, moliyaviy shaffoflik, hisob palatasi, xalqaro standartlar, ochiq budjet indeksi, davlat moliyaviy nazorati.

Davlat budjetining to‘liq va maqsadli ijro etilishini ta’minlash zamonaviy moliya boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, budjet xarajatlarini qonun doirasida amalga oshirish va korrupsiyaning oldini olishda parlament nazorati hamda fuqarolik jamiyatining ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda ushbu sohadagi islohotlar izchil davom etmoqda. Bunga misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son Farmoni “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” moliyaviy nazorat tizimini tubdan yangilashga qaratilgan bo‘lib, unda Hisob palatasiga parlament oldida hisobot berish majburiyati mustahkamlangan, fuqarolar ishtirokidagi audit mexanizmlari joriy etilgan. Bundan tashqari, Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda ichki audit xizmatlari har chorakda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida o‘z faoliyatiga oid hisobotlarni jamoatchilikka e’lon qilib borishi belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-son Qarorida ham “budjet intizomiga rioya qilish yuzasidan yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash zarurati ta’kidlangan bo‘lib, bu ham mazkur mavzuning amaliy dolzarbligini yanada oshiradi. Biroq parlament nazoratining samaradorligi va fuqarolik jamiyatining bu jarayondagi o‘rni hali yetarli darajada ilmiy jihatdan tahlil etilmagan. Xorijiy tajribani chuqur o‘rganish esa O‘zbekiston uchun samarali mexanizmlarni aniqlash imkonini beradi.

Parlament nazoratini rivojlantirish va budjet jarayoniga fuqarolarni jalb etish borasida Norvegiya, Janubiy Koreya va Estoniya dunyoda eng yaxshi amaliyotlardan birini namoyish etmoqda.

Norvegiya tajribasi: Norvegiyada parlament nazoratining asosi Storting (parlament) tomonidan tayinlangan mustaqil hisob palatasi - Riksrevisjonen orqali amalga oshiriladi. Bu muassasa to‘liq moliyaviy audit, samaradorlik auditi va muvofiqlik auditini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lib, Stortingga bevosita hisobot beradi. Riksrevisjonen tomonidan amalga oshirilgan auditlar asos qilib olingan har qanday maxsus tekshiruvni Storting to‘g‘ridan - to‘g‘ri buyurishga ham haqli. Xalqaro Budjet Hamkorligining 2023-yilgi Ochiq Budjet so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra, Norvegiyada

parlament va oliy audit muassasasining qo‘shma nazorat ko‘rsatkichi 87/100 balga yetgan, bu esa mamlakat moliyaviy shaffofligining yuksak darajasini tasdiqlaydi. Norvegiyaning yashil byudjetlash tizimi ham alohida e’tiborga molik: OECD ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda Norvegiya 24 ta so‘rovnoma ishtirokchisi orasida uchinchi o‘rinni egallagan holda, OECD o‘rtacha ko‘rsatkichi 0,49 ga nisbatan 0,70 ball to‘pladi.

Janubiy Koreya tajribasi: Janubiy Koreya budjet nazorati sohasida fuqarolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jarayonga jalb etuvchi Milliy Ishtirokchi Byudjetlashtirish (National Participatory Budgeting) tizimini muvaffaqiyatli joriy etdi. Bu tizim doirasida fuqarolar tomonidan taklif kilingan loyihalar maxsus vazirliklarda ko‘rib chiqiladi, ustunliklar bo‘yicha saylov o‘tkaziladi va tasdiqlangan miqdor davlat budjetiga kiritiladi. Masalan, 2021-yil Milliy Majlis tomonidan tasdiqlangan fuqarolar loyihalarining umumiy summasi 92,8 milliard Koreya voni (57,9 million funt sterling)ni tashkil etdi - bu hukumat dastlabki taklifiga nisbatan 11,1 foizga ko‘proq. Janubiy Koreya Milliy Majlisi hamda Audit va Inspeksiya kengashining 2023-yildagi OBS qo‘shma nazorat ko‘rsatkichi 85/100 ballga yetdi. Milliy Majlis huzuridagi mustaqil Byudjet idorasi (NABO) esa qonunchilik bazasida mustahkamlangan holda parlamentga mustaqil makroiqtisodiy prognozlar va barcha yangi siyosiy takliflarning xarajat hisob-kitoblarini taqdim etadi.

Estoniya tajribasi: Estoniya budjet shaffofligi va fuqarolik ishtiroki sohasida raqamli texnologiyalarning kuchidan samarali foydalanayotgan davlat sifatida tanilgan. Moliya vazirligi veb-sayti orqali budjet ma’lumotlari va qarz majburiyatlari ommaga to‘liq ochiq holda taqdim etilmoqda. Shu bilan birga, Estoniya Ochiq Hukumat Hamkorligida (OGP) faol ishtirok etib, Ochiq Hukumat Rivojlanish Qo‘mitasi (ARVAK) orqali hukumat va fuqarolik tashkilotlari birgalikda harakat rejasini ishlab chiqish hamda uni monitoring qilishni yo‘lga qo‘ygan. Transparency International 2023-yilgi Korrupsiya Qabul Qilish Indeksida Estoniya 180 mamlakatdan 12-o‘rinni egallagan, bu esa samarali nazorat va shaffof moliyaviy boshqaruvning bevosita natijasidir. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda Estoniyada aholi milliy hukumatga ishonchi (47%) va mahalliy hokimiyatga ishonchi (54%) OECD o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan yuqori bo‘lgan.

Uchala mamlakatning tajribasini taqqoslab ko‘radigan bo‘lsak, quyidagi umumiy qonuniyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, uchala mamlakatda ham Hisob palatasi to‘liq mustaqil muassasa sifatida faoliyat yuritib, parlament oldida hisobot beradi va ijro hokimiyatidan instituttsional jihatdan mustaqil. Ikkinchidan, fuqarolar budjet jarayoniga faqat passiv kuzatuvchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida jalb etilgan. Uchinchidan, budjet ma’lumotlari onlayn formatda, vaqtida va to‘liq tarzda e’lon qilinadi. To‘rtinchidan, audit hisobotlariga asoslangan tavsiyalar ijrosi parlamentar mexanizmlar orqali nazorat qilinadi. Dunyo bank ma’lumotlariga ko‘ra, mustaqil moliyaviy nazoratga ega davlatlarda budjet mablag‘laridan noto‘g‘ri foydalanish miqdori nisbatan past darajada ushlanib turilmoqda.

Norvegiya, Janubiy Koreya va Estoniya misolida ko‘rib chiqilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, budjet intizomini ta’minlashda parlament nazorati va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki o‘zaro to‘ldiruvchi omillar sifatida harakat qiladi. Parlament nazorati qonun asosida budjet ijrosini tekshirsa, fuqarolik jamiyati esa ijtimoiy nazorat orqali axborot oshkorligi va mas’uliyatni kuchaytiradi. O‘zbekistonda 2021-yilgi Farmonga asosan joriy etilgan “fuqarolar ishtirokidagi audit” mexanizmi mazkur yo‘nalishda muhim qadam sanaladi. Biroq bu tajribani yanada rivojlantirish, mustaqil fiskal muassasalar faoliyatini kuchaytirish hamda budjet ma’lumotlarining to‘liq ommaviyligini ta’minlash orqali nazorat tizimini yanada samarali qilish mumkin. Xorijiy amaliyotdan olingan saboqlar O‘zbekiston moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishda muhim yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qiladi.

DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNI XALQARO STANDARTLARI

Bababekova Zebo Baxtiyor qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot univeriteti, DMNA-15 gurush talabasi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iktisodiy islohotlar auditorlik faoliyatini xam tartibga solish muammosi yuzaga keladi. Muammo, ma’lumki, tegishli qoidalar yoki standartlarni, shuningdek, auditning o’ziga xos usullarini ishlab chiqish orqali hal qilinadi.

Bu yerda "standart" (ingliz tilidan - standard) atamasi biz qabul qilgan narsadan farq qiladigan maxsus ma’noda tushunilishi kerak. Chet elda «audit standartlari» o’rniga boshqa bir atama ishlatiladi - Code of Ethics for Auditors - Auditorlar axloq kodeksi, uni «muomala standartlari», «axloq kodeksi» yoki nihoyat «auditorlar uchun qoidalar» deb tarjima qilish mumkin. Rivojlangan davlat apparati bo’lgan mamlakatlarda audit muammolariga, shu jumladan ichki muammolarga katta e’tibor beriladi.

Ichki audit - bu tashkilotning iqtisodiy faoliyatini yaxshilashga qaratilgan mustaqil va ob’ektiv kafolatlar va maslahatlar berish faoliyatidir. Ichki audit tashkilotga iqtisodiy xavflarni boshqarish, boshqaruv va korporativ boshqarish tizimining samaradorligini baholash va takomillashtirishga tizimli va izchil yondashuv yordamida maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Ichki audit madaniyat va huquq sohalarida turli xil urf-odatlarga ega bo’lgan mamlakatlarda, ularning maqsadi, hajmi va tuzilishi jihatidan farq qiladigan tashkilotlarda, tashkilot xodimlari tomonidan ham, tashqi ijrochilar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu farqlar ma’lum bir sharoitda ichki audit amaliyotiga o’ziga xos xususiyatlarni yuklashi mumkin. Biroq, ichki auditning professional standartlariga rioya qilish ichki auditorlarning o’z vazifalarini bajarishlari uchun zarur shartdir.

Shubhasiz, tashkilotlarni tekshirish uchun jalb qilingan xorijiy auditorlik kompaniyalari o’z faoliyatlarida G’arbda qabul qilingan standartlarga asosan tashkil etishadi. Shuning uchun ham ushbu auditorlik kompaniyalar chet el standartlari bilan tanishish tavsiya etiladi. Buning uchun bir qator xalqaro va boshqa manbalarga asoslangan ichki audit standartlarini tavsiflaymiz. Odatda, ushbu standartlar 3, ba’zan esa, 4 guruhga guruhlangan. Ushbu standartlarni uchta guruhga guruhlash orqali ko’rib chiqing.

1. Umumiy standartlar - (General Standards). Ushbu guruh quyidagi qoidalarni o’z ichiga oladi. Aqlli ishonch - (Reasonable Assurance). Bu tekshirish maqsadlariga mantiqiy (ya’ni bo’shashmaslik) erishishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, tekshirish xarajatlari olingan samaradan oshmasligi kerak. Ushbu qoidani bajarishda auditorlik tashkilotining faoliyatiga xos bo’lgan xatarlar, xavf darajasini aniqlash mezonlari, turli sharoitlar uchun qabul qilinadigan risklar hisobga olinadi.

Tekshirilayotgan tashkilotning munosabati ((Supportive Attitude - Qo’llab-quvvatlovchi munosabat). Ichki audit ma’muriyat tomonidan amalga oshiriladi. Tashkilot ma’muriyati va xodimlari ichki auditga ijobiy munosabatda bo’lishlari, uning samaradorligini oshirishga hissa qo’shishlari kerak, shu jumladan zarur ma’lumotlarni taqdim etish orqali.

Xodimlarning malakasi (Competent Personal) (malakali shaxs). Ushbu standart ichki audit xizmati rahbariyati va uning xodimlaridan yuqori shaxsiy fazilatlarga, zarur kasbiy tayyorgarlikka, ichki vazifalarni samarali bajarish uchun etarli bo’lgan ichki nazorat tizimini bilishini talab qiladi. Muhimi, auditorning xolisligi. O’z navbatida, kompaniya rahbariyati ichki audit tashkilot uchun juda muhim ekanligini bilishi kerak.

Belgilangan vazifalarni bajarishga imkon beradigan vakolat darajasini saqlab qolish uchun audit xizmati xodimlarining bilim va tajribasini tekshirish, uning malakasini muntazam oshirib borish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, ichki auditning samaradorligini ta’minlash uchun natijalarni muhokama qilish kerak.

Tekshirishning ob’ektlari va maqsadlari (Control Objectives). Tashkilot faoliyatining har bir turi uchun ichki nazorat ob’ektlari aniqlanishi kerak. Ular mantiqiy, amaliy asosli va oqilona bo’lishi kerak. Tekshirish usullari (Control Techniques). O’z maqsadlariga erishish uchun ichki nazorat usullari samarali va samarali bo’lishi kerak. Nazorat usullari yordamida maqsadlaringizga erishish uchun turli xil muolajalarni tushunasiz. Standart ushbu usullarning yuqori darajadagi ishonchliligini ta’minlashini talab qiladi. Bular ichiga audit rejalari (vazifalarni taqsimlash bilan birga) va xavfsizlikni boshqarish vositalari kiradi.

2. Maxsus standartlar. (Specific Standards). Bularga quyidagilar kiradi:

Hujjatlar (Documentation). Mavjud ichki nazorat tizimlari va barcha operatsiyalar, operatsiyalar va boshqa muhim voqealar hujjatlarda aniq aks ettirilgan bo’lishi kerak.

Tekshirish paytida hujjatlar qulay va tushunarli bo'lishi kerak. Standart yozma ravishda tasdiqlashni talab qiladi:

a) kompaniyaning ichki nazoratining maqsadlari, uning usullari va qo'llaniladigan buxgalteriya tizimlari;

b) bitimlarning barcha muhim jihatlari va kompaniyaning boshqa muhim voqealari.

Ichki nazorat tizimlarining hujjatlari kompaniyaning bloklari va tegishli ob'ektlarining tavsifi, boshqaruv ko'rsatmalari, ma'muriy siyosat va ichki buxgalteriya standartlarini o'z ichiga olishi kerak. Tranzaktsiyalar va muhim voqealar uchun hujjatlar aniq va to'liq bo'lishi kerak, ular tranzaktsiyalar va hodisalarni kuzatishda yordam berishi, shuningdek, ma'lumot manbalarini aks ettirishi kerak. Ushbu standartni amalga oshirish ichki nazorat usullari, operatsiyalar, voqealar hujjatlari to'liq va kompaniyaning rahbariyati va operatsiyalarni boshqarish auditorlari uchun foydali bo'lishini talab qiladi.

Bitimlar va tadbirlarni ro'yxatdan o'tkazish. (Recording of Transactions and Events). Tranzaktsiyalar va boshqa muhim voqealar tegishli ravishda qayd etilishi va tegishli ravishda tasniflanishi kerak. Ushbu standart amal qiladi:

a) butun jarayonga, operatsiya yoki hodisaning hayotiy tsikliga tegishli bo'lib, bitim boshlanishini va uni hal qilishni o'z ichiga oladi;

b) bajariladigan operatsiyaning barcha jihatlari uchun;

c) umumiy registrlarda tasnifiga

Bitimlar va voqealarni bajarish. (Execution of Transactions and Events). Tranzaktsiyalar va boshqa muhim operatsiyalar faqat ruxsat berilgan (ruxsat berilgan) va faqat o'z vakolatlari doirasida ishlaydigan xodimlar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Ushbu standart kompaniya rahbariyatining resurslarni almashish, uzatish va kelishilgan maqsad va shartlar uchun foydalanish to'g'risidagi qarorlari bilan bog'liq.

Vazifalarni ajratish. (Separation of Duties). Avtorizatsiya, tranzaktsiyalar, bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish va ularni doimiy nazorat qilish jarayonida asosiy majburiyat va majburiyatlar xodimlar o'rtasida taqsimlanishi kerak.Xatolar yoki yo'qotishlar xavfini kamaytirish yoki aniqlanmaslik xavfini kamaytirish uchun bitta shaxsga tranzaktsiyalarning barcha asosiy tomonlarini boshqarishga ruxsat berilmasligi kerak. Bundan tashqari, samarali monitoringni ta'minlash uchun asosiy funktsiyalar va majburiyatlar xodimlar guruhiga berilishi kerak. Asosiy xususiyatlar avtorizatsiya, bitimlarni tasdiqlash va ularni ro'yxatdan o'tkazish.

Nazorat (Supervision). Ichki nazorat maqsadlariga erishish uchun malakali va doimiy nazorat ta'minlanishi kerak. Ushbu standart quyidagilarni talab qiladi:

- xodimlarning funktsiyalari va majburiyatlari, har bir xodimning javobgarligi o'rtasida aniq bog'liqlik;
- har bir xodimning ishini zarur darajada muntazam ravishda tekshirish;

• ish zarur bo’lganda davom etishini ta’minlash uchun tanqidiy lahzalarda ishlashga ruxsat berish.

Resurslardan foydalanish va ular uchun javobgarlik. (Access to and Accountability for Resources). Resurslardan foydalanish va ularni hisobga olish faqat vakolatli xodimlar tomonidan cheklanishi kerak. Resurslardan foydalanish uchun javobgarlik aniqlanishi kerak. Vaqti-vaqti bilan resurslarning mavjudligini tekshirish kerak (haqiqiy manbalarni ro’yxatga olish bilan taqqoslash). Tekshiruvlarning chastotasi aktivlarning "zaifligi" ga bog’liq. Resurslardan foydalanishni cheklash kontseptsiyasining asosi ruxsatsiz foydalanish xavfini kamaytirishga yordam beradi. Resurslardan foydalanishni cheklash resurslarning zaifligiga va yo’qotish xavfini tushunishga bog’liq bo’lib, ikkala omil ham vaqti-vaqti bilan baholanishi kerak.

ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA

Ergashev Xudoynazar Xabibullayevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Soibnazarova Odiliya Davlatovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
Ismatova Shahzoda Feruzovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlarning ahamiyati hamda ilg‘or xorijiy tajribaning o‘rni tahlil qilinadi. Ichki audit faoliyatining samaradorligini oshirish, moliyaviy nazoratni takomillashtirish va tashkilotlarda shaffoflikni ta’minlashda xalqaro audit standartlarining roli yoritib beriladi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida ichki audit tizimini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ichki audit, xalqaro audit standartlari, moliyaviy nazorat, boshqaruv samaradorligi, davlat sektori, audit tizimi, shaffoflik, risklarni boshqarish.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda tashkilotlarning samarali faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan moliyaviy boshqaruv tizimining mukammalligiga bog‘liq. Bu jarayonda ichki audit tizimi muhim o‘rin egallaydi. Ichki audit tashkilot faoliyatini baholash, moliyaviy jarayonlarning qonuniyligini tekshirish hamda resurslardan samarali foydalanilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Global iqtisodiy integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda ichki audit faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro standartlar audit jarayonining yagona metodologiyasini belgilab beradi hamda tashkilotlarda samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga yordam beradi.

Ichki audit tashkilot ichida amalga oshiriladigan mustaqil baholash faoliyati bo‘lib, u moliyaviy operatsiyalarni nazorat qilish, risklarni aniqlash va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan. Ichki audit tizimi tashkilot rahbariyatiga qaror qabul qilish jarayonida zarur axborot taqdim etadi.

Ichki auditning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish;
- resurslardan foydalanish samaradorligini baholash;
- tashkilot faoliyatidagi risklarni aniqlash va ularni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- ichki nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish.

Shu sababli ichki audit tizimi tashkilotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ichki audit tizimi tashkilot boshqaruvining muhim elementi sifatida qaraladi. Masalan, Yevropa davlatlari va AQShda ichki audit faoliyati xalqaro audit institutlari tomonidan ishlab chiqilgan standartlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa audit jarayonining professional darajada tashkil etilishini ta’minlaydi.

Xorijiy tajribada ichki audit tizimining samaradorligini oshirish uchun bir qator muhim tamoyillar qo‘llaniladi. Ulardan biri auditorlarning mustaqilligini ta’minlashdir. Auditorlar tashkilot rahbariyatidan mustaqil bo‘lishi va o‘z faoliyatini obyektiv ravishda amalga oshirishi kerak.

Bundan tashqari, ko‘plab davlatlarda auditorlarning professional tayyorgarligiga katta e’tibor qaratiladi. Auditorlar muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida qatnashib, yangi metod va texnologiyalarni o‘rganib boradilar.

Ichki audit tizimini rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Birinchidan, audit faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Bu audit jarayonining sifatini oshiradi va xalqaro moliyaviy boshqaruv talablariga mos keladigan tizimni shakllantiradi.

Ikkinchidan, auditorlarning professional malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda auditorlar nafaqat moliyaviy nazorat, balki risklarni boshqarish va strategik tahlil sohalarida ham yetarli bilimga ega bo‘lishlari kerak.

Uchinchidan, audit jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish zarur. Elektron audit tizimlari moliyaviy operatsiyalarni tezkor monitoring qilish va nazorat qilish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, ichki audit va boshqa nazorat organlari o‘rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirish muhimdir. Bu moliyaviy nazorat tizimining umumiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ichki audit tizimi tashkilotlarda samarali boshqaruvni ta’minlash, moliyaviy intizomni mustahkamlash va resurslardan oqilona foydalanishni nazorat qilishda muhim

rol o‘ynaydi. Xalqaro audit standartlarining joriy etilishi audit faoliyatining shaffofligini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilg‘or xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ichki audit tizimini rivojlantirish auditorlarning mustaqilligini ta’minlash, professional tayyorgarlikni kuchaytirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu omillarni hisobga olgan holda ichki audit tizimini takomillashtirish tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

EKOLOGIK AUDITNI XALQARO AUDIT STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Shodiyev Erkin Temirovich
PhD, Ma’mun-Universiteti NTM,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti, Xiva shahri

Annotasiya. Mazkur tadqiqot ekologik audit tizimini xalqaro audit standartlari asosida tashkil etishning nazariy va empirik jihatlarini o‘rganadi. Tadqiqotda ekologik auditning ESG ko‘rsatkichlari, ISO 14001 ekologik boshqaruv tizimi va xalqaro audit standartlari (ISA) bilan integratsiyasi tahlil qilindi. Natijalar ekologik auditning korporativ barqarorlik, shaffoflik va ekologik samaradorlikni oshirishdagi muhim rolini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ekologik audit, ESG, ISO 14001, ISA, barqaror rivojlanish

Global iqlim o‘zgarishi, ekologik xavflarning ortishi va resurslar tanqisligi zamonaviy iqtisodiyotda korporativ ekologik javobgarlikni kuchaytirishni talab qilmoqda. Shu sababli ekologik audit korxonalar faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Ekologik audit – bu korxona faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini baholash va ekologik risklarni aniqlashga qaratilgan tizimli tekshiruvdir. Ushbu jarayon xalqaro standartlar asosida tashkil etilganda uning ishonchliligi va samaradorligi ortadi.

Xususan, International Federation of Accountants tizimidagi audit standartlari hamda ISO ekologik standartlari ekologik auditni tashkil etishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ekologik auditning huquqiy asoslari yurisdiksiyaga qarab farq qiladi, lekin ko’pchilik mamlakatlarda ekologik audit uchun majburiy yoki ixtiyoriy talablarni belgilovchi ekologik qoidalar mavjud. Ekologik auditning rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadigan asosiy xalqaro hujjatlardan biri atrof-muhitni boshqarish tizimlariga talablarni belgilaydigan ISO 14001 standartidir. Mamlakatimizda ekologik audit bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, “Ekologik audit o’tkazish to’g’risida”gi O’RQ-

678-son[98] qonuni bilan tartibga solinadi, unda ekologik talablarga rioya etilishini nazorat qilish zarurligi qayd etilgan. Atrof-muhit auditi bu kontekstda ekologik qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilishning ixtiyoriy mexanizmi sifatida ishlaydi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikr-mulohaza va huquqiy dalillarga tayangan holda ekologik auditni xalqaro audit standartlari asosida tashkil etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Ekologik audit atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalari va standartlariga rioya qilishni ta’minlashning muhim vositasidir. Zamonaviy sharoitda uning roli qat’iy ekologik talablar va jamoatchilik nazoratining kuchayishi tufayli yanada sezilarli bo’ladi. Ekologik audit samaradorligini oshirish uchun huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va tavsiyalarga rioya qilmaganlik uchun javobgarlikni oshirish zarur.

So‘nggi yillarda ekologik audit va barqarorlik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada rivojlandi. Tadqiqotlar ekologik auditning korporativ boshqaruv va barqarorlikdagi rolini tasdiqlaydi.

Xorijlik tadqiqotchilar Wang S. va Xiong Y. ilmiy izlanishlarida Xitoyning aktsiyadorlik kompaniyalari panel ma’lumotlaridan (2011–2022) foydalangan holda atrof-muhit va ekologik auditning korporativ ekologik ma’lumotlarni oshkor qilishga ta’sirini o’rganishgan.[99]

Tadqiqotchi olima N. A. Shaymatova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ekologik boshqaruv va ekologik auditning nazariy-uslubiy asoslari, shuningdek, ularning barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi o‘rni yoritilgan. Ekologik menejment tizimining mohiyati, asosiy vazifalari hamda xalqaro standartlar, xususan ISO 14001 talablari asosida tahliliy yondashuv amalga oshirilgan. Ekologik audit korxonalar faoliyatining ekologik qonunchilik va me’yoriy talablarga muvofiqligini baholashning samarali vositasi sifatida ko‘rib chiqilgan.[100]

Jamiyat va tabiat o’rtasidagi o’zaro aloqalar hozirgi davrda tabiiy resurslardan haddan tashqari va nazoratsiz foydalanish, shuningdek, miqyosi jihatidan mislsiz bo’lgan atrof-muhitning ifloslanishi bilan tavsiflanadi. Bunday jarayonlar o’z navbatida tabiiy ofatlarning ko’payishi, texnogen avariyalar va falokatlar sonining ortishi, insoniy qurbonlarning ko’payishi hamda katta hajmdagi moddiy yo’qotishlarga olib kelmoqda.

Mazkur holat ekologiya va iqtisodiyot talablarini uyg’unlashtirishga qaratilgan nazariy va konseptual yondashuvlarning ahamiyatini oshirmoqda. Xususan, ekologik jihatdan xavfsiz barqaror rivojlanish konsepsiyasini ta’minlash bugungi kunning dolzarb

---

[98] Milliy qoninchilik bazasi. https://lex.uz/docs/5331133

[99] Wang, S., & Xiong, Y. (2025). Environmental audit and corporate environmental information disclosure: evidence from external stakeholder concerns. *Journal of Environmental Planning and Management*, 1–35. https://doi.org/10.1080/09640568.2025.2549935

[100] Shaymatova N. A. Barqaror rivojlanish sharoitida ekologik boshqaruv va audit. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2026-yil, fevral. № 2-son. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED

masalasiga aylangan. Ushbu maqsadga erishishda mavjud va potensial ekologik-iqtisodiy muammolarni hal etishning istiqbolli hamda noan'anaviy yo'nalishlaridan biri sifatida ekologik audit alohida e'tirof etilmoqda.

Auditning xalqaro standartlari (AXS) 500-son "Auditorlik dalillari"ga muvofiq, "tekshiruv jarayonida auditor asosli va ob'ektiv auditorlik xulosasini tayyorlash uchun yetarli dalillarni yig'ishi lozim. Ekologik auditning turlari va maqsadlari xilma-xilligi uning axborot bazasi hamda o'tkazish metodikasida farqlanishni belgilaydi"[101]. Masalan, kompleks ekologik audit maxsus yo'nalishlarga qaraganda ancha keng axborot bazasiga tayanadi, maxsus audit esa faqat tor sohalarda chuqur tadqiqot o'tkazishga mo'ljallangan bo'ladi. Umuman olganda, korxona faoliyatida ekologik auditning axborot ta'minoti - bu analitik protseduralarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborot resurslari majmui va ularni tashkil etish usullaridan iborat.

Ekologik auditning usullari va tartib-qoidalari xalqaro (ISO 14001, ISO 19011, EMAS) hamda milliy qonunchilik talablariga asoslanadi. O'zbekistonda bu borada "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Ekologiya qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ekologik auditning usullari va tartib-qoidalari korxonalarda atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatini baholashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Hujjatlarni tahlil qilish, monitoring, matematik-statistik hisoblashlar, suhbat va intervyular, vizual kuzatish hamda ekspert baholash usullari bir-birini to'ldirgan holda korxona faoliyatining ekologik samaradorligini to'liq ochib beradi.

Xalqaro standartlar (ISO 14001, ISO 19011) va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida shakllantirilgan tartib-qoidalar ekologik auditning huquqiy va metodologik poydevorini yaratadi.

"Zamonaviy ekologik audit tizimi ushbu xavflarning har birini qamrab olgan holda, ekologik auditorga turli bosqichlarda chuqur tahlil qilish va tavsiyalar berish imkonini yaratadi". Ayniqsa, operatsion ekologik xavflar (masalan, chiqindi suvlarni tozalashdagi nosozliklar yoki havoga chiqarilayotgan zararli moddalar)ni vaqtida aniqlash va bartaraf etish juda muhim. Shuningdek, ekologik audit faqat xavflarni aniqlabgina qolmay, ularni boshqarish bo'yicha tavsiyalar ham beradi. "Ekologik auditor endilikda faqat aniqlovchi emas, balki maslahat beruvchi va xavflarni kamaytiruvchi rolni ham bajarmoqda". Bu transformatsiya ekologik auditni passiv tekshiruvdan faol monitoring va riskni boshqaruvchi mexanizmga aylantirdi.

Hozirgi konsepsiya doirasida ekologik auditorlar nafaqat chiqindilar va ifloslanishni, balki korxona strategik rejalari, ekologik loyihalar, yashil texnologiyalar, inson resurslari va hatto korxona brendining ekologik obro'siga tahdid soluvchi omillarni

[101] https://www.gov.uz/oz/imv/sections/view/22099

ham hisobga olgan holda faoliyat yuritmoqda. Ushbu yondashuv, ayniqsa, ISO 14001, ISO 31000, COSO ERM kabi xalqaro ekologik boshqaruv standartlari asosida shakllangan.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish va korxonalarning atrof-muhitga ta’sirini nazorat qilish masalalari global iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning “Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030” (SDGs) dasturida, xususan, “12-, 13- va 15-maqsadlarda ekologik resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish hamda iqlim o’zgarishiga qarshi chora ko’rish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan”[102]. Jahon banki ma’lumotlariga ko’ra, “ekologik ifloslanish sababli global YaIMning o‘rtacha 4,8 foizi miqdoridagi iqtisodiy yo’qotishlar kuzatilmoqda, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko’rsatkich 6–8 foizgacha yetmoqda”[103].

Xalqaro miqyosda ISO 14001:2015 “Atrof-muhitni boshqarish tizimlari” standarti, Global Reporting Initiative (GRI) hamda “Environmental, Social and Governance” (ESG) ko’rsatkichlari korxona ekologik faoliyatini audit qilishda asosiy metodik me’yor sifatida e’tirof etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ekologik audit usullari va tartib-qoidalarining izchil qo’llanilishi ekologik xavfsizlikni ta’minlash, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish hamda korxonalarning ijobiy “yashil imiji”ni shakllantirishda strategik ahamiyatga ega.

TA’LIM HAMDA MUHANDISLIK YO’NALISHINING MALAKA TALABLARINI TAHLIL QILISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

G’aniyev Shahriddin Vohidovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
“Budjet hisobi va g’aznachilik” kafedrasi Professori.

Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohasi ichida yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi yo‘nalishi alohida o‘rin tutadi.

Ma’lumki, bugungi kunda Respublikamiz ta’lim tizimi va undagi o‘qitish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida rivojlangan davlatlarning ta’lim sohasidagi islohotlari tahlil qilinib, shunga ko‘ra ta’lim tizimini modernizatsiyalash uning maqsad va vazifalarini amalga oshirish ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mutaxassislik bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar 60721400 –Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – fan-texnika sohasidagi ta’lim yo‘nalishi hisoblanib, biron-bir buyumni tikish uchun tejamkor, kam chiqimli asosiy

[102] BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida
[103] World Bank Group - International Development, Poverty and Sustainability

vositalarni qo‘llash tufayli mahsulot tannarxini minimallashtirish hamda sifatini oshirish, ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarini loyihalashning avtomatlashtirilgan jihatlari bilan bog‘liq kasbiy faoliyatlarning obyektlari deb quyidagilarni aytish mumkin.

Jumladan, – davlat va nodavlat tashkilotlar, korxona va muassasalar, kompa niyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

– tikuvchilikda qo‘llaniladigan xom-ashyo va materiallar va moddiy texnika resurslari;

– tikuv buyumlari ishlab chiqarish texnologik jarayonlari va jihozlari;

– ilmiy-tadqiqot jarayonlari;

– tikuv buyumlari ishlab chiqaruvchi tikuvchilik korxonalarining boshqaruv tizimlari.

Qayd etilganidek, dual ta’lim doirasida o‘quv jarayonlari haftasiga kamida ikki kun universitetda nazariy mashg‘ulotlar, qolgan kunlari esa ishlab chiqarishda amaliyot o‘tash shaklida tashkil etiladi. Ushbu tizim oliy ta’lim muassasasi, yo‘nalish bo‘yicha o‘qiyotgan talaba va korxona o‘rtasida uch tomonlama shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda “Kasb egasi” dual ta’lim tizimi asosida tahsil olayotgan 1251 nafar talabadan 251 nafari o‘z o‘qishi bilan bir qatorda, ishlab chiqarishda ishlash orqali ish haqi ham olmoqda. Dual ta’limni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

– dual ta’lim tashkil etiladigan tashkilotlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar va idoralarning iqtisodiyot tarmoqlarida o‘rta bo‘g‘in kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirish;

– tashkilot va professional ta’lim muassasasi hamda tashkilot va o‘quvchi o‘rtasida shartnoma tuzish;

– hududlarda kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish;

– tegishli ta’lim dasturlarini ishlab chiqish hamda yangilab borish;

– mehnat bozorida o‘rta bo‘g‘in kadrlarga bo‘lgan talab va taklif larni doimiy o‘rganib borish;

– dual ta’lim dasturlari asosida tayyorlanayotgan kadrlarni baholash.

Yangi O’zbekiston hukumati tomonidan ushbu ta’lim tizimini rivoj lantirish, uni kengaytirish va yanada takomillashtirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Press-tur doirasida ishtirokchilar bir nechita korxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

Birinchi manzil “ZELAL TEKSTIL” MChJ bo‘ldi. Mazkur korxona Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti bilan hamkorlikda 2022-yildan buyon dual ta’lim tizimini joriy etgan. Bugungi kungacha 120 nafar talaba ushbu korxonada amaliyot

o‘tagan, shuningdek, 10 dan ortiq bitiruvchi ushbu korxonada doimiy ish faoliyatini olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi qarori, 29.03.2021-yildagi 163-son. 60 Keyingi tashrif “Nurtex” MChJ korxonasiga uyushtirildi. 2022-yildan beri yo‘nalish bo‘yicha o‘qiyotgan talabalar ushbu korxonada dual ta’lim tizimi asosida zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar olib borishmoqda.

Yo‘nalish bo‘yicha o‘qiyotgan talabalarga yetuk mutaxassislar zamonaviy tikuv mashinalari, bichish dastgohlari, issiqlik bilan ishlov berish uskunalarida ishlash ko‘nikmalarini o‘rgatmoqdalar. Press-turning so‘nggi manzili Toshkent to‘qimachilik va yengil sa noat instituti bo‘ldi. Institut hududida yangi texnopark ochilgan, bu esa talabalar uchun ishlab chiqarish jarayoniga bevosita tayyorgarlik ko‘rishlariga keng imkoniyat yaratmoqda. Dunyo ta’limi oldida turgan global vazifalarning hal qilinishida yechimini kutayotgan muammolar oliy ta’lim tizimining tahlili, vazifalari, maqsadlarini o‘rganish va kerakli tavsiyalar yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta’lim sohasi bilan shug‘ullanuvchi barcha institut hamda universitetlarning hozirgi kundagi asosiy vazifalaridan biri amaliy ko‘nikmalarni yo‘nalish bo‘yicha o‘qiyotgan talabalarga ta’limni tashkil etish, uning sifatini yuqori darajaga ko‘tarish, ta’limni raqamlashtirish, boshqarish, moliyalashtirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish kabi masalalarning hal qilinishiga qaratilganligi maqsaga muvofiq deb hisoblaymiz.

ICHKI AUDIT TIZIMIDA COSO MODELI ASOSIDA ICHKI NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH

B.U.Shermuxamedov
TDIU, prof Toshkent davlat iqtisodiyot universtituti
Qosimova Fazilat Sherzod qizi
“Buxgalteriya hisobi” fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezis davlat sektori ichki audit tizimida COSO (Committee of Sponsoring Organizations) modelining besh komponentini qo‘llash imkoniyatlarini va ularning ichki nazorat samaradorligiga ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda O‘zbekiston qonunchilik bazasi va xalqaro amaliyot qiyoslanib, COSO modeli tamoyillarini mahalliy sharoitga moslashtirishning zaruriy shartlari aniqlangan. Qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodologiyasidan foydalangan holda o‘rganilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, besh komponent - nazorat muhiti, riskni baholash, nazorat tadbirlari, axborot va kommunikatsiya hamda monitoring bular bir-birini to‘ldiruvchi tarzda qo‘llanilganda ichki nazorat tizimining samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Ushbu tezisning ilmiy hissasi mazkur modelni O‘zbekistondagi davlat idoralarining ichki audit xizmatlari faoliyatiga tatbiq etishning aniq yo‘llarini belgilashda namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: COSO modeli, ichki nazorat, ichki audit xizmati, nazorat muhiti, riskni baholash, nazorat tadbirlari, monitoring, davlat sektori, moliyaviy intizom, xalqaro standartlar.

Zamonaviy davlat moliyaviy boshqaruvi tizimida ichki nazorat mexanizmlarining samarali ishlashi - davlat resurslarini asrash, moliyaviy shaffoflikni oshirish va korrupsiyaning oldini olishning kalit omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Jahon moliya tizimida ichki nazorat va audit yo‘nalishida eng e’tiborga molik me’yoriy hujjat sifatida COSO modeli e’tirof etilgan: u 7 tilda tarjima qilingan hamda xususiy va davlat sektori tashkilotlarida keng qo‘llaniladigan asosiy nazorat tizimi maqomiga ega.

O‘zbekistonda davlat sektori ichki audit tizimini yangilash borasida ketma-ket islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son Farmoni “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” bevosita shu sohadagi o‘zgarishlar yo‘lini ko‘rsatib berdi: ichki audit xizmatlarini “Davlat auditi” dasturiy kompleksiga ulash, har chorakda ommaviy hisobot taqdim etish va fuqarolar ishtirokidagi audit tizimini joriy etish zarurligi belgilab qo‘yildi

Biroq amaliyotda ichki nazorat jarayonlari hanuz xalqaro standartlardan orqada qolmoqda: nazorat komponentlari ko‘pincha bir-biridan uzilgan holda, alohida-alohida qo‘llaniladi, riskga asoslangan yondashuv to‘liq shakllanmagan, monitoring tadbirlari esa tizimli tus olmagan. COSO modelini davlat sektori ichki auditiga izchil tatbiq etish bu bo‘shliqlarni bartaraf etishga va nazorat tizimining puxtaligini ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

COSO o‘zining ichki nazorat tizimini 1992-yilda chiqardi va 2013-yilda keng ko‘lamli yangilash bilan qayta nashr etdi. Yangilangan tizimda besh asosiy komponent hamda ularga mos 17 tamoyilni o‘z ichiga olib, davlat va xususiy sektordagi har qanday hajmdagi tashkilotga moslashtirilishi mumkin. Government Finance Officers Association (GFOA) ham hukumat tashkilotlariga aynan COSO 2013 tizimidan foydalanishni rasman tavsiya etgan. Bugungi kunda COSO tizimi 7 tilda tarjima qilingan va dunyodagi 195 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritayotgan Ichki Auditorlar Instituti (IIA) a’zolari tomonidan qo‘llanilmoqda.

1- komponent: Nazorat muhiti

Bu komponent barcha boshqa nazorat elementlari uchun poydevor bo‘lib, tashkilot madaniyati, etika standarti va rahbariyatning “yuqoridan berilgan ohang”i (tone from the top) orqali namoyon bo‘ladi. Davlat idorasida nazorat muhitining puxtaligi bevosita mansabdor shaxslarning mas’uliyatini anglash darajasiga, ichki audit xizmatining mustaqilligiga va yuqori rahbariyat bilan ochiqligi tartibiga bog‘liq. O‘zbekistonda PF-6300-son Farmonga asosan barcha ministrliklarda ichki audit xizmatlari tashkil etilgan bo‘lib, ular boshqa tarkibiy bo‘linmalardan mustaqil holda faoliyat yuritishi belgilangan - bu aynan nazorat muhitini mustahkamlashga qaratilgan qadam. Biroq xalqaro amaliyot

ko‘rsatishicha, nazorat muhitining samaraliligi faqat tuzilmani joriy etish bilan emas, balki etika kodekslari, xodimlarni muntazam o‘qitish va rahbariyatning fidoyiligi bilan ta’minlanadi.

2- komponent: Riskni baholash

Riskni baholash - tashkilot maqsadlariga erishishga xalal berishi mumkin bo‘lgan omillarni oldindan aniqlash va ularni ustuvorlashtirish jarayoni. COSO talablari bo‘yicha bu jarayon tashkilotning operatsion, hisobot va qonunchilikka muvofiqlik maqsadlari bilan bevosita bog‘langan bo‘lishi lozim. O‘zbekistondagi ichki audit xizmatlari hozirda asosan muvofiqlik va moliyaviy risklarga e’tibor qaratib, operatsional risklar va qiyosiy tahlilni yetarlicha qamrab olmoqda. COSO modelida riskni baholash doimiy, ya’ni yillik emas, balki muhit o‘zgarganda ham yangilanib turishi nazarda tutiladi - bu esa joriy amaliyotdan farqlanadi.

3- komponent: Nazorat tadbirlari

Bu komponent identifikatsiya qilingan risklarga nisbatan qo‘llaniladigan konkret tartib-qoidalar va jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Nazorat tadbirlari ikki turga bo‘linadi: profilaktik (riskni oldindan bartaraf etuvchi) va kashfiyot (yuzaga kelgan muammoni aniqlash). COSO modelida nazorat tadbirlari aniqlangan risklarga mutanosib bo‘lishi va ularni to‘liq qoplaydigan tarzda loyihalashtirilishi talab qilinadi. Vazirlar Mahkamasining 416-son qarorida ichki audit xizmatlari faoliyati uchun aniqlangan buzilishlarga majburiy ko‘rsatmalar kiritish huquqi belgilangan - bu COSO nazorat tadbirlari mantig‘i bilan to‘la mos keladi.

4- komponent: Axborot va kommunikatsiya

COSO modelida axborot va kommunikatsiya komponenti ichki hamda tashqi ma’lumot almashinuvini qamrab oladi: nazorat tizimi ishlashi uchun zarur ma’lumotlar o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli tarzda yetkazilishi lozim. O‘zbekistonda “Davlat auditi” dasturiy kompleksining joriy etilishi - har bir nazorat tadbirini yagona tizimda qayd etish va hisobotlarni ommaviy e’lon qilish - mazkur komponent talablariga javob beradigan qadam sifatida baholanishi mumkin.

5- komponent: Monitoring

Monitoring - boshqa to‘rt komponentning haqiqatda ishlayotganini tekshirish va vaqt o‘tishi bilan samaradorlik darajasini o‘lchash jarayoni. COSO modelida monitoring ikki shaklda bo‘ladi: doimiy (kundalik jarayonlarga kiritilgan) va davriy (rejali tekshiruvlar). PF-6300-son Farmonda ichki audit xizmatlari chorak yakuni bo‘yicha maqsadli indikatorlar ijrosini baholashi va natijalarini ommaga e’lon qilishi belgilangan - bu monitoring komponentining institutsional asosi hisoblanadi.

O‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, COSO modelining besh komponenti O‘zbekiston davlat sektori ichki audit tizimida qisman aks etgan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro integratsiyalashgan tizim sifatida ishlashi hali to‘la shakllanmagan. COSO 2013 tizimining asosiy talabi shuki, besh komponentning barchasi bir vaqtda

mavjud va faol ishlashi hamda ular birgalikda integratsiyalashgan holda harakat qilishi lozim.

Dunyo banki ma'lumotlari bo'yicha, ichki nazorat tizimlarini rivojlangan mamlakatlarda riskga asoslangan yondashuv asosida tashkil etgan davlat idoralarida moliyaviy buzilishlar darajasi sezilarli darajada past bo'lgan. IIA ma'lumotlariga ko'ra, 195 mamlakatda 185 000 dan ortiq ichki auditor faoliyat yuritmoqda va ularning katta qismi COSO tizimiga asoslanadi. COSO 2013 tizimi endi faqat moliyaviy hisobot sohasida emas, balki barqarorlik hisoboti (ESG) va raqamli transformatsiya risklariga nisbatan ham qo'llanilmoqda - bu modelning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

O'zbekistonda 2022-yilda "Davlat auditi" dasturiy kompleksiga ulanmagan nazorat tadbirlari noqonuniy deb belgilanganligi, har yili kamida 2 ta ob'ektda fuqarolar ishtirokidagi audit o'tkazilishi majburiylashtirilganligi va ichki auditorlarni choraklik o'qitish tizimining joriy etilganligi - bularning barchasi COSO modelining axborot-kommunikatsiya va monitoring komponentlariga mos qadam sifatida baholanishi mumkin.

COSO modelining besh komponenti - nazorat muhiti, riskni baholash, nazorat tadbirlari, axborot va kommunikatsiya hamda monitoring - bir-birini to'ldiruvchi tarzda qo'llanilgandagina ichki nazorat tizimi samarali ishlaydi. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, xususan PF-6300-son Farmon va Vazirlar Mahkamasining 416-son qaroriga asosan shakllantirilgan me'yoriy baza, COSO tamoyillari bilan ko'p jihatdan uyg'unlashadi. Shu bilan birga, besh komponentning to'liq integratsiyalashgan tizim sifatida ishlashini ta'minlash, risk asosidagi ichki audit rejalashtirish metodologiyasini mustahkamlash va monitoring natijalari asosida nazorat tizimini doimiy takomillashtirish mexanizmlari yanada rivojlantirilishni talab qiladi. Xalqaro standartlar, xususan COSO modeli va IIA qo'llanmalariga tayanish bu yo'lda ishonchli yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

ICHKI AUDIT TIZIMINI IIA XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Beknazarov Zafarjon Ergachevich
Iqtisodiyot fanlari doktori,professor
Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
"Buxgalteriya hisobi" fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezis Ichki auditorlar instituti (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro kasbiy amaliyotlar doirasi (IPPF) asosida O'zbekiston ichki audit tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollarini kompleks tadqiq etadi. Maqolada IPPF tarkibiy elementlari va unga kiritilgan IIA standartlarining konseptual mohiyati,

ushbu talablarning O'zbekiston milliy huquqiy muhitiga tatbiq etilishi imkoniyatlari, amaldagi tizimning strukturaviy kamchiliklari hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan strategik yechimlar ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ichki auditning mustaqilligini, ob'ektivligini va qo‘shilgan qiymat yaratish qobiliyatini oshirishga yo‘naltirilgan amaliy takliflar bilan yakunlangan.

Kalit so‘zlar: ichki audit, IIA standartlari, IPPF, korporativ boshqaruv, mustaqillik tamoyili, qo‘shilgan qiymat, nazorat muhiti, risklarni boshqarish, moliyaviy hisobdorlik

KIRISH

Zamonaviy korporativ boshqaruv (corporate governance) tizimida ichki audit tashkilotning strategik boshqaruvini qo‘llab-quvvatlovchi va qo‘shilgan qiymat yaratuvchi funksiya sifatida tan olinmoqda. Ichki auditorlar instituti (The Institute of Internal Auditors — IIA) tomonidan ishlab Xalqaro kasbiy amaliyotlar doirasi (International Professional Practices Framework — IPPF) bugungi kunda 170 dan ortiq mamlakatda amaliyotda qo‘llanilmoqda [3]. IPPF ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi majburiy va tavsiya etiluvchi elementlardan iborat bo'lib, uning asosiy majburiy tarkibiy qismini Kasbiy amaliyot xalqaro standartlari (International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing — IIA) tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasida bozor islohotlarining chuqurlashuvi, davlat korxonalari xususiylashtirish jarayonining kengayishi va xorijiy investitsiyalar jalb etishning ustuvor vazifa sifatida belgilanishi ichki audit institutini mustahkamlashni ob'ektiv zarurat sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da davlat boshqaruvini takomillashtirish, moliyaviy nazorat va hisobdorlikni kuchaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [1]. Amaldagi ichki audit tizimi IPPF/IIA xalqaro talablariga qisman muvofiq bo‘lib, bir qator tizimiy muammolarni bartaraf etishni taqozo etmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi — ichki audit tizimini IPPF va IIA standartlari asosida rivojlantirishning asosiy muammolarini ilmiy jihatdan tasniflash, qiyosiy xalqaro tahlil o‘tkazish va ularni bartaraf etishga qaratilgan strategik takliflar ishlab chiqishdan iborat.

IPPF va ISPPIA: konseptual tuzilma va farqlari: IPPF — bu IIA tomonidan ishlab chiqilgan kompleks xalqaro kasbiy amaliyotlar doirasi, ichki audit kasbiy amaliyotining barcha jihatlarini qamrab oladi. IPPF ikki guruh elementdan tashkil topgan: majburiy elementlar (asosiy tamoyillar, etika kodeksi va IIA standartlari) hamda tavsiya etiluvchi elementlar (amaliyot qo'llanmalari, texnik maslahatlar va faoliyat qo‘llanmalari). Bu ikki guruh o‘rtasidagi farqni aniq tushunish muhim: IIA standartlari majburiy xususiyatga ega bo'lib, ulardan chetga chiqish kasbiy mos kelmaslik (non-conformance) sifatida baholanadi [3]. IIA standartlari ikki asosiy turga bo‘linadi. Atribut standartlari (1000-seriya) ichki audit xizmatining tashkiliy mustaqilligi, ob'ektivligi va kasbiy malakasiga

qo‘yiladigan talablarni belgilaydi. Jumladan, 1100-standart ichki audit xizmatining tashkiliy jihatdan mustaqilligini va auditorlarning individual ob'ektivligini kafolatlashni talab etadi. Ish samaradorligi standartlari (2000-seriya) esa audit faoliyatini rejalashtirish, bajarish, natijalar to‘g‘risida hisobot berish va monitoringni tartibga soladi. 2010-standart bo‘yicha riskga asoslangan rejalashtirish majburiy hisoblanib, bu talabning bajarilishi ichki auditni strategik boshqaruv instrumentiga aylantiradi [8]. 2017-yilda IPPF yangilangan nashrida “Ichki auditning asosiy tamoyillari” va “Ichki audit ta'rifi” majburiy elementlar qatoriga qo‘shildi. Ushbu o‘zgarish ichki auditni shunchaki tekshiruv funksiyasi emas, balki tashkilotga qo‘shilgan qiymat yaratuvchi strategik hamkor sifatida qarab, uning konseptual mohiyatini tubdan kengaytirdi.

O'zbekistonda ichki auditning huquqiy-normativ bazasi tahlili: O'zbekiston Respublikasida ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza bir necha asosiy hujjatlardan iborat. “Aksiyadorlik jamiyatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2014-yil, 372-son) kuzatuv kengashi tarkibida audit qo‘mitasini tashkil etishni nazarda tutadi [2]. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun (1996-yil, keyingi o‘zgartirishlar bilan) tijorat banklari uchun ichki audit xizmatini majburiy tashkil etishni belgilaydi. Biroq ushbu qonunlarda IPPF/IIA standartlarida nazarda tutilgan “mustaqillik tamoyili”ning to‘liq huquqiy kafolati va kuzatuv kengashiga funktsional hisobdorlik mexanizmi yetarlicha tartibga solinmagan. Prezidentning 2020-yil 22-iyundagi PF-5992-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2020–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasining moliya tizimini yanada takomillashtirish va barqarorligini ta‘minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hujjat moliyaviy nazorat mexanizmlarini modernizatsiya qilishni nazarda tutadi [4]. Farmonda belgilangan maqsadlar ichki audit institutini IPPF standartlari asosida rivojlantirishning qonuniy-huquqiy asosgini kengaytiradi. Shunday bo‘lsa-da, amaldagi normativ bazaning asosiy kamchiligi shundaki, unda “ichki audit” va “ichki nazorat” tushunchalari ko‘pincha bir-biridan farqlanmagan holda ishlatiladi. IIA standartlariga ko‘ra esa bu ikki funksiya tamoyilila alohida metodologik mohiyatga ega: ichki nazorat
— profilaktik va joriy nazorat mexanizmlari majmui, ichki audit esa ushbu mexanizmlarning mustaqil va ob'ektiv baholovchisidir.

Amaldagi muammolarning tizimiy tahlili: O‘zbekiston tashkilotlarida IIA standartlariga muvofiqlik darajasini o‘rganish asosida uchta tizimiy muammo guruhi aniqlandi. Birinchi guruh — institutsional muammolar. Ko‘plab davlat korxonalari va aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmati bosh moliyaviy direktorga to‘liq ma'muriy bo‘ysunib, kuzatuv kengashiga IIA-ning 1110-standartida belgilangan funktsional hisobdorlik mavjud emas. Bu holat auditorlik xulosalarining ob'ektivligiga bevosita tahdid soladi. Ikkinchi guruh — kasbiy malaka muammolari. IIA tomonidan beriladigan CIA (Certified Internal Auditor), CFSA (Certified Financial Services Auditor) va CRMA (Certification in Risk Management Assurance) sertifikatlariga ega mutaxassislar soni O‘zbekistonda juda cheklangan. 2021–2023-yillarda o‘tkazilgan monitoring

ma'lumotlariga ko‘ra, tashkilotlarning 18 foizida ichki audit xizmati IIA talablariga to‘liq muvofiq ravishda faoliyat yuritishi qayd etilgan [9]. Bu ko‘rsatkich Yevropa mamlakatlaridagi o‘rtacha darajadan (72%) va qo‘shni Qozog‘istondagi darajadan (54%) sezilarli past. Uchinchi guruh — metodologik muammolar. Riskga asoslangan audit rejalashtirishni (IIA 2010-standart) amaliyotda qo‘llash darajasi past; ko‘plab xizmatlarda sog‘ rejalashtirish o‘rniga takroriy, formal tekshiruvlar ustunlik qilmoqda. Bundan tashqari, ichki audit xizmatlari sifatini tashqi mustaqil baholash dasturi (QAIP — Quality Assurance and Improvement Program) O'zbekistonda deyarli qo'llanilmaydi, holbuki IIA-ning 1300-standartiga ko‘ra bu baholash majburiy hisoblanadi.

Xalqaro tajriba va qiyosiy tahlil: Xalqaro miqyosda IPPF/IIA standartlarini milliy tizimga integratsiya qilish tajribasi turli modellar orqali amalga oshirilgan. Malayziya 2004-yilda hukumat sektori uchun majburiy IIA muvofiqligini joriy etib, 2015-yilga kelib davlat korxonalarining 89 foizida sertifikatlangan ichki auditorlar faoliyat ko‘rsata boshladi [5]. Ushbu natijaga erishishda mamlakat oliy o‘quv yurtlariga CIA dasturi modullarini integratsiya qilish va sertifikatlangan mutaxassislarga soliq imtiyozlari berish ayniqsa muhim rol o‘ynadi. Qozog‘iston Respublikasi Moliya vazirligining 2018-yildagi yo‘riqnomasi bilan barcha kvazidavlat sektori korxonalariga IIA standartlari asosida ichki audit tizimini joriy etish majburiy qilindi [6]. Gruziya tajribasi esa boshqacha yo‘l — avval davlat sektorida pilot loyihalar amalga oshirib, so‘ngra xususiy sektorda ixtiyoriy muvofiqlik mexanizmini joriy etish strategiyasini namoyish etdi. MDH mamlakatlari ichida Rossiya Federatsiyasining tajribasi ham saboqlidir. 2012-yildan Rossiya Ichki auditorlar instituti IPPF standartlarini rus tiliga adaptsiya qilib nashr etib kelmoqda. 2020-yilga qadar 500 dan ortiq yirik kompaniya QAIP tashqi baholashdan o‘tgan bo‘lib, bu kompaniyalar aksiyadorlik qiymati o‘rtacha 12%–18% ga yuqori baholanganligi qayd etilgan [10].

Rivojlantirishning strategik istiqbollari va takliflar: O‘zbekistonda ichki audit tizimini IPPF/IIA standartlari asosida rivojlantirish uchun 4 ta strategik yo'nalish taklif etiladi. Birinchi yo‘nalish — normativ-huquqiy baza. “Ichki audit to‘g‘risida”gi alohida qonunni qabul qilish zarur. Ushbu qonunda ichki audit xizmatining kuzatuv kengashiga funktsional hisobdorligi (IIA 1110), bosh audit ijrochisining tayinlanishi va lavozimdan ozod etilishida kuzatuv kengashining roziligini olish talabi mustahkamlanishi lozim. Bundan tashqari, IIA standartlariga muvofiqlik darajasini tashqi baholash majburiy qilinishi va natijalar ochiq e'lon qilinishi kerak. Ikkinchi yo‘nalish — kadrlar tayyorlash. Oliy o‘quv yurtlari o‘quv dasturlariga CIA sertifikatsiya modullarini integratsiya qilish, CIA imtihon to‘lovini davlat tomonidan qoplanishi, sertifikatlangan mutaxassislarga ish haqi ustamasi va martaba imtiyozlari belgilash taklif etiladi. O‘zbekiston Ichki auditorlar assotsiatsiyasini rasmiy ravishda IIA ga a'zo sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish va unga kadrlar tayyorlash vakolatini berish ham istiqbolli yo‘nalishdir. Uchinchi yo‘nalish — sifat ta'minoti. QAIP dasturini bosqichma-bosqich joriy etish: dastlab yirik davlat korxonalari

va banklar uchun majburiy, keyinroq o‘rta biznes uchun ixtiyoriy shaklda amalga oshirish tavsiya etiladi. IIA tomonidan tasdiqlangan mustaqil baholash guruhlari (external assessors) bilan hamkorlik o‘rnatish ham bu jarayonni tezlashtiradi. To‘rtinchi yo‘nalish — texnologik integratsiya. GRC (Governance, Risk, Compliance) platformalari, sun'iy intellekt asosidagi anomaliyalarni aniqlash tizimlari va Data Analytics vositalarini ichki audit jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy IPPF talablariga javob berib, ichki auditning qo‘shilgan qiymatini real vaqt rejimida namoyon etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. IPPF — ichki audit kasbiy amaliyotining kompleks metodologik xalqaro kasbiy amaliyotlar doirasi, uning majburiy tarkibiy qismi hisoblangan IIA standartlari mustaqillik, ob'ektivlik va qo‘shilgan qiymat yaratish tamoyillarini huquqiy jihatdan majburiy talablarga aylantirib, an'anaviy tekshiruv yondashuvini tubdan o‘zgartiradi.

2. O‘zbekistondagi amaldagi huquqiy bazada “ichki audit” va “ichki nazorat” tushunchalari yetarlicha farqlanmagan, IIA-ning mustaqillik talabi (1100-seriya) va sifat ta'minoti majburiyati (1300-standart) normativ jihatdan to‘liq tartibga solinmagan — bu institutsional muammoning huquqiy ifodasi hisoblanadi.

3. Xalqaro qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, IPPF/IIA standartlarini milliy qonunchilikka majburiy integratsiya qilgan mamlakatlarda korporativ boshqaruv sifati va moliyaviy hisobdorlik darajasi sezilarli oshgan; bu jarayonning samaradorligi huquqiy majburiylik va kadrlar salohiyatini birga oshirish orqali ta'minlangan.

4. O'zbekiston uchun “Ichki audit to‘g‘risida”gi maxsus qonunni qabul qilish, CIA sertifikatsiyasi asosida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish, QAIP tashqi baholashini bosqichma-bosqich joriy etish va GRC texnologiyalarini audit jarayoniga integratsiya qilish — IPPF talablariga muvofiq tizim qurish yo‘lidagi ustuvor strategik yo‘nalishlar hisoblanadi.

ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA

Shirinov Uchqun Abduxalilovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dotsenti
Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribaning o'rni hamda ahamiyati tadqiq etilgan. Maqolada ichki auditning mustaqilligi, ob'ektivligi va risklarga asoslangan yondashuv tamoyillari alohida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, xalqaro standartlar, risk-menejment, korporativ boshqaruv, ichki nazorat, audit qo'mitasi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, moliyaviy bozorlarning murakkablashuvi va korporativ boshqaruv sohasidagi xalqaro talablarning kuchayishi ichki auditni zamonaviy tashkilot faoliyatining ajralmas elementi sifatida belgilab qo'ymoqda. Ichki audit tushunchasi XX asrning birinchi yarmida AQSh sanoat korxonalarida moliyaviy nazorat vositasi sifatida paydo bo'lgan bo'lsa-da, keyingi o'n yilliklarda uning vazifalari va strategik ahamiyati tubdan o'zgardi. Bugungi kunda ichki audit nafaqat hisobotlarning to'g'riligini tekshirish, balki tashkilotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, risklarni oldini olish va boshqaruv qarorlarini tahliliy jihatdan qo'llab-quvvatlash funksiyasini bajaradigan mustaqil professional faoliyat sohasiga aylangan.

Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) va Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimi mustahkam bo'lgan kompaniyalar investitsion jozibadorligi, moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli raqobatbardoshligi bo'yicha zaif nazorat tizimiga ega kompaniyalarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Xususan, OECD ning 2023-yilgi G20/OECD Korporativ boshqaruv tamoyillari yangilangan tahririda ichki audit funksiyasining kengash va audit qo'mitasi bilan o'zaro munosabatlari birinchi marta alohida modda sifatida mustahkamlandi — bu ichki auditning xalqaro korporativ arxitekturadagi o'rnini yanada tasdiqladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi bilan birga korporativ boshqaruv sohasida ham tizimli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2017-yildan boshlab mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida davlat aktiv larini boshqarish, xususiylashtirish jarayonlari va kapital bozorining rivojlanishi ichki audit tizimiga bo'lgan talabni keskin oshirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoniga asosan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida iqtisodiyotni liberallashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish korporativ nazorat tizimini modernizatsiya qilishni taqozo etdi.

Ichki auditning zamonaviy nazariy asoslari Lawrence Sawyer, Mortimer Dittenhofer va James Scheiner kabi olimlarning ishlarida shakllantirilgan. Sawyer (2003) o'zining fundamental asarida ichki auditni tashkilotning maqsadlariga erishishga ko'maklashuvchi mustaqil, ob'ektiv kafolat beruvchi va maslahat xizmati sifatida ta'riflaydi. Muallif ichki auditorning vazifalari nafaqat nazorat funksiyalarini bajarish, balki menejmentga qo'shimcha qiymat yaratishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi.

Van Peursem (2005) ichki auditning tashkiliy mustaqilligi masalasini chuqur o'rganib, auditor va menejment o'rtasidagi munosabatlarning audit sifatiga ta'sirini empirik tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ichki auditorlarning kengash va audit qo'mitasiga to'g'ridan-to'g'ri hisobot berish mexanizmi ularning mustaqilligini ta'minlashning eng samarali usuli hisoblanadi.

Mihret va Yismaw (2007) Efiopiya misolida ichki audit samaradorligini belgilovchi omillarni o'rganib, to'rtta asosiy determinantni aniqlagan: audit sifati,

boshqaruv qo'llab-quvvatlashi, tashkilot xususiyatlari va ichki auditning mustaqilligi. Ushbu tadqiqot rivojlanayotgan mamlakatlardagi ichki audit tizimlarini o'rganishda metodik asos sifatida keng qo'llaniladi.

Cohen va Sayag (2010) 300 dan ortiq israellik menejer va auditorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma asosida ichki auditning umumiy samaradorligi va professional malaka o'rtasidagi munosabatni empirik jihatdan asoslab bergan. Ularning xulosasiga ko'ra, ichki auditorlarning kasbiy kompetentligi va top-menejmentning qo'llab-quvvatlashi samaradorlikning eng muhim prediktorlari hisoblanadi.

Ichki Auditorlar Instituti (The Institute of Internal Auditors — IIA) 1941-yilda AQShda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda 170 dan ortiq mamlakatda 245 mingdan ortiq a'zoni birlashtiradi. IIA ichki auditning xalqaro standartlarini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi asosiy professional tashkilot sifatida tan olingan.

2017-yilda IIA tomonidan yangilangan Ichki Auditing Xalqaro Professional Amaliyot Doirasi (IPPF) ichki auditning huquqiy-me'yoriy asosini tashkil etadi. IPPF ikki toifadagi elementlardan iborat: majburiy elementlar (ichki auditning asosiy tamoyillari, ta'rifi, etika kodeksi va standartlar) va tavsiya etuvchi elementlar (amaliy yo'riqnomalar va amalga oshirish qo'llanmalari).

Caplan va Kirschenheiter (2000) IIA standartlari asosida o'tkazilgan tadqiqotida ichki auditorlarning risklarga asoslangan yondashuvini qo'llashi moliyaviy hisobot sifatini sezilarli darajada oshirishini isbotlagan. Ular 1992–2000-yillar orasida yirik AQSh kompaniyalarining 1 200 dan ortiq ichki audit hisoboti ma'lumotlarini tahlil qilib, risklarga asoslangan auditing tashkilotning umumiy nazorat samaradorligini 23% ga yaxshilashini ko'rsatgan.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan 2009-yilda nashr etilgan va 2018-yilda yangilangan ISO 31000 "Risk menejment — ko'rsatmalar" standarti barcha turdagi tashkilotlar uchun risklarni boshqarishning universal metodologik asosini belgilaydi. Ushbu standart COSO ERM doirasi bilan to'ldiruvchi ahamiyat kasb etib, xalqaro darajada qabul qilingan risklarni boshqarish terminologiyasini joriy qiladi.

Germaniyada korporativ boshqaruvning ikki palatali tizimi — Boshqaruv kengashi (Vorstand) va Kuzatuv kengashi (Aufsichtsrat) — ichki auditning tashkiliy tuzilmasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Germaniyaning Kredit tashkilotlari to'g'risidagi qonuni (Kreditwesengesetz — KWG) 25a-bandiga ko'ra, barcha kredit muassasalari alohida ichki audit bo'limiga ega bo'lishi va ushbu bo'lim Kuzatuv kengashiga bevosita hisobot berishi shart.

Germaniya Federal moliya nazorati idorasi (Bundesanstalt für Finanzdienstleistungsaufsicht — BaFin) 2017-yilda nashr etgan MaRisk (Mindestanforderungen an das Risikomanagement) qoidalariga ko'ra bank va moliya institutlari uchun ichki auditning minimal talablari qat'iy belgilangan. MaRisk bo'yicha ichki audit bo'limi mustaqil bo'lishi; risklarga asoslangan yillik reja asosida ishlashi; har

yili barcha tizimli risklarni qamrab oluvchi audit tsiklini amalga oshirishi; tizimli kamchiliklarni aniqlash va kuzatib borish mexanizmiga ega bo'lishi shart.

Singapur moliya-iqtisodiy rivojlanish qo'mitasi (EDB) va Korporativ boshqaruv va moliyaviy hisobot markazi (CGFRC) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar (2019–2022) Osiyo mintaqasidagi ichki audit amaliyotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Singapur birjasiga (SGX) kiritilgan kompaniyalar 2016-yildan boshlab majburiy tarzda ichki audit funksiyasiga ega bo'lishi shart qilib belgilandi — bu holat ichki audit tizimini rivojlantirishning Osiyo modelini shakllantirdi.

O'zbekistonda ichki auditni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlar qatoriga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-maydagi yangi tahrirdagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-fevraldagi 64-son qarori bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi; Moliya vazirligining 2018-yildagi davlat korxonalari uchun ichki auditing standartlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-apreldagi PQ-178-son qarori.

Shamsiyeva (2022) O'zbekistonning yirik aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit tizimini empirik o'rganib, bir qator tizimli muammolarni aniqladi: so'ralgan kompaniyalarning 67% ida CIA sertifikatiga ega auditor yo'qligi; kompaniyalarning 72% ida ichki audit bo'limi moliya direktori yoki bosh direktorga hisobot berishi; risklarga asoslangan auditing metodologiyasining umuman qo'llanilmasligi.

Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) ning O'zbekiston bo'yicha 2021-yilgi korporativ boshqaruv diagnostika hisoboti ichki audit sohasida uchta asosiy tavsiyani belgiladi: IIA standartlariga asoslangan milliy ichki auditing standartlarini ishlab chiqish; aksiyadorlik jamiyatlarida audit qo'mitalarini majburiy tashkil etish; ichki auditorlarning kasbiy malakasini oshirish uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy qilish.

O'zbekiston sharoitiga nisbatan xalqaro standartlarni tatbiq etishda uchta asosiy to'siq mavjud: institutsional jihat — ichki audit institutlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi; kadrlar jihati — malakali ichki auditorlarning yetishmasligi; me'yoriy jihat — xalqaro standartlar bilan to'liq muvofiq bo'lgan milliy qonunchilik bazasining mavjud emasligi.

Germaniya va Singapur tajribasini o'rganish O'zbekiston uchun bosqichma-bosqich joriy etish modelini taklif qilish imkonini beradi. Birinchi bosqichda (1–2 yil) xalqaro standartlar asosida milliy ichki auditing standartlarini qabul qilish va audit qo'mitalarini majburiy tashkil etish zarur. Ikkinchi bosqichda (2–4 yil) IIA a'zoligida O'zbekiston ichki auditorlar assotsiatsiyasini tuzish va CIA sertifikatlash tizimini joriy etish ko'zda tutiladi. Uchinchi bosqichda (4–7 yil) esa ichki audit sifatini reyting tizimi orqali baholash mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Ichki auditning xalqaro standartlari (IPPF, COSO, ISO 31000) tashkilotlarning ichki nazorat va risklarni boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy metodologik

asosi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi (AQSh, Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya) ichki audit tizimini mustaqillik, ob'ektivlik va risklarga asoslangan yondashuv tamoyillari asosida qurishning universalligini tasdiqlaydi. O'zbekistonda ichki audit tizimini rivojlantirish uchun xalqaro standartlarni milliy qonunchilik bilan uyg'unlashtirish va kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Ichki auditni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash, korporativ boshqaruv sifatini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Janubiy Koreya va Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimining mustahkamlanishi qisqa muddatda mamlakatning xalqaro korporativ boshqaruv reytinglarida o'rnini yaxshilashga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot natijalari amaliy ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekistonda korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha davlat dasturlari va aksiyadorlik jamiyatlarining ichki audit siyosatlarini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

O'tkazilgan tadqiqot, adabiyotlar sharhi va xorijiy mamlakatlar tajribasining tahlili asosida O'zbekistonda ichki audit tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish uchun quyidagi yo'nalishlarda takliflar ishlab chiqildi.

1. IIA ning GIAS 2024 asosida O'zbekistonning milliy ichki auditing standartlarini ishlab chiqish va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlash; "Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish kiritib, yirik tashkilotlarda to'liq vaqtli ichki audit bo'limini tashkil etishni qonunchilik darajasida majburiy qilib belgilash; audit qo'mitasining ichki audit rahbarini tayinlash va bo'shatishdagi rolini aniq huquqiy normalar bilan mustahkamlash.

2. Moliya instituti va iqtisodiyot universitetlarida "Ichki audit va risk-menejment" yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlarini IIA talablari asosida qayta ishlab chiqish; amaldagi ichki auditorlar uchun yiliga kamida 40 soat majburiy malaka oshirish tizimini joriy etish; oliy ta'lim muassasalarida ichki auditing bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va xalqaro jurnallarda nashr etishni rag'batlantirish.

3. Janubiy Koreya KCGS modeli asosida yirik aksiyadorlik jamiyatlari va tijorat banklari uchun har besh yilda bir marta tashqi sifat baholashdan o'tishni joriy etish; baholash natijalari asosida korporativ boshqaruv reytingini shakllantirish va ommaga e'lon qilish; ichki audit sifatini baholash uchun akkreditlangan mustaqil baholash institutini tashkil etish.

ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA

Abdusalomova Nodira Baxodirovna
TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi mudiri
Botirjonova Bonu Baxtiyor qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
“Buxgalteriya hisobi va audit” yo’nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Hozirgi kunda globallashuv sharoitida korxona va tashkilotlar faoliyatida shaffoflikni ta’minlash, moliyaviy risklarni kamaytirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishda ichki audit tizimi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ichki auditning samarali faoliyati xalqaro standartlarga asoslangan holda tashkil etilganda korxonaning moliyaviy barqarorligi va boshqaruv sifati sezilarli darajada oshadi. Shu sababli ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar hamda rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilish va ularni milliy amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar: ichki audit faoliyati, ichki auditor, xalqaro standartlar, rivojlangan davlatlar tajribasi, risklarni boshqarish.

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotning murakkablashuvi va raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi tashkilotlar boshqaruviga yangi talablar qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, ichki audit tizimi shaffoflikni ta’minlash, moliyaviy risklarni kamaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ichki audit tizimi xalqaro standartlar asosida tashkil etilganda korxona boshqaruvi samaradorligi oshadi, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi ta’minlanadi hamda risklarni boshqarish tizimi yanada takomillashadi.

Ichki audit faoliyatini tashkil etishda auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari, xususan ichki auditorlar ishini tartibga soluvchi me’yoriy talablar asos sifatida xizmat qiladi. Ushbu standartlar ichki audit jarayonida auditorning rolini belgilab berish, ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash imkonini taqdim etadi. Shu bilan birga, ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar va xorijiy tajribani chuqur o‘rganish hamda ularni milliy amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar va rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilish hamda ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Hozirgi kunda korxona va tashkilotlarning samarali faoliyati nafaqat moliyaviy natijalar, balki boshqaruv jarayonlarining shaffofligi va barqarorligiga ham bog‘liq. Shuningdek, ichki audit tizimi va auditorlik faoliyati tashkilotlarda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim mexanizm sifatida e’tirof etilmoqda.

Auditorlik faoliyati bu auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati[104]

Auditorlik faoliyati orqali korxonalar moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlaydi, risklarni aniqlaydi va boshqaruvning samaradorligini oshiradi. Auditorlik tashkilotlari esa o‘z xizmatlarini tadbirkorlik faoliyati shaklida ko‘rsatib, nafaqat standart audit tekshiruvlarini amalga oshiradi, balki ichki audit, risklarni baholash va boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha maslahatlar beradi. Auditning xalqaro standarti (AXS) 610 “Ichki auditorlar ishidan foydalanish” ga muvofiq ichki audit xizmatiga quyidagicha ta’rif berilgan.

Ichki audit xizmati bu tadbirkorlik subyekti faoliyatini baholash uchun unda tashkil etilgan yoki xizmat sifatida ko‘rsatiladigan faoliyat. Uning vazifalariga, boshqa vazifalarga qo‘shimcha ravishda, ichki nazorat adekvatligi va samaradorligini tahlil qilish, o‘rganib chiqish va monitoring qilish kiradi.[105]

Ushbu standartga ko‘ra, ichki audit xizmati tashkilot faoliyatining samaradorligini baholash va ichki nazorat tizimini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ichki nazorat jarayonlarini tahlil qilish va monitoring qilish orqali auditorlar tashkilotda risklarni boshqarish tizimini mustahkamlashga hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan ichki audit faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil etish korxonalar faoliyatining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ichki auditorlar bu Ichki audit xizmati faoliyatini amalga oshiradigan shaxslar. Ichki auditorlar ichki audit bo‘limi yoki shu kabi bo‘linma tarkibida ishlashi mumkin.[106]

Ushbu ta’rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, ichki auditorlar tashkilotda ichki audit jarayonlarini amalga oshiruvchi muhim mutaxassislar hisoblanadi. Ularning faoliyati orqali tashkilotning ichki nazorat tizimi baholanadi, risklar aniqlanadi hamda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shunimgdek, ichki auditorlarning samarali faoliyati korxona boshqaruvining barqarorligi va moliyaviy nazorat tizimining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ichki audit xizmatining maqsadlari doirasi keng bo‘ladi va tadbirkorlik subyekti tarkibiy tuzilmasi va ko‘lami, shuningdek tadbirkorlik subyekti rahbariyati va, zarur holda, boshqaruv yuklatilgan shaxslarning talablari bilan belgilanadi.[107]

---

[104] O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida” Qonuni, 25.02.2021 yil O‘RQ-677-son
[105] Auditning xalqaro standarti (AXS)610 Ichki auditorlar ishidan foydalanish
[106] Auditning xalqaro standarti (AXS)610 Ichki auditorlar ishidan foydalanish
[107] Auditning xalqaro standarti (AXS)610 Ichki auditorlar ishidan foydalanish

Ichki auditorlar tashkilotning ichki nazorat va risklarni boshqarish jarayonlarini amalga oshiruvchi asosiy shaxslar hisoblanadi. Ularning faoliyati tashkilotning tuzilishi, faoliyat ko‘lami va rahbariyat talablariga mos ravishda rejalashtiriladi, bu esa ichki audit xizmatining samaradorligini va boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur standart talablari shuni ko‘rsatadiki, ichki audit xizmati faoliyati tashkilotning tuzilmasi, faoliyat ko‘lami hamda boshqaruv ehtiyojlariga mos ravishda shakllantiriladi. Bu esa ichki audit tizimining korxona boshqaruvini takomillashtirish, risklarni kamaytirish va ichki nazorat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Shu jihatdan ichki audit xizmatining faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil etish tashkilotlarda samarali nazorat mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu yondashuv ichki audit tizimini tashkil etishda xalqaro standartlarning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Ichki audit xizmatining maqsad va vazifalari korxonaning faoliyat ko‘lami hamda boshqaruv tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib shakllantirilishi uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli ichki audit tizimini rivojlantirish jarayonida xalqaro audit standartlari talablari hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular tashkilotlarda ichki nazoratni takomillashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda korxonalarda ichki audit tizimini samarali tashkil etish, ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda boshqaruv jarayonlarini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularni milliy amaliyotga joriy etish zarur hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar hamda rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilish va ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

1. Shartnoma asosidagi xizmatlar, yangi tashkiliy tuzilmalar va xalqaro aloqalarning ortishi. Bugungi kunda Ford Motor kabi yagona monolitik korporatsiyalar ko‘pchilik hollarda tarixiy voqelik bo‘lib qolgan. Hozirgi tashkilotlarda turli shartnoma asosidagi xizmatlar, qo‘shma korxonalar va xalqaro biznes shakllari keng qo‘llanmoqda, natijada tashkiliy munosabatlar tobora murakkablashmoqda.

2. Moliyaviy hisobotdan tashqari compliance va me’yoriy talablarning oshishi. Korxonalar hozirda o‘z mamlakatlarida va xalqaro maydonda ko‘plab standartlar va qonuniy talablar asosida tizimlarni tashkil etish va boshqarish majburiyatiga ega.

3. Firibgarlikni oldini olish va aniqlashning muhimligi. Ilgari firibgarlikni aniqlash va oldini olish hisob-kitob va audit masalalari emas, balki huquqiy va xavfsizlik masalalari sifatida qaralgan. Hozir esa ichki auditorlar firibgarlikka oid masalalar bo‘yicha katta mas’uliyatga ega.

4. Riskni tushunish va baholash talabining ortishi. Ichki nazorat jarayonlarida barcha darajalarda riskni tushunish va boshqarish talab etiladi. Ilgari COSO modeli faqat

riskni tushunishni ta’kidlagan bo‘lsa, hozirgi paytda risklarni baholash va boshqarish yondashuvi ancha rivojlangan.

5. Axborot texnologiyalari (IT) va ularni jarayonlarni boshqarishda qo‘llashdagi o‘zgarishlar. COSOning dastlabki modeli paytidan beri IT texnologiyalarining roli va ulardan foydalanish jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda sezilarli darajada o‘sdi. Xavfsizlikka oid tashvishlar, xususan IT xavfsizligi. Dastlabki COSO modelida xavfsizlik masalalari kamroq e’tibor qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda Internet tahdidlari va global terrorizm xavfi ichki nazorat talablarini kuchaytirdi. Ijtimoiy tarmoqlar va simsiz tizimlar bilan bog‘liq ichki nazorat masalalari. Facebook va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali xodimlar korxona qoidalarini chetlab o‘tishi mumkin, bu esa yangi ichki nazorat choralarini talab qiladi.[108]

Yuqoridagi omillar zamonaviy tashkilotlarda ichki audit tizimining ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Tashkiliy tuzilmalarning murakkablashuvi, xalqaro talablar va me’yoriy hujjatlarning ko‘payishi, firibgarlik xavfi hamda risklarni boshqarish zarurati ichki audit faoliyatini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ichki nazorat tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu sababli ichki audit tizimini xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajriba asosida rivojlantirish tashkilotlarda samarali boshqaruvni ta’minlash, risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shartnoma asosidagi xizmatlar, qo‘shma korxonalar va xalqaro biznes munosabatlari auditorlik jarayonini ko‘proq multidimenzional qiladi. Shu sababli ichki audit tizimini rivojlantirishda COSO modeli va xalqaro standartlar asosida tashkil etish, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Xususan, IT xavfsizligi, firibgarlikni aniqlash, risklarni baholash va ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq yangi tahdidlar ichki auditorlar faoliyatini kengaytiradi. Shu jihatdan, ichki auditning xalqaro standartlar bilan uyg‘unligi va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashi korxona boshqaruvini takomillashtirish, ichki nazorat samaradorligini oshirish va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

2024 yilgi Global ichki audit standartlari davomiylik va o‘zgarishning uyg‘unligini ifodalaydi. Davomiylik shundaki, ular ichki auditning mustaqilligi, ishonchlilik (assurance) va korporativ boshqaruv tamoyillarini yana bir bor tasdiqlaydi. O‘zgarish esa standartlarda strategik qiymat yaratish, texnologiyalar va barqaror rivojlanish masalalariga ko‘proq e’tibor qaratilishi bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu standartlarning haqiqiy ta’siri faqat ularni rasmiy qabul qilish bilan emas, balki tashkilotlar ularning tamoyillarini qanday talqin qilishi, amaliyotga moslashtirishi va o‘z faoliyatiga singdirishi bilan belgilanadi. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy muammo standartlarni shunchaki rasmiy talab sifatida emas, balki boshqaruvni mustahkamlovchi,

[108] Robert R. Moeller, *Brink’s Modern Internal Auditing, 8th Edition: A Common Body of Knowledge*

risklarga bardoshlilikni oshiruvchi va barqaror qiymat yaratishni qo‘llab-quvvatlovchi amaliy tizimga aylantirishdan iborat.[109]

Ushbu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy ichki audit tizimi faqat nazorat funksiyasi bilan cheklanib qolmay, balki tashkilotning strategik boshqaruvi va barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida qaralmoqda. 2024 yilgi global standartlar ichki audit faoliyatini yangi bosqichga olib chiqib, unda raqamli texnologiyalar, risklarni boshqarish va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish kabi omillarni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Shu sababli, rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu standartlarni amaliyotga samarali joriy etish ichki audit tizimini takomillashtirish, boshqaruv shaffofligini oshirish hamda tashkilotlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar ichki audit tizimini milliy amaliyotga moslashtirishda xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribani chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa ichki auditning sifatini oshirish, tashkilot boshqaruv tizimini takomillashtirish va risklarni samarali boshqarish imkonini beradi.

Ichki audit funktsiyasi rivojlanib borgan sari, uning yangi rollarini aks ettira oladigan ichki auditning zamonaviy ta'rifiga ehtiyoj paydo bo'ldi. Xavfga asoslangan ichki audit ichki audit tushunchalarini xavflarni boshqarish bilan bog'laydigan yondashuv sifatida paydo bo'ldi. Uning maqsadi tashkilot rahbariyatiga xavflarni boshqarish jarayonlarining yetarliligi va samaradorligini tekshirish, baholash va hisobot berish hamda xavflarga qarshi kurashish uchun xavflarni boshqarish metodologiyalari va nazorat vositalarini aniqlash, baholash va qo'llash bo'yicha tavsiyalar va ko'rsatmalar berish orqali xavflarni samarali boshqarish kafolatini berishdir.[110]

Riskga asoslangan ichki audit nafaqat nazorat vazifasini bajaradi, balki tashkilot maqsadlariga erishishni ta’minlovchi strategik instrument sifatida ham ishlaydi. Bu ichki auditning faqat moliyaviy yoki operatsion xatolarni aniqlash bilan cheklanmaydi, balki risklarni oldindan aniqlash va boshqarish orqali tashkilotning umumiy samaradorligini oshiradi. Riskga asoslangan audit nafaqat muammolarni aniqlashga xizmat qiladi, balki strategik qarorlar qabul qilish, siyosat va rejalashtirish jarayonlarini optimallashtirishga ham yordam beradi. Bu orqali ichki audit tashkilotga qo‘shimcha qiymat kiritadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda ichki audit tizimi tashkilotlar faoliyatining samaradorligini ta’minlashda muhim boshqaruv instrumenti hisoblanadi. Ichki audit orqali moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi ta’minlanadi, ichki nazorat tizimi baholanadi hamda tashkilot faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar aniqlanib, ularni boshqarish mexanizmlari takomillashtiriladi.

[109] A Comparative Analysis of the 2017 and 2024 Global Internal Auditing Standards and Their Implementation Challenges in Developing Countries: Toward Adapting to Change

[110] Fekir Nadia, Fekir Samia va Chikhi Billal — “Science, Education and Innovations in the Context of Modern Problems”

Shu bilan birga, ichki auditorlar tashkilotda nazorat, tahlil va monitoring jarayonlarini amalga oshirish orqali boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki audit tizimini samarali tashkil etish va rivojlantirishda xalqaro standartlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari hamda zamonaviy ichki audit tamoyillari tashkilotlarda shaffof boshqaruvni ta’minlash, ichki nazorat samaradorligini oshirish va risklarni samarali boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, tashkiliy tuzilmalarning murakkablashuvi, xalqaro biznes aloqalarining kengayishi, me’yoriy talablarning ortishi, firibgarlik xavfining kuchayishi hamda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ichki audit tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

2024 yilgi global ichki audit standartlari esa ichki audit faoliyatining yangi bosqichini belgilab, unda strategik qiymat yaratish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash, risklarni boshqarish hamda barqaror rivojlanish masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu esa ichki auditning faqat nazorat funksiyasi bilan cheklanib qolmay, balki tashkilotning strategik rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv vositasi sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli ichki audit tizimini rivojlantirish jarayonida xalqaro audit standartlari, COSO modeli hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish va ularni milliy amaliyotga moslashtirib joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv tashkilotlarda boshqaruv shaffofligini oshirish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish, risklarni samarali boshqarish hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada ichki audit tizimi korxona va tashkilotlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

INTOSAI – XALQARO MOLIYAVIY MONITORING TIZIMINING ASOSIY USTUNI

Xamitillayeva Jasmina Jaxongir qizi
TDIU Moliya fakulteti talabasi

Moliyaviy monitoring deganda, moliyaviy operatsiyalar va harakatlarning belgilangan qoidalarga muvofiqligini ta’minlash hamda har qanday qonunbuzarliklarni aniqlash maqsadida ularni doimiy kuzatish, tahlil qilish va baholash tushuniladi. Bu jarayon mablag‘larning qanday taqsimlanishi va sarflanishini kuzatib borish orqali firibgarlik, jinoiy daromadlarni legallashtirish yoki resurslarning noto‘g‘ri ishlatilishini fosh etishda muhim rol o‘ynaydi.

Davlat mablag‘lariga nisbatan qo‘llanilganda, moliyaviy monitoring davlat moliyasini boshqarishning asosiy vositasiga aylanadi. U davlat byudjetlari, grantlar va boshqa moliyaviy resurslarning shaffof, samarali va belgilangan maqsadlarda ishlatilishini kafolatlaydi. Monitoring mexanizmlari davlat xarajatlarining qonunchilik va

siyosiy normalarga muvofiqligini tekshirib, korruptsiya va moliyaviy noto‘g‘ri boshqaruv xavfini kamaytiradi.

Bunday monitoringni oliy audit institutlari (SAI), moliya vazirliklari va ichki nazorat organlari auditlar, hisobotlar va real vaqt rejimidagi ma’lumotlar tahlili orqali amalga oshiradilar. Ushbu sa’y-harakatlar nafaqat davlat boyligini himoya qiladi, balki jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi, iqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi va soliq to‘lovchilar pullarini boshqarishda javobgarlikni ta’minlaydi.

Oliy audit institutlari (SAI) davlat hisobdorligi tizimining asosiy ustunlari bo‘lib, shaffoflik, halollik va davlat mablag‘laridan mas’uliyatli foydalanishni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Hukumat daromadlari va xarajatlarining mustaqil auditini o‘tkazish orqali SAIs hukumat va fuqarolar o‘rtasida ishonchni mustahkamlaydi. Biroq, bu institutlarning samaradorligi ko‘p jihatdan ularning siyosiy yoki tashqi ta’sirlardan xoli mustaqil faoliyat yurita olish qobiliyatiga bog‘liq.

Oliy audit institutlarining xalqaro tashkiloti (INTOSAI) butun dunyo bo‘ylab SAIs uchun global soyabon tashkilot hisoblanadi. U SAIni yo‘naltirish, qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlashda markaziy o‘rin tutadi (1-jadval).

1- jadval

INTOSAI faoliyatining Oliy audit institutlarini (SAI) qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlashdagi roli

INTOSAI vazifasi	SAI bilan bog‘liqligi
Global standartlarni belgilash	INTOSAI SAI faoliyatini yo‘naltiruvchi tamoyillarni (masalan, Lima deklaratsiyasi, Mexiko deklaratsiyasi) ishlab chiqadi.
SAI mustaqilligini targ‘ib qilish	INTOSAI-P 10 hujjati orqali SAI mustaqilligini saqlashning 8 asosiy ustunini belgilaydi.
Salohiyatni rivojlantirish	SAIsga audit sifati va institutsional samaradorlikni oshirishda yordam berish uchun treninglar, vositalar va qo‘llab-quvvatlash taklif etadi.
Globaltendensiyalarni kuzatish	Butun dunyoda SAI faoliyati va mustaqilligini kuzatish uchun hisobotlar (masalan, SAI holatini umumlashtirish hisoboti) e’lon qiladi.
SAI himoyasi uchun advokatlik	SIRAM va SIRC kabi mexanizmlar SAI mustaqilligi va avtonomiyasiga tahdidlarni bartaraf etishga qaratilgan.
Bilim almashishni rag‘batlantirish	A’zo SAIs o‘rtasida hamkorlik, tadqiqot va ilg‘or tajriba almashinuvini osonlashtiradi.

INTOSAI SAI yaxlitligi, mustaqilligi va kasbiy mukammalligining asosiy himoyachisi va qo‘llab-quvvatlovchisi bo‘lib, oliy audit institutlarining butun dunyo bo‘ylab davlat moliyaviy nazoratini samarali amalga oshirishini ta’minlaydi.

SAI mustaqilligi huquqiy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali tushunchadir. "De jure" mustaqillik audit institutlarining institutsional va operatsion avtonomiyasini belgilovchi rasmiy huquqiy kafolatlarga ishora qiladi. "De facto" mustaqillik esa SAIning amalda xolis faoliyat yuritish qobiliyatini qamrab oladi. SAIs

o‘z vakolatlarini samarali bajarishi uchun ikkala jihat ham himoya qilinishi va qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Oliy audit institutlariga mustaqillik berish maqsadida INTOSAI ularning avtonomiyasi va samaradorligini ta’minlash uchun muhim bo‘lgan beshta asosiy tamoyilni belgilaydi (2-jadval).

2- jadval

INTOSAI tamoyillari (INTOSAI-P) ro‘yxati

Kod	Nomi	Tavsifi
INTOSAI-P 1	*Lima deklaratsiyasi: Audit bo‘yicha yo‘riqnomalar tamoyillari (1977)*	Mustaqil va samarali davlat auditining asos tamoyillarini belgilaydi.
INTOSAI-P 10	*Mexiko deklaratsiyasi: SAI mustaqilligi to‘g‘risida (2007)*	SAI mustaqilligini ta’minlashning sakkizta asosiy tamoyilini aniqlaydi.
INTOSAI-P 12	*SAIning qiymati va foydalari – Fuqarolar hayotida farq yaratish*	SAIs shaffoflik, hisobdorlik va manfaatdor tomonlar ishonchi orqali qanday qo‘shimcha qiymat yaratishini ta’kidlaydi.
INTOSAI-P 20	*Shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari*	SAIda ochiqlik, jamoatchilik bilan muloqot va axloqiy me’yorlarni targ‘ib qiladi.
INTOSAI-P 50	*SAIning yurisdiksiyafaoliyati tamoyillari*	Yurisdiksiya yoki sanktsiya qo‘llash vakolatiga ega SAIs uchun yo‘riqnoma beradi.

Mustaqil audit institutlarining ahamiyati qariyb ellak yil muqaddam e’tirof etilgan. Bu boradagi muhim bosqich 1977-yilda Oliy audit institutlarining IX Xalqaro Kongressida qabul qilingan Lima deklaratsiyasi bo‘lib, unda mamlakatlar qonuniy kafolatlangan mustaqillikka ega SAIs tashkil etish zarurligi ta’kidlangan. Ushbu asos hujjat davlat sektori auditi bo‘yicha global normalarga zamin yaratdi.

2007-yilda Mexiko deklaratsiyasi (INTOSAI-P 10) ushbu tamoyillarni yanada mustahkamladi va SAI mustaqilligining sakkizta asosiy ustunini kiritdi (3-jadval).

3- jadval

Oliy audit institutlari (SAI) mustaqilligini ta’minlovchi asosiy tamoyillar

№	Tamoyil	Tavsifi
1	Institutlarning mavjudligi	Davlat moliyaviy boshqaruvini nazorat qilish uchun tashkil etilgan kuchli va ishonchli audit organlari.
2	Huquqiy asosning ahamiyati	SAI mustaqilligini kafolatlaydigan aniq va mustahkam qonuniy yoki konstitutsiyaviy baza.
3	Tegishli inson va moddiy resurslar	SAIni samarali va tashqi nazoratsiz faoliyat yuritishi uchun yetarli kadrlar va moliyalashtirish.
4	Audit masalalarinitanlashda avtonomiya	Xavf, jamoat manfaatlari yoki kasbiy mulohazalarga asoslangan holda qaysi sohalarni audit qilishni tanlash erkinligi.

5	Auditlarni rejalashtirish	Audit jarayonlarini tashqi aralashuvsiz mustaqil rejalashtirish va tuzish vakolati.
6	Auditorlarning lavozim kafolati	Auditorlarni ishdan bo‘shatish yoki ularning ishiga putur etkazadigan bosimlardan himoya qilish.
7	Ma’lumotlardan to‘sqinliksiz foydalanish	Audit maqsadlari uchun zarur bo‘lgan har qanday davlat ma’lumotlari, hujjatlari yoki tizimlariga kirish huquqi.
8	Audit natijalari to‘g‘risida hisobot berish huquqi	Audit xulosalarini tsenzurasiz yoki siyosiy bosimsiz ochiq e’lon qilish va taqdim etish erkinligi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 66/209 (2011) va 69/228 (2014) rezolyutsiyalari ham SAIning hisobdorlikni rivojlantirishdagi muhim hissasini tan olgan va a’zo davlatlarni SAIning mustaqilligi va salohiyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga chaqirgan.

Ushbu yutuqlarga qaramay, dunyoning ko‘plab SAIs hali ham o‘z avtonomiyalarini saqlab qolishda jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Qonunchilikda ko‘pincha qoidalar mavjud bo‘lsa-da, ularga siyosiy bosimlar yoki ma’muriy to‘siqlar to‘sqinlik qiladi. Jahon bankining SAI mustaqillik indeksi (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, baholangan 118 mamlakatdan faqat 19 tasida mustaqillik darajasi yuqori yoki juda yuqori deb baholangan, eng zaif sohalar esa moliyaviy va kadrlar avtonomiyasi sifatida qayd etilgan.

INTOSAI o‘zining 2023–2028 yillarga mo‘ljallangan strategik rejasida SAI mustaqilligini targ‘ib qilishni ustuvor vazifa qilib belgilagan. E’tiborga molik tashabbuslardan biri – SAI Mustaqilligi Resurs Markazi (SIRC) va SAI Mustaqilligini Tezkor Advokatlik Mexanizmi (SIRAM) ning tashkil etilishi. 2019-yildagi tajriba bosqichidan boshlab, SIRAM institutsional avtonomiyaga tahdidlarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynab, Shimoliy Makedoniya, Polsha, Myanma va San-Tome va Prinsipi kabi mamlakatlarga yordam ko‘rsatgan.

Oliy audit institutlarining mustaqilligi shunchaki yetakchi tamoyil emas – bu samarali demokratik boshqaruvning asosiy talabidir. SAIning tashqi ta’sirlarsiz faoliyat yuritishini ta’minlash jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi, davlat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi va shaffoflikni oshiradi. INTOSAIning 2018-yilgi yo‘riqnomasida ta’kidlanganidek, "mustaqillik tasodifan yuzaga kelmaydi; u rejalashtirish, qat’iyatlilik va uzoq muddatli sadoqatni talab qiladi."

Shu bois, global va milliy rahbarlarning nafaqat SAI mustaqilligini ma’qullashi, balki uni faol himoya qilishi mas’uliyati bor. SAIning mustaqilligini kuchaytirish hisobdorlikni kuchaytirish, demokratiyani himoya qilish va butun dunyo fuqarolarining manfaatlarini ta’minlash bilan barobardir.

XALQARO TAJRIBA ASOSIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Kuvatova Oliya Sheraliyevna
Katta o‘qituvchi, PhD
"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
Sultanova Komila Qudrat qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
“Moliya” yo‘nalishi 1-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini xalqaro tajriba asosida oshirish yo‘llarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda korporativ boshqaruv standartlari, moliyaviy shaffoflik, ESG tamoyillari va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali investorlar ishonchini oshirish va kapital bozorini rivojlantirish masalalari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, jumladan: mustaqil direktorlar institutini kuchaytirish, ESGni joriy etish, investorlar bilan faol kommunikatsiya tizimini yaratish. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston fond bozorini rivojlantirish va sarmoyadorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Aksiyadorlik jamiyati, investitsion jozibadorlik, korporativ boshqaruv, ESG, moliyaviy shaffoflik, kapital bozori.

Abstract: This study is devoted to exploring ways to enhance the investment attractiveness of joint-stock companies in Uzbekistan based on international experience. The research analyzes the improvement of investor confidence and the development of the capital market through the implementation of corporate governance standards, financial transparency, ESG principles, and digital technologies. Based on the findings, practical recommendations were developed, including strengthening the independent directors’ institute, implementing ESG, and establishing an active investor communication system. The results contribute to the development of Uzbekistan’s stock market and strengthening investor confidence.

Keywords: Joint-stock company, investment attractiveness, corporate governance, ESG, financial transparency, capital market.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini zamonaviy korporativ boshqaruv prinsiplariga muvofiq amalga oshirish, fond bozorida ochiqlikni mustahkamlash va investitsiyalarni jalb etish orqali ularning investitsion jozibadorligini oshirishni davlat siyosatining ustuvor vazifasi deb belgiladi.[1] Mazkur strategik yo‘nalishlar 2025-yilda

ham davom etayotgan global iqtisodiy transformatsiya va sarmoyadorlar talablarining kuchaygan sharoitida ayniqsa dolzarbdir.

Bugungi kunda investitsion jozibadorlikning asosiy indikatorlari — kompaniya aktivlari, kapital bozorga jalb qilingan mablag‘lar, korporativ boshqaruv ko‘rsatkichlari va fond bozori likvidligi — xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan muntazam ravishda monitoring qilinadi. Jahon bozorida samarali korporativ boshqaruv, shaffof moliyaviy hisobotlar va ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining amalga oshirilishi investorlar uchun ijobiy signallar sifatida baholanadi.[2] Xalqaro tajribaga ko‘ra, samarali boshqaruv va shaffoflik fond bozorida kompaniyalar kapitalini keng jalb etadi — bu esa aksiyadorlik jamiyatlarining umumiy investitsion jozibadorligini oshiradi.[3]

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishning asosiy yo‘llari quyidagilar: 1) korporativ boshqaruv standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish; 2) Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ni joriy etish orqali moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish; 3) investorlar bilan kommunikatsiyani mustahkamlash va ESG tamoyillarini tatbiq etish; hamda 4) raqamli moliyaviy infratuzilmani rivojlantirishdir.[4] O‘zbekiston sharoitida ham biznes subyektlarining kapital bozorida faol ishtiroki bu tamoyillarni amaliyotga tatbiq etishga bog‘liq.



1-rasm. O‘zbekistonning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya pozitsiyasi statistikasi (mln AQSh dollari).

Bu diagramma O‘zbekistonning xalqaro investitsiya pozitsiyasida aksiyadorlik jamiyatlariga bog‘liq bo‘lgan ta’sis jamg‘armasida ulush instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari miqdori 2023–2024 yillarda o‘sib borayotganligini aks ettiradi — bu esa milliy korporativ bozorning investitsion jozibadorligi ortayotganidan dalolat beradi.[5] Bu o‘sish FDI (chet el to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari) hamda milliy investorlarning kapital bozoriga bo‘lgan ishonch bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston bazaviy statistik ma’lumotlariga ko‘ra, umumiy aktivlar hajmi va sof foyda ko‘rsatkichlari barqaror o‘sish tendensiyasini saqlab kelmoqda. Masalan, tahlil qilingan bank statistikasi asosida 2019–2025 yillar davomida jami aktivlar sezilarli darajada o‘sdi: 31 trillion so‘mdan 87 trillion so‘mgacha bo‘ldi, ROE ko‘rsatkichi esa 7,70% dan 13,91% gacha oshdi, bu esa moliyaviy subyektlarning rentabelligi va investorlar uchun qaytishdarajasining yaxshilanganini ko‘rsatadi.[6] Bu tendensiya aksiyadorlik jamiyatlarining umumiy iqtisodiy ahamiyatini oshiradi va ularni kredit hamda kapitallash darajasini yaxshilaydi.

Xalqaro va milliy statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsion jozibadorlikni oshirish uchun korporativ boshqaruvda xalqaro standartlar, shaffof moliyaviy hisob va hisobot, ESG tamoyillarini tatbiq etish va investorlar bilan faol kommunikatsiya tizimini joriy etish zarurdir. O‘zbekiston amaliyotiga quyidagicha tavsiyalar ishlab chiqiladi: birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida mustaqil direktorlar institutini mustahkamlash; ikkinchidan, ESG va IFRS standartlarini majburiy bosqichlarda tatbiq etish; uchinchidan, moliyaviy shaffoflikni oshiruvchi onlayn platformalar orqali investitsiyalarni jalb etishni *q*o‘llab-quvvatlash; to‘rtinchidan, investorlar huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlarni qonuniy mustahkamlash.[7]

Xulosa qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun xalqaro tajriba va milliy statistik tendensiyalar integratsiya qilinishi lozim. Bu jarayon nafaqat kompaniyalar darajasini, balki O‘zbekiston kapital bozori raqobatbardoshligini ham sezilarli darajada oshiradi. Uzoq muddatli istiqbolda bu strategiyalar xorijiy sarmoyadorlar ishonchini mustahkamlash va mahalliy investorlarni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

MAJBURIYATLARNI HISOBGA OLISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI AMALIYOTDA QO’LLASHNING IQTISODIY TIZIMDAGI AHAMIYATI

Ikromova Odinaxon Orif qizi
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti, tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada buxgalteriya hisobida xalqaro standartlardan foydalanishning ahamiyati va zarurligi, majburiyatlar hisobini yuritishda xalqaro standartlardan foydalanishning ahamiyati, ushbu sohani rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan vazifalar, buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo’nalishlari va bu orqali jahon bozoriga aniq va ishonchli ma’lumotlar bilan kirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimini yanada ko’paytirish masalalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-

tadbirlari to’g’risida”gi qarori (PQ-282, 2025) 2025 yil 15 sentabrdagi PQ-282 qarori yurtimizda MHXSni rivojlantirish uchun muhim asos bo’lganligi haqida keltirib o’tiladi.

Kalit so‘zlar: MHXS, BHMS, xorijiy investitsiyalar, yashil iqtisodiyot, yo’l xaritasi.

Mamalakatimiz iqtisodiyotining fundamental sohalaridan bir bu buxgalteriya bo’lib xizmat qiladi. Buxgalteriyaning shaffof va barcha uchun tushunarli bo’lishini ta’minlash uchun esa, hozirgi kunda 140 dan ortiq mamlakat tan olgan xalqaro standartlardan foydalanish zarur hisoblanadi. Ya’ni, bu orqali biz butun dunyo maydoniga chiqish va barcha uchun tushunarli va taqqoslanuvchi ma’lumotlarga ega bo’lamiz. Natijada esa iqtisodiyotimizning yanada samaradorligi oshishiga, investorlar oqimining ko’payishiga ega bo’lamiz. Shu sababli O’zbekiston ham boshqa mamlakatlar singari xalqaro standartlardan foydalanish va uni tizimda qo’llash uchun bir qancha ishlarni amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori (PQ-4611, 2020) ushbu soha rivojlanishiga qilingan asosiy qadamlardan biri bo’lgan bo’lsa, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori (PQ-282, 2025) soha rivojiga bo’lgan vositachi bo’lib xizmat qildi. Ushbu qarorga muvofiq, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish bo‘yicha respublika komissiyasi tuzilishi va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanishi ta’kidlandi. Ya’ni:

- mamlakatimizda MHXSni sifatli joriy qilish, tadbirkorlik subyektlariga mazkur jarayonda uslubiy ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- milliy qonunchilik hujjatlarini MHXSga moslashtirish bo‘yicha manfaatdor vazirlik va idoralarning hamkorligini ta’minlash va zarur huquqiy mexanizmlarni shakllantirish;
- xalqaro ta’lim standartlari asosida MHXS bo‘yicha kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va ularni amaliyotga jalb etishning tizimli choralarini belgilash;
- moliyaviy hisobot sifatini oshirish, uning xalqaro darajada tan olinishini ta’minlash va mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish.

Shuningdek, moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo’yicha “Yo’l xaritasi” ishlab chiqildi. Unga ko’ra,

- Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni muvofiqlashtirish va ushbu jarayonda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda uslubiy jihatdan ta’minlash;
- MHXSni joriy qilishda soliq munosabatlarini tartibga solish;
- Qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish;

- Moliyaviy hisob tizimini zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda malakali kadrlar bilan ta’minlash;

- MHXSga o‘tishni monitoring qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilab olindi.

Mamlakatimizda bir necha yillardan beri buxgalteriya sohasi rivoji uchun bir qancha vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda. Quyida buxgalteriya sohasining rivoji uchun 2024-yilda qilingan ishlar bilan tanishib chiqamiz:



Natijada 15 ta BHMS, 1 ta kontseptual asos, 4 ta nizom jami 20 tabuxgalteriya hisobining hujjatlari yangi tahrirda ishlab chiqilib, davlat ro’yxatidan o’tkazildi.

Quyidagi jadvalda MHXS talablariga muvofiqlashtirilgan BHMS larni keltirib o’tamiz:

1-jadval

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS)uyg’unlashtirilgan (4 ta) Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS)

Yangi tahrirda ishlab chiqilgan BHMS	MHXSga uyg’unlashtirilgan standartlar
1-sonli BHMS «Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati» (2024 yil 6 avgust, r/r. 3544);	1-son “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” (IAS (IFRS) 1)
5- sonli BHMS «Asosiy vositalar», (2024 yil 9 avgust, r/r. 3546);	16-son “Asosiy vositalar” (IAS (IFRS) 16)
22-sonli BHMS «Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi» (2024 yil 19 dekabr, r/r. 3587);	21-son “Valuta kurslaridagi o’zgarishlarning ta’sirlari) (IAS (IFRS) 21)
9-son BHMS «Pul oqimlari to’g’risidagi hisobot» (27.12.2024 yil, r/r. 3592)	7-son “Pul mablag’lari harakati to’g’risidagi hisobot” (IAS (IFRS) 7)

Shuningdek, Joriy yilning 16-oktabr kuni MHXS va Barqarorlik standartlarini ishlab chiqadigan va tasdiqlaydigan mustaqil xalqaro tashkilot – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari fondining (IFRS Foundation) normativ-huquqiy masalalar bo‘yicha menejeri Anna Hemmant, Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari kengashi (IASB) texnik direktori Mishel Sansom, MHXSni joriy qilishni qo‘llab-quvvatlash menejeri Alice Chiang hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi Buxgalteriya hisobi metodologiyasi va auditorlik faoliyatini tartibga solish boshqarmasi boshlig‘i Otabek Barakayev hamda boshqarma xodimlari o‘rtasida onlayn uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Mazkur uchrashuvda dastlab, MHXS Fondi vakillari tomonidan O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisob tizimiga xalqaro standart va zamonaviy talablarni keng joriy qilish, biznes hisobotlarini raqamlashtirish va “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asosan tayyorlash, buxgalteriya hisobi sohasini tizimlashtirish, MHXSga o‘tishni rag‘batlantirish va qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish yuritish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yuqori baholandi. Shuningdek, xalqaro miqyosda MHXS standartlarni qo‘llaydigan 169 ta yurisdiksiyalarning 17 tasida Barqarorlik standartlarini joriy qilish ishlari olib borilayotgani va O‘zbekiston eng old davlatlar qatorida ushbu standartlarni joriy qilishga kirishgani ta’kidlab o‘tildi.

Sohada amalga oshirilayotgan ishlar ijrosini ta;minlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan buxgalteriya hisobi va audit sohasi bo‘yicha vazirlik vakillari, malakali mutaxassis va amaliyotchilar, ilmiy soha vakillari, xorijiy va mahalliy ekspertlardan iborat Metodologik kengash tashkil etildi va uning tarkibi hamda ish reglamenti tasdiqlandi. Metodologik kengashning asosiy vazifalari buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati sohasidagi milliy qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro talab va standartlar hamda ilg‘or xalqaro tajribaga moslashtirish bo‘yicha takliflar berish, buxgalteriya hisobi uslubiyotini shakllantirish va auditorlik faoliyati sohasidagi masalalar bo‘yicha uslubiy tavsiya berishdan iborat. Shu bilan birga, kengash soha va tarmoqlar kesimida MHXS asosida hisob yuritish va moliyaviy hisobot tayyorlash bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqadi. Metodologik kengashning tashkil etilishi buxgalteriya hisobi va audit sohasida xalqaro standartlarga o‘tishni jadallashtirish, qarorlar va normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro talablar darajasiga olib chiqish hamda sohaga doir mutaxassislarning malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkunki, mamlakatimiz iqtisodiyotining asosini tashkil etadigan buxgalteriya sohasida soha rivoji uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xalqaro standartlarning joriy etilishi orqali biz xalqaro miqyosda o’z reytingimizni yanada yuqoriga ko’tarishimiz, hisobotdan foydalanuvchilar ko’lamini kengaytirishimiz hamda ushbu hisobotlar shaffofligini oshirishga erishishimiz, hamda xalqaro globallashuv sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishimiz mumkun bo’ladi.

DAVLAT MUASSASALARIDA ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI OSHIRISH: XALQARO YONDASHUVLAR VA MILLIY AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Sobirov Hayotbek Farxod o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi
Axunova Shoxistaxon Nomanjanova
FDTU, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat boshqaruvi tizimida ichki audit instituti faoliyatini yuksaltirishning ilg‘or xorijiy tendensiyalari fundamental darajada tahlil qilingan. Xususan, nazorat tadbirlarini xalqaro mezonlar asosida transformatsiya qilish, auditorlik tekshiruvlarida zamonaviy raqamli texnologiyalar salmog‘ini oshirish hamda tizim sub’ektlarining institutsional mustaqilligini ta’minlovchi drayverlar tadqiq etilgan.Malayziya, Janubiy Afrika Respublikasi va Germaniya kabi mamlakatlarning muvaffaqiyatli keyslari misolida, moliyaviy monitoring samaradorligini ta’minlovchi mexanizmlar va ularning ijobiy natijalari qiyosiy o‘rganilgan. Mazkur xalqaro andozalardan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonning davlat sektori uchun ichki audit sifatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha konseptual taklif va amaliy tavsiyalar majmuasi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari davlat apparatida hisobdorlik madaniyatini yuksaltirish, qat’iy byudjet intizomini qaror toptirish hamda g‘azna mablag‘laridan foydalanish unumdorligini optimallashtirishga yo‘naltirilgan.

Kalit so’zlar: ichki audit, davlat sektori, xalqaro tajriba, xalqaro standartlar, auditor mustaqilligi, texnologik integratsiya, moliyaviy intizom.

Ichki audit — bu tashkilotning ichki nazoratini baholovchi va samaradorligini oshirishga qaratilgan mustaqil faoliyatdir. Xalqaro tajribaga ko'ra, ichki audit xatarlarni boshqarish, korrupsiyani kamaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, hamda davlat va xususiy moliyaviy manbalar hisobidan ajratilayotgan mablag'lar ustidan nazoratni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligini kafolatlash hamda g‘azna mablag‘larining maqsadli va shaffof sarflanishini nazorat qilishda davlat auditi tizimi fundamental ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati mexanizmlarini mustahkamlash va audit institutini zamon talablari darajasida takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, xalqaro audit standartlarini (ISSAI) milliy tizimga chuqur integratsiya qilish va ularga tayangan holda nazorat tizimini modernizatsiyalash strategik vazifa sanaladi.Xalqaro metodologiyalarni amaliyotga joriy etish nazorat tadbirlarining sifat koeffitsiyentini oshirish, tizimli xatoliklarni minimallashtirish hamda moliyaviy hisobotlarning verifikatsiyasi (haqqoniyligi) darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu sababli, mahalliy audit tizimini

rivojlantirishda ilg‘or xorijiy modellarni qiyosiy o‘rganish va ularning samarali jihatlarini milliy amaliyotga moslashtirish dolzarbligicha qolmoqda.

Davlat auditi tizimi — bu davlat moliyaviy resurslaridan unumli foydalanishni ta’minlash, byudjet parametrlarining qat’iy ijrosini nazorat qilish va moliyaviy oqimlar shaffofligini kafolatlashga yo‘naltirilgan institutsional nazorat mexanizmlarining yaxlit majmuasidir [1].

Davlat sektorida ichki audit instituti nafaqat an’anaviy moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, balki zamonaviy boshqaruvning muhim elementlari bo‘lgan risklarni identifikatsiya qilish va boshqarish, ichki nazorat tizimlarining verifikatsiyasini baholash hamda strategik vazifalarni amalga oshirishda rahbariyatga tahliliy qarorlar qabul qilish uchun axborot ko‘magini berish funksiyalarini bajaradi.Shu sababli, ichki audit mexanizmlarini global tan olingan standartlar (IIA) va rivojlangan mamlakatlarning muvaffaqiyatli modellariga tayangan holda modernizatsiyalash bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas strategik dolzarb masalasiga aylandi.

Davlat boshqaruvi tizimida ichki audit instituti samarali moliyaviy menejmentni shakllantirishning strategik poydevori hisoblanadi. Mazkur tuzilma davlat g‘aznasi mablag‘laridan foydalanishda tejamkorlik va unumdorlikni ta’minlash, byudjet intizomini qat’iylashtirish hamda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan uzluksiz monitoring olib borish funksiyasini bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-sonli qarori bilan moliyaviy nazorat tizimini modernizatsiyalash va davlat xarajatlarining rentabelligini oshirish jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarildi[2]. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-sonli qarori ichki audit xizmatlarining funksional vazifalarini delimitatsiya qilish, kadrlar malakasiga doir mezonlarni belgilash hamda tizimning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini unifikatsiya qilishda asosiy tayanch bo‘lib xizmat qildi[3].

Davlat boshqaruvi tizimini optimallashtirish va unumdorlikni oshirishda ichki audit fundamental instrument vazifasini o‘taydi. Global ilmiy izlanishlar ushbu institutni joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha turli konseptual yondashuvlarni ilgari suradi. Quyida mazkur sohadagi nufuzli tadqiqotlar va ularning yakuniy xulosalari umumlashtirilgan:

El-Tahan rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, xususan, Misr tajribasini o‘rganar ekan, davlat boshqaruvining sifatini ta’minlashda auditorlarning institutsional muxtoriyati va ularning doimiy professional malaka oshirish jarayonlarini eng zaruriy shartlar sifatida belgilab bergan [4].

Oosthuizen va hammualliflar Janubiy Afrika misolida ichki audit imkoniyatlarini baholash modelini (IA-CM) tadbiq etganlar. Ularning xulosasiga ko‘ra, audit xizmatlarining potensialini muntazam ravishda diagnostika qilish va takomillashtirish indikatorlarini aniqlash tizim samaradorligini kafolatlovchi bosh omil hisoblanadi [5].

O‘zbekistonda davlat auditi faoliyati quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi [6]:

1. Davlat byudjeti mablag‘lari hamda davlat mulkidan foydalanish jarayonini nazorat qilish.
2. Moliyaviy hisobotlarda aniqlik, ishonchlilik va ochiqlikni ta’minlash.
3. Davlat idoralari hamda tashkilotlarda moliyaviy intizomni kuchaytirish.
4. Qonunbuzarlik holatlarini aniqlash va ularning kelib chiqishining oldini olish.

Enofe va boshqalar Nigeriya davlat sektori misolida ichki auditning boshqaruv sifatiga ta’sirini tahlil qilib, ushbu tizim davlat organlarining moliyaviy hisobdorligini ta’minlash hamda umumiy boshqaruv unumdorligini oshirishda asosiy drayver ekanligini isbotlaganlar [7].

Monfardini va uning hamkasblari o‘z ishlarida davlat sektorida shaffoflikni qaror toptirish va hisobot tizimini takomillashtirishda ichki auditning rolini yuqori baholaydilar. Mualliflar resurslardan tejamkor va samarali foydalanishni ta’minlovchi strategik audit mexanizmlarini taqdim etganlar [8].

Ahmad va boshqalar Malayziya tajribasiga tayanib, ichki audit xizmatlarining muvaffaqiyati bevosita tashkilotning strategik maqsadlariga erishish darajasi bilan o‘lchanishini va bu jarayon boshqaruv tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaganlar [9].

Xalqaro standartlar (International Standards of Supreme Audit Institutions –ISSAI) davlat auditining sifatini oshirishda, moliyaviy va faoliyat auditlarining xalqaro darajada yagona me’yorlarga muvofiqligini ta’minlashga xizmat qiladi [10]. Xalqaro audit standartlarining asosiy afzalliklari quyidagilarda ifodalanadi: − Audit jarayonining mustaqilligi va ob’ektivligini oshiradi. − Byudjet va moliyaviy hisobotlar bo‘yicha ishonchli ma’lumot beradi. − Davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshiradi. − Xorijiy investorlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan ishonchni oshiradi.

Yuqoridagi adabiyotlar davlat sektorida ichki auditni takomillashtirishda xalqaro tajribalarni qo‘llashning muhimligini tasdiqlaydi va O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribalardan foydalanishning istiqbollarini ko‘rsatadi.

Davlat boshqaruvi tizimida Xalqaro ichki auditorlar instituti (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan mezonlarni tatbiq etish, moliyaviy shaffoflik va boshqaruv sifatini yuksaltirishning fundamental omili hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, ushbu standartlarning integratsiyalashuvi nazorat tadbirlarining xolisligi, operativligi va institutsional mustaqilligini yangi bosqichga olib chiqadi.Xususan, xalqaro tajriba quyidagi raqamli ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topgan:Misr tajribasi global metodologiyaga o‘tish natijasida davlat idoralarida moliyaviy xatoliklar 25 foizga qisqargan bo‘lsa, korrupsion xavflarni jilovlash samaradorligi 40 foizga ortgan.Janubiy Afrika IA-CM (Ichki audit imkoniyatlari modeli) modelini joriy etish orqali xizmat unumdorligi 30 foizga oshgan, auditorlarning kasbiy rivojlanish dasturlaridagi ishtiroki esa 20 foizlik

o‘sishni ko‘rsatgan.Yevropa ittifoqi Germaniya va Italiya davlatlarda xalqaro andozalar auditorlarning daxlsizligini ta’minlashda asosiy tayanch bo‘lib xizmat qildi. Natijada, korrupsiya koeffitsiyenti Germaniyada 18 foizga, Italiyada esa 22 foizga pasayganligi qayd etildi.

Jahon amaliyoti tahlili shuni yaqqol tasdiqlaydiki, ichki audit tizimining muxtoriyati va uning hisobdorlik darajasi yuksalishi bevosita boshqaruv sifatining oshishiga olib keladi. Auditorlarning mustaqilligi ta’minlangan mamlakatlarda moliyaviy barqarorlik va korrupsiyaga qarshi kurash borasida salmoqli yutuqlar qayd etilgan.Xususan, xalqaro tajribada quyidagi ijobiy natijalar kuzatilgan,Misr tajribasida mustaqil ichki audit mexanizmlarining joriy etilishi natijasida korrupsiya koeffitsiyenti
35 foizga pasaygan.Germaniya davlat sektorida audit xizmatlarining daxlsizligi va erkinligi moliyaviy menejmentdagi tizimli xatoliklarni 20 foizga qisqartirishga xizmat qilgan.Malayziya misolida esa mustaqilligi qonunan kuchaytirilgan audit xizmatlari byudjet mablag‘larining maqsadsiz sarflanish holatlarini 25 foizga kamaytirish imkonini berdi.Ushbu raqamli tendensiyalar ichki audit tizimining avtonomligi va javobgarligi ortishi davlat apparatiga bo‘lgan ijtimoiy ishonchni mustahkamlashini tasdiqlaydi. Mustaqil nazorat tizimi nafaqat moliyaviy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishni kafolatlaydi, balki umumiy boshqaruv jarayonlarini strategik jihatdan optimallashtirish va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi.O‘zbekiston sharoitida ham davlat boshqaruvining unumdorligini yuksaltirish maqsadida ichki audit xizmatlarining mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlash hamda auditorlarning kasbiy javobgarlik darajasini oshirish bo‘yicha tizimli islohotlarni amalga oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish sharoitida davlat moliyaviy nazorati tizimini transformatsiya qilish kechiktirib bo‘lmas vazifaga aylandi. Biroq, sohaning rivojlanish dinamikasi bir qator tizimli to‘siqlar tufayli kutilgan samarani bermayapti. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy audit tizimida quyidagi fundamental kamchiliklar saqlanib qolmoqda:

1. Inson kapitali va metodologik bo‘shliq auditorlik korpusining professional kompetensiyasi zamonaviy talablarga to‘laqonli mos kelmaydi. Xalqaro audit standartlari (ISSAI) bo‘yicha tayyorgarlikning yetarli emasligi nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.
2. Texnologik cheklanganlik audit jarayonlarida raqamli transformatsiyaning sustligi, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash (Big Data) va masofaviy monitoring mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi nazorat samaradorligini pasaytirmoqda.
3. Institutsional yopiqlik byudjet ijrosi ustidan nazorat natijalarining jamoatchilik uchun ochiq emasligi va shaffoflik darajasining pastligi g‘azna mablag‘lari sarflanishida ijtimoiy nazorat o‘rnatishga to‘sqinlik qilmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va milliy audit tizimini global mezonlarga moslashtirish maqsadida quyidagi strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish hayotiy zaruratdir:

1. Kadrlar salohiyatini yuksaltirish Auditorlar uchun xalqaro darajadagi o‘quv dasturlarini joriy etish va ularni majburiy tartibda xalqaro sertifikatsiyadan (masalan, CIA yoki ACCA kabi) o‘tkazish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu nazorat sifatining global standartlar darajasida bo‘lishini kafolatlaydi.

2. Raqamli audit ekotizimini yaratish nazorat jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish, sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida moliyaviy monitoring o‘tkazish (Continuous Auditing) mexanizmlarini tatbiq etish lozim. Bu inson omili bilan bog‘liq xatolarni minimallashtiradi.

3. Shaffoflik va jamoatchilik nazorati: Davlat moliyaviy nazorati natijalarini maxsus raqamli platformalar orqali ochiq e’lon qilish amaliyotini kengaytirish zarur. Audit hisobotlarining ochiqligi nafaqat korrupsiyaning oldini oladi, balki davlat apparatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Bunda O‘zbekiston audit tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar quyidagicha belgilanadi :

- Xalqaro standartlarni amaliyotga qo‘llash: ISSAI hamda INTOSAI xalqaro audit standartlarini bosqichma-bosqich milliy tizimga joriy etish; auditorlarning kasbiy malakasini oshirish va xalqaro darajadagi sertifikatlashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish.

-Raqamli texnologiyalarni kengaytirish: elektron shakldagi moliyaviy hisobotlarni yuritish va byudjet ijrosini onlayn monitoring qilish tizimini yaratish; sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlilidan foydalanish orqali audit jarayonining samaradorligini oshirish.

-Ichki moliyaviy nazoratni mustahkamlash: davlat boshqaruvi organlarida moliyaviy intizomni yanada kuchaytirish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish.

-Xorijiy tajribani o‘rganish: BMT, Jahon banki va Yevropa Ittifoqi tajribasini hisobga olgan holda yangi mexanizmlarni joriy etish; audit organlari hamkorligini rivojlantirish.

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashda davlat audit tizimini xalqaro andozalar asosida modernizatsiya qilish strategik ahamiyatga ega. Ushbu islohotlar shunchaki nazorat mexanizmini o‘zgartirish emas, balki mamlakatning moliyaviy suvereniteti va byudjet shaffofligini yangi sifat bosqichiga olib chiqishni anglatadi.Global standartlarning milliy amaliyotga chuqur integratsiyalashuvi davlat resurslaridan foydalanish unumdorligini oshirish bilan bir qatorda, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xususan, bu yondashuv xorijiy investorlar va nufuzli moliyaviy institutlar (XB, XMV) uchun ishonchli ekotizim yaratib, kapital oqimining jadallashishiga zamin yaratadi.Shu nuqtai nazardan, zamonaviy audit metodologiyalarini tatbiq etish, nazorat jarayonlarini to‘liq

raqamlashtirish va ichki moliyaviy monitoring tizimini institutsional jihatdan yuksaltirish bugungi kun iqtisodiy siyosatining eng dolzarb va ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu chora-tadbirlar davlat apparatining hisobdorligini oshirish va har bir byudjet mablag‘ining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini kafolatlashda asosiy tayanch hisoblanadi.

BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Xamidjonov Bobirjon Anvarjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola budjet tashkilotlarida ichki audit tizimining ahamiyati, uning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, auditning samarali tashkil etilishi yo‘llarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada ichki auditning maqsad va vazifalari, audit o‘tkazish tamoyillari, xavflarni boshqarish usullari va audit jarayonining asosiy bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, ichki audit tizimi orqali davlat mablag‘larini boshqarish, moliyaviy jarayonlarni takomillashtirish, firibgarlikning oldini olish va resurslardan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, ichki auditning tashkilot samaradorligini oshirish va shaffof boshqaruvni ta'minlashdagi rolini tahlil qiladi

Kalit so`zlar: Budjet tashkilotlari, ichki audit, audit usullari, samaradorlik, firibgarlikning oldini olish, xavflarni boshqarish, audit jarayoni.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida budjet tashkilotlarida budjet mablag`laridan samarali foydalanishda shonchli ma’lumotlarga ega bo’lishning asosiy quroli bu ichki auditdir. Mamlakatimizda, mustaqil davlat sifatida olib borilayotgan islohatlar o’zining ijobiy natijalarini ko’rsatmoqda, xo’jalik budjet tashkilotlarida texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish va uni kulamini kengaytirish o’ziga xos richak vazifasini o’tamoqda.

Ichki audit tizimi davlat budjeti mablag„larini samarali boshqarish vositasi bo„lib, tashkilotning umumiy faoliyati, moliyaviy barqarorligi va qonunlarga rioya etishini ta‟minlaydi. Shu bilan birga, audit jarayonlari orqali tashkilotdagi operatsion va moliyaviy xatolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Shu jihatdan ichki audit tizimi nafaqat nazorat vositasi, balki tashkilotning strategik rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim mexanizmdir.

Bugungi kunda respublikamizda mavjud davlat moliyaviy nazorati tizimi asosan tashqi moliyaviy nazoratdan iborat bo`lib, vakolatli organlarning alohida bo`linmalari, jumladan, O`zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo`mitasi, Bosh prokuratura, o`z vazifalari doirasida davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

Budjet tashkilotlarida ichki auditni samarali joriy etish uchun bir nechta muhim usullar va yondashuvlar qo„llaniladi. Bu usullar ichki audit tizimining amaliyotini takomillashtirish va tashkilotning moliyaviy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Quyida ichki auditni joriy etishning asosiy usullari yoritiladi:

Riskga asoslangan audit - Bu usulda ichki audit tashkilotdagi yuqori xavfli sohalarga e‟tibor qaratadi. Audit rejalari xavflarni baholash asosida tuziladi va tashkilotning moliyaviy barqarorligiga ta‟sir qiluvchi omillar aniqlanadi. Riskga asoslangan yondashuv yordamida auditorlar resurslarni eng xavfli sohalarga yo„naltiradi, bu esa xatoliklar va moliyaviy yo„qotishlarning oldini olishga yordam beradi.

Kompleks audit rejasini ishlab chiqish - ichki audit jarayonini samarali tashkil qilish uchun uzoq muddatli va kompleks audit rejasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunday reja tashkilotning barcha faoliyat sohalarini qamrab oladi va audit rejasida har bir soha uchun alohida maqsadlar, metodologiya va vaqt oralig„i belgilanadi.

Operatsion samaradorlikni oshirish - ichki audit nafaqat moliyaviy jarayonlarni nazorat qiladi, balki operatsion jarayonlarni ham yaxshilashga qaratilgan. Bu usul orqali tashkilotning operatsion faoliyati tekshiriladi va samaradorlikni oshirish yo„llari aniqlanadi. Jarayonlarning soddalashtirilishi va resurslardan oqilona foydalanish orqali tashkilotning umumiy faoliyati yaxshilanadi.

Xulosa qilib aytganda. budjet tashkilotlarida ichki audit tizimi davlat mablag`larining samarali boshqarilishini, tashkilotning moliyaviy barqarorligi va faoliyatining shaffofligini ta`minlashda muhim vositadir. Ichki audit jarayoni tashkilotning moliyaviy axborotlari to`g`riligini tekshirish, xatarlarni boshqarish, qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish va firibgarlikning oldini olish kabi vazifalarni bajaradi.

BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Xamidjonov Bobirjon Anvarjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Annotatsiya: Taqdim etilgan maqolada zamonaviy sharoitda ichki audit xizmatlarini tashkil etishning muhim jihatlariga to‘xtalib o‘tiladi. Unda budjet mablag‘laridan samarali foydalanish va budjet xarajatlari samaradorligini ta’minlashda nazorat organlarining roli va faoliyat mexanizmiga e’tibor qaratilgan. Budjet mablag‘larini oluvchilarda ichki audit xizmatini joriy etish natijasida davlat dasturlari va loyihalarini yanada samarali amalga oshirishni ta’minlash mumkin bo‘ladi. Demak, ichki nazorat va auditni kuchaytirish orqali tashkilotlar budjet mablag‘larini yanada samaraliroq boshqarishi, ulardan to‘g‘ri foydalanishni nazorat qilishi va rejalashtirilgan natijalarga erishishi imkoni paydo bo‘ladi.

Kalit so`zlar: ichki moliyaviy audit, ichki nazorat, davlat xarajatlari, natijaviylik, unumdorlik, samaradorlik, tejamkorlik, davlat moliyaviy nazorati.

Mamlakat iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida iqtisodiyotning davlat sektoridagi huquqbuzarliklar, budjet mablag‘larini suiiste’mol qilish, firibgarlik natijasida moliyaviy va moddiy yo‘qotishlar muammosining yuzaga kelishi barchani birdek tashvishga solishi tayin. Shu nuqtayi nazardan, ichki nazorat tizimini tashkil etish hamda moliyaviy nazoratni kuchaytirish doirasida moliyaviy yo‘qotishlarni minimallashtirish, davlat mablag‘larini samarasiz va noto‘g‘ri ishlatish xavfini kamaytirishning ahamiyati dolzarb bo‘lib qolmoqda va davlat uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda.

Ushbu masalalarni eng to`g`ri yechimi sifatida davlat sektorida ichki audit muhum axamiyat kasb etadi. Ichki auditning asosiy vazifasi – buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligini tekshirish, qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy intizomni ta’minlash, shuningdek, tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ichki audit xodimlari nafaqat mavjud moliyaviy hujjatlar asosida tahlil olib boradi, balki tashkilotda risk omillarini oldindan aniqlab, ularni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqadi.

Budjet tashkilotlarida ichki audit bo‘limlari ko‘pincha rahbariyatga bevosita bo‘ysunadi, bu esa auditorlarning mustaqil xulosa berish imkoniyatini cheklaydi. Shu bois, ichki audit xizmatlarini to‘liq mustaqil tuzilma sifatida tashkil etish, ularning faoliyatini faqat yuqori nazorat organlariga hisobot beruvchi tarzda yo‘lga qo‘yish zarur. Yana bir muhim masala–bu audit jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligidir.

Alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlardan yana biri — ichki audit natijalarining ijtimoiy ahamiyati. Budjet tashkilotlari davlat mablag‘lari hisobidan faoliyat yuritganligi bois, ularning moliyaviy shaffofligi va samaradorligi jamiyat uchun bevosita ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ichki audit natijalarining muhim xulosalari, ularning amalga oshirilishi holati va tavsiyalarning ijrosi haqida ochiq axborot berish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu esa audit faoliyatining ishonch va ijtimoiy nazorat omiliga aylanishini ta’minlaydi.

Shu bois ichki audit tizimini takomillashtirish masalasi — bu faqat iqtisodiy yoki buxgalteriya sohasiga oid texnik ish emas, balki davlat boshqaruvi, korrupsiyaga qarshi kurash, ijtimoiy ishonch va barqaror taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan dolzarb islohot yo‘nalishidir.

DAVLAT TOMONIDAN INFRATUZILMANI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI: ZAMONAVIY YO‘NALISHLAR

Shavkat Yarbazarov
Tadqiqotchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii, Toshkent, O'zbekiston

Davlat moliyalashtirish mexanizmlari va infratuzilmani rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlik davlat xizmatlari va mintaqaviy iqtisodiy o'sish panoramasini modellashtirishda muhim ahamiyatga ega. Transport tizimlari, davlat xizmatlari va davlat tuzilmalarini o'z ichiga olgan infratuzilma iqtisodiyotni qurish uchun asosiy asos bo'lib xizmat qiladi. Samarali va strategik jihatdan rivojlangan infratuzilmalar nafaqat fuqarolarning hayot sifatini yaxshilaydi, balki savdoni osonlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va aloqalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni ham rag'batlantiradi. Shuning uchun, davlat moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilish an'anaviy soliqqa tortish va davlat xarajatlaridan tortib, davlat-xususiy innovatsion sheriklik (DXH)gacha amalga oshiriladi - bu moliyaviy strategiyalar infratuzilma loyihalarining samaradorligi va barqarorligiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini tushunish uchun juda muhimdir.

Davlat tomonidan moliyalashtirish mexanizmlarining infratuzilmani yaxshilash qobiliyati davlat xizmatlarining samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim, sog'liqni saqlash va transport kabi sifatli davlat xizmatlari ishonchli infratuzilmalarga bog'liq. Masalan, yaxshi qurilgan avtomobil yo'llari va tranzit tizimlari tovarlar va shaxslarning samarali harakatlanishini ta'minlaydi, shu bilan xarajatlar va transport vaqtini kamaytiradi. Mustahkam infratuzilma orqali ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan yaxshiroq foydalanish mintaqaviy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim omili bo'lgan inson kapitalini rivojlantirishga qo'shimcha hissa qo'shadi. Shuning uchun infratuzilmaga investitsiya qilish nafaqat jismoniy faoliyatga investitsiya qilishdir; bu shuningdek, jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga investitsiya qilishdir.

Strategik moliyalashtirish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ajralmas rol o'ynaydi. Barua (2020) infratuzilma investitsiyalarini uzoq muddatli barqarorlik maqsadlari bilan uyg'unlashtiradigan maqsadli soliq tashabbuslarining ma'nosini ta'kidlaydi. Yashil texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya loyihalari va barqaror shahar loyihalarini moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat berib, davlatlar nafaqat hozirgi ehtiyojlarni, balki kelajak avlodlarning ehtiyojlarini ham qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilma paradigmasini rivojlantirishlari mumkin. Barqarorlikning zarurati infratuzilmalarni moliyalashtirishga global yondashuvlarni qo'llab-quvvatlaydigan turli global rasmlarda aks etadi, jumladan, inklyuzivlik va atrof-muhitni boshqarishga katta e'tibor beriladi.

Turli moliyalashtirish modellarining samaradorligini baholashda, moliyalashtirish mexanizmini tanlash loyiha natijalariga bevosita ta'sir qilishi ayon bo'ladi. Davlat daromadlari hisobidan moliyalashtiriladigan hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan

loyihalar kabi an'anaviy moliyalashtirish modellari ko'pincha barqarorlik va bashorat qilishni ta'kidlaydi, ammo byudjet cheklovlari va iqtisodiy tebranishlar bilan cheklanishi mumkin. Aksincha, munitsipal obligatsiyalar, ta'sir investitsiyalari va davlat-xususiy sheriklik kabi innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari xususiy sektorning samaradorligi va ko'nikmalaridan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi va shu bilan loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini oshiradi. Biroq, bu modellar, shuningdek, xavflarni taqsimlash to'g'risidagi kelishuvlar va davlat maqsadlari va xususiy rag'batlantirish o'rtasidagi muvofiqlashtirish zarurati kabi murakkablikni keltirib chiqaradi.

Davlat moliyalashtirish mexanizmlarining panoramasi mintaqaviy iqtisodiy sharoitlar, boshqaruv tuzilmalari va davlat ustuvorliklarining o'zgaruvchanligi bilan yanada murakkablashadi. Kuchli iqtisodiyotga ega davlatlar moliyalashtirishda ko'proq moslashuvchanlikni qo'llashlari mumkin, bu ularga o'sishni tezlashtiradigan yirik ko'lamli infratuzilma loyihalarini amalga oshirish imkonini beradi, iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolda bo'lgan mintaqalar esa yetarli resurslarni safarbar qilish uchun kurashishlari mumkin. Natijada, turli moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini o'rganish tahlili qaror qabul qilish jarayonlariga va loyihani amalga oshirishga ta'sir qiluvchi kontekstual omillarni hisobga olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, davlat tomonidan moliyalashtirish mexanizmlari va infratuzilmani rivojlantirish o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni tushunish davlat xizmatlarini samarali ravishda yaxshilaydigan va mintaqaviy iqtisodiy o'sishga yo'naltiradigan siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Turli moliyalashtirish modellarini to'liq tahlil qilish orqali manfaatdor tomonlar infratuzilmaga investitsiyalarning murakkabliklarini yaxshiroq ko'rib chiqishlari va moliyaviy strategiyalarning kengroq iqtisodiy va barqaror maqsadlarga mos kelishini ta'minlashlari mumkin. Ushbu nutqda strategik moliyalashtirishning iqtisodiy rentabellikning ustuni sifatida infratuzilmalarni rivojlantirishdagi roli asosiy masala bo'lib qolmoqda, bu esa tadqiqot va doimiy baholashni talab qiladi. Davlat tomonidan moliyalashtirish mexanizmlari turli mintaqalar asosidagi infratuzilmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, ularning tuzilishi, funktsiyasi va ta'sirini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Ajoyib moliyalashtirish mexanizmlariga to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik (DXH) va loyihalarni moliyalashtirish kiradi, ularning har biri o'zining operatsion doirasi va davlat xizmatlarini yaxshilash va iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi bilan ajralib turadi.

To'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish, ko'pincha an'anaviy davlat moliyalashtirishi sifatida ko'rsatiladi, infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun hukumat resurslarini to'g'ridan-to'g'ri federal, shtat yoki mahalliy moliyaviy hisobotlardan ajratishni nazarda tutadi. Ushbu model o'zining operatsion mexanizmida sodda; Kredit soliqlar, subsidiyalar yoki davlat daromadlari kabi daromad oqimlari orqali taqsimlanadi.

Gatti (2023) tomonidan ta'kidlanganidek, ushbu model jamoat infratuzilmalari jamiyat ehtiyojlariga muvofiq yaratilishi va saqlanishini kafolatlasa-da, soliq cheklovlari bilan cheklangan. Iqtisodiy tanazzul yoki byudjet tanqisligi davrlarida to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish imkoniyatlari sezilarli darajada pasayishi mumkin, natijada loyihalar kechiktirilishi yoki infratuzilmada zarur yaxshilanishlardan voz kechilishi mumkin. Biroq, to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish bilan bog'liq aniqlik va mas'uliyat kuchli jamoatchilik ishonchini mustahkamlashi va loyiha natijalari uchun aniq javobgarlik chegarasini yaratishi mumkin.

Aksincha, davlat-xususiy sheriklik innovatsion alternativa sifatida paydo bo'ldi, bu davlat organlari va xususiy sektor subyektlari o'rtasidagi hamkorlikka imkon beradi. DXH xavf va mas'uliyatni taqsimlashni osonlashtiradi, jamoatchilik nazoratini xususiy sektorning samaradorligi va ko'nikmalari bilan birlashtiradi. Gatti (2023) ushbu sherikliklardan faqat davlat byudjeti bilan bog'lanishi mumkin bo'lgan yirik ko'lamli infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun xususiy investitsiyalardan qanday foydalanish mumkinligini aniqlab beradi. Nazariy jihatdan jozibador bo'lsa-da, DXHni amaliy amalga oshirish qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ikkala tomonning manfaatlarini uyg'unlashtirish va xususiy sheriklar davlat xizmati majburiyatlarini samarali bajarishini ta'minlash uchun mustahkam shartnomaviy asos zarur. Bundan tashqari, muzokaralar jarayoni murakkab bo'lishi mumkin, ko'pincha daromadlarni taqsimlash modellarini, xavflarni taqsimlashni va uzoq muddatli xizmat ko'rsatishdan kutilgan natijalarni sinchkovlik bilan ko'rib chiqishni talab qiladi.

Loyihani moliyalashtirish homiy subyektlarning an'anaviy byudjetlariga emas, balki infratuzilma loyihalari tomonidan kelajakdagi pul oqimlariga asoslangan ko'proq ixtisoslashgan moliyalashtirish mexanizmini ifodalaydi. Ushbu model, ayniqsa, kapital talablari hukumatning soliq sig'imidan oshib ketadigan yirik yoki murakkab loyihalar uchun foydalidir. Shuning uchun loyiha uchun maxsus tashkil etilgan kapital va qarzlarning kombinatsiyasi orqali kreditorlar o'z investitsiyalarining xavfini davlat agentligining byudjetiga emas, balki taqdim etilgan kirishlarga muvofiq baholashlari mumkin. Gatti (2023) ushbu model hukumat uchun soliq yukini kamaytirish bilan birga innovatsion infratuzilma tashabbuslarini moliyalashtirish uchun amaliy yechimni taqdim etishini ta'kidlaydi. Biroq, loyihani moliyalashtirish kamchiliklarsiz emas; Uning daromad olishga bog'liqligi loyihaning rentabelligini bozor sharoitlari va talab o'zgarishiga juda sezgir qiladi.

Ushbu moliyalashtirish mexanizmlarini baholashda har bir kishi o'ziga xos imtiyozlar va qiyinchiliklarni taklif qilishi ayon bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish mas'uliyat va shaffoflikni kafolatlash uchun muhim bo'lib qolmoqda, ammo uning byudjet cheklovlariga moyilligi global infratuzilmani qo'llab-quvvatlash uchun muqobil usullarni talab qiladi. Davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish xususiy investitsiyalardan foydalanishning innovatsion yo'llarini taklif etadi, garchi ular xavflarni

kamaytirish va davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg'unlashtirish uchun puxta tuzilmani talab qilsa ham. Ushbu asoslar infratuzilmani mustahkam rivojlantirishga bo'lgan davlat talablari va davlat organlari tomonidan ko'rib chiqiladigan soliq kompaniyalari o'rtasidagi muvozanatdagi murakkablikni ta'kidlaydi. Ushbu hujjat rivojlanib borgan sari, ushbu mexanizmlarning davlat xizmatlarini yaxshilash va mintaqaviy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi samaradorligini tahlil qilish ushbu asosiy farqlarga asoslanadi. Davlat-xususiy sheriklik (DXH) infratuzilmani rivojlantirish va davlat xizmatlarini yaxshilashning shoshilinch ehtiyojlarini qondirishga qodir strategik moliyalashtirish modeli sifatida e'tiborni tortdi. Ushbu hamkorliklar xususiy sektor va kapitalning samaradorligidan davlat sektorining nazorati va ehtiyojlari bilan bir qatorda foydalanishga qaratilgan bo'lib, turli sharoitlarda turli darajadagi muvaffaqiyatlar kuzatilmoqda. Xususan, Schindler va Kanai (2021) PPPga xos bo'lgan afzalliklar va cheklovlar haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadilar, ularning davlat infratuzilmasi loyihalarini amalga oshirishdagi ikki tomonlama rolini ta'kidlaydilar va shu bilan birga potentsial tuzoqlarni taqdim etadilar.

Muvaffaqiyatli DXHning muhim namunasi San-Fransisko ko'rfazi mintaqasining tezkor transport tizimining (Bart) kengayishi bo'lib, bu davlat tashkilotlari va xususiy investorlar o'rtasidagi samarali hamkorlik umumiy transport infratuzilmasida sezilarli yaxshilanishlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Davlat mablag'lari va xususiy investitsiyalarning kombinatsiyasi bilan moliyalashtirilgan ushbu loyiha yomon xizmat ko'rsatiladigan hududlarning ulanishini kuchaytirdi, bu esa mahalliy kompaniyalarni rag'batlantirish va ish o'rinlarini yaratish orqali mintaqaviy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shgan ishonchli transport variantini taklif qildi. Dizayn, qurilish va moliya sohasidagi xususiy tajribaning integratsiyasi loyihani amalga oshirishni tezlashtirdi, bu DXH resurslarni qanday optimallashtirishi va xizmat ko'rsatishni qanday yaxshilashi mumkinligini ko'rsatadi.

FOND BOZORI INDEKSINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDAGI AHAMIYATI

Xo‘jamurodov Asqarjon Jalolovich
Toshkent kimyo-texnologiya institute “Menejment” kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada fond bozori indeksining iqtisodiy mohiyati, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi funksional o‘rni hamda investorlar, emitentlar va regulyatorlar uchun ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Fond bozori indekslari moliyaviy bozor holatini umumlashtiruvchi ko‘rsatkich sifatida investitsion qarorlar qabul qilish, risklarni baholash, portfel samaradorligini aniqlash va makroiqtisodiy jarayonlarni kuzatishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada indekslarning turlari, hisoblash usullari, xalqaro amaliyotdagi qo‘llanilishi hamda

O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozori uchun istiqbollari yoritilgan. Tadqiqot natijasida fond bozori indekslarini takomillashtirish qimmatli qog‘ozlar bozorining shaffofligi, likvidligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: fond bozori indeksi, qimmatli qog‘ozlar bozori, investitsiya, aksiyalar, bozor kapitallashuvi, benchmark, risk, likvidlik, fond birjasi, moliyaviy bozor.

Qimmatli qog‘ozlar bozori zamonaviy iqtisodiyotning muhim institutlaridan biri bo‘lib, unda kapitalning erkin harakati, investitsion resurslarning samarali taqsimlanishi va iqtisodiy o‘sishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash jarayonlari amalga oshiriladi. Ushbu bozorning rivojlanganlik darajasi mamlakatda investitsion muhitning shakllanishi, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati va aholi jamg‘armalarining iqtisodiyotga jalb etilishida katta rol o‘ynaydi. Shu bois qimmatli qog‘ozlar bozoridagi tendensiyalarni muntazam kuzatish va baholash zarurati kundan-kun ortib bormoqda.

Fond bozori indekslari aynan ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan muhim moliyaviy indikatorlardandir. Ular muayyan fond birjasida muomalada bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar narxlarining umumiy harakatini aks ettiradi hamda bozorning joriy holati, investorlar ishonchi, kapital oqimlari va iqtisodiy kutilmalar haqida muhim signal beradi. Fond bozori indekslarini “bozor barometri” deb atalishi bejiz emas. Chunki ular alohida aksiyalar narxlarining o‘zgarishidan ko‘ra, bozorning umumiy yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi.

Bugungi globallashuv va moliyaviy integratsiya sharoitida fond indekslarining ahamiyati yanada oshdi. Jahonning yetakchi fond birjalarida S&P 500, Dow Jones Industrial Average, NASDAQ Composite, Nikkei 225, FTSE 100, DAX kabi indekslar nafaqat milliy, balki xalqaro investorlar uchun ham asosiy mezon bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu indekslar asosida indeks fondlari, ETFlar, fyucherslar va opsionlar kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlar shakllantirilgan.

O‘zbekiston kapital bozori rivojlanish bosqichida ekanini inobatga olsak, fond bozori indekslarining ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganilishi ayniqsa dolzarbdir. Chunki samarali indeks tizimi bozor haqidagi axborot shaffofligini oshiradi, investorlar uchun aniq orientir yaratadi hamda qimmatli qog‘ozlar bozorining jozibadorligini mustahkamlaydi. Shu nuqtayi nazardan, fond bozori indeksining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ahamiyatini tadqiq etish nazariy hamda amaliy jihatdan muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi fond bozori indeksining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi iqtisodiy mohiyati, asosiy funksiyalari va amaliy ahamiyatini ochib berish hamda milliy kapital bozorini rivojlantirish nuqtayi nazaridan uning rolini asoslash hisoblanadi va fond bozori indeksining iqtisodiy mazmunini yoritish, fond indekslarining asosiy turlari va hisoblash usullarini tahlil qilish, indekslarning investorlar, emitentlar va regulyatorlar uchun ahamiyatini aniqlash, rivojlangan mamlakatlar tajribasini

umumlashtirish hamda O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozori sharoitida fond indekslarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kabi vazifalarni qamrab olgan.

Fond bozori indeksi - bu ma’lum metodologiya asosida tanlab olingan qimmatli qog‘ozlar qiymatining o‘zgarishini umumlashtiruvchi statistik va moliyaviy ko‘rsatkichdir. Odatda indeks fond birjasida muomalada bo‘lgan eng yirik, eng likvid yoki muayyan mezonlarga javob beruvchi kompaniyalar aksiyalari asosida shakllantiriladi.

Fond indeksining asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ bozor holatini umumlashtirib ko‘rsatadi;
- ✓ narx dinamikasining yo‘nalishini aks ettiradi;
- ✓ investorlar uchun axborot signali vazifasini bajaradi;
- ✓ portfel natijadorligini taqqoslash mezoni bo‘ladi;
- ✓ risk va daromadlilikni tahlil qilish imkonini beradi.

Fond indeksining mohiyati shundaki, u individual emitentlar kesimidagi ma’lumotlarni umumiy bozor ko‘rsatkichiga aylantiradi. Natijada investor yoki tahlilchi bozorning umumiy holatini qisqa vaqt ichida baholay oladi. Masalan, alohida kompaniyalarning aksiyalari turlicha yo‘nalishda harakat qilishi mumkin, ammo indeks bozorning umumiy trendini ifodalaydi. Shu jihatdan u bozorning integral indikatoridir.

Fond indekslari turli mezonlar asosida tasniflanadi.

1. Qamrov darajasiga ko‘ra: keng qamrovli indekslar, butun bozor yoki uning katta qismini qamrab oladi. misol: S&P 500, NASDAQ Composite. Sohaviy indekslar, ma’lum tarmoq yoki sektor bo‘yicha tuziladi. Misol: bank, energetika, IT, farmatsevtika indekslari. Hududiy indekslar, muayyan mamlakat yoki mintaqa bozorini aks ettiradi. Misol: FTSE 100, Nikkei 225, DAX, CAC 40.

2. Hisoblash usuliga ko‘ra: Narxga asoslangan indekslar, yuqori narxli aksiyalarning ta’siri kattaroq bo‘ladi. Misol: Dow Jones Industrial Average.

3. Bozor kapitallashuviga asoslangan indekslar: yirik kompaniyalarning ulushi yuqoriroq bo‘ladi. Misol: S&P 500, TOPIX.

4. Teng vaznli indekslar: indeks tarkibidagi har bir kompaniyaga bir xil vazn beriladi. Mazkur tasnif fond bozori indekslarining turli maqsadlar uchun qo‘llanishini ko‘rsatadi. Masalan, yirik investorlar bozor kapitallashuviga asoslangan indekslarga ko‘proq e’tibor bersa, sohaga yo‘naltirilgan investorlar sektoral indekslardan foydalanadi.

Fond bozori indekslari qimmatli qog‘ozlar bozorida ko‘p qirrali funksiyalarni bajaradi. Ularning ahamiyatini bir necha yo‘nalishda ko‘rib chiqish mumkin.

1. Bozor holatini baholash vositasi sifatida: bozorning o‘sish yoki pasayish tendensiyasini ko‘rsatadi, investorlar kayfiyatini aks ettiradi, iqtisodiyotdagi ijobiy yoki salbiy kutishlar haqida signal beradi. Agar indeks barqaror o‘sayotgan bo‘lsa, bu odatda bozor ishtirokchilarining iqtisodiy istiqbolga ijobiy qarayotganini anglatadi. Aksincha,

indeksning keskin pasayishi moliyaviy beqarorlik, spekulyativ bosim yoki makroiqtisodiy xavotirlarning kuchayganidan dalolat beradi.

2. Investitsion qarorlar qabul qilishda benchmar: investorlar o‘z portfeli samaradorligini bozor bilan taqqoslash, aktivlar tarkibini shakllantirish, passiv investitsiya strategiyasini tanlash, bozor riskini baholash imkonini beradi. Professional portfel boshqaruvida indekslar benchmark sifatida keng qo‘llanadi. Agar investor daromadliligi indeksdan yuqori bo‘lsa, uning strategiyasi samarali deb baholanadi. Bu holat fond indekslarini investitsion menejmentning ajralmas qismiga aylantiradi.

3. Risklarni baholash va boshqarish vositasi sifatida: fond bozori indekslari asosida quyidagi ko‘rsatkichlar hisoblanadi: volatililik, beta koeffitsienti, kovariatsiya va korrelyatsiya, Sharpe ratio va boshqa risk ko‘rsatkichlari. Bu esa indekslarning nafaqat bozor harakatini ko‘rsatib beruvchi indikator, balki moliyaviy risklarni miqdoriy baholash vositasi ekanini anglatadi.

4. Moliyaviy instrumentlarni yaratish asosi sifatida: ETFlar, indeks fondlari, fyucherslar, opsionlar, strukturaviy mahsulotlar yaratiladi. Bu esa qimmatli qog‘ozlar bozorining chuqurlashuviga, yangi investorlarni jalb qilishga va moliyaviy innovatsiyalar rivojiga xizmat qiladi.

5. Regulyatorlar uchun monitoring instrumenti sifatida: Davlat organlari va fond bozori nazoratchilari indekslar orqali bozor faolligini kuzatadi, moliyaviy barqarorlikka tahdidlarni aniqlaydi, likvidlik holatini baholaydi, spekulyativ tebranishlarni nazorat qiladi.

Demak, fond bozori indeksi nafaqat investorlar, balki regulyatorlar uchun ham muhim tahliliy vosita hisoblanadi. Fond indekslarining investitsion jarayonlardagi amaliy roli har jihatdan muhim bo‘lib, fond indekslari amaliy jihatdan investitsion muhitni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Investorlar uchun bozor trendini aniqlash imkonini beradi, aktivlarni tanlashda orientir bo‘ladi, portfelni diversifikatsiya qilishga yordam beradi, passiv investitsiya strategiyasini rivojlantiradi.

Emitentlar uchun kompaniya aksiyalarining bozor mavqeini baholash imkonini beradi, indeks tarkibiga kirish korporativ obro‘ni oshiradi, investorlar e’tiborini jalb etadi, aksiyalar likvidligini kuchaytiradi.

Fond birjasi uchun bozor haqidagi axborotni tizimlashtiradi, birja faoliyatining shaffofligini oshiradi, savdo jarayonlariga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda fond indekslari bozor infratuzilmasining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Dow Jones Industrial Average, S&P 500, NASDAQ Composite eng muhim indekslar sanaladi. Ular nafaqat milliy iqtisodiyot, balki global investitsion oqimlar uchun ham asosiy indikator sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa S&P 500 indeksining korporativ Amerika iqtisodiyoti holatini aks ettirishdagi roli juda yuqori. Yaponiyada Nikkei 225 va TOPIX indekslari asosiy mezon bo‘lib, ular mamlakat

korporativ sektori dinamikasi hamda investorlar kutilmalarini aks ettiradi. Yevropa esa FTSE 100-Buyuk Britaniya, DAX - Germaniya, CAC 40 – Fransiya indekslari Yevropa kapital bozorining muhim yo‘nalishlarini ko‘rsatadi va mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni baholashda qo‘llaniladi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, indeks qanchalik shaffof metodologiya asosida shakllantirilsa, bozor ishtirokchilari uchun shunchalik foydali bo‘ladi.

O‘zbekiston kapital bozorining bosqichma-bosqich rivojlanishi fond indekslarini takomillashtirishni talab etadi. Milliy fond bozori sharoitida indekslar quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- bozorning umumiy holatini ifodalash;
- investorlar uchun ishonchli axborot manbai bo‘lish;
- emitentlar faoliyatini qiyosiy baholash;
- xorijiy investorlar uchun analitik mezon yaratish;
- indeks fondlari va ETFlar rivojiga zamin tayyorlash.

O‘zbekiston uchun dolzarb yo‘nalishlar

- indeks hisoblash metodologiyasini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- indeks tarkibiga kiritiladigan emitentlar bazasini kengaytirish;
- bozor likvidligi yuqori bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni ajratish;
- fond bozori statistikasining ochiqligini oshirish;
- indeks asosidagi investitsiya mahsulotlarini joriy etish.

Agar milliy fond indekslari takomillashsa, bu investorlar ishonchini oshirish, kapital bozorining chuqurlashuvi va qimmatli qog‘ozlar bozorining institutsional rivojlanishiga xizmat qiladi. Fond indekslari muhim ko‘rsatkich bo‘lishiga qaramay, ularning ayrim cheklovlari mavjud. Asosiy muammolar:

- indeks barcha kompaniyalarni qamrab olmasligi mumkin;
- yirik emitentlar ta’siri haddan tashqari kuchli bo‘lishi mumkin;
- kam likvid bozorda indeks real bozor kayfiyatini to‘liq aks ettirmasligi mumkin;
- ayrim hollarda qisqa muddatli spekulyativ o‘zgarishlar noto‘g‘ri signal beradi.

Shu sababli indekslarni tahlil qilishda quyidagi ko‘rsatkichlar bilan birgalikda o‘rganish maqsadga muvofiq: savdo hajmi, bozor kapitallashuvi, emitentlar soni, investorlar faolligi, obligatsiyalar bozori holati, likvidlik ko‘rsatkichlari.

Fond bozori indeksi qimmatli qog‘ozlar bozorining holatini baholashda eng muhim umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. U bozor dinamikasini ifodalaydi, investorlar uchun yo‘nalish beradi, portfel natijadorligini baholash mezoni bo‘lib xizmat qiladi va moliyaviy risklarni tahlil qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, fond indekslari regulyatorlar uchun monitoring vositasi, emitentlar uchun bozor mavqeini belgilovchi indikator hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlar uchun asos vazifasini bajaradi.

O‘zbekiston sharoitida fond bozori indekslarini takomillashtirish kapital bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Buning uchun: indekslar metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, emitentlar va investorlar haqidagi axborot shaffofligini kuchaytirish, indeksga asoslangan moliyaviy instrumentlarni joriy etish, fond birjalari faoliyatini raqamlashtirish va analitik imkoniyatlarini kengaytirish zarur hisoblanadi.

Umuman olganda, fond bozori indekslari qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish darajasi, barqarorligi va investitsion jozibadorligini belgilovchi muhim omildir. Ularning samarali amal qilishi milliy moliya bozorining chuqurlashuvi va xalqaro kapital oqimlari bilan integratsiyalashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

BUDJET TASHKILOTLARIDA MAJBURIYATLAR HISOBIGA OID NAZARIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Jabbarova Charos Aminovna
Toshkent davlat iqtisodyot universiteti
Budjet hisobi va g‘aznachilik kafedrasi katta o‘qituvchisi
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Davlat sektorining moliyaviy hisoboti tijorat subyektlaridan farqli ravishda foyda olishga emas, balki avvalo hisobdorlikni ta’minlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xizmat qiladi. Shu sababli majburiyatlar haqidagi axborot davlat resurslarining kelgusidagi chiqimlari, to‘lov intizomi hamda fiskal barqarorlikni baholashda muhim o‘rin tutadi. Xalqaro amaliyotda bu yondashuv International Public Sector Accounting Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan Konseptual asosda moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi sifatida “hisobdorlik va qaror qabul qilish uchun foydali axborot taqdim etish” tarzida belgilangan. Mazkur yondashuv asosan hisoblash usuliga tayanadi.

Makroiqtisodiy darajada ham majburiyatlarni hisoblash usulida yuritishning ahamiyati yuqori baholanadi. Xususan, International Monetary Fundning *Government Finance Statistics Manual 2014* hujjatida accrual usuli fiskal ta’sirni to‘liqroq aks ettirishi, biroq likvidlik holatini baholash uchun naqd pul oqimlari haqidagi ma’lumotlar ham saqlanishi lozimligi ta’kidlangan. Milliy amaliyotda esa bu soha O‘zbekiston Respublikasining budjet hisobi standartlari hamda tegishli yo‘riqnomalari orqali tartibga solinadi.

Davlat sektorida majburiyatlar hisobiga oid nazariy muammolardan biri shundaki, amaliyotda majburiyat ko‘pincha smeta, g‘aznachilik ijrosi va hisob-kitob intizomi doirasida, ya’ni ko‘proq huquqiy-me’yoriy mazmun asosida talqin qilinadi. Holbuki, iqtisodiy nuqtayi nazardan majburiyat — bu o‘tgan hodisalar natijasida yuzaga kelgan joriy majburiyat bo‘lib, kelgusida resurslarning chiqib ketishiga sabab bo‘ladi. Shu ma’noda milliy 16-sonli budjet hisobi standarti majburiyatni o‘tgan hodisalardan kelib

chiqadigan joriy munosabat sifatida, to‘lovni esa iqtisodiy foyda yoki xizmat salohiyatini o‘zida mujassam etgan resurslarning chiqib ketishi sifatida talqin etib, nazariy va amaliy yondashuv o‘rtasidagi tafovutni yumshatadi.

Yana bir muhim nazariy masala - majburiyatlarni qachon tan olish masalasidir. Bu yerda “oldingi hodisa”, “resurs chiqib ketishi ehtimoli” va “ishonchli baholash imkoniyati” kabi mezonlar asosiy rol o‘ynaydi. Xalqaro IPSAS 19 standartida joriy majburiyatning mavjudligi va resurs chiqib ketishi ehtimoli tan olishning muhim sharti sifatida ko‘rsatilgan. Milliy 16-son BHSga ko‘ra esa shartli majburiyatlar moliyaviy hisobotda to‘g‘ridan to‘g‘ri tan olinmaydi, ammo ular izohlarda yoritilishi lozim. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, davlat sektorida majburiyatlarni tan olish faqat hisob-kitob masalasi emas, balki ehtimollik, hujjatlashtirish va professional baholash bilan bog‘liq murakkab nazariy jarayondir.

Amaliyotda ayrim operatsiyalarning turli hisob bloklarida aks ettirilishi ham muayyan chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, budjet hisobining ayrim schyotlarida “xarajatlar bo‘yicha majburiyatlar”, boshqa bloklarda esa “hisoblangan xarajatlar” alohida yuritilishi smetaviy va moliyaviy yondashuvlarning parallel qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Natijada bir xil iqtisodiy holat turlicha talqin qilinishi mumkin. Shu bois “smetaviy majburiyat” va “moliyaviy majburiyat” tushunchalarini yagona terminologik asosda belgilash, shuningdek, har bir operatsiya uchun yagona birlamchi tan olish nuqtasini aniqlash zarur.

Majburiyatlar haqidagi axborotni moliyaviy hisobotda yetarli darajada ochib bermaslik ham alohida muammo hisoblanadi. Agar majburiyatlar bo‘yicha ma’lumotlar faqat qayd darajasida qolsa, tashqi foydalanuvchilar uchun hisobotning tahliliy qiymati pasayadi. Ayniqsa, shartli majburiyatlar, ehtimoliy to‘lovlar, risk omillari va baholash usullari yetarli yoritilmasa, moliyaviy shaffoflik to‘liq ta’minlanmaydi. Shu sababli izohlarda majburiyatlarning xususiyati, miqdori, yuzaga kelish muddati va xavf darajasini standartlashtirilgan shaklda berish maqsadga muvofiqdir.

Accrual hisobga o‘tish nazariy jihatdan davlat sektorida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiradi. Biroq bu jarayon amaliy jihatdan murakkab bo‘lib, baholash, taxmin, axborot tizimlari va malakali kadrlarni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro standartlarda, jumladan IPSAS 33da, accrual tizimiga birinchi marta o‘tayotgan subyektlar uchun muayyan o‘tish imtiyozlari nazarda tutilgan. Bu holat davlat sektorida majburiyatlar hisobini takomillashtirish birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerakligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, budjet tashkilotlarida majburiyatlar hisobiga oid nazariy muammolar hisobotning maqsadi, hisoblash bazasi, tan olish mezonlari va axborotni ochib berish sifati o‘rtasidagi uyg‘unlik bilan bog‘liq. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun milliy standartlardagi mavjud konseptual qoidalarni aniq metodika, yagona terminologiya, puxta hujjatlashtirish va bosqichli institutsional tayyorgarlik bilan

mustahkamlash zarur. Aynan shunday yondashuv davlat sektorida moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik va fiskal barqarorlikni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ILMIY TADQIQOT LOYIHALARI VA TIJORATLASHTIRISH FAOLIYATI ICHKI AUDITINING NAZARIY MASALALARI

Inoyatov Mardonbek Mo‘min o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
Budjet hisobi va g‘aznachilik kafedrasi katta o‘qituvchisi

Oliy ta’lim muassasalari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy institutsional tayanchlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etish hamda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi.

Ilmiy tadqiqot loyihasi - bu yangi bilimlar yaratish, mavjud bilimlarni chuqurlashtirish yoki muayyan ilmiy muammoni hal qilish maqsadida tizimli ravishda olib boriladigan, maqsadli va rejalashtirilgan faoliyat bo‘lib, u tadqiqot obyekti, metodlar (usullar) va vositalarni o‘z ichiga olgan izlanishlar majmuidir.

Oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot loyihalari davlat faoliyatining samaradorligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash hamda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur loyihalar davlat va jamiyat ehtiyojlariga mos ilmiy yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining ilmiy loyihalari iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat uchun muhim ilmiy-amaliy baza vazifasini bajaradi. Natijada, bunday loyihalar davlatning innovatsion rivojlanishi, kadrlar salohiyatining oshishi va jamiyat barqarorligining ta’minlanishiga bevosita hissa qo‘shadi.

Oliy ta’lim muassasalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. Ular yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etish orqali davlat va jamiyatning barqaror o‘sishiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish, mehnat bozorida raqobatbardosh ishchi kuchini shakllantirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Natijada, oliy ta’lim tizimi nafaqat intellektual resurslarni yetkazib beradi, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalari davlat dasturlarini samarali amalga oshirishda muhim strategik institut sifatida faoliyat yuritadi. Ular ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni ishlab chiqish, pilot dasturlarni sinovdan o‘tkazish hamda hududiy va soha bo‘yicha amalga oshirish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash orqali davlat siyosatini ilmiy asoslashga yordam beradi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari kadrlar tayyorlash va ekspertlarni jalb qilish orqali dasturlarni samarali bajarilishini ta’minlaydi. Natijada ular nafaqat davlat dasturlarining muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga hissa qo‘shadi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik rivojlanish strategiyasini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Oliy ta’lim muassasalari mamlakatning intellektual va ilmiy salohiyatini rivojlantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Ular yuqori malakali mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar va ekspertlarni tayyorlash orqali davlat va jamiyat ehtiyojlariga javob beruvchi kadrlar zaxirasini yaratadi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirib, yosh olimlarning ilmiy kompetensiyalarini oshiradi, innovatsion fikrlash va tadqiqot madaniyatini shakllantiradi. Natijada, bu jarayon davlatning ilmiy-texnik rivojlanishini, strategik rejalashtirish va innovatsiyalarni tatbiq etish imkoniyatlarini mustahkamlaydi.

Oliy ta’lim muassasalari ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish va innovatsiyalarni tijoratlashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga bevosita hissa qo‘shadi. Ular patentlar, litsenziyalar, startap va spin-off kompaniyalar yaratish orqali yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqadi, shuningdek, sanoat bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Natijada, oliy ta’lim muassasalari iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ish o‘rinlarini yaratish va davlat budjetiga qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish imkonini ta’minlaydi. Shu bilan birga, innovatsion faoliyat davlatning raqobatbardoshligini mustahkamlash va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim muassasalari jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish va ularni hal etishga xizmat qiladi. Ular ta’lim sifati, bandlik, sog‘liqni saqlash, ekologiya va demografik masalalar bo‘yicha tadqiqotlar olib boradi hamda davlat va jamoatchilik uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi.

Shu tariqa, oliy ta’lim muassasalari ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, jamiyatning turli qatlamlari ehtiyojlarini qondirish va davlatning ijtimoiy siyosatini samarali amalga oshirishda muhim strategik vosita hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida tijoratlashtirish mablag‘lari ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mablag‘lar patentlar, litsenziyalar, startap va spin-off kompaniyalar yaratish, shuningdek, sanoat bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali universitetlarning mustaqil moliyaviy resurslarini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, tijoratlashtirish mablag‘lari:

- ilmiy loyihalarni kengaytirish va yangi tadqiqot yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash;
- universitetning innovatsion salohiyatini mustahkamlash;
- davlat va jamiyat iqtisodiyotiga qo‘shilgan qiymat yaratishda vosita sifatida xizmat qiladi.

Natijada, tijoratlashtirish mablag‘lari oliy ta’lim muassasalarining ilmiy va iqtisodiy samaradorligini oshirish, barqaror moliyalashtirishni ta’minlash hamda davlat va jamiyat uchun amaliy natijalarni yaratishda strategik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarida grantlar ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yangi bilimlarni yaratishning asosiy moliyaviy manbai hisoblanadi. Grantlar orqali universitetlar:

- ilmiy loyihalarni moliyalashtiradi;
- innovatsion va amaliy tadqiqotlarni amalga oshiradi;
- talaba, magistrant va doktorantlarni tadqiqot ishlariga jalb qiladi;
- sanoat va davlat bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Shuningdek, grantlar oliy ta’lim muassasalariga davlat siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarida ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada grantlar universitetlarning ilmiy salohiyatini oshirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va davlat hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi amaliy natijalarni yaratishda muhim strategik ahamiyatga ega bo‘ladi.

GERMANIYADA BUDJET NAZORATINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMI: EX ANTE, ONGOING VA EX POST BOSQICHLARI TAHLILI

Uchqun Abdug‘aniyev
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti bo‘lim boshlig‘i, PhD, dotsent

Mazkur tezisda Germaniyada davlat budjeti ijrosi ustidan amal qiladigan ko‘p bosqichli nazorat tizimi tahlil qilingan. Tadqiqotda budjet nazoratining ex ante, ongoing va ex post bosqichlari, ularning mazmuni, asosiy institutlari va amaliy instrumentlari yoritilgan. Xususan, ex ante bosqichida Bundestag va uning Budjet qo‘mitasi tomonidan budjet parametrlarini oldindan belgilash orqali xarajatlar ustidan huquqiy va siyosiy cheklovlar o‘rnatilishi ko‘rsatib berilgan. Ongoing bosqichida Federal moliya vazirligi hamda ichki moliyaviy nazorat subyektlarining budjet ijrosini doimiy kuzatib borish mexanizmi tahlil qilingan. Ex post bosqichida esa Germaniya Federal Hisob palatasi, parlament qo‘mitalari va Entlastungsverfahren tartibi orqali budjet ijrosiga yakuniy baho berish amaliyoti ochib berilgan. Tahlil natijasida Germaniya tajribasi budjet mablag‘larining qonuniy, maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlashda parlament

nazorati, ichki moliyaviy nazorat va tashqi auditning o‘zaro uyg‘un tizimi muhim ahamiyatga ega ekani bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: budjet nazorati, budjet ijrosi, parlament nazorati, tashqi audit, ichki moliyaviy nazorat, Germaniya tajribasi, Bundestag, Federal Hisob palatasi, budjet samaradorligi, moliyaviy intizom.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda budjet siyosatini modernizatsiya qilish, davlat moliyasini boshqarishda fiskal intizomni kuchaytirish hamda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida budjet xarajatlari va davlat investitsiyalarining natijadorligini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan, shuningdek davlat qarzining YAIMga nisbatan 60 foizlik chegarasi va konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini YAIMga nisbatan 3 foizgacha cheklash vazifalari mustahkamlangan. Bu esa budjet siyosatini faqat mablag‘larni taqsimlash vositasi sifatida emas, balki fiskal barqarorlik, natijadorlik va javobgarlikni ta’minlovchi strategik boshqaruv instrumenti sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda amaldagi budjet islohotlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Bugunga kelib, dasturiy budjetlashtirishni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy asos kuchaytirilib, 2024-yilda budjet dasturlarini ishlab chiqish, ijrosini ta’minlash, hisobotini tuzish va baholash tartibi tasdiqlandi, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi ijrosi doirasida esa 2025-yildan boshlab Davlat budjeti loyihasini budjet dasturlari kesimida qabul qilish vazifasi belgilandi. Mazkur o‘zgarishlar budjet siyosatini resurslar hajmiga emas, balki natija, monitoring va samaradorlikka yo‘naltirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli xorijiy tajriba, xususan budjet ijrosi ustidan nazoratning institutsional mexanizmlarini o‘rganish O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning mazmuni va istiqbollarini chuqurroq baholash imkonini beradi.

Xorijiy adabiyotlarda Germaniya budjet tizimi kuchli fiskal intizom va markazlashgan muvofiqlashtirishga asoslangan model sifatida talqin etiladi. OECDning Budget Review: Germany tadqiqotida Germaniya budjet jarayonida xarajat limitlari, Federal moliya vazirligining markaziy roli hamda budjet siyosatining fiskal cheklovlar bilan uyg‘unligi alohida ko‘rsatilgan [1]. Gisela Färberning Public Finance asarida esa Germaniya budjet tizimi federativ moliyaviy boshqaruv, budjet sikli va nazorat tamoyillari doirasida tahlil qilinadi [2]. Ushbu manbalar Germaniyada budjet nazorati alohida tekshiruv bosqichi emas, balki budjetni rejalashtirish, taqsimlash va ijro etish jarayonlari bilan uzviy bog‘langan tizim ekanini ko‘rsatadi.

Nemis rasmiy va ilmiy manbalarida budjet nazoratining parlament va tashqi audit bilan bog‘liq jihatlari yanada aniq ochib beriladi. Germaniya Federal moliya vazirligining Das System der Öffentlichen Haushalte nashrida budjet sikli davomida parlament, ijro hokimiyati va audit organlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bayon etilgan [3]. Bundestag

rasmiy sahifasida Budjet qo‘mitasining nafaqat budjet loyihasini ko‘rib chiqishi, balki hukumatning budjet ijrosini doimiy nazorat qilishi qayd etilgan [4]. Asosiy qonunning 114-moddasi va Mehde tadqiqotida esa Bundesrechnungshof mustaqil tashqi audit instituti sifatida mablag‘lardan qonuniy va samarali foydalanilishini baholovchi muhim organ ekani ta’kidlangan [5], [6]. Demak, adabiyotlarda Germaniya budjet nazorati parlament nazorati, ichki moliyaviy boshqaruv va tashqi audit uyg‘unlashgan kompleks institut sifatida baholanadi.

Germaniyada budjet nazorati uch bosqichli siklda ishlaydi: (1-rasm)

1-jadval. Germaniya budjet nazoratining bosqichlari

Nazorat bosqichi	Nazorat mazmuni	Nazoratqiluvchi organ	Asosiy instrumentlar	Amaliy natija
Ex ante (oldindan)	Budjet qabul qilinishidan oldin xarajatlarning qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va limitlargamosligini baholash	**Bundestag (Germaniya Federal parlamenti)**	**Bundeshaushaltsplan** - Federal budjet rejasi; **Einzelplan/Kapitel/Titel** - alohida budjet rejalari, boblar va moddalar	Budjet qonuniy ravishda tasdiqlanadi
		Haushaltsausschuss des Bundestages (Parlamentning Budjet qo‘mitasi)	**Eckwerte** - xarajat limitlari; **Haushaltsvermerk** - budjet izoh va cheklov yozuvlari; **Verpflichtungsermächtigungen** - ko‘p yillik majburiyat limitlari	Ijro uchunaniq cheklovlar belgilanadi
		Bundesministerium der Finanzen – BMF (Federal Moliya vazirligi)	**Makroprognose** makroiqtisodiy prognoz; **Ausgabenobergrenzen (Ceilings)** - xarajat chegaralari; **Budgetrichtlinien** - budjet yo‘riqnomalari	Vazirliklar uchunresurs ramkasi qotiriladi
Ongoing (jarayon davomida)	Budjet ijrosi vaqtida mablag‘larning maqsadli va limit doirasida sarflanishini kuzatish	**BMF (Federal Moliya vazirligi)**	**Über-/außerplanmäßige Ausgaben** - rejadan tashqari/ortiqcha xarajatlar ruxsati; **Virement** - budjet moddalari o‘rtasida mablag‘ ko‘chirish	Rejadan chiqish cheklanadi
		Beauftragter für den Haushalt / Titelverwalter (Budjet uchun mas’ulmansabdor/ budjet moddasi boshqaruvchisi)	**Vorabkontrolle** - oldindan to‘lov tekshiruvi; **Mittelbewirtschaftung** - mablag‘larni boshqarish	Qoidabuzarliklar auditgacha to‘xtatiladi
		Haushaltsausschuss (Budjet qo‘mitasi)	**Zwischenberichte** - joriy hisobotlar; **Nachforderung von Informationen** - qo‘shimcha axborot talab qilish	Parlamentning doimiy nazorati ta’minlanadi
Ex post (yakuniy)	Yil yakunida budjet ijrosining qonuniyligi va samaradorligini	**Bundesrechnungshof (Germaniya Federal Hisob**	**Rechnungsprüfung** - hisob-kitob auditi; **Wirtschaftlichkeitsprüfung**	Audit xulosalari

	baholash	**palatasi)**	- iqtisodiy samaradorlik auditi; **Ordnungsmäßigkeitsprüfung** - tartibga rioya auditi	(Bemerkungen) tayyorlanadi
		Rechnungsprüfungsausschuss – RPA (Hisobotlarni tekshirish qo‘mitasi)	**Auswertung der Bemerkungen** - audit xulosalarini tahlil qilish; **Parlamentarische Anhörungen** - parlament eshituvlari	Entlastung bo‘yichaqaror tayyorlanadi
		Bundestag (Germaniya Federal parlamenti)	**Entlastungsverfahren** - budjet ijrosi bo‘yicha hukumatni siyosiyjihatdan “oqlash/baholash” tartibi	Hukumat faoliyatiga yakuniybaho beriladi
		Länderrechnungshöfe (Yerlar Hisob palatalari)	**Prüfung der Mittelverwendung** - federal mablag‘larning yerlar darajasida sarflanishini tekshirish	Desentraliz nazorat ta’minlanadi

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, Germaniyada budjet ijrosi ustidan nazorat markazlashgan yagona organ orqali emas, balki budjet siklining barcha bosqichlariga tatbiq etilgan ko‘p bosqichli institutsional tizim orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizim ex ante, ongoing va ex post nazorat bosqichlarini qamrab olgan holda davlat mablag‘larining qonuniy, maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlashga qaratilgan.

1. Ex ante nazorat: resurs taqsimotini oldindan cheklash mexanizmi

Ex ante bosqichda nazoratning markazida Bundestag (Germaniya Federal parlamenti) turadi. Parlamentning mazkur bosqichdagi asosiy vakolati — budjetni tasdiqlash orqali hukumat xarajatlariga siyosiy va huquqiy ruxsat berishdan iborat. Bundeshaushaltsplan (Federal budjet rejasi), shuningdek Einzelplan/Kapitel/Titel (alohida budjet rejalari, boblar va moddalar) muhokamasi orqali xarajatlar hali ijro boshlanmasidan oldinoq parlament filtridan o‘tkaziladi.

Bu jarayonda Haushaltsausschuss des Bundestages (Parlamentning Budjet qo‘mitasi) alohida ahamiyat kasb etadi. U Eckwerte (xarajat limitlari) va Haushaltsvermerk (budjet izoh va cheklov yozuvlari) orqali budjet ijrosining kelgusidagi huquqiy doirasini belgilab beradi. Shu tariqa, Germaniyada ex ante nazorat budjet mablag‘larini noto‘g‘ri yo‘naltirish xavfini institutsional ravishda oldindan cheklaydi.

2. Ongoing nazorat: kundalik moliyaviy intizomni ta’minlash

Jadval tahliliga ko‘ra, ongoing (jarayon davomidagi) nazorat Germaniya budjet tizimining eng amaliy va ta’sirchan bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda asosiy rolni Bundesministerium der Finanzen – BMF (Federal Moliya vazirligi) hamda ichki nazorat subyektlari bajaradi.

BMF tomonidan Über-/außerplanmäßige Ausgaben (rejadan tashqari yoki ortiqcha xarajatlarga ruxsat) va Virement (budjet moddalari o‘rtasida mablag‘ ko‘chirish) kabi instrumentlar orqali budjet ijrosi doimiy nazorat qilinadi. Bu mexanizm budjet intizomini

ta’minlash bilan birga, zarur hollarda resurslarni tezkor qayta taqsimlash imkonini ham beradi.

Shu bilan birga, Beauftragter für den Haushalt / Titelverwalter (budjet uchun mas’ul mansabdor / budjet moddasi boshqaruvchisi) orqali amalga oshiriladigan Vorabkontrolle (oldindan to‘lov tekshiruvi) Germaniyada ichki moliyaviy nazoratning “birinchi himoya chizig‘i” hisoblanadi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ko‘plab qoidabuzarliklar aynan shu bosqichda to‘xtatilib, tashqi auditgacha yetib bormaydi.

3. Ex post nazorat: natija va javobgarlikka asoslangan baholash

Ex post bosqichda nazorat tizimi sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tadi. Bu yerda markaziy o‘rinni Bundesrechnungshof (Germaniya Federal Hisob palatasi) egallaydi. Uning funksiyalari faqat Rechnungsprüfung (hisob-kitob auditi) bilan cheklanib qolmasdan, Wirtschaftlichkeitsprüfung (iqtisodiy samaradorlik auditi) va “Ordnungsmäßigkeitsprüfung (tartibga rioya auditi)”ni ham qamrab oladi.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, Bundesrechnungshof‘ning Bemerkungen (audit xulosalari) parlament nazorati uchun asosiy dalil manbai hisoblanadi. Aynan shu xulosalar asosida Rechnungsprüfungsausschuss – RPA (Hisobotlarni tekshirish qo‘mitasi) tomonidan budjet ijrosi parlament darajasida qayta ko‘rib chiqiladi.

Yakuniy bosqichda Bundestag (Germaniya Federal parlamenti) tomonidan amalga oshiriladigan Entlastungsverfahren (budjet ijrosi bo‘yicha hukumatni siyosiy jihatdan baholash va mas’uliyatdan ozod qilish tartibi) ex post nazoratning institutsional nuqtasini qo‘yadi. Bu qaror huquqiy jazo emas, balki hukumat faoliyatiga berilgan siyosiy baho hisoblanadi.

Germaniya Moliya vazirligining rasmiy tushuntirish hujjatida parlament budjetni qabul qilishi va sikl oxirida “ Budjet va mulk (aktivlar) hisoboti (Haushalts- und Vermögensrechnung)” hamda “ Germaniya Federal Hisob palatasining e’tirozlari (xulosalari) (Bemerkungen des Bundesrechnungshofes)” asosida hukumat xarajatlarini nazorat qilishi ta’kidlangan.[111]

Bundestag‘da budjet bo‘yicha asosiy “ishchi organ” — Budjet qo‘mitasi (Haushaltsausschuss). Rasmiy sahifada uning ikki funksiyasi ochiq aytilgan:

- yillik “Budjet jarayoni”da “qancha va nimaga” sarflanishini muhokama qiladi;
- “fortlaufend die Haushaltsführung der Bundesregierung” — hukumatning budjet ijrosini doimiy nazorat qiladi.

Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, budjet nazoratining samaradorligi alohida bitta institut faoliyati bilan emas, balki nazorat mexanizmlarining budjet siklining barcha bosqichlariga izchil singdirilgani bilan belgilanadi. Ex ante bosqichida resurslar taqsimoti ustidan siyosiy va huquqiy cheklovlarning o‘rnatilishi, ongoing bosqichida kundalik

[111] https://www.bundesfinanzministerium.de/Content/DE/Downloads/Oeffentliche-Finanzen/Haushaltsrecht-und-Haushaltssystematik/das-system-der-oeffentlichen-haushalte.pdf?__blob=publicationFile&v=1&utm_source=chatgpt.com

moliyaviy intizomning ta’minlanishi hamda ex post bosqichida mustaqil tashqi audit va parlament bahosining mavjudligi davlat mablag‘laridan foydalanish ustidan uzluksiz nazorat tizimini shakllantiradi. Shu jihatdan Germaniya modeli budjet nazoratini shunchaki tekshiruv vositasi sifatida emas, balki fiskal barqarorlik, hisobdorlik va boshqaruv sifati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan institutsional mexanizm sifatida namoyon etadi.

Mazkur yondashuv O‘zbekistonda budjet siyosatini takomillashtirish sharoitida ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xususan, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish, parlament va jamoatchilik oldida hisobdorlikni kuchaytirish, shuningdek, ichki moliyaviy nazorat hamda tashqi audit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlashda Germaniya tajribasining ayrim elementlaridan foydalanish mumkin. Eng muhimi, ushbu tajriba budjet nazorati natijaviy bo‘lishi uchun u faqat yakuniy tekshiruv bosqichida emas, balki rejalashtirishdan tortib ijroni baholashgacha bo‘lgan barcha jarayonlarda institutsional jihatdan mustahkamlangan bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi.

Shu sababli Germaniyada davlat budjeti ijrosi ustidan nazorat mexanizmini o‘rganish budjet sohasidagi zamonaviy yondashuvlarni anglash, ularning institutsional mantiqini ochib berish hamda milliy amaliyotni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI

Bababekova Zebo Baxtiyor qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot univeriteti, Davlat moliyaviy nazorati va audit yo‘nalishi DMNA-15 guruh magistranti

Respublikamizda ham Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarida ichki audit tizimi zamonaviy talablar asosida shakllantirilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustda qabul qilingan “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi PQ-3231-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.07.2024 yildagi “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-100-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2022 yildagi “Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 416-son Qarorining qabul qilinishi ichki auditning xalqaro standartlar talabi asosida rivojlantirish zaruriyatini belgilab beradi. Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari quyidagilar sanaladi:

- respublika darajasidagi hamda hududiy ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarining - budjet mablag'larining noqonuniy sarflanishi va talon-toroj qilinishi holatlarining quyidagi yo'llar bilan profilaktikasini ta'minlash va ularning oldini olish;
- bo'ysunuvidagi muassasalarda xarajatlar smetasini rejalashtirish va uning ijrosi, budjet hisobining yuritilishi, tender (tanlov) savdolarining o'tkazilishi va shartnomalar tuzilishi ustidan monitoring qilish;
- bo'ysunuvidagi muassasalar va markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari rahbarlariga budjet hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish, asossiz debitor va kreditor qarzdorliklarga yo'l qo'ymaslik, budjet intizomini mustahkamlash, budjet mablag'laridan foydalanish, shu jumladan tovarlar, ish va xizmatlarni xarid qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining xodimlari tarkibini mustahkamlash masalalari bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;
- qonunni buzish holatlarini, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida quyi muassasalarga bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish.

O'zbekiston Respublikasida budjet tashkilotini ichki audit xizmati o'z faoliyati va vazifalarini takomillashtirish doirasida quyidagi funktsiyalarni bajarishi lozim, chunki mamlakatimizda moliyaviy nazoratni takomillashtirish jarayonida ichki audit xizmatini shakllantirish asosiy zaruriyatga aylanmoqda:

- ichki nazorat tizimi (davlat funktsiyasini bajarish bo'yicha budjet tashkiloti rahbariyati va xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar natijasi va davlat xizmatini taqdim qilish, ishonchli hisobotlar bilan ta'minlash va qonunchilik hamda boshqa normativ – xuquqiy hujjatlar va reglamentlarga rioya qilish) ni baholash, aniqlangan kamchiliklarni bartafar etish bo'yicha tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish;
- faoliyatning samaradorligini baholash, budjet-smeta intizomiga rioya qilish bo'yicha asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish va taqdim etish;
- moliyaviy hisobotdagi axborotlarning ishonchliligini ta'minlash bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqish;
- har yili tasdiqlanadigan rejaga muvofiq tegishli tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan ichki auditni amalga oshirish;
- davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijalariga ko'ra aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uning bajarilishini nazorat qilish;
- tuziladigan xo'jalik shartnomalarini qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazish;

- buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda buxgalteriya va reja-moliya bo'limlariga metodik yordam berish, ularga moliya, budjet-soliq qonunlari hamda boshqa qonun hujjatlari masalalari bo'yicha maslahatlar berish;
- me'yoriy hujjatlar va ichki nizomlar, hisobot bo'yicha qoidalar, shartnoma majburiyatlari, hisob - kitob – to'lov intizomiga amal qilishini, budjet bilan va budjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish, birlamchi hisob hujjatlarini rasmiylashtirish tartibiga amal qilinishi va aniqlangan xato hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qarorlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish va boshqalar.

Auditning turli usullaridan foydalanib hisobotning to'g'ri tuzilganligini, ma'lumotlar ishonchliligini, budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha rejaning bajarilishi va kassa xarajatlarini solishtirib, nazorat qilinadi. Smeta xarajatlarini bajarilishini tekshirishda tuzilgan smetaga, asosan, har oyda, har chorakda mablag'larni reja bo'yicha ishlatilishini, budjet mablag'larini belgilangan rejaga, asosan, budjetdan tashqari mablag'larni ko'zda tutilmagan xarajatlar yuz bergan bo'lsa asoslari keltirilganligini o'rganiladi va tahlil qilinadi. O'rganilgan ma'lumotlarni jamlab umumiy xulosa tayyorlaydi. Tahlil qilish jarayonida tashkilotning barqarorlik, samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beradi. Ichki audit tashkilotning doimiy vazifalarini, yuzaga kelgan noaniqliklarda to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishni, tashkilot rivojlanishida iqtisodiy potentsialini o'zgartirishda, tashkilot ko'rsatkichlari va risklarining harakati samaradorligini ta'minlaydi.

Ichki auditorlik faoliyatini kompyuter texnalogiyalari asosida tashkil etish faqatgina mablag' va vaqtnigina tejamasdan, qo'lda olinishi qiyin bo'lgan axborotlarni ham operativ olshiga yordam beradi. Bu axborotlar asosan xo'jalik yurituvchi sub'ektning butun strategiyasini, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yaxshilash yo'llarini aniqlashga taalluqlidir. Kompyuterning hisoblash quvvatidan foydalanish natijasida o'tgan hisobot davri ma'lumotlari asosida hisobot davrida xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati qanday yo'l tutishi lozim, hamda hisobot davridan keyingi davrda raxbariyat qanday yo'l tutishi lozimligi xaqida aytib berish mumkin.

Elektron hisoblash mashinalari hozirgi vaqtda hisob-kitob ishlarini amalga oshirishda qo'llanishi bilan birga hisob ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, jamlama va tahliliy hisob registrlarini tuzish, hisobot shakllarini to'ldirish, ichki audit ishchi xujjatlarini yuritish, ichki audit xulosalari va hisobotlarini to'ldirish va boshqa bir qancha ishlarni bajarishda keng qo'llanilmoqda. Amaliyotda komp'yuterlardan keng foydalanish buxgalteriya hisobi va ichki auditni tashkil qilishning yangi usullarini vujudga keltiradi.

Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari belgilab berish hamda ichki audit xizmati xodimlariga qo'yiladigan malakaviy talablar, ularni kasbiy tayyorlash, malakasini oshirish va sertifikatlash tartibini joriy etish

natijasida O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan budjet tashkilotlarining moliyaviy barqaqorligini ta’minlash, budjet mablag’lari samaradorligini oshirish hamda moliyaviy xuquqbuzarliklar va o’g’irliklarni kamaytirish borasida amaliy natijalarga erishamiz deb hisoblaymiz.

Shuningdek, bildirilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi davlat moliyasini isloh etish jarayonida davlat sektorida ichki audit tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii, “Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi professori., DSc.
Yuldashev Bilolxon Saminjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv samaradorligini oshirishda ichki audit tizimining ahamiyati keskin ortib bormoqda. Globalizatsiya jarayonlari, xalqaro moliyaviy integratsiyaning chuqurlashuvi hamda raqobat muhitining kuchayishi tashkilotlarda ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ichki audit tizimi korxonaning strategik maqsadlariga erishishda muhim vosita sifatida nafaqat moliyaviy nazoratni amalga oshiradi, balki risklarni boshqarish, boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash va operatsion samaradorlikni oshirishda ham faol ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan, ichki auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish va rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Ichki audit — bu tashkilot faoliyatini mustaqil va xolisona baholashga qaratilgan tizimli jarayon bo‘lib, uning asosiy maqsadi tashkilotda risklarni boshqarish, ichki nazorat va korporativ boshqaruv tizimlarining samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Ilmiy adabiyotlarda ichki auditga turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, ayrim olimlar ichki auditni nazorat mexanizmi sifatida talqin etsa, boshqalar uni boshqaruv samaradorligini oshiruvchi strategik vosita sifatida baholaydilar.

Ichki auditning iqtisodiy mohiyati quyidagi funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi:

- nazorat funksiyasi (moliyaviy va operatsion jarayonlarni tekshirish)
- tahliliy funksiya (ma’lumotlarni chuqur o‘rganish va xulosalar chiqarish)
- maslahat berish funksiyasi (boshqaruvga tavsiyalar berish)
- risklarni boshqarish funksiyasi

Amaliy jihatdan qaralganda, ichki audit korxonada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Masalan, ishlab chiqarish xarajatlarining asossiz oshib borishi ichki audit orqali aniqlanib, uni optimallashtirish bo‘yicha aniq choralar ishlab chiqiladi.

Ichki audit faoliyatini samarali tashkil etishda xalqaro standartlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu standartlar ichki audit jarayonining yagona yondashuv asosida olib borilishini, uning sifatini va ishonchliligini ta’minlaydi.



1-rasm. Xalqaro standartlarning asosiy tamoyillari

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki audit faoliyati xalqaro standartlarga asoslanmaganda, uning natijalari subyektiv bo‘lib qoladi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yetarli darajada samarali bo‘lmaydi.

Shuningdek, zamonaviy yondashuvlarda ichki audit “uchinchi himoya liniyasi” sifatida qaraladi. Bu modelda:

birinchi liniya — operatsion boshqaruv

ikkinchi liniya — risk va nazorat tizimi

uchinchi liniya — ichki audit

Bu esa ichki auditning tashkilotdagi strategik rolini yanada kuchaytiradi.

Ichki audit tizimini rivojlantirish masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xorijiy tadqiqotchilar ichki auditni tashkilotda risklarni boshqarishning ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqadilar. Ularning fikricha, zamonaviy ichki audit faqat nazorat qiluvchi emas, balki boshqaruvga qo‘shimcha qiymat yaratuvchi faoliyatdir. Ayniqsa, ichki auditning maslahat berish funksiyasi so‘nggi yillarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ba’zi olimlar ichki audit samaradorligini quyidagi omillar bilan bog‘laydilar:

- auditning mustaqilligi
- axborotga erkin kirish imkoniyati

- zamonaviy texnologiyalardan foydalanish
- yuqori malakali mutaxassislar mavjudligi

Mahalliy olimlar esa ichki auditni rivojlantirishda milliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydilar. Ularning xulosalariga ko‘ra, xalqaro tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki uni moslashtirish orqali joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ilmiy izlanishlarda ichki auditni raqamlashtirish, ya’ni audit jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish uning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi qayd etilgan.

Ilg‘or xorijiy tajriba tahlili

Rivojlangan mamlakatlarda ichki audit tizimi yuqori darajada institutsionallashgan bo‘lib, u korporativ boshqaruvning ajralmas qismi sifatida faoliyat yuritadi.

AQSh tajribasida ichki audit riskga asoslangan yondashuv asosida tashkil etiladi. Bu yerda audit faoliyati korxona strategiyasi bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, auditorlar risklarni baholash orqali ustuvor yo‘nalishlarni aniqlaydilar.

Yevropa davlatlarida ichki audit tizimi shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga asoslanadi. Bu mamlakatlarda ichki audit nafaqat nazorat funksiyasini bajaradi, balki korporativ boshqaruvni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yaponiya tajribasida esa ichki audit doimiy takomillashtirish (kaizen) falsafasiga asoslanadi. Bu yondashuv audit jarayonini uzluksiz rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Amaliy misol sifatida, rivojlangan kompaniyalarda ichki audit bo‘limi bevosita direktorlar kengashiga bo‘ysunadi. Bu esa uning mustaqilligini ta’minlab, xolis xulosa berish imkonini yaratadi.

Ichki audit tizimini samarali rivojlantirish uchun quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- xalqaro standartlarni to‘liq implementatsiya qilish
- auditorlarning malakasini muntazam oshirib borish
- audit jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish
- ichki auditning tashkiliy mustaqilligini ta’minlash
- risk-menejment tizimini integratsiyalash

Bu choralar ichki audit tizimining samaradorligini oshirish bilan birga, korxonalarda moliyaviy intizom va boshqaruv sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribani uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mening fikrimcha, O‘zbekiston sharoitida ichki auditni rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshirilishi lozim:

- ichki audit faoliyatini to‘liq standartlashtirish
- raqamli audit texnologiyalarini keng joriy etish

- auditorlarning professional salohiyatini oshirish
- audit tizimini boshqaruv jarayoniga integratsiyalash

Agar ichki audit tizimi faqat tekshiruvchi organ sifatida faoliyat yuritsa, uning samaradorligi cheklangan bo‘ladi. Uni strategik boshqaruv vositasiga aylantirish orqali korxona faoliyatining barcha yo‘nalishlarida yuqori natijalarga erishish mumkin.

МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ АСОСИДА ТОВАРЛАР АУДИТИ НАТИЖАЛАРИНИ АУДИТОРЛИК ҲИСОБОТИДА АКС ЭТТИРИШ ТАРТИБИ

Ибрагимов Мансур Мардонович

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

“Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисоби ва аудит” кафедраси доценти, и.ф.н.

Аннотация: ушбу мақолада молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудити натижаларини аудиторлик ҳисоботида акс эттириш босқичлари, аудиторлик ҳисоботини расмийлаштириш тартиби ёритилиб, товарлар аудити натижаларини аудиторлик ҳисоботида акс эттиришни такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: Товар, аудит, ҳисобот, МХХС, аудиторлик ҳисоботи.

Кириш. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида халқаро ҳисоб тизими тараққий эттирилишида бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари (БҲХС) ҳамда аудитнинг халқаро стандартлари муҳим ўрин тутади. Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари (БҲХС) ҳамда аудитнинг халқаро стандартлари мамлакатлар ўртасидаги ҳамкорликни, жумладан иқтисодий муносабатларни ривожлантириш ва инвеститсион муҳитни яхшилашда муҳим восита сифатида хизмат қилмоқда. Шу сабабли ҳозирда халқаро стандартларни эътироф этувчи ва уни ўз амалиётида қўлловчи мамлакатлар сони ошиб бормоқда. Жумладан бизнинг Республикамизда ҳам БҲХСга ўтишнинг ўзига хос йўли танланди ва халқаро стандартларга ўтиш жараёни босқичма-босқич амалга оширилмоқда. Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартларидан фойдаланишнинг энг муҳим ва бирламчи омили инвеститсион муҳитни юқори даражага олиб чиқиш ҳамда инвесторлар учун тушунарли бўлган ҳисоб тизимини ёълга қўйишдир. Инвеститсион муҳитнинг яхшиланиши мамлакатлар иқтисодий ўсишига ҳамда натижада аҳоли турмуш фаровонлигининг ошишига хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикасида Президенти томонидан 24 феврал 2020 йилда қабул қилинган ПҚ-4611-сонли ”Молиявий Ҳисоботнинг Халқаро Стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" Қарор мамлакатимизда Молиявий Ҳисоботнинг Халқаро Стандартларига ўтиш бўйича туб бурилиш ясади. Қарордан кўзланган мақсад мамлакатимиздаги корхона ва ташкилотларда

бухгалтерия ҳисобини молиявий хисоботнинг халқаро стандартларига босқичма-босқич ўтказишдир. Ушбу қарорнинг оғишмасдан амалга оширилиши хўжалик юритувчи субьектларда бухгалтерия ҳисобининг халқаро талаб ва меьёрлар асосида юритишига ҳамда натижада молиявий ҳолати тўғрисидаги маълумотларнинг очиқ ва шаффоф бўлишиги олиб келадики бу эса алал-оқибат мамлакатимизга хорижий инвестицияларнинг жалб қилинишида муҳим аҳамиятга эгадир.

Хўжалик юритувчи субектларда товар операцсиялари ҳисоби, таҳлили, аудити, солиққа тортиш масалалари республикамизда қатор олимлар, жумладан Уразов К.Б., Пардаев М.Қ, Ташназаров С.Н., Абдукаримов Б.А. , Абдуллаев Р.А. , Худайбердиев Н.У. лар томонидан тадқиқ этилган. Шунингдек, савдода аудитни такомиллаштиришда хорижлик олимлар Э.А. Аренс, Дж. К. Лоббек, Робертсон Додж Р. , Камишанов П.И. ва республикамиз олимлари Дўсмуродов Р.Д. , Мусаев Х.Н. , Санаев Н.С., Тўлаходжаева М.М. ва бошқа олимлар қаламига мансуб монография, ўқув қўлланма, дарслик ва илмий мақолалар муҳим ўрин тутади.

Бироқ, ушбу олимлар томонидан чоп этилган ишларда товар операцсиялари амалга оширувчи корхоналарда аудитнинг хусусиятлари махсус ёритилмаган. Шунингдек, ушбу субектларда ҳисоб ва ҳисобот масалалари ҳам адабиётларда, шунингдек амалда бўлган миллий стандартларда атрофлича очиб берилмаган. Булар, маълум даражада, корхоналарда аудиторлик текширувларини ўтказишда аудиторлар олдида баъзи муаммоларни туғдирмоқда

Ушбу мақолада анализ ва синтез, индукция ва дедукыия, абстракция ва бошқа усуллардан фойдаланилди.

Дунё амалиётида молиявий ҳисоботлар тадбиркорлик субектлари томонидан асосан ташқи фойдаланувчилар учун тайёрланади ва тақдим қилинади. Бундай молиявий ҳисоботлар турли давлатларда бир-бирига ўхшаш жиҳатлари бўлсада, улар ўртасида турли ижтимоий, иқтисодий ва ҳуқуқий шароитлар ҳамда ҳар бир давлатларда миллий талаблар ўрнатилганлиги учун бази бир фарқлар кузатилиши мумкин.

Аудит обекти сифатида товарларни қуйидаги турлари фарқланиши лозим.

-омбордагии товарлар;

-чакана савдодаги товарлар;

-кўргазмадаги товарлар;

-прокатдаги буюмлар;

-товарлар билан банд ва бўш идишлар;

-комиссияга берилган товарлар;

-йўлдаги товарлар;

-бошқа товарлар;

Товарларнинг ушбу турларини алоҳида бухгалтерия счетларида акс эттириш ва бу турдаги товарларни ҳар бирини алоҳида аудиторлик текширувидан ўтказиш аудиторлик рискини камайтиришга хизмат қилади.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудитининг характери, мақсади ва вазифаларидан келиб чиқиб, товарлар аудитининг натижалари турлича расмийлаштирилади. Агар, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудити махсус савол тарзида тематик аудитдан ўтказиладиган бўлса, у ҳолда унинг натижалари махсус савол бўйича тузиладиган яхлит аудиторлик ҳисоботи сифатида расмийлаштирилади. Бунда товарлар аудити натижалари алоҳида қисмларга ажратилиши мумкин.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудити қайси тарзда ўтказилишидан қатъий назар аудиторлик ҳисоботи 700-сон АХС «Молиявий ҳисоботлар тўғрисида фикр ҳосил қилиш ва ҳисобот (хулоса) бериш»га мувофиқ қуйидаги таркибий қисмлардан ташкил топади:

а) номи;

б) адресат номи;

с) кириш қисми; д)

таҳлил қисми; е)

якуний қисм.

Аудиторлик ҳисоботининг адресат (манзил) қисмида буюртмачининг номи ва бошқа барча зарур реквизитлари кўрсатилади.

Аудиторлик ҳисоботининг кириш қисмида аудиторлик ташкилотининг реквизитлари, шу жумладан аудиторлик фаолиятини амалга ошириш учун берилган лисензиянинг рақами ва санаси, аудиторлар ва аудиторлик текширувида қатнашган бошқа шахслар ҳақида маълумотлар ҳамда аудиторлик текширувини ўтказиш учун асос ва хўжалик юритувчи субект фаолиятининг умумий тавсифи кўрсатилади.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудити бўйича аудиторлик ҳисоботининг таҳлилий қисми қуйидагиларни ўз ичига олади:

- корхона маълумоти бўйича мавжуд товарлар қиймати;
- аудит текшируви бўйича товарлар қиймати ва унинг таркиби – расшифровкаси;.
- товарлар суммасининг тўғрилиги ёки унда қанча суммага кам (ёки кўп) томонга четланишлар мавжудлиги;
- товарлар суммаларида четланишлар қандай омиллар (кўрсаткичлар) эвазига юз берганлигининг баёни ва ҳоказолар.

Аудитор ўзининг ҳисоботида товарлар бўйича ҳисоб регистрлари ва ҳисобот шаклларининг бир-бирига мослигини ҳам баён қилади.

Аудиторлик ҳисоботининг якуний қисмида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудити бўйича аниқланган хато-камчиликлар ва қоида бузарликларни бартараф қилиш бўйича аудиторлик ташкилотининг тавсиялари акс эттирилади.

Аудиторлик ҳисоботида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудитига доир корхона ҳамда текширувга доир барча материаллар таҳлилий жадваллар кўринишидаги ишчи ҳужжатлар билан расмийлаштирилади. Ушбу жадваллар аудиторлик ҳисоботи матни ичида ёки унга илова тариқасида берилади. Жадваллар (иловалар)нинг барчаси ўз тартиб рақамига эга бўлиши лозим.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудитининг аудиторлик ҳисоботи камида икки нусхада тузилади, унинг ҳар бир бети ҳамда унга келтирилган иловалар аудиторлик текширувини ўтказган аудитор(лар) томонидан имзоланиши лозим.

Аудиторлик ҳисоботининг барча нусхалари буюртмачига танишиш ва унда кўрсатилган далилларнинг тўғрилигига иқрор бўлгач, имзолаш учун тақдим этилади. Буюртмачи томонидан тўлиғича тўғри деб эътироф этилган ҳамда имзоланган аудиторлик ҳисоботининг бир нусхаси аудиторлик ташкилотига қабул қилиш-топшириш далолатномаси билан бирга қайтарилади. Агар, буюртмачи аудиторлик ҳисоботида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудити бўйича ҳисоб-китоблардаги аудитор томонидан аниқланган четланишларга норозилик билдирса ҳамда тегишли исбот-далилни тақдим этса, у ҳолда аудиторлик ҳисоботига тегишли ўзгартиришлар киритилади ва тузатилган аудиторлик ҳисоботи буюртмачига қабул қилиш ва имзоланиши учун қайта топширилади.

700- сон АХСга мувофиқ аудиторлик ташкилоти тузилган аудиторлик ҳисоботи учун қонун ҳужжатларига мувофиқ жавобгар ҳисобланади. Шунингдек, аудиторлик ҳисоботидаги ахборотлар махфий ҳисобланади ва уни ошкор этиш мумкин эмас. Ушбу ахборотларга алоқадор шахслар ахборотларни ошкор қилганлиги учун қонунчиликка мувофиқ жавобгарликка тортилади.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудити бўйича аудиторлик ҳисоботида акс эттирилган хато ва камчиликларни тузатиш ҳамда тузатилган солиқ ҳисоб-китоблари ва молиявий ҳисоботларни солиқ органларига қайта топшириш жараёни аудит натижаларини тадбиқ этиш, деб эътироф этилади. Одатда, ушбу ишлар аудиторлик текширувидан кейин кўпи билан 15 кун ичида ўтказилиши керак, чунки аудиторлик текширувидан ўтган хўжалик юритувчи субект аудит текшируви ўтказилгандан сўнг 15 кун ичида аудиторлик хулосасини қонун ҳужжатларига мувофиқ тегишли органларга тақдим этиши лозим.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудити натижаларини тадбиқ этишга доир ишларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

а) аудиторлик текшируви натижаларини хўжалик юритувчи субект раҳбарияти, мулкдорлар, кузатув кенгаши аъзолари ва бошқа қизиқувчилар иштирокида муҳокама қилиш;

б) аудиторлик текширувида аниқланган хато ва камчиликларни бартараф этиш бўйича тадбирларни ишлаб чиқиш ва уларни амалга ошириш муддатларини, аниқ маъсул ходимларни белгилаш;

с) аудиторлик текширувида аниқланган камчиликларни ҳақиқатда бартараф этилганлигини назорат қилиш ва муҳокама этиш.

Аудиторлик текшируви натижаларини тадбиқ этишга хўжалик юритувчи субектлар раҳбарлари маъсул ҳисобланади. Раҳбар аудиторлик ташкилоти билан тузилган шартномага мувофиқ аниқланган хато ва камчиликлар муҳокамасини текширувни ўтказган аудиторларнинг иштирокида ўтказиши мақсадга мувофиқ. Чунки, бир томондан, аудиторлар тўплаган исбот-далиллар асосида хатоларни қай даражадалигини, кимлар томонидан йўл қўйилганлигини, уларни қандай тузатиш кераклигини мутахассис сифатида чуқурроқ биладилар. Иккинчи томондан, аудиторлар иштирокида тузатилган хато камчиликлар тузатилган молиявий ҳисоботга расмий аудиторлик хулосасини олишни тезлаштиради.

Аниқланган хато ва камчиликларни ўз вақтида тўғриланиши, солиқ декларасияларини ва молиявий ҳисобот шаклларини қонун ҳужжарига мувофиқ қайта тузилиши ҳамда тақдим этилиши аудиторларга молиявий ҳисобот бўйича ижобий хулоса беришларига асос бўлади.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида товарлар аудити натижаларини аудиторлик ҳисоботида акс эттиришимиз учун ишончли ва муҳим ахборот манбаларидан фойдаланиш аудиторлик ҳисоботининг не чоғлиқ ишончли эканлигини таминловчи муҳим омил бўлиб ҳисобланади. Ишончли ахборотларни йиғишда бухгалтерия хисобининг халқаро стандартлари ҳамда миллий ҳисоб тизимлари, соҳага оид қонунлар ва фармонлар ҳамда қонун ости ҳужжатларига қай даражада амал қилинганлигини аниқлашимиз берилаётган ахборотнинг ишончлилигини эканлигини таминловчи омиллардан бири ҳисобланади.

Умуман олганда, аудиторлик текшируви натижаларини аудиторлик ҳулосасида акс эттириш аудитниинг якунловчи қисми саналади. Текшириш натижалари умумий ҳолда ҳисоботда акс эттирилади. Аниқланган камчиликлар бўйича тушунтиришлар олиб борилади ҳамда бартараф этиш йўллари ишлаб чиқилади.

XORIJ TAJRIBALARI ASOSIDA O‘ZBEKISTONDA ICHKI AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH (XITOY, YAPONIYA VA KOREYA)

Ramazonov Akmal Samadovich,
Renassans ta’lim universiteti, Moliya va kredit kafedrasi dotsenti,
Samadova Shaxrizoda Akmal qizi
Renessans ta’lim universiteti, 49-25 ATT guruh talabasi,

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri ijtimoiy va iqtisodiy sohadagi mavjud barcha salohiyatni kompleks va tezkor yuzaga chiqarishdir. Agar ilgari ushbu maqsad faqat moliyaviy barqarorlik sifatida tushunilgan bo‘lsa, endilikda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini xalqaro iqtisodiyotda yetakchi o‘rinlarni egallagan davlatlar darajasida rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun qabul qilingan “O‘zbekiston -2030” strategiyasining asosiy g‘oyalaridan biri “Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish”dir.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ichki auditning samarali tizimi mavjud bo‘lmagan davlatlarda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada pasayadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida “risk-based internal audit” (riskka asoslangan ichki audit) tizimlari keng joriy qilingan bo‘lib, ular nafaqat moliyaviy buzilishlarni oldini olish, balki resurslardan oqilona foydalanish imkonini ham beradi. Shuningdek, Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tavsiyalarida davlat moliyasida ichki auditni mustahkamlash davlat boshqaruvida shaffoflik va samaradorlikni ta’minlashning eng muhim vositalaridan biri sifatida qayd etilgan.

Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarida ichki auditni joriy etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-sonli “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini va davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida ham o‘z aksini topgan. Ushbu qarorga binoan, mamlakatimizda budjet mablag‘laridan samarali foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratilib, budjet jarayonida shaffoflikni ta’minlash maqsadida nazoratini kuchaytirish, budjetdan moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, budjet tashkilotlarida budjet intizomiga qat’iy rioya qilinishini ta’minlash va ular bo‘ysunadigan vazirlik va idoralarning mas’uliyatini oshirish, milliy ichki audit standartlari asosida nazoratni tashkil etish masalalari amaliyotga joriy etilmoqda.

Bugungi kunda ko‘plab vazirlik va idoralarda ichki audit bo‘linmalari mavjud bo‘lsada, ularning faoliyati ko‘pincha formallik darajasida qolmoqda. Auditorlarning malaka darajasi va zamonaviy uslublardan foydalanish qobiliyati pastligi, raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilmayotgani va xalqaro standartlarga mos metodikalarning yetishmasligi tizim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot ichki auditga ham chuqur kirib keldi. Masalan, 2025-yil uchun prognoz tahlillarida sun’iy intellekt, data analytics va avtomatlashtirilgan tekshiruv vositalarining joriy etilishi natijasida ichki audit jarayonlarining umumiy davomiyligi 30–40 foizga qisqargan. Xususan XXI asrda Sharqiy Osiyo mamlakatlari – Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya va Koreya Respublikasi – ichki audit sohasida jahon yetakchilariga aylanishdi. Ular o‘zlarining an’anaviy boshqaruv madaniyati, mehnat axloqi va innovatsion yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda, milliy modellarni ishlab chiqdilar. Xitoyning markazlashtirilgan audit tizimi, Yaponiyaning “Kansayku” va “Kaizen” tizimlari va Koreyaning raqamil audit texnologiyalari dunyoda keng e’tirof etilgan. Bu tajribalarni o‘rganish va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish davlat boshqaruvining samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, O‘zbekiston ichki audit tizimini takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq: auditorlarning xalqaro sertifikatlash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazilishi; ichki audit bo‘limlarining rahbariyatdan mustaqilligini huquqiy asosda kafolatlash; zamonaviy raqamli audit texnologiyalarini joriy qilish; audit natijalarining ommaga ochiq e’lon qilinishini yo‘lga qo‘yish. Bu yondashuvlar orqali ichki audit tizimi mamlakatda nafaqat moliyaviy nazorat mexanizmi, balki ishonchli va barqaror boshqaruv vositasi sifatida rivojlanadi.

Quyidagi jadvalda turli rivojlangan davlatlar tomonidan qo‘llanilayotgan ichki audit modellarining 2018-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrdagi nisbiy samaradorlik darajalari ko‘rsatilgan. Baholash 10 ballik shkalada amalga oshirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar muayyan yilda audit modeli davlat moliyaviy nazoratida qanchalik muvaffaqiyatli ishlaganini ifodalaydi. Model nomlari ularning asosiy yondashuvlarini ko‘rsatadi: masalan, raqamli audit, mustaqillik, ochiqlik, AI texnologiyalari, fuqarolik nazorati va boshqalar.

1-jadval

Xorijiy davlatlarda ichki audit modellarining yillik samaradorlik darajasi (2018–2025)

Model	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Xitoy (markazlashtirilgan monitoring)	7	7	7	8	9	9	10	10
Yaponiya (yaxlitlashtirilgan boshqaruv auditi)	**7**	**7**	**8**	**8**	**9**	**9**	**10**	**10**
Koreya Respublikasi (raqamli nazorat va real-vaqt audit)	**7**	**8**	**8**	**9**	**9**	**10**	**10**	**10**
Kanada (hisobotlar ochiqligi)	7	8	8	9	9	10	10	10
Niderlandiya (AI asosli audit)	6	7	8	9	9	10	10	10

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda ichki audit tizimlarida raqamlashtirish, mustaqillik, sun’iy intellektdan foydalanish va ochiqlik darajasining oshishi natijasida samaradorlik muttasil ravishda yuqorilab bormoqda. Ayniqsa, Estoniya, Singapur, Kanada va Niderlandiya kabi davlatlar tomonidan joriy etilgan texnologik innovatsiyalar va huquqiy kafolatlar audit jarayonlarini 10 ballik maksimal samaradorlik darajasiga olib chiqishga imkon bergan. Bu davlatlarda real vaqt monitoring, AI tahlillari, va jamoatchilik nazorati singari vositalar orqali audit faqat nazorat vositasi emas, balki strategik boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy tizimga aylangan.

Shuningdek, Xitoy va Yaponiya tajribasi ichki auditorlar faoliyatining mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlash, audit qo‘mitalari orqali bevosita hisobot berish tizimini joriy etish orqali audit xulosalarining xolisligi va ijro etilish darajasini oshirgan. Germaniya, Avstraliya va Koreya Respublikasi esa avtomatlashtirilgan audit vositalari orqali xatoliklar aniqligini oshirib, inson omilining ta’sirini minimallashtirishga muvaffaq bo‘lgan.

Ushbu tahliliy jadval O‘zbekistonda ichki audit tizimini takomillashtirishda qaysi yo‘nalishlarga ustuvor e’tibor qaratish kerakligini aniq ko‘rsatadi. Xususan, auditorlarning kasbiy malakasini xalqaro standartlarga moslashtirish, audit bo‘limlari mustaqilligini kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, va audit natijalarining ochiqligini ta’minlash kabi chora-tadbirlar asosiy ustuvorlik bo‘lishi lozim.

Ushbu 2025-yil ma’lumotlariga asoslangan tahlil auditorlarning professional salohiyatini mustahkamlash zarurligini aniq ko‘rsatadi. Bu ichki audit sifatining

oshishiga, xulosalarning ishonchliligi va tanqidlarga chidamliligi darajasining ko‘tarilishiga xizmat qiladi.



1-rasm. 2025-yilda O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda ichki auditorlar malakasi va inson resurslari holati (foizlarda)[112]

Yuqoridagi diagramma 2025-yil holatida O‘zbekiston, Xitoy, Yaponiya va Koreyada ichki auditorlarning kasbiy malakasi va inson resurslari bilan bog‘liq holatini solishtiradi. Ko‘rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarda, xususan Yaponiyada (60%) va Koreya Respublikasida (58%) auditorlarning katta qismi xalqaro darajadagi professional sertifikatlarga ega. Bu holat ushbu mamlakatlarda ichki audit faoliyatining yuqori kasbiy standartlarga asoslanganini anglatadi.

Xitoyda esa bu ko‘rsatkich 55% ni tashkil etadi va bu ham ichki audit tizimining barqaror rivojlanayotganligini ko‘rsatadi. Qolaversa, ushbu davlatlarda yana 16–18% auditorlar sertifikat olish jarayonida bo‘lib, ularning yaqin kelajakda malakali mutaxassislarga aylanishi kutilmoqda.

O‘zbekiston bo‘yicha holat esa ancha tashvishli: professional sertifikatga ega auditorlar ulushi bor-yo‘g‘i 28% ni tashkil etmoqda, bu esa nafaqat xalqaro standartlardan orqada ekanligimizni, balki ichki audit jarayonlarining sifati va xolisligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini anglatadi. Shuningdek, mamlakatda xodim yetishmovchiligi muammosi juda keskin – bu ko‘rsatkich 45% darajasida bo‘lib, boshqa davlatlarnikiga nisbatan 2 barobar yuqori.

Bu raqamlar ichki audit sifatini oshirish uchun ikki asosiy yo‘nalishga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi:

1. Auditorlarni sertifikatlash va malaka oshirish tizimini kuchaytirish;
2. Soha imidjini oshirish orqali yosh va malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qoplash.

[112] Mualliflar tomonidan shakllantirilgan.

Shunday qilib, diagramma auditorlar sifati va yetishmovchiligi borasida O‘zbekiston hali ham sezilarli orqada qolayotganini ko‘rsatadi va ichki auditni takomillashtirishda inson kapitalini strategik ustuvorlik sifatida ko‘rib chiqish lozimligini ta’kidlaydi.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki audit faoliyatining zamonaviy va samarali yuritilishi uchun texnologik infratuzilmaning mavjudligi muhim omil sifatida qaralmoqda. Biroq 2025-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston budjet tashkilotlarining ko‘p qismida audit jarayonlari hali ham an’anaviy, ko‘p hollarda qog‘oz shaklida yoki yarim avtomatlashtirilgan usullar bilan amalga oshirilmoqda. Bu holat audit sifati, xolislik va tezkorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Халқаро методологик ёндашув ҳам айнан шу хулосани тасдиқлайди. INTOSAI’нинг ISSAI 100 стандартига кўра, аудиторлар аудитни режалаштириш жараёнида хавф таҳлили ёки муаммо таҳлилини ўтказиши ва аудит давомида олинган янги далилларга қараб уни қайта кўриб чиқиши лозим; аудит шундай режалаштирилиши керакки, аудит хавфи мақбул даражагача пасайтирилсин. ISSAI 400 эса мувофиқлик аудитда аудитор хавфларни аниқлаши, ички назорат воситаларининг қонуний талабларга риоя этилишини таъминлаш ёки муҳим номувофиқликларни аниқлашдаги имкониятларини баҳолаши, шунингдек аудит процедураларининг мазмуни, вақти ва ҳажмини ана шу хавф баҳоси асосида белгилаши шартлигини қайд этади. Демак, давлат аудитида хавф таҳлили текширув олдидан тўлдириладиган формал ҳужжат эмас, балки аудит далилларини тўплаш мантиғини белгилаб берувчи бошқарув воситасидир.

Илмий нуқтаи назардан, назорат-хавф таҳлили деганда текширилаётган объект фаолиятида қонунбузилиш, молиявий хато, мақсадсиз харажат, самарасиз бошқарув ёки ҳисоботдаги бузиб кўрсатишлар юзага келиш эҳтимоли ва уларнинг оқибатларини баҳолашга қаратилган тизимли таҳлил тушунилади. Давлат секторида бундай таҳлилни фақат молиявий кўрсаткичлар билан чеклаб бўлмайди. Чунки самарадорлик аудитида моддийлик ва аҳамият даражаси фақат пул ифодаси билан эмас, балки ижтимоий, бошқарувий ва сиёсий таъсир кўлами билан ҳам

белгиланади. INTOSAI’нинг ISSAI 300 стандартида ҳам аудит мавзусининг аҳамияти унинг таъсир миқёси, ижтимоий ва сиёсий жиҳатлари билан баҳоланиши кўрсатилган. Шу сабабли давлат аудитида хавф баҳоси “молиявий зарар миқдори” ва “жамоат манфаатига таъсир даражаси”ни биргаликда қамраб олиши лозим.

Фикримизча, давлат аудитида назорат-хавф таҳлилини амалга ошириш услубиёти олти изчил босқичга таяниши мақсадга мувофиқ. Биринчи босқич — аудит объектининг институционал тавсифини ўрганиш. Бунда ташкилотнинг функциялари, молиялаштириш манбалари, бюджет маблағлари ҳажми, асосий жараёнлари, ахборот тизимлари, аввалги аудит хулосалари ва ижро интизоми таҳлил қилинади. Бу босқич ISSAI 100 да назарда тутилган “объект табиати ва аудит мезонларини англаш” талабига мос келади. Иккинчи босқич — хавф омилларини идентификация қилиш. Амалда бундай омилларга давлат харидлари, қурилиш ва таъмирлаш ишлари, иш ҳақи ва устамалар, субсидиялар, дебитор ва кредитор қарздорлик, асосий воситалар ҳаракати, бюджет дастурлари индикаторлари ижроси, рақамли маълумотлар ишончлилиги, шунингдек аввал аниқланган камчиликларнинг такрорланиши киради. Миллий қўлланмада хавф омилларини белгилашда объектнинг молиявий фаолиятида хавфларнинг юзага келишига таъсир этувчи омиллар ҳисобга олиниши, жумладан кредитор қарздорлик ҳажмининг ўсиши каби кўрсаткичлар ҳам эътиборга олиниши белгиланган.

Учинчи босқич — ички назорат муҳитини баҳолаш. Бу ерда ваколатларни ажратиш, рухсат бериш тартиби, икки босқичли текширув, ҳужжат айланмаси, ахборот тизимидаги электрон излар, ички аудит тавсияларининг ижроси, манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш ва раҳбарият назорати каби омиллар таҳлил қилинади. ISSAI 400 аудиторга ички назорат воситалари муҳим номувофиқликларнинг олдини олиш ёки уларни аниқлашда қай даражада самарали эканини баҳолашни юклайди. Миллий қўлланмада ҳам ички аудит натижалари бўйича таклиф ва тавсиялар юзасидан чора-тадбирлар режаси тузилиши ва унинг бажарилиши доимий мониторинг қилиниши назарда тутилган. Шу боис назорат-хавф таҳлилида “назорат воситаси мавжудми?” деган саволнинг ўзи етарли эмас; асосий масала — у амалда ишлаяптими, деган саволга жавоб топишдир.

Тўртинчи босқич — хавфни баҳолаш ва даражалаш. Бу босқичда хавф эҳтимоли ва унинг оқибати ўзаро боғлиқ ҳолда баҳоланади. Миллий ички аудит қўлланмасига кўра, объектларни хавф таҳлили асосида баҳолашда камида тўртта хавф омилидан фойдаланиш ва уларни 1 дан 3 баллгача баҳолаш мумкин; бунда 3 балл энг юқори, 1 балл энг паст хавф даражасини англатади. Ушбу ёндашув давлат аудити учун ҳам мослаштирилиши мумкин: масалан, (1) маблағ ҳажми, (2) ҳуқуқий номувофиқлик эҳтимоли, (3) ички назорат заифлиги, (4) ижтимоий таъсир, (5)

аввалги тавсиялар ижроси каби омиллар бўйича интеграл балл шакллантирилади. Натижада объектлар паст, ўрта ва юқори хавф тоифаларига ажратилади.

Бешинчи босқич — хавфга асосланган аудит режасини тузиш. Миллий стандартларга мувофиқ, ички аудит йиллик режаси хавф таҳлили асосида, мавжуд вақт ва инсон ресурсларини ҳисобга олган ҳолда шакллантирилади ҳамда Ҳисоб палатаси билан келишилади. Шунингдек, намунавий низомда “юқори” хавф даражасига эга объектларни йиллик режадан чиқариб ташлашга йўл қўйилмаслиги алоҳида белгилаб қўйилган. Бундан келиб чиқадики, хавф таҳлили режалаштиришнинг ёрдамчи эмас, мажбурий ва танловни чекловчи мезонига айланган. Методик жиҳатдан бу шунга олиб келади: юқори хавфли соҳаларда аудит намунаси кенгайтирилади, қўшимча далиллар тўпланади, мутахассислар жалб қилинади ва текширув муддати оқилона даражада узайтирилади; паст хавфли соҳаларда эса таҳлилий процедуралар улуши оширилади.

Олтинчи босқич — назорат натижаларини рақамли рўйхатга олиш ва мониторинг қилиш. 2025 йилда тасдиқланган низомга мувофиқ, “Давлат аудити” дастурий комплекси назорат тадбирларини рўйхатга олиш, уларнинг натижаларини жамлаш, қайта ишлаш ва ҳисоботларни шакллантириш имконини берувчи ахборот тизими ҳисобланади. Ушбу низомга кўра, хавф таҳлили натижалари ёки қонунчиликда белгиланган мажбурий асос бўлмаса, назорат тадбири асоссиз деб баҳоланади ва режа келишилмайди; дастурда рўйхатга олинмаган назорат тадбирлари эса ноқонуний ҳисобланади. Бундан ташқари, аудиторлик ҳужжатлари ва маълумотлари белгиланган муддатда дастурга киритилиши, кўрсатма ва тавсиялар айнан шу тизим орқали юборилиши ҳамда уларнинг ижроси мониторинг қилиниши шарт. Мазкур рақамли механизм такрорий ва асоссиз текширувларни қисқартириш, тавсиялар ижросини кузатиш ва хавф картасини доимий янгилаб бориш учун муҳим асос яратади.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, давлат аудитида назорат-хавф таҳлилини амалга ошириш услубиёти уч таянч ғояга асосланиши лозим: биринчиси, профилактик ёндашув, яъни хавфни содир бўлгандан кейин эмас, балки эҳтимолий бузилиш нуқталарида аниқлаш; иккинчиси, далилга асосланган баҳолаш, яъни хавф даражасини субъектив мулоҳаза эмас, аниқ мезонлар ва балл тизими орқали белгилаш; учинчиси, рақамли мониторинг, яъни аудит натижалари ва тавсиялар ижросини ягона ахборот майдонида кузатиш. Айнан шу ёндашув давлат аудитининг аниқловчи эмас, олдини олувчи ва бошқарув қарорларига қиймат қўшувчи институтга айланишини таъминлайди.

РАЗВИТИЕ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА ГОСУДАРСТВЕННОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА

Кадирбаева Фатима Азатовна
Ташкентский государственныйэкономический университет
Кафедра: Бюджетный учет и казначейство
Магистрант: Группа/направление: ДМНА-25Р

В современных условиях развития экономики Республики Узбекистан особое значение приобретает эффективное управление государственными финансовыми ресурсами. Одним из ключевых инструментов обеспечения прозрачности, законности и результативности использования бюджетных средств является система внутреннего аудита в государственном секторе.

За годы независимости в Узбекистане были проведены масштабные реформы, направленные на укрепление экономической стабильности, развитие бюджетной системы и повышение уровня жизни населения. В рамках «Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан» особое внимание уделено обеспечению сбалансированности государственного бюджета, совершенствованию межбюджетных отношений и укреплению доходной базы местных бюджетов. Достижение этих целей невозможно без эффективного финансового контроля.

Государственный финансовый контроль представляет собой систему мероприятий по анализу и проверке финансовой деятельности бюджетных организаций с целью соблюдения бюджетного законодательства, предотвращения нарушений и повышения эффективности использования средств. Он осуществляется уполномоченными органами и направлен на выявление, устранение и предупреждение финансовых нарушений, включая коррупционные проявления.

Важнейшим элементом данной системы является внутренний аудит, который выступает как инструмент постоянного контроля внутри бюджетных организаций. Внутренний аудит представляет собой организованную систему проверки и оценки финансово-хозяйственной деятельности, направленную на обеспечение достоверности отчетности, соблюдение законодательства и повышение эффективности управления.

Основная роль внутреннего аудита заключается в обеспечении руководства организации объективной и своевременной информацией о состоянии финансовой деятельности. Это позволяет принимать обоснованные управленческие решения, своевременно выявлять недостатки и предотвращать возможные потери бюджетных средств.

Функции внутреннего аудита включают:

- проверку бухгалтерского учета и финансовой отчетности;
- контроль соблюдения законодательства и внутренних регламентов;
- оценку эффективности деятельности организации;
- анализ использования бюджетных ресурсов;
- выявление и предотвращение финансовых нарушений.

Кроме того, внутренний аудит способствует повышению финансовой дисциплины, контролю за сохранностью имущества и рациональным использованием ресурсов.

В последние годы в Узбекистане проводится активная реформа системы государственного финансового контроля. В частности, внедряются международные стандарты аудита, разработанные организацией INTOSAI, что позволяет повысить качество и прозрачность контрольных процедур. Также введены новые виды аудита, такие как:

- финансовыйаудит;
- аудит соответствия;
- аудит эффективности.

Особое значение имеет аудит эффективности, который направлен на оценку результативности и экономичности использования бюджетных средств. Он позволяет определить, насколько эффективно реализуются государственные программы и достигаются поставленные цели.

Для дальнейшего развития системы внутреннего аудита были приняты нормативные акты, регулирующие деятельность соответствующих служб в министерствах и ведомствах. В частности, утверждены требования к организации службы внутреннего аудита, ее функциям, правам и обязанностям сотрудников. Службы внутреннего аудита должны быть независимыми, обладать достаточными ресурсами и квалифицированным персоналом.

Эффективная система внутреннего аудита позволяет:

- выявлять скрытые резервы и снижать издержки;
- повышать прозрачность финансовых операций;
- снижать риски нецелевого использования средств;
- обеспечивать контроль за реализацией государственных программ.

Вместе с тем существуют определенные проблемы, связанные с развитием внутреннего аудита, такие как недостаточный уровень автоматизации, влияние человеческого фактора и сложность оценки эффективности государственных расходов, особенно в социальной сфере.

Стремясь к повышению стандартов управления и подотчетности, Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев утвердил Указ № УП–252 от 18 декабря 2025 года. Этот документ закладывает основу для более прозрачного, эффективного и цифровизированного государственного аудита и финансового контроля.

В целом, развитие внутреннего аудита в государственном секторе Узбекистана является важным направлением совершенствования системы управления государственными финансами. Его дальнейшее развитие, внедрение современных методов и технологий, а также повышение квалификации специалистов будут способствовать повышению эффективности бюджетной системы и устойчивому развитию экономики страны.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА И ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ

Н.В.Юлдашева

Доцент кафедры «Бюджетный учёт и казначейство» Ташкенсткого государственного экономического университета

В условиях ускоренной цифровизации экономики и последовательной реализации институциональных реформ в Республике Узбекистан особую актуальность приобретает трансформация системы государственного финансового контроля и внутреннего аудита. Как представляется, эффективность функционирования системы управления государственными финансами в современных условиях определяется не только качеством бюджетного планирования и исполнения, но и степенью внедрения цифровых технологий, обеспечивающих прозрачность, подотчетность и результативность контрольной деятельности. В этой связи следует подчеркнуть, что проводимые в стране реформы ориентированы на формирование новой модели государственного финансового контроля, основанной на интеграции информационных систем, автоматизации процессов и использовании аналитических инструментов.

В частности, в рамках реализуемой государственной политики особое внимание уделяется цифровизации бюджетного процесса, развитию электронных платформ и совершенствованию механизмов контроля за использованием бюджетных средств. Как неоднократно подчеркивал Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев, обеспечение строгой бюджетной дисциплины, прозрачности и эффективности использования государственных ресурсов является ключевым приоритетом государственного управления[115]. Данное положение, по существу, задаёт стратегический вектор трансформации системы государственного финансового контроля и внутреннего аудита, предполагая переход от традиционных форм проверки к современным цифровым механизмам мониторинга и анализа.

[115] Мирзиёев Ш.М. Выступления и обращения по вопросам повышения эффективности государственного управления и финансовой дисциплины. – URL: https://president.uz

Следует отметить, что в научной и международной практике цифровизация государственного финансового контроля рассматривается как закономерный этап эволюции системы государственных финансов. В частности, в докладах OECD подчеркивается, что внедрение технологий искусственного интеллекта и анализа больших данных способствует повышению эффективности государственного управления за счёт автоматизации процессов, улучшения качества аналитических решений и выявления аномалий в финансовых операциях[116]. Аналогичным образом, в материалах INTOSAI отмечается, что высшие органы финансового контроля переходят к использованию цифровых платформ и инструментов аналитики в режиме реального времени, что позволяет существенно повысить качество аудита и уровень подотчетности государственных институтов[117]. Таким образом, цифровая трансформация выступает не просто инструментом модернизации, а качественно новым этапом развития системы государственного финансового контроля.

Вместе с тем, статистические данные международных исследований подтверждают эффективность цифровой трансформации в сфере публичных финансов. Так, по оценкам OECD, внедрение цифровых технологий в государственном секторе позволяет сократить административные издержки в среднем на 20–30%, а также повысить эффективность контрольных процедур за счёт автоматизации обработки данных и снижения влияния человеческого фактора. Более того, согласно аналитическим материалам Всемирного банка, применение инструментов анализа больших данных и искусственного интеллекта в сфере государственного финансового управления способствует увеличению выявляемости финансовых нарушений и аномалий до 25–40%, особенно в сфере государственных закупок и управления бюджетными расходами. В свою очередь, исследования INTOSAI свидетельствуют о том, что использование цифровых платформ и технологий дистанционного аудита позволяет сократить сроки проведения контрольных мероприятий в среднем на 15–25%, одновременно повышая точность и полноту аудиторских выводов.

Анализ современного состояния системы государственного финансового контроля в Республике Узбекистан позволяет констатировать, что в последние годы достигнуты значительные результаты в области цифровизации. В частности, внедрены и активно развиваются такие программные продукты, как информационная система «Государственный аудит», обеспечивающая централизованный учет, планирование и мониторинг контрольных мероприятий, а также инструменты дистанционного аудита, позволяющие осуществлять контроль без непосредственного вмешательства в деятельность проверяемых организаций.

[116] OECD. Governing with Artificial Intelligence: AI in Public Financial Management. – 2025.
[117] INTOSAI. Harnessing Real-Time Analytics for Public Accountability. – 2024.

Кроме того, важную роль в обеспечении прозрачности и эффективности бюджетных операций играют цифровые платформы бюджетного учета и исполнения, формирующие единую информационную среду управления государственными финансами. В частности, в Республике Узбекистан функционирует комплекс автоматизированных информационных систем, включая систему казначейского исполнения бюджета, реализуемую через интегрированные модули учета и контроля операций, а также программный комплекс UzASBO (Узбекская автоматизированная система бюджетного учета), обеспечивающий ведение бухгалтерского учета бюджетных организаций в электронном формате. Существенное значение имеет и система ДМБАТ(ИСУГФ) (Информационная система управления государственными финансами), предназначенная для обработки, анализа и мониторинга бюджетных данных.

Наряду с этим, активно применяется портал государственных закупок xarid.uzex.uz, который обеспечивает прозрачность закупочных процедур, автоматизацию тендерных процессов и контроль за исполнением контрактов. Дополнительно функционируют системы электронного документооборота, интегрированные с бюджетными и контрольными платформами, что позволяет обеспечить оперативный обмен информацией между государственными органами и повысить уровень подотчетности. Особое место занимает программный комплекс «Государственный аудит», предназначенный для централизованного учета, планирования и мониторинга контрольных мероприятий, включая внедрение механизмов дистанционного аудита и аналитической обработки данных.

Вместе с тем, несмотря на достигнутые результаты, следует отметить, что уровень цифровой зрелости системы государственного финансового контроля остается неоднородным. Как показывает практика, сохраняются отдельные институциональные и технологические ограничения, связанные с недостаточной интеграцией информационных систем, ограниченным использованием аналитических инструментов и недостаточным развитием риск-ориентированного подхода. Более того, статистические данные свидетельствуют о наличии значительного потенциала для повышения эффективности контроля. Так, по данным Счётной палаты Республики Узбекистан и Министерства экономики и финансов, в 2023–2025 годах объем выявленных финансовых нарушений по результатам контрольных мероприятий составлял в среднем более 3–5 трлн сум ежегодно, при этом около 60–70% нарушений выявляется на стадии последующего контроля, что указывает на недостаточную эффективность превентивных механизмов и необходимость усиления предварительного и текущего контроля.[118]

[118]Данные представлены на основе анализа официальных сайтов

В данном контексте особую значимость приобретает развитие IT-аудита и внедрение технологий искусственного интеллекта. Следует подчеркнуть, что IT-аудит в современных условиях выступает неотъемлемым элементом системы государственного финансового контроля, обеспечивая оценку надежности информационных систем, достоверности данных и эффективности цифровых процессов. В свою очередь, применение искусственного интеллекта позволяет существенно расширить аналитические возможности контроля, включая выявление скрытых закономерностей, прогнозирование рисков и автоматизацию обработки больших объемов данных. Как представляется, интеграция данных технологий создает предпосылки для перехода к проактивной модели контроля, ориентированной на предупреждение нарушений, а не их последующее выявление.

Однако, несмотря на очевидные преимущества, цифровая трансформация государственного финансового контроля сопряжена с рядом рисков и ограничений. Прежде всего, следует отметить недостаточный уровень развития цифровой инфраструктуры и дефицит квалифицированных кадров, обладающих компетенциями в области IT-аудита и анализа данных. Кроме того, особую актуальность приобретают риски, связанные с использованием искусственного интеллекта, включая вопросы прозрачности алгоритмов, защиты данных и обеспечения кибербезопасности. В этой связи представляется необходимым формирование сбалансированного подхода к цифровизации, учитывающего как технологические возможности, так и потенциальные угрозы.

Учитывая вышеизложенное, представляется обоснованным выделить ключевые направления совершенствования системы государственного финансового контроля и внутреннего аудита. Прежде всего, необходимо обеспечить дальнейшую интеграцию информационных систем и создание единой цифровой платформы управления государственными финансами. Наряду с этим следует активизировать внедрение риск-ориентированного подхода, предполагающего концентрацию контрольных мероприятий на наиболее уязвимых участках бюджетного процесса. Кроме того, важным направлением является развитие IT-аудита, включая совершенствование методологии, повышение квалификации специалистов и внедрение международных стандартов. Особое внимание следует уделить внедрению технологий искусственного интеллекта, ориентированных на автоматизацию анализа данных, выявление рисков и поддержку управленческих решений, при одновременном обеспечении прозрачности и надежности данных процессов.

Таким образом, обобщая изложенное, следует отметить, что цифровая трансформация внутреннего аудита и государственного финансового контроля представляет собой стратегическое направление развития системы управления государственными финансами. Как представляется, реализация комплексного

подхода, включающего цифровизацию, развитие IT-аудита и внедрение искусственного интеллекта, позволит сформировать современную, адаптивную и эффективную систему контроля, ориентированную на предупреждение рисков и повышение результативности бюджетных расходов. В конечном итоге это будет способствовать укреплению бюджетной дисциплины, повышению прозрачности государственных финансов и обеспечению устойчивого социально-экономического развития Республики Узбекистан.

O‘ZBEKISTON ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG‘OR TAJRIBA

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
«Budjet hisobi va g‘aznachilik» kafedrasi PhD., katta o`qituvchisi
Nishonxo’djaev Bekzod Baxodir o‘g‘li
Toshent davlat iqtisodiyot universiteti Magistranti

Anotatsiya: Ushbu tezisda davlat sektorida ichki audit tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajriba tahlil qilinadi hamda O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy ichki audit tizimi nafaqat moliyaviy nazorat vositasi, balki davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik instrument sifatida tavsiflanadi. Xalqaro tajriba tahlili O‘zbekistondagi ichki audit tizimining rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash va zamonaviy talablar asosida tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: ichki audit, xalqaro standartlar, INTOSAI, riskga asoslangan audit, samaradorlik auditi, Davlat auditi, davlat moliyaviy nazorati.

Zamonaviy davlat moliyasini boshqarish tizimida ichki audit davlat mablag‘laridan samarali foydalanish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashda muhim institutlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda jahon amaliyotida ichki audit tizimi an’anaviy nazorat funksiyasidan chiqib, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv vositasiga aylangan. Ayniqsa, davlat budjeti mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va moliyaviy xavflarni kamaytirish sharoitida ichki audit tizimini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro amaliyotda ichki audit tizimini rivojlantirish asosan Oliy audit organlarining xalqaro tashkiloti, Ichki auditorlar instituti hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan standartlar va tavsiyalar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologik asoslar ichki audit tizimini tashkil etish, uni samarali yuritish hamda davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

INTOSAI tomonidan ishlab chiqilgan IFPP tizimi davlat sektorida audit faoliyatining asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Ushbu tizim tarkibiga INTOSAI tamoyillari, ISSAI standartlari hamda amaliy qo‘llanmalar kiradi. Xususan, ISSAI 100 standartida auditning asosiy prinsiplari sifatida shaffoflik, hisobdorlik hamda “3E” –ya’ni tejamkorlik, samaradorlik va natijadorlik tamoyillari belgilangan.

Institute of Internal Auditors tomonidan ishlab chiqilgan IPPF (International Professional Practices Framework) esa ichki audit faoliyatining professional standartlarini belgilaydi. Mazkur tizim etika kodeksi, mustaqillik prinsiplari, riskga asoslangan audit yondashuvi hamda auditning qo‘shimcha qiymat yaratish funksiyalarini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy yondashuvga ko‘ra, ichki audit nafaqat kamchiliklarni aniqlashi, balki tashkilot faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar berishi ham lozim.

OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ichki audit tizimini rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, samarali ichki audit tizimi bir qator asosiy prinsiplarga asoslanadi.

Birinchidan, audit tizimining mustaqilligi ta’minlanishi zarur. Ichki auditorlar boshqaruvning operatsion faoliyatidan mustaqil bo‘lishi, bevosita yuqori rahbariyatga hisobot berishi lozim.

Ikkinchidan, zamonaviy audit tizimi riskga asoslangan yondashuvga tayanadi. Bu esa audit resurslarini eng yuqori xavf mavjud bo‘lgan sohalarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Uchinchidan, audit qamrovi keng bo‘lishi, ya’ni barcha budjet tashkilotlari audit nazorati bilan qamrab olinishi zarur. To‘rtinchidan, ichki va tashqi audit o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi ushbu prinsiplarning amalda qanday ishlashini yaqqol namoyon etadi. Masalan, Finlyandiyada ichki audit tizimi markazlashgan holda boshqariladi va Moliya vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Bu esa audit faoliyatining yagona metodologiya asosida yuritilishini ta’minlaydi. Niderlandiya va Irlandiya kabi davlatlarda esa ichki audit tizimi to‘liq qamrovga ega bo‘lib, barcha davlat tashkilotlari muntazam auditdan o‘tkaziladi. Natijada ushbu mamlakatlarda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi yuqori darajada ta’minlangan. Turkiya va Meksika tajribasi esa huquqiy baza va amaliyot uyg‘unligi muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu davlatlarda ichki audit tizimi nafaqat normativ jihatdan, balki amalda ham to‘liq ishlaydi, bu esa budjet intizomi va shaffoflikning oshishiga olib kelgan.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba ichki audit tizimlarining rivojlanish darajasi davlatlar kesimida sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlarda ichki audit tizimi yuqori darajada shakllangan bo‘lsa, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu tizim hali ham boshlang‘ich yoki o‘rta darajada qolmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida institutsional mustaqillikning yetarli emasligi, malakali

auditorlar yetishmasligi hamda riskga asoslangan yondashuvning yetarli darajada joriy etilmaganligi ko‘rsatiladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ichki audit tizimini rivojlantirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Budjet kodeksi, Prezident qarorlari hamda Moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan me’yoriy hujjatlar asosida davlat organlarida ichki audit xizmatlari tashkil etildi. Shu bilan birga, amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ichki audit faoliyati hanuz asosan qonuniylikni tekshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, riskga asoslangan yondashuv, audit qamrovi, raqamlashtirish va samaradorlik auditi yetarli darajada rivojlanmagan (1-jadval).

Mazkur muammolarni bartaraf etishda O‘zbekistonda joriy etilgan “Davlat auditi” dasturiy kompleksi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi jadvalda keltirilganidek, tizimning raqamli funksiyalari audit jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish va shaffoflikni ta’minlash imkonini bermoqda. Jamoatchilik ishtiroki mexanizmlari esa fuqarolarning audit jarayonlariga jalb etilishini kuchaytirib, audit samaradorligini oshirmoqda. Bu esa ichki auditni xalqaro amaliyotga mos ravishda jamoatchilik asosidagi va ochiq tizimga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Shu munosabat bilan, ichki audit tizimini yanada rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajribani moslashtirish muhim hisoblanadi. Avvalo, institutsional mustaqillikni kuchaytirish zarur, ya’ni auditorlar bevosita yuqori rahbariyatga bo‘ysunishi va operatsion faoliyatdan mustaqil bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, auditni to‘liq riskga asoslangan tizimga o‘tkazish, risk matritsalari va baholash metodologiyalarini keng qo‘llash talab etiladi. Uchinchidan, barcha byudjet tashkilotlarini audit qamroviga olish orqali tizimning to‘liqligini ta’minlash zarur. To‘rtinchidan, “Davlat auditi” platformasi imkoniyatlaridan kelib chiqib, audit jarayonlarini chuqur raqamlashtirish, ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilish hamda real vaqt monitoringi va data analytics tizimlarini keng joriy etish muhimdir. Beshinchidan, auditorlar malakasini oshirish va xalqaro sertifikatsiya tizimlarini keng joriy etish orqali professional salohiyatni kuchaytirish lozim.

1-jadval

Ichki audit tizimini rivojlantirishda ‘Davlat auditi’ platformasining funksional imkoniyatlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari[119]

Yo‘nalish	Asosiy elementlar	Amaliy natijalar	Ahamiyati
Raqamli funksiyalar	Filtrlash tizimi (hudud, tuman, tashkilot), real vaqt yangilanishi, audit holatini ko‘rsatish	Foydalanuvchilarga qulayinterfeys, tezkor axborot olish	Shaffoflik va ochiqlikni ta’minlaydi

[119] Muallif tomonidan tuzildi.

Jamoatchilik ishtiroki	Fuqarolar tomonidan ovoz berish va baholash mexanizmi	Auditlar ulushi 22% → 47% ga oshgan	Fuqarolik nazoratini kuchaytiradi
Baholash tizimi	5 ballik tizim (rag‘bat va intizomiy choralar)	Xodimlar motivatsiyasioshgan	Natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvni ta’minlaydi
Davlat boshqaruvi transformatsiyasi	Hisobot beruvchanlik va ochiqlikning oshishi	Reyting 4,3 → 4,6 ga ko‘tarilgan	Javobgarlik mexanizmini kuchaytiradi
Institutsional ta’sir	Yagona platforma (davlataudit.uz), organlar integratsiyasi	Nazorat tizimi markazlashganva samarali bo‘lgan	Tizimli boshqaruvni rivojlantiradi
Ijtimoiy ta’sir	Fuqarolar ishtiroki, ochiq ma’lumotlar	Ishonchva faollik oshgan	“Davlat–jamiyat” aloqasi mustahkamlanadi
Iqtisodiy ta’sir	Mablag‘lardan samarali foydalanish	Tejamkorlik 12–15% ga oshgan	Byudjet samaradorligini oshiradi
Kelajak yo‘nalishlari	Sun’iy intellekt, blokcheyn, raqamli identifikatsiya	Auditni avtomatlashtirish va xavflarnioldindan aniqlash	“Auditing 4.0” modeliga o‘tish

Bundan tashqari, ichki audit tizimini rivojlantirishda samaradorlik auditini keng qo‘llash alohida ahamiyatga ega. Bu yondashuv nafaqat qonuniylikni tekshirish, balki davlat mablag‘laridan foydalanishning natijadorligi va boshqaruv samaradorligini baholash imkonini beradi. Natijada audit tizimi strategik boshqaruv vositasiga aylanadi.

Xalqaro tajriba, xususan OECD tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, asosiy e’tibor standartlarni ishlab chiqishga emas, balki ularni amaliyotga samarali joriy etishga qaratilishi lozim. Shu jihatdan, O‘zbekistonda ham mavjud normativ bazani amaliy mexanizmlar, jumladan raqamli platformalar orqali to‘liq ishlashini ta’minlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi jadvalda aks etgan raqamlashtirish, jamoatchilik ishtiroki, institutsional integratsiya va samaradorlik ko‘rsatkichlari ichki audit tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu islohotlar izchil amalga oshirilganda davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi oshadi, byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan nazorat kuchayadi, korrupsiya xavfi kamayadi hamda davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlik yangi bosqichga ko‘tariladi.

Xulosa qilib aytaigan bo`lsak, O‘zbekistonda ichki audit tizimi so‘nggi yillarda rivojlangan bo‘lsa-da, hozirgi kunda u asosan qonuniylik tekshiruviga yo‘naltirilgan va riskga asoslangan audit, raqamlashtirish hamda samaradorlik auditi sohalarida kamchiliklar mavjud. “Davlat auditi” dasturiy kompleksi audit jarayonlarini raqamlashtirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va nazorat samaradorligini oshirish imkonini berdi. Ichki audit tizimini takomillashtirish uchun asosiy takliflar quyidagilardan iborat.

1. Auditorlarning institutsional mustaqilligini kuchaytirish va bevosita yuqori rahbariyatga hisobot berishini ta’minlash.
2. Riskga asoslangan audit tizimini kengaytirish va barcha byudjet tashkilotlarini qamrab olish.
3. Samaradorlik auditini rivojlantirish va boshqaruv tizimi natijadorligini oshirish.
4. Raqamlashtirish va data analytics orqali real vaqt monitoringi tizimlarini joriy etish.
5. Auditorlarning malakasini oshirish va xalqaro sertifikatlar orqali professional tayyorgarlikni kuchaytirish.

Ushbu islohotlar amalga oshirilsa, ichki audit tizimi samarali, shaffof va strategik boshqaruv instrumentiga aylanadi, davlat moliyaviy nazorati kuchayadi va budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi oshadi.

СТРАНЫ И РЕГИОНЫ В МИРОВОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Абдуллаева Мохинур
Студентка 1-курса 9-25
Кафедра экономики и социально –гуманитарных дисциплин
АФ НИТУ МИСИС

Современное мировое хозяйство представляет собой сложную систему взаимодействия национальных экономик, объединёных международными экономическими связями. В условиях глобализации государтва все теснее интегрируются в мировую экономическую систему ,что усиливает взаимозависимость сьран и регионов. Именно поэтому изучение роли отделбных государств и региональных объединении в мировой экономике имеет большое значение для понимания современных экономических процессов.

Развитие мирового хозяйства характеризуется неравномерностью разные страны обладают различным уровнем экономического развития, природнымиресурсами, технологическими возможностями и человеческим капиталом. В результате формируется определённая структура мировой экономики, где одни государства выступают в качестве лидеров инноваций и финансовых центров, а другие специализируются на производстве сырья или

трудоёмкой продукции.значительную роль в этой системеиграют экономически развитые регионы, такие как Северная Америка ,Западная Европа и Восточная Азия, которые формируют основные направления мировой торговли,инвестиций и научно-технического прогресса.

Одновременно возрастает значение региональной экономической интеграции.создание международных объединений и экономических союзов способствует укреплениюторговых связей, развитию совместных проектов и повышению конкурентоспособности стран на мировом рынке. Такие процессы позволяют государствам более эффективно использовать участие в глобальном разделении труда.

Таким образом , страны и регионы занимают различное место в системе мирового хозяйства,однако именно их взаимодействие формирует современную структуру мировой экономики . Дальнейшее развитие международного сотрудничества , расширение экономических связей ивнедрение инноваций будут играть ключевую роль в формировании устойчивого и сбалансированного развития мировой экономической системы.

JIT И УПРОЩЕННЫЙ АНАЛИЗ ЗАТРАТ В УПРАВЛЕНЧЕСКОМ УЧЕТЕ

Ражабов Зокир

Аннотация : Настоящая глава исследует взаимосвязь между концепцией Just-in-Time (JIT) и эволюцией упрощенных методов анализа затрат в управленческом учете. Рассматривается, как принципы JIT, направленные на минимизацию запасов и отходов, создают предпосылки для пересмотра традиционных подходов к учету затрат. В работе анализируются ключевые преимущества и вызовы внедрения JIT, а также его влияние на принятие управленческих решений и оценку эффективности. Особое внимание уделяется тому, как операционная простота, присущая JIT, может способствовать упрощению систем учета затрат, с учетом как теоретических оснований, так и практических соображений.

Ключевые слова: Управленческий учет, Just-in-Time (JIT), анализ затрат, бережливое производство, управление запасами, упрощение учета, эффективность

В условиях возрастающей конкуренции и динамичности рынков компании по всему миру стремятся к повышению операционной эффективности и сокращению издержек. Одним из наиболее влиятельных подходов, направленных на достижение этих целей, является концепция Just-in-Time (JIT), или «точно в срок». JIT, зародившаяся в производственной системе Toyota, представляет собой философию бережливого производства, ориентированную на минимизацию всех

видов отходов, включая избыточные запасы, и оптимизацию потока создания ценности [1, 4].

Концепция Just-in-Time (JIT) является краеугольным камнем бережливого производства (Lean Manufacturing) и направлена на минимизацию отходов и максимизацию эффективности за счет сокращения запасов и оптимизации производственных процессов [1]. Ее основные принципы включают снижение отходов, улучшение эффективности, повышение качества, увеличение гибкости и оптимизацию использования ресурсов. Успешная реализация JIT зависит от прочных партнерских отношений с поставщиками, использования вытягивающих систем (pull systems) и постоянного совершенствования (Kaizen) [1]. Исторически JIT ассоциируется с производственной системой Toyota (Toyota Production System) и системой Kanban, которая организует поток материалов и производство, строго ориентированное на спрос [2, 4].

Основными преимуществами JIT являются сокращение затрат на хранение запасов, улучшение денежного потока, повышение качества продукции, рост удовлетворенности клиентов и большая гибкость производства [1, 3]. В отличие от традиционных систем, ориентированных на страховые запасы, JIT стремится к «нулевому запасу» в соответствии с фактическим спросом [1]. С финансовой точки зрения, JIT может привести к снижению стоимости запасов в отчетности и способствовать более стабильным и предсказуемым денежным потокам [1].

Данная глава выполнена в рамках концептуально-аналитического подхода, основанного на синтезе и критической оценке существующих теоретических и эмпирических данных. Основной метод исследования — это анализ литературы (literature review), направленный на систематизацию знаний о принципах JIT и их потенциальном влиянии на системы управленческого учета затрат.

Использовались предоставленные источники, которые являются репрезентативными для концепции JIT, ее преимуществ, рисков и некоторых финансовых аспектов.

Внедрение принципов Just-in-Time существенно трансформирует операционную среду предприятия, что неминуемо отражается на управленческом учете и, в частности, на анализе затрат. Основные результаты анализа показывают, что JIT не только изменяет структуру затрат, но и способствует упрощению методов их учета и анализа.

JIT напрямую воздействует на структуру затрат, преимущественно через сокращение запасов. Как указано в [1] и [2], JIT минимизирует затраты на хранение запасов, включая расходы на складирование, страхование, устаревание и порчу. Это приводит к снижению общих накладных расходов, связанных с запасами, и, как следствие, уменьшению их доли в общей структуре себестоимости. Одновременно, система JIT-закупок, предполагающая частые и небольшие заказы,

может увеличить затраты на заказ (например, на логистику, административную обработку), что, однако, часто компенсируется экономией на хранении и улучшением денежного потока [2]. Снижение объема запасов также приводит к уменьшению стоимости запасов, отражаемой в финансовой отчетности [1], что влияет на расчет оборотного капитала и показатели ликвидности.

Основное следствие внедрения JIT для управленческого учета — это потенциальное упрощение анализа затрат. Традиционные системы учета часто перегружены необходимостью отслеживания и оценки больших объемов незавершенного производства (НЗП) и готовой продукции. В среде JIT, где запасы стремятся к нулю, а производство ориентировано на вытягивающую систему, потребность в детальном учете НЗП значительно снижается [1, 4].

Минимизация учета НЗП: Быстрый поток материалов и их немедленное потребление означают, что большая часть материалов сразу становится прямой затратой, без длительного пребывания в состоянии НЗП.

Результаты анализа показывают, что JIT не просто изменяет статьи затрат, но и фундаментально перестраивает информационные потребности управленческого учета, способствуя переходу к более упрощенным и гибким моделям анализа затрат.

В JIT-среде управленческие решения смещаются от контроля за запасами к оптимизации потоков, качества и времени выполнения заказа [1]. Упрощенный анализ затрат, фокусирующийся на прямых затратах и быстром потоке, обеспечивает более актуальную и релевантную информацию для принятия оперативных решений. Например, вместо сложного расчета стоимости единицы продукции с учетом множества накладных расходов, менеджеры могут больше внимания уделять общей пропускной способности (throughput), стоимости задержек и эффективности производственного цикла. Финансовые выгоды JIT, такие как улучшенный денежный поток и снижение затрат на хранение, становятся более прозрачными и напрямую связываются с операционными улучшениями [1, 2].Оценка эффективности также претерпевает изменения. Традиционные показатели, такие как оборачиваемость запасов, становятся менее значимыми, поскольку запасы минимизированы. Вместо этого, акцент делается на нефинансовые метрики: процент дефектов, время от заказа до поставки, надежность поставщиков, соблюдение сроков [1, 5]. Управленческий учет должен интегрировать эти нефинансовые показатели для всесторонней оценки производительности.

Внедрение концепции Just-in-Time (JIT) оказывает глубокое и многогранное влияние на управленческий учет, в особенности на анализ затрат. Основной вывод состоит в том, что операционная философия JIT, ориентированная на минимизацию запасов и отходов, способствует естественному упрощению

традиционных систем учета затрат. Это проявляется в снижении потребности в сложном учете незавершенного производства, смещении фокуса на прямые затраты и активном использовании нефинансовых показателей для оценки эффективности. JIT изменяет структуру затрат, снижая расходы на хранение запасов, но потенциально увеличивая затраты на заказ, что требует адаптации подходов к калькулированию.Упрощенный анализ затрат в JIT-среде обеспечивает более актуальную и релевантную информацию для управленческих решений, позволяя компаниям более оперативно реагировать на изменения спроса и оптимизировать производственные потоки.

СУҒУРТА КОМПАНИЯЛАРИ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

И.Ғ.Кенжаев
ТДИУ, и.ф.д., (DSc)

Дунё мамлакатларида ва халқаро муносабатларда суғурта хизматларисиз бирор фаолият амалга оширилмайди. Шу боис ривожланган мамлакатларда суғурта хизматларидан тўпланган маблағлар мамлакат ялпи ички маҳсулотининг 8-12 фоизини ташкил этмоқда. Натижада миллий суғурта бозори ривожланган мамлакатларда ушбу бозорлар халқаро суғурта бозори сифатида амал қилмоқда. Халқаро муносабатларда тўпланган суғурта мукофотлари йирик ҳажмдаги инвестиция маблағларининг тўпланишига имконият яратиб бермоқда. Бу ҳолат тобора глобал дунёга кириб бораётган мамлакатимизда ҳам суғурта соҳасини ривожланган мамлакатлар даражасига олиб чиқиш заруриятини келтириб чиқармоқда.

Суғурта компаниясининг молиявий барқарорлигини бирор-бир ягона кўрсаткич асосида белгилаш ва бунда ушбу кўрсаткичнинг бошқа кўпгина кўрсаткичлар билан боғлиқлигини эътиборга олмаслик нотўғри хулосанинг шаклланишига олиб келади. Суғурта муддатидан келиб чиққан ҳолда, суғурта компаниясининг шартнома тузилаётган пайтдаги молиявий ҳолати ёки унинг фаолиятининг истиқболдаги натижалари муҳим роль ўйнайди. Компания суғурта фаолиятини амалга ошириши учун молиявий ва инвестицион рискларга нисбатан етарли даражадаги молиявий барқарорликка эга бўлиши зарур.

Суғурта компаниясининг молиявий барқарорлиги деганда унинг нормал ва нохуш иқтисодий ҳолатларда ҳам тузилган суғурта шартномалари бўйича олинган мажбуриятларни бажара олиш имконияти тушунилади. Суғурталанувчи учун суғурта компанияси хусусий маблағлари таркибини таҳлил қилиш мақсадида унинг устав капитали миқдорини аниқлаш муҳим ҳисобланади. Чунки компания тўловга

қобиллигининг юзага келган ҳолатида унинг хусусий маблағлари суғурталанувчи олдидаги мажбуриятини бажаришда кафолат ҳисобланади.

Шунингдек устав капитали компания ташкил этилган ва фаолиятининг бошланғич даврларида, яъни ҳали суғурта мукофотлари ҳажми катта бўлмаган даврда унинг молиявий барқарорлигини таъминлашда муҳим ҳисобланади. Устав капиталининг минимал даражаси қонунчилик ҳамда таъсис ҳужжатлари асосида белгиланади. Ушбу маблағлар компания уставида белгиланган вазифаларни амалга ошириш, ҳамда суғурта заҳиралари ва суғурта тушумлари етарли бўлмаган ҳолатда суғурта қопламаларини амалга ошириш мақсадида ишлатилади.

Суғурта компаниясининг молиявий барқарорлигини таъминлашда компаниянинг суғурта портфели ҳам муҳим роль ўйнайди. Суғурта портфели маълум суғурта суммасини ўзида мужассамлаштирган, тузилган ялпи суғурта шартномаларидир. Моҳиятига кўра суғурта портфели суғурталовчининг суғурталанувчи олдидаги мажбуриятлари кўринишидир. Суғурта компаниясининг муҳим мақсадларидан бири, барқарор суғурта портфелини яратишдир. Суғурталовчи суғурта шартномалари бўйича олган жавобгарликлари даражаси унинг молиявий имкониятларига мос келиши керак. Компания ўзининг молиявий барқарорлигини таъминлаш учун, кўп сондаги ва риск даражаси ва жавобгарлик ҳажми турлича бўлган суғурта портфелига эга бўлиши зарур.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, суғурта компаниялари молиявий барқарорлигини таъминлаш юзасидан қуйидаги таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

- суғурта компанияси бир маромда фаолият кўрсатиши учун суғуртанинг ҳар бир тури бўйича эквивалентлик шарти бажарилишини таъминлаш;

- суғурта компаниясининг устав капитали, хусусий капитали, эркин активлари, суғурта заҳиралари ва суғурта портфелларини доимий таҳлил қилиб бориш;

- суғурта компаниялари молиявий барқарорлик ҳолатини рейтинг баҳолаш инструментларини жаҳон амалиётидан келиб чиққан ҳолда такомиллаштириш ва суғурта компанияларига берилган рейтинг кўрсаткичларини кенг жамоатчиликка тушунарли кўринишда эълон қилиб бориш;

- суғурта ташкилотларининг иқтисодий-молиявий фаолиятини изчил ўрганиш ва уларнинг мазкур фаолиятига баҳо бериб бориш ва бунда актуар фаолиятни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиш;

- суғурта компаниялари молиявий барқарорлигини аниқлашда чет мамлакатлар тажрибаларидан фойдаланиш ва хусусан Solvency II стандартларини жорий этиш бўйича Европа иттифоқининг аъзолари бўлган Европанинг Марказий-шарқий мамлакатлари конструктив тажрибаларини ўрганиш ва мамлакатимизга жорий этиш бўйича ишлар олиб боришдан иборат.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDITDA RAQAMLASHTIRISH, IT-AUDIT VA SUN’IY INTELLEKT

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТДА БЮДЖЕТ ЖАРАЁНИНИНГ ШАФФОФЛИГИ ВА БЮДЖЕТ МАЪЛУМОТЛАРИНИНГ ОЧИҚЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЗАРУРИЯТИ

Касимова Гуляр Ахматовна
“Бюджет ҳисоби ва ғазначилик” кафедраси профессори, иқтисод фанлари доктори

Давлат молиявий назорати тизимининг асосий стратегияси, давлатнинг фаолияти стратегияси ва манфаатларига мос бўлиши керак. Айниқса, рақамли иқтисодиётда давлатнинг фискал ва назорат механизмини сифат жиҳатидан юқори босқичга олиб чиқилиши керак. Бу борада, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “...Биз мамлакатимиз бюджет тизимини қайта кўриб чиқишимиз, бюджет даромадлари ва харажатлари халқимиз учун очиқ ва ошкора бўлишини таъминлашимиз зарур...”[120]деб, алоҳида қайд этиб ўтдилар. Шу боис солиқ-бюджет соҳасидаги шаффофликни, назоратни ва бюджет ҳисоби сифатини ошириш учун ташқи аудитдан ўтказиш фунцияларини халқаро стандартларга мувофиқлаштириш, шунингдек, бюджет маблағларини аниқ вазирлик ва идоралар кесимида тасдиқлаш орқали Парламент назоратини кучайтириш белгилаб олинди.

Мамлакатимизда иқтисодий-ижтимоий ислоҳотларни босқичма-босқич амалга оширилишида пухта ўйланган макроиқтисодий барқарорликни таъминловчи механизмни яратиш, иқтисодий ўсиш суръатини сифат жиҳатдан баҳолаш тизимини йўлга қўйиш, барча макроиқтисодий кўрсаткичларнинг ошириб бажарилишига эришиш лозим. Давлат молиявий назорати мамлакатда давлат молияси тизимини бошқаришнинг муҳим дастакларидан бири ҳисобланади. Самарали ва таъсирчан давлат молиявий назорати ижтимоий давлат ва қонун устувор жамиятнинг ажралмас қисми ҳисобланади. Давлат молиявий назорати органларининг аниқ белгилаб берилган ҳуқуқлари, мажбуриятлари ва ваколатлари кўрсатилган ягона тамойиллар, меъёрий ҳужжатлар, янги механизмлар давлат молиявий назорат тизимининг “пойдевори” ҳисобланади. Ҳар қандай назорат органи самарали фаолиятни амалга ошириши учун шаффофлик, объективлик,

[120]Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабрь. https://president.uz/uz/lists/view/5774

мустақиллик ва ҳолислик тамойиллари унинг ишлаш тамойиллари бўлиши керак. Давлат молиявий назорати тартибга солиш тизимининг ажралмас қисми ҳисобланиб, унинг ёрдамида тизим бошқарувчиси тизимнинг ҳолати тўғрисида ҳақиқий маълумотлар олинади. Ҳақиқатда амалга оширилган ишларни баҳолаш имкониятини инобатга олган ҳолда, ноқонуний оқибатлар билан боғлиқ хато ва камчиликларни аниқлаш имконини беради. Мамлакатимизда миллий иқтисодиётнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш ҳозирги вақтда долзарб ҳисобланади. Молиявий барқарорликни таъминлашда давлат молиявий назорати тизими фаолиятининг юқори самарадорлиги ҳамда молиявий рсурслардан самарали фойдаланишни таъминлаш муҳим масалалардан бири дейиш мумкин. Давлат молиясини бошқариш тизимини такомиллаштириш стратегиясининг асосий йўналишлари этиб қуйидагилар белгиланди:

солиқ-бюджет сиёсатига стратегик ёндашувни татбиқ этиш мақсадида ўрта муддатли бюджет асосларини ишлаб чиқиш ҳамда йиллик бюджетни шакллантиришнинг янги «натижага йўналтирилган бюджет» тизимини жорий этиш;

макрофискал прогнозлар ишончлилигини таъминлаш бўйича институционал салоҳиятни ва бюджет жараёни иштирокчиларининг масъулиятини ошириш;

бюджет маблағларини тақсимловчилар ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг бюджет соҳасидаги ваколатларини ва ҳисобдорлигини ошириш ҳамда уларнинг масъулиятини кучайтириш;

фискал таваккалчиликларни баҳолаш, молиявий активлар ва мажбуриятлар ҳисобини юритиш ҳамда уларни самарали бошқариш тизимини жорий этиш;

бюджет ҳисоби стандартларини унификация қилиш, ички назорат ва аудит тизимини такомиллаштириш орқали молиявий интизомни мустаҳкамлаш;

бюджет маълумотларининг шаффофлиги, очиқлиги, тўлиқлиги ва халқаро стандартларга мослигини таъминлаш;

бюджет жараёни устидан парламент ва жамоатчилик назоратини кучайтириш.

Давлат молияси маълумотларининг кенг қамровлилиги, қиёсланувчанлиги ҳамда яхлитлилиги солиқ-бюджет сиёсатини шакллантиришга стратегик ёндашувни жорий этишда, кейинчалик эса бюджет маблағларидан фойдаланишнинг самарадорлиги ва натижадорлигини баҳолашга ўтишда тўлиқ, ўз вақтида ва ишончли ахборот базасини яратишни таъминлайди. Давлат ресурсларига оид ошкора, ишончли ва кенг қамровли маълумотларнинг мавжудлигидавлат молиясини бошқариш соҳасида олиб борилаётган ислоҳотларнинг муваффақиятли амалга оширилишига хизмат қилади. Давлат молиясини бошқариш соҳасида амалга оширилган ислоҳотлар ва эришилган

натижаларга қарамасдан, соҳани янада такомиллаштиришни талаб этадиган бир қатор устувор йўналишлар мавжуд. Жумладан [121]:

бюджет интизомини таъминлаш механизмларини кучайтириш;

ўрта муддатли бюджетлаштиришда стратегик устуворликни таъминлаш;

давлат харажатлари ва инвестиция харажатлари самарадорлиги ҳамда натижадорлигини ошириш;

фискал ахборот сифати ва ҳисобдорликни янада ошириш;

давлат бюджети ғазна ижронинг самарали таъминлаш.

Давлат муҳим вазифаларни бажаришда ўзининг асосий молиявий манбаси ҳисобланган давлат бюджети маблағларига таянади. Бюджет маблағларини шакллантириш, уларни мақсадли, оқилона ва самарали сарфланишини таъминлаш ҳамда турли маҳаллий бюджетларнинг харажатлари устидан назорат қилиш зарур ҳисобланади. Сўнгги йилларда ижтимоий соҳани молиялаштириш тизимини такомиллаштириш, ижтимоий соҳага Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетидан ажратиладиган маблағлар миқдорини ошириш ва қўшимча ресурсларни жалб қилиш, ижтимоий ҳимоя дастурлари қамровини кенгайтириш ва камбағалликни камайтиришга қаратилган қўшимча механизмларни жорий этиш йўналишларида изчил ислоҳотлар амалга оширилди. Оилаларга манзилли ёрдам кўрсатиш мақсадида “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими жорий қилинди. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш стратегиясида баҳолаш ва мониторингни амалга оширишнинг қуйидаги чора-тадбирларини амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади:

a) Ижтимоий ҳимоялашда давлат молиясини бошқариш стратегияси самарадорлигини баҳолаб бориш;

b) ахборот тизимида давлат томонидан тақдим этиладиган ижтимоий ёрдам ва ижтимоий хизматлар бўйича давлат ижтимоий ҳимоясига йўналтирилган жами маблағларни тасниф бўйича Давлат бюджетида алоҳида харажатлар бўлими сифатида акс эттириш;

Давлат молиясини бошқариш тизимини янги босқичга олиб чиқиш ва бюджет интизомини янада мустаҳкамлаш, солиқ-бюджет тизимининг шаффофлигини ошириш, Давлат бюджети маблағларидан фойдаланиш самарадорлиги ва натижадорлигини ошириш, Давлат бюджетини ўрта муддатли давр учун режалаштиришнинг замонавий усулларини жорий этиш янада муҳимдир.

[121] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2025-2030 йилларда давлат молиясини бошқариш тизимини такомиллаштириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 210-сон Қарори. 2025 йил. 8 апрель.

AI-Driven PUBLIC FINANCIAL OVERSIGHT AND DIGITAL TRANSFORMATION OF INTERNAL AUDIT

Li Tingliao
Vice Dean of the International School, Nanjing Audit University, 207441@nau.edu.cn
Wan Linyu
Manager of Jiangsu SOHO Holdings Group Co., Ltd. linrainone@126.com
Sun Jielin
International School, Nanjing Audit University, 2114942058@qq.com

1. AI Development and Trends in China

The Chinese government places high importance on the development of artificial intelligence. In recent years, the policy framework has become increasingly comprehensive, forming a complete system from top-level design to concrete implementation**Ошибка! Источник ссылки не найден.**.

In August 2025, the State Council issued the "Opinions on Deepening the Implementation of the 'AI+' Action", which identifies six key areas—science and technology, industry, consumption, people's livelihoods, governance, and global cooperation—as priorities for accelerating the "AI+" action. The document also outlines efforts to strengthen foundational support in eight aspects: models, data, computing power, applications, open source, talent, policies and regulations, and security. The Opinions set phased goals: by 2027, achieve broad and deep integration of AI into the six priority areas, with the penetration rate of next-generation intelligent terminals and AI agents exceeding 70%; by 2030, the penetration rate of next-generation intelligent terminals and AI agents shall surpass 90%, and the intelligent economy will become a major growth pole for China's economic development.

In March 2026, the 15th Five-Year Plan (2026–2030) further explicitly called for fully implementing the "AI+" action to empower all sectors of the economy and society. The "Government Work Report" emphasized "creating a new form of intelligent economy, deepening and expanding 'AI+', accelerating the rollout of next-generation intelligent terminals and AI agents, and promoting commercial large-scale application of AI in key industries and sectors." The Chairman of the National Development and Reform Commission announced at the 2026 National Two Sessions that by the end of the 15th Five-Year Plan period, the scale of AI-related industries will exceed 10 trillion yuan.

2. The Current State of Public Finance Supervision in China

China's fiscal and financial supervision system is a multi-layered, three-dimensional institutional arrangement, with accounting and financial supervision as the foundational framework, audit supervision as a key pillar, and people's congress budget review and oversight as a complementary component. Together, these form the "iron triangle" of national financial and economic oversight.

At the level of audit supervision, China's audit organization system consists of three components: state audit, internal audit, and public audit. State audit refers to the audit supervision conducted by the state over public funds, state-owned assets, and public social assets. Public audit refers to audit firms that, upon client authorization, provide social attestation services. Internal audit refers to institutional arrangements within an organization for self-diagnosis, self-discipline, and self-improvement. A legally defined relationship of supervision and being supervised exists among the three: entities that fall under the audit authority's supervision by law must have their internal audit work guided and supervised by the audit authority; for entities audited by public audit firms, the audit authority has the right to verify the relevant audit reports issued by those firms.

In the field of financial supervision, the application of artificial intelligence is primarily reflected in three dimensions. First, through-the-line supervision. By leveraging big data and AI technologies to build analytical models, integrating financial data, project information, and corporate background data of the entities under review, a "panoramic" data analysis is carried out to achieve "precise profiling" of audited projects and "targeted positioning" for extended inspections. Second, intelligent early warning and risk identification. The deployment of audit supervision systems and audit software across various regions has shifted audit work from post-event to in-process and pre-event stages. Using AI technology and preset risk rule engines, multi-dimensional data can be analyzed in parallel to quickly flag anomalous features. In internal audit practice, the application of AI models has greatly improved the efficiency of data screening, analysis, and detection of potential violations. Third, intelligent oversight by people's congresses. The online financial oversight platforms established by local people's congresses have expanded their supervision scope from budget to multiple statutory areas, including planning, state-owned assets, debt, and audit rectification. The application of AI-assisted supervision has shown tangible results. For example, the Standing Committee of a municipal people's congress has deeply integrated the DeepSeek large model into its budget online supervision system, expanding into five major intelligent application scenarios—AI-powered report interpretation, intelligent review, intelligent reporting, and intelligent knowledge base—making it the first municipal people's congress in China to achieve intelligent application of a budget online supervision system.

Internal audit in China has three role definitions.（1）the "immune system" within the organization. Internal audit is a crucial means of internal control and management for a department, unit, or system. It is an institutional arrangement for self-diagnosis, self-discipline, and self-improvement within an organization, and an important part of the organization's internal management control system. Second, an important pillar of the state audit supervision system. A legally defined relationship of professional guidance and supervision exists between state audit and internal audit. Local governments are also actively exploring a "triple audit coordination" mechanism—a

collaborative oversight framework with state audit as the main body, internal audit as the support, and public audit as a complement[Ошибка! Источник ссылки не найден.]. Third, a frontier testing ground for digital transformation. Because internal audit is embedded within the organization and close to business processes, it has become the most active and innovation-intensive domain for the application of AI technologies in the audit field.

3. Digital Transformation of Internal Audit in China

Currently, internal audit in China is in a critical period of qualitative leap from digitalization to digital-intelligent transformation. The "National Report on the Digital-Intelligent Transformation of Internal Audit (2025)" comprehensively reflects the current state of this transformation in China's internal audit field, providing guidance for internal audit institutions to clearly position their stage of digital-intelligent development and to clarify transformation pathways[Ошибка! Источник ссылки не найден.]. In 2025, the 4th Digital-Intelligent Audit Forum announced the first batch of evaluation results for the construction and application capabilities of "AI + Audit" scenarios, marking a move toward standardization and normalization in the intelligent application of auditing. The digital-intelligent transformation of internal audit in China has not been achieved overnight but is gradually evolving along a clear pathway: "platform construction → data governance → model application → AI integration."

(1) Foundation through IT-enablement: Accelerated platform construction. Since 2017, the construction of internal audit information platforms across various industries has accelerated significantly, reaching a peak between 2020 and 2025. Platform construction has digitalized the audit workflow, connecting internal systems such as finance, operations, OA, and ERP, thereby laying the groundwork for subsequent digitalization and intelligentization. The State-owned Assets Supervision and Administration Commission (SASAC) has explicitly required central state-owned enterprises to explore the development of big data and AI audit platforms, promoting the realization of "full-level coverage, full-business online operation, full-system connectivity, and full-element supervision."

(2) Deepening digitalization: Data governance and model application. Building on platform construction, internal audit is advancing into deeper digitalization. Data show that over 50% of organizations have established analytical models that can precisely identify risk clues, and the value created by data analysis is becoming increasingly evident. The core task at this stage is data governance—building a unified audit data lake to achieve the integrated access and standardized processing of both structured and unstructured data. However, current audit data are characterized by heterogeneous sources, massive volume (in the tens of billions of records), and rapid continuous growth. Quality issues arising from multi-source heterogeneous data have become a key bottleneck constraining the intelligent transformation[Ошибка! Источник ссылки не найден.].

(3) Intelligent exploration: Accelerated integration of AI and large models. At present, the digital-intelligent transformation of internal audit is moving from digitalization toward intelligentization. The application of cutting-edge technologies such as artificial intelligence and large models has become the core driving force of this transformation. In the face of rapidly advancing AI technologies, internal audit must achieve extensive and deep integration with AI**Ошибка! Источник ссылки не найден.**. This requires efforts in six areas: strengthening theoretical guidance, enhancing data supply, promoting audit applications, fostering openness and sharing, accelerating talent development, and reinforcing security safeguards.

The digital-intelligent transformation of internal audit in China is moving from "point-based experiments" to "systematic implementation." Driven by the three forces of policy guidance, technology empowerment, and demand pull, internal audit is undergoing a systemic transformation—from concepts to models, and from tools to ecosystems**Ошибка! Источник ссылки не найден.Ошибка! Источник ссылки не найден.**. Although challenges such as data silos, talent shortages, and security compliance remain, the direction and pathway of the transformation are becoming increasingly clear. With the deep implementation of the "AI+" action and the continuous evolution of large model technologies, internal audit will accelerate its qualitative leap from digitalization to digital-intelligent transformation, playing an even more critical role in serving organizational governance, preventing major risks, and creating strategic value.

O‘ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT VA AUDIT TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Jabborov Azamat Alijonovich
Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqarma boshlig‘i, DSc

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat organlarida ichki nazorat va audit faoliyatini raqamlashtirish moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim vositasiga aylangan. Jahonning ilg‘or mamlakatlarida, xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari va boshqa rivojlangan iqtisodiyotlarda ichki nazorat va audit jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, blokcheyn va ma’lumotlar tahlili keng joriy etilgan. Ushbu yondashuvlar orqali byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish, xavflarni erta aniqlash va korrupsiya omillarini kamaytirishga erishilmoqda. Jumladan, markazlashgan axborot tizimlari orqali ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish va tahlil qilish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, bu qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi. Shu bilan birga, xalqaro dasturlar doirasida ishlab chiqilgan maxsus platformalar ichki nazorat va auditni muvofiqlashtirish, hisobotlarni avtomatlashtirish va monitoringni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada davlat ichki nazorati tizimi va auditi tizimida

ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik darajasi sezilarli darajada oshmoqda.

Bu jarayonda davlat ichki nazorati tizimi va ichki audit faoliyatini qamrab oluvchi aloxida va maxsus axborot tizimini yaratish hamda uni boshqa axborot tizimlari bilan integratsiya qilish juda muhim hisoblanadi. Shu orqali ichki nazorat va audit jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni markazlashtirilgan holda shakllantirish va tahlil qilish imkoniyatlari yaratiladi.

Bugungi kunda 62 ta vazirlik va idoralarda ichki audit tuzilmalari faoliyat yuritib kelmoqda(1-rasmga qarang).



1-rasm. Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit xizmatlari va ularda mavjud shtat birliklari soni

1- rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, 2026-yil 1-yanvar xolatiga 62 ta davlat organlari va tashkilotlarida 279 nafar ichki audit shtatlari mavjud bo‘lib, ular soni 2023-2024-yillarga nisbatan o‘sib bormoqda. 62 ta davlat organlari va tashkilotlarining xar biri faoliyatiga tegishli hisobot va samaradorlik ko‘rsatkichlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qabul qilinishi, tahlil qilinishi va hisobot shaklida e’lon qilinishi amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan. Mazkur jarayon juda ko‘p vaqt va resusr talab qiladigan jarayon bo‘lib, amalda xar bir vazirlik va idoraning mas’ul xodimlari bilan ma’lumotlar almashish va uni xaqqoniyligi va to‘g‘riligiga ishonch xosil qilishni talab qiladi. Shuning uchun ham ichki audit tuzilmalari faoliyatini raqamlashtirish obyektiv zaruriyatga aylanib bormoqda.

Shuning uchun xam 2026-yil 13-martda Vazirlar Mahkamasining “Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 100-sonli qarori qabul qilindi. Unga muvofiq “Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasi” tasdiqlandi.

Mazkur konsepsiyada quyidagilar o‘z aksini topgan:

- ichki audit faoliyatini raqamlashtirishdagi tizimli muammolar;
- Jahonda ichki audit faoliyatini raqamlashtirishning umumiy tendensiyasi va asosiy xulosalar;
- Ichki audit faoliyatini raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar.

Jumladan, konsepsiyada ichki audit faoliyatini raqamlashtirishdagi tizimli muammolar ko‘rsatib o‘tilgan.



2- rasm. Ichki audit xizmatlari faoliyatidagi ayrim muammolar.

Xulosa qilib aytganda raqamlashtirishning dolzarbligi bugungi kunda nafaqat davlat moliyasini samarali boshqarish, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ichki nazorat va audit jarayonlarini raqamlashtirish orqali vaqt, moliyaviy va inson resurslaridan tejamkor foydalanish, ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, avtomatik baholash, masofaviy monitoring va avtoprofilaktika kabi mexanizmlarni joriy etish orqali qonunbuzilishlarning oldini olish va nazorat tizimini kuchaytirish mumkin. Raqamli texnologiyalardan foydalanish hisobdorlikni oshirish, shaffoflikni ta’minlash va korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, sun’iy intellekt va biznes analitika vositalarini qo‘llash orqali strategik qarorlar qabul qilish sifati yaxshilanadi. Shu jihatdan, ichki nazorat va audit faoliyatini raqamlashtirish nafaqat amaliy ehtiyoj, balki davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Yuqoridagilarni inobatga olgan xolda, mamlakatimizda ichki audit faoliyatini raqamlashtirish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi:

1. Ichki audit faoliyatini ichki nazorat tizimi va xavflarni boshqarish jarayoni bilan uzviy ravishda raqamlashtirish maqsadga muvofiq;

2. Ichki audit faoliyatini raqamlashtirishning birinchi bosqichida amaldagi qonunchilik xujjatlari masalan ichki audit tadbirlari o‘tkazish qo‘llanmasi tartiblarini raqamlashtirish lozim bo‘ladi;

3. Ichki audit faoliyatini raqamlashtirish nafaqat ichki audit jarayonlarini balki masofaviy audit uchun ham keng yo‘l ochishi lozim. Bizningcha bunda dastlab asosiy e’tiborni axborot tizimlari integraysiyasiga qaratish lozim. Integratsiya yetarli ta’minlangandan so‘ng bosqichma-bosqich avtomatik baholash, avtokameral, avtoprofilaktika hamda keyin masofaviy monitoring tizimlarini ko‘llash mumkin bo‘ladi;

4. Sun’iy intellektni ichki audit faoliyatiga qo‘llash avvalo uning hisobotlarini to‘laqonli va bexato shakllantirishni ya’ni ma’lumotlar bazasini shakllantirishna taqozo qiladi. Shundan so‘nggiga sun’iy intellektga murojaat qilinishi maqsadga muvofiq.

ICHKI AUDITIDA LEAN VA BIG DATA INTEGRATSIYASI ASOSIDA TAHLILIY AMALLAR

Yakubov Ulugbek Kasimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliyaviy tahlil” kafedrasi professori, DSc.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi PQ-358-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan, korxona va tashkilotlarda ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali vaqt va resurslardan samarali foydalanish vazifasi belgilangan. Belgilangan vazifalar doirasida Lean (Tejamkor boshqaruv) tamoyillari asosida isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilmaydigan boshqaruv qaroriga erishish dolzarb masala hisoblanadi.

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasida: - “...Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning yillik moliyaviy hisoboti manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar, shuningdek qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar uchun ochiqdir[122]”, deb ta’kidlangan. 28-moddasida: - “...Buxgalteriya hisobini yuritishda maxfiylikka rioya qilinadi. Buxgalteriya hisobi registrlarining mazmuni bilan tanishishga buxgalteriya hisobi subyekti rahbarining ruxsatiga ko‘ra yoki qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yo‘l qo‘yiladi”, deyilgan. Shu sababdan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlaridan kelib chiquvchi ochiqlikni ta’minlash, katta malumotlar bazasini shakllantirish, milliy standartlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, sun’iy intellekt modellarini ishlab chiqish zarur.

Bugungi kunga qadar, korxonalar moliyaviy-iqtisodiy ahvolini tahlilida: -to‘lov qobiliyati yoki qoplash koeffitsienti; - o‘z aylanma mablag‘lari bilan

[122] “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida (https://lex.uz/ru/docs/-2931253).

ta’minlanganlik koeffitsienti; - aktivlarning va xarajatlarning rentabellilik koeffitsienti va boshqa qo‘shimcha ko‘rsatkichlardan foydalanilgan[123].

Xalqaro reyting agentliklari, xususan Standard & Poor’s (S&P), Moody’s Investors Service (Moody’s), Fitch Ratings (Fitch) kabi reyting agentliklari moliyaviy tahlil ko‘rsatkichlaridan keng foydalanadi va investorlarga qarz oluvchining to‘lov qobiliyati haqida malumot beradi. Moliyaviy ma’lumotlarni sodda reyting harflari (masalan, AAA, B+) ko‘rinishiga keltirib, chuqur tahlil asosida ko‘rsatsatkichlarni prognoz qiladi.

Reyting natijalari qanchalik yuqori bo‘lsa, davlat yoki kompaniya xalqaro bozorlardan shunchalik past foiz stavkalarida qarz olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mamlakatning xalqaro reytingi uning iqtisodiy barqarorligi va islohotlar samaradorligini ta’minlaydi. Qarz oluvchilarning moliyaviy holatini doimiy kuzatib boradi va iqtisodiy vaziyat o‘zgarganda reytinglarni yangilab turadi, bu esa bozor ishtirokchilarini ogohlantirishga yordam beradi.

Moody's Investors Service kompaniyalar reytingini aniqlashda miqdoriy (moliyaviy) va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashda yuqoridagi ko‘rsatkichlar tizimidan keng foydalanadi[124].

Moody’s Investors Service moliyaviy barqarorlik koeffitsientlari bilan, kompaniyaning uzoq muddatli yashab qolish qobiliyatini baholaydi. Moody’s tahlilida asosiy e’tibor operatsion foyda va uning barqarorligiga qaratiladi.

Openinfo.uz ochiq malumotlari asosida biznes subyektining moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari Lean tahlili o‘tkazildi. Tahlil natijalariga ko‘ra:

1. Tovar-moddiy zaxiralarning ortishi aylanma mablag‘larining mahsulotda “band” bo‘lib qolganini, saqlash xarajatlari ortganini ko‘rsatdi.
2. Debitorlik qarzlarining ortishi pul mablag‘lari oqimi to‘xtab qolganini va natijada likvidlikni pasayganiga, natijada yangi loyihalarga investitsiya qilish imkoniyatini cheklaydi.
3. Asosiy vositalarning eskirish summasini ortishi, texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini ko‘paytirgan.
4. Nomoddiy aktivlar jami mulk tarkibida juda kichik ulushni tashkil etishi, raqamli iqtisodiyot davrida aksiyadorlik jamiyati intellektual mulk va dasturiy ta’minotga (Big Data infratuzilmasiga) ko‘proq investitsiya kiritishi zarur.

Raqamli transformatsiyaning yana bir muhim yo‘nalishi — Power BI kabi analitik platformalarni korporativ moliyaviy tahlilga joriy etishdir. Power BI moliyaviy ko‘rsatkichlarning real vaqt rejimida vizuallashtirilishi, avtomatik yangilanishi va xatolarsiz umumlashtirilishini ta’minlaydi. Shuningdek, ERP, 1C, SQL singari tizimlar

[123] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrdagi 1013-son qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o‘tkazish REGLAMENTI”.
[124] https://www.moodys.com/web/en/us/capabilities/company-reference-data/orbis.html

bilan integratsiya qilish orqali korporatsiya bo‘linmalari o‘rtasida uzviylikni kuchaytirib, boshqaruv qarorlarini tez va asosli qabul qilish imkonini yaratadi.

Python dasturlash tili esa murakkab moliyaviy ma’lumotlarni qayta ishlash, prognozlash va xavf tahlilini amalga oshirishda samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Linear Regression, ARIMA/SARIMA, Random Forest yoki XGBoost kabi modellardan foydalanish orqali korporatsiyalarda foyda-xarajat bog‘liqligi, pul oqimlari prognozi, kreditga layoqatni baholash, firibgarliklarni aniqlash kabi jarayonlar yuqori aniqlik bilan amalga oshiriladi.

Demak, sun’iy intellekt, Power BI va Python vositalarining integratsiyalashgan qo‘llanilishi korporativ moliyaviy hisobotlarni raqamli transformatsiya sharoitida yanada samarali, aniqligi yuqori va strategik qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi tizimga aylantiradi. Shu bois, korporativ faoliyatni baholashda an’anaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda zamonaviy raqamli tahliliy yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Korporativ boshqaruvda sun’iy intellekt va tahliliy vositalar integratsiyasi biznes subyektiga bozor o‘zgarishlariga tezkor moslashish imkonini berishi kerak. Biznes subyektlarini toifalarga ajratish va ularga moslashtirilgan soliq ma’murchiligini qo‘llash strategik rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Korporativ boshqaruvda tahlil jarayonlarini avtomatlashtirish qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshiradi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BUDJET INTIZOMINI OSHIRISH YO‘LLARI

Jumaniyazov Rashid Azamatovich
Qoraqalpoq davlat universiteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar 2B-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda davlat moliyaviy nazorati tizimini raqamlashtirish orqali budjet intizomini oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat moliyaviy nazorati, raqamlashtirish, budjet intizomi, sun’iy intellekt, blokcheyn, moliyaviy shaffoflik.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar tez sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar deyarli barcha sohalarda joriy qilinmoqda. Xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi va hokazo. Bugun rivojlanib borayotgan zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarni davlat moliyaviy nazorat tizimida keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalarni davlat moliyaviy nazorat tizimiga integratsiya qilish budjet intizomini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat moliyaviy resurslaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga

yordam beradi. Shu sababdan, raqamli texnologiyalarni davlat moliyaviy nazorat tizimiga integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Davlat moliyaviy nazorati milliy mulkni shakllantirish, ulardan foydalanish va ko‘paytirishni nazorat qilish sifatida ta’kidlanadi [1]. Davlat moliyaviy nazorati budjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlashga yordam beradi. An’anaviy nazorat usullari ko‘p hollarda vaqt talab qiladi va inson omiliga bog‘liq hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayoni esa ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Nuriddinovich, T. B. (2025) fikriga ko‘ra, raqamli iqtisodiyotga asoslangan moliyaviy nazorat tizimi moliya mablag‘larining maqsadli sarflanishini, soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lashni va ortiqcha sarsongarchilikni qisqartirishni ta’minlash imkonini beradi [2]. Davlat moliyaviy nazorat tizimini modernizatsiya qilishda sun’iy intellekt, blokcheyn kabi texnologiyalarni qo‘llash mumkin. Ushbu texnologiyalar moliyaviy nazorat samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi. Xususan, Fernández, A. (2019) fikriga ko‘ra, moliya sohasida sun’iy intellektdan pul yuvishga qarshi kurashish va firibgarlikni oldini olishni nazorat qilishda foydalanish mumkin [3]. Muallif SI dagi katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish hamda ularni yangi axborot manbalari bilan birlashtirish imkoniyati odatda e’tibordan chetda qoladigan noodatiy holatlar yoki qonuniyatlarni aniqlashga yordam berishini ta’kidlaydi [3]. Blokcheyn texnologiyalarini davlat moliyaviy nazorat tizimida qo‘llash esa shaffoflikni oshiradi va budjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Celestin va boshqalar (2025) tadqiqotlariga ko‘ra, blokcheyn texnologiyasini davlat xaridlari tizimiga joriy etish moliyaviy mablag‘larni noto‘g‘ri sarflash holatlarini 30 foizga kamaytirish imkonini beradi [4].

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashmoqda. Xususan, bu borada 2020-yilda qabul qilingan "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini ta’kidlab o‘tishimiz mumkin. Ushbu strategiyada elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, bu moliyaviy nazorat tizimini raqamlashtirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda [5].

Xulosa qilib aytganda, davlat moliyaviy nazorati tizimini raqamlashtirish budjet intizomini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llash pul yuvishga qarshi kurashish, firibgarlikning oldini olish, shaffoflikni oshirish va budjet mablag‘laridan samarali foydalanish imkonini beradi. Lekin ushbu texnologiyalarni joriy qilishda bir qancha to‘siqlar mavjud. Xususan, infratuzilma cheklovi, kadrlar yetishmasligi, kiberxavfsizlik xavflari. Shu sababdan, raqamli texnologiyalarni davlat moliyaviy nazorati tizimida bosqichma-bosqich joriy etish, xodimlar uchun maxsus o‘quv dasturlarini yaratish va kiberxavfsizlikni kuchaytirish muhim hisoblanadi.

РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Абдушукуров Зафар Исматович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Ўзбекистон Республикаси тизимининг барча даражадаги бюджетларини ижро қилиш жараёнида ўзаро боғлиқлик ва узлуксизликни таъминлаш, давлат хариди жараёнини амалга ошириш ва бюджет ташкилотларининг шартномаларини ҳисобга олиш, қўшимча равишда назорат ва таҳлил қилиш, хулоса бериш, давлат буюртмаларини жойлаштириш, шартномаларини тузиш ва бажаришнинг тўлиқ назорати амалга оширилади. Давлат молиявий ресурсларини бошқариш тизимида бюджетни тартибга солишни таъминловчи ташкилий тузилмага алоҳида аҳамият берилади. Ғазначилик хизмати қўмитаси қонунчилик асосида норматив ҳужжатлар билан, турли даражадаги бюджетлардан молиялаштириладиган бюджет ташкилотларнинг касса ижросини амалга ошириш тартиб-қоидалари ва технологиялари белгиланган ихтисослашган институт бўлиб, ғазначилик институти бюджет назорати, бухгалтерия ҳисоби ва касса хизмати кўрсатиш функциялари бажарилишини самарали таъминлайди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Бундан буён давлат харидларида товар, иш ва хизматларни тўғридан-тўғри сотиб олиш мумкин бўлган ҳолатлар фақат қонун билан белгиланади”[125].

Давлат молиясини бошқариш соҳасида амалга оширилган ислоҳотлар ва эришилган натижаларга қарамасдан, соҳани янада такомиллаштиришни талаб этадиган бир қатор устувор йўналишлар мавжуд. Жумладан [126]:

бюджет интизомини таъминлаш механизмларини кучайтириш;

ўрта муддатли бюджетлаштиришда стратегик устуворликни таъминлаш;

давлат бюджети харажатларининг самарадорлиги ҳамда натижадорлигини ошириш;

фискал ахборот сифати ва ҳисобдорликни янада ошириш;

давлат бюджети ғазна ижронинг самарали таъминлаш.

Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш бўйича белгиланган устувор вазифалар ижросини самарали ташкил этиш, давлат харидларида рақобат муҳитини ривожлантириш, шунингдек, ушбу соҳада маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг иштирокини янада қўллаб-

[125]Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 2025 йил. 26.12. 2025. https://president.uz/uz/lists/view/8834

[126] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2025-2030 йилларда давлат молиясини бошқариш тизимини такомиллаштириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 210-сон Қарори. 2025 йил. 8 апрель.

қувватлаш мақсадида қарор қабул қилинди”[127]. 2026 йил 1 январдан бошлаб маҳаллийлаштириш даражаси 30 фоиз ва ундан ортиқ бўлган маҳаллий ишлаб чиқарувчилар билан бюджет буюртмачилари ўртасида тузилган шартномалар бўйича етказиб бериладиган товарлар учун бўнак тўловларини маҳаллийлаштириш даражасига мутаносиб равишда, лекин маҳаллийлаштириш даражасидан кам бўлмаган ва корхона жами активлари миқдоридан кўп бўлмаган миқдорда тўлаб беришга рухсат берилади. Барқарор иқтисодий ривожланишни таъминлаш учун мамлакатнинг стратегик мақсадларига эришишда ишончли восита сифатида давлат харидлари тизимини такомиллаштириш талаб этилмоқда. Ўзбекистон Республикасида давлат харидлари соҳасида амалга оширилган ислоҳотлар ва эришилган натижаларга қарамасдан, рақамли иқтисодиётда давлат харидлари жараёнини бошқаришни янада такомиллаштиришни талаб этадиган устувор чора-тадбирларни амалга ошириш керак.

Тадқиқотчилар илмий хулосаларида давлат харидининг натижавийлиги ва самарадорлигини аниқлаш масаласини кўриб чиқишга, самарасиз харидлар сабабларини аниқлашга алоҳида эътибор қаратиш зарурлигини таъкидлайдилар. Рақамли иқтисодиёт шароитида давлат молиясини бошқариш тизимини янги босқичга олиб чиқиш ва бюджет интизомини янада мустаҳкамлаш, солиқ-бюджет тизимининг шаффофлигини ошириш, Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағларидан фойдаланиш самарадорлиги ва натижадорлигини оширишнинг замонавий усуллари жорий этишни талаб қилади. Давлат харидларида тўғридан-тўғри шартномаларнинг улуши 2024 йилда 57,0 фоизни ташкил этган бўлса, 2025 йилда 49,0 фоизга тушди. Давлат харидларида рақобатли усул орқали айрим турдаги товар, иш, хизматларни харид қилишнинг “таклиф сўрови” янги тартиб-таомилини жорий этиш таклифи мақсадга мувофиқ бўлади. Давлат буюртмачилари томонидан тўғридан-тўғри шартномалар тузишга рухсат бериш ҳақида норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқишдан олдин мазкур харид бўйича камида уч иш кунида давлат харидлари бўйича махсус ахборот порталида эълон жойлаштириш мажбурияти юклатилади. Давлат буюртмачилари томонидан эълонларни жойлаштиришда бошланғич нархларни амалга оширилган давлат харидлари натижалари билан солиштириш имкониятини яратилади.

Бизнинг фикримизча, давлат харидларида электрон дўконга оферталарни жойлаштириш муддатини 15 кундан 60 кунгача узайтириш ва товарларни етказиб бериш муддатини камида 5 кун этиб белгилаш мақсадга мувофиқ бўлади. Давлат харидлари бўйича махсус ахборот порталида давлат харидлари соҳасида

[127] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат харидлари тизимида рақобат мухити ва шаффофликни таъминлаш бўйича навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги 256-сон Фармони. 2025 йил 26 декабрь.

қонунбузилиши ҳолатларининг олдини олишга қаратилган “Давлат харидларида назорат” саҳифаси жорий этиш натижасида, шартномалар ижроси ва улар тўғрисидаги маълумотларни реал вақт режимида очиқлашга эришилади.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA AUDIT

Madaminova Nigoraxon Rasuljon Qizi
FDTU, “Iqtisodiyot” kafedra 79-23 guruh talabasi
Axunova Shoxistaxon Nomanjanovna
FDTU, “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Bugungi kunda raqamlashtirish davlat boshqaruvi, xususan, moliyaviy nazorat va audit tizimlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu maqola raqamli texnologiyalarning davlat moliyaviy nazorati va auditining samaradorligi, shaffofligi hamda tezkorligini oshirishdagi rolini tahlil qiladi. Unda sun'iy intellekt, blokcheyn va katta ma'lumotlar kabi innovatsion yechimlarni joriy etish orqali nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish va xavflarni prognozlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot raqamlashtirishning davlat moliyasini boshqarishda korrupsiyaning oldini olish, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Maqola davlat moliyaviy nazorati va auditini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, Davlat moliyaviy nazorati, Audit, Raqamli texnologiyalar, Sun'iy intellekt, Blokcheyn, Katta ma'lumotlar, Moliyaviy shaffoflik

Hozirgi davrda raqamlashtirish global miqyosda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni tubdan o‘zgartirib, to‘rtinchi sanoat inqilobining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu jarayonlardan chetda qolmay, 2030 yilga qadar innovatsion davlatlar qatoriga kirishni maqsad qilgan. 2020 yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinishi hamda elektron hukumat tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan Prezident farmonlari va qarorlari mamlakatda raqamli transformatsiyaga berilayotgan ustuvor ahamiyatni ko‘rsatadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, 2026 yildan boshlab "Elektron hukumat" platformasi tubdan yangilanib, sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari joriy etilishi orqali shaffof, fuqarolarga yo‘naltirilgan boshqaruv modelini shakllantirish ko‘zda tutilgan . Bu esa davlat organlari faoliyatida inson omilini, korrupsiyani va byurokratiyani kamaytirishga xizmat qiladi [1].

Davlat moliyaviy nazorati va auditi davlat mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan institut hisoblanadi [2]. Raqamlashtirish sharoitida ushbu soha ham sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Axborot texnologiyalarini integratsiya qilish jarayonlarni modernizatsiya qilish,

ma'lumotlarni tahlil qilish samaradorligini oshirish hamda moliyaviy monitoring tezligi va aniqligini yaxshilash imkonini beradi . Sun'iy intellektning murakkab tahlillar oʻtkazish salohiyati [3] moliyaviy nazoratda ma'lumotlarni yashirish va vazifalarni yuzaki bajarish holatlarini bartaraf etishga yordam beradi . "Elektron hukumat tizimi" davlat organlarining samaradorligi, tezkorligi va shaffofligini oshirish, hisobdorlikni kuchaytirish hamda jamoatchilik bilan axborot almashinuvini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar majmuidir [5].

Shu nuqtai nazardan, raqamlashtirish sharoitida davlat moliyaviy nazorati va auditining nazariy asoslari, raqamli texnologiyalarning ta'siri, zamonaviy vositalar va usullar, shuningdek, ushbu transformatsiya davridagi muammolar va istiqbollarni chuqur oʻrganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola Oʻzbekistonda raqamlashtirish sharoitida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish yoʻnalishlarini xalqaro tajriba asosida tahlil qilishga qaratilgan.

Raqamlashtirish davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning barcha jabhalarida tub oʻzgarishlarni keltirib chiqarayotgan bir davrda, davlat moliyaviy nazorati va auditi sohasidagi ilmiy adabiyotlar ham ushbu transformatsiyaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Soʻnggi yillarda nashr etilgan tadqiqotlar davlat moliyaviy nazoratining davlat mablagʻlaridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlashdagi fundamental rolini alohida ta'kidlaydi. Ushbu nazorat mexanizmlarining samaradorligini oshirish institutsional islohotlar, axborot texnologiyalarini integratsiya qilish, kadrlar malakasini oshirish va jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash orqali amalga oshirilishi mumkinligi qayd etiladi [2].

Raqamli texnologiyalarning davlat moliyaviy nazorati va auditiga ta'siri adabiyotlarda keng muhokama qilinadigan markaziy masalalardan biridir. Tadqiqotchilarning fikricha, axborot texnologiyalarining integratsiyasi nazorat jarayonlarini modernizatsiya qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish samaradorligini oshirish hamda moliyaviy monitoringning tezligi va aniqligini yaxshilash imkonini beradi [2]. Xususan, sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari murakkab tahlillar oʻtkazish salohiyatiga ega boʻlib [3], bu moliyaviy nazoratda ma'lumotlarni yashirish va vazifalarni yuzaki bajarish holatlarini bartaraf etishga yordam beradi [1]. AI ning ushbu imkoniyatlari moliyaviy operatsiyalardagi anomaliyalarni aniqlash, firibgarlik xavfini bashorat qilish va audit jarayonlarida xavfga asoslangan yondashuvni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekistonda raqamlashtirishga qaratilgan siyosiy tashabbuslar ham ilmiy adabiyotlarda oʻz aksini topgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Elektron hukumat" platformasini 2026 yildan boshlab tubdan yangilash, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali shaffof, fuqarolarga yoʻnaltirilgan boshqaruv modelini shakllantirish gʻoyasi davlat moliyaviy nazorati uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Bu tizim mingdan ortiq davlat xizmatlari, besh mingga yaqin funksiyalar va ikki yuz qirqta

ma'lumotlar bazasini yagona raqamli platformaga birlashtirishni koʻzda tutadi [1]. Adabiyotlarda bunday yagona platformaning yaratilishi davlat organlari oʻrtasida ma'lumot almashinuvini tezlashtirishi, nazorat ob'ektlaridan olinadigan ma'lumotlarning yaxlitligi va ishonchliligini oshirishi bilan moliyaviy nazorat samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligi ta'kidlanadi.

"Elektron hukumat tizimi"ning tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar majmuasi sifatida ta'rifi uning davlat moliyaviy nazorati uchun mustahkam poydevor ekanligini koʻrsatadi. Ushbu tizimning asosiy vazifalari, jumladan, davlat organlari faoliyatining samaradorligi, tezkorligi va shaffofligini oshirish, hisobdorlikni kuchaytirish [5] moliyaviy nazoratning an'anaviy yondashuvlarini qayta koʻrib chiqishni taqozo etadi. Raqamli transformatsiya davrida moliyaviy nazorat endi faqatgina oʻtmishdagi operatsiyalarni tekshirish bilan cheklanib qolmay, balki real vaqt rejimida monitoring qilish, xavflarni prognozlash va proaktiv choralar koʻrish imkoniyatini beradi.

Davlat moliyaviy nazorati va auditida qoʻllaniladigan zamonaviy raqamli vositalar va usullar boʻyicha adabiyotlarda bir qator yondashuvlar ilgari surilgan. Ma'lumotlar tahlili (data analytics), blokcheyn texnologiyalari, bulutli hisoblashlar va sun'iy intellektga asoslangan tizimlar shular jumlasidandir. Xususan, "Elektron hukumat tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan" hujjatda axborot tizimlarini hujjatlashtirish uchun yagona shablonlar va turli davlat organlari tomonidan foydalaniladigan standartlashtirilgan tasniflagichlar va ma'lumotnomalar tizimi belgilangan [4]. Bu esa raqamli moliyaviy nazorat uchun zarur boʻlgan ma'lumotlarning yaxlitligi, oʻzaro mosligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Standartlashtirilgan ma'lumotlar bazalari va tasniflagichlar moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirish va potentsial qonunbuzarliklarni tezkor aniqlash uchun asos yaratadi.

Raqamli transformatsiya davrida moliyaviy nazorat va auditning muammolari va istiqbollari ham ilmiy jamoatchilik e'tiborida. Bir tomondan, raqamlashtirish inson omilini, korrupsiyani va byurokratiyani kamaytirishga xizmat qiladi, shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi [5]. Boshqa tomondan, raqamli texnologiyalarni joriy etish yuqori malakali mutaxassislarga boʻlgan talabni oshiradi, axborot xavfsizligi va ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash bilan bogʻliq yangi xavflarni keltirib chiqaradi. Adabiyotlarda ushbu muammolarni hal etish uchun doimiy kadrlar malakasini oshirish, kibertahdidlarga qarshi samarali himoya mexanizmlarini yaratish hamda raqamli muhitga mos keladigan qonunchilik bazasini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi .

Xalqaro tajriba tahlili shuni koʻrsatadiki, rivojlangan davlatlar AI ni boshqaruv, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga keng miqyosda integratsiya qilmoqda. Garchi adabiyotlarda davlat moliyaviy nazorati sohasidagi aniq xalqaro tajribalar kamroq yoritilgan boʻlsa-da, sun'iy intellektning murakkab tahlillar oʻtkazish salohiyati ijtimoiy himoya sohasida (masalan, Janubiy Afrikaning "Harambee" dasturi yoki "GiveDirectly"

tashabbusi) muvaffaqiyatli qo‘llanilgani uning moliyaviy nazoratda ham keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning 2030 yilga qadar innovatsion davlatlar qatoriga kirish maqsadi va "Smart City", "Digital Tashkent" kabi loyihalarni rejalashtirishi davlat moliyaviy nazoratini raqamli transformatsiya qilishda xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganish va joriy etish muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu tahlil davlat moliyaviy nazorati va auditini raqamlashtirishning nazariy asoslari, amaliy vositalari va kelajakdagi yo‘nalishlari bo‘yicha mavjud ilmiy bilimlarni umumlashtiradi va keyingi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.[3]

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi raqamlashtirish sharoitida davlat moliyaviy nazorati va auditining nazariy-metodologik asoslarini chuqur tahlil qilish, uning amaliy mexanizmlariga raqamli texnologiyalar ta'sirini baholash hamda O‘zbekistonda ushbu sohani takomillashtirish bo‘yicha xalqaro ilg‘or tajribalar asosida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: raqamlashtirish davrida davlat moliyaviy nazorati va auditining nazariy asoslarini tizimlashtirish; raqamli texnologiyalarning (sun'iy intellekt, blokcheyn, katta ma'lumotlar) davlat moliyaviy nazorati va auditiga ta'sirini har tomonlama o‘rganish; davlat moliyaviy nazorati va auditida qo‘llaniladigan zamonaviy raqamli vositalar va usullarni aniqlash hamda ularning samaradorligini baholash; raqamli transformatsiya davrida moliyaviy nazorat va auditning mavjud muammolari va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish; xalqaro tajribani o‘rganish asosida O‘zbekistonda raqamlashtirish sharoitida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyaviy nazorati va auditi tizimi, predmeti esa raqamlashtirish sharoitida davlat moliyaviy nazorati va auditini takomillashtirishning nazariy-metodologik jihatlari hamda amaliy yo‘nalishlari belgilandi. Tadqiqotning nazariy asosini davlat boshqaruvi nazariyasi, moliyaviy nazorat va audit nazariyasi, raqamli iqtisodiyot nazariyasi, innovatsion rivojlanish konsepsiyalari hamda elektron hukumatni shakllantirishga oid zamonaviy yondashuvlar tashkil etadi. Uslubiy asos sifatida tizimli yondashuv, institutsional yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy ketma-ketlik va dialektik usullar qo‘llanildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning turli usullari keng qo‘llanildi. Sistemali tahlil davlat moliyaviy nazorati tizimini raqamli transformatsiya sharoitida murakkab, o‘zaro bog‘liq elementlar majmui sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi, bu esa uning tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni chuqur tushunishga yordam berdi. Qiyosiy tahlil usuli O‘zbekiston tajribasini rivojlangan davlatlarning raqamlashtirish sharoitida davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha ilg‘or amaliyotlari bilan solishtirish orqali samarali yechimlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, sun'iy intellektning boshqaruv, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga integratsiyasi bo‘yicha xalqaro tajriba O‘zbekiston uchun moslashuvchan yo‘nalishlarni belgilashda asos bo‘ldi.

Mantiqiy umumlashtirish va sintez usullari mavzuga oid turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ularni tizimlashtirish va umumiy xulosalar chiqarishda qo‘llanildi. Induksiya va deduksiya usullari esa aniq faktlar va kuzatishlardan umumiy qonuniyatlarni shakllantirish hamda umumiy nazariy qoidalardan xususiy holatlarni tushuntirishda foydalanildi. Statistik tahlil usullari davlat moliyaviy nazorati samaradorligini baholashga oid mavjud ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda qo‘llanildi. Kontent-tahlil usuli O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Prezident farmonlari va qarorlari , shuningdek, ilmiy adabiyotlarni o‘rganishda axborotlarni tizimlashtirish va asosiy tendensiyalarni aniqlash uchun ishlatildi. Ekspert baholash usuli raqamli transformatsiya davrida moliyaviy nazorat va auditning muammolari hamda istiqbollarini aniqlashda, shuningdek, taklif etilayotgan yechimlarning amaliy ahamiyatini baholashda qo‘llanildi. Prognostik usullar esa davlat moliyaviy nazoratining kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini bashorat qilish va strategik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim rol o‘ynadi. Benchmarking usuli "Elektron hukumat" platformasini takomillashtirish va axborot tizimlarini standartlashtirish bo‘yicha xalqaro ilg‘or amaliyotlarni o‘rganishda qo‘llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining "Davlat auditi to‘g‘risida"gi qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari, Prezident farmonlari va qarorlari Vazirlar Mahkamasi qarorlari, davlat statistika qo‘mitalarining rasmiy ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va tavsiyalari, shuningdek, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar tashkil etdi. Xususan, "Elektron hukumat" tizimining faoliyati va rivojlanishiga oid ma'lumotlar hamda axborot tizimlarini hujjatlashtirish va standartlashtirishga oid hujjatlar tadqiqot uchun muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda moliyaviy nazorat tizimida risklarni aniqlash, baholash va boshqarishning zamonaviy mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi hamda ularning global iqtisodiy xavflarni kamaytirishdagi roli asoslab beriladi. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar, jumladan International Monetary Fund, World Bank va OECD hisobotlari asosida raqamli audit, big data tahlili va mashinaviy o'rganish modellari orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an'anaviy audit tizimlari global moliyaviy oqimlarning murakkablashuvi sharoitida yetarli darajada samarali emasligi sababli, sun'iy intellekt asosidagi risk baholash tizimlariga ehtiyoj ortib bormoqda.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, moliyaviy nazorat, risklarni baholash, global iqtisodiy xavflar, IT-audit, raqamli iqtisodiyot, big data, mashinaviy o'rganish.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida moliyaviy oqimlarning tezlashuvi va murakkablashuvi natijasida risklarni boshqarish tizimlari tubdan o'zgarib bormoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, 2008-yildagi Global Financial Crisis moliyaviy inqirozidan so'ng davlat moliyaviy nazorat tizimlarida aniqlik va tezkorlik masalalari keskin dolzarb bo'lib qolgan. Ushbu jarayonda an'anaviy audit yondashuvlari ko'plab murakkab moliyaviy operatsiyalarni oldindan aniqlash va baholash imkoniyatiga ega

emasligi ko‘rinib qoldi. Shu sababli, sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan yangi avlod moliyaviy nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Hozirgi kunda global miqyosda moliyaviy risklarning hajmi va ko‘lami sezilarli darajada oshgan bo‘lib, International Monetary Fund ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro kapital oqimlarining o‘zgaruvchanligi rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Bunday sharoitda sun’iy intellekt asosidagi tizimlar yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, yashirin risklarni aniqlash va ularning oldini olish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Bu esa nafaqat davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshiradi, balki global iqtisodiy xavflarni kamaytirishda ham muhim vositaga aylanadi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan bir davrda, moliyaviy nazorat tizimlarini modernizatsiya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. World Bank tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt va big data texnologiyalarini joriy etgan davlatlarda byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi o‘rtacha 15–25 foizga oshgan. Shu bilan birga, korrupsiya va moliyaviy noqonuniy operatsiyalarni aniqlash darajasi sezilarli ravishda yaxshilangan. Bu natijalar sun’iy intellektning moliyaviy nazoratdagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

O‘zbekiston sharoitida ham davlat moliyaviy nazorat tizimini raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlanayotgan iqtisodiyot sifatida global moliyaviy tizim bilan integratsiya jarayonlari kuchayib borar ekan, ichki audit va nazorat mexanizmlarini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish zarurati yanada ortmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda sun’iy intellekt yordamida moliyaviy risklarni baholashning nazariy va amaliy jihatlari chuqur o‘rganilib, mavjud muammolar va ularning samarali yechimlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Moliyaviy nazorat tizimida risklarni baholash masalasi global iqtisodiyotning murakkablashuvi bilan bevosita bog‘liq holda yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. An’anaviy audit usullari asosan retrospektiv tahlilga tayangan bo‘lib, ular sodir bo‘lib o‘tgan operatsiyalarni tekshirishga qaratilgan. Bunday yondashuv zamonaviy sharoitda yetarli emasligi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan. Ayniqsa, OECD hisobotlarida moliyaviy nazorat tizimlari oldida turgan asosiy muammo sifatida risklarni oldindan aniqlash va prognozlash mexanizmlarining sustligi qayd etiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sun’iy intellekt texnologiyalari moliyaviy nazorat tizimini proaktiv boshqaruv modeliga o‘tkazish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt asosida risklarni baholash tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali yashirin qonuniyatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Mashinaviy o‘rganish algoritmlari yordamida moliyaviy operatsiyalardagi anomaliyalarni aniqlash, firibgarlik holatlarini bashorat qilish va real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyati mavjud. International Monetary Fund tadqiqotlariga ko‘ra, sun’iy intellektdan

foydalangan holda moliyaviy nazorat tizimlarida xatoliklar va noqonuniy operatsiyalarni aniqlash darajasi 30–40 foizga oshgan. Bu esa risklarni kamaytirish bilan birga, davlat moliyasining shaffofligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Global iqtisodiy xavflarning asosiy manbalaridan biri moliyaviy tizimdagi noaniqlik va ma’lumotlarning yetarli darajada tahlil qilinmasligidir. Kapital oqimlarining tezkor harakati, transmilliy kompaniyalar faoliyatining kengayishi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi risklarni boshqarish tizimiga yangi talablar qo‘ymoqda. World Bank ma’lumotlariga asoslanib aytganda, global iqtisodiy tizimda yuzaga kelayotgan xavflarning qariyb 60 foizi noto‘g‘ri yoki yetarli darajada qayta ishlanmagan ma’lumotlar bilan bog‘liq. Shu sababli, sun’iy intellekt asosida ishlovchi big data platformalari moliyaviy nazorat tizimida muhim vositaga aylanmoqda.

1-diagramma. O‘zbekistonda moliyaviy nazorat tizimida raqamlashtirish darajasi



Shu bilan birga, sun’iy intellektni moliyaviy nazorat tizimiga joriy etishda bir qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, ma’lumotlar sifati va ularning to‘liqligi masalasi dolzarb hisoblanadi. Noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan algoritmlar noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, kadrlar salohiyati yetishmasligi sun’iy intellekt texnologiyalarini samarali qo‘llashga to‘sqinlik qilmoqda. Uchinchidan, kiberxavfsizlik tahdidlari ham moliyaviy nazorat tizimining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, texnologik infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda inson kapitaliga investitsiya kiritish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammolarning yechimi sifatida kompleks yondashuvni qo‘llash zarur. Avvalo, moliyaviy nazorat tizimlarida yagona raqamli platformalarni joriy etish orqali ma’lumotlar integratsiyasini ta’minlash lozim. Keyingi bosqichda sun’iy intellekt algoritmlarini milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish zarurati mavjud. Bundan tashqari, xalqaro tajribani o‘rganish va uni milliy sharoitga adaptatsiya qilish muhim hisoblanadi. OECD tavsiyalariga ko‘ra, davlat moliyaviy nazorat tizimlarida sun’iy

intellektni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va har bir bosqichda natijalar baholab borilishi kerak.

O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellekt asosida moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirish katta istiqbollarga ega. Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish, soliq tushumlarini tahlil qilish va noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni aniqlashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida moliyaviy nazorat tizimining avtomatlashtirilishi nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida prognozlash modellari ishlab chiqish orqali global iqtisodiy xavflarni oldindan aniqlash imkoniyati kengayadi. Masalan, inflyatsiya darajasi, valyuta kurslari va kapital oqimlaridagi o‘zgarishlarni oldindan prognoz qilish orqali iqtisodiy siyosatni yanada samarali shakllantirish mumkin. Bu esa moliyaviy inqirozlarning oldini olish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda sun’iy intellekt yordamida moliyaviy nazoratda risklarni baholash va global iqtisodiy xavflarni kamaytirish masalalarini chuqur o‘rganish uchun kompleks va ko‘p bosqichli metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg‘unlashtirilib, zamonaviy ilmiy maktablar yondashuvlari asosida tahlil olib borildi. Xususan, International Monetary Fund, World Bank va OECD tomonidan e’lon qilingan ilmiy hisobotlar, statistik ma’lumotlar va tahliliy materiallar asosiy axborot bazasi sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv va institutsional tahlil metodlari tashkil etadi. Moliyaviy nazorat tizimidagi mavjud muammolarni aniqlashda deduktiv va induktiv fikrlash usullaridan foydalanilib, umumiy qonuniyatlardan xususiy holatlarga va aksincha, amaliy kuzatuvlardan nazariy xulosalarga o‘tish ta’minlandi. Shu bilan birga, moliyaviy risklarning tabiati va ularning global iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganishda komparativ (taqqoslama) tahlil usuli qo‘llanilib, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi o‘zaro solishtirildi.

Empirik tahlil jarayonida statistik ma’lumotlarni qayta ishlash va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan keng foydalanildi. Xususan, moliyaviy risklarni baholashda regressiya tahlili, korrelyatsiya tahlili va prognozlash modellaridan foydalanish orqali sun’iy intellekt texnologiyalarining samaradorligi baholandi. Big data asosida ishlovchi algoritmlar yordamida katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlar tahlil qilinib, risklarni aniqlashda yashirin omillarni ochib berishga harakat qilindi. Shu jarayonda mashinaviy o‘rganish usullari, jumladan klassifikatsiya, klasterlash va anomaliyalarni aniqlash algoritmlaridan foydalanish muhim natijalar berdi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini moliyaviy nazorat tizimiga integratsiya qilish risklarni aniqlash va baholash

samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Empirik tahlillar asosida aniqlanishicha, an’anaviy audit usullariga nisbatan sun’iy intellektga asoslangan tizimlar moliyaviy operatsiyalardagi noaniqlik va noqonuniy holatlarni aniqlashda o‘rtacha 35–45 foiz yuqori aniqlikka ega. Bu natijalar International Monetary Fund va World Bank tomonidan e’lon qilingan ilmiy hisobotlar bilan hamohang tarzda shakllangan bo‘lib, moliyaviy nazoratda raqamli texnologiyalarning ustunligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tahlillar davomida aniqlangan muhim natijalardan biri shundan iboratki, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash orqali yashirin risk omillarini aniqlash imkonini beradi. Xususan, big data texnologiyalaridan foydalanish orqali moliyaviy oqimlardagi anomaliyalarni aniqlash tezligi bir necha barobarga oshgan. OECD tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli audit tizimlari joriy etilgan davlatlarda moliyaviy firibgarlik holatlari 20–30 foizga kamaygan. Bu esa global iqtisodiy xavflarni kamaytirishda sun’iy intellektning amaliy ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, sun’iy intellekt texnologiyalarini moliyaviy nazorat tizimiga joriy etish zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida muhim zaruratga aylanmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy audit va nazorat mexanizmlari tez o‘zgaruvchan moliyaviy jarayonlar va murakkab iqtisodiy aloqalarni to‘liq qamrab olish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli, risklarni oldindan aniqlash, baholash va boshqarishda sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlar samaraliroq natija bermoqda.

Xulosa qilishimiz mumkinki sun’iy intellekt yordamida moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida monitoring qilish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va yashirin risk omillarini aniqlash imkoniyati mavjud. Bu esa moliyaviy shaffoflikni oshirish, korrupsiya va noqonuniy operatsiyalarni kamaytirish hamda davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Xalqaro tajribalar, jumladan International Monetary Fund, World Bank va OECD tavsiyalari ham ushbu yo‘nalishning istiqbolli ekanligini tasdiqlaydi.

DAVLAT BYUDJET MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Ubaydullayev Nurmuhammad Oybek o ‘g li
Farg’ona davlat texnika universiteti talabasi
Axunova Shoxistaxon Nomanjanova
FDTU, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fiskal mablag‘lar taqsimoti va ulardan foydalanish mexanizmlarini optimallashtirish masalalari tahlil qilingan. Islohotlarning markazida

davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilish, resurslarning manzilliligini ta’minlash hamda byudjet tizimining ochiqlik darajasini yuksaltirishda ilg‘or xorijiy amaliyotlarni integratsiya qilish masalalari yotadi.Izlanish davomida byudjet monitoringi jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, nazorat tadbirlarining huquqiy-metodik bazasini mustahkamlash hamda davlat xarajatlarining natijadorligini oshirish zaruriyati asoslab berilgan. Mazkur ilmiy ish yakunida davlat moliyasini boshqarish modelini takomillashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar hamda byudjet intizomini kuchaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so’zlar: davlat byudjeti, moliyaviy nazorat, byudjet mablag‘lari, samarali foydalanish, shaffoflik, iqtisodiy nazorat, monitoring tizimi, innovatsion texnologiyalar.

Zamonaviy globallashuv va to‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida davlatlarning barqaror iqtisodiy yuksalishi nafaqat tabiiy resurslar, balki intellektual salohiyat va raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanmoqda. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining drayverlari an’anaviy omillardan bilimlar iqtisodiyoti sari shiddat bilan siljimoqda. Bunday sharoitda inson kapitalini sifat jihatidan yangilash va davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi vazifalar barcha sohalar qatori ta’lim tizimi va davlat byudjeti boshqaruvini ham tubdan transformatsiya qilishni taqozo etmoqda. Binobarin, raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayonlariga tatbiq etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda davlat byudjeti mablag‘lari ustidan samarali moliyaviy nazoratni o‘rnatish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy garovidir.

Davlat byudjeti milliy iqtisodiyotning tizimli barqarorligini ta’minlash hamda ijtimoiy-strategik maqsadlarni amalga oshirishda fundamental moliyaviy regulyator vazifasini o‘taydi. Resurslarning oqilona va muvozanatlashgan taqsimoti mamlakatning strategik taraqqiyot ko‘rsatkichlariga bevosita daxldor bo‘lib, barqaror o‘sish sur’atlarini belgilab beradi [1]. Ushbu jarayonda byudjet mablag‘laridan foydalanish unumdorligini kafolatlashda moliyaviy nazorat instituti hal qiluvchi bo‘g‘in hisoblanadi. Mazkur institut nafaqat mablag‘larning maqsadsiz sarflanishiga qarshi to‘siq bo‘ladi, balki shaffof moliyaviy muhitni shakllantirish va byudjet intizomini institutsional darajada mustahkamlashning asosiy mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi [2].

Hozirgi transformatsiya sharoitida moliyaviy nazorat arxitekturasini tubdan yangilash va davlat aktivlarini boshqarishning optimal modellarini joriy etish kechiktirib bo‘lmas vazifaga aylandi [3]. Xususan, sohani tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy bazani xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, ilg‘or xorijiy andozalarni milliy iqtisodiy muhitga moslashtirish va jarayonlarni texnologik qayta qurollantirish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning fundamental shartidir [6]. Bunday tizimli islohotlar davlat

g‘aznasi mablag‘larini boshqarish samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradi [7].

Raqamli transformatsiya va innovatsion yondashuvlar

O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy taraqqiyot bosqichida moliyaviy nazoratni raqamlashtirish va ochiqlik prinsiplarini kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [4]. Binobarin, davlatning fiskal siyosati doirasida daromadlar va xarajatlar ustidan nazorat o‘rnatishning innovatsion vositalari amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda [5].

2024-yilga kelib moliya sohasida quyidagi strategik yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

- Intellektual tizimlar va tahliliy ishlanmalar yordamida byudjet monitoringi to‘liq raqamli platformaga o‘tkazildi. Bu nafaqat inson omilini kamaytiradi, balki korrupsion xavf-xatarlarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi .

- Byudjet jarayonlari bo‘yicha axborot almashinuvi takomillashtirilib, har bir sarflangan mablag‘ning natijadorligi va ijtimoiy samarasini baholash imkonini beruvchi hisobdorlik tizimi yo‘lga qo‘yildi .

- Germaniya, AQSh hamda Xitoy kabi iqtisodiyoti yetakchi davlatlarning byudjet menejmenti modellari tahlil qilinib, ularning samarali jihatlari milliy moliya tizimiga moslashtirilgan holda joriy etilmoqda .

2026-yilga kelib, O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli ekotizimning to‘liq shakllanishi davlat moliyasini boshqarishda "inson omili"dan "algoritmlar nazorati"ga o‘tishni yakunladi. Endilikda davlat byudjeti nazorati shunchaki xatolarni aniqlash emas, balki sun’iy intellekt yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish orqali iqtisodiy o‘sishni bashorat qiluvchi aqlli tizimga aylandi. Inson kapitali esa ushbu tizimning nafaqat foydalanuvchisi, balki uning barqarorligini ta’minlovchi intellektual yadro sifatida namoyon bo‘lmoqda[8].

1. Byudjet mablag‘lari sarflanishidan oldin, sun’iy intellekt algoritmlari yordamida kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni (KPI) oldindan baholash mexanizmini yo‘lga qo‘yish. Agar loyihaning bashorat qilinayotgan natijasi belgilangan normativdan past bo‘lsa, moliyalashtirishni avtomatik cheklash tizimini ishlab chiqish.

2. Mehnat bozori va ta’lim tizimi integratsiyasini ta’minlash uchun har bir mutaxassisning kompetensiyalarini aks ettiruvchi raqamli profillar tizimini takomillashtirish. Bu davlat byudjeti mablag‘larini aynan qaysi yo‘nalishdagi kadrlar tayyorlashga yo‘naltirish kerakligini aniq (nuqtali) belgilab beradi.

3. 2026-yildagi global ekologik talablarni inobatga olgan holda, davlat byudjeti xarajatlarining ekologik barqarorlikka ta’sirini moliyaviy nazoratning majburiy elementi sifatida kiritish. Budjet mablag‘larini o‘zlashtirishda "ekologik audit" tushunchasini institutsional darajada mustahkamlash.

4. Davlat xaridlari va byudjet ajratmalarini amalga oshirishda inson aralashuvini nolga tushirish uchun "Smart kontrakt"larni keng joriy etish. Bunda mablag‘ faqat bajarilgan ishning raqamli tasdig‘i (LMS yoki boshqa monitoring tizimlari orqali) olingandan so‘ng avtomatik tarzda o‘tkaziladi.

5. An’anaviy iqtisodchi yoki pedagog kadrlar o‘rniga, bir vaqtning o‘zida moliyaviy tahlil, ma’lumotlar muhandisligi (Data Science) va raqamli pedagogikani egallagan "Gibrid mutaxassislar" tayyorlash bo‘yicha maqsadli davlat dasturini qabul qilish.

Kelajakdagi rivojlanishning konseptual yo‘nalishlari:

- Byudjet tsiklining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, ma’lumotlar yaxlitligini ta’minlaydigan yagona elektron monitoring tizimini kengaytirish.

- Katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili orqali byudjet xarajatlarini chuqur prognozlash va ularning makroiqtisodiy samarasini oldindan baholash mexanizmlarini joriy etish.

- Moliya sohasidagi kadrlarni xalqaro sertifikatlash dasturlari asosida muntazam qayta tayyorlash va ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish.

- Xalqaro audit standartlari va nazorat modellarini milliy qonunchilik bilan uyg‘unlashtirgan holda moslashuvchan boshqaruvni qaror toptirish.

- Diqqat markazini mablag‘lar sarflab bo‘linganidan keyingi tekshiruvdan, xavf-xatarlarni real vaqt rejimida aniqlovchi ogohlantiruvchi nazorat tizimiga ko‘chirish.

Xulosa qilib aytganda,olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy iqtisodiyotda davlatning raqobatbardoshligi endilikda faqat moddiy resurslar bilan emas, balki inson kapitalining sifati va moliyaviy boshqaruvning shaffofligi bilan belgilanmoqda. Ushbu ikki omil bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi qo‘shaloq drayver hisoblanadi.Shu bilan birga, inson kapitaliga ajratilayotgan byudjet mablag‘larining har bir so‘mi natijador bo‘lishi uchun moliyaviy nazorat tizimini tubdan isloh qilish davr talabidir. Biz an’anaviy "so‘nggi nuqtadagi tekshiruv"dan voz kechib, raqamli tahlilga asoslangan preventiv (oldini oluvchi) nazorat modeliga o‘tishimiz shart. Sun’iy intellekt va blokcheyn kabi texnologiyalarni byudjet jarayoniga tatbiq etish korrupsion xavflarni nolga tushirish bilan birga, jamiyatda davlatga nisbatan institutsional ishonchni mustahkamlaydi.

DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARINI SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA OPTIMALLASHTIRISH USULLARI VA XORIJ TAJRIBASI.

Abubakirov Temurbek Elmurod o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi
Axunova Shoxistaxon Nomanjanova
FDTU, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining davlat byudjeti xarajatlarini real vaqt rejimida monitoring qilishdagi roli yoritiladi. Sun’iy intellekt tizimlari orqali byudjet mablag‘larining sarflanish jarayonini tahlil qilish, samarasiz xarajatlarni aniqlash va moliyaviy intizomni mustahkamlash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida rivojlangan mamlakatlarda ushbu texnologiyalarning qo‘llanilishi, byudjet shaffofligini ta’minlash va korrupsion holatlarni kamaytirishdagi ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida sun’iy intellektdan foydalanish davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so’zlar:sun’iy intellekt, raqamli texnologiya, davlat xarajatlari, optimallashtirish, byudjet nazorati, ma’lumotlar tahlili.

Bugungi kunda davlat boshqaruvini takomillashtirish va iqtisodiy jarayonlarni samarali tashkil etish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda xarajatlarni qisqartirish muhim vazifalardan biriga aylangan. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy modernizatsiya va raqamli transformatsiya jarayonlarida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etib, ayniqsa davlat byudjeti xarajatlarini optimallashtirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun zamonaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirish zarur bo‘lib, bunda ilg‘or texnologiyalar, xususan, sun’iy intellektdan foydalanish muhim ahamiyatga ega”. Ushbu fikrlar mazkur mavzuning bugungi kundagi dolzarbligini yanada oshiradi[1]. Davlat byudjeti xarajatlari mamlakat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadigan asosiy omillardan biridir. Ularni samarali boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va o‘zaro hamkorlik tamoyillariga asoslangan holda takomillashtirish iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois byudjet xarajatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish va ularning samaradorligini oshirish mamlakat farovonligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat byudjeti xarajatlaridan samarali foydalanish, avvalo, moliyaviy resurslarni chuqur tahlil qilish va ularni ustuvor yo‘nalishlarga to‘g‘ri taqsimlashni talab etadi. Bunga erishish samarali moliyaviy boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yish, xarajatlar ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish hamda mablag‘lardan maqsadli foydalanishni ta’minlash orqali amalga oshiriladi. Shu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish muhim

ahamiyat kasb etib, xarajatlarni real vaqt rejimida monitoring qilish, tahlil qilish va ortiqcha sarf-xarajatlarni aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, byudjet xarajatlarini tashkil etishda malakali va bilimli mutaxassislarning ishtiroki zarur. Bunday kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish yuqori natijalarga erishish uchun muhimdir. Mutaxassislar moliyaviy ma'lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, asosli qarorlar qabul qilish, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni baholash hamda xarajatlar samaradorligini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt vositalari mutaxassislarga tahliliy qarorlar qabul qilishda qo‘shimcha yordam beradi[2].

Davlat byudjeti xarajatlaridan samarali foydalanishni takomillashtirish mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishini jadallashtiradi. Bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish, moliyaviy resurslardan oqilona va shaffof foydalanishga imkon yaratadi hamda aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari davlat byudjeti xarajatlarini tahlil qilishda quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

Ma'lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish: SI texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qilish imkonini beradi. Bu orqali byudjetga doir xarajatlar, daromadlar va ularning o‘zaro ta'siri haqida to‘liq va aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

Prognozlash va qaror qabul qilish: Sun'iy intellekt yordamida davlat byudjeti xarajatlari bo‘yicha prognozlar qilish mumkin. Masalan, iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya va boshqa omillarni inobatga olgan holda, byudjet xarajatlarini optimallashtirish uchun eng samarali yo‘nalishlar aniqlanadi.

Xarajatlarni samarali taqsimlash: Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida davlat xarajatlari muvozanatli taqsimlanishi, bu esa davlat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Byudjet xarajatlarini optimallashtirishning muhim yo‘llaridan biri — davlat xarajatlarini qisqartirish strategiyalarini ishlab chiqishdir. Sun'iy intellekt yordamida samarasiz yo‘nalishlar aniqlanib, mablag‘larni tejash va ularni samaraliroq taqsimlash imkoniyati yaratiladi.Biroq, sun'iy intellektni davlat byudjeti tizimiga joriy etishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, mavjud byudjet tizimlari bilan integratsiya qilishda texnik qiyinchiliklar yuzaga keladi, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun yetarli moliyaviy resurslar talab etiladi. Bundan tashqari, jamiyatda sun'iy intellektga nisbatan ishonchsizlik ham uchrashi mumkin.Shu sababli, O‘zbekistonda sun'iy intellektni byudjet tizimiga joriy etishda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega[3].

Estoniya davlat boshqaruvida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan keng foydalanib, byudjet jarayonlarini yanada samarali tashkil etishga erishgan. Singapurda

esa sun’iy intellekt iqtisodiyot va davlat boshqaruvi tizimlariga faol joriy etilib, ayniqsa byudjet xarajatlarini tahlil qilish va boshqarishda yuqori samaradorlikka erishilgan.

Germaniyada ham raqamlashtirish strategiyasi doirasida byudjet tizimlarini avtomatlashtirish va takomillashtirishga katta e’tibor qaratilib, moliyaviy boshqaruvning aniqligi va shaffofligi oshirilgan.

O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalarining davlat byudjeti tizimiga integratsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yilda "Yangi iqtisodiy siyosat"ni joriy qilish bo‘yicha qabul qilgan qarorlarida sun’iy intellektni joriy etish orqali davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishni ta’kidlagan edi. Shu nuqtayi nazardan, byudjet xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan tizimlar yaratish, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash jarayonida O‘zbekistonda sun’iy intellektni joriy qilish istiqbollari katta ahamiyat kasb etmoqda[4].

So‘nggi yillarda davlat xarajatlarini boshqarishda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib borayotgani ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Jumladan, A. Jo‘rayevning “Raqamli iqtisodiyot va davlat boshqaruvi” nomli asarida sun’iy intellekt algoritmlaridan byudjet boshqaruvida foydalanish, ularning samaradorligini baholash hamda real vaqt rejimida monitoring olib borish masalalari atroflicha tahlil qilingan. Muallif ta’kidlashicha, moliyaviy oqimlarni boshqarishda inson omilining kamayishi, qarorlar qabul qilish jarayonining tezlashishi va xarajatlarni oldindan prognozlashda raqamli texnologiyalar muhim ahamiyatga ega.

1-jadval

Sun’iy intellekt texnologiyalarining davlat byudjeti xarajatlarini tahlil qilishdagi asosiy funksiyalari.

№	Asosiy funksiyalar	Tavsifi	Kutiladigan natija
1	Ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash	Sun’iy intellekt katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarni tezkor yig‘adi va tahlil qiladi	Byudjet daromad va xarajatlari bo‘yicha aniq va to‘liq ma’lumotlar bazasi shakllanadi
2	Real vaqt monitoring	Xarajatlar jarayoni doimiy kuzatib boriladi	Noto‘g‘ri yoki samarasiz sarflarni erta aniqlash imkoniyati yaratiladi
3	Prognozlash	Iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida kelajakdagi xarajatlar bashorat qilinadi	Byudjet rejalashtirish samaradorligi oshadi
4	Xarajatlarni optimallashtirish	Keraksiz va samarasiz xarajatlar aniqlanadi	Davlat mablag‘laridan oqilona foydalanish ta’minlanadi
5	Qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash	Analitik modellar asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi	Tezkor va asoslangan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi
6	Xatolar va korrupsiyani aniqlash	Shubhali operatsiyalar avtomatik aniqlanadi	Moliyaviy shaffoflik va nazorat kuchayadi

Sun’iy intellekt texnologiyalari davlat byudjeti xarajatlarini tahlil qilish va optimallashtirish jarayonida muhim o‘rin egallaydi. Ular yordamida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mumkin. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirib, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va aniqroq qiladi.Shu sababli, Shavkat Mirziyoyev tomonidan sun’iy intellektni rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa davlat moliyasini boshqarish tizimini yanada zamonaviy va samarali bosqichga olib chiqadi.

Davlat xarajatlarini optimallashtirish uchun sun’iy intellekt asosida quyidagi amaliy chora-tadbirlarni joriy etish mumkin:

-Real vaqt byudjet monitoring tizimi :Har bir xarajatni onlayn kuzatib boradigan SI platforma yaratish orqali ortiqcha va samarasiz sarf-xarajatlarni darhol aniqlash.

-Avtomatlashtirilgan prognozlash tizimi:Inflyatsiya, iqtisodiy o‘sish va bozor o‘zgarishlari asosida byudjet xarajatlarini oldindan bashorat qiluvchi model ishlab chiqish.

-Samarasiz xarajatlarni aniqlash algoritmlari:Ma’lumotlar tahlili orqali keraksiz yoki past samarali xarajat yo‘nalishlarini avtomatik aniqlash va qisqartirish.

-Raqamli audit tizimi:Korrupsiya va moliyaviy xatolarni aniqlash uchun sun’iy intellekt asosidagi audit platformalarini joriy etish.

-Davlat xaridlarini optimallashtirish:Tender va xarid jarayonlarini SI yordamida tahlil qilib, eng arzon va samarali takliflarni avtomatik tanlash.

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA RAQAMLI AUDIT (IT-AUDIT) VA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI TA’MINLASH

Mirzayev Abdullajon Topilovich
Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm kafedrasi i.f.d., professor
Madvaliyev Bekzod Baxodir o’g’li
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda qishloq xo‘jaligi korxonalarida moliyaviy shaffoflikni ta’minlashda raqamli audit (IT-audit) va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari o‘rganiladi. Tadqiqotda an’anaviy audit tizimining kamchiliklari tahlil qilinib, raqamlashtirish asosida audit jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt orqali moliyaviy xatoliklar va firibgarliklarni aniqlash mexanizmlari yoritiladi. Ish natijasida qishloq xo‘jaligi korxonalarida zamonaviy audit tizimini joriy etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli audit, IT-audit, sun’iy intellekt, moliyaviy shaffoflik, ichki audit, qishloq xo‘jaligi, raqamlashtirish, audit tizimi

Hozirgi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan qishloq xo‘jaligida ham raqamli transformatsiya jarayonlari jadallik bilan rivojlanmoqda. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, shaffoflikni ta’minlash va moliyaviy intizomni kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.[1]

An’anaviy audit tizimlari ko‘pincha vaqt talab etuvchi, inson omiliga bog‘liq va xatolik ehtimoli yuqori bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, zamonaviy axborot texnologiyalarini audit jarayonlariga joriy etish zarurati ortib bormoqda. Raqamli audit (IT-audit) tizimlari orqali ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, real vaqt rejimida monitoring qilish va moliyaviy operatsiyalar ustidan samarali nazoratni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi audit tizimlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun’iy intellekt yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, yashirin moliyaviy xatoliklar va firibgarlik holatlarini aniqlash imkoniyati mavjud.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida moliyaviy nazorat va audit tizimi iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda ushbu korxonalarda audit jarayonlari asosan an’anaviy usullarga asoslangan bo‘lib, ular ko‘p vaqt talab etishi, inson omiliga yuqori darajada bog‘liqligi hamda real vaqt rejimida nazoratni ta’minlay olmasligi bilan tavsiflanadi. Natijada moliyaviy xatoliklar va noqonuniy operatsiyalar o‘z vaqtida aniqlanmaydi, bu esa moliyaviy shaffoflik darajasining pasayishiga olib keladi.

Raqamli audit (IT-audit) tizimlarini joriy etish ushbu muammolarni bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi. IT-audit orqali moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirilgan tarzda tekshirish, ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa audit jarayonining aniqligi va tezkorligini oshirib, inson omilining ta’sirini sezilarli darajada kamaytiradi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi korxonalarida katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash zarurati mavjud bo‘lgani sababli, raqamli audit tizimlari samaradorlikni sezilarli oshiradi.[2]

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarini audit jarayonlariga integratsiya qilish moliyaviy nazoratni yangi bosqichga olib chiqadi. Sun’iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish orqali g‘ayritabiiy operatsiyalarni aniqlash, moliyaviy xatoliklar va firibgarlik holatlarini aniqlash hamda risklarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi. Bu esa korxonalarda moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida raqamli audit va sun’iy intellektdan foydalanish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini ham takomillashtiradi. Chunki avtomatlashtirilgan tizimlar orqali rahbariyatga tezkor, aniq va ishonchli ma’lumotlar taqdim etiladi. Bu esa strategik rejalashtirish va moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshiradi.[3]

1-jadval

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida an’anaviy audit va raqamli audit (IT-audit) taqqoslanishi

№	Mezoni	An’anaviy audit	Raqamli audit (IT-audit + AI)
1	Tekshiruv usuli	Qo‘lda, hujjatlar asosida	Avtomatlashtirilgan, dasturiy tizimlar orqali
2	Vaqt sarfi	Ko‘p vaqt talab qiladi	Juda tez va real vaqtga yaqin
3	Inson omili	Yuqori darajada bog‘liq	Minimal darajada
4	Xatolik ehtimoli	Yuqori	Past
5	Ma’lumotlar hajmi bilan ishlash	Cheklangan	Katta hajmdagi (Big Data) ma’lumotlarni qayta ishlaydi
6	Firibgarlikni aniqlash	Qiyin	Sun’iy intellekt orqali oson aniqlanadi
7	Monitoring	Davriy (hisobotdan keyin)	Real vaqt rejimida
8	Qaror qabul qilish	Sekin	Tez va aniq
9	Shaffoflik darajasi	Past yoki o‘rtacha	Yuqori
10	Samaradorlik	Past	Yuqori

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi korxonalarida raqamli audit va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish moliyaviy shaffoflikni ta’minlash, audit jarayonlarini optimallashtirish hamda moliyaviy risklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv nafaqat audit sifatini oshiradi, balki korxonalarning umumiy iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi jadval qishloq xo‘jaligi korxonalarida qo‘llanilayotgan an’anaviy audit tizimi bilan zamonaviy raqamli audit (IT-audit va sun’iy intellekt asosidagi) tizim o‘rtasidagi asosiy farqlarni aniq ko‘rsatib beradi. Undan ko‘rinadiki, an’anaviy audit jarayonlari asosan qo‘lda amalga oshirilgani sababli ko‘p vaqt talab etadi, inson omiliga kuchli darajada bog‘liq bo‘ladi va xatolik ehtimoli yuqori hisoblanadi. Bundan tashqari, bunday tizimda nazorat ko‘pincha hisobot davridan keyin amalga oshirilgani uchun real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati cheklangan bo‘ladi, bu esa moliyaviy shaffoflik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli audit tizimi esa zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt imkoniyatlariga tayanib, audit jarayonlarini avtomatlashtiradi va tezlashtiradi. Natijada ma’lumotlar real vaqt rejimida tahlil qilinadi, inson omilining ta’siri kamayadi va xatoliklar ehtimoli sezilarli darajada pasayadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, moliyaviy operatsiyalardagi g‘ayritabiiy holatlarni aniqlash hamda firibgarlik xavfini oldindan baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu jihatdan, raqamli audit tizimi nafaqat audit samaradorligini oshiradi, balki qishloq xo‘jaligi korxonalarida moliyaviy shaffoflikni ta’minlashning eng muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.[4]

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi korxonalarida amaldagi an’anaviy audit tizimi moliyaviy nazoratni to‘liq va samarali ta’minlay olmaydi. Xususan, audit jarayonlarining qo‘lda bajarilishi, inson omiliga yuqori darajada bog‘liqligi hamda real vaqt rejimida monitoringning mavjud emasligi moliyaviy shaffoflik darajasining pasayishiga olib kelmoqda.

Raqamli audit (IT-audit) va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv audit jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, xatoliklar va firibgarliklarni aniqlash hamda moliyaviy nazoratni kuchaytirish imkonini beradi. Natijada qishloq xo‘jaligi korxonalarida moliyaviy shaffoflik, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv qarorlarining sifat darajasi oshadi.

Shunday qilib, raqamli audit va sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlar qishloq xo‘jaligi korxonalarida zamonaviy va samarali moliyaviy nazorat tizimini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Amaliy taklif sifatida bir nechta takliflarni keltirib o’tish mumkin. Jumladan, Barcha moliyaviy operatsiyalarni to‘liq raqamlashtirish va ularni yagona platformaga o‘tkazish qishloq xo‘jaligi korxonalarida moliyaviy boshqaruvni tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvning mohiyati shundaki, korxonada amalga oshiriladigan barcha moliyaviy jarayonlar — daromadlar, xarajatlar, to‘lovlar, hisob-kitoblar, shartnomalar va hisobotlar qog‘oz shakldan elektron tizimga o‘tkaziladi va yagona axborot platformasida jamlanadi. Natijada ma’lumotlar tarqoq holda emas, balki markazlashgan holda saqlanadi va boshqariladi.

Auditorlar uchun IT va raqamli texnologiyalar bo‘yicha treninglar tashkil etish qishloq xo‘jaligi korxonalarida raqamli audit tizimini samarali joriy etishning muhim shartlaridan biridir. Chunki zamonaviy audit jarayonlari endilikda nafaqat moliyaviy bilimlarni, balki axborot texnologiyalari, ma’lumotlar tahlili va dasturiy tizimlar bilan ishlash ko‘nikmalarini ham talab qiladi. Agar auditorlar yangi texnologiyalarni yetarli darajada bilmasa, hatto eng ilg‘or raqamli tizimlar ham kutilgan natijani bermaydi.

Bunday treninglarning asosiy maqsadi auditorlarni IT-audit asoslari, raqamli platformalar bilan ishlash, elektron hujjat aylanishi, ma’lumotlar bazasi va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlashdan iborat. Xususan, auditorlar moliyaviy dasturlar, ERP tizimlari, ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari (masalan, Excel, BI tizimlar) hamda sun’iy intellekt asosidagi audit vositalaridan foydalanishni o‘rganishlari zarur.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDITDA RAQAMLASHTIRISH, IT-AUDIT HAMDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Soliyev Abdulloh Komiljon o'g'li
Farg'ona davlat texnika unbiversiteti talabasi
Axunova Shoxistaxon Nomanjanovna
FDTU, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog'liq jarayonlar tahlil qilinadi. Xususan, IT-auditning zamonaviy shakllari, sun'iy intellekt asosidagi yechimlarning amaliy ahamiyati hamda ularning moliyaviy boshqaruv samaradorligiga ta'siri yoritiladi. Muallif tomonidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarning ustuvorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, davlat nazorati, ichki audit, IT-audit, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, risk monitoringi.

Bugungi kunda iqtisodiy tizimlarning raqamlashtirilishi davlat boshqaruvi sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, moliyaviy nazorat va audit tizimlarida an'anaviy yondashuvlar o'rnini zamonaviy texnologiyalar egallamoqda. Bu esa davlat mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Raqamli texnologiyalarni keng qo'llash orqali ma'lumotlar bilan ishlash tezligi ortadi, inson omiliga bog'liq xatoliklar kamayadi va qaror qabul qilish jarayoni yanada asosli bo'ladi. Shu sababli, IT-audit va sun'iy intellektni moliyaviy nazorat tizimiga integratsiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Raqamlashtirish jarayoni davlat moliyaviy nazoratining mazmunini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Endilikda nazorat faqat tekshiruvlar bilan cheklanib qolmay, balki doimiy monitoring shakliga o'tmoqda. Elektron platformalar orqali amalga oshiriladigan nazorat tizimlari real vaqt rejimida ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi.

Bunday yondashuv quyidagi natijalarga olib keladi:

- nazoratning uzluksizligini ta'minlaydi;
- moliyaviy operatsiyalar ustidan tezkor kuzatuvni yo'lga qo'yadi;
- resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Natijada davlat moliyaviy siyosatining shaffofligi oshadi va hisobdorlik kuchayadi.

Axborot texnologiyalari asosida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarda audit jarayonini samarali tashkil etish uchun IT-audit alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalish faqat texnik jihatlarni emas, balki axborot tizimlarining ishonchliligi va xavfsizligini ham qamrab oladi.

IT-audit orqali quyidagilar aniqlanadi:

- tizimlar faoliyatidagi nomuvofiqliklar;
- ma’lumotlar himoyasi darajasi;
- dasturiy vositalarning samaradorligi;
- ichki nazorat mexanizmlarining yetarliligi.

Shu jihatdan, IT-audit moliyaviy nazoratni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi va boshqaruv qarorlarining aniqligini oshiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari audit faoliyatini avtomatlashtirish va tahliliy imkoniyatlarni kengaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash, murakkab bog‘liqliklarni aniqlash va ehtimoliy xatoliklarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi.

Sun’iy intellektning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- katta ma’lumotlar bazasini chuqur tahlil qilish;
- firibgarlik alomatlarini avtomatik aniqlash;
- risklarni baholash va prognozlash;
- auditorlik jarayonlarini optimallashtirish.

Bu esa audit tizimining nafaqat tezkorligini, balki aniqligini ham sezilarli darajada oshiradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etishda qator muammolar yuzaga keladi. Ular orasida infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali kadrlar yetishmasligi hamda axborot xavfsizligi bilan bog‘liq tahdidlar mavjud.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- IT sohasida mutaxassislar tayyorlashni kuchaytirish;
- zamonaviy texnik bazani shakllantirish;
- xalqaro tajribalarni o‘rganish va joriy etish;
- kiberxavfsizlik tizimlarini mustahkamlash.

Bunday yondashuv raqamlashtirish jarayonining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida raqamlashtirish, IT-audit hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu vositalar orqali nazorat tizimi yanada takomillashadi, shaffoflik ortadi va moliyaviy intizom mustahkamlanadi.

Kelgusida ushbu sohani rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash hamda raqamli kompetensiyalarni oshirish zarur.

СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ СОҲАСИДА ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Зайниддинов Аловиддин Зайниддин ўғли
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Жаҳон иқтисодиётида рақамли трансформация жараёнларининг жадаллашуви, айниқса, сунъий интеллект (AI) технологияларининг кенг жорий этилиши инсон капитали сифатини мутлақо янги босқичга олиб чиқмоқда. Бугунги кунда сунъий интеллект иқтисодий ўсишнинг асосий драйверларидан бири сифатида намоён бўлиб, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, янги иш ўринларини яратиш ва инновацион ривожланишни таъминлашда муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистонда ҳам сунъий интеллект соҳасида инсон капиталини ривожлантириш стратегик аҳамиятга эга йўналишлардан бири сифатида белгиланган. Сўнгги йилларда мамлакатда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш, IT соҳасини қўллаб-қувватлаш ва малакали кадрлар тайёрлаш бўйича кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, IT-парклар фаолиятини кенгайтириш, замонавий таълим дастурларини жорий этиш ва халқаро ҳамкорликни кучайтириш орқали сунъий интеллект соҳасида инсон ресурсларини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Жаҳон иқтисодиётида сунъий интеллект технологиялари ривожланиши инсон капиталини шакллантириш ва сифатини ошириш билан узвий боғлиқдир. Чунки, сунъий интеллект технологиясини ишлаб чиқиш, жорий этиш ва самарали бошқариш юқори малакали мутахассислар орқали амалга оширилади. Инсон капитали эса билим, кўникма, инновацион фикрлаш ва рақамли компетенциялар йиғиндиси сифатида иқтисодий ўсишнинг асосий омили ҳисобланади. Бугунги кунда глобал сунъий интелект бозори хажми 2025 йилда 390,91 млрд.АҚШ доллари миқдорида баҳоланмоқда ва 2021 йилга нисбатан қарийб 4,2 мартага кўпайган. Ушбу ҳолат рақамли трансформация жараёнларининг тезлашиши: онлайн хизматларни кенгайтириш, бизнес жараёнларини автоматлаштириш хамда пандемия шароитида масофавий ишлашнинг ривожланиши билан изоҳлнади (1-расм).



1-расм. Глобал сунъий интеллект бозори хажми (млрд.АҚШ доллари)[134].

Сўнгги йилларда маълумотлар ҳажмининг ўсиши, йирик технологик компаниялар (Google, Microsoft, Amazon, OpenAI)нинг сунъий интелект соҳасига миллиардлаб доллар инвестицияларни амалга ошириши натижасида янги интелектуал маҳсулотлар (ChatGPT, Copilot ва бошқалар) яратилди ва бошқа автоматлаштирилган платформалар пайдо бўлди. Дунёнинг кўплаб давлатлари сунъий интелект технологиялари соҳасини стратегик соҳалар сафига киритиб, миллий стратегиялар қабул қилинди, соҳани давлат томонидан қўллаб-қувватлаш кучайтирилди ва давлат томонидан турли грант ва субсидиялар ажратилмоқда. Шу жумладан, Ўзбекистонда ҳам Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 14 октябрдаги ПҚ-358-сон «Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегияси” тўғрисидаги қарори қабул қилинди. Қарорда сунъий интеллект технологияларини ривожлантириш бўйича устувор мақсад ва вазифалар: сунъий интеллект технологияларини ривожлантиришга қаратилган норматив-ҳуқуқий базани шакллантириш, соҳада стандартларни такомиллаштириш ва халқаро ҳамкорлик алоқаларини мустаҳкамлаш; маълумотларни қайта ишлаш ҳамда сунъий интеллектга асосланган лойиҳаларни ишга тушириш учун техник инфратузилма яратиш, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларида мазкур йўналишдаги устувор лойиҳаларни амалга ошириш; сунъий интеллект технологияларидан фойдаланиш бўйича аҳолининг билим ва кўникмаларини ошириш, кадрлар салоҳиятини ривожлантириш каби устувор мақсад ва вазифалар белгиланди.

[134] Ҳалқаро статистика базаси маълумотлари. https://www.grandviewresearch.com/

1-жадвал

Ўзбекистонда рақамли технологиялар кўрсаткичлари[135]

Кўрсаткичлар	Йиллар		
	2022	**2023**	**2024**
IT Park резидентлари сони (та)	588	1598	2384
IT соҳасида бандлар (нафар)	18000	24125	26000
IT хизматлари экспорти (млн $)	80	300	376
IT-паркда сунъий интеллект йўналишида фаолият юритувчи резидентлар	25	32	40

Натижада, 1-жадвал маълумотлари ҳам тасдиқлаб турибдики, IT Park резидентлари сони 2024 йилда 2384 тага етиб, 2022 йилга нисбатан 1796 тага ошган. IT соҳасида бандлар сони ҳам 2024 йилда 2022 йилга нисбатан 6000 нафарга кўпайган. IT хизматлари экспорти эса 2024 йилда 376 млн.АҚШ долларини ташкил қилиб, 2022 йилга нисбатан 4,7 мартага кўпайган. IT-паркда сунъий интеллект йўналишида фаолият юритувчи резидентлар сони 2024 йилда 40тага етган.

Юқоридаги таҳлиллар шуни кўрсатадики, Ўзбекистонда сунъий интеллект технологиялари соҳасида инсон капиталини ривожлантиришни жадаллаштириш учун тизимли ва комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш зарур. Хусусан, таълим тизимини халқаро стандартлар асосида модернизация қилиш, AI йўналишларини олий ва ўрта махсус таълим дастурларига чуқур интеграциялаш ҳамда амалиётга йўналтирилган ўқитишни кучайтириш устувор вазифалардан ҳисобланади. Шу билан бирга, илмий-тадқиқот фаолиятини рағбатлантириш, инновацион марказлар ва стартап экотизимини ривожлантириш орқали юқори малакали мутахассислар тайёрлаш имкониятларини кенгайтириш лозим. Етакчи хорижий университетлар ва технологик компаниялар билан қўшма дастурларни йўлга қўйиш инсон капитали сифатини сезиларли даражада оширади.

[135] https://www.it-park.uz/ru/itpark/news/itogi-2021-goda-kolichestvo-it-kompaniy-rezidentov-it-park-sostavilo-bolee-500

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI

Beknazarov Zafarjon Ergachevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii iqtisodiyot fanlari doktori,professor
Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii talabasi

Annotatsiya: Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida milliy iqtisodiy barqarorlikka real tahdid soluvchi muammolar tahlil etiladi. Muallif texnologik bog‘liqlik, kibertahdidlar va ma'lumotlar suverenitetini asosiy xavf omillari sifatida belgilab, ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan aniq tavsiyalar ishlab chiqadi. Tadqiqot O‘zbekiston misolida raqamli iqtisodiy xavfsizlikning milliy kontseptsiyasini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, milliy iqtisodiy barqarorlik, kibertahdid, texnologik suverenitet, raqamli tengsizlik, tartibga solish, iqtisodiy xavfsizlik.

Bugungi kunda global iqtisodiyot shiddat bilan o‘zgarmoqda. Sun'iy intellekt, blockchain, bulut hisoblash va katta ma'lumotlar tahlili singari texnologiyalar an'anaviy iqtisodiy modellarning poydevorini silkitmoqda. Ulkan imkoniyatlar bilan bir qatorda bu jarayonlar milliy iqtisodiyotlar uchun yangicha zaifliklarni ham keltirib chiqarmoqda [1]. Ayni shu nuqta ushbu tadqiqotning markaziy masalasini tashkil etadi: raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy barqarorlik qanday ta'minlanishi mumkin? Muammoning dolzarbligi shundaki, ko‘pchilik davlatlar raqamlashtirish dasturlarini ishlab chiqqanda asosan iqtisodiy o‘sish va samaradorlik masalalariga e'tibor qaratadi. Biroq barqarorlikka tahdid soluvchi tizimli xavf-xatarlar yetarlicha o‘rganilmay qolmoqda. Muallif sifatida shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiy barqarorlik va raqamlashtirish o‘rtasidagi munosabat chiziqli emas — ular bir-birini kuchaytirishi ham, bir-biriga zid kelishi ham mumkin. Bu qarama-qarshilikni tushunmasdan turib samarali iqtisodiy siyosat yuritib bo‘lmaydi. O‘zbekistonning 2030-yilgacha mo‘ljallangan raqamli rivojlanish strategiyasi [2] mamlakat iqtisodiyotini tezkor raqamlashtirish yo‘lini belgilaydi. Ammo shu strategiyaning o‘zida tan olinishicha, kibertahdidlar, kadrlar yetishmasligi va raqamli infratuzilmaning zaifligi asosiy to‘siq bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, ushbu muammolarni yanada chuqurroq tahlil etish va amaliy yechimlar taklif qilish ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot va barqarorlik:

Raqamli iqtisodiyot tushunchasini birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan D. Tapskott uni “axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi iqtisodiy tizim” sifatida ta'riflagan [3]. O‘shandan beri bu tushuncha kengayib, sun'iy intellekt, platformali biznes modellari va ma'lumotlar iqtisodiyotini ham o‘z ichiga olmoqda. Iqtisodiy barqarorlik an'anaviy iqtisod nazariyasida to‘rt mezonga ko‘ra baholanadi: narx

barqarorligi, to‘liq bandlik, tashqi savdo balansi va doimiy o‘sish. Raqamli muhit bu mezonlarni saqlab qoladi, ammo ularga yangi o‘lchamlarni — ma'lumotlar xavfsizligini, raqamli infratuzilmaning mustahkamligini va texnologik mustaqillikni — qo‘shadi [4]. Masalan, 2017-yilda WannaCry ransomware xurujining dunyo bo'ylab 150 mamlakatdagi iqtisodiy infratuzilmaga yetkazgan zararini ko‘rib, kibertahdidlarning makroiqtisodiy oqibatlarini e'tiborga olmaslik mumkin emasligi oydinlashdi. Shaxsiy mulohazalarimga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot va milliy barqarorlik o‘rtasidagi munosabatni “ikki tomonlama qilich” sifatida baholash to‘g‘ri, ammo yetarli emas. Bu munosabatda davlatning texnologik salohiyati, tartibga solish qobiliyati va xalqaro raqamli munosabatlardagi maqomi hal qiluvchi omil bo'lib qoladi. Texnologik jihatdan kuchli davlatlar uchun raqamlashtirish barqarorlikni mustahkamlaydi; kuchsizlar uchun esa aksincha, yangi bog‘liqliklar va zaifliklarni keltirib chiqaradi [5].

Milliy iqtisodiy barqarorlikka asosiy tahdidlar

Birinchi va eng jiddiy tahdid — texnologik bog‘liqlik va raqamli suverenitetning yo‘qligi. Hozirda dunyo miqyosida raqamli infratuzilmaning katta qismi bir necha transmilliy texnologik gigantlar — Amazon, Google, Microsoft, Alibaba — nazoratida. O‘zbekistonda ham moliyaviy to‘lov tizimlari, bulut xizmatlari va korporativ dasturiy ta'minot asosan xorijiy platformalarga tayanadi. Bunday vaziyatda sanksiyalar, tijorat nizolari yoki texnik uzilishlar milliy iqtisodiy jarayonlarni to‘xtatib qo‘yishi mumkin [6]. Bu esa iqtisodiy barqarorlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid; Ikkinchi tahdid — kibertahdidlarning kuchayib borishi. Jahon banki hisobotiga ko‘ra, kiberxurujlardan global iqtisodiy zarar yiliga 6 trln dollardan oshadi va bu ko‘rsatkich har yili o‘sib bormoqda [7]. Rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan O‘zbekiston, kiberhimoya tizimlarining nisbatan zaifligi sababli ushbu xurujlarga ko‘proq moyil. Energetika, moliya va transport kabi kritik tarmoqlar raqamli boshqaruvga o‘tgan sari ularning kiberxurujlar orqali falaj etilishi xavfi ham ortib bormoqda; Uchinchi tahdid — ma'lumotlar suverenitetining ta'minlanmasligi. Zamonaviy iqtisodda ma'lumot eng qimmatli strategik resursga aylandi [4]. Fuqarolar, korxonalar va davlat organlari to‘g‘risidagi ma'lumotlarning xorijiy serverlar va platformalarda saqlanishi nafaqat axborot xavfsizligiga, balki milliy iqtisodiy manfaatlarga ham jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Bu muammo ayiqacha O‘zbekiston uchun dolzarb, chunki mamlakatimizda ma'lumotlarni mahalliylashtirish borasidagi qonunchilik hali shakllanish bosqichida; To‘rtinchi tahdid — raqamli tengsizlikning kuchayishi va iqtisodiy parchalanish. Raqamlashtirish jarayonida raqamli texnologiyalarga erta kirish imkoniga ega bo‘lgan yirik korxonalar va sektorlar boshqalardan tezroq o‘sadi. Kichik va o‘rta korxonalar, ayniqsa qishloq hududlardagi firmalar, ushbu jarayondan chiqarib qo‘yilish xavfiga duch keladi [8]. Bu esa iqtisodiy ikki qutblilikka va ijtimoiy notinchlikka olib kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy barqarorlikni zaiflashtiradi; Beshinchi tahdid — tartibga solish tizimining eskirishi. An'anaviy moliyaviy tartibga solish mexanizmlari

kriptovalyutalar, desentrallashgan moliya (DeFi) platformalari va yangi turdagi raqamli aktivlarga nisbatan samarasiz bo‘lib qolmoqda. Markaziy bank pul-kredit siyosatining an'anaviy vositalariga tayanishi holda raqamli valyutalar va kriptovosital bozorlar tartibsiz rivojlanib, moliyaviy barqarorlikka real tahdid solishi kuzatilmoqda [9].

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni tahlil etib, ushbu tadqiqot doirasida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari suraman:

Birinchi tavsiya: Milliy raqamli suverenitet kontseptsiyasini ishlab chiqish va uni qonunchilik darajasida mustahkamlash. O‘zbekiston shu qadar jiddiy qadam sifatida milliy bulut infratuzilmasini barpo etishi, davlat ahamiyatiga ega ma'lumotlarni mahalliy serverlarda saqlashni majburiy qilishi va kritik raqamli infratuzilmada mahalliy texnologik yechimlarni qo'llashni rag'batlantirishi lozim. Bu borada Rossiya va Hindistonning ma'lumotlarni mahalliylashtirish bo‘yicha tajribasi muayyan yo‘l ko‘rsata oladi [6]; Ikkinchi tavsiya: Milliy kiberhimoya tizimini iqtisodiy xavfsizlik tarkibiga kiritish. Buning uchun kritik iqtisodiy infratuzilmani himoyalashning yagona davlat standartlarini joriy etish, kiberhigiyena talablarini korxonalar uchun majburiy qilish va mintaqaviy hamkorlik doirasida kibertahdidlar monitoringi tizimini o‘rnatish tavsiya etiladi [7]; Uchinchi tavsiya: Moslashuvchan “sandbox” tartibga solish tizimini qonunchilikda belgilash. Raqamli moliya vositalarini, kriptovalyutalarni va DeFi platformalarini an'anaviy qonunchilik doirasiga majburan kiritish o‘rniga alohida sinov rejimida tartibga solish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. O‘zbekiston 2021-yilda boshlagan “Kripto-zona” tajribasini kengaytirish va qonuniy asosini mustahkamlash tavsiya etiladi [2]; To‘rtinchi tavsiya: Raqamli tengsizlikni kamaytirish uchun maqsadli dasturlar ishlab chiqish. Kichik va o‘rta biznesga raqamli texnologiyalarni joriy etishda soliq imtiyozlari va subsidiyalar berish, qishloq hududlarda internet infratuzilmasini rivojlantirish va aholining barcha qatlamlarida raqamli savodxonlikni oshirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylanishi kerak [8]; Beshinchi tavsiya: Raqamli iqtisodiyot barqarorligini baholashning milliy ko‘rsatkichlar tizimini yaratish. Hozirda O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni o‘lchash an'anaviy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga asoslanadi. Ularga raqamli barqarorlik indeksi, kibertahdidlar darajasi, ma'lumotlar suverenitetining holati kabi yangi mezonlarni qo‘shish zarur. Bu tizim asosida iqtisodiy siyosatning samaradorligini yanada aniqroq baholash mumkin bo‘ladi [10].

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot milliy barqarorlikka tahdid solmaydi — agar bu jarayon to‘g‘ri boshqarilsa. Muammo texnologiyalarning o‘zida emas, balki ularni tartibga solish va boshqarish qobiliyatining yetarli emasligi, shuningdek, raqamli bog‘liqlikning milliy suverenitetni chegaralab qo‘yishi xavfida. O‘zbekiston uchun raqamli iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash uch ustunra asoslanishi lozim: texnologik mustaqillik, qonunchilik moslashuvchanligi va inson kapitalini rivojlantirish. Muallifning asosiy xulosasi shundan iborat: raqamli iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun davlat passiv tartibga soluvchi bo'lishdan chiqib, faol “raqamli arxitektor”

roliga o‘tishi zarur. Milliy raqamli suverenitetni qonunchilikda mustahkamlash, kiberhimoyani iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismiga kiritish va moslashuvchan tartibga solish tizimini joriy etish — bular kechiktirib bo‘lmaydigan strategik qarorlardir. Bu yo‘lda tajribali davlatlarning yutug‘laridan o‘rganish va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘ziga xos model ishlab chiqish O‘zbekistonning raqamli kelajagini barqaror asoslarga qurishga imkon beradi.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KOMPLAENS NAZORATNI AMALGA OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI

Mamarizayev Asadbek
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida komplaens nazoratni amalga oshirishda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida SI asosidagi tizimlarning an’anaviy nazorat usullari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqilgan. Maqolada mashinali o‘qitish, tabiiy tilni qayta ishlash va prediktor tahlil usullarining komplaens nazoratdagi amaliy qo‘llanilishi yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari inson xatolarini 73% gacha kamaytirish, nazorat jarayonlari samaradorligini esa 2,5 barobarga oshirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, komplaens nazorat, oliy ta’lim, mashinali o‘qitish, tabiiy tilni qayta ishlash, prediktor tahlil, risklar boshqaruvi.*

Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta’lim muassasalari (OTM) tobora murakkablashib borayotgan me’yoriy-huquqiy talablar, akkreditatsiya standartlari va korporativ boshqaruv normalari oldida turmoqda. Bunday sharoitda komplaens nazorat — ya’ni tashkilot faoliyatining qonunchilik talablari, ichki qoidalar va etika normalariga muvofiqligini ta’minlash — oliy ta’lim boshqaruvining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirish strategiyasi, xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida OTMlar raqamlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish yo‘nalishida katta islohotlar amalga oshirmoqda. Shu bois sun’iy intellekt texnologiyalaridan komplaens nazoratda foydalanish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, an’anaviy komplaens nazorat usullari — qo‘lda audit, davriy tekshiruvlar va hujjatli nazorat — zamonaviy OTMlarning murakkab va ko‘p qirrali muhitida o‘z samaradorligini yo‘qotmoqda. Ma’lumotlar hajmining eksponensial o‘sishi, me’yoriy bazaning doimiy o‘zgarishi va inson omilining

cheklanuvchanligi bu tizimlarning ishonchliligi va tezkorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — oliy ta’lim muassasalarida komplaens nazoratni amalga oshirishda SI texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, ularning qo‘llanilish sohalari va amaliy imkoniyatlarini aniqlash hamda joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Komplaens nazorat sohasidagi xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalarining bu sohadagi qo‘llanilishi so‘nggi besh yil ichida jadal sur’atlar bilan rivojlanib kelmoqda. Deloitte (2023) kompaniyasining tadqiqotiga ko‘ra, moliya va ta’lim sektorida SI asosidagi komplaens tizimlari joriy etilgan tashkilotlarda me’yoriy talablarni buzish holatlari 68% ga kamaygan.

Zhang va Huang (2022) o‘zlarining tadqiqotida xitoy universitetlarida mashinali o‘qitish algoritmlarini komplaens monitoringda qo‘llash tajribasini o‘rganib, ushbu texnologiyalarning auditni avtomatlashtirishda 84% aniqlik darajasiga erishishini isbotladi. Mualliflar, shuningdek, SI tizimlarining real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyati an’anaviy davriy auditga nisbatan eng muhim ustunligini ta’kidlaydi.

Yevropa oliy ta’lim makoni kontekstida Garcia va Martinez (2023) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot akkreditatsiya standartlarining bajarilishini tekshirishda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining ahamiyatini alohida ko‘rsatib berdi. Ushbu tadqiqot NLP algoritmlarining yuzlab sahifalik akkreditatsiya hujjatlarini bir necha daqiqada tahlil qilib, me’yoriy talablardan og‘ishlarni aniqlay olishini namoyish qildi.

Mahalliy kontekstda esa O'zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari Rahimov (2023) va Yusupov (2024) tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, komplaens nazoratning SI texnologiyalari bilan birgalikda o‘rganilishi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, so‘rov va ekspert bahosi. Empirik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining 12 ta oliy ta’lim muassasasidan yig‘ildi. Tadqiqot 2023-2024 yillar davomida amalga oshirildi.

Tadqiqot obyekti: Oliy ta'lim muassasalarida komplaens nazorat tizimlari va ularning SI texnologiyalari bilan integratsiyasi. Tadqiqot predmeti: SI texnologiyalarining komplaens nazorat samaradorligiga ta’sir ko'rsatuvchi omillar va mexanizmlar.

So‘rov 240 nafar respondentni qamrab oldi: ularning 80 nafari — OTM rahbariyati va boshqaruv xodimlari, 100 nafari — ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limlari xodimlari, 60 nafari esa — SI va axborot texnologiyalari mutaxassislari. Tanlama maqsadli (purposive sampling) usul bilan shakllantirildi.

1- jadval. Tadqiqotda qatnashgan oliy ta’lim muassasalari taqsimoti

Muassasa turi	Soni	Ulushi (%)	Geografiya
Davlat universitetlari	7	58.3	Toshkent, Samarqand, Buxoro
Nodavlat OTMlar	3	25.0	Namangan, Andijon, Farg‘ona
Xorijiy filiallar	2	16.7	Toshkent

SI TEXNOLOGIYALARINING KOMPLAENS NAZORATDAGI QO‘LLANILISHI

1. Mashinali o‘qitish va risklarni bashorat qilish

Mashinali o‘qitish (Machine Learning — ML) algoritmlari komplaens nazoratning eng muhim vazifalaridan biri — potensial riskli holatlarni oldindan aniqlash imkoniyatini beradi. Supervizion o‘qitish (supervised learning) yondashuvi orqali tizim tarixiy ma’lumotlar asosida “yuqori xavfli” va “past xavfli” vaziyatlarni farqlashni o‘rganadi.

O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ML asosidagi prediktor modellar OTMlarda moliyaviy komplaens buzilishlarini 89% aniqlik darajasida 3 oy oldin bashorat qila oladi. Bu esa muammoni oldini olish, reaktiv choralar ko‘rishdan samaraliroq yondashuv sifatida baholanadi.

Tasodifiy o‘rmonlar (Random Forest) va gradient kuchaytirilgan daraxtlar (Gradient Boosted Trees) algoritmlari ayniqsa muvaffaqiyatli natijalar ko‘rsatdi. Random Forest modeli akkreditatsiya standartlariga muvofiqlik darajasini bashorat qilishda 0.91 AUC ko‘rsatkichiga erishdi.

2. Tabiiy tilni qayta ishlash va hujjat tahlili

Oliy ta’lim muassasalarida komplaens nazorat juda katta hajmdagi hujjat aylanishini o‘z ichiga oladi: qoidalar, ko‘rsatmalar, hisobotlar, shartnomalar va boshqalar. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) texnologiyalari ushbu hujjatlarni avtomatik tahlil qilish, me’yoriy talablar bilan muvofiqlashtirishda inqilobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda.

BERT va GPT arxitekturalariga asoslangan til modellari hujjatlar tarkibidan me’yoriy buzilishlarni aniqlashda 92.3% F1 ko‘rsatkichiga erishdi. Ayniqsa, ko‘p tilli muhitda (o‘zbek, rus, ingliz tillari) ishlaydigan NLP tizimlari O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Anomaliya (g‘ayritabiiy holat)larni aniqlash tizimlari

Nazorat qilinuvchi jarayonlardagi g‘ayritabiiy holatlarni avtomatik aniqlash (Anomaly Detection) komplaens nazoratning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Autoencoder arxitekturasiga asoslangan chuqur o‘qitish modellari moliyaviy

operatsiyalar, o‘quv jarayoni va kadrlar boshqaruvida “normaldan og‘ish” holatlarini real vaqt rejimida aniqlaydi.

Tadqiqot davomida sinab ko‘rilgan tizim OTMlardagi g‘ayriodatiy moliyaviy operatsiyalarni aniqlashda 94.7% aniqlik ko'rsatdi, soxta hisobotlarni aniqlashda esa 87.2% ko‘rsatkichga erishildi. Bu natijalar an’anaviy audit usullariga nisbatan 3.2 baravar yuqoridir.

4. Tavsiya tizimlari va amaliy implementatsiya

SI asosidagi tavsiya tizimlari (Recommendation Systems) komplaens xodimlariga ustuvor tekshiruv yo‘nalishlari, qo‘llaniladigan choralar va me’yoriy hujjatlar bo‘yicha real vaqt rejimida tavsiyalar beradi. Kollaborativ filtrlash va kontent asosidagi filtrlashning gibrid yondashuvi eng yaxshi natijalarni ko‘rsatmoqda.

2- jadval. SI texnologiyalari va an’anaviy usullarning qiyosiy tahlili

Mezon	An’anaviy usullar	SI texnologiyalari	Samaradorlik o‘sishi
Tekshiruv tezligi	7-14 kun	Bir necha soat	+95%
Aniqlik darajasi	76%	91%	+15 pp
Inson resurslari	5-8 xodim	1-2 xodim	-75%
Real vaqt monitoringi	Yo‘q	Ha	Yangi imkoniyat
Prediktor tahlil	Cheklangan	Keng qamrovli	Sifat o‘zgarishi
Xato darajasi	24%	6.5%	-73%
Qoplama ko‘lami	Tanlab tekshiruv	To'liq qoplama	+300%

Tadqiqot natijalari SI texnologiyalarining komplaens nazoratga integratsiyasi OTMlar uchun sezilarli imtiyozlar yaratishini ko‘rsatdi. Eng muhim topilmalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, so‘rovda qatnashgan OTMlarning 78.3% SI tizimlari joriy etishdan oldin komplaens buzilishlarining asosiy sababi sifatida inson omilini (e’tiborsizlik, bilim yetishmasligi, hajm bosimi) ko‘rsatdi. SI texnologiyalari joriy etilgandan so‘ng bu ko‘rsatkich 21.4% gacha kamaydi.

Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan hujjat tahlili tufayli komplaens xodimlarining qo‘l mehnati 62% ga qisqardi. Ushbu bo‘shatilgan resurslar yuqori qiymatli analitik va strategik vazifalarga yo‘naltirildi, bu esa umumiy samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Uchinchidan, prediktor tahlil tizimi ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limlariga muammolarni munosib vaqtda (proaktiv) hal qilish imkonini berdi. Tadqiqot davomida

tekshirilgan OTMlarda akkreditatsiya inspeksiyalariga tayyorgarlik vaqti 40% ga qisqardi.

To‘rtinchidan, so‘rovda qatnashganlarning 91.2% SI yordamida tuzilgan komplaens hisobotlarining sifatini an’anaviy usullar bilan taqqoslaganda “ancha yaxshi” yoki “yaxshi” deb baholadi. Ayniqsa, hisobotlarning to‘liqligi va izchilligi jihatidan farq sezilarli.

Shu bilan birga, tadqiqot bir qator muhim cheklovlar va muammolarni ham aniqladi. Respondentlarning 67.4% “algoritmik shaffoflik” — ya’ni SI qarorlarining tushunarlilik muammosi bilan to‘qnashganini ta’kidladi. “Qora quti” (black box) muammosi hisobga olinadigan bo‘lsa, SI tizimining xulosasiga asoslangan komplaens qarorlar yuridik va etik muammolarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, SI modellarining dastlabki o‘qitilishi uchun zarur bo‘lgan katta hajmdagi sifatli ma’lumotlar O‘zbekiston OTMlarining ko‘pchiligida mavjud emas. Bu muammo transfer learning va oz miqdordagi ma’lumotlar (few-shot learning) texnologiyalari orqali qisman hal qilinishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta’lim muassasalariga quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi. SI texnologiyalarini komplaens nazoratga to‘liq va bir vaqtda joriy etish o‘rniga, pilotli loyiha sifatida eng yuqori xavfli va resurs talab qiladigan sohalarda boshlash maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda hujjat tahlili, ikkinchida risk bashorati, uchinchida real vaqt monitoringi joriy etilishi tavsiya qilinadi.

2. Ma’lumotlar boshqaruvi tizimini yaratish. SI tizimlarining samarali ishlashi uchun sifatli, izchil va to‘liq ma’lumotlar bazasi zarur. OTMlar komplaens ma’lumotlarini tizimli yig‘ish, saqlash va qayta ishlash uchun ma’lumotlar boshqaruvi siyosatini ishlab chiqishi lozim.

3. Insoniy nazoratni saqlab qolish. “Inson nazoratdagi” (human-in-the-loop) yondashuvga rioya qilish zarur — SI tavsiyalari va natijalari malakali mutaxassislar tomonidan tekshirilishi va tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Bu algoritmik xatolar va noto‘g‘ri xulosalar oqibatlarini minimallashtirishga yordam beradi.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish. Komplaens xodimlari SI tizimlari bilan ishlash ko‘nikmalarini egallashi uchun maxsus treninglar tashkil etish zarur. Ushbu treninglar texnik ko‘nikmalar bilan birga algoritmik natijalarni to‘g‘ri talqin qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga olishi lozim.

5. Etika va shaffoflik talablari. OTMlar joriy etilgan SI tizimlari uchun etik ko‘rsatmalar va shaffoflik standartlarini ishlab chiqishi, algoritmik qarorlarni tushuntirish mexanizmlarini (Explainable AI — XAI) ta’minlashi kerak.

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalari oliy ta’lim muassasalarida komplaens nazoratni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqish imkonini beradi. SI asosidagi tizimlar an’anaviy usullar bilan solishtirganda nazorat tezligi,

qamrovi va aniqligini sezilarli darajada oshiradi, inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni minimallashtirib, real vaqt rejimida monitoring olib borish imkonini yaratadi.

Biroq, SI texnologiyalarini komplaens nazoratga joriy etish jarayoni bir qator texnik, tashkiliy va etnik muammolarga duch keladi. Algoritmik shaffoflik, ma'lumotlar sifati va kadrlar tayyorgarligi masalalari muvaffaqiyatli implementatsiyaning kalit omillari hisoblanadi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun SI texnologiyalarini komplaens nazoratga integratsiyasi raqamlashtirish strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lishi mumkin. Hukumat, OTMlar va IT-sanoat o'rtasidagi hamkorlik asosida ushbu texnologiyalarni keng qo'llash uchun zaruriy huquqiy, texnik va malakaviy asos yaratish dolzarb vazifadir.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar istiqbolli hisoblanadi: O'zbek tilidagi NLP modellarini komplaens nazorat uchun moslashtirishni; Federativ o'qitish (Federated Learning) yondashuvidan OTMlar o'rtasidagi komplaens ma'lumotlarini maxfiylikni saqlagan holda almashishni; Blokcheyn va SI texnologiyalarining birgalikda qo'llanilishini o'rganish.

SUN'IY INTELLEKT VA IT-AUDIT TEXNOLOGIYALARINI BOJXONA MOLIYAVIY NAZORATIGATATBIQ ETISH: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

G'ulomov Askar Qahramon o'g'li
Bojxona instituti kursanti

Annotatsiya. Mazkur tezisda bojxona sohasidagi moliyaviy nazorat va ichki auditni raqamlashtirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi. Sun'iy intellekt (SI) va IT-audit texnologiyalarining bojxona nazorati tizimiga integratsiyasi tahlil qilinib, ularni joriy etishda yuzaga keluvchi muammolar hamda kelajakdagi istiqbollar bayon etiladi. Xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitida ushbu texnologiyalarni qo'llashning o ziga xos jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: bojxona nazorati, sun'iy intellekt, IT-audit, moliyaviy nazorat, raqamlashtirish, blokcheyn, risk-menejment.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotining jadal globallashuvi va raqamli transformatsiyasi sharoitida bojxona organlari faoliyatini modernizatsiya qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida [1] davlat moliyaviy nazoratini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida qayta qurishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bojxona sohasida sun'iy intellekt va IT-audit vositalarini tatbiq etish nafaqat nazorat samaradorligini oshirish, balki byudjet daromadlarini to'liq yig'ish va korrupsiyaning oldini olish imkonini beradi.

Bojxona to‘lovlarining yashirilishi, tovarlar qiymatini past ko‘rsatish va bojxona tartib-taomillarini chetlab o‘tish kabi muammolar butun dunyo bojxona organlari uchun muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish – bu nazorat funksiyalarini bajarish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish orqali ushbu jarayonlarni tubdan o‘zgartirish demakdir. IT-audit esa axborot tizimlari va texnologiyalarining samaradorligi, xavfsizligi hamda muvofiqligi nuqtayi nazaridan tekshirishni anglatadi.

Bojxona sohasida raqamli nazoratning asosiy vositalari quyidagilardir: birinchidan, elektron hujjat aylanishi va “yashil koridor” tizimlari (paperless customs); ikkinchidan, tranzaktsiyalarni real vaqtda monitoring qiluvchi axborot tizimlari; uchinchidan, risk-menejment tizimlari (RMS – Risk Management System) [2]; to‘rtinchidan, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan ta’minot zanjiri kuzatuvi; beshinchidan, sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish algoritmlari.

Xalqaro amaliyotda IT-auditning ISACA tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan COBIT 2019 [3] va INTOSAI standartlari asosida amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Ushbu standartlar axborot texnologiyalari boshqaruvining eng yaxshi amaliyotlarini aks ettiradi va bojxona organlariga ham tatbiq etilishi mumkin.

Sun’iy intellekt texnologiyalari bojxona nazoratida bir qancha yo‘nalishlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Birinchi yo'nalish – tovar deklaratsiyalarini avtomatik tekshirish va klassifikatsiya qilishdir. Xitoy bojxona ma’muriyati [4] SI asosidagi tizimni joriy etgandan so‘ng tovar kodlarini noto‘g‘ri ko‘rsatish holatlari 34 foizga kamayganini qayd etgan.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – anomaliya aniqlash (anomaly detection) algoritmlaridan foydalanishdir. Ushbu algoritmlar katta hajmdagi tranzaktsiyalar massividan g‘ayritabiiy ko‘rsatkichlarni, masalan, bozor o‘rtacha narxidan keskin farq qiladigan deklaratsiyalarni avtomatik tarzda ajratib ko‘rsatadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mashinali o‘qitish modellari an’anaviy qo‘lda tekshirishga nisbatan 3-5 baravar ko‘proq qoidabuzarlikni aniqlay oladi.

Uchinchi yo‘nalish – tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) vositasida tovar hujjatlarini tahlil qilishdir. Yetkazib beruvchi tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari, kontraktlar avtomatik tahlil qilish orqali qiymat manipulyatsiyasini aniqlash mumkin. To‘rtinchi yo‘nalish esa yuz tanish va video tahlil texnologiyalari yordamida chegaradagi jismoniy nazoratni kuchaytirish bo‘lib, bu yo‘nalishda bir qator mamlakatlar (Germaniya, Janubiy Koreya, BAA) sezilarli natijalarga erishgan.

Mamlakatimizda IT-auditni rivojlantirish yo‘lidagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat: malakali IT-audit mutaxassislarining yetishmasligi; mavjud axborot tizimlari o‘rtasida integratsiyaning pastligi; ma’lumotlar sifati va standartlashtirishning yetarli darajada yo‘qligi; kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha institutsional salohiyatning cheklanganligidan tashqari, yangi texnologiyalarni joriy

etishga qonunchilik bazasining to‘liq moslashmaganligi ham muhim to‘siqlardan biri hisoblanadi.

Blokcheyn – ta’minot zanjirini kuzatish va bojxona hujjatlarini tasdiqlashning inqilobiy usuli sifatida jahon miqyosida e’tiborni tortmoqda. IBM va Maersk hamkorligi asosida yaratilgan TradeLens platformasi [5] global konteyner yuk tashishlari uchun shaffof va o‘zgarmas reyestr sifatida ishga tushirilgan. Ushbu platforma qalbakilashtirilgan hujjatlarni deyarli to‘liq yo‘q qilish imkonini beradi, chunki blokcheyndagi yozuvlarni retroaktiv o‘zgartirish texnik jihatdan imkonsiz.

Bojxona nazoratida blokcheyn texnologiyasining amaliy afzalliklari: hujjat autentifikatsiyasining deyarli mutlaq ishonchliligi; vositachilarni bartaraf etib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksportchi – importchi – bojxona o‘rtasidagi aloqa; smart-kontrakt mexanizmi orqali to‘lovlarni avtomatlashtirish; shuningdek, audit izini (audit trail) to‘liq saqlab qolish va har qanday operatsiyani keyinchalik tekshirish imkoniyati.

Amalga oshirilgan tahlil asosida quyidagi xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

birinchidan, bojxona moliyaviy nazoratini raqamlashtirish faqat texnologiyalarni joriy etish bilan chegaralanmasligi kerak, bir vaqtning o‘zida institutsional islohot, kadrlar salohiyatini oshirish va qonunchilikni takomillashtirish zarur;

ikkinchidan, O‘zbekiston uchun bosqichma-bosqich yondashuv maqsadga muvofiq: dastlab mavjud ASYCUDA tizimiga SI-ga asoslangan anomaliya aniqlash modulini qo‘shish, so‘ngra blokcheyn-pilot loyihalarini boshqaruv sohasida sinash tavsiya etiladi;

uchinchidan, Xalqaro Bojxona Tashkiloti va qo‘shni davlatlar (Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston) bilan tajriba almashish hamda birgalikdagi IT-audit standartlarini ishlab chiqish O‘zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi;

to‘rtinchidan, bojxona ta’limida IT-audit va ma’lumotlar tahlili bo‘yicha maxsus kurslarni joriy etish, shuningdek, amaliyotchi mutaxassislarni qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish talab etiladi. Ushbu yechimlar yaqin kelajakda O‘zbekiston bojxona nazoratining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va mamlakatimizning “Raqamli bojxona” konsepsiyasini amalga oshirishga katta hissa qo‘shadi.

AUDIT VA MOLIYAVIY TAHLIL JARAYONLARIDA STOXASTIK MODELLARDAN FOYDALANISHNING KORXONA BOSHQARUVI SIFATINI OSHIRISHDAGI O‘RNI.

Askarov Farxod Raxmatovich

Farg‘ona davlat texnika universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi assistenti, PhD doktorant,

Noaniqlik zamonaviy iqtisodiy muhitning ajralmas xususiyatiga aylangan. Moliyaviy bozorlar, kredit portfellari, soliq majburiyatlari va davlat auditining barchasi

— insonning oldindan bilolmaydigan tasodifiy omillar ta'sirida shakllanadi. Aynan shu sababli iqtisodchi-tahlilchilar va audit mutaxassislari oldida "deterministic" — ya'ni yakka, aniq prognozlarga asoslangan — usullardan voz kechib, ehtimollik nazariyasi va stoxastik modellashtirish vositalariga tayanish zaruriyati tobora kuchaymoqda.

Stoxastik modellar — bu tasodifiy o‘zgaruvchilar va ularning ehtimollik taqsimotlarini matematik tarzda hisobga oluvchi usullar majmui. Ular bir marta sanab bo‘lmaydigan ssenariylarni bir vaqtning o‘zida simulyatsiya qilish imkonini beradi va qaror qabul qiluvchilarga faqat «eng yaxshi hol» emas, balki «eng yomon hol», «o‘rtacha hol» va ularning ehtimollik ulushini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston moliyaviy tizimida — davlat auditi, tijorat banklari, soliq nazorati va korporativ moliyaviy boshqaruvda — stoxastik modellarni qo‘llash istiqbollarini ilmiy manbalarga tayanib tahlil etilgan, mamlakatning moliya sohasining o‘ziga hosligini ko‘rish mumkin.

Moliyaviy boshqaruv va auditda qo‘llaniladigan stoxastik modellar bir necha asosiy guruhga bo‘linadi. Har bir guruh o‘ziga xos matematik apparatga ega bo‘lib, aniq vazifalarni hal etishga mo‘ljallangan.

- Monte-Karlo simulyatsiyasi (Monte Carlo Simulation — MCS) — tasodifiy o‘zgaruvchilarga ehtimollik taqsimotlari tayinlab, minglab hisoblash takrorlari (simulation runs) orqali kelajakdagi moliyaviy natijalarni modellashtiradi. KNAV (2025) tadqiqotiga ko‘ra, Fortune 500 kompaniyalarining 75% dan ko‘prog‘i risk baholash va moliyaviy rejalashtirish uchun MCS texnikasiga tayanadi.
- Stoxastik Chegaraviy Tahlil (Stochastic Frontier Analysis — SFA) — Aigner, Lovell va Schmidt (1977) tomonidan ishlab chiqilgan parametrik usul bo‘lib, moliyaviy institutlarning samaradorligini «eng yaxshi amaliyot» (best practice frontier) bilan solishtirib o‘lchaydi. Hozirda banklar, sug‘urta kompaniyalari va davlat moliya tashkilotlari uchun asosiy samaradorlik mezoni hisoblanadi.
- Geometrik Broun harakati (Geometric Brownian Motion — GBM) — moliyaviy aktiv narxlarini modellashtiradigan doimiy vaqt stoxastik jarayoni. Formulasi:

$dS = \mu S\,dt + \sigma S\,dW$, bu yerda μ — o‘sish sur'ati, σ — o‘zgaruvchanlik (volatility), dW — Winer jarayoni. Optsionlarni baholashda (Black-Scholes modeli) va kredit riskini o‘lchashda keng qo‘llaniladi.

- GARCH modellari (Generalized AutoRegressive Conditional Heteroskedasticity) — moliyaviy seriyalardagi klasterlangan o‘zgaruvchanlikni (volatility clustering) modellashtiradigan vaqt qatori usuli. 2025 yilgi Iqtisodiyot, Moliya va Menejment Sharhi (EFMR) jurnalida e'lon qilingan tadqiqotda Bitcoin va S&P 500 uchun VaR (Value-at-Risk) hisoblashda GARCH va Monte-Karlo birgalikda qo‘llangani aks ettirilgan.

– Markov zanjiri modellari — kreditning holat o‘zgarishlarini (normal shubhali muammoli yo‘qotilgan) ehtimollik matritsalari orqali ifodalaydi. Kredit portfelini boshqarishda va audit rejalashtirish tizimlarida muhim o‘rin tutadi.

Stoxastik usullar orasida Monte-Karlo simulyatsiyasi alohida o‘rin egallaydi. 2025 yil aprelda MDPI Risks jurnalida e'lon qilingan maqolada (Kazak va boshq., 2025) ko‘rsatilganidek, Monte-Karlo simulyatsiyasi naqd pul oqimlarini prognozlash, investitsiya loyihalarining kutilgan sof joriy qiymatini (NPV) aniqlash va korporativ xazina boshqaruvida xavfni minimallashtirish uchun eng kuchli vosita hisoblanadi. Maqolada Monty Hall paradoksi va Bertrand qutisi paradoksi kabi klassik ehtimollik muammolari Monte-Karlo vositasida yechilgan va ular moliyaviy boshqaruv qarorlariga bevosita tatbiq etilgan.

Financegeek (2025) tahlillariga ko‘ra, Monte-Karlo yondashuvi bilan baholangan kapital loyihalarida kutilmagan xarajat oshib ketishi an'anaviy usullarga qaraganda 25% ga kamaygani empirik tarzda isbotlangan. Bu raqam — stoxastik modellarning moliyaviy qarorlar sifatiga qo‘shadigan qo‘shimcha qiymatining aniq miqdoriy ifodasi.

Stoxastik Chegaraviy Tahlil (SFA) so‘nggi yillarda bank samaradorligini o‘lchash uchun standart metodologiyaga aylandi. 2025 yilda MDPI Systems jurnalida e'lon qilingan Pokiston bank sektori tadqiqotida (Nasim va boshq., 2025) ikki bosqichli SFA qo‘llangan va banklarning o‘rtacha xarajat samaradorligi 81% ekanligi aniqlangan, biroq mulkchilik turiga qarab muhim farqlar mavjudligi ko‘rsatilgan.

Hindiston misolida o‘tkazilgan tadqiqotda (Begum va Khan, Economic Sciences, 2025) esa sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etgan banklarda SFA ko‘rsatkichi 90.6% dan 99.9% ga ko‘tarilgani aniqlandi. Bu misol SFA va AI texnologiyalarini birgalikda qo‘llash sinergik ta'sir berishini ko‘rsatadi.

Xuddi shu metodologiya Efiopiya tijorat banklari bo‘yicha o‘tkazilgan panel tadqiqotida (PMC, 2025) qo‘llanildi. Stoxastik chegaraviy xarajat funksiyasi asosida hisoblangan o‘rtacha texnik samaradorlik 83% ekanligi aniqlandi, fintech platformalarini joriy etgan banklarda esa bu ko‘rsatkich sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

An'anaviy audit xatari modeli (Audit Risk Model — ARM) uchta komponentdan iborat: tabiiy xavf (Inherent Risk), nazorat xavfi (Control Risk) va aniqlash xavfi (Detection Risk). Ushbu komponentlar o‘zaro ko‘paytmasi audit xatarini ifodalaydi: $AR = IR \times CR \times DR$. Biroq bu klassik formula bir xil prognozga asoslangan deterministik yondashuv bo‘lib, bozor, tartibga solish muhiti va inson omilining tasodifiy tebranishlarini hisobga olmaydi.

2025 yil iyun oyida ScienceDirect (Optimizing Audit Processes Through Open Innovation) nashr etgan tadqiqotda SEC moliyaviy ma'lumotlari to‘plami (2024 moliya yili) asosida 14 million dan ortiq yozuvni Random Forest va K-Means algoritmlari yordamida tahlil qilish orqali past xavfli topshiriqlarni identifikatsiya qilish bo‘yicha 95.7% aniqlik darajasiga erishildi. Bu raqam stoxastik va ML usullarini birgalikda

qo‘llash orqali audit samaradorligini keskin oshirish mumkinligini tasdiqlaydigan empirik dalildir.

Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA) 2025 yil avgustda «Model Risk Management» bo‘yicha yangi Global Amaliyot Qo‘llanmasini (Global Practice Guide, 2nd Edition) chop etdi. Mazkur qo‘llanma ichki auditorlar murakkab stoxastik va ML modellarni qanday qilib tekshirishi — ularning to‘g‘riligi, qonuniyligi va boshqaruv sifatini qanday baholashi kerakligi haqida standartlarni belgilab berdi.

O‘zbekistonda audit tizimi so‘nggi yillarda tub islohot jarayonini boshdan kechirmoqda. 2025 yilda chop etilgan Asian Development Bank (ADB) tahlil hujjatida (Development Asia, 2025) qayd etilishicha, O‘zbekiston Hisob palatasi (Chamber of Accounts — COA) 2021–2025 yillar davomida mustaqilligini mustahkamladi, INTOSAI va ASOSAI tashkilotlariga a'zo bo‘ldi hamda moliyaviy, muvofiqlik va samaradorlik auditini joriy etdi.

2025 yil Prezidentlik farmoni (UP-252) bilan COAning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Muhimi, farmon Hisob palatasida Raqamli Transformatsiya va Sun'iy Intellekt bo‘limi tashkil etilishini nazarda tutadi. Bu bo‘lim katta hajmli ma'lumotlarni stoxastik tahlil vositalaridan foydalanib qayta ishlash orqali audit qamrovini kengaytirish va xavf indikatorlarini oldindan aniqlash vazifasini bajaradi.

2025 yilda Hisob palatasi dastlabki bor xalqaro loyiha moliyaviy hisobotini — Qishloq yo‘llari barqarorligi sektori loyihasini (Loan 4426-UZB) — ISSAI (Oliy Audit Institutlari Xalqaro Standartlari) talablariga muvofiq mustaqil ravishda tekshirdi. Bu muhim pretsedent: kelajakda bunday auditlarda stoxastik xavf baholash usullari standart vositaga aylanishi mumkin.

O‘zbekiston bank sektori 2024-2025 yillarda tub o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. IMF tomonidan 2025 yilning avgustida e'lon qilingan O‘zbekiston Moliyaviy Sektori Baholash Dasturi (FSAP) hisobotiga ko‘ra, Markaziy bank 2023 yil dekabr oyida Risk-Asoslangan Nazorat (GRBS) ko‘rsatmalarini qabul qildi. 2025 yil yanvar oyidan esa jismoniy shaxslarga beriladigan barcha kreditlar bo‘yicha daromad-qarzga nisbati (DSTI) 60% dan 50% ga tushirildi.

Fitch Ratings (Tashkent Times, 2024) ma'lumotlariga ko‘ra, 2023 yil oxirida davlat banklarining aktiv ulushi 68% ni tashkil etgan, xususiy banklar esa NPL ko‘rsatkichi va risk boshqaruvi sifati bo‘yicha ustunlik qilmoqda. Bu farq aynan SFA metodologiyasi yordamida miqdoriy tarzda o‘lchab ko‘rsatilishi mumkin: davlat banklarining samaradorlik chegarasidan qanchalik uzoqda ekanligi, xarajat samaradorligi indeksi qiymatlarining taqsimoti va boshqalar.

Bundan tashqari, Ikromov va Makhfuza (EJMEB, 2024) tomonidan nashr etilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklarida umumiy depozitlar 2018-2024 yillar oralig‘ida 85.3 trillion so‘mdan 245.1 trillion so‘mga — ya'ni 2.9 barobarga — o‘sdi. Depozit aylanmasining bunday jadal o‘sishi likvidlik xavfini keltirib chiqaradi va

bu xavfni Markov zanjiri asosidagi stoxastik model yordamida nazorat qilish zaruriyati ortib bormoqda.

O‘zbekiston davlat moliyaviy nazoratida hozircha deterministik usullar — soliq tekshiruvlari, hujjat tahlili, nazorat nisbatlari — ustunlik qiladi. Biroq global tendentsiya tubdan boshqacha yo‘nalishda rivojlanmoqda. ScienceDirect (2025) tadqiqotida ko‘rsatilishicha, 399 ta tarmoqda 14 million dan ortiq SEC hisobot yozuvlarini stoxastik ML modellari bilan qayta ishlash orqali anomaliyalarni aniqlash aniqlik darajasi 95.7% ga etkazildi.

Shu tamoyilni O‘zbekiston Soliq qo‘mitasiga tatbiq etish mumkin: tovar-moddiy boyliklar qiymatini baholashda Monte-Karlo modeli qo‘llanilsa, bir xil hisob-kitob usuli ostida mavjud bo‘lgan tartibsizliklar (soxta yozuvlar, ko‘rinmaydigan aktivlar, «ijodiy buxgalteriya» hollari) yuqori ishonchlilik darajasida aniqlanishi mumkin. Xatarli bitimlar identifikatsiyasi uchun GBM asosidagi narxlar simulyatsiyasi, kredit portfeli sifatini baholash uchun Markov o‘tish matritsasi standart audit vositalariga aylanishi mumkin.

O‘zbekistonning investitsiya muhiti ham stoxastik tahlil talablarini oshirmoqda. World Bank O‘zbekiston Moliyaviy Sektori Islohot Loyihasi (2022) ma'lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda davlat-xususiy hamkorlik (PPP) loyihalarini amalga oshirishda xarajat ortib ketishining asosiy sababi aniq xavf baholash usullarining yo‘qligi hisoblanadi.

Value-at-Risk (VaR) — moliyaviy institutlar uchun standart stoxastik ko‘rsatkich. Masalan, korporativ hazina portfeli uchun 95% ishonchlilik darajasida «maksimal yo‘qotish» qiymatini Monte-Karlo yordamida hisoblash, banklarda Basel III talablariga muvofiq kapital etarliligi normativlarini stoxastik stress-test orqali tekshirish — bularning barchasi O‘zbekiston moliya muassasalarida joriy etilishi lozim bo‘lgan standartlar.

2025 yil iyun oyida chop etilgan IMF Working Paper (Stochastic Models in Integrated Policy Framework) ko‘rsatganidek, markaziy banklar uchun stoxastik DSGE modellari inflyatsiya maqsadini belgilashda deterministik yondashuvlarga qaraganda 40–60% ko‘proq aniq prognoz beradi. O‘zbekiston Markaziy banki inflyatsiyani 2025 yilga kelib 5% ga tushirish maqsadini qo‘ygan, biroq 2024 yilda ko‘rsatkich 9% da qoldi — bu ssenariy stoxastik model bo‘lmagan taqdirda yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri prognozning tipik namunasidir.

ScienceDirect (2023) va World Bank (2022) tahlillariga ko‘ra, O‘zbekiston moliya sektorida stoxastik modellarni keng joriy etishga to‘sqinlik qiluvchi bir necha tizimli to‘siqlar mavjud:

- Malakali kadrlar tanqisligi: bank va soliq idoralarida matematik statistika va stoxastik modellashtirish bo‘yicha chuqur bilimga ega mutaxassislar juda kam.

– Ma'lumotlar bazasining zaif infratuzilmasi: stoxastik modellashtirishning asosi katta hajmli sifatli tarixiy ma'lumotlar (Big Data) bo‘lib, O‘zbekistonda bunday ma'lumotlar tizimli ravishda to‘planmaydi va standartlashtirilmagan.

– Regulyator talablarning etarli emasligi: kreditlash, audit va moliyaviy hisobotda stoxastik metodlarni majburiy qo‘llashni nazarda tutuvchi qonunchilik bazasi shakllanmagan.

– Xalqaro tajribani moslashtirishdagi qiyinchiliklar: Yevropa va AQSHda rivojlangan modellar bevosita ko‘chirib olinishi mumkin emas — ular O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos tuzilishiga (davlat banklarining ustunligi, dollar lashtirishning yuqori darajasi, informal sektor ulushi) moslashtirilishi zarur.

Quyida O‘zbekistonda stoxastik modellarni bosqichma-bosqich joriy etishning amaliy yo‘l xaritasi taklif etiladi:

1. Qisqa muddatli (2025–2026): Markaziy bank va Hisob palatasi bazasida «Stoxastik tahlil laboratoriyasi» tashkil etish, R va Python dasturlash tillarida SFA va Monte-Karlo moduli joriy etish, 50–100 nafar mutaxassis tayyorlash.

2. O‘rta muddatli (2026–2028): Basel III talablariga muvofiq barcha tijorat banklarida VaR va Stress-test hisobotlarini stoxastik model asosida taqdim etish majburiyatini qonunchilikka kiritish. Soliq qo‘mitasida ML-asoslangan anomaliya aniqlash tizimini pilot rejimida ishga tushirish.

3. Uzoq muddatli (2028–2030): Hisob palatasi va xalqaro IFI (ADB, World Bank, IMF) hamkorligida auditor reytingini stoxastik samaradorlik (SFA-based efficiency score) ko‘rsatkichi bilan to‘ldirish. Korporativ moliya standartlari (O‘zbekiston IFRS tizimi)ga stoxastik aniqlash (stochastic disclosure) talablarini kiritish.

O‘zbekiston hozir islohot momentumida — moliya sektori privatizatsiyasi, risk-asoslangan nazoratga o‘tish, xalqaro audit standartlarini joriy etish jarayonida — turibdi. Bu noyob tarixiy imkoniyat: stoxastik modellarni siyosiy istakning va institutsional islohot energiyasining avj nuqtasida joriy etish. Aks holda, modellashtirish bo‘shliq (modelling gap) iqtisodiy bo‘shliqqa (economic gap) aylanib ketish xavfi bor.

Yakunida shuni ta'kidlash lozimki, stoxastik modellar — real dunyodagi noaniqlikni inkor etish vositasi emas. Aksincha, ularning qudrati aynan shu noaniqlikni tan olish va uni boshqarish vositasiga aylantirishdan iborat. O‘zbekiston moliyaviy tizimi uchun bu vositadan foydalanish — endi istiqbol emas, balki zaruriyat.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDITDA SUN'IY INTELLEKTNING QO‘LLANILISHI: AFZALLIKLARI VA XAVFLARI

Axunova Shoxistaxon Nomanjanovna
FDTU, "Iqtisdodiyot" kafedrasi dotsenti
Abduqahhorov Jamshidbek Sherxono'g'li
FDTU "Iqtisodiyot" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimidagi qo‘llanish imkoniyatlari hamda ularning dolzarbligi tahlil qilinadi. Raqamlashtirish jarayonlari kengayib borar ekan, SI moliyaviy ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, xatolik va firibgarlik holatlarini aniqlash, shuningdek auditning sifat ko‘rsatkichlarini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. MDPI, ResearchGate va OECD tadqiqotlari sun'iy intellektning audit jarayonlarini avtomatlashtirish va davlat moliyaviy boshqaruvida shaffoflikni kuchaytirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, SI'dan foydalanish ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik xatolik va tizim shaffofligi kabi xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Maqolada SI qo‘llanilishining afzalliklari va imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan me'yoriy-huquqiy va texnik talablar ham yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt; davlat moliyaviy nazorati; ichki audit; raqamlashtirish; IT-audit; katta ma'lumotlar; risklarni baholash; moliyaviy shaffoflik; avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari; ma'lumotlar xavfsizligi; algoritmik xatoliklar; audit samaradorligi.

Bugungi kunda davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlari byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta'minlash hamda korrupsiya va moliyaviy qoidabuzarliklarni aniqlashda muhim rol o‘ynamoqda. Shu sababli sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari umumiy nazorat va audit jarayoniga integratsiya qilinmoqda. SI algoritmlari katta ma'lumotlarni qayta ishlashda, noshaffofliklarni aniqlashda va qoidabuzarliklarni topishda an'anaviy metodlarga nisbatan yuqori samaradorlikni namoyon etadi.

Sun'iy intellekt (SI) – bu mashinaviy o‘rganish (machine learning), katta ma'lumotlarni tahlil qilish (data analytics) va anomaliyalarni aniqlash (anomaly detection) kabi ilg‘or texnologiyalarni o‘z ichiga olgan raqamli tizim bo‘lib, u audit va moliyaviy nazorat jarayonlarida samarali qo‘llaniladi. SI tizimlari katta hajmdagi moliyaviy operatsiyalar, hisobotlar va tranzaksiyalarni real vaqt rejimida tahlil qilishi mumkin, bu esa an'anaviy audit usullarida e'tibordan chetda qolishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni tez va aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, SI tizimi risklarni bashorat qilish imkonini ham beradi. Tarixiy ma'lumotlar asosida u kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan aniqlaydi va auditorlarga vaqtida choralar

ko‘rish imkonini yaratadi. Bu moliyaviy nazorat organlari uchun strategik ustunlik bo‘lib, ular nafaqat muammolar yuzaga kelgandan keyin, balki ularni oldini olish bosqichida ham samarali ishlashi mumkin. Bundan tashqari, SI avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari orqali byudjet jarayonlarini doimiy kuzatadi va shubhali yoki odatiy holatlardan chetga chiqadigan operatsiyalarni avtomatik aniqlaydi. Bu inson omilini kamaytiradi, auditning ob’yektivligini oshiradi va hisobotlarni tezkor, shaffof hamda aniqlik bilan taqdim etishga yordam beradi. Shu tarzda, SI audit va moliyaviy nazoratning barcha asosiy bosqichlarini – ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, risklarni aniqlash va monitoring qilishni – birlashtirgan uzviy tizim sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko’rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarida keng qo‘llanilib, ularning samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Xususan, AQShda SI texnologiyalari asosan soliq nazorati va audit jarayonlarini avtomatlashtirishda faol qo‘llaniladi. Internal Revenue Service (federal soliq xizmati) tomonidan joriy etilgan tizimlar yordamida yiliga millionlab soliq deklaratsiyalari avtomatik tahlil qilinadi. Natijada, firibgarlik holatlarini aniqlash darajasi an’anaviy usullarga nisbatan 20–30 foizga oshgan bo‘lsa, audit uchun tanlanadigan yuqori riskli operatsiyalar aniqligi qariyb 25 foizga yaxshilangan. Bu esa moliyaviy nazoratning tezkorligi va aniqligini ta’minlab, inson omilining ta’sirini kamaytiradi. Shuningdek, Germaniya tajribasida sun’iy intellekt asosida “raqamli audit” tizimi rivojlangan bo‘lib, unda davlat xarajatlari ustidan real vaqt rejimida monitoring olib boriladi. SI algoritmlari davlat xaridlari va byudjet mablag‘larining sarflanishini doimiy tahlil qilib boradi hamda shubhali operatsiyalarni avtomatik aniqlaydi. Natijada audit xarajatlari o‘rtacha 15–20 foizga qisqargan, moliyaviy qoidabuzarliklarni aniqlash tezligi esa 40 foizga oshgan. Bu esa davlat moliyaviy boshqaruvida shaffoflikni kuchaytirish va korrupsiya xavfini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Janubiy Koreyada esa davlat moliyaviy nazorati tizimida sun’iy intellekt texnologiyalari yanada chuqur integratsiya qilingan. Board of Audit and Inspection (Audit va tekshiruv kengashi) tomonidan ishlab chiqilgan “aqlli audit” tizimi orqali davlat moliyaviy operatsiyalarining

80 foizdan ortig‘i avtomatik tarzda monitoring qilinadi. Ushbu tizim yordamida qoidabuzarliklarni aniqlash samaradorligi 50 foizgacha oshgan va audit jarayonlariga ketadigan vaqt 30–40 foizga qisqargan. Shu bilan birga, anomaliyalarni aniqlash algoritmlari orqali moliyaviy operatsiyalardagi noan’anaviy holatlar tezkor aniqlanmoqda. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar tajribasi bilan bir qatorda O‘zbekistonda ham davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarini raqamlashtirish hamda sun’iy intellekt elementlarini joriy etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda davlat moliyaviy boshqaruvida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi natijasida nazorat tizimlarining samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda byudjet mablag‘laridan foydalanishda yuzlab milliard so‘mlik samarasiz xarajatlar va moliyaviy kamchiliklar aniqlangan. Bu esa mavjud nazorat tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt texnologiyalari bunday kamchiliklarni oldindan aniqlash va ularning oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari, Moliya vazirligi tomonidan joriy etilgan G‘aznachilik axborot tizimi orqali davlat byudjeti ijrosi real vaqt rejimida monitoring qilinmoqda. Natijada byudjet intizomini buzish holatlari kamayib, mablag‘lardan maqsadsiz foydalanish darajasi pasaymoqda. Shuningdek, davlat xaridlari sohasida elektron tenderlar ulushi 90 foizdan oshgani shaffoflikni kuchaytirib, SI asosida tahlil tizimlarini joriy etish uchun keng ma’lumotlar bazasini shakllantirmoqda. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 300 dan ortiq davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi esa inson omilini kamaytirib, korrupsiya xavfini pasaytirmoqda. Umuman olganda, sun’iy intellekt texnologiyalarini davlat moliyaviy nazoratiga joriy etish audit jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi, qoidabuzarliklarni aniqlash samaradorligini oshiradi hamda byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytiradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, SI qo‘llanilishi natijasida audit jarayonlarining tezligi o‘rtacha 30–50 foizga oshgan, qoidabuzarliklarni aniqlash samaradorligi 20–50 foizga yaxshilangan hamda audit xarajatlari 15–25 foizgacha kamaygan. Bu esa sun’iy intellektning nafaqat texnologik innovatsiya, balki davlat moliyaviy boshqaruvida strategik ahamiyatga ega vosita ekanligini ko‘rsatadi.



1-rasm. Sun’iy intellektning avfzalliklari.

Sun’iy intellekt (SI) tizimlarini davlat moliyaviy nazorati va ichki audit jarayonlariga joriy etish bir qator avfzallilklarga ega bo’lsada, boshqa tarafdan xavf va muammolarni ham yuzaga keltiradi. Jahon Banki (2022) va xalqaro moliyaviy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, SI asosidagi tizimlarda algoritmik xatoliklar taxminan 5–10% holatlarda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Bu esa ayniqsa moliyaviy boshqaruvda ehtiyotkorlik va ikki bosqichli nazorat tizimini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq kiberxavflar sun’iy intellektni moliyaviy sohalarda qo‘llashdagi asosiy muammolardan biridir. IBM “Cost of a Data Breach Report 2023” ma’lumotlariga ko‘ra, moliyaviy sektor kiberhujumlarga eng ko‘p uchraydigan tarmoqlardan bo‘lib, hujumlarning 35% dan ortig‘i banklar va moliyaviy tashkilotlarga qaratiladi. Bu holat SI orqali qayta ishlanadigan katta hajmdagi maxfiy ma’lumotlar kiberjinoyatchilar uchun jozibador nishonga aylanishini ko‘rsatadi va natijada ma’lumotlar sizib chiqishi, moliyaviy yo‘qotishlar hamda tizim ishonchliligining pasayishi yuzaga keladi. Bundan tashqari, algoritmik xatoliklar va noto‘g‘ri prognozlar ham muhim xavf hisoblanadi. SI tizimlari tarixiy ma’lumotlarga asoslanib ishlagani uchun, to‘liq bo‘lmagan yoki buzilgan ma’lumotlar noto‘g‘ri qarorlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, moliyaviy bozorlardagi keskin o‘zgarishlar, inqirozlar yoki inflyatsion zarbalar model tomonidan yetarli darajada hisobga olinmasligi ehtimoli mavjud. Shuningdek, avtomatlashtirilgan qarorlar inson nazoratining kamayishiga olib keladi. OECD (2023) ta’kidlashicha, bunday tizimlarda “javobgarlik bo‘shlig‘i” (accountability gap) yuzaga kelib, noto‘g‘ri qaror uchun aniq mas’uliyatni belgilash qiyinlashadi. Texnologiyaga ortiqcha bog‘liqlik esa tizim ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Serverlar nosozligi yoki texnik uzilishlar butun moliyaviy jarayonlarni to‘xtatib qo‘yishi mumkin, bu esa operatsion xavflarni oshiradi. Shu bilan birga, “black box problem”, ya’ni model shaffofligining yetishmasligi ham muhim muammo bo‘lib, SI qarorlarini tushuntirish va audit qilish jarayonlarini qiyinlashtiradi hamda tizimga ishonchni pasaytiradi.

Masalan, AQShda 2023-yilda davlat va xususiy sektor ma’lumotlar bazalariga qilingan yirik kiberhujumlar natijasida millionlab foydalanuvchi ma’lumotlari sizib chiqqan. Jumladan, sog‘liqni saqlash va moliya sohasiga oid ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi eng katta yo‘qotishlardan biri bo‘lib, bu holat fuqarolarning shaxsiy daxlsizligiga putur yetkazish, firibgarlik holatlarining ko‘payishi hamda davlat va tashkilotlarga bo‘lgan ishonchning pasayishiga olib kelgan.Yevropa Ittifoqida esa 2022–2023 yillarda kiberxavfsizlik agentliklari (ENISA) tomonidan qayd etilgan hisobotlarga ko‘ra, sun’iy intellekt tizimlari bilan integratsiyalashgan moliyaviy platformalarda fishing va avtomatlashtirilgan hujumlar sonining oshishi natijasida bank mijozlari mablag‘larining o‘g‘irlanishi, tranzaksiyalarning buzilishi hamda moliyaviy operatsiyalarning ishonchliligi pasayishi kuzatilgan. Bu esa moliyaviy tizim

barqarorligiga jiddiy tahdid tug‘diradi. Shuningdek, 2024-yilda global miqyosda ma’lumotlar buzilishi (data breach) holatlarining o‘rtacha qiymati IBM hisobiga ko‘ra 4,45 million AQSh dollariga yetgan bo‘lib, bu faqatgina moliyaviy yo‘qotishlarni emas, balki kompaniyalar obro‘sining tushishi, mijozlar bazasining kamayishi hamda huquqiy javobgarlik va jarimalarning oshishini ham keltirib chiqarmoqda. Raqamli tizimlar kengaygani sari kiberxavflar ko‘lami ortib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari yanada chuqurlashib bormoqda.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari moliyaviy nazorat jarayonlarida katta ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, anomaliyalarni aniqlash, firibgarlik holatlarini oldindan bashorat qilish hamda audit samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya) SI asosidagi tizimlar audit jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirganini, xarajatlarni kamaytirganini va moliyaviy shaffoflikni oshirganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, O‘zbekiston amaliyotida ham raqamlashtirish jarayonlari kengayib borayotgani SI texnologiyalarini joriy etish uchun muhim asos yaratmoqda. Biroq SI tizimlarining keng qo‘llanilishi algoritmik xatoliklar, kiberxavfsizlik muammolari, “black box” muammosi va javobgarlikni aniqlashdagi murakkabliklar kabi xavflarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli SI texnologiyalarini joriy etish jarayoni kompleks yondashuv va kuchli nazorat mexanizmlarini talab etadi. Sun’iy intellekt davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarini modernizatsiya qilishda strategik ahamiyatga ega innovatsion vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimiga sun’iy intellektni samarali joriy etish uchun o‘zaro bog‘liq chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Avvalo, SI texnologiyalarini to‘liq emas, balki pilot loyihalar asosida bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu ularning amaliy samaradorligini sinovdan o‘tkazish imkonini beradi. Tizim xavfsizligini ta’minlash maqsadida kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish, jumladan shifrlash, ko‘p bosqichli autentifikatsiya va doimiy monitoring mexanizmlarini joriy etish zarur. SI qarorlarining ishonchliligini oshirish uchun gibrid audit modeli (human-in-the-loop) qo‘llanilishi lozim, ya’ni sun’iy intellekt xulosalari inson auditorlari tomonidan majburiy tekshiriladi. SI tizimlarini samarali tartibga solish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda qarorlar uchun javobgarlikni aniq belgilash talab etiladi. Algoritmlar shaffofligini ta’minlash maqsadida tushuntiriladigan sun’iy intellekt (Explainable AI) texnologiyalaridan foydalanish “black box” muammosini kamaytiradi. Mutaxassislar salohiyatini oshirish uchun auditor va moliyaviy nazorat xodimlarini SI hamda data analytics bo‘yicha maxsus dasturlar orqali tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Jarayonlarni yagona tizimga birlashtirish uchun SI asosida yagona integratsiyalashgan raqamli monitoring platformasini yaratish lozim. Umuman olganda, ushbu chora- tadbirlar uyg‘un tarzda amalga oshirilsa, davlat

moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDITDA RAQAMLASHTIRISHTIRISH, IT-AUDIT VA SUN’IY INTELEKT

Yaqubov Xumoyun Nizomiddin o`g`li
Toshkent davlat iqtisodiyot univesiteti

Annotatsiya: Mazkur mavzu davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarida raqamlashtirish jarayonlari, IT-auditning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilish imkoniyatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat moliyasini boshqarish tizimlarida shaffoflikni oshirish, xatolik va korrupsiya xavfini kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda ichki audit jarayonlarini avtomatlashtirish, katta ma’lumotlar (Big Data) va bulutli texnologiyalar asosida moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, IT-auditning asosiy vazifalari, axborot tizimlarining xavfsizligini baholash va raqamli infratuzilmaning ishonchliligini ta’minlashdagi roli ko‘rib chiqiladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi audit jarayonlarida katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, anomaliyalarni aniqlash va prognozlash imkonini beradi. Bu esa ichki nazorat samaradorligini oshirishga va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so`zlar: Davlat moliyaviy nazorati, ichki audit, raqamlashtirish, IT-audit, axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, Big Data, avtomatlashtirish, axborot tizimlari xavfsizligi, moliyaviy shaffoflik, risklarni boshqarish, raqamli iqtisodiyot.

Abstract: This topic is dedicated to the study of digitalization processes in state financial control and internal audit systems, as well as the modern development trends of IT audit and the application of artificial intelligence technologies. In today’s digital economy, it is essential to ensure transparency in public financial management systems, reduce errors and corruption risks, and achieve efficient use of resources. The study analyzes ways to improve internal audit processes, including automation and the enhancement of financial control through Big Data and cloud technologies. It also examines the main functions of IT audit, its role in assessing the security of information systems, and ensuring the reliability of digital infrastructure.

The introduction of artificial intelligence technologies enables the rapid analysis of large volumes of data in audit processes, detection of anomalies, and forecasting of potential risks. This, in turn, increases the effectiveness of internal control and optimizes decision-making processes.

Key words: State financial control, internal audit, digitalization, IT audit, information technology, artificial intelligence, Big Data, automation, information system security, financial transparency, risk management, digital economy.

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ushbu sohalarda raqamlashtirish jarayonlarini keng joriy etish, audit faoliyatini avtomatlashtirish hamda nazorat samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

Davlat moliyaviy nazoratida raqamli texnologiyalardan foydalanish moliyaviy operatsiyalarni tezkor tahlil qilish, xatoliklar va korrupsiya xavfini kamaytirish, shuningdek, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Ichki audit tizimida esa Big Data, bulutli texnologiyalar va integratsiyalashgan axborot tizimlari asosida jarayonlarni optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

IT-audit — bu tashkilotning axborot texnologiyalari tizimlari, dasturiy ta’minoti, ma’lumotlar bazasi va IT jarayonlarining xavfsizligi, ishonchliligi va samaradorligini tekshirish hamda baholash jarayonidir.

IT-audit axborot tizimlarining ishonchliligi, xavfsizligi va samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan bo‘lib, tashkilotlarda raqamli infratuzilmaning barqaror ishlashini ta’minlaydi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi audit jarayonlarida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, anomaliyalarni aniqlash va kelajakdagi xavflarni prognoz qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu esa ichki nazorat tizimlarining aniqligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xorijiy tajribalarda, xususan AQShda Government Accountability Office (GAO) sun’iy intellekt tizimlarini baholash uchun maxsus audit standartlarini ishlab chiqqan. Buyuk Britaniyada National Audit Office (NAO) davlat sektorida AI tizimlarining joriy etilishi va ularning risklarini tahlil qilmoqda. Estoniya esa to‘liq raqamli davlat sifatida AI va IT-auditni davlat boshqaruv tizimiga keng integratsiya qilgan.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqida algoritmik audit konsepsiyasi rivojlanib, AI tizimlarining shaffofligi va etikligi alohida nazorat qilinmoqda. Yirik xalqaro audit kompaniyalari (PwC, Deloitte, EY) esa sun’iy intellektdan foydalangan holda real vaqt rejimida audit jarayonlarini avtomatlashtirmoqda. Xulosa qilib aytganda, davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarida raqamlashtirish, IT-audit hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy boshqaruvning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u moliyaviy intizomni mustahkamlash, shaffoflikni oshirish va davlat resurslarini samarali boshqarishni ta’minlaydi.

Sun’iy intellekt (SI) — bu kompyuter tizimlari va dasturlarining inson aqliga xos bo‘lgan funksiyalarni (o‘rganish, fikrlash, qaror qabul qilish, tahlil qilish va muammolarni yechish) bajarish qobiliyatidir.

Sun’iy intellekt (SI) davlat moliyaviy nazorati tizimida muhim ahamiyat kasb etib, moliyaviy jarayonlarni yanada shaffof, tezkor va aniq qilishga xizmat qiladi.

Moliyaviy operatsiyalarni tahlil qilish — SI katta hajmdagi budjet va xarajat ma’lumotlarini tezkor tahlil qilib beradi.

Noto‘g‘ri va shubhali operatsiyalarni aniqlash — firibgarlik, korrupsiya yoki xatoliklarni avtomatik tarzda topishga yordam beradi.

Risklarni oldindan aniqlash — kelajakdagi moliyaviy xavflarni prognoz qiladi va ularni kamaytirish choralarini ko‘rsatadi.

Audit jarayonlarini avtomatlashtirish — hujjatlarni tekshirish, solishtirish va hisobot tayyorlashni tezlashtiradi.

Shaffoflikni oshirish — davlat mablag‘larining qanday sarflanayotganini aniq nazorat qilish imkonini beradi.

Qaror qabul qilishni yaxshilash — rahbarlarga aniq ma’lumotlar asosida to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt davlat moliyaviy nazoratida korrupsiyani kamaytirish, shaffoflikni oshirish va audit jarayonlarini zamonaviylashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

DAVLAT SEKTORIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIK VA HISOBDORLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARNING ROLI

Abdullayev Izzatbek Akramxon o’g’li
TDIU Moliya fakulteti 3-bosqich talabasi
Ataniyazov Jasur Hamidovich
TDIU Xalqaro moliya kafedrasi mudiri, professor, DSc

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni oshirishda raqamli texnologiyalar va tizimli mexanizmlarning amaliy ta’sirini tahlil qiladi. Elektron byudjet, ochiq ma’lumotlar va elektron davlat xaridlari kabi raqamli platformalar orqali byudjet jarayonlari jamoatchilik, auditorlar va nazorat organlari uchun ochiq bo‘lib borayapti. Qonunchilik bazasi va tizimli islohotlar, xususan “Davlat xaridlari to’grisida”gi qonun orqali adolatli raqobat va korrupsiyaga qarshi mexanizmlar mustahkamlanmoqda. O‘zbekiston kontekstida rasmiy ma’lumotlar asosida bu mexanizmlarning samaradorligi tahlil qilindi.

Kalit so’zlar: raqamli texnologiyalar, moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik, davlat xaridlari, elektron byudjet.

Abstract: This paper analyzes the role of digital technologies and institutional mechanisms in enhancing financial transparency and accountability in the Republic of Uzbekistan. Digital platforms such as electronic budgeting, open data and e-procurement

have made budget processes accessible to the public, auditors, and oversight bodies. Legal frameworks, including the Public Procurement Law, promote competitive procurement and anti-corruption controls. This study uses official Uzbekistan data to evaluate the efficiency of these mechanisms in strengthening transparency.

Keywords: digital technologies, financial transparency, accountability, public procurement, e-budget.

Аннотация: В статье анализируется роль цифровых технологий и институциональных механизмов в повышении финансовой прозрачности и подотчетности в Республике Узбекистан. Цифровые платформы, такие как электронный бюджет, открытые данные и электронные закупки, обеспечивают доступ к бюджетным процессам для общества, аудиторов и надзорных органов. В рамках правовой базы, включая закон о государственных закупках, укрепляются принципы конкурентных закупок и антикоррупционный контроль. В исследовании используются официальные данные Узбекистана для оценки эффективности этих механизмов.

Ключевые слова: цифровые технологии, финансовая прозрачность, подотчетность, государственные закупки, электронный бюджет

KIRISH

Davlat moliyasi boshqaruvida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik jamiyat ishonchi, iqtisodiy barqarorlik va samarali davlat boshqaruvi uchun muhim omillardir. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi raqamli transformatsiya yo‘lini tanlab, byudjet boshqaruvi, davlat xaridlari va moliyaviy nazorat jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari orqali optimallashtirishga keng e’tibor qaratmoqda.

2020 yilda Prezident farmoni bilan tasdiqlangan byudjet ma’lumotlarini ochiqlash strategiyasi davlat byudjeti bo‘yicha ma’lumotlarni ochiq va tushunarli shaklda taqdim etishni ko‘zda tutadi hamda fuqarolarni budjet jarayonlariga jalb etishni maqsad qilgan. O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq ma’lumotlar” portalida jamoatchilik davlat byudjetining turli qatlamlari bo‘yicha statistik ma’lumotlarni erkin ko‘rishi mumkin. Bu buxgalteriya hisobotlari, xarajatlar, mablag‘larning taqsimlanishi va byudjet amalga oshirilish jarayonlariga oid statistik ma’lumotlardan iborat.

Bundan tashqari, 2019-yildan boshlab davlat xaridlari sohasida elektron tendersiz jarayonlarni bosqichma-bosqich tugatish va barcha xaridlarni raqamli platformaga o‘tkazish bo‘yicha qonunchilik bazasi yasaldi. Bu qonunchilik, xususan, 2019 yil 5 dekabrdagi Prezident farmoni bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlari to’grisida”gi qonun va unga doir elektron tizimlar orqali tenderlar jarayonini raqamlashtirishni istisnosiz amalga oshirishni ta’minlab kelmoqda. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar (elektron byudjet va e-xaridlar) va institutsional mexanizmlarning (nazorat organlari, qonunchilik sharoitlari, jamoatchilik nazorati) O‘zbekiston kontekstida shaffoflik va hisobdorlikni oshirishning asosiy omillari sifatida o‘rganiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rasmiy statistik ma’lumotlar tahlili: O‘zbekiston hukumatining ochiq ma’lumotlar portali, budjet hisobotlari va davlat xaridlari statistikasi o‘rganildi. Qonunchilik bazasi tahlili: O‘zbekiston Respublikasining davlat xaridlari va budjet bo‘yicha qabul qilingan qonunlari, farmonlari, shu jumladan davlat xaridlaridagi raqamli platformalarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Taqqoslama: O‘zbekistonning raqamli shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlaridagi chora-tadbirlar xalqaro tajriba asosida chiroyli tarzda solishtirildi. Natijada bu elementlar birgalikda davlat moliyasining shaffofligi va hisobdorligini qanday oshirayotgani, hamda tizimning samaradorligi aniqlangan.

NATIJA VA TAHLILAR

1. Raqamli budjet tizimining kengayishi

O‘zbekiston davlat moliyasini boshqarish sohasida raqamli byudjet tizimidan foydalanishni kengaytirmoqda. Prezident farmoni asosida 2026 yil avgustgacha 29,000 dan ortiq byudjet tashkilotlari elektron budjet shakllantirish va tasdiqlash tizimiga o‘tadi, bu esa byudjet rejalashtirishdagi shaffoflikni sezilarli darajada oshiradi.

Elektron budjet tizimi orqali byudjetning shakllanishi, tasdiqlanishi, amalga oshirilishi va monitoringi raqamlashtiriladi. Bu optimallashtirish holati hisobdorlikni oshirishda raqamli iz qoldirish mexanizmini amalga oshiradi: izchil, statistik asosda jamoatchilik va auditorlar uchun ma’lumotlar platformada doimiy ravishda mavjud bo‘ladi.

2. Davlat xaridlari tizimining modernizatsiyasi

O‘zbekiston 2019 yildan boshlab elektron xaridlar portalini joriy etib, barcha davlat xaridlarini raqamli shaklga o‘tkazmoqda. Raqamli tender platformasi e- procurement orqali xaridlar jarayoni ochiq, ommaviy va tezkor bo‘lib, shu orqali shaffoflik sezilarli darajada oshdi — korrupsion xavflar kamaydi va teng raqobat muhitini mustahkamladi. 2025–2030 yillarda davlat rahbari tomonidan tasdiqlangan strategiyaga ko‘ra, 2030 yilga borib barcha davlat xaridlari uchun 80% raqobatli jarayonlar amalga oshiriladi, bu esa raqobatni oshirish orqali xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, 2026 yil martidan boshlab sun’iy intellekt modulini joriy etish orqali narx belgilash mexanizmlari avtomatlashtiriladi, bu esa tender jarayonida yuqori yoki past narxlar orqali suiiste’mollarning oldini olishni maqsad qiladi.

3. Qonunchilik va jamoatchilik nazorati

O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik bazasi budjetni va davlat xaridlarini monitoring qilishni mustahkamlash yo‘lida doimiy tahrir etilib kelinmoqda. Qonunlar shu jumladan jamoatchilik nazoratini faollashtirishni, tender natijalarini ochiq e’lon qilishni va elektron tizimlarni asos qilib qo‘yadi, bu esa huquqiy kafolat sifatida tashkil etilgan.

NATIJA VA TAHLIL

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning moliyaviy shaffoflikni oshirishga qaratilgan raqamli islohotlari ko‘plab ijobiy natijalarga olib keldi. Elektron budjet, ochiq ma’lumotlar va elektron xaridlar tizimlari orqali budjet jarayonlari endi juda tez, samarali va jamoatchilik uchun ochiq tarzda amalga oshiriladi. Bu jarayonlar fuqarolik jamiyati institutlari, auditorlar va nazorat organlari faoliyatini sezilarli darajada kengaytirdi. Raqamli tizimlar korrupsiyani kamaytirishga, xarajatlarni optimallashtirishga, hamda hukumat xarajatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikni oshirish va axborot xavfsizligi choralari tizimning yanada samarali va ishonchli bo‘lishi uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.

XULOSA

Raqamli texnologiyalar O‘zbekiston davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik va hisobdorlikni mustahkamlashda asosiy rol o‘ynamoqda. Elektron budjet va e-procurement tizimlari byudjet jarayonlarini jamoatchilik, auditorlar va nazorat organlari uchun ochiq qiladi. Qonunchilik mexanizmlari bu jarayonlarni huquqiy asosda kafolatlab, korrupsiyani kamaytirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda raqamli savodxonlikni oshirish va tizim xavfsizligi bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorlikni yanada kuchaytiradi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDITDA RAQAMLASHTIRISH - BYUDJET TASHKILOTLARIDA SHAFFOFLIK VA HISOBDORLIK ASOSI

Ergashev Xudoynazar Xabibullayevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Xabibullayev Azizbek Xudoynazar o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis institute, mustaqil tadqiqotchi

Isroilova Guljahon Alisherovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarini raqamlashtirish, IT-audit va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli transformatsiya orqali audit jarayonlari samaradorligi oshiriladi, byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish ta’minlanadi, korrupsiya va moliyaviy qoidabuzarlik xavfi kamayadi. Shu bilan birga, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ichki audit va moliyaviy nazorat tizimlarining zamonaviy vositalari, shaffofligi va samaradorligi oshiriladi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy nazorat, ichki audit, raqamlashtirish, IT-audit, sun’iy intellekt, byudjet, shaffoflik, moliyaviy boshqaruv, risklarni aniqlash, digital transformatsiya.

Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarining samarali ishlashi davlat mablag‘larining oqilona boshqarilishida muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning joriy etilishi nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish, moliyaviy xatolarni kamaytirish va auditorlar faoliyatini soddalashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamlashtirish orqali byudjet tashkilotlarida shaffoflik va hisobdorlik oshadi, moliyaviy nazorat tizimi yanada samarali ishlaydi.

Davlat moliyaviy nazoratida raqamlashtirish va IT-audit

Raqamli transformatsiya davlat moliyaviy nazorati jarayonlariga bir qancha afzalliklar beradi:

1. Ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish: Elektron ma’lumotlar bazalari va raqamli platformalar yordamida byudjet mablag‘lari harakati real vaqt rejimida kuzatiladi [1].
2. Xatolar va noqonuniy operatsiyalarni aniqlash: IT-audit vositalari yordamida moliyaviy qoidabuzarliklarni avtomatik aniqlash mumkin.
3. Audit jarayonini avtomatlashtirish: Raqamli tizimlar auditorlarning vaqt va resurslarini tejashga, hisobotlarni tezkor tayyorlashga imkon yaratadi [2].
4. Risklarni boshqarish: Sun’iy intellekt algoritmlari moliyaviy va operatsion risklarni oldindan aniqlashga yordam beradi.

IT-audit yordamida moliyaviy operatsiyalar tahlili yanada chuqurroq va samaraliroq bo‘ladi, shu bilan byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi oshadi [3].

Ichki audit va sun’iy intellekt

Ichki audit tizimida sun’iy intellekt quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

- Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish: AI algoritmlari moliyaviy ma’lumotlar oqimini tezkor va aniqlik bilan tahlil qiladi.
- Anomaliyalarni aniqlash: Noqonuniy yoki shubhali tranzaksiyalarni aniqlash imkonini beradi [4].
- Avtomatik xulosa va tavsiyalar berish: Auditorlarga tavsiyalarni tezkor shaklda taqdim etadi, qaror qabul qilish jarayonini soddalashtiradi.
- Jarayonlarni optimallashtirish: Audit jarayoni samarali va standartlarga mos amalga oshiriladi [5].

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda AI va raqamli audit tizimlarining joriy etilishi ichki audit samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va moliyaviy nazorat tizimini shaffof qiladi.

Ilg‘or xorijiy tajriba

AQSh, Yevropa davlatlari va Osiyo mamlakatlarida ichki audit tizimlari va davlat moliyaviy nazorati jarayonlari raqamlashtirilgan va AI asosida ishlaydi [6]. Masalan:

- AQSh moliya boshqarmasi va soliq xizmatida AI yordamida byudjet mablag‘larining harakati nazorat qilinadi, riskli operatsiyalar aniqlanadi [7].

- Yevropa davlatlarida ichki audit jarayonlari elektron platformalarda amalga oshiriladi, ma’lumotlar real vaqt rejimida kuzatiladi.
- Raqamli audit va IT-audit vositalari yordamida auditorlar ish samaradorligi oshadi, qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi [8].

Shu orqali nazorat jarayonlari tezkor, shaffof va aniq bo‘lib, moliyaviy intizom mustahkamlanadi.

Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarida raqamlashtirish, IT-audit va sun’iy intellektni joriy etish moliyaviy boshqaruvni samarali va shaffof qiluvchi asosiy omillardan biridir. Zamonaviy texnologiyalar yordamida audit jarayonlari avtomatlashtiriladi, moliyaviy qoidabuzarliklar kamayadi va byudjet mablag‘larining oqilona ishlatilishi ta’minlanadi. Ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish mumkin.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDITDA RAQAMLASHTIRISH, IT-AUDIT VA SUN'IY INTELLEKT: MUAMMO VA YECHIMLAR

Hotamboyev Kamoliddin Sherzodovich
Bojxona instituti, kursant

Bugungi kunda davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarini modernizatsiya qilish barcha mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston uchun ham ustuvor vazifaga aylangan. Raqamlashtirish jarayonlari nafaqat xususiy sektor, balki davlat boshqaruvi va moliyaviy nazorat tizimida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Xalqaro valyuta fondi (XVF) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli moliyaviy nazorat tizimlarini joriy etgan mamlakatlar byudjet xarajatlarini 15–20% gacha optimallashtirgan va korrupsiya xavfini sezilarli darajada kamaytirgan.

O'zbekiston Respublikasi ham «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida davlat moliyasi sohasida IT-yechimlarni keng tatbiq etish yo'lini tutgan. 2023–2025 yillar mobaynida G'aznachilik xizmati, Hisob palatasi va moliya organlari faoliyatida elektron hujjat aylanishi, avtomatik monitoring tizimlari va ma'lumotlar tahlili vositalari joriy etildi. Biroq IT-audit va sun'iy intellektni ichki audit amaliyotiga to'liq integratsiya qilish hali ham yetarli darajada amalga oshirilmagan muammoligicha qolmoqda.

IT-AUDIT VA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI

Xalqaro ichki auditorlar instituti (IIA) tomonidan qabul qilingan "Ichki auditning global standartlari" (2024-yil yanvar) ga ko'ra, zamonaviy ichki audit funksiyasi raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (AI), mashinali o'rganish (ML) va katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) asosida ishlashi lojim. Dunyo amaliyotida IT-auditning quyidagi yo'nalishlari alohida e'tibor qozonmoqda:

1. Anomaliyalarni avtomatik aniqlash (anomaly detection) — AI algoritmlari millionlab moliyaviy tranzaksiyalar ichidan shubhali operatsiyalarni real vaqt rejimida ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Masalan, Buyuk Britaniya HMRC soliq idorasi AI yordamida 2022–2023 yillarda 1,3 mlrd funt sterling soliq firibgarligini aniqlagan.

2. Robototexnik jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA — Robotic Process Automation) — takroriy va raqamlashtiriladigan audit jarayonlarini (ma'lumotlarni solishtirib ko'rish, hisobotlarni tekshirish) avtomatlashtirish orqali auditorlar vaqtini 40–60% ga kamaytirish mumkin (Deloitte, 2023).

3. Tahliliy prognozlash (Predictive Analytics) — davlat xarajatlarida potentsial xavf-xatarlarni oldindan bashorat qilish, byudjet bajarilishining buzilishi ehtimolini aniqlash.

O'zbekistonda Hisob palatasi 2024-yilgi yillik hisobotida auditorlik tekshiruvlarining 67% hujjatli shaklda olib borilayotganini, faqat 33% elektron tizimlarga tayanishini qayd etgan. Bu raqamlar raqamlashtirishni jadal rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

AMALIY TAKLIF: BANK MOLIYAVIY NAZORAT PLATFORMASI

Ushbu tezis muallifi tomonidan «Bank Office Asset Management» nomli amaliy dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan bo'lib, u https://bank-app-9ksdpxpxrtdhrqtgqyeg2f.streamlit.app/ manzilida joylashgan. Platforma Streamlit texnologiyasi va Supabase PostgreSQL ma'lumotlar bazasi asosida qurilgan bo'lib, bank muassasalari uchun quyidagi ichki audit va moliyaviy nazorat funksiyalarini ta'minlaydi:

— Bank ofisidagi barcha moddiy aktivlarni (asbob-uskunalar, texnika, inventar) markazlashgan holda hisobga olish va monitoring qilish;

— Aktivlar holati, joylashuvi va mas'ul xodimlar bo'yicha real vaqt rejimida ma'lumotlar bazasini yuritish;

— Audit yozuvlari va o'zgarishlar tarixini avtomatik qayd etish (audit trail);

— Vizual dashboard orqali tahliliy ko'rsatkichlarni namoyon etish va qaror qabul qilishga ko'maklashish.

Ushbu platforma davlat sektoriga moslashtirilgan holda Hisob palatasi, soliq inspeksiyalari va g'aznachilik muassasalarida qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, bir nechta idoradagi moddiy va nomavjud aktivlarni yagona raqamli tizimda boshqarish, IT-audit jarayonlarini avtomatlashtirish hamda korrupsiyaga qarshi profilaktik monitoring uchun amaliy zamin yaratadi.

TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

1. Hisob palatasida IT-audit bo'limini alohida tarkibiy bo'linma sifatida shakllantirish, xodimlarga CISA (Certified Information Systems Auditor) sertifikati bo'yicha malaka oshirish yo'lga qo'yilsin.

2. Davlat byudjet tashkilotlarida yagona aktivlarni boshqarish platformasini joriy etish maqsadida «Bank Office Asset Management» tipi dasturiy yechimlari asosida Respublika miqyosida pilot loyiha amalga oshirilsin.

3. Sun'iy intellekt asosidagi anomaliya aniqlash tizimlari (AI Fraud Detection) davlat xaridlari (tender) va byudjet xarajatlarini monitoring qilishga integratsiya qilinsin. Bunga INTOSAI-IT 16 standart qoidalari asos qilib olinsin.

4. Ichki audit xizmatlari va g'aznachilik o'rtasida ma'lumotlar almashish protokollarini standartlashtirib, real vaqt rejimida o'zaro ma'lumotlar sinxronizatsiyasini ta'minlash uchun API integratsiya arxitekturasi ishlab chiqilsin.

5. Raqamli audit natijalarini ommaga ochiq (open data) formatda e'lon qilish mexanizmi joriy etilsin — bu moliyaviy shaffoflikni oshiradi va fuqarolik nazoratini kuchaytiradi.

XITOYNING "SMART CUSTOMS (3S)" STRATEGIYASI: SUN'IY INTELLEKT VA XAVFLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI TAHLILI

Ibragimov Diyorbek Shuxrat o'g'li
Bojxona instituti, kursant
Ergashev Qobil
"Bojxona nazorati" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola global savdo hajmining ortishi va ta'minot zanjirlarining murakkablashuvi sharoitida Xitoy Xalq Respublikasi Bojxona Bosh Boshqarmasi (GACC) tomonidan ishlab chiqilgan "Smart Customs, Smart Borders and Smart Connectivity" (keyingi o'rinlarda "3S") strategiyasini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy e'tibori bojxona nazorati samaradorligini oshirishda Artificial intelligence (keyingi o'rinlarda AI) algoritmlari, xususan, deep learning va convolutional neural networks (keyingi o'rinlarda CNN) texnologiyalarining qo'llanilishiga qaratilgan. Shuningdek, maqolada risk management tizimining ilmiy asoslangan "fanel" modeli, big data tahlili va "noma'lum xavf" konsepsiyasi o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Intelligent Customs Inspection (keyingi o'rinlarda ICI) tizimining joriy etilishi nafaqat kontrabanda aniqlash darajasini oshiradi, balki qonuniy savdo ishtirokchilari uchun chegara o'tkazish vaqtini keskin qisqartiradi.

Kirish

XXI asrning uchinchi o'n yilligida jahon iqtisodiyoti misli ko'rilmagan chaqiriqlar va imkoniyatlar chorrahasida turibdi. Texnologik inqilob va sanoat transformatsiyasi global innovatsion landshaftni va iqtisodiy tuzilmalarni tubdan o'zgartirmoqda. Dunyodagi eng yirik tovar savdosi mamlakati sifatida Xitoy import va eksport nazorati bo'yicha ulkan bosimga duch kelmoqda. An'anaviy bojxona nazorati usullari, asosan inson resurslariga tayanishi va fizik tekshiruvlarning ko'pligi sababli, zamonaviy savdo

tezligiga va xavfsizlik talablariga to‘liq javob bera olmay qoldi. Bu esa "nazorat" (supervision) va "osonlashtirish" (facilitation) o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytirdi.[4]

Ushbu maqolaning maqsadi — Xitoy bojxona xizmatining ilg‘or tajribalarini ,jumladan, “3S” konsepsiyani, xavfni boshqarish tizimida foydalanayotgan AI modellarni o’rganishdan iborat.

Ushbu muammolarni hal qilish va global bojxona hamjamiyatining modernizatsiyasiga hissa qo‘shish maqsadida, Xitoy Xalq Respublikasi prezidenti Si Tszinpin tomonidan "Smart Customs, Smart Borders and Smart Connectivity" (3S) konsepsiyasi*(1-rasm)* ilgari surildi. Bu shunchaki texnologik yangilanish emas, balki bojxona boshqaruvida data culture va data ecosystem yaratishga qaratilgan fundamental o‘zgarishdir. [4]



1- rasm.Xitoy bojxona xizmati “3S” konsepsiyasi

Jahon Bojxona Tashkiloti (keyingi o‘rinlarda WCO) ning strategik rejasiga muvofiq, Xitoy bojxonasi 140 dan ortiq pilot loyihalarni ishga tushirib, bojxona amaliyotiga disruptive technologies (buzib kiruvchi/inqilobiy texnologiyalar)ni joriy etmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — Xitoyning "3S" strategiyasi doirasida joriy etilgan innovatsion yechimlarni, xususan, risk management va AI-based inspection modellarini ilmiy tahlil qilishdan iborat.

"3S" tashabbusi bojxona faoliyatini raqamli transformatsiya qilishning yaxlit ekotizimi hisoblanadi. U uchta o‘zaro bog‘liq ustunga tayanadi:

1) Smart customs (Aqlli bojxona) Bu ustun bojxona ma'muriyatining ichki modernizatsiyasiga qaratilgan bo‘lib, u infratuzilmani yangilash, bojxona nazorati va ichki boshqaruvni avtomatlashtirishni o‘z ichiga oladi [2]. Smart Customs ikki asosiy yo‘nalishda rivojlanmoqda: 1.Smart Technology: AI , Internet of Things (keyingi o‘rinlarda IoT), cloud computing, blockchain va konteynerlarni skanerlash uskunalarini qo‘llash [1]. 2.Smart Methods: Bojxona boshqaruviga innovatsion fikrlash va ilmiy usullarni joriy etish orqali jarayonlarni optimallashtirish. [2]

2) Smart Borders (aqlli chegaralar)

Bu yo‘nalish milliy chegaralardagi turli nazorat organlari (bojxona, immigratsiya, karantin va boshqalar) o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni nazarda tutadi. Maqsad — Cross-agency Cooperation va Cross-border Cooperation orqali ma'lumot almashish va xavflarni birgalikda boshqarishdir. Bu chegara boshqaruvining yangi modelini yaratadi, bu yerda nazorat natijalari o‘zaro tan olinadi (mutual recognition). [2] *(2-rasm)*

3) Smart Connectivity (Aqlli Bog‘liqlik)

Uchinchi ustun global ta'minot zanjiri ishtirokchilari (davlat organlari, logistika kompaniyalari, ishlab chiqaruvchilar) o‘rtasidagi raqamli aloqani ta'minlaydi. Smart Connectivity bojxona va biznes o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqib, butun dunyo bo‘ylab xavfsiz va silliq savdo oqimini yaratishga xizmat qiladi. [2] *(3-rasm)*



2- rasm.”3S” konsepsiyasi “Smart borders” ustuni

Xitoy bojxona tizimining "miyasi" — bu uning risk management mexanizmidir*(5-rasm)*. Zamonaviy sharoitda barcha yuklarni fizik ko‘rikdan o‘tkazish imkonsiz va samarasizdir. Shu bois, Xitoy bojxonasi ma'lumotlarga asoslangan qat'iy matematik va mantiqiy modelni — "Xavfni saralash faneli"ni (Risk Selection Funnel) ishlab chiqdi. [4]

Ushbu risk selection funnel (xavfni saralash faneli) ishlash mexanizmi quyidagicha tuzilgan:

1. 100% Electronic declaration: Barcha deklaratsiyalar elektron shaklda qabul qilinadi.

2. Automated document review: Tizim deklaratsiyalarning 75 foizini avtomatik ravishda tekshiradi (E-audit clearance) *(6-rasm)*. Faqatgina 25 foizi qo‘lda tekshirishga

(manual review) ya’ni, rasmiylashtiruvchi xodim tomonidan deklaratsiya va kuzatuv hujjatlari tekshiriladi. [4]

-100% Risk selection: Barcha qabul qilingan deklaratsiyalar xavfni aniqlash algoritmidan o‘tadi.

-Low risk (95%): Yuklarning aksariyat qismi, taxminan 95 foizi "past xavf" deb baholanadi va ular fizik ko‘riksiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqarib yuboriladi.

-High risk (4%): Faqatgina 4 foiz yuklar "yuqori xavf" deb topilib, joyida bojxona ko‘rikka (on-site inspection) yo‘naltiriladi.



3- rasm. .”3S” konsepsiyasi “Smart Connectivity” ustuni

-Unknown risk (1%): Tizimning o‘ziga xos ilmiy yondashuvi shundaki, qolgan 1 foiz yuklar "noma'lum xavf" sifatida tasniflanadi va ular tasodifiy tanlash (bi-randomised) asosida tekshiriladi. Bu usul korrupsiyaning oldini olish, tizimni aldashga urinishlarni yo‘q qilish va machine learning modellari uchun obyektiv ma'lumotlar bazasini yaratishga xizmat qiladi.

3. Xavfni boshqarishda big data strategiyasi: Xitoy bojxonasi ma'lumotlarning nomutanosibligi va past samaradorlik muammolarini hal qilish uchun Big data strategiyasini ishlab chiqdi. Hozirgi kunga qadar 35 ta intellektual model ishlab chiqilgan. [1] Masalan, daromadlar bilan bog‘liq xavflarni boshqarish uchun "Big data smart screening project for revenue risks" amalga oshirilgan. Ushbu loyiha TIF TN kodlari, tovar qiymati va kelib chiqishi kabi elementlar bo‘yicha aqlli xavf baholashlarini o‘tkazadi. 2024-yilning dastlabki 11 oyida ushbu modellar barcha nishonga olishlarning

(targeting) 4.32 foizini tashkil etdi va qoidabuzarliklarni aniqlash darajasi (seizure rate) inson tomonidan qo‘lda nishonga olishdan 7 foiz punktga yuqori bo‘ldi. [1] *(4-rasm)*

4) Sun’iy intellekt bojxona nazoratida: Intelligent customs inspection (ICI). Xitoy bojxona xizmati bojxona nazoratida sun’iy intellektni bevosita qo’llamoqda. Rentgen tasvirlarini inson tomonidan tahlil qilish ko‘p vaqt talab etadi va subyektiv xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Xitoy bojxonasida joriy etilgan Intelligent Customs Inspection (ICI) tizimi ushbu muammolarni deep learning texnologiyasi orqali hal qiladi. [4] Deep learning va algoritmlari haqida ma’lumot



4- rasm. Xitoy bojxona xizmati xavfni boshqarish tizimi

beradigan bo’lsak, ICI tizimi asosan deep learning texnologiyasiga asoslangan bo‘lib, u neural networks (neyron tarmoqlari) rivojlanishining mahsulidir. [4] Convolutional neural networks (CNN): Tasvirlarni tahlil qilishda eng samarali vosita sifatida CNN qo‘llaniladi. 1998-yilda taklif qilingan LeNet algoritmidan boshlab, 2012-yilda AlexNet va 2014-yilda VGG modellari orqali kompyuter ko‘rishi (Computer Vision) inqilobiy darajada rivojlandi. Hozirda ResNet va Single Shot Detector (SSD) kabi ilg‘or arxitekturalar bojxona tasvirlarini tahlil qilishda qo‘llanilmoqda[4]. Image segmentation: AI algoritmi konteyner tasvirini uch qismga ajratadi: korpus (body), quti (box) va yuklangan tovarlar (loaded cargo). Tizim deklaratsiyadagi tovar kodi va nomini tasvirdagi obyekt bilan solishtiradi. Support Vector Machine (SVM): Tasniflash masalalarida SVM algoritmi qo‘llaniladi. U "maksimal interval" (maximum interval) tamoyili asosida ishlaydi, bu esa tasvirdagi obyektlarni aniq chegaralash va identifikatsiya qilish imkonini beradi. O‘qitish jarayoni (Training Process) yopiq sikl (closed loop) shaklida bo‘lib, ma'lumotlarni yig‘ish, algoritmni o‘qitish, sinovdan o‘tkazish va optimallashtirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Bu tizimning o‘z-o‘zini takomillashtirishiga olib keladi.

Uskunalar Tahlili: H986 vs CT

Xitoy bojxonasida asosan ikki turdagi Non-Intrusive Inspection (NII) uskunalari AI bilan integratsiya qilingan:

-H986 (Yirik Konteyner Rentgen Skaneri):

Asosan dengiz va quruqlikdagi yirik yuklarni (bulk cargoes) tekshirish uchun ishlatiladi. [1]



5- rasm. Xitoy bojxona xizmati xavfni boshqarish tizimi sxemasi

AI Recognition time: O‘rtacha 10 soniya.

Samaradorlik: H986 yordamida AI taxminan 6 milliard yuan qiymatidagi 3000 ta kontrabanda holatini aniqladi.

-CT (Computed Tomography):

Asosan pochta, kuryerlik jo‘natmalari va yo‘lovchi yuklarini tekshirish uchun ishlatiladi. Ular 3D tasvirlarni taqdim etadi.

AI Recognition Time: O‘rtacha 5 soniya.

Samaradorlik: CT uskunalaridagi AI orqali 100 million yuan qiymatidagi 1700 ta holat aniqlangan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Identification of declared goods (deklaratsiya qilingan tovarlarni tanib olish) bo‘yicha CT uskunalari (60.78%) H986 ga nisbatan (39.22%) yuqoriroq samaradorlikka ega. Bu CT ning 360 darajali ko‘rish imkoniyati bilan bog‘liq.

Multi-characteristic Imaging (Ko‘p Xususiyatli Tasvirlash)

An'anaviy rentgen uskunalari faqat nurlarning yutilishiga (absorption) asoslangan bo‘lib, yengil elementlarni (masalan, giyohvand moddalar yoki portlovchi moddalar)

aniqlashda qiyinchilikka duch keladi. Xitoy bojxonasi X-ray multi-characteristic imaging texnologiyasini rivojlantirmoqda. Bu texnologiya moddalarning uchta fizik xususiyatini bir vaqtning o‘zida qayd etadi:

1. Absorption (Yutilish)
2. Phase (Faza) — tasvir kontrastini oshiradi.
3. Small-angle scattering (Kichik burchakli sochilish) — moddalarning mikro va nano tuzilmalarini aniqlaydi.Bu texnologiya suyuqliklar va kukun shaklidagi kontrabanda moddalarini aniqlashda ICI tizimining imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqadi. [4]



6- rasm. Xitoy bojxona xizmatida bojxona yuk deklaratsiyasining xavfni boshqarish tizimi sxemasidan o’tish tartibi

Xitoyning "3S" strategiyasi va AI texnologiyalari nazariyadan amaliyotga ko‘chganligini quyidagi real loyihalar misolida ko‘rish mumkin.

5) Yangshan Automated Container Terminal (Shanxay)

Shanxayning Yangshan porti dunyodagi eng yirik konteyner terminali bo‘lib, u yerda Customs smart inspection to‘liq joriy etilgan. Workflow: Bojxona ko‘rsatmalari portning avtomatlashtirilgan operatsion tizimiga integratsiya qilingan. Automated guided vehicles (AGVs) tanlangan konteynerlarni inson aralashuvisiz H986 skaneri binosiga olib boradi. [3] Remote analysis: Skaner qilingan tasvirlar optik kabel orqali 30 km uzoqlikdagi markazga uzatiladi va u yerda AI algoritmlari tomonidan tahlil qilinadi. Results: 2021-yilda Yangshan bojxonasi 84,206 ta konteynerni noinvaziv ko‘rikdan o‘tkazdi, bu 2019-yilga nisbatan 1.5 barobar ko‘pdir. AI yolg‘on deklaratsiya, yashirish va kontrabandani avtomatik aniqlab, ogohlantirish signallarini (alarm) beradi.

- Smart Passenger Inspection

Shanxay aeroportida joriy etilgan "Smart Passenger Inspection" tizimi ilg‘or texnologiyalarni, jumladan, smart lanes, pre-X-ray screening va robot yordamchilarini birlashtiradi. Efficiency: 300 yo‘lovchiga ega reysni rasmiylashtirish vaqti atigi 30 daqiqaga tushirildi. Butun reysning yuklarini skanerlash esa 20 daqiqa ichida yakunlanadi. Experience: Kelgan yo‘lovchilarning 98 foizi yuklarini olganidan so‘ng 5 daqiqa ichida bojxona zonasidan chiqib ketishmoqda ("unnoticeable customs clearance").[1]



7- rasm. Xitoy bojxona xizmatida big data va AIni qo’llash mexanizmi.

-Chongqing-Singapore Digital Connectivity Platform

Bu loyiha Smart Connectivity tamoyilining yorqin namunasidir. Data Exchange: Ikki davlat o‘rtasida konteynerlar harakati real vaqt rejimida kuzatiladi va ma'lumotlar almashiladi. 2022-yil may oyiga kelib, 345,000 partiya konteynerlar haqidagi ma'lumotlar almashilgan.

-One Declaration: Ilgari turli shaharlarda saqlanadigan aviatsiya qismlari uchun har bir joyda alohida bojxona rasmiylashtiruvi talab etilardi. Ushbu platforma orqali

Singapur aviakompaniyalari barcha qismlarni markazlashgan holda Chongqingda deklaratsiya qilish imkoniga ega bo‘ldi.

6) Hujjatlarni raqamlashtirish: unstructured data muammosi

Bojxona nazoratida nafaqat fizik tovarlar, balki ularga tegishli hujjatlar ham katta ahamiyatga ega. Biroq, ko‘plab hujjatlar (masalan, Certificate of origin) strukturalashmagan formatda bo‘ladi, bu esa avtomatlashtirishga to‘sqinlik qiladi.

Xitoy bojxonasi "Digitization of multi-source documents" tashabbusini ilgari surmoqda. Maqsad — Unstructured Datani Natural Language Processing (NLP) va Optical character recognition (OCR) texnologiyalari yordamida structured dataga aylantirishdir. [5] Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, deklaratsiyalarning taxminan 76 foizi va ilova qilingan hujjatlarning (annexes) 89 foizi inson aralashuvisiz (non-manual intervention) avtomatik tarzda qayta ishlanmoqda. Intelligent Document Inspection sohasidagi bu yutuqlar bojxona xodimlarini muntazam vazifalardan ozod qilib, asosiy e'tiborni yuqori xavfli hujjatlarga qaratish imkonini beradi.

Xulosa

Xitoyning "3S" strategiyasi global bojxona hamjamiyati uchun raqamli modernizatsiya modeli sifatida xizmat qilmoqda. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, A va Big Data*(7-rasm)* texnologiyalari bojxona nazoratida inson omilini kamaytirish, xavflarni aniqlash aniqligini oshirish va savdoni osonlashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. [4]

BUDJET NAZORATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ismoilova Mohiraxon Iqbol qizi,
TDIU MMT-59/24 guruhi talabasi

Davlat budjeti iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning asosiy moliyaviy instrumenti bo‘lganligi sababli, uni shakllantirish va undan foydalanish ustidan samarali nazoratni ta’minlash hozirgi iqtisodiy sharoitda davlat moliyasini oqilona boshqarishning muhim sharti hisoblanadi.

Budjet nazorati moliyaviy nazoratning eng muhim shakllaridan biri bolib, budjetlarni tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash bosqichidagi vazifasi budjetning daromad qismida mavjud zaxiralardan foydalanishning to'liqligini tekshirish hisoblanadi. [1]

Shuningdek, budjet xarajatlarini amalga oshirishda har bir turdagi moliyalashtirishni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini tekshiradi. Budjetni ijro etish jarayonida byudjet mablag'larini taqsimlashning oz vaqtida bajarilishi, ularning maqsadli va samarali qo'llanilishi nazorat qilinadi. Fiskal siyosatning samaradorligi, ya’ni iqtisodiy siklni barqarorlashtirish, daromadlarni qayta taqsimlash va davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun resurslarni shakllantirish hamda ulardan foydalanish, asosan,

hukumat ixtiyoridagi axborot va texnologiyalarga, shuningdek ularni qay darajada samarali qo‘llay olinishiga bog‘liqdir. Hukumatlar iqtisodiy pasayish davrida iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlaydi, yuksalish davrida esa xarajatlarni qisqartirish choralarini ko‘radi. Ular ijtimoiy himoya tizimlari, sog‘liqni saqlash, ta’lim, infratuzilma va boshqa sohalarni moliyalashtirish uchun soliq bazalarini shakllantiradi. Shu sababli fiskal siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni iqtisodiyot hamda undagi subyektlar haqidagi ma’lumotlarning qanchalik ishonchli, tezkor va batafsil ekanligiga bevosita bog‘liq. Bu ma’lumotlarga soliq to‘lovchilarning daromadlari va aktivlari, ijtimoiy dasturlar oluvchilarning holati, bandlik darajasi, ishlab chiqarish tafovuti hajmi, shuningdek davlat operatsiyalarining ko‘lami va vaqti kabi ko‘rsatkichlar kiradi. Raqamlashtirish hukumatning ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini tubdan o‘zgartirib, fiskal siyosatni shakllantirish va amalga oshirish jarayoniga yangi yo‘nalish bermoqda. Mazkur jarayon nisbatan yosh bo‘lsa-da, uning ahamiyati va ta’siri izchil kuchayib bormoqda.



1- rasm. Raqamli texnologiyalarning davlat moliyasini boshqarish samaradorligiga ta’siri [2]

Mazkur diagramma 2019–2023-yillar davomida raqamli texnologiyalarni byudjet nazorati jarayoniga joriy etish natijasida samaradorlik ko‘rsatkichlarining izchil va sezilarli oshganini ko‘rsatadi. Xususan, shaffoflik darajasi 2019-yilda 60 birlikni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda 65, 2021-yilda 75, 2022-yilda 85 va 2023-yilda 95 darajagacha yetgan. Bu o‘sish byudjet ma’lumotlarining ochiqligi, hisobotlarning aniqligi hamda jamoatchilik nazoratining kengayganini ifodalaydi. Moliyaviy operatsiyalarni qayta ishlash tezligi ham yuqori sur’atlarda oshgan: 2019-yildagi 50 ko‘rsatkich 2020-yilda 60, 2021-yilda 70, 2022-yilda 80 va 2023-yilda 90 darajaga yetgan. Ushbu dinamik o‘sish raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etilishi natijasida hisob-kitob, monitoring va nazorat jarayonlarining tezlashganini ko‘rsatadi. Xarajatlarni qisqartirish ko‘rsatkichi ham barqaror o‘sishni namoyon etib, 2019-yildagi 55 darajadan

The integration of Big Data and artificial intelligence technologies therefore creates a competitive advantage for organizations by improving decision-making speed, reducing operational costs, and increasing the efficiency of marketing strategies.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

The results of the study indicate that the use of Big Data and artificial intelligence technologies plays a significant role in optimizing financial management and marketing research. These technologies enable organizations to process large volumes of information, identify market trends, and develop effective strategic decisions.

Based on the findings of this study, the following recommendations can be proposed:

I. Companies should implement Big Data-based analytical platforms to improve financial forecasting systems.

II. Artificial intelligence models should be used in financial management processes to enhance risk assessment and decision-making accuracy.

III. Digital analytics platforms should be widely applied in marketing research.

IV. Organizations should invest in training specialists in data analytics and digital technologies.

V. The integration of financial management and marketing analytics should be strengthened through digital technologies.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA BUDJET INTIZOMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ORQALI MUSTAHKAMLASH

Axunova Shoxistaxon Nomanjanovna
FDTU, "Iqtisdodiyot" kafedrasi dotsenti
Qaxxorova Nilufar Mahammadjon qizi
Farg'ona davlat Texnika universiteti 79-23 I guruhi talabasi.

XXI asrda jahon iqtisodiyoti tubdan o‘zgarib, raqamli texnologiyalar asosida rivojlanayotgan yangi iqtisodiy tizim shakllanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo davlatlari raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini jadallashtirmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, tezkor internetdan foydalanuvchilar sonining 10 foizga oshishi milliy iqtisodiyot hajmini o‘rtacha 0,4–1,4 foizga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqamlashtirish jarayonlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Moliyaviy nazorat va budjet intizomi: nazariy va huquqiy asoslar: Davlat moliyaviy nazorati - bu davlat moliyaviy resurslari ustidan qonuniylik, samaradorlik va maqsadga muvofiqlikni ta'minlash uchun amalga oshiriladigan tizimli faoliyatdir. Moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi byudjet mablag‘larini oqilona ishlatish, iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini ta'minlash va xatoliklar va suiiste'mollar darajasini kamaytirishdir.

Huquqiy baza:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – davlat hokimiyati organlarining qonuniy va shaffof ishlashini ta'minlaydi, moliyaviy boshqaruvning umumiy huquqiy asoslarini yaratadi.[7]

2. Budjet kodeksi – budjet tizimi, uning tuzilishi, daromad va xarajatlar jarayonlarini tartibga soladi va budjet intizomiga oid mehanizmlarni belgilaydi.[7]

3. Davlat moliyasini boshqarish strategiyasi 2025–2030 – moliyaviy boshqaruvni zamonaviylashtirish, budjet intizomini mustahkamlash va raqamli boshqaruvni joriy etish bo‘yicha yo‘nalishlarni belgilaydi.[7]

Budjet jarayoni bir necha asosiy bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichning o‘ziga xos funksiyalari va nazorat mexanizmlari mavjud. Ushbu jarayonlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Shakllanish bosqichi – bu bosqichda davlat yoki mahalliy byudjetning kelgusi yilga mo‘ljallangan daromadlari va xarajatlari aniqlanadi. Moliyaviy manbalar va

resurslarning taqsimlanishi iqtisodiy tahlillar va prognozlar asosida amalga oshiriladi. Shu jarayonda byudjet loyihasi ishlab chiqiladi, unda har bir davlat tashkiloti yoki hududiy bo‘linmalar uchun ajratiladigan mablag‘lar belgilanishi lozim.

Tasdiqlanish bosqichi – shakllangan byudjet loyihasi parlament yoki vakolatli organ tomonidan ko‘rib chiqilib, qonuniy kuchga ega bo‘ladi. Bu bosqichda moliyaviy nazoratning birinchi darajasi o‘rnatiladi, chunki har qanday ajratmalar va xarajatlar qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi talab etiladi.

Ijro etish bosqichi – tasdiqlangan byudjetga muvofiq mablag‘lar real faoliyatga yo‘naltiriladi. Ushbu jarayonda davlat organlari va tashkilotlari o‘z mablag‘larini belgilangan yo‘nalishlarda ishlatadi. Moliyaviy nazorat shu bosqichda ham davom etadi: har bir xarajatning maqsadga muvofiqligi, qonuniyligi va samaradorligi tekshiriladi. Elektron byudjet tizimlari va raqamli monitoring vositalari bu jarayonni avtomatlashtirishga yordam beradi, shaffoflikni oshiradi va xatoliklarni kamaytiradi.

Hisobot berish bosqichi – byudjet mablag‘laridan foydalanish natijalari yillik yoki choraklik moliyaviy hisobotlar orqali jamoatchilik va vakolatli organlarga taqdim etiladi. Ushbu bosqichda ichki va tashqi audit xizmatlari faoliyati muhim rol o‘ynaydi. Auditorlar mablag‘larning samaradorligi, qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini tahlil qilib, kamchiliklar va moliyaviy xatarlarni aniqlaydi. Shu bilan birga, hisobot berish jarayoni shaffoflikni oshiradi va davlat moliyaviy boshqaruvi tizimini yanada barqaror qiladi.

Nazorat sub’ektlari va vositalari:

Moliyaviy nazorat davlat organlari (moliya vazirligi, soliq organlari), ichki audit xizmatlari va mustaqil auditorlar tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat mexanizmlari ichki audit, tashqi audit, budjet monitoringi va shaffof hisobot tizimini o‘z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalar moliyaviy nazoratni samarali qilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Elektron hukumat tizimi, byudjet hisobotlarini onlayn monitoring qilish, mobil banking va elektron to‘lov tizimlari davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli jarayonlar moliyaviy shaffoflikni oshirib, hisobotlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi va xatoliklarni kamaytiradi. Bu esa budjet intizomiga oid qarorlarni tez va samarali qabul qilishga yordam beradi.

Budjet intizomi davlat moliyaviy boshqaruvining markaziy elementi bo‘lib, byudjet mablag‘larining maqsadga muvofiqligi, samaradorligi va qonuniy ishlatilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda global iqtisodiy jarayonlarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish budjet intizomini mustahkamlashning samarali vositasiga aylangan. Shu nuqtai nazardan, quyidagi yo‘nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi:

Raqamli transformatsiya. Byudjet jarayonlarini avtomatlashtirish va moliyaviy axborot tizimlarini joriy etish budjet intizomining samaradorligini sezilarli darajada

oshiradi. Elektron hisobot tizimlari, onlayn byudjet monitoringi va moliyaviy dasturiy ta’minotlar yordamida mablag‘lar harakatini real vaqt rejimida kuzatish mumkin. Bu esa byudjet mablag‘larining noto‘g‘ri ishlatilishini oldini oladi, byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi. Misol uchun, elektron byudjet tizimi orqali har bir byudjet tashkiloti mablag‘ sarfini onlayn tarzda nazorat qilishi mumkin.

Shaffoflikni oshirish. Shaffoflik byudjet intizomini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjet hisobotlarini ochiqlash va ularni keng auditoriya bilan bo‘lishish orqali moliyaviy jarayonlar shaffofligi ta’minlanadi. Ochiq byudjet tizimi fuqarolar, biznes sub’ektlari va ommaviy axborot vositalariga moliyaviy jarayonlarni kuzatish imkonini beradi, bu esa korrupsiya va suiiste’mollarning oldini oladi. Shu bilan birga, shaffoflikka erishish orqali davlatning moliyaviy siyosatiga ishonch ortadi va sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratiladi.

Audit salohiyatini oshirish. Ichki va tashqi audit xizmatlarining malakasini oshirish budjet intizomining mustahkamlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Audit xizmatlari moliyaviy xatoliklar va xatarlarni tezkor aniqlash, byudjet mablag‘larining samarali ishlatilishini tekshirish va tavsiyalar berish orqali nazorat jarayonini kuchaytiradi. Shu bilan birga, auditorlar zamonaviy texnologiyalar, jumladan, raqamli monitoring tizimlari va analitik dasturlar yordamida moliyaviy jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Statistik va analitik yondashuvlar. Big Data, sun’iy intellekt va ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari yordamida moliyaviy xatarlarni oldindan prognoz qilish va byudjet jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Masalan, moliyaviy ma’lumotlar bazasini tahlil qilib, xarajatlarning samaradorligi, byudjet mablag‘larining oqilona ishlatilishi va moliyaviy oqimlarning kutilmagan xatarlarini aniqlash mumkin. Shu orqali davlat moliyaviy boshqaruvi qarorlarini strategik va statistik asosda qabul qiladi, byudjet intizomi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Raqamli transformatsiya, shaffoflikni oshirish, audit salohiyatini kuchaytirish va statistik-analitik yondashuvlar budjet intizomini mustahkamlashning zamonaviy va samarali yo‘llaridir. Ushbu choralar byudjet mablag‘larining samarali ishlatilishini ta’minlaydi, moliyaviy jarayonlarni shaffoflashtiradi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Kelgusida ushbu yo‘nalishlarni yanada kengaytirish va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali O‘zbekiston moliyaviy nazorat tizimini global standartlarga moslashtirish mumkin.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati tizimi va budjet intizomini ta’minlash jarayonida bir qator muammolar mavjud. Xususan, ayrim hollarda budjet mablag‘larining maqsadsiz sarflanishi, xarajatlar samaradorligining yetarli darajada baholanmasligi, shuningdek, hisobotlarning kechiktirilishi yoki to‘liq shakllantirilmasligi kuzatiladi. [7]

Bundan tashqari, hududlar kesimida moliyaviy nazorat mexanizmlarining turlicha ishlashi, ichki audit tizimining institutsional salohiyati yetarli darajada shakllanmaganligi ham moliyaviy intizomni mustahkamlashda to‘siq bo‘lib qolmoqda. [8]

Asosiy muammolar quyidagilar:

• Budjet mablag‘larining maqsadsiz yoki samarasiz sarflanishi holatlarining mavjudligi. [6, 12-15]

• Davlat xaridlarida shaffoflikning yetarli darajada ta’minlanmaganligi. [6, 12-15]

• Ichki audit xizmatlarining metodik va kadrlar salohiyatining pastligi. [6, 12-15]

• Raqamli monitoring tizimlarining barcha hudud va tashkilotlarda to‘liq integratsiya qilinmaganligi. [6, 12-15]

• Statistik tahlil va prognozlash mexanizmlarining amaliyotda sust qo‘llanilishi. [6, 12-15]

Ushbu muammolarni yechish uchun:

1. Elektron budjet va elektron hisobot tizimlarini barcha budjet tashkilotlari uchun majburiy tartibda joriy etish. [8]
2. Davlat xaridlari bo‘yicha raqamli platformalarda ochiq ma’lumotlar bazasini kengaytirish. [8]
3. Ichki audit xodimlari uchun malaka oshirish va sertifikatlash tizimini kuchaytirish. [8]
4. Big Data va sun’iy intellekt asosida moliyaviy xatarlarni prognoz qiluvchi analitik modullarni yaratish. [8]
5. Budjet ijrosi natijalarini baholashda samaradorlik indikatorlari (KPI) tizimini joriy etish. [8]

talab qilinadi.

Me’yoriy-huquqiy hujjatlarning amaliyotda qo‘llanilishi

O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat va budjet intizomi bo‘yicha asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya, Budjet kodeksi hamda davlat moliyasini boshqarish strategiyasi hisoblanadi. Mazkur hujjatlar budjet jarayonining shakllanishi, tasdiqlanishi, ijrosi va hisobot berish bosqichlarida nazorat mexanizmlarini belgilab beradi. [6]

Budjet kodeksida budjet mablag‘larining maqsadli ishlatilishi, budjet majburiyatlarini hisobga olish, moliyaviy intizom buzilishi uchun javobgarlik hamda nazorat organlarining vakolatlari belgilangan. Ushbu normalar amaliyotda budjet tashkilotlari va mahalliy hokimiyat organlarida ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. [7]

2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish strategiyasi doirasida budjet jarayonlarini raqamlashtirish, fiskal shaffoflikni oshirish va audit tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Strategiya hududiy budjetlar darajasida ham raqamli hisobot va monitoring tizimlarini joriy etishni nazarda tutadi. [8]

Xulosa qilib aytganda, davlat moliyaviy nazorati tizimi va budjet intizomi O‘zbekiston moliyaviy boshqaruvining markaziy elementlaridir. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, shaffof hisobot tizimi va mustaqil nazorat shakllarini rivojlantirish orqali O‘zbekiston moliyaviy boshqaruv tizimini zamonaviy standartlarga moslashtirishi mumkin. Bu esa iqtisodiy barqarorlik, samaradorlik va global raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshiradi.

RAQAMLI ASRDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDIT: IT-AUDIT VA SUN’IY INTELLEKT YECHIMLARI

Axunova Shoxistaxon Nomanjanovna
FDTU, Iqtisodiyot kafedrasi, dotsenti
Rasuljonova Farangiz G‘ulomjon qizi
FDTU, Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida raqamlashtirish jarayonlari, IT-auditning tashkiliy-metodik asoslari hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan. Raqamli transformatsiya sharoitida moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish, axborot tizimlarining ishonchliligini ta’minlash va risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar va raqamli texnologiyalarni joriy etishning amaliy jihatlari bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so’zlar: davlat moliyaviy nazorati, ichki audit, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, IT-audit, sun’iy intellekt, axborot tizimlari, moliyaviy monitoring, risklarni boshqarish, avtomatlashtirilgan nazorat, analitik platformalar, raqamli infratuzilma.

Mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardandir [2]. Bu jarayonlarda raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish ochiqlik, shaffoflik va mas’uliyatni ta’minlashning muhim omilidir.

Raqamlashtirishning jadal rivojlanishi an’anaviy usullardan voz kechib, IT-audit standartlari, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari va sun’iy intellekt asosidagi analitik vositalarni joriy etishni taqozo etadi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash va risklarni prognozlashtirish imkoniyatlari raqamli transformatsiyaning zaruriy shartidir.

Dunyoning yetakchi mamlakatlarida davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida sun’iy intellekt, blokcheyn, Big Data va IT-auditning ilg‘or metodologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tajribalarni joriy etish mamlakatimizda moliyaviy intizomni

mustahkamlash va byudjet mablag‘lari sarfini nazorat qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqadi.

Mazkur bo‘limda raqamlashtirish jarayonlarining nazariy-uslubiy asoslari, IT-auditni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari hamda sun’iy intellektni qo‘llashning amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sohadagi muammolar, yechimlar va istiqbollar bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida raqamlashtirish jarayonlari davlat boshqaruvini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [1]. Ushbu jarayonlarning mohiyati an’anaviy nazorat usullarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan almashtirish bilan cheklanmay, balki butun nazorat tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, uning samaradorligi, tezkorligi va shaffofligini ta’minlashdan iborat.

Raqamlashtirishning nazariy asoslari davlat moliyaviy nazorati subyektlari faoliyatida axborot tizimlarining integratsiyalashuvi, yagona ma’lumotlar bazalarini shakllantirish va real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyatlarini yaratishga asoslanadi . “Elektron hukumat” tizimi, davlat xaridlari portallari, byudjet tizimining elektron platformalari va soliq ma’muriyatchiligidagi raqamli yechimlar moliyaviy nazorat organlarining ma’lumotlarga ochiq kirish, ularni tahlil qilish va baholash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda.

IT-audit ushbu tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida axborot tizimlari va texnologiyalarining ishonchliligi, xavfsizligi hamda samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Zamonaviy IT-audit metodologiyasi COBIT, ISO/IEC 27001 kabi xalqaro standartlarga asoslanib, axborot xavfsizligi risklarini boshqarish, ma’lumotlarning yaxlitligi va maxfiyligini ta’minlash, axborot tizimlarining biznes-jarayonlar bilan uyg‘unligini baholashni o‘z ichiga oladi [7; 8].

Sun’iy intellekt texnologiyalari moliyaviy nazorat jarayonlarida inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon bermoqda. Mashinali o‘rganish algoritmlari, neyron tarmoqlar, katta ma’lumotlarni tahlil qilish (Big Data) vositalari yordamida moliyaviy operatsiyalarning shubhali belgilarini avtomatik aniqlash, risklarni prognozlashtirish, byudjet mablag‘lari sarfini real vaqt rejimida monitoring qilish va korrupsiyaviy xavflarni oldindan baholash imkoniyatlari yaratilmoqda [10]. Sun’iy intellektga asoslangan analitik platformalar millionlab tranzaksiyalarni bir necha soniyalar ichida tahlil qilib, g‘ayritabiiy holatlarni avtomatik aniqlash va nazorat organlariga signal berish imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarning davlat moliyaviy nazorati tizimlarida raqamli transformatsiya bo‘yicha keng ko‘lamli tajribalar to‘plangan. AQShning “DATA Act”, Yevropa Ittifoqining “Digital Finance Package”, Singapurning “Smart Nation” dasturlari doirasida moliyaviy nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish, IT-audit standartlarini joriy etish va sun’iy intellekt yechimlarini qo‘llash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda

[9]. Mazkur tajribalar raqamli texnologiyalarni joriy etish nazorat samaradorligini oshirish va davlat boshqaruvining barcha sohalarida ochiqlik hamda hisobdorlikni ta’minlashning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimini raqamlashtirish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yilgan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida moliyaviy nazorat organlarining axborot tizimlari modernizatsiya qilinmoqda, yagona integratsion platformalar yaratilmoqda, IT-audit bo‘yicha metodologik asoslar shakllantirilmoqda. Biroq mavjud imkoniyatlar va zamonaviy texnologiyalar talablaridan kelib chiqqan holda, ushbu jarayonlarni yanada jadallashtirish, tizimli va kompleks yondashuvni ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Hisob palatasi	Aniqlangan risk-tahlillarni “Masofaviy audit” axborot tizimi orqali tegishlicha vazirlik va idoralarga yuborish	Uch kun muddatda
2-bosqich	Vazirlik va idoralar	“Masofaviy audit” axborot tizimi orqali yuborilgan risk-tahlillarni qabul qilib olish va o‘rganish yuzasidan ijroga qaratish	Uch kun muddatda
3-bosqich	Vazirlik va idoralar	Risk-tahlillarni o‘rganish natijalari yuzasidan “Masofaviy audit” axborot tizimiga va o‘rganish yakunlari to‘g‘risida ma’lumotlarni “Davlat auditi” dasturiy kompleksiga yuklash va Hisob palatasiga yuborish	O‘n kun muddatda
4-bosqich	Hisob palatasi	Vazirlik va idoralar tomonidan yuborilgan risk-tahlillar bo‘yicha o‘rganish natijalarini ko‘rib chiqish (qabul qilish yoki qayta ishlashga yuborish)	Bir hafta muddatda
5-bosqich	Vazirlik va idoralarning “Xavflarni boshqarish” qo‘mitalari	Risk-tahlillar yuzasidan barcha tarkibiy tuzilmalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni qo‘mitalar yig‘ilishlarida muhokama qilish va Hisob palatasiga axborot berish	Har chorakda

Rasm 1. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan “Masofaviy audit” axborot tizimi orqali taqdim etilgan xavf (risk) tahlillarni boshqarish[11]

Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida raqamlashtirish jarayonlari davlat boshqaruvini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning mohiyati an’anaviy nazorat usullarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan almashtirish bilan cheklanmay, balki butun nazorat tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, uning samaradorligi, tezkorligi va shaffofligini ta’minlashdan iborat.

Raqamlashtirishning nazariy asoslari davlat moliyaviy nazorati subyektlari faoliyatida axborot tizimlarining integratsiyalashuvi, yagona ma’lumotlar bazalarini

shakllantirish va real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyatlarini yaratishga asoslanadi . “Elektron hukumat” tizimi, davlat xaridlari portallari, byudjet tizimining elektron platformalari va soliq ma’muriyatchiligidagi raqamli yechimlar moliyaviy nazorat organlarining ma’lumotlarga ochiq kirish, ularni tahlil qilish va baholash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda.

IT-audit ushbu tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida axborot tizimlari va texnologiyalarining ishonchliligi, xavfsizligi hamda samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Zamonaviy IT-audit metodologiyasi COBIT, ISO/IEC 27001 kabi xalqaro standartlarga asoslanib, axborot xavfsizligi risklarini boshqarish, ma’lumotlarning yaxlitligi va maxfiyligini ta’minlash, axborot tizimlarining biznes-jarayonlar bilan uyg‘unligini baholashni o‘z ichiga oladi [7].

Sun’iy intellekt texnologiyalari moliyaviy nazorat jarayonlarida inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon bermoqda. Mashinali o‘rganish algoritmlari, neyron tarmoqlar, katta ma’lumotlarni tahlil qilish (Big Data) vositalari yordamida moliyaviy operatsiyalarning shubhali belgilarini avtomatik aniqlash, risklarni prognozlashtirish, byudjet mablag‘lari sarfini real vaqt rejimida monitoring qilish va korrupsiyaviy xavflarni oldindan baholash imkoniyatlari yaratilmoqda [10]. Sun’iy intellektga asoslangan analitik platformalar millionlab tranzaksiyalarni bir necha soniyalar ichida tahlil qilib, g‘ayritabiiy holatlarni avtomatik aniqlash va nazorat organlariga signal berish imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarning davlat moliyaviy nazorati tizimlarida raqamli transformatsiya bo‘yicha keng ko‘lamli tajribalar to‘plangan. AQShning “DATA Act”, Yevropa Ittifoqining “Digital Finance Package”, Singapurning “Smart Nation” dasturlari doirasida moliyaviy nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish, IT-audit standartlarini joriy etish va sun’iy intellekt yechimlarini qo‘llash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [9]. Mazkur tajribalar raqamli texnologiyalarni joriy etish nazorat samaradorligini oshirish va davlat boshqaruvining barcha sohalarida ochiqlik hamda hisobdorlikni ta’minlashning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimini raqamlashtirish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yilgan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida moliyaviy nazorat organlarining axborot tizimlari modernizatsiya qilinmoqda, yagona integratsion platformalar yaratilmoqda, IT-audit bo‘yicha metodologik asoslar shakllantirilmoqda. Biroq mavjud imkoniyatlar va zamonaviy texnologiyalar talablaridan kelib chiqqan holda, ushbu jarayonlarni yanada jadallashtirish, tizimli va kompleks yondashuvni ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida raqamlashtirish, IT-audit hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish davlat boshqaruvini isloh qilishning muhim

yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu jarayonlar nazorat samaradorligini oshirish, ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashning asosiy omili hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Yevropa Ittifoqi, Singapur) tajribasi raqamli transformatsiya moliyaviy nazoratni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, risklarni real vaqt rejimida boshqarish imkoniyatlarini yaratayotganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida “Masofaviy audit” axborot tizimi joriy etilgan, integratsion platformalar shakllantirilmoqda. 2024-yilda 9,2 trillion so‘m samarasiz xarajatlarning oldi olingan, 3,7 trillion so‘m byudjetga qo‘shimcha tushumlar ta’minlangan [3]. Biroq axborot tizimlarining yetarlicha integratsiyalashmaganligi, IT-audit bo‘yicha metodologik va kadrlar yetishmovchiligi, sun’iy intellektni qo‘llashdagi normativ to‘siqlar kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar zarur:

- yagona integratsion platforma orqali axborot tizimlarini birlashtirish;
- IT-auditning milliy standartlarini xalqaro talablar asosida ishlab chiqish;
- sun’iy intellektni qo‘llash bo‘yicha normativ-huquqiy bazani shakllantirish;
- raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish;
- xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida raqamlashtirish, IT-audit va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni tizimli davom ettirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va mavjud muammolarni bartaraf etish moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda byudjet mablag‘lari sarfini nazorat qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INKLYUZIV O'SISHNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YECHIMLARI

Usmonov Ziyodulla Ulmas o‘g‘li
Osiyo texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsent v.b., i.f.f.d. PhD.

Annotatsiya Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida inklyuziv o'sishni ta'minlashning mohiyati, xalqaro tajribalar va O'zbekiston uchun innovatsion yechimlar ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan o'rganilgan. Sun'iy intellekt, fintech va platforma iqtisodiyoti kabi raqamli texnologiyalarning aholi barcha qatlamlari uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishdagi roli ko'rib chiqilgan. Xitoy, Hindiston va Estoniya tajribalari asosida O'zbekiston uchun ustuvor yo'nalishlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, inklyuziv o'sish, sun'iy intellekt, fintech, platforma iqtisodiyoti, innovatsion yechimlar, O'zbekiston.

Kirish. XXI asr boshlaridan e'tiboran jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiy o'sish modellarini tubdan o'zgartirmoqda. Biroq bu o'sish ko'pincha "inklyuziv" xarakter kasb etmay, boylar va kambag'allar, shahar va qishloq aholisi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tengsizlikni yanada kuchaytirmoqda.

Inklyuziv o'sish — bu iqtisodiy farovonlik va uning mevalari barcha ijtimoiy guruhlar, mintaqalar va avlodlar o'rtasida adolatli taqsimlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan rivojlanish paradigmasi[1]. Jahon banki va BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo aholisining taxminan 1,4 milliard nafari hali ham rasmiy moliyaviy xizmatlardan mahrum bo'lib, raqamli bo'linish muammosi global miqyosda dolzarbligini saqlab qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyotni raqamlashtirish va inklyuziv o'sishni birgalikda ta'minlash maqsadida faol islohotlar olib bormoqda[2]. Shu bilan birga, mamlakatimizda raqamli texnologiyalar orqali keng aholi qatlamlarini iqtisodiy jarayonlarga jalb etishning nazariy-metodologik asoslari va amaliy mexanizmlari hali to'liq ishlab chiqilmagan.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli iqtisodiyot va inklyuziv o'sish kesishmasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda keskin ko'paydi. Acemoglu va Johnson (2023) o'zlarining fundamental asarida texnologiyalarning adolatli taqsimlanishi masalasini markazga qo'yib, "inklyuziv[3] texnologik o'tish" kontseptsiyasini taklif etadilar. Mualliflar sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning faqat yuqori malakali ishchilar manfaatiga xizmat qilish xavfini ochib beradi va davlat siyosati orqali ushbu jarayonlarni boshqarishning zarurligini asoslaydi.

Demirgüç-Kunt va boshqalar (2022) Jahon bankining "Global Findex" ma'lumotlar bazasiga asoslangan keng ko'lamli tadqiqotida raqamli moliyaviy inklyuziyaning daromad tengsizligini kamaytirishdagi rolini empirik jihatdan tasdiqladilar[4]. Tadqiqot 140 dan ortiq mamlakatni qamrab olib, mobil to'lovlar va raqamli bank xizmatlariga kirish imkoniyatining kengayishi Gini koeffitsientini o'rtacha 2,3 punktga kamaytirishi mumkinligini ko'rsatdi.

OECD (2023) hisobotida platforma iqtisodiyotining inklyuziv imkoniyatlari batafsil ko'rib chiqilgan[5]. Tashkilot 38 ta a'zo mamlakat bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot asosida raqamli platformalar xizmatlar sektorida yangi bandlik imkoniyatlari yaratishi bilan birga, norasmiy ish bilan bandlik muammosini kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi va bu ikkilamchi effektni tartibga solish zaruratini asoslaydi.

Bharadwaj va Singh (2022) Hindiston tajribasiga bag'ishlangan maqolasida "Jan Dhan — Aadhaar — Mobile" (JAM) trinitati doirasida amalga oshirilgan inklyuziv raqamlashtirish siyosatining samaradorligini baholaydilar[6]. Mualliflar ushbu yondashuv Hindiston qishloq aholisining 78 foizini rasmiy moliya tizimiga jalb etishga imkon

berganini ko'rsatib, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun maqbul model sifatida tavsiya etadilar.

Bukht va Heeks (2022) raqamli iqtisodiyotning "inklyuziv" va "esklyuziv" yo'nalishlari o'rtasidagi farqni metodologik jihatdan aniq belgilab berdilar[7]. Ularning kontseptual modeli bo'yicha raqamli o'sish faqat barcha ijtimoiy guruhlar uchun teng kirish imkoniyati, raqamli savodxonlik va tarmoq infratuzilmasi mavjud bo'lganda inklyuziv xarakter kasb etishi mumkin. Ushbu uch element "inklyuziv raqamli o'sish uchburchagi" sifatida ilmiy muomalaga kiritildi.

Tahlil va natijalar. Raqamli texnologiyalar inklyuziv o'sishga uchta asosiy kanal orqali ta'sir ko'rsatadi: (1) moliyaviy inklyuziya, (2) mehnat bozorini demokratlashtirish, (3) ta'lim va sog'liqni saqlashga teng kirish imkoniyati[1].

AI texnologiyalari inklyuziv o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun ularning "demokratik" tarzda tatbiq etilishi zarur. Acemoglu va Johnson (2023) "foyda bo'lishuvchi AI" (shared-benefit AI) kontseptsiyasini taklif etib, davlatlar sun'iy intellektni faqat yuqori rentabellikni ta'minlash uchun emas, balki jamiyatning barcha qatlamlariga xizmat qilishi uchun yo'naltirish siyosatini ishlab chiqishi kerakligini ta'kidlaydilar[3]. Masalan, qishloq xo'jaligida AI-asosli agrotexnik maslahat tizimlarining joriy etilishi kichik fermerlar mahsuldorligini 20–35 foizga oshirishi mumkin (Hindiston, FAO, 2023).

Fintech va moliyaviy inklyuziya.

Fintech (moliyaviy texnologiyalar) sohasi inklyuziv o'sishning eng samarali vositalaridan biriga aylangan. Mobil to'lovlar tizimi, peer-to-peer kreditlash platformalari va blockchain-asosli xizmatlar bank infratuzilmasi yetarli bo'lmagan hududlarda ham moliyaviy xizmatlarni ommaviy ravishda taqdim etish imkonini bermoqda[4]. Shubhasiz, bu tendentsiya O'zbekistonning qishloq tumanlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Raqamli platformalar (Uber, Airbnb, Amazon Marketplace va ularning mahalliy analoglari) an'anaviy iqtisodiyotdan chetda qolgan ijtimoiy guruhlar — ayollar, nogironlar, yoshlar, qishloq aholisi — uchun yangi daromad imkoniyatlari yaratmoqda. OECD (2023) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchining 15–20 foizi hozirda platforma iqtisodiyotida faoliyat yuritmoqda[5]. Biroq ushbu bandlik shakli ko'pincha ijtimoiy himoyadan mahrum bo'lganligi muammoni murakkablashtiradi.

Xitoy "raqamli inklyuziya" siyosatida bir necha muhim innovatsiyani amalga oshirdi. Birinchidan, Alipay va WeChat Pay tizimlarining keng joriy etilishi natijasida 2023-yilga kelib aholining 93 foizi raqamli to'lovlardan foydalanmoqda. Ikkinchidan, qishloq hududlarida "e-commerce" platformalari (Taobao Villages) orqali 1 200 dan ortiq «raqamli qishloq» shakllantirilib, 3 million nafar qishloq aholisi onlayn savdo orqali daromad topmoqda. Uchinchidan, AI-asosli mikrokreditlash tizimi (Ant Financial) kichik va o'rta biznes vakillariga tez va qulay kredit olish imkonini berdi.

Hindistonning "JAM Trinity" (Jan Dhan bank hisobi + Aadhaar biometrik identifikatsiya + Mobile aloqa) modeli inklyuziv raqamlashtirish sohasidagi eng muvaffaqiyatli tajribalardan biri hisoblanadi[6]. 2022-yilga kelib 470 million yangi bank hisobi ochildi, subsidiyalar va ijtimoiy to'lovlar to'g'ridan-to'g'ri raqamli hisobvaraqqa o'tkazila boshladi, bu esa korrupsiya va intermediar xarajatlarini yillik 11 milliard dollarga kamaytirdi. Unified Payments Interface (UPI) platforma 2023-yilda oyiga 10 milliard dan ortiq tranzaksiyani qayta ishlamoqda.

Estoniya — "raqamli davlat" qurishda eng ilg'or tajribaga ega mamlakat. 99 foiz davlat xizmatlari onlayn taqdim etilmoqda, raqamli fuqarolik (e-Residency) tizimi xorijlik tadbirkorlarga ham mamlakat iqtisodiyotiga qo'shilish imkonini yaratdi. X-Road ma'lumot almashinuvi tizimi barcha davlat idoralarini birlashtirgan holda fuqarolarga tez va qulay xizmat ko'rsatish, tadbirkorlar uchun esa byurokratiyani minimallashtirish imkonini berdi. Estoniyaning asosiy sabog'i — raqamli infratuzilma va raqamli huquqiy muhitni parallel holda rivojlantirishdir.

Uchala mamlakat tajribasini umumlashtirganda, inklyuziv raqamli o'sishning to'rtta universal omili ajralib chiqadi: (1) universal raqamli identifikatsiya tizimi; (2) moliyaviy inklyuziya vositalari; (3) raqamli savodxonlikni oshirish dasturlari; (4) tartibga soluvchi muhitning moslashuvchanligi.

Bukht va Heeks (2022) taklif etgan "inklyuziv raqamli o'sish uchburchagi" modeli ushbu mamlakatlar tajribasida yaqqol tasdiqlandi[7]: Hindiston va Xitoyda infratuzilma hamda kirish imkoniyati yetarli bo'lmagan holatlarda inklyuziya maqsadlari to'liq amalga oshmadi, Estoniyada esa uchala elementning uyg'unligi yuqori samaradorlikni ta'minladi.

Xulosa va takliflar. Amalga oshirilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

Birinchidan, raqamli iqtisodiyot inklyuziv o'sish uchun katta salohiyat yaratadi, biroq bu salohiyat o'z-o'zicha ro'yobga chiqmaydi — maqsadli davlat siyosati va innovatsion mexanizmlar talab etiladi.

Ikkinchidan, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, eng muvaffaqiyatli inklyuziv raqamlashtirish modellari davlat-xususiy hamkorlik asosida va aholining barcha qatlamlarini qamrab olgan holda amalga oshirilgan.

Uchinchidan, O'zbekistonda raqamli inklyuziyani ta'minlash uchun texnologik, moliyaviy va tashkiliy jihatlar kompleks hal etilishi zarur.

O'zbekiston uchun innovatsion yechimlar va tavsiyalar:

1. "O'zbekiston Raqamli Identifikatsiya" (UZID) tizimini kengaytirish. Hindistonning Aadhaar tajribasidan ilhom olib, biometrik va raqamli identifikatsiya tizimini qishloq hududlarigacha yetkazish va uni barcha ijtimoiy xizmatlar bilan integratsiya qilish.

2. Agro-fintech platformasini yaratish. Qishloq xo'jaligi sektori uchun maxsus raqamli moliya platformasini ishga tushirish: AI-asosli mikrokreditlash, agro-sug'urta va

bozor ma'lumotlari tizimlarini birlashtirgan holda fermerlarning moliyaviy kirishimligini ta'minlash.

3. "Raqamli Mahalla" dasturini ishga tushirish. Xitoyning Taobao Villages modelidan ilhom olib, har bir mahallada raqamli markaz tashkil etish: bu markazlar orqali onlayn savdo, davlat xizmatlari va raqamli ta'lim imkoniyatlarini mahalliy aholiga yaqinlashtirish.

4. Platforma iqtisodiyoti uchun moslashuvchan huquqiy muhit yaratish. Estoniya tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda platforma iqtisodiyoti ishtirokchilari (gig-workers) uchun yangi huquqiy maqom belgilash, ularni ijtimoiy himoya tizimiga kiritish va soliq yukini optimallashtirish.

5. Milliy raqamli savodxonlik dasturini kuchaytirish. 2025–2030 yillarga mo'ljallangan keng qamrovli dastur doirasida 60 yoshdan yuqori aholi, qishloq ayollari va nogironlar uchun maxsus raqamli ko'nikmalar kurslari ishlab chiqish va ularni mahalla tizimi orqali yetkazish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida inklyuziv o'sishni ta'minlash — bu bir vaqtning o'zida texnologik, ijtimoiy va institutsional o'zgarishlarni talab qiladigan murakkab, ko'p qirrali vazifadir. Yuqorida taklif etilgan innovatsion yechimlar mamlakatimizda iqtisodiy o'sishning barcha fuqarolar uchun adolatli va barqaror bo'lishini ta'minlashga hissa qo'shishi mumkin.

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O'ZBEKTELEKOM AK UCHUN RAQAMLI IQTISODIYOT STRATEGIYASINI REJALASHTIRISH

Salimova Husniya Rustamovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii,
Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA Raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ strategik rejalashtirish yangi talablarni qo'ymoqda: strategiya bir vaqtning o'zida aniq maqsadli, moslashuvchan va o'lchovli bo'lishi zarur. Ushbu maqolada O'zbektelekom AJ uchun 2025–2030-yillarga mo'ljallangan raqamli iqtisodiyot strategiyasi Ansoff o'sish matriks, Muvozanatli Ko'rsatkichlar Tizimi (Balanced Scorecard, BSC) va OKR (Objectives and Key Results) metodologiyalari asosida ishlab chiqildi.

Ansoff matriks tahlili ko'rsatdiki, kompaniya uchun eng katta imkoniyat 'mahsulot rivojlantirish' va 'diversifikatsiya' kvadrantlarida yotmoqda — ya'ni mavjud bozorda yangi raqamli mahsulotlar (IoT, AI, bulut xizmatlar) ishlab chiqish va yangi B2B bozorlariga kirish. BSC tizimi to'rtta perspektiv bo'yicha maqsadlar belgilandi: moliyaviy (daromad 40 000 mlrd so'mga oshirish, EBITDA 36%), mijozlar (NPS +55, mijozlar chiqib ketish 1.5%), ichki jarayonlar (avtomatlashuv 92%, OPEX/Daromad 58%) va o'sish va ta'lim (xodimlar raqamli savodxonligi 90%). OKR tizimida har chorak uchun

aniq o'lchovli maqsad va kalit natijalar belgilab berildi. Tadqiqot natijalari strategik maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan investitsiya portfeli (NPV=15 200 mlrd so'm, IRR=28.4%, P>98.2%) ham miqdoriy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *Ansoff matriks, Balanced Scorecard (BSC), OKR, strategik rejalashtirish, ARPU, raqamli xizmatlar ulushi, investitsiya portfeli, O'zbektelekom AJ.*

1. KIRISH

Strategik rejalashtirish har qanday yirik kompaniyaning asosiy boshqaruv funksiyasi hisoblanadi. Biroq raqamli iqtisodiyot sharoitida an'anaviy uzoq muddatli rejalashtirishning cheklanishlari yanada yaqqol ko'rinna boshladi: bozor o'zgarishlari juda tezkor, texnologik siljishlar oldindan bashorat qilish qiyinlashmoqda, raqobat chegaralari sektorlar o'rtasida yo'qolmoqda. Shu bois zamonaviy strategik rejalashtirish an'anaviy uzoq muddatli reja bilan tezkor moslashuv mexanizmlari kombinatsiyasini talab qiladi.

O'zbektelekom AJ uchun 2025-yil muhim strategik darvoza hisoblanadi: infratuzilma ekspansiyasining dastlabki bosqichi yakunlanayotgan, 5G NSA texnologiyasi joriy qilingan va Fitch BB reytingi xalqaro sarmoyadorlar e'tiborini tortmoqda. Biroq daromadning 8-10 foizini tashkil qilayotgan raqamli xizmatlar ulushi va 2023-yildagi sof zarar kompaniyaning strategik yo'nalishi bo'yicha aniq tashrih talab etmoqda.

Ushbu maqola O'zbektelekom AJ uchun strategik rejalashtirish metodologiyalari kombinatsiyasini — Ansoff, BSC va OKR — qo'llab, 2025–2030 yillar uchun aniq maqsadlar va ularni amalga oshirish mexanizmlarini taqdim etadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi ushbu uchta metodologiyani birgalikda mahalliy telekommunikatsiya kompaniyasiga birinchi marta tatbiq etishda namoyon bo'ladi.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI

2.1. Ansoff matriks va raqamli kontekst

Ansoff (1957) taklif qilgan o'sish matriks biznes strategiyasining klassik vositasi bo'lib, to'rtta o'sish yo'nalishini ko'rsatadi: bozor kirib borish (mavjud mahsulot/mavjud bozor), bozor rivojlantirish (mavjud mahsulot/yangi bozor), mahsulot rivojlantirish (yangi mahsulot/mavjud bozor) va diversifikatsiya (yangi mahsulot/yangi bozor). Har bir yo'nalish uchun risk darajasi turlicha: bozor kirib borish eng past, diversifikatsiya eng yuqori riskni bildiradi.

Raqamli iqtisodiyot kontekstida Ansoff matritsini qo'llash ancha murakkab bo'lib qolgan — 'yangi bozor' va 'yangi mahsulot' chegaralari tobora bulaniqroq bo'lmoqda. Ritala va Vissak (2006) kengaytirilgan Ansoff modelini taklif qilib, raqamli mahsulotlarning simultan ko'p bozorlarda mavjud bo'lishi xususiyatini hisobga oldi. Bu yondashuv O'zbektelekom AJ uchun ayniqsa dolzarb: UZCLOUD platformasi bir vaqtning o'zida 'yangi mahsulot' va 'yangi bozor' belgilarini o'zida aks ettiradi.

2.2. Balanced Scorecard (BSC) va raqamli transformatsiya

Kaplan va Norton (1992) BSC kontseptsiyasini joriy etib, korxona faoliyatini faqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan emas, balki to'rtta perspektivda — moliyaviy, mijozlar, ichki jarayonlar, o'sish va ta'lim — baholashni taklif etdi. BSC ning asosiy afzalligi — strategiyani operatsion darajaga tushirish va har bir xodim ishini strategik maqsadlar bilan bog'lash imkonidir.

Kaplan va Norton (2004) 'Strategy Maps' asarida BSC dan yangi bosqichga o'tib, strategik xaritalar (strategy maps) kontseptsiyasini kiritdi. Ushbu xaritalar sababiyat zanjirini (cause-and-effect chains) ko'rsatib, o'sish va ta'lim perspektividagi investitsiyalar qanday yo'l bilan moliyaviy natijalarga olib kelishini vizuallashtiradi.

2.3. OKR metodologiyasi va moslashuvchan strategik boshqaruv

Doerr (2018) 'Measure What Matters' asarida Intel va Google tajribasi asosida OKR metodologiyasini keng auditoryaga tanishtirdi. OKR ning BSC dan asosiy farqi — yo'llanma aniqlik: BSC balansli va keng ko'lamli bo'lsa, OKR qisqa muddatli (odatda choraklik) va keskin maqsadlarga yo'naltirilgan. Ushbu ikki metodologiyaning kombinatsiyasi strategik izchillik (BSC) va operatsion chaqqonlikni (OKR) bir vaqtda ta'minlaydi.

3. METODOLOGIYA

Strategik rejalashtirish metodologiyasi uchta bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich — vaziyatni baholash: tashqi muhit tahlili (PESTEL, Porter 5 kuch), ichki tahlil (VRIN, DMM v5.0, DEA natijalari) va SWOT sintezi. Ikkinchi bosqich — Ansoff matriks asosida o'sish yo'nalishlarini aniqlash va har bir kvadrant uchun potentsial daromad va risk baholash. Uchinchi bosqich — BSC va OKR ishlab chiqish: BSC uchun har bir perspektivda 3-4 maqsad va o'lchov mezonlari, OKR uchun 2026-2030-yillar uchun yillik va choraklik maqsadlar belgilandi.

Investitsiya portfeli tahlili NPV, IRR va Monte-Karlo simulyatsiya yordamida o'tkazildi. Ssenariy tahlili uchta variant ko'rib chiqildi: pessimistik, asosiy va optimistik. Prognoz ma'lumotlari 2020-2025-yillar tendentsiyalari, sanoat benchmark va ekspert baholash kombinatsiyasi asosida shakllantirildi.

4. TAHLIL VA NATIJALAR

4.1. Ansoff matriks: O'zbektelekom AJ o'sish strategiyasi

1- jadval. Ansoff matriks: O'zbektelekom AJ uchun strategik yo'nalishlar (2025–2030)

	Mavjud mahsulotlar	Yangi mahsulotlar
Mavjud bozorlar (Internet, telefoniya)	Bozor kirib borish: • Keng polosa penetratsiyani 92-95%ga oshirish • ARPU 52→100 ming so'm • B2B da qo'shimcha xizmatlar qo'shish • Sifat va NPS oshirish orqali churn kamaytirish Risk: Past | Potentsial daromad: 15 000 mlrd so'm	Mahsulot rivojlantirish: • UZCLOUD B2B xizmatlarini kengaytirish • 5G B2B sanoat echimlari • IoT va M2M platformalari • AI-asosli tarmoq optimallashtirish Risk: O'rta | Potentsial daromad: 8 000 mlrd so'm
Yangi bozorlar (B2B, hukumat, export)	Bozor rivojlantirish: • Hukumat va mudofaa bulut xizmatlari • Markaziy Osiyo export xizmatlari • Smart City yechimlar • Ta'lim va sog'liqni saqlash raqamlashuvi Risk: O'rta | Potentsial daromad: 6 000 mlrd so'm	Diversifikatsiya: • Fintech va raqamli to'lovlar • Kiberxavfsizlik xizmatlari • Ma'lumotlar analitikasi xizmatlari • Edge computing va CDN Risk: Yuqori | Potentsial daromad: 4 000 mlrd so'm

Ansoff tahlili ko'rsatadiki, kompaniya uchun asosiy o'sish imkoniyati 'mahsulot rivojlantirish' kvadrantida joylashgan. Bu kvadrant o'rta risk bilan 8 000 mlrd so'm qo'shimcha daromad potentsialini taqdim etmoqda. UZCLOUD va 5G B2B xizmatlar shu kvadrantning eng ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

4.2. Balanced Scorecard: to'rtta perspektiv

2- jadval. O'zbektelekom AJ BSC: 2025-2030-yillar maqsadlari va ko'rsatkichlari

Perspektiv	Strategik maqsad	KPI	2025 holati	2030 maqsad
Moliyaviy	Barqaror yuqori o'sish	Daromad(mlrd so'm)	22 000	40 000+
Moliyaviy	Rentabellikni oshirish	EBITDAmarjasi (%)	33%	36%
Moliyaviy	Raqamli diversifikatsiya	Raqamli xizmatlarulushi	8-10%	25-30%

Mijozlar	Mijoz qoniqishi	NPS balli	+32	+55
Mijozlar	Mijoz saqlab qolish	Churn rate (%)	1.9%	≤1.5%
Mijozlar	Xizmat sifati	FCR (%)	88%	95%
Ichki jarayonlar	Operatsion samaradorlik	OPEX/Daromad	64%	58%

Perspektiv	Strategik maqsad	KPI	2025 holati	2030 maqsad
		(%)		
Ichki jarayonlar	Avtomatlashuv darajasi	Avtomatlashuv (%)	82%	92%
Ichki jarayonlar	Tarmoq sifati	Tarmoq mavjudligi(%)	99.8%	99.95%
O'sish va ta'lim	Raqamli savodxonlik	Xodimlar savodxonligi(%)	62%	90%
O'sish va ta'lim	Innovatsiya darajasi	Patent/yangiliklar (ta/yil)	4	20+
O'sish va ta'lim	Kadrlarni saqlab qolish	IT kadrlarketish (%)	12%	≤6%

BSC tizimining asosiy g'oyasi to'rtta perspektiv o'rtasidagi sabab-oqibat aloqasini ta'minlashdir. Xodimlar raqamli savodxonligini oshirish (O'sish va ta'lim) → jarayonlar avtomatlashuv darajasini oshirish (Ichki jarayonlar) → mijozlarga yaxshiroq xizmat ko'rsatish, FCR oshirish (Mijozlar) → daromad va EBITDA oshirish (Moliyaviy). Bu sababiyat zanjiri har bir perspektivning muhimligini ko'rsatadi.

4.3. OKR tizimi: 2026-yil misol

3- jadval. OKR tizimi: O'zbektelekom AJ, 2026-yil (namunali chorak)

Maqsad (Objective)	Kalit natijalar (Key Results)	O'lchov metodikasi	Mas'ul bo'lim
UZCLOUDdaromadini ikki barobarga oshirish	KR1: Q1 UZCLOUD daromadi 120 mlrd so'mga yetsin KR2: 50 ta yangi B2B mijoz ulansini KR3: SaaS ulushi 30 foizga yetsin	Moliyaviy hisobot, CRM tizimi	Raqamli xizmatlar
Xodimlar raqamli malakasini oshirish	KR1: 3 000 xodim Digital Academy sertifikati olsin KR2: IT xodimlar chiqib ketishi 8 foizdan 10 foizga tushin KR3: Ichki innovatsiya ko'rsatmalari 10 tadan oshsin	HR tizimi, sertifikat bazasi	HRva Digital Academy
Mijoztajribasini yaxshilash	KR1: NPS +32 dan +38 ga ko'tarilsin KR2: FCR 88 foizdan 91 foizga yetsin KR3: Ortalama murojaat hal qilish vaqti 2.4 soatdan 1.8 soatga tushin	NPS so'rovnomasi, ticketing tizimi	Mijozlarga xizmat
5G komertsializatsiyasini tezlashtirish	KR1: B2B 5G shartnoma 100 tadan oshsin KR2: 5G ARPU 180 ming so'mga yetsin KR3: 5G ulangan qurilmalar soni 500 000 tadan oshsin	Billingtizimi, BSS	Marketingva B2B

4.4. Investitsiya portfeli: NPV/IRR tahlili

4-jadval. O'zbektelekom AJ 2026–2030-yillar investitsiya portfeli (NPV/IRR tahlili)

Loyiha	Investitsiya (mlrd so'm)	NPV(mlrd so'm)	IRR (%)	Qaytimmuddati (yil)	Risk darajasi
Digital Academy	180	520	82.4%	1.8	Past
AI/ML platforma	850	2 400	47.3%	2.4	O'rta
UZCLOUD kengaytirish	1 200	3 100	38.6%	3.1	O'rta
5GSAtexnologiyasiga o'tish	3 200	6 800	32.1%	3.8	O'rta
IoT va M2M platforma	620	1 450	41.2%	2.8	O'rta
Kiberxavfsizlik markazi	320	780	44.1%	2.6	Past
Jami portfel	6 370	15 050	28.4%	3.2	O'rta

Investitsiya portfeli tahlili qiziqarli xulosalar bermoqda. Eng yuqori IRR — Digital Academy (82.4%) — eng kichik investitsiya talab qiladigan loyiha. Bu natija 'madaniyat va xodimlar' yo'nalishidagi zaiflikni tuzatish nafaqat strategik zaruriyat, balki eng yuqori qaytimli investitsiya ham ekanligini ko'rsatmoqda. AI/ML platforma (IRR 47.3%) ham juda kuchli ko'rsatkich bermoqda.

5. MUHOKAMA

Strategik rejalashtirish metodologiyalari tahlili bir nechta muhim xulosaga olib keldi. Ansoff matriks nuqtayi nazaridan: kompaniya hozirgi 'bozor kirib borish' strategiyasidan 'mahsulot rivojlantirish' ga o'tish bosqichida turmoqda. Bu o'tishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tashkiliy qobiliyatlarni oshirish — xodimlar, jarayonlar, tizimlar — zarur. Aks holda yangi mahsulotlar texnik jihatdan mavjud bo'lib, bozorga samarali chiqarilmay qolishi xavfi bor.

BSC tizimining eng qimmatli jihati — to'rtta perspektiv o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash. O'zbektelekom AJ holatida xavotirlanarli holat shuki, moliyaviy va texnologiya perspektivlari kuchli, biroq o'sish va ta'lim perspektividagi ko'rsatkichlar (xodimlar savodxonligi 62%, IT kadrlar chiqib ketishi 12%) boshqa perspektivlardagi maqsadlarga erishishga to'sqinlik qilishi mumkin.

OKR metodologiyasining asosiy xatari — qo'shimcha byurokratiya va ko'rsatkich haddan ziyod ko'payishi (KPI proliferation). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali OKR tizimi uchun har chorakda 3-5 maqsad etarli; ortiqcha maqsadlar e'tiborni tarqatib, tashkilotni bog'lab qo'yadi.

6. XULOSA

O'zbektelekom AJ uchun ishlab chiqilgan strategik rejalashtirish tizimi uchta metodologiyaning organik sinteziga asoslanadi. Ansoff matriks kompaniyaning asosiy

o'sish yo'nalishini — mahsulot rivojlantirish va qisman diversifikatsiya — aniq ko'rsatdi. BSC to'rtta perspektiv bo'yicha 12 maqsad va ularning o'zaro sabab-oqibat aloqasini tizimlashtirdi. OKR tizimi esa bu strategik maqsadlarni choraklik operatsion darajaga tushirib, amaliy ijro mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Investitsiya portfeli tahlili (jami NPV = 15 050 mlrd so'm, IRR = 28.4%, P(NPV>0) = 98.2%) strategik yo'nalishning moliyaviy asoslanishini isbotladi. Ayniqsa muhimi — Digital Academy (IRR 82.4%) va AI/ML platforma (IRR 47.3%) eng yuqori moliyaviy samaraga ega loyihalar bo'lib, ular aynan 'zaif' deb aniqlangan tashkiliy va texnologik yo'nalishlarga qaratilgan.

Strategiyaning muvaffaqiyati uchun asosiy shartlar: C-suite darajasidagi doimiy qo'llab-quvvatlash; BSC va OKR ko'rsatkichlarini xodimlar motivatsiya tizimi bilan bog'lash; har yarim yilda strategik ko'rib chiqish va tezkor moslashuv; va asosiy xavf — kadrlar saqlab qolish muammosini hal etuvchi maqsadli HR dasturlarini ishga tushirish.

METHODS OF EFFECTIVELY IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY USING ARTIFICIAL INTELLEGENCE IN AN ENTERPRISE

Tursunov Sherzod Abdukadirovich

TSUU, Professor of the Department of "Innovative Management", PhD

Salimova Husniya Rustamovna

TSUU, Assistant Professor, Department of "Information Systems and Technologies"

Abstract: This thesis examines the main methods and directions for implementing the digital economy in enterprises. It analyzes effective mechanisms for the gradual implementation of digital transformation processes, the use of modern information technologies, and increasing digital potential.

Keywords: digital economy, digital transformation, information technology, enterprise, efficiency, innovation management.

This thesis aims to provide a comprehensive analysis of how digitalization and AI are reshaping state financial control and internal audit, drawing on theoretical frameworks, empirical evidence from advanced economies, and a critical assessment of the prospects and challenges facing transition economies such as Uzbekistan in adopting these transformative approaches.[156]

[155] *Groomer, S. M., &Murthy, U. S. (1989). Continuous auditing of database applications. Journal of Information Systems, 3(1), 45-69.*
[156] *ISACA (2022). COBIT 2019 Framework: Governance and Management Objectives. ISACA, Schaumburg, IL.*

Central to this third phase is the concept of Continuous Auditing (CA) and Continuous Monitoring (CM), first theorized by Groomer and Murthy in the early 1990s and subsequently elaborated by the American Institute of Certified Public Accountants (AICPA) and the Institute of Internal Auditors (IIA).[157] CA/CM frameworks enable audit processes to operate in near-real time, analyzing 100% of transactions rather than statistical samples, thereby dramatically increasing the probability of detecting errors, irregularities, and fraudulent activity.

IT audit has evolved from a supplementary function — focused narrowly on data center security and system access controls — into a core competency of contemporary state financial oversight. Modern IT audit encompasses the assessment of general IT controls (GITCs), application controls, data governance frameworks, cybersecurity resilience, cloud infrastructure management, and the integrity of automated financial processing systems. Standards issued by ISACA (particularly COBIT and the CISA framework) and the IIA provide the professional benchmarks against which IT audit practice is evaluated.

The integration of IT audit into state financial control is especially critical given the widespread adoption of Integrated Financial Management Information Systems (IFMIS) across developing and transition economies. IFMIS platforms — such as Oracle Financials, SAP Public Sector, and locally developed solutions — serve as the digital backbone of budget execution, treasury operations, and financial reporting. Audit weaknesses in these systems can propagate across the entire financial management architecture, amplifying rather than containing fiscal risk.

Artificial intelligence encompasses a spectrum of technologies with direct relevance to audit practice, including machine learning (ML), natural language processing (NLP), robotic process automation (RPA), and computer vision. In the audit context, ML algorithms can be trained on historical transaction data to identify statistical anomalies indicative of fraud or error; NLP tools can extract and classify information from unstructured sources such as contracts, correspondence, and audit reports; RPA can automate high-volume, rule-based audit procedures; and predictive analytics can generate forward-looking risk assessments to guide audit planning.

The United Kingdom's National Audit Office (NAO) has implemented an AI-powered anomaly detection system that processes millions of government payment transactions monthly, flagging statistically unusual patterns for further investigation. In 2022, the NAO reported that its digital audit tools enabled the identification of GBP 1.1 billion in potential fiscal irregularities across central government departments — a result considered unachievable through conventional audit sampling methodologies.

---

[157] *World Bank (2022). Digital Government and Public Financial Management: Emerging Technologies for Accountability. World Bank Group, Washington D.C.*

Uzbekistan's state financial control architecture encompasses the Accounts Chamber (Hisob palatasi), the Ministry of Finance's treasury and internal audit functions, and sector-specific oversight bodies. Recent years have witnessed significant institutional reforms, including the strengthening of the Accounts Chamber's mandate, the introduction of performance auditing alongside traditional compliance reviews, and the launch of a national e-government portal integrating key fiscal information systems. The adoption of the Unified Treasury Account (UTA) system has also improved real-time visibility into budget execution flows.

However, the digitalization of audit methodology remains at an early stage. The Accounts Chamber and most internal audit units within line ministries continue to rely predominantly on document-based review processes, with limited capacity for data analytics, IT audit, or AI-assisted risk assessment. Audit planning processes are largely disconnected from digital risk intelligence sources, and there is no unified national framework for IT audit standards applicable to public sector entities.

Several strategic opportunities present themselves for accelerating the digital transformation of state financial control in Uzbekistan. First, the expansion of the Unified State Budget Information System (USBIS) creates a foundational data infrastructure upon which AI-powered audit analytics could be built. Integration of procurement data from the unified e-procurement platform (xarid.uz) with treasury execution data would enable cross-system anomaly detection and vendor risk profiling at scale.

Second, the development of a dedicated IT audit competency center within the Accounts Chamber — modeled on similar bodies in Estonia, Lithuania, and South Korea — would create a nucleus of specialized expertise capable of conducting technology audits of critical public financial management systems. This center could also serve an advisory function, helping line ministries strengthen their internal IT controls and cybersecurity postures.

Third, Uzbekistan's ongoing cooperation with international organizations including the World Bank, IMF, and INTOSAI presents an opportunity to access technical assistance, training programs, and pilot project funding for AI-assisted audit implementation. The adoption of INTOSAI's ISSAI framework — particularly ISSAI 5310 on IT audit — would provide an internationally recognized quality standard for the country's evolving digital audit practice.

The integration of digitalization, IT audit, and artificial intelligence into state financial control and internal audit represents one of the most consequential transformations in public sector accountability of the 21st century. This thesis has demonstrated that technological innovation is not merely an efficiency enhancement tool for audit institutions — it is increasingly a prerequisite for maintaining meaningful fiscal oversight in an environment where public financial transactions occur at digital speed and scale.

For Uzbekistan, the path toward a digitally capable state audit function is both attainable and urgent. The foundational elements — digital fiscal infrastructure, institutional reform momentum, and international partnership support — are increasingly in place. What is needed now is a coherent national strategy for audit digitalization, sustained investment in human capital and technology infrastructure, and a commitment to adopting internationally recognized standards for IT audit and AI governance in the public sector. The prospects for achieving this transformation are genuine, and the fiscal accountability dividends for Uzbekistan's citizens would be substantial.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI QO'LLASHNING IQTISODIY SAMARASI

Sobirov Hayotbek Farxod o'g'li
Farg'ona davlat texnika universiteti talabasi
Ixtiyor Xamraqulov Baxtiyorovich,
FDTU, "Iqtisodiyot"kafedrasi katta o'qituvchisi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi globallashuv sharoitida davlat boshqaruvi tizimida samaradorlikni oshirish hamda byudjet resurslaridan oqilona va maqsadga muvofiq foydalanish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, sun'iy intellekt (SI) va zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida qaror qabul qilish mexanizmlarini rivojlantirish orqali davlat xarajatlarini maqbullashtirish imkoniyatlari kengayib bormoqda.SI va raqamli yechimlarning davlat moliyasini boshqarishdagi o'rni, xarajatlarni chuqur tahlil qilish, resurslarni samarali taqsimlashni avtomatlashtirish hamda byudjet ustidan nazoratni kuchaytirishdagi ustun jihatlari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida davlat xarajatlarini qisqartirish va ularning natijadorligini oshirishga qaratilgan raqamli yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli texnologiya, davlat xarajatlari, optimallashtirish, byudjet nazorati, ma'lumotlar tahlili, resurslar taqsimoti.

Kirish: Davlat moliyaviy nazorati byudjet resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, korrupsion holatlarning oldini olish hamda davlat xarajatlarining ochiqligini kuchaytirishda muhim vosita sanaladi. So'nggi yillarda sun'iy intellekt (AI) va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish (big data analytics) texnologiyalarining jadal rivoji ushbu yo'nalishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda[1]. Xususan, AI asosidagi tizimlar moliyaviy operatsiyalardagi yashirin kamchiliklarni avtomatik tarzda aniqlash, xarajatlarni yanada aniq prognozlash hamda yuqori xavfli operatsiyalarni oldindan baholash imkonini beradi. Shu bois, bunday texnologik yechimlar nafaqat xarajatlarni maqbullashtirish, balki davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda ham muhim omil sifatida qaralmoqda.Mavzuning ahamiyati shundaki, moliyaviy ochiqlik va hisobotlarning ishonchliligi jamiyatning davlatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir

ko‘rsatadi. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlarda byudjet mablag‘larining sezilarli qismi — taxminan 20–30 foizi — korrupsiya va noqonuniy sarf-xarajatlar oqibatida yo‘qotilmoqda.O‘zbekistonda ham moliyaviy nazorat tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng ko‘lamda foydalanish hali boshlang‘ich bosqichda qolmoqda. Bu esa, avvalo, AI yordamida moliyaviy xavflarni aniqlashning iqtisodiy samaradorligi hamda uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarining yetarlicha chuqur tadqiq etilmaganligi bilan izohlanadi.

Asosiy qism: Davlat xarajatlarini samarali boshqarish masalasi bugungi kunda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq holda keng o‘rganilmoqda. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar orqali byudjet jarayonlarini avtomatlashtirish, katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish hamda real vaqt rejimida nazorat o‘rnatish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

A.Jo‘rayev fikriga ko‘ra, bu jarayonlar davlat moliyasini boshqarishda aniqlikni oshirish, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishga xizmat qiladi [2].Sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanish moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish, xarajatlarni prognozlash va ularni ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlash imkonini kengaytiradi.

I.Karimovning qarashlariga ko‘ra esa, davlat moliyasini boshqarishda nazariy asoslar bilan bir qatorda xarajatlar samaradorligini oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

D.Sattarov fikriga ko‘ra, sun’iy intellekt asosida byudjet xarajatlarini optimallashtirish jarayonida ma’lumotlar bazalarini qayta ishlash, xarajatlarni segmentlash va samarasiz yo‘nalishlarni aniqlash muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, bunday yondashuvlar ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy resurslarni samarali qayta taqsimlash va strategik rejalashtirishni takomillashtirish imkonini beradi [4].

M.Tursunovning tadqiqotlarida qayd etilishicha, raqamli transformatsiya sharoitida davlat sektorida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xususan raqamli audit va onlayn monitoring tizimlari orqali moliyaviy operatsiyalar ustidan doimiy nazoratni ta’minlash mumkin. Bu esa hisobotlarning ishonchliligini oshirish, ochiqlikni ta’minlash va korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi [5].

OECD hisobotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda raqamli hukumat konsepsiyasi doirasida sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahliliga asoslangan tizimlardan foydalanish davlat xarajatlarini qisqartirish, byudjet samaradorligini oshirish va shaffoflikni kuchaytirishda samarali natijalar bermoqda. Shu sababli, ushbu tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Xalqaro tadqiqotlar sun’iy intellektning moliyaviy nazorat tizimidagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Jumladan, Singh va Sharma fikriga ko‘ra, avtomatlashtirilgan audit tizimlari byudjet jarayonlaridagi qoidabuzarliklarni aniqlashda yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, ayrim hollarda 40% gacha aniqlik darajasini ta’minlaydi. Bu esa moliyaviy nazorat jarayonlarini tezkor va aniq amalga oshirish imkonini beradi.Shuningdek, Chen va hammualliflarining tadqiqotlarida qayd etilishicha, machine learning modellari davlat xaridlari va tender jarayonlarida yuzaga keladigan shubhali operatsiyalarni real vaqt rejimida aniqlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega. Ularning fikricha, bunday texnologiyalar korrupsion holatlarni erta bosqichda aniqlash va moliyaviy xavflarni kamaytirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [7].

Biroq, O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyo davlatlari sharoitida sun’iy intellekt asosidagi moliyaviy nazorat tizimlarini joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar hali yetarli darajada shakllanmagan. Jahon Banki hisobotlarida ham qayd etilishicha, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.Natijada, mavjud ilmiy adabiyotlarda bir qator muhim bo‘shliqlar kuzatiladi. Birinchidan, sun’iy intellekt vositalarining O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy samaradorligi yetarlicha o‘rganilmagan. Ikkinchidan, davlat tashkilotlarida bunday tizimlarni joriy etishda yuzaga keladigan amaliy muammolar, xususan ma’lumotlar sifati, texnik infratuzilma va mutaxassislar malakasi kabi omillar chuqur tahlil etilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellektga asoslangan tizimlar moliyaviy nazorat organlariga nafaqat mavjud xatolarni aniqlash, balki ularning yuzaga kelishining oldini olish imkonini ham beradi. Bu esa nazariy jihatdan an’anaviy reaktiv nazorat modelidan proaktiv, ya’ni oldindan ogohlantiruvchi nazorat tizimiga o‘tishni anglatadi. Amaliy nuqtai nazardan, bunday yondashuv moliyaviy jarayonlarni yanada barqaror va ishonchli boshqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Davlat xaridlari tizimida sun’iy intellektga asoslangan “avtomatik ogohlantirish” (qizil chiroq) mexanizmini joriy etish orqali shubhali operatsiyalarni erta bosqichda aniqlash.
2. Moliyaviy nazorat xodimlari uchun sun’iy intellekt texnologiyalariga oid maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va ularning malakasini tizimli ravishda oshirib borish.
3. Ochiq ma’lumotlar platformalarini kengaytirish orqali AI modellarining tahliliy imkoniyatlarini kuchaytirish va qaror qabul qilish sifatini yaxshilash.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, ma’lumotlar bazasining ayrim hududlar kesimida to‘liq shakllanmaganligi, xususan qishloq joylarda ma’lumotlarning taxminan 35 foizi yetarli darajada to‘ldirilmaganligi ayrim tahlillar aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Bundan tashqari, tizimni dastlab joriy

etish xarajatlarining yuqoriligi (taxminan 2,5 mlrd so‘m atrofida) kichik byudjetga ega tashkilotlar uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni taklif etish maqsadga muvofiq:

-Sun’iy intellektni blokcheyn texnologiyalari bilan integratsiyalash imkoniyatlarini o‘rganish va ularning moliyaviy nazoratdagi samaradorligini baholash.

-Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari yordamida moliyaviy hisobotlarni avtomatik tahlil qilish usullarini takomillashtirish.

-Sun’iy intellekt tizimlarining iqtisodiy samaradorligini chuqurroq o‘rganish va ularning amaliy natijadorligini kompleks baholashga qaratilgan tadqiqotlar olib borish.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni davlat moliyaviy nazorat tizimiga joriy etish O‘zbekiston uchun byudjet xarajatlarini samarali boshqarish, moliyaviy shaffoflikni oshirish va korrupsion xavflarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar yordamida davlat mablag‘laridan foydalanish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish, ortiqcha va samarasiz xarajatlarni aniqlash hamda resurslarni oqilona taqsimlash imkoniyati kengayadi. Bu esa o‘z navbatida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirib, jamiyat ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.O‘zbekiston sharoitida davlat xarajatlarini nazorat qilish uchun sun’iy intellekt asosida “Yagona moliyaviy nazorat va xavf monitoring platformasi”ni yaratish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Ushbu platforma barcha davlat tashkilotlarining byudjet xarajatlarini bir tizimda birlashtirib, avtomatik ravishda quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

1. Shubhali xarajatlar va tenderlarni real vaqt rejimida aniqlash;
2. Ortiqcha yoki takroriy xarajatlarni avtomatik signal (ogohlantirish) orqali ko‘rsatish;
3. Hududlar va vazirliklar kesimida xarajatlar samaradorligini solishtirish;
4. Sun’iy intellekt asosida kelajak xarajatlarini prognoz qilish.

Bundan tashqari, ushbu tizimga bosqichma-bosqich o‘tish uchun avval pilot loyiha sifatida Moliya vazirligi va yirik davlat xaridlari sohalarida sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu yondashuv texnologiyaning iqtisodiy samaradorligini amalda baholash va keyinchalik uni butun davlat tizimiga keng joriy etish imkonini beradi.Umuman olganda, sun’iy intellekt asosidagi raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish O‘zbekiston uchun zamonaviy, shaffof va samarali davlat moliya tizimini shakllantirishda strategik ahamiyatga ega yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY NAZORAT VA AUDIT SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Munira Yusupova Chori qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Buxgalteriya hisobi yo‘nalishi talabasi:

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining moliyaviy nazorat va audit tizimidagi transformatsion o‘rni tadqiq etiladi. Ishda "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida belgilangan davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish vazifalari hamda OECDning 2025–2026-yillardagi sun’iy intellekt bo‘yicha yangilangan global kuzatuvlari tahlilga tortilgan. Tadqiqot davomida sun’iy intellektning audit jarayonlarida real vaqt monitoringi, xavf-hatarlarni skoring qilish va noodatiy tranzaksiyalarni (anomaliyalarni) avtomatik aniqlashdagi samaradorligi qiyosiy o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, intellektual tizimlarni joriy etish auditni o‘tgan davrni tekshirish xarakteridan proaktiv, ya’ni xatoliklarning oldini oluvchi nazorat modeliga o‘tkazish imkonini beradi. Maqola yakunida O‘zbekiston moliya tizimi uchun ma’lumotlar xavfsizligi va kadrlar tayyorlash masalalarini inobatga olgan holda sun’iy intellektga asoslangan yagona audit platformasini yaratish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, moliyaviy nazorat, audit, ichki audit, IT-audit, risk boshqaruvi, raqamlashtirish, shaffoflik.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va jadal texnologik inqilob davrida moliyaviy resurslarning maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatish iqtisodiy barqarorlikning eng muhim shartiga aylandi. Davlat budjeti intizomini mustahkamlash va korrupsiyaga qarshi kurashishda audit tizimini tubdan isloh qilish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda. Biroq, ko‘p yillar davomida shakllangan an’anaviy audit metodlari asosan retrospektiv xarakterga ega bo‘lib, ular muammolarni faqat fakt sodir bo‘lgandan keyin aniqlash bilan cheklanib qolmoqda, bu esa moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olishda kam samarali hisoblanadi.

Ushbu tizimli muammolarni bartaraf etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-6079 son) bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi[158]. Mazkur strategiya davlat boshqaruvi va moliya sektorini to‘liq raqamlashtirishni, xususan, barcha nazorat funksiyalariga sun’iy intellekt elementlarini integratsiya qilishni ustuvor vazifa qilib belgilaydi. Bu esa mamlakatimizda "aqlli audit" (Smart Audit) ekotizimiga o‘tish uchun zarur huquqiy va institutsional sharoitlarni yaratmoqda.

[158] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1348-son.

Xalqaro tajriba ham raqamli transformatsiyaning muqarrarligini tasdiqlamoqda. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda rivojlangan mamlakatlardagi firmalarning 20,2 foizi o‘z faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan unumli foydalana boshladi[159].Shuningdek, GPAI (Sun’iy intellekt bo‘yicha global hamkorlik) tashabbusi doirasida 44 ta davlat AI texnologiyalarini inson manfaatlariga xizmat qiluvchi va ishonchli nazorat vositasi sifatida rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik qilmoqda[160]. Ushbu maqolaning maqsadi xalqaro standartlar va mahalliy strategik maqsadlar uyg‘unligida sun’iy intellektning moliyaviy nazorat samaradorligiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Shuningdek, J.E.Stiglitz va J.K.Rosengard kabi iqtisodchi olimlarning davlatning iqtisodiyotdagi roli haqidagi nazariy qarashlariga tayangan holda, bozor iqtisodiyoti muvaffaqiyatsizliklari sharoitida nazorat funksiyasini zamonaviy algoritmlar yordamida kuchaytirish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Tadqiqot metodologiyasi Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda moliya va audit sohasidagi zamonaviy transformatsiyalarni o‘rganish uchun bir necha ilmiy yondashuvlar uyg‘unligidan foydalanildi. Birinchi navbatda, xalqaro miqyosda tan olingan OECD va GPAI materiallari, shuningdek, ichki auditning xalqaro standartlari hamda davlat boshqaruviga oid nazariy manbalar tahliliy jihatdan ko‘rib chiqildi. Ushbu manbalar sun’iy intellektning global miqyosdagi tendensiyalarini tushunishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil usuli qo‘llanilib, unda an’anaviy audit tizimining retrospektiv tabiatga ega bo‘lgan mexanizmlari hamda sun’iy intellektga asoslangan zamonaviy audit tizimining imkoniyatlari o‘zaro solishtirildi.

Bu usul yangi texnologiyalarning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniq belgilash imkonini berdi. Shuningdek, tizimli yondashuv orqali moliyaviy nazorat, ichki audit, davlat boshqaruvi va raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yaxlit bir tizim sifatida tahlil qilindi.

Nazariy asos sifatida J.E. Stiglitz va J.K. Rosengardning davlatning iqtisodiyotdagi o‘rni va bozor muvaffaqiyatsizliklari sharoitida nazorat funksiyasining zarurligi haqidagi konseptual qarashlariga tayanildi. Shu bilan birga, auditning asosiy maqsadlari bo‘lgan risklarni boshqarish va ishonchli hisobotni ta’minlash masalalari Ichki auditorlar institutining (IIA) global standartlari prizmasidan o‘tkazildi.Tadqiqotning amaliy qismida

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar hamda mahalliy moliya tizimining raqamli infratuzilmasi holati inobatga olingan holda, bosqichma-bosqich joriy etish modellari ishlab chiqildi.

Muhokama va natijalar O‘tkazilgan tahillar shuni ko‘rsatadiki, sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini moliyaviy nazorat tizimiga tatbiq etish audit sifatini shunchaki

[159] OECD. AI adoption and impact reports, 2025–2026; OECD ICT Access and Usage Database, January 2026.
[160] OECD.AI. About the Global Partnership on Artificial Intelligence (GPAI).

yaxshilamaydi, balki uni tubdan transformatsiya qiladi.”Raqamli O‘zbekiston-2030”[161] strategiyasi doirasida barpo etilayotgan raqamli ekotizim AI algoritmlari uchun zarur bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) bazasini shakllantirib, amaliy tahlilar uchun fundamental zamin yaratmoqda.Tadqiqot natijasida sun'iy intellektning audit samaradorligiga ta’sir ko'rsatuvchi to’rtta strategik yo‘nalishi identifikatsiya qilindi:

- Uzluksiz monitoring tizimi: AI moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida (24/7) kuzatish imkonini beradi. Bu an'anaviy auditga xos bo'lgan "voqelikdan keyingi tekshiruv" (ex-post) modelidan voz kechib, xatoliklarni yuzaga kelgan vaqtning o'zida (preventiv) bartaraf etish modeliga o'tish demakdir.

- Xavfga asoslangan tahliliy yondashuv: Mashinali o'qitish algoritmlari retrospektiv ma'lumotlarni tahlil qilish orqali yuqori xavfli subyektlarni va shubhali tranzaksiyalarni avtomatik skoring (baholash) qiladi. Bu esa auditorlik resurslarini eng kritik nuqtalarga yo'naltirish imkonini beradi.

- Anomaliyalarni deteksiya qilish: Neuron tarmoqlari standart qoliplarga tushmaydigan noodatiy operatsiyalarni aniqlashda inson omiliga qaraganda ancha yuqori aniqlik darajasini namoyon etadi. Bu korrupsion xavflar va budjet mablag‘larini noqonuniy o‘zlashtirish holatlarini tezkor jilovlashning eng samarali vositasidir.

- Jarayonlarni intellektual avtomatlashtirish: Takrorlanuvchi va mexanik vazifalarni AIga yuklash orqali inson resursi tejaladi hamda texnik xatoliklar ehtimoli minimallashtiriladi.

Quyidagi jadvalda sun'iy intellekt funksiyalarining audit sifatini oshirishdagi hal qiluvchi omillarni umumlashtirilgan:

[161] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1348-son.

1-jadval.

Sun’iy intellekt funksiyalarining audit samaradorligiga ta’siri[162]

AI funksiyasi	Auditga ta’siri	Kutilayotgan natija
Real vaqt monitoringi	Operatsiyalarni uzluksiz (24/7) kuzatish	Xatolarni yuzaga kelgan zahoti aniqlash va oldini olish
Risk scoring	Ma'lumotlar asosida yuqori xavfli subyektlarni ajratish	Resurslarni eng muhim nuqtalarga yo'naltirish va nazoratni kuchaytirish
Anomaliyalarni deteksiya qilish.	Standart qoliplarga tushmaydigan noodatiy tranzaksiyalarni topish	Firibgarlik va noqonuniy faoliyatni tezkor cheklash
Avtomatlashtirish	Takrorlanuvchi va mexanik ishlarni AIga yuklash	Inson omilini kamaytirish, vaqt va resurslarni sezilarli tejash

OECDning 2025-2026 yillardagi prognozlariga ko'ra, AI texnologiyalarining biznes jarayonlariga integratsiyalashuvi nafaqat texnik yangilik, balki institutsional islohot sifatida qaralmoqda. Stiglitz va Rosengardning davlat roli haqidagi qarashlari kontekstida aytish mumkinki, AI texnologiyalari davlatning nazorat va tartibga solish salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi.Biroq, O'zbekiston sharoitida ushbu tizimni joriy etishda ma'lumotlar sifati, kadrlar tayyorgarligi va huquqiy tartibga solish kabi masalalar alohida e'tibor talab qiladi. Shuningdek, GPAI tashabbusi ta'kidlaganidek, AI tizimlarida "human oversight" (inson nazorati) tamoyilini saqlab qolish, ya'ni yakuniy professional hukmni auditor zimmasida qoldirish strategik ahamiyatga ega.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt audit tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Stiglitz va Rosengardning davlatning iqtisodiyotdagi roli haqidagi qarashlari shuni tasdiqlaydiki[163], bozor sharoitida davlat nazorat funksiyasini saqlab qolishi va zarur bo‘lganda kuchaytirishi lozim. Aynan shu nuqtai nazardan, AI texnologiyalarini moliyaviy nazoratga joriy etish davlatning tartibga solish salohiyatini kengaytiradi.Ichki auditning xalqaro standartlariga ko‘ra, audit tizimi faqat xatolarni topish emas, balki tashkilotning risklarini boshqarish, boshqaruv samaradorligini oshirish va ishonchli hisobotni ta’minlashga xizmat qiladi[164]. Sun’iy intellekt esa aynan shu funksiyalarni kuchaytiradi. Bu jihatni amaliyotga tatbiq etishda audit “post factum” tekshiruvdan “preventive control”ga o‘tadi. OECDning so‘nggi ma’lumotlari ham AI texnologiyalarining iqtisodiyotda, ayniqsa biznes jarayonlari va xizmatlar sohasida

[162] Internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi
[163] Economics of the Public Sector. Joseph E. Stiglitz, Jay K. Rosengard. Economics of the Public Sector.
[164] The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards, 2024.

kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Demak, auditning raqamli transformatsiyasi muqarrar jarayon hisoblanadi. Biroq bu jarayon quyidagi muammolar bilan ham bog‘liq:

- ma’lumotlar sifati va standartlashtirilishi yetarli emas;
- malakali IT-audit va data analytics mutaxassislari kam;
- AI etikasi va ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha huquqiy baza to‘liq emas;
- avtomatik qarorlar shaffofligi va tushuntirilishi masalasi ochiq qolmoqda.

GPAI tashabbusining asosiy g‘oyasi – AI inson markazli va ishonchli bo‘lishi kerakligi[165]. Bu prinsip audit tizimiga ham bevosita tegishli. Chunki moliyaviy nazoratda ishlatilayotgan algoritm xatolari yoki noto‘g‘ri parametrlar butun boshqaruv tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli AI qo‘llaniladigan audit tizimlarida inson nazorati va professional hukmni saqlab qolish zarur.O‘zbekiston sharoitida bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda yirik davlat tashkilotlari va yuqori riskli yo‘nalishlarda “pilot”(tajriba-sinov) loyihalar amalga oshirilishi mumkin. Ikkinchi bosqichda esa ma’lumotlar bazalari integratsiyasi, standartlashtirish va xodimlarni tayyorlash ishlari kuchaytiriladi. Uchinchi bosqichda AI asosidagi audit tizimi kengaytiriladi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini moliyaviy nazorat tizimiga integratsiya qilish shunchaki texnik vositalarni yangilash emas, balki davlat boshqaruvi va audit arxitekturasini tubdan qayta qurishni anglatadi. Tadqiqot yakunida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

Nazorat metodologiyasining evolyutsiyasi.An’anaviy audit tizimi asosan o'tgan davr ma'lumotlarini tahlil qilishga (retrospektiv yondashuv) asoslanadi, bu esa moliyaviy xatoliklarni faqat “post factum” aniqlash imkonini beradi. SI algoritmlari esa auditni proaktiv va preventiv (oldini oluvchi) nazorat bosqichiga olib chiqadi. Bu yondashuv moliyaviy resurslarning sarflanish jarayonini real vaqt rejimida monitoring qilish orqali, huquqbuzarlik sodir etilishidan oldin uning risk-faktorlarini bartaraf etish imkonini beradi.

Risklarni boshqarishning matematik aniqligi.Mashinali o'qitish va neyron tarmoqlar asosidagi "Risk-scoring" tizimlari inson omili ilg'ay olmaydigan yashirin qonuniyatlarni va murakkab anomaliyalarni aniqlashda yuqori aniqlik namoyon etadi. Bu esa auditorlik resurslarini "yalpi tekshiruv" kabi samarasiz uslubdan voz kechib, eng yuqori xavfga ega bo'lgan "kritik nuqtalar"ga yo'naltirish, ya'ni nazoratning selektiv samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

Institutsional shaffoflik va raqamli etika.O‘zbekiston sharoitida SI texnologiyalarini joriy etish nafaqat iqtisodiy, balki muhim institutsional islohotdir. Bunda “Human Oversight” (Inson nazorati) tamoyilining saqlab qolinishi texnologik

[165] Stiglitz J.E., Rosengard J.K. Economics of the Public Sector

qarorlarning shaffofligi va axloqiy me'yorlarga muvofiqligini ta’minlaydi. Yakuniy professional xulosa chiqarish huquqining insonda qolishi - algoritmlar aniqligi va inson tajribasining garmonik uyg'unligini (Augmented Intelligence) kafolatlaydi.Tadqiqot natijalari asosida moliya tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar majmuasi taklif etiladi:

Raqamli Audit Ekotizimini Shakllantirish: Tarqoq ma'lumotlar bazalarini yagona intellektual platformaga birlashtirish orqali "aqlli monitoring" tizimini yo'lga qo'yish.

Fanlararo kompetensiyaga ega kadrlar (Potensialini Yaratish: Auditorlik faoliyatini IT-audit va Data Science (ma'lumotlar tahlili) ko'nikmalari bilan birlashtiruvchi fanlararo ta'lim modellarini joriy etish.

Normativ-Huquqiy Unifikatsiya: SI tomonidan aniqlangan dalillarning huquqiy maqomini belgilash hamda ma'lumotlar xavfsizligi bo'yicha milliy standartlarni xalqaro (masalan, ISO va GPAI) talablarga moslashtirish.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, sun'iy intellekt - auditni shunchaki tezlashtiruvchi mexanizm emas, balki moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikning mutlaqo yangi, yuqori sifatli bosqichidir. Ushbu texnologiyalarni bosqichma-bosqich va institutsional tayyorgarlik asosida joriy etish, O'zbekiston moliya tizimining global raqobatbardoshligini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali raqamli qalqonini yaratishga xizmat qiladi.

RAQAMLI TEXNOLOGILARNING ISHLAB CHIQARISH SANOATLARIDAGI ROLI

Beknazarov Zafarjon Ergashevich
DSc, professor Tashkent State University of economics
Saydullayeva Ruhshona Ulug‘bek qizi
Tashkent State University of economics Accounting faculty

Annotatsiya: Bugungi raqamli davrda raqamli va axborot texnologiyalari samarali o'sishga va unumdorlikni oshirishga yordam berish orqali yirik sanoat tarmoqlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqotda biz yirik sanoat tarmoqlaridagi raqamli texnologiyalarning rolini ularning moliyaviy ko'rsatkichlari, natijalari va rentabellik koeffitsientlariga e'tibor qaratish orqali o'rganamiz. Sanoat 4.0 davrida raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish sohasida raqobatbardoshlik, innovatsiya va moliyaviy samaradorlikning asosiy omiliga aylandi. Ushbu tadqiqotda raqamli transformatsiya - sun'iy intellekt (AI), narsalar interneti (IoT), ma'lumotlar tahlili va avtomatlashtirish kabi vositalar orqali - yetakchi ishlab chiqarish korporatsiyalarida moliyaviy ko'rsatkichlar va rentabellik koeffitsientlariga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. 2015-yildan 2024-yilgacha bo'lgan ma'lumotlardan foydalangan holda, raqamli investitsiyalarning aktivlarning daromadliligi (ROA), kapitalning daromadliligi (ROE) va sof foyda marjasi (NPM) kabi

moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash uchun oltita transmilliy kompaniya (Siemens AG, Toyota Motor Corporation, General Electric, Bosch Group, Caterpillar Inc. va Tata Steel) tahlil qilindi. Tadqiqotda raqamli yetuklik va moliyaviy optimallashtirish o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun qiyosiy moliyaviy tahlil, korrelyatsiya testlari va samaradorlik indeksini baholash qo'llanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli integratsiya darajasi yuqori bo'lgan kompaniyalar yuqori operatsion samaradorlik, yaxshilangan rentabellik koeffitsientlari va barqaror moliyaviy o'sishni namoyish etadilar. Natijalar raqamlashtirish nafaqat texnologik evolyutsiya, balki ishlab chiqarish sanoatida uzoq muddatli moliyaviy optimallashtirish va raqobatbardosh ustunlikka erishishning strategik yo'li ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, rentabellik, ANOVA testlari, korrelyatsiya tahlili samaradorligi indeksi, ma'lumotlar namunasi, ma'lumotlar to'plash, analitik usullar.

Аннотация

В современную цифровую эпоху цифровые и информационные технологии оказывают влияние на основные отрасли промышленности, способствуя их эффективному росту и повышению производительности. В данном исследовании мы рассмотрим роль цифровых технологий в основных отраслях, сосредоточившись на их финансовых показателях, результатах и коэффициентах рентабельности. В эпоху Индустрии 4.0 цифровые технологии стали фундаментальным фактором конкурентоспособности, инноваций и финансовой эффективности в производственном секторе. В этом исследовании изучается, как цифровая трансформация — с помощью таких инструментов, как искусственный интеллект (ИИ), Интернет вещей (IoT), анализ данных и автоматизация — влияет на финансовые показатели и коэффициенты рентабельности ведущих производственных корпораций. Используя данные за период с 2015 по 2024 год, были проанализированы шесть многонациональных компаний (Siemens AG, Toyota Motor Corporation, General Electric, Bosch Group, Caterpillar Inc. и Tata Steel) для оценки влияния цифровых инвестиций на такие финансовые показатели, как рентабельность активов (ROA), рентабельность собственного капитала (ROE) и чистая рентабельность продаж (NPM). В исследовании использовались сравнительный финансовый анализ, корреляционные тесты и оценка индексов эффективности для оценки взаимосвязи между цифровой зрелостью и финансовой оптимизацией. Результаты показывают, что компании с более высоким уровнем цифровой интеграции демонстрируют большую операционную эффективность, улучшенные показатели рентабельности и устойчивый финансовый рост. Результаты подчеркивают, что цифровизация — это не просто технологическая эволюция, а стратегический путь к достижению долгосрочной финансовой оптимизации и конкурентного преимущества в обрабатывающей промышленности.

Ключевые слова: цифровизация, рентабельность, дисперсионный анализ (ANOVA), корреляционный анализ, индекс эффективности, выборка данных, сбор данных, аналитические методы.

Introduction

Manufacturing companies are main part of economy. It accounts 16% of GDP and supports over 300 million jobs but in recent times, they are facing global competitions, rising production costs, and sustainability pressures.

By accepting digital technologies companies can optimize resource allocation, lower manufacturing costs, and improve product quality and responsiveness. Using digital transformation can lead to significant improvements in profitability ratios such as return on assets (ROA), return on equity (ROE), and net profit margins (NPM). However, the extent and trend of these advancements differ among businesses and sectors based on capital structure, strategic investment priorities, and the degree of digital maturity. Understanding this variation requires an analytical comparison across firms with different scales, regions, and digital strategies.

This research analyzes the role of digital technologies in optimizing financial results and profitability ratios across six major manufacturing corporations: Siemens AG, Toyota Motor Corporation, General Electric (GE), Bosch Group, Caterpillar (USA) and Tata Steel. These entities represent a variety cross-section of the global manufacturing landscape, encompassing advanced industrial engineering, automotive production, heavy equipment, and materials manufacturing. By analyzing financial performance over the period 2015–2024, the research aims to identify how digital investment and technological integration influence operational efficiency and profitability outcomes.

The primary purpose of this study is to demonstrate that digital transformation not only enhances technological improvements but also becomes an integral part of a company's financial strategic development. While most research has focused on the impact of digital technologies on innovation and productivity, their direct impact on financial performance and value creation processes has not yet been sufficiently studied. Therefore, this work comprehensively assesses the impact of digital transformation on financial performance based on long-term financial indicators, performance indices, and correlation analysis methods. The results of the study provide practical recommendations for managers, policymakers, and investors on achieving sustainable financial optimization through the introduction of digital technologies in the manufacturing sector.

Innovative options provided by digitalization allow businesses to tackle problems like quality control, cost reduction, worker utilization, resource efficiency, and customer happiness. (Santos & Martinho, 2020) [1]. In order to fully benefit from digitization, businesses must actively use technology to produce better results. (Lee et al., 2015; Chirumalla, 2021; Johansson et al., 2024).

As a result of the digitalization process and the introduction of advanced technologies into production systems, the flexibility of enterprises in market conditions, the level of utilization of technical capabilities, productivity and efficiency will increase, while labor costs will decrease (Synnes & Welo, 2016; Schiffer et al., 2019; Perzylo et al., 2019). The manufacturing industry has historically experienced several industrial revolutions, the latest of which is known as the fourth industrial revolution Industry 4.0 (Santos & Martinho, 2020) [2]. It was at this stage that the concept of digital transformation (DT) was formed, which made it possible to monitor product quality, production processes, and increase production efficiency (Schumacher et al., 2019; Temel & Ayaz, 2019; Merhar et al., 2019). Digital transformation encompasses a number of advanced technologies, including the Internet of Things (IoT), cloud computing, artificial intelligence (AI), augmented reality (AR), blockchain, 3D printing, big data analytics, and advanced simulation systems. (Illa & Padhi, 2018; Rad et al., 2022; Perzylo et al., 2019).

Understanding Industry 4.0: The Digital Transformation of Manufacturing

Industry 4.0 is also known as the Fourth Industrial Revolution. Industry 4.0 is the process of changing old manufacturing and industrial practices by using digital technology, automation, and data-driven intelligence. This term was used the first time in Germany in the early 2010 years, in order to keep competitiveness in manufacturing sector, the German government introduced Industry 4.0**.**

Main core of it is that by using advanced information and communication technologies to link machines, systems, and products. This connection makes smart manufacturing possible, where operations are automated, data is constantly collected and analyzed, and decisions are made faster and more efficiently.

2. Literature view

From a general perspective, a number of research studies have been carried out to identify and analyze the performance of digitalization in manufacturing industries and its general role.

In many research studies, digitalization is mentioned as having an impact on various industries. Moreover, many authors discussed the differences and meaning of ‘digitalization’, ‘digitization’, and digital transformation, and also paid attention to the interrelationship among researchers (Bloomberg, 2018). These three terms interconnected to the digital technologies and we will analyze one by one.

Digitization is converting analog thing into digital style in order to make data easier to store or access. It is useful in manufacturing because converting machine reports, invoices or other documents from paper to digital files.

Digitalization is more than just turning data into digital form. It refers to the use of digital tools and technologies to improve existing processes, increase efficiency, and reduce costs. Automating production lines with IoT (Internet of Things), managing the

supply chain with ERP systems, and applying artificial intelligence (AI) for quality control. That's why digitalization has been utilized in more industries. Using digitalization to make process better, increase efficiency, reduce cost.

Digital transformation

Digital transformation in manufacturing is using smart technologies (like AI, sensors, and digital twins) to run factories better, faster, and cheaper not just adding computers, but changing how the whole business works.

Research done by Romero et al.(2020), smart factories are adaptable cyber-physical manufacturing facilities that use big data to perform tasks and offer clients individualized services and goods. According to theory, the application and integration of digital technology is what primarily facilitates digital transformation. Creating value that generates competitive advantages is the ultimate objective of this change.

According to t (Badasjane et al., 2022;Gong and Ribiere, 2021; Schallmo et al., 2017; Vial, 2019) since "digital transformation" has multiple definitions, it has been examined from a variety of conceptualizations and major issues from a wide range of viewpoints [3]. The term's numerous definitions and descriptions in the literature demonstrate how many different components are changed, including people, culture, attitude, leadership and talent development, business models, organizational structure, and so forth.

3. Research methodology

The primary objective of this research is to examine how digital transformation has benefited production productivity, as well as optimized costs and inventory.

Theanalysis is carried out in the following companies

Table 1. Selected manufacturing companies: Digital technologies and financial impact

No.	Company	Country	Key Digital Technologies	Financial Impact	Data Availability
1	Siemens AG	Germany	IoT, AI, Digital Twin	Higher ROA & Operating Margins	Excellent
2	Toyota Motor Corporation	Japan	Robotics, IoT, AI	Cost Reduction and Profit Growth	Excellent
3	General Electric (GE)	USA	Industrial IoT, Big Data, AI	Operational Efficiency +25%	Excellent
4	Bosch Group	Germany	AIoT, Cloud, Blockchain	Productivity and Profitability Gains	Very Good
5	Caterpillar Inc.	USA	Telematics, AR (AugmentedReality), Analytics	Reduced MaintenanceCosts	Excellent
6	Tata Steel	India	Smart Sensors, ERP, AI Optimization	Energy & Cost Efficiency +15–20%	Good

* compiled by the authors.

The table provides a comparative overview of how six leading manufacturing companies apply digital technologies to improve their financial performance. The results clearly show that companies with stronger digital adoption achieve better financial outcomes and higher operational efficiency.

Siemens AG and **Toyota Motor Corporation** are the top performers, showing *excellent* data availability and clear financial benefits. Siemens' use of IoT, AI, and Digital Twin technologies has led to higher returns on assets and operating margins, while Toyota's use of robotics and connected systems has significantly reduced production costs and increased profits.

General Electric (GE) demonstrates a 25% improvement in operational efficiency, driven by its Industrial IoT and Big Data platforms. This indicates a direct positive link between data-driven decision-making and productivity gains.

Bosch Group has achieved notable productivity and profitability growth through AIoT, cloud computing, and blockchain solutions. Its slightly lower rating ("very good") reflects partial data limitations rather than weaker performance.

Caterpillar Inc. shows how targeted digital investments—particularly in telematics and analytics—can yield cost reductions in maintenance and operations, improving efficiency even without extremely high digital maturity scores.

Tata Steel, while in the early stages of digital transformation, has already achieved 15–20% improvements in energy efficiency and cost reduction. This demonstrates that even developing firms can realize measurable benefits from digital initiatives.

4. Results and discussion

This research analyzes six global manufacturing firms—Siemens AG, Toyota Motor Corporation, General Electric (GE), Bosch Group, Caterpillar Inc., and Tata Steel—to examine the impact of digital technology on their financial performance from 2015 to 2024. The findings indicate that the degree of digitization significantly influences profitability, efficiency, and competitiveness among these companies.

Table 2. Comparative Analysis of Digitalization and Financial Efficiency (2015–2024)

Company	Avg. Digital Investment (USD, millions)	Digital Maturity (0–10)	Revenue Growth (%)	ROA (%)	ROE (%)	Net Profit Margin (%)	KeyDigital Initiatives	Impact of Digitalization
Siemens AG	2,500	9.5	18	7.2	14.3	9.1	IoTplatform (MindSphere), AI-based automation,	Very High – Industry 4.0 leader with strong

							smart factories	efficiency gains
Toyota Motor Corp.	1,800	8.5	15	6.8	13.2	8.5	AI-driven robotics, digitaltwins, smart production	High – Advanced roboticsand strong process integration
General Electric(GE)	2,200	8.0	12	5.9	11.8	7.4	Predix platform, digitaltwins, predictive maintenance	High – Good digital base, limited by restructuring
Bosch Group	1,600	8.8	16	6.5	12.9	8.2	IoT & sensor systems, connected manufacturing	High – Strongdigital ecosystem in manufacturing
Caterpillar Inc.	1,200	7.0	10	5.2	10.1	6.7	Smart machinery, IoTanalytics, predictive maintenance	Moderate– Gradual efficiency gains
Tata Steel	800	6.5	8	4.6	9.5	5.9	AI in quality control, digitalsupply chain	Moderate Developing stage, growing steadily

* compiled by the authors.

Digital Investment and financial outcomes

The data show that companies that invest more in digital tools and technologies achieve better financial results. Siemens AG and Toyota Motor Corporation are distinguished by the largest digital investments, averaging $2.5 billion and $1.8 billion annually. Both firms recorded strong profitability - Siemens achieved an asset return (ROA) of 7.2% and a net profit margin (NPM) of 9.1%, while Toyota achieved an ROA of 6.8% and a NPM of 8.5% [4].

This shows that consistent investment in technologies such as artificial intelligence (AI), the Internet of Things (IoT), and automation systems allows these companies to reduce costs, increase efficiency, and strengthen long-term financial stability.

At the same time, companies such as Caterpillar Inc. and Tata Steel, which invested smaller funds (1.2 billion USD and 0.8 billion USD annually), showed low financial results. Their ROA (5.2% and 4.6%) and NPM (6.7% and 5.9%) reflect the early or developing stage of the digital transformation journey. These results show that although digitalization has strong potential, its full financial return depends on sustainable investments and technological maturity.

Digital Maturity and Operational Efficiency

When it comes to digital maturity, Siemens (9.5/10) and Bosch (8.8/10) lead the group. Both companies have successfully implemented smart production systems that use real-time data and predictive maintenance to increase efficiency and minimize downtime. For example, Bosch reported steady revenue growth of around 16% mainly due to linked production and IoT-based systems.

General Electric (GE) also has a relatively high score (8.0/10), but its financial performance has been affected by organizational restructuring in recent years, limiting the overall impact of its digital initiatives.

Comparing the Six Companies

A distinct pattern becomes apparent when comparing the six companies with higher levels of digital maturity have more efficient financial operations. The companies with the strongest correlation between digital investment and financial results are Siemens and Toyota, whose production lines incorporate digital twins, AI, and sophisticated robotics.

Tata Steel and Caterpillar, on the other hand, are still building their digital ecosystems. In comparison to industry leaders, their delayed adoption of automation and artificial intelligence has resulted in modest increases in productivity but slower advancements in profitability.

Table 3. Summary of Comparison

Rank	Company	Digital Maturity	Productivity Improvement	Financial Efficiency	Comment
1	Siemens AG	Very High	Excellent	Excellent	Global leader in Industry 4.0 implementation
2	Toyota Motor Corp.	High	Strong	Strong	Balanced digital and financial performance
3	Bosch Group	High	Strong	Good	Effective use of IoT and connected systems
4	General Electric (GE)	Moderate–High	Moderate	Moderate	Slower improvement due to restructuring
5	Caterpillar Inc.	Moderate	Moderate	Average	Adoption ongoing; progress visible
6	Tata Steel	Developing	Improving	Below Average	Emerging in digital transformation

* compiled by the authors.

In contrast, General Electric (GE), Caterpillar Inc., and Tata Steel show an average and developing level of digitalization. GE's results were mixed - while maintaining a robust digital infrastructure (8.0/10 maturity), its financial performance was influenced by corporate restructuring and market volatility. Caterpillar and Tata Steel invest less in digital initiatives (1.2 and 0.8 billion US dollars per year), which leads to slower revenue growth and lower profitability compared to their peers.

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA IT AUDIT VA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasi Dotsent, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
Maxammadov Diyorbek Muxtor o'g'li
Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda tijorat banklari faoliyatini boshqarishda IT audit va sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni yoritiladi. Bank operatsiyalarining raqamli muhitga o'tishi, tranzaksiyalar hajmining ortishi va kiberxavfsizlik risklarining kuchayishi sharoitida IT audit nazoratning muhim instrumentiga aylanmoqda. Sun'iy intellekt esa risklarni erta aniqlash, firibgarlikni kamaytirish va boshqaruv qarorlarini analitik asoslash imkonini beradi, bu esa bank samaradorligi va moliyaviy barqarorlikni kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: Tijorat banki, IT auditi, sun'iy intellekt, risk monitoringi, kiberxavfsizlik, katta ma'lumotlar, firibgarlikni aniqlash, avtomatlashtirish, boshqaruv paneli, bashoratli tahlil.

Kirish. Bugungi bank-moliya tizimida raqamli xizmatlar, mobil banking, masofaviy identifikatsiya, onlayn kreditlash va elektron to'lovlar sonining keskin ortishi tijorat banklari boshqaruv tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Operatsiyalar hajmining kengayishi bilan bir qatorda ma'lumotlar oqimi, axborot xavfsizligi talablari va kiberxavflar ham murakkablashib bormoqda. Shu sababli bank boshqaruvida axborot texnologiyalari auditining roli sezilarli ravishda ortmoqda.

Axborot texnologiyalari auditi bankning axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari, korporativ resurslarni boshqarish tizimlari va markaziy bank amaliyot platformalarining ishonchliligi, uzluksizligi hamda xavfsizligini baholashga xizmat qiladi. Ayniqsa, tranzaksiyalar yaxlitligi, foydalanuvchi vakolatlari, ma'lumotlarni zaxiralash, axborot xavfsizligi protokollari va me'yoriy talablarga muvofiqlik nuqtai nazaridan ushbu audit turi bank faoliyatini boshqarishda strategik ahamiyat kasb etadi. Raqamli bank xizmatlarining kengayishi natijasida ichki nazorat faqat moliyaviy ko'rsatkichlarni

tekshirish bilan cheklanib qolmay, balki dasturiy infratuzilma, serverlar, tarmoq xavfsizligi, foydalanuvchi kirish huquqlari va ma’lumotlar oqimini kompleks nazorat qilishni ham talab etmoqda.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi bank boshqaruvini yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Sun’iy intellekt algoritmlari kredit risklarini prognozlash, firibgarlik sxemalarini aniqlash, mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish va operatsion samaradorlikni oshirishda keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash, odatiy bo‘lmagan operatsiyalarni ajratib ko‘rsatish va ehtimoliy xavflarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Natijada bank rahbariyati tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tijorat banklari faoliyatini boshqarishda axborot texnologiyalari auditi va sun’iy intellektning uyg‘unlashuvi ayniqsa kreditlash, masofaviy xizmatlar, to‘lov tizimlari va kiberxavfsizlikni boshqarishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, kredit ajratish jarayonlarida sun’iy intellekt qarz oluvchining to‘lov intizomi, daromad oqimi va xarajatlar dinamikasini chuqur tahlil qilsa, audit tizimi ushbu algoritmlarning to‘g‘ri ishlashi, xatoliklardan holi ekanligi va me’yoriy talablarga mosligini nazorat qiladi. Bu esa banklarda risklarni kamaytirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash va muammoli kreditlar ulushini pasaytirishga xizmat qiladi [1].

Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlarining keng ommalashuvi kiberxavfsizlik tahdidlarini ham kuchaytirmoqda. Zararli dasturlar, ma’lumotlarni o‘g‘irlash, foydalanuvchi hisoblariga noqonuniy kirish va ichki xodimlar bilan bog‘liq xavflar bank faoliyatining barqarorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu jihatdan axborot texnologiyalari auditi bank infratuzilmasining zaif tomonlarini aniqlash, sun’iy intellekt esa ushbu tahdidlarni oldindan bashorat qilish va tezkor choralar ko‘rishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism. Tijorat banklari faoliyatini boshqarishda axborot texnologiyalari auditi va sun’iy intellektning o‘rni so‘nggi yillarda keskin ortib bormoqda. Banklar iqtisodiyotning eng faol moliyaviy institutlari sifatida kuniga millionlab tranzaksiyalarni amalga oshiradi. Ushbu jarayonda nafaqat moliyaviy natijalarni nazorat qilish, balki axborot tizimlarining uzluksiz ishlashi, ma’lumotlar yaxlitligi, xavfsizligi va ishonchliligini ta’minlash ham asosiy boshqaruv vazifalaridan biriga aylanadi. Shu nuqtai nazardan axborot texnologiyalari auditi bank boshqaruvining ajralmas qismi sifatida maydonga chiqmoqda. U bankning dasturiy infratuzilmasi, serverlar, ma’lumotlar markazlari, foydalanuvchi huquqlari, tranzaksiyalar oqimi va zaxiralash tizimlarini baholash orqali boshqaruv sifati va nazorat samaradorligini oshiradi [2].

Axborot texnologiyalari auditining asosiy vazifasi bankning raqamli infratuzilmasini kompleks baholashdan iborat. Bunda markaziy bank operatsion tizimlari, mobil ilovalar, internet banking platformalari, dasturlararo ma’lumot almashinuvi

interfeyslari, to‘lov o‘tkazish kanallari va bulutli xizmatlarning xavfsizlik darajasi audit tekshiruvlarining asosiy obyektlari hisoblanadi. Zamonaviy tijorat banklarida ma’lumotlar yagona markazlashgan ma’lumotlar omborida yoki katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash muhitida yig‘iladi. Auditorlar ushbu infratuzilmaning ishonchliligini, ma’lumotlarning to‘liq va o‘zgarmas saqlanishini, foydalanuvchi vakolatlarining to‘g‘ri taqsimlanganini hamda zaxira nusxalash siyosatining samaradorligini baholaydi. Bu bankning uzluksiz ishlashi va mijozlar ma’lumotlarining daxlsizligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi axborot texnologiyalari auditining imkoniyatlarini sezilarli kengaytirmoqda. Oddiy qo‘lda tekshiruv usullari minglab tizim jurnallari, millionlab tranzaksiyalar va foydalanuvchi harakatlarini bir vaqtning o‘zida tahlil qilishda samarasiz bo‘lib qoladi. Sun’iy intellektga asoslangan mashinaviy o‘qitish algoritmlari esa g‘ayrioddiy faoliyatni, noodatiy tizimga kirish urinishlarini, ruxsatsiz kirishlarni va shubhali tranzaksiyalarni real vaqt rejimida aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, firibgarlikni aniqlash va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi nazorat tizimlarida bu yondashuv juda muhimdir. Sun’iy intellekt yordamida bank ichidagi shubhali pul oqimlari, tranzaksiya zanjirlari va odatiy bo‘lmagan mijoz xatti-harakatlari erta bosqichda aniqlanadi. Bu esa moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirish va nazorat sifatini oshirishga xizmat qiladi [3].

Tijorat banklarini boshqarishda kredit risklari ham asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi baholash modellarida qarz oluvchining to‘lov intizomi, tranzaksiya tarixi, daromad oqimi, xarajatlar dinamikasi, oldingi kreditlar bo‘yicha xulqi va iqtisodiy muhit omillari chuqur tahlil qilinadi. Shu asosda qarzdorning majburiyatni bajarmaslik ehtimoli oldindan prognoz qilinadi. Axborot texnologiyalari auditi esa ushbu modellarining to‘g‘ri ishlashi, algoritmik xatoliklar mavjud emasligi, noto‘g‘ri qarorlar yoki ayrim mijoz guruhlariga nisbatan adolatsiz yondashuv yuzaga kelmayotganini tekshiradi. Natijada sun’iy intellekt va axborot texnologiyalari auditi bir-birini to‘ldiruvchi boshqaruv vositalari sifatida banklarda risklarni samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Kiberxavfsizlik tijorat banklari boshqaruvida alohida ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda fishing hujumlari, foydalanuvchi ma’lumotlarini o‘g‘irlash, ichki xodimlar bilan bog‘liq xavflar, xizmat ko‘rsatishni izdan chiqaruvchi hujumlar va zararli dasturlar bank infratuzilmasiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Axborot texnologiyalari auditi xavfsizlik siyosatlari, tizim jurnallarini monitoring qilish, foydalanuvchi kirish huquqlarini boshqarish, ma’lumotlarni shifrlash va “ishonchsiz muhitda ham qat’iy nazorat” arxitekturasi bo‘yicha zaifliklarni aniqlaydi.

Sun’iy intellekt esa ushbu xavflarni oldindan bashorat qilish, anomal xatti-harakatlarni topish va avtomatik himoya mexanizmlarini ishga tushirish orqali bankning himoya qatlamini kuchaytiradi. Masalan, foydalanuvchining odatiy bo‘lmagan joydan

tizimga kirishi yoki katta miqdordagi mablag‘ni qisqa vaqtda ko‘chirishga urinish darhol xavf signali sifatida qayd etiladi.

Bank boshqaruvida sun’iy intellektga asoslangan bashoratli tahlil ham muhim o‘rin tutadi. Likvidlikni boshqarish, foiz risklari, valyuta pozitsiyalari va xazina operatsiyalarida kelajakdagi tendensiyalarni oldindan prognoz qilish bank barqarorligi uchun juda muhimdir. Masalan, ma’lum mijoz segmentida depozit chiqimlari ko‘payishi, kredit kechikishlari o‘sishi yoki valyuta kurslaridagi tebranishlar ehtimoli oldindan aniqlanadi. Axborot texnologiyalari auditi bu jarayonda ma’lumotlar sifati, algoritmlarning to‘g‘ri ishlashi, nazorat mexanizmlarining ishonchliligi va bashorat natijalarining asoslanganligini tekshiradi. Bu esa bank rahbariyatiga oldindan choralar ko‘rish imkonini beradi [4].

Bank rahbariyati uchun boshqaruv panellari va vizual analitika vositalari boshqaruv sifatini sezilarli oshiradi. Sun’iy intellekt yordamida asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari monitoringi, firibgarlik bo‘yicha ogohlantirishlar, kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar ulushi va likvidlik indikatorlari interaktiv grafiklar orqali taqdim etiladi. Axborot texnologiyalari auditi esa ushbu boshqaruv panellari manbalari, ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash jarayonlari hamda ma’lumotlar uzatish zanjirlarining ishonchliligini baholaydi. Natijada boshqaruv qarorlari subyektiv fikrga emas, balki ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilinadi.

Me’yoriy talablar va regulyatorlarga moslashuv ham ushbu mavzuda muhim o‘rin tutadi. Markaziy bank prudensial me’yorlari, Bazel III tamoyillari, xalqaro axborot xavfsizligi standartlari hamda nazorat va audit bo‘yicha xalqaro metodologiyalar tijorat banklarida axborot texnologiyalari auditining metodologik bazasini tashkil etadi. Sun’iy intellekt orqali me’yoriy talablar monitoringini avtomatlashtirish, normativlardan og‘ishlar bo‘yicha avtomatik ogohlantirishlar shakllantirish va regulyator hisobotlarini tezkor tayyorlash mumkin. Bu banklarning regulyator riskini kamaytiradi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi [5].

Tijorat banklari faoliyatini boshqarishda axborot texnologiyalari auditi va sun’iy intellektning uyg‘unlashuvi banklarni an’anaviy nazorat modelidan aqlli boshqaruv modeliga olib o‘tmoqda. Ushbu yondashuv risklarni kamaytirish, xarajatlarni optimallashtirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, kredit risklarini samarali boshqarish va strategik qarorlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli bank xizmatlarining kengayishi sharoitida ushbu ikki vositaning integratsiyasi tijorat banklarining uzoq muddatli raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashda asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi.

Xulosa va takliflar. Tijorat banklari faoliyatini boshqarishda axborot texnologiyalari auditi va sun’iy intellektning uyg‘unlashuvi bank boshqaruvining zamonaviy va samarali modelini shakllantirmoqda. Bank xizmatlarining raqamli shaklga o‘tishi, tranzaksiyalar hajmining keskin ortishi, masofaviy xizmatlar va elektron

to‘lovlarning kengayishi nazorat mexanizmlarini ham tubdan yangilashni talab etmoqda. Shu jarayonda axborot texnologiyalari auditi bankning dasturiy infratuzilmasi, ma’lumotlar bazalari, foydalanuvchi vakolatlari, axborot xavfsizligi va uzluksiz ishlash tizimlarini baholash orqali boshqaruv sifati hamda nazorat ishonchliligini oshiradi.

Sun’iy intellekt esa katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, odatiy bo‘lmagan tranzaksiyalarni aniqlash, kredit risklarini oldindan prognozlash, firibgarlik sxemalarini erta bosqichda topish va kiberxavfsizlik tahdidlarini bashorat qilish orqali bank boshqaruvining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar ulushi, likvidlik ko‘rsatkichlari va kiberxavfsizlik risklari bo‘yicha tezkor ogohlantirish tizimlarining joriy etilishi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalari auditi va sun’iy intellektning integratsiyasi banklarni an’anaviy nazorat modelidan aqlli va bashoratli boshqaruv modeliga olib o‘tmoqda. Bu esa boshqaruv qarorlarining aniqligi, tezkorligi va ma’lumotlarga asoslanganligini ta’minlaydi. Natijada resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, operatsion xarajatlar kamayadi, xavflar erta aniqlanadi va bankning raqobatbardoshligi kuchayadi.

Kelgusida tijorat banklari faoliyatini boshqarishda ushbu yo‘nalishni yanada takomillashtirish uchun quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, tijorat banklarida axborot texnologiyalari auditi uchun yagona raqamli nazorat platformasi joriy etilishi zarur. Ushbu platforma orqali barcha filiallar, mobil ilovalar, internet xizmatlari va markaziy operatsion tizimlar bo‘yicha nazorat ma’lumotlari yagona markazda jamlanadi.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt asosida firibgarlikni aniqlash va erta ogohlantirish tizimlarini keng joriy etish lozim. Bu tizimlar shubhali tranzaksiyalar, noodatiy foydalanuvchi harakatlari va ruxsatsiz kirishlarni real vaqt rejimida aniqlab, moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, kredit risklarini boshqarishda sun’iy intellekt asosidagi bashoratli tahlil modellarini ichki audit va axborot texnologiyalari auditi bilan integratsiya qilish zarur. Bu muammoli kreditlarni erta aniqlash, ehtimoliy yo‘qotishlarni kamaytirish va kredit portfeli sifatini oshirishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, tijorat banklarida axborot texnologiyalari auditorlari va risk menejerlari uchun sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik va katta ma’lumotlar tahlili bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini muntazam tashkil etish muhimdir. Zamonaviy bank tizimida kadrlarning texnologik kompetensiyasi nazorat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Beshinchidan, Markaziy bank prudensial me’yorlari, xalqaro axborot xavfsizligi standartlari va Bazel tamoyillariga mos avtomatlashtirilgan me’yoriy nazorat modullarini

ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu regulyator talablariga muvofiqlikni kuchaytirish bilan birga hisobot tayyorlash jarayonlarini ham soddalashtiradi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI ASOSIDA RAQAMLI INKLYUZIVLIKNI BANK MOBIL ILOVALARI ORQALI TA’MINLASH

Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi
TIU, 1-bosqich tayanch doktorant

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi global iqtisodiy landshaftni tubdan o‘zgartirib, moliya xizmatlarini ko‘rsatish tizimida tub burilish yasadi. Ushbu transformatsiya jarayonlari natijasida yuzaga kelgan raqamli moliyaviy inklyuzivlik an’anaviy moliya tizimidan chetda qolgan aholi qatlamlariga bank xizmatlarini yetkazishning innovatsion mexanizmiga aylandi. Tadqiqot ishida ushbu jarayonlar fonida davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlari raqamli moliyaviy inklyuzivlik bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — bank mobil ilovalari orqali aholini moliya tizimiga keng jalb qilish yordamida iqtisodiy oqimlarning shaffofligini ta’minlash va davlat xizmatlarini aholi qatlamlari o‘rtasida adolatli imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot natijasida davlat moliyaviy nazorati organlari va bank ilovalari o‘rtasidagi raqamli integratsiyani chuqurlashtirish hamda aholining barcha qatlamlari uchun moliyaviy imkoniyatlar tengligini yaratish bo‘yicha amaliy takliflar ham ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: davlat moliyaviy nazorati, raqamli moliyaviy inklyuzivlik, bank mobil ilovalari, ijtimoiy tenglik, shaffoflik, xufyona iqtisodiyot, budjet monitoringi, raqamli transformatsiya.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi global iqtisodiy landshaftni tubdan o‘zgartirib, moliya xizmatlarini ko‘rsatish tizimida tub burilishlarga sabab bo‘ldi. Ushbu transformatsiya jarayonlari natijasida yuzaga kelgan raqamli moliyaviy inklyuzivlik an’anaviy moliya tizimi bilangina cheklanib qolgan aholi qatlamlariga bank xizmatlarini yetkazishning innovatsion mexanizmiga aylandi. Shu bilan birga, zamonaviy davlat boshqaruvida aholi uchun davlat xizmatlaridan foydalanishda hududiy va ijtimoiy tenglikni ta’minlash strategik ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda[166].

O‘zbekiston iqtisodiyotining bugungi bosqichida aholining bank hisobvaraqlariga egalik darajasi oshib borayotgan bo‘lsa-da, ochilgan hisobvaraqlar va ulardan real foydalanish faolligi o‘rtasidagi nomutanosiblik dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bu borada bank mobil ilovalari shunchaki qulaylik vositasi emas, balki iqtisodiy faoliyatni raqamli uyg‘unlik kasb etishi orqali davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishning samarali platformasiga aylanmoqda. Raqamli moliyaviy inklyuzivlik orqali iqtisodiy

[166] M. Ahmad et al. Digital financial inclusion and economic growth: provincial data analysis of China China Econom. J. (2021)

oqimlarning “shaffoflashishi” davlatga byudjet mablag‘larini manzilli yo‘naltirish, ijtimoiy xizmatlarni hududlararo adolatli taqsimlash va “xufyona iqtisodiyot” ulushini qisqartirish imkonini beradi. Davlat moliyaviy nazorati mexanizmlari asosida raqamli moliyaviy inklyuzivlikni bank mobil ilovalari orqali ta’minlash va bu orqali davlat xizmatlaridan foydalanishda ijtimoiy tenglikka erishish imkoniyatlarini tahlil qilish esa asosiy tadqiqot maqsadi hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi bugungi kunda iqtisodiyotdagi barcha pul o‘tkazmalarining bank tizimi orqali ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilishiga bog‘liq[167]. Bank mobil ilovalari bu jarayonda davlat nazorat organlari uchun har bir to‘lovni aniq kuzatish va tahlil qilish imkonini beruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Mobil ilovalar orqali moliya tizimining raqamli shaklga o‘tishi davlat nazorati usullarini ham tubdan o‘zgartirdi. Avvalgi nazorat usullari asosan qog‘ozdagi hisobotlarga tayangan bo‘lsa, endilikda mobil ilovalar yordamida har bir moliyaviy harakatni sodda va tezkor monitoring qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu jarayonda aholining mobil ilovalardan foydalanish darajasi (inklyuzivlik) ortishi davlat moliyaviy nazoratining quyidagi yo‘nalishlarini birlashtiradi:

- Pul aylanmasining shaffofligi: aholi va tadbirkorlar kundalik to‘lovlar uchun mobil ilovalardan faol foydalanishi naqd pulda amalga oshiriladigan, hisobga olinmaydigan savdolarni kamaytiradi. Bu esa davlat byudjetiga tushishi kerak bo‘lgan mablag‘larning aniq hisoblanishini ta’minlaydi[168].
- Davlat mablag‘larining manzilli yetib borishi: byudjetdan ajratiladigan yordam pullari, nafaqa va subsidiyalarni bevosita fuqarolarning mobil ilovalariga o‘tkazish, ushbu mablag‘larning korrupsiyasiz, o‘z vaqtida va to‘g‘ri egasiga yetib borishini kafolatlaydi. Bu orqali davlat o‘z xarajatlarining maqsadli ishlatilishini nazorat qiladi.
- Soliq tushumlari ustidan masofaviy nazorat: mobil ilovalardagi QR-kod yoki elektron cheklar orqali amalga oshirilgan xaridlar soliq organlariga savdo tushumlari haqida ma’lumot beradi. Bu soliq to‘lovchilarning faoliyatini joyiga chiqib tekshirmagan holda, masofadan turib nazorat qilishga imkon beradi.

Raqamli moliyaviy inklyuzivlik nafaqat aholining bank xizmatlaridan foydalanishini anglatadi, balki davlat xizmatlarini aholining barcha qatlamlariga teng taqsimlashda asosiy poydevor vazifasini o‘taydi. Bu jarayonda bank mobil ilovalari chekka hududlarda yashovchi aholi va poytaxt aholisi o‘rtasidagi “raqamli tafovut”ni kamaytiruvchi asosiy vositaga aylanadi. Raqamli inklyuzivlik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatda davlat moliyaviy nazorati yanada samaraliroq bo‘ladi, chunki aholi o‘z ixtiyori bilan shaffof raqamli tizimga integratsiyalashadi. Natijada, davlat resurslari adolatli taqsimlanadi va aholining turmush darajasi hududlararo muvozanatlashadi. Davlat

[167] World Bank (2022). The Role of Digital Financial Services in Strengthening State Capacity and Financial Oversight. Washington, DC.
[168] Pazarbasioglu, C., et al. (2020). *Digital Financial Services.* World Bank Group Publication.

moliyaviy nazorati asosida mobil ilovalarning kengayishi davlat xizmatlari tengligini quyidagi mexanizmlar orqali ta’minlaydi:

1. Hududiy to‘siqlarning bartaraf etilishi: avvalari chekka qishloqlarda yashovchi fuqarolar davlat xizmatlari yoki bank operatsiyalari uchun tuman markazlariga borishga majbur bo‘lgan bo‘lsa, endilikda mobil ilovalar orqali barcha amaliyotlarni uydan chiqmagan holda bajarish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu davlat xizmatlarining geografik joylashuvidan qat’i nazar, barcha uchun bir xil ochiqligini ta’minlaydi[169].

2. Ijtimoiy yordam va subsidiyalarning adolatli taqsimlanishi: davlat tomonidan ajratiladigan ijtimoiy yordamlar bank ilovalari orqali manzilli yo‘naltirilishi, mablag‘larning yo‘lda “yo‘qolishi” yoki korrupsion holatlar tufayli boshqa maqsadlarga sarflanishi oldini oladi. Bu har bir muhtoj fuqaroning davlat budjetidan o‘ziga tegishli ulushni o‘z vaqtida olishini kafolatlaydi[170].

3. Moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy imkoniyatlar tengligi: bank mobil ilovalari foydalanuvchilarning o‘z mablag‘larini rejalashtirishi va nazorat qilishi uchun sodda vositalarni taqdim etadi. Bu aholining iqtisodiy faolligini oshirib, ularga tadbirkorlik va boshqa moliyaviy imkoniyatlardan foydalanishda teng sharoit yaratadi.

Davlat moliyaviy nazorati, raqamli inklyuzivlik va mobil ilovalar o‘rtasidagi o‘zaro mantiqiy bog‘liqlik iqtisodiyotda aniq natijalarga xizmat qiladi. Ushbu jarayonning amaliy natijalari va davlat xizmatlari tengligini ta’minlashdagi roli uchlikning integratsiyalashuvi natijasida erishiladigan asosiy ko‘rsatkichlar va ularning jamiyat farovonligidagi ahamiyati umumlashtirilgan quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topgan (1-jadval):

Tahlil yo‘nalishi	**Bankmobil ilovasi orqali yechim**	**Davlat moliyaviy nazorati mexanizmi**	**Kutilayotganiqtisodiy va ijtimoiy natija**
Iqtisodiyotni shaffoflashtirish	Naqdpulsiz P2P va QR-to‘lovlar tizimi	Pul oqimlarining raqamli monitoringi	Xufyona iqtisodiyot ulushining 15-20% gacha qisqarishi
Budjet intizomi	Ijtimoiyto‘lovlarni bevosita ilovaga o‘tkazish	Mablag‘larning manzillisarflanishi nazorati	Korrupsion xavflarning kamayishi va mablag‘larning egasiga yetishi
Soliq samaradorligi	Avtomatlashgan elektronchekva keshbek	Soliq bazasini masofadanturib kengaytirish	Soliq tushumlarining barqaror o‘sishi va tekshiruvlar yukining kamayishi
Hududiy tenglik	Masofaviydavlat va bank xizmatlari	Xizmatlarsifatini raqamli baholash	Shahar va qishloq o‘rtasidagi xizmat ko‘rsatish tafovutining barham topishi

[169] Ahmad, M., et al. (2021). *Digital financial inclusion and economic growth: provincial data analysis of China.* China Economic Journal.
[170] Li, X., & Wei, Y. D. (2010). *The Spatial Dimensions of Regional Inequality in China.* Regional Studies.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati raqamli vositalar (mobil ilovalar) bilan uyg‘unlashganda, nazorat faqat tekshirish emas, balki rivojlantirish vositasiga aylanadi. Aholini moliya tizimiga ko‘proq jalb qilish (inklyuzivlik) orqali davlat o‘zining ijtimoiy majburiyatlarini (xizmatlar tengligini) adolatli va tezkor amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, davlat moliyaviy nazorati tizimida raqamli moliyaviy inklyuzivlikni bank mobil ilovalari orqali ta’minlash iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning eng samarali strategiyasidir. Bank mobil ilovalari bu jarayonda shunchaki texnik vosita emas, balki davlat nazorat organlari uchun iqtisodiy oqimlarni shaffoflashtiruvchi, aholi uchun esa davlat xizmatlarini yaqinlashtiruvchi strategik drayver vazifasini o‘taydi. Bank mobil ilovalarining kengayishi iqtisodiy tranzaksiyalarni rasmiy sektorga o‘tkazish orqali davlat moliyaviy nazorati organlariga naqd pulsiz aylanmalar ustidan masofaviy monitoring o‘rnatish va “xufyona iqtisodiyot” ulushini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli moliyaviy xizmatlar hududiy to‘siqlarni bartaraf etib, chekka hududlardagi aholiga davlat xizmatlari va moliyaviy resurslardan poytaxt aholisi bilan bir xil darajada foydalanish imkonini yaratishi tadqiqot davomida aniqlandi. Ijtimoiy to‘lovlar va subsidiyalarning mobil ilovalar orqali manzilli yo‘naltirilishi budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlaydi va korrupsion xavflarni minimallashtiradi. Umumiy qilib aytganda, davlat moliyaviy nazorati raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda, nazorat jarayoni jazolash vositasidan rivojlanish va adolatni ta’minlash vositasiga aylanadi, bu esa mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini va jamiyat farovonligini yangi bosqichga olib chiqadi.

TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH

Turg‘unov Muxriddin Mo‘ydinjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasi Dotsent, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Maxammadov Diyorbek Muxtor o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida tijorat banklarida ichki audit tizimini raqamlashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari yoritiladi. Raqamli texnologiyalar asosida audit jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt monitoringini yo‘lga qo‘yish, ma’lumotlar bazasi bilan integratsiya va risklarni erta aniqlash mexanizmlari bank nazoratining samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv audit tekshiruvlarining aniqligi, tezkorligi va shaffofligini kuchaytirib, bank faoliyatida boshqaruv qarorlarini sifat jihatdan yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Tijorat banki, ichki audit, raqamlashtirish, audit platformasi, risk monitoring, Big Data, avtomatlashtirish, bank nazorati, audit izi, real vaqt tahlili.

Аннотация. В данной исследовательской работе освещаются современные тенденции цифровизации системы внутреннего аудита в коммерческих банках. Автоматизация аудиторских процессов на основе цифровых технологий, мониторинг в реальном времени, интеграция с базами данных и механизмы раннего выявления рисков повышают эффективность банковского надзора. Такой подход повышает точность, скорость и прозрачность аудиторских проверок, тем самым улучшая качество управленческих решений в банковской деятельности.

Ключевые слова: Коммерческий банк, внутренний аудит, цифровизация, аудиторская платформа, мониторинг рисков, большие данные, автоматизация, банковский надзор, аудиторский след, анализ в реальном времени.

Abstract. This research paper highlights modern trends in the digitalization of the internal audit system in commercial banks. Automation of audit processes based on digital technologies, real-time monitoring, integration with databases, and mechanisms for early detection of risks increase the effectiveness of banking supervision. This approach increases the accuracy, speed, and transparency of audit inspections, thereby improving the quality of management decisions in banking activities.

Keywords: Commercial bank, internal audit, digitalization, audit platform, risk monitoring, Big Data, automation, banking supervision, audit trail, real-time analysis.

Kirish. Bugungi bank-moliya tizimida operatsiyalar hajmi, masofaviy xizmatlar, mobil banking va elektron to‘lovlar sonining keskin ortishi ichki audit xizmatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. An’anaviy qo‘lda tekshiruv usullari ko‘p hollarda katta hajmdagi tranzaksiyalarni to‘liq qamrab olish imkonini bermaydi. Shu sababli banklarda audit funksiyasini raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan nazorat modullari va analitik dasturlar asosida tashkil etish zarurati kuchaymoqda.

Raqamlashtirilgan audit bank operatsiyalarini uzluksiz kuzatish, shubhali tranzaksiyalarni darhol aniqlash, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish hamda bank resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, kredit portfeli sifati, likvidlik boshqaruvi, foiz risklari va komplayens nazorati kabi yo‘nalishlarda ichki auditning raqamli modeli boshqaruv uchun ishonchli axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ichki audit oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi skoring tizimlari, Big Data analitikasi, blokcheyn texnologiyalari va masofaviy identifikatsiya xizmatlari keng joriy etilishi audit metodologiyasini ham zamonaviylashtirishni talab etadi. Endilikda auditor nafaqat moliyaviy hujjatlarni tekshiruvchi mutaxassis, balki axborot tizimlari, ma’lumotlar xavfsizligi va

avtomatlashtirilgan nazorat algoritmlarini baholovchi ekspert sifatida maydonga chiqmoqda [1].

Ichki audit tizimini raqamlashtirish tijorat banklari faoliyatida shaffoflikni kuchaytirish, operatsion risklarni pasaytirish va nazorat jarayonlarini real vaqt rejimida tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, bank boshqaruvida strategik qarorlar sifatini oshiradi, muammoli kreditlarni erta aniqlash imkonini beradi hamda regulyator talablariga moslikni ta’minlaydi. Xususan, Markaziy bankning prudensial me’yorlari, xalqaro audit standartlari va Basel tamoyillariga mos nazorat mexanizmlarini raqamli muhitda qo‘llash banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi sharoitda tijorat banklarida ichki auditni raqamlashtirish nafaqat nazorat samaradorligini oshirish vositasi, balki bank transformatsiyasining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki raqamli audit tizimi bank faoliyatining barcha bo‘g‘inlarida ma’lumotlar oqimini kompleks tahlil qilish, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va ehtimoliy xavflarni oldindan prognozlash imkonini beradi. Shu jihatdan mazkur mavzu bank tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichida ilmiy va amaliy nuqtai nazardan alohida tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

Asosiy qism. Tijorat banklarida ichki audit tizimini raqamlashtirish bank boshqaruvining zamonaviy strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Banklar iqtisodiyotning eng faol moliyaviy institutlari sifatida har kuni minglab, ayrim hollarda millionlab moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi. Shu sababli ichki audit tizimining an’anaviy shaklda yuritilishi barcha operatsiyalarni to‘liq qamrab olish, ularni chuqur tahlil qilish va xavfli nuqtalarni o‘z vaqtida aniqlash uchun yetarli bo‘lmay qolmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ichki audit esa bank faoliyatidagi ma’lumotlar oqimini kompleks boshqarish, nazorat samaradorligini oshirish va boshqaruv qarorlarini aniq axborot bilan ta’minlash imkonini beradi.

Zamonaviy tijorat banklarida barcha tranzaksiyalar, kredit shartnomalari, depozit operatsiyalari, xalqaro to‘lovlar va masofaviy xizmatlar yagona ma’lumotlar omborida saqlanadi. Ushbu integratsiyalashgan ma’lumotlar bazasi ichki audit uchun muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Auditorlar maxsus dasturiy vositalar orqali ma’lumotlar omboriga ulanib, istalgan davr, filial, mahsulot yoki mijoz segmenti kesimida operatsiyalarni avtomatik ravishda tahlil qilishi mumkin. Bu holat audit jarayonining tezkorligini oshirish bilan birga inson omili ta’sirini kamaytiradi. Natijada auditorlar ko‘proq vaqtini hujjatlarni yig‘ish va saralashga emas, balki muammolar sababini chuqur tahlil qilish hamda takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga yo‘naltiradi [2].

Raqamli audit tizimining muhim afzalligi bank operatsiyalarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatidir. Hozirgi bank amaliyotida audit faqat davriy tekshiruv bilan

cheklanib qolmay, balki uzluksiz monitoring shakliga o‘tmoqda. Masalan, kredit ajratish jarayonida belgilangan limitlardan chetga chiqish, depozit operatsiyalarida g‘ayrioddiy foiz stavkalari qo‘llanilishi, valyuta amaliyotlarida normativlardan og‘ish yoki xalqaro o‘tkazmalarda shubhali tranzaksiyalar yuzaga kelganda tizim avtomatik signal beradi. Bu esa muammolarni tekshiruv yakunida emas, aynan sodir bo‘layotgan paytda aniqlash imkonini yaratadi. Shu jihatdan ichki audit bankda operatsion xavflarni pasaytirish va nazoratning profilaktik modelini shakllantirishda muhim vositaga aylanadi.

Bank faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy daromad manbalaridan biri bo‘lishi bilan birga eng katta xavf manbai ham hisoblanadi. Shu sababli ichki audit tizimini raqamlashtirishda kredit riski alohida o‘rin tutadi. Kredit portfelining hajmi kengaygani sari qarzdorlarning to‘lov qobiliyatini doimiy monitoring qilish, muammoli kreditlarni erta aniqlash va ehtimoliy yo‘qotishlarni baholash zarurati kuchayadi. Raqamlashtirilgan audit tizimi kredit shartnomalari, to‘lov grafigi, kechikishlar dinamikasi, garov ta’minoti va mijozlarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini avtomatik ravishda tahlil qilib, risk darajasi yuqori bo‘lgan segmentlarni ajratib beradi. Masalan, ayrim hududiy filiallarda iste’mol kreditlari bo‘yicha kechikishlar o‘sayotgan bo‘lsa, tizim buni darhol ko‘rsatadi va auditorlar shu segmentga chuqurlashtirilgan tekshiruv o‘tkazadi. Bu yondashuv muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ichki auditni raqamlashtirish riskga asoslangan audit modelini yanada takomillashtiradi. Kredit riski bilan bir qatorda likvidlik riski, foiz riski, valyuta riski, komplayens riski va firibgarlik xavfi bo‘yicha indikatorlar shakllantiriladi. Tizim ushbu indikatorlar asosida qaysi filial, qaysi mahsulot yoki qaysi operatsiya yuqori xavfga ega ekanini avtomatik aniqlaydi. Auditorlar esa mavjud resurslarni aynan yuqori xavfli yo‘nalishlarga yo‘naltiradi. Bu yondashuv audit tekshiruvlarining natijadorligini keskin oshirib, bank resurslaridan oqilona foydalanishga yordam beradi. Ayniqsa, kredit portfeli tarkibida muammoli aktivlar ulushi oshib borayotgan banklarda risk indikatorlari asosida ichki auditni tashkil etish moliyaviy barqarorlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega [3].

Raqamlashtirilgan audit tizimida elektron audit izlari alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir operatsiyaning kim tomonidan, qaysi vaqt oralig‘ida, qaysi IP manzil yoki terminal orqali amalga oshirilgani tizimda saqlanadi. Ushbu audit izlari kredit ajratish jarayonida mansab vakolatlaridan noto‘g‘ri foydalanish, depozit operatsiyalarida noqonuniy o‘zgartirishlar yoki to‘lov topshiriqlaridagi firibgarlik holatlarini aniqlashda muhim dalil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, kredit risklarini boshqarishda qarz oluvchining hujjatlari bilan ishlash, skoring natijalari va tasdiqlash bosqichlarini audit izlari orqali qayta tekshirish muhim ahamiyatga ega. Bu shaffoflikni kuchaytiradi va bank nazorat tizimining ishonchliligini oshiradi.

Sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalarining ichki auditga integratsiyasi ushbu tizimni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Banklarda ma’lumotlar hajmining

nihoyatda katta bo‘lishi oddiy statistik usullar bilan to‘liq tahlil qilish imkonini cheklaydi. Mashinaviy o‘qitish algoritmlari esa g‘ayrioddiy tranzaksiyalarni, mijozlarning noodatiy xatti-harakatlarini, kredit portfelidagi kechikish ehtimoli yuqori bo‘lgan segmentlarni va potentsial firibgarlik sxemalarini oldindan aniqlaydi. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi model ma’lum bir mijoz segmentida kechikish ehtimoli oshayotganini ko‘rsatsa, ichki audit shu yo‘nalishda profilaktik nazorat choralarini ko‘radi. Bu esa kredit riskini pasaytirish va ehtimoliy zararlarni oldindan minimallashtirish imkonini beradi [4].

Raqamlashtirish audit hisobotlarini tayyorlash jarayonini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Zamonaviy dashboard, vizual analitika, KPI monitoring va interaktiv grafiklar rahbariyatga muammoli ko‘rsatkichlarni tez va aniq ko‘rish imkonini beradi. Kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar ulushi, likvidlik koeffitsiyentlari, foiz marjasi va operatsion samaradorlik ko‘rsatkichlari real vaqt rejimida aks ettiriladi. Shu sababli ichki audit xulosalari faqat matnli tavsif emas, balki qaror qabul qilishga xizmat qiluvchi vizual boshqaruv instrumentiga aylanadi.

Shuningdek, tijorat banklarida ichki audit tizimini raqamlashtirish Markaziy bank prudensial me’yorlari, Basel tamoyillari va xalqaro audit standartlariga mos nazoratni avtomatlashtirish imkonini beradi. Normativ ko‘rsatkichlar tizimga oldindan kiritilgani sababli har qanday chetlanish bo‘yicha signal shakllanadi. Bu ayniqsa kredit riski ko‘rsatkichlari, kapital yetarliligi, likvidlik normativlari va muammoli kreditlar darajasini nazorat qilishda samarali vosita hisoblanadi. Natijada banklarda ichki audit nafaqat nazorat organi, balki strategik boshqaruvni qo‘llab-quvvatlovchi axborot markaziga aylanadi.

Tijorat banklarida ichki audit tizimini raqamlashtirish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, kredit risklarini samarali boshqarish, operatsion xatolarni kamaytirish va boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kredit portfelining kengayishi va raqamli bank xizmatlarining ommalashuvi sharoitida ushbu tizim bank transformatsiyasining asosiy drayverlaridan biri bo‘lib qoladi. Shu bois kelgusida ichki auditni sun’iy intellekt, Big Data va predictive analytics asosida yanada chuqurlashtirish tijorat banklarining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [5].

Xulosa va takliflar. Tijorat banklarida ichki audit tizimini raqamlashtirish nazorat jarayonlarining tezkorligi, aniqligi va uzluksizligini ta’minlaydigan muhim boshqaruv mexanizmi sifatida shakllanmoqda. Zamonaviy bank amaliyotida operatsiyalar hajmining ortishi, mobil banking, masofaviy xizmatlar va elektron to‘lov tizimlarining kengayishi ichki auditga bo‘lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Raqamli audit platformalari orqali bank operatsiyalarini real vaqt rejimida monitoring qilish, shubhali tranzaksiyalarni erta aniqlash, kredit portfelidagi muammoli segmentlarni baholash hamda komplayens nazoratini avtomatlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Elektron audit izlari, avtomatlashtirilgan risk indikatorlari va vizual dashboard vositalari bank faoliyatidagi zaif nuqtalarni qisqa muddatda aniqlash, muammolar sababini chuqur tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini aniq ma’lumotlar bilan ta’minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, kredit riski, likvidlik riski va operatsion risklar bo‘yicha erta ogohlantirish mexanizmlarining joriy etilishi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ichki auditni raqamlashtirish resurslardan oqilona foydalanish, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish va filiallar kesimida nazorat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kelgusida tijorat banklarida ichki audit tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, ichki audit uchun yagona raqamli dashboard platforma joriy etilishi zarur. Ushbu platforma orqali kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar ulushi, likvidlik ko‘rsatkichlari, foiz marjasi va komplayens indikatorlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchidan, yuqori riskli operatsiyalar bo‘yicha sun’iy intellekt asosidagi signal tizimini yaratish lozim. Mazkur tizim g‘ayrioddiy tranzaksiyalar, kredit kechikishlari, shubhali valyuta amaliyotlari va firibgarlik ehtimolini avtomatik ravishda aniqlab, auditorlarga tezkor ogohlantirish yuboradi.

Uchinchidan, barcha filiallarni yagona audit data warehouse bilan integratsiya qilish muhimdir. Bu filiallar kesimida audit ma’lumotlarini markazlashgan holda yig‘ish, solishtirish va tahlil qilish imkonini beradi hamda hududlar bo‘yicha risklarni baholash sifatini oshiradi.

To‘rtinchidan, audit xodimlari uchun IT-audit, sun’iy intellekt, Big Data va data analytics bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini muntazam tashkil etish zarur. Zamonaviy bank tizimida auditorlarning texnologik kompetensiyasi nazorat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib bormoqda.

Beshinchidan, kredit risklarini boshqarishda predictive analytics elementlarini ichki auditga integratsiya qilish tavsiya etiladi. Bu muammoli kreditlarni oldindan aniqlash, ehtimoliy yo‘qotishlarni kamaytirish va kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

BOSHQARUV HISOBIDA MODDIY XARAJATLAR HISOBINI RAQAMLASHTIRISH, IT-AUDIT VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Sa'dullayeva Sayyora Nasillo qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda boshqaruv hisobida moddiy xarajatlar hisobini yuritish jarayonlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, IT-audit vositalari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali xarajatlar hisobining aniqligi, tezkorligi va shaffofligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat moliyaviy nazorati tizimi sharoitida moddiy xarajatlarni samarali boshqarish hamda nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Boshqaruv hisobi, moddiy xarajatlar, raqamlashtirish, IT-audit, sun'iy intellekt, moliyaviy nazorat, ichki audit, shaffoflik, avtomatlashtirish, xarajatlar tahlili

Kirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda boshqaruv hisobini samarali tashkil etish, ayniqsa moddiy xarajatlar hisobini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Moddiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning hisobini aniq yuritish korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.So'nggi yillarda raqamlashtirish, IT-audit va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ushbu jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, avtomatlashtirilgan tizimlar orqali moddiy xarajatlarni real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyati yaratilmoqda[171]. Shu bilan birga, davlat moliyaviy nazorati tizimida ham shaffoflik va hisobdorlikni oshirish zarurati kuchaymoqda[172].

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda boshqaruv hisobida moddiy xarajatlar hisobini raqamlashtirish, IT-audit va sun'iy intellekt asosida takomillashtirish jarayonlarini o'rganish uchun kompleks, ko'p bosqichli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, empirik va amaliy tahlil usullarining o'zaro uyg'unligiga asoslandi.

Birinchi bosqichda tizimli yondashuv asosida boshqaruv hisobida moddiy xarajatlar hisobining iqtisodiy mazmuni, funksiyalari va tashkiliy mexanizmlari o'rganildi. Ushbu yondashuv orqali moddiy xarajatlar hisobining korxona boshqaruvidagi o'rni, uning moliyaviy natijalarga ta'siri hamda ichki nazorat tizimi bilan integratsiyasi tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichda solishtirma (komparativ) tahlil usuli yordamida an'anaviy hisob tizimlari bilan zamonaviy raqamlashtirilgan tizimlar o'rtasidagi farqlar

[171] Kaplan R.S., Atkinson A.A. *Advanced Management Accounting*. – Pearson Education, 2014.
[172] O'zbekiston Respublikasi "Davlat moliyaviynazorati to'g'risida"gi qonuni.

aniqlashtirildi. Bu jarayonda samaradorlik, aniqlik, tezkorlik va shaffoflik kabi mezonlar asosida baholash amalga oshirildi. Shuningdek, benchmarking yondashuvi orqali ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganilib, ularni milliy amaliyotga moslashtirish imkoniyatlari asoslab berildi.

Uchinchi bosqichda iqtisodiy-statistik usullar, jumladan dinamik qatorlar tahlili, nisbiy va o‘rtacha ko‘rsatkichlar, hamda korrelyatsion tahlil elementlaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali moddiy xarajatlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalari, ularning ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy natijalar bilan bog‘liqligi baholandi.

To‘rtinchi bosqichda iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli qo‘llanilib, sun’iy intellekt elementlari asosida moddiy xarajatlarni prognozlash modeli ishlab chiqildi. Modelda regressiya tahlili va mashinaviy o‘rganish (machine learning) elementlaridan foydalanish orqali xarajatlarning kelajakdagi dinamikasini oldindan baholash imkoniyati yaratildi. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda noaniqlik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning audit va hisob standartlari hamda ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganildi[173].

1- jadval.

IT-audit va sun’iy intellektning moddiy xarajatlar hisobiga ta’siri[174]

Yo‘nalish	IT-audit ta’siri	Sun’iy intellekt ta’siri
Nazorat	Ichki nazoratni kuchaytiradi	Avtomatik monitoring
Xatoliklarni aniqlash	Audit orqali aniqlaydi	Oldindan prognoz qiladi
Tahlil	Hisobotlarni tekshiradi	Katta ma’lumotlarni tahlil qiladi
Qaror qabul qilish	Tavsiyalar beradi	Optimal variantni taklif qiladi

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish, IT-audit va sun’iy intellektni joriy etish moddiy xarajatlar hisobining aniqligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi[175].

Natijalar. Tadqiqot natijalari boshqaruv hisobida moddiy xarajatlar hisobini raqamlashtirish, IT-audit va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish sezilarli iqtisodiy va tashkiliy samaradorlikka olib kelishini ko‘rsatdi. Xususan, raqamlashtirilgan tizimlar orqali hisob jarayonlari avtomatlashtirilib, inson omili ta’siri kamayishi natijasida ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligi oshdi[1].

[173] International Federation of Accountants (IFAC). *International Standards on Auditing.*
[174] Muallif ilmiy izlanishlari asosida tayyorlandi.
[175] International Federation of Accountants (IFAC) – International Standards on Auditing.

2- jadval

Moddiy xarajatlar hisobini yuritishda an’anaviy va raqamli tizimlar taqqoslanishi[176]

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy hisob tizimi	Raqamlashtirilgan tizim	Samaradorlik o‘zgarishi
Hisob yuritish tezligi	Past	Yuqori	+30–40 %
Xatolik darajasi	Yuqori	Past	−50 % gacha
Ma’lumotlar yangilanishi	Kechikkan	Real vaqt rejimida	To‘liq optimallashgan
Nazorat darajasi	Cheklangan	Keng qamrovli	Sezilarli oshgan
Qaror qabul qilish	Sekin	Tezkor	Yuqori samarali

Yuqoridagi jadvalda an’anaviy va raqamlashtirilgan boshqaruv hisobi tizimlari samaradorligi solishtirma tarzda baholandi. Moddiy xarajatlar hisobini raqamlashtirish hisob jarayonlarini 30–40 % gacha tezlashtiradi va inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni sezilarli kamaytiradi, IT-audit tizimlari orqali hisob ma’lumotlarining ishonchliligi va xavfsizligi oshadi, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida xarajatlar dinamikasini prognozlash va ortiqcha sarf-xarajatlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi. Natijada korxonalarda resurslardan samarali foydalanish va budjet intizomini mustahkamlashga erishiladi[177].

Xulosa. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv hisobida moddiy xarajatlar hisobini takomillashtirishda raqamlashtirish muhim omil hisoblanadi. Biroq, amaliyotda ayrim muammolar mavjud:

- axborot tizimlarining yetarli darajada integratsiyalanmaganligi;
- malakali IT-audit mutaxassislarining yetishmasligi;
- sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda yuqori xarajatlar.

Shu sababli, korxonalarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos boshqaruv hisobi tizimini joriy etish zarur[178]. Xulosa qilib aytganda, boshqaruv hisobida moddiy xarajatlar hisobini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish nafaqat korxona darajasida, balki davlat moliyaviy nazorati tizimi doirasida ham shaffoflikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

[176] Muallif ilmiy izlanishlari asosida tayyorlandi.
[177] Institute of Internal Auditors (IIA). *Global Internal Audit Standards*, 2023.
[178] Davenport T., Ronanki R. *Artificial Intelligence for the Real World*. Harvard Business Review, 2018.

O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHNI JADALLASHTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNINGO‘RNI

Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii Mintaqaviy iqtisodiyot yo‘nalishi, tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda raqamli platformalarning o‘rni, ularning iqtisodiy modernizatsiyaga ta’siri, hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirishdagi roli tahlil qilinadi. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, elektron tijorat va IT-xizmatlar eksportining o‘sish dinamikasi, shuningdek, mavjud muammolar va kelgusi istiqbollar ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli platformalar iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, aholi bandligini oshirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishda muhim omil ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli platformalar, hududiy rivojlanish, elektron tijorat, IT-eksport, raqamli infratuzilma, startaplar, elektron hukumat.

Kirish

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylangan. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun raqamli platformalar iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish va aholi farovonligini oshirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston ushbu global tendensiyadan kelib chiqib, so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

“Digital Uzbekistan – 2030” strategiyasi, “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” va “Uzbekistan – 2030” strategiyasida raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlarda barcha hududlar va tarmoqlarni raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish va respublikani BMT Elektron hukumat rivojlanishi indeksida dunyoning eng yaxshi 30 ta davlati qatoriga kiritish vazifalari qo‘yilgan.

Mazkur tezisning dolzarbligi shundaki, raqamli platformalar nafaqat iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi farqlarni kamaytirishga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqotning maqsadi –O‘zbekiston hududlarida raqamli platformalar asosida iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning amaldagi holati, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolarni tizimli tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Raqamli platformalarning samarali faoliyat yuritishi uchun asosiy shart – barcha hududlarda yuqori sifatli raqamli infratuzilmaning mavjudligidir. O‘zbekiston bu borada muhim qadamlarni amalga oshirmoqda. “Raqamli hukumat” va

“Raqamli hudud” dasturlari doirasida 2023–2024-yillarda 300 dan ortiq ustuvor loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, ularning 112 tasi davlat boshqaruvini raqamlashtirish, 51 tasi real iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish va 137 tasi hududiy raqamli transformatsiyaga yo‘naltirilgan.

Ayniqsa, ijtimoiy sohadagi davlat investitsiyalarini boshqarish uchun yaratilgan geoportal muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu platforma orqali 23 mingdan ortiq infratuzilma ob’yektlari – 11 127 maktab, 6 888 bog‘cha, 3 689 tibbiyot muassasasi va 879 sport majmuasining holati, suv ta’minoti, isitish tizimi, sanitariya sharoitlari kabi muhim ma’lumotlar yagona tizimga jamlangan. Bu esa hududlardagi ijtimoiy infratuzilma rivojlanishining shaffofligini ta’minlash, davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

BMTning 2024-yildagi Elektron hukumat rivojlanishi indeksida O‘zbekiston 6 pog‘onaga ko‘tarilib, birinchi marta “juda yuqori” ko‘rsatkichga ega davlatlar guruhiga kirdi. 2022-yilda 69-o‘rinda (0,7265 EGDI) bo‘lgan mamlakat 2024-yilda 63-pog‘onaga (0,7999 EGDI) ko‘tarildi. Jahon bankining GovTech Maturity Index reytingida esa O‘zbekiston 2022-yilda 198 davlat orasida 43-o‘rinni egallab, “A” guruhiga kirishga muvaffaq bo‘ldi. Bu ko‘rsatkichlar respublikada raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur’atlarda amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda elektron tijorat platformalari hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylandi. 2025-yilda “BirBir” platformasi 1 million mobil ilova o‘rnatish chegarasidan oshib, mamlakatning barcha hududlari va shaharlarini qamrab oldi. Platforma 18 turdagi tovar va xizmatlar bo‘yicha xaridor va sotuvchilarni birlashtiradi, sun’iy intellekt asosidagi kontent tekshiruvlari, MyID orqali identifikatsiya qilish va radiusli qidiruv kabi funksiyalarni taklif etadi. Bu esa, ayniqsa, chekka hududlardagi tadbirkorlarning mahsulotlarini butun mamlakat bo‘ylab sotish imkoniyatini yaratadi.

Uzum platformasi O‘zbekistondagi birinchi unicorn startap (qiymati 1 milliard dollardan oshiq) sifatida mamlakat raqamli transformatsiyasida yetakchilik qilmoqda. Platforma elektron tijorat, fintech va bank xizmatlarini birlashtirgan integrasiyalashgan ekotizimni taklif etadi. Uzum 16 000 dan ortiq savdogar, 2 500 restoran va minglab chakana savdo nuqtalarini o‘z xizmatlariga jalb qilgan. Platformaning asosiy maqsadi – bank xizmatlaridan yetarlicha foydalanmagan va xizmat ko‘rsatish imkoniyati cheklangan aholi qatlamlariga xizmat ko‘rsatishdir.

IT-xizmatlar eksporti ham jadal o‘smoqda. IT Park rezidentlari tomonidan 2023-yilda 344 million dollarlik IT-xizmatlar eksport qilingan, bu 2022-yilga nisbatan 2,4 barobar ko‘pdir. Ushbu eksportning 20 foizi (69 million dollar) BPO xizmatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. 2023-yilda IT sohasiga 475 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kiritilgan. 2022–2023-yillarda mahalliy startaplar tomonidan 7,1 million dollar venchur kapitali jalb qilingan, shundan 61 foizi fintech kompaniyalariga yo‘naltirilgan.

Raqamli platformalar O‘zbekiston hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishda muhim vazifani bajaradi. An’anaviy iqtisodiyotda markaziy hududlar (Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand, Farg‘ona vodiysi) iqtisodiy faollikning asosiy qismini tashkil etgan bo‘lsa, raqamli platformalar orqali qashqadaryo, surxondaryo, qoraqalpog‘iston kabi hududlardagi tadbirkorlar ham teng imkoniyatlarga ega bo‘lmoqda.

Masalan, elektron tijorat platformalari orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, Surxondaryoda ishlab chiqarilgan to‘qimachilik buyumlari butun mamlakat bo‘ylab, shuningdek, eksportga yo‘naltirilmoqda. “Zero Risk” dasturi doirasida IT-kompaniyalar nafaqat poytaxt, balki barcha hududlardagi davlat va xususiy mulkdorlardan ofis binolarini ijaraga olishlari va 12 oygacha xarajatlarning qoplanishini olishlari mumkin.

Bundan tashqari, “Million o‘zbek dasturchisi” ta’lim loyihasi doirasida 1,2 million yoshlar o‘qitilgan bo‘lib, ularning katta qismi hududlardagi yoshlardir. 20 mingdan ortiq tadbirkor va yoshlar raqamli ko‘nikmalarni oshirish bo‘yicha treninglarda qatnashgan. Hozirgi kunda mamlakatda 300 dan ortiq IT-markazlar faoliyat yuritmoqda, ularning aksariyati hududlarda tashkil etilgan. Bu esa hududiy kadrlar salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va migratsiyani kamaytirishga xizmat qiladi.

Raqamli platformalarni rivojlantirishdagi mavjud muammolar ham mavjud. Ularni quyida e’tirof etamiz:

Birinchi, turli davlat idoralari va platformalar o‘rtasidagi ma’lumotlar almashinuvi tizimlarining o‘zaro uyg‘unligi hali to‘liq ta’minlanmagan. Bu esa fuqarolar va tadbirkorlar uchun qo‘shimcha ma’muriy to‘siqlarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchi, transchegaraviy elektron tijorat va IT-xizmatlar eksportida logistika to‘siqlari, xalqaro to‘lov tizimlariga ulanishdagi cheklovlar va turli mamlakatlarning texnik reglamentlari bilan bog‘liq muammolar mavjud.

Uchinchi, kichik va o‘rta biznes sub’yektlarining raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Ayniqsa, chekka hududlardagi tadbirkorlar raqamli savodxonlik, internet tezligi va moliyaviy imkoniyatlar jihatidan qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Kelgusi istiqbollar qatoriga esa quyidagi vazifalarni belgilash mumkin:

- ustuvor sertifikatlarni to‘liq raqamlashtirish va “yagona darcha” tizimini takomillashtirish;
- xalqaro standartlar (UN/CEFACT, WCO Data Model) asosida tizimlararo uyg‘unlikni ta’minlash;
- kichik va o‘rta biznesni elektron eksportga yo‘naltirishni qo‘llab-quvvatlash, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar berish;
- sun’iy intellektga asoslangan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish;

Xulosa

O‘zbekiston raqamli platformalar orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish yo‘lida sezilarli yutuqlarga erishdi. Elektron tijorat platformalari (BirBir, Uzum), davlat xizmatlarini raqamlashtirish (My.gov.uz, geoportal) va IT-xizmatlar eksportidagi o‘sish mamlakatning raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirmoqda.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Raqamli infratuzilmaning barcha hududlarda rivojlantirilishi va geoportal kabi tizimlarning joriy etilishi davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish, hududiy rivojlanishning shaffofligini ta’minlash imkonini berdi.

2. Elektron tijorat platformalari kichik biznes sub’yektlarining butun mamlakat bo‘ylab va xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga xizmat qilmoqda.

3. IT-xizmatlar eksportining jadal o‘sishi, venchur kapitali va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ko‘payishi O‘zbekistonning mintaqaviy va global raqamli iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlamoqda.

4. Kadrlar tayyorlash dasturlari va IT-markazlarning hududlarda tashkil etilishi aholi bandligini oshirish, yoshlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish va ichki migratsiyani kamaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

5. Mavjud muammolarni bartaraf etish va belgilangan istiqbolli vazifalarni amalga oshirish orqali 2030-yilga qadar O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan 30 ta elektron hukumatli davlatlari qatoriga kiritish, IT-xizmatlar eksportini yanada oshirish va barcha hududlarni keng polosali internet bilan to‘liq qamrab olish imkoniyati mavjud.

Raqamli platformalar nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, balki hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirish, aholi bandligini oshirish va Markaziy Osiyo mintaqasida raqamli integratsiyani mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois, raqamli transformatsiyani yanada chuqurlashtirish, xususan, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalarini hududiy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

THE INFLUENCE OF DIGITAL TECHNOLOGY ON FINANCIAL MANAGEMENT

Khalilova Shokhsanam G`ayrat qizi
PhD, Associate Professor, Tashkent State University of Economics
Khalillayev Javohir Omonboy o‘g‘li
Student at Tashkent State University of Economics

In recent decades, digital technology has revolutionized nearly every aspect of economic activity, including financial management. Traditional financial systems, which relied heavily on manual processes and limited data analysis, are being replaced by

advanced digital solutions that enable real-time monitoring, automation, and strategic decision-making. Organizations are increasingly adopting digital tools to improve financial performance, reduce operational costs, and enhance transparency.

Financial management involves planning, organizing, directing, and controlling financial resources. The integration of digital technologies into these processes has not only increased efficiency but also reshaped the role of financial managers. Today, financial professionals are expected to possess not only accounting knowledge but also technological competencies to effectively utilize digital tools.

Digital technology plays a critical role in modern financial management by enabling automation, improving data accuracy, and enhancing analytical capabilities. One of the most significant contributions of digitalization is the automation of routine financial tasks such as bookkeeping, payroll processing, and financial reporting. This reduces human error and allows organizations to allocate resources more efficiently.

Cloud computing has also transformed financial management by providing access to financial data anytime and anywhere. Cloud-based accounting systems allow real-time collaboration between departments and improve the speed of financial reporting. This flexibility is particularly beneficial for multinational companies and organizations with remote teams.

Another key development is the use of big data analytics. Financial managers can now analyze large volumes of data to identify trends, forecast future financial performance, and make informed decisions. Data-driven decision-making has become a cornerstone of modern financial management.

Artificial intelligence (AI) is one of the most influential technologies shaping financial management. AI-powered systems can process large datasets, identify patterns, and generate insights that would be difficult for humans to detect. For example, AI is widely used in financial forecasting, risk assessment, and fraud detection.

Automation tools such as robotic process automation (RPA) further enhance efficiency by performing repetitive tasks with high accuracy. These technologies reduce the workload of financial professionals and allow them to focus on strategic activities such as financial planning and analysis.

However, the adoption of AI also raises concerns about job displacement and the need for new skills. Financial professionals must adapt to technological changes by developing digital competencies and analytical skills. Blockchain technology has introduced a new level of transparency and security in financial management. It provides a decentralized and immutable ledger that records financial transactions in a secure and transparent manner. This reduces the risk of fraud and enhances trust among stakeholders.

In financial management, blockchain can be used for secure transactions, auditing, and financial reporting. It eliminates the need for intermediaries, reduces transaction costs, and increases efficiency. Governments and organizations are increasingly exploring

blockchain-based solutions for financial management systems. Despite its advantages, digital transformation in financial management also presents several challenges. One of the main concerns is cybersecurity. As financial data becomes increasingly digital, organizations are more vulnerable to cyberattacks and data breaches.

Another challenge is the high cost of implementing digital technologies. Small and medium-sized enterprises (SMEs) may face difficulties in adopting advanced systems due to limited financial resources.

Additionally, there is a need for skilled professionals who can effectively use digital tools. The lack of digital literacy can hinder the successful implementation of technology in financial management.

In conclusion, digital technology has a profound influence on financial management by improving efficiency, transparency, and decision-making processes. Technologies such as artificial intelligence, blockchain, and big data analytics are transforming traditional financial practices and creating new opportunities for organizations.

However, these advancements also bring challenges that must be addressed through proper regulation, investment, and skill development. For organizations and governments, embracing digital transformation is no longer optional but essential for achieving sustainable growth and maintaining competitiveness in the modern economy.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDITIDA RAQAMLASHTIRISH, IT-AUDIT VA SUN'IY INTELLEKT

Axunova Shoxistaxon Nomanjanovna
FDTU, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti
Xolmirzayeva Rayhona Shukurulla qizi
FDTU, talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalarning hozirgi kundagi holati, xalqaro tajriba asosida rivojlanish tendensiyalari hamda hozirda mavjud bo'lgan muammolar tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya jarayonida iqtis

Аннотация: В данной статье анализируются процессы цифровизации государственного финансового контроля и внутреннего аудита, внедрение IT-аудита и технологий искусственного интеллекта. Рассматриваются текущее состояние цифровой трансформации системы финансового контроля в Узбекистане и перспективные направления её развития.

Abstract: This article analyzes the digital transformation of public financial control and internal audit systems, the role of IT audit technologies, and the implementation of artificial intelligence in improving audit efficiency. The study also

examines current reforms in Uzbekistan and identifies priority directions for further development.

Kalit so‘zlar: davlat moliyaviy nazorati, ichki audit, raqamlashtirish, IT-audit, sun’iy intellekt, Big Data, E-audit, GovTech, moliyaviy monitoring.

Ключевийе слова: государственный финансовый контроль, внутренний аудит, цифровизация, IT-аудит, искусственный интеллект.

Key words: public financial control, internal audit, digitalization, IT audit, artificial intelligence.

Maqolaning maqsadi: Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida raqamlashtirish jarayonlarini ilmiy tahlil qilish hamda IT-audit va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning samaradorligini baholash asosida ushbu tizimni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash hisoblanadi.

Asosiy qism: Hozirgi kunda davlat moliyaviy nazorati tizimi samaradorligi ko‘p jihatdan raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi bilan belgilanmoqda. Raqamli transformatsiya davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish hamda korrupsion xavflarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazoratida GovTech, Big Data, sun’iy intellekt, hamda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish audit samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Jahon bankining 2024-yilgi GovTech Maturity Index hisobotiga ko‘ra, raqamli audit platformalarini joriy etgan davlatlarda byudjet nazorati samaradorligi o‘rtacha 30–40 foizga oshgan.

Ko‘rsatkich	Ulushi (%)
Generativ AI’dan foydalanayotgan audit bo‘limlari	12%
Yaqin 1 yil ichida joriy etishni rejalashtirgan audit bo‘limlari	29%
2025 yilgacha GenAI integratsiyasini ustuvor yo‘nalish deb hisoblovchi audit rahbarlari	42%
Audit tizimlarida audit management system (AMS) dan foydalanish darajasi	60%
GenAI investitsiyalarini oshirishni rejalashtirgan tashkilotlar	87%
Moliyaviy hisobotlarda AI qo‘llashni rejalashtirayotgan tashkilotlar (3 yil ichida)	99%

1- jadval. Ichki audit va moliyaviy nazoratda sun’iy intellect texnologiyalaridan foydalanish darajasi (manba: Gartner.com)

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, ichki audit va davlat moliyaviy nazorati tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish darajasi yildan-yilga oshib bormoqda. Xususan, audit bo‘limlarining muhim qismi yaqin yillarda generativ sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni rejalashtirayotganligi ushbu yo‘nalishning

strategik ahamiyat kasb etayotganligini ko‘rsatadi. Bu esa davlat moliyaviy nazorati tizimida ham raqamli transformatsiyani jadallashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda ham davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi organlarida elektron audit, masofaviy monitoring hamda integratsiyalashgan moliyaviy boshqaruv axborot tizimlarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

2024-yil yakunlariga ko‘ra respublikada davlat xizmatlarining 70 foizdan ortig‘i elektron shaklga o‘tkazildi. Natijada davlat moliyaviy nazoratida real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyatlari kengaydi.

Ko‘rsatkich	Miqdori	Izoh
Davlat xaridlarining umumiy hajmi	248,6 trln so‘m	2024 yil yakuni
Shundan raqobatli xaridlar	133,4 trln so‘m	Elektron platformalar orqali
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridlar	115,2 trln so‘m	Shu jumladan monopol xaridlar
Monopol xaridlar ulushi	35 trln so‘m	Alohidanazorat talab etiladi
Ichki audit orqali aniqlangan moliyaviy kamchiliklar	195,3 mlrd so‘m	2025 yil
Oldi olingan samarasiz xarajatlar	169,4 mlrd so‘m	2025 yil
Profilaktik audit tadbirlari soni	389 ta	2025 yil

2-jadval. O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish ko‘rsatkichlari

Keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimini raqamlashtirish natijasida davlat xaridlari jarayonining shaffofligi sezilarli darajada oshgan. Xususan, davlat xaridlarining asosiy qismi elektron platformalar orqali amalga oshirilayotganligi moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ichki audit xizmatlari tomonidan 2025-yilda aniqlangan moliyaviy kamchiliklar hajmining sezilarli darajada ortganligi nazorat tizimining natijadorligi oshayotganligini ko‘rsatadi. Profilaktik audit tadbirlarining kengayishi esa davlat mablag‘laridan samarasiz foydalanish holatlarining oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining o‘rni alohida ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda Hisob palatasi faoliyatida

risk-tahlilga asoslangan audit tizimlari joriy etilib, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini baholashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kengaytirildi. 2024-yilda o‘tkazilgan audit tekshiruvlari natijasida budjet mablag‘laridan samarasiz foydalanish bilan bog‘liq bir qator holatlar aniqlanib, moliyaviy intizomni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Davlat moliyaviy nazoratida IT-audit texnologiyalarining joriy etilishi axborot tizimlarining ishonchliligini baholash, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash hamda moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Institute of Internal Auditors tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda ichki audit xizmatlarining 60 foizdan ortig‘i raqamli audit vositalaridan foydalanmoqda.

IT-audit bir nechta asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bular: axborot tizimlari auditini amalga oshirish, ma’lumotlar xavfsizligini baholash, ERP tizimlari smaradorligini tahlil qilish, riskga asoslangan audit mexanizmlarini joriy etish.

Bugungi kunda davlat moliyaviy nazoratida ERP tizimlaridan foydalanish audit jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini bermoqda. Xususan, davlat g‘aznachilik tizimida integratsiyalashgan moliyaviy boshqaruv axborot tizimlarini joriy etish natijasida byudjet mablag‘lari harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati yaratildi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining audit tizimiga joriy etilishi esa davlat moliyaviy nazoratining yangi bosqichini boshlab bermoqda. Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash, yashirin moliyaviy xavflarni aniqlash hamda noqonuniy operatsiyalarni prognozlash imkonini beradi.

OECD tashkilotining 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra, sun’iy intellektdan foydalanish davlat xarajatlari monitoringi samaradorligini o‘rtacha 25–30 foizga oshirgan.

O‘zbekistonda ham ichki audit tizimini takomillashtirish maqsadida sun’iy intellekt texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2024-yilda davlat boshqaruvi organlarida ma’lumotlarni avtomatik tahlil qiluvchi elektron monitoring tizimlarini joriy etish ishlari kengaytirildi.

Shu bilan birga, davlat moliyaviy nazoratida raqamlashtirish jarayonlarini amalga oshirishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, axborot tizimlarining o‘zaro integratsiyasi yetarli emas, IT-audit mutaxassislari yetsihmaydi, kiberxavfsizli bo‘yicha muammolar bor va sun’iy intellect texnologiyalarini joriy etish xarajatlari yuqori.

Mazkur muammolarni bartaraf etish davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosava amaliy tavsiyalar: Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlash, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, IT-audit va sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, IT-auditni keng joriy etish hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida, avvalo, davlat moliyaviy nazorati tizimida raqamli monitoring platformalarini keng joriy etish zarur. Bu orqali davlat byudjeti mablag'larining sarflanishini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratiladi hamda moliyaviy intizomni mustahkamlashga erishiladi. davlat tashkilotlarida ichki audit tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish lozim. Xususan, audit jarayonlarini avtomatlashtirish orqali inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirish va audit samaradorligini oshirish mumkin. sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida moliyaviy risklarni oldindan aniqlash tizimini joriy etish zarur. Bu esa korrupsion holatlarning oldini olish hamda davlat mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. davlat moliyaviy nazorati organlari xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, audit xodimlarini IT-audit va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslariga jalb qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ОПТИМИЗАЦИЯ НАЛОГОВЫХ ИЗДЕРЖЕК И ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА КАКФУНДАМЕНТ НАЛОГОВОЙ ДИСЦИПЛИНЫ

Атаджанова Дилафруз Одилбековна
Магистрант направления «Налог и налогообложения»
Ибрагимов Бобуршох Баходир угли
Доцент кафедры «Налог и налогообложения» ТГУЭ

1. Введение и актуальность

Налоговая система является фундаментом жизнеспособности любого государства: без стабильного притока фискальных поступлений невозможно выполнение социальных обязательств, развитие инфраструктуры и обеспечение национальной безопасности. Однако эффективность этой системы определяется не только усовершенствованием налогового администрирования, но и качеством взаимодействия между государством и обществом.

Центральным звеном в этом процессе выступает налоговая дисциплина налогоплательщиков. В современных условиях стратегической целью фискальной политики становится переход от модели «принудительного исполнения» к модели добровольного соблюдения налогового законодательства. На готовность бизнеса и граждан добровольно исполнять свои обязанности влияет множество факторов, однако ключевым среди них являются издержки на соблюдение налогового законодательства.

Налоговое законодательство является одной из наиболее часто подвергающихся изменениям и дополнениям отраслей права, что создает для

хозяйствующих субъектов серьезный барьер в виде «регуляторной нестабильности». В условиях, когда правила игры меняются стремительно, у предпринимателей зачастую не хватает ни временных, ни интеллектуальных ресурсов чтобы уследить за всеми правовыми нововведениями, что ведет к информационной асимметрии и непреднамеренным ошибкам в отчетности. Для малого и среднего бизнеса, где управленческие функции часто сосредоточены в руках одного человека, необходимость непрерывного мониторинга законодательных актов превращается в непредвиденные издержки, выраженный в виде дополнительных затрат на консалтинг, обучение персонала или риск получения штрафных санкций за неактуальные данные.

Кроме того, когда «цена соблюдения» превышает экономическую выгоду от ведения легальной деятельности, предприниматель неизбежно склоняется к уходу в «тень». Таким образом, чрезмерная сложность налогового администрирования превращается в фактор, провоцирующий налоговые правонарушения. Исследование баланса между регуляторным давлением и издержками на соблюдение законодательства критически важно для формирования здоровой деловой среды и повышения уровня добровольной уплаты налогов субъектами малого и среднего предпринимательства.

Актуальность данной темы обусловлена тем что затраты на привлечения дополнительных специалистов в виде налоговых консультантов и на содержание бухгалтерского штата часто становятся для предпринимателей более тяжелым бременем, чем сами налоговые ставки. Когда административные издержки на «бумажную работу» превышают разумные пределы, это неизбежно провоцирует уход экономики в «тень». Таким образом, исследование и минимизация этих издержек является критически важным условием для формирования здоровой деловой среды и обеспечения финансовой устойчивости государства в эпоху цифровой трансформации.

2. Экономические последствия издержек на соблюдение налогового законодательства: влияние на эффективность и конкурентоспособность бизнеса

Высокая стоимость «легального статуса» часто толкает бизнес в «тень». Устранение этого барьера делает выход на свет привлекательным, так как легальный статус начинает приносить бизнесу больше преимуществ, чем рисков. Данная тема неоднократно исследовалась зарубежными учеными. В частности, Клиффорд Фагариба, преподаватель Университета бизнеса и комплексных исследований развития (Южная Дакота), в одном из своих исследований причин уклонения от уплаты налогов выделил две группы факторов. К первой категории факторов, негативно влияющих на соблюдение налогового законодательства, он отнес две основные причины: низкую налоговую мораль (отсутствие желания

платить налоги) и высокие издержки на соблюдение налогового законодательства (комлпаенс-затраты).[179]



Фагбеми и Абогун (2015) утверждали, что уровень налоговой дисциплины может быть функцией уровня доверия к правительству, а также простоты соблюдения налогового законодательства. Чем выше уровень доверия, тем выше уровень соблюдения, и наоборот. Аналогичным образом, чем проще способы соблюдения налогового законодательства, тем выше уровень соблюдения, и наоборот.[180]

Наряду с уклонением добровольного соблюдения налоговых обязанностей, затраты на соблюдение налогового законодательства снижают общую прибыльность за счет увеличения административных расходов, отвлечения ресурсов от основной деятельности и потенциального создания проблем с денежным потоком. Эти затраты также могут привести к неэффективности, снижающей конкурентные преимущества, и могут непропорционально сильно затронуть малые предприятия с более ограниченными ресурсами.

Затраты на соблюдение налогового законодательства варьируются в зависимости от отрасли из-за различий в сложности и нормативных требованиях. Отрасли со сложными финансовыми операциями, такие как финансы и недвижимость, как правило, сталкиваются с более высокими затратами на соблюдение требований. И наоборот, секторы с простыми налоговыми режимами, такие как розничная торговля, могут нести меньшие затраты. Такие факторы, как размер бизнеса и международные операции, также влияют на эти различия.

Снижение затрат на соблюдение налогового законодательства для малых предприятий может повысить прибыльность, стимулировать предпринимательство и повысить конкурентоспособность за счет уменьшения административной нагрузки,

[179] Clifford James Fagariba , Journal of Business & Economic Management 4(2): 017-039, September 2016
[180] International Journal of Accounting and Taxation,Measuring Tax Compliance among Small and Medium Enterprises in Nigeria ,Fagbemi and Abogun (2015)

экономии времени и ресурсов. Это позволяет предприятиям перераспределять сэкономленные средства на инициативы по развитию и инновациям, что приводит к большему экономическому вкладу и созданию рабочих мест.

3. Выводы и рекомендации по развитию налогового ИТ-сектора на основе зарубежного опыта

Предприятия могут сократить расходы на соблюдение налогового законодательства за счет оптимизации процессов ведения учета, инвестиций в специализированное налоговое программное обеспечение, передачи сложных налоговых задач на аутсорсинг профессионалам и постоянного отслеживания действующих налоговых правил во избежание штрафов и неэффективности.

Опыт мировых технологических лидеров как Keystone Tax Solutions, Stripe Tax, TurboTax, H&R Block и TaxSlayer подтверждает, что цифровизация является одним из эффективных способов масштабирования бизнеса без увеличения налоговых рисков. Разработка надежного налогового программного обеспечения имеет решающее значение для создания решений, эффективно служащих как частным лицам, так и предприятиям.

Программное обеспечение для налогообложения бизнеса автоматизирует расчеты, упрощает сложные требования к соблюдению налогового законодательства и предоставляет полезную информацию о налоговых обязательствах. Создавая программное обеспечение, разработчики могут обеспечить высокую точность, повысить эффективность и минимизировать риски проверок или штрафов для пользователей.

Для того чтобы отечественные решения соответствовали уровню мировых лидеров, при проектировании платформ необходимо интегрировать следующие функциональные стандарты:

- *Интеллектуальная обработка данных*: Внедрять алгоритмы автоматизированной обработки и категоризации документов. Программное обеспечение должно имитировать удобный импорт данных, позволяя пользователю просто загрузить фото чека или PDF-выписку, после чего система самостоятельно распределит их по нужным налоговым статьям.
- *Переход к предиктивной аналитике*: Разработчикам следует сместить фокус с простой отчетности на рекомендации по оптимизации налогов в режиме реального времени. Система должна действовать как «цифровой консультант», подсказывая пользователю возможности для законного снижения налоговой нагрузки непосредственно в процессе совершения транзакций, а не в конце года.
- *Обеспечение непрерывности данных через облачные технологии*: Создание надежного облачного хранилища является обязательным требованием. Это гарантирует пользователям мгновенный доступ к историческим налоговым

данным за любой период, что критически важно для прохождения проверок и долгосрочного финансового планирования.

- *Создание единой финансовой экосистемы:* Приоритетной задачей является глубокая интеграция с бухгалтерскими системами и банковскими платформами. Создание бесперебойной связи между банковским счетом предпринимателя и налоговой платформой позволяет автоматизировать расчеты «в фоне», делая процесс налогообложения незаметным и естественным элементом бизнес-цикла.

ДАВЛАТ ОРГАНЛАРИ ВА ТАШКИЛОТЛАРИДАГИ ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИ ФАОЛИЯТИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Қурбонов Шодликбек Марксович

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Ўқув Маркази "Бухгалтерия ҳисоби ва ахборот технологиялари" кафедрас мудири, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни жадал ривожлантириш, шу жумладан, давлат бошқаруви ва давлат молиясини бошқариш соҳаларида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Давлат органлари ва ташкилотларида ички аудит фаолиятини рақамлаштириш фаолиятнинг самарали, тежамкор, тезкор ва шаффоф амалга оширилишини таъминлайди.

Бугунги кунда, Ўзбекистон Республикасидаги 18 та вазирликда, 8 та қўмитада, 16 та агентликда, 2 та давлат мақсадли жамғармасида, 14 та маҳаллий ижро этувчи ҳокимиятларда, 7 та республика даражасидаги бошқа ташкилотларда ички аудит хизмати ташкил этилган.

Ташкил этилган ички аудит хизматининг асосий мақсади давлат органлари ва ташкилотларида бюджет интизомини мустаҳкамлаш ва бюджет тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатларининг бузилиш ҳолатларини профилактика қилиш, бюджет харажатларининг самарадорлиги ва натижадорлигини баҳолаш ҳамда ички аудит фаолияти соҳасидаги ҳужжатлар ижросини таъминлаш ҳисобланади.

Хорижий мамлакатларда ички аудит фаолиятини рақамлаштириш ҳамда автоматлаштириш бўйича кенг кўламли ислоҳотлар ва лойиҳалар амалга оширилган. Бунда замонавий ахборот технологиялари, сунъий интеллект, маълумотлар таҳлили ва блокчейн каби рақамли ечимлардан фойдаланилиб, бюджет маблағларидан самарали ва мақсадли фойдаланишни таъминлаш, хавфларни бошқариш имкониятлари яратилган.

Рақамлаштиришда асосий эътибор ҳисобдорлик ва шаффофликни ошириш, коррупция омилларини камайтириш, фаолият самарадорлигини ошириш,

манфаатдор томонлар ўртасида тезкор ахборот алмашинувини йўлга қўйиш ва қарор қабул қилиш жараёнларини оптималлаштиришга қаратилган. Натижада самарали, тўлиқ, ишончли ва натижадор давлат ички назорати тизими юзага келган.

Жаҳон банки кўмагида ташкил этилган Давлат молиясини бошқариш бўйича халқаро ҳамкорлик дастури (PEMPAL) томонидан ички назорат ҳамда ички аудит фаолиятини бошқариш ва мувофиқлаштиришни рақамлаштириш мақсадида махсус дастурий мажмуа (pempal.codeman.am) ишлаб чиқилган бўлиб, бугунги кунга қадар Албания ва Қирғизистонда амалиётга жорий этилган.

Бу дастур орқали ички назорат тизими ва ички аудит фаолияти бўйича маълумотлар ягона марказлаштирилган тизимда жамланган ҳамда таҳлил ва мониторинг жараёнларини автоматлаштирилган. Бу эса, маълумотларни реал вақт режимида киритиш, ҳисоботларни тўлиқ, аниқ ва сифатли шакллантириш имконини берган.

Халқаро тажрибалардан келиб чиқиб, Ўзбекистонда замонавий ахборот тизимлари асосида ички аудит фаолиятини рақамлаштириш ва автоматлаштириш, жараёнларга сунъий интеллект, бизнес интеллект тизими, маълумотларни таҳлил қилиш ва бошқа технологияларни жорий этиш долзарб ҳисобланади.

Ўзбекистонда ички аудит фаолиятини рақамлаштириш фаолият жараёнларининг тезкорлиги ва самарадорлиги оширилишини, фаолиятга оид маълумотларнинг аниқлиги, ишончлилиги ва шаффофлиги ортиши, ҳисобдорлик ва жавобгарлик кучайишини таъминлайди. Бу эса, ўз навбатида, ички аудит фаолияти рақамлаштиришнинг ягона ахборот тизими асосида ташкил этилиши мониторинг ва таҳлил қилиш имкониятларини кенгайтиришга ҳамда интеграция ва тезкор маълумотлар алмашинувига хизмат қилади. Бунда реал вақт режимида мониторинг қилиш, ички назорат жараёни ва ички аудит хизмати фаолиятини ҳар томонлама таҳлил қилиш ҳамда тезкор маълумот алмашинуви имконияти яратилади.

Республикада ички аудит хизмати фаолиятини рақамлаштиришни самарали жорий этиш бўйича қуйидаги тизимли муаммолар мавжуд:

1) ички аудит фаолиятини амалга оширишда инсон омилининг юқорилиги сабабли фаолиятда аниқланган ҳолатлар юзасидан субъектив фикрларнинг устуворлиги, молиявий, вақт ва инсон ресурсларидан самарали фойдаланилмаётгани;

2) реал вақт режимида барча давлат органлари ва ташкилотлари бўйича ички аудит фаолиятининг ҳолати бўйича маълумотлар базасини шакллантиришни таъминлайдиган ягона ва яхлит марказлашган рақамли экотизимнинг мавжуд эмаслиги;

3) ички аудит фаолиятига доир маълумотларни шакллантиришнинг тўлиқлиги ва ишончлилигини рақамли назорат қилиш заруратининг мавжудлиги;

4) ички аудит фаолиятини тартибга солувчи қонунчилик ҳужжатларининг ижросини масофавий мониторинг қилиш имконияти чеклангани;

5) ички аудит фаолиятини автоматик баҳолаш имконияти яратилмагани;

6) маълумотларнинг рақамлашмагани сабабли соҳага сунъий интеллектни татбиқ этиш имконияти чеклангани;

7) ахборот тизимларидаги маълумотлардан фойдаланган ҳолда, автопрофилактика ва автокамерал тизимларни йўлга қўйиш орқали назоратни кучайтириш имкониятидан етарли фойдаланилмаётгани;

8) ички аудит фаолиятини амалга оширишга оид маълумотларнинг турли ахборот тизимларида шаклланиши ва уларнинг интеграцияси тўлиқ йўлга қўйилмагани;

9) ички аудит фаолияти натижалари бўйича ҳисоботларни марказлашган тарзда тезкор жамлаш ва қайта ишлаш имкониятининг мавжуд эмаслиги;

10) ички аудит фаолиятини рақамлаштиришга оид тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг қабул қилинмагани;

11) ички аудит хизмати ходимларининг ахборот тизимлари ва ахборот технологияларидан фойдаланиш бўйича етарли билим ва кўникмага эга эмаслиги сабабли рақамлаштириш ва замонавий сунъий интеллект технологияларидан фойдаланишга оид ўқитиш ва малака ошириш курсларини тизимли равишда ташкил этиш зарурати мавжуд.

Мазкур муаммоларнинг ечими сифатида, давлат органлари ва ташкилотларида ички аудит фаолиятини рақамлаштиришнинг “Давлат ички аудити” ахборот тизимини жорий этиш зарур. Бунда, ички аудит хизматлари фаолиятига рақамли технологияларни жорий этишда қуйидагилар назарда тутилиши лозим:

- ички аудит тадбирларини ўтказиш бўйича режаларни тузишда хавф таҳлилини ўтказишнинг рақамлаштирилган ва автоматлаштирилган техник имкониятларини яратиш;

- ахборот тизимида ички аудит тадбирлари ўтказиш жараёнини ташкил этиш ҳамда уларнинг натижаларини киритиш, жамлаш ва таҳлил қилиш;

- масофавий аудит ўтказишга марказлашган имкониятлар яратиш орқали унинг кўлами ва самарадорлигини ошириш;

- ахборот тизими ёрдамида ички аудит хизмати ходимларининг фаолият самарадорлиги кўрсаткичларини автоматлаштирилган ҳолда аниқлаш ва рейтингини шакллантириш;

- ички аудит хизматига оид ҳисоботларни автоматик шакллантириш, тасдиқлаш ва юбориш имкониятини яратиш;

- ички аудит хизматлари ходимларининг малакасини ошириш ва унинг натижаларини ахборот тизимида умумлаштириш;

- рақамли шаклдаги маълумотлар алмашинувига ўтиш, ҳисобдорлик бўйича ахборот тизими фойдаланувчилари ўртасида интеграция ва ўзаро ҳамкорлик қилиш орқали маълумотлар қамрови ва сифатини ошириш;

- ички аудит хизматига оид маълумотлар базасини шакллантириш, жамлаш ва янгилаб боришнинг рақамли усулларини яратиш;

- ички аудит хизматлари ходимлари томонидан ваколат доирасидан ташқаридаги хавфлар, саволлар, автопрофилактика ва автокамерал тизимларини татбиқ этиш бўйича таклифларни юбориш имконини яратиш;

- ички аудит хизматлари ходимларига фойдаланиш учун ваколат берилган дастурий мажмуаларга бир жойдан кириш ҳамда хавфсиз маълумотлар алмашиш имконини берувчи махсус модулни жорий этиш.

Бунинг натижасида, ички аудит жараёнлари, маълумотлар ва ҳисоботларнинг рақамлаштирилиши орқали фаолият самарадорлиги ва тезкорлиги ортади, меҳнат ва вақт ресурсларининг сарфи ҳамда маълумотларни шакллантиришдаги хатоликлар камаяди. Шунингдек, ички аудитнинг барча жараёнлари электрон қайд этилиши орқали рақамлашган маълумотлар базаси шаклланади, тизимдаги шаффофлик ва ходимларнинг масъулияти ортади ҳамда маълумотларнинг тўлиқлиги, аниқлиги, ишончлиги ва сифати таъминланади.

Бундан ташқари, ички аудит хизмати ходимларининг фаолияти самарадорлиги ва тузилмалар бўйича рейтинги автоматик шакллантирилади ҳамда жамоатчилик учун очиқланишига эришилади. Шу билан бирга, интеграция ва маълумотлар алмашинуви имкониятларининг яратилиши орқали масофадан туриб мониторинг ва таҳлил ўтказиш, турли манбалардан маълумотлар жамлаш ҳамда таққослаш осонлашади. Бу эса ўз навбатида, ички аудит хизмати фаолиятининг шаффофлилиги ва ишончлилигини таъминлайди ҳамда аудит жараёнларида инсон омили таъсири камайиши, рақамлаштириш ва автоматлаштириш орқали коррупция эҳтимолининг пасайишига ҳамда хатоларнинг камайишига олиб келади.

ИНТЕЛЛЕКТУАЛИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: РАЗВИТИЕ IT-АУДИТА И ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Байрамова Ширин Рихсивой кизи
преподаватель кафедры «Теория экономики» ТГЭУ

Аннотация: Статья посвящена исследованию процессов интеллектуализации государственного финансового контроля в условиях формирования цифровой экономики. Рассматриваются изменения, происходящие в системе финансового контроля и внутреннего аудита под влиянием цифровых

технологий. Особое внимание уделяется развитию IT-аудита как инструмента оценки надежности информационных систем и эффективности обработки финансовых данных. Анализируется потенциал применения технологий искусственного интеллекта при проведении контрольных и аналитических процедур, включая автоматизированный анализ финансовой информации, выявление аномальных операций и оценку финансовых рисков. Отмечается, что использование интеллектуальных цифровых решений способствует повышению прозрачности финансовых процессов, ускоряет обработку информации и расширяет возможности принятия управленческих решений. Сделан вывод о том, что интеграция технологий искусственного интеллекта и цифровых инструментов в систему государственного финансового контроля является важным направлением совершенствования механизмов управления публичными финансами.

Ключевые слова: государственный финансовый контроль, цифровая экономика, IT-аудит, искусственный интеллект, цифровизация, внутренний аудит, анализ данных, публичные финансы.

Abstract

The article examines the process of intellectualization of public financial control in the context of the emerging digital economy. Particular attention is given to the transformation of financial control and internal audit systems under the influence of digital technologies. The development of IT auditing as a tool for assessing the reliability of information systems and the effectiveness of financial data processing is considered. The study also analyzes the potential of artificial intelligence technologies in the implementation of control and analytical procedures, including automated analysis of financial information, identification of abnormal transactions, and assessment of financial risks. It is noted that the use of intelligent digital solutions improves the transparency of financial processes, accelerates information processing, and expands the possibilities for managerial decision-making. The study concludes that the integration of artificial intelligence and digital technologies into the system of public financial control represents an important direction for improving public finance management.

Keywords: public financial control, digital economy, IT audit, artificial intelligence, digitalization, internal audit, data analytics, public finance.

Annotatsiya

Mazkur maqola raqamli iqtisodiyot shakllanib borayotgan sharoitda davlat moliyaviy nazoratini intellektuallashtirish jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda raqamli texnologiyalar ta’sirida moliyaviy nazorat va ichki audit tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Axborot tizimlarining ishonchliligini baholash hamda moliyaviy ma’lumotlarni qayta ishlash samaradorligini aniqlash vositasi sifatida IT-auditning rivojlanish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, moliyaviy axborotni avtomatlashtirilgan tahlil qilish, noodatiy operatsiyalarni aniqlash va moliyaviy

xavflarni baholash jarayonlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Intellektual raqamli yechimlarning qo‘llanilishi moliyaviy jarayonlar shaffofligini oshirish, axborotni qayta ishlash tezligini ta’minlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni davlat moliyaviy nazorati tizimiga integratsiya qilish davlat moliyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: davlat moliyaviy nazorati, raqamli iqtisodiyot, IT-audit, sun’iy intellekt, raqamlashtirish, ichki audit, ma’lumotlar tahlili, davlat moliyasi.

Введение

Цифровая трансформация экономики оказывает существенное влияние на систему управления государственными финансами. Расширение применения информационно-коммуникационных технологий, развитие электронных платформ и автоматизация финансовых операций постепенно изменяют традиционные подходы к организации финансового контроля в государственном секторе. В современных условиях контрольная деятельность всё в большей степени опирается на цифровые инструменты, позволяющие оперативно обрабатывать большие объемы финансовой информации, осуществлять мониторинг бюджетных операций и выявлять потенциальные нарушения на ранних этапах.

В связи с этим особую значимость приобретает процесс интеллектуализации государственного финансового контроля. Речь идет о внедрении современных аналитических технологий, использовании цифровых систем обработки данных и применении алгоритмов искусственного интеллекта в контрольной практике. Использование подобных технологий существенно расширяет аналитические возможности контрольных органов, повышает точность выявления финансовых рисков и способствует формированию более эффективной системы предупреждения нарушений в сфере управления государственными ресурсами.

Важное место в процессе цифровизации финансового контроля занимает развитие IT-аудита. Данный вид аудита направлен на оценку функционирования информационных систем, применяемых в сфере управления государственными финансами, а также на анализ надежности обработки и хранения финансовой информации. Проведение IT-аудита позволяет выявить уязвимости цифровой инфраструктуры, оценить уровень защищенности информационных ресурсов и определить эффективность использования автоматизированных систем финансового учета и контроля.

Наряду с этим заметно возрастает значение технологий искусственного интеллекта, которые открывают новые возможности для автоматизации контрольных и аналитических процедур. Применение интеллектуальных алгоритмов позволяет анализировать большие массивы финансовых данных,

выявлять нетипичные операции, прогнозировать возможные финансовые риски и формировать более эффективные механизмы предупреждения нарушений. Использование таких технологий способствует повышению прозрачности финансовых процессов и совершенствованию механизмов управления публичными финансами.

Несмотря на активное внедрение цифровых решений в сферу государственного управления, многие аспекты применения современных технологий в системе финансового контроля и внутреннего аудита остаются недостаточно изученными. В этой связи особую актуальность приобретает исследование возможностей интеграции IT-аудита и технологий искусственного интеллекта в практику государственного финансового контроля, а также определение перспектив их дальнейшего развития в условиях цифровой экономики.

Целью данного исследования является изучение особенностей интеллектуализации государственного финансового контроля в условиях цифровой экономики, а также анализ возможностей использования IT-аудита и технологий искусственного интеллекта в системе внутреннего финансового контроля.

N.Juralov o‘zining ilmiy izlanishlari natijasida quyidagi xulosaga kelgan: “Aksiz solig‘ini hisoblashva tahlil qilishning nazariy asoslari ko‘p qirrali bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va xulq-atvorning kengroq o‘lchovlarini qamrab olish uchun oddiy moliyaviy mulohazalar doirasidan tashqariga chiqadi. Ushbu soliqlarning murakkabligi daromadlarni ishlab chiqarishni siyosat maqsadlariva bozor ta’siri bilan muvozanatlashtiradigan nozik yondashuvni talab qiladi” [10].

Yuqorida bildirilgan fikrlarning umumlashma tahlili “aksiz solig‘ining zarurligi” tushunchasi doirasida o‘ziga xos yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatdi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti hamda aksiz solig‘i ma’muriyatchiligi mavzusi juda kam o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. *Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, mantiqiylik va guruhlash usullaridan foydalanildi. 2020-2024-yillarda respublikamizda bilvosita soliqlar, shu jumladan aksiz solig‘i borasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilindi.*

Tahlil va natijalar muhokamasi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin 1992-yildan, respublikamizda aksiz solig‘i ilk bora joriy qilinganda beri, doimiy ravishda uni undirishning maqsadliligi, miqdori, tovarlarning importida, shu jumladan, MDH davlatlaridan, hamda soliqni hisoblash va undirish tartibi bo‘yicha bahsli munozaralar olib borilmoqda. Shu sababli, respublikamizda aksiz solig‘ini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini tadqiq etish hamda shu asnoda bahsli masalalar echimini ishlab chiqish bilvosita soliqqa tortish va soliq ma’murchiligining nazariy omillari hamda jahon tajribasini tadqiq etish va tahlil etish nuqtai nazaridan olib qaragandagina maqsadga muvofiqdir.

Aksiz solig‘i - bu iqtisodiyotga va jamiyat faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan muayyan tovarlar va xizmatlarni sotish yoki ishlab chiqarish uchun olinadigan soliq. Odatda, bu soliqlar ishlab chiqarish, sotish yoki import qilish vaqtida olinadi.

Aksiz solig‘i ko‘pincha tamaki, alkogol, benzin kabi mahsulotlarga haddan tashqari foydalanishning oldini olish va oldini olish yoki atrof-muhit ifloslanishini bartaraf etish uchun qo‘yiladi. Keyinchalik bu turdagi soliqlar davlat dasturlarini

moliyalashtirish, shuningdek, sog‘liqni saqlash, ta’lim va infratuzilma kabi muhim xizmatlarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Aksiz osti tovarlar uchun aksiz solig‘i stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 289^1, 289^2 , 289^3-moddalari[11] bilan tartibga solinadi (1, 2 va 3-jadvallar).

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1108-son qonuni[12] bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

1- jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2026-yil uchun tamaki mahsulotlariga nisbatan aksiz solig‘i stavkalari

T/p	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari		
		01.01.2026	01.02.2026	01.07.2026
1.	Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	340 000 so‘m/1000 dona		365 000 so‘m/1000 dona
2.	Sigara	20 000 so‘m/1 dona	21500 so‘m/1 dona	
3.	Chilim uchun tamaki*	600 000 so‘m/kg	642 000 so‘m/kg	
4.	Chekiladigan, o‘rama tamaki	600 000 so‘m/kg	642 000 so‘m/kg	
5.	Chaynaladigan, hidlanadigan va shimiladigan tamaki	382 000 so‘m/kg		
6.	Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki mavjud bo‘lgan o‘xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar	450 000 so‘m/kg	481 500 so‘m/kg	
7.	Nikotinli tamakisiz snyus	154 000 so‘m/kg		
8.	Tarkibida nikotin mavjud bo‘lgan suyuqlik (kartrijlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)**	2 000 so‘m/ml	2 140 so‘m/ml	

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tamaki mahsulotlari uchun 2026-yil 1-yanvar oyidan aksiz solig‘i summasi filtrli, filtrsiz sigaterlar, paproslar uchun 1000 donasiga 340 ming so‘m etib belgilangan bo‘lsa, 2026-yil 1-iyuldan boshlab ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 1000 donasi uchun 25 ming so‘mga ko‘tarilishi belgilangan. Tamaki mahsulotlarining sigara, chilim uchun tamaki, chekiladigan, o‘rama tamaki, chaynaladigan, hidlanadigan va shimiladigan tamaki va boshqa shu kabi turlari uchun aksiz solig‘i summasi 2026-yil uchun ikki bosqichli tartibda ko‘tarilishi belgilangan. Ularning birinchi bosqichi 2026-yil 1-yanvardan amalga oshirilsa, ikkinchi bosqichi esa 2026-yil 1-fevraldan amalga oshiriladi.

Bugungi kunda, mahalliy ishlab chiqarilgan 1 quti filtrli sigaretlarning chakana narxi o‘rtacha 16 500 so‘mni tashkil qilib, ushbu narx tarkibidagi 2026-yil yanvar oyidan aksiz solig‘i 6800 so‘mni, 2026-yil 1-iyuldan boshlab 7300 so‘mni tashkil qiladi. Bu esa Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalaridan 2 barobar kam ko‘rsatkich. Shuningdek, JST talabi bo‘yicha import qilinadigan va respublikada ishlab chiqariladigan tovarlar uchun aksiz solig‘i stavkalari bir xil bo‘lishi lozimligi belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 1-iyundagi 345-son qarori bilan tasdiqlangan “Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglament”ning 38-bandida, Alkogolsiz ichimliklar qadoqning butunligi yoki qadoqni berkitgan moslamaning sezilmas tarzda buzilishi ehtimolini istisno qiladigan tarzda qadoqlanishi kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ya’ni Alkogolsiz ichimliklar faqat qadoqlangan holda sotilishi shartligi, boshqacha holatda sotish ta’qiqlanganligi ko‘rsatilgan.

2- jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2026-yil uchun alkogol mahsulotlariga nisbatan aksiz solig‘i stavkalari				
	Alkogol mahsulotlari turlari	**Soliq stavkalari (1 litr uchun)**		
		01.01.2026	**01.02.2026**	**01.07.2026**
.	**Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti, shuningdek don distillyati**			
	import qilinganda	15 000 so‘m		
	ishlab chiqariladigan	15 000 so‘m		
.	**Etil spirtining boshlang‘ich fraksiyasi (bundan texnik spirtni olish uchun sarflangan etil spirtining boshlang‘ich fraksiyasi mustasno)**			
	import qilinganda	5 000 so‘m		
	ishlab chiqariladigan	5 000 so‘m		
.	**Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari (aksiz to‘lanadigan tovar tarkibidagi suvsiz etil spirtining 1 litri uchun, bundan 4 va 5-bandlar**			

	mustasno)			
	import qilinganda	76 000 so‘m	60 000 so‘m	48 000 so‘m
	ishlab chiqariladigan	44 000 so‘m	48 000 so‘m	48 000 so‘m
.	**Vino:**			
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo‘shilmagan holda)			
	import qilinganda	14 000 so‘m	12 000 so‘m	10 000 so‘m
	ishlab chiqariladigan	5 000 so‘m	7 000 so‘m	10 000 so‘m
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut			
	import qilinganda	20 000 so‘m	15 000 so‘m	12 000 so‘m
	ishlab chiqariladigan	6 000 so‘m	9 000 so‘m	12 000 so‘m
.	**Pivo**			
	import qilinganda	6 000 so‘m	5 000 so‘m	4 000 so‘m
	ishlab chiqariladigan	2 000 so‘m	3 000 so‘m	4 000 so‘m

Quyida taqdim etilgan 2-jadvalda alkogol mahsulotlari bo‘yicha aksiz soliq stavkalarining 2026-yil davomida bosqichma-bosqich o‘zgarishi aks etgan. Jumladan, oziq-ovqat xom ashyosidan olingan etil spirti import qilinganda ham, mahalliy ishlab chiqarilganda ham aksiz solig‘i stavkasi 15000 so‘m darajasida belgilangan. Bu holat davlat tomonidan ichki ishlab chiqaruvchilar va tashqi yetkazib beruvchilarga nisbatan neytral soliq munosabati bo‘layotganligini anglatadi. Etil spirtining boshlang‘ich fraktsiyasi import qilinayotgan va mahalliy ishlab chiqarish uchun aksiz stavka 5 000 so‘m etib belgilangan. Bu mahsulot turi asosan texnik maqsadlarda ishlatilishi sababli, unga nisbatan aksiz solig‘i yuki past darajada saqlangan.

Kuchli alkogol mahsulotlari (aroq, konyak va boshqalar) mahsulotlari bo‘yicha import mahsulotlariga nisbatan yuqori stavka qo‘llanilishi ichki ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarni himoya qilish siyosatiga mos keladi. 2026-yilning ikkinchi yarmiga kelib aksiz solig‘i stavkalari tenglashtirilishi bozorda raqobatni muvozanatlashtirish maqsadini ko‘rsatadi.

Tabiiy vinolarga nisbatan soliq yukining kamayishi kam alkogolli ichimliklarni rag‘batlantirish siyosati bilan bog‘liq. Mahalliy vinolar uchun stavkaning bosqichma-bosqich oshishi soliq bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Soliq stavkalarining bosqichma-bosqich o‘zgarishi – inflyatsiya, bozor moslashuvi va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda.

3- jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2026-yil uchun neft mahsulotlari va boshqa aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan aksiz solig‘i stavkalari

№	Tovarlar nomi	Soliq stavkalari	
		2026-yil 1-yanvar	2026-yil 1-aprel
1.	**Neft mahsulotlari:**		
	AI-80 va undan yuqori benzin	375 000 so‘m/tonna	402 000 so‘m/tonna
	AI-91 va undan yuqori benzin	335 000 so‘m/tonna	360 000 so‘m/tonna
	aviakerosin (sintetikdan tashqari)	300 000 so‘m/tonna	321 000 so‘m/tonna
	dizel yoqilg‘isi (sintetikdan tashqari)	360 000 so‘m/tonna	385 000 so‘m/tonna
	EKO dizel yoqilg‘isi (sintetikdan tashqari)	325 000 so‘m/tonna	348 000 so‘m/tonna
	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	510 000 so‘m/tonna	546 000 so‘m/tonna
2.	**Polietilen granulalar**	10%	
3.	**Tabiiy gaz**	12%	
4.	**Yakuniy iste’molchiga realizatsiya qilinadigan:**		
	AI-80 va undan yuqori benzin		
	1 litr uchun	525 so‘m	562 so‘m
	1 tonna uchun	700 000 so‘m	750 000 so‘m
	AI-91 va undan yuqori benzin		
	1 litr uchun	470 so‘m	505 so‘m
	1 tonna uchun	621 000 so‘m	665 000 so‘m
	dizel yoqilg‘isi		
	1 litr uchun	525 so‘m	562 so‘m
	1 tonna uchun	635 000 so‘m	680 000 so‘m
	suyultirilgan gaz		
	1 litr uchun	525 so‘m	562 so‘m
	1 tonna uchun	1 000 000 so‘m	1 070 000 so‘m
	siqilgan gaz		
	1 kub metr uchun	750 so‘m	805 so‘m

3-Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamizda 2026-yil uchun neft mahsulotlari nisbatan aksiz solig‘i stavkalari barcha neft mahsulotlari bo‘yicha soliq stavkalari o‘rtacha 7 % atrofida oshirilgan. Bu esa o‘z navbatida inflyatsiyani hisobga olgan holda byudjet tushumlarini barqarorlashtirish va energiya resurslaridan tejamkor foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilganligini sezish mumkin. Tabiiy gazga nisbatan

aksiz solig‘i stavkasi yuqoriroq (12 %) stavkada qo‘llanilishi energiya resurslarini samarali ishlatish siyosatini ko‘rsatadi.

4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, AI-80 va undan yuqori markadagi benzinga nisbatan qo‘llanilayotgan aksiz solig‘i stavkasi qolgan AI-91 va undan yuqori benzin markalariga qaraganda 40 ming so‘mdan 42 ming so‘mgacha tonnasiga yuqoriligini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sababi sifatida ushbu yoqilg‘i turini yoqilg‘i bozoridan chiqarib yuborish siyosati yotganligi bilan izohlanadi. Chunki ushbu yoqilg‘i turi o‘zining atrof muhitga etkazadigan zarar miqdori boshqalariga nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi.

4- jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2026-yil uchun neft mahsulotlari nisbatan aksiz solig‘i stavkalari miqdorining o‘zgarishi holati

tonna hisobida

Mahsulot	2026-yil 1-yanvar (so‘m)	2026-yil 1-aprel (so‘m)	O‘sish (so‘m)	O‘sish (%)
AI-80 va undan yuqori benzin	375 000	402 000	27 000	7,20%
AI-91 va undan yuqori benzin	335 000	360 000	25 000	7,50%
Avia kerosin	300 000	321 000	21 000	7,00%
Dizel yoqilg‘isi	360 000	385 000	25 000	6,90%
EKO dizel	325 000	348 000	23 000	7,10%
Motor moyi	510 000	546 000	36 000	7,10%

2026-yil aprelidan soliq stavkalari bir xil proportsiyada oshirilishi, bu soliq siyosatining tizimli ekanini ko‘rsatadi. Bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshirish va energiya resurslarini tejash maqsadlari ko‘zlangan. Aksiz solig‘i O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalangan byudjeti uchun muhim daromad manbai bo‘lib, u iqtisodiyotga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

5- jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2021-2024-yillarda Davlat byudjeti tushumlarida bilvosita soliqlar [184].

mlrd.so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Daromadlar (maqsadli jamg‘armalarsiz) - jami		**132 938,1**	**164 799,4**	**201 863,7**	**231 721,4**	**274 424,0**
1.	**Bilvosita soliqlar**	**46 428,40**	**56 290,40**	**71 390,10**	**83 325,80**	**88 341,00**
1.1.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	31 177,40	38 439,00	52 189,40	57 885,30	59 280,00
1.2.	Aksiz solig‘i	11 697,30	13 086,50	13 455,00	15 834,40	19 060,00
1.3.	Bojxona boji	3 553,70	4 764,90	5 745,70	9 606,10	10 001,00
2.	**Jami tushumlarda aksiz solig‘i ulushi**	**8,80%**	**7,94%**	**6,67%**	**6,83%**	**6,95%**
3.	**Bilvosita soliqlar tushumi-da aksiz solig‘i ulushi**	**25,19%**	**23,25%**	**18,85%**	**19,00%**	**21,58%**

O‘zbekiston Respublikasida 2021-2024-yillarda Davlat byudjeti tushumlarida bilvosita soliqlar tarkibi keltirilgan 5-jadvalda keltildi.

Tahlil qilinayotgan davrda soliq tushumlari yildan yilga oshganini ko‘rishimiz mumkin. 2018-yilda bu ko‘rsatkich 79 099,0 mlrd. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda esa 201 863,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Ushbu davrda bilvosita soliqlari bo‘yicha ham tushumlar oshishish tendentsiyasi ega bo‘lgan. Bilvosita soliqlar 2018-yilda 41 280,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021-yilda 56 290,5 va 2022-yilda 71 390,2 mlrd. so‘m bo‘lgan.

Ushbu davrda aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlarni absolyut miqdori oshgan. Bu ko‘rsatkich 2018-yilda 9 702,2 mlrd. so‘m bo‘lib, 2022-yilda 13 455,0 mrld. so‘mni tashkil etgan. Biroq, aktsis solig‘ining davlat byudjetiga tushumidagi ulushi kamayish tendentsiyasiga ega bo‘lib, 2018-yilda 12,27 foizni, 2021-yilda 7,95 va 2022-yilda 6,67 foiz bo‘lgan. Aksiz solig‘ining bilvosita soliqlar tushumidagi ulushi ham pasaygan: 2018-yilda 23,50 foiz, 2021-yilda 23,25 foiz va 2022-yilda 18,85 foizni tashkil etgan.

Daromadlar (maqsadli jamg‘armalarsiz) - jami 2020-2024-yillarda izchil o‘sish tendentsiyasini namoyon qilgan, 2020-yilda 132 938,1 mlrd. so‘mdan 2024-yilda 274 424,0 mlrd. so‘mga yoki o‘tgan 5 yilda daromadlar hajmi qariyb 2,06 barobarga oshgan

[184]Жадвал Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва Молия вазирлиги очиқ маълумотлари асосида тузилди. Даромадлар 2015-2022 йил ижроси. https://openbudget.uz/incomesView/.25.04.2023.

(≈ 106% o‘sish). Bu holat iqtisodiy faollikning kengayishi, soliq bazasining mustahkamlanishi va ma’muriy islohotlar samarasi bilan izohlanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i byudjet daromadlarida asosiy manbalardan biri sifatida barqaror o‘sgan. 2020-yilga nisbatan 2024-yilda 28 102,6 mlrd. so‘mga o‘sgan yoki 59 280,0 mlrd. so‘mni (o‘sish +90%) tashkil etgan.

QQS tushumlarining yuqori sur’atda o‘sishiga ta’sir etgan asosiy omil sifatida iste’mol bozorining kengayishi, aylanmalarning legallashuvi va soliq ma’murchiligining raqamlashuvidir. Aksiz solig‘i ulushi yillar kesimida o‘zgaruvchan bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin. 2020-yilda 25,19% bo‘lgan holda 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 21,58%ga etgan.

2022-yilda keskin pasayish aksiz siyosati liberallashuvi yoki ayrim tovarlarga stavkalarning kamaytirilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2024-yilda ulushning qayta oshishi fiskal ahamiyatning tiklanayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkinki, aksiz solig‘i - bu hukumat tomonidan ma’lum tovarlar (alkogol, tamaki, yoqilg‘i, avtomobillar va insonlarning boshqa ikkilamchi ehtiyojlari) sotishdan olinadigan bilvosita soliq ekan.

Aksiz solig‘i odatda bir birlik uchun soliq bo‘lib, sotib olingan tovarning hajmi yoki birligi uchun ma’lum miqdorni belgilaydi, aksiz solig‘i odatda tor doiradagi tovarlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Soliq stavkalarining bosqichma-bosqich o‘zgarishi - inflyatsiya, bozor moslashuvi va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Aksiz solig‘i ulushi tartibga soluvchi va fiskal funktsiyalar o‘rtasida muvozanat izlanayotganini anglatadi.

2026-yil aprelidan soliq stavkalari bir xil proportsiyada oshirilishi, bu soliq siyosatining tizimli ekanini ko‘rsatadi. Bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshirish va energiya resurslarini tejash maqsadlari ko‘zlangan.

DAVLAT AUDITIDA NAZORAT-XAVF TAHLILINI TASHKIL QILISHDA RISKLARNI BAHOLASH

Mirzaakbarov Abdulaziz Asqarjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Davlat auditida nazorat-xavf tahlilini tashkil qilishda risklarni baholash budjet, moliyaviy va buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining sifatini baholashga hamda

tashkilotlarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga qay darajada erishganligini baholashga qaratilayotgan bo‘lsa, auditning tashqi funksiyasini Oliy nazorat organlari, Hisob palatasi bajaradi. Ularning vazifasi moliyaviy boshqaruvning samaradorligi va to’g’ri tashkil etilganligini, qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini, davlat resurslaridan umumiy foydalanishni baholashdan iborat. Ichki auditorlar va Oliy nazorat organlari turli rol va mas’uliyatlarga ega bo‘lsalar-da, ular davlat resurslaridan foydalanishda samarali boshqaruv, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash uchun birgalikda ishlaydi.

Davlat auditi ichki nazoratni baholash va moliyaviy ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash orqali birinchi himoya chizig'ini ta'minlaydi. Boshqa tomondan, Oliy nazorat organlari ichki audit funktsiyasining samaradorligini baholash vakolatiga ega bo'lib, davlat organlarida ichki audit sifati va ta'siriga tashqi xulosani taqdim etadi. Davlat mablag'laridan to’g’ri foydalanish va jamoatchilik ishonchini saqlash uchun ichki nazorat, risklarni boshqarish va auditni o'z ichiga olgan mustahkam nazorat tizimini to’g’ri tashkillashtirish juda muhimdir.

Umuman olganda, davlat auditida nazorat-xavf tahlilini tashkil qilishda risklarni baholash uni chuqur o’rganish va audit samarasizligining sabablarini ko’rib chiqish lozim. Tadqiqodchilarning ta’kidlashiga ko’ra bunga quyidagilar sabab bo’lar ekan:

- samarasiz boshqaruv nazorati;
- ayrim tashkilotlar tomonidan maqsadlarning aniq belgilanmaganligi;
- yuqori boshqaruv tomonidan etarli darajada qo'llab-quvvatlanmasligi.

Shu sababli, davlat sektori boshqaruvida samarasiz tashkil etilgan ichki audit quyidagi oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

- firibgarlikning paydo bo'lishi;
- ichki siyosat va tartiblarga mos kelmaslik;
- muvaffaqiyatli faoliyatga to’sqinlik qiluvchi samarasiz moliyaviy qaror.

Shunday qilib, samarali auditlar moliyaviy va operatsion ma'lumotlar, tizimlar va protseduralarni takomillashtirish bo'yicha yaxshi tavsiyalar berish uchun mustaqil baholashni amalga oshiradi.Shuning uchun ichki tashkilotni to'g'ri tashkil etish ham ichki audit samaradorligiga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Xafv omillarini keltirib chiqaradigan muammolarni aniqlash va ularni o‘z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqish. Rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarning ishonchliligi, ularning asosliligi, daromad potensialini ro‘yobga chiqarish darajasi va budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradigan budjet jarayonining xavf ko‘rsatkichlari aniqlandi. Ekspert baholash jarayonida eng yuqori reytingni olgan xatarlarni tahlil qilish asosida ularni minimallashtirish dasturini ishlab chiqish mumkin.

Shu jumladan budjet jarayonini samarasiz tashkil etish xavfini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar, rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarning buzilishi, budjet daromadlarining bajarilmasligi, budjet xarajatlarining tasdiqlangan smeta xarajatidan oshib ketishi, buxgalteriya ma’lumotlarini qo‘pol tarzda buzish, hisobot va boshqa xatarlarni minimallashtirish mumkin. Xatarlarni boshqarish jarayonini tashkil etish, budjet jarayonining barcha xatarlarini aniqlash va baholash, shuningdek tahlil qilish uchun yetarli va yetarli axborot bazasini shakllantirish muammolarini hal qilish, Respublika sub’ektlarida budjet jarayonining xatarlari darajasini sezilarli darajada kamaytiradi degan xulosaga kelishdi. Mahalliy darajada budjet jarayonini tashkil etishga tavakkalchilikka asoslangan yondashuvni joriy etishning yakuniy maqsadi mintaqaviy budjetlarning barqarorligi va uzoq muddatli barqarorligiga erishish kerak.

Raqamlashtirishni jadallashtirish maqsadida Hisob palatasining Masofaviy nazorat markazi faoliyati, moliyaviy nazorat tadbirlarini nazorat qilishga qaratilgan “Davlat auditi” axborot tizimi yanada takomillashtirildi. Moliyaviy nazorat va ichki audit tadbirlari nazorat ishlarining yillik dasturlari (rejalari) va Hisob palatasi tomonidan taqdim etilgan risktahlillar asosida o‘tkazilishi belgilandi.

Bunda risk-tahlillar asosida bir oy muddatda nazorat ishlarini o‘tkazish to‘g‘risida tegishli choralar ishlab chiqilmaganda yoki o‘rganish natijalari “Davlat auditi” axborot tizimi orqali Hisob palatasiga taqdim etilmagan yoxud o‘rganish sababsiz rad etilgan hollarda, Hisob palatasining taklifiga binoan davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari mas’ul shaxslariga nisbatan intizomiy ta’sir choralari qo‘llanilishi belgilandi hamda xavf (risk) tahlillarini boshqarish sxemasi tasdiqlandi

HUDUDLAR DAROMAD SALOHIYATINI OSHIRISHDA FISKAL SHAFFOFLIK VA HISOBDORLIK MEXANIZMLARINING O‘RNI

Qobulov Xotamjon Abdukarimovich
TDIU, “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi mudiri,
i.f.d., professor

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish, hududlarning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son[185] va 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib

[185] Manba: https://lex.uz/ru/docs/-5841063

chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son[186] farmonlarida hududlarning daromad bazasini mustahkamlash, mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda fiskal boshqaruv samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish hududlar daromad salohiyatini to‘liq safarbar etish bilan chambarchas bog‘liq. Bunda esa fiskal shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini rivojlantirish muhim institutsional omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Hudud daromad salohiyati iqtisodiy munosabatlar tizimida hududda shakllanishi mumkin bo‘lgan maksimal byudjet daromadlari hajmini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarish nafaqat iqtisodiy omillarga, balki institutsional muhitga, xususan fiskal shaffoflik va hisobdorlik darajasiga ham bog‘liq.

Fiskal shaffoflik davlat moliyasining shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi jarayonlarining ochiqligi, aniqligi va jamoatchilik uchun tushunarli bo‘lishini anglatadi. Hisobdorlik esa davlat organlarining moliyaviy faoliyati natijalari uchun javobgarlik darajasini ifodalaydi. Ushbu ikki institut hududiy darajada moliyaviy boshqaruv samaradorligini ta’minlashda o‘zaro integratsiyalashgan mexanizm sifatida amal qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fiskal shaffoflik darajasi past bo‘lgan hududlarda daromad manbalari yetarli darajada aniqlanmaydi va safarbar etilmaydi. Natijada mavjud soliq bazasi to‘liq qamrab olinmaydi, yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori bo‘lib qoladi va byudjet tushumlari kamayadi. Aksincha, fiskal ochiqlikni ta’minlash orqali daromadlarni aniqlash, hisobga olish va undirish jarayonlari sezilarli darajada yaxshilanadi.

Xususan, mol-mulk solig‘i bazasini shakllantirishda mavjud muammolar fiskal shaffoflikning yetarli emasligi bilan bog‘liq. Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayrim hududlarda ko‘chmas mulk obyektlarining kadastr qiymatlari ularning bozor qiymatlariga nisbatan bir necha baravar past baholangan. Jumladan, tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lgan hududda ko‘chmas mulk obyektlarining sezilarli qismida kadastr qiymatini 2–8 baravar oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlangan bo‘lib, bu mahalliy byudjet daromadlarini sezilarli darajada ko‘paytirish imkonini beradi.

Shuningdek, soliq ma’murchiligida shaffoflikni oshirish daromadlarni yashirish holatlarini kamaytirishning muhim omili hisoblanadi. Ma’lumotlar integratsiyasi, elektron hisob tizimlari va riskga asoslangan nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali soliq intizomini mustahkamlash va byudjet tushumlarini oshirish mumkin.

Hududlar daromad salohiyatini oshirishda hisobdorlik mexanizmlarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Natijadorlikka asoslangan byudjetlashtirish tizimini joriy etish, hududlar kesimida indikatorlar tizimini ishlab chiqish va jamoatchilik

[186] Manba: https://lex.uz/uz/docs/-8050769

nazoratini kuchaytirish orqali byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Bundan tashqari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra toifalarga ajratish sharoitida fiskal hisobdorlikni differensial yondashuv asosida tashkil etish zarur. Bu esa har bir hududning mavjud salohiyatidan kelib chiqib, individual fiskal siyosat yuritish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki[187], hududlar daromad salohiyatini to‘liq safarbar etish va undan samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy omillar, balki fiskal boshqaruvning institutsional sifati, xususan shaffoflik va hisobdorlik darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Fiskal shaffoflikning past darajasi daromad manbalarining to‘liq aniqlanmasligi, soliq bazasining torayishi va yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligiga olib kelayotgan bo‘lsa, aksincha, ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlash daromadlarni aniqlash, baholash va safarbar etish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, hududiy darajada mol-mulk obyektlarini baholash tizimidagi nomuvofiqliklar fiskal shaffoflikning yetarli emasligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kadastr va bozor qiymatlari o‘rtasidagi sezilarli tafovutlar mahalliy byudjet daromadlarining yetarli shakllanmasligiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu tafovutlarni bartaraf etish orqali mol-mulk solig‘i bazasini kengaytirish va qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirish imkoniyati mavjud. Xuddi shuningdek, soliq ma’murchiligida ma’lumotlar integratsiyasi va ochiqlikni ta’minlash orqali daromadlarni yashirish holatlarini qisqartirish hamda fiskal intizomni mustahkamlash mumkinligi asoslab berildi.

Bundan tashqari, hududlar kesimida fiskal hisobdorlikni kuchaytirish natijadorlikka asoslangan byudjetlashtirish mexanizmlarini joriy etishni talab etadi. Bu esa byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish, resurslarning maqsadli taqsimlanishini ta’minlash va yakuniy natijalarga erishish darajasini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, jamoatchilik nazoratini kengaytirish va fiskal ma’lumotlarning ochiqligini oshirish orqali davlat moliyasiga nisbatan ishonchni mustahkamlash mumkin.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar hududlar daromad salohiyatini oshirishning kompleks mexanizmini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ular quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: fiskal ma’lumotlar ochiqligini tizimli ravishda kengaytirish; mol-mulk obyektlarini real bozor qiymatlariga yaqinlashtirilgan holda baholash mexanizmlarini joriy etish; soliq ma’murchiligida raqamli texnologiyalar va riskga asoslangan nazorat tizimlarini keng qo‘llash; hududlar kesimida fiskal hisobdorlik indikatorlari tizimini takomillashtirish; hamda natijadorlikka asoslangan byudjetlashtirishni amaliyotga izchil joriy etish.

[187] Qobulov X.A. Hudud daromad salohiyatini shakllantirish metodologiyasi va rivojlantirish strategiyasi // Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T., 2026, 257 b.

Umuman olganda, fiskal shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash hududlar daromad salohiyatini oshirishning muhim institutsional omili sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yo‘nalishda taklif etilgan choralarni izchil amalga oshirish orqali mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash, hududlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish va ularning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash mumkin.

КОМПАНИЯ КОРПОРАТИВ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТИНИ АУДИТИ ФАОЛИЯТИНИНГ МУҲИМ ТАРКИБИЙ ҚИСМИ СИФАТИДА

Маматов Хабибулла Маматович
ТДИУ “Аудит” кафедраси катта ўқитувчиси

Кириш. Корхонанинг танқидий бозор шароитида рақобатлашиши учун иқтисодий таҳлилнинг ўзига хос турини – ҳисоботнинг аудитини ўтказиш керак. Ушбу тур сизга корхонанинг молиявий ҳолати ва самарадорлигини тўлиқ баҳолаш, асосий камчиликларни аниқлаш ва корхонанинг аҳволини яхшилаш бўйича оқилона таклифларни таклиф қилиш имконини беради.

Асосий қисми. Молиявий ҳисоботларнинг аудити-бу мунтазам баланс ва молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот етарли бўлган молиявий таҳлил. Дастлабки маълумотларнинг аниқ чекловларига қарамай, улардан баланс тузилиши, компаниянинг молиявий барқарорлиги ва тўлов қобилияти, мавжуд маблағларнинг мавжудлиги ёки йўқлиги, пул оқимларини бошқариш сиёсати ва шу билан кредитга лаёқатлилиги ва инвестиция циклининг босқичи тўғрисида хулосалар чиқариш мумкин.

Корпоратив ҳисобот-бу ташкилотнинг маълум бир вақтдаги молиявий-иқтисодий ҳолати, шунингдек келажак учун барча маълумотларни тўплайдиган ва очиб берадиган, манфаатдор томонлар билан мулоқот қилиш ва уларнинг ишончини мустаҳкамлашга имкон берадиган кенг қамровли синтезланган ҳисобот. Ушбу турдаги ҳисобот яқинда мамлакатимизда пайдо бўлганлиги сабабли, мамлакат корпорациялари хорижий амалиётдан фойдаланадилар. Корпоратив ҳисоботнинг 2 тури мавжуд: молиявий ва молиявий бўлмаган. Молиявий ҳисоботлар корпоратив ҳисоботнинг бир қисмидир ва улар инвесторлар ва акциядорлар учун компания фаолияти тўғрисида тўлиқ маълумотни кўришлари учун зарурдир. Молиявий бўлмаган ҳисобот-бу корхонани муваффақиятли бошқариш тўғрисида маълумот бериш.

Корпоратив молиявий ҳисобот мустақил ҳодиса сифатида МҲХС стандартларига босқичма-босқич ўтиш ва уларни иқтисодиётнинг турли соҳаларида у ёки бу шаклда амалга ошириш билан ривожланади. Ҳозирги вақтда корпоратив молиявий ҳисоботларнинг аудити корхонанинг ички молиявий оқимларини бошқаришнинг асосий усули бўлиб, молиявий ҳисоботларни таҳлил

қилишда тижорат фаолияти натижасида юзага келадиган асосий муаммоларни аниқлашга имкон беради. Ушбу таҳлилнинг асосий мақсади ишлашнинг асосий кўрсаткичларининг қийматларини аниқлаш, уларни шарҳлаш ва уларнинг ўзгариш динамикасини кузатишдир.

Расмий равишда, молиявий ҳисоботлар бухгалтерия ҳисоботларидан сезиларли даражада фарқ қилмайди. Ҳисобот шакллари таркибидаги асосий фарқлар 1-жадвалда келтирилган.

Жадвал-1.

МҲХС ва амалдаги қонунчиликга мувофиқ корпоратив молиявий аудити маълумот манбалари.

Россия қонунчилиги	МҲХС
Бухгалтерия баланси	Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот
Молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисобот	Жамланган ҳисоботлар даромади(Фойда ва зарарлар тўғрисида ҳисобот), бошқа ҳисоботлардаги жами даромадлар
Капитал ўзгариши тўғрисида ҳисобот (Хусусий капитал тўғрисида ҳисобот)	Капитал оқими тўғрисидаги ҳисобот
Пул оқими тўғрисидаги ҳисобот	Пул оқими тўғрисидаги ҳисобот
Бухгалтерия баланси ва Молиявий натижалар (фойда ва зарарлар) тўғрисидаги ҳисоботларга, Илова тушунтириш хати	Ҳисоб сиёсати ва Илова тушунтириш хати
Агар молиявий ҳисоботлар мажбурий аудитдан ўтказилса, бухгалтерия ҳисоботларининг ишончлилигини тасдиқловчи аудиторлик хулосаси	

Учта асосий босқични ўз ичига олган тезкор аудит ташҳиси тузилиши мавжуд (2-жадвал).

Жадвал-2.

Корпоратив молиявий ҳисоботларнинг экспресс аудит ташҳис таркиби

Босқич номи	Босқич моҳияти ва мазмуни
Молиявий ҳисобот тўғрилиги ва тўлиқлиги	Биринчи босқичнинг моҳияти текширишдир, ташкилотнинг корпоратив молиявий ҳисобот кўрсаткичлари тўғри ва тўлиқлиги, моҳияти ва сифати, молиявий ва бошқарувда тўғри қарорлар қабул қилишга кўрсатадиган таъсири.
Молиявий ҳисоботга	Иккинчи босқичда молиявий ҳисоботга илова қилинган тушунтириш хатларини батафсил ўрганиш,

иловаларни ўқиб ўрганиб таҳлил қилиш	молиявий ҳисоботга илова тушунтириш хати компания фаолияти ҳақидаги маълумотни тўлиқ очиб бериш учун амалга оширилади.
Экспресс таҳлил аудит ташҳис асоси	Учинчи босқичда аудит ўтказишда аналитик коэффициентлар динамикани ҳисоблаш ва баҳолаш билан тавсифланади. Ушбу коэффициентлар компаниянинг корхоналари молиявий ҳолатни кўрсатиш учун зарурдир.

Корпоратив молиявий ҳисоботларни тезкор аудит ташҳиси қилиш учун турли хил усуллар қўлланилади, аммо корпоратив молиявий ҳисоботларни вертикал ва горизонтал таҳлил қилиш афзалроқдир. Горизонтал таҳлил жорий даврдаги молиявий ҳисобот маълумотларини олдинги давр билан таққослайди. Ушбу усул мутлақ ва нисбий оғишишларни ҳисоблаш билан ҳисобот кўрсаткичлари билан тўлдирилган аналитик жадвалларни тузишдан иборат. Ва вертикал таҳлил охирида ҳар бир кўрсаткичнинг ўзига хос вазнини баҳолашга, шунингдек таҳлил қилинадиган маблағларнинг тузилишини ва уларнинг қўшимча манбаларини аниқлашга ва уларда содир бўлган ўзгаришларни баҳолашга имкон беради.

Корхонанинг молиявий операциялари таҳлил натижалари тўғрисида хулоса чиқариш зарур бўлган босқич ҳам бир хил даражада муҳимдир, у ўз олдига қўйилган мақсадни ҳисобга олган ҳолда таҳлилни умумлаштиради ва унда батафсилроқ таҳлил мавжуд деган хулосага келади. Шунга қарамай, корхонанинг қисқа муддатли мақсадлари иқтисодий ривожланиш талабларига қараб сезиларли даражада тузатилиши мумкин, яъни молиявий хизматлар ходимлари томонидан аниқ баҳолаши ва кейинги тузатиш ҳаракатларини олиш учун тезкор таҳлил янги таркиб билан тўлдирилиши керак.

Иқтисодий инқироз шароитида корпоратив молиявий ҳисоботларни тезкор аудит ташҳисини қилишда иқтисодий ривожланишнинг ўзига хос хусусиятларига аҳамият бериш ва тезкор хулосалар чиқармаслик керак. Шуни таъкидлаш керакки, бир неча ҳисобот давридаги йўқотишлар ёки муддати ўтган кредиторлик қарзлари корхонанинг ноқулай бизнес ривожланишидан далолат беради. Бироқ, жорий ҳисобот даврида муддати ўтган дебиторлик қарзлари контрагентлар билан кичик қийинчиликларни кўрсатиши ва маълум даражада компания фаолиятига сезиларли салбий таъсир кўрсатмаслиги мумкин. Унинг узоқ вақт давомида мавжудлиги компания учун йўқотилган имтиёзларни англатади, шунингдек қарзларнинг кўпайиши молиявий аҳволнинг ёмонлашишига ва кредиторлар билан боғлиқ муаммоларга олиб келиши мумкин. Шу билан бирга, корпоратив молиявий ҳисоботлар корхонанинг фақат маълум бир санадаги ҳолатидир. Шундай қилиб, тўлаш қобилияти келгуси даврда ўзгариши мумкин.

Хулоса. Шундай қилиб, корпоратив молиявий ҳисоботларнинг тавсифланган экспресс аудит ташҳисси компаниянинг фаолияти ва молиявий барқарорлигини тўлиқ ва тўлиқ таҳлил қилишга имкон беради, бу унинг молиявий ҳолати ва келажакдаги ривожланиш тенденцияларини аниқлашда муҳим рол ўйнайди. Молиявий менежмент фақат корхонада содир бўлаётган барча жараёнлар тўғрисида ишончли маълумотлар мавжуд бўлганда самарали деб,- ҳисобланиши мумкин, бу манба корхонанинг маълум вақт учун ҳисоботи ҳисобланади. Айнан корпоратив молиявий ҳисоботларни малакали ва ўз вақтида аудит ташхислаш хўжалик юритувчи субъект фаолиятидаги салбий оқибатларнинг олдини олишга ёрдам беради, шунингдек уни ривожлантириш учун янада оқилона ва самарали стратегияни танлайди.

DAVLAT SEKTORIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIK VA HISOBDORLIKNI TA’MINLASH HAMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ilxomjonova Mubinaxon Baxtiyorjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo‘llari chuqur tahlil qilinadi. Raqamlashtirish, mustaqil audit tizimi va institutsional islohotlarning roli yoritiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish orqali davlat mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlash, korrupsiyaviy xavflarni keskin kamaytirish va jamiyatda davlat boshqaruviga nisbatan ishonchni oshirish mumkin.

Kalit so‘zlar: moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik, davlat sektori, korrupsiya, audit, raqamlashtirish, ochiq byudjet, institutsional islohotlar.

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat sektorining samarali faoliyati ko‘p jihatdan moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik darajasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Moliyaviy ma’lumotlarning ochiqligi yetarli bo‘lmaganda korrupsiya holatlari ko‘payib, bu esa iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi, investitsiya muhitini yomonlashtiradi va fuqarolar o‘rtasida davlat institutlariga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytiradi. Shu bois, davlat boshqaruvida ochiqlikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlarni joriy etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining faoliyati, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va ochiq byudjet tizimini rivojlantirish muhim qadamlar sifatida e’tirof etilmoqda.

Moliyaviy shaffoflik davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liq ochiqligi, o‘z vaqtida va hammaga tushunarli shaklda taqdim etilishini anglatadi. Hisobdorlik esa davlat organlari va mansabdor shaxslarning o‘z faoliyati yuzasidan jamiyat, yuqori tashkilotlar va qonun oldida javobgarlikni o‘z zimmasiga olishini bildiradi. Bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiruvchi va uzviy bog‘liqdir. Shaffofliksiz haqiqiy hisobdorlikni, hisobdorliksiz esa samarali va ishonchli davlat boshqaruvini ta’minlash mushkul. Xalqaro tajribada Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan standartlar moliyaviy shaffoflikni korrupsiyani oldini olishning asosiy vositasi sifatida belgilaydi. Shaffoflik va hisobdorlikning yuqori darajasi nafaqat mablag‘larning samarali ishlatilishini ta’minlaydi, balki fuqarolarning davlat siyosatiga faol ishtirok etishiga ham imkon yaratadi.

Davlat sektorida moliyaviy shaffoflikni oshirish uchun bir qator samarali mexanizmlar mavjud. Birinchidan, ochiq byudjet tizimi davlat byudjeti loyihasi, uning ijrosi va yakuniy hisobotlarini aholiga ochiq e’lon qilishni nazarda tutadi. Bu mexanizm fuqarolarga byudjet mablag‘larining qayerga va qanday sarflanishini kuzatish imkonini beradi. Ikkinchidan, elektron hukumat tizimi davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali inson omilini minimallashtiradi va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etadi. Uchinchidan, mustaqil audit tizimi davlat organlari faoliyatini xolis va professional tarzda baholashga xizmat qiladi. Oliy audit palatasining roli bu borada tobora kuchaymoqda. To‘rtinchidan, davlat tashkilotlarining muntazam va ochiq moliyaviy hisobot berish tizimi joriy etilishi kerak. Ushbu mexanizmlar birgalikda davlat mablag‘larining samarali sarflanishini nazorat qilish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish imkonini yaratadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash esa davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u faqat alohida choralar bilan emas, balki kompleks yondashuv bilan amalga oshirilishi lozim. Huquqiy bazani mustahkamlash bu borada muhim o‘rin tutadi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning takomillashtirilishi va tegishli me’yoriy hujjatlarning yangilanishi korrupsiyaviy harakatlarga qarshi kurashni yanada samarali qiladi. Raqamlashtirish jarayoni esa inson omilini kamaytirish orqali noqonuniy harakatlar ehtimolini sezilarli darajada pasaytiradi. Elektron tenderlar, onlayn to‘lov tizimlari va avtomatlashtirilgan hisob-kitob mexanizmlari moliyaviy operatsiyalarni shaffoflashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, har bir davlat tashkilotida ichki nazorat va komplayens tizimlarini joriy etish korrupsiya xavf-xatarlarini o‘z vaqtida aniqlash va oldini olish imkonini beradi. Jamoatchilik nazorati va ommaviy axborot vositalarining faol ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Fuqarolar va nodavlat tashkilotlarning korrupsiyaviy holatlarni ochiq muhokama qilishi va e’lon qilishi murosasiz muhitni shakllantiradi. Nihoyat, kadrlar siyosatini takomillashtirish – halol, malakali va axloqiy jihatdan barkamol xodimlarni tanlash va ularni doimiy ravishda

o‘qitish korrupsiyaga qarshi kurashning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu mexanizmlar faqat birgalikda va tizimli ravishda amalga oshirilganda yuqori natijaga erishish mumkin.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlat boshqaruvida tub burilish yasamoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida joriy etilayotgan elektron tender platformalari, raqamli byudjet tizimi, onlayn xizmat ko‘rsatish portallari va avtomatlashtirilgan nazorat vositalari moliyaviy operatsiyalar ustidan real vaqt rejimida monitoring o‘tkazish imkonini beradi. Natijada, korrupsiyaviy sxemalar uchun imkoniyatlar keskin qisqaradi, byurokratiya kamayadi va davlat xizmatlari sifati sezilarli darajada oshadi. Raqamlashtirish nafaqat moliyaviy shaffoflikni oshiradi, balki fuqarolarning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarini soddalashtirib, ularning huquqlarini himoya qilish darajasini ham yuksaltiradi.

Shu bilan birga, amaliyotda bir qator muammolar hali ham saqlanib qolmoqda. Shaffoflik darajasi yetarli emasligi, nazorat tizimlarining ba’zan zaifligi, auditning to‘liq mustaqilligi ta’minlanmaganligi va korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhitning to‘liq shakllanmaganligi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, aholining huquqiy ongi va faolligi yetarli emasligi ham korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biridir. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro standartlarni (IMFning Fiskal shaffoflik kodeksi, Xalqaro buxgalteriya standartlari – IPSAS) keng joriy etish, audit tizimini yanada mustaqil va professional darajaga ko‘tarish, ochiq ma’lumotlar bazalarini kengaytirish va ularni mashinada o‘qiladigan formatga o‘tkazish zarur. Shu bilan birga, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini faol jalb qilish va maktabdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda anticorruption ta’lim dasturlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash iqtisodiy barqarorlik, investitsiyaviy jozibadorlik va jamiyatda ishonch muhitini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi samarali kurash faqat qonunchilik choralari bilan cheklanmay, zamonaviy raqamli texnologiyalar, mustaqil audit tizimi, institutsional islohotlar va jamoatchilik nazorati orqali kompleks tarzda amalga oshirilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nalishda olib borilayotgan izchil islohotlar “Yangi O‘zbekiston” strategiyasining maqsadlariga erishishga xizmat qiladi va davlat boshqaruvi samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarishga yordam beradi.

DAVLAT SEKTORIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI OSHIRISH VA KORRUPSIYAGA QARSHI MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIYYONDASHUVLARI

Ibroximova Mashxuraxon Mo‘ydin qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashning nazariy va institutsional asoslari chuqur tahlil qilinadi. Korrupsiyaning davlat moliyaviy boshqaruviga ta’siri tizimli yondashuv asosida o’rganiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiyaning rolini kamaytirishda asos qilib olaroq ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot davomida mavjud muammolar aniqlanadi va ular bilan bog‘liq mualliflik takliflari hamda “raqamli hisobdorlik ekotizimi” modeli ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli shaffoflik, hisobdorlik, korrupsiya, davlat sektori, audit, institutsional islohotlar, moliyaviy nazorat.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik darajasi belgilaydi. Ayniqsa, davlat sektorida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va ularni ochiq hamda nazorat qilinadigan qilish masalalari dolzarb ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda ko‘plab mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat moliyasini boshqarish tizimini yaxshilash hamda byudjet mablag’larining maqsadli sarflanishini ta’minlash yo’nalishida keng ko’lamli islohotlar o’tkazilmoqda. Davlat sektorida moliyaviy shaffoflikni ta’minlash iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, jamiyatda davlat organlariga ishonchni mustahkamlaydi. Shu bois, moliyaviy ochiqlik, hisobdorlik va korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarining samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim qismiga aylangan.

Ushbu maqolada davlat sektorida moliyaviy shaffoflikni ta’minlash nazariy asoslari, mavjud muammolar, xorijiy tajriba va samaradorlikni oshirishning zamonaviy yo‘nalishlari ilmiy tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Moliyaviy shaffoflik — davlat tomonidan byudjet daromadlari, xarajatlari, qarz majburiyatlari va moliyaviy natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka o‘z vaqtida, to‘liq va tushunarli shaklda taqdim etish tamoyilidir. Davlat sektorida moliyaviy shaffoflik tushunchasi davlat moliyaviy faoliyatining ochiqligi, aniqligi va jamoatchilik uchun tushunarli bo'lishini anglatadi. Ushbu jarayonda byudjetni shakllantirish, taqsimlash va ijro etish bosqichlarining barcha ishtirokchilari uchun ochiq bo‘lishi muhimdir. Moliyaviy shaffoflik yuqori bo'lgan davlatlarda resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, korrupsiya darajasi kamayadi va investitsion muhit yaxshilanadi.

1-diagramma. Davlat sektorida moliyaviy shaffoflik ko‘rsatkichlari



Moliyaviy hisobdorlik esa davlat mansabdorlarining davlat resurslaridan foydalanish bo’yicha qonun oldida va jamoatchilik oldida javob berish tizimini anglatadi. Ushbu ikki tushuncha bir-birini to’ldiradi. Shaffoflik ma’lumotlarning mavjudligini, hisobdorlik esa bu ma’lumotlar asosida javobgarlikni ta’minlaydi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) moliyaviy shaffoflikni “yaxshi boshqaruv” (good governance) ning to‘rt asosiy tarkibiy qismidan biri sifatida belgilaydi: qonun ustuvorligi, ishtirok etish, samaradorlik va hisobdorlik.[7]

O‘zbekistonda moliyaviy shaffoflik islohotlari: yutuqlar va muammolar

O‘zbekistonda 2017 yildan boshlab amalga oshirilayotgan islohot jarayonida bir qator muhim o‘zgarishlar ro‘yobga chiqdi:

Byudjet shaffofligi sohasida: “Shaffof byudjet” (budget.mf.uz) portali orqali fuqarolar davlat byudjeti ijrosini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatiga ega bo’ldi. “Fuqarolar byudjeti” formati joriy etilgan bo‘lib, u murakkab moliyaviy hujjatlarni oddiy tilda tushuntiradi. 2023-2025 yillarda byudjet jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi “Yagona g‘aznachilik hisob-raqami” tizimi kengaytirildi [2].

Davlat xaridlarida: “Xarid.uz” elektron platformasi joriy etilishi bilan tender jarayonlari ochiqroq bo‘ldi, lekin “bitta taklif bilan” yopiq tanlovlar ulushi hali ham yuqori darajada saqlanmoqda va raqobat muhitini shakllantirishda qo‘shimcha islohotlar talab etilmoqda [1].

Muammolar: Ma’muriy ma’lumotlar ko‘pincha kechikib taqdim etiladi; mahalliy byudjet darajasida shaffoflik past; korrupsion xavf-xatarlar, ayniqsa, qurilish va infratuzilma loyihalarida yuqori; ichki audit xizmatlari ko‘p hollarda rasmiy va proforma faoliyat ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalar — samaradorlik kaliti

Zamonaviy tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish moliyaviy shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biridir. Quyida asosiy yo‘nalishlar ko’rib chiqiladi: Blokcheyn texnologiyasi: Davlat xaridlarida va subsidiyalar taqsimotida blokchein texnologiyasidan foydalanish tranzaksiyalarning o‘zgartirib bo’lmaydigan xronologik yozuvini ta’minlaydi. Gruziya va Estoniya kabi davlatlar bu sohada ilg’or tajribani namoyish etmoqda.

Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data): Sun’iy intellekt asosidagi tahliliy tizimlar byudjet xarajatlarining anormal naqshlarini avtomatik aniqlash va korrupsion xavf-xatarlarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

Elektron deklaratsiya va davlat xizmatlarini raqamlashtirish: Mansabdor shaxslarning mulkiy holati to’g’risidagi ma’lumotlar elektron shaklda ochiq e’lon qilinishi korrupsion xavfni kamaytiradi. O‘zbekistonda “my.gov.uz” portali orqali elektron xizmatlar ko’rsatish jarayoni kengaymoqda. Korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarining samaradorligini oshirish Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashda yagona bir usul yetarli emas. Bunga aniq bir tizimli yondashuv kerak.

Samarali mexanizm quyidagi elementlarni o’z ichiga olishi lozim:

Mustaqil nazorat institutlari — Hisob palatasi, prokuratura va parlament nazoratining haqiqiy vakolatga ega bo’lishi.

Fuqarolik jamiyati va OAV ishtiroki — nohukumat tashkilotlar, jurnalistlar va fuqarolarga byudjet ma’lumotlariga erkin kirish imkoniyati yaratish.

Signal beruvchilarni himoya qilish — korrupsion holatlarni xabar qilgan shaxslarning qonuniy himoyasini ta’minlash.

Xalqaro hamkorlik — FATF, GRECO va boshqa xalqaro tashkilotlar talablari va standartlari bilan muvofiqlashtirish.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyasining yopiq yoki yetarli darajada oshkora bo‘lmagan tizimi korrupsiyaning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, davlat xaridlari, subsidiya va grantlar ajratish jarayonlarida shaffoflikning pastligi turli suiiste’mollik holatlariga olib keladi. Shu sababli, davlat sektorida moliyaviy axborotlarning ochiqligini ta’minlash korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi.

So‘nggi yillarda rivojlangan davlatlar tajribasida ochiq byudjet tizimi keng joriy etilmoqda. Masalan, ochiq byudjet portallari orqali fuqarolar davlat daromadlari va xarajatlari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatiga ega. Bu esa jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi va davlat organlarining mas’uliyatini oshiradi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar, xususan, xalqaro audit standartlari va davlat moliyasini boshqarish prinsiplari shaffoflikni ta’minlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

Davlat sektorida hisobdorlikni oshirishda ichki va tashqi audit tizimining roli beqiyosdir. Ichki audit tashkilot ichida moliyaviy operatsiyalarning to‘g‘riligini tekshirsa,

tashqi audit davlat darajasida umumiy nazoratni amalga oshiradi. Ushbu tizimlarning samarali ishlashi moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq ayrim hollarda audit tizimlarining mustaqilligi yetarli darajada ta’minlanmaganligi ularning samaradorligini pasaytiradi [6].

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi davlat moliyasini boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, elektron byudjet tizimlari, raqamli audit va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish moliyaviy operatsiyalarni kuzatish va nazorat qilishni ancha osonlashtiradi. Bu esa inson omilini kamaytirib, korrupsiya xavfini sezilarli darajada pasaytiradi [5]. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan tahliliy tizimlar moliyaviy operatsiyalarda shubhali holatlarni aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda [7].

Davlat sektorida moliyaviy shaffoflikni oshirishda bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, axborot tizimlarining integratsiyasi pastligi, malakali kadrlar yetishmasligi va jamoatchilik nazoratining sustligi ushbu jarayonni sekinlashtirmoqda. Ayniqsa, ma’lumotlarning yopiq saqlanishi yoki kechiktirib e’lon qilinishi shaffoflik darajasini pasaytiradi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, davlat moliyasiga oid barcha ma’lumotlarni ochiq platformalarda e’lon qilish tizimini takomillashtirish zarur.

Shu bilan birga, davlat xaridlari jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish, tender jarayonlarida inson omilini kamaytirish va avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish muhimdir. Bundan tashqari, audit tizimining mustaqilligini ta’minlash va uning institutsional salohiyatini oshirish orqali nazorat samaradorligini kuchaytirish mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda profilaktik yondashuvni kuchaytirish ham muhimdir. Ya’ni, korrupsion holatlarni aniqlashdan ko‘ra, ularning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni rivojlantirish ustuvor bo‘lishi lozim. Bu borada davlat xizmatchilarining daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini joriy etish, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish hamda etik me’yorlarni kuchaytirish muhim o‘rin tutadi [1].

Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish ham davlat sektorida shaffoflikni oshirishning muhim omillaridan biridir. Fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va mustaqil ekspertlarning faol ishtiroki davlat moliyasini boshqarishda ochiqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa davlat organlarining faoliyatini yanada samarali va mas’uliyatli qilishga yordam beradi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu jarayon byudjet mablag’laridan samarali foydalanishni ta’minlaydi va korrupsiya darajasini kamaytirish orqali jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptiradi.

Zamonaviy sharoitda moliyaviy shaffoflikni oshirish uchun an’anaviy nazorat usullari bilan cheklanmasdan, innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va ochiq ma’lumotlar tizimlaridan foydalanish davlat moliyasini boshqarishda yangi bosqichni ochmoqda.

Shuningdek, audit tizimining mustaqilligini ta’minlash, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va malakali kadrlar tayyorlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida ko‘rilishi zarur. Kelgusida davlat sektorida moliyaviy shaffoflikni yanada oshirish uchun quyidagi ustuvor yo’nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: davlat moliyasiga oid barcha ma’lumotlarni to’liq ochiqlashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashishda profilaktik mexanizmlarni rivojlantirish. Faqat kompleks va tizimli yondashuv orqali ushbu sohada yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Natijada, davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikning oshishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi, investitsion jozibadorlikni oshiradi va fuqarolarning davlat boshqaruviga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

DAVLAT BOSHQARUVIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI QAROR TOPTIRISH VA AKSILKORRUPSION EKOTIZIMNI TAKOMILLASHTIRISH

Xomidjonova Sharofat Alisher qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi
Axunova Shoxistaxon Nomanjanova
FDTU, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy davlat va jamiyat taraqqiyotiga eng jiddiy tahdid solayotgan, davlat institutlarining barqarorligiga putur yetkazuvchi korrupsiya fenomenini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada mazkur illatning genezisi, uning ijtimoiy tafakkurga singib borish bosqichlari hamda davlatning iqtisodiy-ma’naviy negizlariga yetkazadigan zararlari tizimli ravishda yoritilgan.Maqolaning alohida qismi korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori samaradorlikka erishgan xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy o‘rganishga yo‘naltirilgan. O‘tkazilgan tahlillar natijasida, rivojlangan mamlakatlarning muvaffaqiyatli modellari asosida O‘zbekistonda korrupsiyani preventiv (oldini olish) usullar bilan bartaraf etishga qaratilgan amaliy takliflar va ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so’zlar: Davlat moliyaviy nazorati, korrupsiya, budjet nazorati, ichki audit, tashqi audit, riskga asoslangan nazorat, moliyaviy intizom, shaffoflik, hisobdorlik, manfaatlarto‘qnashuvi, raqamli audit.

Kirish: Bugungi globallashuv va iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida davlat aktivlarini unumli boshqarish hamda byudjet parametrlarining qat’iy maqsadli ijrosini ta’minlash makroiqtisodiy barqarorlikning fundamental shartlaridan biri sanaladi. G‘azna

mablag‘larining noto‘g‘ri taqsimlanishi yoki noqonuniy olashtirilishi nafaqat moliyaviy tizimga putur yetkazadi, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy shartnomaning asosi bo‘lgan institutsional ishonchga ham jiddiy zarar yetkazadi.Shu nuqtai nazardan, davlat moliyaviy nazorati (DMN) mexanizmlarini modernizatsiyalash, tizimda shaffoflik va vertikal hisobdorlik tamoyillarini qaror toptirish korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasining determinanti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Nazorat organlari faoliyatida korrupsion risklarni bartaraf etish masalasi bevosita institutsional avtonomiya, ichki va tashqi auditning metodologik mukammalligi, risk-menejmentga asoslangan monitoring hamda raqamli ekotizimlarni integratsiya qilish bilan uzviy bog‘liqdir.Jahon amaliyoti tahlili shuni tasdiqlaydiki, ilg‘or audit standartlari (ISSAI) va "ochiq ma’lumotlar" (Open Data) siyosati nazorat tizimining operatsion unumdorligini eksponentsial ravishda oshiradi. Mazkur tadqiqot ishi davlat moliyaviy nazorati doirasida korrupsiyaning oldini olishning konseptual va amaliy jihatlarini tizimli tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, sohani takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Asosiy qism: Korrupsiya bu — jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi[1].Ta'kidlab o'tish o'rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.Korrupsiya (lot. Corrumpere
— buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimida korrupsiyani jilovlash masalasi xalqaro ilmiy doiralarda turli konseptual yondashuvlar orqali tadqiq etilmoqda. Xususan, D.A. Sokolov o‘z izlanishlarida audit institutining institutsional muxtoriyati va professional etika mezonlariga so'zsiz amal qilishni korrupsiyaga qarshi kurashning fundamental sharti sifatida talqin etadi. Tadqiqotchi nazorat tadbirlari davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini boshqarishning maxsus metodologik mexanizmlarini ilgari surgan [2].

Yevropalik olimlar, jumladan, M. Power davlat sektoridagi nazorat paradigmasini transformatsiya qilish zaruriyatini ta’kidlab, "audit jamiyati" konsepsiyasini bayon etgan. Uning qarashlariga ko‘ra, nazorat mexanizmlarining institutsional qamrovi kengayishi korrupsiya darajasini pasaytirishda muhim bo‘lsa-da, asosiy e’tibor miqdoriy ko‘rsatkichlardan sifat koeffitsiyentlariga qaratilishi lozim [3]. Shu nuqtai nazardan, A. Mungiu-Pippidi Yevropa mamlakatlaridagi integritet (halollik) tizimlarini o‘rganib,

institutsional ochiqlik va siyosiy irodaning sinergetik bog‘liqligini asoslab berdi. Muallif aksilkorrupsion chora-tadbirlarning natijadorligi bevosita nazorat tuzilmalarining mustaqillik darajasiga tayanishini uqtiradi [4].

Osiyo mintaqasi tajribasini tahlil qilgan J. Quah korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalarida qat’iy javobgarlik tizimi va markazlashgan kuchli nazorat apparati mavjudligini hal qiluvchi omillar sifatida ko‘rsatib o‘tgan [5]. Raqamli transformatsiya yo‘nalishida R. Prabowo davlat moliyaviy menejmentini avtomatlashtirish orqali g‘azna mablag‘lari ochiqligini ta’minlash va bu orqali korrupsiya xavfini minimallashtirish mumkinligini empirik dalillar yordamida isbotlab bergan [6].

Iqtisodiy yondashuv vakili S. Rose-Ackerman esa korrupsiyaning klassik iqtisodiy nazariyasini takomillashtirib, davlat nazorat apparati va institutsional islohotlar sintezi orqali tizimli korrupsiyani bartaraf etishning kompleks modelini ishlab chiqqan [7].

Umuman olganda, 2017–2025-yillarni qamrab olgan ilmiy izlanishlar davlat moliyaviy nazorati tizimida korrupsiyaga qarshi samarali immunitet hosil qilishning konseptual asoslarini belgilab berdi. Tadqiqotlar natijalari shuni tasdiqlaydiki, ushbu sohadagi islohotlar institutsional muxtoriyat, ichki va tashqi audit mexanizmlarining o‘zaro integratsiyasi, risklarni tahlil qilishga asoslangan monitoring hamda keng ko‘lamli raqamlashtirish jarayonlarisiz kutilgan natijani bermaydi.Shu bilan birga, shaffoflik va "ochiq ma’lumotlar" siyosati g‘azna mablag‘lari sarflanishi ustidan nafaqat davlat, balki jamoatchilik nazoratini o‘rnatishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy amaliyotni ilg‘or xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish davlat moliyaviy nazoratini sifat jihatidan modernizatsiyalash hamda korrupsiyaviy xatarlarga nisbatan barqaror va moslashuvchan preventiv mexanizmlarni yaratish imkonini taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi". Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni qabul qilinib [8], mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi.

1-jadval

2019–2024-yillarda aniqlangan moliyaviy qonunbuzarliklar tahlili

Yil	Tekshirilgan obyektlar soni	Aniqlangan qonunbuzarliklar (mlrd so‘m)	Byudjet xarajatlariga nisbati (%)	Qaytaundirilgan mablag‘ (mlrd so‘m)
2020	1 310	1 410	2,9	810
2021	1 285	1 280	2,4	890
2022	1 360	1 150	2,0	930
2023	1 420	1 020	1,7	960
2024	1 480	890	1,4	980

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2019–2020-yillarda aniqlangan qonunbuzarliklar hajmi o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu davrda tekshiruvlar ko‘lamining kengayishi va nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishi asosiy omil bo‘lgan. 2021-yildan boshlab esa aniqlangan summalar bosqichma-bosqich kamayib borgan. 2024-yilda aniqlangan qonunbuzarliklar 2019 yilga nisbatan qariyb 33 foizga kamaygan.

Tadqiqot natijalari va xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazorati (DMN) tizimida korrupsiyaning saqlanib qolayotganligi quyidagi fundamental sabablar bilan bog‘liq:

1. Institutsional muxtoriyatning yetishmasligi nazorat organlarining (ayniqsa ichki audit xizmatlarining) bevosita o‘zlari tekshirayotgan idora rahbariga hisobdorligi manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaradi.

2. Raqamli integratsiyaning past darajasi moliyaviy operatsiyalarda inson omilining yuqoriligi va nazorat jarayonlarining to‘liq avtomatlashtirilmaganligi "yashirin kelishuvlar" uchun sharoit yaratadi.

3. Risk-menejment tizimining zaifligi nazorat tadbirlari ko‘p hollarda yalpi (sploshnoy) xarakterga ega bo‘lib, resurslar eng yuqori korrupsion xavf mavjud bo‘lgan nuqtalarga (hotspots) yo‘naltirilmaydi.

4. Metodologik nomuvofiqlik milliy audit standartlarining xalqaro ISSAI standartlari bilan to‘liq uyg‘unlashmaganligi nazorat natijalarining shaffofligi va xolisligiga putur yetkazadi.

5. Jamoatchilik nazoratining passivligi byudjet mablag‘lari sarflanishi bo‘yicha hisobotlarning murakkab va yopiq tilda berilishi fuqarolik jamiyati institutlarining monitoring jarayonidagi ishtirokini cheklaydi.

Yuqoridagi sabablarni bartaraf etish va O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi barqaror aksilkorrupsion ekotizim yaratish uchun quyidagi amaliy choralar taklif etiladi:

1. Institutsional islohotlar va mustaqillikni ta'minlash

-"Vertikal hisobdorlik" modeliga o‘tish: Ichki audit xizmatlarining mustaqilligini oshirish uchun ularni idora rahbaridan mustaqil bo‘lgan yuqori turuvchi organ yoki maxsus Audit qo‘mitalariga hisobdor qilish.

-Integritet tizimini joriy etish: A. Mungiu-Pippidi konsepsiyasi asosida nazorat organlari xodimlari uchun qat’iy axloq kodeksi va manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish tizimini majburiy etib belgilash.

2. Raqamli va "Aqlli" auditni (Smart Audit) tatbiq etish

-"Blockchain" texnologiyasi: Davlat xaridlari va budjet tranzaksiyalarini blokcheyn platformasiga o‘tkazish orqali ma’lumotlarni orqaga qaytarib bo‘lmaydigan va o‘zgartirib bo‘lmaydigan darajada shaffoflashtirish.

-Big Data va Sun'iy intellekt: R. Prabowo va boshqa olimlar ta’kidlaganidek, yirik hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali shubhali tranzaksiyalarni avtomatik aniqlaydigan "Qizil bayroqchalar" (Red flags) tizimini joriy etish.

3. Riskga asoslangan nazorat metodologiyasi

-ISSAI standartlarini adaptatsiya qilish: Nazorat tadbirlarini faqatgina yuqori risk darajasiga ega bo‘lgan soha va obyektlarga yo‘naltirish orqali resurslarni tejash va samaradorlikni oshirish.

4. Shaffoflik va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish

-"Ochiq ma'lumotlar" (Open Data) siyosati: Budjet ijrosi va o‘tkazilgan audit natijalarini aholi uchun tushunarli, "vizuallashgan" ko‘rinishda muntazam e’lon qilib borish.

-Whistleblowing mexanizmi: Korrupsiya holatlari haqida xabar bergan shaxslarni huquqiy va moddiy himoya qilishning samarali tizimini yaratish.

Xulosa: O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish nafaqat ma’muriy jazo choralarini kuchaytirishni, balki tizimli preventiv choralarni — raqamlashtirish, mustaqillik va shaffoflik sintezini talab etadi. Bu, o‘z navbatida, Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, haqiqiy ishbilarmonlik muhitini yaratish va jamiyat rivoji uchun poydevor bo‘ladi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashni yanadakuchaytirish uchun riskga asoslangan auditni chuqurlashtirish, sun’iy intellekt va raqamli monitoring vositalarini keng joriy etish, ichki audit xizmatlarining mustaqilligini ta’minlash hamda jamoatchilik nazoratini kengaytirish zarur. Davlat moliyaviy nazorati tizimini kompleks

takomillashtirish orqali budjet mablag‘laridan samarali foydalanish, moliyaviy intizomnimustahkamlash va ijtimoiy ishonchni oshirish mumkin.

DAVLAT ISHTIROKIDAGI SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIK VA HISOBDORLIKNI TA'MINLASH ORQALI KORRUPSIYAVIY XAVFLARNI KAMAYTIRISH VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MODELI

Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna
TDIU tadqiqotchisi,
Oriental universiteti "Biznes va boshqaruv" kafedrasi dotsent v.b.,PhD,

Annotatsiya: Mazkur tezisda davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash orqali korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda moliyaviy nazorat tizimi, ichki audit, komplayens mexanizmlari va raqamli boshqaruv vositalarining korxona faoliyatidagi o'rni yoritilgan. Davlat ulushi mavjud korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda shaffoflik muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Tezis doirasida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va baholashning iqtisodiy yondashuvlari tahlil qilinib, moliyaviy intizomni kuchaytirish hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy model taklif etilgan. Tadqiqot natijalari davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: sanoat, korxonalar, davlat ishtirokidagi sanoat korxonalari; moliyaviy shaffoflik; hisobdorlik; korrupsiyaviy xavflar; boshqaruv samaradorligi; ichki audit; komplayens nazorati; iqtisodiy model.

Mamlakat iqtisodiyotida davlat ishtirokidagi sanoat korxonalari muhim o'rin egallaydi. Ular strategik tarmoqlarda faoliyat yuritib, sanoat ishlab chiqarishi, eksport salohiyati, bandlik darajasi va hududiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat ulushi mavjud korxonalarda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi va boshqaruv tizimining ochiqligi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Amaliyot shuni ko'rsatadiki, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik darajasining yetarli emasligi korrupsiyaviy xavflarning yuzaga kelishiga, resurslarning samarasiz taqsimlanishiga hamda boshqaruv qarorlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarida shaffof moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirish va korrupsiyaga qarshi samarali iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tezisning maqsadi – davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash orqali korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy modelni asoslashdan iborat.

Moliyaviy shaffoflik – bu korxonaning moliyaviy faoliyati, daromad va xarajatlari, investitsiya loyihalari hamda moliyaviy natijalari to'g'risidagi

ma’lumotlarning ochiq, aniq va ishonchli tarzda taqdim etilishidir. Hisobdorlik esa rahbariyat va mas’ul shaxslarning qabul qilingan qarorlar va moliyaviy operatsiyalar yuzasidan javobgarligini anglatadi. Davlat ishtirokidagi korxonalarda ushbu ikki tamoyil quyidagi jihatlarda alohida ahamiyat kasb etadi:davlat aktivlaridan oqilona foydalanish;investitsion mablag‘lar samaradorligini ta’minlash; manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish; korrupsiyaviy xavflarni minimallashtirish; jamoatchilik va investorlar ishonchini oshirish. Moliyaviy shaffoflikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani quyidagi oqibatlarga olib keladi: yashirin moliyaviy operatsiyalar, xarid jarayonlarida manfaatlar to‘qnashuvi, resurslarning asossiz sarflanishi, ichki nazoratning sustligi. Bu esa bevosita korrupsiyaviy muhit shakllanishiga zamin yaratadi.

Davlat ulushi mavjud sanoat korxonalarida korrupsiyaviy xavflar asosan quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Davlat xaridlari va tender jarayonlarida shaffoflikning yetarli emasligi.
2. Investitsiya loyihalarini tanlash va moliyalashtirishda subyektiv yondashuv.
3. Moliyaviy hisobotlarning to‘liq ochiqlikda e’lon qilinmasligi.
4. Ichki audit va komplayens tizimining sust ishlashi.
5. Manfaatdor shaxslar o‘rtasida nazorat mexanizmlarining zaifligi.

Korrupsiyaviy xavflarning yuqori darajasi nafaqat moliyaviy yo‘qotishlarga, balki korxonaning raqobatbardoshligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada investitsion jozibadorlik pasayadi, ishlab chiqarish samaradorligi kamayadi va davlat budjetiga tushumlar qisqaradi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashni faqat ma’muriy yoki jazolash choralariga asoslash yetarli emas. Buning uchun iqtisodiy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish talab etiladi.Davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

Ichki audit va risk-menejment tizimini takomillashtirish.

Ichki audit korxona faoliyatining barcha moliyaviy jarayonlarini tizimli nazorat qilish imkonini beradi. Risk-menejment esa korrupsiyaviy xavflarni oldindan aniqlash va baholashga xizmat qiladi. Ichki audit – bu korxona faoliyatining moliyaviy-xo‘jalik jarayonlarini mustaqil va tizimli baholash mexanizmi bo‘lib, u boshqaruv organlariga ishonchli axborot taqdim etish, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash hamda xatolik va suiiste’molliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Moliyaviy shaffoflikni ta’minlashning zamonaviy mexanizmlari institutsional, iqtisodiy va raqamli vositalar uyg‘unligiga asoslanadi. Davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarida ushbu mexanizmlarni kompleks joriy etish korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash iqtisodiy barqarorlik, investitsion jozibadorlik va samarali korporativ boshqaruvni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni

ko‘rsatadiki, moliyaviy jarayonlarning ochiqligi va nazorat mexanizmlarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi korrupsiyaviy xavflarning kuchayishiga, resurslardan samarasiz foydalanishga va boshqaruv qarorlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ichki audit va risk-menejment tizimini takomillashtirish, komplayens nazoratini joriy etish, raqamli moliyaviy boshqaruv vositalaridan foydalanish hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish korrupsiyaviy omillarni kamaytirishda samarali mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, riskga asoslangan audit yondashuvi va shaffoflik indikatorlari tizimini joriy etish moliyaviy xavflarni erta aniqlash imkonini beradi. Umuman olganda, davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarida shaffof va hisobdor moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirish korrupsiyaga qarshi kurashning institutsional asosini mustahkamlab, sanoat tarmoqlarining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

AYRIM TURDAGI IMPORT MAHSULOTLARGA AKSIZ SOLIG‘INI QO‘LLASH

Raxmatullayev Nurbek Saydullayevich
Bojxona qo‘mitasi bosh inspektori,

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiz solig‘ining jahon tajribasi, uning mamlakat byudjeti, salomatlik va ekologiyaga ta’siri o’rganiladi. AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Rossiya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi davlatlarning tajribasi asosida tamaki, alkogol, shirin ichimliklar, chips, fri, elektron sigaretalar, pirotexnika va qimmatbaho avtomobillarga aksiz solig‘i joriy qilish istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Shuningek, O‘zbekistonda aksiz solig‘ining ahamiyati, 2023-2024-yilgi import mahsulotlardan undirilgan aksiz soliqlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar hamda xalqaro taqqoslash keltirilgan. Xususan, kartoshka chipsi va fri kabi oziq-ovqat mahsulotlari hamda pirotexnika, elektron sigaretalar va qimmatbaho avtomobillar kabi hashamat tovarlar hajmi, import geografiyasi, undirilgan bojxona to’lovlari va berilgan imtiyozlar tahlil qilinadi. Maqolada aksiz solig‘ini takomillashtirish, sog‘lom ovqatlanishni rag‘batlantirish, zararli mahsulotlar reklamasi va noqonuniy savdosini cheklash bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Bu chora-tadbirlar davlat budjeti daromadlarini oshirish va aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: import, bojxona to’lovlari, imtiyoz, aksiz, kartoshka chipsi, fri, pirotexnika, elektron sigareta, qimmatbaho avtomobil.

Kirish. O'zbekistonda aksiz solig'i joriy qilish va uning turli mahsulotlarga tatbiq etilishi so'nggi yillarda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aksiz solig'i – davlat tomonidan ayrim tovar va xizmatlarga qo‘llaniladigan soliq turi bo‘lib, u asosan hashamat buyumlari, shuningdek jamiyat salomatligiga, atrof-muhitga yoki ijtimoiy

barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan mahsulotlar va xizmatlarga nisbatan qo‘llaniladi. Aksiz solig'ining asosiy vazifalaridan biri – xalq salomatligini yaxshilashdir. Masalan, tamaki va alkogol mahsulotlariga qo'llaniladigan aksiz solig'i, ularning iste'molini kamaytirish va jamiyatdagi sog'liqni saqlash muammolarini bartaraf etishga yordam beradi. Aksiz solig'ining oshirilishi, bunday mahsulotlarga bo'lgan talabni pasaytirish va ularni iste'mol qiluvchi qatlamni kamaytirishga imkon yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda yuzaga keladigan salomatlik muammolarining oldini olishga xizmat qiladi.

Aksiz solig'ining ijtimoiy ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Bunday soliq, ayniqsa, hashamat mahsulotlar, jumladan pirotexnika, elektron sigaretalar hamda qimmatbaho avtomobillar uchun aksiz solig’ini qo’llash orqali iste'molchilarning bunday mahsulotlarga bo'lgan talabini pasaytirish bilan birga ijtimoiy va salomatlik muammolarini engillashtiradi. Bunday soliqning samarali tatbiqi, jamiyatda ko'proq ekologik toza va salomatlikka zarar keltirmaydigan mahsulotlarga talabni oshirish bilan bir qatorda davlat byudjetini to’ldirishga ham xizmat qiladi [6].

Aksiz solig'ining joriy qilinishi ishlab chiqaruvchilarning yangi mahsulotlar yaratishga bo'lgan rag'batini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, ichki bozorni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

O‘zbekiston yaqin vaqt ichida Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a’zo bo‘lishi kutilmoqda. Bu jarayon mamlakatning tashqi savdo siyosatini yanada erkinlashtirish, xalqaro savdo qoidalariga moslashish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq, JSTga a’zo bo‘lish ichki bozorga ayrim xatarlarni ham olib kelishi mumkin. Xususan, import tovarlari oqimi ortishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatni kuchayishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, JST talablari doirasida ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va tashqi savdoni samarali boshqarish mexanizmlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tahliliy ma’lumotnomada salomatlik va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ayrim mahsulotlar hamda hashamat tovarlar uchun aksiz solig’ini joriy qilish hamda ushbu mahsulotlar importida aksiz solig‘i berilgan imtiyozlarini optimallashtirish masalalari atroflicha o‘rganilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari, masalan, kartoshka chipsi va fri kabilar salomatlik uchun xavf tug‘dirishi mumkin, chunki ular yuqori darajada tuz va yog‘lar, shuningdek, konservalash usullari orqali inson organizmiga zarar yetkazishi mumkin. Bunday mahsulotlarga aksiz solig‘i qo‘yish orqali, nafaqat ularning iste’molini cheklash, balki ichki ishlab chiqaruvchilarni ham qo‘llab-quvvatlash mumkin [1].

Shuningdek, elektron sigaretalar va pirotexnika kabi mahsulotlar ham inson salomatligi va jamiyat xavfsizligi uchun xavfli hisoblanadi. Elektron sigaretalar nikotin va boshqa zararli moddalar tarkibiga ega bo‘lib, ularning foydalanuvchilari orasida ayniqsa yoshlar tobora ko‘payib borayotganligi kuzatilmoqda. Pirotexnika mahsulotlari esa, jamiyat xavfsizlikka tahdid soladi. Bu mahsulotlar importini kamaytirish va ularga

aksiz solig‘i qo‘yish esa ularning foydalanuvchilarini kamaytirish va xavfsizlikni ta’minlash imkonini yaratadi.

Qimmatbaho avtomobillar kabi hashamat tovarlari ham aksiz solig‘ini joriy qilishga loyiqdir. Bu turdagi mahsulotlar yuqori daromadli fuqarolar tomonidan foydalaniladi va ularning importi davlat byudjetiga sezilarli yuk solishi mumkin. Bu kabi tovarlarga aksiz solig‘ini joriy qilish bunday mahsulotlar iste'molining kamayishiga va resurslarning yanada samarali taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Aksiz solig‘i iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra egri soliq bo‘lib, umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. “Aksiz” so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, kesib tashlash ma’nosini bildiradi [3].

Aksiz solig‘ining uzoq tarixi qadimgi Misrga borib taqaladi va o‘simlik yog‘i uchun undirilgan. XVIII-XIX asrlarda ko‘pgina davlatlarda o‘z daromadlarini oshirish maqsadida asosan yuqori daromadga ega tovarlar, masalan tamaki, alkogol, qimmatbaho metallar, oziq-ovqat mahsulotlari (shokolad, margarin, shakar kabi) va davlat monopoliyasidagi mahsulotlarga joriy qilingan. O‘zbekistonda esa aksiz solig‘i 1992-yildan boshlab joriy qilingan [2].

Material va metodlar. O‘zbekistonda 2023-2024-yillar davomida aksiz solig‘i joriy qilinishi mumkin bo‘lgan mahsulotlar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari (kartoshka chipsi, fri), elektron sigaretalar, pirotexnika va qimmatbaho avtomobillar bo‘yicha import ma’lumotlari Davlat statistika qo‘mitasi, Bojxona qo‘mitasi, Sog’liqni saqlash vazirligi, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlari va hisobotlaridan foydalanilgan holda tahlil qilindi.

Ushbu ilmiy tadqiqotda aksiz solig‘ining iqtisodiy va ijtimoiy ta’siri, shuningdek, importni tartibga solish mexanizmlari o‘rganilgan. Tadqiqotda solishtirma, statistik, normativ-huquqiy tahlillar, tizimlilik, qiyoslash, induksiya va deduksiya kabi ilmiy usullar qo‘llanildi. Bundan tashqari, xorij tajribalari ham o‘rganilib, aksiz solig‘ining joriy etilishi bo‘yicha zarur takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari aksiz solig‘ining iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirini turli nuqtai nazarlardan yoritib bergan. Adam Smit (1776) aksiz solig‘ini davlat daromadlarini shakllantirish vositasi sifatida baholagan. Arthur Pigou (1920) uni zararli mahsulotlar iste’molini kamaytirish va sog‘lom muhitni ta’minlashning samarali vositasi deb hisoblagan. Richard Musgrave (1959) aksiz solig‘i ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan. Gary Becker va Kevin Murphy (1988) sog‘liqni saqlash sohasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini asoslab, uni zararli odatlarni kamaytirish vositasi sifatida baholab, zararli mahsulotlar iste’molini cheklashdagi samaradorligini tahlil qilgan [7].

Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksiz solig‘i zararli mahsulotlar va hashamat tovarlariga nisbatan qo‘llanilganda, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi [4]. Shu sababli, O‘zbekistonda ham kartoshka

chipsi va fri kabi oziq-ovqat mahslotlari hamda elektron sigaretalar, pirotexnika vositalari va qimmatbaho avtomobillarga aksiz solig‘ini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 289-moddasiga asosan, mamlakatimizda aksiz solig‘i alkogol va tamaki mahsulotlari, neft mahsulotlari (benzin, dizel, gaz, polietilen granula kabilar), ba’zi turdagi import tovarlarga (energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar) tatbiq etiladi. Ushbu soliq orqali inson salomatligi va atrof-muhit uchun zararli bo‘lgan mahsulotlarning mamlakatimizga importini cheklash hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat muhitini yaratish bilan birga, davlat byudjetiga qo‘shimcha mablag‘ tushirish imkoniyati yaratiladi [12].

Mazkur moddada ko’rsatilgan tovarlarning ayrimlariga belgilangan aksiz solig’i stavkalari xorijiy davlatlarda belgilanganaksiz solig’I stavkalaridan Turkiya, Ukraina, Janubiy Koreya, Rossiya va Turkmanistonda tamaki va alkogol mahsulotlariga O‘zbekistonga nisbatan 2-3 barobarga yuqori. Masalan, mamlakatimizda ming dona sigaretga o‘rtacha 25 AQSH dollari, Turkiyada 86, Ukrainada 54, Rossiyada 50, Janubiy Koreyada 35, 1 litr aroq mahsulotiga mamlakatimizda 2,4 AQSH dollari, Turkiyada 20 va Janubiy Koreyada 16 AQSH dollari miqdorida aksiz solig‘i belgilangan.

Tahlil yillari davomida mamlakatimizga import qilingan kartoshka chipsi va fri mahsulotlari hamda pirotexnika, elektron sigareta qurilmalari va qimmatbaho avtomobillar oxirgi 3 yil davomida mamlakatimizga importi miqdori, qiymati, eng ko‘p jo‘natuvchi mamlakatlar, undirilgan bojxona to‘lovlar va qo‘llanilgan imtiyozlar yo‘nalishida tahlil qilindi. Quyida ushbu yo’nalishlar to’g’risida batafsil to’xtalamiz.

Xususan, 2021-yilda import qilingan aksizga tortiladigan jami 36 turdagi qiymati 555,9 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan tovarlardan jami 307,7 mlrd so‘m aksiz solig‘i undirilgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 19 turdagi qiymati 762,7 mln AQSH dollariga teng import qilingan mahsulotlardan jami 1 070,0 mlrd so‘m (qarib 3,5 barobar oshgan) aksiz solig‘i undirilgan [13].

2021 yilga qadar ayrim import mahsulotlardan aksiz solig‘i undirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi PQ-4938-son Qarori bilan mazkur tovarlarga nisbatan aksiz solig‘ini undirish bekor bo‘lgan.

Misol uchun, maishiy texnikalar (sovutgich, televizorlar va h.k.), radiator va isitish qozonlari, shokolad, sut, margarin va un mahsulotlari (vafli, pechenye va h.k.), xo‘jalik anjomlari (pichoq, arra, lampalar va h.k.), konservalangan sabzavotlar, gilam, palaslar va boshqalar.

2024 yilda import qilingan tovarlarga jami 197,5 mlrd so‘m aksiz solig‘idan imtiyoz berilgan [13].

Aksiz solig‘i inson salomatligi uchun ma’lum darajada zararli bo‘lgan mahsulotlar uchun ham undirilishini inobatga olsak, mamlakatimizga import qilingan ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan kartoshka chipsi va muzlatilgan fri kabilarga aksiz soligi joriy qilish mumkin *(kartoshka chipsi (TIF TN kodi 200520) va muzlatilgan fri*

(TIF TN kodi 200410). Quyida mazkur mahsulotlarning 2022 va 2024 yillarda import hajmi keltiriladi *(1-rasm).*



1- ***rasm.*** **2023 - 2024-yillarda chips a muzlatilgan fri importi** *(ming tonnada)*

2024 yilda 12,3 ming tn *(31,8 mln AQSH dollari)* chips va muzlatilgan fri import qilingan bo‘lib, 2023 yilga nisbatan 2,8 ming tonnaga yoki 30 %*ga (2022 y. 9,4 ming tonna, 28 mln AQSH dollari)* oshgan. Shundan:

chips 6 ming tonnani *(21 mln doll)* tashkil qilib, 1,4 ming tonnaga yoki 30 %ga *(2023 yilda 4,6 ming tonna, 22 mln doll);*

muzlatilgan fri 6,3 ming tonnani *(11 mln doll)* tashkil etib, 1,5 ming tonna ga yoki 31 % ga *(2023 yilda 4,8 ming tonna, 5,8 mln doll)*;

Mazkur mahsulotlarning import geografiyasiga qaraydigan bo’lsak, chips asosan Rossiya 93 % *(5,5 ming tn)*, Qozog‘iston 3 % *(193 tn)*, Belarussiya 1 % *(72 tn)* va Germaniya 1 % (57 tn) hamda muzlatilgan fri Polsha 56 % *(3,5 ming tn)*, Rossiya 13 % *(857 tn)*, Niderlandiya 11 % (696 tn), Latviya 7 % *(450 tn)* va Belgiya 6 % *(370 tn)* davlatlaridan olib kelingan. [13]

Import qilingan kartoshka chipsi mahsulotlarining asosiy qismini “Lays” *(Rossiya)* “Grizzly” *(Qozog‘iston)*, “Bulba” *(Belarus)* brendlari tashkil qilgan bo‘lsa, muzlatilgan frilarning aksariyat qismi “Mccain” *(Polsha, Niderlandiya)*, “We Fry” *(Rossiya)*, “Aviko” *(Polsha)*, “Damco” *(Belgiya)*, “Lamb Weston” *(Niderlandiya)* tashkil qilganligi ma’lum bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 23 martdagi PF-41-son Farmoniga muvofiq, kartoshka chipsi, muzlatilgan fri va tarkibida transyog‘lar mavjud bo‘lgan yog‘larning import boji nol stavkada belgilangan *(2027 yilning 1 yanvar kuniga qadar)* bo‘lib, 2024 yilda ushbu mahsulotlarga qo‘llanilgan imtiyozlar jami 92 mlrd so‘mni tashkil etgan. Quyida ushbu mahsulotlarga 2024 yilda berilgan imtiyozlar miqdori keltiriladi *(2-rasm).*



2- *rasm*. 2023-2024-yillar davomida import kartoshka chipsi va fri mahsulotlariga berilgan imtiyoz *(mlrd so‘mda)*

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko’rish mumkinki, kartoshka chips va muzlatilgan fri mahsulotlari 2024 yilda oldingi yilga qaraganda 17 % ga ko’proq import qilingan.

Ma’lumot uchun: kartoshka chipsi eksporti 2024 yilda 186 tonnani (351 ming AQSH dollari) tashkil qilib, 2022 yilga nisbatan 695 tonnaga yoki 85 %ga kamaygan (2022-yilda
1,1 ming tonna, 642 ming AQSH dollari), jami 8 ta (2022-yilda 2 ta) davlatga, asosan Tojikiston (98 tonna), Singapur (29 tonna), Koreya (21 tonna), Qirg‘iziston (17 tonna), Qozogiston (12 tonna) davlatlariga eksport qilingan.

Muzlatilgan frilar eksporti 44 tonnani (71 ming AQSH dollari) tashkil qilib, faqat Tojikistonga amalga oshirilgan (2022-yilda eksport qilinmagan). [13]

Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda yiliga 33 ming tonna chips ishlab chiqariladi. Bunda, Farg‘ona, Namangan va Surxondaryo viloyatlari hamda Toshkent shahri korxonalarining ulushi 99 %ni tashkil qiladi.

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyasiga ko‘ra, inson tomonidan bir sutkada iste’mol qiladigan tuz normasi 5 grammdan, yog‘ normasi uning vazniga qarab 10 kg uchun 10 grammdan oshmasligi lozim [16].

Ma’lumotlar tahlili, 100 gramm chips tarkibida o‘rtacha 2,5 gramm tuz (sutkalik normaning 50 %), 30 gramm yog‘ (sutkalik normaning 25-30 %) mavjudligini ko‘rsatgan [17].

Shifokorlar va diyetologlar tomonidan kartoshka chipsi iste’mol qilgan insonda moddalar almashinuvining buzilishi, ortiqcha vazn paydo bo‘lishi, qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari, jinsiy zaiflik, saraton kasalligini keltirib chiqaruvchi o‘smalarning rivojlanishi mumkinligi bildirilgan [15].

Shundan kelib chiqib, ushbu xalqaro tashkilot tomonidan chips iste’molini taqiqlash yoki cheklash ma’lum qilingan. Shuningdek, dunyo aholisining 40 % ortiqcha vaznga ega. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda 50 %ni tashkil etib, aholining tuz iste’moli bir sutkada o‘rtacha 15 grammni tashkil qiladi [15].

Bundan tashqari, ayrim xorijiy davlatlarda inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan mahsulotlarga, shu jumladan kartoshka chipsga nisbatan soliqlar belgilangan. Misol uchun, Angliyada 1994-yilda 20 % QQS joriy qilingan. Vengriyada 2011-yilda aksiz solig‘i joriy qilingan bo‘lib *(1 kg uchun 1,19 AQSH dollari)*, undan olingan daromadlar aholi salomatligini muhofaza qilish dasturlariga yo‘naltiriladi. Kolumbiyada 2023-yilda nosog‘lom oziq-ovqat mahsulotlariga qarshi-kurashish bo‘yicha alohida qonun qabul qilingan bo‘lib, 2023-yilda 10 %, 2024-yilda 15 % va 2025-yilda 20
% soliq stavkasi belgilangan. Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Chili davlatlarida chips reklamasiga aholining asosiy qismi televizor tomosha qilmaydigan vaqtlarda ruxsat berilgan bo‘lsa, Norvegiya, Shvetsiya, Kanada, Singapur davlatlarida bolalar dasturlari vaqtida taqiqlangan [5].

Mamlakatimizda tuz, qand va yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan mahsulotlar iste’molini qisqartirish maqsadida, 2020-yil 30 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6099-son Farmoni qabul qilingan bo‘lib, ushbu mahsulotlarning reklamasiga cheklov o‘rnatishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish topshirig‘i berilgan bo‘lsada, biroq, bugungi kunga qadar “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunga tegishli o‘zgartirishlar kiritilmagan.

2024-yil uchun mo‘ljallangan davlat dasturi loyihasida aholi orasida sog‘lom turmush tarzini yoyish maqsadida “Sog‘lom ovqatlanish strategiyasi”ni tasdiqlash ko‘zda tutilgan. Xususan, tarkibida transyog‘lar, shakar va tuz miqdori yuqori bo‘lgan mahsulotlarni TVda (asosan bolalar uchun telekanallarda) va ko‘chalardagi reklamasini cheklash hamda oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar mahsulot qadog‘ida transyog‘, shakar va tuz miqdorini ko‘rsatish kabilar shular jumalasidandir [18].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining bergan axborotida, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda bugungi kunda turli xil o‘rnini bosuvchilardan foydalanish yoki boshqa moddalar bilan mahsulotlarni qalbakilashtirish keng tarqalayotganligi, hususan, 2024-yilning 6 oyida sut, qatiq, sariyog‘, qaymoq, quyiltirilgan sut mahsulotlarida yog‘i o‘rnini bosuvchi yog‘lar ishlatilishi bilan 13 ta holatda mahsulot nomuvofiq deb topilganligi ta’kidlab o‘tilgan.

Mamlakatimizda pirotexnika vositalari *(3604 10)* uchun aksiz solig‘i belgilanmagan *(amalda 30% import boji belgilangan)*. Xorij davlatlarda, jumladan Gruziyada 5 %, AQSHda 12 % va Xitoyda 15 % aksiz solig‘i joriy etilgan.

Yaponiya, Hindiston, Tailand, Indoneziyada pirotexnika vositalari suv va havoning ifloslovchi, inson tana a’zolarini jarohatlovchi mahsulot sifatida baholanib, ular uchun 5 % dan 80 % gacha aksiz solig‘i belgilangan.

Pirotexnika vositalari mamlakatimizga 2024-yilda 312,3 ming doll.lik (145 tn) import qilingan *(2023-yil - 527 ming doll, 158 tn).*

Ma’lumot uchun, ushbu mahsulotlar faqat Xitoydan import qilingan bo‘lib, asosan "Global Luxury Trade" (53 %, Samarqand) va "Maxem Fireworks" (35 %, Toshkent sh.) MCHJlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Mamlakatimizda elektron qurilmali tamaki mahsulotlar *(8543 40)* iste’moli ortmoqda.

Xususan, 2024-yilda 260 ming dona *(4,2 mln doll)* elektron sigareta qurilmalari 19 ta TIF subektlari tomonidan jami import Import qiluvchilar asosan “Tashkent Tobacco Distribution” *(61 %),* “Boyoo Tech” *(9%),* “Yusunny” *(6 %)* va “Uzbat” korxonalari *(6 %)* hisoblanadi import qilingan bo‘lib, ular asosan Xitoy *(37 %),* Germaniya *(34 %)* va Shveysariya *(14 %)* hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ma’lumot uchun. O‘zbekistonda bunday qurilmalarga faqatgina 5% import boji (2024-yilda 4,6 mlrd so‘m) va 12% QQS (7,4 mlrd so‘m) belgilangan. [13]

Elektron sigaretalarning yoshlar orasida ommalashuvini oldini olish maqsadida Indoneziya, Isroil va Janubiy Koreyada elektron sigareta qurilmalari uchun alohida 360 %gacha aksiz soliq belgilangan.

Shuningdek, elektron sigareta qurilmalarining mamlakatimizga yashirin olib kirishning oldini olish hamda aholini qalbaki mahsulotlardan himoya qilish maqsadida raqamli markirovkalash maqsadga muvofiq *(PQ-203. 30.05.2024) [20]*.

Ma’lumot uchun.2024-yil davomida tamaki mahsulotlarining bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tilishi bilan bog‘liq jami 577 holatda 64 mlrd so‘mlik 3 mln quti sigaret mahsulotlari aniqlangan *[13]*.

Rossiya 2021-yildan boshlab “Chestniy znak” tizimi orqali barcha elektron sigaretalar va ularning komponentlarini majburiy markirovkalashni yo‘lga qo‘ygan. Qozog‘iston 2024-yilda tamaki va elektron sigaretalar uchun raqamli markirovka tizimini joriy etdi [8].

So‘nggi yillarda mamlakatimiz aholisining turmush darajasi ortishi natijasida avtomobillarga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda.

Mamlakatimizda 2020-yil 1-avgustdan import qilanadigan avtomobillar uchun aksiz solig‘i bekor qilindi [12]. Natijada, oxirgi 3 yilda import qilingan yengil avtomobillar soni 3 barobarga, shundan, hashamat *(shartli ravishda qiymati 40 ming AQSH dollaridan yuqori bo‘lgan)* avtomobillar 2,6 barobarga oshdi[13].

Ma’lumot uchun, 2024-yilda jami 83 ming dona (2021 da 27 ming), qiymati 1,9 mlrd $. (0,8 mlrd $.) ga teng yengil avtomobillar import qilingan. Shundan, qiymati:

40 минг $.гача – 76,6 минг, улуши 93%, 1,6 млрд $.лик (2021 й 25 минг, 22%, 623 млн $);

40 - 70 минг $.лик- 4,8 минг, улуши 6%, 251 млн $.лик (2 минг, 2%, 89 млн $);

70 минг $.дан юқори - 1 минг , улуши 1%, 105 млн $.лик (0,3 минг, 1%, 40 млн $).

O‘zbekistonda qiymati 40 ming AQSH dollaridan yuqori bo‘lgan, Traverse *(53 ming AQSH dollari),* Kia K8 va K9 *(54 va 66 ming),* Kia Stinger *(56 ming),* Tahoe *(86 ming$)* kabi qimmatbaho avtomobillar ishlab chiqarilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-iyundagi 347-son qaroriga asosan, transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va uskunalarga nisbatan utilizatsiya yig‘imi miqdorlari ularning quvvat manbaiga ko‘ra BHM asosida undiriladi.

Masalan, dvigatel hajmi bir xil (4395 sm3) bo‘lgan, qiymati 168 ming $. bo‘lgan RANGE ROVER L460 hamda qiymati 37 ming $.ga teng bo‘lgan BMW M550Xi 2023 (yevro 6) rusumli avtotransport vositalari uchun bir xilda - BHMning 300 barobari *(113 mln so‘m)* miqdorida utilizatsiya yig‘imi undirilgan.

Xorijiy davlatlarda import avtomobillarga utilizatsiya solig‘i bilan bir qatorda aksiz solig‘i ham undiriladi.

Jumladan, lyuks avtomobillarga Hindistonda 28%, Braziliyada 25%, Indoneziyada 40-125%, AQSHda qiymati 50 000 AQSH dollaridan yuqori avtomobillarga 10%, Buyuk Britaniyada 40 000 yevrodan yuqori avtomobillarga 10%, Xitoyda yirik dvigatelli *(4.0 litrdan yuqori)* avtomobillarga 40% gacha aksiz solig‘i belgilangan.

Ma’lumot uchun, 29.06.2018 dagi PQ-3818 qaroriga asosan, 2020-yil 1-yanvarga qadar qiymati 40 ming AQSH dollari va undan ortiq hamda ekvivalentdagi yengil avtomobillar importi uchun ular chiqarilgan kundan 2 yildan oshmagan bo‘lsa, bojxona qiymatining 20 % miqdorida aksiz solig‘i qo‘llanilgan [19].

Xorij davlatlarda yuqori qiymatli va katta hajmda yoqilg‘i sarflaydigan avtomobillar uchun yuqori foizli aksiz stavkalari belgilanishidan kelib chiqib, mamlakatimizda ham ushbu amaliyotni qo‘llash orqali ekologik barqarorlikni ta’minlashga erishish hamda ortiqcha valyuta mablag‘ chiqib ketishining oldini olishga erishish mumkin bo‘ladi.

Xulosa va taklif. Yuqoridagi tahlildan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, so’nggi yillarda mamlakatimizga import qilinayotgan, inson salomatligi, jamoat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan ayrim mahsulotlar, jumladan, kartoshka chipsi va muzlatilgan fri, shuningdek pirotexnika, elektron sigareta qurilmalari va qimmatbaho avtomobil kabi tovarlarga aksiz solig’ini joriy qilish hamda amalda mavjud aksiz solig’i stavkalarini optimallashtirish bo’yicha quyidagi takliflar kiritilmoqda.

1. Xorij davlatlarida mavjud aksiz solig‘i stavkalaridan kelib chiqib, alkogol va tamaki mahsulotlari uchun amaldagi aksiz solig‘i stavkalarini o‘rtacha 2 barobarga oshirish;

2. Ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan quyidagi stavkalarda aksiz solig‘i joriy etish:

qadoqlangan chips *(2005 20 2000)* mahsulotiga 25%, lekin har bir kg uchun 35 ming so‘mdan kam bo‘lmagan, qadoqlanmagan chipsga *(2005 20 80)* 10%, lekin har bir kg uchun 7 ming so‘mdan kam bo‘lmagan;

qadoqlangan muzlatilgan friga *(2004 10 10)* 25%, lekin har bir kg uchun 7,5 ming so‘mdan kambo‘lmagan, qadoqlanmagan friga *(2004 10 99)* 10%, lekinharbirkguchun 2 ming so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda.

Ma’lumot uchun, ushbu stavkalar bo‘yicha 2024-yilda import qilingan chips va muzlatilgan fri mahsuloti uchun 115 mlrd so‘m aksiz solig‘i hisoblandi.

3. Ayrim turdagi hashamat tovarlariga quyidagi stavkalarda aksiz solig‘i joriy etish:

qimmatbaho avtomobillarga *(40 ming AQSH dollaridan yuqori*) 10 % *(qo‘shimcha 450 mlrd so‘m)*;

elektron sigareta qurilmasiga 25 %, lekin har bir donasi uchun 40 ming so‘mdan kam bo‘lmagan *(qo‘shimcha 14,2 mlrd so‘m);*

pirotexnika mahsulotlari uchun 50 % miqdorida aksiz solig‘i belgilash *(qo‘shimcha 2,3 mlrd so‘m)*.

4. Tuz va yog‘ miqdori me’yoridan ortiq bo‘lgan mahsulotlar, xususan kartoshka chipsi va muzlatilgan fri reklamasini cheklash yoki taqiqlash bo‘yicha “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunga tegishli o‘zgartirish kiritish;

5. Elektron sigareta qurilmalariga raqamli markirovkalash;

6. Kartoshka chipsi va muzlatilgan frilarni doimiy iste’moli inson salomatligiga ma’lum miqdorda zarar yetkazishini inobatga olib, ular o‘rniga meva chipslarini ishlab chiqarishni rivojlantirish va iste’molini ommalashtirish maqsadga muvofiq bo’ladi.

DAVLAT SEKTORIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIK VA HISOBDORLIKNI TA’MINLASH HAMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
TDIU “Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi professori
Anorboyeva Jasmina
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Hozirgi globallashuv sharoitida davlat sektorida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ularning shaffofligi va hisobdorligini ta’minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali mexanizmlarni joriy etish davlat boshqaruvi tizimining barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza mustahkamlandi. Biroq amaliyotda ayrim muammolar saqlanib

qolmoqda, bu esa mazkur yo‘nalishda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni talab etadi.

Moliyaviy shaffoflik – bu davlat moliyaviy faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarning ochiqligi, to‘liqligi va ishonchliligini anglatadi. Hisobdorlik esa davlat organlarining o‘z faoliyati natijalari uchun jamoatchilik oldida javobgarligini bildiradi.

Mazkur ikki tushuncha o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unlashuvi davlat boshqaruvida samaradorlikni oshiradi. Xalqaro tajribada, xususan, OECD va Jahon banki tavsiyalarida moliyaviy shaffoflikni ta’minlash davlat sektorida korrupsiyani kamaytirishning asosiy vositasi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat sektorida moliyaviy shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish 2026-yilda raqamlashtirish, byudjet ochiqligi va ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Asosiy mexanizmlar: moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish, xaridlar va investitsiya loyihalarini Anticorruption.uz bilan hamkorlikda 2026 yil 1 iyuldan boshlab bosqichma-bosqich nazorat qilish, davlat xizmatchilarining bilimini oshirish PQ-228-сон, hamda korrupsiyaga qarshi reyting baholash tizimini joriy etish.

2026-yildan boshlab byudjet daromadlari prognozini hisoblash Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimi orqali avtomatlashtirilgan shaklda amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda quyidagi asosiy mexanizmlar muhim ahamiyatga ega:

Normativ-huquqiy baza – korrupsiyaga qarshi qonunlar va ularning ijrosi

Ichki va tashqi audit tizimi – moliyaviy nazoratni kuchaytirish

Raqamlashtirish jarayonlari – inson omilini kamaytirish

Ochiq byudjet tizimi – fuqarolar ishtirokini kengaytirish

Jamoatchilik nazorati – fuqarolik jamiyatining roli

O‘zbekistonda “Ochiq byudjet” portali, davlat xaridlarining elektron tizimi hamda raqamli boshqaruv platformalarining joriy etilishi korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar davlat moliyasini boshqarishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Elektron hukumat tizimlari orqali:

byudjet jarayonlari avtomatlashtiriladi

real vaqt rejimida monitoring amalga oshiriladi

ma’lumotlarning ochiqligi ta’minlanadi

Shuningdek, sun’iy intellekt asosida moliyaviy operatsiyalarni tahlil qilish orqali korrupsion holatlarni oldindan aniqlash imkoniyati kengaymoqda. Bu esa davlat moliyaviy nazoratining sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishiga xizmat qiladi.

Amaliyotda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

axborotlarning yetarli darajada ochiq emasligi

ichki audit tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi

inson omilining yuqoriligi, korrupsiyaga qarshi madaniyatning pastligi

Mazkur muammolarni hal etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Ochiq ma’lumotlar bazasini kengaytirish va ularni jamoatchilik uchun qulay shaklda taqdim etish

Ichki audit xizmatlarini institutsional jihatdan mustahkamlash

Sun’iy intellekt va “big data” texnologiyalarini joriy etish

Davlat xizmatchilarining malakasini oshirish va etik standartlarni kuchaytirish

Fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish

Davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Raqamlashtirish, ochiq byudjet tizimi, ichki audit va jamoatchilik nazorati kabi mexanizmlar samarali ishlagan taqdirdagina davlat moliyasini boshqarishda yuqori natijalarga erishish mumkin. Kelgusida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, institutsional islohotlarni davom ettirish hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish orqali ushbu sohada barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

DAVLAT SEKTORIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIK VA HISOBDORLIKNI TA’MINLASH HAMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Sholdarov Dilshod Azimiddin o‘g‘li
“Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi mudiri. DSc.prof
Anorboyeva Jasmina Sharofitdin qizi
TDIU Magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashning nazariy-huquqiy asoslari, korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarining samaradorligi hamda ularni takomillashtirish yo‘llari tahlil qilingan. Raqamlashtirish, ichki audit, ochiq ma’lumotlar tizimi va zamonaviy boshqaruv vositalari asosida davlat moliyasini boshqarishda samaradorlikni oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik, korrupsiya, davlat sektori, ichki audit, raqamlashtirish, ochiq ma’lumotlar.

Kirish: Hozirgi globallashuv sharoitida davlat sektorida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ularning shaffofligi va hisobdorligini ta’minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali mexanizmlarni joriy etish davlat boshqaruvi tizimining barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza mustahkamlandi. Biroq amaliyotda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda, bu esa mazkur yo‘nalishda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni talab etadi.

Moliyaviy shaffoflik – bu davlat moliyaviy faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarning ochiqligi, to‘liqligi va ishonchliligini anglatadi. Hisobdorlik esa davlat organlarining o‘z faoliyati natijalari uchun jamoatchilik oldida javobgarligini bildiradi.

Mazkur ikki tushuncha o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unlashuvi davlat boshqaruvida samaradorlikni oshiradi. Xalqaro tajribada, xususan, OECD va Jahon banki tavsiyalarida moliyaviy shaffoflikni ta’minlash davlat sektorida korrupsiyani kamaytirishning asosiy vositasi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat sektorida moliyaviy shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish 2026-yilda raqamlashtirish, byudjet ochiqligi va ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Asosiy mexanizmlar: moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish, xaridlar va investitsiya loyihalarini Anticorruption.uz>> bilan hamkorlikda 2026 yil 1 iyuldan boshlab bosqichma-bosqich nazorat qilish, davlat xizmatchilarining bilimini oshirish PQ-228-сон, hamda korrupsiyaga qarshi reyting baholash tizimini joriy etish.

2026-yildan boshlab byudjet daromadlari prognozini hisoblash Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimi orqali avtomatlashtirilgan shaklda amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda quyidagi asosiy mexanizmlar muhim ahamiyatga ega:

Normativ-huquqiy baza – korrupsiyaga qarshi qonunlar va ularning ijrosi

Ichki va tashqi audit tizimi – moliyaviy nazoratni kuchaytirish

Raqamlashtirish jarayonlari – inson omilini kamaytirish

Ochiq byudjet tizimi – fuqarolar ishtirokini kengaytirish

Jamoatchilik nazorati – fuqarolik jamiyatining roli

O‘zbekistonda “Ochiq byudjet” portali, davlat xaridlarining elektron tizimi hamda raqamli boshqaruv platformalarining joriy etilishi korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar davlat moliyasini boshqarishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Elektron hukumat tizimlari orqali:

byudjet jarayonlari avtomatlashtiriladi

real vaqt rejimida monitoring amalga oshiriladi

ma’lumotlarning ochiqligi ta’minlanadi

Shuningdek, sun’iy intellekt asosida moliyaviy operatsiyalarni tahlil qilish orqali korrupsion holatlarni oldindan aniqlash imkoniyati kengaymoqda. Bu esa davlat moliyaviy nazoratining sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishiga xizmat qiladi. Amaliyotda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

axborotlarning yetarli darajada ochiq emasligi

ichki audit tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi

inson omilining yuqoriligi, korrupsiyaga qarshi madaniyatning pastligi

Mazkur muammolarni hal etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Ochiq ma’lumotlar bazasini kengaytirish va ularni jamoatchilik uchun qulay shaklda taqdim etish

Ichki audit xizmatlarini institutsional jihatdan mustahkamlash

Sun’iy intellekt va “big data” texnologiyalarini joriy etish

Davlat xizmatchilarining malakasini oshirish va etik standartlarni kuchaytirish

Fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish

Davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Raqamlashtirish, ochiq byudjet tizimi, ichki audit va jamoatchilik nazorati kabi mexanizmlar samarali ishlagan taqdirdagina davlat moliyasini boshqarishda yuqori natijalarga erishish mumkin. Kelgusida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, institutsional islohotlarni davom ettirish hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish orqali ushbu sohada barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

GIDROENERGETIKA SEKTORIDA INVESTITSIYALOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Xusanov Shaxbozbek Shuxratjon o‘g‘li
“O‘zbekgidroenergo” AJXorijiy investitsiyalar departamenti yetakchi mutaxassisi

XXI asrda global iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik muvozanatni saqlash hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Energetika sektori har qanday milliy iqtisodiyotning asosiy infratuzilmaviy tayanchi hisoblanib, uning barqaror faoliyati ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini, aholi turmush darajasining oshishini va mamlakatning raqobatbardoshligini belgilaydi.

Jahon iqtisodiyotida so‘nggi yillarda kuzatilayotgan global energetik transformatsiya jarayonlari energiya resurslaridan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalarini dolzarb ilmiy-amaliy muammolar qatoriga olib chiqdi. Xususan, BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDG 7) “hamma uchun arzon, ishonchli va zamonaviy energiya manbalarini ta’minlash” ustuvor vazifa sifatida belgilangan (United Nations, 2021).

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari tarkibida gidroenergetika alohida o‘rin tutadi. Xalqaro energetika agentligi (IEA) ma’lumotlariga ko‘ra, gidroenergetika bugungi kunda dunyodagi elektr energiyasining qariyb 16 foizini ishlab chiqaradi va qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishning eng yirik manbai hisoblanadi (IEA, 2025). Jahon banki tadqiqotlarida qayd etilishicha, gidroenergetika energiya tizimining moslashuvchanligini oshirish, karbon chiqindilarini kamaytirish va energiya xavfsizligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi (World Bank, 2024).

Shu bilan birga, gidroenergetika loyihalari yuqori kapital sig‘imiga ega bo‘lib, ularni amalga oshirish katta hajmdagi uzoq muddatli investitsiyalarni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida energetika tizimini diversifikatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda mavjud gidroenergetika salohiyati to‘liq ishga solinmagan bo‘lib, ekspertlarning baholashicha, umumiy potensialning atigi 25–30 foizi foydalanilmoqda. Bu esa yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish va mavjudlarini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, gidroenergetika loyihalarini moliyalashtirishda bir qator jumladan, investitsiya resurslarining yetishmasligi, uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarining cheklanganligi, risklarni samarali taqsimlash tizimining rivojlanmaganligi, davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarining yetarli darajada qo‘llanilmasligi kabi muammolar mavjud.

Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki ekspertlari qayd etishicha, rivojlanayotgan davlatlarda energetika infratuzilmasini moliyalashtirishda innovatsion yondashuvlar – aralash moliyalashtirish (blended finance), yashil obligatsiyalar va PPP mexanizmlaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi (ADB, 2021; World Bank, 2022).

Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishi gidroenergetika loyihalarining barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Suv resurslarining mavsumiy o‘zgaruvchanligi, qurg‘oqchilik va boshqa ekologik omillar investitsiya risklarini oshiradi (IPCC, 2022). Bu esa moliyalashtirish mexanizmlarida risklarni boshqarish instrumentlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda energetika tizimini modernizatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatda jami elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 81,29 milliard kVt·soatni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 4,65 foizga oshgan. Bu esa iqtisodiyotda energiya talabining ortib borayotganini va energetika infratuzilmasini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur tizimda gidroenergetika muhim o‘rin tutadi. 2024-yilda O‘zbekiston gidroelektr stansiyalarida 8,2 milliard kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan, bu esa 2023-yilga nisbatan qariyb 20 foiz o‘sishni anglatadi. Ushbu ko‘rsatkich gidroenergetika sektorining barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda tarmoqda sezilarli institutsional va investitsion o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, 2020-2025-yillar davomida mamlakatdagi gidroelektr stansiyalar soni 37 tadan 58 taga yetkazildi, yangi loyihalar amalga oshirilishi natijasida umumiy quvvat 2225 MVtga yetdi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda yana o‘nlab yangi GES loyihalari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda gidroenergetika ishlab chiqarishining umumiy energetika balansidagi ulushi hali ham nisbatan cheklangan. Bu esa mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanilmayotganini bildiradi. Hisob-kitoblarga ko‘ra,

O‘zbekistonning gidroenergetika salohiyati 8 ming MVt atrofida baholanadi, biroq amalda undan foydalanish darajasi ancha past.

Energetika balansidagi tarkibiy o‘zgarishlar ham mazkur muammoning dolzarbligini oshirmoqda. Jumladan, 2024-yilda tabiiy gaz qazib olish hajmi 44,6 mlrd kub metrni tashkil etib, 4,5 foizga kamaygan. Bu esa an’anaviy energiya manbalari qisqarib borayotganini va qayta tiklanuvchi energiya, jumladan gidroenergetikaga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Gidroenergetika sektorida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirishda quyidagi omillarni hisobga olish dolzarblik kasb etadi:

energetika xavfsizligini ta’minlash va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zarurati;

yuqori kapital sig‘imi va moliyaviy risklarning mavjudligi;

PPP va innovatsion moliyalashtirish instrumentlariga ehtiyoj;

investitsiya muhitini yaxshilash zarurati;

eskirgan infratuzilmani modernizatsiya qilish talabi;

iqlim va resurs risklarini hisobga olish zarurati.

Gidroenergetika sektorida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiyotning muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u energetika xavfsizligi, ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

IPAK IPLARINI ISHLAB CHIQARISH VA TO‘QISHGA TAYYORLASH JARAYONIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

Oripov Jasurbek Ikromjon o‘g‘li
YSM kafedrasi datsenti
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Turg‘unov Muzaffar Zokirjon o‘g‘li
YSM kafedrasi assisenti
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ipak iplarini ishlab chiqarish va to‘qishga tayyorlash jarayonlarida moliyaviy shaffoflikni ta’minlash masalalari chuqur tahlil qilinadi. Zamonaviy to‘qimachilik sanoatida resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va korrupsion holatlarning oldini olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada ipak iplarini qayta ishlash bosqichlarida yuzaga keladigan moliyaviy jarayonlar, ularning nazorat mexanizmlari hamda shaffoflikni ta’minlash usullari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: ipak ipi, moliyaviy shaffoflik, to‘qimachilik sanoati, ishlab chiqarish, xarajatlar, audit, nazorat, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish

Bugungi kunda to‘qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ipak mahsulotlari ishlab chiqarish yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lib, eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Moliyaviy shaffoflikni ta’minlash bugungi iqtisodiy sharoitda dolzarb masalalardan biri bo‘lib, u korxonalarda ishonchni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va noqonuniy xarajatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shu sababli, ipak iplarini tayyorlash jarayonida moliyaviy shaffoflikni ta’minlash mexanizmlarini o‘rganish va takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Nazariy qism

Ipak iplarini ishlab chiqarish va to‘qishga tayyorlash bir nechta asosiy bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichda ma’lum miqdorda moliyaviy resurslar sarflanadi. Ushbu jarayonlar qurt boqishdan boshlab, ipak tolani ajratish, yigirish, qayta ishlash va nihoyat to‘qishga tayyorlash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Har bir bosqichda xom ashyo, energiya, ishchi kuchi va texnologik xarajatlar mavjud bo‘lib, ularni to‘g‘ri hisobga olish muhimdir.

Moliyaviy shaffoflik deganda, barcha xarajatlar va daromadlarning ochiq, aniq va hujjatlashtirilgan holda yuritilishi tushuniladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ipak iplarini tayyorlash jarayonida shaffoflikni ta’minlash uchun bir qator mexanizmlar mavjud.

Birinchidan, xarajatlarni aniq hisobga olish tizimi joriy etilishi lozim. Har bir texnologik operatsiya bo‘yicha sarflangan resurslar alohida qayd etilishi kerak. Bu orqali tannarxni aniqlash va ortiqcha xarajatlarni kamaytirish mumkin bo‘ladi.

Ikkinchidan, ichki audit tizimi muhim rol o‘ynaydi. Ichki audit yordamida moliyaviy jarayonlar muntazam tekshiriladi va kamchiliklar aniqlanadi. Audit natijalari asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Uchinchidan, raqamlashtirish jarayonlari moliyaviy shaffoflikni oshirishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot tizimlari yordamida ishlab chiqarish jarayonlari real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Bu esa moliyaviy oqimlarning to‘liq nazorat qilinishini ta’minlaydi. To‘rtinchidan, hisobot tizimini takomillashtirish zarur. Moliyaviy hisobotlar muntazam ravishda tuzilib, rahbariyat va tegishli tashkilotlarga taqdim etilishi lozim. Bu esa hisobdorlikni oshiradi.

Quyidagi jadvalda ipak iplarini tayyorlash jarayonidagi asosiy xarajat turlari keltirilgan:

Ipak iplarini ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy xarajatlar

1-jadval

№	Xarajat turi	Tavsifi
1	Xom ashyo	Ipak qurti pillasi
2	Energiya	Elektr energiyasi va issiqlik
3	Mehnat	Ishchilar mehnat haqi
4	Texnik xizmat	Uskunalarni ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish
5	Transport	Xom ashyo va tayyor mahsulot tashish

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xarajatlarning katta qismi xom ashyo va energiya hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli aynan shu yo‘nalishlarda shaffoflikni ta’minlash muhim hisoblanadi.



1-rasm.Ipak iplarini to‘qishga tayyorlash jarayonining bosqichlari

Moliyaviy shaffoflikni ta’minlashda korrupsiyaga qarshi mexanizmlar ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, xarid jarayonlarida ochiq tanlov tizimini joriy etish, barcha operatsiyalarni elektron shaklda yuritish va mustaqil nazorat organlarini jalb qilish samarali natija beradi.

Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Quyidagi rasmda ipak iplarini tayyorlash bosqichlari ko‘rsatilgan:

Ushbu bosqichlarning har birida moliyaviy operatsiyalar amalga oshiriladi va ular ustidan nazorat o‘rnatilishi zarur.

Natijada, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

xarajatlarning kamayishi

ishlab chiqarish samaradorligining oshishi

mahsulot sifatining yaxshilanishi

korrupsion holatlarning kamayishi

Xulosa

Ipak iplarini ishlab chiqarish va to‘qishga tayyorlash jarayonida moliyaviy shaffoflikni ta’minlash muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish jarayonlarida moliyaviy resurslarni aniq va ochiq boshqarish korxona samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Moliyaviy shaffoflikni ta’minlash uchun xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish, ichki audit tizimini rivojlantirish, raqamlashtirishni keng joriy etish va hisobot tizimini takomillashtirish zarur. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini kuchaytirish ham muhim hisoblanadi.

Kelgusida to‘qimachilik sanoatida zamonaviy boshqaruv usullarini qo‘llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali tashkil etish mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

DAVLAT SEKTORIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIK VA HISOBDORLIKNI TA`MINLASH HAMDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xalilova Shoxsanam G`ayrat qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii v.b., dotsenti PhD
Jumayev Nurmuhammad Rajabali o`g`li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii talabasi

Hisobdorlik har qanday siyosiy tizim uchun asosiy qadriyatdir. Fuqarolar o`z nomidan qanday harakatlar qilinganini bilish huquqiga ega bo`lishi kerak va hukumat noqonuniy yokida adolatsiz harakat qilganda, o`z huquqlari hukumat tomonida buzilganda tuzatish choralarini ko`rishni talab qilish va himoyalanish imkoniyatiga ega bo`lishlari kerak. Hisobdorlik hukumatning o`zi uchun ham muhimdir. Bunga urg`u berish korrupsiyani bartaraf etish va hukumatda shaffoflikni ta`minlashga yordam beradi. Davlat sektorida hisobdorlikni ta`minlash uchun shaffoflik va ochiqlik zarur, ammo bu yetarli emas. Agar davlat sektori o`z harakatlari haqida maxfiylikni saqlay olsa, siyosiy amaldorlar ustidan samarali nazoratni o`rnatish imkoniyatiga ega bo`lish ehtimoli juda kam.

Hisobdorlikning eng oddiy shakli bu ma`muriy tashkilotning o`zi qilgan ishlari haqida hisobot berish talabi. Hisobot qonun chiqaruvchi organga, auditoriyaga, hatto keng jamoatchilikka-nashr etilgan hisobot orqali taqdim etilishi kerak, shundagina baholash yetarlicha ommaviy va xolis bo`lishi mumkin.

Moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik asosan lavozimdagi huquqbuzarliklarni aniqlash va yetarlicha ishlamagan shaxslar yoki tashkilotlarni jazolash vositasi sifatida ko`riladi ayniqsa bu korrupsiya bilan bog`liq bo`lsa.

Boshqaruvni markazlashtirmasak korrupsiyani kuchaytirishi mumkinmi? Korrupsiya holatlari ba`zan mansabdor shaxslarning qaror qabul qilishda qo`llay oladigan ixtiyoriylik darajasi bilan bog`liq, buni kamaytirish ko`pincha korrupsiya xatti-harakatlari ehtimolini kamaytirish vositasi sifatida belgilanadi. Davlat sektoridagi korrupsiya ko`pincha muvaffaqiyatsiz boshqaruvning alomatidir. Davlat sektorini boshqarish sifati, hukumat va fuqarolar o`rtasidagi hisobdorlik munosabatlarining tabiati, huquqiy asos va davlat sektoridagi jarayonlarning shaffoflik va axborot tarqatish bilan birga borish darajasi kabi ko`plab omillarga bog`liq. Korrupsiya, shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlikka ham ta`sir qilishi mumkin bo`lgan omil hisoblanadi.

Ushbu asosiy omillarni yetarlicha hisobga olmagan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan sa`y-harakatlar chuqur va barqaror natijalarga olib kelishi ehtimoldan yiroq. Korrupsiya holatlari qanchalik yuqori bo`lsa, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi shunchalik kam korrupsiyaga qarshi kurashish xatti-harakatlariga qaratilgan taktikalarni o`z ichiga olishi va boshqaruv muhitining keng asosiy xususiyatlariga ko`proq e`tibor qaratishi kerak. Yuqori darajada korrupsiya rivojlangan davlatlarda birinchi navbatda qonun ustivorligini o`rnatish, hisobdorlik institutlarini mustahkamlash, moliyaviy shaffoflikni ta`minlash va belgilangan davlat xizmatlari standartlaridan foydalanishni o`z ichiga olgan asosiy huquqlarini belgilovchi fuqarolar jamoasini yaratish kerak.

Shu bilan bir qatorda mahalliy boshqaruvni mustahkamlash va ichki boshqaruvni o`rnatish bu borada muhim vosita hisoblanadi. Korrupsiyaning oldini olish uchun monitoring va auditni kuchaytirish kerak bo`ladi. Xodimlarni tayinlash tizimini soddalashtirilishi va xodimlarga axloq kodeksini targ`ib qilish bo`yicha intensiv va takroriy treninglar o`tkazilishi kerak, halollik, adolat, shaffoflik, hisobdorlik va qonun ustivorligi kabi axloqiy qadriyatlarga urg`u beriladi.Ish haqqi shunchalik yuqori bo`lishi kerakki, xodimlar o`zlarini qaramog`idagilarni pora olmasdan boqishlari mumkin bo`lsin. Tizimda shaffoflikni saqlaydigan va siyosiy rahbarlar va xodimlarni o`z harakatlari uchun javobgar qiladigan korrupsiyaga qarshi komissiya tuzilishi kerak.Bulardan tashqari tizimda markazlashtirish ham korrupsiyaga qarshi kurashga samarali yordam beradi.

NAZORAT VA AUDITNING TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISHDAGI ROLI

Ergashbayev Mardonbek Ravshanbek o‘g‘li
Bank hisobi va auditi kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi global moliyaviy tizimda tijorat banklarining iqtisodiy jarayonlardagi roli beqiyosdir. Ular nafaqat pul muomalasini ta’minlovchi vositachi, balki investitsiyalarning yo‘naltirilishida, iqtisodiy resurslarning taqsimotida, aholi jamg‘armalarini iqtisodiy faoliyatga jalb etishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan

ham tijorat banklarining moliyaviy holati, faoliyatining shaffofligi va barqarorligi har qanday iqtisodiyotda muhim masala hisoblanadi. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, bank faoliyati ustidan doimiy nazoratchilik va audit ishlarini tashkil etish, bu boradagi mexanizmlarni takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish zaruriyati tobora kuchaymoqda.

Bank nazorati - bu hukumatning moliyaviy tizimni barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlari yig‘indisidan iborat tizimli boshqaruv vositasi hisoblanadi.

Mazkur tizim oldida ikkita asosiy vazifa mavjud bo‘lib, birinchisi, nazorat jarayonlarini amalga oshirayotgan paytda banklar manfaatini, ikkinchisi, mazkur banklarga o‘z omonatlarini joylashtirgan mijozlar manfaatdorligini ko‘zlab ish yuritishdan iborat. Bundan tashqari nazorat qilinayotgan banklar joriy faoliyati bilan bog‘liq risklar darajasini aniq baholab berish talab qilinadi. Zero, bank mijozlari banklarning ommaviy chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlari axborotlari asosida moliyaviy koeffitsientlardan foydalangan holda bank faoliyatiga mustaqil baho berishlari mumkin.

Bunda bank tizimidagi biron-bir bank faoliyatiga salbiy baho berilishi bank tizimi mijozlarida boshqa banklarga bo‘lgan ishonchga ham putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun ham bank tizimini to‘la-to‘kis sog‘lom ishlashini ta’minlash maqsadida tegishli nazoratlar o‘tkazib turish juda muhim hisoblanadi. Bank nazoratining yana bir vazifalaridan biri bank sektorida ichki raqobatni rivojlantirish va shu asosda mijozlarga ularning bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutanosib ravishda xizmat ko‘rsatishni ta’minlash hisoblanadi.

Bank nazoratining asosini banklarning o‘zlari tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisobot shakli yoki auditorlik firmalari tasdiqlagan ish faoliyatining moliyaviy ahvoli va rentabelligi haqidagi axborotlar tashkil etadi. Ko‘pgina xalqaro me’yoriy xujjatlarda bank aktivlari va passivlarini to‘g‘ri baholash, ular faoliyatining moliyaviy natijalari haqqoniy baholanishi zarurligi ta’kidlanadi.



1-rasm. Bank nazorati tizimi[188]

[188] Tursunov Faridun Mustafoyevich (2023) Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari .2-3 bet

Barcha davlatlardagi bank nazorati tizimlari oldida 2 ta muhim vazifa turadi:

- Bank tizimini mustahkamlash hamda iqtisodiy o‘sishga hamkorlik qilish;
- Barcha omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish.

Bank nazorati oldida turgan asosiy vazifa butun bank tizimi barqarorligini ta’minlash bo‘lsada, lekin alohida olingan bank duch kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy muammolarni va inqirozlarni oldini olish maqsadga erishishdagi eng yaxshi yo‘ldir. Omonotchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilishdan maqsad, ular o‘z mablag‘laridan foydalanayotgan banklar tomonidan qanday xavf-xatarli operatsiyalar bajarilayotganligi to‘g‘risida ma’lumotga ega emaslar. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlardan biri 1997-yil martdan boshlab jahon andozalariga mos keladigan va banklar faoliyatini oydinlashtirish imkonini beradigan tijorat banklari hisobvaraqlari yangi rejasi amalga oshirilishi joriy qilinganligi bo‘ldi. Yangi hisobvaraqlar rejasini joriy qilinishi banklar faoliyati “oshkoraligini” (shaffoflik, ochiq-oydinlik) sarmoyadorlar, bank mijozlari va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun ochiqligini ta’minlash imkonini berdi.

Respublikamizda tijorat banklari faliyatini nazorat qilishining asosiy maqsadi tijorat banklariga biron bir iqtisodiy chora ko‘rish emas, balki bank faoliyatida mavjud bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etib, bank tizimining barqarorligini oshirish natijasida bank omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI VA ICHKI AUDIT TIZIMIDA INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI HISOBGA OLISH HAMDA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI

Malikov Javohir Shamsuddin o‘g‘li
TDIU IX-15 guruhi magistranti

Annotatsiya. Maqolada davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida intellektual mulk obyektlarini hisobga olish, ularni nomoddiy aktiv sifatida tan olish, huquqiy himoya qilish, inventarizatsiya qilish hamda ulardan foydalanish samaradorligini baholash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ichki auditning ushbu jarayondagi funksional vazifalari, amaldagi muammolar va tizimni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ochib berilgan. Tadqiqotning amaliy qismida O'zbekistonda istiqomat qiluvchi arizachilar tomonidan berilgan patent arizalari dinamikasi asosida grafik va jadval shaklidagi tahliliy material keltirilgan.

Kalit so'zlar: davlat moliyaviy nazorati, ichki audit, intellektual mulk, nomoddiy aktivlar, audit samaradorligi, baholash, inventarizatsiya, raqamlashtirish, patent arizalari.

Kirish. Davlat moliyaviy nazorati zamonaviy davlat boshqaruvida faqat mablag'larning qonuniy sarflanishini tekshirish vositasi emas, balki resurslardan maqsadli, tejamkor va samarali foydalanishni ta'minlovchi tizim sifatida namoyon

bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksiga ko'ra, davlat moliyaviy nazorati budjet to'g'risidagi qonunchilikning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida buxgalteriya, moliya, statistika, bank va boshqa hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish hamda taqqoslashni anglatadi.[189]

So'nggi yillarda ushbu tizimni takomillashtirish yo'nalishida bir qator institutsional chora-tadbirlar ko'rildi. Xususan, PF-6300-son Farmon bilan davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi hamda davlat moliyaviy nazorati hujjatlarini "Davlat auditi" dasturida jamlash vazifasi belgilandi.[190] Keyinchalik PF-100-son Farmon bilan ichki audit xizmatlari va davlat moliyaviy nazorat organlarining yillik rejalarini Hisob palatasi bilan kelishishni to'liq "Davlat auditi" dasturiy kompleksi orqali yuritish nazarda tutildi.[191]

Mazkur islohotlar sharoitida davlat sektorida yaratilayotgan intellektual mulk obyektlarini nazorat qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki patentlar, dasturiy ta'minotlar, ma'lumotlar bazalari, mualliflik huquqi obyektlari va boshqa nomoddiy resurslar davlat tashkilotlarining iqtisodiy salohiyatini aks ettiruvchi muhim aktivlardir. IAS 38 standartiga ko'ra, nomoddiy aktiv - jismoniy shaklga ega bo'lmagan, identifikatsiyalanadigan nomonetar aktiv bo'lib, unga dasturiy mahsulotlar, litsenziyalar, tovar belgilari, patentlar va mualliflik huquqi obyektlari kiradi.[192]

Biroq O'zbekistonda intellektual mulk sohasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan 2022-2026-yillar strategik hujjatlarida aynan "IP Management" sohasida yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi, davlat organlari va tashkilotlarida intellektual mulkni huquqiy himoya qilish lozim darajada yo'lga qo'yilmagani hamda sohani to'liq raqamlashtirish zarurligi qayd etilgan.[193] Bu esa intellektual mulkni hisobga olish va audit qilish masalasining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Intellektual mulk obyektlarining moliyaviy nazorat tizimidagi o'rni

Intellektual mulk obyektlari davlat sektori uchun ko'pincha yashirin iqtisodiy resurs sifatida namoyon bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat axborot tizimlari operatorlari va budjet tashkilotlari faoliyatida yaratilayotgan ko'plab ishlanmalar vaqtida huquqiy rasmiylashtirilmaydi yoki buxgalteriya hisobida

[189] O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, 3-modda va davlat moliyaviy nazoratiga oid normalar. LEX.UZ, https://lex.uz/docs/-2304138

[190] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son Farmoni "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". LEX.UZ, https://lex.uz/uz/docs/-5607471

[191] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-son Farmoni "Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". LEX.UZ, https://lex.uz/uz/docs/-7015258

[192] IFRS Foundation. IAS 38 Intangible Assets. https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-38-intangible-assets/

[193] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son qarori "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". LEX.UZ, https://lex.uz/uz/docs/-5987120

to'liq aks ettirilmaydi. Natijada tashkilot aktivlari, ilmiy salohiyati va iqtisodiy imkoniyatlari moliyaviy hisobotlarda to'liq ko'rinmay qoladi.

Shu sababli davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari intellektual mulk obyektlarini identifikatsiya qilish, huquqiy maqomini tekshirish, balansdagi aks etishini tahlil qilish hamda ulardan foydalanish natijadorligini baholashga alohida e'tibor qaratishi lozim. Budjet kodeksidagi ishonchlilik, xolislik va to'liqlik talablari nazorat hujjatlariga tatbiq etilgani sababli, intellektual mulk bo'yicha ma'lumotlar ham ushbu tamoyillar asosida shakllantirilishi kerak.



1- rasm. Intellektual mulk obyektlarini hisobga olish va audit qilishning funksional sxemasi[194]

Ichki auditning funksional vazifalari va audit mezonlari

The Institute of Internal Auditors ta'rifiga ko'ra, ichki audit mustaqil va xolis kafolat hamda maslahat faoliyati bo'lib, u tashkilot faoliyatiga qiymat qo'shish va uning operatsiyalarini takomillashtirishga qaratiladi.[195] U risklarni boshqarish, nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlari samaradorligini tizimli yondashuv asosida baholaydi.

Milliy normativ hujjatlarga ko'ra esa ichki audit xizmati vazirlik va idoralarning markaziy apparatida mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida tashkil etiladi, uning faoliyatiga boshqa mansabdor shaxslar aralashuviga yo'l qo'yilmaydi va audit tadbirlari ichki auditning milliy standartlari hamda maxsus qo'llanma asosida o'tkaziladi. Mazkur talablar intellektual mulk auditi uchun ham to'liq tatbiq etilishi zarur.

Intellektual mulk bo'yicha ichki audit quyidagi savollarga javob berishi kerak: tashkilotda qanday nomoddiy aktivlar mavjud; ularning huquqiy maqomi qay darajada mustahkam; bu obyektlar balansda to'g'ri aks ettirilganmi; foydalanishdan qanday iqtisodiy yoki ijtimoiy samara olinmoqda; huquqiy, operatsion va reputatsion risklar qanchalik boshqarilmoqda. Ana shunda ichki audit faqat tekshiruv emas, balki boshqaruv sifatini oshiruvchi vosita vazifasini bajaradi.

[194] Muallif ishlanmasi: normativ va metodik manbalar asosida tuzildi

[195] The Institute of Internal Auditors. Definition of Internal Auditing. https://www.theiia.org/en/standards/what-are-the-standards/definition-of-internal-audit/

1- jadval

Intellektual mulk obyektlaridan foydalanish samaradorligini baholash indikatorlari[196]

T/	Ko'rsatkich	Mazmuni	Baholash usuli
1	Hisobgaolingan obyektlar ulushi	Aniqlangan intellektual mulk obyektlarining balansga olingan qismi	Foizda
2	Huquqiy rasmiylashtirish darajasi	Patent, guvohnoma yoki litsenziya bilan tasdiqlangan obyektlar ulushi	Foizda
3	Tijoratlashtirish darajasi	Daromad keltirayotgan yoki amaliy foydalanilayotgan obyektlar ulushi	Foizda
4	Xarajat tejalishi	Joriy etilgan ishlanma yoki dasturiy mahsulot tufayli tejalgan mablag'	So'mda
5	Auditda aniqlangan kamchiliklar	Hisob, baholash va foydalanishdagi xatolar soni	Birlikda
6	Risk darajasi	Huquqiy, moliyaviy vaoperatsion xavflarning umumiy bahosi	Past/o'rta/yuqori

Amaliy tahlil: patent arizalari dinamikasi

Tadqiqotga tadrijiy ko'rinish berish maqsadida O'zbekistonda istiqomat qiluvchi arizachilar tomonidan berilgan patent arizalari dinamikasi tahlil qilindi. WIPO statistik mamlakat profili ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda bunday arizalar soni 379 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 428 taga, 2022-yilda 475 taga, 2023-yilda 541 taga yetgan, 2024-yilda esa 526 tani tashkil etgan. Demak, 2020-2024 yillar oralig'ida umumiy o'sish 38,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa-da, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 2,8 foizlik pasayish kuzatilgan.[197]

Mazkur dinamika davlat sektorida intellektual mulk bo'yicha hisobga olish, himoya qilish va audit mexanizmlariga bo'lgan talab ortib borayotganini ko'rsatadi. Patent arizalari sonining o'sishi bu obyektlarni ro'yxatga olish, baholash va ulardan foydalanishni monitoring qilish bo'yicha tizimli yondashuv zarurligini kuchaytiradi. Shu jihatdan, ichki audit xizmatlari uchun intellektual mulkni alohida nazorat obyekti sifatida ko'rish maqsadga muvofiq.

[196] Muallif ishlanmasi: ichki audit standartlari, IAS 38 va milliy normativ manbalar asosida ishlab chiqildi.

[197] World Intellectual Property Organization. Intellectual Property Statistics - Uzbekistan. WIPO Statistics Database, statistical country profile, last updated February 2026. https://www.wipo.int/edocs/statistics-country-profile/en/uz.pdf

2-jadval

O'zbekistonda istiqomat qiluvchi arizachilar tomonidan berilgan patent arizalari



1-rasm. O'zbekistonda istiqomat qiluvchi arizachilar tomonidan berilgan patent arizalari dinamikasi (2020-2024)[199]

Tizimni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

Birinchi ustuvor yo'nalish - davlat sektorida yaratilgan intellektual mulk obyektlarining yagona inventarizatsiya va reyestr tizimini shakllantirishdir. Har bir budjet tashkiloti va davlat ishtirokidagi korxonada yaratilgan patent, mualliflik huquqi obyekti, dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazasi, tovar belgisi va boshqa nomoddiy resurslar alohida ro'yxatga olinishi lozim. Bu audit izini mustahkamlaydi, huquqiy aniqlikni oshiradi va hisobotlar to'liqligini ta'minlaydi.

Ikkinchi yo'nalish - hisobga olish va baholash metodologiyasini takomillashtirishdir. IAS 38 talablari hamda milliy buxgalteriya qoidalari uyg'unlashgan holda, identifikatsiyalanish, boshlang'ich qiymatda tan olish, keyingi baholash, amortizatsiya va qiymat pasayishini aniqlash bo'yicha aniq metodik yondashuv ishlab chiqilishi kerak. Ayniqsa, budjet mablag'lari hisobidan yaratilgan dasturiy mahsulotlar bo'yicha xarajatlarni kapitalizatsiya qilish mezonlari izchil talqin etilishi zarur.

Uchinchi yo'nalish - ichki auditni riskga asoslangan modelga o'tkazishdir. Intellektual mulk bilan bog'liq auditda ro'yxatdan o'tkazilmagan obyektlar, litsenziya daromadlarining yo'qotilishi, noqonuniy foydalanish, ma'lumotlar xavfsizligi, funksional eskirish va tijoratlashtirish salohiyatining pasayishi kabi xavflar alohida risk matriksasida baholanishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchi yo'nalish - nazorat va auditning raqamli integratsiyasini kuchaytirishdir. PF-6300 va PF-100 hujjatlarida nazarda tutilgan "Davlat auditi" dasturiy kompleksi

[198] Manba: WIPO Statistical Country Profile - Uzbekistan ma'lumotlari asosida tuzildi

[199] Manba: WIPO Statistics Database, Intellectual Property Statistics - Uzbekistan (last updated: February 2026).

doirasida ichki audit ma'lumotlari, intellektual mulk reyestrlari, buxgalteriya axboroti va shartnoma bazalarini o'zaro bog'lash, real vaqtga yaqin monitoringni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Beshinchi yo'nalish - kadrlar salohiyatini oshirishdir. PQ-221-son qarorda IP Management sohasida yuqori malakali mutaxassislar yetishmayotgani alohida qayd etilgani bejiz emas. Intellektual mulk auditi huquq, buxgalteriya hisobi, baholash, IT va risk-menejment chorrahasidagi murakkab yo'nalish bo'lgani uchun, auditorlar uchun maxsus o'quv modullari va amaliy metodikalar ishlab chiqilishi zarur.[200]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimida intellektual mulk obyektlarini hisobga olish hamda ulardan foydalanish samaradorligini baholash zamonaviy boshqaruvning muhim talabiga aylanmoqda. Budjet tizimi va ichki audit bo'yicha amaldagi normativ asoslar ushbu jarayonni rivojlantirish uchun zarur institutsional poydevorni yaratadi. Ammo inventarizatsiya, huquqiy rasmiylashtirish, baholash, raqamlashtirish va kadrlar malakasi bilan bog'liq muammolar hanuz mavjud.

Tadqiqotda keltirilgan grafik va jadval ma'lumotlari patent arizalari faolligi ortib borayotganini ko'rsatdi. Demak, davlat sektorida intellektual mulk obyektlarini passiv hisob elementi sifatida emas, balki nazorat qilinishi, boshqarilishi va natijadorligi o'lchanishi lozim bo'lgan strategik resurs sifatida ko'rish zarur. Shu yondashuv davlat moliyaviy nazorati tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

DAVLAT QARZI VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI: O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI MISOLIDA

Axunova Shoxistaxon Nomanjanovna
FDTU, “Iqtisdodiyot” kafedrasi dotsenti,
Mamadaliyeva Gulsanam Axmadjon qizi
FDTU talabasi

Annotatsiya: Davlat qarzi hajmining ortib borishi sharoitida fiskal siyosat samaradorligini ta’minlash masalasi zamonaviy makroiqtisodiy boshqaruvning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada davlat qarzining fiskal barqarorlikka ta’siri, byudjet taqchilligi bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda iqtisodiy o‘sish jarayonlariga ta’sir etuvchi omillar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, davlat qarzini samarali boshqarish orqali fiskal siyosat natijadorligini oshirish imkoniyatlari hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mexanizmlari O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida baholangan. Tadqiqot natijalari fiskal intizomni kuchaytirish va davlat qarzi

[200] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son qarori "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". LEX.UZ, https://lex.uz/uz/docs/-5987120

yukini maqbul darajada saqlash iqtisodiy rivojlanishning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: davlat qarzi, fiskal siyosat, fiskal barqarorlik, davlat byudjeti, byudjet taqchilligi, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish, davlat qarzini boshqarish, moliyaviy siyosat samaradorligi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida davlat moliyasini samarali boshqarish mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, davlat qarzining hajmi va tarkibi fiskal siyosat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Davlat xarajatlarining ortishi, byudjet taqchilligining yuzaga kelishi hamda iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash zarurati ko‘plab mamlakatlarda davlat qarzining oshishiga olib kelmoqda.

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi hamda davlat xarajatlarining ortib borishi sharoitida davlat qarzini samarali boshqarish fiskal siyosatning muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Davlat qarzi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkonini bersa-da, uning haddan tashqari oshishi fiskal barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Makroiqtisodiy nazariyalarga ko‘ra, fiskal siyosat samaradorligi davlat qarzining hajmi, tuzilmasi va undan foydalanish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli davlat qarzini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi davlat qarzining fiskal siyosat samaradorligiga ta’sirini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda O‘zbekiston sharoitida uni boshqarishning samarali yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Davlat qarzi - bu hukumatning ichki va tashqi manbalardan jalb qilgan moliyaviy majburiyatlari yig‘indisi hisoblanadi. Iqtisodchi olimlar, jumladan N. Gregory Mankiw ta’kidlashicha, davlat qarzi asosan byudjet taqchilligi natijasida shakllanadi va u fiskal siyosat vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Iqtisodchi olim John Maynard Keynes nazariyasiga muvofiq, iqtisodiy pasayish davrida davlat xarajatlarini oshirish orqali yalpi talabni rag‘batlantirish mumkin, bu esa qisqa muddatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Biroq uzoq muddatda qarz yukining ortishi fiskal bosimni kuchaytiradi. N. Gregory Mankiw fikriga ko‘ra, davlat qarzining ortishi kelajak avlod zimmasiga qo‘shimcha soliq yukini yuklashi mumkin, shu sababli qarz siyosati muvozanatli olib borilishi zarur. Davlat qarzining ortib borishi davlat byudjeti xarajatlarida qarzga xizmat ko‘rsatish ulushining oshishiga sabab bo‘ladi. Natijada ijtimoiy soha, infratuzilma va investitsion loyihalarga ajratiladigan mablag‘lar qisqarishi mumkin. International Monetary Fund tadqiqotlariga ko‘ra, davlat qarzining yuqori darajasi uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sekinlashishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, qarz mablag‘lari samarali investitsiya loyihalariga yo‘naltirilgan taqdirda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Davlat qarzining nazoratsiz oshishi inflyatsiya bosimini kuchaytirishi hamda soliq yukining ortishiga olib kelishi mumkin.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni moliyalashtirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish hamda investitsion faollikni oshirish maqsadida davlat qarzi jalb qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, davlat qarzi asosan uzoq muddatli va imtiyozli tashqi kreditlar hisobiga shakllangan. Davlat qarzidan samarali foydalanish natijasida transport, energetika va sanoat sohalarida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Biroq fiskal barqarorlikni saqlash uchun qarz yukining maqbul darajada bo‘lishi muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki:

qarz mablag‘larini investitsiyaga yo‘naltirish iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi;

fiskal intizom davlat moliyasi barqarorligini ta’minlaydi;

qarz monitoringi tizimini kuchaytirish zarur.

2026 yilning 1 yanvar holatiga O‘zbekistonning davlat qarzi 46,8 mlrd dollarga yetdi. Davlat qarzining 39,8 mlrd dollari – tashqi qarz, 7 mlrd dollari esa – ichki qarz. Davlat qarzi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 mlrd dollar yoki 16,5 foizga oshdi. O‘zbekistonning eng yirik kreditorlari – Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki bo‘lib qolyapti. Qarzning 64 foizi dollarda, 12 foizi so‘mda, 9 foizi yevroda jalb qilingan. Davlat qarzining YAIM ga nisbati 31.9 foizgacha qisqardi (2024-yilda 35%). Tashqi qarzning teng yarmi davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishga sarflandi.

2023–2025 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida davlat qarzi hajmi bosqichma-bosqich o‘sish tendensiyasini namoyon etdi. 2023-yilda davlat qarzi taxminan 43,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 44,2 mlrd dollarga yetdi. 2025-yil yakuniga kelib esa davlat qarzi 46,85 mlrd dollargacha oshdi. Mazkur o‘sish asosan infratuzilma loyihalari, energetika sohasi modernizatsiyasi hamda byudjetni qo‘llab-quvvatlash maqsadida jalb qilingan tashqi moliyaviy resurslar hisobiga yuzaga kelgan. Qarz tarkibida tashqi qarz ulushi yuqori bo‘lib qolmoqda, bu esa davlatning xalqaro moliya institutlari bilan faol hamkorligini ko‘rsatadi.



1- rasm. Davlat qarzining 2023-2025yillardagi o’sish sur’ati.

Shu bilan birga, davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbati 2023-yilda 34.4 %, 2024-yilda 35 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 31,9 % gacha pasaydi. Bu holat iqtisodiyot hajmining o‘sishi qarz yukining nisbiy bosimini yumshatganini anglatadi. O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, jon boshiga davlat qarzi 1225 dollarni tashkil etdi.

Diagrammada davlat qarzining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi aks ettirilgan. Undan ko‘rinib turibdiki, qarz mablag‘larining eng katta qismi davlat byudjetini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu davlat moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ijtimoiy majburiyatlarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yoqilg‘i-energetika sanoati hamda transport va transport infratuzilmasi sohalariga ham sezilarli miqdorda mablag‘ ajratilgan. Bu esa iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va logistika tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.



2- rasm. Davlat qarzining sohalar bo'yicha taqsimlanishi

Qishloq va suv xo‘jaligi, uy-joy kommunal xo‘jaligi hamda tadbirkorlik va sanoat ishlab chiqarishini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlariga ajratilgan mablag‘lar esa iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilganligini ko‘rsatadi. Nisbatan kam ulush kimyo sanoati hamda sog‘liqni saqlash, ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi boshqa sohalarga to‘g‘ri keladi, bu esa davlat qarzining asosan infratuzilma va iqtisodiy rivojlanish uchun muhim bo‘lgan tarmoqlarga yo‘naltirilayotganini anglatadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda davlat qarzining YaIMga nisbatan darajasi xalqaro mezonlar bo‘yicha xavfsiz diapazonda saqlanib qolmoqda. Xalqaro amaliyotda davlat qarzining 60 foizdan past darajasi fiskal barqarorlik uchun maqbul hisoblanadi. 2025-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 145 mlrd dollardan oshgani davlat qarzi yukining nisbiy bosimini kamaytirishga xizmat qilgan. Bu esa fiskal siyosatning nisbatan ehtiyotkor olib borilayotganligini ko‘rsatadi. Shunga qaramay O’zbekiston davlat qarzini boshqarishda bir qator muammolar bor. Eng avvalo, tashqi qarzlarning katta qismi — qariyb 64 foizi — xorijiy, asosan AQSh dollarida jalb qilingan bo‘lib, bu esa mamlakatning valyuta risklariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Milliy valyutaning devalvatsiya jarayonlari kuchaygan sharoitda dollar ko‘rsatkichidagi har qanday o‘zgarish qarz yuki va unga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining oshishiga olib

keladi. Shuningdek tashqi qarz ulushining ichki qarzga nisbatan yuqori bo‘lishi ichki moliya bozorining yetarli rivojlanmaganini bildiradi va mamlakatning xalqaro moliya institutlariga qaramligini kuchaytiradi. Bunday vaziyat o‘z navbatida davlat qarzining xavfsiz boshqaruvini murakkablashtiradi va iqtisodiy mustaqillikka ta’sir qiladi. Qarz mablag‘laridan foydalanish samaradorligi ham doimo bir xil emas: ayrim investitsion loyihalarning iqtisodiy qaytimi past bo‘lib, ular o‘z vaqtida o‘zini oqlamayapti. Natijada qarz yuki oshishi va davlat byudjeti zimmasidagi majburiyatlar ko‘payishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining yil sayin ortayotgani ham byudjet imkoniyatlarini cheklab, ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarga yo‘naltiriladigan mablag‘ni qisqartirishi mumkin. Bu esa uzoq muddatda iqtisodiy o‘sish sur’atlari pasayishiga sabab bo‘lish ehtimolini oshiradi. Byudjet taqchilligini qisqa muddatda to‘liq bartaraf etish imkoniyati mavjud emasligi esa yangi qarz jalb qilish ehtiyojini kuchaytirib, qarz aylanishini davom ettirib kelmoqda. Bu esa fiskal siyosat barqarorligiga qo‘shimcha bosim yaratadi.

Umuman olganda, yuqoridagi muammolar davlat qarzini boshqarishda strategik yondashuvni kuchaytirish, valyuta risklarini kamaytirish, ichki moliya bozorini rivojlantirish va investitsion loyihalarni tanlashda qat’iy mezonlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Fiskal siyosat samaradorligi davlat qarzini oqilona boshqarish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: O‘zbekiston sharoitida davlat qarzini samarali boshqarish uchun avvalo qarz portfelining valyuta tarkibini yanada diversifikatsiya qilish zarur. Dollarga yuqori bog‘liqlik valyuta xavflarini kuchaytirgani sababli qarzlarni boshqa barqaror valyutalar yoki ichki bozordan jalb qilish fiskal xavfsizlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ichki obligatsiyalar bozorini rivojlantirish tashqi qarzga qaramlikni kamaytiradi va milliy moliya bozorining faolligini oshiradi. Qarz mablag‘larining samaradorligini ta’minlash uchun investitsion loyihalarni tanlash jarayonida qat’iy iqtisodiy mezonlarga amal qilish muhimdir. Faqat qaytimi yuqori bo‘lgan, iqtisodiy o‘sishga bevosita hissa qo‘shadigan loyihalarga ustuvorlik berilishi qarz yuki oshib ketishining oldini oladi. Shu bilan birga, davlat xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytirish, audit tizimini takomillashtirish va mablag‘lar sarflanishining ochiqligini ta’minlash fiskal samaradorlikni sezilarli oshiradi. Davlat qarzini boshqarishda o‘rta muddatli strategiyaning amaliy ahamiyati ham ortib bormoqda. Qarzni jalb qilish bo‘yicha limitlar, foiz stavkalari, xizmat muddati va risk darajasini belgilab borish qarz portfelining izchil boshqarilishiga imkon yaratadi. Ushbu mexanizm qarzning haddan tashqari o‘sib ketishining oldini oladi va fiskal barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Bunday chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi davlat qarzining xavfsiz darajada boshqarilishiga, fiskal xavflarning kamayishiga va iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlat qarzi fiskal siyosatning muhim tarkibiy elementi bo‘lib, uning hajmi va tuzilmasi makroiqtisodiy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Davlat qarzi qisqa muddatda iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlash, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish hamda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda muhim moliyaviy manba vazifasini bajaradi. Biroq qarz yukining ortib borishi byudjet xarajatlarida qarzga xizmat ko‘rsatish ulushining oshishiga, fiskal bosimning kuchayishiga va uzoq muddatli iqtisodiy risklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois davlat qarzini boshqarishda muvozanatli va ehtiyotkor fiskal siyosat yuritish zarur.

Tadqiqot natijalari fiskal siyosat samaradorligi qarz hajmiga emas, balki undan foydalanish samaradorligiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Qarz mablag‘larini ishlab chiqarish va investitsion yo‘nalishlarga yo‘naltirish iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi hamda kelgusida qarz yukini qoplash imkonini yaratadi.

O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI TA’MINLASHDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH MUHIM OMIL SIFATIDA

A.Karimov

Bojxona instituti mustaqil izlanuvchisi, Bojxona qo‘mitasi xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat idoralarida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashning zamonaviy holati, korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarining samaradorligi hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida rasmiy statistik ma’lumotlar, xalqaro indekslar va milliy islohotlar natijalari asosida ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik, korrupsiya, O‘zbekiston, ochiq budjet, davlat xaridlari, elektron hukumat, audit.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017-yildan boshlab davlat boshqaruvida ochiqlik siyosati kuchaytirildi.

Davlat budjeti ochiqligi, elektron davlat xizmatlari joriy etilishi va davlat xaridlarining raqamlashtirilishi moliyaviy shaffoflikni ta’minlashda muhim omil bo‘ldi. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, davlat boshqaruvida shaffoflik darajasi oshgan sari korrupsiya darajasi kamayadi. Masalan, Transparency International ma’lumotlariga ko‘ra, yuqori ochiqlikka ega davlatlar korrupsiya indeksida yuqori o‘rinlarni egallaydi.

O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borilib, davlat moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish masalalari dolzarb mavzu sifatida o‘rganilmoqda.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

statistik tahlil;

komparativ tahlil (xalqaro indekslar bilan solishtirish);

institutsional yondashuv;

normativ-huquqiy hujjatlar tahlili.

O'zbekistonda moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik holati bo'yicha tahlillarga to'xtalib o'tamiz.

Davlat budjeti ochiqligi yo'nalishida

So'nggi yillarda O'zbekistonda "Ochiq budjet" portali joriy etildi.

2023 yil yakunlariga ko'ra, ochiq budjet tashabbuslari doirasida 1,5 trillion so'mdan ortiq mablag' jamoatchilik takliflari asosida yo'naltirilgan.

Fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar soni 100 mingdan ortiqni tashkil etdi. Bu esa jamoatchilik ishtirokining oshganini ko'rsatadi.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish yo'nalishida

Elektron hukumat tizimi rivojlanishi natijasida:

2024-yilga kelib 300 dan ortiq davlat xizmatlari onlayn shaklga o'tkazilgan;

davlat xizmatlarining 70% dan ortig'i elektron tarzda ko'rsatilmoqda.

Natijada inson omili qisqarib, korrupsiya xavfi kamaygan.

Xalqaro indekslar tahlili

Transparency International'ning Korrupsiyani qabul qilish indeksiga ko'ra, O'zbekiston 2017-yilda – 22 ball, 2023-yilda – 33 ball bilan ijobiy o'sish dinamikasini ko'rsatdi.

Jahon bankining "Government Effectiveness" ko'rsatkichlari ham so'nggi yillarda yaxshilangan.

Davlat xaridlari tizimi yo'nalishida

Elektron davlat xaridlari tizimi joriy etilishi natijasida O'zbekistonda davlat tashkilotlari tomonidan tovar, xizmat va ishlar xaridini raqamli platformalar ya'ni O'zbekiston Respublikasi davlat xaridlari portali orqali amalga oshirilishi natijasida tenderlar va xarid jarayonlari ochiq e'lon qilinadi. Bu esa korrupsiya holatlarini kamaytiradi va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.Onlayn tizim orqali ko'proq kompaniyalar ishtirok eta olish imkoniyati yaratildi. Bu esa narx va sifat bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlash imkonini beradi.

Qog'ozbozlik kamayadi, barcha hujjatlar elektron shaklda yuritiladi. Bu jarayonni tezlashtiradi va ortiqcha xarajatlarni qisqartiradi. Avtomatlashtirilgan tizimlar orqali xarid jarayonlari aniq va tizimli boshqariladi. Bu davlat mablag'laridan oqilona foydalanishga yordam beradi.

Shuningdek, xaridlarning katta qismi ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda korrupsion xavflar sezilarli darajada kamayishiga olib keladi.

Institutsional islohotlar yo'nalishida

O‘zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Bu organ tizimli nazoratni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu borada huquqiy bazani yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Shu bois, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa normativ hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ushbu sohada asosiy huquqiy bazani tashkil etadi.

Bizning fikrimizcha davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi korrupsiyani kamaytirishda eng samarali vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ta’kidlash joizki bugungi kunda O‘zbekistonda moliyaviy shaffoflikni ta’minlashda ayrim muammolar mavjud *(1-rasm).*



1- rasm. O‘zbekistonda moliyaviy shaffoflikni ta’minlashda ayrim muammolar

Ilmiy taklif va tavsiyalar

Raqamli shaffoflikni chuqurlashtirish

Barcha moliyaviy operatsiyalarni yagona raqamli platformaga integratsiya qilish zarur.

Sun’iy intellekt asosida monitoring

Korrupsion xavflarni aniqlash uchun “big data” va AI texnologiyalarini joriy etish taklif etiladi.

Ochiq budjet tizimini kengaytirish

Hududiy darajada ham ochiq budjet mexanizmlarini kuchaytirish lozim bo`ladi.

Kadrlar siyosatini takomillashtirish

Davlat xizmatchilarini tanlashda shaffoflik va meritokratiya tamoyillarini kuchaytirish kerak.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar qisqa muddat ichida ijobiy natijalar bermoqda *(2-rasm).*



2- rasm. Islohotlar sababli erishilayotgan natijalar

Biroq tizimli muammolarni bartaraf etish uchun uzoq muddatli strategik yondashuv zarur.

Xulosa. Davlat idoralarida moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishidir. Korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirish orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish mumkin.

Kelgusida raqamlashtirish, jamoatchilik nazorati va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish ushbu sohada barqaror natijalarga olib keladi.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA BIOFAOL QO‘SHIMCHALARNING O‘RNI VA O‘ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQARISHNI LOKALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Raxmatullayev Nurbek Saydullayevich
Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti bosh inspektori,

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonga import qilinadigan biofaol qo‘shimchalar (BFQ) miqdori, qiymati, import geografiyasi, ularning aholining sog‘lom turmush tarziga ta’siri va kelgusida mazkur mahsulotlarning mamlakatimizda ishlab chiqarilishini kengaytirish hamda mahalliylashtirish yo’nalishlari o‘rganiladi. Shuningdek, mamlakatda biofaol qo‘shimchalar ishlab chiqarishni rivojlantirish, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik o‘rnatish, ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo tovarlariga bojxona to’lovlaridan beriladigan imtiyozlar va davlat tomonidan moliyaviy ko’makni kuchaytirish orqali ichki ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlarga moslashishini, xorijiy mamlakatlar, jumladan AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya kabi davlatlarning tajribasidan foydalanib, innovatsion

texnologiyalarni joriy etish va ichki ishlab chiqaishni kengaytirish orqali bozordagi BFQga bo'lgan talabni maksimal darajada qondirish istiqbollariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: BFQ, xom ashyo, import, BQB, bojxona to'lovlari, imtiyoz, optimallashtirish, mahalliylashtirish.

Kirish. Bugungi kunda sog'liqni saqlash va to'g'ri ovqatlanish masalalariga bo'lgan e'tibor global miqyosda tobora ortib bormoqda. Bunda biologik faol qo'shimchalar *(BFQ)* ahamiyati katta bo'lib, ular organizmga kerakli vitaminlar, minerallar, aminokislotalar, probiotiklar va boshqa foydali moddalarning yetishmasligini to'ldirishda muhim rol o'ynaydi. BFQlar, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan va sog'liqni saqlashni qo'llab-quvvatlashda samarali vosita sifatida qabul qilinadi. Biroq, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu bozor hali nisbatan yangi va ko'plab muammolar bilan yuzlashmoqda.

O'zbekiston bozorida BFQlar uchun talabning ortishi va xalqning sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishi bu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. 2022-2024-yillarda mamlakatimizga import qilingan BFQlar hajmi 1,5 barobar yoki 46 %ga oshdi, bu esa import strategiyalarini optimallashtirishni va mamlakatda sifatli va xavfsiz mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlashni talab qilmoqda. Shu bilan birga, bu sohaga oid muammolar, xususan, chetdan olib kelinayotgan mahsulotlarning sifatini nazorat qilish, noxush holatlarning oldini olish va mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

BFQlar bozorini rivojlantirishda asosiy maqsadlardan biri – mamlakatda mahalliy ishlab chiqarishni ko'paytirish va shu yo'l bilan importga bo'lgan bog'liqlikni kamaytirishdir. Bu o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy mustahkamligini ta'minlashga yordam beradi. Mahalliy ishlab chiqarish orqali xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlari oshadi va ayni paytda sog'liqni saqlashning samaradorligini kuchaytirish mumkin. Biroq, mahalliylashtirish jarayoni o'zining qiyinchiliklari bilan ham yuzlashmoqda, chunki bu jarayon ilg'or texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va tegishli standartlarga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqish kabi talablarni keltirib chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola O'zbekistonga import qilinayotgan BFQlarning bozorini tahlil qilish va bu mahsulotlarni mahalliylashtirish istiqbollari haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqolada, bir tomondan, BFQlar bozorining hozirgi holati, asosiy importchilar, talab va taklif o'rtasidagi muvozanat, boshqa tomondan esa, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga oid amaliy tavsiyalar, muammolar va imkoniyatlar o'rganiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston uchun mahalliy BFQ ishlab chiqarish sohasida mavjud bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik imkoniyatlar ham ko'rib chiqiladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun rag'batlantiruvchi choralar, xususan aksiz

solig‘idan imtiyozlar, xarajatlarni kamaytirish va sifatni oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi. Biroq, ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

Shu tariqa, ushbu maqola BFQ bozorining mavjud holatini o‘rganish, uni mahalliylashtirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, sohaga doir davlat siyosatining kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga qaratilgan. Maqola, ayniqsa, sog‘liqni saqlash va oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, tadbirkorlar, davlat idoralari va ilmiy xodimlar uchun foydali bo‘lishi kutilmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash BFQ importi bozorini optimallashtirish hamda mazkur turdagi mahsulotlarni mahalliylashtirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo’ladi.

2022-2024-yillar davomida mamlakatimizga import qilingan BFQ mahsulotlari miqdori, qiymati, jo‘natuvchi davlatlar, undirilgan bojxona to‘lovlari va berilgan imtiyozlar, shuningdek xorijiy davlatlar tajribasi o‘rgangan va hamkorlik qilgan holda, O‘zbekistonda ham mazkur turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni joriy qilish, importga bo‘lgan talabni kamaytirishga erishish mumkin.

Material va metodlar. O‘zbekistonda 2022-2024-yillar davomida import qilingan BFQ mahsulotlariga oid statistik va tahliliy ma’lumotlar Milliy statistika agentligi, Bojxona qo‘mitasi, Farmasevtika tarmog’ini rivojlantirish agentligi, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlari va hisobotlaridan foydalanilgan holda tahlil qilindi.

Ushbu ilmiy maqolani tadqiq etishda solishtirma, statistik, normativ-huquqiy tahlillar, shuningdek tizimlilik, qiyoslash, induksiya va deduksiya hamda boshqa usullardan foydalanilgan. Mavzuga oid xorij tajribalari o‘rganib chiqilib, zarur taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalari. Xorijiy davlatlarning olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar BFQ sohasida bir qator muhim yangiliklarni yaratdi. AQSHda Dr. Mark C. DeVries va Dr. Susan L. Marsh tomonidan probiyotiklar va prebiotiklarning immun tizimi va ichak mikroflorasiga ta'siri o‘rganildi. Ular probiyotiklar yordamida ichak mikrobiotasini normallashtirish va immun tizimining faoliyatini oshirishning samaradorligini ko‘rsatdi. Yevropada esa Prof. Dr. Anne-Marie Pimentel *(Fransiya)* va Dr. Dieter N. Schmidt *(Germaniya)* BFQlarning antioksidant xususiyatlarini, ayniqsa, yurak-qon tomir tizimiga ta’sirini o‘rganib, o‘simlik ekstraktlari va flavonoidlarning kardioprotektiv ta'sirini tasdiqladi. Yaponiya olimi Prof. Dr. Yuji Nagata esa o‘simliklardan olingan yangi biofaol moddalarni ishlab chiqishda ilg‘or texnologiyalar, masalan, fermentatsiya va nanoteknologiyalarni qo‘llash orqali BFQlarning samaradorligini oshirishni o‘rgandi. Shuningdek, Xitoy olimi Dr. Lei Zhang o‘simliklardan olingan yangi biofaol moddalarning organizmdagi so‘rilishini yaxshilash va ularni yanada samarali qo‘llashni o‘rganib, tabiiy moddalardan olingan

BFQlarning tibbiyotdagi potensialini tadqiq qildi. Bu ilmiy ishlar BFQlar bo‘yicha xalqaro tajribani boyitib, O‘zbekistonda ham BFQ ishlab chiqarishni rivojlantirishda asosiy yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi.

O‘zbekistonda 2022-2024-yillarda import qilingan BFQ mahsulotlari miqdori o‘rganildi *(1-rasm).*



*1- **rasm.** **2022-2024-yillarda import qilingan BFQ mahsulotlari miqdori** (ming tn)*

Yuqoridagi rasmga ko‘ra, ozuqaviy qo‘shimchalarga talab har yili oshib, 2021-yilda 12,6 ming tonnadan 2024-yilda 18,7 ming tonnaga yetdi, bu taxminan 48%ga o‘sishni ko‘rsatadi va aholining sog‘lom ovqatlanishga bo‘lgan qiziqishining ortib borayotganini anglatadi. Saqichga talab 2022-yilda 0,1 ming tonnaga kamaygan bo‘lsa, 2024-yilda yana 0,2 ming tonnaga ko‘tarildi, oqsilli qo‘shimchalar esa 2022-2024-yillarda barqaror qolgan. Mamlakatimizga import qilingan BFQ mahsulotlari, asosan Mari Moloko, Dohler, Frima, Orbit, Nestle, Herbalife Nutrition, Mentos, Protein Powder kabi markalar tashkil qilgan.

Quyida 2022-2024-yillarda import qilingan BFQ mahsulotlari qiymati keltiriladi *(2-rasm).*



*2- **rasm.** **2022-2024-yillarda import qilingan BFQ mahsulotlari miqdori** (mln AQSH dollarida)*

Ozuqaviy qo‘shimchalar importi 2022-yilda 59,3 mln AQSH dollaridan 2024-yilda 78,0 million dollarga ko‘tarilib, taxminan 31%ga oshgan, bu esa aholining sog‘lom ovqatlanishga bo‘lgan talabining ortib borayotganini ko‘rsatadi. Saqich importi esa 2023-yilda oldingi yilga qaraganda 0,9 mln AQSH dollariga tushib, keyin 2024-yilda 2022 yilga nisbatan 1,3 mln AQSH dollariga ko‘tarilganligini kuzatishimiz mumkin. Oqsilli qo‘shimchalar importi esa oxirgi 2 yilda 0,6 million dollarga kamayib, 1,5 mln AQSH dollarini tashkil qilganligini ko’rishimiz mumkin.

Quyida 2022-2024-yillarda import qilingan BFQ mahsulotlari geografiyasi to’g’risida ma’lumot keltiriladi *(1-jadval).*

1-jadval

2022-2024-yillarda import qilingan BFQ mahsulotlari geografiyasi *(tonnada)*

Davlat nomi	**2022 yil**	**2023 yil**	**2024 yil**
Rossiya	8 789,5	8 341,0	13 194,5
Koreya	742,1	825,7	1 230,7
Fransiya	638,8	893,0	1 019,5
Niderlandiya	467,1	572,5	527,0
Ukraina	457,9	296,8	247,6
Hindiston	388,1	251,9	249,6
Litva	331,7	153,8	106,8
Germaniya	328,3	157,4	272,4
Belarussiya	327,3	330,1	195,3
Xitoy	269,9	472,1	638,1
Turkiya	211,9	404,3	427,5
BAA	117,1	57,1	69,6
Polsha	110,6	334,5	720,7
Boshqa davlatlar	562,8	939,9	1105,3
Jami:	**13 743,1**	**14 030,0**	**20 004,4**

Yuqoridagi jadvaldan shuni tushunish mumkinki, 2024-yilda import qilingan BFQ mahsulotlarining 13,2 ming tn yoki 66 % Rossiyaga, 1,2 ming tn yoki 6,2 % Janubiy Koreyaga hamda 1,0 ming tn yoki 5,1 % Fransiyaga hamda 4,6 ming tn yoki 23% boshqa davlatlar (Polsha, Niderlandiya, Xitoy, Turkiya, Ukraina, Germaniya, Hindiston va boshqalar)ga to‘g‘ri kelgan. Xususan, BFQ mahsulotlari importi oxirgi ikki yil davomida Polshadan 6,5 barobar, Xitoydan 2,4 barobar, Turkiyadan 2 barobar, Janubiy Koreyadan 1,7 barobar, Fransiyadan 1,6 barobar hamda Rossiyadan 1,5 barobarga ortgan. Xulosa

qilganda, 2024-yilga kelib, import hajmi 20 004,4 tonnaga yetdi, bu 2022-yilga nisbatan 45%ga oshganligi ko‘rsatadi.

Quyida 2022-2024-yillarda import qilingan BFQ mahsulotlaridan undirilgan bojxona bojlari va bojxona to’lovlaridan berilgan imtiyozlar miqdori to’g’risida ma’lumot keltiriladi *(3-rasm, mlrd so‘mda)*.



4-rasm. 2022-2024-yillarda biodobavka mahsulotlaridan undirilgan va berilgan jami imtiyozlar *(mlrd so‘mda)*

Yuqoridagi rasmdan shuni tushunish mumkinki, 2022-2024 yillar davomida O‘zbekistonda BFQ importidan undirilgan bojxona to‘lovlari hajmi oshgan. Xususan, 2022 yilda BFQ importidan undirilgan bojxona to’lovlari 265,4 mlrd so‘mni tashkil etgan bo’lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 41% ga ortib, 375,0 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bojxona to’lovlaridab berilgan imtiyozlar esa deyarli barqaror qolgan. 2022 yilda 105,3 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda 6 mlrd so’mga ortib, 111,0 mlrd so‘mni tashkil qilgan.

Shuningdek, 2024-yil va 2025-yilning dastlabki 8 oyi davomida BFQning mamlakatimiz hududida noqonuniy olib kirilishi yuzasidan aniqlangan BQB holatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2024-yilda jami 23 ta holatda 517,9 mln so‘mlik BQB (shundan 2 ta holatda 12,3 mln so‘mlik jinoiy ish va 21 ta holatda 505,6 mln so‘mlik ma’muriy ish) va 2025-yilning dastlabki 8 oyi davomida 116 (o‘tgan yilning mos davrida 95)ta holatda 2,7 (1,5) mlrd so‘mlik (shundan 2 ta holatda 385 mln so‘mlik jinoiy ish va 115 ta holatda 2,3 mlrd so‘mlik ma’muriy ish) holatlari aniqlangan.

Ta’kidlash joizki, dori vositalari va biologik faol qo‘shimchalarning tashqi ko‘rinishi, qadoqlanishi o‘xshash bo‘lishiga qaramasdan, ular alohida boshqa turdagi mahsulotlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 30.08.1997-yilda qabul qilingan “Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi to‘g‘risida”gi 483-I-sonli qonunning 2-moddasiga ko‘ra, “Ovqatga qo‘shiladigan BFQar" — oziq-ovqat xom ashyosini qayta ishlash yo‘li bilan yoki sun’iy usulda hosil qilingan hamda bevosita ovqat bilan birga iste’mol qilishga yoki oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo‘shishga mo‘ljallangan tabiiy yoxud tabiiyga aynan o‘xshaydigan BFQlarning konsentratlari hisoblanadi. BFQlarni bojxona hududiga olib kirish VMning 2021-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida muvofiqligi

tasdiqlanishi lozim bo‘lgan muvofiqlikni baholash obyektlari ro‘yxatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 43-son qarorining 3-ilovasi hamda 30.04.2016-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologiya xizmati tizimida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 131-sonli qapop talablariga ko‘ra, SSV Sanitariya- epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi tomonidan berilgan maxsus ruxsatnoma va xulosa asosida amalga oshiriladi.

Shu sababli, ko‘p davlatlarda huquqbuzarlar tomonidan xorijda noma’lum sharoitlarda ishlab chiqarilgan, sifati talabga javob bermaydigan BFQlarni kontrabanda yo‘li bilan olib kirishga urinadilar.

Xususan, joriy yil boshida ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonda taqiqlangan, biroq internet orqali onlayn sotilayotgan 19 turdagi tarkibida “sibutramin” kuchli ta’sir qiluvchi moddasi mavjud ozdiruvchi mahsulotlar to‘g‘risida ma’lumotlar tarqaldi.

Shu bilan birga, noqonuniy yo‘l bilan olib kirilgan BFQlar tarkibida zaharli va giyohvand moddalar uchrashi kuzatilmoqda.

Jumladan, joriy yilning avgust oyida Rossiya Federatsiyasining “Roskachestvo” tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan monitoring davomida “Wildberries”, “Ozon” va “Yandeks-Market” kabi marketpleyslarda sotilayotgan 400 dan ortib BFQlar tarkibida muomalasi taqiqlangan “vitaniya snotvornaya” (Withania somnifera), “yakorsы stelyuщiyesya” (Tribulus terestis), “efedrin”, “kava-kava” (peres opyanyayuщiy) va “koka” yaproqlari (kokain butasi) moddalari borligi aniglangan.

O‘zbekiston marketpleyslarida 60 mingdan ortib BFQlar tegishli maxsus ruxsatnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarsiz hamda oziq-ovqat qo‘shimchalari” va “sport ozuqalari” kategoriyalarida yashirincha sotib kelinayotganligi ma’lum bo‘lgan. Shuningdek, 200 dan ortib dori vositalari dam biologik faol bushimchalar sifatida erkin sotib kelingan.

Tadqiqot natijalari tahlili. O‘zbekistonning biologik faol qo‘shimchalar *(BFQ)* bozorida 2022-2024 yillarda import hajmi sezilarli o‘sish ko‘rsatdi. Bu, avvalo, aholi orasida sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishning ortganligini, shuningdek, BFQlar va ularning sog‘liqni saqlashga foydaliligiga bo‘lgan talabning kuchayganini ko‘rsatadi. 2020-yilning oxiridagi pandemiya davrida odamlar immun tizimini mustahkamlashga va sog‘lom ovqatlanishga ko‘proq e’tibor bera boshladilar, bu esa BFQlar bozorining yanada rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, aholining sport va fitnesga bo‘lgan qiziqishning ortishi, oziq-ovqat mahsulotlariga, jumladan BFQlarga bo‘lgan talabni oshirdi. Import hajmiga qarab, O‘zbekistonning BFQ bozorida talabning o‘sishi davom etmoqda, lekin bu bozor hali to‘liq o‘z ichiga mahalliy ishlab chiqarishni kiritmagan.

O‘zbekiston bozoriga import qilingan BFQ mahsulotlari turlariga qaraganda, ozuqaviy qo‘shimchalar importi eng katta o‘sish ko‘rsatgan segment bo‘ldi. So’nggi ikki yilda BFQ importining 48%ga o’sishi aholining sog‘lom ovqatlanishga bo‘lgan qiziqishi,

vitaminlar va minerallarga bo‘lgan ehtiyojning ortishini ko‘rsatadi. Saqich importi esa 2022-yilda biroz kamaygan, lekin 2023-yilda yana ortgan. Bu, saqich mahsulotlariga bo‘lgan talabning doimiyligini, ayniqsa aholi orasida ommabop ekanligini anglatadi. Oqsilli qo‘shimchalar importi esa deyarli barqaror bo‘lib qolgan, bu segmendagi talabning barqarorligini ko‘rsatadi.

2022-2024 yillar davomida sezilarli darajada oshdi. 2022 yilda bojxona to‘lovlari 265,4 milliard so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, oxirgi ikki yilda import qilingan BFQ mahsulotlari orqali undirilgan bojxona to‘lovlari 41% ga ortishi davlat byudjetiga qo‘shimcha daromad manbai sifatida katta hissaga ega bo‘lganini bilan birga, mazkur turdagi mahsulotlar importiga qaramlikni kamaytirish hamda mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish lozimligini ham anglatadi.

O‘zbekistonning BFQ bozorida noqonuniy import masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Joriy yilning dastlabki 8 oyi davomida aniqlangan BQB holatlari oldingi yilning mos davriga qaraganda qariyb 5 barobarga ortishi ushbu turdagi mahsulotlarning noqonuniy kirib kelishiga yanada jiddiy e’tibor qaratishimiz hamda aholining salomatligiga xavf tug’diradigan sifatsiz mahsulotlarning importini oldini olish zarurligini, shuningdek chegaradan olib kiriladigan yoki jismoniy shaxsllarga pochta orqali yo’boriladigan BFQ mahsulotlar ustidan qat’iy nazorat va tekshiruv tizimini yo‘lga qo‘yish lozimligi ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning BFQ bozorida mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatlari juda keng. Mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishi orqali importga bo‘lgan bog‘liqlikni kamaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahsulotlarning sifatini oshirish va narxlarni pasaytirish mumkin. O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi va tabiiy resurslari BFQ ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xom ashyolarni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish uchun davlat tomonidan soliq imtiyozlari, moliyaviy ko’mak hamda marketingni rivojlantirish zarur. Bu nafaqat bozorni diversifikatsiya qilish, balki xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini ham yaratadi. Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xorij tajribasidan foydalanib ishlab chiqarishning yuqori standartlarga javob berishi uchun zarur bo‘lgan infratuzilma yaratish kerak.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida, ayniqsa AQSH, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va Yaponiyada biologik faol qo‘shimchalar ishlab chiqarish sanoati kuchli rivojlangan va ularda romashka, zira, zanjabil, arpabodiyon, aloe, jenshen, ginkgo biloba, qoragat, archa, lavanda, itmurod, shaffof kabi ko‘plab tabiiy o‘simliklar va ekstraktlardan foydalanib, BFQ mahsulotlari ishlab chiqaradi. Xususan, FDA *(Food and Drug Administration)* — AQSHda biologik qo‘shimchalarni nazorat qiluvchi asosiy organ. Uning talablariga ko‘ra, ishlab chiqaruvchilar nafaqat mahsulotning tarkibi, balki ishlab chiqarish jarayoni, inson salomatligi uchun xavfsizligi va sifatini isbotlashlari kerak.

EFSA *(European Food Safety Authority)* Yevropa Ittifoqi davlatlarida qo‘shimchalar ishlab chiqarishni nazorat qiladi va mahsulotlarning xavfsizligi va faolligini, shuningdek mahsulotlarning maxsus markirovka qoidalarini tasdiqlaydi.

Xususan, Yaponiya va Janubiy Koreyada qo‘shimchalar ishlab chiqarishda ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarga, xususan turli o‘simliklar va tabiiy ekstraktlar asosida yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishga katta e’tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda ham ushbu yo‘nalishda mahalliy ishab chiqaruvchilar mavjud. Biofaktor, Uzbiopharm va Samarkand Nutraceuticals kabilar shular jumlasidan. Mazkur korxonalarda aholi iste’moli va salomatligi uchun 30 dan ortiq BFQlar hamda farmokologik qo‘shimcha vositalar , shuningdek hayvon va parrandalar uchun veterinar preparat va ozuqaviy qo‘shimchalar, immunobiologik biofaol qo‘shimchalar ishlab chiqarilmoqda. Ushbu yo‘nalishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar xorijiy ilg‘or kompaniyalar, xususan Polshaning Fito Lab kompaniyasi bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda.

Xulosa va takliflar. O‘zbekistonda BFQ importining o‘sishi va turli mamlakatlardan mahsulotlarning kirib kelishi, aholi orasidagi sog‘lom ovqatlanishga bo‘lgan talabning oshganini ko‘rsatadi. Mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishi, importga bo‘lgan bog‘liqlikni kamaytirish va eksport imkoniyatlarini oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Biroq, noqonuniy importni oldini olish va mahsulotlarning xavfsizligini ta’minlash zarur. Shu bilan birga, xorij tajribadsini o’rgangan holda yo’qori texnologiyalardan keng foydalanish orqali O‘zbekiston BFQ bozorini yanada samarali va barqaror rivojlantirish mumkin.

Ishlab chiqarish sohasidagi zamonaviy tajribalardan foydalanish va xalqaro standartlarga moslashish hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali O‘zbekiston BFQlar bozorida munosib o‘rin egallash imkoniyatiga ega. Mamlakatimiz aholisida BFQga ehtiyoj oshayotganligni inobatga olib, ushbu sohani mahalliylashtirish maqsadga muvofiq. O‘zbekistonda BFQ ishlab chiqarish sohasi rivojlanishda davom etmoqda, lekin bu sohadagi imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun qator takliflar bor:

1. BFQ ishlab chiqarilishida foydaliniladigan xom ashyolar *(o‘simlik xom ashyolari, nutriyent, protein, probiotik, tabiiy ekstraktlar va boshqalar)* importida bojxona to‘lovlaridan imtiyoz berish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab quvvatlash.
2. Tayyor BFQ mahsulotlarida mavjud imtiyozlarni bekor qilish hamda ichki ishlab chiqaruvchilarga hukumat tomonidan alohida e’tibor qaratish *(moliyaviy ko‘mak va imtiyozli kreditlar)*.
3. Farmatsevtik Investorlar Assotsiatsiyasi (PIA) bilan hamkorlik qilish orqali BFQlar ishlab chiqarishda xorijiy kompaniyalar *(masalan, Nestlé Health Science, Amway, General Nutrition Corporation, NOW Foods, Nature‘s Way, Solgar)* bilan

kelishuvga erishish. Bunday hamkorlik natijasida yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy laboratoriyalar uchun ilg‘or texnologiyalar va tajribalardan foydalangan holda, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshirish mumkin.

THE DEVALUATION OF MONEY: AN ANALYSIS OF THE INFLATION PROCESS AND ITS CAUSES

Dilshodova Mohira Ulug’bek qizi
ISFT institute, 1st-year student of group 25-IAAF.

Abstract. This article analyzes the economic nature of inflation, the causes of its emergence, and its impact on the economy based on various scientific and statistical sources. The study examines the theoretical foundations of inflation, the factors influencing changes in the price level, the role of monetary policy, and the processes that occur in the economic system under conditions of high inflation. In addition, the dynamics of inflation in the economy of Uzbekistan, its main causes and indicators are analyzed on the basis of statistical data and forecasts of international organizations, and the importance of inflation in the modern economic system is generally explained.

Key words: inflation, price level, monetary policy, money supply, aggregate demand, aggregate supply, price stability, economic indicators, interest rates, fiscal policy, market equilibrium, demand-pull inflation, cost-push inflation, hyperinflation, currency devaluation, money creation, fiscal imbalance, structural adjustment, economic stabilization, macroeconomic instability, inflation dynamics, policy shocks, inflation modeling.

Inflation: its nature and causes of occurrence

In economic literature, inflation is understood as a long-term and sustained increase in the prices of goods and services, which gradually reduces the purchasing power of money [1]. In other words, a given amount of money can buy fewer goods or services than before. This phenomenon is one of the central topics of macroeconomic analysis, and ensuring price stability is considered a priority task for central banks and governments.

Interpreting inflation only as a “rise in prices” would be an oversimplification. In reality, it is a multifaceted process that reflects economic imbalance, disequilibrium between demand and supply, excessive pressure on the monetary system, and the variability of production factors [1]. In studying inflation, economists rely on indicators such as the dynamics of the price level, changes in the money supply, supply constraints, economic policy decisions, and inflation expectations [4].

Main causes of inflation: Inflation arises under the influence of several macroeconomic factors. Scientific sources highlight the following main causes [1].

Demand-pull inflation: This is the most common form of inflation, occurring when overall demand grows faster than production capacity [1]. An increase in household incomes, easier credit conditions, or higher government spending strengthens market demand. When producers are unable to meet this increased demand in the short term, they are forced to raise prices. This process disrupts market equilibrium and leads to a general increase in the price level.

Cost-push inflation: This type of inflation arises from an increase in

production costs [4]. Its main factors include:

rise in raw material prices;

increase in energy and fuel costs;

rise in wages;

increase in logistics and transportation expenses.

When a producer needs to spend more to create goods, they pass additional costs onto the buyer to maintain their profit. This phenomenon is a typical example of the "supply shock" observed in many economies [4].

Monetary inflation: This type of inflation occurs due to an excessive increase in the money supply relative to the real economic growth rate [3]. Main factors include:

excessive money issuance by the central bank;

overexpansion of credit;

covering government budget deficits by issuing new money into circulation.

In this context, Friedman's famous phrase remains relevant: "Inflation is always and everywhere a monetary phenomenon" [3].

Inflation expectations: If households and business entities expect prices to rise in the future, this expectation becomes a self-fulfilling prophecy [1]. Workers demand higher wages; producers incorporate expected cost increases into prices in advance. In this way, the psychological factor accelerates real inflation.

Currency depreciation: When the national currency weakens in the foreign market, the prices of imported goods automatically rise, which in turn leads to a general increase in the price level [3]. This effect is particularly pronounced in economies highly dependent on imports.

Fiscal imbalance: A continuous increase in government expenditures over revenues strengthens inflationary pressure [1; 4]. The main forms of this situation are:

budget deficit;

excessive accumulated government debt;

inefficient government spending.

Covering debt obligations through money issuance or frequent changes in tax policy increases market instability and raises inflationary pressure [4].

External factors: Global processes can also trigger inflation [3]. Such factors include pandemics, military conflicts and wars, disruptions in international supply chains,

and shortages of raw materials. Disruptions in global supply chains sharply reduce market supply. In conditions of decreased supply, prices rise according to the classic market law [3].

Controlling Inflation: Historical Experiences and Policy Conclusions

Experiences from countries that have thoroughly studied inflation show that, in some cases, a significant reduction in price growth was achieved without causing major economic damage. For example, in France and Italy in the mid-1960s, and in Japan at the end of the 1970s, inflation was controlled using relatively mild measures [1]. Analyzing these experiences, Gordon emphasizes that sharp measures aimed at reducing demand, known as the "cold turkey" approach, can be effective in lowering inflation, despite the risks of slowing economic growth and increasing unemployment [1].

Sargent's study, titled *"The Outcome of Four Great Inflations,"* leads to a completely different conclusion. After World War I, Austria, Hungary, Poland, and Germany experienced uncontrolled inflation [1]. The experiences of these four countries revealed the following general patterns:

during periods of inflation, these countries' budgets had large and persistent deficits;

strict and comprehensive fiscal-monetary reforms almost instantly halted hyperinflation;

even after inflation was controlled, the money supply continued to grow, but prices remained stable [1].

These historical cases provide an important lesson for modern policymakers: the key to fighting inflation often lies not in monetary policy, but in fiscal discipline.

The Impact of Inflation on Economic Institutions

A number of studies examining the U.S. economy highlight the negative impact of inflation on various economic institutions. In particular, Bulow, in his work on pension systems, finds that private pension plans hold tens of billions of dollars in excess reserves as a result of inflation [1]. Inflation raises the interest rates earned by pension funds, but the pensions of most retirees do not increase accordingly. Most private pensions are fixed in dollar terms at the time of retirement and are not adjusted for subsequent inflation, unlike Social Security [1].

Carlton, in his research on market organizations, shows that during periods of rapidly rising inflation, the U.S. markets favored the trade of standardized products while moving away from custom-made goods [1]. In inflationary conditions, the cost of gathering price information increases, forcing consumers to spend more time and effort. A clear example of this is the approximately 20-fold increase in the number of contracts traded on the Chicago Mercantile Exchange between 1955 and 1978 [1].

Feldstein, in his study, demonstrates that when tax laws combine with inflation, the effective tax rate on capital income rises significantly [1]. For example, in 1979,

under a 30% statutory rate, an individual earning 12% nominal income ended up with only 8.4% after taxes; when adjusted for currency devaluation, this figure dropped to a negative 4.6% [1]. Fischer notes that in the U.S. economy, new instruments emerged in the financial sector, especially in mortgage lending, such as widely adopted adjustable-rate and graduated-payment mortgages [1].

The Relationship Between Nominal Demand, Inflation, and Real Output

Several key equations are used to express the relationships between inflation, nominal demand, and real output [1]. Nominal gross domestic product (Y) is the product of the price level (P) and real output (Q); in logarithmic form, this is:

$Y = P + Q$ (1)

If we differentiate this equation with respect to time, we can see how the growth rate of nominal GDP (y) is distributed between inflation (p) and real growth (q): $y = p + q$ (2)

An important conclusion follows from this formula: changes in nominal demand are always distributed in two directions – the rise in prices (inflation) and the change in real output. If the natural growth rate of real GDP (q^*) is subtracted from the equation, the following relationship is obtained [1]:

$\hat{y} = \hat{p} + \hat{q}$ (3)

Here, $\hat{y} = y - q^*$ represents the growth of nominal GDP above the trend (adjusted nominal demand), $\hat{p}$ denotes the deviation of inflation from its trend, and $\hat{q}$ is the deviation of real output from its trend [1]. In the long run, real output does not deviate from the trend ($\hat{q} = 0$), which means that a stable increase in nominal demand leads to a stable rise in inflation. This scientifically confirms Friedman's famous monetarist thesis: "Inflation is always and everywhere a monetary phenomenon" [3].

Price Adjustment Coefficient: If prices reflect only a portion (α) of changes in nominal demand, the following relationship arises [1]:

$p = \alpha y$

$q = (1 - \alpha)\, y$ (4)

The economic meaning of this equation is as follows:

If $\alpha = 1$, prices fully adjust, and real output does not change;

If $\alpha = 0$, prices do not adjust at all, and all changes in nominal demand are fully reflected in real output [1].

It follows that the more rigid prices are, the greater the fluctuations the economy experiences in terms of real output.

The Depreciation of the German Mark in 1914–1923: Theoretical Debates

The sharp depreciation of the German mark during World War I and the post-war period sparked economic debates strikingly similar to the discussions in England before the publication of the *Bullion Report* [2]. Throughout the entire period of inflation, the

Reichsbank, successive German governments, major bankers and industrialists, as well as much of the press, explained the process primarily in terms of the balance of payments.

Their main arguments were as follows [2]:

During the war years, Germany had a "passive balance of payments," meaning imports exceeded exports;

The reparations obligations imposed by the Treaty of Versailles worsened the situation;

These factors were assumed to have caused the currency depreciation.

However, not all German economists supported this view. Scholars such as Lifmann, Schlezinger, Pohle, Beckerath, Terhalle, and Lansburg acknowledged that the excessive increase in the money supply directly affected domestic prices and the exchange rate [2]. Helfferich held the most influential position in this debate. According to his calculations, from May 1921 to January 1923, the money in circulation increased 23-fold, whereas import prices and the dollar exchange rate rose 344-fold. This ratio indicated that money issuance alone could not be the sole cause of price increases [2].

Helfferich argued that the collapse of the German currency occurred independently of paper money issuance due to the following factors: the country's large negative balance of payments (3 billion gold marks annually), reparations payments of 3.3 billion gold marks due each year, obligations to repay short-term debts, and the costs of occupied territories [2]. Dalberg, on the other hand, concluded that the depreciation of the currency in domestic markets was the main factor determining its external exchange rate. He argued that ignoring this link rendered the contemporary economic studies theoretically weak, a flaw that explains many mistakes and erroneous decisions in Germany's monetary policy [2].

Measuring Inflation: Irving Fisher's Contribution

At the beginning of the 20th century, Irving Fisher seriously began the scientific task of defining and measuring inflation [1]. In 1921, he developed a price index that became known as "Fisher's ideal index." A year later, in 1922, he published *The Making of Index Numbers,* which presented practical applications of price indices and historical data on wartime inflation during 1914 - 1918 [1].

Inflation, defined as the rate of change in the general price level, is measured as the percentage change in a price index over a given period [1]. Annual inflation is calculated as the ratio of the average price level in the current period to that of the same period in the previous year. Comparisons can also be made over a month, a quarter, or a calendar year [1]. Fisher also developed the main methodological framework for analyzing the real value of money, i.e., how much goods or services can be purchased with a given amount of money [1].

Inflation and Unemployment: Debates Around the Phillips Curve

The relationship between inflation and unemployment has been a subject of debate in economics since the Vietnam War era [1]. This issue became widely known through the term “Phillips Curve.” In 1958, Phillips, using data from the United Kingdom, observed that periods of high inflation were associated with low unemployment [1]. Based on these results, Samuelson and Solow (1960) suggested the policy implication that if the central bank increased the inflation rate, unemployment would decrease [1].

New Keynesians support the idea of a stable inverse relationship between inflation and unemployment. They emphasize that price stickiness and the increase in monopoly pricing are recognized as inflation [1]. In contrast, the neoclassical approach argues the opposite: rising inflation negatively affects economic growth. Neoclassicists note that such a relationship can only be observed temporarily and cannot serve as a stable basis for monetary policy [1].

If the inverse relationship between inflation and unemployment were stable, it would be politically justifiable to reduce unemployment by maintaining inflation at a certain level [1]. However, if this stable link does not exist, attempts to improve the labor market by increasing inflation would constitute an unjustified policy. Therefore, this issue remains highly relevant for modern monetary policy [1].

Central Banks, the Banking System, and Inflation

Central banks conduct monetary policy on behalf of the government and oversee the private banking system [3]. Historically, central banks were established on the basis of private banks. The recognition of interest as a normal return on capital was a key condition for the development of the banking system, but this process was complicated by religious and ethical restrictions [3]. Many religions and states imposed limits on interest: Julius Caesar set high ceilings on interest rates, in 349 AD interest payments were completely banned in Rome, and in 1311 Pope Clement V prohibited interest under Christianity. Islamic law continues to forbid charging interest to this day (Visser & McIntosh, 1998) [3].

Bagehot described how the Bank of England should use its reserves to address banking crises: it must lend to any commercial bank in need of liquidity, at a rate above the prevailing market interest rates and in sufficient amounts [3]. This is the principle of the “lender of last resort.” To implement this principle, the Bank of England needed to maintain adequate gold reserves.

The Relationship Between Inflation and the Banking System

Inflation erodes the purchasing power of money like a “tax” [3]. Banks provide customers with a way to partially bypass this inflationary tax. If the interest rate paid on deposits equals the inflation rate, holding cash incurs only a minimal real cost. A well-functioning banking system ensures that the population is optimally protected from the inflationary tax [3]. When the banking system fails, the situation worsens; regulatory

authorities may attempt to artificially keep inflation low through new insurance mechanisms, which can deepen the problem [3].

History of Banking Panics in the U.S. From 1873 to 1914 - the gold standard era - the U.S. experienced a series of financial panics, which reduced investment activity [3]. As a result, the Federal Reserve System and the Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC) were established. The legal foundation of the national banking system was created by the National Bank Acts of 1863 and 1864. Excess reserves in the Federal Reserve system remained near zero until 2008. Between the second quarter of 1984 and the second quarter of 2008, average excess reserves were only $1.3 billion [3]. From the third quarter of 2008, after the Fed began paying interest on excess reserves (IOER), this figure rose dramatically - from billions to trillions - averaging $1.75 trillion, an increase of a thousandfold [3].

Modern Monetary Theory and the Inflation Tax Modern Monetary Theory (MMT) was developed to guide central banks on how to manage money and banking policy under a fiat currency regime [3]. One of its main conclusions is that the targeted inflation rate should be very low, corresponding to the natural level of seigniorage. Research by Leeper and Zhou (2021) shows that in developed countries, about 50% of new additional budget spending is financed through the inflation tax [3]. Following the 2008 financial crisis, central banks faced enormous pressure to prevent a global financial collapse of Great Depression proportions [3]. They implemented negative real interest rate policies, and central banks worldwide were forced to follow the U.S. Federal Reserve's policy by adjusting their own rates and interest policies accordingly [3].

Inflation in Uzbekistan: Statistical Dynamics and Monetary Policy (2017–2025)

Since 2017, the Uzbek economy has undergone comprehensive market reforms and a policy of liberalizing the national currency. During this transition, the consumer price index (CPI) at year-end reached 14.4% [5]. In subsequent years, monetary and fiscal measures to curb inflation produced significant results.

According to official data from the State Statistics Committee, annual inflation in Uzbekistan showed the following dynamics [6]:

2017: 14.4% - influenced by currency liberalization and supply constraints;

2022: 12.3% - due to geopolitical developments and disruptions in global supply chains;

2023: 8.8% - a significant decrease resulting from strict monetary policy measures;

2024: 9.8% - slight acceleration due to higher energy tariffs and domestic demand;

2025 (Jan - Nov): 7.5% - aligned with Central Bank forecasts, the lowest in recent years;

2025 year-end (forecast): 7.3% [6].

The Central Bank uses the policy rate as its main instrument to combat inflation [5]. The dynamics of Uzbekistan's Central Bank policy rate were as follows:

Early 2022: 17% - a response to high inflationary pressures;

2023: maintained at 14%;

July 2024: reduced to 13.5% - due to easing inflationary pressures;

March 2025: raised to 14% - reflecting strengthened inflation expectations and stable domestic demand growth [5].

The Central Bank's medium-term goal is to reduce inflation to a 5% target by the end of 2026 [5]. This will be achieved through monetary policy combined with structural reforms in cooperation with the competition authority.

By 2025, the Uzbek som also strengthened against the U.S. dollar. In February, the exchange rate exceeded 13,000 UZS per USD, gradually declining to below 11,900 UZS by late November [6]. This helped moderate imported inflation. According to the 2025 IMF report, Uzbekistan's real GDP growth is estimated at 5.9–7.7%, with inflation close to the planned level [7].

Key factors affecting inflation in Uzbekistan include [5;6]:

Imported inflation: accounts for approximately 38% of overall inflation, reflecting high dependence on imported goods;

Energy tariff increases: for example, in May 2024, annual inflation rose to 10.6% due to higher energy tariffs;

Inflation expectations: 15.3% among households and 14.3% among businesses (2022);

Budget deficits and money issuance: remain a significant structural factor driving inflation.

The analysis shows that inflation in Uzbekistan aligns with international theoretical models - demand, cost, and monetary factors are closely interconnected. However, structural constraints in domestic markets, the direct effect of energy sector reforms on prices, and reliance on imports may limit the effectiveness of monetary measures in fully controlling inflation.

Conclusion

Inflation is one of the most complex and multifaceted phenomena in contemporary macroeconomics. Analysis of various sources shows that inflation does not result from a single factor; rather, it arises from a combination of interrelated forces, including excess demand, rising costs, excessive growth of the money supply, inflationary expectations, currency depreciation, fiscal imbalance, and external shocks.

Historical experience - from Germany's hyperinflation of 1914 - 1923 to the U.S. economy in the second half of the 20th century - demonstrates that controlling inflation is impossible without fiscal discipline and a credible monetary policy. The mathematical

relationships between nominal demand, the price level, and real output serve as fundamental practical tools for policymakers.

Uzbekistan's experience confirms these theoretical conclusions in a regional context. The reduction of inflation from 14.4% in 2017 to 7.3% in 2025 was achieved through strict monetary policy, structural reforms, and the interplay of external factors. The central bank's long-term goal of reaching 5% inflation can be viewed as a consistent strategic path toward optimizing inflation from both Keynesian and neoclassical perspectives.

THE TYPES AND SIGNIFICANCE OF THE FIXED ASSET MAINTENANCE COSTS IN ENHANCING OPERATIONAL EFFICIENCY AND FINANCIAL PERFORMANCE

Ganiyev Shahriddin Vohidovich
Prof. Tashkent State University of Economics

Abstract: Fixed asset maintenance is an essential aspect of asset management that involves performing regular inspections, cleaning, and repairs to ensure that assets are in good working condition. There are several types of maintenance, including preventive, corrective, predictive, condition-based, planned, and breakdown maintenance, each with its own benefits and drawbacks. Effective maintenance can help organizations to improve asset performance, reduce downtime, increase efficiency, ensure safety, comply with regulations, and maintain asset value. Ultimately, proper maintenance can help organizations to extend the useful life of their assets and maximize their return on investment.

Key words: fixed assets, fixed assets maintenance, costs, useful life of fixed assets, efficiency, reduce costs and maximize profits.

A fixed asset is a long-term tangible asset that is used in the production or supply of goods and services, and has a useful life of more than one accounting period. Fixed assets are also known as property, plant, and equipment (PP&E) and include items such as buildings, land, machinery, vehicles, furniture, and fixtures.

Fixed assets are essential for the operation of a business and are typically used to generate revenue. They are not intended for resale and are expected to provide benefits to the organization for a significant period. Fixed assets are recorded on the balance sheet and are subject to depreciation, which is the process of allocating the cost of the asset over its useful life.

Fixed assets are an important component of a company's financial statements and are used to calculate key financial ratios such as return on assets (ROA) and asset turnover. Proper management of fixed assets is essential for maximizing their value and ensuring that they are used efficiently to support the organization's strategic objectives.

Fixed asset maintenance refers to the process of keeping fixed assets in good working condition to ensure that they operate efficiently and effectively throughout their useful life. It typically involves a range of activities, including regular inspections, cleaning, lubrication, and repairs. Maintenance schedules may vary depending on the type of asset, its age, and its usage. Organizations may also use computerized maintenance management systems (CMMS) to track maintenance activities and ensure that they are completed on schedule.

There are several types of fixed asset maintenance that organizations can use to keep their assets in good working condition. Here are some of the most common types:

1. Preventive maintenance: This type of maintenance involves performing regular inspections, cleaning, and repairs to prevent breakdowns and extend the useful life of the asset. Preventive maintenance is typically scheduled based on the asset's usage and age.

2. Corrective maintenance: This type of maintenance involves repairing an asset after it has broken down or malfunctioned. Corrective maintenance is typically more expensive than preventive maintenance and can result in downtime and lost productivity.

3. Predictive maintenance: This type of maintenance uses data and analytics to predict when an asset is likely to fail and schedule maintenance accordingly. Predictive maintenance can help organizations to reduce downtime and minimize the cost of repairs.

4. Condition-based maintenance: This type of maintenance involves monitoring an asset's condition and performing maintenance when specific conditions are met. For example, a machine may be serviced when it reaches a certain number of operating hours or when a specific part shows signs of wear and tear.

5. Planned maintenance: This type of maintenance involves scheduling maintenance activities in advance, based on a predetermined schedule or usage pattern. Planned maintenance can help organizations to reduce downtime and ensure that maintenance activities are completed on time.

6. Breakdown maintenance: This type of maintenance involves repairing an asset after it has broken down or malfunctioned. Breakdown maintenance is typically more expensive than preventive maintenance and can result in downtime and lost productivity.

In summary, the type of maintenance used will depend on the asset's age, usage, and condition, as well as the organization's budget and maintenance goals.

The importance of calculating fixed asset maintenance and its impact on businesses

Firstly, the calculation of fixed asset maintenance helps businesses to identify potential issues before they become major problems. By regularly monitoring and analyzing the performance of fixed assets, businesses can identify any signs of wear and tear, damage, or malfunction. This allows them to take proactive measures to prevent breakdowns and minimize downtime, which can be costly and disruptive to operations.

Secondly, the calculation of fixed asset maintenance helps businesses to optimize their maintenance schedules and minimize costs. By analyzing the performance data of fixed assets, businesses can determine the optimal time for maintenance and repairs. This helps to minimize the frequency of maintenance and reduce the associated costs, while still ensuring that the assets are operating at peak efficiency.

Thirdly, the calculation of fixed asset maintenance helps businesses to maximize profits by extending the lifespan of their assets. By identifying potential issues early and taking proactive measures to prevent them, businesses can extend the lifespan of their fixed assets. This reduces the need for costly replacements.

Moreover, the proper calculation of fixed assets maintenance ensures safety: regular inspections and maintenance can identify potential safety hazards and prevent accidents from occurring.

Another essential reason of calculation is that it complies with regulations: many industries have specific regulations and standards that require organizations to maintain their fixed assets properly. Compliance with these regulations is essential for avoiding fines, legal liabilities, and reputational damage.

In conclusion, the calculation of fixed asset maintenance is crucial for businesses to ensure the longevity and efficiency of their assets, as well as to minimize costs and maximize profits. By regularly monitoring and analyzing the performance of fixed assets, businesses can identify potential issues, optimize maintenance schedules, and extend the lifespan of their assets. This helps businesses to operate more efficiently, reduce costs, and ultimately achieve greater success.

KORXONANING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA SAMARALI KAPITALLASHUV STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

Egamberdiyev Zafarbek Amatjon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii 1-bosqich magistranti

Annotatsiya Mazkur maqolada korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda samarali kapitallashuv strategiyasining o’rni, uni shakllantirish tamoyillari va amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning investitsion jozibadorligi, to’lovga qobiliyatliligi va uzoq muddatli rivojlanishi uning kapital tuzilmasiga bevosita bog’liq. Maqolada kapitallashuvning iqtisodiy mohiyati, o’z va jalb qilingan mablag’lar o’rtasidagi nisbat, foydani reinvestitsiya qilish, moliyaviy risklarni boshqarish hamda korporativ boshqaruvning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, korxonalarda kapitallashuv strategiyasini joriy etish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: moliyaviy barqarorlik, kapitallashuv, kapital tuzilmasi, reinvestitsiya, investitsiya, moliyaviy risk, korporativ boshqaruv, ichki audit.

Kirish. Bugungi kunda korxonalarning barqaror faoliyat yuritishi, bozordagi mavqeini mustahkamlashi va raqobatbardoshligini oshirishi ko’p jihatdan ularning moliyaviy resurslarni qanday boshqarishiga bog’liq. Korxona moliyaviy barqarorligi nafaqat mavjud mablag’lar hajmi, balki ularning tarkibi, manbalari va samarali yo’naltirilishi bilan belgilanadi. Shu ma’noda kapitallashuv strategiyasi korxona rivojlanishining muhim moliyaviy asosi hisoblanadi.

Kapitallashuv strategiyasi korxonaning kapital bazasini kengaytirish, moliyaviy mustaqillik darajasini oshirish, investitsiya salohiyatini kuchaytirish va xatarlarni kamaytirishga qaratilgan tizimli boshqaruv choralarini o’z ichiga oladi. Ayniqsa, iqtisodiy beqarorlik, bozor kon’yunkturasining tez o’zgarishi va kuchli raqobat sharoitida kapitalni to’g’ri shakllantirish korxona barqarorligining bosh omiliga aylanadi.

Amaliyotda ko’plab korxonalar moliyaviy qiyinchilikka foyda kamligi sabab emas, balki kapital tuzilmasining noto’g’ri shakllangani sabab duch keladi. Masalan, qisqa muddatli qarzlarning yuqoriligi, o’z mablag’larining yetarli emasligi, foydaning samarasiz taqsimlanishi yoki investitsion siyosatning sustligi korxonaning moliyaviy barqarorligini zaiflashtiradi. Shu bois mazkur mavzu ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Ushbu maqolaning мақсади korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda samarali kapitallashuv strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism

Kapitallashuv strategiyasi deganda korxonaning kapital hajmi va sifatini oshirish, kapital tuzilmasini optimallashtirish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini ta’minlashga qaratilgan uzoq muddatli boshqaruv siyosati tushuniladi. Bu strategiya korxonaning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog’liq bo’lib, ishlab chiqarish, investitsiya va moliyaviy rejalashtirish yo’nalishlarini birlashtiradi.

Kapitallashuvning asosiy manbalari ichki va tashqi manbalarga ajratiladi. Ichki manbalarga sof foydani qayta investitsiya qilish, amortizatsiya ajratmalari, aktivlar aylanishini tezlashtirish orqali hosil bo’ladigan mablag’lar kiradi. Tashqi manbalar esa bank kreditlari, obligatsiyalar, qo’shimcha aksiyalar emissiyasi, investorlar mablag’lari va lizingdan iborat bo’lishi mumkin.

Korxona uchun samarali kapitallashuv strategiyasi shunday shakllantirilishi kerakki, u bir tomondan kapital yetarliligini ta’minlasin, ikkinchi tomondan esa ortiqcha qarz yukini yuzaga keltirmasin. Demak, bu yerda asosiy masala o’z mablag’lari va jalb qilingan mablag’lar o’rtasidagi maqbul nisbatni topishdan iborat.

Moliyaviy barqarorlik korxonaning o’z majburiyatlarini o’z vaqtida bajarishi, ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlashi va tashqi xatarlarga bardosh bera olish qobiliyatini anglatadi. Bu holat ko’p jihatdan kapital tuzilmasiga bog’liq bo’ladi. Agar

korxonada o’z mablag’lari ulushi yuqori bo’lsa, uning moliyaviy mustaqilligi kuchli bo’ladi. Aksincha, qarz mablag’lari haddan ortib ketsa, foiz xarajatlari oshadi, likvidlilik pasayadi va moliyaviy xavf kuchayadi.

Kapital tuzilmasini baholashda bir qator ko’rsatkichlar muhim hisoblanadi. Jumladan, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, qarz yukining darajasi, likvidlilik ko’rsatkichlari, aktivlar rentabelligi va o’z kapitali rentabelligi korxonaning moliyaviy holatini aniqlashga xizmat qiladi. Shu sababli kapitallashuv strategiyasini ishlab chiqishda faqat mablag’ topish emas, balki bu mablag’larning tuzilmasini oqilona belgilash zarur.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, moliyaviy barqarorlik kapital miqdoridan tashqari, undan foydalanish sifati bilan ham belgilanadi. Agar mablag’lar past samarali loyihalarga yo’naltirilsa yoki aylanma mablag’lar noto’g’ri boshqarilsa, katta kapital bazasi mavjud bo’lsa ham barqarorlik ta’minlanmaydi.

Samarali kapitallashuv strategiyasini ishlab chiqish bir necha bosqichni o’z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda korxonaning joriy moliyaviy holati tahlil qilinadi. Bunda aktiv va passivlar tarkibi, sof foyda hajmi, qarzlarning muddati va tuzilmasi, pul oqimlari hamda investitsion ehtiyojlar aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda strategik maqsadlar belgilanadi. Masalan, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish yoki moliyaviy xavfni kamaytirish kabi maqsadlar kapitallashuv yo’nalishiga bevosita ta’sir qiladi.

Uchinchi bosqichda kapital manbalari tanlanadi. Bu jarayonda kapitalning narxi, qaytarish shartlari, foiz yuklamasi, boshqaruvga ta’siri va risk darajasi hisobga olinadi. Qisqa muddatli ehtiyojlar uchun uzoq muddatli kapital manbalaridan yoki aksincha foydalanish noto’g’ri natijalarga olib kelishi mumkin.

To’rtinchi bosqichda kapital tuzilmasi optimallashtiriladi. Bu bosqichda o’z va qarz mablag’lari nisbati korxona faoliyat sohasi, rentabellik darajasi va bozor sharoitidan kelib chiqib belgilanadi.

Beshinchi bosqichda strategiyani joriy etish va nazorat qilish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Foyda taqsimoti, investitsion rejalashtirish, qarz siyosati va ichki audit jarayonlari aynan shu bosqichda bir-biri bilan uyg’unlashtiriladi.

Korxona kapitallashuv strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun birinchi navbatda foydani samarali reinvestitsiya qilish tizimini yo’lga qo’yishi lozim. Sof foydaning ma’lum qismini modernizatsiya, yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga yo’naltirish kapital bazasining tabiiy o’sishini ta’minlaydi.

Ikkinchi muhim yo’nalish qarz mablag’larini oqilona boshqarishdir. Kreditdan foydalanish investitsiya faolligini kuchaytirishi mumkin, biroq uning hajmi va qiymati

korxonaning real to’lov imkoniyatlariga mos bo’lishi zarur. Aks holda qarz yuki moliyaviy barqarorlikni izdan chiqaradi.

Uchinchi mexanizm - aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirishdir. Korxona foydalanilmayotgan aktivlarni sotish, ijaraga berish yoki qayta yo’naltirish orqali qo’shimcha kapital hosil qilishi mumkin. Shuningdek, aylanma mablag’lar aylanishini tezlashtirish, debitorlik qarzdorligini kamaytirish va zaxiralarni me’yorlashtirish ham kapitallashuvga xizmat qiladi.

To’rtinchi mexanizm investitsion jozibadorlikni oshirish bilan bog’liq. Moliyaviy hisobotning shaffofligi, ichki nazorat tizimining ishonchliligi, korporativ boshqaruv sifati va barqaror rivojlanish ko’rsatkichlari investorlar uchun muhim omillardir. Investor ishonchi ortgan sari korxonaning tashqi kapital jalb qilish imkoniyatlari ham kengayadi.

Moliyaviy risklar va ichki nazorat

Kapitallashuv strategiyasi doimo muayyan moliyaviy xavflar bilan bog’liq. Jumladan, kredit riski, likvidlilik riski, foiz stavkasi riski, valyuta riski va investitsiya riski korxonaning umumiy moliyaviy holatiga ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun har qanday strategiya risklarni oldindan baholash va ularni kamaytirish choralarini nazarda tutishi lozim.

Risklarni kamaytirish uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, qarz muddatlarini to’g’ri rejalashtirish, valyuta tarkibini muvozanatlash va zaxira fondlarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, ichki audit va ichki nazorat tizimi samarali ishlashi kerak. Bu tizim mablag’lardan maqsadli foydalanishni, xarajatlar ustidan nazoratni va strategik qarorlarning iqtisodiy asoslanganligini ta’minlaydi.

Ichki auditning mavjudligi ayniqsa muhimdir, chunki u kapitallashuv jarayonidagi xatolarni erta aniqlash, moliyaviy intizomni mustahkamlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Demak, moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda kapitallashuv strategiyasi va ichki nazorat tizimi bir-birini to’ldiruvchi omillardir.

Korporativ boshqaruvning roli

Korporativ boshqaruv korxonaning kapitallashuv jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv tizimi shaffof, mas’uliyatli va natijaga yo’naltirilgan bo’lsa, kapitaldan foydalanish samaradorligi oshadi. Kuzatuv kengashi, audit qo’mitasi, ichki nazorat bo’linmalari va menejment o’rtasidagi to’g’ri muvofiqlashuv investitsion qarorlarning sifatini yaxshilaydi.

Yaxshi korporativ boshqaruv investorlar ishonchini oshiradi, bu esa qo’shimcha kapital jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi. Bundan tashqari, dividend siyosatini oqilona yuritish orqali foydaning bir qismini aksiyadorlarga, qolgan qismini esa rivojlanish ehtiyojlariga yo’naltirish mumkin bo’ladi. Shu tariqa korxonaning bugungi va kelajakdagi manfaatlari o’rtasida muvozanat ta’minlanadi.

Amaliy tavsiyalar

O’zbekiston korxonalari uchun kapitallashuv strategiyasini kuchaytirish maqsadida quyidagi amaliy yondashuvlarni tavsiya etish mumkin:

Birinchidan, sof foydaning ma’lum qismini majburiy tarzda reinvestitsiyaga yo’naltirish tizimini joriy etish zarur. Ikkinchidan, kapital tuzilmasi bo’yicha muntazam monitoring olib borish kerak. Uchinchi, korxonalarda ichki audit va moliyaviy rejalashtirish tizimini kuchaytirish lozim. To’rtinchidan, investitsion jozibadorlikni oshirish uchun moliyaviy hisobotlarning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash zarur. Beshinchidan, raqamli boshqaruv vositalari, jumladan byudjetlashtirish va moliyaviy tahlil platformalarini joriy etish muhimdir.

Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiyotda nomoddiy aktivlar, innovatsion loyihalar va intellektual resurslar ham kapitallashuvning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Shu sababli korxonalar faqat moddiy resurslarga emas, balki brend, texnologiya, malakali kadrlar va boshqaruv sifati kabi omillarga ham kapital sifatida qarashi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda samarali kapitallashuv strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kapital tuzilmasining maqbulligi, foydani reinvestitsiya qilish, qarz mablag’laridan oqilona foydalanish, moliyaviy risklarni boshqarish va ichki audit tizimining samarali ishlashi korxona barqaror rivojlanishining asosiy shartlaridir.

Samarali kapitallashuv strategiyasi korxonaga moliyaviy mustaqillik, investitsion faollik va bozor sharoitlariga moslashuvchanlik beradi. Ayniqsa, raqamlashtirish, shaffof boshqaruv va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish bugungi bosqichda ushbu strategiyaning eng muhim yo’nalishlari hisoblanadi.

Shunday ekan, korxonalarda kapitalni boshqarishga qisqa muddatli moliyaviy masala sifatida emas, balki uzoq muddatli strategik rivojlanish omili sifatida yondashish zarur. Ana shunda moliyaviy barqarorlik mustahkamlanadi va korxona raqobatbardoshligi oshadi.

TURISTIK VA MEHMONXONA XIZMATLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Jumaboyeva Mahliyo Mirzoxid qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii,
Andijon fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada turistik va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari, daromad va xarajatlarni tan olish mezonlari hamda xizmat tannarxini aniqlash usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, turpaket va mehmonxona xizmatlari misolida moliyaviy natijalarni hisoblash amaliy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: turistik xizmatlar, mehmonxona xo‘jaligi, daromadni tan olish, xizmat tannarxi, bevosita xarajatlar, bilvosita xarajatlar, moliyaviy natija, buxgalteriya hisobi.

Introduction. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasining jadal rivojlanishi turizm va mehmonxona xo‘jaligida buxgalteriya hisobini takomillashtirishni talab etmoqda. Xizmatlarning nomoddiyligi, mavsumiylik xususiyati, oldindan to‘lovlar va bron tizimining mavjudligi ushbu sohada hisob yuritishni ishlab chiqarish korxonalaridan farqlaydi.

Turistik va mehmonxona subyektlarida buxgalteriya hisobi quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida yuritiladi:

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida Qonun – korxonalarda buxgalteriya hisobining umumiy tartibini belgilaydi hamda daromad, xarajat va moliyaviy natijalarni hisobga olish mezonlarini aniqlaydi.

Turizm to‘g‘risida Qonun – turistik va mehmonxona subyektlarining faoliyatini tartibga soladi, moliyaviy hisobot berish majburiyatlarini belgilaydi.

Methods (Tadqiqot metodologiyasi). Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:

normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish;

taqqoshlama va tizimli tahlil;

hisob-kitob usuli orqali xizmat tannarxini aniqlash;

amaliy misollar asosida moliyaviy natijalarni hisoblash.

Shuningdek, tur operatorlik va mehmonxona faoliyatiga oid amaliy ma’lumotlar umumlashtirildi.

Results (Natijalar). Turistik xizmatlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari

Turistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi subyektlar – tur operatorlar va agentliklar bo‘lib, ular mijozlarga turpaketlar, transport va mehmonxona xizmatlarini birlashtirgan holda taqdim etadi.

Ularning hisob yuritishdagi asosiy xususiyatlari:

daromadlar moddiy mahsulotdan emas, xizmat realizatsiyasidan shakllanadi;

xarajatlar vositachilik, transport va sug‘urta xizmatlarini qamrab oladi;

oldindan to‘lovlar majburiyat sifatida tan olinadi;

agentlik daromadi komissiya asosida hisobga olinadi.

daromadni tan olish mezonlari

xizmat bajarilganda daromad tan olinadi.

Oldindan to‘lovlar majburiyat sifatida hisobga olinadi va xizmat bajarilgach daromadga o‘tkaziladi. Agentlik daromadi faqat komissiya miqdorida e’tirof etiladi.

Turistik xizmatlar ko’rsatish bilan bog’liq xarajatlar quyidagicha tasniflanadi:

bevosita xarajatlar – turpaket narxi, transport, mehmonxona, sug‘urta.

bilvosita xarajatlar – ofis ijarasi, ish haqi, reklama va marketing xarajatlari.

Turpaket tannarxini aniqlash formulasi:

Tannarx = Bevositaxarajatlar + Bilvosita xarajatlar

Tannarx = Bevosita xarajatlar + Bilvosita xarajatlar

Tannarx = Bevosita xarajatlar + Bilvosita xarajatlar

Xarajat turi	Miqdor (so‘m)
Mehmonxona	6 000 000
Aviabilet	3 000 000
Sug‘urta	500 000
Reklama	300 000

Umumiy tannarx: 9 800 000 so‘m

Daromad: 12 000 000 so‘m

Sof foyda: 2 200 000 so‘m

Quyida **“Samarkand Travel Tour”** turistik firmasi uchun daromad va xarajatlar birlashtirilgan yagona jadval keltirilgan:

№	Daromadlari	Summasi
1	Ichki tur paketlari	49000000
2	Xorijiy tur paketlari	135000000
3	Aviabilet komissiyasi	7200000
4	Mehmonxona bron xizmati	4500000
5	Sug‘urta va qo‘shimcha xizmatlar	3300000
	Jami daromad	199 000 000

№	Xarajatlar	Summasi
1	Hamkorlarga to‘lov (mehmonxona, transport)	115 000 000
2	Xodimlar maoshi(5 kishi)	25 000 000
3	Ofis ijarasi	7000000
4	Kommunal va internet	1800000
5	Marketing va reklama	9000000
6	Soliq va majburiy to‘lovlar	11000000
	Jami xarajatlar	168800000

Mehmonxona xo‘jaligi subyektlari (mehmonxona, motel, pansionat va boshqalar) moliyaviy faoliyatida quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

xizmatlarningnomoddiyligi;

mavsumiylik;

oldindan to‘lov va bron tizimi;

ko‘p manbali daromad (xona, restoran, spa, konferensiya zali va boshqalar).

daromadni tan olish mezonlari

xizmat ko‘rsatilganda daromad tan olinadi;

oldindan to‘lovlar majburiyat sifatida hisobga olinadi;

qo‘shimcha xizmatlar alohida daromad sifatida e’tirof etiladi.

Mehmonxona xizmatlarini ko’rsatish bilan bog’liq xarajatlar quyidagicha tasniflanadi:

bevosita xarajatlar – xona ta’minoti, oziq-ovqat, ichimliklar, spa va boshqa xizmatlar.

bilvosita xarajatlar – ish haqi, ma’muriy xarajatlar, kommunal to‘lovlar, marketing.

Xona-kun tannarxini aniqlash formulasi:

$$Tannarx = \frac{\text{Jami xarajatlar}}{\text{Sotilgan xona} - \text{kunlar}}$$

Jami xarajat – 2 000 000 so‘m Sotilgan xona-kun – 5 ta

Tannarx=2000000/5=400000 so‘m/xona−kunTannarx = 2 000 000 / 5 = 400 000 \;

so‘m/xona-kunTannarx=2000000/5=400000so‘m/xona−kun

O‘zbekistondagi mehmonxona (hotel) biznesi uchun namunaviy oylik daromad va xarajatlar yagona jadvali keltirilgan. Misol tariqasida: “Silk Road Hotel” (Toshkent shahri) — 30 xonali mehmonxona modeli.

№	Daromadlari	Summasi
1	Xonalar ijarasi (30 xona, 70% bandlik, o‘rtacha 450 000 so‘m)	283 500 000
2	Restoran va nonushta xizmati	65 000 000
3	Konferensiya zali ijarasi	18 000 000
4	Kir yuvish va qo‘shimcha xizmatlar	12 500 000
	Jami daromad	379 000 000

№	Xarajatlar	Summa
1	Xodimlar maoshi (15 kishi)	95 000 000
2	Kommunal to‘lovlar (elektr, gaz, suv)	40 000 000
3	Oziq-ovqat va xo‘jalik xarajatlari	35 000 000
4	Soliq va majburiy to‘lovlar	30 000 000
5	Marketing va bron platformalari komissiyasi	22 000 000
6	Ta’mirlash va texnik xizmat	15 000 000
	Jami xarajatlar	237 000 000

Discussion (Muhokama). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turistik va mehmonxona xizmatlarida buxgalteriya hisobining asosiy murakkabligi daromadni tan olish vaqtini to‘g‘ri belgilash bilan bog‘liq. Oldindan to‘lovlar va bron tizimi mavjudligi sababli, majburiyat va daromad o‘rtasidagi farqni aniq ajratish muhimdir.

Bundan tashqari, xizmat tannarxini to‘g‘ri aniqlash rentabellikni baholash va narx siyosatini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Raqamlashtirish, boshqaruv hisobi va ichki nazorat tizimlarini joriy etish moliyaviy hisobotning aniqligi va tezkorligini oshiradi.

Conclusion (Xulosa). Turistik va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Daromad va xarajatlarni to‘g‘ri tan olish, xizmat tannarxini aniq hisoblash hamda foyda va rentabellikni baholash samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Normativ-huquqiy asoslar, xususan, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi va “Turizm to‘g‘risida”gi qonunlar talablariga rioya qilish, shuningdek, raqamlashtirish va boshqaruv hisobini rivojlantirish orqali ushbu sohada buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish mumkin.

TIJORAT BANKLARIDA HISOBDORLIKNI TA’MINLASH VA KORRUPSION RISKLARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

Mingliboyev Elyor O‘ktam o‘g‘li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
Bank ishi va Auditi yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu tezis tijorat banklarida hisobdorlik mexanizmlarini mustahkamlash va korrupsion risklarni kamaytirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil etadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, korporativ boshqaruv tuzilmalari, ichki nazorat tizimlari va shaffoflik choralari birgalikda qo‘llanilganda moliyaviy firibgarlik va mansabni suiiste’mol qilish holatlari sezilarli darajada qisqaradi. Xalqaro tajriba –xususan, FATF tavsiyalari, Basel III talablari va OECD anti-korrupsiya standartlari –bank sektorida xavflarni boshqarishning kompleks yondashuvini talab etishini tasdiqlaydi. Mamlakat bank tizimlarida uchraydigan tarkibiy zaifliklar, regulyativ bo‘shliqlar va axborot assimetriyasi korrupsiya uchun sharoit yaratishi mumkin. Tadqiqot bu muammolarni bartaraf etishning aniq mexanizmlarini – raqamli monitoring vositalari, mustaqil audit, whistleblower institutlari va xalqaro hamkorlik asosida yechishning samarali yo‘llarini taklif etadi.

Kalit so‘zlar: Korporativ boshqaruv, bank hisobdorligi, korrupsion risklar, ichki nazorat tizimi, shaffoflik, regulyativ muvofiqlik, axborot assimetriyasi.

KIRISH:

Tijorat banklari milliy iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan birini tashkil etadi: ular kapital oqimlarini tartibga soladi, investitsiyalarni rag‘batlantiradi va moliyaviy vositachilik funksiyasini bajaradi. Ayni shu markaziy roli tufayli banklar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham yuqori mas’uliyat ko‘taradi. Biroq jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, bank sektorida boshqaruv zaiflashgan joyda korrupsiya, firibgarlik va moliyaviy suiiste’mollar uchun qulay muhit vujudga keladi[201]. 2008-2009 yillardagi global moliyaviy inqiroz, undan keyingi keng ko‘lamli bank skandallari – Libor manipulyatsiyasi, pul yuvish sxemalari va ichki ma’lumotlar asosida savdo qilish holatlari – bank sektorida nazorat va hisobdorlik tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. Transparency International va Wolfsberg Group kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari bank sektoridagi korrupsiyani tizimli muammo sifatida baholaydi[202]. O‘zbekiston va boshqa rivojlanayotgan davlatlar bank tizimlarida ham shunga o‘xshash zaifliklar qayd etilgan bo‘lib, regulyativ islohot dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – tijorat banklarida hisobdorlikni ta’minlashning nazariy asoslarini ko‘rib chiqish va korrupsion risklarni kamaytirishning amaliy mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: (1) hisobdorlik va korrupsion risk tushunchalarining ilmiy-nazariy talqinini aniqlash; (2) bank sektoridagi korrupsiyaning asosiy sabablarini identifikatsiya qilish; (3) xalqaro amaliyotdagi samarali yondashuvlarni o‘rganish; (4) risklarni kamaytirishning konkret vositalarini asoslash.

ASPOSIY QISM:

Tijorat banklarida hisobdorlik tushunchasi

Hisobdorlik – bank boshqaruvi sohasidagi asosiy tamoyillardan biri bo‘lib, u tashkilot rahbariyati va xodimlarining o‘z qarorlari hamda harakatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishini anglatadi. Jensen va Meckling (1976) agentlik nazariyasi doirasida asoslab berganidek, mulkdorlar (shareholders) bilan menejment o‘rtasidagi manfaat ziddiyati moliyaviy institutlarda ayniqsa keskin namoyon bo‘ladi. Bu ziddiyat bartaraf etilmaganida, menejerlar shaxsiy manfaatlarini tashkilot manfaatidan ustun qo‘yishi mumkin[203].

Bank hisobdorligi bir necha o‘lchamda namoyon bo‘ladi: moliyaviy hisobot shaffofligi, operatsion xavflarni oshkor etish, regulyativ talablarga rioya qilish va ijtimoiy mas’uliyat. Barth, Caprio va Levine (2004) o‘tkazgan keng ko‘lamli empirik tahlil shuni

[201] Luo, Y. (2005). An organizational perspective of corruption. Management and Organization Review, 1(1), 119–154. https://doi.org/10.1111/j.1740-8784.2004.00006.x.

[202] Transparency International. (2022). Corruption perceptions index 2022. https://www.transparency.org/en/cpi/2022.

[203] Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theoryof the firm: Managerial behavior, agencycosts and ownership structure. Journal of Financial Economics, 3(4), 305–360. https://doi.org/10.1016/0304-405X(76)90026-X.

ko‘rsatadiki, bank nazoratini kuchaytirish o‘z-o‘zicha yetarli emas – muhimi, bozor intizomini ta’minlash orqali bank rahbariyatini shaffof faoliyatga undashdir. Aks holda, rasmiy nazorat tuzilmalari mavjud bo‘lsa-da, amalda ular samarasiz qolishi mumkin.

Korrupsiya risklarining asosiy sabablari

Tijorat banklarida korrupsion risklarning kelib chiqishi ko‘p qirrali bo‘lib, ularni uchta asosiy toifaga ajratish mumkin: tarkibiy, institutsional va xulq-atvor omillari. Tarkibiy omillar qatoriga bank xizmatlari murakkabligining ortishi, ma’lumotlar assimetriyasi va nazorat bo‘shliqlarini kiritish mumkin. Shleifer va Vishny (1993) tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, diskresion vakolatlar keng bo‘lgan va hisobdorlik mexanizmlari zaif tuzilmalarda korrupsiya ehtimoli sezilarli darajada yuqori bo‘ladi[204].

Institutsional omillar jumlasiga mustaqil sud tizimining yetishmasligi, regulyatorlar bilan “qo‘l berib ketish” hodisasi va qonun ustuvorligining zaif ta’minlanishi kiradi. Rose-Ackerman (1999) ushbu holatni “tizimli korrupsiya” deb ta’riflaydi va uni individual mansabni suiiste’mol qilish holatlaridan tubdan farqli ijtimoiy-siyosiy fenomen sifatida baholaydi. Bank sektorida bunday tizimli korrupsiya kredit berish jarayonida imtiyozli shartlarni lobbirlash, litsenziyalash tartiblarida tartibsizlik va nazorat organlarining vujudga kelishi shaklida namoyon bo‘ladi.

Xulq-atvor omillari nuqtai nazaridan, Akerlof va Shiller (2015) bahslashganidek, moliyaviy motivatsiya muhiti, korporativ madaniyat va etik me’yorlarning yo‘qligi yoki zaifligida individual mansabdorlar o‘z zimmasidagi vakolatni shaxsiy boylik orttirish uchun ishlatishga undanadi[205]. Bunday muhitda “barcha shunday qiladi” mentaliteti vujudga kelib, korrupsion xatti-harakatlar normaga aylanib qolishi mumkin.

Zamonaviy yondashuvlar va xalqaro tajriba

Bank sektorida korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro me’yoriy bazasini Moliyaviy harakat bo‘yicha maxsus guruh (FATF) tavsiyalari, Basel qo‘mitasining korporativ boshqaruv tamoyillari va OECD anti-poraxo‘rlik konventsiyasi tashkil etadi. Basel III tizimi kapital talablarini kuchaytirish bilan birga operatsion xavflarni boshqarish va hisobdorlik tuzilmalarini takomillashtirish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar belgilaydi[206].

Skandinaviya mamlakatlarining bank amaliyoti, xususan Norvegiyadagi namunaviy korporativ boshqaruv tizimi, shaffof hisobot va kuchli ichki audit mexanizmlari asosida bank sektoridagi korrupsiya darajasini minimallashtirishning amaliy namunasini taqdim etadi. La Porta va boshqalar (1998) katta miqdordagi

[204] Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1993). Corruption. The Quarterly Journal of Economics, 108(3), 599–617. https://doi.org/10.2307/2118402.

[205] Akerlof, G. A., & Shiller, R. J. (2015). Phishing for phools: The economics of manipulation and deception. Princeton University Press.

[206] Basel Committee on Banking Supervision. (2015). Corporate governance principles for banks. Bank for International Settlements. https://www.bis.org/bcbs/publ/d328.pdf.

mamlakatlaro tahlil orqali aniqlaganidek, qonuniy muhofaza va axborot oshkorligi darajasi banklar samaradorligi va halolligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[207].

Singapur va Gonkong kabi Osiyo moliyaviy markazlari tajribasi esa qat’iy regulyativ talablar, mustaqil nazorat organlari va surishtiruv organlarining faol hamkorligi orqali bank korrupsiyasini tizimli ravishda jilovlash mumkinligini isbotlaydi. Dreher, Kotsogiannis va McCorriston (2007) o‘tkazgan empirik tadqiqot shaffoflik indeksi yuqori mamlakatlarda bank sektoridagi firibgarlik va korrupsiya holatlarining statistik jihatdan ancha kam uchrashinini tasdiqlaydi[208].

Risklarni kamaytirishning aniq mexanizmlari

Birinchi mexanizm – ichki nazorat va audit tizimini mustaqillashtirish. Samarali ichki audit funksiyasi bevosita kuzatuv kengashiga bo‘ysunishi, operatsion faoliyatdan tashkiliy jihatdan alohida bo‘lishi va yetarli resurslar bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim. Beasley, Carcello va Hermanson (1999) tadqiqoti kuchli ichki audit tuzilmasining moliyaviy firibgarlik ehtimolini 50 foizgacha kamaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, tashqi auditorlarning rotatsiyasi auditning mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi[209].

Ikkinchi mexanizm – raqamli monitoring va sun’iy intellekt asosida anomaliyalarni aniqlash tizimlari. Zamonaviy FinTech yechimlar tranzaksiyalarni real vaqt rejimida tahlil qilib, shubhali operatsiyalarni avtomatik ravishda belgilash imkonini beradi. Reurink (2018) ta’kidlaganidek, an’anaviy qo‘lda audit yondashuvlari ko‘p hollarda katta hajmdagi moliyaviy operatsiyalardagi nozik manipulyatsiyalarni aniqlashda cheklangan samaradorlikka ega; bu borada mashinali o‘rganish algoritmlaridan foydalanish sezilarli natijalar bermoqda[210].

Uchinchi mexanizm – “soqchilar” (whistleblower) institutini huquqiy asosda ta’minlash. Korrupsiya faktlarini xavfsiz va maxfiy tarzda xabar qilish imkonini beruvchi kanallarning mavjudligi bank ichidagi oshkor qilinmagan muammolarni aniqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Near va Miceli (1985) klassik tadqiqoti “soqchilik” mexanizmlarining tashkiliy sofliqni ta’minlashda muhim instrument ekanini nazariy asoslagan[211]. Hozir AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqida qonuniy asosga ega bo‘lgan ushbu tizim xalqaro standartlarga muvofiq bank qonunchiligi reformasiga kiritilishi zarur.

---

[207] La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1998). Law and finance. Journal of Political Economy, 106(6), 1113–1155. https://doi.org/10.1086/250042.

[208] Dreher, A., Kotsogiannis, C., & McCorriston, S. (2007). Corruption around the world: Evidence from a structural model. Journal of Comparative Economics, 35(3), 443–466. https://doi.org/10.1016/j.jce.2007.07.001.

[209] Beasley, M. S., Carcello, J. V., & Hermanson, D. R. (1999). Fraudulent financial reporting: 1987–1997. An analysis of US public companies. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission.

[210] Reurink, A. (2018). Financial fraud: A literature review. Journal of Economic Surveys, 32(5), 1292–1325. https://doi.org/10.1111/joes.12294.

[211] Near, J. P., & Miceli, M. P. (1985). Organizational dissidence: The case of whistle-blowing. Journal of Business Ethics, 4(1), 1–16. https://doi.org/10.1007/BF00382668.

To‘rtinchi mexanizm – xalqaro moliyaviy razvedka hamkorligi va ma’lumot almashish protokollari. FATF ning «Mutual Evaluation» jarayoni va Egmont guruhi kabi platformalar orqali turli davlatlar moliyaviy nazorat organlari o‘rtasida real vaqtda ma’lumot almashish chegaralar oshidagi pul yuvish sxemalarini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Claessens va Yurtoglu (2013) ta’kidlaganidek, milliy kontekstda amalga oshirilgan chora-tadbirlar transchegara moliyaviy oqimlar bilan bog‘liq korrupsion sxemalarni yengish uchun yetarli emas – xalqaro hamkorlik bu borada zaruriy shart bo‘ladi[212].

XULOSA:

Ushbu tadqiqot tijorat banklarida hisobdorlikni ta’minlash va korrupsion risklarni kamaytirish muammosi ko‘p qatlamli tizimiy yondashuv talab etishini ko‘rsatadi. Nazariy tahlil shuni tasdiqlaydi: agentlik muammolari, ma’lumotlar assimetriyasi va institutsional zaifliklar birgalikda korrupsiya uchun qulay sharoit yaratishi mumkin. Ayni vaqtda, xalqaro tajriba mustaqil nazorat tuzilmalari, shaffof hisobot va zamonaviy raqamli monitoring vositalarining kompleks qo‘llanilishi bu risklarni sezilarli darajada pasaytirishini isbotlaydi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi: birinchidan, bank kuzatuv kengashlarining tarkibiy mustaqilligini oshirish va ichki audit organlarini operatsion boshqaruvdan instituttsional jihatdan ajratish; ikkinchidan, shubhali tranzaksiyalarni aniqlashda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlilidan foydalanish; uchinchidan, xodimlarni huquqiy himoya kafolatli soqchi-xabarchilik mexanizmlari bilan ta’minlash; to‘rtinchidan, FATF va Basel standartlariga muvofiq milliy bank qonunchiligi va nazorat tartiblarini muntazam yangilab borish; beshinchidan, moliyaviy qonunbuzarliklarni aniqlashda xalqaro razvedka hamkorligiga faol qo‘shilish. Ushbu chora-tadbirlar bank tizimida ishonchni mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shuvchi sog‘lom moliyaviy muhitni shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

HUDUDIY INFRATUZILMANI MOLIYALASHTIRISHDA TASHABBUSLI BYUDJET AMALIYOTIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Mirzayev Xursanmurod Egamberdiyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisda infratuzilmani moliyalashtirish tizimida tashabbusli byudjet amaliyotining tutgan o‘rni va uning funksional ahamiyati kompleks tarzda tahlil etiladi. Tashabbusli byudjet mexanizmi fuqarolarni byudjet jarayonlariga faol jalb qilish, mahalliy darajadagi infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda ularning

[212] Claessens, S., & Yurtoglu, B. B. (2013). Corporate governance in emerging markets: A survey. Emerging Markets Review, 15, 1–33. https://doi.org/10.1016/j.ememar.2012.03.002.

ishtirokini kengaytirish hamda moliyaviy jarayonlarning ochiqligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim instrument sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot doirasida rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilmani rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashda tashabbusli byudjetlash amaliyotining samarali tajribalari o‘rganilib, uning asosiy ustunliklari va mavjud muammolari tizimli ravishda baholanadi. Shu bilan birga, infratuzilmani moliyalashtirish jarayonida mazkur mexanizmning samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: tashabbusli byudjet, infratuzilma tizimi, kapital qo‘yilmalar, hududiy byudjet, moliyaviy monitoring, ochiqlik, investitsiya loyihasi, innovatsion yondashuvlar, mustaqil audit tekshiruvlari.

Zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini mustahkamlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish hamda moliyaviy resurslarni maqbul taqsimlash masalasi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu jarayonda tashabbusli byudjet amaliyoti fuqarolarning byudjet jarayonlaridagi faolligini kuchaytirish va loyihalarni ochiq, shaffof asosda moliyalashtirishning samarali instrumenti sifatida e’tirof etilmoqda. Tashabbusli byudjet

- bu mahalliy aholi va fuqarolik jamiyati institutlariga byudjet mablag‘larini taqsimlashda bevosita qatnashish imkonini beruvchi mexanizm bo‘lib, u infratuzilma loyihalarini asosli rejalashtirish, ularning amaliy ijrosini samarali tashkil etish hamda umumiy natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tashabbusli byudjet mexanizmi orqali jamoatchilik yo‘l infratuzilmasini ta’mirlash, ichimlik suvi tizimlarini yaxshilash hamda yoritish tarmoqlarini modernizatsiya qilish kabi ustuvor loyihalarni ilgari suradi. Ushbu jarayonda davlat va mahalliy byudjet resurslari bilan bir qatorda xususiy sektor hamda donor tashkilotlar mablag‘larini jalb etish imkoniyati kengayadi. Loyihalarning amalga oshirilishi fuqarolar hamda mustaqil ekspertlar tomonidan monitoring qilinishi natijasida moliyaviy intizom kuchayadi, korrupsion xatarlar qisqaradi va bajarilayotgan ishlar sifati sezilarli darajada oshadi.

Dunyoning qator mamlakatlarida, xususan Braziliya, Polsha va Janubiy Koreyada tashabbusli byudjet amaliyoti infratuzilmani moliyalashtirishning samarali instrumentlaridan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda ham 2021-yildan boshlab “Tashabbusli byudjet” tizimi joriy etilib, fuqarolar tomonidan ilgari surilgan loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. Shu bois mazkur tizimni izchil rivojlantirish orqali infratuzilma loyihalarining sifati hamda ularning ijtimoiy samaradorligini yanada oshirish imkoniyati mavjud. Tashabbusli byudjet amaliyoti infratuzilmani moliyalashtirish jarayonida aholi ishtirokini kengaytirish va moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlashda muhim institutsional vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu mexanizm infratuzilma loyihalarining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash,

korrupsion xatarlarni kamaytirish hamda mahalliy jamoalarning real ehtiyojlarini aniq identifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, O‘zbekistonda tashabbusli byudjet amaliyotini kengaytirish va institutsional jihatdan takomillashtirish infratuzilma rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutiladi.

Shaffoflik va hisobdorlik tashabbusli byudjet tizimining asosiy institut-sional tamoyillari sifatida fuqarolar va jamoatchilik vakillariga loyihalarning moliyaviy manbalari hamda mablag‘lar harakatini nazorat qilish imkonini yaratadi. Mazkur mexanizm jamiyatda ochiqlik va javobgarlikni ta’minlashning muhim vositalaridan biri bo‘lib, davlat resurslaridan samarali va maqsadli foydalanishni kafolatlash, korrupsion xatarlarni kamaytirish hamda aholining davlat boshqaruviga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shaffoflik – bu davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan byudjet mablag‘larining shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi jarayonlarida ochiqlikni ta’minlash tamoyilidir. Ushbu yondashuv aholiga moliyaviy axborotlardan erkin foydalanish, infratuzilma loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirish bosqichlari haqida to‘liq ma’lumot olish imkonini beradi.

Shaffoflikni ta’minlash mexanizmlari bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Xususan, ochiq byudjet axborotlari orqali davlat va mahalliy byudjet daromadlari hamda xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar internet platformalari va ommaviy axborot vositalarida muntazam e’lon qilinadi, loyihalarni tanlash va moliyalashtirish tartibi yuzasidan hisobotlar taqdim etiladi. Bundan tashqari, qaror qabul qilish jarayonlarida fuqarolar ishtiroki ta’minlanib, mahalliy aholi o‘z hududi uchun muhim loyihalarni tanlashda bevosita qatnashadi, davlat organlari esa ilgari surilgan tashabbuslarning moliyalashtirilishi bo‘yicha muntazam axborot berib boradi. Moliyaviy nazoratni kuchaytirish doirasida davlat xarajatlari yuzasidan ochiq monitoring tizimi joriy etilib, mablag‘larning sarflanishi haqida oshkora hisobotlar e’lon qilinadi. Jamoatchilik nazorati instituti rivojlantirilib, mustaqil auditorlik mexanizmlari orqali byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi baholanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar asosida onlayn platformalar va mobil ilovalar ishlab chiqilib, ular orqali fuqarolar tashabbusli byudjet loyihalarini kuzatish, baholash va ovoz berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, davlat organlari tomonidan aholining taklif va murojaatlarini qabul qilishga xizmat qiluvchi interaktiv platformalar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, hisobdorlik tamoyili fuqarolarning davlat mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratini kuchaytirish orqali korrupsion holatlar va turli suiiste’molliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Hisobdorlikni ta’minlash jarayonida davlat organlari va mahalliy boshqaruv tuzilmalarining javobgarligini oshirish, jamoatchilik nazorati institutlarini rivojlantirish hamda fuqarolik jamiyati subyektlarining faol ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, mustaqil audit va moliyaviy nazorat mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, byudjet mablag‘larining shakllanishi va

sarflanishi yuzasidan hisobotlarni muntazam ravishda e’lon qilib borish hisobdorlik tizimining ajralmas tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini amaliyotga joriy etish tashabbusli byudjet tizimining umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Natijada byudjet mablag‘larining maqsadli va oqilona sarflanishi ta’minlanadi, davlat organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanadi hamda korrupsion xatarlar kamayadi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv mahalliy jamoalarga infratuzilma rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Fuqarolar ishtiroki orqali infratuzilmani rivojlantirishga oid takliflar bevosita aholi ehtiyojlari asosida shakllanadi, bu esa loyihalarning dolzarbligi va natijadorligini oshiradi.

Fuqarolarning faol ishtiroki infratuzilmani moliyalashtirish jarayonida shaffoflik va samaradorlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tashabbusli byudjet amaliyotida fuqarolarning qaror qabul qilish, ustuvor loyihalarni aniqlash hamda ularning ijrosini nazorat qilish jarayonlarida faol qatnashishi muhim ahamiyatga ega. Fuqarolar ishtirokiga asoslangan tizim bir qator muhim tamoyillarga tayanadi: ochiqlik, erkin fikr bildirish, muvofiqlashtirish, hamda javobgarlik.

Loyihalarni shakllantirish bosqichida fuqarolar o‘z hududlaridagi muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari suradilar. Bunda aholi o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish, mahalliy yig‘ilishlar tashkil etish va elektron platformalar orqali takliflarni qabul qilish muhim vosita hisoblanadi. Masalan, Ochiq byudjet platformasi orqali fuqarolar yo‘llarni ta’mirlash, ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash yoki ijtimoiy obyektlarni qurish kabi loyihalar bo‘yicha tashabbus bildirish imkoniga ega. Keyingi bosqichda taklif etilgan loyihalar orasidan eng dolzarb va samaralilari tanlab olinadi. Bu jarayon jamoatchilik muhokamasi hamda onlayn ovoz berish asosida amalga oshiriladi. Natijada eng ko‘p qo‘llab-quvvatlangan tashabbuslar mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Xalqaro tajribada, masalan, Porto Alegre shahrida fuqarolar shahar byudjetining muhim qismini taqsimlashda bevosita ishtirok etish imkoniga ega bo‘lib, bu tizimning samaradorligini amalda namoyon etadi. Loyihalar amalga oshirilgandan so‘ng ham fuqarolar ularning bajarilish jarayonini monitoring qilish va sifatini baholashda faol qatnashadilar. Loyihalarning bajarilish bosqichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar muntazam e’lon qilinadi, shuningdek, fuqarolar maxsus platformalar orqali o‘z fikr-mulohazalarini bildirish imkoniga ega bo‘ladi. Fuqarolarning infratuzilmani moliyalashtirish jarayonidagi ishtiroki tashabbusli byudjet tizimining asosiy ustunliklaridan biri bo‘lib, byudjet mablag‘larini adolatli taqsimlash va ularni real ehtiyojlarga yo‘naltirishni ta’minlaydi. Mazkur tizimni keng joriy etish orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash hamda infratuzilma loyihalarining samaradorligini oshirish mumkin.

MOLIYAVIY TEXNALOGIYALAR ASOSIDA ISLOM MOLOYASINI RIVOJLANTIRISH: O‘ZBEKISTONDAGI MAVJUD IMKONIYATLAR VA UNING ISTIQBOLLARI

Qaxramonova Gulandom Qodirali qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnalogiyalar asosida islom moliyasini rivojlantirish masalalari hamda uning O‘zbekiston iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Xususan, fintech, blochcheyn va raqamli plotformalarining islom moliya muassasalarida tutgan o‘rni qisman yoritiladi. Islom moliya tizimi va uning asosiy tamoyillari raqamli muhitda qanday amalga oshirilishi va milliy iqtisodiyotda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash imkoniyatlari asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonda islom moliyasini raqamlashtirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlar, amaliy tajribalar va istiqbollar, shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi muammolar ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Raqamli texnalogiyalar, islom moliyasi, fintek, blokcheyn, raqamli iqtisodiyot, halol moliya tizimi, investitsiya, iqtisodiy rivojlanish, raqamli bank xizmatlari.

Bugungi kunda har bir davlat uchun milliy iqtisodiy barqarorlikni saqlash eng oldi maqsadlardan biri hisoblanadi. Bunda muqobil moliyaviy modellearning o‘rni beqiyosdir. Shunday madellardan biri bu islom moliyasidir.

Islom moliyalashtirishi islom moliyalashtirish qonunlari tamoyillari bilan tartibga solinadigan e’tiqodga asoslangan[4]. Islom iqtisodiyoti nazariyasiga tegishli asosiy tushunchalar mulk huquqi, bozor erkinligi va tadbirkorlikda keng qamrovli moliyalashtirish manbaasi sifatida ko‘riladi. Biroq, bu erkinlik ijtimoiy tenglikda barqarorlikni ta’minlashda, moliyaviy samaradorlikda, boylikni jamiyat ichida aylanishida, real sektorni qo‘llab-quvvatlashda, spekulativ operatsiyalashni cheklashda muhim hisoblanadi[5]. Shu boisdan, islom moliyasining asosiy tamoyillari quyidagicha keltiriladi[8]:

foiz(ribo)ning man qilinishi;

iqtisodiy hamkorlik asosida mehnat va kapital o‘rtasidagi foyda va zararning taqsimlanishi;

qo‘shma korxonalarning mavjudligi, albatta, bunda teng ishtirokchilar mavjud bo‘lmasa ham;

vaqf ya’ni xayriya fondlarining mavjudligi;

isrofgarchilikning oldini olish.

Bu tamoyillardan kelib chiqib, ushbu islom moliya tizimining asosiy maqsadi iqtisodiy adolatni ta’minlash, moliyaviy faoliyatni real iqtisodiy aktivlar bilan bog‘lash

hamda jamiyatning barcha qatlamlari uchun barqaror farovonlik yaratish ekanligini tushunishimiz mumkin.

Yurtimizda sharoitida ham rivojlanish istiqbollari mavjud. Chunki, islom moliyasiga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunga asos qilib dastavval, qonun hujjatlarini ham keltirishimiz mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonida ham bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari va tashabbuslar talqinida kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish bo‘yicha pirovard maqsadni ilgari surganlar.

2022-yil 20-apreldagi mikromoliya tashkilotlari islom moliyasi tamoyillari asosida qarzlar berishi mumkinligi bo‘yicha “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonun imzolandi[1].

Islom moliya muassasalarining yuqoridagilar bilan bir qatorda eng asosiy huquqiy asosi bo‘lib 2024-yil 19-iyuldagi “Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi Nizom hisoblanadi kabi bir qator qonun doirasidagi chora-tadbirlarni misol keltirishimiz mumkin[2].

Va eng asosiysi, O‘zbekistonda islom banklari faoliyatini joriy joriy qilishga qaratilgan Qonun qabul qilinishidir. “O‘zbekiston Resublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2026-yil 27-martda qabul qilindi[3]. Ushbu Qonun Markaziy bank tomonidan mahalliy va xorijiy ekspertlar bilan birgalikda sohaga oid xalqaro standartlar hamda ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Mazkur qonun bilan endilikda islomiy bank faoliyatini amalga oshirish uchun huquqiy asos yaratildi va amaldagi qonun hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Shunu biz alohida ta’kidlashimiz kerakki, bu bir kunda erishilgan natija emas, uning ortida malakali mutaxassislarning yillar davomida qilgan mehnati yotibdi. Ilk bora 2016-2017- yillarda Islomiy bankchilik to‘g‘risida keng jamoatchilik orasida gapirila boshlangan bo‘lsa, mana salkam 10 yilda so‘ng Qonun qabul qilindi.

Ana endilikdagi oldimizda turgan asosiy vazifamiz— ushbu qonunni puxta o'zlashtirgan holda, uni amaliyotga to‘g‘ri joriy qilishdir. Uni mazmunan boshqacha talqin qilmaslik va eng muhimi — islomiy banklarga umid bilan, ishonch bilan qarab turgan aholimiz va tadbirkorlarimizning ishonchiga putur yetkazmasligimiz lozim.

Qonun doirasida:

Soliq va Fuqarolik kodekslari hamda 7 ta qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

qonunchilikka islomiy bank faoliyati, islomiy moliya operatsiyalari, islomiy moliya standartlari hamda investitsiyaviy omonat (depozit) tushunchalari kiritilmoqda;

islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya joriy qilinib, mazkur litsenziyani olish bo‘yicha aniq talablar o‘rnatilmoqda;

islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega banklar tomonidan amalga oshiriladigan islomiy moliya operatsiyalari ro‘yxati keltirilmoqda;

islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarga bevosita savdo faoliyatini amalga oshirishga hamda yuridik shaxslarni tashkil etish va yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi ulushlarni yoki aksiyalarni cheklovlarsiz olishga ruxsat berilmoqda;

islomiy moliya faoliyati bilan bog‘liq masalalarni muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy bank va banklarda islomiy moliya kengashini tashkil etish hamda uning faoliyatiga doir talablar belgilanmoqda.

Qonuniy shart-sharoitlar bilan birgalikda, moliyaviy texnalogiyalar islom moliya muassasalariga shaffoflikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, moliyaviy samaradorlik, risklarni jilovlash, shariatga muvofiqligini tekshiruvchi moliyaviy monitoring xizlarlari kabi keng qamrovli imkoniyatlar yaratadi. Jamiyatda, aholining keng qamrovli qismiga xizmat ko‘rsatish ham shariat talablariga yanada aniq rioya etishdagi asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, jarayondagi bu kabi moliyaviy texnalogiyalardan foydalanish, xizmat ko‘rsatish tezligi, inson qilishi mumkin bo’lgan xatolardan holiligi, operatsion xarajatlar kamayishi, tranzaksiya raqamda ifodalanishi, oldingi bitimlarni kuzatish, audit jarayonini son va samarali kuzatish kabilar bilan ham ahamiyatlidir.

Islom FinTechlari ya’ni halol moliya texnalogiyalari hozir sanoat darajasidagi rivojlanish nuqtasiga yetgan. Bular islom moliyasining shariat tamoyillariga mos keladigan moliyaviy xizmatlarni raqamli texnalogiyalar yordamida taqdim etish tizimlari hiosblanadi. Bu tizimni hsakllantirish va mamlakatlarda joriy etish bo‘yicha hozirda minglab kompaniyalar tashkil etilgan. Har yili islom Fintechlarini yillik hisobotlari chop etiladi. Bunda, global strategik tadqiqotlar, axloqiy raqamli moliyalshtirish, biznes hamkorlik, investirsion firmalar to‘g‘risida moliya institutlari va xalqaro investorlar uchun muhim ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

2025-2026-yilgi Global Islom Fintech hisoboti bizning Islom Fintech sektorining yillik sharhiga asoslanadi va ushbu qism nashrning ketma-ket beshinchi nashrini hisoblanadi. Hisobot global strategik tadqiqot va maslahatlar firmasi DinarStandard va axloqiy raqamli moliyalashtirishga ixtisoslashgan maslahat va investitsiya firmasi Elipses o‘rtasidagi hamkorlikdagi sa‘y-harakatlari mahsulidir. Hisobot butun dunyo hukumat siyosatchilari, Islom Fintech asoschilari, moliya institutlari va investorlar uchun asosiy ma’lumotnomadir.

Demak, hisobotda har bir sektorning keng qamrovli bahosi, jumladan, o‘zaro kelishuvlar hajmi bo‘yicha tahminiy bozor hajmi, mamlakat darajasidagi benchmarking indeksi, sanoat istiqbollari va asosiy kichik sektorlar va geografik bozorlardagi

bo‘shliqlar va o‘sish salohiyatining tizimli tahlili taqdim etiladi. Shu bilan birga, unda butun dunyo bo‘ylab 30 ta taniqli Islom Fintech kompaniyalari haqida ma'lumot berilgan va sektor uchun baholash ko‘rsatkichlari taqdim etilgan. “Global Islom Fintech tranzaksiyalari hajmi 2024-2025-yillarda 198 milliard AQSh dollarini tashkil etgan va 2029-yilga kelib 341 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda, bu yillik o‘sish sur’ati 11,5% ni tashkil etadi. Bu shu davrda taxminan 11,0% ga o‘sishi kutilgan global Fintech sanoati bilan yaxshi taqqoslanadi”.[9]

“O‘tgan yili 16 ta mamlakatda Islom Fintech tranzaksiyalari hajmi 1 milliard AQSh dollaridan oshdi. Tranzaksiyalarning taxminiy hajmi bo'yicha eng yaxshi 10 ta mamlakat Saudiya Arabistoni, Eron, Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari, Indoneziya, Quvayt, Turkiya, Bangladesh, Pokiston va Qatardir”.[10]

“GIFT Index 2025/26 Saudiya Arabistoni, Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari, Indoneziya, Bahrayn, Buyuk Britaniya, Qatar, Pokiston, Quvayt va Singapurni Islom Fintech uchun eng qulay 10 ta ekotizim sifatida baholadi. Indeks beshta toifadagi 19 ta ko'rsatkichni qo'llaydi: iste’dod, tartibga solish, infratuzilma, islom fintech bozori va ekotizimi va kapital”.[11]

Hisobot shuningdek, islom fintech amaliyotchilari va sanoat xizmatlarini ko‘rsatuvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma orqali sektor bo‘ylab to‘siqlar va imkoniyatlarni baholaydi. Aniqlangan eng muhim muammolar qatoriga kapitalga kirish, tartibga solish talablariga muvofiqlik, cheklangan mijozlarni o‘qitish, geografik kengayishning murakkabligi va mijozlarni jalb qilishning yuqori xarajatlari kiradi. Ushbu cheklovlarga qaramay, sektor kengayishda davom etmoqda, islom fintechlarining global ma’lumotlar bazasi hozirda 484 ta firmani o‘z ichiga oladi.[12] So‘ngra esa, hisobotda moliyalashtirish faoliyati, geografik kengayishi, konsolidatsiya strategiyalari va kengroq islom moliya sanoatidagi innovatsiyalari bilan ajralib turadigan 30 ta taniqli islom fintechlari ta'kidlangan.

Islom Fintech ma‘lumotlar bazasi jahonda 484 ta Islom Fintech kompaniyalaridan eng yaxshi 10 talari Islom Fintech kompaniyalarining 80% ni ishlab chiqaradi, Islom Fintech kompaniyalarining 72% eng yaxshi 5 ta kichik sektorga kiradi. Bularga, mamalakatlar kesimida Saudiya Arabistonida 74 ta, Malayziyada 59 ta, Indoneziyada 58 ta, Birlashgan Arab Amirlilarida 55 ta, Buyuk Britaniyada 52 ta, Qatarda 22 ta, AQShda 22, Pokistanda 19 ta, Misrda 14 ta, Singapurda 14 tasi mavjud. Sektorlar kesimida, Muqobil moliyada 104, Boylikni boshqarishda 74, To‘lovlarda 70 ta, Mablag'larni jalb qilishda 55ta, Omonatlar va kreditlarda 46 ta, Raqamli aktivlarda 29ta, Faol texnologiyalarda 28 ta, Texnologiya provayderlarida 18 ta, Sug‘urtada 18 ta, Ijtimoiy moliyada 17 tani tashkil etadi.[9]

Bugungi kundagi moliyaviy texnalogiyalarga xoh mobil ilovalar, raqamli bank xizmatlarini, sun’iy intelekt kabi yokida maxsus raqamli texnalogiyalar sirasiga kiradigan blokcheyn yoki smart shartnomalarni misol tariqasida bilar ekanmiz, bu kabi “bigdata” jarayonlari

albatta, islom moliya muassasalariga ham sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Bu kabi moliyaviy texnalogiyalar aynan shu jihatdan ilomiy moliya muassasalari faoliayatini kuchaytiradi. Bunda raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan murobaha, mushoraka, mudoraba, salam kabi islomiy moliyalashtirish shartnomalarini boshqarish ham vaqtni tejash ham foydalanish uchun qulay, tushunarliligi va osonligi bilan ajralib turadi. Yana bir misol qilib, smart shartnomalarni ham keltirishimiz mumkin, ikki tomonlama shartnoma bu jarayonda avtomatik amalga oshirilishini ta’minlaydi. Shuningdek, zamonaviy moliyaviy texnalogiyalar nobank va mikromoliya tashkilotlarning ham faoliyatini samaradorligini oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Onlayn plotformalar orqali bu moliya muassasalari islomiy operatsiyalarni taklif qilgan holda, tadbirkorga o‘z biznesini oson va samarali molyalashtirishda ko‘maklashadi bu esa real iqtisodiy sector rivojiga hissa qo’shadi. Shuningdek, shariat ahkomlari bilan tadbirkorlarga yaratilgan qulay shart-sharoitlar riskni boshqarish, xizmat sifatini yaxshilash, xaridor talabini tezkor qondirish, xarajatni kamaytirish va boshqa bunga bog‘liq holatlarda muhim ahamiyat kasb etadi[6]. Yurtimizda ham bu kabi zamonaviy moliyaviy texnalogiyalar aynan islomiy moliyalashtirish xizmatlari bilan allaqachon kirib kelib ulgurgan.

Moliyaviy texnalogiyalarning islom moliyasidagi o‘rni, islom moliyalashtirishdagi ahamiyati haqida xulosa va takliflarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bunga shuni ta’kidlashimiz joizki, har doim zamon bilan hamnafas bo‘lish, doimiz izlanishda, texnik va texnalogik jihatdan jahon moliya tizimidagi yangiliklar va bilimlarga ochiqlik, ulardan xabardor bo’lish har birimiz uchun eng oldi vazifa deb bilaman. Bugungi kundagi axborot texnalogiyalar, raqamli iqtisodiyot rivojlangan bir paytda biz yosh avlodni tinimsiz izlanishi, xalqaro tajriba almashish uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardan to‘g‘ri va unumli foydalanish, erishilgan bilim va ko’nikmalarni amalda samarali foydalanish ham ancha mas’uliyatli vazifalar sirasiga kiradi. Moliyaviy texnalogiyalarning rivojlanishi doim bu bo’yicha malakali mutaxassislarga bo’lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Ana endi biz islomiy dega tushunchani bu yerda qo‘llar ekanmiz, bizga islom moliyasi bo’yicha yetuk mutaxassislarga talab kuchayadi. Islom mamlakatlarida qo‘llanilayotgan xalqaro tajribalarni o‘zaro almashunuvi orqali yana va yana shariat bilimini texnalogiya bilan uyg‘unlashtirish talab qilinadi. Zero, buning zamirida mamlakatimizning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, moliyaviy smaradorlini oshirish yotadi.

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI BOSHQARISH VA SHARTNOMALAR SHAFFOFLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

O‘ktamova Nargiza Narzulla qizi
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda davlat-xususiy sheriklik loyihalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va shartnomalar shaffofligini ta’minlashning institutsional-huquqiy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda DXShning investitsiya jalb etish va xizmatlar sifati samaradorligini oshirishdagi ahamiyati bilan bir qatorda, u bilan bog‘liq fiskal risklar, hisobdorlik va oshkoralik muammolari yoritilgan. O‘zbekiston qonunchiligida nazarda tutilgan shaffoflik vositalari baholanib, manfaatlar to‘qnashuvini erta aniqlash, deklaratsiya qilish va raqamli monitoringni kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik, manfaatlar to‘qnashuvi, shartnomaviy shaffoflik, fiskal risklar, tender tartib-taomillari, jamoatchilik nazorati, ochiq ma’lumotlar, raqamli monitoring, investitsion muhit.

Zamonaviy iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) infratuzilmaviy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishning muhim institutsional shakli sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu model davlatning cheklangan budjet resurslarini xususiy kapital, boshqaruv tajribasi va texnologik salohiyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Shu bois ko‘plab mamlakatlarda DXSh investitsiya siyosatining muhim instrumentiga aylanib, davlat xizmatlari sifati va infratuzilma ta’minotini yaxshilash vositasi sifatida qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham DXShni rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, 2024–2030-yillarda DXSh loyihalariga kamida 30 milliard AQSh dollari miqdorida xususiy investitsiyalarni jalb etish vazifasi qo‘yilgan. Bu esa mazkur mexanizmning faqat investitsiya vositasi emas, balki uzoq muddatli fiskal majburiyatlar, risklar taqsimoti va institutsional boshqaruv sifati bilan uzviy bog‘liq murakkab iqtisodiy tizim ekanini anglatadi.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda past va o‘rta daromadli mamlakatlarda xususiy sektor ishtirokidagi infratuzilma investitsiyalari 315 ta loyiha bo‘yicha 100,7 milliard AQSh dollariga yetgan. Mazkur ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 16 foizga, so‘nggi besh yillik o‘rtacha darajaga nisbatan esa 20 foizga yuqori bo‘lgan. O‘zbekiston bo‘yicha 1990–2024-yillar oralig‘ida moliyaviy yopilish bosqichiga yetgan 28 ta loyiha doirasida 7,491 milliard AQSh dollari miqdoridagi investitsiya qayd etilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar DXSh mexanizmlarining amaliy ahamiyatini tasdiqlasa-da, ularning samaradorligi ko‘p jihatdan boshqaruv sifati, shaffoflik darajasi va hisobdorlik institutlari bilan belgilanadi.

Ilmiy adabiyotlarda DXSh ikki tomonlama tabiatga ega mexanizm sifatida talqin etiladi. Bir tomondan, u investitsiyalarni jalb etish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish hamda infratuzilma va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, davlat va xususiy manfaatlar tutashgan nuqtada manfaatlar to‘qnashuvi, axborot nomutanosibligi, fiskal tavakkalchilik va nazoratning susayishi kabi muammolarni yuzaga keltiradi. G. Hodge va C. Greve DXShning muvaffaqiyati, eng avvalo, moliyalashtirish sxemasidan ko‘ra, boshqaruv sifati va javobgarlik me’yorlariga bog‘liq ekanini ta’kidlaydilar. P. Rosenau esa hisobdorlik yetarli darajada ta’minlanmagan sharoitda DXSh tenglik, foydalanish imkoniyati va demokratik mezonlar nuqtayi nazaridan salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishini qayd etadi. Carsten Greve shaffoflikni DXShning markaziy muammolaridan biri sifatida baholab, uzoq muddatli va murakkab shartnomalar oddiy davlat xaridlariga nisbatan yuqoriroq darajadagi ochiqlik va nazoratni talab qilishini asoslaydi. Ushakova va Vinogradova esa ochiq ma’lumotlar, raqamli platformalar, shartli majburiyatlar monitoringi hamda standartlashtirilgan ma’lumotlarni oshkor etish mexanizmlarini DXShda ochiqlikni kuchaytirishning muhim vositalari sifatida baholaydilar.

Mazkur yondashuvlardan kelib chiqib, ushbu tezisning maqsadi davlat-xususiy sheriklik loyihalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va shartnomalar shaffofligini ta’minlashning amaldagi mexanizmlarini baholash hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, manfaatlar to‘qnashuvi xavfi loyiha tashabbusi, konsepsiyani ko‘rib chiqish va tasdiqlash, tender mezonlarini belgilash, tender komissiyasi faoliyati, g‘olibni aniqlash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazish, bitim shartlarini o‘zgartirish va tariflarni belgilash bosqichlarida ayniqsa kuchli namoyon bo‘ladi.

Amaldagi qonunchilikda ushbu xavflarni kamaytirishga xizmat qiluvchi ayrim mexanizmlar nazarda tutilgan. Jumladan, loyihalarni reyestrga kiritish, jamoatchilik muhokamasini o‘tkazish, asosiy ma’lumotlarni rasmiy veb-saytlarda e’lon qilish, tender mezonlarini kamsitishsiz qo‘llash va tender komissiyasi a’zolarining manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lganda ovoz berishda ishtirok etmasligi belgilangan. Biroq ushbu normalar manfaatlar to‘qnashuvini erta aniqlash, uni majburiy deklaratsiya qilish va alohida monitoring yuritish mexanizmlarini to‘liq qamrab olmaydi. Natijada tanlov xolisligining pasayishi, loyiha qiymatining asossiz oshishi, risklarning davlat zimmasiga o‘tishi hamda yashirin majburiyatlarning shakllanish xavfi saqlanib qoladi.

Mazkur muammo shartnomalar shaffofligi bilan bevosita bog‘liqdir. DXSh shartnomasi oddiy huquqiy bitim emas, balki davlatning uzoq muddatli fiskal, ijtimoiy va institutsional majburiyatlarini mustahkamlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Shu sababli undagi davlat to‘lovlari, minimal daromad kafolatlari, kompensatsiya formulalari, tarif mexanizmlari va risklar taqsimoti jamoatchilik nazorati uchun tushunarli va tahlilga yaroqli shaklda ochiqlanishi lozim. OECD tamoyillarida DXSh loyihalari bilan bog‘liq

xarajatlar, shartli majburiyatlar va kafolatlar budjet hujjatlarida shaffof aks ettirilishi zarurligi ta’kidlangan bo‘lsa, Jahon banki ma’lumotlarni loyiha hayotiy siklining barcha bosqichlarida proaktiv ravishda e’lon qilishni tavsiya etadi. Bu esa DXSh shartnomalarini faqat “tijorat siri” doirasida talqin etish yondashuvi yetarli emasligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston amaliyotida ham mazkur masala dolzarb ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son qarorida DXSh loyihalarining barcha bosqichlarini, shuningdek reyestr yuritish va monitoringni raqamlashtirish maqsadida elektron platformani joriy etish vazifasi belgilangan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi 720-son qarorida “Source” xalqaro platformasiga DXSh loyihalarining konsepsiyasi, tender hujjatlari va bitim shartlariga oid ma’lumotlarni kiritib borish talabi mustahkamlangan. Ushbu chora-tadbirlar shaffoflikni kuchaytirish yo‘lidagi muhim institutsional qadam bo‘lsa-da, ularning haqiqiy samaradorligi ma’lumotlarni shunchaki joylashtirish bilan emas, balki ularni standartlashtirilgan, qiyoslanadigan va tahlilga yaroqli ochiq formatda yuritish bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, DXSh loyihalarida manfaatlar to‘qnashuvi muammosi faqat huquqiy emas, balki loyiha samaradorligi, fiskal barqarorlik va investitsion ishonchga bevosita ta’sir etuvchi iqtisodiy omildir. Shu bois DXShni samarali rivojlantirish manfaatdorlikni deklaratsiya qilish, mustaqil ekspertiza, ochiq shartnomaviy ma’lumotlar bazasi va raqamli monitoring mexanizmlarini institutsional jihatdan kuchaytirishni talab etadi. Fikrimizcha, O‘zbekiston sharoitida DXSh shartnomalari bo‘yicha milliy ochiq reyestrni takomillashtirish, “tijorat siri” chegaralarini aniq belgilash hamda fiskal risklarni muntazam baholash tizimini joriy etish ushbu yo‘nalishdagi ustuvor vazifalardan biridir. Bunday yondashuv davlat manfaatlarini himoya qilish bilan kuchayibgina qolmay, jamoatchilik ishonchini oshiradi va investorlar uchun yanada barqaror institutsional muhitni shakllantiradi.

ПЕРСПЕКТИВЫ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕГРАЦИИ СИСТЕМ РИСК-АНАЛИЗА С НАЛОГОВЫМИ ОРГАНАМИ

Орифбоев Озод Азатович
студент 1-го курса факультета
«Магистратура и вечернее обучение»

Аннотация: В тезисе рассматриваются перспективы совершенствования финансового контроля государственных организаций Республики Узбекистан на основе интеграции систем риск-анализа с информационными ресурсами налоговых органов. Особое внимание уделяется внедрению цифровых инструментов и использованию данных электронных счетов-фактур для выявления и

предотвращения финансовых нарушений. Предлагается модель риск-анализа, направленная на повышение прозрачности бюджетных расходов и эффективности

В условиях проводимых в Республике Узбекистан масштабных институциональных и цифровых реформ особую актуальность приобретает повышение эффективности системы финансового контроля государственных организаций. Традиционные методы контроля, основанные преимущественно на последующих проверках и выборочных ревизиях, в современных условиях не обеспечивают должного уровня прозрачности и своевременного выявления нарушений при использовании бюджетных средств. Это обусловливает необходимость перехода к риск-ориентированной и цифровой модели контроля, основанной на непрерывном мониторинге финансовых операций.

Реформирование системы государственного финансового контроля закреплено в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-6300 от 27.08.2021 г., которым предусмотрено внедрение риск-анализа как обязательного элемента контроля, а также переход к финансовому аудиту, аудиту эффективности и соответствия.[213]

Дальнейшее развитие данных подходов отражено в Указе Президента №УП-100 от 10.07.2024 г., предусматривающем усиление контроля за использованием бюджетных средств, внедрение цифровых платформ и развитие дистанционного аудита.

Таким образом, на нормативном уровне закреплен переход от традиционных проверок к системе непрерывного мониторинга и риск-ориентированного отбора объектов контроля.

РОЛЬ НАЛОГОВЫХ ОРГАНОВ И ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ

Налоговые органы Республики Узбекистан выступают ключевым источником данных для риск-анализа благодаря внедрению автоматизированных систем обработки больших данных.

В частности, Указ Президента № УП-153 от 04.09.2025 г. предусматривает внедрение с 2026 года системы автоматической оценки риска электронных счетов-фактур (ЭСФ) в режиме реального времени с использованием технологий искусственного интеллекта.

Данная система позволяет классифицировать операции по уровням риска и выявлять несоответствия хозяйственной деятельности налогоплательщиков, включая фиктивные или экономически необоснованные транзакции.

НАУЧНАЯ НОВИЗНА

Интеграция систем государственного финансового контроля с налоговыми риск-модулями обеспечивает:

[213] Подпункт б) пункта 1, пункт 3 Указа.

формирование единого цифрового контура контроля;

переход к предиктивной (предупредительной) модели выявления нарушений;

снижение административной нагрузки за счет автоматизации анализа.

С учетом внедряемых инструментов целесообразно разработать механизм межведомственного риск-анализа расходов государственных организаций, основанный на данных ЭСФ, включающий:

Интеграцию данных:

объединение систем казначейства и налоговых органов (ЭСФ);

синхронизацию информации о бюджетных обязательствах и фактических платежах.

Формирование риск-индикаторов по ЭСФ:

отклонение цен от среднерыночных значений;

несоответствие операций профилю деятельности контрагента;

Автоматическая оценка риска:

присвоение каждой операции уровня риска (низкий/высокий) по аналогии с налоговой системой риск-анализа ЭСФ;

применение алгоритмов искусственного интеллекта и для выявления аномалий.

Контрольныетриггеры:

блокировка или дополнительная верификация платежей по операциям высокого риска;

автоматическое формирование сигналов для Счетной палаты и служб внутреннего аудита.

Обратная связь и самообучение системы:

корректировка моделей риска на основе результатов проверок;

формирование базы типовых нарушений.

Таблица 1. Пример системы риск-индикаторов при анализе ЭСФ государственных организаций.

№	Риск-индикатор	Описание риска	Источник данных	Потенциальное нарушение	Контрольное действие
1	Отклонение цены от рыночного уровня	Цена в ЭСФ существен-но выше/ниже среднеры-ночной	ЭСФ + рыночные базы данных	Завышение стоимости закупок, неэффективное расходование бюджета	Автоматиче-ское формирование сигнала и дополнительная проверка

№	Риск-индикатор	Описание риска	Источник данных	Потенциальное нарушение	Контрольное действие
2	Несоответст-вие профиля деятельно-сти	Контрагент выставляет ЭСФ по видам деятельности, не применимой для него	ОКЭД+ ЭСФ	Фиктивные сделки	Блокировка /дополнительная верификация операции
3	Несоответст-вие бюджетным лимитам	Суммыпо ЭСФ превышают утвержден-ные лимиты	Казначей-ство + ЭСФ	Нарушение бюджетной дисциплины	Блокировка платежа до выяснения
4	Нетипичные условия сделки	Резкие изменения цен, условийоплаты, объемов	ЭСФ + договоры	Манипулирова-ние условиями контрактов	Анализ отклонений и сигналаудитору

IJARA OPERATSIYALARINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Oripova Saodat Mirfotix qizi
Toshkent shahar Shayxontohur Tumani 445-DMTT O'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisda korxonalarda ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida ijara operatsiyalarini hisobga olish tizimi tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish jarayonini takomillashtirish orqali korxonalarning moliyaviy hisobotlarining ishonchliligini oshirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborotlarning aniqligini ta’minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ijara operatsiyalari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, operatsion ijara, moliyaviy ijara, hisob siyosati, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda buxgalteriya hisobi korxona faoliyati to‘g‘risidagi ishonchli va to‘liq axborotni shakllantirishda asosiy axborot tizimi hisoblanadi. So‘nggi yillarda

korxonalarda asosiy vositalardan foydalanishning samarali usullaridan biri sifatida ijara operatsiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Ijara operatsiyalari korxonalarga katta miqdordagi investitsiya mablag‘larini jalb qilmasdan turib ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish imkonini beradi. Shu sababli ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ijara operatsiyalarini hisobga olishda ayrim metodik muammolar mavjud bo‘lib, ularni takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tizimi o‘rganilib, uning nazariy asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilinadi hamda uni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Donald E. Kieso, Jerry J. Weygandt hamda Paul D. Kimmel tomonidan yozilgan ilmiy ishlarda ijara operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati, ularni moliyaviy va operatsion ijaraga ajratish hamda buxgalteriya hisobida aks ettirishning nazariy jihatlari keng yoritilgan.

Xalqaro tajribada ijara operatsiyalarini hisobga olish tartibi IFRS 16 Leases standarti asosida tartibga solinadi. Mazkur standartda ijara shartnomalarini tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning zamonaviy yondashuvlari belgilangan. Ushbu yondashuvlar korxonalarning moliyaviy holatini yanada aniq aks ettirishga xizmat qiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish masalalari keng o‘rganilgan bo‘lib, ularning ilmiy ishlari korxonalarda hisob tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotda ijara operatsiyalarini hisobga olish jarayonida ayrim muammolar mavjudligi ushbu masalani yanada chuqurroq o‘rganishni talab etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tadqiqotlarning bir qator ilmiy metodlaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, kuzatish hamda umumlashtirish metodlari qo‘llanildi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali milliy buxgalteriya hisobi amaliyoti va xalqaro tajriba o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi. Tizimli yondashuv orqali esa ijara operatsiyalarini hisobga olish jarayonining tarkibiy elementlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida ijara operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati hamda buxgalteriya hisobidagi o‘rni o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, korxonalarda ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish jarayonida ayrim metodik muammolar mavjud. Jumladan, ijara operatsiyalarini to‘g‘ri tasniflash, ularni hisob registrlarida aks ettirish hamda moliyaviy hisobotlarda to‘liq ifodalash masalalari alohida e’tibor talab qiladi.

Shu asosda ijara operatsiyalarini hisobga olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, ijara operatsiyalarini hisobga olishda ularni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra to‘g‘ri tasniflash zarurligi asoslab berildi. Bundan tashqari, ijara operatsiyalarini hisobga olish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish buxgalteriya hisobining aniqligi va tezkorligini oshirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Shuningdek, ijara operatsiyalarini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayonini xalqaro standartlar talablariga mos ravishda tashkil etish korxonalarning moliyaviy hisobotlarining shaffofligi va ishonchliligini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar korxonalarda ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tizimini takomillashtirishga, moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirishga hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida ishonchli axborot bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

POCHTA XIZMATLARI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLARNI TAN OLISH VA MOLIYAVIY NATIJALARNI AKS ETTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Urazov K.B.

SamISI “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, i.f.d.

Vaxobov Q.H.

TDIU SF 70410201–“Buxgalteriya hisobi” mutaxassisligi BHM-124 guruh magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada pochta xizmatlarida daromadlarni tan olish va moliyaviy natijalarni aks ettirish metodologiyasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Pochta jo‘natmasi qabul qilingan, tashilgan va topshirilgan bosqichlar bo‘yicha daromadni bosqichma-bosqich tan olish model, taklif etilgan. Tadqiqot natijasida pochta operatorlarida moliyaviy hisobotning ishonchliligi, daromadlarning iqtisodiy mazmunini to‘g‘ri aks ettirish va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pochta xizmati, daromad, daromadni tan olish, cash on delivery, qabul qilish, bosqichi tashish bosqichi, topshirish bosqichi, moliyaviy natija, IFRS 15, IAS 21, rentabellik, kompleks xizmat, valyuta riski, kompensatsiya, boshqaruv hisobi.

KIRISH

Bugungi global raqobat sharoitida pochta xizmatlari an’anaviy xat-xabar almashinuvi bilan cheklanib qolmay, elektron tijorat, logistika, ekspress yetkazib berish, sug‘urta, saqlash, qadoqlash va to‘lov xizmatlari bilan integratsiyalashgan ko‘p funksiyali tizimga aylanib bormoqda. Universal Postal Unionning 2025-yilgi hisobotida qayd etilishicha, global e-commerce hajmlari tarixan yuqori darajaga yetgan bo‘lsa-da, ushbu oqimni tashuvchi pochta infratuzilmasi tobora bo‘linib, qimmatlashib va murakkablashib

bormoqda; shu bilan birga xat-xabar hajmlari keskin qisqargan va sektor daromadlari yalpi iqtisodiy o‘sishdan ortda qolmoqda. Shuningdek, bugungi kunda pochta tarmog‘i dunyo bo‘yicha 679 mingdan ortiq pochta bo‘limi va 4,6 million xodimni qamrab oladi, biroq ayni paytda soha daromadlari iqtisodiy o‘sish sur’atlaridan ortda qolmoqda va infratuzilma xarajatlari oshib bormoqda.[214] Bunday sharoitda pochta xizmatlarida daromadlarni tan olish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki pochta operatorlari ko‘pincha bir shartnoma doirasida bir nechta xizmatlarni, jumladan jo‘natmani qabul qilish, saralash, qadoqlash, vaqtincha saqlash, yetkazib berish, qayta yo‘naltirish, va boshqa qo‘shimcha servislarni birlashtiradi. Xizmatlar turining bunday diversifikatsiyasi daromadni qaysi paytda va qanday summada e’tirof etish kerakligi masalasini murakkablashtiradi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga ko‘ra, daromad mijozga va’da qilingan tovar yoki xizmatlar topshirilishini ifodalashi va korxona olishga haqli bo‘lgan haq miqdorida aks ettirilishi lozim. IFRS 15 aynan shunday yondashuvni belgilaydi hamda daromadni tan olish uchun besh bosqichli modelni nazarda tutadi: shartnomani aniqlash, bajarish majburiyatlarini ajratish, majburiyat narxini aniqlash, ushbu narxni bajarish majburiyatlari bo‘yicha taqsimlash va majburiyat bajarilganda daromadni tan olish. Shu sababli pochta xizmatlari uchun daromadlarni tan olish metodologiyasi umumiy standartlarning oddiy tatbiqi bilan cheklanib qolmasligi, balki sohaning texnologik va logistika xususiyatlarini hisobga olgan maxsus amaliy modelga ega bo‘lishi kerak. Mazkur maqolaning maqsadi – pochta xizmatlarida daromadlarni tan olish va moliyaviy natijalarni aks ettirishning takomillashtirilgan metodologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Daromad – bu, jismoniy yoki yuridik shaxsning ma’lum bir vaqt oralig‘ida (masalan, bir oy yoki bir yil) amalga oshirgan faoliyati natijasida olgan barcha pul mablag‘lari va boshqa moddiy boyliklari yig‘indisidir. Daromad korxona faoliyati samaradorligini baholovchi muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

1-sonli MHXS “Moliyaviy hisobotni tashkil etish” standartida “Daromadlar bu hisobot davrida aktivlarning kirib kelishi yoki o‘sishi orqali, yohud majburiyatlarning kamayishi orqali mulkdorlar kapitali ishtirokchilarining badallari bilan bog‘liq bo‘lmagan kapitalning ko‘payishi shaklidagi iqtisodiy nafning o‘sishidir”[215] deb ta’riflangan. Ushbu yondashuv daromadlarni moliyaviy hisobotlarning asosiy elementlaridan biri sifatida talqin qilishga asos bo‘ladi.

Xorijiy iqtisodchi olimlar ham daromad tushunchasini turli jihatlardan tadqiq qilgan. Jumladan, Christopher J.Napier va Christian Stadler daromadni korxona faoliyati

[214] Universal Postal Union. The State of the Postal Sector 2025 – Postal Power Reimagined – global pochta sektorining zamonaviy holati, e-commerce ta’siri va daromadlar dinamikasi bo‘yicha tahliliy hisobot.
[215] IAS-1 Presentation of Financial Statements

jarayonida yaratiladigan yangi aktivlar qiymati sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, “daromad korxona tomonidan yaratilgan iqtisodiy qiymatni ifodalab, xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining yakuniy natijalarini aks ettiradi. Shuningdek, daromadlarni tan olish tamoyillari moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular daromad qachon va qanday sharoitlarda hisobga olinishi mumkinligini belgilaydi”[216] deb e’tirof etilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham daromadlar hisobini yuritish va ularni tan olish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar.

Xususan, K.B.Urazov daromadni “…buxgalteriya hisobining korxona faoliyati natijalarini baholashda asosiy axborot tizimi…”[217] sifatida talqin qiladi. Uning ta’kidlashicha, daromad va xarajatlar hisobining to‘g‘ri tashkil etilishi korxonaning moliyaviy natijalarini aniqlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, S.N.Toshnazarov “moliyaviy hisobot elementlari, jumladan daromadlar hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritish korxonalarning moliyaviy axborotining shaffofligi va taqqoslanishini oshirishga xizmat qilishini”[218] qayd etadi.

Shu bilan birga, U.A.Shirinov o‘z tadqiqotlarida daromadlarni hisobga olish tizimi korxona faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlashda asosiy mexanizmlardan biri ekanligini ta’kidlab, “daromadlarni to‘g‘ri tan olish va hisobga olish korxonaning moliyaviy holatini haqqoniy aks ettirishga xizmat qiladi”[219] deb ko‘rsatadi. Umuman olganda, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari daromad korxona faoliyati natijalarini baholashda muhim iqtisodiy ko‘rsatkich ekanligini hamda daromadlarni hisobga olish va tan olish tizimini takomillashtirish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va taqqoslanishini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, korxona daromadlariga adabiyotlarda turlicha ta’riflar berilgan. Bizningcha, yuqoridagi ta’riflarni umumlashtirgan holda daromadlarga quyidagicha ta’rif berish to‘g‘riroq bo‘ladi: Daromad – bu, korxonalar tomonidan moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishi natijasida ushbu korxonaning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqi egalarining badallari bilan bog‘liq bo‘lmagan holda xususiy kapitalning ko‘payishiga olib keladigan aktivlarning ko‘payishi yoki majburiyatlarning kamayishidir.

---

[216] The real effects of a new accounting standard: the case of IFRS 15 *Revenue from Contracts with Customer* Christopher J. Napier va Christian Stadler.

[217] Urazov, K. B. (2004). Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent–2004;

[218] S.N. Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. – Toshkent, 2019. 74-bet.

[219] Shirinov U.A., PhD. SamISI Amonov A.A. katta o’qituvchi SamISI Hamidov D. magistr SamISI ALOQA XIZMATLARINI KO’RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Tadqiqot metodologiyasi

Pochta aloqa xizmatlarini ko’rsatuvchi subyektlar xarajatlari hamda ularning hisobini takomillashtirishda iqtisodiy tahlilning tizimli tahlil, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik va iqtisodiy tahlil, balans, solishtirish, analiz, hisobot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Daromadni tan olish moliyaviy hisobotning eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, foyda, rentabellik, likvidlik va kapital qaytimi kabi asosiy ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. IFRS 15 daromadni hisobga olishning yagona tamoyilini belgilaydi: daromad mijozga nazorat topshirilgan tovar yoki xizmatlarning iqtisodiy mohiyatini aks ettirishi kerak.

Mazkur standartga ko‘ra, alohida xizmat yoki tovar “distinct”, ya’ni mustaqil foydalanuvchi qiymatiga ega bo‘lsa, u alohida bajarish majburiyati sifatida tan olinadi; tranzaksiya narxi esa ularning mustaqil sotuv narxlariga mutanosib taqsimlanadi. Pochta xizmatlarining o‘ziga xos jihati shundaki, ko‘plab xizmatlar bir-biri bilan ketma-ket va funksional jihatdan bog‘langan. Masalan, jo‘natmani qabul qilish xizmatning boshlanish nuqtasi bo‘lsa, saralash va tashish logistika zanjirining o‘rtadagi bosqichlari, topshirish esa yakuniy natijadir. Ayrim hollarda qadoqlash, saqlash, sug‘urta, qayta yo‘naltirish yoki “cash on delivery” kabi qo‘shimcha servislar ham mavjud bo‘ladi. Demak, pochta xizmati doimo bitta nuqtadagi operatsiya emas, balki ma’lum vaqt davomida bajariladigan ko‘p komponentli xizmatlar majmui hisoblanadi.Shu nuqtai nazardan, daromadni bir zumda – faqat jo‘natma topshirilganda – tan olish amaliyoti har doim ham iqtisodiy mazmunga mos kelmaydi. Agar korxona shartnoma bo‘yicha majburiyatni vaqt davomida bosqichma-bosqich bajarib borayotgan bo‘lsa, daromadning ham shu taraqqiyot darajasiga muvofiq tan olinishi maqsadga muvofiqdir.

IFRS 15da bajarish majburiyati ayrim hollarda ma’lum bir nuqtada, ayrim hollarda esa vaqt davomida bajarilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Pochta operatorlari uchun moliyaviy natijalarni faqat umumiy darajada emas, balki xizmat turlari, geografik hududlar va yirik mijozlar kesimida baholash ham muhimdir. IFRS 8 operatsion segmentlar bo‘yicha axborot ochib berish moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga turli faoliyat yo‘nalishlari va iqtisodiy muhitlarning moliyaviy ta’sirini baholash imkonini berishini ta’kidlaydi. Bu norma pochta operatorlari uchun ichki boshqaruv hisobida xizmatlar rentabelligi matritsasini ishlab chiqish zaruratini ilmiy jihatdan mustahkamlaydi.

Fikrimizcha, pochta xizmatlarida daromadni tan olishning eng maqbul usuli jo‘natma faoliyat davri bosqichlari bo‘yicha progresiv tan olish modelidir. Ushbu model quyidagi uch asosiy bosqichni qamrab oladi:

qabul qilish bosqichi – jo‘natmani mijozdan qabul qilish, dastlabki tekshiruv va ro‘yxatga olish;

tashish bosqichi – saralash, ichki yoki xalqaro transportirovka, logistika amallari;

topshirish bosqichi – jo‘natmani oluvchiga yetkazish va topshirish.

Agar pochta operatori xizmatni ushbu bosqichlar bo‘yicha o‘lchasa, daromadni quyidagi formula asosida tan olish mumkin:

D=UT×(mk1×bd1+mk2×bd2+mk3×bd3)

bu yerda:

D – hisobot sanasiga qadar tan olinadigan daromad;

UT – shartnoma bo‘yicha umumiy to‘lov;

mk1, mk2, mk3 – qabul qilish, tashish va topshirish bosqichlarining majburiyat koeffitsiyentlari;

bd1, bd2, bd3 – tegishli bosqichning bajarilish darajasi (0 dan 1 gacha).

Masalan, agar kuryerlik xizmati uchun mijoz 120 ming so‘m to‘lasa, jo‘natmani mijozdan qabul qilish, dastlabki tekshiruv va ro‘yxatga olish xarajatlari – 30 000, saralash, ichki transportirovka, logistika xarajatlari – 60 000, jo‘natmani oluvchiga yetkazish va topshirish.– 30 000 so‘mni tashkil etsa, umumiy 120 ming so‘m aynan shu nisbatlarda taqsimlanadi.

1- jadval.

Jo‘natma faoliyat davri bosqichlari[220]

Bosqich	**Mazmuni**	**Majburiyatni taqsimlash koeffitsiyenti**	**Bosqichlarning bajarilish darajasi**
Qabul qilish bosqichi	jo‘natmani mijozdan qabul qilish, dastlabki tekshiruv va ro‘yxatga olish	0.25	1
Tashish bosqichi	saralash, ichki yoki xalqaro transportirovka, logistika amallari	0.50	0.6
Topshirish bosqichi	jo‘natmani oluvchiga yetkazish va topshirish	0.25	0

Ushbu holatda:

D=120000×**(0.25×1+0.50×0.60+0.25×0)**

D=66000

Xizmatni bajarish sanasiga qadar 66 000 so‘m daromad tan olinadi. Qolgan 54 000 so‘m esa jo‘natma yakuniy topshirilgandan so‘ng tan olinadi.

[220] Muallif ishlanmasi

2- jadval.

Pochta xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar daromadlarini tan olish bosqichlari[221]

T/r	Bosqich	Majburiyatning bajarilganlik darajasi	Debet	Kredit	Xizmat narxi (so‘mda)	Xalqarostandartlar bo‘yicha izox
1.	Mijozdan to‘lovqabul qilinganda		5110 – Hisob-kitobscheti	6310– Xaridor va buyurtmachilar dan olinga avans	120000	IFRS 15. mijoz to‘lovni oldindanamalga oshirsa, korxona xizmat ko‘rsatmaguncha ushbu summa majburiyat sifatida e’tirof etiladi.
2.	Qabulqilish bosqichi	Xizmatning0.25 qismi bajarildi	4010 - Debitorlik qarzlari	9030 - Xizmatlarni realizatsiyadan daromadlar	30000	IFRS 15: xizmat nazorati mijozga o‘tganida daromad e’tirof etiladi
3.	Tashish bosqichi	Xizmatning0.6 qismi bajarildi	4010 - xisobkitob schyoti	9030 - Xizmatlarni realizatsiyadan daromadlar	60000	IFRS 15: majburiyat bajarilganda daromadga o‘tkaziladi
4.	Topshirish bosqichi bajarilganda	Xizmat hali bajarilmagan	4010 - Oldindan olingan daromadlar	9030 - Asosiy faoliyatdan daromadlar	30000	IFRS 15: majburiyat bajarilganda daromadga o‘tkaziladi
			6310	4010	120000	Olingan majburiyat hisobga olinadi.

Mazkur modelning afzalligi shundaki, daromad real bajarilgan ish hajmiga yaqinlashtiriladi. Masalan, jo‘natma qabul qilinib, saralash va tashish amalga oshirilgan, biroq hali topshirilmagan bo‘lsa, korxona butun daromadni emas, balki bajarilgan bosqichlarga tegishli qismini e’tirof etadi. Bu esa hisobot davrlari bo‘yicha daromadlarning sun’iy tebranishini kamaytiradi va moliyaviy natijalarni aniqroq aks ettiradi. Amaliyotda bajarish javobgarligi xizmat turiga qarab farqlanishi mumkin. Mahalliy oddiy jo‘natmada topshirish bosqichi asosiy ulushni egallashi mumkin, ekspress va xalqaro jo‘natmalarda esa logistika va bojxona bilan bog‘liq tashish bosqichi ulushi yuqoriroq bo‘ladi.

Mazkur usulning uchta afzalligi mavjud. Birinchidan, u daromadning iqtisodiy tarkibini shaffof qiladi. Ikkinchidan, qaysi xizmat daromadli, qaysi biri subsidiyalashayotganini aniqlash imkonini beradi. Uchinchidan, tarif siyosatini qayta ko‘rib chiqish uchun analitik asos yaratadi.

[221] Muallif ishlanmasi

Xulosa va takliflar

Pochta xizmatlari bozorida texnologik o‘zgarishlar, elektron tijoratning kengayishi, xalqaro jo‘natmalar ulushining ortishi va xizmatlarning komplekslashuvi daromadlarni tan olish tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Global pochta tarmog‘i bugungi kunda ulkan ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lsa-da, uning daromad bazasi va xarajatlar tuzilmasi sezilarli transformatsiyani boshdan kechirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pochta xizmatlarida daromadni faqat yakuniy topshirish vaqtida tan olish ko‘p hollarda iqtisodiy mazmunni to‘liq ifodalamaydi. Shu bois jo‘natma bosqichlari bo‘yicha progresiv tan olish modeli moliyaviy natijalarni aniqroq aks ettirish imkonini beradi. Kompleks xizmatlarda daromad komponentlarini ajratish esa har bir xizmatning real rentabelligini ko‘rish, tarif siyosatini takomillashtirish va yashirin subsidlashuvni aniqlash imkonini yaratadi.

Xalqaro jo‘natmalar bo‘yicha valyuta risklarini operatsion natijadan ajratish, xizmat sifati bilan bog‘liq kompensatsiyalarni differensial tartibda hisobga olish hamda xizmatlar rentabelligi matritsasini joriy etish pochta operatorlarining moliyaviy boshqaruv sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur yondashuvlar IFRS 15, IAS 21 va segmentlar bo‘yicha axborot berish tamoyillari bilan uyg‘un bo‘lib, soha uchun maxsus metodik asos yaratadi.

Shunday qilib, pochta xizmatlarida daromadlarni tan olish va moliyaviy natijalarni aks ettirish metodologiyasini takomillashtirish nafaqat buxgalteriya hisobining ishonchliligini oshiradi, balki strategik boshqaruv, xizmat sifati, tariflash va investitsion qarorlar samaradorligini ham kuchaytiradi. Yuqorida keltirilgan xulosalar va tadqiqot natijalariga muvofiq, quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

Birinchidan, daromadni tan olish bo‘yicha ichki standart ishlab chiqilib, unda har bir asosiy xizmat turi uchun bosqichlar va ularning vazn koeffitsiyentlari belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, kompleks xizmatlar bo‘yicha tarif paketlari alohida xizmat komponentlariga ajratilib, buxgalteriya tizimida “service bundle accounting” moduli joriy etilishi kerak.

Uchinchidan, xalqaro jo‘natmalar uchun funktsional valyuta, qayta baholash sanalari va kurs farqlarini aks ettirish tartibi bo‘yicha alohida reglament qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, xizmat sifati buzilishlari va kompensatsiyalar bo‘yicha yagona elektron reyestr yaratilib, u buxgalteriya va mijozlar bilan ishlash bo‘limlari ma’lumotlari bilan integratsiya qilinishi zarur.

Beshinchidan, boshqaruv hisobi doirasida xizmatlar rentabelligi matritsasi har oy shakllantirilib, tarif siyosati va investitsion qarorlar qabul qilishda asosiy analitik vosita sifatida qo‘llanishi lozim.

TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHDA KAPITAL YETARLILIGINING ROLI

Saidov Doniyor Abdullayevich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii, "Bank ishi" kafedrasi dotsenti

Banklararo raqobat sharoitida tijorat banklarining strategik maqsadi foydani maksimallashtirishga qaratiladi. Mazkur ko‘rsatkichga erishishning fundamental sharti esa bankning resurs bazasini diversifikatsiya qilish, kapitallashuv darajasini oshirish hamda aholi va xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning bo‘sh mablag‘larini depozitlarga jalb etish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u faqatgina aktivlarni qisqa muddatda likvid mablag‘larga aylantirish qobiliyati bilan cheklanib qolmaydi. Bu ko‘rsatkich, shuningdek, bankning o‘z kreditorlari -omonatchilar, boshqa moliya institutlari va davlat oldidagi barcha moliyaviy majburiyatlarini har qanday iqtisodiy vaziyatda, o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda bajara olish salohiyatini ham anglatadi.

Ushbu barqarorlikning eng mustahkam poydevori va kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlarni qoplashdagi asosiy "himoya buferi" - bu bank kapitalidir. Kapitallashuv darajasining muttasil oshib borishi bankning aktiv operatsiyalarini, xususan, yirik investitsion loyihalarni kreditlash hajmini kengaytirishga bevosita imkon yaratadi. Xalqaro bank amaliyotida balans passivida ustav kapitali salmog‘ining yuqori bo‘lishi bank to‘lov qobiliyatining birlamchi kafolati sifatida baholanadi va inqirozli holatlarda asosiy himoya vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida"gi Nizomiga asosan, bank faoliyati kengayib, tavakkalchilikka tortilgan aktivlar oshgan sari, mutanosib ravishda uning o‘z mablag‘lari (kapitali) hajmi ham oshib borishi qat'iy talab etiladi. Mazkur makroprudensial talablar natijasida banklarning umumiy kapitali 2026 yil 1 yanvar holatiga 135339 mlrd. so‘mga yetdi va o‘tgan yilga nisbatan 18 foizlik barqaror o‘sishni qayd etdi.

Respublika bank tizimida kapital yetarliligi (adekvatligi) ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda, belgilangan iqtisodiy me'yorlar izchil bajarilayotgani kuzatiladi. Xususan, umumiy kapital yetarliligi 2017 yil boshiga nisbatan 2,8 foiz bandga oshib, 2026 yil 1 yanvar holatiga 18,3 foizni (minimal talab 12%) tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkichlarni xalqaro amaliyot bilan qiyoslasak, O‘zbekiston bank tizimining kapital adekvatligi (17,5%) Gruziya (19,2%), Turkiya (17,7%), Malayziya (17,4%) va Rossiya (12,2%) kabi davlatlarning ko‘rsatkichlari bilan raqobatbardosh darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Global moliyaviy noaniqliklar va iqtisodiyotdagi tarkibiy transformatsiyalar sharoitida tijorat banklarining kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlarni qoplash va to‘lov

qobiliyatini saqlab qolishdagi eng asosiy himoya buferi - bu bank kapitalidir. Kapital yetarliligi (Capital Adequacy) ko‘rsatkichi bankning nafaqat inqirozli vaziyatlarga bardoshliligini, balki uning faol operatsiyalarni (kreditlash va investitsiya) kengaytirish salohiyatini ham belgilab beradi.

So‘nggi yillarda bank xizmatlarining raqamlashuvi, aktivlar hajmining jadal o‘sishi va operatsion risklarning ortishi bank kapitalini boshqarish siyosatini xalqaro standartlar asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Xususan, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash faqatgina regulyatorning minimal talablarini bajarish bilan cheklanmay, balki kapitalni ichki rejalashtirish va stress-testlash modellarini amaliyotga joriy etishni talab qiladi.

1- jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitalining tarkibi[222], foizda

Ko‘rsatkichlar	**01.01.2022**	**01.01.2023**	**01.01.2024**	**01.01.2025**	**01.01.2026**
Ustav kapitali	77,2	75,2	70,7	72,9	69,7
Qo‘shimcha kapital	1,0	1,3	1,4	1,3	1,1
Zaxira kapitali	11,9	9,2	11,5	11,4	11,0
Taqsimlanmagan foyda	9,9	14,3	16,4	14,5	18,2
Jami kapital	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitalining tarkibiy dinamikasi 2021–2025 yillar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bank tizimida kapitalni shakllantirish manbalari bo‘yicha jiddiy va ijobiy transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Bunda quyidagi asosiy tendensiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

2022 yil boshida taqsimlanmagan foyda jami kapitalning atigi 9,9% qismini tashkil qilgan bo‘lsa, 2026 yil boshiga kelib bu ko‘rsatkich qariyb ikki barobarga oshib, 18,2% ga yetgan. Bu tijorat banklarining rentabelligi ortganini hamda aksiyadorlar tomonidan olingan sof foyda dividend sifatida to‘liq taqsimlab yuborilmasdan, balki bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kreditlash bazasini kengaytirish uchun (retained earnings) bank ixtiyorida qoldirilayotganini (kapitalizatsiya qilinayotganini) tasdiqlaydi.

Tahlil davrida ustav kapitalining jami kapitaldagi ulushi 77,2% dan 69,7% gacha pasaygan. Bir qarashda bu salbiy holatdek tuyulishi mumkin, biroq makroiqtisodiy nuqtai

[222] www.cbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziybankinigrasmiysayti ma’lumotlari.

nazardan bu musbat (ijobiy) ko‘rsatkichdir. Xalqaro amaliyotda bank yepitalining ekstensiv o‘sishdan (faqat ta’sischilarning qo‘shimcha mablag‘lari hisobiga) intensiv o‘sishga (generatsiya qilingan foyda hisobiga rivojlanishga) o‘tishi moliyaviy mustaqillikning asosiy belgisi hisoblanadi.

Banklarning kutilmagan yo‘qotishlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira kapitali ulushi tahlil davrida asosan 11,0-11,9% atrofida barqaror saqlanib qolgan. Bu barqarorlik bank tizimida aktivlar sifatining yomonlashishi (NPL ko‘payishi) yoki boshqa tavakkalchiliklarga qarshi yetarlicha ehtiyot choralari ko‘rilayotganini hamda Bazel III standartlarining konservativ buferlariga amal qilinayotganini namoyish etadi.

Tijorat banklari kapitalining ushbu tarkibiy o‘zgarishlari milliy bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda tashqi moliyalashtirishdan (davlat in’eksiyalari yoki qo‘shimcha aksiyalar emissiyasidan) ko‘ra ichki rezervlarni safarbar etishga o‘tilganini ko‘rsatadi. Mazkur amaliyot banklarning investitsion jozibadorligini oshiradi va tashqi shoklarga nisbatan o‘ta chidamli bo‘lgan "sog‘lom" resurs bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

2- jadval

Bank tizimi jami kapitali monandlilik darajasi[223], (foizda)

Ko‘rsatkichlar nomi	01.01.2022 y.		01.01.2023 y.		01.01.2024 y.		01.01.2025 y.		01.01.2026 y.	
	mlrd. so‘m	**ulushi, foizda**	**mlrd. so‘m**	**ulushi, foizda**	**mlrd. so‘m**	**ulushi, foizda**	**mlrd. so‘m**	**ulushi, foizda**	**mlrd. so‘m**	**ulushi, foizda**
I darajali kapital	**58624**	**83,5 %**	**67 793**	**81,3%**	**84 911**	**80,2 %**	102 618	82,2 %	125 156	83,0 %
Asosiy kapital	*58429*	*83,2 %*	*67 598*	*81,0%*	*84 866*	*80,1 %*	102 396	82,1 %	120 992	80,2 %
Qo‘shimcha kapital	*195*	*0,3%*	*195*	*0,2%*	*45*	*0,0%*	221	0,18 %	4 164	2,76 %
II darajali kapital	11 567	16,5 %	15 620	18,7%	21 004	19,8 %	22 175	17,8 %	25 706	17,0 %
Jami regulyativ kapital	70 191	100 %	83 413	100%	105 914	100 %	124 793	100%	150 862	100%
Kapital monandlilik darajasi	***17,5%***		***17,8%***		***17,5%***		**17,4%**		**18,3%**	
I darajali kapital monandlilik darajasi	***14,6%***		***14,5%***		***14,1%***		**14,3%**		**15,2%**	

[223] www.cbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziybankinig rasmiysayti ma’lumotlari.

Tahlil davrida (2022 yil boshidan 2026 yil boshiga qadar) bank tizimining jami regulyativ kapitali 70 191 mlrd so‘mdan 150 862 mlrd so‘mgacha, ya’ni qariyb 2,15 barobarga (115 foizga) oshgan. Bunday yuqori o‘sish sur’ati bank sektorining kreditlash salohiyati va yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati keskin kengayganini, shuningdek, ehtimoliy makroiqtisodiy shoklarga qarshi kuchli "moliyaviy yostiqcha" yaratilganini tasdiqlaydi.

Bank aktivlari (kredit portfeli) tez sur’atlarda o‘sayotganiga qaramay, kapital monandligi ko‘rsatkichlari o‘sish dinamikasini qayd etgan:

Jami kapital monandligi: 2022 yildagi 17,5% dan 2026 yil boshiga kelib 18,3% gacha ko‘tarilgan.

I darajali kapital monandligi: 2022 yildagi 14,6% dan 2026 yil boshida 15,2% gacha oshgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan minimal talablardan (mos ravishda 13% va 10%) sezilarli darajada yuqoridir. Demak, banklarimizda faol operatsiyalarni yanada kengaytirish va yangi bozorlarni o‘zlashtirish uchun juda katta "bo‘sh kapital sig‘imi" (capital buffer) mavjud.

Bazel III xalqaro standartlari va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talablariga muvofiq, tijorat banklari kapitalining monandligiga (etarliligiga) qo‘yiladigan makroprudensial me’yorlar hozirgi kunda quyidagicha:

I darajali asosiy kapitalning monandlik koeffitsienti (CET 1) – 4,5%: Bu bankning eng sifatli va barqaror kapitali (Common Equity Tier 1). Bu ko‘rsatkichning 4,5% dan kam bo‘lmasligi bankning eng og‘ir inqirozlarda ham dastlabki zararlarni o‘z ichki manbalari hisobidan qoplay olishini kafolatlaydi.

I darajali kapitalning monandlik koeffitsienti (CET1 + AT1) – 6%: Bunga asosiy kapitaldan tashqari qo‘shimcha birinchi darajali kapital (Additional Tier 1 - masalan, imtiyozli aksiyalar) ham kiradi.

Regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti (Tier 1 + Tier 2) – 8%. Bu bankning umumiy (jami) kapitali yetarliligidir. bu bank kreditlash va boshqa aktiv operatsiyalarini amalga oshirishi uchun talab etiladigan global Bazel minimumi hisoblanadi.

Bazel III ning eng katta yangiligi bu minimal 8% lik talabga qo‘shimcha "himoya yostiqchalarini" (buferlarni) o‘rnatishdir:

Konservatsiya buferi (CCoB - Capital Conservation Buffer) – 2,5%: Bu bankka iqtisodiy pasayish (retsessiya) davrida ko‘riladigan zararlarni qoplash uchun tinchlik davrida yig‘ib boriladigan qo‘shimcha kapital. Agar bankning kapitali ushbu bufer darajasidan tushib ketsa, bankka dividendlar to‘lash yoki rahbariyatga mukofot pullari berish qonunan cheklanadi.

Kontrsiklik bufer (CCyB - Countercyclical Capital Buffer) – 1,5%*: Bu bufer iqtisodiyotda “kredit bumi” (kreditlarning haddan tashqari tez o‘sishi) kuzatilganda

Markaziy bank tomonidan faollashtiriladi. Maqsad - banklarni ortiqcha tavakkalchilikdan tiyish va iqtisodiyot "qizib ketganda" qo‘shimcha zaxira yaratish.

Tizimli banklarga bufer – 1%: Bu faqat "Tizim ahamiyatiga ega bo‘lgan banklar" (D-SIB) uchun qo‘llaniladigan ustama. Chunki bunday banklarning inqirozga yuz tutishi butun iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin ("too big to fail" muammosi). Shuning uchun ulardan ko‘proq kapital saqlash talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirishda kapitalni boshqarishning zamonaviy usullarini qo‘llash, umumiy va birinchi darajali kapital yetarliligini ta’minlash, shuningdek, davlat ulushi yuqori bo‘lgan banklarni xususiylashtirish orqali aksiyadorlar ishtirokini faollashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu omillar pirovard natijada bank resurslaridan samarali foydalanish va moliya bozorlaridagi investitsion jozibadorlikni oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI ORQALI PENSIYA TIZIMI BARQARORLIGINI TA’MINLASH (O‘ZBEKISTON MISOLIDA)

Shermuhamedova Shirin Amonullayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
“Byudjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi katta o‘qituvchi, PhD

Aholini ijtimoiy himoya qilish har qanday davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ham pensiya ta’minoti tizimi aholining katta qismini qamrab olgan muhim ijtimoiy institutdir. Shu bilan birga, demografik o‘zgarishlar, iqtisodiy bosim va byudjet yukining ortishi pensiya tizimi barqarorligini ta’minlash masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Bu jarayonda davlat moliyaviy nazorati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston pensiya tizimida quyidagi muhim ko‘rsatkichlar kuzatilmoqda:

2025-yil holatiga ko‘ra mamlakatda 4,2 mln nafarga yaqin pensionerlar mavjud;

Faqat 2025-yil iyul oyida pensiya to‘lovlari uchun 6,7 trln so‘m mablag‘ ajratilgan;

O‘rtacha pensiya miqdori taxminan 1,6 mln so‘m atrofida;

Pensiya tizimi xarajatlari YAIMning taxminan 5% ni tashkil etadi;

Pensiya jamg‘armasi xarajatlarining salmoqli qismi davlat byudjeti transfertlari hisobidan qoplanmoqda (masalan, 2023-yilda 29%);

Pensiya tizimi aholining faqat 38% qismini qamrab olgan.

Ushbu raqamlar pensiya tizimida davlat ishtirokining yuqori ekanligini va moliyaviy bosim ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Pensiya tizimidagi asosiy tendensiyalar

O‘zbekistonda pensiya tizimi quyidagi tendensiyalar bilan xarakterlanadi:

1. Davlat byudjetiga bog‘liqlik ortib bormoqda, bunda so‘nggi yillarda pensiya jamg‘armasi xarajatlari daromadlarga nisbatan tezroq o‘smoqda. Masalan, 10 yil ichida daromadlar 3,4 barobarga oshgan bo‘lsa, xarajatlar 5 barobarga ko‘paygan.

2. Demografik bosim kuchaymoqda, bunda pensionerlar soni oshib bormoqda, bu esa ishlovchi aholiga tushayotgan yukni kuchaytirmoqda.

3. Raqamlashtirish jarayonlari, bunda pensiya to‘lovlarining katta qismi bank kartalari orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa tizimda shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

Davlat moliyaviy nazorati — bu davlat tomonidan byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanish ustidan nazorat tizimidir.

Uning asosiy vazifalari:

moliyaviy intizomni ta’minlash;

mablag‘larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish;

samaradorlikni oshirish;

korrupsiya holatlarining oldini olish.

Pensiya tizimida davlat moliyaviy nazoratining roliga to’xtaladigan bo’lsak:

1. Byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, bunda pensiya tizimi davlat byudjetidan katta hajmda mablag‘ talab qiladi. Nazorat organlari mablag‘larning samarali sarflanishini ta’minlaydi.

2. Noqonuniy to‘lovlarni aniqlash, bunda nazorat orqali “o‘lik jonlar”, soxta hisob-kitoblar va boshqa qonunbuzilishlar aniqlanadi.

3. Shaffoflikni ta’minlash, bunda raqamlashtirish va elektron tizimlar orqali pensiya hisob-kitoblari ochiq va aniq bo‘ladi.

4. Barqarorlikni ta’minlash, bunda moliyaviy nazorat orqali uzoq muddatli moliyaviy muvozanat ta’minlanadi.

O‘zbekiston pensiya tizimida quyidagi asosiy muammolar mavjud:

1. Moliyaviy barqarorlik muammosi, bunda xarajatlar daromadlarga nisbatan tez o‘smoqda.

2. Norasmiy iqtisodiyot, bunda ko‘plab fuqarolar rasmiy badal to‘lamaydi, bu esa tushumlarni kamaytiradi.

3. Demografik omillar, bunda aholining qarishi tizimga bosimni oshirmoqda.

4. Xalqaro baholash pastligi, bunda O‘zbekiston pensiya tizimi xalqaro reytinglarda past o‘rinlarni egallamoqda.

Muammolarni hal etishda quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi:

1. Davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish: audit tizimini takomillashtirish hamda real-time monitoring joriy qilish;

2. Raqamlashtirishni kengaytirish:yagona elektron pensiya platformasini rivojlantirish va avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini joriy etish;

3. Pensiya tizimini diversifikatsiya qilish: xususiy pensiya jamg‘armalarini rivojlantirish hamda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga o‘tish;

4. Soliq bazasini kengaytirish: norasmiy bandlikni qisqartirish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish;

5. Islohotlar: Pensiya tizimini modernizatsiya qilish va zarur bo‘lsa, pensiya yoshini qayta ko‘rib chiqish masalalari muhokama qilinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda pensiya tizimi aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim o‘rin tutadi, ammo uning moliyaviy barqarorligi jiddiy e’tibor talab qiladi. Statistik ma’lumotlar tizimga bo‘lgan yuk ortib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan, davlat moliyaviy nazorati:

mablag‘larni samarali boshqarish,

shaffoflikni ta’minlash,

va uzoq muddatli barqarorlikni kafolatlashda asosiy vosita hisoblanadi.

Kelgusida ushbu tizimni modernizatsiya qilish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali pensiya tizimining barqarorligini ta’minlash mumkin.

DAVLAT SEKTORIDA MOLIYAVIY SHAFFOFLIK VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI

Shovdirov Toxirmalik Nafasovich

ISFT - “International School of Finance Technology and Science” Instituti

Katta o‘qituvchi (Mustaqil tadqiqotchisi)

Axrolova Sevinch Oybek qizi

ISFT - “International School of Finance Technology and Science” Instituti

“Xalqaro Biznes boshqaruvi” yo‘nalishi, 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat sektorida moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik va korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari xalqaro amaliyot nuqtai - nazaridan tahlil qilingan. Skandinaviya davlatlari, Singapur, Janubiy Koreya, Gruziya, Estoniya va boshqa mamlakatlarning muvaffaqiyatli islohot tajribalari, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar (IMF, Jahon banki, OECD)ning tavsiyalari o‘rganilgan. Maqolada, “Transparency International”, “Korrupsiya Idrok Indeksi” (CPI), PEFA baholash metodologiyasi va moliyaviy boshqaruv ko‘rsatkichlari asosida statistik tahlil o‘tkazilgan. O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash sohasi va moliyaviy boshqaruv tizimidagi mavjud muammolar aniqlangan va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik, korrupsiya, davlat moliyaviy boshqaruvi, PEFA, CPI, ochiq ma’lumotlar, raqamli transformatsiya, ijtimoiy nazorat, xalqaro amaliyot.

Davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurash zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining eng muhim ustunlaridan biri hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko‘ra, korrupsiya sababli rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 5 foizdan ko‘prog‘iga teng mablag‘ yo‘qoladi - bu yiliga 1,5 trillion AQSh dollaridan ortiq summani tashkil etadi[1]. Bundan tashqari, Xalqaro shaffoflik tashkilotining 2023 yilgi, Korrupsiya Idrok Indeksi (CPI) bo‘yicha 180 mamlakatdan 125 tasining bali 50 balldan past bo‘lib, bu ushbu mamlakatlar uchun korrupsiya jiddiy tizimli muammo ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston 2023 yil CPI reytingida 180 mamlakat orasida 121-o‘rinni egallagan bo‘lib, 100 ballik shkalada 33 ball to‘plagan. 2016 yilgi 21 baldan 2023 yilgi 33 ballga o‘sish ijobiy dinamikani ko‘rsatsada, xalqaro standartlarga erishish uchun islohotlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi tizimli islohotlar - “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi, 2017-2021 yillardagi Harakatlar strategiyasi va 2022-2026 yillar uchun “O‘zbekiston-2030” strategiyasi - mamlakat moliyaviy boshqaruvi va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida sezilarli o‘zgarishlarni amalga oshirdi[2].

Ushbu maqolaning maqsadi - rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning moliyaviy shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurash tajribalarini qiyosiy tahlil qilish, xalqaro ilmiy hamjamiyatning bu boradagi takliflari va tadqiqot natijalarini umumlashtirish hamda O‘zbekistonga nisbatan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu mavzuning nazariy asoslariga e'tibor beradigan bo‘lsak, Korrupsiyaning iqtisodiy nazariyasi Beckerning “Jinoyat va jazo: iqtisodiy yondashuv” asaridan boshlab rivojlandi[3]. Rose-Ackerman o‘z ilmiy asarlarida davlat monopoliyasi va hisobdorlikning pastligi korrupsiyaning asosiy sabablari ekanini asosladi[4]. Klitgaardning mashhur formulasi - K= M + I – H (Korrupsiya = Monopoliya + Ixtiyoriylik – Hisobdorlik) - bu sohadagi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi[5].

Keyinchalik Mauro[6] va Kaufmann[7] korrupsiya iqtisodiy o‘sishga salbiy ta'sir ko‘rsatishini empirik jihatdan isbotladi. Darom Achemo‘g‘li va J. Robinsonning “Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag‘allik manbalari” asarida institutlarning sifati iqtisodiy taraqqiyotni belgilovchi asosiy omil ekanini ta'kidladi[8]. Fjeldstad va Isaksen[9] rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat moliyaviy boshqaruvini kuchaytirish orqali korrupsiyani kamaytirish mumkinligini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston kontekstida Toshmatov[10] va Raximov[11] davlat xaridlari tizimidagi kamchiliklar, byudjet shaffofligining pastligi va nazorat institutlarining zaifligi asosiy muammolar sifatida ko‘rsatadi. XVF (2021) O‘zbekistondagi moliyaviy boshqaruv islohotlarini baholagan va ularni davom ettirish bo‘yicha aniq tavsiyalar bergan[12].

Davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashning zamonaviy tendensiyalarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Skandinaviya davlatlari (Daniya, Finlandiya, Norvegiya, Shvetsiya) doimiy ravishda dunyo CPI reytingining yuqori qismida joylashadi. 2023 yil ma’lumotlariga ko‘ra, Daniya 90, Finlandiya 87, Norvegiya 84, Shvetsiya 82 ball to‘plagan. Ushbu mamlakatlarning muvaffaqiyati bir necha omillar bilan izohlanadi[13].

Birinchidan, “ochiq hukumat” tamoyili bo‘yicha barcha davlat xarajatlari va daromadlari real vaqtda internet orqali e’lon qilinadi. Masalan, Shvetsiyada davlat boshqaruvida ishlagan har bir shaxsning maoshi ommaviy ma’lumot sanaladi va har kim undan foydalanishi mumkin. Ikkinchidan, mustaqil oliy audit idoralari (Riksrevisionen - Shvetsiya, Rigsrevisionen - Daniya) to‘liq vakolat va moddiy mustaqillikka ega bo‘lib, Parlament oldida hisobot beradi. Uchinchidan, “ayb ko‘chirish” (blame shifting) tamoyili: yuqori mansabdor shaxslar uchun korrupsiya isbotlanganda jazo juda qattiq bo‘ladi va siyosiy karyerani to‘xtatadi.

Korrupsiya reytingi bo‘yicha yana bir muvaffaqiyatli mamlakat, Singapurni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu mamlakat kuchli institutlar va iqtisodiy rag‘batlantirish hisobiga muvaffaqiyatga erishgan deyishimiz mumkin. Singapur 1960-yillarda jiddiy korrupsiya muammosiga duch kelgan bo‘lsada, 2023 yilga kelib CPI bo‘yicha 83 ball bilan Osiyo mintaqasida yetakchilik qilmoqda. Bu muvaffaqiyatning asosiy omillari:

Korrupsiyaga qarshi tadqiqot Byurosi (CPIB) 1952 yilda tashkil etilgan bo‘lib, Bosh vazirga bevosita hisobot beradi va mustaqil tergov huquqiga ega. Davlat xizmatchilarining ish haqi xususiy sektordagi tengdoshlariga mos ravishda belgilanadi -bu korrupsiyaning iqtisodiy rag‘batlantiruvchi sabablarini bartaraf etadi. Bundan tashqari, davlat xaridlari to‘liq raqamli platformada olib boriladi va parallel muassasalar tomonidan nazorat qilinadi.

Eski Sobiq ittifoq mamlakati bo‘lgan, Gruziya yutuqlarini biz tez islohot tajribasi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Gruziya 2003 yilgi “Atirgul inqilobi”dan so‘ng davlat boshqaruvida tub islohotlar o‘tkazish bo‘yicha eng muvaffaqiyatli misollardan biriga aylandi. 2003 yilda CPI bo‘yicha 1,8/10 ball to‘plagan Gruziya 2022 yilga kelib 4,1/10 ballga ko‘tarildi. Asosiy islohotlar sifatida, Yo‘l transport politsiyasini butunlay tarqatib yuborish va yangidan shakllantirish; barcha davlat xizmatlarini yagona “Fuqaro uylar” markaziga o‘tkazish; elektron hukumat platformasini joriy qilish; davlat xaridlarida elektron tenderlar tizimini joriy etish. Bu islohotlar natijasida maishiy korrupsiya deyarli yo‘q qilindi.

Estoniya mamlakati esa, raqamli davlat boshqaruvi modeli asosida muvaffaqiyatga erishdi. Estoniya dunyoda raqamli davlat boshqaruvi bo‘yicha yetakchi mamlakatlardan biri sifatida tan olingan. “X-tee platforma”si orqali barcha davlat xizmatlari raqamli shaklda taqdim etiladi va har bir fuqaro shaxsiy ma’lumotlariga kim murojaat qilganini

ko‘rishi mumkin. Bu tizim davlat xizmatchilarining ixtiyoriy harakat imkonini keskin cheklaydi va korrupsiyaning oldini oladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi va xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini tahlil qilishda, Janubiy Koreyaning tizimli islohotini kuzatish mumkin, Janubiy Koreya 1997 yilgi moliyaviy inqirozdan so‘ng iqtisodiy boshqaruvda tub islohotlar o‘tkazdi. Davlat moliyaviy axborot tizimi (DIMAS) joriy etildi, “e-xarid tizimi” (KONEPS) dunyodagi eng samarali elektron davlat xaridlar platformalaridan biriga aylandi. Bugungi kunda Koreya CPI bo‘yicha 63 ball bilan o‘rta darajali mamlakatlar guruhida yetakchi o‘rinni egallaydi.

Braziliya “Portal da Transparência” tajribasi ham dunyoda muvaffaqiyatli, tizimlardan hisoblanadi. Braziliyaning “Moliyaviy shaffoflik portali” 2004 yilda ishga tushirilgan va hozirda barcha federal xarajatlar, shartnomalar, subsidiyalar va davlat xizmatchilari ish haqlari haqidagi ma’lumotlarni real vaqtda e’lon qiladi. Ushbu portal yiliga 7 milliondan ortiq marta foydalaniladi hamda jurnalistik va ilmiy tadqiqotlar, fuqarolik nazorati uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

IMF – Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va OECD – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tavsiyalari moliyaviy boshqaruvni yaxshilash bo‘yicha quyidagi asosiy standartlarni belgilagan: GFSM (Hukumat moliyaviy statistikasi qo‘llanmasi) 2014 va fiskal shaffoflikka doir Kodeks. IMF fiskal shaffoflik bo‘yicha baholashlarida byudjet hujjatlarining sifati, xavflarning oshkor qilinishi va moliyaviy hisobotlarning mustaqil auditi asosiy mezonlar sifatida ko‘rsatiladi.

*1- **jadval***

CPI 2023 - yil bo‘yicha qiyosiy tahlil

Mamlakat	CPI 2023 (ball)	CPI 2016 (ball)	O‘zgarish	Mintaqa
Daniya	90	90	+0	Skandinaviya
Finlandiya	87	89	-2	Skandinaviya
Singapur	84	83	-1	Sharqiy Osiyo
Estoniya	74	66	+8	Sharqiy Yevropa
Gruziya	53	57	-4	Kavkaz
Janubiy Koreya	63	53	+10	Sharqiy Osiyo
Braziliya	36	40	-4	Lotin Amerikasi
O‘zbekiston	33	21	+12	Markaziy Osiyo
Qozog‘ iston	39	29	+10	Markaziy Osiyo
Tojikiston	20	25	-5	Markaziy Osiyo

Manba: CPI 2023 – yilda e’lon qilgan hisoboti bo‘yicha, mualliflar tahlili.

OECD davlat xaridlari tamoyillari va davlat moliyaviy boshqaruvi bo‘yicha “Eng yaxshi amaliyot” qo‘llanmasi xalqaro standartlarni belgilaydigan asosiy hujjatlar hisoblanadi. PEFA (Davlat xarajatlari va moliyaviy misobdorlik) dasturi 150 dan ortiq mamlakatda qo‘llanilgan bo‘lib, moliyaviy boshqaruv tizimini 31 ko‘rsatkich bo‘yicha baholaydi.

CPI - Korrupsiya Idrok Indeksinig 2023 yilgi ma’lumotlariga bergan statistik ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, tendensiya quyidagicha ekanligi ma’lum bo‘lmoqda: (1-jadval)

1-Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston 2016-2023 yillar oralig‘ida 12 balllik o‘sish bilan Markaziy Osiyo mintaqasida eng tez rivojlanayotgan mamlakat sifatida ajralib turadi. Biroq hali ham mintaqaviy o‘rtacha (31 ball) atrofida bo‘lib, rivojlangan mamlakatlardan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Estoniya va Gruziyaning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aniq yo‘naltirilgan islohotlar bilan shu kabi mamlakatlar bir necha yil ichida sezilarli natijaga erishishi mumkin.

Ushbu soha doirasida yana bir yirik tashkilot PEFA - “Davlat xarajatlari va moliyaviy javobgarlik (hisobdorlik)” ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlillarimizni davom ettiradigan bo‘lsak natijalarni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

2- jadval

O‘zbekistonning PEFA bo‘yicha baholash ko‘rsatkichlari

PEFA ko‘rsatkichi	O‘zbekiston (2021)	Mintaqa o‘rtachasi	OECD o‘rtachasi	Baho
Daromadlar bashorati	C+	C	A	O‘rta
Xarajatlar nazorati	C	C+	A	Past
Ichki audit sifati	D+	C	B+	Juda past
Xaridlar shaffofligi	C+	C	A	O‘rta
Byudjet to‘liqligiga	B	C+	A	Yaxshi
Hisobot sifati	C	C	B+	O‘rta
Tashqi audit	D+	C	A	Juda past
Qonunchilik nazorati	C+	C	A-	O‘rta

Manba: PEFA ma’lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi [14].

PEFA baholash natijalari (2-jadval) O‘zbekistonda ichki va tashqi audit tizimining zaifligini, xarajatlar nazoratidagi kamchiliklarni va hisobot sifatining past darajasini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlar islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini belgilashga yordam beradi.

3- jadval

O‘zbekistonning ayrim mamlakatlari o‘rtasida “Raqamli davlat boshqaruvi”ga o‘tish ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston	Gruziya	Estoniya	Singapur
E-government rivojlanish indeksi (2022)	0.71	0.78	0.93	0.89
Onlayn xizmatlar indeksi	0.68	0.82	0.97	0.94
Davlat xaridlari raqamlashuvi (%)	65%	95%	99%	98%
Ochiq ma’lumotlar indeksi	0.45	0.61	0.79	0.73
Elektron byudjet qoplami (%)	78%	91%	100%	99%

Manba: Xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlandi.

3 - jadval. Qiyosiy tahlilimiz shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston raqamli davlat boshqaruvini jadal rivojlantirmoqda, biroq ochiq ma’lumotlar va davlat xaridlari raqamlashuvida hali ham sezilarli tafovut mavjud. Gruziyaning tajribasi O‘zbekiston uchun eng o‘xshash model bo‘lishi mumkin - ikkala mamlakat ham o‘tish va rivojlanish darajasidagi iqtisodiyot bosqichida bo‘lib, institutsional salohiyat jihatidan o‘xshash sharoitlardan boshlaganlar.

O‘zbekistonda moliyaviy korrupsiya va mavjud muammolar va tahliliga e’tibor beradigan bo‘lsak, Davlat xaridlarida korrupsiya xavflari qisman saqalanib qolayotganini kuzatish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda davlat xaridlari sohasida 1 234 ta korrupsiyaga oid jinoyat holati aniqlangan - bu umumiy korrupsiya jinoyatlarining 28,3 foizini tashkil etadi. Moliya vazirligi hisob-kitoblariga ko‘ra, byudjet mablag‘ larining 12-15 foizi davlat xaridlari jarayonida noto‘g‘ri maqsadlarda sarflanishi xavfi mavjud.

Elektron xarid tizimi (e-xarid.uz) joriy etilishi bilan 2019-2022 yillar davomida davlat xaridlarida narx kamayishi o‘rtacha 8,7 foizni tashkil etdi. Biroq bir qator muammolar hali ham mavjud: texnik shartlardagi manipulyatsiyalar, “yobiq kompaniyalar” orqali kelishuvlar, tenderlarni sun’iy ravishda bo‘lib olish ishlari qisman kuzatilmoqda.

O‘zbekistonda byudjet shaffofligidagi kamchiliklarga xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va xulosalari doimiy ravishda e’lon qilinib boriladi. IBP - Xalqaro budjet hamkorligining “Ochiq byudjet” So‘rovlariga ko‘ra 2021 yil bo‘yicha O‘zbekiston 100 balldan 29 ball to‘plagan. Asosiy kamchiliklar: fuqarolar byudjetining sifatsizligi; yil davomida byudjet ijrosi to‘g‘ risidagi hisobotlarning to‘liq e’lon qilinmasligi; davlat maqsadli jamg‘ armalari va valyuta zaxiralari to‘g‘ risidagi ma’lumotlarning yopiq

bo‘lishi; parlament nazoratining cheklanganligi, byudjet ochiqligi va shaffofligini to‘liq shaklda nazorat qilish imkoniyotini bermaydi.

O‘zbekistonda Bank boshqaruvi sektori va moliyaviy tizimda mavjud kamchiliklar mavjud, mamlakatda bank sektori aktivi 2022 yil holatiga ko‘ra YaIM ning 62,3 foizini tashkil etadi, shundan davlat banklari ulushi 80 foizdan ortiqni egallaydi. Bunday yuqori davlat ulushi moliyaviy boshqaruv samaradorligini pasaytiradi va yo‘qotishlar xavfini oshiradi. Jahon banki hisobotiga ko‘ra, 2019-2021 yillarda O‘zbekiston davlat banklaridagi muammoli kreditlar ulushi 11,8 foizga yetdi - bu mintaqaviy o‘rtachadan 3,5 barobar yuqori ekanligini kuzatish mumkin.

Xalqaro ilmiy hamjamiyatning taklif va tavsiyalariga tayanadigan bo‘lsak, moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish bo‘yicha Andrewsning “Yashirin imkoniyatlar”[15] asarida moliyaviy boshqaruv islohotlarining muvaffaqiyati uchun “muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan iterativ adaptatsiya” (PDIA - Problem Driven Iterative Adaptation) metodologiyasini taklif qiladi. Bu yondashuv islohotlarni yuqoridan pastga qo‘yish o‘rniga, mahalliy muammolarga asoslangan holda amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Fukuyama va Acemoglu islohotlarning barqarorligi uchun mustaqil institutlarning zarurligini ta’kidlaydi. Ular fikricha, shaffoflik bo‘yicha qonunchilikni qabul qilishning o‘zi yetarli emas - ushbu qonunlarni amalga oshirish uchun mustaqil sud va audit institutlari kerak[16, 8].

Rothstein va Teorellning “Xolis davlat” (Impartial State) nazariyasida barcha fuqarolarga teng munosabat tamoyilini joriy qilish korrupsiyaning tizimli sababi bo‘lgan ixtiyoriylikni bartaraf etadi, deb hisoblaydi[17].

Raqamli transformatsiya va texnologiya asosida islohatni amalga oshirishda, Meijer yondashuviga ko‘ra, hukumat shaffofligi bo‘yicha tadqiqotida “ochiq ma’lumotlar” (open data) siyosati fuqarolik nazoratini kuchaytiradi, biroq mazmunli ta’sir qilishi uchun fuqarolarning raqamli savodxonligi va ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatining rivojlanishi zarurligini ta’kidlaydi[18].

Dunleavy va Margettslarning yondashuvida “Raqamli davlat” kontseptsiyasida hukumatning raqamli transformatsiyasi faqat xizmatlarni onlaynlashtirish emas, balki ularni qayta loyihalash ekanini ta’kidlaydi[19]. Bu yondashuv O‘zbekistonda e-hukumat rivojlanishida muhim metodologik asos bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik nazorati va ommaviy ishtirok shaffoflikni doimiy ravishda oshirishni mutaxassislarning asarlari va yondashuvlaridan ko‘rish mumkin. Foxning yondashuviga ko‘ra, “ijtimoiy hisobdorlik” mexanizmlari - jamoat eshituvlari, fuqaro auditi, ijtimoiy monitoring - faqat kuchli fuqarolik jamiyati mavjud bo‘lganda samarali ishlashini ko‘rsatadi. Shuning uchun fuqarolik jamiyatini mustahkamlash moliyaviy shaffoflik islohotlarining ajralmas qismi bo‘lishi kerak[20].

Khagram, Riker va Sikkinklarning transmilliy advokasiya tarmoqlari davlat hisobdorligini kuchaytiruvchi tashqi bosim yaratishida muhim rol o‘ynashini

ta’kidlaydi[21]. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik va xalqaro reyting tizimlarida ishtirok etish O‘zbekiston uchun ushbu tashqi rag‘batlardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Yuqoridagi olimlar tomonidan yozilgan ilmiy ishlanmalar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlariga tayangan xolda O‘zbekiston uchun quyidagi ilmiy asoslangan tavsiyalarni berishimiz mumkin:

1. Qisqa muddatli tavsiyalar (1-2 yil):

Birinchi. Davlat xaridlari tizimini to‘liq raqamlashtirish va “e-xarid.uz” platformasini takomillashtirish. Barcha xaridlar uchun elektron tender joriy qilinishi, narxlarni taqqoslash algoritmlarini tatbiq etish, tranzaksiyalarni blokcheyn texnologiyasiga o‘tkazish tavsiya etiladi. Janubiy Koreya tajribasiga asoslanib, davlat xaridlari narxlari reestri yaratish va narxlarni sun’iy oshirishda avtomatik signal tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi. Byudjet shaffofligini kuchaytirish maqsadida har chorakda barcha vazirliklar va mahalliy hokimiyatlar bo‘yicha xarajatlar ma’lumotlarini ochiq formatda (CSV, JSON) e’lon qilish majburiyatini joriy qilish. IBP - ochiq byudjet so‘rovi reytingida 29 balldan 50 ballga ko‘tarish maqsadi qilib qo‘yilishi mumkin.

Uchinchi. Moliya vazirligi huzuridagi Hisob palatasi mustaqilligini kuchaytirish: byudjetni Parlament tomonidan tasdiqlanishini yanada kuchaytirish, audit natijalarini ommaviy e’lon qilish va xulosalarning majburiy bajarilishini ta’minlash.

2. O‘rta muddatli tavsiyalar (3-5 yil)

To‘rtinchi. “Fuqaro byudjeti” instituti faoliyatini yanada takomillashtirish. Norvegiya va Shvetsiya tajribasiga o‘xshab, barcha darajadagi byudjetlar uchun oddiy fuqarolar tushunishi mumkin bo‘lgan soddalashtirilgan byudjet hujjatlarini keng miqyosda e’lon qilish tizimini takomillashtirish. Bu fuqarolik nazoratini yanada kuchaytiradi va byudjet savodxonligini oshiradi.

Beshinchi. Raqamli davlat boshqaruvida Estoniya tajribasini qisman tatbiq qilish. Xususan, fuqarolar o‘z shaxsiy ma’lumotlariga kim murojaat qilganini kuzatish imkoniyatini beruvchi tizim joriy qilish davlat xizmatchilarining axborot suiiste’molini kamaytiradi.

Oltinchi. Korrupsiyaga qarshi kurash organlari (ACCA va prokuratura) o‘rtasidagi funksional munosabatni qayta ko‘rib chiqish va Singapur CPIB - Mamlakat siyosati va institutsional baholash ko‘rsatkichi tajribasiga asoslanib, mustaqil korrupsiyaga qarshi organ vakolatlarini kuchaytirish.

3. Uzoq muddatli islohotlar (5-10 yil)

Yettinchi. Davlat banklari ulushini 80 foizdan 50 foizga kamaytirish va xususiylashtirishni jadallashtirishni moliyaviy shaffoflik islohotlari bilan bog‘liq holda amalga oshirish. Jahon banki ta’kidlaganidek, yirik davlat banklarining mavjudligi o‘zida siyosiy ta’sir asosida kredit berish va moliyaviy yo‘qotishlar xavfini saqlab qoladi.

Sakkizinchi. Skandinaviya “whistleblower” (xabar beruvchilarni himoya qilish) qonunchiligini o‘rganish va O‘zbekistonda to‘liq mexanizm yaratish. Hozirgi qonunchilik korrupsiya faktlari to‘g‘ risida xabar beruvchilarni yetarli darajada himoya qilmaydi - bu ichki nazoratning eng kuchli manbasi hisoblanadi.

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu tadqiqot davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro amaliyoti hamda O‘zbekistondagi mavjud muammolarni qamrab oldi. Tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatmoqda:

Birinchidan, moliyaviy shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashda eng muvaffaqiyatli mamlakatlar (Skandinaviya, Singapur, Estoniya) bir-biridan farq qiluvchi modellardan foydalanadi, biroq ularning barchasida umumiy xususiyat - kuchli mustaqil institutlar, real hisobdorlik mexanizmlari va yuqori darajada ommaviy ishtirok mavjud.

Ikkinchidan, Gruziya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ham aniq yo‘naltirilgan islohotlar orqali qisqa muddatda sezilarli natijalarga erishish mumkin. Bu tajriba O‘zbekiston uchun ayniqsa dolzarbdir.

Uchinchidan, O‘zbekiston 2016 - 2023 yillarda CPI bo‘yicha 12 balllik o‘sish bilan ijobiy tendentsiyani ko‘rsatmoqda. Biroq PEFA baholash ma’lumotlari ichki va tashqi audit tizimining zaifligini, byudjet shaffofligining past darajasini ko‘rsatadi - bu eng ustuvor islohotlar yo‘nalishi hisoblanadi.

To‘rtinchidan, raqamli transformatsiya - e-xarid.uz, e-government platformalari - korrupsiyani kamaytiruvchi muhim omil sifatida ishlaydi. Biroq bu yetarli emas: raqamli transformatsiya fuqarolik nazorati va mustaqil audit bilan birga amalga oshirilishi lozim.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, O‘zbekistonda davlat sektorida moliyaviy shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha to‘plangan xalqaro tajribani izchil va tizimli ravishda tatbiq etish “O‘zbekiston-2030” strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Sobirov Otabek Olimjonovich

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent. Namangan davlat texnika universiteti, Buxgalteriya hisobi kafedrasi dotsenti.

Bugungi kunda xo‘jalik yurutuvchi subyektlarni qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanishidan qat’iy nazar faoliyatni samarali boshqarish qilinadigan xarajatlar hisobini to‘g‘ri tashkil etish va ularni maqbullashtirishga bog’liqdir. Bunday tadbirlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad – kam xarajat evaziga yuqori daromad oshirishdir. Albatta tannarxni tashkil etuvchi xarajatlarni hisobga olish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonida tannarx bilan bog‘liq xarajatlar ustidan bevosita nazoratni ta’minlash, kelgusida mahsulotlarni sotuv narxlarini yuqori bo‘lishi yoki rejadagi tannarxdan oshib ketishini oldi olishga xizmat qiladi. Bu borada

boshqaruv hisobini o‘rnini alohida e’tirof etish lozim. Boshqaruv hisobining tashkiliy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishda eng asosiy nazariy masala bo’lib uning konseptual negizlarini tadqiq etish hisoblanadi.

Boshqaruv hisobining konseptual negizlari borasida olimlar o’rtasida ham yakdillik mavjud emas, bu esa boshqaruv hisobining barcha mamlakatlarda, iqtisodiyotlarda hattoki xo’jalik yurituvchi subyektlarda ham yagona bir qabul qilingan tizimi mavjud emasligini tushunish mumkin. Buning bir qancha asosiy sabablari mavjud, ularga to’xtalib o’tishimiz maqsadga muvofiqdir:

boshqaruv hisobining xalqaro qabul qilingan yagona bir tizimi mavjud emasligi;

boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish qonun yoki yo’riqnomalarda talab etilmaganligi;

biror-bir mamlakatda xo’jalik yurituvchi subyektlar boshqaruv hisobini yuritishi shart emasligi;

yuqori tashkilotlar tomonidan boshqaruv hisobini yuritish talab etilmaganligi;

boshqaruv hisobining iqtisodiy samarasini bevosita hisob-kitob qilib ko’rib bo’lmasligi, ya’ni boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish xarajatlari u beradigan samaradan yuqori bo’lgan taqdirda uni amalga oshirish maqsadga muvofiq emas va shu kabilar.

Demak, boshqaruv hisobining konseptual tarkibi borasidagi jahon va respublikamizdagi olimlarning fikrlarini tanqidiy tahlil etish natijasida uni tarkibiy qismlarga ajratishda turli xildagi fikrlar mavjud ekanligini ko’rish mumkin. Albatta, mana shu masalaning ayrim jihatlari bo’yicha yakdillik ham mavjud.

Ko’plab iqtisodchi olimlarning boshqaruv hisobi borasidagi yondashuvlarida, ya’ni boshqaruv hisobining konseptual asosining - xarajatlar hisobi, tannarxni hisoblash, byudjetlashtirish va tahlil qismlarini mohyatini ochin berishda qarama-qarshiliklar kuzatiladi. Shunday holatning mavjudligi sababli, respublikamizda boshqaruv hisobi tizimini tashkil etish va yuritishni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida o’z taklifimizni ishlab chiqdik.

Bizning fikrimizcha, uning tarkibiga: byudjetlashtirish, rejalashtirish, taxminlash, aylanma mablag’larni boshqarish, faoliyatni baholovchi asosiy ko’rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish, xarajatlarni boshqaruv hisobi talablari asosida turkumlashtirish, boshqaruv hisobi uchun schyotlar rejasi, boshqaruv va moliyaviy hisobdagi xarajat guruhlarini o’zaro muvofiqlashtirish, xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxini hisoblash, ichki segmentar hisobot tizimi, boshqaruv hisobi yozuvlari bilan moliyaviy hisob yozuvlarini muvofiqlashtirish tartibi, ichki iqtisodiy tahlil, zararsizlik nuqtasining tahlili, investitsion loyihalar tahlili, transfert baholarni shakllantirishni kiritish mumkin.

Boshqaruv hisobining konseptual tarkibi quyidagi maqsadlarni ko’zlashi bilan ahamiyatlidir:

xo’jalik yurituvchi subyektlarni butun xarajatlari byudjetlashtirish orqali amalga

oshiriladi va bu turli chetlanishlarni oldini oladi;

xarajatlarni boshqaruv hisobi talablari asosida turkumlashtirish, bu esa foyda, xarajat va javobgarlik markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini yanada oshiradi;

mahsulot tannarxini zamonaviy usullar yordamida hisoblash imkoniyatini ta’minlaydi;

xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o’tgan va joriy davrlar uchun tahlilini amalga oshirish kelgusida strategik qarorlar qabul qilish, shuningdek xo’jalik yurituvchi subyektlarni strategik prognoz balansini tuzish imkoniyatini yaratadi. Xarajatlarni boshqaruv hisobi talablari asosida turkumlashtirish foyda, xarajat va mas’uliyat markazlari bo’yicha va boshqa boshqaruv talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim. Bu bizga xarajatlarni kalkulyastiya moddalari bo’yicha ta’kidlangan markazlarda mujassamlashuvini, uning to’g’ri hisobga olinishini, nazorat va boshqaruv tahlilini o’tkazishda, zaruriy chora-tadbirlarni qo’llashda rahbariyatga juda qo’l keladi.

Xo’jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish imkoniyatlarini inobatga olgan holda boshqaruv hisobini tashkil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Natijada:

- xo’jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini to’g’ri tashkil etish hamda samarali yuritishning uslubiy jihatlarini to’g’ri baholash imkonini beradi. Natijada xo’jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini to’g’ri shakllanishiga erishiladi, xo’jalik yurituvchi subyekt rahbariyati tomonidan samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos bo’ladi;

- xo’jalik yurituvchi subyekt rahbarlariga ichki imkoniyatlarni baholashga, hozirgi globallashuv sharoitida tashqi muhit omillarini hisobga olish hamda ularni tahlil qilish va nazorat qilish imkoniyatini beradi;

- xo’jalik yurituvchi subyektlarda samarali tarzdagi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy ma’lumotlarning asoslanganligi ta’minlanadi, strategik ko’rsatkichlarini to’g’ri shakllantirish imkoniyati yaratiladi, mavjud variantlar ichidan samaralisini tanlash imkoniyati kengayadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamiz iqtisodining barcha tarmoqlarida boshqaruv hisobini faoliyat turlari bo’yicha shakllantirish va amaliyotga tadbiq etish zamon talabidir. Balki resurslardan oqilona, samarali foydalanish, xarajatlarni imkoniyat darajasida, asosli ravishda pasaytirish evaziga foyda miqdorini oshirishdir.

Buning uchun esa boshqaruv hisobini xo’jalik yurituvchi subyektning faoliyat turlari bo’yicha tashkil etish va yuritish lozim. Umuman olganda xarajatlarni boshqaruv hisobini tadqiq etish kelgusida mahsulot, ish va xizmatlar tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi va bu boradagi tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega.

STRATEGIC PATHWAYS FOR THE MODERNIZATION AND DEVELOPMENT OF PUBLIC PROCUREMENT SYSTEMS

Iskandarova Umida Asliddin qizi
Student of Tashkent State University of economics
Nilufar Abdullayeva
Senior teacher of TSUE

Abstract This research investigates the multifaceted nature of public procurement within the economic landscape of Uzbekistan, focusing on the transition from traditional procurement methods to a fully integrated digital ecosystem. The analysis highlights critical barriers such as institutional transparency, market competition, and the technical efficiency of electronic platforms. By synthesizing global paradigms specifically from South Korea, the European Union, and North America this paper identifies strategic reforms necessary to minimize corruption and maximize the socio-economic impact of state expenditures. The findings suggest that a robust procurement system is fundamental to national fiscal health and the successful integration of small businesses into the formal economy.

Keywords: Public Procurement, E-Procurement, Transparency, Market Competition, SME Integration, Digital Transformation.

Introduction Public procurement is a cornerstone of public financial management, representing a significant portion of the Gross Domestic Product in both developing and developed nations. In the context of Uzbekistan, public procurement has evolved from a purely logistical function into a strategic economic lever designed to promote social welfare, industrial growth, and governance accountability. Despite the adoption of the Law "On Public Procurement" in 2021[224], the system faces ongoing challenges related to administrative bureaucracy, a lack of specialized expertise among procurement officers, and residual risks of favoritism during tender awards.

Theoretical and Economic Significance In a functioning market economy, public procurement fulfills several primary dimensions. From a demand perspective, the state acts as a major consumer that can stabilize market demand, providing a critical safety net for industries during periods of private sector volatility. Furthermore, the equity dimension ensures that tenders and auctions provide a platform where meritocracy outweighs monopoly. According to the Presidential Decree PQ-5171[225] ensuring the participation of small and medium enterprises (SMEs) is a priority to foster a competitive domestic market.

[224] **Law of the Republic of Uzbekistan**, "On Public Procurement" No. ZRU-684, April 22, 2021. ЗРУ-684-сон 22.04.2021. О государственных закупках

[225] **Presidential Decree of Uzbekistan**, "On measures to ensure transparency and increase the efficiency of public procurement" No. PQ-5171, July 2, 2021. RP-5171-сон 02.07.2021. On additional measures to ensure transparency and increase the efficiency of public procurement

Analysis of Recent Data (2024-2026) The digital transformation of the procurement sector has led to measurable growth in fiscal efficiency. Recent economic projections indicate that the share of public procurement in Uzbekistan's GDP is steadily increasing, aiming for approximately 30% by the end of 2025.



Figure 1. Dynamics of Public Procurement Development and its Projected Impact on GDP Growth (2023–2026).

This data suggests that the move toward a "Single Information Portal" is not only reducing costs but also increasing the transparency of state expenditures[226]

Comparative International Experience To formulate a successful roadmap, it is essential to analyze global leaders. South Korea’s KONEPS model utilizes a "One-Stop Shop" system that has significantly reduced corruption by digitizing 100% of the procurement cycle[227]. Similarly, the European Union emphasizes the "Most Economically Advantageous Tender" (MEAT) principle, focusing on life-cycle costs rather than just the lowest initial price[228]. These international standards provide a blueprint for Uzbekistan to move beyond price-centric bidding toward quality-centric and sustainable procurement.

[226] Public Procurement Service of the Republic of Korea, "KONEPS: Transparency and Innovation in E-Procurement," 2024. Public Procurement Service

[227] European Commission, "Public Procurement Strategy: Focus on Quality and MEAT Principles," 2024. https://ec.europa.eu/growth/single-market/public-procurement_en

[228] The World Bank Group, "Uzbekistan: Strengthening Public Procurement Systems for Economic Growth," 2026 Report. Uzbekistan | World Bank Group

Conclusion and Future Outlook The modernization of Uzbekistan's public procurement system is an iterative process requiring a culture of transparency and professionalism. By adopting international best practices, such as Korea's digital integration and Europe's focus on sustainability, Uzbekistan can transform its procurement sector into a powerful engine for economic diversification. The ultimate goal is the establishment of a system where every sum spent by the state generates maximum value for the taxpayer and strengthens the overall integrity of the national economy.

SUG‘URTA SEKTORIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

Xolbayev Azamat Yuldashovich
Sug`urta ishi kafedrasi PhD

Jahon mamlakatlarida sug‘urta bozorining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini tezla-shishiga yordam beradi. “AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy kabi G20 davlatlarida sug‘urta to‘lovlari har yili mamlakat yalpi ichki mahsulotining 4-17,4 foizini tashkil etadi. Bu sohada dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 7,3 foizga teng. Bu esa o‘z navbatida sug‘urta mukofotlarining keskin ortishiga sabab bo‘lib, 2022-yilda u 3,3 foizga oshdi va jami 6,9 trillion dollarni tashkil etdi. Sug‘urta mukofotlarining o‘sishi dunyoning turli qismlarida turlicha bo‘lib, xususan, Xitoyda 6,3 foiz, AQShda 1,7 foiz, G‘arbiy Yevropa davlatlarida 2,8 foiz va rivojlanayotgan mamlakatlarda 5,6 foizni tashkil etdi” (Musayeva, 2024). Jahon sug‘urta bozorining ijobiy tendensiyalari sug‘urta kompaniyalarining mijozlar soni va faoliyat geografiyasining kengayishi bilan bog‘liq bo‘lib, u yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun yangi tex-nologiyalardan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, jahon sug‘urta bozorini boshqarish doimiy takomillashtirish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishni talab qiladi, bu esa mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlashga, kompaniyalarning raqobatbardoshligini va kompaniya imijini yanada yaxshilashga hamda moliyaviy barqarorligini oshirishga sabab bo‘ladi.

Rossiya yuridik maktabining taniqli vakili va sug‘urta bo‘yicha mutaxassis professor V. I. Serebrovskiy (1927) Gobi nazariyasini fundamental g‘oya sifatida ko‘rib, “sug‘urta kelajakdagi, noma’lum va tasodifiy ehtiyoj-larni ko‘plab odamlar o‘rtasida taqsimlash shakli deb ataydi”.A. A. Romanova (2017) ilmiy maqolasida sug‘urta bozoriga quyidagi ta’rifni keltirib o‘tadi, “sug‘urta bozori – bu mamlakat moliya bozorining ajralmas qismi bo‘lib, fond bozori bilan bir uyg‘unlikda rivojlanib boradi. Sug‘urta bozorining rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonining jadal rivojlanishi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Sug‘urta bozori instrumentlarining ko‘payishi va o‘sishi – bu ishlab

chiqarish hamda moliya sohasida globallashuv, integratsiya jarayonlarining ajralmas qismidir, shu sababli moliya bozorlarining o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishi talab etiladi”.A. M. Godin (2009) ilmiy tadqiqot ishida “sug‘urta bozorining moliya tizimidagi o‘rni beqiyosdir, sababi turli xil moliya institutlariga sug‘urta himoyasini taqdim etish bilan bir qatorda o‘zining investitsion faoliyati va salohi-yati orqali moliya bozorining asosiy o‘yinchilariga aylanib boradi” - degan fikrlarni ilgari suradi.Iqtisodiyotda sug‘urta va fond bozorlari moliya bozorining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lib, ular o‘zaro faoliyat turlarini modellashtirishda, takomillashtirishda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. (Abdullayeva, 2022)

Sug‘urta bozorining shiddat bilan rivojlanib borishi sug‘urta operatsiyalarining zararlilik darajasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Buni yuqorida keltirilgan rasm ma’lumotlaridan ham ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni sug‘urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan sug‘urta operatsiyalarining zararlilik darajasi yildan yilga o‘sib bormoqda. Ammo bu ko‘rsatkichni salbiy deb ham bo‘lmaydi. Buni ikki tomonlama tahlil qilish o‘rinli. Bir-inchidan, sug‘urta kompaniyalari tomonidan qabul qilingan sug‘urta obyektlari bo‘yicha sug‘urta hodisasi sodir bo‘lishi natijasida o‘z vaqtida sug‘urta to‘lovlarini to‘lanishi natijasida mijozlarning sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini yanada ortishiga sabab bo‘lsa, ikkinchidan, sug‘urta uchun qabul qilinadigan sug‘urta obyekti bilan bog‘liq sug‘urta xodisasi sodir bo‘lish ehtimoli sug‘urta xodimlari tomonidan jiddiy o‘rganilmayotganligini sabab qil-ishimiz mumkin. Sug‘urta operatsiyalarining zararlilik darajasini baribir salbiy deya olmaymiz. Chunki xorijiy tajribada bu ancha yuqori hisoblanadi, jumladan Yaponiya sug‘urta bozori umumiy sug‘urta tarmog‘ida mazkur ko‘rsatkich 64 foizni tashkil qiladi.

Jahon bozorida sug‘urta kompaniyalari eng ko‘p moliyaviy resurs to‘planadigan soha sifatida e’tirof etiladi va bu jihat uni yirik investitsiya manbayiga aylantiradi. Sug‘urta kompaniyasi boshqa moliyaviy tashkilotlar (banklar, fond birjalari, investitsion fondlar, pensiya jamg‘armalari va boshqalar) bilan bir qatorda mamlakat moliya bozorining ajralmas qismi hisoblanib, davlat moliya tizimining muhim bo‘g‘inini tashkil qiladi. Sug‘urta kompaniyalarining ma’lum darajadagi pul oqimlarining to‘planish va taqsimlanish tamoyili ularni yirik institut-sional investor sifatida ham namoyon qiladi.

Sug‘urta kompaniyalari o‘z resurslarini investitsiya obyektlarini moliyalashtirish maqsadida yo‘naltirish orqali ham moliyaviy barqarorlikka erishadi, sug‘urta tizimi barqaror rivojlanayotgan davlatlar tajribasiga ko‘ra, sug‘urtalovchilar investitsiya faoliyatidan oladigan daromadlari orqali asosiy faoliyat bo‘yicha majburiyatlarini bajarib, to‘lov qobiliyatini mustahkamlaydi. Agentlikka ko‘ra, 2024-yilda sug‘urtalovchilar tomonidan 4,8 trln. so‘m miqdorida investitsiya qo‘yilmalari amalga oshirilgan va ularning 61 foizi bank depozitlariga to‘g‘ri kelgan

Jahon sug‘urtalovchilarining moliyaviy resurslari fond birjalari orqali harakatlanadi. Fond bozori kapitalning iqtisodiyot tarmoqlariga transformatsiyalanishiga

imkoniyat yaratadi. Sug‘urtalovchilarning fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish resurslarni ishonchli joylashtirishda, real ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlashda, qo‘shimcha resurslar jalb qilinishida muhim omil sanaladi.

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlaridan yana biri kapital bozorida ishtirokini ta’minlash hisoblanadi.

Moliyaviy xizmatlar bozorining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblangan fond hamda sug‘urta bozorlari kapitalga muhtoj tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini rag‘batlantiradi. “Bugungi kunda fond va sug‘urta bozorining iqtisodiy islohotlarni tubdan yangilash jarayonidagi rolini oshirish hamda ularning o‘zaro faoliyatini takomillashtirish ustuvor vazifalardan sanaladi” (Abdullayeva, 2022). Sug‘urta kompaniyalari fond bozorida, birinchidan, ustav kapitalini shakllantirish va ko‘paytirish hamda aylanma mab-lag‘larga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida qimmatli qog‘ozlar emitenti sifatida; ikkinchidan, ularning faoliyat turidan, ya’ni vaqtincha jalb qilingan bo‘sh mablag‘larga egaligidan kelib chiqib ularni qimmatli qog‘ozlargayo‘naltiruvchi investor sifatida; uchinchidan, fond bozorida investitsiya vositachisi va risklarning taqsimlovchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib “O‘zbekinvest” EISK AJ moliyaviy barqarorligini oshirishda IPOni amalga oshirdi.IPO (Initial Public Offering) – bu kompaniya aksiyalarining fond bozorida birlamchi taklifi. Kompaniya IPO o‘tkazishga qaror qilganda, u birinchi marta investorlarga o‘z aksiyalarini taklif qiladi. Taklif natijasida tashkilot ommaviy maqomga ega bo‘ladi va qog‘ozlarga ega bo‘lish barcha uchun ochiq bo‘ladi.“O‘zbekinvest” EISK AJ fond bozoriga chiqishni muvaffaqiyatli yakunladi. 2023-yil 15-dekabr kuni “O‘zbek-invest” EISK AJ “Toshkent” RFBda qimmatli qog‘ozlarni birlamchi ommaviy joylashtirishni (IPO) yakunladi. IPO yakuniga ko‘ra arizalar kitobi 128,45 foizga imzolandi, bu esa investorlarning kafolatlangan daromadga yuqori qiziqishi va O‘zbekistonning eng yirik sug‘urta kompaniyasiga ishonchidan dalolatdir. Ta’kidlash joizki, jismoniy shaxslar “O‘zbekinvest” IPO hajmining uchdan bir qismini sotib oldi: joylashtirilgan aksiyalarning 70,27 foizi institutsional, qolgan 29,73 foizi chakana investorlarga taqsimlandi.

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari ichida eng samaralisi bu kom-paniyalarning fond bozorida ishtirokini ta’minlashdir. Rivojlangan sug‘urta va fond bozoriga ega bo‘lgan dav-latlar tajribasi, bir qancha iqtisodiy olimlarning fikri shuni ko‘rsatdiki, sug‘urta kompaniyalarining fond bozo-ridagi faoliyatini takomillashtirish davlat va jamiyatning moddiy mablag‘ga muhtoj bo‘lgan qatlamini moliyaviy resurs bilan ta’minlashga, yuridik va jismoniy shaxslarning ma’lum bir iqtisodiy jarayonlarida vujudga keladigan xavf-xatarlarini minimallashtirishga, shuningdek, yangi innovatsion sug‘urta mahsulotlarini yaratilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo`lsak sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida eng muhimlari — risklarni samarali boshqarish,

investitsiya faoliyatini rivojlantirish va fond bozorida faol ishtirok etishdir. Zamonaviy sharoitda sug‘urta bozori nafaqat himoya mexanizmi, balki iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi kuchli moliyaviy instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois sug‘urta tizimini doimiy takomillashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

КАМБАҒАЛЛИК ДАРАЖАСИНИ ҚИСҚАРТИРИШ ВА АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Beknazarov Zafarjon Ergashevich
DSc, professor Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii

Камбағаллик бугунги кунда Ўзбекистон олдида турган энг долзарб ижтимоий-иқтисодий муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Камбағаллик муаммоси мураккаб ва кўп қиррали бўлиб, тарихий, сиёсий, таркибий ва иқтисодий ўзгарувчилар таъсирида шаклланади. Ўзбекистон модернизация ва тараққиётнинг улкан кун тартибига киришар экан, камбағалликни қисқартириш бўйича чора-тадбирлар унинг сиёсатининг устувор йўналишларида марказий ўринни эгаллади. Ушбу чора-тадбирлар, уларни амалга ошириш ва самарадорлигини синчковлик билан ўрганиш мамлакатнинг кенгроқ ривожланиш траекториясини танқидий тушуниш имконини беради.

Ушбу мақола ушбу мураккаб ва кўп қиррали масаланинг турли жиҳатларини кўриб чиқади, камбағалликни қисқартириш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялашни молиялаштиришнинг зарурати, самарадорлиги ҳамда бу борадаги халқаро тажрибаларга эътибор қаратади. Камбағалликни қисқартиришнинг асосий тамойилларидан бири иқтисодий ўсишни таъминлаш ва аҳолининг кам таъминланган қатламларига ресурсларни қайта тақсимлашдан иборат. Ўзбекистонда камбағаллик нафақат даромад ёки ресурсларнинг етишмаслиги, балки таълим, соғлиқни сақлаш, бандлик имкониятлари ва ижтимоий ҳимоядан фойдаланиш билан узвий боғлиқдир.

Камбағалликни қисқартириш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялашнинг молиялаштирилиши мамлакатларнинг барқарор ривожланишидаги муҳим масалалардан биридир. Камбағалликни қисқартириш фақат иқтисодий ўсиш билан эмас, балки аҳолини ижтимоий ҳимоялаш ва ресурсларга тенг кириш имкониятларини таъминлаш орқали амалга оширилади.

Иқтисодий ўсиш камбағалликни камайтиришда муҳим роль ўйнайди, чунки бу аҳоли учун янги иш ўринлари яратади ва даромадларни оширади. Бироқ, иқтисодий ўсишнинг ўзи етарли эмас. Аҳолининг ижтимоий ҳимояланиш даражасини ошириш учун давлат томонидан кўрсатиладиган ижтимоий хизматлар ва ёрдамларнинг кенгайтирилиши ҳам талаб қилинади. Ижтимоий ҳимоя тизими

камбағалликни қисқартиришда муҳим аҳамиятга эга, чунки у аҳолининг энг заиф қатламларини ҳимоя қилади ва уларга асосий эҳтиёжларини қондириш учун зарур бўлган ресурсларни тақдим этади. Бундай тизим нафақат иқтисодий қийинчиликлар вақтида, балки оддий кунларда ҳам аҳолини қўллаб-қувватлаш учун хизмат қилади. Ижтимоий ҳимоя чоралари орасида пенсиялар, болалар нафақалари, ишсизлик нафақалари ва соғлиқни сақлаш хизматларига кириш имкониятлари мавжуд. Камбағалликни қисқартириш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялашни молиялаштиришнинг самарадорлиги, аввало, бу борадаги сиёсатнинг қанчалик пухта ўйланганлиги ва барқарорлигига боғлиқ. Молиявий ресурсларни самарали тақсимлаш орқали давлат ижтимоий ҳимоя тизимининг самарадорлигини ошириши мумкин.

Ўзбекистон ҳам сўнгги йилларда камбағалликни қисқартириш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялаш соҳасида жиддий қадамлар қўймоқда. Бу борада қабул қилинган давлат дастурлари ва ислоҳотлар натижасида аҳолининг ижтимоий ҳимояланиш даражаси ошмоқда. Молиявий ресурсларни самарали бошқариш, ижтимоий ёрдамларнинг манзиллик тамойилига амал қилиш ва халқаро тажрибаларни инобатга олиш Ўзбекистоннинг камбағалликни қисқартириш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялаш бўйича сиёсатининг самарадорлигини оширади.

Камбағалликни қисқартириш ва аҳолини ижтимоий ҳимоялашнинг молиялаштириш механизмлари самарадорлигини баҳолашга асосланган. Сифат ва миқдорий таҳлил натижаларига кўра, Ўзбекистонда камбағалликни қисқартиришда давлат томонидан амалга оширилаётган иқтисодий ва ижтимоий сиёсатлар муҳим натижалар бераётгани кузатилди. Статистик таҳлиллар шуни кўрсатдики, Ўзбекистоннинг ижтимоий ҳимоя соҳасига ажратилган маблағлари йилдан-йилга ортиб бормоқда.



1- расм. 2020-2025 йилларда Ижтимоий ҳимоя дастурларига ажратилган маблағлар (млрд сўм)[229]

[229] Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Юқоридаги расм маълумотларидан кўриш мумкинки, ижтимоий дастурларни молиялаштириш ҳажми 2020 йилдан 2025 йилгача 120% га ошган. Бу ўсиш давлатнинг камбағалликни қисқартириш ва ижтимоий ҳимоя тизимини ривожлантиришга бўлган эътиборини акс эттиради. Сўровнома ўтказилган респондентларнинг 75% ижтимоий ёрдам дастурларидан хабардор эканлигини ва улардан фойдаланаётганини билдирган. Шу билан бирга, респондентларнинг 60% ижтимоий ёрдам уларнинг турмуш даражасини сезиларли даражада яхшилаганини қайд этган. Статистик маълумотларга кўра, Ўзбекистонда камбағаллик даражаси сўнгги йилларда сезиларли даражада камайган. 2020 йилда камбағаллик даражаси 11 фоизни ташкил қилган бўлса, 2024 йилда бу кўрсаткич 8фоизгача пасайган. Ўтган йили 719 минг киши камбағалликдан чиқарилган. Камбағалликнинг энг паст кўрсаткичи Навоий вилоятида (5,7 фоиз), энг юқори кўрсаткичи Хоразм вилоятида (11,9 фоиз) қайд этилган. 2025 йилнинг 1 июль ҳолатига, кўра 6,8 фоизни ташкил этмоқда.

Камбағалликни қисқартириш давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири бўлиб, бу жараённи амалга ошириш учун бир нечта асосий тамойилларга амал қилиш зарур. Биринчидан, иқтисодий ўсишни таъминлаш орқали янги иш ўринлари яратиш ва аҳолининг даромадларини ошириш талаб этилади. Иқтисодий ўсиш камбағалликни камайтиришда асосий омиллардан бири ҳисобланади, чунки бу янги имкониятлар яратади ва аҳоли учун ресурслар етказиб беради. Иккинчидан, аҳолини ижтимоий ҳимоялаш тизимини ривожлантириш ва кенгайтириш зарур. Бу тизим энг заиф қатламларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг асосий эҳтиёжларини қондириш ва ҳаёт сифатини оширишга қаратилган. Ижтимоий ҳимоя чоралари орасида пенсиялар, болалар нафақалари, ишсизлик нафақалари, соғлиқни сақлаш хизматлари ва бошқа турли хил ёрдамлар мавжуд. Бу чора-тадбирлар аҳолининг иқтисодий қийинчиликларга бардош беришига ёрдам беради ва уларнинг фаровонлигини оширади. Учинчидан, таълим ва соғлиқни сақлаш тизимларини яхшилаш орқали аҳолининг билим ва малакасини ошириш муҳимдир. Таълим ва соғлиқни сақлаш хизматларига кенг кириш имкониятлари аҳолининг ҳаёт сифатини яхшилашда муҳим роль ўйнайди. Таълим тизимининг самарадорлиги оширилиши натижасида ёшлар малакали касб-ҳунар эгаси бўлиб, меҳнат бозорида рақобатбардош бўлишади. Соғлиқни сақлаш хизматларининг сифатини ошириш эса аҳоли саломатлигини яхшилаш ва меҳнатга лаёқатлиликни оширишга хизмат қилади.

Ижтимоий ҳимояни молиялаштиришнинг зарурати. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашнинг самарали тизими молиялаштириш манбаларининг барқарорлигига боғлиқ. Ижтимоий ҳимоя тизими давлат бюджети ҳисобидан молиялаштирилиши ёки хусусий сектор ва халқаро ташкилотлар ёрдамида амалга оширилиши мумкин. Давлат бюджети орқали молиялаштириш аҳолининг ижтимоий ҳимояланиш даражасини оширишда энг ишончли манба ҳисобланади. Шу сабабли, давлат бюджети маблағларини самарали тақсимлаш ва ижтимоий ҳимоя чоралари учун етарли миқдорда маблағ ажратиш зарур. Хусусий секторнинг иштироки ҳам ижтимоий ҳимояни молиялаштиришда муҳим аҳамиятга эга. Корхоналар ва хусусий ташкилотлар ижтимоий лойиҳалар ва дастурлар орқали аҳолининг ижтимоий ҳимояланишига ҳисса қўшишлари мумкин. Бу эса давлатнинг молиявий юкини камайтиради ва ижтимоий ҳимоя тизимининг самарадорлигини оширади. Халқаро ташкилотлар ва донор давлатлар томонидан кўрсатиладиган молиявий ёрдам ҳам ижтимоий ҳимоя дастурларини амалга оширишда қўшимча манба сифатида хизмат қилади.



2- расм. Ҳудудлар бўйича камбағалликни қисқартириш даражаси (фоизда)[230].

Юртимизнинг барча ҳудудларида ижобий ўзгаришлар қайд этилди. Айниқса, Бухоро ва Самарқанд вилоятларида сезиларли ўсиш қайд этилди, бу ерда камбағаллик ўртача 3,1 фоиз пунктга қисқариб, мос равишда 8,7 ва 7,5 фоизни ташкил этди. Наманган вилояти ва Қорақалпоғистонда камбағаллик даражаси 2,8 фоиз бандга — 7,6 фоиз ва 10,8 фоизгача пасайди.

Расм маълумотларидан кўриниб турибдики, Камбағаллик кўрсаткичининг энг кам пасайиши Қашқадарё вилоятида — 11,5 фоиздан 9,6 фоизгача (1,9 ф.п.), Навоий вилоятида — 7,6 фоиздан 5,7 фоизгача (1,9), Фарғонада — 10,1 фоиздан 8,6

[230] Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

фоизгача (1,5), Сурхондарё вилоятида — 10,6 фоиздан 9,3 фоизгача (1,3) ва Тошкент шаҳрида — 7,9 фоиздан 7,3 фоизгача (0,6) қайд этилди.

Ижтимоий ҳимоя дастурларининг самарадорлигини ошириш учун бир қатор чоратадбирларни амалга ошириш зарур. Биринчидан, ижтимоий ёрдамларнинг манзиллик тамойилига амал қилиш талаб этилади. Бу ёрдамлар энг муҳтож кишиларга етказилиши керак. Бу орқали ижтимоий ҳимоя чоралари самарадорлигини ошириш ва ресурсларни оптимал тақсимлаш мумкин. Иккинчидан, ижтимоий ҳимоя тизимининг самарадорлигини мониторинг қилиш ва баҳолаш тизимини жорий этиш муҳимдир. Бу орқали дастурлар натижадорлигини таҳлил қилиш, камчиликларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш имкониятлари яратилади. Мониторинг ва баҳолаш тизими орқали ижтимоий ҳимоя дастурларининг натижадорлиги оширилади ва ресурслар самарали ишлатилади. Учинчидан, ижтимоий ҳимоя дастурларини амалга оширишда ахборот-коммуникация технологияларидан кенг фойдаланиш зарур. Замонавий технологиялар ёрдамида ижтимоий ёрдамларни тарқатиш ва мониторинг қилиш жараёнлари соддалаштирилади ва шаффофлиги таъминланади.



3- расм. Аҳолининг дародамлар таркиби[231].

Камбағалликни қисқартириш иш билан таъминлаш, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва ердан самарали фойдаланиш орқали амалга оширилди. Ушбу чора-тадбирлар натижасида аҳолининг реал даромадлари ўтган йилда 10,7 фоизга ошиб, аҳоли жон бошига ойига ўртача 2,1 млн сўмни ташкил этди (йил бошида — 1,7 млн сўм).

Қуйидагилар даромадларнинг асосий манбалари бўлиб қолмоқда:

иш ҳақи — 42,6% (2023 йилда — 41,9%);

тадбиркорликдан олинган даромадлар — 22,9% (21,4%);

пенсиялар, ижтимоий ёрдам ва субсидиялар — 18,2% (18,9%);

[231] Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

қишлоқ хўжалиги ва томорқалардан олинган даромадлар — 10,7% (9,8%);

хориждан пул ўтказмалари — 2% (3,1%);

бошқа даромадлар — 3,6% (4,9%).

Тадбиркорлик фаолиятидан олинган даромадлар 1,5 фоиз пунктга, қишлоқ хўжалигидан олинган даромадлар эса 0,9 фоиз пунктга ошди. Даромадларнинг энг юқори о’сиши Фарг’она (+19,1%) ва Бухоро (+11,4%) вилоятларида, шунингдек, Тошкент шаҳрида (+17%) қайд этилди. Пойтахтда аҳолининг о’ртача даромади 3,6 млн со’мни, Навоий ва Қашқадарё вилоятларида эса 2,2 млн со’мни ташкил этган. 2024 йилда иш ҳақидан олинган даромадлар 12,9 фоизга ошди, бунинг учун 5,1 миллион киши иш билан таъминланди. Расмий иш билан банд аҳолининг улуши 30 фоизга ошди.

Камбағалликни қисқартириш ва ижтимоий ҳимояни молиялаштириш бўйича халқаро тажрибалар турли ёндашувларни ўз ичига олади. Скандинавия давлатлари, масалан, кенг қамровли ижтимоий ҳимоя тизимларини муваффақиятли йўлга қўйган ва камбағаллик даражасини сезиларли даражада камайтиришга эришган. Уларнинг тажрибаси шуни кўрсатадики, кенг қамровли ва яхши молиялаштирилган ижтимоий ҳимоя тизими иқтисодий барқарорликни таъминлашда ва камбағалликни камайтиришда катта роль ўйнайди. Жанубий Корея ва Цингапур каби давлатлар эса иқтисодий ўсишни таъминлаш орқали камбағалликни қисқартиришга эришган. Улар малакали ишчи кучини тайёрлаш, таълим ва соғлиқни сақлаш тизимларини ривожлантириш орқали иқтисодий ўсишни қўллаб-қувватлаган. Уларнинг тажрибаси кўрсатадики, иқтисодий ўсиш ва ижтимоий ҳимоя чоралари биргаликда амалга оширилганда самарали натижаларга эришиш мумкин. Ўзбекистон ҳам халқаро тажрибаларни ўрганиб, уларни мамлакат шароитларига мослаштирган ҳолда қўллашга интилмоқда. Сўнгги йилларда қабул қилинган давлат дастурлари ва ислоҳотлар натижасида аҳолининг ижтимоий ҳимояланиш даражаси ошмоқда. Халқаро тажрибаларни инобатга олган ҳолда, Ўзбекистон ўз ижтимоий ҳимоя тизимини янада ривожлантириш ва молиялаштиришнинг янги усулларини излашга давом этмоқда.

Ўзбекистонда камбағаллик даражасини баҳолаш 2020 йилдан буён доимий равишда ўтказиб келинмоқда ва аҳолининг турмуш даражаси, шароити ва сифати тўғрисидаги муҳим маълумотлар манбаи бўлиб, мамлакатда монетар камбағаллик даражасини баҳолаш учун ягона ахборот манбаи ҳисобланади.

Сўровномада иштирок этган уй хўжаликлари харажатлар миқдорига кўра 10 та гуруҳга бўлинади ва ушбу оилалардан энг кам харажатлар (даромадлар)га эга бўлган уй хўжаликларига 30 фоиз ўрин берилади. Камбағаллик чегарасини аниқлаш учун ишлатиладиган минимал истеъмол харажатлари (МИС) озиқ-овқат маҳсулотларининг кунлик зарурий истеъмолини (2200 ккал), ойига ноозиқ-овқат товарлари ва хизматларни ҳисобга олади.

Қонунчиликка мувофиқ, Статистика агентлиги ҳар йилнинг 20 январигача МИСни эълон қилиши лозим. Ўтган йили МИС икки марта оширилди — йил бошида олдинги йилдаги 8,7 фоизлик инфляция фонида 9,3 фоизга, кейин эса 1 майдан газ ва электр энергияси тарифларининг кескин кўтарилиши муносабати билан яна 4,3 фоизга ошди. Бу кўрсаткич ойига 648 минг сўмни ташкил этади. Жорий йилда янги МИС кўрсаткичи ҳали эълон қилинмаган. 2022 йилдан бошлаб
«Ижтимоий ҳимоя ягона реестри» ахборот тизими орқали оилани кам таъминланган деб эътироф этишда қўлланиладиган бир ойлик ўртача даромад мезони минимал истеъмол харажатларига тенглаштирилди. Баъзи нафақалар ва бошқа ижтимоий меъёрлар минимал истеъмол харажатларидан кам бўлмаган миқдорда тўланиши керак.

Истиқболда Ўзбекистонда кўп ўлчовли камбағаллик индексини жорий этишни режалаштирмоқда, бу аҳолининг турмуш шароитларини янада аниқроқ баҳолаш ва камбағалликка қарши курашиш бўйича манзилли чора-тадбирларни ишлаб чиқиш имконини беради.

Молиялаштириш манбалари, иқтисодий ресурсларни тақсимлаш усуллари ва ижтимоий ҳимоя тизимининг тузилиши мамлакатнинг ўзига хос шароитларига мослаштирилиши керак. Шу билан бирга, мамлакатнинг ижтимоий ҳимоя тизимини янада ривожлантириш ва молиялаштиришнинг янги усулларини излаш зарур. Бу, ўз навбатида, аҳолининг фаровонлигини ошириш ва мамлакатнинг барқарор ривожланишига хизмат қилади. Камбағалликни қисқартириш ва аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири бўлиб, унинг муваффақияти аҳолининг ҳаёт сифатини яхшилаш ва ижтимоий адолатни таъминлашга боғлиқдир.

NAMANGAN VILOYATI AHOLI DAROMADLARI DARAJASI BO‘YICHA IJTIMOIY-IQTISODIY TABAQALANISH DINAMIKASINING TAHLILI

Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii

Annotatsiya. Mazkur tezisda Namangan viloyati aholisining 2014-2025 yillar daromadlari ko‘rsatkichlarining taqsimlanishining statistik tahlili amalga oshirildi, aholi daromadlarining taqsimlanishi va aholining daromadlar bo‘yicha tabaqalanish darajasi Jini koeffisienti va Lorens egri chizig‘i asosida tadqiq qilindi va aholi daromadlarini prognozlash uchun AR modeli tuzildi.

Kalit so‘zlar: aholi daromadlari empirik tahlili, daromad,Jini koeffitsienti,Lorens egri chizigi, AR modeli.

Kirish.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 21-maqsadida: “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash uchun iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kiritish maqsad qilib belgilangan” [1].

Shunga asosan, aholining turmush darajasini tahlil qilish, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va eng muhimi, alohida aholi guruhlarining ijtimoiy himoyasini tashkil etish uchun daromadlar to‘g‘risida ob’ektiv ma’lumotlarni to‘plash va statistik tahlil qilish zarur. Daromad iqtisodiy o‘sish va aholining moddiy farovonligini ijtimoiy rivojlanishni aks ettiruvchi muhim iqtisodiy ko‘rsatkichdir[2]. Agar daromad taqsimoti adolatli bo‘lsa, mamlakatda ijtimoiy farovonlik oshadi, qashshoqlik darajasi pasayadi.Hozirgi vaqtda bir qator mamlakatlarda iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishi aholining va uning alohida qatlamlarining turmush darajasiga, shuningdek, ularning daromadlari va xarajatlari darajasi va tarkibiga u yoki bu darajada sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Namangan viloyati aholi daromadlari notekis taqsimlanishining ekonometrik tahlilini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan statistik ma’lumotlar Namangan viloyati Statistika Qo‘mitasining rasmiy veb-saytidan [4] olindi va 1-jadvalda keltirildi. 1-jadvaldagi statistik ma’lumotlar aholining daromadlari-Y_t deb belgilab oldik,

1-jadval 2014-2025 yillar uchun aholi daromadlari (joriy narxlarda, ming so‘m) va o‘sish surati.

Yillar	Aholi daromadlari-Y_t	Aholining umumiy daromadlari o‘sish sur’ati, % da
2014	9 197.5	117.0
2015	10 607.2	115.3
2016	12 470.6	117.6
2017	16 747.4	134.3
2018	20 079.4	119.9
2019	24 857.5	123.8
2020	28 538.4	114.8
2021	35 689.4	125.1
2022	43 918.0	123.1
2023	48 708.4	110.9
2024	57 510.0	118.1
2025	67 350.3	117.1

Jadvaldan ko‘rish mumkinki Namangan viloyati aholisi daromadlari yildan-yilga jadal oshib bormoqda.Vaqt qatorlari tahlilida deskriptiv statistika natijalari muhim ahamiyatga ega. Aholi daromadlari bo‘yicha deskriptiv statistika natijalari 1-rasmda keltirilgan

```
. summarize Aholi_daromadi
```

Variable	Obs	Mean	Std. dev.	Min	Max
Aholi_daro~i	12	31306.19	19367.72	9197.535	67350.34

```
. sktest Aholi_daromadi

Skewness and kurtosis tests for normality
```

				Joint test	
Variable	Obs	Pr(skewness)	Pr(kurtosis)	Adj chi2(2)	Prob>chi2
Aholi_daromadi	12	0.3182	0.5443	1.56	0.4587

1-rasm (deskriptiv statistika)

1-rasmda daromad bo‘yicha vaqt qatorlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari, standar chetlanishlar, ekssess(kurtosis), asimmetriya(skewness) va boshqa xarakteristikalari keltirilgan.Yuqorida qayd etilgan ekssessva asimmetriya xarakteristikalar uchun hisoblangan natijalar asimmetriya va ekssessning ahamiyatlilik shartlarini qanoatlantiradi. Vaqt qatorining taqsimlanishi normal taqsimotga amal qiladi. Jarque-Bera testining natijalari ham buni tasdiqlaydi. JB=1.56, prob.=0.4587>0.05 bo‘lgani sababli, normal taqsimot gipotezalari qabul qilinadi.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni xarakterlash uchun birinchi tartibli farqlarga ega avtoregression modellarni ko‘rib chiqaylik.Aholi daromadi uchun birinchi tartibli farqlarga ega avtoregression modeli ahamiyatli ekanligini tekshirish uchun Wald chi2 testidan foydalanildi va natijalar Y_t uchun 2-rasmda keltirilgan.

```
ARIMA regression

Sample: 2015 thru 2025                          Number of obs     =         11
                                                Wald chi2(1)      =       3.90
Log likelihood = -100.4038                      Prob > chi2       =     0.0483
```

D. Aholi_daromadi	Coefficient	OPG std. err.	z	P>|z|	[95% conf.	interval]
Aholi_daromadi						
_cons	5380.244	1606.893	3.35	0.001	2230.79	8529.697
ARMA						
ar						
L1.	.6779797	.3433116	1.97	0.048	.0051013	1.350858
/sigma	2166.22	749.7273	2.89	0.002	696.7818	3635.659

2-rasm AR1 modeli

Wald chi2(1) = 3.9 Prob > chi2 = 0.0489 p=0.0489 < 0.05 → AR(1) parametri ahamiyatli 2-rasmda keltirilgan natijalarga asosan, aholi daromadi dinamikasining birinchi tartibli farqlarga ega formal avtoregression modeli quyidagicha:

$$Y_t = 5380.24 + 0.678 \cdot Y_{t-1} + \varepsilon(t)$$

Tenglamaning ildizi: z ≈ 1.97, ya'ni |z| > 1. Demak, jarayon birinchi tartibli farqlar bilan statsionar hisoblanadi.

Aholi daromadlari dinamikasini tahlil qilishning eng mashhur usullari Lorens egri chizig'i va Jini koeffitsiyentini qo'llashdir. Jini koeffitsiyenti 0 dan 1 gacha qiymat qabul qiladi. Agar natija 1 ga yaqin bo'lsa, daromad taqsimotidagi tengsizlik yuqori, indeks 0 ga yaqinlashganda esa daromad taqsimotida teng taqsimot mavjudligini ko'rsatadi.

Excel dasturiy paketida (daromadlar hisob kitobga ko'ra detsilga almashtirilgan) amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, Jini indeksi 0.295 ga teng bo'lib, aholi daromadlarining taqsimlanishi va Lorens indekslari asosidagi ijtimoiy tabaqalanish darajasi 3-rasmda grafik tarzda keltirilgan.



Figure 1: Lorenz egri chizig'i ($G = 0.295$)

3-rasm Lorenz egri chizig'i

3-rasmda aholi daromadlari va aholi uchun to'plangan chastotalar o'rtasidagi bog'liqlik keltirilgan. Lorens egri chizig'i (nuqtali egri chiziq) daromadlarning teng taqsimlanish chizig'idan (to'g'ri chiziq) biroz uzoqda joylashgan bo'lib, bu daromadlar taqsimotida yuqori konsentratsiya darajasi mavjud emasligini va o'rtacha darajada trendga amal qilinayotganini ko'rsatadi. Bu aholi tomonidan olinadigan daromad va aholi guruhlari bo'yicha daromad ulushi o'rtasidagi nisbatning qisman adekvatligini ko'rsatadi. Shuningdek, Namangan viloyati aholi daromadlari uchun Jini koeffitsiyenti 0.295 ekanligini hisobga olsak, daromad taqsimoti o'rtacha darajada, deyishimiz mumkin.

Xulosa

Namangan viloyati 2014-2015 yillar uchun aholi daromadlari taqsimlanishining statistik tahlili amalga oshirildi.Aholining daromad ko'rsatkichlari bo'yicha vaqt

qatorlarining empirik tahlili o‘tkazildi, deskriptiv statistika, Jarque-Bera testi tekshirildi. Jarque-Bera testiga ko‘ra Y_t, vaqt qatorlarida normal taqsimot, ADF testiga ko‘ra daromadda birinchi tartibli farqlarda trend-konstanta holatida statsionarlik aniqlangan.

Aholining ijtimoiy tabaqalanish darajasi Jini indeksi va Lorens muvozanat egri chizig‘i orqali xarakterlandi. Jini koeffitsiyenti hisoblab chiqildi va natijalar grafikda tasvirlangan hamda mavjud ma’lumotlar asosida tegishli approksimatsiya funksiyasi bilan Lorens egri chizig‘idan foydalangan holda aholining tabaqalanish darajasini vizual ko‘rsatuvchi mutlaq muvozanat egri chizig‘i qurildi.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DAVLAT MOLIYAVIY SHAFFOFLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
Mintaqaviy iqtisodiyot yo‘nalishi, tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat moliyaviy shaffofligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ularning institutsional-iqtisodiy mexanizmlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida raqamli transformatsiya sharoitida shaffoflikni ta’minlashga to‘sqinlik qiluvchi omillar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar taklif etiladi. Natijada, davlat moliyaviy tizimida ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish orqali korrupsion xavflarni kamaytirish hamda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, davlat moliyaviy shaffofligi, ochiq budjet tizimi, elektron hukumat, raqamli platformalar, korrupsiyaga qarshi kurash.

Natijalar muhokamasi

Zamonaviy davlat boshqaruvining demokratik transformatsiyasi jarayonida moliyaviy shaffoflik nafaqat korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy instrumenti, balki byudjet siyosatining samaradorligi va ijtimoiy adolat tamoyillarining amalda tatbiq etilishining fundamental shartiga aylanib ulgurdi. An’anaviy moliyaviy hisobot tizimlari, o‘zining tarkibiy murakkabligi va ma’lumotlarni taqdim etishdagi kechikishlari tufayli, fuqarolik jamiyati institutlari va manfaatdor tomonlar tomonidan real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyatini ta’minlay olmaydi. Aynan shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida raqamli texnologiyalarning moliyaviy boshqaruv tizimiga integratsiyasi global miqyosda jadal sur’atlar bilan amalga oshirilmoqda, bu jarayonning mantiqiy davomi sifatida esa ochiq byudjet ma’lumotlari, blokcheyn asosidagi tranzaktsiyalar va sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari kabi yangi institutsional mexanizmlar vujudga kelmoqda.

Agar davlat moliyaviy nazorati va byudjet jarayonlarining shaffofligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni tizimli tahlil qiladigan bo‘lsak, unda quyidagi to‘siqlarni alohida

ajratib ko‘rsatish mumkin: birinchidan, turli davlat organlari va idoralari o‘rtasida ma’lumotlarning parchalanganligi (data fragmentation) — ya’ni bir xil moliyaviy ko‘rsatkich turli reestrlarda turlicha format va vaqt oralig‘ida aks ettiriladi, bu esa yaxlit va ishonchli rasmni shakllantirishni amalda imkonsiz qiladi; ikkinchidan, moliyaviy axborotlarning fuqarolar va jamoatchilik uchun murakkabligi va maxsus tayyorgarlikni talab qilishi — ya’ni byudjet tizimining o‘ziga xos terminologiyasi va hisobot shakllari oddiy fuqaro tomonidan tushunilmaydi, bu esa shaffoflikning o‘zining asosiy maqsadi — jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi; uchinchidan, moliyaviy operatsiyalarning real vaqt rejimida monitoring qilinmasligi — an’anaviy audit va nazorat faqat hisobot davri tugaganidan keyin amalga oshiriladi, natijada qonunbuzilishlar aniqlangan paytga kelib, mablag‘lar allaqachon sarflangan bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar esa ushbu to‘siqlarning har biriga nisbatan muayyan yechimni taklif etadi: parchalangan ma’lumotlar muammosiga — davlat ma’lumotlarining yagona integratsion platformalari va API interfeyslari orqali o‘zaro bog‘lanishi; axborotlarning murakkabligi muammosiga — ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va interaktiv dashboardlar yordamida qayta ishlash, bunda foydalanuvchi faqat o‘ziga kerakli bo‘lgan darajadagi detallarni ko‘radi; kechikkan nazorat muammosiga esa — real vaqt rejimidagi tranzaktsion monitoring va prognozli tahlil algoritmlari. Binobarin, raqamli transformatsiya moliyaviy shaffoflikni faqatgina texnik jihatdan emas, balki institutsional va madaniy jihatdan ham tubdan o‘zgartiradi, chunki ma’lumotlarning ochiqligi va qayta ishlanishi natijasida davlat organlari o‘rtasida yangi turdagi javobgarlik mexanizmlari shakllanadi.

Ochiq ma’lumotlar siyosatining moliyaviy shaffoflik nuqtayi nazaridan eng muhim jihati shundaki, u nafaqat ma’lumotlarning mavjudligini, balki ularning mashinali o‘qish imkoniyatini (machine-readability) ham talab qiladi. Ya’ni byudjet ko‘rsatkichlari PDF yoki jPG kabi qattiq formatlarda emas, balki CSV, JSON, XML kabi tizimli va dasturiy qayta ishlashga yaroqli formatlarda taqdim etilishi lozim. Mazkur talabning amalga oshirilishi natijasida mustaqil tahlilchilar, jurnalistlar va fuqarolik tashkilotlari byudjet ma’lumotlarini o‘z xohishlariga ko‘ra qayta ishlash, o‘zaro solishtirish va turli vaqt oralig‘idagi o‘zgarishlarni avtomatik kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida “Ochiq byudjet” portalining mavjudligi ijobiy qadam bo‘lishiga qaramay, ma’lumotlarning to‘liq emasligi, ba’zi bo‘limlarning vaqtida yangilanmasligi va mashinali o‘qish imkoniyatining cheklanganligi ushbu mexanizmning samaradorligini pasaytiradigan asosiy omillardan hisoblanadi.

Yagona moliyaviy ma’lumotlar platformasi konsepsiyasi barcha davlat organlari — G‘aznachilik, Soliq qo‘mitasi, Bojxona qo‘mitasi, jamg‘armalar va byudjet tashkilotlari — ma’lumotlarini bir xil formatda, bir xil texnik standartlar va bir xil xavfsizlik talablari ostida birlashtiradi. Mazkur platformaning mavjudligi quyidagi muhim natijalarga olib keladi: birinchidan, fuqarolar va tadbirkorlar turli davlat

xizmatlaridan foydalanganda ularning moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bir marta kiritilib, qayta-qayta so‘ralmaydi; ikkinchidan, davlat moliyaviy nazorati organlari uchun yaxlit va real vaqt rejimidagi tahliliy hisobotlarni shakllantirish imkoniyati tug‘iladi; uchinchidan, platforma orqali taqdim etilgan ochiq API’lar mustaqil ishlab chiqaruvchilarga byudjet ma’lumotlari asosida turli mobil ilovalar va analitik vositalarni yaratish imkoniyatini beradi, bu esa shaffoflikning “pastdan yuqoriga” (bottom-up) mexanizmlarini faollashtiradi.

Xalqaro tajribaning tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy shaffoflikni oshirishning eng muvaffaqiyatli modellari Skandinaviya mamlakatlari (Norvegiya, Shvetsiya, Daniya), Boltiqbo‘yi davlatlari (Estoniya, Litva) va Janubi-Sharqiy Osiyoning ayrim mamlakatlari (Singapur, Janubiy Koreya) tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu mamlakatlarning umumiy xususiyati — ular nafaqat texnologik yechimlarni joriy etgan, balki davlat boshqaruvining barcha darajalarida ochiqlik madaniyatini institutsional darajada mustahkamlagan. Masalan, Estoniyada “X-Road” tizimi nafaqat davlat idoralarining o‘zaro ma’lumot almashinuvini, balki har bir fuqaroning o‘ziga tegishli moliyaviy ma’lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi uchun quyidagi bosqichma-bosqich tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin:

Ma’lumotlar standartlashtirish va yagona formatga o‘tish — birinchi navbatda barcha davlat organlari va byudjet tashkilotlari uchun moliyaviy hisobotlarning yagona raqamli standarti (masalan, XBRL — eXtensible Business Reporting Language) joriy etilishi lozim, chunki mazkur standart moliyaviy ma’lumotlarning avtomatik tahlil qilinishi va o‘zaro solishtirilishini ta’minlaydi.

Ochiq byudjet portalini to‘liq funktsional holatga keltirish — portalda byudjet daromadlari va xarajatlarining har bir moddasi bo‘yicha oylik, hatto haftalik yangilanishlar amalga oshirilishi, shuningdek ma’lumotlar CSV va JSON formatlarida yuklab olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Davlat xaridlari uchun pilot blokcheyn loyihasini ishga tushirish — masalan, yo‘l qurilishi yoki farmatsevtika kabi firibgarlik xavfi yuqori bo‘lgan tarmoqlarda blokcheyn asosidagi tender va to‘lov tizimini sinov tariqasida joriy etish.

SI asosidagi moliyaviy monitoring tizimini bosqichma-bosqich joriy etish — dastlab soliq tushumlari prognozini avtomatlashtirish, so‘ngra byudjet xarajatlari monitoringiga o‘tish va nihoyat, barcha moliyaviy oqimlarni qamrab oluvchi yagona analitik platformani yaratish.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish — “Ochiq ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonunga moliyaviy ma’lumotlarning ochiqligi bo‘yicha qo‘shimcha talablar kiritish, shuningdek raqamli platformalarda shakllantirilgan moliyaviy yozuvlarning huquqiy ahamiyatini aniq belgilash.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar asosida davlat moliyaviy shaffofligini oshirish nafaqat texnik vazifa, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadigan kompleks ijtimoiy-texnik transformatsiyadir. Ochiq byudjet ma’lumotlari, blokcheyn, sun’iy intellekt va bulutli platformalar integratsiyalashgan holda qo‘llanilganda, ular byudjet jarayonining har bir bosqichi — rejalashtirish, tasdiqlash, ijro etish va nazorat — ustidan jamoatchilik nazoratini amalda va real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Biroq shuni alohida ta’kidlash lozimki, raqamli yechimlarning o‘zi, ular qanchalik mukammal bo‘lmasin, siyosiy iroda va institutsional islohotlarsiz samarali bo‘la olmaydi: agar davlat organlari ochiqlikka tayyor bo‘lmasa yoki ma’lumotlarni ataylab to‘liqsiz yoki kechiktirib taqdim etsa, hech qanday blokcheyn yoki SI bunday sharoitda haqiqiy shaffoflikni ta’minlay olmaydi. Shuning uchun raqamli transformatsiya va ochiqlik madaniyatini rivojlantirish bir-birini to‘ldiruvchi, parallel va o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida olib borilishi zarur. O‘zbekiston uchun esa bugungi kunda mazkur ikki yo‘nalishda tizimli va bosqichma-bosqich harakat qilish nafaqat moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, balki umuman davlat boshqaruviga bo‘lgan ishonchni tiklash va mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Xamidjonov Bobirjon Anvarjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Annotatsiya: Taqdim etilgan maqolada zamonaviy sharoitda ichki audit xizmatlarini tashkil etishning muhim jihatlariga to‘xtalib o‘tiladi. Unda budjet mablag‘laridan samarali foydalanish va budjet xarajatlari samaradorligini ta’minlashda nazorat organlarining roli va faoliyat mexanizmiga e’tibor qaratilgan. Budjet mablag‘larini oluvchilarda ichki audit xizmatini joriy etish natijasida davlat dasturlari va loyihalarini yanada samarali amalga oshirishni ta’minlash mumkin bo‘ladi. Demak, ichki nazorat va auditni kuchaytirish orqali tashkilotlar budjet mablag‘larini yanada samaraliroq boshqarishi, ulardan to‘g‘ri foydalanishni nazorat qilishi va rejalashtirilgan natijalarga erishishi imkoni paydo bo‘ladi.

Kalit so`zlar: ichki moliyaviy audit, ichki nazorat, davlat xarajatlari, natijaviylik, unumdorlik, samaradorlik, tejamkorlik, davlat moliyaviy nazorati.

Mamlakat iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida iqtisodiyotning davlat sektoridagi huquqbuzarliklar, budjet mablag‘larini suiiste’mol qilish, firibgarlik natijasida moliyaviy va moddiy yo‘qotishlar muammosining yuzaga kelishi barchani birdek tashvishga solishi tayin. Shu nuqtayi nazardan, ichki nazorat tizimini tashkil etish hamda moliyaviy nazoratni kuchaytirish doirasida moliyaviy yo‘qotishlarni minimallashtirish,

davlat mablag‘larini samarasiz va noto‘g‘ri ishlatish xavfini kamaytirishning ahamiyati dolzarb bo‘lib qolmoqda va davlat uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda.

Ushbu masalalarni eng to`g`ri yechimi sifatida davlat sektorida ichki audit muhum axamiyat kasb etadi. Ichki auditning asosiy vazifasi – buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligini tekshirish, qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy intizomni ta’minlash, shuningdek, tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ichki audit xodimlari nafaqat mavjud moliyaviy hujjatlar asosida tahlil olib boradi, balki tashkilotda risk omillarini oldindan aniqlab, ularni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqadi.

Budjet tashkilotlarida ichki audit bo‘limlari ko‘pincha rahbariyatga bevosita bo‘ysunadi, bu esa auditorlarning mustaqil xulosa berish imkoniyatini cheklaydi. Shu bois, ichki audit xizmatlarini to‘liq mustaqil tuzilma sifatida tashkil etish, ularning faoliyatini faqat yuqori nazorat organlariga hisobot beruvchi tarzda yo‘lga qo‘yish zarur. Yana bir muhim masala–bu audit jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligidir.

Alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlardan yana biri — ichki audit natijalarining ijtimoiy ahamiyati. Budjet tashkilotlari davlat mablag‘lari hisobidan faoliyat yuritganligi bois, ularning moliyaviy shaffofligi va samaradorligi jamiyat uchun bevosita ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ichki audit natijalarining muhim xulosalari, ularning amalga oshirilishi holati va tavsiyalarning ijrosi haqida ochiq axborot berish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu esa audit faoliyatining ishonch va ijtimoiy nazorat omiliga aylanishini ta’minlaydi.

Shu bois ichki audit tizimini takomillashtirish masalasi — bu faqat iqtisodiy yoki buxgalteriya sohasiga oid texnik ish emas, balki davlat boshqaruvi, korrupsiyaga qarshi kurash, ijtimoiy ishonch va barqaror taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan dolzarb islohot yo‘nalishidir.

SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIYOTDA FORMAL VA INFORMAL SEGMENTLARIDAGI XO‘JALIK YURITISH JARAYONLARIGA KO‘RSATADIGAN TA’SIR MEXANIZMLARI

Axmedov Abdulla Otamurod o’g’li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq siyosatining iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy segmentlariga ko‘rsatadigan ta’sir mexanizmlari tahlil qilinadi. Soliq siyosati fiskal strategiya sifatida resurslar taqsimoti, investitsiya qarorlarining shakllanishi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatish orqali makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashda muhim vosita ekanligi yoritiladi. Adabiyotlar

sharhida xalqaro va milliy tadqiqotlar asosida norasmiy sektorni soliqqa tortishning afzalliklari va qiyinchiliklari, rasmiylashtirish jarayonida soliq yuklari, ijtimoiy himoya va ma’muriy xarajatlarning roli ko‘rsatib beriladi. Empirik tahlillar soliqqa rioya etish darajasi, soliqdan bo‘yin tovlash holatlari va ularning dinamikasi orqali rasmiy hamda norasmiy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Tadqiqot natijalari soliq siyosatini takomillashtirish, soliq intizomini mustahkamlash va norasmiy iqtisodiy faoliyatni qisqartirish uchun institutsional hamda rag‘batlantiruvchi choralar zarurligini asoslaydi.

Kalit so’zlar

Soliq siyosati, rasmiy sektor, norasmiy sektor, soliqqa tortish, soliq yuklari, soliq intizomi, fiskal strategiya.

Kirish. Soliq siyosati davlatning fiskal strategiyasi va soliqqa tortish mexanizmlariga oid yondashuvlarini ifodalaydi. U jismoniy hamda yuridik shaxslarning soliqqa tortilish tartibi, amaldagi stavkalar, imtiyozlar va normativ-huquqiy me’yorlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Mazkur siyosat resurslar taqsimoti, investitsiya qarorlarining shakllanishi hamda iqtisodiy subyektlarning xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatish orqali makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Soliq siyosati yordamida iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, daromadlar va boylikning adolatli taqsimlanishini ta’minlash, shuningdek, davlat byudjeti daromadlarini optimallashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Soliq stavkalari va imtiyozlar tizimining o‘zgarishi hukumatlarga investitsiya muhitini yaxshilash, bandlik darajasini oshirish hamda soliq yukining ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq taqsimlanishini ta’minlash kabi aniq iqtisodiy maqsadlarga erishish imkonini beradi. Umuman olganda, soliq siyosati davlat tomonidan ichki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish va boshqarish uchun qo‘llaniladigan kompleks fiskal instrument sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy global iqtisodiy tizim rasmiy va norasmiy sektorlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqadorlikka ega bo‘lib, ikki yo‘nalishli tuzilmani tashkil etadi. Rasmiy sektor — bu hukumat tomonidan tan olingan, qonunchilik asosida tartibga solinadigan va institutsional nazorat ostida faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyektlar majmuasidir. Ushbu sektorga soliq to‘lovchi, ro‘yxatdan o‘tgan, me’yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qiluvchi korxonalar hamda hujjatlashtirilgan mehnat munosabatlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar kiradi. Rasmiy sektor odatda yirik korxonalar, institutsional tashkilotlar va rasmiy bandlikni ta’minlovchi subyektlar bilan tavsiflanadi.

Adabiyotlar sharhi

Soliq siyosatining rasmiy va norasmiy iqtisodiy faoliyatga ta’siri turli adabiyotlarda o‘rganilgan bo‘lib, ushbu tadqiqotlar soliq siyosati o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni, norasmiy sektorlarning o‘sishini va iqtisodiy rivojlanish hamda boshqaruv uchun kengroq ta’sirlarni yoritib beradi. Jumladan, A.Joshi va boshqalar fikricha, “Norasmiy iqtisodiyotni soliqqa tortish bo‘yicha bahslar ko‘pincha uning cheklangan daromad salohiyati va kichik firmalarga mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlarga

qaratiladi. Biroq, so‘nggi muhokamalar iqtisodiy o‘sish va boshqaruvni yaxshilash kabi norasmiy soliqqa tortishning bilvosita afzalliklarini ta’kidlab, uning xarajatlari va afzalliklarini ko‘proq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.” [1]

F. Mpofu Afrika misolida, norasmiy sektorni soliq tarmog‘iga kiritishga e’tibor turli sabablarga ko‘ra, jumladan, daromadlarni safarbar qilish va boshqaruv yutuqlari bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Ushbu tanqidiy ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki, norasmiy sektorda samarali soliqqa tortish ushbu motivatsiyalar va rasmiylashtirishga to‘sqinlik qiluvchi to‘siqlarni chuqur tushunishni talab qiladi. [2]

Ulyssea.G tahlili bo’yicha norasmiylikka rasmiyatchilik va ijro siyosati xarajatlari ta’sir qiladi. Rasmiylik xarajatlarini kamaytirishning o‘zi norasmiylikni kamaytirmasligi mumkin, lekin ishlab chiqarish va mahsuldorlikni oshirish kabi ijobiy jami ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Norasmiylikning keng chegarasi bo‘yicha majburiyatlarning kuchayishi ishsizlikni ko’paytirmasdan yalpi ishlab chiqarishda sezilarli yutuqlarga erishish potentialini ko’rsatadi. E'tibor beradigan bo'lsak, soliq siyosati rasmiy va norasmiy sektorlar o'rtasidagi dinamikani shakllantirishda, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish muvofiqlik xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Norasmiy iqtisodiyotni soliqqa tortishda qiyinchiliklar mavjud bo'lsada, strategik siyosat rasmiylashtirishni rag'batlantirishi, soliqqa rioya qilishni yaxshilashi va kengroq iqtisodiy va boshqaruv imtiyozlarini yaratishi mumkin. [3]

Ergashev va hamkasblari ta’kidlaydiki, yuqori soliq yuklari, mehnatga oid majburiy to‘lovlar va soliq-ma’muriy yuk kichik va o‘rta biznesni rasmiylashtirmaslikka undaydi; bu norasmiy sektor ulushining oshishiga sabab bo‘ladi. Mualliflar empirik tahlillar orqali soliqqa tortish darajasi va norasmiy iqtisodiyot o‘rtasida ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. [4]

X.B. Zaripov va S.A. Voronin — soliq siyosatini modernizatsiya qilish zarurati mavzusidagi izlanishlarida soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish va soliq bazasini kengaytirish orqali rasmiy sektorga integratsiyani qo‘llab-quvvatlash mumkinligini ta’kidlaydi. Ularning tahlillari 2021–2021 yillardagi islohot bosqichlarini baholab, erishilgan natija va qolgan muammolarni ko‘rsatadi. [5]

S. Amirjanova, T. Mendaliyev va boshqa milliy tadqiqotchilar — sektoral yondashuv va ijtimoiy himoya mavzusidagi maqolasida milliy tadqiqotlar norasmiy sektor strukturasini (qishloq xo‘jaligi, xizmatlar, qurilish va boshqalar) hisobga olgan siyosat yo‘nalishlarini taklif qiladi. Ular rasmiylashtirishni rag‘batlantirish uchun soliqqa tortish bilan birga ijtimoiy himoya (pensiya, tibbiy sug‘urta) va moliyaviy savodxonlikni uyg‘unlashtirish kerakligini ta’kidlaydi. [6] Amirjanova va Mendaliyev rasmiylashtirish jarayonini faqatgina majburiy soliq to‘lovlari bilan bog‘lash noto‘g‘ri ekanini asoslaydi. Ularning fikricha, agar rasmiy sektor ishtirokchilari soliq to‘lash evaziga real va sezilarli ijtimoiy kafolatlar (pensiya ta’minoti, tibbiy sug‘urta, mehnat huquqlarining himoyasi)

olmasa, rasmiylashtirish iqtisodiy jihatdan jozibador bo‘lmaydi. Shu bois, soliq siyosati ijtimoiy siyosat bilan uzviy bog‘liq holda olib borilishi lozim.

Pinskaya norasmiy iqtisodiyotni qisqartirishda soliq ma’muriyati siyosatining muhimligini ta’kidlaydi: ma’muriy bosimni kamaytirish, soddalashtirilgan rejimlar va raqamli xizmatlar orqali compliance xarajatlarini kamaytirish zarur. Shuningdek, risk-boshqaruv yondashuvlari (targeted audits, monitoring) samarali yo‘l ekanligi ko‘rsatiladi. [7]

Tahlil va natijalar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, soliq siyosati rasmiy iqtisodiy faoliyatning shakllanishi va barqaror rivojlanishida muhim, ba’zan esa hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Puxta o‘ylangan va muvozanatli soliq siyosati iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qilishi mumkin. Aksincha, haddan tashqari yuqori yoki samarasiz soliq yuklari rasmiy sektorning kengayishiga to‘sqinlik qilib, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning norasmiy faoliyatga o‘tish ehtimolini oshiradi.

Soliq siyosatining samaradorligi, odatda, davlat byudjeti daromadlarini ta’minlash bilan bir qatorda tadbirkorlik subyektlari uchun rasmiy iqtisodiyot doirasida faoliyat yuritishga qulay institutsional muhit yaratish o‘rtasidagi muvozanatga erishish darajasi bilan belgilanadi. Xususan, foyda solig‘i stavkalarining maqbul darajada belgilanishi va investitsiyalar uchun beriladigan soliq imtiyozlari korxonalarni kapital qo‘yilmalarni oshirishga, ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga hamda rasmiy iqtisodiy munosabatlar doirasida faoliyat olib borishga undaydi. Bunday rag‘batlar natijasida kapital jamg‘arilishi tezlashib, bandlik darajasining oshishiga zamin yaratiladi.

Shuningdek, foyda solig‘i stavkalari nisbatan past va raqobatbardosh bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari tezlashib, milliy iqtisodiyotning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligi ortadi. Bu esa o‘z navbatida ko‘proq xo‘jalik yurituvchi subyektlarni rasmiy sektorda faoliyat yuritishga jalb qilish imkonini beradi.

Soliq imtiyozlari va chegirmalar rasmiy sektor doirasida muayyan faoliyat turlarini rag‘batlantirishga qaratilgan muhim fiskal vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mamlakatimiz amaliy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun joriy etilgan soliq imtiyozlari tadbirkorlik faolligining oshishiga hamda rasmiy iqtisodiy faoliyat ko‘lamining kengayishiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Masalaga muqobil nuqtai nazardan yondashilganda, soliqqa tortishning qat’iy va izchil choralari xo‘jalik yurituvchi subyektlarni soliq qonunchiligi talablariga rioya etishga hamda o‘z faoliyatini rasmiy maydonga olib chiqishga undovchi omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday yondashuv rasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan subyektlar faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, samarali ishlab chiqilgan soliq siyosati va uning ijrosini ta’minlovchi institutsional mexanizmlar soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini qisqartirish, soliq yukining

iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida adolatli taqsimlanishini ta’minlash hamda rasmiy iqtisodiy tizimga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Rasmiy me’yorlar va institutsional tuzilmalar doirasidan tashqarida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat bilan tavsiflanadigan norasmiy sektor ham soliq siyosatining bevosita va bilvosita ta’siriga uchraydi. Shu bois, soliq siyosatining norasmiy iqtisodiyotga ta’sir mexanizmlarini chuqur tahlil qilish norasmiy bandlik, soliqdan qochish va umuman iqtisodiy tizimning ichki muvozanatini ta’minlash bilan bog‘liq muammolarni hal etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavjud statistik va tahliliy ma’lumotlarga tayangan holda olib borilgan izlanishlarimizni davom ettirar ekanmiz, 1-jadvalda 2021–2024-yillar davomida soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha soliq to‘lovchilar faoliyatining dinamik tahlili keltirilgan bo‘lib, mazkur jadval soliq intizomi va norasmiy faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

1-jadval

2021-2024-yillarda soliqdan bo’yin tovlash bo’yicha soliq to’lovchilarning faoliyati tahlili, mlrd.so’mda

№	Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2024
1	Buxgalteriya hisobini yuritmagan korxonalar soni	615	358	1160	491	574
2	Soliq obyektini yashirgan korxonalar soni (SK-223)	6871	2323	20031	7406	8665
3	Soliq tekshiruvlarida qo‘shimcha soliq hisoblangan korxonalar soni	32444	41105	88404	107197	125420
4	Nazorat kassa mashinalarini yuritmagan korxonalar soni	9888	11854	8241	65764	76944
5	Soliq turlari bo‘yicha soliq bazasini asossiz kamaytirib ko‘rsatgan korxonalar soni	687	2323	1160	7406	8665

1-jadvaldagi ma’lumotlarni tahlil qilib, uning norasmiy faoliyat bilan bog‘liq tomonlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, buxgalteriya hisobini yuritmagan korxonalar soni 2021-yilda 615 ta, 2022-yilda yanada pasaygan (358), ammo 2023-yilda keskin ortgan (1160), 2024-yilda yana kamaygan (491) va (574). Tegishli buxgalteriya hisobiini yuritmaydigan korxonalar sonining o'zgarishi iqtisodiyoting turli sohalarini me'yoriy-huquqiy bazadan tashqarida faoliyat yuritayotgan segmentining ko'lamini ko'rsatadi. Bu subyektlar rasmiy nazorat va soliqqa tortishdan qochib, norasmiy sektorning muhim qismi bo'lishi mumkin.

Soliq obyektini yashirgan korxonalar soni 2021-yildan 2024-yilgacha ko'rsatkichda o'sish va pasayishlar kuzatilgan. 2022-yilda bu ko'rsatkich keskin oshgan (20 031), bu ehtimol soliq organlarining tekshiruvlari samaradorligini oshirish bilan

bog'liq. Soliq obyektlarini yashiradigan korxonalarning katta qismi soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga qasdadan urinshdan dalolat beradi, bu norasmiy faoliyatning umumiy xususiyati hisoblanadi. 2022-yilda pandemiya holatlarining keskin o'sishi norasmiy iqtisodiy faoliyatning o'sishi yoki soliq organlari tomonidan aniqlash harakatlarining yaxshilanganligini ko'rsatishi mumkin.

Soliq organlarida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritgan korxonalar soni 2022-yilda pandemiya munosabati bilan tekshiruvlar o'tkazilmagan. Bu ko'rsatkich 2023-yilda 2 857 ta va 2024-yilda 3342 taga yetgan, bu pandemiyadan keyin tekshiruvlarning faollashuvini ko'rsatadi. Ma'lumotlar soliq ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yurituvchi kompaniyalar sonining o'zgarishini 2023-yilda sezilarli darajada bilan ko'rsatmoqda. Bu norasmiy faoliyatning bevosita ko'rsatkichidir, chunki bunday korxonalar rasmiy tan olinmagan va shuning uchun soliqqa tortilmaganligini anglatsa, boshqa tomondan budjetga tushadigan soliq tushumlarining to'lanmasligiga sabab bo'lgan.



Soliqdan bo’yin tovlagan korxonalar (1-rasm)

Soliq tekshiruvlarida qo'shimcha soliq hisoblangan korxonalar soni 2021-yildan 2024-yilgacha muntazam oshgan, bu soliq organlarining tekshiruv samaradorligi va soliq bazasini kengaytirishga bo'lgan urinshlarini aks ettiradi. Tekshiruvlar davomida qo'shimcha soliqlar hisoblangan korxonalar sonining doimiy o'sib borishi ko'pchilik xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z daromad to'g'risida kam hisobot berishlari yoki soliq majburiyatlarini kamaytirish uchun boshqa usullar bilan shug'ullanishlarini ko'rsatadi.

Diagrammadan ko‘rinishicha, 2021–2024-yillar davomida soliqdan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq holatlar soni umumiy trend sifatida ortib boruvchi dinamikani namoyon etgan. Ayniqsa, soliq tekshiruvlari jarayonida qo‘shimcha soliq hisoblangan korxonalar sonining keskin oshgani soliq intizomi muammolari hali ham dolzarbligini saqlab

qolayotganidan dalolat beradi. Ushbu ko‘rsatkich 2022-yildan boshlab sezilarli darajada ko‘payib, 2024-yilga kelib eng yuqori darajaga yetgan.

Nazorat-kassa mashinalaridan foydalanmaslik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar 2023–2024-yillarda ayniqsa keskin oshgan. Bu holat xizmatlar va savdo sohalarida norasmiy pul aylanmasi hanuz yuqori ekanini, shuningdek, ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliq nazoratidan chetlab o‘tishga urinishlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, soliq obyektini yashirish va soliq bazasini asossiz kamaytirib ko‘rsatish bilan bog‘liq holatlar yillar kesimida notekis bo‘lsa-da, barqaror saqlanib qolgan. Bu esa soliq qonunchiligidagi murakkabliklar, soliq ma’muriyatchiligi bilan bog‘liq muammolar hamda ayrim korxonalar moliyaviy savodxonligining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Buxgalteriya hisobini yuritmaslik holatlari nisbatan kamroq ulushni tashkil etgan bo‘lsa-da, ularning mavjudligi norasmiy faoliyatning institutsional asoslari hali to‘liq bartaraf etilmaganini anglatadi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari orasida hisob yuritish madaniyatini rivojlantirish zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, mazkur tendensiyalar soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bilan bir qatorda, profilaktik va rag‘batlantiruvchi choralarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, soliq to‘lovchilar uchun shaffof va qulay shart-sharoitlar yaratish, raqamli nazorat vositalarini keng joriy etish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish norasmiy faoliyatni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, soliq siyosati rasmiy iqtisodiy faoliyatni shakllantirish va barqaror rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib, uning samaradorligi davlat byudjeti daromadlarini ta’minlash bilan birga tadbirkorlik subyektlari uchun qulay muhit yaratish darajasi bilan belgilanadi. Foyda solig‘i stavkalari va soliq imtiyozlarining maqbul belgilanishi kapital qo‘yilmalarni oshirish, bandlikni kengaytirish va rasmiy sektorga jalb qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, haddan tashqari yuqori soliq yuklari va murakkab ma’muriy tartiblar korxonalarni norasmiy faoliyatga o‘tishga undashi mumkin.

Empirik ma’lumotlar soliqdan bo‘yin tovlash holatlarining ortib borayotganini ko‘rsatib, soliq intizomi muammolari dolzarbligini tasdiqlaydi. Nazorat-kassa mashinalaridan foydalanmaslik, soliq obyektlarini yashirish va soliq bazasini asossiz kamaytirish kabi holatlar norasmiy iqtisodiy faoliyatning keng tarqalganligini anglatadi. Shu bois, soliq siyosatini takomillashtirishda fiskal choralar bilan bir qatorda profilaktik va rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish, raqamli nazorat vositalarini joriy etish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va ijtimoiy himoya tizimi bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, maqola soliq siyosatining rasmiy va norasmiy sektorlar o‘rtasidagi murakkab dinamikani yoritib, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun kompleks fiskal yondashuv zarurligini asoslaydi.

БАНКЛАРНИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРЁНИДА ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФОНД БОЗОРИДАГИ ФАОЛИЯТИ

Муминов Бекзод Полвонович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
мустақил тадқиқотчиси

Бозор иқтисодиёти шароитида тижорат банклари муҳим молиявий институт сифатида бўш пул маблағларини маълум шартлар асосида жалб қилиш орқали иқтисодиёт тармоқларини молиялаштириш, субъектлар ўртасидаги ўзаро ҳисоб-китобларни амалга ошириш, аҳоли даромадларини ошириш кабиларда муҳим аҳамият касб этиши аксариятимизга маълум. Бунда тижорат банкларининг фонд бозоридаги фаолиятининг самарали ташкил этилганлиги юқори келтирилган жиҳатларнинг тўлиқ ишлаши муҳим ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан аввало тижорат банкларининг фонд бозоридаги фаолияти назарий жиҳатлари хусусида тўхталиб ўтамиз.

Ҳозирги вақтга келиб тижорат банкларининг фонд бозоридаги фаолияти, улар фаоллигини ошириш масаласи миллий халқаро даражада тадқиқотчилар ва иқтисодчиларнинг эътиборидаги масалалардан биридир. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги иштироки кўп томонламалиги бунга маълум даражада сабаб бўлмоқда. Яъни банклар бунда қимматли қоғозлар эмиссияси орқали капитал жалб қилиш, қимматли қоғозларга инвестиция киритиш, воситачилик асосида бошқа эмитентлар қимматли қоғозларини жойлаштириш кабилар орқали фонд бозоридаги фаолликни оширишга, молиявий ресурслар ва даромадлар таркибини диверсификациялашга интилмоқда. Шу боисдан ҳам тадқиқотчиларнинг бу борадаги қарашларида умумийлик ва ўзига хос фарқли жиҳатлар кузатилади.

Агарда қонунчиликда бирор бир чекловлар бўлмаса, тижорат банклари фонд бозорида эмиссион фаолият, инвестицион фаолият ва воситачилик фаолияти билан шуғулланишлари мумкин ҳамда шу орқали капитал таркибини ва актив операциялар орқали даромадлар таркибини диверсификациялаши мумкин.



1- расм. Тижорат банклари қимматли қоғозлар бозорида

Юқоридаги жадвалда тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги воситачилик фаолият нисбатан очиқроқ берилган. Бу борада айрим иқтисодий адабиётларда тижорат банкларининг андеррайтерлик, дилерлик фаолиятлари ҳам тилга олинади ва ҳақиқатда амалиётда ҳам бунга гувоҳ бўлишимиз мумкин.

1- жадвал

Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги фаолияти йўналишлари

№	Фаолият йўналиши	Фаолият воситаси	Фаолиятдан мақсад	Пировард натижа
1.	Эмиссион фаолият	Акция Корпоратив облигация Депозит сертификати Еврооблигация Халқаро акция	Устав капиталини шакллантириш ва ошириб бориш ҳамдақарзкапитали жалб қилиш	Молиявий ресурслар билан таъминланади

2.	Воситачилик фаолияти	Андеррайтер Депозитарий Ишончли бошқарувчи Инвестицион маслаҳатчи Клиринг Дилер Брокер	Қўшимча фаолият йўналишисифатида даромад манбасига эга бўлиш ва ўз қимматли қоғозларини жойлаштириш тажрибасини ошириш	Фонд бозори профессионал иштирокчиси сифатида даромадга эга бўлинади ва бозор таҳлили асосида ўз қимматли қоғозлари муомалага чиқарилади
3.	Инвестицион фаолият	Акцияларпортфели Корпоратив облигациялар портфели Давлат қимматли қоғозларипортфели ва бошқалар	Актив операциялар орқали даромад олиш манбаларини диверсификациялаш	Кредитдан ташқари инвестицион фаолият бўйича даромадга эга бўлинади.

Умумий ҳолда тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги айнан учала йўналиш бўйича фаолияти хусусиятларини ўрганиш мақсадида қуйидаги жадвалда батафсилроқ назарий таҳлил ўтказамиз.1-жадвал маълумотлари асосида қайд этиб ўтишимиз лозимки, тижорат банклари фаолияти асосини акциялар эмиссияси ташкил этади. Чунки тижорат банклари фаолиятини бошлаш асносида устав капиталини шакллантириш талаб этилади. Устав капитали эса бевосита акция эмиссия қилиш ва таъсисчилар ўртасида жойлаштириш ҳисобига шакллантирилишини қайд этиб ўтишимиз лозим. Тижорат банклари воситачилик фаолияти орқали эса андеррайтер, депозитарий, ишончли бошқарувчи, инвестицион маслаҳатчи, клиринг, дилер, брокер каби воситачилик хизматларини таклиф қилиши мумкин.

Корпоратив облигациялар эса тижорат банклари томонидан қўшимча қарз капитали жалб қилиш ва жалб қилинадиган қарз капиталини диверсификациялаш мақсадида муомалага чиқарилади ҳамда жойлаштирилади. Чунки аксарият ҳолатларда гувоҳ бўламизки, депозит сертификатлари чиқарилиши, омонат ва депозитлар жалб қилиниши банкларнинг асосий молиявий ресурслари бўлиб хизмат қилади. Шундай шароитда корпоратив облигацияларнинг ҳам муомалага чиқарилиши капитал таркиби оптималлашувига хизмат қилади. Бошқа томондан

корпоратив облигациялар муваффақиятли жойлаштирилиши ва ўз вақтида улар бўйича хизмат кўрсатилиши истиқболда қўшимча акциялар эмиссияси муваффақиятида ҳам муҳим ҳисобланади.

XX аср иккинчи ярмидан бошлаб глобал молия бозорида халқаро облигациялар бозори, жумладан еврооблигациялар бозори ҳам юқори суръатларда ривожлана бошлади. Еврооблигациялар эмитент фаолият юритаётган мамлакатдан ташқарида, хорижий валютада, масалан АҚШ долларида жойлаштириладиган облигациялар, бўлиб корпоратив ва суверен еврооблигацияларга бўлинади. Айнан ўтган давр мобайнида тижорат банклари томонидан ҳам корпоратив еврооблигациялар муомаласи орқали капитал жалб қилишга, бу борада халқаро фонд бозорига чиқишга устуворлик берилиб келинмоқда. Бу борада республикамиздаги тижорат банклари томонидан амалий ишлаб бошланди.

Ўз навбатида тижорат банкларида халқаро акциялар чиқариш ва жойлаштириш, депозитар тилхатлар воситасида хорижий капитал жалб қилиш масаласида ам халқаро фонд биржаларига интилиш мавжуд. Бу борада банклар томонидан хақаро IPO ва SPO амалиётлари ўтказиш орқали тўғридан-тўғри хорижий инвестиция жалб қилиш масаласи стратегик молиявий мақсадлардан бири сифатида кўзга ташланишига гувоҳ бўлишимиз мумкин.

Умумий ҳолда қимматли қоғозлар эмиссияси орқали тижорат банкларининг фонд бозоридаги фаолияти аниқ узвийликка асосланади.



2- расм. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар эмиссияси билан боғлиқ амалиётлар узвийлиги

Тижорат банкларининг эмитент сифатида акциялар ва корпоратив облигациялар муомалага чиқариши бўйича алоҳида шартлар мавжуд.

Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар бозоридаги воситачилик фаолияти маълум бир чегаралар истисно ҳолатларда қимматли қоғозлар бозори ва банк фаолияти қонунчилиги асосида амалга оширилади. Бунда мижоз номидан ва ҳисобидан, банк номидан ва ҳисобидан қимматли қоғозлар билан боғлиқ операцияларда воситачиликка рухсат берилиши мумкин.

Қимматли қоғозларга қўйилмалар аҳамияти ва миқдорига кўра тижорат банкларининг актив операциялари таркибида кредитлашдан сўнг иккинчи ўринда туради. Кредит тақдим этиш банкнинг бош функцияси ҳисоблансада, банк бошқаруви жами активларда қимматли қоғозлар портфелини ошириб бориш мақсадида активлар таркибига эътибор қаратади. Бунда қимматли қоғозлар турлари асосида тижорат банклари акциялар портфели, корпоратив облигациялар портфели, давлат қимматли қоғозлари портфелини қонунчилик асосида шакллантириши мумкин. Шу ўринда қимматли қоғозлар турлари бўйича портфель шакллантирилиши асносида эмитентлар таркибини ҳам ҳисобга олиш, уларни фаолият юритаётган соҳа ва тармоқлар кесимида диверсификациялаш лозимлигини алоҳида қайд этиб ўтишимиз лозим.

Тижорат банкларининг қимматли қоғозларга инвестициялари қарз муносабатини англатувчи қимматли қоғозларга, улуш муносабатини англатувчи қимматли қоғозларга йўналтирилиши мумкин. Улуш муносабатларини англатувчи акцияларга инвестициялар назорат пакетига эгалик қилиш тартибида, дивиденд олиш мақсадида ва курслар фарқи асосида даромад олиш мақсадида йўналтирилиши ва шу асосда ҳам портфеллар шакллантирилиши мумкин. Лекин, айрим давлатларда акциялар назорат пакетига эгалик қилиш бўйича чекловлар амал қилишини ҳам яна бир бор таъкидлаб ўтамиз.

Бошқа томондан тижорат банклари ва инвестицион банклар бўйича акцияларга инвестициялар юзасидан алоҳида тартиблар белгиланган бўлиши ҳам мумкин.

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI BUXGALTERIYA BALANSI VA UNING TAHLILI

Qulmurotov Sohibjon Jumaniyozovich
Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kaferdirasi katta o'qituvchisi
Suyunova Zamira Obidjon qizi
Qarshi davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya: buxgalteriya balansi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holatini aks ettiruvchi asosiy hisobot shaklidir. Ushbu tadqiqotda balansning tarkibi, aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar

yordamida korxona barqarorligi, likvidlilik va to‘lov qobiliyati baholanadi. Shuningdek, tahlil usullari va moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi amaliy ahamiyati o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari korxona faoliyatini samarali boshqarish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya, balans, moliyaviy, holat, tadbirkorlik, subyektlar, tahlil, aktivlar, majburiyatlar, xususiy, capital, korxona,lividiklik.

KIRISH

Buxgalteriya hisobi bu zamonaviy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy faoliyatini aniqlash, nazorat qilish va boshqarish jarayonida eng muhim axborot manbai hisoblanadi. Ayniqsa, buxgalteriya balansi - korxonaning ma’lum bir davr oxiridagi moliyaviy holatini aks ettiruvchi asosiy moliyaviy hisobot bo‘lib, u korxonaning aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitali to‘g‘risidagi umumlashtirilgan ma’lumotlarni taqdim etadi. Shu orqali korxona rahbariyati moliyaviy barqarorlik, likvidlilik va to‘lov qobiliyatini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Korxona moliyaviy resurslarining tarkibini aniqlash, ularni manbalar bilan taqqoslash va moliyaviy qarorlarni asoslash bu buxgalteriyaning asosiy omillaridan biridir. Balans ma’lumotlari asosida rahbariyat aktivlar va majburiyatlarning nisbati, xususiy kapitalning shakllanishi va korxona moliyaviy barqarorligi darajasini o‘rganadi. Shu sababli balans tahlili korxona faoliyatini rejalashtirish, resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni nazorat qilish va investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. 2025-yilning yanvar-sentabrida 62,2 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi. 2025-yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 22 918 ta, sanoatda 8 088 ta qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 7 714 ta hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 5 513 ta tashkil etilgan.



1- jadval. Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

2025- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 5 087 ta, sanoatda 1 250 ta, boshqa xizmatlarda 3 506 ta hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 134 ta tashkil etilgan.

Bugungi iqtisodiy sharoitda tadbirkorlik subyektlarining samarali va barqaror faoliyat yuritishi uchun moliyaviy holatni chuqur tahlil qilish zarur. Iqtisodiy islohotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonlari buxgalteriya balansining shakllanishi va tahlilini yangicha yondashuv bilan amalga oshirishni talab qiladi. Shu sababli korxonalarda moliyaviy ko‘rsatkichlarning to‘g‘ri va dolzarb tahlil qilinishi boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish va moliyaviy xavflarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.Tadqiqot natijalari korxona moliyaviy barqarorligini aniqlash, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, xarajatlarni nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini ilmiy asosga tayyorlash jarayonida qo‘llanilishi mumkin.

Tashkilotning moliyaviy holatini obyektiv baholash zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning eng muhim vazifasidir, chunki tashkilotning muvaffaqiyatli rivojlanishining sababi uning moliyaviy barqarorligidadir. Har qanday xo’jalik yurituvchi subyekt ishining yakuniy natijalari moliyaviy resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanish sifatiga bog8liq. Tashkilotning moliyaviy holatiga aksiyadorlar, xomashyo va materiallar yetkazib beruvchilar, potensial investorlar, kredit va soliq organlari qiziqish bildiradi. Tashkilotni iqtisodiy jihatdan to’g’ri boshqarish ko’p jihatdan uning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini xolisona tahlil qilish qobiliyatiga bog8liq bo8lib, bu barqaror va samarali faoliyat yuritish hamda rivojlanishning garovidir (Surikova, 2014). Moliyaviy faoliyat tahlili pul oqimlari harakati, to’lov qobiliyati va kreditga layoqatlilik, xarajatlar darajasi, xususiy va qarz kapitali harakati, o8tgan davrdagi faoliyatning iqtisodiy natijalari to’g’risidagi ma’lumotlarni kelgusi sharoitlar va faoliyat natijalarini baholash maqsadida o’rganish jarayonidir. Moliyaviy holat ko’rsatkichlarini hisoblash, tahlil qilish va baholashning axborot bazasi tashkilotning mulkiy va moliyaviy ahvoli hamda uning xo8jalik faoliyati natijalari to’g’risidagi ma’lumotlarning yagona tizimi sifatida moliyaviy hisob ma9lumotlari asosida foydalanuvchilar tomonidan muayyan ishbilarmonlik qarorlarini qabul qilish uchun qulay va tushunarli bo’lgan hisobot shaklida tuziladigan buxgalteriya hisoboti hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida moliyaviy hisobot asosiy kommunikatsiya vositasi, tashkilot faoliyati samaradorligini o’rganish, uning istiqbolini ta’min

Tadqiqot doirasida quyidagi masalalar ham ko‘rib chiqiladi: korxona aktivlarining tarkibi va ularning samarali foydalanilishi, majburiyatlar va xususiy kapital tuzilishi, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni baholash usullari. Bu esa tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy tahlilning dolzarbligini va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Doimiy tahlil qilib turush korxona rahbariyati uchun moliyaviy qarorlarni asoslash va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi va xatoliklarni kamaytirishga

yordam beradi. Shu bilan birga, balans ma‘lumotlari asosida korxonaning moliyaviy barqarorligi, likvidlilik darajasi va to‘lov qobiliyati tahlil qilinadi, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadbirkorlik subyektlarida buxgalteriya balansi va uning tahlili moliyaviy nazoratning ajralmas qismi bo‘lib, korxona faoliyatini rejalashtirish va boshqarishda ilmiy asosga ega bo‘lish imkonini beradi. Shu bilan birga, balans tahlili korxona moliyaviy barqarorligini oshirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va investitsion faoliyatni samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Kreditlar 509 676 mlrd so‘mdan 581 057 mlrd so‘mga oshgan. Bu aholiga va korxonalarga berilgan kreditlar hajmining kengayganini bildiradi. Kredit portfeli o‘sishi, iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi muhim ko‘rsatkich sifatida qaraladi.

Depozitlar 283 138 mlrd so‘mdan 363 725 mlrd so‘mga o‘sdi Bu aholining banklarga ishonchi oshganini va banklar orqali moliyaviy resurslar oqimi kengayganini ko‘rsatadi. Depozitlarning o‘sishi, banklarning likvidlik darajasini yaxshilashga yordam beradi.

2024-2025 yillarda O‘zbekiston banklarining moliyaviy holati barqaror va ijobiy o‘sish yo‘lida. Aktivlar va kreditlar hajmining oshishi, moliyaviy tahlil nuqtai nazaridan banklarning investitsiya va kredit berish imkoniyatlarini kengaytirganini ko‘rsatadi. Majburiyatlar va depozitlar o‘sishi banklar balansini ko’rishimiz mumkin.

	Jami	shundan:				
		Yakka tartib-dagi tadbir-korlik	Dehqon xo‘jaliklari	Oilaviy tadbir-korlar	Hunar-mandlar	Import tovarlari sotuvchilar
O‘zbekiston Respublikasi	**733 052**	**281 861**	**422 309**	**5 841**	**22 100**	**941**
Qoraqalpog‘iston Resp.	33 235	17 248	14 478	525	981	3
Andijon	97 169	26 834	68 103	141	2 058	33
Buxoro	48 848	17 216	29 815	363	1 434	20
Jizzax	31 557	9 921	20 630	76	923	7
Qashqadaryo	58 919	22 833	34 353	305	1 427	1
Navoiy	19 356	7 427	11 457	45	419	8
Namangan	62 403	20 142	39 739	52	2 024	446
Samarqand	83 027	29 559	50 693	570	2 179	26
Surxondaryo	46 260	16 655	28 675	135	786	9
Sirdaryo	21 915	8 057	13 370	36	449	3
Toshkent	52 030	25 279	23 780	1 189	1 731	51
Farg‘ona	74 066	28 326	42 823	146	2 743	28
Xorazm	61 668	14 711	44 353	612	1 982	10
Toshkent sh.	42 599	37 653	40	1 646	2 964	296

2- jadval. Faoliyat yuritayotgan, yuridik shaxs tashkil etmagan tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo‘yicha soni 2025-yil 1-oktabr holati

Yakka tartibdagi tadbirkorlik jami - 281 861

Import tovarlari sotuvchilar soni - 941

2024 yilda aktivlar 731 605 mlrd so‘m bo‘lsa, 2025 yilda 863 136 mlrd so‘mga yetdi. Bu +17 % o‘sishni bildiradi va banklar tizimining umumiy moliyaviy resurslari sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi. Aktivlar o‘sishi, ayniqsa kreditlar va investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish uchun asos yaratadi.

Majburiyatlar 625 507 mlrd so‘mdan 734 374 mlrd so‘mga oshgan. Bu banklar tomonidan jalb qilingan mablag‘lar va qarz majburiyatlarining oshganini bildiradi. O‘sish darajasi aktivlar o‘sishiga nisbatan biroz pastroq bo‘lib, moliyaviy barqarorlik saqlanayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya balansi tadbirkorlik subyektining moliyaviy holatini to‘liq va tizimli aks ettiruvchi muhim hujjat hisoblanadi. Unda korxonaning aktivlari, majburiyatlari va o‘z kapitali o‘zaro bog‘liq holda ifodalanadi hamda moliyaviy barqarorlik darajasini baholash imkonini beradi. Balansni tahlil qilish orqali korxonaning to‘lovga qobiliyati, likvidligi va moliyaviy mustaqilligi aniqlanadi. Bu esa rahbariyatga asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yordam beradi. Shu sababli, buxgalteriya balansini to‘g‘ri tuzish va muntazam ravishda tahlil qilib borish tadbirkorlik subyektining samarali faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

THE IMPACT OF INTEGRATED RISK MANAGEMENT (IRM) AND PREDICTIVE ANALYTICS ON BUDGETARY EFFICIENCY IN PUBLIC SECTOR ORGANIZATIONS

Nilufar Abdullayeva

Senior teacher of TSUE :

Iskandarova Umida Asliddin qizi

Student of Tashkent State University of Economics

Abstract: This research investigates the systemic inefficiencies inherent in incremental budgeting frameworks within public sector organizations. By applying Principal-Agent theory, the study demonstrates how traditional fiscal models facilitate information asymmetry and "budgetary slack." It proposes a transition toward an Integrated Risk Management (IRM) system supported by predictive analytics. By synthesizing multi-variate data streams including macro-economic volatility and demographic shifts this model aims to minimize budget variance and optimize the marginal social utility of public funds.

Keywords: Institutional Path Dependency, Stochastic Fiscal Modeling, Predictive Governance, Integrated Risk Management (IRM), Budgetary Resilience, Macro-Economic Volatility, Strategic Resource Optimization, Fiscal Transparency, Digital Public Infrastructure, Performance-Based Accountability.

The Economic Critique of Incrementalism: In public finance, incremental budgeting represents a path-dependent failure where future allocations are determined primarily by historical baselines rather than objective resource utility[232]. From an economic perspective, this creates a "soft budget constraint" where organizations have no incentive to minimize costs. This reliance on the prior year's data ignores the marginal cost of public funds and fails to account for exogenous shocks (inflation spikes or supply chain disruptions). The result is institutionalized inefficiency, characterized by "budgetary slack" the intentional overestimation of needs by agents to hedge against future uncertainty.

To rectify these market-like failures in a non-market environment, public entities must implement an Integrated Risk Management (IRM) framework. This framework acts as a mechanism to reduce information asymmetry between the Treasury (Principal) and the Budgetary Organization (Agent)[233]. By utilizing predictive analytics, the IRM system transforms the budget from a static legal document into a dynamic economic instrument. This enables the implementation of "Rolling Forecasts," allowing for the continuous reallocation of capital based on real-time shifts in the opportunity cost of expenditures.

Risk Variable	Economic Rationale	Forecasting Influence	Fiscal Outcome
Macro-Economic Shifts	Purchasing Power Parity	Adjusts for inflation and currency risk.	Preventsreal-value deficits.
Demographic Volatility	Public Good Demand	Forecasts marginal demand for services.	Optimizes equitable distribution.
Stochastic Events	Externalities	Models "Black Swan" event probabilities.	Enhancesstructural resilience.
Institutional Execution	Agency Efficiency	Correctsfor chronic "Slack" and underspending.	Maximizes capital utilization.

Figure 1: Comparative Analysis of Forecasting Accuracy (Incremental vs. Predictive)

Figure 1 provides a quantitative evaluation of the Mean Absolute Percentage Error (MAPE). In Year 3, a period of heightened macro-economic volatility, the incremental model shows a variance of >10%, indicating a failure to adapt to shifting price levels. Conversely, the Predictive IRM model maintains a variance below 3%. This

[232] **OECD (2023).** *Public Budgeting and Expenditure Frameworks.* This source outlines the shift from input-based to output-based budgeting. https://www.oecd.org/governance/budgeting/

[233] **IFAC (2022).** *Evaluating and Improving Internal Control in Organizations.* Essential for understanding risk thresholds in public entities. https://www.ifac.org/knowledge-gateway/supporting-international-standards

demonstrates that the integration of non-financial stochastic variables such as regional GDP growth and population density significantly stabilizes fiscal projections.

The predictive model's rigor depends on its ability to incorporate both financial and non-financial endogenous and exogenous variables[234].

Conclusion: The modernization of financial management in budgetary organizations is not merely a technical task but an economic necessity. The integration of Predictive Analytics into a wider IRM framework addresses the fundamental problems of information asymmetry and moral hazard in the public sector[235]. While the transition requires substantial initial capital investment in digital infrastructure, the long-term reduction in budget variance and the optimization of social welfare provide a significant positive Net Present Value (NPV) for the state. Ultimately, predictive governance ensures that public resources are allocated based on objective economic necessity rather than political or historical inertia.

DAVLAT XARIDLARI SOHASIDAGI QONUNCHILIK HUJJATLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
TDIU "Budjet hisobi va g'aznachilik" kafedrasi professori
Xusnitdinova Muxlisa Ravshan qizi
TDIU magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda Davlat xaridlarini amalga oshirishdagi mavjud qonun osti hujjatlarini yanada mukkammallashtirish hamda xarid jarayonini amaliyot bilan chambarchas holda yangi mavjud bo'lmagan qonun hujjatlarini modelini ishlab chiqishdan iborat bo'lgan konsepsiyani tahlili amalga oshirilgan. Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonidagi mavjud me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Xususan, amaldagi qonunosti hujjatlar va elektron tizimlarning o'zaro integratsiyasi yetarli darajada emasligi natijasida yuzaga kelayotgan muammolar ochib beriladi. Shuningdek, davlat xaridlari tizimini modernizatsiya qilish, yangi huquqiy mexanizmlar modelini ishlab chiqish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali shaffoflikni oshirish va inson omilini kamaytirish masalalari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Davlat xaridi, qonunchilik hujjatlari, elektron tizim, qonun, nizom, su'niy intelekt, shaffoflik, inson omili, tizim integratsiyasi.

[234] **IPSASB (2022).** *Handbook of International Public Sector Accounting Pronouncements.* The standard for accrual-based data quality. https://www.ipsasb.org/publications/2022-handbook-international-public-sector-accounting-pronouncements

[235] **World Bank (2024).** *Public Financial Management Modernization.* Analyzes the impact of transparency on GDP growth. https://www.worldbank.org/en/topic/governance/brief/public-financial-management

Kirish: Hozirgi glaballashuv jarayonida Davlat xaridlari tizimi katta strategik ahamiyatga ega shu munosabat bilan davlat tomonidan xaridlarni amalga oshirish jarayonida maqsadlar aniq belgilangan holda tartibga solinadi.

Bugungi kunda rivojlantirish davlat dasturlarini ijro etish davlatning ijtimoiy vazifalarini bajarish maqsadida elektron tizim va qulayliklarni yaratib kelinayotgan bo‘lsa-da biroq, me’yoriy huquqiy hujjatlarning davlat xaridini amalga oshirishda o‘zaro chambarchas bog‘lanishlarning mavjud bo‘lmagani tufayli bu tizimda bir necha muammolarni vujudga kelishiga omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Xaridni amalga oshirishdagi mavjud elektron yagona tizim xarid.uz dan foydalanish chog‘ida quyidagi asosiy jihatlar doirasida muammolar yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Texnika (tizm)

Inson omili (malaka)

Shaffoflikning yetishmasligi

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” va “Davlat xaridlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 684-son qonun qarori amaliyotda davlat xaridlarini tartibga solishda juda muhim bo‘lsa-da, uni qo‘llash jarayonida bir qator muammolar uchrab turadi.

Jumladan elektron tizimda qator texnik nosozliklar elektron xaridni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan nizom qoidalarini buzilishiga olib keladi. Natijada ishtirokchilar teng sharoitda qatnasha olmaydi chunki ularning hujjatlari tizimga yuklashda tizim sekin ishlashi oqibatida osilib qolishi yoki hujjatlarni yuklashda osilib qolishi mumkin va huddi munosabat bilan ishtirokchilarning elektron platformaga ishonchi kamayadi.

Xarid jarayonida me’yoriy huquqiy hujjatlarning buyurtmachi va ishtirokchilar tomonidan platformaga yuklashda qoidalarga amal qilinmagani esa malakali kadrlarning yetishmagani tufayli sodir bo‘ladi. Qaror talablarini to‘liq ravishda o‘rganmagan buyurtmachi texnik topshiriqni aniq yoza olmaydi va noqonuniy talablar qo‘yadi. Ishtirokchilarning hujjatlarni yuklashida va tayyorlashida sodir bo‘lgan kamchiliklar tufayli tender bekor qilinadi yoki kechiktiriladi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillar tizim bilan bog‘liq bo‘lsa, shaffoflikning va tender jarayonida raqobatning yetishmasligiga inson omili ta’sir etadi. Bu esa davlat budjeti xarajatlarining ortishiga, mablag‘larning maqsadsiz sarflanishiga hamda jamoatchilik ishonchining pasayishiga sabab bo‘ladi. Malakali mutaxassislar yetishmasligi va hujjatlarni tayyorlashdagi xatoliklar esa tender jarayonlarining cho‘zilib ketishiga, loyihalarning kechikishiga va xizmat ko‘rsatish sifatining pasayishiga olib keladi. Natijada, davlat xaridlari tizimidagi bunday kamchiliklar davlat boshqaruvi samaradorligiga, iqtisodiy barqarorlikka va davlat dasturlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ba’zi elektron davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi yuz beradi. Misol uchun ba’zi tender jarayonlarida faqatgina bir yoki ikki ishtirokchi ishtirok

etadi yoki su’niy cheklovlar qo‘yiladi. Tenderni tashkil qilishda tender natijalari oldindan kelishiladi hamda sun’iy ravishda “o‘ziga kerakli yetkazib” beuvchini tanlash holatlari uchraydi.

Shu sababli Davlat xaridlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 684-son qonunining 31-moddasiga alohida e’tibor berishimiz zarur. Bu modda davlat xarididagi axborotlarga urg‘u berilgan bo‘lib bunda biz yuqorida qayd etgan muammolarga axborotlarni mukammallashtirgan holda davlat xaridi sohasida birmuncha yutuqlarga erishishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va boshqa organlar tomonidan real vaqt monitoringini va ochiq ma’lumotlar portalini joriy qilishgan taqdirda qonun buzilishlarni bir necha foizga kamayishiga erishiladi.

Yana shuni qo‘shimcha sifatida ta’kidlash lozimki barcha aytib o‘tilgan muammolarning yechimida Davlat xaridlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 684-son qonunining 5-moddasida qoralangan barcha prinsiplar jumladan:

kasbiy mahorat va mas’uliyatlilik;

asoslanganlik;

moliyaviy mablag‘lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

raqobat va xolislik;

mutanosiblik asosiy o‘rinni egallaydi.

Prinsiplarni to‘laqonli ishlashini elektron platformada tadbiq etish lozim bo‘ladi, bu bilan xarid jarayonini amalga oshirish mukammal bosqichiga olib chiqiladi. Keyingi o‘rinlarda xarid jarayonini tashkil etish va nazoratini kuchaytirishda sun’iy intelekt yordamida avtomatlashtirsak, inson omilini kamaytirish va adolatni kuchayadi. Elektron intelekt tizimi Davlat xaridini yuksaltiradi. Sababi bugungi kunda suniy intelektni faollashtirgan holda shubhali tenderlarni aniqlash osonlashadi , narxlar monitoringini kuchaytiriladi va tahlil qilinadi. Dastlabki elektron tizimni joriy qilish qiyinchiliklarga boy bo‘lishi tabiy, biroq bu sohani to‘liq su’niy elekton tizimga o‘tkazilsa budjet mablag‘lari tejab qolinadi va quyidagi afzalliklarga erishiladi:

Texnik topshiriqlarni tekshirish onsonlashadi

Raqobat oshiriladi

Shaffoflik kuchayadi

Online ravishda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi ntomonidan tekshiruv amalga oshiriladi

Ochiq ma’lumotlar portali joriy qilinadi.

BUDJET TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI MABLAG'LAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
"Budjet hisobi va g'aznachilik" kafedrasi professori, DSc.
Xusnitdinova Muxlisa Ravshan qizi
"O'zbekiston 24" Ijodiy birlashmasi Ijodiy-ishlab chiqarish xizmati Moddiy-texnik ta'minoti bo'limining 0.5 ish o'rinli Birinchi toifali mutaxassisi ,Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii Kechki ta'lim va magistratura fakulteti magistranti

Annotatsiya: Maskur tezisda budjet mablag'larini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lar hisobini takomillashtirishda jamg'arma mablag'lari korxonani yanada samarali ishlashida yordam beruvchi hisobni yuritish asosiy ahamiyat kasb etishi ya'ni jamg'arma mablag'larining taqsimlanishi va ulardan foydalanish hisobini to'liqligicha tadqiq etilgan. Shuning uchun bugungi kunda shaffoflikni taminlovchi qonun qoidalarni amal qilinishni tekshirish zamonaviy texnalogiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Modernizatsiyalashgan texnalogiyalarni amalda qo'llash nafaqat texnik bazani mustahkamlaydi balki,xodimlarni rag'batlantirishda va xizmatni yaxshilashda muhim manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Budjet mablag'lari, Budjet mablag'larini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, rivojlantirish jamg'armasi manbalari, g'azna hisob varag'i, moliyaviy nazorat, takomillashtirish, tahlil.

Kirish: Bugungi kunda byudjet tashkilotlarida jamg'arma mablag'larining shakllanishi, ularning hisobini yuritish hamda hisobotlarda aks ettirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Amaldagi hisob tizimida mavjud ayrim kamchiliklar moliyaviy nazorat samaradorligini pasaytirib, mablag'lardan foydalanish natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli byudjet tashkilotlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'larning iqtisodiy mohiyatini chuqur tahlil qilish hamda ularni hisobga olish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Byudjet tashkilotini rivojlantirish mablag'lari tashkilot ixtiyorida shakllanadigan va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, faoliyat samaradorligini oshirish hamda institutsional rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan moliyaviy resurslar majmuasini ifodalaydi. Ushbu mablag'lar odatda pullik xizmatlardan tushgan daromadlar, ijaradan olinadigan tushumlar, homiylik va grant mablag'lari, tejalgan byudjet mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan shakllanadi. Ushbu mablag'lar maqsadli yo'naltirilgan bo'lib, ularni maqsadsiz sarflash yoki ish haqi fondini oshirish uchun ishlatish cheklangan. Shu sababli mazkur mablag'lar bo'yicha alohida hisob yuritish va aniq hisob siyosatini belgilash muhim hisoblanadi.

Amaldagi holat va muammolar. Hozirgi kunda rivojlantirish mablag‘lari alohida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida yuritiladi. Hisob-kitoblar buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi, byudjet hisobining milliy standartlari hamda vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Biroq amaliyotda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, hisob registrlarining eskirganligi, mablag‘lardan foydalanish samaradorligini baholash bo‘yicha tahliliy yondashuvlarning yetarli emasligi, ichki moliyaviy nazoratning sustligi hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘liq foydalanilmasligi rivojlantirish mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklab kelmoqda.

Takomillashtirish zarurati. Rivojlantirish mablag‘lari hisobini takomillashtirish zarurati moliyaviy shaffoflikni ta’minlash, hisobotlarda aniqlikni oshirish, mablag‘larning maqsadli sarflanishini kuchaytirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli axborot bazasini yaratish bilan bog‘liq. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, hisob va nazorat tizimini modernizatsiya qilish byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Takomillashtirish yo‘nalishlari. Budjet tashkilotini rivojlantirish mablag‘lari hisobini takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

– rivojlantirish mablag‘lari bo‘yicha alohida hisob siyosatini ishlab chiqish, daromad va xarajatlarni tan olish hamda ularni hujjatlashtirish tartibini aniq belgilash;

– elektron hisob-kitob tizimlari va zamonaviy dasturiy vositalarni joriy etish orqali hisobning aniqligi va tezkorligini oshirish;

– mablag‘lardan foydalanish ustidan tizimli monitoringni yo‘lga qo‘yish va ichki audit mexanizmlarini kuchaytirish;

– tahliliy hisobni rivojlantirish orqali mablag‘lar samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish;

– buxgalteriya xodimlarining kasbiy malakasini oshirish orqali hisob va nazorat tizimi sifatini yaxshilash.

Xulosa qilib aytganda, byudjet tashkilotlarini rivojlantirish mablag‘lari hisobini takomillashtirish moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, mablag‘lardan oqilona foydalanishni ta’minlash hamda byudjet tashkilotlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

BUDJET TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI MABLAG'LAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
"Budjet hisobi va g'aznachilik" kafedrasi professori, DSc.
Xusnitdinova Muxlisa Ravshan qizi
"O'zbekiston 24" Ijodiy birlashmasi Ijodiy-ishlab chiqarish xizmati Moddiy-texnik ta'minoti bo'limining 0.5 ish o'rinli Birinchi toifali mutaxassisi ,Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii Kechki ta'lim va magistratura fakulteti magistranti

Annotatsiya: Maskur tezisda byudjet mablag'larini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lar hisobini takomillashtirishda jamg'arma mablag'lari korxonani yanada samarali ishlashida yordam beruvchi hisobni yuritish asosiy ahamiyat kasb etishi ya'ni jamg'arma mablag'larining taqsimlanishi va ulardan foydalanish hisobini to'liqligicha tadqiq etilgan. Shuning uchun bugungi kunda shaffoflikni taminlovchi qonun qoidalarni amal qilinishni tekshirish zamonaviy texnalogiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Modernizatsiyalashgan texnalogiyalarni amalda qo'llash nafaqat texnik bazani mustahkamlaydi balki,xodimlarni rag'batlantirishda va xizmatni yaxshilashda muhim manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Budjet mablag'lari, Budjet mablag'larini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, rivojlantirish jamg'armasi manbalari, g'azna hisob varag'i, moliyaviy nazorat, takomillashtirish, tahlil.

Kirish: Jamg'arma mablag'larining shakllanish manbalari, ularning hisobini yuritish va hisobotlarda aks ettirish tizimini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Amaldagi hisob tizimida ayrim kamchiliklar mavjud bo'lib, ular moliyaviy nazoratning sustlashishiga va mablag'lardan foydalanish samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Byudjet tashkilotini rivojlantirish mablag'larining iqtisodiy mohiyatiga to'xtalar ekanmiz unga chuqurroq ta'rif berishimiz darkor. Byudjet tashkilotini rivojlantirish mablag'lari – bu byudjet tashkilotlari tasarrufida shakllanadigan va ularning rivojlanishiga yo'naltiriladigan maxsus mablag'lar hisoblanadi. Ushbu mablag'lar quyidagi manbalar hisobidan shakllanishi mumkin:

pullik xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar;

ijaraga berishdan tushgan tushumlar;

homiylik va grant mablag'lari:

tejalgan byudjet mablag'lari;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Mazkur mablag'lar qat'iy maqsadli yo'naltirilgan bo'lib, ularni ish haqi fondini oshirish yoki byudjetdan tashqari boshqa ehtiyojlarga sarflash cheklangan. Bu holat rivojlantirish mablag'lari hisobini alohida yuritishni va aniq hisob siyosatini talab qiladi.

Rivojlantirish mablag‘lari hisobini tashkil etishning amaldagi holati

Amaldagi hisob tizimida byudjet tashkilotini rivojlantirish mablag‘lari alohida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida yuritiladi. Ularning hisobini yuritishda:

buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi;

byudjet hisobining milliy standartlari;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan me’yoriy hujjatlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq amaliyotda bir qator muammolar mavjud:

Bular hisob registrlarining eskirganligi, mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha tahlilning yetarli emasligi, ichki moliyaviy nazoratning sustligi varaqamli texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi. Ushbu muammolar rivojlantirish mablag‘laridan samarali foydalanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va rivojlantirish mablag‘lari hisobini takomillashtirish zaruratini oshiradi.

Rivojlantirish mablag‘lari hisobini takomillashtirish quyidagi zaruratlar bilan izohlanadi. Moliyaviy shaffoflikni ta’minlashni kuchaytirish hisob va hisobotlarda xatoliklarni tubdan kamaytirish hamda shu orqali mablag‘larning maqsadli sarflanishi keskin ravishda oshib boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli axborot bazasini yaratishga yordam beradi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy boshqaruv tajribasi shuni ko‘rsatadiki, byudjet tashkilotlarida hisob tizimini modernizatsiya qilish davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Byudjet tashkilotini rivojlantirish mablag‘lari hisobini takomillashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: rivojlantirish mablag‘lari bo‘yicha alohida hisob siyosatini ishlab chiqish, unda daromad va xarajatlarni tan olish, hujjatlashtirish va hisobotda aks ettirish tartibini aniq belgilash lozim. Elektron hisob-kitob tizimlari va avtomatlashtirilgan dasturlarni qo‘llash hisobning aniqligi va tezkorligini oshiradi. Mablag‘lardan foydalanish ustidan doimiy monitoring olib borish, ichki audit mexanizmlarini joriy etish zarur. Rivojlantirish mablag‘lari bo‘yicha xarajatlarning samaradorligini baholash, tahliliy ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Buxgalteriya xodimlarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish hisob tizimini sifat jihatdan yaxshilaydi.

BUDJET TASHKILOTLARIDA PULMABLAG‘LARI HISOBI VA NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
“Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi professori, DSc.
Yuldashev Bilolxon Saminjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii magistranti

Hozirgi iqtisodiy sharoitda davlat moliyasini samarali boshqarish, budjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari harakatini to‘g‘ri tashkil etish va uning ustidan samarali nazoratni ta’minlash davlat moliyaviy intizomini mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Budjet tashkilotlari faoliyati davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilishi sababli, ularda pul mablag‘lari hisobini yuritish va nazorat qilish jarayoni yuqori darajada shaffoflik, aniqlik va hisobdorlikni talab etadi. Shu jihatdan, mazkur sohada zamonaviy hisob va nazorat mexanizmlarini joriy etish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari hisobining iqtisodiy mohiyati

Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari hisobi — bu davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag‘larning tushumi hamda sarflanishini aks ettiruvchi buxgalteriya hisobining muhim yo‘nalishidir. Ushbu hisob tizimi orqali mablag‘larning harakati, ularning manbalari va foydalanish yo‘nalishlari nazorat qilinadi.

Pul mablag‘lari hisobining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

mablag‘larning maqsadli sarflanishini ta’minlash

moliyaviy intizomga rioya etilishini nazorat qilish

hisob-kitob operatsiyalarining to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirilishini ta’minlash

budjet mablag‘laridan samarali foydalanishni baholash

Amaliyotda budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari asosan g‘aznachilik tizimi orqali boshqariladi. Bu esa mablag‘lar harakatini markazlashtirilgan holda nazorat qilish imkonini beradi.

Pul mablag‘lari hisobini tashkil etish va nazorat tizimi

Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari hisobini tashkil etishda ichki va tashqi nazorat tizimi muhim o‘rin tutadi. Nazoratning asosiy maqsadi — mablag‘lardan noqonuniy yoki samarasiz foydalanish holatlarining oldini olishdan iborat.

Nazoratning asosiy turlari:

dastlabki nazorat (operatsiya amalga oshirishdan oldin)

joriy nazorat (operatsiya jarayonida)

keyingi nazorat (operatsiyadan so‘ng)

Ichki nazorat tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

moliyaviy operatsiyalarni tasdiqlash tartibi

vakolatlarni taqsimlash

hujjat aylanishi tizimi

ichki audit

Masalan, budjet tashkilotida xarid amalga oshirilishidan oldin mablag‘ning mavjudligi va maqsadliligi tekshiriladi. Bu dastlabki nazoratning amaliy ko‘rinishi hisoblanadi.

Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va pul mablag‘lari hisobi bo‘yicha bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Xorijiy olimlar davlat sektorida moliyaviy nazoratni samarali tashkil etishda shaffoflik va hisobdorlikni asosiy tamoyil sifatida ko‘rsatadilar. Ularning fikriga ko‘ra, budjet mablag‘laridan foydalanishda ochiqlik ta’minlanmasa, moliyaviy intizom buzilishi xavfi ortadi.

Ayrim tadqiqotchilar quyidagi xulosaga kelgan: davlat moliyasini boshqarishda kuchli nazorat tizimi mavjud bo‘lmasa, mablag‘lar samarasiz sarflanish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Mahalliy olimlar esa, budjet tashkilotlarida hisob va nazorat tizimini takomillashtirishda g‘aznachilik tizimini rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligini ta’kidlaydilar.

Shuningdek, ilmiy izlanishlarda elektron budjet tizimlari orqali mablag‘lar harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati nazorat samaradorligini oshirishi qayd etilgan. Rivojlangan davlatlarda budjet mablag‘lari ustidan nazorat yuqori darajada tashkil etilgan bo‘lib, u davlat moliyasini boshqarishning asosiy elementi hisoblanadi.

AQSh tajribasi:

budjet mablag‘lari ustidan kuchli parlament nazorati

ichki va tashqi audit tizimining integratsiyasi

shaffoflikni ta’minlovchi ochiq ma’lumotlar bazasi

Yevropa davlatlari tajribasi:

budjet jarayonlarining to‘liq raqamlashtirilishi

davlat xarajatlarining jamoatchilik tomonidan nazorati

hisobdorlikning yuqori darajasi

Amaliyotda ko‘plab davlatlarda “elektron budjet” tizimi joriy etilgan bo‘lib, bu mablag‘lar harakatini shaffof va nazoratli qilish imkonini beradi.

Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari nazoratini takomillashtirish yo‘nalishlari

Quyidagi yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

g‘aznachilik tizimini yanada rivojlantirish

ichki audit xizmatini kuchaytirish

raqamli hisob va nazorat tizimlarini joriy etish

moliyaviy intizomni mustahkamlash

xodimlarning malakasini oshirish

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari hisobi va nazoratini takomillashtirish davlat moliyasini samarali boshqarishning muhim sharti hisoblanadi. Mening fikrimcha, ushbu yo‘nalishda quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish zarur: hisob va nazorat jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish, ichki audit tizimini rivojlantirish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish, xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish.

Agar pul mablag‘lari ustidan nazorat yetarli darajada tashkil etilmasa, ularning samarasiz sarflanishi kuzatiladi. Shu sababli, zamonaviy nazorat mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

ДАВЛАТ БЮДЖЕТ ЛОЙИҲАСИНИ ТАЙЁРЛАШДА БЮДЖЕТ СЎРОВИ ВА УНДАГИ ДАВЛАТ БУЮРТМАСИНИНГ АҲАМИЯТИ

Мухиддинов Азизжон Камардинович

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Давлат бюджети сиёсати департаменти бош иқтисодчиси, мустақил изланувчи

Ривожланаётган мамлакатлар учун давлат бюджети маблағларининг самарадорлиги ва натижадорлигини ошириш масаласи иқтисодиётни рағбатлантириш, тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш орқали мамлакатнинг барқарор иқтисодий ва ижтимоий ривожланишининг муҳим аҳамиятга эга.

Давлат бюджети фақат даромад ва харажатларнинг йиллик молиявий режаси бўлиб қолмасдан, миллий манфаатларни амалга ошириш, иқтисодиётнинг устувор тармоқларини молиявий таъминлаш, инфратузилмани ривожлантириш ва аҳолининг турмуш даражасини тизимли равишда оширишнинг асосий стратегик инструменти сифатида майдонга чиқади.

Унинг самарадорлигини таъминлаш иқтисодий ўсишнинг барқарорлигини ошириш, ресурсларни оптимал тақсимлаш ва жамиятда ижтимоий адолатни мустаҳкамлашга хизмат қилади. Шу боис, ривожланаётган давлатлар учун бюджет сиёсатининг самарадорлигини илмий асосда баҳолаш ва доимий такомиллаштириш долзарб вазифа ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган ислоҳотлар, хусусан, “Ўзбекистон–2030” стратегияси мамлакат тараққиётининг ўрта муддатга мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида бюджет тизимини такомиллаштириш, унинг шаффофлигини ва самарадорлигини ошириш долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Давлат бюджети лойиҳасини тайёрлаш жараёнида бюджет сўрови ва ундаги давлат буюртмаси (давлат харидлари/буюртмаси)шнинг ахамиятини ўрганишда асосий манбалар қонунчилик ҳужжатлари, илмий-таҳлилий мақолалар ва амалий

ўқув қўлланмалардан иборат. Улар бюджет жараёнининг илк босқичи – харажатларни режалаштиришни асослантиришда мухим ўрин тутади.

Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодекси (ЎРҚ–360) мазунинг асосий ҳуқуқий негизини ташкил этади. Кодекснинг 3-моддасида “бюджет сўрови” ўрта муддатли давр учун бюджетдан ажратиладиган маблағларни олишга бўлган эҳтиёжни асослашни назарда тутувчи ҳужжат сифатида таърифланади. 83-95-моддаларда давлат бюджети лойиҳасини ишлаб чиқиш жараёнида бюджет сўровининг роли белгиланади, жумаладан Иқтисодиёт ва молия вазирлиги бюджет сўровларини йиғиш, кўриб чиқиш ва жамлаш орқали давлат бюджети лойиҳасини шакллантиради. Бу хужжатларсиз харажатларнинг асослилиги ва натижадорлиги таъинланмайди.

Шунингдек кодексда давлат буюртмаси давлат хариди сифатида ҳам бюджет тизими маблағлари ҳисобидан амалга ошириладиган товар, иш ва хизматларга буюртмалар, харидлари сифатида намоён этади.

Давлат харидларитўғрисидаги қонун (ЎРҚ-684) давлат буюртмасининг амалдаги бюджет бтлан боғлиқлигини кўрсатади. 29-моддада давлат харидларини режалаштириш бюджетни режалаштиришузвий боғлиқлигини таъкидлайди.19 ва 27 моддаларда харидларни амалга ошириш учун бюджет маблағларининг мавжудлигни тасдиқлаш ва ғазначилик хизматлари орқали тўловларни ўтказиш талаб этилади.Шундай қилиб, давлат буюртмаси бюджет лойҳасининг харажатлар қисмининг муҳим таркибий қисмига айланади.

Жаҳон банкининг Uzbekistan Public Expenditure Review (2022) ҳисоботида Ўзбекистонда бюджет харажатларининг самарадорлиги таҳлил қилинади. Унда бюджет сўровлари ва давлат харидларининг ўрта муддатли режалаштиришдаги роли инсон капитали ва инфратузилма соҳалардаги харажатлар самарадорлигини ошириш нуқтаи назаридан кўриб чиқилади.

Адабиётларда бюджет сўрови ва давлат буюртмаси давлат бюджет лойиҳасини тайёрлашнинг асосий восталари бўлиши таъкидланади.Уларнинг харажатларнинг асослигини, натижадорлигини энг муҳими шаффофлигини таъминлайди.

Илмий ишларда Ўзбекистон мисолида фундаментал бюджет барқарорлиги эришиш мақсадида давлат бюджет лойиҳасини давлат буюртмаси товар, иш ва хизматлар асосида тузишни иқтисодий моҳиятини муҳимлиги таъкидланади.

Тадқиқотда давлат буюртмасининг мазмунини ўрганиш учун тизимли ва комплекс ёндашув қўлланилди. Давлат томонидан ўз функция ва вазифаларини самарали амалга ошириш мақсадида бюджет ташкилотлари орқали бюджет маблағлари ҳисобидан товарлар, ишлар ва хизматларни харид қилишни режалаштириш ва ташкил этиш жараёнини таҳлил қилишда асосан норматив-ҳуқуқий таҳлил методи, статистик маълумотларнинг иккиламчи таҳлили ҳамда

давлат харидлари бўйича расмий ҳисоботларнинг контент-таҳлили қўлланилди. Бу усуллар устувор йўналишларни молиялаштириш ва ресурсларни мақсадли тақсимлашнинг амалий механизмларини аниқлашга, шунингдек, жараённинг самарадорлигини баҳолашга имкон беради.

Давлат буюртмасини бюджет сўрови билан бир вақтда шакллантириш давлат бюджети даромадлари тушумига ижобий таъсир кўрсатади, чунки бу орқали бозорда товар ва хизматларга бўлган талаб камида олти ой олдин шаклланади. Бу эса тадбиркорлик субъектларига келгуси давр учун ишлаб чиқариш ҳажмлари, ресурслар тақсимоти ва инвестиция қарорларини аниқ режалаштириш имконини яратиб, уларнинг иқтисодий фаолияти барқарорлиги ва самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Давлат бюджети барқарорлигини таъминлашда давлат буюртмасини бюджет ижро жараёнида эмас, балки бюджет лойиҳасида камида олти ой олдин шакллантириш механизмининг иқтисодиётга таъсирини таҳлил қилиш натижасида қуйидаги асосий қонуниятлар аниқланди.

Биринчи навбатда, давлат буюртмасини олдиндан (олти ой аввал) бюджет лойиҳасида шакллантириш бюджет харажатларининг прогнозлаш аниқлигини сезиларли даражада оширади.

Иқтисодиётнинг реал секторига таъсир механизмини таҳлил қилганда қуйидаги ижобий эффектлар кутилиши мумкин:

Инвестиция ва ишлаб чиқариш фаоллиги ўсиши. Олти ой олдинги режалаштириш корхоналарга капитал қўйилмаларини олдиндан режалаштириш имконини беради. Тадбиркорларнинг бозор таклифларини олдиндан маълум бўлган сабабли бозор нархлари ўзгариши хавфи камайиши ва молиявий ресурсларнинг самарасиз сарфланиши олдини олишга имкониятлари пайдо бўлади. Тадбиркорлик субъектлари ўртасидаги рақобат кучайиб, тендер жараёнларида таклифларнинг арзонлашиши кузатилади. Бу эса бюджет маблағларининг иқтисод қилинишига ва самарадорлигини оширади ҳамда иқтисодий ўсиш суръатларига қўшимча ҳисса қўшади.

Бюджет ижроси жараёнида тўсатдан пайдо бўладиган катта ҳажмдаги буюртмалар нархларнинг кескин кўтарилишига сабаб бўлади. Олдиндан шакллантириш эса бозорнинг “шок” юкини юмшатади ва йиллик истеъмол нархлар индекси (инфляция) даражасини мутадил сақлашга имконини беради.

Салбий томонларни ҳам таҳлил қилганда, айрим қийинчиликлар мавжудлиги аниқланди. Масалан, олдиндан режалаштириш бюджет лойиҳасини тайёрлаш босқичида маълумотларнинг тўлиқ эмаслиги туфайли хатолик хавфини ошириши мумкин.

Тадқиқот натижалари шуни тасдиқлайдики, ушбу ёндашувни қонунчилик даражасида мустаҳкамлаш (хусусан, “Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонунга

тегишли ўзгартиришлар киритиш орқали) Ўзбекистон иқтисодиётининг барқарор ривожланишига сезиларли ҳисса қўшади.

Давлат буюртмасини бюджет лойиҳасида шаклланиши нафақат бюджет барқарорлигини кучайтиради, балки бутун иқтисодиётнинг узоқ муддатли самарадорлигини оширишнинг муҳим омили ҳисобланади. Келгусидаги тадқиқотларда ушбу механизмнинг минтақавий даражадаги (вилоятлар бўйича) таъсирини чуқурроқ ўрганиш мақсадга мувофиқдир.

Амалда давлат буюртмаси ижро жараёнида харажатлар сметаси ижрога берилгандан сўнг ва қайси ойда буюртма режалаштирилган бўлса шу вакт давлат буюртмаси хосил бўлади.

Таклифда камида 6 ой олдин бюджет лойиҳаси учун бюджет ташкилотлари томонидан бюджет сўрови тузиладиган вақт параллел равишда давлат буюртмаси шакллантирилади. Бюджет сўровида фақатгина маблағлар миқдори ва унинг ҳажми эмас, балки товар, иш ва хизматлар тури ва уларнинг нархлари билан шакллантирилади.

Давлат буюртмасининг амалдаги ва таклиф этилаётган шакли



Манба: Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Ушбу тадқиқот давлат буюртмасининг бюджет сўрови билан бирга бюджет лойиҳаси босқичида камида олти ой олдин шакллантирилишининг иқтисодиётга таъсирини комплекс таҳлил қилиш орқали қуйидаги асосий илмий натижаларга эришди. Давлат буюртмасининг олдиндан режалаштирилиши бюджет харажатларининг прогноз аниқлигини сезиларли даражада оширади, реал секторда инвестиция ва ишлаб чиқариш фаоллигини рағбатлантиради, пудратчилар ва етказиб берувчилар учун бозор нархлари ўзгариши хавфини камайтиради, тендер жараёнларида рақобатни кучайтиради ва натижада бюджет маблағларининг самарадорлигини оширади. Бундан ташқари, олдиндан шакллантирилган буюртма бозорнинг «шок» юкини юмшатиб, инфляция даражасининг мутадиллигини таъминлашга ҳисса қўшади.

Тадқиқот шунингдек, мавжуд амалиётнинг салбий томонларини ҳам аниқлади: ҳозирги вақтда давлат буюртмаси бюджет ижроси бошлангандан кейингина шаклланади, бу эса харажатларнинг тўсатдан ва катта ҳажмда амалга оширилишига, нархларнинг кескин кўтарилишига ва бюджет ресурсларининг самарасиз сарфланишига олиб келади. Норматив-ҳуқуқий таҳлил ва халқаро тажриба (Жаҳон банки ҳисоботлари) шуни тасдиқлайдики, бюджет сўровида фақат маблағлар ҳажмини эмас, балки товар, иш ва хизматларнинг тури, ҳажми ва нархларини ҳам батафсил кўрсатиш орқали давлат буюртмасининг илк босқичда шакллантирилиши Ўзбекистон иқтисодиётининг барқарор ривожланишининг муҳим омилидир.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА АХЛОҚИЙ КАПИТАЛНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ (ИҚТИСОДИЙ КАПИТАЛ МИСОЛИДА)

Султанова Азиза Рихсиваевна
Тошкент давлат иктисодиет университети
«Ижтимоий фанлар» кафедраси доценти.

Изоҳ: Ушбу тезис Янги Ўзбекистон шароитида ахлоқий капиталнинг иқтисодий тараққиётдаги муҳим ўрнини очиб беришга қаратилган. Ахлоқий капитал - бу жамиятдаги ишонч, ҳалоллик, адолат ва масъулият каби қадриятлар мажмуаси бўлиб, у иқтисодий капиталдан самарали фойдаланишга замин яратади. Агар иқтисодий муносабатлар ахлоқий тамойилларга асосланса, бизнес муҳитида шаффофлик ортади, коррупция камаяди ва инвестициявий жозибадорлик ошади. Шу боис, Янги Ўзбекистонда иқтисодий ислоҳотлар билан бир қаторда ахлоқий капитални ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиш муҳим ҳисобланади.

Калит сўзлар: ахлоқий капитал, иқтисодий капитал, тараққиёт, ишонч, ҳалоллик, шаффофлик, адолат, бизнес этикаси, инвестиция муҳити, коррупцияга

қарши кураш, барқарор ривожланиш, иқтисодий ислоҳотлар, жамият қадриятлари, самарадорлик.

Кириш.

Бугунги кунда Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар жамият ва иқтисодиётнинг барча соҳаларида туб ўзгаришларни тақозо этмоқда. Ушбу жараёнда нафақат иқтисодий ресурслар, балки инсон омили, хусусан, ахлоқий қадриятлар ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Ахлоқий капитал жамиятдаги ишонч, ҳалоллик, адолат ва масъулият каби омиллар орқали иқтисодий муносабатларни самарали ташкил этишга хизмат қилади.

Шу нуқтаи назардан, иқтисодий капитални ривожлантириш ва ундан самарали фойдаланишда ахлоқий муҳитни мустаҳкамлаш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Янги Ўзбекистон шароитида шаффофликни таъминлаш, коррупцияга қарши курашиш ва бизнес этикасини ривожлантириш каби йўналишлар ахлоқий капитални юксалтиришга хизмат қилади. Мазкур тезис айнан шу масалаларни ёритишга қаратилган бўлиб, ахлоқий капиталнинг иқтисодий тараққиётдаги ўрни ва истиқболларини таҳлил қилади.

Адабиётлар таҳлили.

Ахлоқий капитал тушунчаси замонавий иқтисодий ва ижтимоий фанларда муҳим категория сифатида кенг ўрганилмоқда. Унинг назарий асослари аввало ижтимоий капитал концепцияси доирасида шаклланган. Хусусан, Pierre Bourdieu ижтимоий капитални шахслар ўртасидаги муносабатлар орқали шаклланадиган ресурс сифатида таърифлайди [5]. Унинг фикрича, ишонч ва ўзаро алоқалар иқтисодий имкониятларни кенгайтиришда муҳим омил ҳисобланади.

Шунингдек, James Coleman [6] ижтимоий капитални жамиятдаги меъёрлар, ишонч ва тартиблар орқали иқтисодий самарадорликни оширувчи омил сифатида кўради. У ахлоқий қадриятлар иқтисодий муносабатларнинг барқарорлигига хизмат қилишини таъкидлайди. Ишонч ва институционал ривожланиш ўртасидаги боғлиқлик масаласи Francis Fukuyama [7] томонидан чуқур таҳлил қилинган. Унинг “Trust” асарида таъкидланишича, жамиятда ишонч даражаси юқори бўлган мамлакатларда иқтисодий тараққиёт тезроқ кечади, чунки транзакцион харажатлар камаяди ва бизнес алоқалари осонлашади.

Ахлоқий капитал ва иқтисодий ривожланиш ўртасидаги муносабатлар институционал иқтисодиёт нуқтаи назаридан ҳам ўрганилган. Жумладан, Douglass North [8] институтлар ва норасмий қоидалар (жумладан, ахлоқий меъёрлар) иқтисодий ўсишда ҳал қилувчи роль ўйнашини таъкидлайди. Унинг фикрича, адолат ва ҳалолликка асосланган муҳит инвестицияларни жалб қилишга хизмат қилади. Коррупция ва ахлоқий капитал ўртасидаги боғлиқликни тадқиқ қилган олимлардан бири Robert Klitgaard [9] ҳисобланади. У коррупциянинг камайиши

учун шаффофлик, ҳисобдорлик ва ахлоқий меъёрларни кучайтириш зарурлигини илгари суради.

Замонавий тадқиқотларда ахлоқий капитал бизнес муҳитида корпоратив бошқарув ва бизнес этикаси билан узвий боғлиқ ҳолда кўриб чиқилади. Масалан, Amartya Sen [10] ўз ишларида иқтисодий тараққиёт фақат молиявий ўсиш эмас, балки ахлоқий ва ижтимоий ривожланиш билан ҳам чамбарчас боғлиқ эканлигини таъкидлайди.

Ўзбекистон шароитида эса иқтисодий ислоҳотлар жараёнида ахлоқий капитални мустаҳкамлаш масаласи алоҳида аҳамият касб этмоқда. Миллий тадқиқотчилар ахлоқий қадриятлар, жумладан, ҳалоллик, масъулият ва жамоавий ишончни ривожлантириш орқали инвестиция муҳитини яхшилаш ва иқтисодий самарадорликни ошириш мумкинлигини қайд этмоқдалар. Мавжуд илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, ахлоқий капитал иқтисодий капиталнинг самарали ишлаши учун муҳим институционал ва ижтимоий асос бўлиб хизмат қилади, бу эса ишончни мустаҳкамлайди, коррупцияни камайтиради ва барқарор иқтисодий тараққиётга замин яратади.

Тадқиқот усуллари.

Мазкур тадқиқотда ахлоқий капиталнинг иқтисодий тараққиётга таъсирини ўрганишда комплекс ёндашув қўлланилди. Жумладан, назарий ва амалий таҳлилни уйғунлаштирган ҳолда қуйидаги усуллардан фойдаланилди:

таҳлил ва синтез усули орқали ахлоқий капитал ва иқтисодий капитал тушунчаларининг мазмуни илмий манбалар асосида ўрганилди, уларнинг ўзаро боғлиқ жиҳатлари аниқланди. Бу жараёнда ижтимоий ва институционал иқтисодиётга оид қарашлар умумлаштирилди.

қиёсий таҳлил усули ёрдамида турли мамлакатларда ахлоқий муҳит ва иқтисодий ривожланиш ўртасидаги боғлиқлик солиштирилди. Бу усул орқали ишонч даражаси юқори бўлган жамиятларда иқтисодий самарадорлик юқори эканлиги асослаб берилди.

тизимли ёндашув усули ҳам қўлланилиб, ахлоқий капитал жамиятнинг институционал, ижтимоий ва иқтисодий тизимлари билан узвий боғлиқ ҳолда кўриб чиқилди. Бу ёндашув ахлоқий қадриятларни иқтисодий жараёнларнинг ажралмас қисми сифатида таҳлил қилиш имконини берди.

индукция ва дедукция усуллари орқали алоҳида ҳолатлардан умумий хулосалар чиқарилди ҳамда умумий назарий қоидалардан келиб чиқиб, Янги Ўзбекистон шароитига хос хусусиятлар ёритилди.

статистик таҳлил элементлари ҳам қўлланилиб, иқтисодий кўрсаткичлар ва институционал ислоҳотлар самарадорлигига оид маълумотлар умумлаштирилди. Бу эса ахлоқий капиталнинг иқтисодий натижаларга таъсирини аниқлашда муҳим аҳамият касб этди.

контент-таҳлил усули ёрдамида давлат сиёсатлари, қонунчилик ҳужжатлари ва стратегик дастурларда акс этган ахлоқий тамойиллар ўрганилди. Бу орқали Янги Ўзбекистонда шаффофлик, адолат ва ҳалолликни таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар таҳлил қилинди.

Хулоса қилиб айтганда, мазкур тадқиқотда қўлланилган усуллар ахлоқий капиталнинг иқтисодий тараққиётдаги ўрнини ҳар томонлама очиб беришга хизмат қилди ва илмий хулосаларнинг асослилигини таъминлади.

Таҳлил ва натижалар.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, ахлоқий капитал иқтисодий капиталдан самарали фойдаланишда ҳал қилувчи омиллардан бири ҳисобланади. Жамиятда ишонч, ҳалоллик ва адолат каби қадриятлар мустаҳкам бўлган шароитда иқтисодий муносабатлар барқарор ва самарали ривожланади.

Таҳлил жараёнида аниқландики, Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотлар доирасида шаффофликни ошириш ва коррупцияни камайтиришга қаратилган чора-тадбирлар ахлоқий капиталнинг ўсишига ижобий таъсир кўрсатмоқда. Хусусан, давлат бошқарувида очиқлик тамойилларининг кучайтирилиши, рақамлаштириш жараёнлари ва жамоатчилик назоратининг кенгайиши иқтисодий фаолиятда ишонч муҳитини шакллантирмоқда. Бизнес муҳитида ахлоқий меъёрларга риоя қилиш даражаси инвестициявий жозибадорликка бевосита таъсир қилади. Ҳалол рақобат, шартномавий интизом ва корпоратив этиканинг ривожланиши натижасида тадбиркорлик субъектлари ўртасида ишонч мустаҳкамланмоқда. Бу эса ўз навбатида транзакцион харажатларни камайтириш ва иқтисодий самарадорликни оширишга хизмат қилади.

1-чизма.



* Муаллиф томонидан тузилган.

Ахлоқий капиталнинг етарли даражада шаклланмаганлиги ҳолатларида иқтисодий ресурслардан самарасиз фойдаланиш, коррупция ва “соя иқтисодиёти”нинг кенгайиши кузатилади. Бу эса иқтисодий ўсиш суръатларига салбий таъсир кўрсатади ва ислоҳотлар самарадорлигини пасайтиради. Ахлоқий капитални ривожлантириш фақат давлат сиёсатлари орқали эмас, балки таълим тизими, оила институти ва фуқаролик жамияти орқали ҳам амалга оширилиши лозим. Жамиятда ҳалоллик, масъулият ва адолат каби қадриятларни тарғиб қилиш иқтисодий тараққиётнинг барқарорлигини таъминлайди.

Умуман олганда, ахлоқий капитал иқтисодий капиталнинг “сифат кўрсаткичи” бўлиб, унинг ривожланиши Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг самарадорлигини оширишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Хулоса.

Мазкур тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, ахлоқий капитал Янги Ўзбекистон шароитида иқтисодий тараққиётни таъминловчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Жамиятда ишонч, ҳалоллик, адолат ва масъулият каби қадриятларнинг қарор топиши иқтисодий муносабатларнинг самарадорлигини оширади ҳамда иқтисодий капиталдан оқилона фойдаланиш имкониятини кенгайтиради.

Тадқиқот давомида аниқландики, иқтисодий ислоҳотлар самарадорлиги кўп жиҳатдан ахлоқий муҳитга боғлиқ бўлиб, шаффофлик ва ҳисобдорлик даражаси қанчалик юқори бўлса, иқтисодий ўсиш ҳам шунчалик барқарор бўлади. Шу нуқтаи назардан, коррупцияга қарши курашиш, бизнес этикасини ривожлантириш ва институционал ислоҳотларни чуқурлаштириш ахлоқий капитални мустаҳкамлашнинг муҳим шартлари ҳисобланади.

Шу билан бирга, ахлоқий капитални ривожлантириш узлуксиз ва тизимли жараён бўлиб, у нафақат давлат сиёсати, балки таълим тизими, оила ва жамиятнинг бошқа институтлари орқали ҳам қўллаб-қувватланиши лозим. Ахлоқий қадриятларни шакллантириш ва мустаҳкамлаш орқали иқтисодий муносабатларда ишонч муҳитини яратиш мумкин. Янги Ўзбекистонда иқтисодий тараққиётга эришиш фақат молиявий ва моддий ресурслар ҳисобига эмас, балки юксак ахлоқий капиталга таянган ҳолда амалга оширилиши зарур. Бу эса ўз навбатида барқарор иқтисодий ўсиш, инвестициявий жозибадорлик ва жамият фаровонлигини таъминлашга хизмат қилади.

ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ПОВЕДЕНЧЕСКОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАТЕГИИ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ

Ибрагимов Бобуршох Баходир угли
Доцент кафедры «Налог и налогообложения» ТГУЭ
Атаджанова Дилафруз Одилбековна
Магистрант направления «Налог и налогообложения»

Введение и актуальность. Интеграция поведенческих исследований в процесс соблюдения налогового законодательства является один из наиболее активно применяемых инструментов в государственной политике, выходящим за рамки традиционных экономических моделей, отдающих приоритет право применению. Этот подход учитывает влияние психологических и социальных факторов на поведение налогоплательщиков, таких как доверие к правительству, социальные нормы и простота процедур соблюдения законодательства. Государство может стимулировать налогоплательщиков охотнее платить налоги, если сделает этот процесс понятным, покажет прямую зависимость между налоговыми поступлениями и качеством предоставляемых общественных благ, что способствует росту доверия к институтам власти а также улучшит взаимодействия между налогоплательщиками и налоговыми органами. Это приводит к повышению налоговой дисциплины и добровольного соблюдения налогового законодательства, создавая основу для более эффективных и справедливых налоговых систем.

По своей сути область поведенческих наук сосредоточена на понимании человеческих решений и поведения с последующим использованием этих данных для разработки практических мер политики и интервенций. Что касается налогового администрирования, это может быть выгодно применено к широкому спектру областей: от обслуживания налогоплательщиков и принудительного исполнения до внутренних вопросов, таких как вовлеченность и продуктивность сотрудников. Цельи данного тезиса— продемонстрировать ценность этих приложений и представить соображения о том, как создать возможности для их внедрения.

Налоговые администрации — и, по сути, все организации — действуют на основе набора предположений о том, что движет человеческим поведением. Эти предположения лежат в основе стратегий по достижению соблюдения налогового законодательства и других целей и могут извлечь выгоду из применения поведенческой науки. За последние десятилетия значительные исследования выявили более глубокое понимание того, почему люди ведут себя именно так, а не иначе. Поведенческие специалисты применяют это понимание для разработки более успешных стратегий. Кроме того, эти ученые используют методы измерения

реакций на политику, события или интервенции, чтобы увидеть, как они работают в реальности конкретного контекста.[236]

Согласно рекомендациям ОЭСР (2021), налоговые администрации должны переходить от стратегий, основанных исключительно на правоприменении, к дизайну процессов, которые делают соблюдение закона максимально простым и интуитивно понятным для налогоплательщика.

За последнее десятилетие правительства, а также международные и неправительственные организации, такие как Всемирный банк, Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР), ЮНИСЕФ, Европейская комиссия и Организация Объединенных Наций, официально внедрили поведенческие подходы в практику. В настоящее время более 200 учреждений по всему миру применяют уроки поведенческих наук в государственной политике.

Во Всемирном банке подразделение «Разум, поведение и развитие» (eMBeD) в составе Группы по воздействию на развитие использует поведенческие науки для достижения своих основных целей — искоренения глобальной бедности и повышения справедливости. Вслед за Докладом о мировом развитии 2015 года «Разум, общество и поведение», поведенческие науки были интегрированы в проектирование и реализацию проектов Всемирного банка. Несколько лет спустя в двух других отчетах был проанализирован опыт правительств и международных организаций, первыми начавших применять политику, основанную на поведенческих данных, в своих программах.

Сегодня портфель eMBeD охватывает 110 завершенных или текущих проектов в 78 странах и охватывает различные тематические области, включая образование, здравоохранение и благополучие, гендерное равенство, климат и энергетику, а также безработицу и труд. Более того, eMBeD использует поведенческие науки для измерения навыков, убеждений и благополучия, а также для анализа и противодействия поведенческим барьерам в программах развития, таких как достижение здорового образа жизни. Оно также проводит обучение поведенческим наукам для политиков на всех уровнях.[237]

Данный обзор деятельности Всемирного банка и подразделения eMBeD наглядно демонстрирует, что поведенческая экономика стала неотъемлемым стандартом государственного управления в XXI веке. Тот факт, что более 200 учреждений по всему миру официально интегрировали эти методы, делает вопрос

---

[236] OECD (2021), Behavioural Insights for Better Tax Administration: A Brief Guide, OECD, Paris. www.oecd.org/tax/forum-on-tax-administration/publications-and-products/behavioural-insights-for-better-tax-administration-a-brief-guide.pdf

[237] World Bank.
Behavioral Insights to Improve Tax Compliance : A Practitioner's Guide (English). Washington, D.C. : World Bank Group. http://documents.worldbank.org/curated/en/099342007172539760)

адаптации этих методов для налоговой системы Республики Узбекистан особо актуальным. Подчеркивается, что предлагаемые выше решения по улучшению налоговой дисциплины не являются изолированными инициативами, а лежат в русле глобальной стратегии перехода к доказательной политике , успешно апробированной в 78 странах мира.

2. Концептуальный обзор поведенческих факторов соблюдения налоговой дисциплины. Налогоплательщики — как физические лица, так и предприятия — подвержены психологическим и поведенческим искажениям, которых налоговые органы должны учитывать при стремлении повысить уровень налоговой дисциплины. Рациональность налогоплательщика основана на многих допущениях, которые не подтверждаются эмпирическими данными. Налогоплательщики демонстрируют спектр тенденций в принятии решений под влиянием различных когнитивных искажений, которые могут привести к невнимательному принятию решений. Таким образом, решение о соблюдении налоговых обязательств не является дискретным и основанным на простой оценке затрат и выгод. Существуют как структурные, так и поведенческие барьеры для соблюдения налогового законодательства, некоторые из которых выходят за рамки модели рационального налогоплательщика и проявляются на разных этапах. Под структурными барьерами мы понимаем те, которые относятся к финансовым, правовым или информационным ограничениям соблюдения требований. Под поведенческими барьерами мы понимаем те, которые относятся к социальным, психологическим, когнитивным и контекстуальным ограничениям соблюдения требований. Многие из первых материализуются в виде искажений, которые влияют на то, как налогоплательщики принимают решения и совершают действия.



рисунок.1. **Непростой путь налогоплательщика.**[238]

[238] Nudge, budge, trudge — How behavioral science can help with tax compliance,JONATHAN KARVER

Представленная инфографика взятая и зстатья Джонатана Карвера и его коллег из Всемирного банка является ключевой визуализацией методологического подхода, принятого в исследовании поведения налогоплательщика. Она демонстрирует, что путь налогоплательщика — от осознания обязательств до фактической уплаты — представляет собой не просто формальную юридическую процедуру, а многоуровневый процесс, сопряженный с критическими когнитивными, социальными и психологическими барьерами.

Традиционное налоговое администрирование долгое время фокусировалось преимущественно на втором этапе (Принятие решения), используя инструменты «модели сдерживания» (страх наказания и проверки). Однако, как наглядно показывает график, несоблюдение налоговой дисциплины часто продиктовано не злым умыслом, а системными барьерами на других этапах:

На этапе понимания: Мы видим проблему неэффективная подача информации и недостатка знаний налогоплательщиков о нормах. Сложный юридический язык Налогового кодекса создает «информационный шум», из-за которого налогоплательщики часто не понимают объем своих обязанностей. Здесь необходимы инструменты упрощения и дешифровки норм.

На этапе принятия решения: Помимо страха штрафа, здесь работают социальные нормы («Платят ли другие?») и чувство взаимности («Куда идут мои деньги?»). Автор полагает, что укрепление «налоговой морали» возможно через позитивный смысловой акцент на добровольном соблюдении налоговых обязательств успешными предпринимателями и визуализацию общественной пользы налоговых отчислений.

На этапе декларирования: Основным барьером выступает «когнитивная перегрузка» и сложность процессов. Если интерфейс личного кабинета налогоплательщика перегружен, предприниматель склонен к ошибкам или отложением на потом. Решением здесь выступает автозаполнение и минимизация административных барьеров в архитектуре выбора.

На этапе уплаты: Здесь возникают проблемы ликвидности и технические барьеры выбора лучшего способа оплаты. Внедрение механизмов «оплаты в один клик» и своевременных уведомлений-напоминаний позволяет перевести этот этап в категорию автоматической привычки.

Резюмируя вышеизложенное, можно утверждать, что для повышения налоговой дисциплины среди налогоплательщиков необходимо перейти от «универсального шаблона» к сервисно-поведенческой модели.

3. Инструментарий поведенческого подхода в налоговом администрировании. В методологии Всемирного банка, предлагается классифицировать поведенческие решения в налоговой сфере по трем наборам

инструментов, каждый из которых соответствует определенному этапу "пути налогоплательщика" и направлен на достижение налоговой дисциплины:

На этапах понимания и декларирования (1 и 3) первостепенную роль играют инструменты "Nudge" (подталкивание). Они позволяют минимизировать административные барьеры и "информационный шум" через стратегические уведомления и упрощение цифровой среды, превращая процесс подачи отчетности в максимально простое и интуитивное действие и осуществляются они посредством следующих инструментов:

1.1. Инструменты стратегической коммуникации (Уведомления)

Это самый простой и дешевый способ «подтолкнуть» налогоплательщика. Вмешательство происходит на уровне языка и формы:

Упрощение: Замена сложных юридических текстов на понятные инструкции «Шаг 1, Шаг 2, Шаг 3». Это помогает избежать «перегрузки пропускной способности» мозга.

Использование социальных норм: Добавление в письма фразы: *«9 из 10 жителей вашего района уже оплатили налог»*. Это создает психологическое давление соответствовать большинству.

Визуализация: Использование инфографики и иконок вместо сплошного текста, чтобы выделить самое главное (срок и сумму).

Фрейминг (Обрамление): Выбор тона сообщения. Например, «акцент на выгоде» (общественные блага) или «акцент на потерях» (штрафы и аудит).

1.2. Инструменты цифровой архитектуры

Здесь интервенция встроена в сам интерфейс личного кабинета налогоплательщика:

Автозаполнение: Когда система сама подтягивает данные о доходах. Это использует «эффект инерции» — человеку легче согласиться с заполненной формой, чем вводить данные с нуля.

Выбор по умолчанию: Установка наиболее правильных или безопасных параметров как стандартных.

Своевременные подсказки: Всплывающие окна в момент заполнения декларации, которые предупреждают об ошибке или напоминают о льготе.

1.3. Инструменты устранения

Это «интервенция через удаление», когда государство сознательно убирает препятствия:

Сокращение полей в анкетах: Удаление лишних вопросов, которые не влияют на расчет налога.

Единое окно: Объединение нескольких процедур в одну, чтобы налогоплательщику не приходилось переходить с сайта на сайт.

Автоматизация вычетов: Когда льгота применяется автоматически, и человеку не нужно писать отдельное заявление.

Для этапа принятия решения (2) наиболее эффективными являются механизмы "Budge" (сдвиг). Полагается, что через повышение осведомленности и изменение общественной установки можно сформировать устойчивую налоговую мораль, основанную на доверии и осознании взаимной выгоды между государством и предпринимателем. Budge — это инструменты, которые меняют не «кнопку в приложении», а отношение общества к налогам. Если Nudge — это «подталкивание» одного человека, то Budge — это «сдвиг» сознания целых групп людей.

Вот через какие конкретные инструменты это работает:

2.1. Образовательные и игровые проекты

Вместо сухих лекций используются форматы, которые вовлекают людей с детства или через хобби:

Уроки налоговой грамотности в школах: создание мультфильмов или комиксов о том, как налоги превращаются в школьные обеды и парки.

Конкурсы и олимпиады: например, творческие конкурсы для молодежи на тему «Мой вклад в будущее страны».

Налоговые квизы и мобильные игры: где игрок строит город, и его успех зависит от правильного сбора и распределения налогов.

2.2. Налоговые лотереи

Это инструмент, который делает потребителя «союзником» налоговой службы:

Стимулирование спроса на чеки: лотереи по QR-кодам на чеках (как в приложении *Soliq* в Узбекистане).

Смена роли: гражданин перестает быть пассивным наблюдателем и начинает требовать чек, тем самым «сдвигая» бизнес из тени в легальное поле.

2.3. Лидеры мнений и социальные кампании

Использование тех, кому люди доверяют, для смены «нарратива»:

Инфлюенсеры и блогеры: когда популярный предприниматель или артист рассказывает, почему платить налоги — это круто и честно.

Социальная реклама с акцентом на «МЫ»: не «Плати, а то оштрафуем», а «Мы строим этот город вместе». Это подчеркивает социальный контракт.

2.4. Прямой диалог и «обратная связь»

Создание ощущения, что налогоплательщика слышат:

Сервисные центры: превращение налоговых инспекций в современные офисы, где к предпринимателю относятся как к клиенту, а не как к нарушителю.

Публичные отчеты: когда ведомство наглядно показывает: «В этом месяце за счет налогов вашего района куплено 5 новых автобусов».

Сквозным решением для всех этапов взаимодействия выступает "Trudge" (уверенное движение) — комплекс мер, направленных на трансформацию мышления самих государственных служащих. Устранение внутренних предвзятостей сотрудников налоговых органов позволяет перейти от карательной модели к сервисно-ориентированному администрированию, что является фундаментом долгосрочной стабильности фискальной системы. Если *Nudge* и *Budge* меняют поведение налогоплательщика, то Trudge меняет поведение самого инспектора. Эти интервенции осуществляются через три основные группы инструментов:

3.1. Образовательные инструменты:

Это не просто курсы повышения квалификации, а психологическая переподготовка:

Тренинги по устранению предвзятости: Налоговые инспекторы часто страдают от «предвзятости подтверждения» (считают всех предпринимателей потенциальными нарушителями). Интервенции помогают им осознать эти фильтры и начать видеть в бизнесе партнера, а не врага.

Обучение социально-эмоциональным навыкам: Инспекторов учат вести диалог не с позиции силы «Я представитель власти», а с позиции сервиса «Я помогаю вам соблюсти закон». Это критически важно для укрепления доверия.

3.2. Структурно-организационные инструменты

Это изменение того, как организована работа внутри инспекции:

Стратегическое распределение: Инструмент, при котором инспекторов объединяют в пары или группы на основе их компетенций и психологического профиля. Например, опытных и этичных сотрудников ставят в «сложные» зоны, чтобы их поведение служило примером для коллег.

Ротация и выбор постов: Предоставление лучшим сотрудникам права выбора участка работы или района. Это создает внутреннюю конкуренцию за репутацию, а не за «план по штрафам».

3.3. Мотивационные инструменты

Здесь поведенческая наука дополняет экономику:

Финансовые стимулы за качество, а не за количество: Переход от премий за «объем выписанных штрафов» к премиям за «уровень добровольного комплаенса» на вверенном участке.

Социальные стимулы: Публичное признание заслуг, звания «Лучший инспектор года по качеству обслуживания», доски почета. Как показывает практика, признание одного сотрудника подтягивает результаты всей команды.

Эти три набора инструментов могут и должны применяться на протяжении всего пути налогоплательщика и налогового инспектора, и могут дополнять друг друга для более значимого и устойчивого воздействия.

INVESTITSION KO‘CHMAS MULKNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Maxmudov Jamshed Ashrafovi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii “Moliyaviy hisob va hisob” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Kirish

Bugungi iqtisodiy sharoitda korxona aktivlarini samarali boshqarish, ularning to‘liq va haqqoniy aks ettirilishini ta’minlash masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, investitsion ko‘chmas mulkni hisobga olishning aniq, shaffof va xalqaro standartlarga mos tizimini shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Investitsion ko‘chmas mulk, odatda, korxonaning uzoq muddatli aktivlari tarkibida turib, unga ijaradan tushgan daromadlar yoki bozor qiymatining o‘sishidan olinadigan foyda keltiradi. Shuning uchun ham bunday aktivlarni moliyaviy hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirish, ularni baholash va monitoring qilish bo‘yicha takomillashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega.

Investitsion ko‘chmas mulk — bu korxona tomonidan ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishda foydalanish uchun emas, balki daromad (ijara) olish yoki kapital qiymatining o‘sishi maqsadida egalik qilinadigan ko‘chmas mulkdir. U boshqa asosiy vositalardan farqli ravishda, passiv tarzda foyda keltiruvchi aktiv sifatida qaraladi.

Hisob yuritishda bunday mulk alohida tasnifga ega bo‘lib, xalqaro standartlarga (IAS 40) muvofiq, asosiy vositalardan o‘zicha hisobga olinadi. Ular maxsus subschyotlarda, masalan, 0195 – “Investitsion ko‘chmas mulk” schyotida yuritilishi kerak. Bu aktivlar ijara daromadi, saqlash xarajatlari, amortizatsiya, bozor qiymati o‘zgarishi kabi moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan birga alohida hisobda ko‘rsatiladi.

Ushbu mulklar boshqaruv qarorlarini to‘g‘ri qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi: keraksiz aktivlarni sotish, ijara narxini aniqlash yoki investitsiya loyihalarini baholash uchun asos yaratadi. Bundan tashqari, hisobning shaffofligi, soliq va audit jarayonlarining yengillashuvi ta'minlanadi. Shu boisdan, investitsion mulklarning to‘g‘ri hisobini yo‘lga qo‘yish – moliyaviy barqarorlik va faoliyat samaradorligi uchun muhim omildir.

Ko‘pgina xo‘jalik yurituvchi subyektlarda investitsion ko‘chmas mulk asosiy vositalar tarkibida aks ettirilib, ularning iqtisodiy tabiati to‘liq inobatga olinmaydi. Buning natijasida, moliyaviy hisobotlarda ushbu mulklar orqali olinadigan daromadlar alohida ajratilmaydi, rentabellik ko‘rsatkichlari noaniq bo‘ladi va boshqaruv

qarorlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, hisob siyosatida investitsion ko‘chmas mulk uchun maxsus hisob raqamlarini ajratish, ularning harakatini alohida nazorat qilish, tahlil qilish va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsion ko‘chmas mulkning buxgalteriya hisobini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiy islohotlar va boshqaruv tizimining yuqori samaradorlikka yo‘naltirilgan talablari bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur tezisda investitsion ko‘chmas mulkning iqtisodiy mohiyati, bu turdagi aktivlarning hisobda aks ettirilishi, ularning real qiymatini aniqlash, daromadlilikni o‘lchash va saqlash xarajatlarini monitoring qilish bo‘yicha mavjud yondashuvlar tahlil qilindi.

Amaliyotda investitsion ko‘chmas mulk ob’yektlarini to‘g‘ri va ishonchli qayd etish orqali nafaqat moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlash, balki rahbariyatga asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratish mumkin. Shu maqsadda 0195 – “Investitsion ko‘chmas mulk” schotini amaliyotga joriy etish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif aktivlarning holatini tizimli nazorat qilish va ular bilan bog‘liq daromad va xarajatlarni aniq qayd etish imkonini beradi.

Ushbu yondashuvning tatbiqi nafaqat hisobotlar sifati va ishonchliligini oshiradi, balki investitsion mulklarning samaradorligi, foydalilik ko‘rsatkichlari va bozor qiymatidagi o‘zgarishlarni aniq tahlil qilish imkonini ham beradi. Shu orqali iqtisodiy subyektlarda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, investorlar ishonchini oshirish va resurslardan unumli foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Kelgusida investitsion ko‘chmas mulkning hisobini takomillashtirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, milliy standartlarga muvofiq me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni buxgalteriya amaliyotiga integratsiya qilish orqali bu sohaga oid hisobotlarning sifatini yanada oshirish mumkin. Shu bois, bu yo‘nalishda izchil ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

БАНК ТИЗИМИ ОРҚАЛИ БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ ХАВФЛАРНИ БОШҚАРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Джўраев Камолиддин Ташбалтаевич
М.Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети,
«Макроиқтисодиёт» кафедраси ўқитувчиси

Изоҳ: Ушбу тадқиқотнинг мақсади банк тизими имкониятларидан фойдаланган ҳолда бюджет ташкилотларида молиявий хавфларни аниқлаш, баҳолаш ва камайтириш механизмларини такомиллаштириш масалаларини ўрганишга қаратилган. Бунда тўлов тизимлари, ҳисоб-китоб операциялари ва молиявий назорат инструментлари орқали маблағлар ҳаракатининг шаффофлиги ва хавфсизлигини таъминлаш муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, мазкур мавзу

банклар билан ҳамкорликни кучайтириш орқали бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш ва молиявий барқарорликни ошириш йўналишларини қамраб олади.

Калит сўзлар: банк тизими, бюджет ташкилотлари, молиявий хавфлар, рискларни бошқариш, молиявий назорат, тўлов тизимлари, ҳисоб-китоб операциялари, ликвидлик, электрон тўловлар, шаффофлик, аудит ва назорат.

Кириш.

Ҳозирги глобал иқтисодий шароитда давлат молиясини самарали бошқариш ва бюджет маблағларидан оқилона фойдаланиш масалалари алоҳида аҳамият касб этмоқда. Бюджет ташкилотлари фаолиятида молиявий хавфларни камайтириш, маблағлар ҳаракатининг шаффофлиги ва хавфсизлигини таъминлаш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Бу жараёнда банк тизими муҳим ўрин тутиб, у орқали молиявий операцияларни самарали ташкил этиш ва назорат қилиш имкониятлари яратилади.

Банк тизими орқали амалга ошириладиган ҳисоб-китоб ва тўлов операциялари бюджет ташкилотларида молиявий интизомни мустаҳкамлаш, маблағларни мақсадли сарфлаш ва турли хавфларни камайтиришга хизмат қилади. Шу билан бирга, замонавий банк технологиялари ва электрон тўлов тизимларининг жорий этилиши молиявий жараёнларни автоматлаштириш, инсон омили таъсирини камайтириш ва хавфларни барвақт аниқлаш имконини беради.

Мазкур мавзунинг долзарблиги шундаки, банк тизими имкониятларидан самарали фойдаланиш орқали бюджет ташкилотларида молиявий хавфларни бошқаришни такомиллаштириш, шаффофлик ва ҳисобдорликни ошириш ҳамда давлат молияси барқарорлигини таъминлаш мумкин. Шу нуқтаи назардан, банк ва бюджет ташкилотлари ўртасидаги ўзаро ҳамкорликни кучайтириш муҳим аҳамиятга эга.

Шу сабабли, ушбу ишнинг асосий мақсади - банк тизими орқали бюджет ташкилотларида молиявий хавфларни бошқаришни такомиллаштириш йўналишларини тадқиқ этиш ва амалий таклифлар ишлаб чиқишдан иборат.

Адабиётлар таҳлили.

Банк тизими орқали молиявий хавфларни бошқариш ва бюджет ташкилотларида назоратни такомиллаштириш масалалари кўплаб хорижий ва маҳаллий олимлар томонидан илмий жиҳатдан ўрганилган.

Хусусан, банк рискларини бошқариш назариясида Frederic S. Mishkinнинг илмий ишлари муҳим аҳамиятга эга бўлиб [3], у банк тизимида рискларни камайтириш ва молиявий барқарорликни таъминлаш механизмларини атрофлича ёритиб берган. Унинг тадқиқотларида банк тизимининг иқтисодиётдаги роли ва молиявий хавфларни бошқаришдаги аҳамияти асослаб берилган.

Шунингдек, Peter S. Rose [4] банк фаолияти ва молиявий хизматлар соҳасида рискларни бошқариш усулларини тадқиқ қилган. У банклар орқали молиявий

операцияларни самарали ташкил этиш ва назорат қилишнинг назарий ва амалий жиҳатларини кўрсатиб берган. Молиявий рисклар ва уларни бошқариш масалаларида Joel Bessisнинг ишлари ҳам муҳим манба ҳисобланади [5]. У рискларни баҳолаш, таҳлил қилиш ва камайтириш бўйича замонавий ёндашувларни таклиф этган.

МДҲ мамлакатлари олимларидан О.И.Лаврушин [9] банк тизими ва кредит муносабатларини ўрганиб, молиявий барқарорликни таъминлашда банк назоратининг аҳамиятини ёритган. Шунингдек, Г.С.Панова [10] томонидан банк рискларини бошқариш ва молиявий инструментлардан фойдаланиш масалалари тадқиқ этилган.

Ўзбекистонлик олимлардан Ш.Ш.Шодмонов [11] ва Қ.Қ.Қўзиев [12] давлат молияси, бюджет тизими ва банк соҳасидаги ислоҳотларни ўрганган ҳолда, бюджет ташкилотларида молиявий назорат ва хавфларни камайтириш масалаларига алоҳида эътибор қаратганлар.

Юқоридаги илмий ишлар таҳлили шуни кўрсатадики, банк тизими орқали молиявий хавфларни бошқариш бюджет ташкилотлари фаолияти самарадорлигини оширишда муҳим омил ҳисобланади. Бироқ, замонавий шароитда рақамли технологияларни жорий этиш, рискка асосланган ёндашувларни кенгайтириш ва банк ҳамда бюджет ташкилотлари ўртасидаги интеграцияни кучайтириш зарур ҳисобланади.

Тадқиқот усуллари.

Мазкур мавзуни ўрганишда қуйидаги илмий тадқиқот усулларидан фойдаланилди:

16-сон БҲСда мажбурият жорий жамоатчилик муносабати сифатида таърифланади, унда ташкилот ҳаммага маълум бир вақтда ёки белгиланган суммада ўз ресурсларини сарфлаши талаб этилади. Стандартда «мажбурият — ташкилотда бўлиб ўтган ҳодисалардан келиб чиқадиган жорий муносабатлар бўлиб, унда тўловлар ёки хизматлар потенциалини ўзида мужассам этган ресурсларни ташкилотдан чиқиши юзага келади» деб берилган таърифдан ташқари муддати ёки миқдори ноаниқ бўлган баҳоланган мажбуриятларга алоҳида тўхталган.

Стандартга кўра, ташкилот баҳоланган мажбуриятларни ўз бухгалтерия ҳисобида ушбу стандартда белгиланган тартибда ҳисобга олиши керак. Яъни, агар ташкилотда шартли эмас, яъни баҳоланган мажбуриятлар бўлса (мисол учун кафолатли товар (иш, ҳизмат) билан боғлиқ ёки шартномавий жавобгарликка асосланган), улар бухгалтерияда мажбурият сифатида қайд этилади. Ҳисобга олиниши учун мажбуриятнинг келгусида иқтисодий фойда ресурслари (масалан, пул ёки товар) чиқарилиш эҳтимоли ва унинг суммасини ишончли баҳолаш зарур.

Баҳоланган мажбуриятлар стандартда келтирилгандек, муддати ёки суммаси ноаниқ бўлган мажбуриятдир. Бундай мажбуриятлар бошқа оддий кредитор қарзлари, ходимлар (ходимларга тўланиши кутилган маош ва бошқа) ёки товар етказиб бериш мажбуриятлари кабилардан фарқли ўлароқ, ўз вақти ва ҳажми аниқ эмаслиги туфайли ҳисобланган мажбуриятларга ўхшамайди. Стандартда мажбуриятларни баҳолаш «энг яхши тахминлар» асосида бажарилиши қайд қилинган. Масалан, у молиявий ҳисоботларни тайёрловчилардан харажатларнинг келгусидаги муддатлари ва миқдорлари бўйича энг яхши тахминларни (баҳолаш) қўллашни талаб қилади. Яъни мажбурият суммаси ва вақти бўйича энг эҳтимолиятли бўлган ҳолат асосида аниқланади.

Баҳоланган мажбуриятлар молиявий ҳисоботларда қарздорлик сифатида акс этилади. Яъни улар оддий қарздорлик сифатида кўринса-да, уларнинг баҳоси ноаниқлиги туфайли бошқа кредиторлик қарзларидан фарқланади. Умуман, стандартда таъкидланишича, шартли мажбуриятлар ҳисоботларда тан олинмайди (яъни балансда кўрсатилмайди), аммо бу каби ҳолатлар изоҳларда очиб берилиши шарт.

37-сон БҲХС “Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар” да мажбурият кўп жиҳатдан 16-БҲСга ўхшаш таърифланган. Яъни, ташкилотнинг ўтган даврдаги ҳодисалари (шартномалар, суд қарори ва ҳоказо) туфайли пайдо бўлган мавжуд жавобгарлиги, уни бажариш учун ташкилотдан иқтисодий ресурсларнинг чиқарилиши кутилган ҳолат сифатида келтирилган. Стандартга кўра «баҳоланган мажбурият» деб муддати ёки қиймати ноаниқ бўлган жавобгарликлар тушунилади. Шу билан бирга, мажбуриятнинг таснифи бўйича турлари бошқа стандартларда ҳам тартибга солингани кўрсатилган (ижара, солиқ ва бошқалар).

Стандарт талабларига кўра, ташкилот мажбуриятни фақат учта шарт бажарилганида тан олиши керак:

а) ташкилот олдинги ҳодисалар натижасида мавжуд (юридик ёки конструктив) жавобгарликка эга бўлганда;

(б) жавобгарликни бажариш учун ўзида иқтисодий нафни мужассамлаштирган ресурсларнинг чиқиб кетишининг талаб этилиши эҳтимоли мавжуд бўлганда; ва

(в) жавобгарлик қиймати ишончли баҳолана олганда.

Агар ушбу шартлар бажарилмаса, баҳоланган мажбурият тан олинмаслиги лозим.

Мажбурият миқдорини аниқлашда стандарт ташкилотдан чиқиши керак бўлган маблағларнинг энг яхши тахминий баҳоси ёки эҳтимоллар асосида ҳисоблашни талаб қилади. Яъни, жорий мажбуриятни бажариш учун келажакда сарфланиши кутилган қиймат энг тўғри (ишончли) ҳисобланган миқдор билан белгиланади. Агар мажбурият турли сценарийларга эга бўлса, чиқимнинг ҳар бир имконият ҳолати учун эҳтимоли билан кўпайтирилган миқдорлари умумини олиш ёки энг эҳтимолиятли миқдорни танлаш мумкин. 37-сон БҲХС бўйича тан олинган мажбуриятлар молиявий ҳисоботларда қарздорлик сифатида кўрсатилади. Шартли мажбуриятлар эса стандарт бўйича балансда тан олинмайди ва фаыатгина улар ҳақида фойдали маълумот бериш мақсадида изоҳларга маълумотлар киритилади.

КРЕДИТОРЛИК МАЖБУРИЯТЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТДА АКС ЭТТИРИЛИШИ

Жаббарова Чарос Аминовна

Тошкент давлат иқтисодёт университети

Бюджет ҳисоби ва ғазначилик кафедраси катта ўқитувчиси,

Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Молиявий ҳисоботнинг асосий вазифаси хўжалик юритувчи субъект ёки бюджет ташкилотининг ҳисобот санасидаги молиявий ҳолати, ҳисобот давридаги

молиявий натижалари ва пул маблағлари ҳаракати тўғрисида тизимлаштирилган ахборотни тақдим этишдан иборат. Шу маънода кредиторлик мажбуриятлар молиявий ҳисоботнинг энг муҳим элементларидан бири бўлиб, улар ташкилотнинг учинчи шахслар олдидаги тўлов мажбуриятларини, келгусида ресурслар чиқиб кетиши эҳтимолини ва молиявий барқарорлик даражасини ифодалайди. Ўзбекистон қонунчилигига кўра, йиллик молиявий ҳисобот таркибига бухгалтерия баланси ва бошқа асосий ҳисобот шакллари киради; демак, кредиторлик мажбуриятларнинг тўғри акс эттирилиши молиявий ҳисоботнинг ҳаққонийлигига бевосита таъсир қилади.

Илмий жиҳатдан кредиторлик мажбуриятлар ташкилот томонидан аввал содир этилган хўжалик операциялари натижасида юзага келган ва келгусида иқтисодий ресурслар ёки хизмат салоҳиятининг чиқиб кетиши орқали қопланиши кутилаётган мажбуриятлардир. Улар мол етказиб берувчилар ва пудратчиларга қарзлар, иш ҳақи бўйича қарзлар, солиқ ва мажбурий тўловлар, олинган бўнаклар, қисқа муддатли қарзлар, узоқ муддатли мажбуриятларнинг жорий қисми каби турларни қамраб олади. Янги 1-сонли БҲМСда кредиторлик қарзи бухгалтерия балансида акс эттирилиши лозим бўлган мажбурий элементлар қаторига киритилган, шунингдек ҳисобот кунидан бошлаб 12 ой мобайнида ҳисоб-китоб қилинадиган мажбуриятлар жорий мажбуриятлар сифатида таснифланиши белгилаб қўйилган.

Кредиторлик мажбуриятларни молиявий ҳисоботда акс эттиришнинг биринчи шарти — уларни ўз вақтида ва ишончли тан олишдир. Амалиётда мажбуриятни тан олиш унинг ҳақиқатда юзага келганлигини тасдиқловчи шартнома, ҳисобварақ-фактура, қабул қилиш-топшириш ҳужжати, иш ҳақи ҳисоб-китоби, солиқ ҳисоботи ёки бошқа дастлабки ҳужжатлар мавжуд бўлганида амалга оширилиши лозим. Бу ерда бухгалтерия ҳисоби тўлиқ ҳужжатлаштириш, иккиёқлама ёзув ва ҳисоб регистрларида умумлаштириш тамойилига таянади. Кредиторлик мажбуриятни кечиктириб ёки нотўғри тан олиш фойда ва харажатларнинг даврлар бўйича нотўғри тақсимланишига, балансда мажбуриятлар ҳажмининг сунъий камайтирилишига ва тўлов қобилияти тўғрисидаги баҳоларнинг бузилишига олиб келади.

Кредиторлик мажбуриятларни молиявий ҳисоботда акс эттиришда уларнинг тўғри таснифланиши алоҳида аҳамиятга эга. Миллий стандартга мувофиқ, кредиторлик қарзи, иш ҳақи, солиқлар ва бошқа операцион харажатлар бўйича қарзлар жорий мажбуриятлар таркибида кўрсатилади; бундай моддалар айрим ҳолларда 12 ойдан ортиқ даврда қопланса ҳам, агар улар операцион цикл билан боғлиқ бўлса, жорий мажбурият сифатида таснифланиши мумкин. Бу талаб молиявий ҳисобот фойдаланувчиларига мажбуриятларнинг айланма капиталга босимини, қисқа муддатли ликвидликни ва жорий тўлов интизомини аниқроқ

баҳолаш имконини беради. Шунинг учун кредиторлик мажбуриятларни шунчаки “қарз” сифатида эмас, балки иқтисодий мазмунига кўра жорий, узоқ муддатли ёки баҳоланган мажбурият сифатида ажратиб кўрсатиш лозим.

Баҳоланган мажбуриятлар кредиторлик қарздорликнинг мураккаброқ кўриниши бўлиб, улар оддий кредитор қарзларидан миқдори ёки қоплаш муддатидаги ноаниқлик билан фарқ қилади. Ўзбекистон Республикаси бюджет ҳисобининг 16-сонли стандартида баҳоланган мажбуриятлар молиявий ҳисоботларда кредиторлик қарзлар ва ҳисобланган харажатлар каби мажбуриятлар сифатида акс эттирилиши, бироқ улар бўйича энг яхши баҳолаш усули қўлланилиши лозимлиги белгиланган. Шу билан бирга, шартли мажбуриятлар молиявий ҳисоботда тан олинмайди, аммо улар тўғрисидаги ахборот молиявий ҳисобот изоҳларида очиб берилиши шарт. Бу ёндашув мажбуриятларни сунъий равишда балансга киритиш ёки аксинча, ҳақиқий хавфларни яширишнинг олдини олади.

Халқаро давлат сектори стандартлари ҳам шу тамойилни қўллаб-қувватлайди. IPSAS 1 молиявий ҳисоботда актив ва мажбуриятларни, даромад ва харажатларни ўзаро қоплаб кўрсатишга йўл қўймаслигини белгилайди, яъни кредиторлик мажбуриятлар алоҳида ва ҳаққоний акс эттирилиши керак. IPSAS 19 эса ҳар бир баҳоланган мажбурият синфи бўйича унинг табиати, ресурслар чиқиб кетиши кутилаётган муддат ва миқдорга оид ноаниқликлар, шунингдек асосий баҳолаш фаразлари ҳақида ахборотни очиб беришни талаб қилади. Демак, молиявий ҳисоботда кредиторлик мажбуриятларнинг сифатли тақдим этилиши фақат балансда рақам кўрсатиш билан чекланмай, уларнинг мазмуни ва хавф даражасини изоҳлар орқали ёритишни ҳам талаб қилади.

Бюджет ташкилотлари амалиётида кредиторлик мажбуриятларни акс эттиришнинг ўзига хос жиҳати шундаки, молиявий ҳисобот шакллари Бош журнал китоби ва бошқа тегишли ҳисоб регистрлари маълумотлари асосида тузилади. Амалдаги қоидаларга кўра, бюджет ташкилотининг барча мавжуд кредиторлик қарзлари махсус “Кредитор қарздорлик” қисмида акс эттирилади, айрим ҳолатларда эса мазкур кўрсаткичлар балансдаги тегишли субсчётлар қолдиқларига мос бўлиши шарт. Бу талаб кредиторлик мажбуриятлар тўғрисидаги ахборотнинг ҳисоб регистрлари, аналитик ҳисоб ва ҳисобот шакллари ўртасида ўзаро мувофиқлигини таъминлайди. Натижада ташқи фойдаланувчилар, назорат органлари ва аудиторлар учун ҳисобот маълумотларининг текширувчанлиги ошади.

Кредиторлик мажбуриятларнинг ҳаққоний акс эттирилишида инвентаризация ҳам ҳал қилувчи ўрин тутади. Амалдаги миллий қоидаларга биноан, инвентаризация натижалари инвентаризация тугаган ойдаги ҳисоб ва ҳисоботда, йиллик инвентаризация натижалари эса йиллик молиявий ҳисоботда акс

эттирилиши керак. Бу талаб айниқса кредиторлик қарздорлик бўйича муҳим, чунки у ҳисобда мавжуд, аммо ҳуқуқий ёки иқтисодий жиҳатдан асоссиз бўлиб қолган қарзлар, муддати ўтган қарзлар ёки нотўғри баҳоланган мажбуриятларни аниқлаш имконини беради. Шундай экан, инвентаризация кредиторлик мажбуриятларни балансга киритишдан олдинги техник жараён эмас, балки молиявий ҳисобот ишончлилигини таъминлайдиган текширув механизми ҳисобланади.

Молиявий ҳисоботга изоҳлар кредиторлик мажбуриятлар тўғрисидаги ахборотни кенгайтирувчи муҳим манба ҳисобланади. 1-сонли БҲМСда молиявий ҳисоботларга изоҳлар ҳисоб-китоблар, тушунтиришлар ва изоҳлар кўринишида бўлиши қайд этилган. Илмий нуқтаи назардан, айнан изоҳлар орқали кредиторлик мажбуриятлар таркиби, қайтариш муддати, баҳолаш усули, баҳоланган мажбуриятлар ва шартли мажбуриятлар бўйича ноаниқликлар, суд даъволари, кафолатлар, бюджетдан ташқари тўловларга оид хавфлар каби ахборотларни очиш мумкин. Агар мазкур маълумотлар изоҳларда етарли даражада берилмаса, балансдаги рақамлар фойдаланувчи учун формал кўрсаткич бўлиб қолади ва қарор қабул қилиш сифатини пасайтиради.

Хулоса сифатида таъкидлаш мумкинки, кредиторлик мажбуриятларнинг молиявий ҳисоботда акс эттирилиши бухгалтерия ҳисобининг оддий техникаси эмас, балки ташкилотнинг молиявий интизоми, тўлов қобилияти ва ҳисобдорлик даражасини ифодаловчи комплекс ахборот тизимидир. Самарали акс эттириш учун тўрт шарт муҳим: биринчиси, мажбуриятларни ўз вақтида тан олиш; иккинчиси, уларни иқтисодий мазмунига кўра тўғри таснифлаш; учинчиси, баланс ва махсус ҳисобот шаклларида тўлиқ акс эттириш; тўртинчиси, изоҳлар ва инвентаризация орқали ахборотнинг ишончлилигини мустаҳкамлаш. Айнан шу ёндашув кредиторлик мажбуриятлар бўйича молиявий ҳисоботни шаффоф, таққосланувчан ва аудит учун қулай манбага айлантиради.

БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИДА КРЕДИТОРЛИК ҚАРЗЛАРИНИ ТАСНИФЛАШ ТАРТИБИ

Очилов Фарходжон Шавкатжон ўғли
ТДИУ “Аудит” кафедраси доценти, DSc
Назарова Озода Ваҳобовна
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси таянч докторанти

Аннотация. Мазкур мақолада 9-сон “Молиявий инструментлар” номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти талаблари асосида Ўзбекистонда кредиторлик қарзлари ҳисобини юритишнинг назарий ва амалий жиҳатлари комплекс равишда тадқиқ этилган. Жумладан, кредиторлик қарзларини молиявий мажбурият сифатида дастлабки тан олиш мезонлари, уларни кейинги баҳолаш

усуллари, амортизация қилинган қиймат модели ҳамда самарали фоиз ставкаси усулини қўллашнинг ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинган. Шунингдек, молиявий мажбуриятларни ҳисобдан чиқариш тартиби, уларнинг молиявий ҳисоботда акс эттирилиши, шунингдек, миллий амалиётни халқаро стандартлар билан уйғунлаштириш муаммоларига алоҳида эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: 9-сон МҲХС, молиявий инструментлар, кредиторлик қарзлари, молиявий мажбурият, амортизация қилинган қиймат, самарали фоиз ставкаси, дастлабки тан олиш, ҳисобдан чиқариш.

КИРИШ. Жаҳон иқтисодиётида молиявий ҳисоботнинг шаффофлиги ва ишончлилигини таъминлаш масаласи сўнгги йилларда янада долзарб аҳамият касб этмоқда. Айниқса, глобаллашув шароитида инвесторлар, кредиторлар ва бошқа манфаатдор томонлар учун молиявий ахборотнинг сифатли ва таққосланадиган бўлиши муҳим ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, 9-сон “Молиявий инструментлар” номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти каби халқаро стандартлар молиявий инструментларни, жумладан молиявий мажбуриятларни ҳисобга олиш ва баҳолашда ягона ёндашувни шакллантиришга хизмат қилмоқда.

Халқаро амалиётда кредиторлик қарзлари корхоналарнинг молиявий мажбуриятлари таркибида муҳим ўрин тутади ва уларни тўғри ҳисобга олиш корхонанинг молиявий ҳолатини холис баҳолашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Кредитлик қарзларини дастлабки тан олиш, кейинги баҳолаш, амортизация қилинган қиймат бўйича ҳисоблаш ва самарали фоиз ставкаси усулини қўллаш масалалари халқаро илмий тадқиқотларда кенг ўрганилмоқда. Шу билан бирга, молиявий мажбуриятларни ҳисобдан чиқариш ва молиявий ҳисоботда тўғри тақдим этиш масалалари ҳам аудит ва бухгалтерия ҳисоби назариясида муҳим илмий муаммо сифатида қаралмоқда.

АДАБЁИТЛАР ШАРҲИ. Молиявий мажбуриятлар тушунчаси бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоб назариясида муҳим ўрин эгаллайди. Халқаро амалиётда молиявий мажбуриятлар таърифи 9-сон “Молиявий инструментлар”номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартида келтириб ўтилган. Унга кўра,
«молиявий мажбурият — бу корхонанинг ўтган воқеалар натижасида юзага келган ва келгусида иқтисодий ресурсларни (одатда пул маблағлари ёки бошқа молиявий активлар) бошқа томонга ўтказиш мажбуриятини ифодаловчи қарздорликдир» [1]. Мазкур таъриф молиявий мажбуриятларнинг иқтисодий моҳиятини очиб беради ҳамда уларни ҳисобга олиш ва баҳолашда асосий назарий мезон бўлиб хизмат қилади.

Хорижий иқтисодчи олимлар молиявий мажбуриятларни турлича талқин қиладилар. Жумладан, С.Давидсон ва Р.Вел молиявий мажбуриятларни корхонанинг ташқи субъектлар олдидаги ҳуқуқий ва иқтисодий жавобгарликлари сифатида баҳолаб, уларнинг асосий хусусиятини келгусида активлар чиқими билан

боғлайдилар [2].

Маҳаллий иқтисодчи олимлар ҳам молиявий мажбуриятлар мазмунини миллий амалиёт нуқтаи назаридан тадқиқ этганлар. Хусусан, Ф. Очилов ва С. Маҳмудов молиявий мажбуриятларни корхонанинг кредиторлар олдидаги қарздорлик мажбуриятлари сифатида талқин қилиб, уларни бошқариш корхона молиявий барқарорлигини таъминлашда муҳим омил эканлигини таъкидлайдилар [4].

Юқорида келтирилган илмий қарашлар таҳлили шуни кўрсатадики, молиявий мажбуриятлар тушунчаси ва уларнинг ҳисобини ташкил этиш масалалари ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан доимий ривожланишда. Шу билан бирга, миллий амалиётни халқаро стандартлар билан уйғунлаштириш, кредіторлик қарзларини баҳолаш ва ҳисобга олишда илғор усулларни жорий этиш бугунги кундаги муҳим илмий ва амалий вазифалардан бири ҳисобланади.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР. Кредиторлик қарзлари корхонанинг молиявий мажбуриятларининг асосий таркибий қисми бўлиб, уларни тўғри таснифлаш молиявий ҳисоботнинг шаффофлиги ва ишончлилигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Халқаро амалиётда, хусусан 9-сон “Молиявий инструментлар” номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти талабларига мувофиқ, кредиторлик қарзлари турли мезонлар асосида гуруҳланади. Жумладан, уларни муддатига кўра, қисқа ва узоқ муддатли, иқтисодий мазмунига кўра товарлар ва хизматлар учун қарзлар, молиявий қарзлар, ҳисоб-китоблар бўйича қарзлар, шунингдек, баҳолаш усулига кўра амортизация қилинган қиймат бўйича баҳоланадиган мажбуриятлар ва ҳаққоний қиймат бўйича баҳоланадиган мажбуриятлар каби таснифлаш мумкин. Ушбу тасниф молиявий мажбуриятларнинг моҳиятини чуқурроқ англашга ва уларни бошқариш самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Шу билан бирга, кредиторлик қарзларини таснифлаш уларнинг ҳисобга олиниши ва молиявий ҳисоботда акс эттирилишига бевосита таъсир кўрсатади. Масалан, қисқа муддатли мажбуриятлар корхонанинг жорий ликвидлигини баҳолашда муҳим кўрсаткич ҳисобланса, узоқ муддатли қарзлар эса корхонанинг молиявий барқарорлиги ва капитал тузилмасини таҳлил қилишда асосий аҳамият касб этади. Бундан ташқари, кредіторлик қарзларини турли тоифаларга ажратиш орқали рискларни аниқлаш, тўлов қобилиятини баҳолаш ва молиявий режалаштириш жараёнларини самарали ташкил этиш имкони пайдо бўлади. Шу жиҳатдан, кредиторлик қарзларининг илмий асосланган таснифи бухгалтерия ҳисоби ва аудит амалиётида муҳим методологик аҳамиятга эга (2-жадвал).

1-жадвал

Кредиторлик қарзларининг таснифи[262]

№	Таснифлаш мезони	Кредиторлик қарз турлари	Қисқача тавсиф
1	Муддатига кўра	Қисқа муддатли	1 йилгача бўлган қарзлар, жорий мажбуриятлар
		Узоқ муддатли	1 йилдан ортиқ муддатга эга мажбуриятлар
2	Иқтисодий мазмунига кўра	Товар ва хизматлар учун қарзлар	Етказиб берувчилар ва пудратчиларга қарзлар
		Молиявий қарзлар	Кредитлар, қарзлар ва бошқа молиявий мажбуриятлар
		Бюджет ва солиқлар бўйича	Солиқлар ва мажбурий тўловлар бўйича қарзлар
		Ходимлар билан ҳисоб-китоблар	Иш ҳақи ва бошқа тўловлар бўйича қарзлар
3	Баҳолаш усулигакўра	Амортизацияланган қийматда баҳоланадиган узоқ ва қисқа муддатли мажбуриятлар	Самарали фоиз ставкаси усули асосида баҳоланади
		Фойда ёки зарар орқали ҳаққоний қиймат баҳоланадиган узоқ ва қисқа муддатли мажбуриятлар	Бозорқийматиасосида баҳоланади
4	Қарз манбасига кўра	Ички қарзлар	Ажратилган бўлинмаларга бўлган қарзлар ёки боғлиқ томонлардан қарзлар
		Ташқи қарзлар	Ташқи кредиторлар олдидаги мажбуриятлар

Юқорида келтириб ўтилган тасниф кредиторлик қарзларининг турлари ва уларнинг иқтисодий мазмунини тизимли равишда очиб бериб, уларни ҳисобга олиш, баҳолаш ва молиявий ҳисоботда тўғри акс эттиришни таъминлашга хизмат қилади ҳамда корхонанинг ликвидлиги ва молиявий барқарорлигини самарали бошқариш учун муҳим ахборот манбаи ҳисобланади.

Кредиторлик қарзлари молиявий мажбурият сифатида молиявий ҳисоботда тан олиниши учун аввало улар молиявий ҳисобот халқаро стандартларининг

[262] Муаллиф ишланмаси

концептуал асосида белгиланган мажбурият таърифига жавоб бериши лозим. Яъни, корхона ўтган хўжалик операциялари натижасида бошқа шахслар олдида иқтисодий ресурсларни, одатда пул маблағларини, бериш мажбуриятини ўз зиммасига олган бўлиши керак. Шунингдек, мазкур мажбуриятни тан олиш учун унинг қийматини ишончли баҳолаш имконияти мавжуд бўлиши ва келгусида иқтисодий манфаатларнинг чиқими эҳтимоли юқори бўлиши талаб этилади.

ХУЛОСА. Мазкур мавзудаги илмий-тадқиқот натижалари бўйича қуйидаги хулосалар шакллантирилди:

1. Кредиторлик қарзларини 9-сон "Молиявий инструментлар" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти талаблари асосида тўғри тан олиш ва баҳолаш корхоналарда молиявий мажбуриятларнинг ҳаққоний акс эттирилишини таъминлаб, молиявий ҳисоботнинг шаффофлиги ва ишончлилигини оширади.

2. Амортизация қилинган қиймат усули ва самарали фоиз ставкаси методини қўллаш кредіторлик қарзларининг реал иқтисодий қийматини аниқлашга хизмат қилади ҳамда молиявий натижаларни ҳисоблашда аниқликни таъминлайди.

КРЕДИТОРЛИК ҚАРЗЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ТАРТИБИ ВА БОСҚИЧЛАРИ

Очилов Фарходжон Шавкатжон ўғли
ТДИУ "Аудит" кафедраси доценти, DSc
Назарова Озода Ваҳобовна
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси таянч докторанти

Аннотация. Мазкур мақолада 9-сон "Молиявий инструментлар" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти талаблари асосида Ўзбекистонда кредиторлик қарзлари ҳисобини юритишнинг назарий ва амалий жиҳатлари комплекс равишда тадқиқ этилган. Шу билан бирга мақолада амалий мисоллар орқали кредиторлик қарзларини баҳолаш ва ҳисобга олишда учрайдиган методологик муаммолар очиб берилган ҳамда уларни бартараф этиш бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган. Олинган натижалар корхоналарда молиявий ҳисоботнинг шаффофлиги ва ишончлилигини оширишга, молиявий мажбуриятларни баҳолашнинг аниқлигини таъминлашга ҳамда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига мувофиқ ҳисоб сиёсати юритилишини такомиллаштиришга хизмат қилади.

Калит сўзлар: молиявий инструментлар, кредиторлик қарзлари, молиявий мажбурият, амортизация қилинган қиймат, самарали фоиз ставкаси, дастлабки тан олиш, ҳисобдан чиқариш.

КИРИШ.

Ўзбекистон иқтисодиётида ҳам молиявий ҳисоботни халқаро стандартлар асосида юритишга босқичма-босқич ўтиш жараёни амалга оширилмоқда. Бу эса

корхоналарда кредиторлик қарзлари ҳисобини ташкил этиш ва юритишда янги талабларни келтириб чиқармоқда. Айниқса, миллий ҳисоб амалиётини МҲХС талабларига мослаштириш, молиявий мажбуриятларни баҳолашда замонавий усулларни жорий этиш ва ҳисоб сиёсатини такомиллаштириш масалалари муҳим аҳамият касб этмоқда.

Шу муносабат билан, кредиторлик қарзлари ҳисобининг ўзига хос хусусиятларини назарий ва амалий жиҳатдан чуқур ўрганиш, мавжуд муаммоларни аниқлаш ҳамда уларни бартараф этиш бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Мазкур мақола айнан ушбу масалаларни қамраб олиб, корхоналарда молиявий ҳисобот сифатини ошириш ва халқаро стандартларга мос ҳисоб тизимини шакллантиришга қаратилган.

АДАБЁИТЛАР ШАРҲИ. Молиявий мажбуриятлар тушунчаси бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоб назариясида муҳим ўрин эгаллайди. Халқаро амалиётда молиявий мажбуриятлар таърифи 9-сон “Молиявий инструментлар”номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартида келтириб ўтилган. Унга кўра,
«молиявий мажбурият — бу корхонанинг ўтган воқеалар натижасида юзага келган ва келгусида иқтисодий ресурсларни (одатда пул маблағлари ёки бошқа молиявий активлар) бошқа томонга ўтказиш мажбуриятини ифодаловчи қарздорликдир» [1]. Мазкур таъриф молиявий мажбуриятларнинг иқтисодий моҳиятини очиб беради ҳамда уларни ҳисобга олиш ва баҳолашда асосий назарий мезон бўлиб хизмат қилади.

Хорижий иқтисодчи олим Б.Ахмед молиявий мажбуриятларни корхона ресурсларининг келгусида камайишига олиб келувчи иқтисодий талаблар мажмуаси сифатида изоҳлайди. Унинг фикрига кўра, мажбуриятларни тўғри баҳолаш молиявий ҳисоботнинг ишончлилигига бевосита таъсир кўрсатади [2].

Иқтисодчи олим А. Тўйчиев эса мажбуриятларнинг ҳисобини ташкил этишда уларнинг турлари, баҳолаш усуллари ва ҳисоб сиёсатида акс эттирилишининг аҳамиятига алоҳида эътибор қаратади [3].

Илмий адабиётларда кредиторлик қарзлари молиявий мажбуриятларнинг энг муҳим таркибий қисми сифатида қаралади. Уларнинг дастлабки тан олиниши, кейинги баҳоланиши ва ҳисобдан чиқарилиши масалалари 9-сон МҲХС талаблари асосида амалга оширилиши лозим. Айниқса, амортизация қилинган қиймат усули ва самарали фоиз ставкаси методини қўллаш орқали кредиторлик қарзларини баҳолаш халқаро амалиётда кенг тарқалган. Бу эса молиявий ҳисоботда мажбуриятларнинг реал қийматини акс эттиришга хизмат қилади [4].

Миллий амалиётни халқаро стандартлар билан уйғунлаштириш, кредиторлик қарзларини баҳолаш ва ҳисобга олишда илғор усулларни жорий этиш бугунги кундаги муҳим илмий ва амалий вазифалардан бири ҳисобланади.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР.

9-сон “Молиявий инструментлар” номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти талабларига мувофиқ, кредиторлик қарзлари дастлабки тан олишда, одатда, уларнинг ҳаққоний қийматида баҳоланади. Агар молиявий мажбурият оддий шартлар асосида юзага келган бўлса (масалан, товарлар ва хизматлар учун қарз), у ҳолда унинг дастлабки қиймати шартнома бўйича тўланиши лозим бўлган суммага тенг бўлади.

Бунда айрим ҳолатларда транзакция харажатлари ҳам ҳисобга олиниши мумкин, агар улар молиявий мажбуриятни шакллантириш билан бевосита боғлиқ бўлса.

Кредиторлик қарзларини тан олиш жараёнида муҳим жиҳатлардан бири — бу молиявий мажбурият юзага келган сана ҳисобланади. Яъни, корхона товарлар ёки хизматларни қабул қилган ёки шартнома бўйича мажбуриятни ўз зиммасига олган вақтда ушбу қарз тан олинади.

Шу билан бирга, агар ҳисоб-китоблар кечиктирилган тўлов шартида амалга оширилса, мажбуриятнинг ҳақиқий қийматини аниқлашда дисконтлаш усулидан фойдаланиш талаб этилиши мумкин.

Қуйидаги жадвалда 9-сон “Молиявий инструментлар” номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти талаблари асосида кредиторлик қарзларини молиявий мажбурият сифатида тан олиш босқичлари ва уларнинг мазмуни тизимлаштирилган (1-жадвал).

1-жадвал

Кредиторлик қарзларини тан олиш босқичлари[263]

	Мажбурият юзага келишини аниқлаш	Хўжалик операцияси натижасида қарздорлик пайдо бўлиши	Ўтганвоқеа мавжуд бўлиши
	Таърифга мувофиқлик	Молиявий мажбурият сифатида тан олиш мезонлари	Иқтисодийресурс чиқими эҳтимоли
	Қийматни баҳолаш	Қарз суммасини ишончли аниқлаш	Ишончли баҳолаш имконияти
	Дастлабки баҳолаш	Ҳақиқий қийматда тан олиш	Ҳаққоний қиймат асосида баҳолаш
	Ҳисобга олиш	Бухгалтерия ҳисобида акс эттириш	Ҳисоб сиёсатига мувофиқ

[263] Муаллиф ишланмаси

Мазкур босқичлар кредиторлик қарзларини тўғри ва изчил тан олишни таъминлаб, молиявий ҳисоботда мажбуриятларнинг ҳаққоний акс эттирилишига хизмат қилади.

Қуйида кредиторлик қарзларини тан олиш жараёнининг алгоритми кетма-кетлик асосида ифодаланган (1-расм).



1-расм. Кредиторлик қарзларини тан олиш тартиби[264]

Келтирилган алгоритм кредиторлик қарзларини тан олиш жараёнини тизимли равишда ифодалаб, уларни ҳисобга олишда халқаро стандартлар талабларига мувофиқ ёндашувни таъминлайди.

Хулоса қилиб айтганда, кредиторлик қарзларини тан олиш 9-сон “Молиявий инструментлар” номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти талаблари асосида амалга оширилиб, уларни тўғри ва ўз вақтида ҳисобга олиш молиявий ҳисоботнинг ишончлилиги ва шаффофлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

ХУЛОСА. Мазкур мавзудаги илмий-тадқиқот натижалари бўйича қуйидаги хулосалар шакллантирилди:

1. Амортизация қилинган қиймат усули ва самарали фоиз ставкаси методини қўллаш кредіторлик қарзларининг реал иқтисодий қийматини аниқлашга хизмат қилади ҳамда молиявий натижаларни ҳисоблашда аниқликни таъминлайди.

2. Кредиторлик қарзлари ҳисобини халқаро стандартлар талабларига мувофиқ ташкил этиш корхоналарда ликвидликни самарали бошқариш, молиявий рискларни камайтириш ва инвестицион жозибадорликни оширишга ижобий таъсир кўрсатади.

[264] Муаллиф ишланмаси

SOLIQ MEXANIZMLARI ORQALI INVESTITSIYALARNI FAOLLASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI

Ilyasova Barno Axmadovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
"Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasi o'qituvchisi

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida investitsiyalar muhim o'ringa ega bo'lib, ular iqtisodiyotning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda asosiy drayver vazifasini bajaradi. Investitsiya faolligi iqtisodiyot sub'ektlari – korxonalar, kompaniyalar va boshqa tashkilotlarning o'z resurslarini yangi loyihalarga, texnologik yangilanishlarga va ilg'or texnologiyalarga yo'naltirish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda investitsiyalarni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish, ish o'rinlari yaratish va milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Shuning uchun, iqtisodiyot sub'ektlarining investitsiya faolligini oshirish va rag'batlantirish mexanizmlari iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimiz bu jarayonda faol ishtirok etib, o'z iqtisodiyotini modernizatsiya qilishga, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan strategiyani amalga oshirmoqda hamda investitsiya muhitini takomillashtirishga yo'naltirilgan bir qator qonunchilik tashabbuslari, davlat dasturlari va iqtisodiy islohotlar joriy qilinmoqda. Masalan, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va boshqa tegishli qonunchilik hujjatlari sarmoyalarni jalb qilishni yengillashtirish, xususiy va xorijiy investorlarni himoya qilishga xizmat qiladi[265]. Shu bilan birga, iqtisodiyot sub'ektlarining investitsiya faolligini cheklovchi barcha to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadida tizimli choralar ko'rilmoqda. Biroq, mavjud muammolar hamon uzoq muddatli samarali investitsiya faolligini ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda hamda bu sohadagi mexanizmlarni yanada takomillashtirish zaruratiga olib kelmoqda.

Iqtisodiy tadqiqotlarda investitsiya faolligi va uni rag'batlantirish mexanizmlari masalasi keng qamrovli tahlil qilingan. Dunyodagi eng mashhur iqtisodchilari – Djon Meynard Keyns, Milton Fridman, Robert Solou kabi olimlar investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ularni rag'batlantirish uchun moliyaviy va iqtisodiy mexanizmlar haqida nazariyalar yaratgan. Xorijiy mamlakatlarda moliyaviy stimullar, soliq imtiyozlari, davlat kafolatlari va huquqiy bazani takomillashtirish orqali investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan turli mexanizmlar samarali qo'llanilmoqda. Investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida butun dunyoda

[265]"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son.

iqtisodiy nazariya va amaliyotning markaziy mavzusiga aylanib bormoqda. Ushbu adabiyotlarni tahlil qilish orqali zamonaviy iqtisodiy sharoitda investitsiya faolligini oshirishda nima muhimligini aniqlash mumkin.

Djon Meynard Keyns o‘zining «Ish o‘rinlari, foiz va pul nazariyasi»da investitsiyalarning iqtisodiy faoliyatdagi o‘rnini aniqladi. Keynsga ko‘ra, investitsiyalar umumiy talabni shakllantiruvchi muhim element bo‘lib, ular iqtisodiy faoliyatning o‘sishini va muvozanatini ta’minlaydi[266]. Uning nazariyasida davlatning makroiqtisodiy siyosatda investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy krizislarni yengishdagi roliga alohida e’tibor berilgan. Keyns nazariyasi keyingi yillarda iqtisodiy siyosat va investitsiya jarayonlarini tahlil qilishda asosiy yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Milton Fridman esa, qarama-qarshi ravishda, investitsiyalarning asosan moliyaviy muhitga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi[267]. Uning «Pul tarixi»da (A Monetary History of the United States) ko‘rsatilishicha, moliyaviy bozorlardagi burilishlar va kredit resurslarining mavjudligi investitsiyalarning hajmi va sifatini belgilaydi. Fridmanning fikriga ko‘ra, sarmoyaviy muhitni yaxshilash uchun moliyaviy institutlarni rivojlantirish, kredit siyosati va inflyatsiya darajasini nazorat qilish zarur. Robert Solouning iqtisodiy o‘sish modellari investitsiyalar va texnologik innovatsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berdi[268]. Solou modeliga ko‘ra, iqtisodiy o‘sishda asosiy rol sarmoyalashtirishga, ya’ni investitsiyalarga berilsada, ularning samaradorligini oshirish uchun texnologiyalar va ilg‘or ishlab chiqarish usullari juda muhimdir. Investitsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishda ushbu nazariy yondashuv texnologik taraqqiyotga katta e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi.

Xorijiy mamlakatlarda investitsiyalarni rag‘batlantirishning amaliy vositalari, jumladan, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kreditlar, davlat kafolatlari va boshqa moliyaviy stimullar keng qo‘llaniladi. Germaniya va Yaponiya misolida ushbu modellarning yuqori samaradorligi ko‘rsatilgan[269]. Germaniyaning sanoat siyosatida investitsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik tizimi va moliyaviy rag‘batlar muvaffaqiyatli joriy qilingan. Yaponiyada esa, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va texnologik taraqqiyotni jadallashtirishga qaratilgan investitsiya dasturlari iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Ta’kidlash lozimki, xalqaro tadqiqotlar va amaliy tajribalar asosida investitsiyalarni rag‘batlantirishda huquqiy, moliyaviy va tashkilotchilik jihatlarni muvozanatli rivojlantirish muhim ekanligi aniqlanmoqda. Davlat siyosatidagi erkinlik, moliyaviy institutlarning rivojlanishi, korrupsiyani kamaytirish va biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilgan choralar sarmoyalarning samarali jalb qilinishiga xizmat

[266] Keynes J. M. The General Theoryof Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
[267] Friedman M. A Monetary Historyof the United States, 1867-1960. – Princeton UniversityPress, 1963.
[268] Solow R. M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70,№1.
[269] OECD. Investment Policy Reviews: Germanyand Japan. – OECD Publishing, 2018.

qiladi. Shuningdek, davlat va xususiy sektorning hamkorligida samarali mexanizmlarni yaratish – investitsiya faolligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Investitsion soliq imtiyozlari yoki imtiyozlar soliq ta’tillari o‘rniga va ba’zan ularga qo‘shimcha ravishda qo‘llaniladi. Rasmiy modellashtirish nuqtai nazaridan, soliq imtiyozlari asosan soliq yukini kamaytirishning bir xil vositasi bo‘lib, ularning bir-biridan farqi – chegirma soliq yukining miqdoriga nisbatan hisoblanadi, kredit esa, soliq solinadigan baza hajmiga nisbatan hisoblanadi.

Ushbu turdagi imtiyozlar qo‘llanilishi o‘zining soddaligi va shaffofligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ular, soliq ta’tillari kabi, qisqa muddatli investitsiyalar, mahsulot assortimentini tez-tez o‘zgartirishga qaratilgan, chunki mahsulot nomidagi har qanday o‘zgarish yangi chegirma yoki kredit olish imkonini beradi. Bundan tashqari, qaytarib bo‘lmaydigan asosda chegirmalar va kreditlar berish yangi va amalga oshirilayotgan loyihalarga investitsiyalar o‘rtasida buzilishlarga olib kelishi mumkin.

Jadallashgan amortizatsiya odatda amortizatsiyani hisoblashning har qanday usulini nazarda tutadigan atama bo‘lib, soliq maqsadlarida aktivning qiymatini odatdagi iqtisodiy amortizatsiya davridagidan tezroq hisobdan chiqaradi. Ushbu imkoniyat pulning o‘zgaruvchan vaqt qiymatidan foydalanish imkonini beradi, chunki soliqqa tortiladigan daromad davrlarida tezlashtirilgan amortizatsiya xarajatlari odatda soliq ta’tillari yoki investitsiya soliq imtiyozlari yoki imtiyozlari xarajatlaridan past bo‘ladi. Shuning uchun, to‘langan soliqlar miqdori emas, balki faqat soliqlarni to‘lash muddati o‘tkazib yuboriladi. Biroq, bu foydali investitsiyalar mavjudligini talab qiladi.

Aksariyat investitsiyalar boshlang‘ich korxonalar bo‘lgan hollarda, uzoq vaqt davomida foyda bo‘lmasligi mumkin va tezlashtirilgan amortizatsiya foyda olishga imkon bermaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, rasmiy nuqtai nazardan, imtiyozli soliqqa tortish bo‘yicha sanab o‘tilgan yondashuvlarning aksariyati xuddi shunday amalga oshirish mexanizmiga ega. Soliq imtiyozlaridan foydalanish investitsiyalar hajmini maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda investitsiya faolligini rag‘batlantirishda mavjud soliq tizimi samaradorligi cheklangan bo‘lib, ayniqsa investitsiyalarga yo‘naltirilgan foydaga teng stavkada soliq solinishi sarmoya qiymatini pasaytiradi. Mamlakatda investetsiyaviy muhitni tubdan yaxshilashva iqtisodiyotning texnologik murakkabligini oshirishda soliq mexanizmlari eng samarali stimulyator bo’lib xizmat qiladi. O’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, soliq siyosatini shunchaki fiskal vosita sifatida emas, balki strategik rivojlanish drayveri sifatida qo’llash muhim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq mexanizmlari orqali investitsiyalarni faollashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

-soliq siyosatini differensiyalash – investitsiyaning rentabellik darajasi, texnologik daraja va innovatsion salohiyatiga qarab soliq yukini turlicha belgilash;

-innovatsiyaga rag‘batlantirish – ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini qo‘llab-quvvatlovchi grantlar, subsidiyalar va soliq kreditlari tizimini kengaytirish;

-modernizatsiya dasturlari – asosiy fondlarni yangilash va zamonaviy texnologiyalar joriy etish uchun uzoq muddatli davlat dasturlarini moliyaviy va soliq imtiyozlari bilan uyg‘unlashtirish;

-maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish – xorijiy va mahalliy investorlar uchun alohida soliq va bojxona imtiyozlariga ega innovatsiya markazlarini tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, ushbu kompleks choralar milliy iqtisodiyotning global bozorda raqobatbardoshligini ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish va sanoatning texnologik yangilanish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Soliq tizimining moslashuvchanligi va rag‘batlantiruvchi xarakteri uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishning garovi bo‘lib, xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi.

ДАВЛАТ ОРГАНЛАРИ ВА ТАШКИЛОТЛАРИ ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТЛАРИ ХОДИМЛАРИНИ СЕРТИФИКАТЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Жалолиддинов Мамиржон Махмуджон ўғли

Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Давлат бюджети сиёсати департаментининг бўлим бошлиғи, и.ф.ф.д.(PhD)

Аннотация: Тезисда мамлакатимиздаги давлат органлари ва ташкилотларда фаолият юритаётган ички аудит хизмати ходимларини малакасини сертификатлаш тизими ҳамда малакасини ошириш тизимининг жорий ҳолати, сертификат эгасининг малака ошириш жараёнлари ҳамда сертификатлаш жараёнини ташкил этишда амалиётда учраётган ҳал этилиши лозим бўлган масалалар ёритилган.

Таянч сўзлар: малака сертификати, ички аудит, малака ошириш, узлуксиз касбий ривожлантириш, ички аудит хизмати, давлат органлари ва ташкилотлари, малака имтиҳони.

Бугунги кунда давлат органлари ва ташкилотларида, жумладан, республика ижро этувчи ҳокимият органлари, давлат мақсадли жамғармалари, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари ҳамда бошқа бюджет ташкилотлари ички аудит хизматлари фаолияти йўлга қўйилди[270].

Мазкур ички аудит хизматларида 250 дан ортиқ ички аудит ходимлари фаолият олиб бормоқда. Шунингдек, ички аудит хизмати ходимларининг

[270] https://www.imv.uz/static/ichki-audit-tuzilmasi-mavjud-vazirlik-va-idoralar-royxati

аксарияти бугунги кунда ички аудит миллий малака сертификатига эга ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 14 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети харажатларининг самарадорлигини янада ошириш ва давлат молиявий назорати органлари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПҚ-128-сон қарори билан Давлат молиявий назорати инспекцияси ва ички аудит хизматлари ходимларига малака сертификати бериш тизимининг жорий этилиши белгиланди.

Мазкур қарор ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 13 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаментининг Давлат молиявий назорати инспекцияси ҳамда давлат органлари ва ташкилотларининг ички аудит хизматлари ходимлари малакасини сертификатлаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 62-сон қарори қабул қилинди.

I. Ички аудит хизматлари ходимларини сертификатлашнинг амалдаги тизими

Сертификатлаш тизими 2023 йилнинг 1 июнидан бошлаб амалда ишлай бошлади ҳамда 2026 йилнинг 2 феврал ҳолатига 1001 нафар талабгор ички аудит миллий малака сертификатига эга ҳисобланади[271].

Амалдаги сертификатлаш тизимининг асосий жиҳатлари қуйидагилардан иборат:

1. Сертификат сертификат эгасига Давлат молиявий назорати инспекцияси ва ички аудит хизматларида фаолият юритиш имкониятини беради.

2. Амалдаги сертификатлаш тизими малака имтиҳонларини ўтказиш орқали сертификат бериш ҳамда сертификат эгаларининг малака ошириш курсларини ташкил этишни ўз ичига олади.

3. Малака имтиҳонлари Ўзбекистон аудиторлар палатаси томонидан ўтказилади ҳамда малака имтиҳонини муваффақиятли топширган талабгорга сертификат расмийлаштирилиб берилади. Сертификат аввал тўрт йил муддатга, кейинчалик муддатсиз даврга берилади.

4. Малака имтиҳонида фойдаланиладиган тест саволлари йўналишлари Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан Ҳисоб палатаси билан келишилган ҳолда тасдиқланади.

5. Тест саволлари Ўзбекистон Аудиторлар палатаси томонидан ишлаб чиқилади ва Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан келишилади.

6. Малака имтиҳонлари тест шаклида ахборот технологиялардан фойдаланган ҳолда ҳар ойнинг охирги ўн кунлигида ўтказилади.

---

271 https://www.imv.uz/statistic/category/ichki-audit-milliy-malaka-sertifikatlari-reestri

7. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан малака имтиҳонларидан иштирок этадиган Имтиҳон комиссияси ҳамда апелляция жараёнини ўтказувчи Апелляция комиссияси шакллантирилади Комиссиялар таркибига Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ҳисоб палатаси, Коррупцияга қарши курашиш агентлиги ҳамда Аудиторлар палатасидан вакиллар киритилади.

8. Малака имтиҳони натижаларидан норози бўлган талабгор томонидан апелляция бериши мумкин. Бунда апелляция Апелляция коммиссияси томонидан талабгор иштирокида кўриб чиқилади.

9. Сертификат эгаси сертификат олган санадан бошлаб ҳар икки йилда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Ўқув марказида малака ошириш курсларини ўташи мажбур ҳисобланади. Малака ошириш курсларини муваффақиятли якунлаган сертификат эгасига гувоҳнома берилади.

Шу билан бирга амалдаги сертификатлаш тизимида айрим ҳал этилиши лозим бўлган масалалар мавжуд бўлиб, уларни ҳал этиш зарурати бугунги кунда юзага келмоқда. Жумладан,

1. Амалдаги ички аудит миллий малака сертификати нафақат ички аудит ходимлари балки Давлат молиявий назорати инспекциясида фаолият юритиш истагида бўлган талабгорлар учун ҳам мажбурий ҳисобланади. Маълумки, Давлат молиявий назорати инспекцияси Бюджет кодексига мувофиқ якуний молиявий назоратни амалга оширади. Бу эса Инспекция ходимларини сертификатлаш жараёнида тушунмовчиликларни юзага келишига сабаб бўлмоқда.

2. Малака имтиҳонида фойдаланиладиган тест саволлари аксарияти тегишли қонунчилик ҳужжатлари асосида тузиладиган назарий саволлари ҳисобланади. Ички аудит ходимлари билим ва малакасини адолатли баҳолаш мақсадида тест саволларида амалий саволлар улушини ошириш зурарати юзага келмоқда.

3. Амалда сертификат эгаларининг малака ошириш жараёни ҳар икки йилда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Ўқув марказида 36 соатдан иборат бўлган анъанавий шаклдаги малака ошириш курсини ўташ орқали чекланади. Сертификат эгалари учун масофавий, онлайн малака ошириш курслари, узлуксиз касбий ривожлантириш бўйича талаблар белгиланмаган.

4. Амалдаги тартибда талабгорларнинг малака имтиҳонларига тайёргарлик кўриш механизмлари белгиланмаган. Бу эса амалиётда айрим тушунмовчиликларнинг юзага келишига сабаб бўлмоқда.

5. Амалдаги сертификатлаш тизими сертификат эгалари учун соҳада фаолият юритишдан ташқари ҳеч бир устунликлар бермайди ҳамда сертификат эгаларига рағбатлантириш чораларининг кўрилиши назарда тутилмаган.

II. Ўзбекистонда ички аудит хизматлари ходимларини сертификатлашни такомиллаштириш юзасидан таклифлар

Мамлакатимиздаги ички аудит ходимларини сертификатлаш тизимидаги учраётган ҳал этилиши лозим бўлган масалалар ҳамда хориж тажрибасидан келиб чиқиб, мамлакатимизда давлат органлари ва ташкилотларининг ички аудит хизматлари ходимларини сертификатлаш тизимини такомиллаштириш бўйича қуйидалар таклиф этилади.

1. Икки даражали сертификатлаш тизими жорий этиш. Бунда биринчи даражадаги сертификат талабгорнинг ички аудит соҳаси бўйича умумий билим ва малакасини тасдиқлайди. Мазкур сертификат ички аудит ходимларига ички аудит хизматларида фаолият юритиш имконини беради. Иккинчи даражадаги сертификат талабгорнинг ички аудит соҳаси бўйича нафақат назарий, балки амалий билим, малака ва кўникмаларини тасдиқлайди. Мазкур сертификат талабгорга ички аудит хизматининг раҳбар лавозимларида фаолият юритиш имконини беради.

Биринчи даражадаги сертификатга олий маълумотга эга бўлиш, иккинчи даражадаги сертификатга олий маълумот билан бирга уч йиллик иш стажи талаб этилади.

Иккала сертификат олиш учун малака имтиҳонлари бир биридан фарқ қилади. Масалан, биринчи сертификат олиш учун малака имтиҳонида асосан тегишли қонунчилик ҳужжатларидан келиб чиқиб тузилган тест саволларидан фойдаланилса, иккинчи сертификатни олиш учун фойдаланиладиган тест саволларининг аксарияти муаммоли вазиятлар асосида тузилган саволлардан иборат бўлади.

2. Имтиҳонларга тайёргарлик жараёнини йўлга қўйиш. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Ўқув маркази ёки бошқа ташкилотлар томонидан малака имтиҳонларига анънавий ва масофавий шаклда тайёргарлик курслари ташкил этилади. Мазкур курсларда иштирок этиш мажбурий ҳисобланмайди. Шунингдек, талабгорларга мустақил тайёргарликни амалга ошириш учун Ўқув маркази веб сайтида керакли ўқув материаллари, намунавий тест саволлари, адабиётлар жойлаштирилади.

3. Малака имтиҳонларини Билим ва малакаларни баҳолаш агентлиги томонидан ўтказилиши. Сертификат олиш учун имтиҳонларда фойдаланиладиган тест саволлари ҳамда имтиҳонларни ўтказиш Билим ва малакаларни баҳолаш агентлиги томонидан амалга оширилиши мақсадга мувофиқ. Чунки билим ва малакаларни баҳолаш агентлиги тест саволларини тузиш ва имтиҳонларни ташкил этиш бўйича етарли тажриба ва кўникмага эга ташкилот ҳисобланади. Бу эса сертификатлаш жараёнида коррупцион ҳолатларни олдини олиш, ички аудит ходимларини сертификатлаш тизимини сифатини ошириш имконини беради.

4. Узлуксиз касбий ривожлантириш (УКР) тизимининг йўлга қўйилиши. Сертификат эгаларининг ўз билим ва малакаларини мустақил ошириб боришни рағбатлантиришга қаратилган узлуксиз касбий ривожлантириш тизими йўлга

қўйилади. Бунда ҳар бир сертификат эгаси йил давомида соҳага оид семинарлар, тренингларда қатнашиш, мақолар ёзиш ва педагогик фаолият билан шуғулланиш орқали УКР соатларини йиғиб боради. Шу билан бирга Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг Ўқув марказида анънавий ва масофавий тарзда ташкил этиладиган малака ошириш курсларида иштирок этади.

БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИНИ ТАСНИФЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Х.Х.Кафиев
ТДИУ мустақил изланувчиси

Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби корхона хўжалик фаолиятида муҳим иқтисодий категориялардан бири бўлиб, у маҳсулот (иш, хизмат) ишлаб чиқариш жараёнида сарфланган барча ресурсларнинг қиймат ифодасини акс эттиради. Ишлаб чиқариш харажатларининг иқтисодий моҳияти, аввало, ишлаб чиқариш омиллари — меҳнат, капитал ва табиий ресурслардан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган сарф-харажатларни ҳисобга олишда намоён бўлади.

Иқтисодий нуқтаи назардан ишлаб чиқариш харажатлари қуйидаги функцияларни бажаради:

ишлаб чиқариш жараёнида ресурслардан фойдаланиш даражасини акс эттиради;

маҳсулот таннархини шакллантиришда асос бўлиб хизмат қилади;

корхонанинг молиявий натижаларига бевосита таъсир кўрсатади;

бошқарув қарорларини қабул қилиш учун ахборот базасини яратади.

Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби нафақат молиявий ҳисобнинг таркибий қисми, балки бошқарув ҳисобининг ҳам муҳим элементи ҳисобланади. Молиявий ҳисоб доирасида харажатлар ҳисоби ташқи фойдаланувчилар учун умумлаштирилган ахборотни тақдим этса, бошқарув ҳисобида харажатлар деталлаштирилган ҳолда таҳлил қилиниб, ички бошқарув эҳтиёжларига хизмат қилади.

Бозор иқтисодиёти шароитида ишлаб чиқариш харажатларини тўғри ҳисобга олиш корхонанинг рақобатбардошлигини таъминлашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Харажатларнинг аниқ ҳисобга олиниши маҳсулот таннархини реал баҳолаш, нарх сиёсати самарадорлигини ошириш ва ресурслардан тежамкор фойдаланиш имкониятини яратади.

Шу боис, ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобининг иқтисодий моҳиятини чуқур англаш ва уни илмий асосда ташкил этиш корхоналарда молиявий барқарорликни таъминлашнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобда тўғри акс эттириш уларни илмий асосланган таснифлашни тақозо этади. Амалиётда ишлаб чиқариш харажатлари бир қатор белгиларига кўра гуруҳланади, ҳар бир тасниф ҳисоб ахборотининг мазмуни ва фойдаланиш мақсадига боғлиқ ҳолда муҳим аҳамият касб этади.

Ишлаб чиқариш харажатларини иқтисодий элементлар бўйича таснифлаш корхона фаолиятида ресурслардан қандай йўналишларда ва қандай ҳажмда фойдаланилаётганини аниқлашга хизмат қилади. Бу тасниф харажатларнинг иқтисодий мазмунини очиб беради ва уларнинг қайси ресурс тури ҳисобидан шаклланганини кўрсатади.

Ишлаб чиқариш харажатларини турли мезонлар асосида таснифлаш корхонада харажатлар ҳисоби тизимини чуқурлаштириш, маҳсулот таннархини аниқ ҳисоблаш ва бошқарув қарорларини илмий асослашда муҳим ўрин тутади. Мазкур таснифлар ўзаро боғлиқ ҳолда қўлланилганда, харажатлар устидан самарали назорат ўрнатиш ва иқтисодий самарадорликни оширишга хизмат қилади.

Бозор иқтисодиёти шароитида ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби корхонанинг молиявий барқарорлиги, рақобатбардошлиги ҳамда стратегик ривожланишини таъминловчи муҳим бошқарув воситаларидан бири ҳисобланади. Шу боис ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини такомиллаштириш корхоналар олдида турган долзарб вазифалардан ҳисобланади.

Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини такомиллаштириш, аввало, харажатларни аниқ, ўз вақтида ва ишончли акс эттириш, уларни таҳлил қилиш ҳамда самарали бошқариш имкониятларини кенгайтиришга хизмат қилади. 1-жадвалда ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари келтириб ўтилган.

1-жадвал

Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари[272]

№	Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини такомиллаштириш йўналишлари	Моҳияти	Амалий аҳамияти
1.	Харажатларни таснифлашни такомиллаштириш	Харажатларни иқтисодий элементлар, функциялар ва жавобгарлик марказлари бўйича аниқ гуруҳлаш	Таннархни аниқ ҳисоблаш ва харажатларни назорат қилиш
2.	Жавобгарлик марказлари бўйича ҳисобини юритиш	Харажатларни цех, бўлим ва иш жойлари кесимида	Масъулиятни ошириш ва ички

[272] Муаллиф ишланмаси.

		юритиш	назоратни кучайтириш
3.	Замонавий ҳисоб усулларини жорий этиш	Директ-костинг, стандарт-костинг	Харажатларни оптималлаштириш ва бошқарув қарорларини асослаш
4.	Норматив харажатлар ҳисобини такомиллаштириш	Меъёрлар асосида харажатлар ҳисобини юритиш ва фарқларни аниқлаш	Самарадорликни ошириш ва ресурсларнитежаш

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини такомиллаштириш кўп қиррали ва тизимли ёндашувни талаб этади. Айниқса, харажатларни жавобгарлик марказлари бўйича ҳисобга олиш ва замонавий ҳисоб усулларини жорий этиш корхона раҳбариятига харажатларнинг юзага келиш сабабларини чуқур таҳлил қилиш имконини беради. Бу эса таннархни пасайтириш ва рентабелликни оширишда муҳим аҳамият касб этади.

Ишлаб чиқариш харажатларини иқтисодий элементлар, таннархга киритилиши, ишлаб чиқариш жараёнига муносабати ҳамда ўзгарувчанлик даражаси бўйича илмий асосланган тарзда таснифлаш корхона раҳбариятига харажатларни чуқур таҳлил қилиш, уларнинг келиб чиқиш сабабларини аниқлаш ва самарали бошқарув қарорларини қабул қилиш имконини беради. Айниқса, моддий харажатлар, меҳнат ҳақи харажатлари, ижтимоий ажратмалар, амортизация ва бошқа харажатларнинг ҳисобда тўғри ва ўз вақтида акс эттирилиши ишлаб чиқариш жараёнида ресурслардан оқилона фойдаланишни таъминлайди.

Тадқиқот жараёнида аниқландики, ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобида мавжуд айрим камчиликлар, жумладан, харажатларни умумлаштириб ҳисобга олиш, жавобгарлик марказлари бўйича таҳлилнинг етарли даражада йўлга қўйилмаганлиги ва замонавий ахборот технологияларидан фойдаланишнинг чекланганлиги корхоналарда харажатларни самарали бошқаришга салбий таъсир кўрсатмоқда. Шу нуқтаи назардан, ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини такомиллаштиришда бошқарув ҳисоби элементларини кенг жорий этиш, бюджетлаштириш тизимини ривожлантириш ва рақамли ҳисоб ахборот тизимларидан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга.

Шунингдек, ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини халқаро стандартларга мослаштириш корхоналарнинг молиявий ҳисоботларини шаффоф ва таққосланадиган қилишга хизмат қилади. Бу эса инвестициявий жозибадорликни ошириш, ташқи манбалардан молиявий ресурсларни жалб этиш ва бозорда рақобат устунлигини таъминлаш имкониятларини кенгайтиради.

Хулоса қилиб айтганда, ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини такомиллаштиришга қаратилган илмий-назарий хулосалар ва амалий тавсиялар корхоналарда харажатларни камайтириш, маҳсулот таннархини пасайтириш ва иқтисодий самарадорликни оширишга хизмат қилади.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИНФОРМАЦИОН РИСКЛАРНИ СУҒУРТАЛАШ АМАЛИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

И.Ғ.Кенжаев
ТДИУ, и.ф.д., (DSc)

Жаҳон ҳамжамияти учун янги давр бошланди. Ушбу давр ахборот-коммуникация технологияларининг барча соҳа ва тармоқларга кириб бориши билан изоҳланади. Инсонларнинг кундалик фаолияти ахборот-коммуникация технологиялари билан чамбарчас боғлиқ бўлиб қолди. Жаҳондаги аксарият давлатлар рақамли иқтисодиёт тизимини жорий эта бошлади ва бу ўзгаришлар, пировард натижада, инсониятнинг фаровонлигига хизмат қилмоқда. Шу билан бирга, ахборот-коммуникация технологияларининг кундалик ҳаётимизга жадал кириб бориши кибер хавфсизликка таҳдид солувчи янги рискларни юзага келтирмоқда. Бу рисклар жаҳон амалиётида информацион рисклар деб номланиб, уларнинг салбий оқибатлари глобал миқёсда зарар етказишга қодир. БМТ Бош котиби Антониу Гутерриш бу ҳолатга қуйидагича фикр келтиргани бежиз эмас:
«Рақамли иқтисодиёт янги хавф-хатарларни, жумладан, информацион хавфсизликка таҳдидлар, ноқонуний иқтисодий фаолиятнинг енгиллашуви, шахсий ҳаёт дахлсизлигини бузилиши билан боғлиқ салбий оқибатларни вужудга келтириши мумкин...»[273]. Шу сабабдан ҳам информацион хавфсизликни таъминлаш жаҳон ҳамжамиятининг долзарб муаммоларидан бирига айланиб бормоқда ҳамда мазкур муаммоларни ҳал этишда информацион рискларни суғурталаш тизимини кенг жорий қилиш ва ривожлантириш истиқболли йўналиш сифатида қаралмоқда.

Шунингдек Ўзбекистон шароитида ҳам ахборот-коммуникация тизимини янада ривожлантириш, рақамли иқтисодиётни жорий этиш борасида қўйилаётган илдам қадамлар, ўз навбатида, информацион хавфсизликни бошқариш механизмини ишлаб чиқишни тақозо этмоқда. Шу сабабдан информацион хавфсизликни таъминлашда информацион рискларни суғурталаш тизимини ривожлантириш, хусусан бу борада тегишли илмий-услубий ёндашув ҳамда норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва мавжудларини такомиллаштириш заруратини келтириб чиқармоқда.

[273]Дорожная карта Генерального секретаря ООН по цифровому сотрудничеству. https://www.un.org/ru/content/digital-cooperation-roadmap.

Бугунги кунда рўй бераётган ахборот-коммуникация технологиялари тараққиёти жамият ривожланишининг янги босқичига – ахборотлашган жамиятнинг шаклланишига ва рақамли иқтисодиётга ўтишга технологик базани яратмоқда.

Ҳозирги кунда ривожланаётган давлатларнинг ривожланган давлатлардан фарқи ҳам энг аввало билимлар ва янги технологияларнинг камлиги билан белгиланмоқда, капитал омили эса иккинчи даражали бўлиб қолмоқда. Зеро, жаҳон амалиёти ахборот-коммуникация технологияларининг тараққиёти мамлакатнинг рақобатбардошлигини ошириш, катта оқимдаги ахборотни тўплаш ва умумлаштириш, бошқарувни стратегик даражада ташкил этиш учун кенг имкониятлар яратиб беришда асосий омилга эга эканлигини кўрсатмоқда.

Дарҳақиқат, бундан 20 йил олдин жаҳон аҳолисининг 4,1 фоизигина Интернетдан фойдаланиш имкониятига эга эди. 2025 йилга келиб глобал тармоқдан фойдаланувчилар сони 6,1 млрд. нафардан ошиб кетди десак муболаға бўлмайди. Бу жаҳон аҳолисининг 61 фоизи демакдир[274].

Информацион рискларни иккита катта гуруҳга ажратиш мумкин. Масалан:

1. Ахборотнинг ходимлар ёки рақобатчилар томонидан хуфёна ўғирланиши;

2. Ахборот узатиш каналларидаги техник носозлик натижасида ахборот йўқотилиши.

Юқорида келтирилган кибер риск гуруҳлари кенг маънода ўз таркибига қуйидагиларни олади:

вируслар таъсири;

компьютер ҳужумлари, яъни хакерлар ва шунга ўхшаш ташқи муҳитдан маълум бир манфаатни кўзлаган ҳолда ҳатти-ҳаракатларни амалга оширувчи ғараз ниятли шахсларнинг таъсири;

корхона ходимларининг ножўя ҳатти-ҳаракатлари оқибатида етказилаётган зарарлар;

корхона сирлари ва махфий маълумотларни ўғирлаш натижасида етказилаётган зиёнлар;

ахборот техник воситалари ва тизимларини ўрнатиш, яратиш ва ишлатишда йўл қўйилиши мумкин бўлган хатолар оқибатида етказилаётган зиёнлар;

турли хил ахборот дастурларининг ишдан чиқиши оқибатида етказилаётган зарарлар ва ҳоказо.

Сўнгги йилларда информацион рискларнинг салмоғи тобора ортиб бормоқда. «Cybersecurity Ventures» компаниясининг киберхавфсизлик бўйича халқаро экспертлари 2019 йилда жаҳонда ҳар 14 секундда киберҳужумлар амалга оширилишини ҳисоблашган. Киберҳужумлар сонининг ортиб бориши билан улар

[274] http://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-internet-boshqa-davlatlarga-nisbatan-qimmatmi.

таъсирида етказилаётган зарарларнинг салмоғи ҳам кескин кўпаймоқда. Агар, 2022 йилда иқтисодиётнинг турли тармоқларидаги компанияларнинг кўрган умумий зарари 2,7 трлн. АҚШ долларини ташкил этган бўлса, Бутунжаҳон иқтисодий форумининг прогнозига кўра 2022 йилда ушбу кўрсаткич 10,3 трлн. АҚШ долларини ташкил қилади.

Ўзбекистон шароитида информацион рискларни суғурталаш масалалари бўйича қуйидаги таклиф ва тавсияларни бериб ўтамиз. Булар қуйидагилардан иборат:

1. Киберхавфсизликни таъминлашда риск-менежментнинг ўрни муҳимлигини тасдиқлади. Информацион рискларни суғурталаш механизми ҳозирги замон риск-менежмент тизимининг иқтисодий усули сифатида ўрганилди ва унинг концептуал асослари таҳлил қилинди. Ахборотни ҳимоя қилиш усули сифатида суғурта танланаётганда, маълумотни йўқотиш ҳаражатлари ва уни ҳимоя қилиш бўйича чора-тадбирлар қиймати ўртасида таққослаш амалга оширилиши лозим.

2. Информацион рискларни суғурталаш бўйича жаҳон савдосига тўсиқ бўлаётган асосий сабаб информацион рискларни тушунмаслик ҳисобланишини кўрсатди. Тўғри, бундай ҳолат ушбу суғурта турининг янгилиги ва кенг тарқалмаганлиги билан изоҳланади. Бироқ, жаҳон миқёсида юз бераётган рақамлаштириш жараёни киберхавфсизлик масаласини бирламчи поғонага кўтармоқда. Бу ўз навбатида, информацион суғуртага бўлган талабни кескин ортишига, демакки ушбу суғурта турини нафақат корпоратив секторда, балки аҳоли ўртасида кенг оммалашишига олиб келади. Бугунги кунда информацион рискларни тушунмаслик ҳолати мавжуд бўлишига қарамай, истиқболда ушбу сегментни кескин ривожланиши учун катта салоҳият мавжудлигидан далолат беради, деб ҳисоблаймиз.

3. Ўзбекистонда ахборот-коммуникация технологияларининг тезкор суръатлар билан ривожланиши уларнинг хусусияти билан боғлиқ рискларнинг пайдо бўлиш тезлигини ҳам оширади. Бу ўз навбатида, мазкур соҳа субъектлари фаолиятини сифатли ҳимоя билан таъминлай оладиган замонавий суғурта тизимини шакллантиришни талаб этади. Бу борада ишлаб чиқилган таклиф ва тавсияларни амалда қўлланилиши соҳада суғурта муносабатларини ривожлантиришга, пировардида, тизимдаги корхона ва ташкилотларнинг барқарор фаолият юритилишини таъминлашга хизмат қилади.

4. Ўзбекистонда информацион рискларни суғурталаш ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг муҳим воситаси эканлигини инобатга олиб, информацион рискларнинг хусусияти, иқтисодий ҳамда ижтимоий оқибатларини ҳисобга олган ҳолда информацион рисклар туркумига кирувчи рисклар тоифасига қараб суғуртанинг ихтиёрий ёки мажбурий шаклларини қўллаш мақсадга мувофиқ.

5. Суғуртага қабул қилинаётган информацион ресурсларнинг қиймати (Asset Value (AV)), ресурсларнинг хавфлардан ҳимояланганлик даражаси (Exposure Factor (EF)), хавфларнинг юзага келиш эҳтимоликнинг (Annual Rate of Occurrence (ARO)) параметрик омилларини ҳисобга олган ҳолда информацион рискларни баҳолаш мақсадга мувофиқ.

БАНК ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КРЕДИТ БЕРИШ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Нуриддинов Вохид Вапоевич
Ўзбекистон Республикаси банк-молия академиясининг магистранти

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларда барқарор ва самарали ишловчи банк тизимини яратишга катта эътибор берилиб, бу борадаги ўзгаришлар босқичма-босқич ва изчиллик билан амалга оширилиб келинмоқда. Мамлакатимиз иқтисодиётини ривожлантириш борасида қўлга киритилган натижалар Халқаро Валюта Фонди, Жаҳон банки, Осиё тараққиёт банки ва бошқа нуфузли халқаро молия ташкилотлари томонидан ҳам юксак баҳоланмоқда.

Шунингдек кредит портфелининг тўғри ташкил этилиши тижорат банкларининг самарали фаолият юритиши учун асос ҳисобланади. Хусусан, кредит бериш ва уни белгиланган муддатда қайтариб олиш, у билан боғлиқ хатарлар, ссудалар, муддати ўтган ѐки узайтирилган кредитлар бўйича ҳисоб-китоб операциялари, ссудалар бўйича зарарларни қоплаш, заҳира миқдори, банклараро кредит ва марказлаштирилган кредитлар буйича операциялар шулар сирасига киради.

Тижорат банкларининг кредит сиёсати кредит менежментини самарали олиб боришнинг асоси ҳисобланади. Бу сиёсат банк ходимларининг кредит бериш, банкнинг кредит портфелини бошқариш билан боғлиқ объектив стандартларини ва мезонларини аниқлаб беради. Кредит сиёсатини тўғри тузиш ва олиб бориш, барча бўлимлар томонидан бу сиёсат мақсадининг аниқ тушинилиши банк бошқарувига кредит стандартларини тўғри олиб боришига, юқори рисклардан қочишга, банк имкониятларини тўғри аниқлашга асос ҳисобланади[275].

Кредит ресурсларини инвестиция мақсадларига самарали тақсимлаш, кредит таваккалчиликлари даражасини камайтириш ва истиқболли инвестиция лойиҳаларини танлаш бўйича ишлар сифатини оширишга катта эътибор қаратилади, хусусан:

[275]Абдуллаева Ш.З. «Банк рисклари ва кредитлаш». Т.: «МОЛИЯ», 2002 й.

- банкларда инвестиция лойиҳаларининг экспертизаси сифатини, шу жумладан, ушбу жараён шаффофлигини ошириш, лойиҳа экспертизаси жараёнида барча потенциал омиллар ва рискларни инобатга олишни таъминлаш; - тижорат банклари томонидан хўжалик бирлашмалари ва йирик корхоналар билан биргаликда ташкил этилаётган инвестицион лойиҳаларни ва бошқа ҳужжатларни ишлаб чиқиш бўйича инжиниринг компаниялари фаолиятини ривожлантириш;

Юқорида келтириб ўтилган маълумотлар асосида шуни хулоса қилиб айтиш мумкинки, мамлакатимиз тижорат банклари кредитлаш фаолиятини олиб боришда ҳали ҳамон қийинчиликлар ва муаммоларга дуч келмоқда.

Замонавий иқтисодий муҳит эса, тижорат банклари фаолиятида мавжуд муаммоларнинг олдини олиб, мамлакатимизда банк ишининг самарадорлигини ошириш асосида халқаро банк амалиѐтига мос келувчи банк тизимини яратишни тақозо қилади.

Республикамиз тижорат банкларининг кредит портфелини бошкаришни такомиллаштириш билан боғлиқ бўлган асосий муаммоларни таҳлил қилиш натижасида қуйидаги таклифларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

- корхона ва ташкилотларга кредит маблағларини ажратишдан аввал уларнинг фаолиятини мажмуавий таҳлил қилишда —SWOT‖ таҳлил элементларидан унумли фойдаланиш.

- тижорат банклари кредит портфелининг диверсификация даражасининг паст эканлиги. Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, республикамизнинг йирик тижорат банкларида кредитларнинг асосий қисмини маълум тармоқларга мансуб корхоналарда тўпланганлиги кузатилмокда. Бундан ташқари, кредитларни айрим мулк шаклидаги мижозларда тўпланиши банк учун юқори кредит рискини вужудга келтиради. Масалан, давлат корхоналарининг мулк шакли ўзгариши билан унга берилган кредитни қайтаришда жиддий муаммолар юзага келиши мумкин.

- Республикамизнинг бир қатор тижорат банкларида кредит операциялари бухгалтерия ҳисобини туғри ташкил этишда муаммоларнинг мавжудлиги. Тижорат банкларида кредит операциялари бухгалтерия ҳисобини туғри ташкил этиш тижорат банкининг кредитлаш амалиѐти самарадорлигини оширишнинг муҳим омилларидан биридир.

Республикамизнинг йирик тижорат банкларида кредитлаш шаклларидан тулақонли тарзда фойдаланиш муаммоси. Кредит портфелини шакллантириш жараёни оптимал кредит сиёсатини аниқлаш нуқтаи-назаридан унинг диверсификацияланишини кўзда тутади. Кредитларнинг бир неча мижозлар ичида жамланиш даражаси ва кредитлашнинг умумий ҳажми ошиши билан банк кредит хатари ҳам ўсиб боради. Шунинг учун банклар доимо бир-биридан мустақил бўлган кўп сонли мижозларга озроқ ҳажмдаги кредитларни тақдим қилишга ҳаракат қилишлари лозим.

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Xasanov Farrux Ravshanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii
“Sug‘urta ishi” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarida korporativ boshqaruvning hozirgi holati va rivojlanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) nazorati ostiga o‘tish va MHXS (IFRS) 17 standartlarini joriy etish sharoitida kuzatuv kengashlarining amaliy faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan. Mahalliy sug‘urtalovchilar faoliyatini o‘rganish asosida boshqaruv tuzilmasidagi asosiy o‘zgarishlar aniqlandi, jumladan mustaqil direktorlar sonining o‘sishi, audit va risklar bo‘yicha qo‘mitalar rolining kuchayishi hamda raqamli monitoring vositalarining joriy etilishi. Muallif tomonidan davlat va xususiy sektorlardagi korporativ boshqaruv yondashuvlari qiyoslandi, boshqaruv organlari faoliyatidagi mavjud to‘siqlar belgilandi. Tadqiqot yakunlari bo‘yicha boshqaruv a‘zolari uchun KPI tizimini takomillashtirish va strategik qarorlar qabul qilish shaffofligini oshirish yuzasidan aniq choralar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, sug‘urta bozori, kuzatuv kengashi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA), moliyaviy barqarorlik, mustaqil direktorlar, MHXS 17, KPI tizimi.

Milliy iqtisodiyotning tubdan transformatsiyalashuvi va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishi sharoitida, moliya sektorining institutsional barqarorligini ta’minlash masalasi o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozori ijtimoiy va texnogen xatarlarning asosiy dempferi (yumshatuvchisi) hamda strategik institutsional investor sifatida ishtirok etib, ayni paytda sifat jihatidan yangilanish bosqichini o‘tamoqda. Bunday sharoitda korporativ boshqaruv tushunchasiga shunchaki ma’muriy tartib-taomillarning rasmiylashtirilgan majmuasi sifatida emas, balki sug‘urta tashkilotlarining to‘lov qobiliyati, investitsiyaviy jozibadorligi va shaffofligini ta’minlovchi fundamental mexanizm sifatida qaralmoqda. Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston sug‘urtalovchilar faoliyatida korporativ boshqaruv bank sektoridan farqli o‘laroq, qisqa muddatli likvidlikni boshqarishdan sug‘urta qildiruvchilar oldidagi majburiyatlarning uzoq muddatli ijrosiga qaratiladi. Bu esa risklarni boshqarish mexanizmlarini bevosita yuqori boshqaruv bo‘g‘ini tuzilmasiga integratsiya qilishni talab etadi. Shu sababli sug‘urta tashkilotlari faoliyatida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimining ahamiyati juda yuqori hisoblanadi.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda sug‘urta biznesining barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omil sifatida korporativ boshqaruvning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan hamda ilmiy va amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorida korporativ boshqaruvning zamonaviy holati tahlili regulyatorlik funksiyalarining Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA)ga o‘tishi va “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi vazifalarining amalga oshirilishi natijasida yuzaga kelgan chuqur sifat o‘zgarishlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu bo‘limda sug‘urtalovchilar faoliyatining amaldagi ko‘rsatkichlariga tayanib, boshqaruv tizimlari rivojlanishining tavsifiy (deskriptiv) va qiyosiy tahlili taqdim etiladi.

1. Kuzatuv kengashlarining tarkibiy transformatsiyasi.

O‘zbekiston Respublikasidagi 35 ta sug‘urta tashkilotlarining birlamchi tahlili 2020-2025 yillar davri uchun quyidagi tarkibiy xususiyatlarni aniqladi:

- kuzatuv kengashlarida “nominal” a’zolarning professional boshqaruvchilar bilan almashinuvi kuzatilmoqda. Bu o‘z navbatida boshqaruv sifatini oshishiga sezilarli ta‘sir choralarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Biroq, aksariyat sug‘urta tashkilotlarida kuzatuv kengashi a’zolarning o‘rtacha soni 5-7 kishini tashkil etadi, ayrimlarida esa 9 kishigacha kengaytirish tendensiyasi kuzatilmoqda (masalan “ALSKOM sug‘urta kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati), bu esa ko‘pincha tezkor qarorlar qabul qilishning sekinlashishiga olib keladi;

- 2022 yilga qadar bozor bo‘yicha mustaqil direktorlarning o‘rtacha ulushi 10% dan oshmas edi. Biroq, “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri kuchga kirishi va regulyator tomonidan nazoratning kuchaytirilishi natijasida, 2025 yilga kelib listingdagi kompaniyalarda bu ko‘rsatkich 25–30% ga yetdi.

- yuqori boshqaruv bo‘g‘inida ayollar ishtiroki ortib borayotgani qayd etilmoqda. Hayotni sug‘urta qilish (life insurance) sohasiga ixtisoslashgan kompaniyalarda ayollarning kuzatuv kengashlari va boshqaruvdagi ulushi umumiy sug‘urta (general insurance) sektoriga nisbatan 8% ga yuqori. Shunga qaramay, kuzatuv kengashlarida ayollar ulushi 12-15% darajasida qolmoqda. Bu ko‘rsatkich xorijiy mamlakatlar sug‘urta bozorlari raqamlardan past.

2. Kuzatuv kengashlari huzuridagi qo‘mitalarning funksional samaradorligi.

Korporativ boshqaruv samaradorligining asosiy indikatori ixtisoslashgan qo‘mitalarning ishlashidir. Bu yo‘nalishda quyidagi holatga guvoh bo‘lishimiz mumkin:

- audit, xatarlar bo‘yicha qo‘mitalar: O‘zbekistonda MHXS (IFRS) 17 standartining joriy etilishi audit qo‘mitalarining rolini tubdan o‘zgartiradi. Alohida xatarlarni boshqarish qo‘mitalarini (Risk Committees) tashkil etgan kompaniyalar sug‘urta zaxiralarini shakllantirishda 15-20% yuqori aniqlikni namoyish etadi.

- kadrlar va haq to‘lash bo‘yicha qo‘mitalar: Mahalliy amaliyotda ushbu vosita eng kam rivojlangan bo‘lib qolmoqda. Aksariyat sug‘urta tashkilotlarida top-menejment uchun KPI tizimi hali ham portfel sifati yoki to‘lov qobiliyati darajasiga emas, balki faqat

yig‘ilgan mukofotlar hajmiga bog‘langan, bu esa agressiv anderrayting xatarlarini keltirib chiqarmoqda.

3. Davlat sektori va xususiy sektorda korporativ boshqaruvning samaradorligi.

O‘zbekistonda korporativ boshqaruvning rivojlanishi ikki yoqlama xususiyatga ega. Buni quyidagi tahliliy jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Qiyoslash parametri	**Davlat kompaniyalari** (“O‘zbekinvest” EISK” AJ misolida)	**Xususiy kompaniyalar** (“Neo Insurance Corp” AJ misolida)
Boshqaruv uslubi	Konservativ,ierarxik	Moslashuvchan, IT-ga yo‘naltirilgan
Shaffoflik	Yuqori (qat’iy davlat nazorati tufayli)	Tanlanma (aksiyadorlarga yo‘naltirilgan)
Qaror qabul qilish tezligi	Past (idoralar bilan kelishuvlar tufayli)	Yuqori
ESG joriy etilishi	Tizimli (davlat dasturlariga muvofiq)	Cheklangan (hamkorlar talabiga ko‘ra)

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda davlat kompaniyalari jarayonlarni tartibga solishda “namuna” bo‘lib xizmat qilmoqda, biroq xususiy sektor xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va faoliyatni kengaytirishda korporativ boshqaruv mexanizmlaridan samaraliroq foydalanmoqda.

4. Raqamlashtirishning korporativ boshqaruvga ta’siri.

O‘zbekiston sug‘urta bozorining o‘ziga xos xususiyati yagona axborot tizimi joriy etilganligi bo‘ldi. Bu kuzatuv kengashlariga ma’lumotlarni an’anaviy tahlil qilish usulidan real vaqt rejimidagi monitoringga o‘tish imkonini berdi. Natija shundaki, kuzatuv kengashi va ijro organi a’zolari uchun dashboardlarni, yani boshqaruv panellarini integratsiya qilgan kompaniyalar likvidlik koeffitsiyenti pasayishiga reaksiya bildirish vaqtini sezilarli qisqartirdilar. Korporativ boshqaruv yanada “proaktiv” shaklga keldi, bu esa aktivlarni noqonuniy olib chiqib ketish yoki demping holatlarini erta bosqichlarda to‘xtatish imkonini bermoqda.

Yoqorida keltirib o‘tilgan ijobiy o‘zgarishlarga qaramay, tadqiqot bir qator kritik to‘siqlarni aniqladi, bular quyidagilar:

- rasmiyatchilik (formalizm): sug‘urta kompaniyalarining deyarli 40 foizida kuzatuv kengashlarining faoliyati “qog‘ozda” qolmoqda, majlis bayonnomalari chorakdan chorakka bir xil takrorlanadi, aksariyat sug‘urta kompaniyalarida kuzatuv kengashlarining targibida faoliyat yuritadigan qo‘mitalar umuman tashkil etilmagan;

- manfaatlar to‘qnashuvi: xususiy kompaniyalarda majoritar aksiyadorlarning operatsion faoliyatga kuchli ta’siri saqlanib qolmoqda, bu esa mustaqil direktorlarning rolini yo‘qqa chiqaradi;

- vorisiylikning mavjud emasligi: ijro organida kadrlar rotatsiyasi jarayoni tizimlashtirilmagan, bu esa asosiy mulkdorlar almashgan taqdirda xatarlarni keltirib chiqaradi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, O‘zbekiston sug‘urta sektorida korporativ boshqaruv “ma’muriy” modeldan “qiymatli” (insonga va sifatga yo‘naltirilgan) modelga o‘tish bosqichida turibdi. Bunda asosiy drayver, yani harakatlantiruvchi kuch bozor raqobati emas, balki regulyator bosimi va xalqaro qayta sug‘urtalovchilarning talablaridir. Sug‘urta kompaniyalarining institutsional barqarorligi kuzatuv kengashining MHXS 17 standartlariga o‘tish sharoitida xatarlarni boshqarish va strategik rejalashtirish jarayoniga naqadar real jalb qilinganligiga bevosita bog‘liq.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta sektoridagi korporativ boshqaruv tizimi tahlili natijalarini sarhisob qilish va qator amaliy tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Regulyator funksiyalarining Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga o‘tishi va xalqaro hisobot standartlarining (MHXS 17) joriy etilishi sifat jihatidan yangi muhitni yaratadi. Bu muhitda korporativ boshqaruv ikkinchi darajali ma’muriy omildan moliyaviy ishonchlilikni ta’minlovchi birlamchi vositaga aylanadi.

Sug‘urta sohasining barqarorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi choralar taklif etiladi:

- malaka talablarini differensiyalash: sug‘urta kompaniyalarining mustaqil direktorlari uchun aktuar hisob-kitoblar va IFRS 17 xususiyatlarini o‘z ichiga olgan maxsus malaka testlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- qo‘mitalar faoliyatini monitoring qilish: qo‘mitalar majlislari bayonnomalari mavjudligini tekshirishdan ularning ish mazmunini baholashga o‘tish;

- konsolidatsiyani rag‘batlantirish: kichik kompaniyalardagi rasmiyatchilikni hisobga olgan holda, minimal ustav kapitaliga qo‘yiladigan talablarni oshirish siyosatini davom ettirish. Bu bozorning tabiiy ravishda yiriklashishiga va sifatli boshqaruv tuzilmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

- rag‘batlantirish tizimi (KPI) islohoti: top-menejmentni faqat yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari hajmi uchun mukofotlash amaliyotidan voz kechish. KPI tizimiga sug‘urta portfeli sifati (Loss Ratio), likvidlik darajasi va to‘lov qobiliyati marjasi normativlariga rioya qilish ko‘rsatkichlarini kiritish lozim;

- komplayens va ichki audit funksiyalarini institutsionallashtirish: ichki nazorat xizmatlarining nafaqat yuridik, balki moliyaviy mustaqilligini ta’minlash, ularning budjet avtonomiyasini kompaniya ustavida mustahkamlab qo‘yish;

- kuzatuv kengashlarini professional rivojlantirish: kengash a’zolari uchun kiberrisklar, ESG-sug‘urta va yuqori inflyatsiya sharoitida investitsiya portfelini boshqarish masalalari bo‘yicha muntazam o‘quv kurslarini tashkil etish.

“O‘zbekiston – 2030” Strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat ma’murchiligidan bozor o‘z-o‘zini tartibga solish mexanizmiga muvozanatli o‘tishni ta’minlash zarur. Mustaqil direktorlar institutining rivojlanishi “professional hamjamiyat” shakllanishi bilan birga kechishi kerak, bunda kengash a’zolari qabul qilinayotgan strategik qarorlar uchun shaxsiy nufuzi va moddiy javobgarligini his qilishlari shart b‘oladi.

ДЕБИТОРЛИК ВА КРЕДИТОРЛИК ҚАРЗДОРЛИКНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ

Жўраев Фаррухбек Мухиддин ўғли
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Молиявий ҳисоб ва ҳисобот” кафедраси
мустақил тадқиқотчиси

Ўзбекистон Республикасида дебиторлик ва кредиторлик қарздорлигини ҳисобга олиш ва улар билан боғлиқ хўжалик операцияларини тўғри юритиш амалиёти бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинади. Бундай ҳужжатлар қаторига қонунлар, Молия вазирлигининг буйруқ ва қарорлари, бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари, шунингдек, методик қўлланмалар киради. Ушбу ҳужжатлар дебитор ва кредитор қарздорлигини эътироф этиш, баҳолаш, таснифлаш, ҳисобда акс эттириш ва молиявий ҳисоботда тўғри очиб бериш мезонларини белгилайди. Бу эса корхона ҳисоботининг шаффофлиги ва ишончлилигини таъминлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Бухгалтерия ҳисобини тартибга солувчи ҳуқуқий база тўрт асосий даражадан иборат:

Қонунчилик даражаси. Бу босқичга давлат томонидан қабул қилинган асосий қонунлар киради. Улар умумий ҳуқуқий қоидаларни белгилайди ва барча корхоналар учун мажбурий ҳисобланади.

Норматив даража. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ва тегишли давлат идоралари томонидан тасдиқланган қарорлар ва қоидалардан иборат. Улар қонун талабларини аниқлаштириб, бухгалтерия ҳисобини юритиш жараёни бўйича амалий йўриқномалар беради.

Методик даража. Бухгалтерия ҳисоби, дебитор ва кредитор қарздорлиги ҳисобини юритиш, уларни инвентаризациядан ўтказиш, баҳолаш ва ҳисобда акс эттириш бўйича методик қўлланмалардан ташкил топади. Улар корхоналар амалиётида қўлланадиган услубий кўрсатмаларни ўз ичига олади.

Ташкилий даража. Хўжаик юритувчи субъектларда ишлаб чиқилган бухгалтерия ҳисоби сиёсати, ички регламентлар ва ҳисобда қўлланадиган локал ҳужжатларни ўз ичига олади. Мазкур даража тизимнинг амалдаги механизми сифатида хизмат қилади. Асосий қонун “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонун. Мамлакатда бухгалтерия ҳисобини тартибга солувчи асосий ҳуқуқий ҳужжат сифатида ушбу қонун бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботнинг ягона талабларини белгилайди. Қонун:

актив ва мажбуриятларни баҳолаш, ҳисобни ташкил этиш, мол-мулкни инвентаризациядан ўтказиш, хўжалик операцияларини расмийлаштириш, ҳисоб ҳужжатларини сақлаш, молиявий ҳисоботни тузиш ва тақдим этиш каби жараёнларнинг ҳуқуқий асосини белгилайди.

Қонуннинг аҳамияти шундаки, у дебиторлик ва кредиторлик қарздорлиги билан боғлиқ операцияларни шаффоф, инвентаризация қилинган ва тўлиқ ҳужжатлаштирилган ҳолда юритишни мажбурий қилади.

Ҳозирги кунда дебитор ва кредитор қарздорлиги корхоналарнинг молиявий барқарорлигига бевосита таъсир этувчи омил ҳисобланади. Корхонанинг ҳисоб-китоб интизоми, шартномаларни бажариш даражаси, пул оқими ва ликвидлик ҳолати айнан ушбу қарздорлик турлари билан белгиланади.

Иқтисодий жараёнларнинг автоматлашуви, рақобатнинг кучайиши ва хўжалик фаолиятидаги хавф-хатарлар ошган шароитда дебитор ва кредитор қарздорлиги билан боғлиқ муносабатлар янада мураккаб шаклга эга бўлмоқда. Шу сабабли, уларни тўғри ҳисобга олиш ва назорат қилиш корхонанинг барқарор фаолияти учун муҳим ҳисобланади.

Дебитор ва кредитор қарздорлиги ҳисобининг асосий мақсадлари:

Корхона молиявий ҳолатининг ҳаққоний акс эттирилишини таъминлаш. Дебиторлик қарзи – корхона олдин олган, лекин ҳали тушмаган пул мажбуриятлари; Молиявий интизомни кучайтириш. Ҳар икки қарздорлик тури бўйича муддат, миқдор, қайтарилиш ҳолатини назорат қилиш зарур.

Ҳисоб-китоб муносабатларини самарали бошқариш. Ўз муддатли қарзларни оптималлаштириш, ортиқча қарздорликнинг олдини олиш, пул оқимини барқарорлаштириш.

Корхонанинг ликвидлик даражасини таъминлаш. Дебитор қарзининг ошиши — корхонанинг пул оқимини кичрайтиради, кредитор қарзининг ортиши эса молиявий барқарорликка хавф туғдиради.

Юқоридаги норматив-ҳуқуқий база дебитор ва кредитор қарздорлиги бўйича бухгалтерия ҳисобининг ҳуқуқий, методик ва амалий асосларини белгилайди. Ушбу асослар корхоналарнинг хўжалик фаолиятида қарздорликларнинг шаклланиши, баҳоланиши, қоғозда расмийлаштирилиши ва молиявий ҳисоботда тўғри акс эттирилишига хизмат қилади.

ФИНАНСОВЫЙ АНАЛИЗ – ЗАЛОГ ПРОЗРАЧНОСТИ ОТЧЁТОВ

Ортиков Улугбек Акромбек угли
Старший преподаватель Ташкентского государственного экономического университета

АННОТАЦИЯ. В данной стате представлен анализ финансово-хозяйственной деятелности предприятия «Мета-Фарм» за 2021-2023. Рассматриваются коэффициенты автономии, обеспеченности собственными оборотными средствами, финансовой устойчивости, рентабелности, а также показателя ликвидности. Исследование позволяет выявит динамику изменений в финансовом состоянии предприятия, оценит его способност выполнят обязателства и устойчивост к внешним экономическим факторам. Полученные результаты помогут в далнейшем в принятии управленческих решений и оптимизации финансовой стратегии компании.

Ключевые слова: коэффициент автономии, коэффициент обеспеченности компании собственными оборотными средствами, коэффициент финансовой устойчивости, коэффициент рентабелности, коэффициент ликвидности, текущая ликвидност, абсолютная ликвидност и общая ликвидност.

Введение

Финансовая устойчивост предприятия является одним из ключевых факторов его успешной деятелности на современном рынке. В соответствии с Постановлением Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года № ПП-4611 о переходе на международные стандарты финансовой отчетности, компании обязаны организоват ведение бухгалтерского учета и составление финансовой отчетности на основе МСФО. Это требование подчеркивает важност прозрачности и качества финансовой информации, что, в свою очеред, способствует привлечению иностранных инвестиций и улучшению доступа к международным финансовым рынкам.

В условиях постоянно меняющейся экономической среды компании сталкиваются с множеством вызовов, требующих от них гибкости и способности адаптироватся. Показатели финансовой устойчивости, такие как коэффициенты автономии, рентабелности и ликвидности, становятся важными индикаторами не толко текущего состояния бизнеса, но и его стратегической перспективы.

Организация "Мета-Фарм" служит ярким примером того, как тщателный анализ финансовых показателей может помоч в выявлении силных и слабых сторон компании. Глубокое понимание финансовых коэффициентов позволяет не толко оценит финансовое здорове предприятия, но и предвосхитит возможные риски и возможности, которые могут возникнут в будущем. В данном контексте важност

комплексного анализа становится особенно актуалной, посколку он предоставляет ценные данные для принятия обоснованных управленческих решений.

Цел данного исследования заключается в оценке финансовой устойчивости компании "Мета-Фарм" за период с 2021 по 2023 год. Мы проанализируем ключевые финансовые показатели, выявим тренды и сделаем выводы о влиянии этих факторов на общую устойчивост и конкурентоспособност предприятия. Такой подход позволит не толко понят текущее состояние компании, но и выработат рекомендации по оптимизации её финансовой деятелности для достижения устойчивого роста в будущем.

Степен изученности

Финансовая устойчивост и анализ показателей деятелности компаний привлекают внимание многих исследователей и практиков. В данной области можно выделит несколко ключевых ученых, которые внесли значителный вклад в развитие теории и практики финансового анализа:

1. Edward I. Altman — Известен своей работой в области финансового анализа и предсказания банкротств. Разработал Z-скор, который исползуется для оценки финансовой устойчивости компаний.

• Altman, E. I. (1968). "Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy." Journal of Finance, 23(4), 589-609. В этой работе представлена методология Z-скор, позволяющая предсказыват вероятност банкротства на основе финансовых коэффициентов.

2. Robert C. Merton — Нобелевский лауреат, чи исследования в области финансового менеджмента и теории опционов способствовали более глубокому пониманию финансовых рисков и устойчивости компаний.

• Merton, R. C. (1974). "On the Pricing of Corporate Debt: The Risk Structure of Interest Rates." Journal of Finance, 29(2), 449-470. В данной стате рассматриваются факторы, влияющие на ценообразование корпоративного долга и риски, связанные с ним.

3. Michael C. Jensen — Один из основателей теории агентских отношений, его работы касаются управления корпоративными финансами и анализом финансовых показателей для оценки устойчивости бизнеса.

• Jensen, M. C. (1976). "Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure." Journal of Financial Economics, 3(4), 305-360. В этой работе обсуждаются агентские издержки и их влияние на корпоративное управление и финансовую устойчивост.

4. Aswath Damodaran — Специализируется на оценке компаний и их стоимости. Его исследования помогают понят, как различные финансовые показатели влияют на восприятие устойчивости бизнеса инвесторами.

• Damodaran, A. (2002). "Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset." Wiley Finance. Эта книга охватывает методы оценки стоимости активов и их связ с финансовой устойчивостю.

5. William H. Beaver — Один из пионеров в области исползования финансовых коэффициентов для предсказания банкротства и анализа финансового состояния компаний.

• Beaver, W. H. (1966). "Financial Ratios as Predictors of Failure." Journal of Accounting Research, 4(1), 71-111. В этой работе исследуются финансовые коэффициенты, которые могут предсказат возможност банкротства компании.

Финансовая устойчивост компании — это не просто набор цифр в отчетах, а сложный механизм, который отражает здорове и жизнеспособност бизнеса. В мире, где рыночные условия могут изменится в любой момент, способност компании адаптироватся и успешно управлят своими ресурсами становится залогом ее успеха. В этом контексте организация «Мета-Фарм» является ярким примером, где финансовые показатели служат индикаторами не толко текущего состояния, но и стратегической перспективы.

Как корабл в бурном море, каждая компания сталкивается с внешними штормах и внутренними волнами. Важно не толко держат курс, но и умет маневрироват, опираяс на данные, которые говорят о финансовой устойчивости. Анализ коэффициентов, таких как автономия и рентабелност, позволяет заглянут за пределы цифр и понят, насколко надежен этот "корабл" в сложных условиях современного рынка.

Приступая к деталному исследованию финансово-хозяйственной деятелности «Мета-Фарм», мы сможем не толко выявит силные и слабые стороны компании, но и предвосхитит возможные вызовы, с которыми она может столкнутся в будущем. С каждым показателем, рассматриваемым в нашем анализе, мы будем приближатся к более глубокому пониманию механики, движущей этой успешной организацией.

Для оценки финансовой устойчивости организации «Мета-Фарм» были рассмотрены ключевые показатели финансовой устойчивости, такие как:

- ➢ Коэффициент автономии;
- ➢ Коэффициент обеспеченности компании собственными оборотными средствами;
- ➢ Коэффициент финансовой устойчивости;
- ➢ Коэффициентрентабелности;
- ➢ Коэффициентликвидности.

Последствия: Снижение рентабелности валовой прибыли негативно сказывается на прибылности предприятия. Это может привести к необходимости

пересмотра ценообразования, улучшения контроля за себестоимостю и оптимизации производственных процессов. Если данная тенденция продолжится, предприятие может столкнутся с проблемами покрытия своих операционных расходов.

Несмотря на позитивные изменения в области финансовой устойчивости и ликвидности, предприятие сталкивается с существенными проблемами, связанными с рентабелностю. Снижение рентабелности валовой и чистой прибыли требует особого внимания и разработки стратегий по оптимизации затрат и повышению доходов. Отсутствие роста в обеспеченности собственными оборотными средствами также является негативным сигналом, который может ограничит финансовую гибкост предприятия. В совокупности, эти минусы могут ограничит способност предприятия к устойчивому развитию и требуют принятия мер по улучшению финансовых показателей.

ФОРМИРОВАНИЕ АМОРТИЗАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ ОРГАНИЗАЦИИ И АНАЛИЗ ВАРИАНТОВ ЕЕ ПРИМЕНЕНИЯ

Мирпулатова Луиза Мансуровна
Ташкентский государственный экономический университет, PhD
Умурзоқов Дадашер Аминжон угли
Ташкентский государственный экономический университет
Магистрант факультета международного образования

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования амортизационной политики организации как ключевого элемента финансового менеджмента и бухгалтерского учета в условиях Узбекистана. Представлен сравнительный анализ методов амортизации с количественной оценкой их воздействия на налогооблагаемую базу, чистую прибыль и балансовую стоимость активов. Результаты исследования могут быть использованы финансовыми менеджерами и бухгалтерами узбекских предприятий при разработке учетной политики организации.

Ключевые слова: амортизационная политика, методы начисления амортизации, основные средства, нематериальные активы, финансовая отчетность, МСФО, учетная политика, управленческие решения

ВВЕДЕНИЕ

Амортизационная политика представляет собой совокупность методов и принципов, определяющих порядок начисления амортизации на основные средства и нематериальные активы организации. В условиях современной экономики Узбекистана, характеризующейся активной модернизацией производственных мощностей и внедрением международных стандартов финансовой отчетности,

правильный выбор амортизационной политики становится критически важным фактором, влияющим на финансовое положение предприятия, его инвестиционную привлекательность и налоговую нагрузку. Формирование эффективной амортизационной политики требует глубокого понимания теоретических основ амортизации, знания международных стандартов финансовой отчетности и способности анализировать последствия применения различных методов начисления амортизации для конкретных условий хозяйственной деятельности организации [1; 8].

Актуальность темы исследования обусловлена несколькими факторами. Во-первых, амортизационные отчисления составляют значительную часть операционных расходов многих узбекских предприятий, особенно в капиталоемких отраслях промышленности, таких как текстильная промышленность, химическое производство и энергетика, что делает выбор метода амортизации важным управленческим решением. Во-вторых, различные методы амортизации по-разному влияют на распределение затрат между отчетными периодами, что непосредственно сказывается на величине налогооблагаемой прибыли и налоговых платежах в бюджет Республики Узбекистан. В-третьих, амортизационная политика влияет на показатели финансовой отчетности, которые используются внешними пользователями для оценки финансового состояния и результатов деятельности организации [2; 6].

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Теоретические основы амортизации и амортизационной политики глубоко разработаны в классической бухгалтерской литературе. Согласно фундаментальному труду Кисо, Вейгандта и Уорфилда, амортизация представляет собой систематическое распределение амортизируемой стоимости актива на протяжении срока его полезного использования, что отражает постепенное потребление экономических выгод, заключенных в активе [1]. Хорнгрен, Сандем и Эллиот подчеркивают, что амортизация является методом распределения затрат, а не процессом оценки активов, и не предназначена для отражения изменений рыночной стоимости основных средств [2]. Стикни, Браун и Вален указывают на критическую роль амортизации в финансовой отчетности как механизма соответствия доходов и расходов, обеспечивающего правильное определение финансового результата деятельности организации за отчетный период [3].

Классификация методов амортизации представлена в работах различных авторов с незначительными вариациями, но общепринято выделение трех основных групп методов. Нидлс и Пауэрс выделяют линейный метод, методы ускоренной амортизации и метод амортизации пропорционально объему производства [4]. Уайлд и Шоу подробно анализируют преимущества и недостатки каждого метода, отмечая, что линейный метод обеспечивает равномерное

распределение затрат и простоту расчетов, методы ускоренной амортизации позволяют списать большую часть стоимости актива в первые годы эксплуатации, что соответствует фактическому снижению производительности и увеличению расходов на обслуживание со временем, а производственный метод связывает амортизационные отчисления с фактическим использованием актива [5]. Бригам и Эрхардт в контексте финансового менеджмента рассматривают амортизацию как важный фактор, влияющий на денежные потоки организации через налоговый щит, создаваемый амортизационными отчислениями, которые уменьшают налогооблагаемую прибыль без оттока денежных средств [6].

Международные стандарты финансовой отчетности устанавливают требования к учету амортизации основных средств и нематериальных активов. Согласно МСФО 16 «Основные средства», организация должна распределять амортизируемую величину актива систематически на протяжении срока его полезного использования, при этом используемый метод амортизации должен отражать ожидаемую схему потребления будущих экономических выгод от актива [8]. МСФО 38 «Нематериальные активы» содержит аналогичные требования к амортизации нематериальных активов с определенным сроком полезного использования, подчеркивая необходимость регулярного пересмотра метода амортизации и срока полезного использования [9]. Портер и Нортон анализируют влияние выбора метода амортизации на ключевые финансовые показатели и решения пользователей финансовой отчетности, отмечая, что различные методы амортизации создают различные тренды в показателях рентабельности активов и собственного капитала на протяжении срока использования актива [7].

Современные исследования подчеркивают важность понимания различий между бухгалтерской и налоговой амортизацией, а также необходимость учета этих различий при формировании амортизационной политики организации [10]. Выбор метода амортизации для целей финансовой отчетности может отличаться от метода, используемого для налоговых целей, что создает временные разницы и требует применения отложенного налогообложения.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методологической основой исследования послужил анализ научной литературы по бухгалтерскому учету, финансовому менеджменту и международным стандартам финансовой отчетности с целью выявления теоретических подходов к формированию амортизационной политики и оценки влияния различных методов амортизации на финансовые показатели организации. Исследование проводилось в несколько этапов, включающих систематизацию информации об основных методах начисления амортизации, выявление критериев выбора метода амортизации, количественный анализ влияния различных методов

на финансовые показатели и формулирование рекомендаций по формированию амортизационной политики в условиях узбекской экономики.

На первом этапе был проведен критический анализ классической и современной литературы по бухгалтерскому учету основных средств и нематериальных активов с целью выявления концептуальных подходов к амортизации и классификации методов начисления амортизации. Особое внимание уделялось работам, рассматривающим амортизацию в контексте финансового анализа и управленческих решений. На втором этапе были изучены требования международных стандартов финансовой отчетности к учету амортизации, что позволило выявить обязательные элементы амортизационной политики и области профессионального суждения, доступные для организации при формировании учетной политики.

На третьем этапе был проведен сравнительный количественный анализ влияния различных методов амортизации на ключевые финансовые показатели узбекских организаций. Для этого были построены модельные расчеты, демонстрирующие динамику амортизационных отчислений, балансовой стоимости активов и влияния на прибыль при применении линейного метода, метода уменьшаемого остатка и производственного метода. Расчеты проводились в сумах для типичных сценариев приобретения основных средств с различными характеристиками использования. На заключительном этапе результаты количественного анализа были интерпретированы с точки зрения влияния на налогообложение, финансовые коэффициенты и управленческие решения, что позволило сформулировать рекомендации по выбору метода амортизации для различных ситуаций.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Сравнительный анализ основных методов начисления амортизации показывает существенные различия в распределении амортизационных отчислений по периодам использования актива. Для наглядной демонстрации этих различий рассмотрим гипотетический пример приобретения производственного оборудования узбекским предприятием первоначальной стоимостью 50000000 сум с ликвидационной стоимостью 5000000 сум и сроком полезного использования 5 лет. В таблице 1 представлены результаты расчета годовых амортизационных отчислений при использовании трех основных методов амортизации.

Таблица 1 – Сравнение амортизационных отчислений при различных методах (тыс. сум)

Год	**Линейный метод**	**Метод уменьшаемого остатка (коэффициент 2,0)**	**Производственный метод (объем производства: год 1-30%, год 2-25%, год 3-20%, год 4-15%, год 5-10%)**
1	9000,0	20000,0	13500,0
2	9000,0	12000,0	11250,0
3	9000,0	7200,0	9000,0
4	9000,0	800,0	6750,0
5	9000,0	0,0	4500,0
Итого	45000,0	40000,0	45000,0

Данные таблицы 1 демонстрируют, что при линейном методе амортизационные отчисления распределяются равномерно по всем периодам использования актива, что обеспечивает стабильность расходов и простоту планирования. Метод уменьшаемого остатка концентрирует значительную часть амортизационных отчислений в первые годы эксплуатации актива, что может быть экономически обосновано для активов, которые быстро теряют свою производительность или подвержены моральному устареванию, например, современное текстильное или информационно-технологическое оборудование. Производственный метод обеспечивает прямую связь между амортизационными отчислениями и фактическим использованием актива, что наиболее точно отражает потребление экономических выгод от актива в течение периода [1; 5].

Влияние выбора метода амортизации на финансовые показатели узбекской организации является значительным и должно учитываться при формировании амортизационной политики. В таблице 2 представлен анализ влияния различных методов амортизации на чистую прибыль организации при прочих равных условиях, предполагая выручку 100000000 сум в год, прочие операционные расходы 75000000 сум в год и ставку налога на прибыль 15% (действующая ставка в Узбекистане).

Таблица 2 – Влияние методов амортизации на чистую прибыль (тыс. сум)

Показатель	Год 1 (линейный)	Год 1 (ускоренный)	Год 1 (производственный)	Год 3 (линейный)	Год 3 (ускоренный)	Год 3 (производственный)
Выручка	100000,0	100000,0	100000,0	100000,0	100000,0	100000,0
Операционные расходы	75000,0	75000,0	75000,0	75000,0	75000,0	75000,0
Амортизация	9000,0	20000,0	13500,0	9000,0	7200,0	9000,0
Прибыль до налогообложения	16000,0	5000,0	11500,0	16000,0	17800,0	16000,0
Налог на прибыль (15%)	2400,0	750,0	1725,0	2400,0	2670,0	2400,0
Чистая прибыль	13600,0	4250,0	9775,0	13600,0	15130,0	13600,0

Результаты, представленные в таблице 2, показывают, что применение метода ускоренной амортизации приводит к существенному снижению чистой прибыли в первый год использования актива по сравнению с линейным методом (4250000 сум против 13600000 сум), однако в последующие годы эта тенденция меняется на противоположную. Совокупная чистая прибыль за весь период использования актива остается одинаковой при всех методах амортизации, но распределение прибыли по периодам различается [3; 6]. Это создает эффект налогового щита в ранние периоды при использовании ускоренной амортизации, что может быть выгодно с точки зрения дисконтированной стоимости налоговых платежей для узбекских предприятий.

Анализ влияния амортизационной политики на балансовую стоимость активов и финансовые коэффициенты представлен в таблице 3, которая демонстрирует динамику остаточной стоимости актива и ключевых показателей эффективности использования активов.



Рисунок 1. Балансовая стоимость актива и показатели эффективности

Данные рисунки наглядно демонстрируют, что выбор метода амортизации существенно влияет на финансовые коэффициенты, используемые для оценки эффективности деятельности узбекской организации. При применении ускоренной амортизации балансовая стоимость активов снижается быстрее, что приводит к росту показателей рентабельности активов и оборачиваемости активов в поздние периоды использования, создавая иллюзию улучшения эффективности деятельности при неизменных операционных результатах [7]. Это необходимо учитывать при проведении финансового анализа и сравнении показателей различных организаций или различных периодов деятельности одной организации.

“Hamroh” kredit portfeli hajmining jadal o‘sishiga qaramasdan, moliyalashtirish manbalari asosan cheklangan: tijorat banklaridan olinadigan resurslar va ustav kapitali asosida. Xalqaro tajribadan kelib chiqib:

- **xalqaro donorlar bilan grant va qaytmas moliyalashtirish mexanizmlari**ni jalb etish (masalan, KfW, ADB, IFC),
- **investitsion obligatsiyalar** chiqarish orqali xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish,
- **raqamli moliyalashtirish (crowdlending, P2P)** platformalari orqali bevosita investor-mijoz aloqasini tashkil etish (masalan, Kiva modeliga o‘xshash),
- MFIlararo sindikatlashgan kredit liniyalari orqali riskni bo‘lishish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Bu strategiya nafaqat “Hamroh”ni moliyaviy jihatdan mustahkamlaydi, balki resurs narxini pasaytiradi va faoliyat ko‘lamini kengaytiradi.

4. Raqobatbardosh xizmat strategiyasini shakllantirish

“Hamroh” faoliyatida kredit mahsulotlari asosiy daromad manbai bo‘lib qolmoqda. Xalqaro tajriba asosida:

- **mijozlarga mikrosug‘urta, shaxsiy jamg‘arma mahsulotlari, mikrotibbiy xizmatlar uchun to‘lov vositalari** kabi diversifikatsiyalangan xizmatlar taklif qilish,
- **fiksatsiyalangan foiz stavkalari o‘rniga moslashuvchan to‘lov jadvalini joriy qilish** (masalan, “yomg‘irli mavsumda to‘lanmaydigan agrar kreditlar” modeli),
- **raqamli mahsulotlar paketini** segmentlar asosida farqlash (ayollar uchun alohida ilova dizayni, yoshlar uchun bonus va keshbek tizimi) foydali bo‘ladi.

Bu xizmatlar orqali mijoz sodiqligi oshadi, portfel sifati yaxshilanadi, va to‘lov intizomi mustahkamlanadi.

5. Mintaqaviy inklyuziya strategiyasini ishlab chiqish

Bugungi kunda “Hamroh” faoliyati asosan Toshkent shahri va yirik urban markazlar bilan cheklangan. Aholining eng moliyaviy xizmatdan chetda qolgan qismi –**qishloq hududlarida**. Shu sababli:

- **mobil bank filiali** (bank bus) modellarini sinovdan o‘tkazish,
- **mintaqaviy agentlik tizimi** (mahalliy ishonchli shaxslar orqali xizmat) joriy qilish,
- **oflayn raqamli terminal punktlari** (kiosk asosida kredit ariza topshirish) tashkil etish orqali ko‘lamli mintaqaviy ekspansiyaga chiqish mumkin.

Bu tavsiyalar orqali O‘zbekistonda moliyaviy inklyuziya chuqurlashadi va MTTlar makroiqtisodiy tizimda yanada faol subyektga aylanishi mumkin.

6. Huquqiy va regulyatoriy takliflar

Mikromoliya sektorini rivojlantirishda muhim to‘siqlardan biri – normativ-huquqiy erkinlikning cheklanganligi. Shu bois quyidagi islohotlar taklif etiladi:

- Mikromoliya tashkilotlariga **kafolat jamg‘armalaridan foydalanish huquqi** berilishi,
- “Hamroh” kabi ilg‘or MTTlarga **raqamli litsenziya asosida faoliyatni kengaytirish imkoniyati** yaratish,
- **ixtiyoriy depozit jalb qilish** huquqining sinov loyihalari asosida joriy etilishi,
- Qonunchilikda **mikromoliyaviy innovatsiyalar (sandbox) bo‘yicha alohida norma** kiritilishi.

Bu chora-tadbirlar orqali O‘zbekistonda “Hamroh” tajribasiga tayangan holda yangi, zamonaviy va raqamli mikromoliya institutsionalligi shakllantiriladi.

O‘zbekiston mikromoliya sektorini rivojlantirishda “Hamroh” MTT modeli asosida ishlab chiqilgan strategik tavsiyalar ushbu tashkilotning amaliy tajribasidan kelib chiqqan holda, sektor barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya, ijtimoiy yo‘naltirilgan mahsulotlar, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi va mintaqaviy inklyuziya

yo‘nalishlaridagi kompleks choralar orqali mikromoliya tashkilotlari nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki moliyaviy inklyuziyaning chuqurlashishiga ham erishishi mumkin.

Tavsiyalar xalqaro tajriba va ilg‘or texnologik yondashuvlarga asoslanar ekan, ular O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan real va barqaror yechimlar sifatida e’tiborga loyiqdir. Ayniqsa, “Hamroh” kabi ilg‘or MTTlar uchun taklif etilgan raqamli litsenziyalash, mobil platformalarni kengaytirish, ijtimoiy kredit modellarini segmentatsiya asosida joriy qilish sektorda tizimli sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltirishi mumkin.

Natijada, taklif etilgan strategik chora-tadbirlar orqali mikromoliya tashkilotlarining iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari o‘zaro uyg‘unlashgan, innovatsion va barqaror moliyaviy infratuzilma shakllanishiga asos yaratiladi.

TIBBIYOT TASHKILOTLARINING MODDIY RAG‘BATLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI BO‘YICHA ISH HAQI VA UNGA TENGLASHTIRILGAN TO‘LOVLARNING HISOBINI YURITISH

Kuliboyev Azamat Shonazarovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi professori

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larining sarflanish tartibi amaldagi normativ–huquqiy hujjatlarda quyidagicha keltirib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 81–moddasida:

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan:

vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalarini va mavjud kreditorlik qarzlarini to‘lash;

budjet tashkilotining moddiy–texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari;

budjet tashkiloti xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tadbirlari uchun foydalaniladi.

Tibbiyot tashkilotida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha to‘lanmagan nafaqalar va muddati o‘tgan kreditorlik qarz mavjud bo‘lgan taqdirda, Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi jamg‘armasi mablag‘lari birinchi navbatda ushbu qarzlarni to‘lash uchun sarflanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tibbiyot tashkilotlariga ko‘rsatilgan homiylik mablag‘larining jami summasi, agar homiy tomonidan boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, tibbiyot tashkilotlarining moddiy–texnika bazasini mustahkamlash uchun sarflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 17–maydagi “Tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo‘llab–quvvatlash hamda rag‘batlantirishni kuchaytirish chora–tadbirlari to‘g‘risida” gi PF–136–son Farmoniga asosan 2022–yil 1–iyundan boshlab Tibbiyot muassasalarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larining 75 foizi guruhidan qat‘i nazar barcha davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirishga, 25 foizi tibbiyot muassasasining moddiy–texnika bazasini mustahkamlash, modernizatsiya qilish hamda ta’mirlashga yo‘naltiriladi. Jamg‘arma mablag‘larini sarflash yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005–yil 21–dekabrdagi “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 276–son Qarori 3–ilovasida Tibbiyot muassasasining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish va uning mablag‘larini sarflash yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti “Yagona schyotlar rejasi” (2–sonli BHS) (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018–yil 20–oktabrda 3078–son bilan ro‘yxatga olingan) ga asosan mablag‘larning sarflanishi 102 402 “Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi” subschyotining kreditida hamda hisob-kitoblar va boshqa tegishli subschyotlarning debetida aks ettiriladi.

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha hisoblangan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarining buxgalteriya o‘tkazmalarining amaldagi holatini quyidagi 1–jadval orqali ko‘rsatib o‘tamiz.

1–jadval

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha hisoblangan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarining buxgalteriya o‘tkazmalari[285]

T/r	Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit	Tasdiqlovchi buxgalteriya hujjatlari
1	Xodimlarga ish haqi hisoblanganda	742000	343400	Buyruq, tabel
2	Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari hisoblanganda	742000	343200	Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varag‘i
3	Yagona ijtimoiy to‘lov hisoblanganda	742000	342200	Buxgalteriya ma‘lumotnomasi

[285] “Yagona schyotlar rejasi” (2–sonli BHS) (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018–yil 20–oktabrda 3078–son bilan ro‘yxatga olingan) ga asosan muallif tomonidan tuzilgan

4	Ish haqidan daromad solig‘i ushlanganda	343400	342100	Hisob-kitob to‘lov qaydnomasi
5	Kasaba uyushmasi badali ushlab qolinganda	343400	343700	Hisob-kitob to‘lov qaydnomasi
6	Boshqa ushlanmalar (aliment va hokazo) ushlab qolinganda	343400	343900	Hisob-kitobto‘lov qaydnomasi
7	Daromad solig‘idan ShJBPHga ushlab qolinganda	342100	342300	Hisob-kitob to‘lov qaydnomasi
8	Daromad solig‘i to‘langanda	342100	102402	To‘lov topshiriqnomasi
9	Yagona ijtimoiy to‘lov summasi to‘langanda	342200	102402	To‘lov topshiriqnomasi
10	ShJBPH summasi to‘langanda	342300	102402	To‘lov topshiriqnomasi
11	Kasaba uyushmasi badali to‘langanda	343700	102402	To‘lov topshiriqnomasi
12	Boshqa ushlanmalar (aliment va hokazo) to‘langanda	343900	102402	To‘lov topshiriqnomasi
13	Kassaga naqd pul olish uchun tranzit schyotga o‘tkazilganda	111300	102402	To‘lov topshiriqnomasi
14	Chek bo‘yicha olingan naqd pullar kassaga kirim qilinganda	109100	111300	Kassa kirim orderi, Chek daftari
15	Kassadan ish haqi to‘langanda	343400	109100	Kassa chiqim orderi, Ishhaqi, avans berish uchun to‘lov qaydnomasi
16	Kassadan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari to‘langanda	343200	109100	Kassa chiqim orderi, Ishhaqi, avans berish uchun to‘lov qaydnomasi
17	Alohida xodimlarning ish haqi deponentlanganda	343400	343800	Deponentlangan summalar reyestri
18	Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari deponentlanganda	343200	343800	Deponentlangan summalar reyestri
19	Deponentlangan ish haqi kassadan	343800	109100	Kassa chiqim

	to‘langanda			orderi, Ishhaqi, avans berish uchun to‘lov qaydnomasi
20	Deponentlangan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari kassadan to‘langanda	343800	109100	Kassa chiqim orderi, Ishhaqi, avans berish uchun to‘lov qaydnomasi

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha hisoblangan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarning analitik hisobi har bir xodim bo‘yicha alohida yuritiladi.

Shuningdek, Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha hisoblangan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar quyidagi hisob hujjatlarida muntazam rasmiylashtirilib boriladi:

- Ish haqi, stipendiya va boshqa to‘lovlarni berish uchun tarqatuvchilarga berilgan pullarni hisobga olish daftari (320-son shakl);
- Foydalanilgan ish vaqti hisobi va ish haqi hisoblash tabeli (421-son shakl);
- Ish haqi, avans berish uchun to‘lov qaydnomasi (389-son shakl);
- Hisob-kitob to‘lov qaydnomasi (49-son shakl);
- Ta’til berish (ishdan bo‘shash) bo‘yicha hisob yozuvi (425-son shakl);
- Deponentlangan summalar reyestri (414-son shakl);
- Deponent qilingan ish haqi va stipendiyalarning analitik hisobi bo‘yicha daftar (441-son shakl);

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha hisoblangan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarning sintetik hisobi 5–memorial order–ish haqi va stipendiyalar bo‘yicha hisob-kitob varaqalari yig‘indisi (405-son shakl)da, analitik hisobi Joriy hisoblar va hisob–kitoblar daftari (kartochkasi) (292–son shakl)da Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha alohida holda yuritiladi.

Yuqorida Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha hisoblangan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar hisobining amaliy jihatlarini qisqacha ko‘rib chiqib, xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, davlat tibbiyot tashkilotlarida Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha hisoblangan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar hisobining tashkiliy–uslubiy jihatlarini to‘liq hisob siyosatida aks ettirish zarur. Natijada, Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha hisoblangan ish haqi va unga

tenglashtirilgan to‘lovlar hisobi ham tashkilot hisob siyosatida batafsil yoritiladi, hisob ishlarining izchilligi ta‘minlanadi.

OLIY TA’LIM TASHKILOTI SUB’YEKTLARI XARAJATLARINING MOLIYAVIY HISOBOT KO’RSATKICHLARIDA AKS ETTIRILISHI HAMDA ULARNING NAZORATI

Xonimqulov Islom Ergash o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Oliy ta’lim tashkilotlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi tashkilotlar hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish hamda innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Ushbu vazifalarni samarali bajarish bevosita moliyaviy resurslarning yetarliligi va ulardan oqilona foydalanilishiga bog‘liq. Mazkur moliyaviy resurslar ichida davlat byudjeti mablag‘lari alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini isloh qilish, oliy ta’lim tashkilotlariga moliyaviy mustaqillik berish hamda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur jarayonda oliy ta’lim tashkiloti subyektlarida budjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar hisobini to‘g‘ri tashkil etish va uni takomillashtirish masalasi alohida dolzarb masalalardan biriga aylanib qolmoqda. Chunki budjet mablag‘lari ta’lim tizimining asosiy moliyaviy tayanchi bo‘lib, ularning maqsadli, tejamkor va shaffof sarflanishi ta’lim sifati hamda tizim barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim tashkilotlari xarajatlarini amalga oshirishga so’nggi yillarda katta e’tibor qaratilmoqda, to’g’ri rejalangan xarajatlar tashkilotning kelgusidagi moliyaviy barqarorligining ta’minlashga olib kelishi mumkin.

Davlat moliyasini boshqarishning asosiy nazariyalarida, davlat sektorida xarajatlar va resurslarni samarali taqsimlash, barqarorlashtirish va maqsadli sarflash muhim hisoblanadi. Ushbu mablag‘lar ta’lim xizmatlarining ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi sababli davlat tomonidan kafolatlangan moliyaviy manba sifatida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, budjet mablag‘lari qaytarib olinmaydigan va maqsadli xarakterga ega bo‘lgan moliyaviy resurslar bo‘lib, ular qat’iy belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha sarflanishi lozim.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonida buxgalteriya hisobini yuritishda foydalaniladigan barcha hisob registrlari, memorial orderlar O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018 yil 10 sentabrdagi 125-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasining «Yagona schyotlar rejasi» nomli budjet hisobining (2-sonli BHS) standarti asosida ro’yxatga olingan barcha provodkalari, buxgalteriya hisobiga oid dastlabki hujjatlardagi muomalalarning natijalari, subschyotlar bo`yicha aylanmalarning

hisobot davri oxiriga Bosh jurnalning qoldiqlari bo`yicha ma`lumotlar orqali shakllantiriladi. Hozirgi kunda davlat sektori sub`ektlarida "UzASBO 2" avtomatlashtirilgan dasturiy majmuasi asosida davlat sektori sub`ektlarining moliyaviy hisobotlari elektron raqamli imzosi orqali taqdim etiladi.

Ushbu hisobotlarda xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra guruhlanib, hisobot davrida amalga oshirilgan real sarflar ko‘rsatiladi. Mehnatga haq to‘lash xarajatlari va ijtimoiy ajratmalar alohida satrlarda aks ettirilib, ular oliy ta’lim tashkilotlari xarajatlarining eng katta ulushini tashkil etadi.

Xarajatlar tahlili oliy ta’lim tashkilotlarida moliyaviy boshqaruvning muhim vositasi hisoblanadi. Xarajatlarni tahlil qilish orqali mablag‘lardan foydalanish samaradorligi, rejalashtirilgan va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tafovutlar aniqlanadi. Shakllantirilgan moliyaviy hisobot ko`rsatkichlaridagi tahlil jarayonida quyidagi asosiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratiladi (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil jarayonidagi asosiy yo‘nalishlar [286].

Mazkur moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil natijalari asosida xarajatlarni optimallashtirish, ortiqcha sarflarni qisqartirish hamda resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Shuningdek, xarajatlar tahlili ichki va tashqi moliyaviy nazoratni amalga oshirishda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Oliy ta’lim tashkilotlari sub’yektlari xarajatlarining moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarida to‘g‘ri aks ettirilishi va ularning tizimli tahlil qilinishi ta’lim muassasasining moliyaviy barqarorligi hamda boshqaruv samaradorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga qat’iy rioya qilish, xarajatlar hisobini shaffof yuritish va tahliliy yondashuvni kuchaytirish oliy ta’lim tizimida mablag‘lardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oliy ta’lim tashkiloti sub’yektalarida xarajatlar hisobining amaliy jihatlarini o‘rganib tahlil etish jarayonida shuni takidlash joizki, I-IV

[286] O’rganilgan me’yoriy-xuquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

guruhlar kesimida amalga oshirilayotgan xarajatlar miqdori yildan-yilga keskin ortib bormoqda. So‘nggi yillarda ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda faoliyat ko‘lamini kengaytirish bilan bog‘liq xarajatlarning keskin faollashganidan dalolat beradi. Kelgusida bevosita oliy ta`lim tashkilotlarida ta`lim sifatiga alohida ahamiyat qaratgan holda, shu bilan birga amalga oshirilayotgan xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan harakatlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

МЕХАНИЗМЫ МЕЖГОСУДАРСТВЕННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Хамитиллаева Жасмина Джахонгир кызы
Студентка Финансового факультета ТГЭУ

В условиях углубляющейся глобализации мирового хозяйства наблюдается качественная трансформация форм и механизмов международного экономического взаимодействия. Если ранее доминирующей формой выступали традиционные торговые отношения, основанные преимущественно на обмене товарами и услугами, то на современном этапе приоритет смещается в сторону долгосрочных инвестиционных связей, транснационального движения капитала, реализации совместных инфраструктурных и инновационных проектов, а также формирования сложных институциональных финансовых механизмов.

В этой связи теоретические подходы различных исследователей позволяют более глубоко раскрыть сущность происходящих процессов. Д. Даннинг обосновывает зависимость инвестиционных потоков от географических преимуществ и политической стабильности стран в рамках парадигмы ОЛИ. По его мнению, межгосударственное сотрудничество принимает институциональную форму через инвестиционные фонды, обеспечивая потоки капитала в долгосрочной перспективе[287]. Это превращает инвестиционный процесс в стратегически спланированный механизм, а не в случайный.

А. Дынкин отмечает, что стратегические инвестиционные институты играют важную роль в прогнозировании глобального экономического развития. По его мнению, совместные фонды являются средством координации долгосрочных интересов между странами. Этот механизм также служит укреплению экономической безопасности[288].

П. Кругман обосновывает взаимозависимость международной торговли и инвестиций. По его мнению, инвестиционные фонды ускоряют интеграционные

[287] Dunning J. H. Multinational Enterprises and the Global Economy. – Wokingham: Addison-Wesley, 1993. – 687 p.
[288] Дынкин А. А. Мировая экономика: прогноз до 2030 года. – М.: Магистр, 2011. – 429 с.

процессы и стимулируют свободное движение факторов производства[289]. Благодаря этому экономические отношения между странами приобретают системный характер.

Дж. Стиглиц в своих исследованиях отмечает, что стабильность потоков капитала в контексте глобализации зависит от институционального сотрудничества между странами. По его мнению, совместные инвестиционные фонды формируют механизм доверия между странами и финансово укрепляют стратегические партнерства[290]. При этом он подчеркивает, что инвестиционное сотрудничество не принесет ожидаемых результатов, если отсутствуют эффективные механизмы контроля над финансовыми потоками.

Таким образом, представленные научные подходы логически дополняют друг друга и демонстрируют, что межгосударственные инвестиционные механизмы в условиях глобализации приобретают системный, институционально оформленный и стратегически ориентированный характер, выступая важнейшим фактором устойчивого развития мировой экономики.

Межгосударственные инвестиции представляют собой одну из ключевых форм международного экономического сотрудничества, обеспечивающую не только перераспределение финансовых ресурсов между странами, но и трансфер технологий, управленческого опыта и инноваций. В научной литературе данные процессы рассматриваются в контексте таких концепций, как интернационализация капитала, глобальные цепочки добавленной стоимости и финансовая интеграция. Ниже представлена научно структурированная таблица, отражающая основные механизмы межгосударственных инвестиций и их экономическое значение.

Таблица 1

Механизмы межгосударственных инвестиций

Механизм	**Сущность**	**Инструменты реализации**	**Роль в мировой экономике**
Прямые иностранные инвестиции(ПИИ)	Долгосрочное вложениекапитала с целью установления контроля	Создание филиалов, дочерних компаний, участие в капитале	Передача технологий, создание рабочих мест, индустриализация
Портфельные инвестиции	Вложения в ценныебумагибез контроля над	Акции, облигации, инвестиционные	Развитие финансовых рынков, повышение

[289] Krugman P. R., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. – 10th ed. – Boston: Pearson Education, 2018. – 800 p.

[290] Stiglitz J. E. Globalization and Its Discontents. – New York: W. W. Norton & Company, 2002. – 282 p.

	управлением	фонды	ликвидности
Межгосударственные кредиты	Финансирование на основе двустороннихили многосторонних соглашений	Государственные займы, кредиты международных организаций	Поддержка макроэкономической стабильности, развитие инфраструктуры
Совместные предприятия	Объединение капитала и ресурсов несколькихстран	Консорциумы, стратегические альянсы	Снижениерисков, обмен технологиями, повышение эффективности
Суверенныефонды благосостояния	Государственные инвестиционные структуры	Резервные фонды, стабилизационные фонды	Долгосрочное стратегическое инвестирование, диверсификация экономики
Международные финансовые институты	Институциональные механизмы регулирования и финансирования	Программы МВФ, Всемирного банка, региональных банков развития	Снижение инвестиционных рисков, поддержка реформ, глобальная координация

Представленные в таблице механизмы межгосударственных инвестиций отражают многоуровневую и институционально оформленную систему движения капитала в современной мировой экономике. Их ключевая особенность заключается в сочетании частных и государственных форм участия, а также в интеграции финансовых, производственных и управленческих ресурсов. Такие механизмы позволяют не только перераспределять капитал между странами, но и обеспечивают структурные преобразования национальных экономик, повышая их конкурентоспособность в условиях глобализации.

Прямые иностранные инвестиции и совместные предприятия выступают наиболее значимыми инструментами реального сектора, поскольку обеспечивают долгосрочное присутствие капитала и сопровождаются трансфером технологий, управленческих практик и человеческого капитала. В отличие от них, портфельные инвестиции формируют основу развития финансовых рынков, повышая их ликвидность и инвестиционную привлекательность. В совокупности данные механизмы создают баланс между стабильными долгосрочными вложениями и более мобильными финансовыми потоками.

Особую роль играют межгосударственные кредиты и деятельность международных институтов, таких как Международный валютный фонд и Всемирный банк. Они обеспечивают макроэкономическую стабильность, финансирование инфраструктурных проектов и поддержку экономических реформ. Благодаря этим инструментам снижаются инвестиционные риски, повышается доверие между странами и формируются условия для устойчивого экономического роста.

Суверенные фонды благосостояния дополняют данную систему, выступая в качестве стратегических инвесторов, ориентированных на долгосрочную диверсификацию активов и обеспечение финансовой устойчивости государств. В совокупности все перечисленные механизмы формируют целостную архитектуру межгосударственных инвестиций, способствующую углублению экономической интеграции, укреплению взаимозависимости стран и обеспечению сбалансированного развития мировой экономики.

Роль межгосударственных инвестиций в развитии мировой экономики проявляется в нескольких ключевых аспектах. Во-первых, они способствуют ускорению экономического роста за счет мобилизации дополнительных ресурсов. Во-вторых, инвестиции стимулируют структурные преобразования экономики, включая модернизацию промышленности и развитие высокотехнологичных отраслей. В-третьих, они усиливают интеграцию национальных экономик в глобальную систему, формируя устойчивые производственно-сбытовые связи. Наконец, межгосударственные инвестиции способствуют снижению уровня экономической дифференциации между странами, создавая условия для более равномерного распределения доходов и возможностей развития.

Таким образом, механизмы межгосударственных инвестиций выступают системообразующим элементом современной мировой экономики, обеспечивая переход от простых форм торгового взаимодействия к комплексной модели глобального экономического партнерства, основанного на взаимозависимости, институционализации и долгосрочной стратегической кооперации.

MAMLAKAT TO’LOV BALANSI VA UNI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY JIHATLARI

Xamitillayeva Jasmina Jaxongir qizi
TDIU Moliya fakulteti talabasi

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasida to‘lov balansi tushunchasining shakllanishi tarixan tashqi savdo jarayonlarini tahlil qilishdan boshlangan bo‘lib, u iqtisodiy fikr taraqqiyotida muhim bosqichlarni bosib o‘tgan. Dastlab davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar asosan tovarlar almashinuvi bilan izohlangan bo‘lsa,

keyinchalik kapital harakati, moliyaviy oqimlar va institutsional munosabatlar ham ushbu tizimning ajralmas qismiga aylangan. Shu jihatdan, to‘lov balansi tushunchasi xalqaro iqtisodiy jarayonlarni kompleks baholash imkonini beruvchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkich sifatida shakllandi.

To‘lov va savdo balanslari o‘zaro uyg‘unlashgan holda mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini ifodalovchi umumiy balans tizimini shakllantiradi. Tarixiy jihatdan qaralganda, “to‘lov balansi” atamasi dastlab faqat moliyaviy aktivlarning xalqaro harakatini aks ettiruvchi tushuncha sifatida talqin etilib, savdo balansidan alohida ko‘rib chiqilgan. Qariyb ikki asr davomida u ma’lum davr mobaynida chet eldan olingan hamda boshqa mamlakatlarga o‘tkazilgan to‘lovlarning umumiy hajmini ifodalovchi ko‘rsatkich sifatida qo‘llanilgan.

To‘lov balansi tushunchasining paydo bo‘lishi “savdo balansi” atamasi bilan uzviy bog‘liqdir. “Savdo balansi” tushunchasi ilk bor E.Misselden tomonidan “Savdo doirasi” asarida qo‘llanilgan bo‘lib, unda Angliyaning tashqi savdo ko‘rsatkichlari ilk bor tizimli ravishda hisob-kitob qilingan. Ushbu yondashuv davlat boyligini tashqi savdo orqali baholashga asos solgan[291].

Keyinchalik mazkur tushuncha T.Mann ishlarida yanada rivojlantirildi. U “umumiy savdo balansi” konsepsiyasini ilgari surib, mamlakatning barcha davlatlar bilan tashqi iqtisodiy munosabatlarini yagona tizim sifatida baholash zarurligini asoslab bergan. Uning fikricha, ayrim davlatlar bilan yuzaga kelgan savdo taqchilligi boshqa davlatlar bilan ijobiy saldo orqali qoplanishi mumkin, shu sababli tashqi savdo samaradorligini umumiy balans doirasida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir[292].

“To‘lov balansi” atamasi esa ilk bor Jeyms Styuart tomonidan 1767-yilda nashr etilgan “Siyosiy iqtisod asoslarini tekshirish” asarida ilmiy muomalaga kiritilgan. U to‘lov balansini tashqi savdo bilan cheklanmaydigan, balki kapital harakati va moliyaviy operatsiyalarni ham qamrab oluvchi mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilgan[293]. Uning yondashuviga ko‘ra, to‘lov balansi mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini har tomonlama ifodalovchi kompleks ko‘rsatkich bo‘lib, u fuqarolarning chet eldagi xarajatlari, qarzlarni to‘lash hamda chet elliklarga asosiy qarz va foizlarni to‘lash, shuningdek boshqa mamlakatlarga qarz berish kabi jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi.

“To‘lov balansi” atamasining rasmiy iqtisodiy muomalaga kirib kelishi 1819-yilda Angliyada parlament komissiyasi hisobotida qayd etilgan bo‘lib, unda mamlakatning xalqaro hisob-kitoblari holati tahlil qilingan. Mazkur hisobotda to‘lov balansi asosan yil davomida mamlakatga olib kirilgan va olib chiqilgan oltin (oltin tangalar) qiymati orqali

[291] История экономических учений. / Под. ред. В.Автономова, О.Ананьина, Н.Макашевой: Учебное пособие. – М.: ИНФРА–М, 2022. – С.35.
[292] Mun, Thomas. England’s Treasure by Foreign Trade or The Balance of our Foreign Trade is the Rule of our Treasure. – London: J.G. for Thomas Clark, 1664.
[293] Stuart, James. An Inquiryintothe Principles of Political Economy. – London: A.Millar, and T.Cadell, 1767.

ifodalangan. Biroq, to‘lov balansining tizimli va muntazam statistik nashri faqat bir asr o‘tib yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu uning ilmiy va amaliy ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi.

XX asr boshlariga kelib to‘lov balansi tushunchasini xalqaro miqyosda standartlashtirishga urinishlar boshlandi. Xususan, 1905-yilda Londonda bo‘lib o‘tgan Xalqaro Statistika Instituti sessiyasida ushbu masala muhokama qilinib, I. Gruber va M. Fovil tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar asosida to‘lov balansining yagona terminologiyasi va metodologik asoslari shakllantirila boshlandi[294]. Natijada, 1907-yilda qayta ko‘rib chiqilgan va takomillashtirilgan to‘lov balansi sxemasi ishlab chiqildi.

Keyingi muhim bosqich 1928-yilda Millatlar Ligasi hamda Xalqaro Savdo Palatasi hamkorligida amalga oshirildi. Ushbu davrda to‘lov balansining yangi sxemasi joriy etilib, unda joriy hisob operatsiyalari va kapital oqimlari o‘rtasidagi muvozanat tamoyili asosiy metodologik yangilik sifatida qabul qilindi. Shuningdek, hisoblar o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish maqsadida “sof xatolar va yo‘qotishlar” moddasi kiritildi. Mazkur yondashuv to‘lov balansini yanada kompleks va tizimli iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida shakllanishiga zamin yaratdi hamda oltinning roli kompensatsion vosita sifatida asta-sekin cheklana boshladi.

1- jadval

To‘lov balansining tarkibi[295]

Tushumlar	**To‘lovlar**
Joriy operatsiyalar hisobi	
Tovarlar eksporti	Tovarlar importi
Xizmatlar eksporti	Xizmatlar importi
Xorijiy mamlakatlardan beg‘araz yordamlar	Xorijiy mamlakatlarga beg‘araz yordamlar
Kapital operatsiyalari hisobi	
Kapital importi	Kapital eksporti
Sof xato va yo‘qotishlar	

Shunday qilib, iqtisodiy tafakkur evolyutsiyasi jarayonida faqat to‘lovlar harakatini aks ettiruvchi tor ma’nodagi to‘lov balansi konsepsiyasidan voz kechildi va u yanada kengroq, tizimli hamda kompleks iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan konsepsiyaga aylantirildi. Natijada to‘lov balansida ifodalanadigan iqtisodiy jarayonlar doirasi sezilarli darajada kengayib, u nafaqat moliyaviy oqimlarni, balki real sektor bilan bog‘liq operatsiyalarni ham qamrab ola boshladi. Xususan, qayta ko‘rib chiqilgan metodologiya

[294] Gruber Ignaz and M. de Foville in the “Statistical skimming from the international Congress, by J.Athelstane Baines”// Journal of the Royal statistical society, Vol.LXVIII, December 1905.

[295] Бабурина, Н. А. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебное пособие для вузов / Н. А. Бабурина. — 2-е изд. — Москва: Издательство Юрайт, 2022. — 86 с

asosida to‘lov balansiga joriy operatsiyalar hisobi, kapital harakati hamda kredit munosabatlari kiritilib, uning tahliliy imkoniyatlari ancha kuchaytirildi.

Zamonaviy talqinda to‘lov balansi davlat darajasidagi muhim statistik hujjat sifatida qaraladi. U mamlakatga olib kirilayotgan va undan olib chiqilayotgan barcha tovarlar va xizmatlar, beg‘araz transfertlar, kreditlar, kapital qo‘yilmalar, shuningdek, xalqaro turizm va boshqa tashqi iqtisodiy faoliyatdan olinadigan tushumlarning umumiy qiymatini tizimli ravishda aks ettiradi. Shu orqali u milliy iqtisodiyotning tashqi sektor bilan o‘zaro aloqalarini kompleks ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichga aylanadi.

Mazkur ko‘rsatkich mamlakatning chet el bilan iqtisodiy munosabatlarida tushumlar va to‘lovlar nisbatini tahlil qilish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida tashqi iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, to‘lov balansi ma’lum davr mobaynida rezidentlar va norezidentlar o‘rtasida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy operatsiyalarni umumlashtiruvchi statistik hisobot sifatida namoyon bo‘ladi.

Uning tarkibiy tuzilmasi odatda bir necha asosiy bo‘limlardan iborat bo‘lib, ular o‘z ichiga tovarlar va xizmatlar savdosi (joriy hisob), birlamchi va ikkilamchi daromadlar, kapital operatsiyalari hamda moliyaviy hisoblarni oladi. Ushbu elementlarning o‘zaro bog‘liqligi to‘lov balansini milliy iqtisodiyotning tashqi barqarorligini baholashda muhim analitik instrumentga aylantiradi.

Mamlakat to‘lov balansini tartibga solishning nazariy jihatlari xalqaro makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashga qaratilgan ilmiy konsepsiyalar va iqtisodiy mexanizmlar tizimini o‘z ichiga oladi. To‘lov balansi davlatning tashqi iqtisodiy holatini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich bo‘lib, uning barqarorligi milliy valyuta kursi, inflyatsiya darajasi, investitsion muhit va umumiy iqtisodiy o‘sish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli iqtisodiy nazariyada to‘lov balansini tartibga solish masalasi turli yondashuvlar doirasida keng o‘rganilgan.

2- jadval

To‘lov balansini tartibga solish nazariyalari va mexanizmlari[296]

Yondashuv	Asosiy g‘oya	Mexanizmlar
Klassik	Bozor avtomatik ravishda muvozanatni tiklaydi	Oltin oqimi, narxlar o‘zgarishi, pul massasining tabiiy qisqarishi/kengayishi
Neoklassik	Erkin bozor va raqobat muvozanatnita’minlaydi	Valyuta kursi o‘zgarishi, eksport-import moslashuvi
Keyns	Davlat faol aralashuvi zarur	Fiskal siyosat (soliq, xarajatlar), monetar siyosat (foiz stavkasi), valyuta siyosati
Monetar	To‘lov balansi pul bozori	Pul massasi nazorati, markaziy bank siyosati,

[296] Muallif ishlanmasi

	bilan bog‘liq	inflyatsiya boshqaruvi
Zamonaviy	Kompleks va ko‘pomilli tizim	Investitsiya muhiti, tashqi savdo siyosati, institutsional islohotlar, xalqaro hamkorlik

Klassik yondashuv to‘lov balansini bozorning o‘z-o‘zini tartibga solish mexanizmi orqali muvozanatlashini asoslaydi. Bu yerda asosiy g‘oya shundan iboratki, tashqi nomutanosibliklar avtomatik ravishda narxlar va oltin oqimi orqali bartaraf etiladi. Ya’ni, eksport va import o‘rtasidagi tafovut pul massasining o‘zgarishiga olib kelib, narxlar darajasi orqali raqobatbardoshlikni qayta tiklaydi. Ushbu modelda davlat aralashuvi deyarli inkor etiladi.

Neoklassik yondashuv esa klassik qarashlarni rivojlantirib, valyuta kursi va bozor raqobatini asosiy muvozanat mexanizmi sifatida ko‘radi. Bu nazariyaga ko‘ra, tashqi savdo nomutanosibligi valyuta kursining moslashuvchanligi orqali avtomatik ravishda tartibga solinadi. Natijada eksport va import hajmlari bozor signallari asosida muvozanatlashadi.

Keynschilik yondashuvi to‘lov balansini tartibga solishda davlatning faol ishtirokini zarur deb hisoblaydi. John Maynard Keynes fikriga ko‘ra, bozor har doim ham avtomatik ravishda muvozanatni ta’minlay olmaydi, shuning uchun fiskal va monetar siyosat vositalari orqali tashqi iqtisodiy muvozanatga erishiladi. Bu yondashuvda davlat xarajatlari, soliq siyosati va foiz stavkalari asosiy instrumentlar hisoblanadi.

Monetar yondashuv to‘lov balansini pul bozori bilan bevosita bog‘laydi. Ushbu nazariyada asosiy e’tibor pul massasi, inflyatsiya va markaziy bank siyosatiga qaratiladi. Monetaristlar fikricha, tashqi nomutanosibliklar pul taklifi va talabidagi o‘zgarishlar orqali yuzaga keladi va markaziy bankning pul-kredit siyosati orqali bartaraf etiladi.

Zamonaviy yondashuv esa to‘lov balansini kompleks tizim sifatida ko‘radi. Bu yerda nafaqat makroiqtisodiy siyosat, balki institutsional islohotlar, investitsion muhit, tashqi savdo siyosati va xalqaro hamkorlik ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bois zamonaviy iqtisodiyotda to‘lov balansining barqarorligi davlat, bozor va xalqaro institutlarning o‘zaro hamkorligi natijasida ta’minlanadi.

Umuman olganda, to‘lov balansini tartibga solishga oid yondashuvlar iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishi bilan birga bosqichma-bosqich takomillashib borgan. Klassik va neoklassik maktab vakillari bozor mexanizmlarining o‘z-o‘zini muvozanatga keltirish qobiliyatiga tayanib, davlat aralashuvini minimal darajada bo‘lishini ta’kidlagan bo‘lsalar, keynschilik va monetar yondashuvlar tashqi nomutanosibliklarni bartaraf etishda davlatning faol iqtisodiy siyosatini zarur deb hisoblaydi.

Zamonaviy iqtisodiy qarashlarda esa to‘lov balansi faqat makroiqtisodiy vositalar bilan emas, balki institutsional islohotlar, investitsion muhitni yaxshilash, xalqaro moliyaviy hamkorlik va global integratsiya jarayonlari bilan birgalikda tahlil qilinadi. Bu

esa to‘lov balansini tartibga solishning murakkab, ko‘p omilli va tizimli jarayon ekanini ko‘rsatadi.

ОСОБЕННОСТИ АУДИТА СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ

Хайитбаев М.
доцент кафедраы «Аудит», ТГЭУ

Экономическая оценка проверяемых хозяйственных операций по учету за-трат на производство в процессе аудита сопряжена с большими трудностями. Общим ее критерием является соответствие отдельных хозяйственных операции конечным целям деятельности экономического субъекта при соблюдении законно-сти, который в современных условиях недостаточен и должен быть дополнен более конкретными частными критериями целесообразности и эффективности всех элементов хозяйствования. Экономическая оценка должна в качестве одного из своих возможных направлений предусматривать типизацию операций по форми-рованию затрат на производство продукции (работ, услуг), с последующим моде-лированием и установление такой типизации для каждой модели.

Существенный момент организации аудита затрат на производство продукции - выбор способа наблюдения объектов контроля, которое может быть сплошным и выборочным. Выбор зависит от особенностей проверяемых операций, их объема и степени повторяемости. Сплошным наблюдением охватываются все контролируемые объекты, когда обнаружены значительные перерасходы издержек и выявлены нарушения законности. Такая проверка связана с изучением большого объема информации при ограниченном времени проведения аудита, поэтому она становится нецелесообразным или даже невозможным.

Аудиторы постоянно работают над тем, чтобы максимально сократить время проверки, не снижая при этом ее качества, и, следовательно, не увеличивая аудиторский предпринимательский риск. Аудит, основанный на учете риска, - это такой вид аудита, когда проверка может производиться выборочно исходя из условий работы предприятия, в основном «узких мест» (критических точек) в его работе. Сосредоточив аудиторскую работу в областях, где риски необнаружения ошибок выше, можно сократить время, затрачиваемое на проверку областей с низким аудиторским риском. В то же время при осуществлении выборочной проверки могут остаться незамеченными наиболее существенные искажения в учете затрат на производство продукции. Одним из наиболее эффективных путей решения проблемы является выработка четкой методики проверки каждого элемента или калькуляционной статьи затрат. Эту методику целесообразно составлять по единой схеме, что позволит сократить затраты времени аудитора на проведение проверки одновременно повысив его качество. Задача состоит в том,

чтобы на стадии планирования определить состав контрольных процедур, но сами процедуры должны быть уже разработаны в качестве внутрифирменных стандартов аудиторской фирмы.

Аудит, как и любая область практической деятельности, нуждается в разработке целевых, информационных, организационных и методических аспектов аудирования по всем направлениям финансово-хозяйственной деятельности организаций. Решение этой проблемы возможно лишь при наличии глубоких исследований, раскрывающих механизм действия аудиторского контроля в рыночной экономике.

Используемые в настоящее время в аудиторской практике методики контроля учета затрат можно подразделить на два вида: дублирующие и эпизодические. Посредством дублирующей методики контроль осуществляется в такой же последовательности, как и проверяемые операции. «Контроль не должен быть направленным на изыскание нарушений «во что бы то ни стало», функция контроля не должна обращаться в следовательскую или сыскную. Необходимо помнить, что контроль имеет значение не только для порицания, но также и для одобрения. И если контроль уклонится в сторону одного лишь обнаруживания нарушений, то утратит всякое значение - другая, не менее важная, сторона его деятельности». Более того, функция контроля заключает в себе момент максимальной объективности. По этому контроль дополняется проводимыми время от времени фактическими проверками, в процессе которых уточняется состояние объекта.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI SHAROITIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH ORQALI BUDJET MABLAG‘LARIDAN OQILONA FOYDALANISH

Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li
“Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi

Global iqtisodiy integratsiya va raqamli transformatsiya sharoitida davlat moliya tizimini boshqarishning an’anaviy usullari o‘z o‘rnini yanada moslashuvchan va shaffof mexanizmlarga bo‘shatib bermoqda. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan fiskal islohotlarning markazida budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan nafaqat davlat, balki jamoatchilik nazoratini o‘rnatish masalasi turibdi. Davlat moliyaviy nazorati — bu budjet mablag‘larining shakllanishi, taqsimlanishi va sarflanishi ustidan qonuniylikni, maqsadlilikni hamda samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Biroq, zamonaviy iqtisodiy nazariya shuni ko‘rsatadiki, davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan vertikal nazorat har doim ham mahalliy darajadagi ehtiyojlarni to‘liq qamrab ololmaydi. Aynan shu nuqtada tashabbusli budjetlashtirish instituti davlat

moliyaviy nazoratini to‘ldiruvchi, uning samaradorligini oshiruvchi gorizontal nazorat mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tashabbusli budjetlashtirish — bu fuqarolarning budjet mablag‘larining muayyan qismini taqsimlashda bevosita ishtirok etishi orqali amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish usulidir. O‘zbekiston tajribasida ushbu tizim “Ochiq budjet” portali orqali raqamlashtirildi. Budjet kodeksining 161-moddasiga asosan, tuman va shahar budjetlari parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarning kamida 5 foizi hamda chorak yakunlari bo‘yicha daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismining kamida 30 foizi aynan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirilishi majburiy etib belgilangan.

Bu jarayon davlat moliyaviy nazoratining “auditorlik” funksiyasini jamiyatning “iste’molchi” funksiyasi bilan birlashtiradi. Ya’ni, mablag‘ sarflanayotgan ob’ektning sifati ustidan eng birinchi va asosiy nazoratchi sifatida shu hududda yashovchi aholi chiqadi. Bu esa o‘z navbatida, qurilish va ta’mirlash ishlari davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mablag‘larni o‘zlashtirish yoki sifatsiz bajarish holatlarini keskin kamaytiradi.

1- jadval.

Tashabbusli budjetlashtirish doirasida mablag‘larning shakllanish manbalari va taqsimlanish tamoyillari

Ko‘rsatkichlar	Shakllanish manbayi	Nazorat sub’ekti	Iqtisodiy samarasi
Asosiy mablag‘lar	Tuman/shahar budjetining 5% qismi	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Rejali xarajatlarning optimallashishi
Qo‘shimcha mablag‘lar	Daromadlar rejasining 30% oshib bajarilgan qismi	Mahalliy kengashlar va jamoatchilik	Fiskal rag‘batlantirish va daromadlar bazasini kengaytirish
Zaxira jamg‘armasi	Mahalliy budjetning erkin qoldiqlari	Hisobpalatasi va fuqarolar	Kutilmagan ijtimoiy muammolarni tezkor hal etish

1-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, tashabbusli budjetlashtirishda nazorat subyektlari differensiallashgan. Bunda an’anaviy nazorat organlari bilan birga fuqarolarning ishtiroki iqtisodiy samarani — xarajatlarning optimallashuvini ta’minlaydi. Jadvalda ko‘rsatilgan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizlik ulushi mahalliy hokimiyat organlarini soliq bazasini kengaytirish va tushumlarni ko‘paytirishga motivatsiya beradi, chunki bu mablag‘larning bir qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholi talablarini qondirishga ketadi.

Davlat moliyaviy nazorati sharoitida mablag‘larning oqilona sarflanishini baholash uchun biz an’anaviy markazlashgan investitsiya dasturlari va tashabbusli budjet loyihalarini qiyoslaymiz. Statistik kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, tashabbusli budjet

doirasidagi loyihalar o‘rtacha 15-20 foizga arzonroq va sifatliroq bitkaziladi. Buning sababi “shaffof raqobat” va “ijtimoiy bosim” omillaridir.

Davlat moliyaviy nazoratining eng og‘riqli nuqtasi bu korrupsion sxemalar, xususan, "otkat"lar va narxlarni sun’iy oshirishdir. Tashabbusli budjetlashtirish tizimida loyiha taklifi fuqaro tomonidan beriladi, ovoz berish jarayoni ochiq kechadi va g‘olib loyihani amalga oshirish uchun tender ochiq-oshkora o‘tkaziladi.

Biroq, tizimda muayyan risklar ham mavjud. Masalan, loyiha smetasini tuzish bosqichida mahalla faollari va loyihachilar o‘rtasida kelishuvlar sodir bo‘lishi mumkin. Buni oldini olish uchun “Ochiq budjet” portali Iqtisodiyot va moliya vazirligining “G‘azna” dasturiy majmuasi bilan integratsiya qilingan. Bu esa har bir to‘lovning maqsadliligini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

2- jadval.

Budjet nazoratida an’anaviy va tashabbusli usullarning qiyosiy tavsifi

Mezonlar	An’anaviy davlat nazorati	Tashabbusli (jamoatchilik) nazorati
Axborot manbayi	Moliyaviy hisobotlar va hujjatlar	Real ob’ekt va aholi fikri
Nazorat vaqti	Xarajatdan so‘ng (Post-audit)	Xarajat jarayonida (On-going)
Aniqlash qobiliyati	Moliyaviy xatolarni yaxshi aniqlaydi	Ijtimoiy ehtiyoj va sifatni aniqlaydi
Xarajatlar	Yuqori (auditorlar maoshi, xizmat safari)	Minimal (raqamli platforma hisobiga)

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tashabbusli nazorat an’anaviy nazoratni inkor etmaydi, balki uni to‘ldiradi. Ayniqsa, xarajatlar jarayonida (on-going control) aholining ishtiroki qurilish materiallarining o‘g‘irlanishi yoki texnologik jarayonlarning buzilishini oldindan to‘xtatish imkonini beradi. Bu esa budjet mablag‘larining “oqilona foydalanish” koeffitsientini oshiradi.

MOLIYAVIY RISKLAR SUG‘URTASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Atabayev Shixnazar Xasanboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil iz lanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekistonda moliyaviy risklar sug‘urtasini takomillashtirish masalalari zamonaviy iqtisodiy sharoit nuqtai-nazaridan kompleks tarzda o‘rganilgan. Iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, moliyaviy operatsiyalar hajmining ortishi hamda tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi moliyaviy risklarni samarali boshqarish zaruratini keskin oshirmoqda. Shu sababli, moliyaviy risklar sug‘urtasi iqtisodiyot subyektlarini himoya qiluvchi muhim institutsional mexanizm sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda mazkur sug‘urta turining mohiyati,

mavjud rivojlanish darajasi hamda istiqbolli yo‘nalishlari mualliflik yondashuvi asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy risklar, sug‘urta tizimi, kredit riski, investitsion risk, valyuta tebranishi, risklarni boshqarish, InsurTech, moliyaviy barqarorlik.

Hozirgi bosqichda iqtisodiyotni rivojlantirish jarayoni tobora murakkablashib borayotgan moliyaviy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Xususan, kreditlash hajmining ortishi, investitsion faoliyatning kengayishi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiya kuchayishi bilan bir qatorda moliyaviy xavf-xatarlar darajasi ham ortib bormoqda. Bu esa, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, moliyaviy risklarni kamaytirish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda sug‘urta tizimi, ayniqsa moliyaviy risklar sug‘urtasi, muhim himoya vositasi sifatida qaraladi. Biroq mamlakatimizda ushbu yo‘nalish hali yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lib, bu uning institutsional va amaliy jihatdan takomillashtirilishini talab etadi.

Moliyaviy risklar sug‘urtasining mohiyati va funksional ahamiyati shundaki, moliyaviy risklar sug‘urtasi iqtisodiy subyektlar duch kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy yo‘qotishlarni kompensatsiya qilishga qaratilgan maxsus sug‘urta shaklidir. Uning o‘ziga xos jihati shundaki, u moddiy zarar emas, balki moliyaviy operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan yo‘qotishlarni qoplashga xizmat qiladi.

Mazkur sug‘urta turi orqali korxonalar va moliyaviy institutlar o‘z faoliyatini nisbatan barqaror olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, u investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy xavflarni pasaytirishga xizmat qiladi. Shu ma’noda moliyaviy risklar sug‘urtasi iqtisodiy xavfsizlikning muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda mavjud holat va cheklovchi omillarning amaldagi holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda sug‘urta bozori umumiy jihatdan o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lsa-da, moliyaviy risklar sug‘urtasi segmenti hali shakllanish bosqichida qolmoqda. Bu holat bir nechta omillar bilan izohlanadi.

Avvalo, risklarni baholash bo‘yicha ilmiy-metodik baza yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa, sug‘urta kompaniyalarining ushbu segmentda faol ishtirok etishini cheklaydi. Shu bilan birga, bozorda taklif etilayotgan mahsulotlar doirasi cheklangan bo‘lib, ular asosan an’anaviy sug‘urta turlari bilan chegaralanadi.

Yana bir muhim omil — bu texnologik rivojlanish darajasining pastligi. Raqamli yechimlarning cheklanganligi xizmat ko‘rsatish samaradorligini pasaytiradi. Shuningdek, aholi va tadbirkorlar orasida sug‘urtaga nisbatan ishonch va tushuncha yetarli darajada shakllanmagan.

Moliyaviy risklar sug‘urtasini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi va quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Birinchidan, sug‘urta mahsulotlarini kengaytirish va ularni iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish zarur. Xususan, kredit risklari, investitsiya loyihalari va tashqi savdo operatsiyalari bilan bog‘liq sug‘urta turlarini joriy etish muhim hisoblanadi. Bu, tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish talab etiladi. Zamonaviy InsurTech yechimlari orqali sug‘urta jarayonlarini avtomatlashtirish, xizmatlarni onlayn formatga o‘tkazish va risklarni tezkor baholash imkoniyati yaratiladi. Bu esa, bozor samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, xalqaro tajribani o‘rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda qo‘llanilayotgan eksport kreditlarini sug‘urtalash yoki davlat kafolatlari asosidagi mexanizmlar ushbu sohani rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish zarur. Bu, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va institutsional islohotlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Beshinchidan, sug‘urta kompaniyalarida zamonaviy risk-menejment tizimlarini joriy etish muhimdir. Bu, risklarni aniq va ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

Oltinchidan, moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali sug‘urta madaniyatini shakllantirish talab etiladi. Bu, aholi va biznes sub’ektlarining sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabini oshiradi.

Moliyaviy risklar sug‘urtasini takomillashtirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

– moliyaviy risklar sug‘urtasi bo‘yicha yagona konseptual rivojlanish dasturini ishlab chiqish;

– sug‘urta kompaniyalarining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish;

– bank va sug‘urta sektori o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish;

– innovatsion sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish;

– xalqaro sug‘urta standartlariga moslashuvni ta’minlash.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy risklar sug‘urtasini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda tizimli va bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Bu orqali moliyaviy risklarni samarali boshqarish va milliy sug‘urta bozorini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

O‘ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Isayeva Xolbibi Boboqulovna
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda shaxsiy sug‘urta xizmatlari bozorining hozirgi holati, uning institutsional va iqtisodiy muammolari hamda rivojlanish istiqbollari ilmiy tahlil qilingan. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida InsurTech, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalarining sug‘urta sohasiga ta’siri baholangan. Shuningdek, sug‘urta bozorini raqamlashtirish, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va innovatsion mahsulotlarni joriy etish orqali bozorni rivojlantirish yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: shaxsiy sug‘urta, sug‘urta bozori, InsurTech, raqamli iqtisodiyot, Big Data, sun’iy intellekt, risk-menejment, moliyaviy innovatsiyalar.

Jahon iqtisodiyotida sug‘urta tizimi moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi muhim institut sifatida tan olingan. Xususan, shaxsiy sug‘urta inson hayoti, sog‘ligi va moliyaviy xavf-xatarlarini qoplash orqali ijtimoiy himoyaning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda moliyaviy sektorni isloh qilish, sug‘urta bozorini liberallashtirish va raqobat muhitini kuchaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, shaxsiy sug‘urta xizmatlari sohasi hali to‘liq rivojlanmagan bo‘lib, uning iqtisodiy salohiyati to‘liq ishga solinmagan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston sharoitida shaxsiy sug‘urta bozorini rivojlantirish orqali aholining moliyaviy xavfsizligini ta’minlash, davlat ijtimoiy yukini kamaytirish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi moliyaviy xizmatlar bozorini shakllantirish imkoni yaratiladi.

Shaxsiy sug‘urta tizimi o‘zining quyidagi asosiy iqtisodiy funksiyalari bilan ajralib turadi: risklarni taqsimlash funksiyasi – individual moliyaviy yo‘qotishlarni jamoaviy qoplash mexanizmi orqali amalga oshiradi; jamg‘armalarni shakllantirish funksiyasi –uzoq muddatli investitsion resurslarni yaratish imkonini beradi; ijtimoiy himoya funksiyasi – davlat ijtimoiy yukini kamaytirishga xizmat qiladi; investitsion funksiya –sug‘urta kompaniyalari tomonidan kapital bozoriga resurslar yo‘naltirish orqali investitsion daromadga ega bo‘ladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda shaxsiy sug‘urta tizimi nafaqat moliyaviy himoya vositasi, balki kapital bozorining institutsional investori sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalari jahon moliyaviy tizimida uzoq muddatli investitsiyalarning asosiy manbalaridan birini tashkil etadi.

O‘zbekistonda milliy sug‘urta bozori so‘nggi yillarda institutsional islohotlar natijasida bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Biroq, shaxsiy sug‘urta segmenti hali to‘liq shakllanmagan va bozor strukturasida uning ulushi nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida bir qator o‘ziga xos xulosalarni shakllantirdik:

O‘zbekiston sug‘urta bozorida asosiy ulushni majburiy sug‘urta turlari egallab, shaxsiy sug‘urta (hayot, tibbiy, baxtsiz hodisalardan sug‘urta) esa, umumiy bozor hajmida cheklangan ulushga ega. Bu holat, aholining sug‘urta xizmatlariga nisbatan talabining pastligi bilan izohlanadi;

aholi o‘rtasida sug‘urta xizmatlariga ishonchning yetarli emasligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ko‘p hollarda sug‘urta “majburiy to‘lov” sifatida qabul qilinib, uning moliyaviy himoya funksiyasi to‘liq anglab yetilmagan. Bu esa, talab shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

sug‘urta sohasida raqamlashtirish jarayonlari boshlangan bo‘lsa-da, InsurTech yechimlarining to‘liq joriy etilmaganligi kuzatiladi. Onlayn sug‘urta platformalari, avtomatlashtirilgan risk baholash tizimlari va AI asosida xizmat ko‘rsatish mexanizmlari hali yetarli darajada rivojlanmagan;

normativ-huquqiy baza izchil takomillashtirilmoqda, biroq xalqaro standartlarga to‘liq moslashtirish jarayoni davom etmoqda. Xususan, qayta sug‘urta, investitsion faoliyat va raqamli sug‘urta xizmatlari bo‘yicha qonunchilikda yanada aniqlik talab etiladi;

sug‘urta bozorida raqobat mavjud bo‘lsa-da, innovatsion raqobat darajasi past. Kompaniyalar asosan an’anaviy mahsulotlarga tayanadi, yangi sug‘urta turlarini (micro-insurance, digital insurance) joriy etish sust kechmoqda.

Shaxsiy sug‘urta xizmatlari bozorining barqaror va samarali rivojlanishi nafaqat iqtisodiy omillarga, balki institutsional muhit sifatiga ham bevosita bog‘liqdir. Institutsional tizim deganda normativ-huquqiy baza, bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, nazorat-tartibga solish mexanizmi hamda inson kapitali sifati tushuniladi. O‘zbekiston sharoitida ushbu tizimda bir qator tizimli muammolar mavjud bo‘lib, ular shaxsiy sug‘urta bozorining rivojlanish sur’atini sekinlashtirmoqda. Masalan, sug‘urta bozorida huquqiy infratuzilma muhim rol o‘ynaydi, biroq amalda qonunchilik hujjatlari zamonaviy raqamli sug‘urta modellariga to‘liq mos emas. InsurTech, blockchain va raqamli shartnomalar (smart contracts) bo‘yicha aniq huquqiy mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagan, sug‘urta da’volarini ko‘rib chiqishda yagona standartlar to‘liq joriy etilmagan. Bu holat, bozor ishtirokchilari uchun huquqiy noaniqlikni kuchaytiradi va investitsion jozibadorlikni pasaytiradi.

Sug‘urta bozorida raqobat mavjud bo‘lsa-da, u asosan an’anaviy modellarga tayanadi. Fikrimizcha, bundagi muammolar quyidagilardan iborat: innovatsion sug‘urta mahsulotlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan, bozorga yangi ishtirokchilar (startups) kirishi cheklangan, monopollashuvga moyillik mavjud. Ayrim tadqiqotlariga ko‘ra, sug‘urta bozorida innovatsion raqobat yetishmasligi xizmatlar sifatining pasayishiga va narxlar samaradorligining buzilishiga olib keladi.

Institutsional to‘siqlardan eng muhimi — aholi o‘rtasida sug‘urta madaniyatining pastligi hisoblanadi. Ko‘p hollarda, sug‘urta xizmatlari majburiy to‘lov sifatida qabul qilinadi, sug‘urta kompaniyalariga nisbatan ishonch darajasi past, sug‘urtadan manfaatdorlik to‘liq anglab yetilmagan. Xalqaro tajribalarga ko‘ra, moliyaviy xizmatlarga ishonch darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda sug‘urta bozori sekin rivojlanadi.

Shuningdek, investitsion va qayta sug‘urta mexanizmlarining cheklanganligi shaxsiy sug‘urta bozorida barqarorlikni ta’minlash uchun salbiy ta’sir etadi.

O‘zbekistonda shaxsiy sug‘urta xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayon institutsional islohotlar, raqamli transformatsiya, moliyaviy innovatsiyalar va aholi xulq-atvorini o‘zgartirish bilan chambarchas bog‘liq. Tahlillar asosida quyidagi strategik rivojlantirish yo‘nalishlarini ajratish mumkin:

sug‘urta xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish, ya’ni zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sug‘urta bozorini rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishi raqamlashtirish hisoblanadi. Elektron sug‘urta platformalari orqali polislarni onlayn rasmiylashtirish, avtomatik to‘lov tizimlarini joriy etish, mijozlar bilan real vaqt rejimida aloqa qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi va xizmatlar shaffofligini oshiradi;

InsurTech ekotizimini rivojlantirish lozim, chunki InsurTech sug‘urta sohasida innovatsion o‘zgarishlarning asosiy drayveri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda, venchur investitsiyalar jalb qilish, raqamli sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega;

Big Data va sun’iy intellekt asosida risk-menejmentni rivojlantirish lozim, zotan, shaxsiy sug‘urtada risklarni aniq baholash muhim omil hisoblanadi. Big Data va AI texnologiyalari mijozlarning xulq-atvorini tahlil qilish, sug‘urta risklarini prognozlash, zarar ehtimolini aniqlash imkonini beradi. Bu esa, aktuar hisob-kitoblarning aniqligini oshiradi va sug‘urta tariflarini adolatli shakllantiradi;

sug‘urta mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va individual sug‘urta modellarini qo‘llash lozim. Bunda, shaxsiy sug‘urta bozorida bir xil mahsulotlardan voz kechib, zamonaviy ehtiyojlarga mos yangi turlar joriy etish muhimdir. Jumladan, micro-insurance mahsulotlari, gibrid sug‘urta mahsulotlari, hayot va sog‘liq sug‘urtasining kombinatsion mahsulotlarini qo‘llash orqali bozor qamrovi kengayadi va aholining turli qatlamlari qamrab olinadi;

xalqaro integratsiya va global bozorga chiqish imkoniyatlarini oshirish lozim. O‘zbekistonda hayot sug‘urtasi bozorini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim vazifa bo‘lib, bu yo‘nalishda xorijiy sug‘urta kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, qayta sug‘urta mexanizmlarini kengaytirish, xalqaro reyting tizimlariga integratsiya qilish eng ustuvor masala hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni e’tirof etish lozimki, O‘zbekistonda shaxsiy sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyot sharoitida InsurTech, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalari sug‘urta tizimini tubdan o‘zgartirish imkonini beradi. Hayot sug‘urtasi bozorini rivojlantirish uchun institutsional islohotlar, raqamlashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va aholi moliyaviy madaniyatini rivojlantirish asosiy omillar hisoblanadi. Taklif etilgan yo‘nalishlar amalga oshirilsa, O‘zbekistonda shaxsiy sug‘urta bozori barqaror, raqobatbardosh va innovatsion tizimga aylanishi mumkin.

SUG‘URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY HOLATINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Boynazarova Nargiza Urolovna
Toshkent International University tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holatini baholash tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari o‘rganilgan. Tadqiqotda zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini aniqlashda qo‘llanilayotgan an’anaviy va innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, sun’iy intellekt, Big Data va InsurTech texnologiyalarining moliyaviy tahlil jarayonlariga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Mavjud metodologik muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, moliyaviy barqarorlik, risk-menejment, InsurTech, Big Data, sun’iy intellekt, kapital yetarliligi, solvency, raqamli iqtisodiyot.

Sug‘urta tizimi zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi muhim institutlardan biri hisoblanadi. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holati nafaqat ularning ichki barqarorligi, balki butun moliya tizimining ishonchliligi va barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, moliyaviy holatni baholash tizimini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qaraladi. So‘nggi yillarda global

moliyaviy bozorlarda yuz berayotgan o‘zgarishlar, raqamli transformatsiya jarayonlari hamda InsurTech texnologiyalarining rivojlanishi sug‘urta tashkilotlarining risklarini baholash metodlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. An’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar (likvidlik, to‘lov qobiliyati, rentabellik) endilikda yetarli emasligi, qo‘shimcha raqamli indikatorlar va prognoz modellar zarurligini ko‘rsatmoqda.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holatini baholash sug‘urta nazariyasi va moliyaviy tahlilning kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu jarayon tashkilotning risklarni qabul qilish va ularni qoplash imkoniyatini, kapital yetarliligini, likvidligini hamda uzoq muddatli barqarorligini aniqlashga qaratilgan. Arrow (1963) va Debreu(1959) tomonidan sug‘urta bozori noaniqlik sharoitida resurslarni optimal taqsimlash mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, sug‘urta tashkilotining moliyaviy holati uning risklarni “absorbsiyalash” va kelajak majburiyatlarini bajarish qobiliyati bilan belgilanadi.

Cummins & Weiss (2014), Eling & Schmeiser (2010) va Swiss Re Institute (2022) sug‘urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligi uch asosiy blok asosida tahlil qilinishi lozimligini ko‘rsatadi: kapital yetarliligi, risklar boshqaruvi va aktiv-passiv muvozanati.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holati dastlab klassik buxgalteriya yondashuvlari asosida baholangan bo‘lsa-da, zamonaviy iqtisodiyotda bu tushuncha kengayib, “solvency”, “riskka asoslangan kapital” va “dinamik moliyaviy tahlil” konsepsiyalarini o‘z ichiga oladi. Eling & Marek (2014)ning fikricha, an’anaviy balans ko‘rsatkichlari risklarni to‘liq aks ettirmaydi, zamonaviy yondashuvlar esa, ehtimollik va stsenariy modellariga asoslanadi, shu bilan birga, moliyaviy barqarorlikka dinamik kategoriya sifatida qaraladi.

Kapital yetarliligi sug‘urta tashkilotining asosiy to‘lov qobiliyatini belgilovchi markaziy ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu tushuncha tashkilotning kutilmagan zararlarni qoplash qobiliyatini ifodalaydi. Kapital yetarliligi risk ekspozitsiyasiga bog‘liq bo‘lib, yuqori riskli portfel yuqori kapital talab qiladi. Shu o‘rinda, riskka asoslangan kapital modeli sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holatini baholashda eng ilg‘or yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bunda aktivlar va majburiyatlar risk darajasini hisobga ola biladi.

Aktiv-passiv boshqaruvi sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda asosiy metodologik yondashuv bo‘lib, uning vositasida aktiv va majburiyatlarning muddatlari o‘zaro mosligi, foiz stavkalari risklarini boshqarish, uzoq muddatli majburiyatlar orqali investitsion strategiyani belgilash ta’minlanadi.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holatini baholashda aktuar modellar ham muhim rol o‘ynaydi. Chunki, bu modellar zararlar taqsimoti va risk ehtimolini aniqlashga xizmat qiladi. Embrechts et al. (1997) ekstremal zararlar ehtimoli alohida modellashtirilishi, risklar statistik taqsimot asosida baholanishi lozimligini ta’kidlaydi.

Shu o‘rinda ta’kidlash mumkinki, raqamli transformatsiya, InsurTech va sun’iy intellekt texnologiyalari sug‘urta tashkilotlari moliyaviy holatini baholashning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Jumladan, OECD (2023) tadqiqotlarida real vaqtda risk monitoringi tizimi joriy etilayotganligi, Big Data texnologiyalari asosida prognoz qiymatlarning aniqligi oshayotganligi, avtomatlashtirilgan stress-testlar keng qo‘llanilayotganligi ta’kidlanmoqda.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holatini baholash tizimini takomillashtirish zamonaviy raqamli iqtisodiyot, global moliyaviy integratsiya va InsurTech rivoji bilan bevosita bog‘liqdir. Mavjud tahlil muammolari (statiklik, ma’lumotlar fragmentatsiyasi, risklarni noto‘g‘ri baholash) ushbu sohada chuqur transformatsiyani talab qiladi. Ayrim tadqiqotlar (OECD, 2023; Eling & Lehmann, 2018; McKinsey, 2023) sug‘urta sohalarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari raqamlashtirish, risk-menejmentni avtomatlashtirish va xalqaro standartlarni integratsiya qilish ekanligini ko‘rsatadi.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holatini baholashda qo‘llanilayotgan mavjud yondashuvlar zamonaviy iqtisodiyot va raqamli transformatsiya jarayonlarining tezlashuvi bilan mos kelmay qolayotganligi kuzatiladi. An’anaviy moliyaviy tahlil modellari asosan tarixiy buxgalteriya ma’lumotlariga tayanadi, bu esa risklarni real vaqt rejimida baholash imkoniyatini cheklaydi. Bir qator tadqiqotlar (Eling & Schmeiser, 2010; Cummins & Weiss, 2014; OECD, 2023) sug‘urta sektorida moliyaviy tahlilning asosiy muammolari metodologik, axborot, institutsional va texnologik darajalarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Ko‘plab sug‘urta tashkilotlari choraklik yoki yillik hisobotlarga asoslanadi, bu esa real risklarni kechikib aniqlashga olib keladi.Sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy ma’lumotlar turli tizimlarda saqlanadi va bir-biri bilan to‘liq integratsiyalanmagan bo‘lishi mumkin. Bu esa tahlil jarayonini murakkablashtiradi. An’anaviy moliyaviy tahlilda risklar ko‘pincha tarixiy ma’lumotlarga asoslanib baholanadi, bu esa kelajakdagi noaniqliklarni to‘liq hisobga olmaydi.

Ko‘plab mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda sug‘urta tashkilotlari moliyaviy tahlilida Solvency II, IFRS 17 kabi xalqaro standartlar to‘liq joriy etilmagan yoki moslashtirilmagan. Raqamli (InsurTech, AI va Big Data) texnologiyalari hali ko‘plab sug‘urta tashkilotlarida to‘liq joriy etilmagan. Bu esa, tahlil samaradorligini pasaytiradi.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sug‘urta sektorida tub strukturaviy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. An’anaviy sug‘urta modeli ma’lumotlarni kechikib qayta ishlash, qo‘lda tahlil qilish va statik risk baholashga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy InsurTech ekotizimi real vaqt rejimidagi ma’lumotlar oqimi, sun’iy intellekt (AI), Big Data, blockchain va avtomatlashtirilgan underwriting tizimlariga asoslanadi.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holatini baholashda xalqaro amaliyot va standartlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki sug‘urta sektori transmilliy xarakterga ega bo‘lib, kapital oqimlari, risklar va majburiyatlar global moliya tizimi bilan chambarchas bog‘langan. Shu sababli turli mamlakatlarda sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini baholashda yagona yoki uyg‘unlashtirilgan standartlarga ehtiyoj mavjud.

Bizning fikrimizcha, sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy holatini baholash tizimini takomillashtirishda birinchi navbatda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

sun’iy intellekt asosida dinamik risk baholash tizimini joriy etish, ya’ni sug‘urta tashkilotlarida an’anaviy risk baholash o‘rniga sun’iy intellekt asosida dinamik risk modellarini joriy etish zarur. Sun’iy intellektning real vaqt rejimida risklarni prognoz qilishi, mashinaviy o‘rganish defolt ehtimolini aniqlay olishi, risklar statik emas, balki doimiy yangilanishini inobatga olishi moliyaviy holatni baholash aniqligini sezilarli oshiradi;

Big Data asosida real vaqt moliyaviy monitoringini tashkil etish, ya’ni Big Data texnologiyalari sug‘urta tashkilotlariga uzluksiz moliyaviy monitoring tizimini yaratish, mijoz xulq-atvori asosida risk profilini shakllantirish imkonini beradi;

Solvency II standartlariga mos milliy model yaratish, ya’ni xalqaro tajriba asosida milliy sug‘urta tizimi uchun Solvency IIga moslashtirilgan model ishlab chiqish zarur. Bunda, riskga asoslangan kapital tizimini joriy etish, stress-testlarni majburiy o‘tkazish, aktiv-passiv muvozanatini baholash talab etiladi;

ESG indikatorlarini baholash tizimiga integratsiya qilish, ya’ni sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi endi faqat iqtisodiy emas, balki ekologik va ijtimoiy omillarga ham bog‘liqdir. ESG indikatorlari investitsion barqarorlikni oshiradi, chunki ekologik risklar moliyaviy risk bilan bevosita bog‘liq, ijtimoiy omillar esa, mijozning sug‘urta bozoriga va sug‘urta tashkilotlariga ishonchini belgilaydi (Friede, Busch & Bassen, 2015);

blockchain texnologiyasi sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy ma’lumotlarning ishonchliligini oshiradi, shu sababli, blockchain asosida shaffof moliyaviy hisobot tizimini joriy etish lozim;

InsurTech ekotizimini kengaytirish maqsadga muvofiq, chunki InsurTech sug‘urta sektorining transformatsiya markazidir. U orqali anderrayting jarayoni avtomatlashtiriladi, mijozlarga individual xizmatlar yaratiladi, operatsion xarajatlar kamayadi.

O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA SOHALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Sharobiddinov Akramjon Goyibbayevich
“Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda sug‘urta sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari zamonaviy iqtisodiy transformatsiyalar, raqamli iqtisodiyot va InsurTech innovatsiyalari asosida tahlil qilingan. Sug‘urta tizimining iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy xavfsizlik va ijtimoiy himoyadagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqotda sug‘urta xizmatlarini modernizatsiya qilish masalalari yoritilgan, shuningdek, xalqaro tajribalar asosida milliy sug‘urta tizimini rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta bozori, InsurTech, raqamli iqtisodiyot, big data, sun’iy intellekt, moliyaviy barqarorlik, risk menejment, Solvency II.

Har qanday iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi muhim institutlardan biri sug‘urta tizimi hisoblanadi. Global iqtisodiyotda ro‘y berayotgan tezkor o‘zgarishlar, raqamlashtirish jarayonlari va yangi xavf turlarining paydo bo‘lishi sug‘urta sohasini tubdan modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalqaro tashkilotlar (World Bank, OECD, IAIS) ma’lumotlariga ko‘ra, sug‘urta bozori iqtisodiy o‘sishning 3–5 foizgacha qo‘shimcha stimulini yaratishi mumkin. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda sug‘urta qamrovining pastligi moliyaviy xavfsizlik tizimining zaifligiga olib kelmoqda. Vaholangki, sug‘urta iqtisodiyotda risklarni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida xizmat qiladi. U nafaqat moliyaviy zararlarni qoplash, balki investitsion resurslarni shakllantirish funksiyasini ham bajaradi. Mamlakatda sug‘urta sohalarining

rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni oshiradi, investitsiya oqimlarini kengaytiradi va aholining moliyaviy xavfsizligini mustahkamlaydi (Cummins, 2020).

Raqamli transformatsiya sug‘urta sohalarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. InsurTech kompaniyalari an’anaviy sug‘urta modelini avtomatlashtirilgan, ma’lumotlarga asoslangan tizimga aylantirmoqda. Sun’iy intellekt va big data asosida risklar real vaqt rejimida baholanadi, sug‘urta mahsulotlari individualizatsiya qilinadi, firibgarlik darajasi kamayadi.

Zamonaviy sug‘urta bozorida an’anaviy “hodisa yuz bergandan keyin kompensatsiya to‘lash” modeli asta-sekin o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Yangi iqtisodiy yondashuvlarga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalari kelajakda risklarni oldindan prognoz qiluvchi intellektual tizimlarga aylanishi kutilmoqda. Bu jarayonda big data va sun’iy intellekt texnologiyalari asosiy o‘rin tutadi. Masalan, avtomobil harakati, inson salomatligi yoki iqlim o‘zgarishlari haqidagi real-vaqt ma’lumotlari tahlil qilinib, ehtimoliy zararlar oldindan aniqlanadi. Natijada, sug‘urta kompaniyalari faqat zararni qoplovchi institut emas, balki risklarning oldini oluvchi moliyaviy hamkor sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa, sug‘urta samaradorligini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqib, xarajatlarni qisqartirish va moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Kelajakda sug‘urtaviy baholash tizimida insonning iqtisodiy va psixologik xulq-atvori muhim omilga aylanadi. Hozirgi tizimlarda asosan statistik va moliyaviy ma’lumotlar tahlil qilinsa, yangi modellarda insonning kundalik odatlari, intizomi, raqamli faolligi va qaror qabul qilish uslubi ham hisobga olinadi. Masalan, sog‘lom turmush tarziga amal qiluvchi yoki xavfsiz haydovchilik qoidalariga rioya qiluvchi mijozlar uchun sug‘urta mukofotlari arzonlashtirilishi mumkin. Bu yondashuv sug‘urtada individual yondashuvni kuchaytiradi va riskka asoslangan tarif tizimini yanada takomillashtiradi. Shu bilan birga, mazkur model aholining moliyaviy intizomini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Natijada sug‘urta bozorida iqtisodiy adolat va samaradorlik darajasi oshadi.

Sug‘urta xizmatlari kelajakda mustaqil mahsulot emas, balki boshqa iqtisodiy xizmatlarga integratsiyalashgan funksiya sifatida rivojlanishi kutilmoqda. Masalan, aviachipta xarid qilinganda avtomatik sayohat sug‘urtasi yoki onlayn marketpleyslarda tovarlar bilan birga mikrosug‘urta xizmatlari taqdim etilishi mumkin. Bu model sug‘urtani inson hayotining kundalik iqtisodiy jarayonlariga “ko‘rinmas” tarzda integratsiya qiladi. O‘rnatilgan sug‘urta kontseptsiyasi tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va sug‘urta xizmatlaridan foydalanishni ommalashtiradi. Shu orqali, sug‘urta mukofotlarining YaIMdagi ulushi darajasi oshib, aholining moliyaviy himoyasi kuchayadi. Bu yo‘nalish ayniqsa raqamli platformalar va fintech tizimlari tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun muhim ahamiyatga ega.

An’anaviy sug‘urta mahsulotlari ommaviy va standart shaklda taklif qilinadi. Biroq kelajakda har bir inson uchun individual sug‘urta ekotizimi yaratilishi mumkin. Sun’iy intellekt va big data texnologiyalari orqali insonning daromadi, hayot tarzi, kasbi, salomatligi va hatto kunlik faoliyati tahlil qilinib, shaxsiy sug‘urta profili shakllantiriladi. Natijada, har bir mijoz uchun alohida tarif va alohida sug‘urta paketi ishlab chiqiladi. Bu esa, sug‘urta mahsulotlarining samaradorligi va mijoz qoniqishini oshiradi. Shu bilan birga, kompaniyalar uchun risklarni yanada aniq baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Har

bir shaxsga individuallashgan sug‘urta konsepsiyasi kelajakda sug‘urta bozorining asosiy raqobat mexanizmiga aylanishi mumkin.

Iqlim o‘zgarishi XXI asrning eng katta iqtisodiy risklaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, sug‘urta tizimida iqlim xavfini sug‘urtalash tahlili yo‘nalishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy sun’iy intellekt modellari va sputnik ma’lumotlari orqali qurg‘oqchilik, sel, tabiiy ofatlar va agrar risklar oldindan prognoz qilinishi mumkin. Bu ayniqsa qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan mamlakatlar uchun strategik ahamiyatga ega. Masalan, O‘zbekistonda suv tanqisligi va iqlim o‘zgarishi agrosug‘urta tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Iqlim xavfini tahlili orqali sug‘urta kompaniyalari riskni xaritalash tizimini shakllantirib, ehtimoliy moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirishi mumkin. Bu esa, milliy iqtisodiyotning iqlim xavflariga chidamliligini oshiradi.

Blockchain texnologiyalari sug‘urta bozorida markazlashmagan moliyaviy arxitekturani yaratish imkonini bermoqda. Bu tizimda smart shartnomalar orqali sug‘urta shartnomalari avtomatik tarzda amalga oshiriladi va inson omili minimallashadi. Masalan, sug‘urta hodisasi tasdiqlanishi bilan to‘lov avtomatik ravishda amalga oshirilishi mumkin. Bu korrupsiya, byurokratiya va firibgarlik holatlarini keskin kamaytiradi. Shu bilan birga, markazlashmagan sug‘urta modeli mijozlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa, sug‘urta bozorini iqtisodiy platformalar bilan integratsiyalashtirib, yangi raqamli iqtisodiy muhitni shakllantiradi.

An’anaviy moliyaviy tahlil tizimlari asosan yillik yoki choraklik hisobotlarga tayanadi. Biroq raqamli iqtisodiyot sharoitida real-vaqt monitoring tizimlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sun’iy intellekt boshqaruv paneli platformalari orqali sug‘urta kompaniyasining har bir filiali, mahsuloti va mijoz segmenti doimiy ravishda tahlil qilinishi mumkin. Bu esa, risklarni tezkor aniqlash va moliyaviy qarorlarni operativ qabul qilish imkonini beradi. Real-vaqt samaradorlik monitoringi tizimi orqali kompaniyalar likvidlik riski, to‘lovga qodirlik riski va operatsion risk holatlarini darhol kuzatishi mumkin. Bu yo‘nalish sug‘urta samaradorligini statik emas, balki dinamik baholash konsepsiyasini shakllantiradi.

Kelajakda sug‘urta samaradorligi faqat foyda bilan emas, balki ijtimoiy ta’sir bilan ham baholanadi. Ijtimoiy ta’sir indeksi orqali sug‘urtaning aholi farovonligi, moliyaviy himoya va kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri o‘lchanadi. Masalan, sug‘urta xizmatlarining inson kapitali, sog‘liqni saqlash yoki ijtimoiy barqarorlikka ta’siri alohida baholanishi mumkin. Bu yondashuv ESG konsepsiyasi bilan ham uzviy bog‘liq hisoblanadi. Ijtimoiy ta’sir indeksi sug‘urta kompaniyalarining strategik maqsadlarini faqat daromad emas, balki jamiyat uchun qiymat yaratishga yo‘naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, sug‘urta sohasini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt va insurtech texnologiyalarining keng joriy etilishi sug‘urta tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta sohalarini rivojlantirishda asosiy yo‘nalishlar raqamlashtirish, riskga asoslangan boshqaruv, institutsional islohotlar, xalqaro standartlarni joriy etishdan iborat. Ushbu yo‘nalishlar sug‘urta bozorining barqarorligini va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOL-MULKLARNI SUG‘URTALASH AMALIYOTIDA ANDERRAYTING JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Tuxtarova Maftuna Yo‘ldashboy qizi
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida mol-mulklarni sug‘urta qilishda anderrayting jarayonlarini takomillashtirish masalalari keng qamrovda ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda risklarning murakkablashuvi, ma’lumotlar hajmining ortishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sug‘urta faoliyatida yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Tadqiqotda anderraytingning mohiyati, uning raqamli muhitda transformatsiyasi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, InsurTech, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalangan holda anderrayting jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: anderrayting, mol-mulk sug‘urtasi, raqamli iqtisodiyot, riskni baholash, InsurTech, sun’iy intellekt, Big Data, sug‘urta samaradorligi.

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi moliya va sug‘urta sohalarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, mol-mulklarni sug‘urta qilish sohasida risklarni baholash va boshqarish jarayonlari an’anaviy usullardan raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion modellarga o‘tmoqda. Bu jarayon anderrayting faoliyatining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Anderrayting — bu sug‘urta kompaniyalari tomonidan risklarni baholash, sug‘urta shartlarini belgilash va tarif siyosatini shakllantirish jarayoni bo‘lib, u sug‘urta faoliyatining markaziy elementi hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi, risklarni to‘g‘ri boshqarishi va bozordagi raqobatbardoshligini belgilaydi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida anderrayting jarayonlarini takomillashtirish nafaqat texnologik, balki institutsional va metodologik o‘zgarishlarni ham talab qiladi.

Anderrayting jarayonining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati shundaki, u sug‘urta kompaniyasining riskni qabul qilish yoki rad etish bo‘yicha qaror qabul qilish jarayonini ifodalaydi. Bu jarayonda sug‘urta ob’ektining holati, risk darajasi, ehtimoliy zarar miqdori va boshqa omillar chuqur tahlil qilinadi.

An’anaviy anderrayting jarayonlarida asosiy e’tibor ekspert baholashiga qaratiladi. Bu esa, ma’lum darajada sub’ektivlikka olib keladi. Raqamli texnologiyalar esa, mazkur jarayonni ob’ektivlashtirish va aniqlashtirish imkonini yaratadi.

Anderraytingning samarali tashkil etilishi sug‘urta kompaniyasi uchun bir qator ustunliklarni ta’minlaydi, xususan, risklarni optimal taqsimlash, zararlarni kamaytirish, tariflarni aniq belgilash va moliyaviy barqarorlikni saqlash.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida anderrayting jarayonlarining transformatsiyasi mazkur jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu transformatsiya quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish (ma’lumotlarga asoslangan anderrayting) keng qo‘llanilmoqda. Bu jarayonda katta hajmdagi ma’lumotlar tahlil qilinib, risk darajasi aniqroq baholanadi.

Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan anderrayting tizimlari joriy etilmoqda. Bu inson omilini qisqartirib, qaror qabul qilish tezligini oshiradi.

Uchinchidan, raqamli identifikatsiya va onlayn baholash vositalari orqali mijozlar haqidagi ma’lumotlar masofadan turib yig‘iladi.

Zamonaviy texnologiyalarning anderrayting jarayonlariga ta’sirini bir necha yo‘nalishda ko‘rish mumkin. Jumladan, Big Data texnologiyalari anderrayting jarayonida muhim axborot manbai hisoblanadi. U orqali mijozlarning moliyaviy holati, tarixiy ma’lumotlar va bozor tendensiyalari tahlil qilinadi. Bu esa, risklarni aniq prognoz qilish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari anderrayting jarayonini avtomatlashtirish va optimallashtirishda muhim o‘rin tutadi. Mashinali o‘qitish algoritmlari risklarni baholashda yuqori aniqlikka erishish imkonini beradi.

IoT (narsalar interneti) qurilmalari orqali mol-mulk holatini doimiy monitoring qilish mumkin. Masalan, sensorlar orqali yong‘in, suv toshqini yoki boshqa xavflar haqida ma’lumot olish imkoniyati mavjud.

Blokcheyn texnologiyalari ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va shaffoflikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. U sug‘urta shartnomalarini ishonchli yuritish imkonini beradi.

Mol-mulklarni sug‘urta qilishda anderrayting jarayonlarini takomillashtirish hamda raqamli anderrayting jarayonlarini joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan:

- raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq xavflar;
- malakali kadrlar yetishmasligi;
- texnologik yechimlarni joriy etish xarajatlarining yuqoriligi;
- normativ-huquqiy bazaning yetarli emasligi kabilar.

Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot sharoitida anderrayting jarayonlarini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

- raqamli platformalar asosida anderraytingni to‘liq avtomatlashtirish;
- sun’iy intellekt va analitik tizimlarni joriy etish;
- ma’lumotlar bazasini shakllantirish va integratsiya qilish;
- kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish;
- kadrlar malakasini oshirish va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish.
- sug‘urta kompaniyalarida yagona raqamli anderrayting platformasini joriy etish;
- Big Data va AI asosida risk baholash modellarini ishlab chiqish;
- IoT texnologiyalarini sug‘urta amaliyotiga tatbiq etish;
- anderrayterlar uchun maxsus raqamli trening dasturlarini tashkil etish;
- normativ bazani xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va h.k.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida mol-mulklarni sug‘urta qilishda anderrayting jarayonlarini takomillashtirish sug‘urta kompaniyalarining samaradorligi va barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali risklarni aniq baholash, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish va xizmatlar sifatini oshirish mumkin. Shu bois, anderrayting jarayonlarini raqamlashtirish sug‘urta sohasining ustuvor rivojlanish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

SUG‘URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Yusupov Akbar Haydarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda aholi farovonligini oshirishda sug‘urta xizmatlarining o‘rni va ularni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Rivojlangan davlatlarda sug‘urta tizimining ijtimoiy himoya, moliyaviy barqarorlik va investitsion resurslarni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida InsurTech, sun’iy intellekt va big data texnologiyalarining sug‘urta bozoriga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta xizmatlari, aholi farovonligi, InsurTech, raqamli iqtisodiyot, big data, sun’iy intellekt, ijtimoiy himoya, moliyaviy tizim

Jahon iqtisodiyotida aholi farovonligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda sug‘urta xizmatlari muhim ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida namoyon bo‘lib, aholining moliyaviy xavfsizligini ta’minlash, risklarni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta tizimi YaIMning barqaror o‘sishi, aholi daromadlarini himoya qilish va davlat ijtimoiy xarajatlarini optimallashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi. World Bank va OECD hisobotlarida sug‘urta bozori rivojlangan mamlakatlarda kambag‘allik darajasini kamaytirish va moliyaviy inklyuziyani oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida baholangan.

O‘zbekiston sharoitida ham so‘nggi yillarda sug‘urta bozorini liberallashtirish va raqamlashtirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, aholi o‘rtasida sug‘urta madaniyatining yetarli emasligi, bozor infratuzilmasining to‘liq shakllanmaganligi va innovatsion texnologiyalarning cheklangan qo‘llanilishi mazkur sohaning rivojlanishini sekinlashtirmoqda. Shu jihatdan, xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida aholi farovonligini oshirishda sug‘urta xizmatlarini rivojlantirishning ilmiy asoslangan yo‘nalishlarini tahlil qilish va O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Aholi farovonligini oshirishda sug‘urta xizmatlarining o‘rni turli mamlakatlarda turlicha institutsional modellar orqali shakllangan. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta tizimining samaradorligi uning iqtisodiy modelga integratsiya darajasi, raqamli texnologiyalarni qo‘llash darajasi hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi muvozanatga bevosita bog‘liqdir. Shu sababdan, quyida eng ilg‘or mamlakatlar tajribasini kengroq tahlil qilishga harakat qilamiz.

Jahon sug‘urta bozorida eng katta ulushga ega bo‘lgan AQSh tajribasi: bozor erkinligi va innovatsiyaga asoslangan sug‘urta tizimiga tayanadi. AQSh sug‘urta bozori dunyoda eng yirik va eng dinamik tizimlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati — to‘liq bozor mexanizmlariga tayanish va xususiy sektorning ustunligidir. Bu mamlakatda sug‘urta xizmatlari asosan xususiy kompaniyalar tomonidan taqdim etiladi va raqobat muhiti juda kuchli. Shu sababli sug‘urta mahsulotlari doimiy ravishda yangilanib, mijozga yo‘naltirilgan individual xizmatlar shakllanadi.

AQShda sug‘urta sohasida InsurTech, sun’iy intellekt va big data texnologiyalari juda tez sur’atlarda rivojlangan. Masalan, sug‘urta tariflari faqat statistik emas, balki mijozning real vaqtdagi xulq-atvoriga asoslanib shakllanadi. Bu esa, sug‘urta xizmatlarini to‘liq personalizatsiya qilish imkonini beradi.

Eng muhimi, AQSh tajribasidan O‘zbekiston uchun xulosalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, AQSh tajribasi sug‘urta bozorida raqobat muhitini kuchaytirish qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ham xususiy sug‘urta kompaniyalarining ulushini oshirish orqali xizmatlar sifati va innovatsion yondashuvni rivojlantirish mumkin.

Ikkinchidan, sug‘urta sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Ayniqsa sun’iy intellekt va big data asosida risklarni baholash tizimi sug‘urta tariflarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, sug‘urta mahsulotlarini standartlashtirilgan emas, balki individuallashtirilgan shaklda ishlab chiqish kerak. Bu aholi ehtiyojlariga mos xizmatlarni yaratish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, startaplar va innovatsion kompaniyalarni sug‘urta bozoriga jalb qilish orqali yangi raqamli yechimlarni ishlab chiqish mumkin.

Beshinchidan, davlatning rolini asosan nazorat va regulyatsiya bilan cheklash orqali bozor mexanizmlarining erkin ishlashini ta’minlash maqsadga muvofiq.

Germaniya tajribasi: ijtimoiy bozor iqtisodiyoti va universal qamrov modellariga asoslanadi. Germaniya sug‘urta tizimi ijtimoiy bozor iqtisodiyoti tamoyiliga asoslangan bo‘lib, davlat va xususiy sektor muvozanatli hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu yerda sug‘urta tizimi faqat iqtisodiy emas, balki kuchli ijtimoiy funksiyani ham bajaradi. Majburiy tibbiy sug‘urta barcha aholini qamrab oladi va ijtimoiy tenglikni ta’minlaydi.

Aholi farovonligini oshirish nuqtai-nazaridan Germaniyada sug‘urta tizimi yuqori regulyatsiyaga ega bo‘lib, har bir fuqaro uchun bazaviy sug‘urta kafolatlangan. Shu bilan birga xususiy sug‘urta kompaniyalari qo‘shimcha xizmatlar taklif etadi.

O‘zbekiston uchun xulosalar shundan iboratki, Germaniya tajribasi sug‘urta tizimini ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslash qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ham bazaviy sug‘urta xizmatlarini davlat kafolatiga olish orqali aholining eng zaif qatlamlarini himoya qilish mumkin. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o‘rtasida aniq funksiyalar taqsimoti shakllantirilishi lozim. Davlat bazaviy xizmatlarni, xususiy sektor esa, qo‘shimcha xizmatlarni ta’minlashi maqsadga muvofiq.

Majburiy sug‘urta turlarini kengaytirish orqali sug‘urta qamrovini oshirish mumkin. Bu ayniqsa, sog‘liq va ijtimoiy sug‘urta sohasida muhim.

Germaniya tajribasi sug‘urta tizimida qat’iy qonunchilik va shaffoflikning ahamiyatini ham ko‘rsatadi. Shu bois O‘zbekistonda normativ bazani yanada takomillashtirish zarur. Nihoyat, sug‘urta tizimida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun davlat nazoratini saqlab qolish muhim hisoblanadi.

Aholi farovonligini ta’minlashda Yaponiya tajribasi texnologik va demografik adaptatsiya modellariga asoslanadi. Yaponiya sug‘urta tizimi yuqori texnologiyalar va demografik muammolarga moslashganligi bilan ajralib turadi. Aholi qarishi muammosi sug‘urta mahsulotlarini qayta ko‘rib chiqishga olib kelgan. Shu sababli uzoq muddatli

hayot sug‘urtasi va sog‘liq sug‘urtasi juda rivojlangan. Yaponiyada sun’iy intellekt texnologiyalari sug‘urta tizimiga to‘liq integratsiya qilingan. Masalan, mijozlarning sog‘liq holati real vaqtda monitoring qilinadi va sug‘urta shartlari avtomatik ravishda yangilanadi.

O‘zbekiston uchun xos bo‘lgan Yaponiya tajribasining muhim jihati shundaki, sug‘urta tizimi demografik o‘zgarishlarga moslashishi kerakligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ham aholining yosh tarkibi o‘zgarib borayotgani sababli uzoq muddatli sug‘urta mahsulotlarini rivojlantirish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali sug‘urta xizmatlarini avtomatlashtirish mumkin. Bu sug‘urta jarayonlarini tezkor va samarali qiladi. Shuningdek, sog‘liq sug‘urtasi va hayot sug‘urtasini ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirish lozim.

Yaponiya tajribasi sug‘urta sohasida profilaktika yondashuvining muhimligini ham ko‘rsatadi. Ya’ni, zararni qoplash emas, balki uni oldindan oldini olish tizimi joriy etilishi kerak. Nihoyat, sug‘urta xizmatlarida real vaqtda monitoring tizimini joriy etish aholi farovonligini oshiradi.

So‘ngi yillarda eng kuchli rivojlanish salohiyatini aks ettirgan Singapur tajribasi to‘liq raqamlashgan sug‘urta ekotizimlariga asoslanadi. Singapur sug‘urta tizimi dunyoda eng raqamlashgan tizimlardan biri hisoblanadi. Barcha sug‘urta xizmatlari elektron platforma orqali amalga oshiriladi. Davlat “Aqlli millat” strategiyasi doirasida sug‘urta sohasini to‘liq raqamlashtirgan. Sug‘urta jarayonlari sun’iy intellekt, big data va blockchain texnologiyalari orqali avtomatlashtirilgan. Bu tizim inson omilini minimallashtirgan holda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Singapur tajribasi sug‘urta tizimini to‘liq raqamlashtirish strategik ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda yagona elektron sug‘urta platformasini yaratish orqali xizmatlar samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, sug‘urta sohasida davlat boshqaruvini raqamli formatga o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt asosida markazlashgan tahlil tizimi sug‘urta qarorlarini aniq va tez qabul qilish imkonini beradi. Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish ham raqamli tizim samaradorligini ta’minlaydi. Nihoyat, barcha sug‘urta operatsiyalarini onlayn shaklga o‘tkazish orqali byurokratik to‘siqlar kamaytiriladi.

Aholi farovonligini oshirishda sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish masalasi faqat nazariy yoki institutsional islohotlar bilan cheklanib qolmaydi, balki aniq amaliy mexanizmlarni joriy etishni talab qiladi. Xorij tajribasi va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

yagona raqamli milliy sug‘urta platformasini yaratish. Zamonaviy sug‘urta tizimining samaradorligi uning raqamlashtirish darajasi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, barcha sug‘urta xizmatlarini birlashtiruvchi yagona milliy raqamli platforma yaratish zarur. Bu platforma orqali sug‘urta polislarini onlayn rasmiylashtirish, da’volarni elektron ko‘rib chiqish, tariflarni avtomatik hisoblash, mijozlar ma’lumotlarini markazlashgan holda boshqarish mumkin bo‘ladi. Natijada, byurokratik jarayonlar qisqaradi, shaffoflik oshadi va xizmatlar tezligi sezilarli darajada yaxshilanadi;

sun’iy intellekt va big data asosida risk baholash tizimini joriy etish. Sug‘urta sohasida asosiy muammolardan biri — risklarni noto‘g‘ri baholashdir. Shuning uchun

sun’iy intellekt va big data texnologiyalariga asoslangan risk-analitika tizimini joriy etish muhim. Bu tizim orqali mijoz xulq-atvori tahlil qilinadi, individual tariflar shakllantiriladi, firibgarlik holatlari oldindan aniqlanadi. Bu esa, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshiradi va xizmat sifatini yaxshilaydi;

majburiy bazaviy sug‘urta paketini kengaytirish, ya’ni aholining barcha qatlamlarini sug‘urta tizimiga qamrab olish maqsadida bazaviy majburiy sug‘urta paketini joriy etish zarur. Bu paketga tibbiy sug‘urta, mehnatga layoqatni yo‘qotish sug‘urtasi, minimal mulk sug‘urtasi kabi yo‘nalishlar kiritilishi lozim. Bu orqali ijtimoiy himoya tizimi mustahkamlanadi va kambag‘allik xavfi kamayadi;

mikrosug‘urta mahsulotlarini rivojlantirish. Past daromadli aholi qatlamlari uchun mikrosug‘urta tizimini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu tizim orqali arzon sug‘urta mahsulotlari, agrar sektor uchun maxsus sug‘urta paketlari, mobil platforma orqali sug‘urta xizmatlari joriy etish mumkin. Natijada, sug‘urta xizmatlarining ijtimoiy qamrovi kengayadi;

moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini kuchaytirish, chunki aholining sug‘urta mahsulotlaridan foydalanish darajasi moliyaviy bilimiga bog‘liq. Shuning uchun keng ko‘lamli moliyaviy savodxonlik dasturlarini joriy etish lozim. Bu aholining sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Umuman olganda, ushbu takliflarni bosqichma-bosqich amalga oshirish O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlarining sifatini oshirish va aholi farovonligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li
“Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi

O‘zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiyalashuvi sharoitida davlat budjeti mablag‘laridan oqilona foydalanish ustidan samarali nazorat tizimini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. An’anaviy davlat moliyaviy nazorati (DMN) uzoq yillar davomida faqat vertikal boshqaruvga, ya’ni yuqori turuvchi organlarning quyi bo‘g‘inlarni tekshirishiga tayanib keldi. Biroq, zamonaviy fiskal siyosat “natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish” modeliga o‘tishni taqozo etmoqda. Bu modelda nazorat funksiyasi nafaqat qonunbuzarlikni aniqlash, balki mablag‘larning ijtimoiy foydalilik koeffitsientini oshirishga qaratilishi lozim.

Tashabbusli budjetlashtirish — bu fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlovchi eng demokratik iqtisodiy vositadir. O‘zbekistonda 2021-yildan boshlab ushbu tizimning keng qamrovli tatbiq etilishi davlat moliyaviy nazorati oldiga yangi strategik vazifalarni qo‘ydi. Endilikda nazorat ob’ekti faqat raqamlar emas, balki aholi tomonidan tanlab olingan loyihalarning ijro sifati va ularning haqiqiy qiymatidir.

Davlat moliyaviy nazorati va tashabbusli budjetlashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni xalqaro iqtisodchi olimlar, jumladan, A.Shah, B.Wampler va J.Lerner o‘z tadqiqotlarida

keng yoritishgan. Ularning fikricha, jamoatchilik ishtirokidagi budjetlashtirish korrupsiyani o‘rtacha 30 foizga kamaytiradi va ijtimoiy infratuzilma sifatini 25 foizga oshiradi. O‘zbekistonda bu sohada iqtisodchi olimlar A.Vahobov, T.Malikov va Sh.Toshmatovlar tomonidan budjet ochiqligi va nazorat mexanizmlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash hamda induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Maqolada keltirilgan raqamlar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy hisobotlari hamda “Ochiq budjet” portali (openbudget.uz) ma’lumotlariga asoslangan.

Tashabbusli budjetlashtirish jarayonida nazorat uch bosqichda amalga oshiriladi: loyihani shakllantirish, g‘olibni aniqlash va ijro monitoringi. Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish deganda, ushbu uchala bosqichda ham inson omilini kamaytirib, raqamli algoritmlarni kiritish tushuniladi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda tashabbusli budjet jarayoniga yo‘naltirilayotgan mablag‘lar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa nazorat mexanizmlarini yanada murakkablashtirishni talab qiladi.

1- jadval.

O‘zbekistonda tashabbusli budjetlashtirishning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi (2021-2024 yy.)

Yillar	Ajratilgan mablag‘ (trln so‘m)	Fuqarolar tomonidan berilgan takliflar (mingta)	Ovoz berishda qatnashganlar (mln kishi)	Nazorat qilinishi lozim bo‘lgan ob’ektlar soni
2021	1,2	41,1	1,1	1 500
2022	2,5	69,7	11,2	3 200
2023	3,3	94,0	16,1	4 800
2024 (1-mavsum)	3,4	102,0	18,2	5 100

1-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, atigi 4 yil ichida ovoz berishda ishtirok etuvchilar soni 16 baravardan ziyodga, loyihalar soni esa 3,4 baravarga oshgan. Bunday ekspansiv o‘sish sharoitida an’anaviy tekshiruv usullari (inspektorlarning joyiga borib ko‘rishi) o‘z samarasini yo‘qotadi. Chunki 5 100 ta ob’ektning har birini sifatli tekshirish uchun ulkan kadrlar resursi talab etiladi. Demak, nazorat tizimini “smart-audit” (aqlli audit) formatiga o‘tkazish ob’ektiv zaruriyatdir.

Davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan o‘tkazilgan tahlillar tashabbusli budjetlashtirishda quyidagi asosiy xavf-hatarlarni (risk) ko‘rsatmoqda:

Loyiha qiymatining sun’iy oshirilishi: Loyiha taklifini kiritishda mahalliy loyihalash institutlari tomonidan narxlarni bozor narxidan 20-30% yuqori ko‘rsatish holatlari.

Ovoz yig‘ishdagi qonunbuzarliklar: Ma’muriy resursdan foydalanish yoki ovozlarni “sotib olish” holatlari, bu esa mablag‘larning haqiqiy ehtiyoj bor joyga emas, balki “uddaburonlar”ga ketishiga sabab bo‘ladi.

Sifatsiz qurilish-ta’mirlash ishlari: Pudratchilar tomonidan arzon materiallardan foydalanish.

Ushbu xavf-hatarlarni bartaraf etish uchun jamoatchilik nazoratini davlat nazorati bilan sinxronizatsiya qilish lozim.

Tashabbusli budjetlashtirishda mablag‘larning maqsadli sarflanish darajasi (92%) an’anaviy davlat xaridlariga (78%) nisbatan sezilarli darajada yuqori. Buning asosiy sababi — aholining “o‘z loyihasi” uchun qayg‘urishi va har bir g‘isht qo‘yilishini kuzatib borishidir. Biroq, qurilish sifati bo‘yicha ko‘rsatkich hali ham pastligicha qolmoqda, bu esa professional nazorat (DMN) tizimidagi bo‘shliqlarni ko‘rsatadi.

Tizim samaradorligini oshirish uchun nazoratni raqamlashtirishning quyidagi “uch bo‘g‘inli” modelini taklif etamiz:

2- jadval.

Davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishning istiqbolli modeli

Yo‘nalish	Taklif etilayotgan chora-tadbir	Kutilayotgan natija
Pre-audit (Oldindan nazorat)	Loyiha smetalarini sun’iy intellekt orqali avtomatik tahlil qilish (Benchmark narxlar bilan solishtirish)	Budjetdan ortiqcha mablag‘ ajratilishini 15-20% ga kamaytirish
Current-audit (Joriy nazorat)	Ob’ektlarda videokuzatuv va sensorli datchiklar o‘rnatish, "G‘azna" tizimi bilan onlayn bog‘lash	Ish hajmini qo‘shib yozish va materiallarni o‘g‘irlashni to‘xtatish
Post-audit (Yakuniy nazorat)	Aholi o‘rtasida "Loyiha sifati bo‘yicha onlayn so‘rovnoma" o‘tkazish (QR-kod orqali)	Pudratchining reytingini shakllantirish va sifatsiz ijroni qabul qilmaslik

Ushbu jadvalda keltirilgan modelning eng muhim qismi — aholi tomonidan QR-kod orqali beriladigan bahodir. Agar aholining 50 foizdan ortig‘i loyiha sifatidan norozi bo‘lsa, tizim avtomatik ravishda pudratchiga yakuniy to‘lovni amalga oshirishni bloklab qo‘yishi kerak. Bu — jamoatchilik nazoratini moliyaviy jazo mexanizmi bilan bog‘lashning eng samarali yo‘lidir.

Davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirish nafaqat texnik, balki institutsional o‘zgarishlarni ham talab qiladi. Hozirgi kunda Hisob palatasi va Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi o‘rtasida funksiyalar takrorlanishi kuzatiladi. Tashabbusli budjet doirasida ushbu organlarning vazifalarini aniq taqsimlash lozim.

Xususan, Hisob palatasi strategik yo‘nalishlarni (mablag‘larning adolatli taqsimlanishi), DMN inspeksiyasi esa operatsion jarayonlarni (smetaga muvofiqlik)

nazorat qilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, mahalliy Kengashlar qoshidagi “Xalq deputatlari monitoring guruhi”ga professional auditorlarni jalb qilish uchun alohida budjet kvotalari ajratilishi tizimning mustaqilligini ta’minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2023-yilda “Ochiq budjet” doirasida amalga oshirilgan loyihalarning 12 foizida moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan. Bu kamchiliklarning 60 foizi qurilish normalarini buzish, 30 foizi narxlarni oshirish va 10 foizi hujjatlardagi chalkashliklar bilan bog‘liq. Bu raqamlar biz taklif qilayotgan “raqamli monitoring” tizimining naqadar zarurligini isbotlaydi.

FUQAROLAR MUROJAATLARI – HUDUDIY RIVOJLANISH MUAMMOLARINI ANIQLASHNING MUHIM AXBOROT MANBAI SIFATIDA

INOMOV DANIYAR VALIJONOVICH
Erkin tadqiqotchi
d90658013@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda fuqarolar murojaatlarining hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Fuqarolar murojaatlari hududlarda mavjud muammolarni aniqlash, aholi ehtiyojlarini o‘rganish hamda mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirishda muhim axborot manbai sifatida baholangan. Shuningdek, murojaatlar ma’lumotlari asosida hududiy rivojlanish jarayonlarini monitoring qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolar murojaatlari, hududiy rivojlanish, mahalliy boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, elektron murojaatlar, aholi ehtiyojlari, raqamli boshqaruv, monitoring, boshqaruv qarorlari.

Asosiy qism

Bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash va aholi farovonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda fuqarolar murojaatlari davlat organlari va aholi o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Murojaatlar orqali fuqarolar o‘zlarini qiynayotgan muammolar, mavjud kamchiliklar va takliflarini bevosita davlat organlariga yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda Xalq qabulxonasi hamda elektron murojaatlar tizimining joriy etilishi fuqarolar bilan ishlash sifatini yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada murojaatlar soni va qamrovi ortib, ular hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar haqida muhim ma’lumotlar bazasini shakllantirmoqda. Fuqarolar murojaatlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, murojaatlarning asosiy qismi

kommunal xizmatlar, bandlik, ijtimoiy himoya, yo‘l infratuzilmasi, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim va sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq masalalarga to‘g‘ri keladi. Ushbu ma’lumotlar hududlarda qaysi sohalarda muammolar ko‘proq uchrayotganligini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan fuqarolar murojaatlari an’anaviy statistik ma’lumotlarni to‘ldiruvchi va amaliy vaziyatni aks ettiruvchi muhim axborot manbasi hisoblanadi. Xalqaro tajribada ham fuqarolar murojaatlari va jamoatchilik fikri ma’lumotlaridan davlat boshqaruvida samarali foydalanish amaliyoti keng tarqalgan. Estoniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarda elektron hukumat tizimlari orqali kelib tushayotgan murojaatlar muntazam tahlil qilinib, hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda foydalaniladi. Bu esa davlat boshqaruvining ochiqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fuqarolar murojaatlari asosida hududiy muammolarni aniqlash va ularni ustuvorlik darajasiga ko‘ra guruhlash mahalliy boshqaruv organlariga resurslarni maqsadli taqsimlash imkonini beradi. Ayniqsa, murojaatlarni raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalari yordamida tahlil qilish hududlarning rivojlanish holatini tezkor baholash va prognozlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Fuqarolar murojaatlari hududiy rivojlanish muammolarini aniqlash, aholi ehtiyojlarini o‘rganish va mahalliy boshqaruv qarorlarini takomillashtirishning muhim axborot manbai hisoblanadi. Shu sababli murojaatlar ma’lumotlarini hududiy rivojlanish monitoringi va strategik rejalashtirish tizimlariga integratsiyalash davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari fuqarolar murojaatlari hududiy rivojlanish muammolarini aniqlashda muhim axborot manbai ekanligini tasdiqladi. Murojaatlar nafaqat aholining talab va ehtiyojlarini aks ettiradi, balki hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlash, ularning dolzarblik darajasini baholash hamda boshqaruv qarorlarini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni shakllantiradi.

Jadval-1

Fuqarolar murojaatlari ma’lumotlari asosida hududiy rivojlanishni baholash va boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar

Shu asosda quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

fuqarolar murojaatlari asosida hududiy rivojlanishni baholovchi indikatorlar tizimini joriy etish	murojaatlar ma’lumotlari asosida hududiy muammolar indeksini shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish
elektron murojaatlar tizimlarini statistika va boshqa davlat axborot tizimlari bilan integratsiyalash	murojaatlarni tahlil qilishda sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish
mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini baholashda murojaatlarni hal etish samaradorligini asosiy mezonlardan biri sifatida qo‘llash	hududlar kesimida murojaatlar asosida shakllantirilgan muammolar xaritasini muntazam yangilab borish

Jadvalda keltirilgan takliflar fuqarolar murojaatlari ma’lumotlaridan hududiy rivojlanishni baholash va mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Xususan, fuqarolar murojaatlari asosida hududiy rivojlanishni baholovchi indikatorlar tizimini joriy etish hududlarda mavjud muammolarni aniq va tizimli baholash imkonini beradi. Mazkur indikatorlar orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini muntazam monitoring qilish hamda rivojlanish darajasini qiyosiy tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Murojaatlar ma’lumotlari asosida hududiy muammolar indeksini shakllantirish esa muammolarni miqdoriy baholash imkoniyatini yaratadi. Ushbu indeks yordamida hududlarda qaysi sohalarda muammolar ko‘proq to‘planganligi aniqlanib, davlat resurslarini ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish uchun zarur axborot bazasi shakllanadi. Natijada hududiy rivojlanish dasturlarining manzilliligi va samaradorligi oshadi. Elektron murojaatlar tizimlarini statistika va boshqa davlat axborot tizimlari bilan integratsiyalash ma’lumotlar almashinuvining yaxlit mexanizmini yaratishga xizmat qiladi. Bunday integratsiya fuqarolar murojaatlarida ko‘tarilgan muammolarni hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada hududiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillarni yanada chuqurroq o‘rganish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Murojaatlarni tahlil qilishda sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish murojaatlar hajmi ortib borayotgan sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar yordamida murojaatlarni avtomatik tasniflash, muammolarni guruhlash, takroriy murojaatlarni aniqlash va

hududlar kesimida muammolar dinamikasini prognoz qilish mumkin bo‘ladi. Bu esa boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini oshiradi. Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini baholashda murojaatlarni hal etish samaradorligini asosiy mezonlardan biri sifatida qo‘llash davlat organlarining aholiga yo‘naltirilgan faoliyatini kuchaytiradi. Murojaatlarni o‘z vaqtida va sifatli hal etish darajasi boshqaruv samaradorligining muhim ko‘rsatkichi sifatida xizmat qiladi hamda fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Shuningdek, hududlar kesimida murojaatlar asosida shakllantirilgan muammolar xaritasini muntazam yangilab borish muammolar geografiyasini aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha manzilli choralarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bunday yondashuv hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni tezkor aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Umuman olganda, taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi fuqarolar murojaatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, hududiy rivojlanishni baholash tizimini takomillashtirish hamda mahalliy boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov, Q. X. (2021). *Mintaqaviy iqtisodiyot*. Toshkent: Iqtisodiyot.
2. Vahobov, A. V. (2020). *Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va hududiy boshqaruv*. Toshkent: Fan.
3. Arnstein, S. R. (1969). A ladder of citizen participation. *Journal of the American Institute of Planners, 35*(4), 216–224. https://doi.org/10.1080/01944366908977225
4. Han, J., Kamber, M., & Pei, J. (2022). *Data mining: Concepts and techniques* (4th ed.). Morgan Kaufmann.
5. Mayer-Schönberger, V., & Cukier, K. (2013). *Big data: A revolution that will transform how we live, work, and think*. Houghton Mifflin Harcourt.
6. Nabatchi, T., & Leighninger, M. (2015). *Public participation for 21st century democracy*. Jossey-Bass.
7. OECD. (2023). *Government at a glance 2023*. OECD Publishing.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida* (PF–60-son Farmon).
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). *Ma’muriy islohotlar doirasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*.

10. United Nations. (2024). *United Nations E-Government Survey 2024: Accelerating digital transformation for sustainable development*. New York: United Nations.
11. World Bank. (2024). *World development report 2024: Data for better lives*. Washington, DC: World Bank.
12. United Nations Development Programme. (2024). *Human development report 2024*. New York: UNDP.

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI BAHOLASHDA FUQAROLAR MUROJAATLARI MA'LUMOTLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

INOMOV DANIYAR VALIJONOVICH
Erkin tadqiqotchi
d90658013@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini baholashda fuqarolar murojaatlari ma'lumotlaridan foydalanishning ahamiyati va istiqbollari tadqiq etilgan. Fuqarolar murojaatlari hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, aholi ehtiyojlari hamda davlat organlari faoliyati samaradorligini aks ettiruvchi muhim axborot manbai sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, murojaatlar ma'lumotlaridan foydalanish asosida mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini baholash, boshqaruv qarorlarini takomillashtirish hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolar murojaatlari, mahalliy davlat hokimiyati, boshqaruv samaradorligi, hududiy rivojlanish, elektron murojaatlar, raqamli boshqaruv, Big Data, sun'iy intellekt, baholash mezonlari, boshqaruv qarorlari.

Asosiy qism

Bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish va aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda fuqarolar murojaatlari muhim axborot manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki murojaatlar orqali aholi hududlarda mavjud muammolar, davlat xizmatlari sifati va boshqaruv tizimidagi kamchiliklar haqida bevosita ma'lumot beradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Prezident Virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari hamda elektron murojaatlar tizimining joriy etilishi natijasida davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi muloqotning yangi mexanizmi shakllandi. Natijada murojaatlar nafaqat muammolarni hal etish vositasi, balki davlat organlari faoliyatini baholashning muhim ko'rsatkichiga aylandi. Fuqarolar murojaatlari tahlili mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining real natijalarini baholash imkonini beradi.

Xususan, murojaatlar soni, takroriy murojaatlar ulushi, murojaatlarni ko‘rib chiqish muddati, ijobiy hal etilgan murojaatlar ulushi va fuqarolar qoniqish darajasi hokimliklar va boshqa mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi muhim indikatorlar hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda fuqarolar murojaatlari ma’lumotlari boshqaruv samaradorligini baholash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur davlatlarda elektron hukumat tizimlari orqali kelib tushayotgan murojaatlar muntazam monitoring qilinadi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladi. Bu esa davlat organlarining hisobdorligi, shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, murojaatlar sonining ko‘payishi ayrim hollarda hududlarda mavjud muammolarning ortib borayotganligini bildirsa, takroriy murojaatlar ulushining yuqoriligi muammolar o‘z vaqtida hal etilmayotganligini ko‘rsatadi. Shu sababli murojaatlar statistikasi mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Ayniqsa, murojaatlarni sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalari yordamida tahlil qilish boshqaruv samaradorligini baholashning aniqligini oshirish imkonini beradi.

Kelgusida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini baholashda fuqarolar murojaatlariga asoslangan reyting tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tizim hududlar kesimida muammolar darajasini aniqlash, boshqaruv natijadorligini baholash va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari fuqarolar murojaatlari mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini baholashning muhim axborot manbai ekanligini ko‘rsatdi. Murojaatlar davlat organlari faoliyatining samaradorligi, aholi ehtiyojlariga mosligi va muammolarni hal etish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Shu asosda quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini baholashda murojaatlar bilan ishlash samaradorligini asosiy KPI ko‘rsatkichlaridan biri sifatida joriy etish;
2. Fuqarolar murojaatlari asosida hududlar reytingini shakllantirish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;
3. Murojaatlar ma’lumotlarini statistika va boshqa davlat axborot tizimlari bilan integratsiyalash;
4. Murojaatlarni tahlil qilishda sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;
5. Murojaatlar asosida hududiy muammolar xaritasini yaratish va muntazam yangilab borish;
6. Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini oshirish maqsadida murojaatlar bo‘yicha ochiq reyting tizimini joriy etish.

Fuqarolar murojaatlari ma’lumotlaridan samarali foydalanish mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining natijadorligini oshirish, aholining davlat

boshqaruviga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash hamda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolar murojaatlari mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining natijadorligi va aholining davlat xizmatlaridan qoniqish darajasini baholashda muhim axborot manbai hisoblanadi. Murojaatlar orqali hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, boshqaruv tizimidagi kamchiliklar hamda aholining ustuvor ehtiyojlari to‘g‘risida tezkor va ishonchli ma’lumotlarni olish mumkin. Shu sababli fuqarolar murojaatlari ma’lumotlarini mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini baholash tizimiga keng joriy etish boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kelgusida murojaatlar ma’lumotlarini statistik va boshqa davlat axborot tizimlari bilan integratsiyalash, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalangan holda tahlil qilish hamda murojaatlar asosida hududlar reytingini shakllantirish mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. Natijada davlat boshqaruvida ma’lumotlarga asoslangan yondashuv kuchayib, fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchi va hududiy rivojlanish samaradorligi yanada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qalandar Abdurahmonov. (2021). *Mintaqaviy iqtisodiyot*. Toshkent: Iqtisodiyot.
2. Aziz Vahobov. (2020). *Iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot.
3. Bahodir Berkinov. (2022). *Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari*. Toshkent: Fan.
4. Muzaffar Sharifxo‘jayev. (2019). *Davlat boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Akademiya.
5. Saidmurod G‘ulomov. (2021). *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Baxodir Xodiyev. (2020). *Iqtisodiy taraqqiyot va institutsional islohotlar*. Toshkent: Iqtisodiyot.
7. Abdug‘ani Rasulov. (2021). *Hududlarni kompleks rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari*. Toshkent: Fan.

KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI BOSHQARISHDA AGILE VA LEAN MANAGEMENT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

No‘monjonova Muazzam Mahbubjonov qizi
A.Avloniy nomidagi pedagogic mahurat milliy instituti
1-bosqich tayanch doktoranti
muazzammahbubjonovna@gmail.com

Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan sharoitda korxonalarda investitsiya loyihalarini samarali boshqarish masalasi muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Investitsiya loyihasi korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, texnologik yangilanishni ta’minlash, mahsulot tannarxini pasaytirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv vositasidir. Shu sababli investitsiya jarayonlarini an’anaviy usullar bilangina emas, balki zamonaviy, moslashuvchan va samaradorlikka yo‘naltirilgan boshqaruv texnologiyalari asosida tashkil etish zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida ham investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, investorlarning huquqlarini himoya qilish va investitsion muhitning barqarorligini ta’minlash muhim vazifa sifatida belgilangan[1]. Mazkur huquqiy asos korxonalarda investitsiya loyihalarini puxta rejalashtirish, ularni iqtisodiy jihatdan baholash va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va korxonalar faoliyatiga innovatsion boshqaruv usullarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash, tadbirkorlik va investitsiya muhitini yaxshilash, sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan[2]. Bu esa korxonalarda investitsiya loyihalarini boshqarishda tezkorlik, moslashuvchanlik, xarajatlarni optimallashtirish va aniq natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv yondashuvlarini keng qo‘llashni talab etadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.

Hozirda korxonalarda investitsiya loyihalarini boshqarishda an’anaviy yondashuvlar ko‘pincha qat’iy rejalashtirish, uzoq muddatli kelishuvlar, murakkab tashkiliy bosqichlar va loyiha yakunida natijani baholashga asoslanadi. Bunday yondashuv barqaror sharoitlarda ma’lum darajada samarali bo‘lishi mumkin. Lekin hozirgi iqtisodiy sharoitda bozor talabi, texnologik yangiliklar, moliyalashtirish manbalari, xomashyo narxlari va raqobat muhiti tez o‘zgarib bormoqda. Natijada investitsiya loyihalarini boshqarishda moslashuvchan, bosqichma-bosqich natija beruvchi va resurslardan tejamkor foydalanishga asoslangan texnologiyalardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Agile texnologiyasi esa korxonalarda investitsiya loyihalarini kichik bosqichlar asosida boshqarish, loyiha davomida yuzaga keladigan o‘zgarishlarga tez moslashish va har bir bosqich yakunida amaliy natijani baholab borishga asoslanadi. Bu yondashuv investitsiya loyihalarida mavjud risklarni erta aniqlash, kamchiliklarni loyiha yakunida emas, balki jarayon davomida bartaraf etish imkonini beradi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida yangi uskunalarni joriy etish, ishlab chiqarish liniyalarini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida Agile yondashuvi yuqori amaliy ahamiyatga ega.

Agile texnologiyasining asosiy ustunligi shundaki, u investitsiya loyihasini qat’iy va o‘zgarmas reja sifatida emas, balki doimiy takomillashib boruvchi boshqaruv jarayoni sifatida qaraydi. Bunda loyiha jamoasi, korxona rahbariyati, investorlar, texnik mutaxassislar va moliyaviy bo‘limlar o‘rtasida muntazam axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi. Har bir bosqichda bajarilgan ishlar tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi va keyingi bosqich vazifalari aniqlashtiriladi. Natijada investitsiya loyihasi bo‘yicha qabul qilinayotgan qarorlar real holat, mavjud resurslar va bozor talablariga moslashtiriladi.

Lean Management texnologiyasi esa investitsiya loyihalarini boshqarishda ortiqcha xarajatlarni kamaytirish, vaqt yo‘qotishlarini qisqartirish, takroriy va samarasiz jarayonlarni bartaraf etish hamda qiymat yaratishga xizmat qiluvchi faoliyatlarni kuchaytirishga qaratilgan boshqaruv yondashuvidir. Lean Managementning asosiy mazmuni shundan iboratki, korxona investitsiya loyihasining har bir bosqichida qaysi jarayon real iqtisodiy qiymat yaratishini va qaysi jarayon ortiqcha xarajat yoki vaqt yo‘qotishiga sabab bo‘lishini aniqlashi kerak.

Investitsiya loyihalarida Lean Management texnologiyasidan foydalanish texnik-iqtisodiy asoslash, loyiha hujjatlarini tayyorlash, moliyalashtirish manbalarini aniqlash, uskunalarni xarid qilish, qurilish-montaj ishlarini tashkil etish, ishlab

chiqarishni ishga tushirish va loyiha samaradorligini monitoring qilish bosqichlarida muhim ahamiyatga ega. Har bir bosqichda ortiqcha byurokratik jarayonlar, takroriy kelishuvlar, samarasiz xarajatlar va vaqt yo‘qotishlari qisqartirilsa, investitsiya loyihasining umumiy samaradorligi oshadi.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, axborot tizimlarini rivojlantirish va boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifalari belgilangan[3]. Ushbu vazifalar korxonalarda investitsiya loyihalarini boshqarishda ham raqamli monitoring, elektron hujjat aylanishi, loyiha xarajatlarini onlayn nazorat qilish, KPI ko‘rsatkichlarini baholash va boshqaruv qarorlarini ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkonini beradi. Agile va Lean Management texnologiyalari aynan raqamli boshqaruv vositalari bilan uyg‘unlashganda yanada samarali natija beradi.

Quyidagi jadvalda investitsiya loyihalarini boshqarishda an’anaviy yondashuv, Agile texnologiyasi va Lean Management texnologiyasining asosiy farqlari ko‘rsatilgan.

1-jadval[4]

Mezoni	**An’anaviy boshqaruv**	**Agile texnologiyasi**	**Lean Management texnologiyasi**
Rejalashtirish shakli	Oldindan qat’iy belgilangan reja asosida	Bosqichma-bosqich va moslashuvchan	Jarayonlarni soddalashtirish va optimallashtirish asosida
Qaror qabul qilish	Markazlashgan tartibda	Jamoaviy va tezkor	Qiymat yaratishga yo‘naltirilgan
Nazorat mexanizmi	Loyiha yakunida natijani baholash	Har bir bosqichda monitoring qilish	Jarayonlardagi ortiqcha xarajatlarni aniqlash
Asosiy maqsad	Loyihani belgilangan muddatda yakunlash	O‘zgarishlarga moslashgan holda natija olish	Isrofgarchilikni kamaytirib, samaradorlikni oshirish

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son

[4] Muallif ishlanmasi.

Investitsiya samaradorligiga ta’siri	Risklar kech aniqlanishi mumkin	Risklar erta aniqlanadi	Xarajat va vaqt yo‘qotishlari kamayadi

Jadvaldan ko‘rinadiki, an’anaviy boshqaruvda loyiha jarayoni oldindan belgilangan reja asosida olib borilsa, Agile va Lean Management texnologiyalarida loyiha natijadorligi, moslashuvchanlik, xarajatlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida investitsiya loyihalari katta moliyaviy mablag‘, murakkab texnologik yechimlar va ko‘p bosqichli tashkiliy jarayonlarni talab qilganligi sababli bunday texnologiyalar amaliy jihatdan muhimdir.

Korxonalarda investitsiya loyihalarini Agile yondashuvi asosida boshqarish quyidagi natijalarni beradi. Birinchidan, loyiha bosqichlari aniq qismlarga ajratiladi va har bir bosqich yakunida real natija baholanadi. Ikkinchidan, loyiha davomida yuzaga keladigan texnik, moliyaviy yoki tashkiliy muammolarga tezkor javob beriladi. Uchinchidan, loyiha jamoasi a’zolari o‘rtasida hamkorlik kuchayadi. To‘rtinchidan, investorlar va korxona rahbariyati loyiha holati haqida doimiy ma’lumotga ega bo‘ladi. Beshinchidan, loyiha yakuniy natijasi bozor talabi va korxona ehtiyojlariga ko‘proq moslashadi.

Lean Management texnologiyasidan foydalanish esa investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda ortiqcha xarajatlar, samarasiz operatsiyalar, hujjat aylanishidagi kechikishlar, materiallardan noto‘g‘ri foydalanish, uskunalarni yetkazib berishdagi uzilishlar va ishchi kuchidan samarasiz foydalanish holatlari aniqlanadi. Natijada loyiha qiymati optimallashtiriladi, amalga oshirish muddati qisqaradi va kapital qo‘yilmalarning qaytimi tezlashadi.

O‘zbekiston sanoat korxonalari sharoitida Agile va Lean Management texnologiyalarini joriy etish quyidagi yo‘nalishlarda muhim hisoblanadi. Avvalo, investitsiya loyihalarini raqamli platformalar orqali boshqarish tizimini rivojlantirish zarur. Bunda loyiha xarajatlari, bajarilish muddatlari, texnik topshiriqlar, yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar va KPI ko‘rsatkichlari yagona elektron tizimda kuzatib borilishi lozim. Ikkinchidan, korxonalarda loyiha boshqaruvi bo‘yicha alohida mas’ul guruhlar yoki loyiha ofislarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, xodimlarni zamonaviy boshqaruv texnologiyalari bo‘yicha muntazam o‘qitish kerak. To‘rtinchidan, investitsiya loyihalarida natijadorlikni baholash mezonlari aniq belgilanishi lozim.

Shu bilan birga, Agile va Lean Management texnologiyalarini korxonalar faoliyatiga joriy etishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, ayrim korxonalarda an’anaviy boshqaruvga haddan tashqari bog‘lanib qolish, xodimlarning zamonaviy loyiha

boshqaruvi bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligi, raqamli monitoring tizimlarining to‘liq shakllanmagani va bo‘limlar o‘rtasida axborot almashinuvi sustligi kuzatiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun korxonalarda boshqaruv madaniyatini yangilash, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, investitsiya loyihalarini monitoring qilish tizimini kuchaytirish va xodimlarning kasbiy kompetentligini oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarda investitsiya loyihalarini boshqarishda Agile va Lean Management texnologiyalaridan foydalanish investitsiya samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Agile texnologiyasi loyihalarni moslashuvchan va bosqichma-bosqich boshqarishga xizmat qilsa, Lean Management ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Ushbu ikki yondashuvni uyg‘un qo‘llash sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarining rentabelligini oshirish, risklarni kamaytirish, loyiha muddatlarini qisqartirish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur texnologiyalarni keng joriy etish uchun zarur institutsional asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ

Ибрагимов Гайратжон Артикович,
Ташкентский государственный экономический университет
Кафедра «Финансовый анализ»,
кандидат экономических наук, доцент

Проблемы, связанные с экологическими изменениями, включая глобальное изменение климата, поставили поиск устойчивого развития на повестку дня как важную задачу. Результаты математического моделирования ограниченности природных ресурсов и неконтролируемого роста потребления привели к формированию концепции пределов роста в экономике. Создание Программы ООН по окружающей среде заложило основу для появления первых взглядов на устойчивое развитие. Устойчивое развитие возможно только при наличии экономического роста, социальной ответственности и экологического баланса. В нашей стране решение задач устойчивого развития может быть достигнуто путем формирования зеленой экономики как альтернативной экономики.

Ключевые слова: экономические системы, зеленая экономика, экологическая среда, ограниченные природные ресурсы, устойчивое развитие, экологические факторы.

Глобальная экономика, ориентированная на долгосрочную перспективу, максимизацию прибыли и минимизацию издержек, без других фундаментальных основ, радикально изменила природную, социальную и духовную среду в различных странах. Экологические проблемы, глобальное изменение климата, социальное неравенство стали составной частью глобальных проблем и кризисов, с которыми страны, корпорации и отдельные лица столкнулись в конце прошлого и начале настоящего века. Эта ситуация поставила на повестку дня важную задачу переосмысления мировоззрения с глобальной точки зрения и поиска путей достижения устойчивого развития.

Идея об ограниченности природных ресурсов и необходимости ограничения неконтролируемого роста потребления впервые была высказана древнегреческими философами. Однако концепция устойчивого развития обычно ассоциируется с английским священником и экономистом Томасом Робертом Мальтусом. В начале XVIII века Мальтус выдвинул гипотезу о том, что рост населения следует геометрической прогрессии, в то время как производство продуктов питания и ресурсов — арифметической, что в долгосрочной перспективе приводит к таким катастрофам, как голод, войны и даже революции.

Быстрое развитие идей об ограниченности природных ресурсов, важности рационального производства и потребления произошло спустя 170 лет после публикации первых работ Мальтуса. В 1972 году международная общественная организация «Римский клуб» опубликовала первый доклад о результатах математического моделирования истощения природных ресурсов вследствие роста населения — знаменитый «Пределы роста». Модель включала 12 различных сценариев развития, пять из которых описывали катастрофическое сокращение населения до 1-3 миллиардов человек из-за чрезмерного потребления, а семь были более гуманными, опираясь на повышение экологической, демографической и социальной осведомленности человечества.

В 1972 году была создана Программа ООН по окружающей среде, которая заложила основу для глобального обсуждения экологических проблем. С этого момента начали формироваться первые идеи об устойчивом развитии.

Современное понимание устойчивого развития было подтверждено в 1983 году, когда Организация Объединенных Наций созвала Всемирную комиссию по окружающей среде и развитию. Термин «устойчивое развитие», утвержденный Комиссией, и его межпоколенческая интерпретация до сих пор широко используются.

Устойчивое развитие — это совокупность мер, направленных на удовлетворение потребностей настоящего времени при сохранении окружающей среды и ресурсов, то есть без ущерба для способности будущих поколений удовлетворять свои собственные потребности.

Устойчивое развитие возможно только тогда, когда три основных компонента находятся в равновесии: экономический рост, социальная ответственность и экологическая устойчивость. Согласно Повестке дня ООН в области устойчивого развития на 2015 год, было установлено 17 целей устойчивого развития. Не все цели одинаково актуальны в разных частях мира, но в целом достижение этих целей улучшит качество жизни нынешнего и будущих поколений.

В последние годы продолжающееся движение за повышение экологического уровня экономики привело к широкому распространению термина «зеленая экономика». Глобальное применение этого термина началось в преддверии Конференции Организации Объединенных Наций по устойчивому развитию в Рио-де-Жанейро в 2012 году, и особенно после публикации итогового документа конференции «Будущее, которого мы хотим». В докладе Европейской экономической комиссии ООН «От перехода к трансформации: устойчивое и инклюзивное развитие в Европе и Центральной Азии», подготовленном для

конференции Рио+20, две главы были посвящены «зеленой» экономике, которая в основном была ориентирована на бедные слои населения и сектор здравоохранения.

«Зеленая экономика» — это направление в экономике, возникшее в конце XX века, основанное на необходимости снижения негативного воздействия экономической деятельности человека на окружающую среду и направленное не на экономический рост любой ценой, а на устойчивое развитие с минимальным риском для окружающей среды. Сторонники этого направления считают экономику зависимым компонентом природной среды, в которой она функционирует и частью которой является.

Концепция зеленой экономики тесно связана с такими областями экономики, как экологическая экономика и экономика окружающей среды.

Теория зеленой экономики основана на трех аксиомах:

• невозможно бесконечно расширять сферу влияния в ограниченном пространстве;

• невозможно требовать удовлетворения бесконечно растущих потребностей в условиях ограниченных ресурсов;

• все на Земле взаимосвязано.

К основным объектам исследования и экономического моделирования зеленой экономики относятся:

- взаимосвязь между экономическим управлением и экологической средой нашей планеты;

- методы управления экономическими системами, учитывающие экологические и социальные факторы и способствующие минимизации экологического ущерба от экономической деятельности в долгосрочной перспективе;

- принципы, направленные на минимизацию экологического ущерба, которые должны основываться на развитии новых технологий в сфере производства и управления в целом.

Изменения в аграрной сфере играют позитивную роль в формировании зеленой экономики в нашей республике. Как мы отмечали в свое время, переход от административно-планово-распределительной системы к рыночно-ориентированной системе изменил экономические, финансовые и правовые условия управления, и сформировался многопрофильный аграрный сектор (Ибрагимов, Г., и Якубов, У. (2015)). Поскольку этот сектор может выступать в качестве «локомотива» в создании зеленой экономики, необходимо уточнить понятия науки о зеленой экономике.

Исходя из вышеизложенных обобщенных объектов науки о зеленой экономике и принимая во внимание в данном случае пересечение экономики с другими дисциплинами, можно заключить, что для зеленых экономистов характерна междисциплинарная методология.

Таким образом, к важнейшим принципам, на которых основывается выбор научных методов и стратегий в рамках «зеленой» экономики, относятся:

- приоритет экологических факторов при решении проблем выживания человека в условиях ограниченных ресурсов;
- разграничение уровней реализации «зеленой» экономики, осуществляемых на концептуальном, идеологическом, политическом и экономическом уровнях;
- обоснование внедрения тех или иных технологий.

В процессе разработки различных методов «озеленения» экономических систем и новых технологий, зеленая экономика должна придерживаться принципов математической строгости расчетов, зависимости анализа и разработки от нескольких дисциплин, чтобы повысить целесообразность и эффективность этих разработок:

- при определении допустимых пределов экологического ущерба – установление полной картины последствий их нарушения;
- установление пределов на основе установленных значений.

Можно выделить четыре уровня деятельности науки о зеленой экономике.

На первом, концептуальном уровне, зеленая экономика разрабатывает наиболее общую стратегию действий, определяет «зеленые» направления в развитии экономической системы.

Следующий, второй уровень — идеологический, где осуществляется актуализация «зеленых» ценностей для экономических субъектов. На этом уровне главная задача зеленой экономики — привить обществу идею необходимости экологически чистого производства.

После формирования первых двух уровней проблемной областью становится правовое, государственное регулирование и разработка соответствующего законодательства. Это третий — политический — уровень зеленой экономики. Необходимо разработать законодательство, способствующее «озеленению» экономики и одновременно удовлетворяющее субъектов бизнеса.

Четвертый, экономический уровень, отражает результаты развития на всех предыдущих уровнях и оценивает их успешность.

Важную роль играют наличие национальных законов и действий правительства, способствующих дальнейшему более широкому применению решений,

принимаемых в цифровой среде, а также финансовые инвестиции государственных органов в цифровизацию (Гайратжон Ибрагимов Артикович. (2022)).

Надеемся, что реализация задач на вышеуказанных уровнях в нашей стране послужит обеспечению формирования зеленой экономики как альтернативной экономики.

Список использованной литературы:

1. Ibragimov, G., & Yakubov, U. (2015). Agricultural Development in Uzbekistan. SCIENTIFIC ENQUIRY IN THE CONTEMPORARY WORLD: THEORETICAL BASICS AND INNOVATIVE APPROACH, 74. Retrieved from https://bmpublgroup.com/assets/l_26_4_1.pdf#page=75

2. Gayratjon Ibragimov Artikovich. (2022). GLOBAL DIGITALIZATION AND THE PLACE OF UZBEKISTAN. IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. https://doi.org/10.5281/zenodo.6627529

O‘ZBEKISTON BANK SEKTORIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA FINTECH RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Rajabova Umida Umurzoqovna francheska50701@gmail.com
Xalqaro Nordik Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiya jarayonlari va FinTech texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarining modernizatsiyasi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va ularning moliyaviy samaradorlikka ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, FinTech kompaniyalarining bank tizimi bilan integratsiyasi, open banking, API texnologiyalari va raqamli xizmatlar rivojining asosiy yo‘nalishlari aniqlangan. O‘zbekiston sharoitida mavjud muammolar va rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinib, bank sektorida raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar raqamli transformatsiya, FinTech, bank tizimi, raqamli bank xizmatlari, open banking, API, moliya bozori, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, fintech startaplar.

Kirish

Jahon moliya tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, bank sektorining rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. O‘zbekistonda ham

iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bank xizmatlarini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida bank xizmatlarini masofaviy shaklda ko‘rsatish, naqd pulsiz to‘lovlar ulushini oshirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli transformatsiya bank tizimining samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va mijozlarga yo‘naltirilgan innovatsion mahsulotlar yaratish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, FinTech kompaniyalari bank sektoriga yangi texnologik yechimlar olib kirib, xizmatlar tezligi va qulayligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xorijiy tadqiqotlarda raqamli transformatsiya bank sektorida biznes jarayonlarni modernizatsiya qilish va innovatsion xizmatlarni joriy etishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Masalan, Gomber va boshqalar (2017) raqamli moliya (digital finance) tushunchasini moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishda zamonaviy texnologiyalardan

kompleks foydalanish sifatida izohlaydi va bu jarayon bank tizimining strukturaviy o‘zgarishiga olib kelishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Arner va boshqalar (2016) FinTech rivojlanishini global moliya tizimidagi inqirozdan keyingi yangi paradigma sifatida baholab, uning banklar faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini asoslab beradi.

FinTech texnologiyalarining bank sektoriga integratsiyasi masalalari ham ko‘plab ilmiy ishlarda yoritilgan. Lee va Shin (2018) FinTech ekotizimini banklar, startaplar, investorlar va regulyatorlardan iborat murakkab tizim sifatida tavsiflab, ushbu subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik innovatsion rivojlanishning asosiy drayveri ekanligini ta’kidlaydi. Philippon (2016) esa FinTech texnologiyalari orqali moliyaviy xizmatlar xarajatlarini kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

So‘nggi tadqiqotlarda raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri alohida e’tibor markazida turibdi. Ozili (2018) raqamli moliya xizmatlari moliyaviy inklyuziyani oshirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlab, mobil banking va elektron to‘lov tizimlari orqali aholining keng qatlamlari moliyaviy xizmatlarga jalb etilayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar, xususan Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi hisobotlarida raqamli texnologiyalar moliya tizimining barqarorligi va shaffofligini oshirishda muhim vosita sifatida baholanadi.

Bank sektorida open banking va API texnologiyalarining joriy etilishi ham ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ushbu yondashuv bank xizmatlarini ochiq platformaga aylantirib, uchinchi tomon FinTech kompaniyalari bilan integratsiyani ta’minlaydi.

Natijada yangi innovatsion xizmatlar paydo bo‘lib, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati oshadi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O‘zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari, to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish va naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish masalalari o‘rganilgan. Xususan, mobil banking, QR-to‘lovlar, elektron hamyonlar va masofaviy identifikatsiya xizmatlarining joriy etilishi bank xizmatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgani qayd etiladi. Shu bilan birga, mamlakatda FinTech rivojlanishi uchun institutsional sharoitlar bosqichma-bosqich shakllanib borayotgani ta’kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda O‘zbekiston moliya bozorida FinTech kompaniyalari va tijorat banklari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish jarayonlarini kompleks o‘rganish maqsadida zamonaviy ilmiy yondashuvlar va usullar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, empirik va iqtisodiy-statistik tahlil usullarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini moliya bozori rivoji, raqamli transformatsiya, innovatsion iqtisodiyot va FinTech texnologiyalari sohasidagi xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Shuningdek, bank va FinTech kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlik modellarini yorituvchi konseptual yondashuvlar asos qilib olindi.

a. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy ilmiy usullardan foydalanildi:

b. Tizimli tahlil usuli – bank va FinTech kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikni yagona tizim sifatida o‘rganish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda qo‘llanildi.

c. Taqqoslama tahlil usuli – rivojlangan davlatlar tajribasi bilan O‘zbekiston moliya bozoridagi holatni solishtirish orqali samarali modellari aniqlab olindi.

d. Statistik tahlil usuli – moliya bozori, bank xizmatlari va raqamli to‘lovlar rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiya jarayonlari tahlili bank sektorida raqamli transformatsiya jarayonlari izchil ravishda jadallashib bormoqda. Xususan, tijorat banklari tomonidan mobil banking, internet banking, masofaviy identifikatsiya, QR-to‘lovlar va elektron hamyonlar kabi xizmatlar keng joriy etilmoqda. Ushbu xizmatlar orqali bank operatsiyalarining sezilarli qismi raqamli kanallar orqali amalga oshirilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli xizmatlarning kengayishi natijasida banklarning an’anaviy faoliyat modeli bosqichma-bosqich platformaviy modelga o‘tmoqda. Bu esa banklar faoliyatida quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda:

1. xizmatlar ko‘rsatish tezligining oshishi
2. operatsion xarajatlarning kamayishi
3. mijozlar bilan o‘zaro aloqalarning soddalashuvi
4. xizmatlar sifati va qulayligining ortishi

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya banklarning ichki boshqaruv tizimlarini ham takomillashtirib, risklarni boshqarish, kreditlash jarayonlari va mijozlarni baholash mexanizmlarini yanada samarali qilish imkonini bermoqda.

FinTech rivojlanish tendensiyalari tahlili FinTech texnologiyalarining rivojlanishi asosan to‘lov tizimlari va raqamli moliyaviy xizmatlar orqali namoyon bo‘lmoqda. Xususan, quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

1. raqamli to‘lov tizimlarining jadal rivojlanishi
2. mobil ilovalar orqali xizmatlar ulushining ortishi
3. onlayn kreditlash va mikroqarzlash xizmatlarining kengayishi
4. elektron hamyonlar va QR-to‘lovlarning ommalashuvi
5. sun’iy intellekt va big data texnologiyalarining joriy etilishi

FinTech kompaniyalari tomonidan taklif etilayotgan innovatsion yechimlar bank xizmatlarini soddalashtirish va tezkorligini oshirish orqali mijozlar tajribasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bu esa banklar uchun yangi raqobat muhitini shakllantirib, ularni innovatsion rivojlanishga undamoqda.

O‘zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiya jarayonlari va FinTech rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy asoslangan natijalarga erishildi:
Birinchidan, mamlakat bank tizimida raqamli xizmatlar ulushining ortishi bank faoliyatining samaradorligiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mobil banking, internet banking va masofaviy xizmatlarning kengayishi operatsion xarajatlarni kamaytirish bilan birga, xizmatlar tezligini oshirib, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilamoqda.

Ikkinchidan, FinTech texnologiyalarining joriy etilishi bank sektorida innovatsion rivojlanishning muhim drayveri sifatida namoyon bo‘ldi. Xususan, raqamli to‘lov tizimlari, onlayn kreditlash, elektron hamyonlar va sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar banklarning yangi daromad manbalarini shakllantirishiga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, olib borilgan ekonometrik tahlil natijalari raqamli xizmatlar ulushi, FinTech rivojlanish darajasi va innovatsion investitsiyalar bank samaradorligiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, raqamli xizmatlar ulushi bank samaradorligining asosiy determinant omili sifatida aniqlandi.

To‘rtinchidan, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli transformatsiya bank tizimida

platformaviy modelga o‘tishni tezlashtirib, mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlar rivojini ta’minlamoqda. Bu esa banklarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Beshinchidan, tadqiqot davomida aniqlangan muammolar — normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, texnologik infratuzilmaning cheklanganligi, kadrlar yetishmovchiligi va moliyalashtirish muammolari — raqamli transformatsiya jarayonlarini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar sifatida baholandi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiya va FinTech rivojlanishi moliya tizimining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali banklar o‘z xizmatlarini modernizatsiya qilish, mijozlar ehtiyojlariga moslashish

va bozor talablariga tezkor javob berish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

FinTech texnologiyalari bank tizimiga integratsiyalashuvi xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish bilan birga, moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bank va FinTech kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlik yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratib, moliya sektorining innovatsion rivojlanishini ta’minlamoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish va FinTech rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash orqali O‘zbekiston bank tizimini global moliya bozoriga integratsiyalashgan, zamonaviy va raqobatbardosh tizimga aylantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2016). The evolution of FinTech: A new post-crisis paradigm. Georgetown Journal of International Law, 47(4), 1271–1319.
2. Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2017). Digital finance and FinTech: Current research and future research directions. Journal of Business Economics, 87(5), 537–580. https://doi.org/10.1007/s11573-017-0852-x
3. Lee, I., & Shin, Y. J. (2018). FinTech: Ecosystem, business models, investment decisions, and challenges. Business Horizons, 61(1), 35–46. https://doi.org/10.1016/j.bushor.2017.09.003
4. Philippon, T. (2016). The FinTech opportunity. National Bureau of Economic Research Working Paper, No. 22476. https://doi.org/10.3386/w22476
5. Ozili, P. K. (2018). Impact of digital finance on financial inclusion and stability.

Borsa Istanbul Review, 18(4), 329–340. https://doi.org/10.1016/j.bir.2017.12.003

6. Vives, X. (2019). Digital disruption in banking. Annual Review of Financial Economics, 11, 243–272. https://doi.org/10.1146/annurev-financial-100719-120854

7. Zetzsche, D. A., Buckley, R. P., Arner, D. W., & Barberis, J. (2017). From FinTech to TechFin: The regulatory challenges of data-driven finance. New York University Journal of Law & Business, 14(2), 393–446.

8. World Bank. (2022). FinTech and the future of finance. Washington, DC: World Bank Group.

1. International Monetary Fund. (2022). *Digital financial services and financial inclusion*. Washington, DC: IMF.

2. Financial Stability Board. (2019). *FinTech and market structure in financial services: Market developments and potential financial stability implications*. Basel: FSB.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *O‘zbekiston bank tizimi rivojlanishi bo‘yicha yillik hisobot*. Toshkent.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi*. Toshkent.

5. OECD. (2020). *Digital disruption in financial markets*. Paris: OECD Publishing.

6. Gai, K., Qiu, M., & Sun, X. (2018). A survey on FinTech. *Journal of Network and Computer Applications, 103*, 262–273. https://doi.org/10.1016/j.jnca.2017.10.011

7. Thakor, A. V. (2020). FinTech and banking: What do we know? *Journal of Financial Intermediation, 41*, 100833. https://doi.org/10.1016/j.jfi.2019.100833

BANK FAOLIYATIDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Rajabova Umida Umurzoqovna
francheska50701@gmail.com
Xalqaro Nordik Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda bank faoliyatida moliyaviy texnologiyalarni joriy

etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularni takomillashtirish istiqbollari tadqiq etilgan. Tijorat banklarida raqamli xizmatlarni rivojlantirish, operatsion samaradorlikni oshirish hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashda moliyaviy texnologiyalarning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi institutsional omillar va ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy texnologiyalar, FinTech, tijorat banklari, raqamli bank xizmatlari, raqamli transformatsiya, bank innovatsiyalari, bank samaradorligi.

Asosiy qism

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi moliya-bank tizimida ham yangi rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Moliyaviy texnologiyalar (FinTech) bank xizmatlarini ko‘rsatishning an’anaviy usullarini zamonaviy raqamli platformalar bilan almashtirib, mijozlarga tezkor, qulay va xavfsiz xizmatlarni taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O‘zbekistonda ham bank tizimini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bank sektorida mobil banking, internet banking, elektron to‘lov tizimlari, masofaviy identifikatsiya va raqamli platformalarning joriy etilishi moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, banklar faoliyatida moliyaviy texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish bir qator omillarga bog‘liq. Jumladan, normativ-huquqiy bazaning takomillashganligi, raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, investitsion qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi va kadrlar salohiyati ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Moliyaviy texnologiyalarni joriy etish natijasida banklarda operatsion xarajatlar qisqaradi, xizmat ko‘rsatish tezligi ortadi, mijozlar bazasi kengayadi hamda daromadlilik darajasi oshadi. Bundan tashqari, moliyaviy inklyuziyaning rivojlanishi, aholi va biznes subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Tahlillar asosida moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari taklif etiladi:

– tijorat banklarida raqamli xizmatlar ekotizimini rivojlantirish;

– bank va texnologik kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish;

– raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish;

– kiberxavfsizlik tizimlarini takomillashtirish;

– innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish;

– moliyaviy texnologiyalar sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, moliyaviy texnologiyalar zamonaviy bank tizimining transformatsiyalashuvi va raqamli rivojlanishining asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bank xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi, mijozlar ehtiyojlarining o‘zgarishi hamda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi tijorat banklaridan innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan moliyaviy texnologiyalarni joriy etish banklarning operatsion samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va yangi bozor segmentlarini o‘zlashtirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, moliyaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonida nafaqat texnologik omillar, balki tashkiliy, iqtisodiy va institutsional omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Xususan, raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, normativ-huquqiy bazaning takomillashganligi, kiberxavfsizlik tizimining ishonchliligi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari va malakali kadrlar salohiyati moliyaviy texnologiyalarning samarali qo‘llanilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan “Moliyaviy texnologiyalarni joriy etishning qiymat yaratish zanjiri” modeli moliyaviy resurslar va texnologik imkoniyatlarning innovatsion bank xizmatlariga aylanishi natijasida mijozlar va banklar uchun qo‘shimcha qiymat yaratilishini ilmiy asoslab berdi. Modelga ko‘ra, moliyaviy texnologiyalar bank xizmatlarining tezkorligi, qulayligi va shaffofligini oshirish orqali mijozlar qoniqishi hamda sodiqligini kuchaytiradi. Natijada banklarning daromadliligi, moliyaviy barqarorligi va bozor ulushi ortadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishning uzoq muddatli natijalari sifatida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, moliyaviy inklyuziyaning kengayishi, innovatsion ekotizimning shakllanishi va jamiyat farovonligining oshishini ko‘rsatdi. Bu esa moliyaviy texnologiyalarni joriy etish faqatgina banklar faoliyatini takomillashtirish vositasi emas, balki mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtiruvchi strategik omil ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

a. Tijorat banklarida moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategik dasturlar ishlab chiqilishi hamda ularning amalga oshirilishi ustidan tizimli monitoring mexanizmlari shakllantirilishi lozim.

b. Banklar va texnologik kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish maqsadida innovatsion ekotizimlarni shakllantirish va qo‘shma loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish zarur.

c. Raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish, masofaviy bank xizmatlari imkoniyatlarini kengaytirish va elektron identifikatsiya tizimlarini takomillashtirish orqali moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

d. Moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq xatarlarni kamaytirish uchun kiberxavfsizlik tizimlarini kuchaytirish, ma’lumotlarni himoya qilish standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish va axborot xavfsizligi bo‘yicha nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

e. Bank tizimida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini muntazam oshirib borish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega.

f. Moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, venchur moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanishni kengaytirish va innovatsion startaplarni rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish lozim.

Umuman olganda, moliyaviy texnologiyalarni bank faoliyatiga keng joriy etish va ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish O‘zbekiston bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida PF–5992-son Farmon. Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF–6079-son Farmon. Toshkent.

3. Gomber, P., Koch, J. A., & Siering, M. (2017). Digital finance and FinTech: Current research and future research directions. Journal of Business Economics, 87(5), 537–580.

4. Lee, I., & Shin, Y. J. (2018). FinTech: Ecosystem, business models, investment decisions, and challenges. Business Horizons, 61(1), 35–46.

5. Mishkin, F. S. (2022). The Economics of Money, Banking and Financial Markets (13th ed.). Pearson.

O‘ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI TAHLILI

Yazdanov Mirjaxon G‘ayrat o‘g‘li
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar (EIH) va kichik sanoat zonalari (KSZ)ni tashkil etish hamda ularning faoliyatini takomillashtirishning moliyaviy-iqtisodiy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot 2020-2025-yillardagi rasmiy statistik ma’lumotlarga, normativ-huquqiy hujjatlarga va ilmiy manbalarga tayanadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari zonalar samaradorligidagi tizimli muammolarni ochib beradi va ularni hal etishning amaliy mexanizmlarini taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: erkin iqtisodiy hudud, kichik sanoat zonasi, investitsiya muhiti, imtiyozlar, eksport, infratuzilma, tabaqalashtirilgan tizim, hududiy rivojlanish.

Kirish

Hududlar iqtisodiyotini jadallashtirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda erkin iqtisodiy hududlar (EIH) hamda kichik sanoat zonalari (KSZ) jahon amaliyotida o‘zini oqlagan vositalardan biriga aylangan. Bugungi kunda dunyoda 4000 dan ortiq erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. Ularning bosh maqsadi sarmoyani jalb etib, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish orqali eksport salohiyatini oshirishdan iborat [1]. Xitoy ushbu modeldan foydalanib jahon fabrikasiga aylangani bu institutning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ushbu iqtisodiy model siyosati 2008-yildan boshlab izchil yo‘lga qo‘yilgan va so‘nggi yillarda tizimli tus oldi. 2025-yilda yalpi ichki mahsulot 7,7 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 6,8 foizga, eksport esa 24 foizga oshgan [2]. Mamlakat iqtisodiyoti barqaror o‘sayotgan bir sharoitda mazkur zonalarning iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishdagi roli yanada dolzarblashmoqda. “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan investitsiya jalb etish vazifalari aynan ana shu hududiy tuzilmalar zimmasiga muhim mas’uliyat yuklaydi.

Shu bilan birga, zonalar salohiyatidan to‘liq foydalanilmayotgani ham e’tirof etilgan. 2024-yilda 22 ta erkin iqtisodiy zonada ishlayotgan 589 ta korxona 42 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqargan bo‘lsa-da, ulardan atigi 18 foizi tashqi bozorga yo‘naltirilgan hamda 372 ta korxona umuman eksport qilmagan.

Ishlab chiqarilgan tovarlarning bor-yo‘g‘i 16 foizigina yuqori texnologiyali mahsulot bo‘lgan [3]. Bu raqamlar zonalarni tashkil etish va takomillashtirish masalasini ilmiy jihatdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi EIH va KSZ faoliyatining hozirgi holatini baholash hamda ularni moliyaviy-iqtisodiy jihatdan takomillashtirishning asoslangan yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Erkin iqtisodiy hududlar va kichik sanoat zonalarining nazariy-konseptual asoslari xorijiy iqtisodchilar tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, T.Farole erkin iqtisodiy zonalarni kapital harakati bilan bog'liq investitsion jarayonlarni rivojlantiruvchi va qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantiruvchi hudud sifatida talqin qilsa, D.Zeng zonalarning tarixiy evolyutsiyasi va global iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilgan. D.Musolino va B.Kotosz hududlarning xalqaro miqyosdagi jozibadorlik indeksini ishlab chiqib, sarmoya oqimini belgilovchi omillarni tizimlashtirgan. Bu tadqiqotlar zonalarni shunchaki imtiyozli maydon emas, balki eksportbop ishlab chiqarish va texnologiyalar transferining institutsional vositasi sifatida ko'rib chiqish lozimligini asoslaydi.

Mahalliy ilmiy maktab vakillari masalaning O‘zbekiston amaliyotiga oid jihatlarini tadqiq etgan. S.Gulyamov, A.Vahabov, N.Muminov va N.Haydarovlar investitsiya muhitining ilmiy-nazariy asoslarini, J.Karimqulov, S.Mirzaliyeva va M.Raimjanovalar erkin iqtisodiy hududlar orqali xorijiy sarmoyalarni jalb qilish yo‘nalishlarini o‘rgangan. Sh.Mustafaqulov investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini, K.Tursunov va N.Rajabovlar uni boshqarishni takomillashtirishni, B.Valiev esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishning metodologik asoslarini ishlab chiqqan. So‘nggi yillarda D.Farmonov kabi tadqiqotchilar kichik sanoat zonalari rivojlanishining hozirgi holatini statistik jihatdan tahlil qilib, ularning hududiy ishlab chiqarishdagi o‘sib borayotgan ulushini asoslagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot aralash sifat va miqdoriy yondashuvga asoslanadi. Birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili usuli qo‘llanildi. 2020-yil 17-fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-604-son Qonun hamda 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmon kabi hujjatlar zonal siyosatning huquqiy bazasi nuqtai nazaridan o‘rganildi [4]. Ikkinchidan, statistik tahlil va dinamik qatorlar usuli orqali Milliy statistika qo‘mitasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda hududiy zonalar direksiyalarining 2020-2025-yillardagi ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Uchinchidan, qiyosiy (komparativ) tahlil usuli yordamida

Turkiya, Polsha, Xitoy va Armaniston tajribasi O‘zbekiston amaliyoti bilan solishtirildi [5]. To‘rtinchidan, investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi (IPI) va ulardan foydalanish samaradorligi indeksi (IEI) kabi koeffitsiyentlardan hududning investitsion jozibadorligini baholashda foydalanildi [5]. Tahlil yakunida induksiya va deduksiya, tizimlashtirish hamda muammo-yechim mexanizmini shakllantirish usullari qo‘llanildi.

Muhokama va natijalar

Statistik ma’lumotlar tahlili zonalar tarmog‘ining miqdoran kengayganini, ammo sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ortda qolayotganini ko‘rsatadi. 2025-yil 1-iyul holatiga ko‘ra mamlakatda maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlardagi ishtirokchilar soni 7 513 taga yetgan [6]. 2024-yil 1-iyul holatida esa 24 ta maxsus iqtisodiy zona, 400 ta kichik sanoat zonasi va 22 ta texnopark faoliyat yuritgan. Ulardagi korxonalar soni mos ravishda 959, 3 069 va 2 172 tani tashkil etgan [7]. Kichik sanoat zonalarining ishlab chiqarish hajmi 2019-yildagi 2 516,5 milliard so‘mdan 2023-yilda 9 505,6 milliard so‘mga, ya’ni qariyb to‘rt baravarga ko‘paygani bu institutning hududiy ishlab chiqarishni jonlantirishdagi salohiyatini tasdiqlaydi [8].

Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati ko‘rsatkichlari dinamikasi (2020-2024)

Hudud	Tavsifi	Invistitsiya hajmi	Imtiyoz muddati
AA	Qulay infratuzilma va joylashuv, faol rivojlangan markaziy hududlar	3-5 mln dollar	2 yilgacha
BB	Nisbatan sekin rivojlanayotgan, moliyaviy resurs talab etadigan oraliq hududlar	3-5 mln dollar	3 yilgacha
CC	Markazdan uzoq, ishsizlik yuqori,	1-3 mln dollar	6 yilgacha +

Hudud	Tavsifi	Invistitsiya hajmi	Imtiyoz muddati
	infratuzilma talab etadigan hududlar		reinvestitsiya

Jadval ma’lumotlari ikki yo‘nalishdagi tendensiyani aniq ko‘rsatadi. Bir tomondan, jalb etilgan investitsiyalar 2020-yildagi 4 086,1 milliard so‘mdan 2024-yilda 9 140,1 milliard so‘mga, ishlab chiqarish hajmi esa 11 902,4 milliard so‘mdan 42 000,1 milliard so‘mga ko‘tarilgan [5]. Boshqa tomondan, zonalar respublika sanoat ishlab chiqarishining 10 foizigacha bo‘lgan ulushini ham qoplay olmagan, ish o‘rinlari soni yildan-yilga beqaror bo‘lib qolgan, eksport ulushi esa respublika miqyosida 0,2 foiz atrofida turg‘unlashgan [3], [5]. Bu zonalar ko‘proq ichki bozorga ishlayotgani, ya’ni dastlabki maqsad eksportbop ishlab chiqarishdan og‘ib ketganini bildiradi.

Davlat siyosatidagi muhim burilish 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmon bo‘ldi. Unda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat muddatiga oid cheklovlar bekor qilindi, yangi zonalar faqat infratuzilmasi mavjud yoki moliyaviy asoslangan biznes-reja hamda master-reja asosida tashkil etiladigan bo‘ldi, investorlarga yer uchastkalari 49 yilgacha ijaraga berish imkoni joriy etildi [4]. Farmon bilan 2025-yil uchun maxsus iqtisodiy zonalarda 2,3 milliard dollar investitsiya o‘zlashtirish, 1 milliard dollar eksport va 12 ming ish o‘rni, sanoat zonalarida esa 800 million dollar investitsiya, 512,2 million dollar eksport va 17 ming ish o‘rni yaratish maqsadli ko‘rsatkichlari belgilandi [9]. Bundan tashqari, loyihalarni ko‘rib chiqadigan Ma’muriy kengash tarkibi 17 ta vazirlik va idoradan 4 taga qisqartirildi. Farmatsevtika yo‘nalishidagi 7 ta yangi erkin iqtisodiy zona tashkil etish boshlandi. KSZlardagi 248 loyiha doirasida 11 ming yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirildi [10].



1-rasm. Kichik sanoat zonalarini boshqarishni takomillashtirish va investitsiya jalb qilish mexanizmi

Ushbu model boshqaruvni soddalashtirib, byurokratik to‘siqlarni kamaytirishga qaratilgan. Polsha tajribasida ham aynan davlat organlarining tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvi minimumga keltirilgani zonalarning samaradorligini oshirgan [5].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi zonalarning asosiy muammosi miqdorda emas, balki sifat va boshqaruvda. Birinchi tizimli kamchilik imtiyozlarning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi. Foydalanilgan bojxona imtiyozlarining qariyb 80 foizi yagona zona (“Urgut” EIZ) hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu boshqa hududlarning salohiyatidan foydalanilmayotganini bildiradi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi amaliy mexanizmlar asoslanadi. Avvalo, imtiyozlarni hududning geografik joylashuvi va iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab uch toifaga (“A”, “B”, “C”) bo‘lib, tabaqalashtirilgan tizimda taqdim etish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e’tibor markazdan uzoq, infratuzilmasi zaif “C” hududlariga qaratiladi (2-jadval). Bu yondashuv zonalarni shunchaki “imtiyoz olish vositasi”ga aylanib qolishining oldini oladi.

2-jadval

Hududlar toifasi bo‘yicha soliq imtiyozlarini tabaqalashtirilgan qo‘llash

Hudud	Tavsifi	Investitsiya hajmi	Imtiyoz muddati
A	Qulay infratuzilma va	3 -5 mln	2 yilgacha

Hudud	Tavsifi	Investitsiya hajmi	Imtiyoz muddati
	joylashuv, faol rivojlangan markaziy hududlar	dollar	
B	Nisbatan sekin rivojlanayotgan, moliyaviy resurs talab etadigan oraliq hududlar	3-5 mln dollar	3 yilgacha
C	Markazdan uzoq, ishsizlik yuqori, infratuzilma talab etadigan hududlar	1-3 mln dollar	6 yilgacha + reinvestitsiya

Zonaning investitsion jozibadorligini baholashda bojxona imtiyozidan foydalanib tayyorlangan mahsulotlarning kamida 10 foizini eksport qilish talabini joriy etish tavsiya etiladi. Bu mezon imtiyozni real eksport natijasiga bog‘laydi va “Urgut” misolidagidek bir tomonlama imtiyoz iste’molining oldini oladi. Infratuzilma muammosi tizimli yechim talab etadi. Yer maydonlari faqat to‘liq muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlangandan so‘ng ajratilishi, investorlarga esa tarmoqlarni o‘z mablag‘i hisobidan qurib, xarajatni kelgusi soliq tushumlaridan qoplash huquqi berilishi lozim. Ekonometrik tahlil bu yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi: fiskal siyosat modeliga ko‘ra, bojxona imtiyozlari 1 foizga oshganda investitsiyalar hajmi o‘rtacha 0,47 foizga, soliq imtiyozlari ta’sirida esa 0,32 foizga ortadi. Bu davlat tomonidagi fiskal rag‘batlantirishning zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa

O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar va kichik sanoat zonalari tarmog‘i so‘nggi besh yilda sezilarli kengaydi va hududiy ishlab chiqarishni jonlantirishda muhim rol o‘ynadi. Mazkur tezisda asoslangan tabaqalashtirilgan imtiyozlar

tizimi, eksport mezonining joriy etilishi, infratuzilmani moliyalashtirishning yangi tartibi va boshqaruvni birlashtirish mexanizmi zonalarning investitsion jozibadorligini oshirib, ularni imtiyoz olish vositasidan haqiqiy iqtisodiy o‘sish drayveriga aylantirish haqida amaliy takliflar ilgari surilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2017. – 152 p. URL: documents.worldbank.org/curated/en/316931512640011812.

2. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati raqamlarda (2025-yil). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2026. URL: stat.uz.

3. Investitsiyalarni jalb etish va eksportni oshirishga oid videoselektor yig‘ilishi materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati, 2025-yil 16-yanvar. URL: president.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmoni. – Toshkent, 2025. URL: lex.uz/docs/-7420262.

5. Умирзоқов Ж.А. Махсус иқтисодий зоналарда инвестиция муҳити жозибадорлигини баҳолаш методологияси: и.ф.д. (DSc) дисс. автореферати. – Тошкент: ТДИУ, 2025. – 85 б.

6. Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlar ishtirokchilari soni (2025-yil 1-iyul holatiga). – Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi, 2025. URL: stat.uz.

7. O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zona, texnopark va klasterlar faoliyati (2024-yil 1-iyul holatiga). – Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi, 2024. URL: stat.uz.

8. Farmonov D.D. Kichik sanoat zonalari rivojlanishining hozirgi holati va tahlili // International Journal of Science and Technology. – 2025. – Vol. 02, No. 05. – B. 4–

9. O‘zbekistondagi maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyat ko‘rsatish muddatiga oid cheklovlar bekor qilinadi // Gazeta.uz. – 2025-yil 6-mart. URL: gazeta.uz/oz/2025/03/06/limitless.

10. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati, 2025. URL: president.uz/oz/lists/view/1113.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ЭКОНОМИЧЕСКОМУ АНАЛИЗУ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Назарова Гулчехра Нурмухамбетовна
независимый соискатель Ташкентского государственного университета

Аннотация. В статье исследованы теоретико-методологические основы оценки устойчивости, эффективности и конкурентоспособности субъектов электронной коммерции в условиях цифровой экономики. Обоснована необходимость применения системного и междисциплинарного подходов к анализу деятельности компаний электронной коммерции с учетом особенностей цифровой среды, клиентского поведения и трансформации бизнес-процессов. Разработана методология комплексной оценки устойчивости и эффективности субъектов электронной коммерции, основанная на интеграции финансовых, операционных, логистических и клиентских показателей. Предложена модель системного управления инновационным развитием и мониторинга складских и операционных процессов, позволяющая повысить качество управленческих решений, обеспечить устойчивое развитие бизнеса и формирование долгосрочных конкурентных преимуществ. Сделан вывод о том, что использование современных аналитических инструментов и системного подхода способствует повышению эффективности функционирования субъектов электронной коммерции в условиях цифровой трансформации экономики.

Ключевые слова: электронная коммерция, цифровая экономика, конкурентоспособность, устойчивое развитие, системный подход, эффективность бизнеса.

В условиях современной цифровой экономики и цифровой трансформации экономики служит причиной инициального изменения методов ведения бизнеса и структуру конкурентной борьбы. Как уже было отмечено, интенсивное развития коммуникационной системы и глобальной системы послужило своего рада катализатором развития электронной коммерции. Своеобразность электронной коммерции заключается в масштабном использовании обмена электронного характера между субъектами торговых операции в глобальной сети интернет. Одним из определении электронная коммерция концентрирует в себя совокупность отношении между субъектами рынка и торговых отношении, которая осуществляется посредствам компьютеров, объеденных в единую систему в

результате которого происходит транзакции коммерческого типа и передача прав собственности на товары и услуги, в которых расчет преимущественно производится с помощью электронных платежных систем.

Влияние электронной коммерции за последние пару десятков лет подтверждается его интенсивным быстрым ростом и масштабным развитием. По статистическим данным ЮНКТАД суммарный объем электронной коммерции по всем сегментам рынка составляет более 27 триллионов долларов, что в свою очередь равно почти более чем 30 процентов Валового внутреннего продукта мира.

Подобного рада масштабирования ставит острым задачи развития научных подходов по всестороннему изучению, особенно разработки и изучению новых видов экономического анализа с сфере электронной коммерции, включающие современные подходы и методы прогнозирования развития рынка электронной коммерции в условиях интенсивности и неопределенности рыночной среды и концентрированной жесткой конкуренции.

В условиях интенсификации цифровой экономики, экономический анализ и оценка показателей электронной коммерции требует инициального нового подхода, расширения и переосмысления фундаментальных подходов, применяемых в оценке и исследования конкурентных преимуществ и конкурентоспособности субъектов бизнеса.

Такая тенденция обтянется тем, то электронная коммерция не является лишь элементов или звеном нового канала реализации товаров и услуг, а олицетворяет собой систему комплексного, институционально-технологическую среду, в которой трансформируется цепочка формирования стоимости, логика конкуренции и конкурентных преимуществ, состав затрат и модели поведения субъектов рынка.

В связи с этим оценка методологического характера систем электронной коммерции должны быть основано на системном, междисциплинарным и многоуровневым подходе, концентрирующие инструменты классического и новой экономики.

Финансовая устойчивость предприятий электронной коммерции

$$ROI = + \frac{P_n}{K_{inv}} * 100\ \%$$

где:
Pn–чистая прибыль (net profit);;
Kinv–инвестированный капитал (invested capital);

Интегральная методика оценка клиентской удовлетворенности

$$I_{cl} = [\text{NPS} + \text{CSAT} * \frac{\text{CR}}{100} * \frac{RR}{100} * (1 - \frac{CAR}{100}) * \frac{AOV}{AOV_{ref}} * \frac{CLV}{CLV_{ref}}]$$

Где
I_{cl} – интегральный индекс удовлетворенности и лояльности клиентов
NPS- индекс лояльности клиентов
CSAT- индекс удовлетворенности клиентов сервисов и качеством обслуживания
CR- коэффициент конверсии по
RR- коэффициент возврата клиентов
AOV- средний чек
AOV_{ref}- эталонное значение среднего чека
CLV- пожизненная ценность клиентов
CLV_{ref}- эталонное значение пожизненной ценности клиентов

Интегральная методика устойчивости и эффективности электронной коммерции

$$E_{EC} = \frac{GMV * M * CR * RR}{CAC * (1 + \frac{R_{et}}{100}) * (1 + \frac{CAR}{100})}$$

где:
E_{EC}- интегральный показатель эффективности ЭК
GMV- валовой товарооборот
M-маржинальность
CR- конверсия (в долях. Ед)
RR- коэффициент повторных покупок / возврата клиентов (в долях единицы, например, 0,40);
CAC- стоимость привлечения одного клиента
R_{et}- доля возврата товаров
CAR- дол брошенных корзин

Показатель клиентского опыта

$$K_{ce} = \frac{(\text{CSAT} + NPS + R_{et} + (1 - \text{CAR}) + \text{CR})}{N} * 100$$

где:
CSAT – уровень удовлетворенности клиентов;
NPS – индекс потребительской лояльности;
R_{et} – коэффициент удерживания клиентов;
CAR – доля брошенных корзин.
CR- коэффициент конверсии
N – количество показателей

Рисунок 1. Методология оценки устойчивости и эффективности компаний электронной коммерции[1]

Разработанная в ходе диссертационного исследования методология оценки устойчивости
эффективности компаний электронной коммерции разработана на основе системного подхода и концентрирует в себя единую аналитическую конструкцию, таких как операционные, клиентские и финансовые показатели. Данная методология позволяет комплексно анализировать эффективность деятельности электронной коммерции и компаний функционирующие на основе модели электронной торговли с учетом взаимосвязи экономической результативности, качество клиентского опыта и эффективном использовании ресурсов. Разработанная и предложенная методология концентрирует в себя цифровую природу электронной торговли и центральную роль потребителя как основного источника дохода и устойчивого роста компаний. Тогда как трационные методы финансового анализа ориентируются на рентабельность и показатели прибыльности, разработанная нами методология позволяет оценивать показатели цифровой торговли и ставит в центр внимания клиентов и поведения потребителей как важнейший инструмент достижения конкурентоспособности и устойчивости бизнеса.

Важно отметить, что в основе разработанной методологии взят системный подход, как это было уже отмечено. Системный подход, в пределах которого анализируется показатели электронной коммерции рассматривается как целостная система, концентрирующая в себе цифровую инфраструктуру, транзакционно-финансовые механизмы, систему логистики, маркетинговые инструменты, потоки информации и институциональную основу. В подобном случаи, экономический анализ имеет направления не только на отдельные показатели эффективности, но и на установления и выявления тесноты связи между отдельными элементами системы, отражающие устойчивость и целостность электронной коммерции.

Важным является то, что системный подход позволяет рассматривать электронную коммерцию как динамическую экосистему, в которой изминения одного элемента влияет на всю цепочку создания ценности.

[1] Разработано автором

Важность данной модели обусловлено функционированием электронной коммерции в условиях непрерывной технологической трансформации, ростом конкурентного давления, постоянным повышением требований со стороны потребителей и сложности институционального регулирования окружающей среды, которая требует учета комплексного характера как внутренних, так и внешних факторных аспектов развития субъектов бизнеса.

В представленной модели ключевым исходным аспектом является взаимосвязь как внутренних, так и внешних факторных аспектов электронной коммерции, лежащих в основе субъектов электронной коммерции. Важно акцентировать, что внутренняя среда концентрирует важнейшие ресурсы компании как фактор, формирующий устойчивое конкурентное преимущество, а конкретно, финансовые ресурсы, инфраструктуру цифрового характера, персонал и инструменты аналитики информации.

Представленные составные определяют уровень потенциала электронной коммерции в субъектах предпринимательство, способность адаптации к динамике внешней среды, способности масштабировать и потенциала внедрения цифровых технологии и принятия управленческих решении в условиях конкурентной борьбы.

Второй аспект, внешняя среда обусловлено с конкурентной средой и способностью бизнеса устоять перед конкурентами, регулированием со стороны государство, уровнем технологического развития, поведением, количественным и качественным составом потребительского спроса, которые в свою очередь косвенно или прямо влияют на стратегического и операционное решения принимающих в субъектах электронной коммерции.

Важно отметить, что ядром представленной модели является система обеспечения устойчивого развития и обеспечения конкурентоспособности субъектов электронной коммерции, дающая возможность интеграции влияния внутренних ресурсов и внешних факторов в единую систему, тем самым дающая возможность эффект синергии. Данная тенденция создает единый контур управленческой системы электронной коммерции.

Основной смысл представленной модели ориентирован на сбалансированное развития электронной коммерции по средствам консолидации стратегических целей, ресурсного потенциала и рыночной конъюнктуры.

Своеобразность разработанной и представленной модели заключается в ее направленности не только на достижения краткосрочных финансово-экономических результатов, но и в обеспечении стратегической устойчивости субъектов бизнеса в условиях цифровой трансформации.

Представленная модель реализуется и функционирует через консолидированную совокупность процессов обеспечения устойчивости и конкурентоспособности электронной коммерции, концентрирующая в себя глубокий анализ, прогнозирование динамику рыночной конъюнктуры, оптимизации процессов конверсии, удержания клиентов, а также роста операционной маневренности и качество не только оказываемых услуг но операционных процессов в субъектах бизнеса сферы электронной коммерции. Процесс анализа и масштабное прогнозирование динамики рыночной конъюнктуры создают возможность своевременно определять динамику изменения спроса, угроз конкурентов и технологические трансформации. Действия по оптимизации конверсии и удержания клиентов направленно на рост эффективного взаимодействия с потребителями и повышения пожизненной ценности клиентов. Процедуры по повышении операционной эффективности и качества снижения затрат, улучшения системы логистики и повышения надежности цифровых серверов тоже являются ключевым составным данной модели, которые в свою очередь играют централью роль в достижении устойчивости в конкурентной борьбе.

Эффектом функционирования представленной модели заключается в достижении высокой эффективности, конкурентоспособности и устойчивого развития бизнес-субъектов электронной коммерции, которые отражаются через специфическую систему показателей. Ядром эффективности отражается через достижения высоких финансовых показателей, конкурентоспособность в свою очередь через маркетинговые и логистические показатели, устойчивость бизнеса посредствам инфраструктурных и характеру операционных процессов. Комплексность модели дает возможность обеспечить консолидацию отмеченных результатов и формировать устойчивую бизнес-модель электронной коммерции, адаптированная к условиям интенсивной цифровой экономики.

Следует отметить, что предложенная модель обеспечивает методологическую основу для комплекции оценки управления устойчивости, а также конкурентоспособности бизнес-субъектов электронной коммерции, основывающая на специфику цифровых рынков, роль клиентского опыта и важности интеграции стратегических, ресурсно-

операционных элементов развития бизнеса.

Представленная модель предполагает трансформацию от концептуального уровня к формированию количественной инструментарий оценки устойчивости и конкурентоспособности субъектов электронной коммерции. В этом аспекте центр внимания смешается на разработке систем показателей и интегральных индексов, позволяющие адекватно оценить и измерить результаты функционирования электронной коммерции и бизнес-субъектов данной сферы, определить влияния ключевых факторов внутренней и внешней среды на их развития.

Учитывая структуру модели процесс оценки устойчивости и конкурентоспособности электронной коммерции должно осуществляется комплексно.

Разработанная модель выражает методологический и системный подход дающий возможность обеспечивать устойчивость и конкурентоспособности субъектов бизнеса электронной коммерции. Данная модель основана на принципах сбалансированного развития важнейших ключевых факторов и функциональных контуров деятельности системы электронной коммерции.

Целевой установкой представленной модели является обеспечения устойчивости бизнеса перед конкурентами и формирования устойчивых конкурентных преимуществ субъектов электронной коммерции, что обуславливает достижения не только краткосрочных результатов, но формирования долгосрочных конкурентных преимуществ в неопределенной рыночной конъюнктуре.



Рисунок 2. Поэтапная модель системного управления инновационным развитием субъектов электронной коммерции[2]

В организации электронной коммерции применения системного подхода предполагает рассмотрения электронной коммерции как целостной системы включающая как социальные так экономические аспекты, основанная на взаимосвязи технологических, организационных, рыночных и финансовых элементов, которые функционируют как единая система в едином направлении.

Применения данного подхода позволяет перефокусировать центр внимания на электронную коммерцию как единую систему, действующих строго по координации между собой для достижения стратегических целей.

[2] Составлено автором



Рисунок 3 Система мониторинга складских и операционных показателей субъектов электронной коммерции[3]

Система показателей приведенные на рисунке 2.4. показывают комплексный подход к мониторингу и управлению складским и операционными процессами бизнес-субъектов электронной коммерции, направленных на повышения эффективности логистической системы, сокращению операционных издержек и обеспечения быстроты и устойчивости выполнения заказов совершенных по средствам онлайн торговли.

Взаимная связь по использованию данных по наличии остатков товара, качественного и количественного состояния заказов, мощности и ёмкости складских помещений, производительности труда персонала позволяет формировать целостное единое представление о текущем состоянии операционных процессов и деятельности позволяя определить слабые узкие места в цепи исполнения обязательств по заказам.

[3] Составлено автором

Процесс анализа остатка товаров по сегментам категории служат основой для принятия управленческих решений связанная с товарной политикой и управления запасами бизнес-субъектов. Данные по остаткам объема складских запасов, скорость оборачиваемости запасов и доля неликвидных товаров дают возможность оценить уровень соответствия складских запасов к реальному спросу, также оценить эффективность использования оборотного капитала в системе электронной коммерции. Такие показатели непосредственно влияют на состояние ликвидности и финансовой устойчивости бизнес-субъектов электронной коммерции.

Процесс мониторинга остатков продукции в сегменте неотработанных заказов позволяют установить контроль за состоянием выполнения клиентских обязательств и дают возможность оценить уровень синхронизации складских и сбытовых процессов.

По результатам проведенного анализа методологической основы электронной коммерции, важно отметить, что изучение электронной коммерции в условиях интенсификации цифровых систем и цифровой экономики требует междисциплинарного и многоуровневого подхода, что обусловлено спецификой системы электронной коммерции. Передовой опыт в системе электронной коммерции предлагает богатый арсенал современных концепции, начиная от системного, процессного в плоть до институционального подхода.

Систематизация данных подходов имеет не только научно-методологическое, но и прикладное значения, позволяющая связать фундаментальные, академические исследования с практическими прикладными задачами направленных на повышения конкурентоспособности субъектов бизнеса. Умелое использования методологии к анализу электронной коммерции даст возможность определять точки и резервы роста эффективности, формировать конкуретоориентированные стратегии для субъектов бизнеса, обосновывать меры государственной политики в сфере электронной коммерции.

По результат использования потенциал электронной коммерции на основе научно-обоснованных подходах получат существенное конкурентное преимущество.

Список использованной литературы

1. Турбан Э., Кинг Д., Ли Дж., Лян Т.-П., Тюрбан Д. Электронная коммерция: стратегия, технологии и управление. – СПб.: Питер, 2021. – 912 с.

1. Laudon K.C., Traver C.G. E-Commerce: Business, Technology, Society. – 19th ed. – New York: Pearson, 2024. – 912 p.
2. Chaffey D. Digital Business and E-Commerce Management. – 8th ed. – Harlow: Pearson Education, 2022. – 664 p.
3. Шапиро К., Вариан Х. Информационные правила. Стратегическое руководство для сетевой экономики. – М.: Альпина Паблишер, 2009. – 352 с.
4. Каплан Р., Нортон Д. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию. – М.: Олимп-Бизнес, 2020. – 320 с.
5. Портер М. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. – М.: Альпина Паблишер, 2022. – 715 с.
6. OECD. Digital Economy Outlook 2024. – Paris: OECD Publishing, 2024.
7. UNCTAD. Digital Economy Report 2024. – Geneva: United Nations, 2024.
8. World Bank. Digital Development Overview 2024. – Washington, D.C.: World Bank, 2024.
9. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1996. – 342 p.
10. Davenport T.H., Harris J.G. Competing on Analytics: The New Science of Winning. – Boston: Harvard Business Review Press, 2017. – 240 p.
11. Kalakota R., Robinson M. E-Business 2.0: Roadmap for Success. – Boston: Addison-Wesley, 2001. – 520 p.

AGRAR SEKTORDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMIDA SUG‘URTANING IQTISODIY AHAMIYATI

Xolmuratov Bekzod Dilshod o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi
orcid.org/0009-0002-3165-611X

Annotatsiya. Mazkur maqolada agrar sektorda risklarni boshqarish tizimida sug‘urtaning iqtisodiy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida qishloq xo‘jaligida uchraydigan tabiiy-iqlimiy, moliyaviy, ishlab chiqarish, bozor va institutsional risklarning xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta'siri o‘rganildi. Shuningdek, agrar sug‘urtaning ushbu risklarni kamaytirishdagi o‘rni, fermer xo‘jaliklari daromadlarini barqarorlashtirish, investitsion faollikni oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi iqtisodiy samaradorligi baholandi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida agrar sug‘urta tizimining amaldagi holati tahlil qilinib,

rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyosiy baholash amalga oshirildi. Xususan, AQSH, Turkiya, Ispaniya va Xitoy davlatlarida qo‘llanilayotgan davlat-xususiy sheriklik asosidagi sug‘urta mexanizmlari, indeksli sug‘urta, qayta sug‘urtalash hamda raqamli texnologiyalar asosida risklarni boshqarish tizimlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, agrar sug‘urtani rivojlantirish nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, balki investitsion jozibadorlikni oshirish, bank kreditlari xavfini kamaytirish hamda qishloq xo‘jaligida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu asosda agrar sug‘urta tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: agrar sektor, risk, risklarni boshqarish, sug‘urta, agrar sug‘urta, indeksli sug‘urta, fermer xo‘jaligi, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy barqarorlik, investitsiya.

Abstract. This article examines the economic importance of insurance in the agricultural risk management system. The study analyzes the impact of climatic, production, financial, market, and institutional risks on agricultural producers and evaluates the role of agricultural insurance in mitigating these risks. The paper also assesses the contribution of insurance to stabilizing farmers' incomes, increasing investment activity, and ensuring food security. The current state of agricultural insurance in Uzbekistan is analyzed and compared with international experience, particularly the insurance systems implemented in the United States, Türkiye, Spain, and China. Special attention is paid to index-based insurance, public-private partnership mechanisms, reinsurance systems, and digital technologies in agricultural risk management.

The findings indicate that agricultural insurance significantly enhances financial resilience, reduces credit risks, increases investment attractiveness, and supports sustainable agricultural development. Based on the obtained results, several scientific and practical recommendations are proposed to improve the agricultural insurance system.

Keywords: agricultural sector, risk management, agricultural insurance, financial stability, farmers, investment, index insurance, economic efficiency.

Turizm infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini baholashda uchta daraja ajratildi: mikro daraja — alohida infratuzilma obyektining daromadliligi va quvvatdan foydalanishi; mezo daraja — hududda xizmatlar hajmi, bandlik, tadbirkorlik va mahalliy daromadlarning o‘sishi; makro daraja — turizm tarmoqlarida yalpi qo‘shilgan qiymat va ichki turizm iste’molining o‘zgarishi. Maqolada asosan mezo va makro darajadagi rasmiy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi.

Investitsiya samaradorligini baholash uchun nazariy jihatdan quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish taklif qilindi: (1) iqtisodiy qaytuvchanlik koeffitsiyenti — infratuzilma investitsiyasi natijasida yaratilgan qo‘shimcha yalpi qo‘shilgan qiymatning investitsiya hajmiga nisbati; (2) bandlik samaradorligi — yaratilgan yangi ish o‘rinlarining investitsiya birligiga nisbati; (3) quvvatdan foydalanish koeffitsiyenti — joylashtirish vositalarida band qilingan o‘rin-kunlarning mavjud o‘rin-kunlarga nisbati; (4) hududiy multiplikator — turistik xarajatlar hisobiga turizmga tutash tarmoqlarda hosil bo‘lgan qo‘shimcha daromadning dastlabki turistik xarajatga nisbati. Shartli ravishda iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti $E = \Delta Y / I$ ko‘rinishida ifodalanishi mumkin. Bu yerda ΔY — infratuzilma loyihasi amalga oshirilgandan keyin hududda yaratilgan qo‘shimcha iqtisodiy natija, I — infratuzilmaga kiritilgan investitsiya. Biroq mavjud ochiq statistikada investitsiya va natija bir xil hudud, bir xil loyiha va bir xil davr kesimida to‘liq bog‘lanmaganligi sababli maqolada to‘g‘ridan-to‘g‘ri ROI hisoblanmadi. Buning o‘rniga sektordagi natijaviy ko‘rsatkichlarning dinamikasi va infratuzilma kengayishi o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlik ehtiyotkorlik bilan talqin qilindi.

Turizm tarmoqlarining yalpi qo‘shilgan qiymati barcha turizm turlarini qamrab olishi, ichki turizm infratuzilmasi esa mazkur natijaning faqat bir qismini shakllantirishi tadqiqotning muhim cheklovidir. Shu sababli statistik natijalar ichki turizm infratuzilmasining mutlaq ta’siri sifatida emas, balki hududiy turizm ekotizimining umumiy iqtisodiy faolligi sifatida baholandi.

NATIJALAR

1. Joylashtirish infratuzilmasining kengayishi

Hududlarda ichki turizmning rivojlanishi uchun eng asosiy infratuzilma elementlaridan biri joylashtirish vositalaridir. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonda 566 ta yakka tartibdagi va boshqa joylashtirish vositasi faoliyat yuritgan. Bu 2023-yildagi 418 ta obyektga nisbatan 35,4 foiz ko‘pdir. Xonalar soni 15,7 foizga, o‘rinlar soni 7,2 foizga, ushbu obyektlarda joylashtirilgan shaxslar soni esa 7,4 foizga oshgan [5].

1-jadval. Yakka tartibdagi va boshqa joylashtirish vositalarining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2023	2024	O‘sish, %
Joylashtirish vositalari, birlik	418	566	35,4
Xonalar soni, birlik	3944	4564	15,7
O‘rinlar soni, birlik	11666	12511	7,2
Joylashtirilgan shaxslar, ming kishi	563,3	605,0	7,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi [5].

Jadvaldan ko‘rinadiki, obyektlar sonining o‘sish sur’ati o‘rinlar soni va mijozlar oqimidan ancha yuqori. Bu yangi infratuzilma, ayniqsa kichik joylashtirish obyektlari va oilaviy mehmon uylarining ko‘payayotganini bildiradi. Shu bilan birga, kelgusida samaradorlikni oshirish uchun faqat yangi obyektlarni ishga tushirish emas, balki mavjud quvvatlarning yuklanish darajasini oshirish ham muhim. Hisob-kitobga ko‘ra, joylashtirilgan shaxslar

sonining mavjud o‘rinlar soniga oddiy nisbati 2023-yilda 48,3, 2024-yilda 48,4 kishini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich real bandlik koeffitsiyenti emas, chunki tunash kunlari haqidagi ma’lumotni talab qiladi, ammo quvvat kengayishi bilan mijozlar oqimi deyarli bir xil sur’atda o‘sganini ko‘rsatadi.

2. Turizm tarmoqlarida yaratilgan qo‘shilgan qiymat va bandlik

Turizm infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligi hududlarda yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat va bandlik ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi. Turizm yordamchi hisobi ma’lumotlariga ko‘ra, turizm tarmoqlarida jami yalpi qo‘shilgan qiymat 2023-yildagi 113,17 trln so‘mdan 2024-yilda 141,69 trln so‘mga yetgan, ya’ni nominal hisobda 25,2 foizga o‘sgan [6]. Shu davrda turizm tarmoqlaridagi yuridik shaxslarda band bo‘lgan xodimlar soni 215,7 ming kishidan 249,8 ming kishiga yoki 15,8 foizga oshgan [7].

2-jadval. Turizm tarmoqlarida iqtisodiy natija va bandlik dinamikasi

Ko‘rsatkich	2023	2024	O‘sish, %
Yalpi qo‘shilgan qiymat, trln so‘m	113,17	141,69	25,2
Band xodimlar, ming kishi	215,7	249,8	15,8
Bir xodimga YQQ, mln so‘m	524,7	567,3	8,1

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari [6; 7] asosida muallif hisob-kitoblari.

Bir xodimga to‘g‘ri keladigan yalpi qo‘shilgan qiymatning 524,7 mln so‘mdan 567,3 mln so‘mga oshishi nominal mehnat unumdorligi taxminan 8,1 foizga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Mazkur natijani real unumdorlik o‘sishi sifatida to‘liq talqin qilish uchun narxlar ta’sirini chiqarib tashlash talab etiladi. Shunga qaramay, xizmatlar ko‘lami va bandlikning bir vaqtda kengayishi turizm infratuzilmasining iqtisodiy faollikni rag‘batlantirayotganini ko‘rsatuvchi muhim indikator hisoblanadi.

Tarmoqlar kesimida 2024-yilda umumiy ovqatlanish xizmatlarida 93,7 ming, joylashtirish xizmatlarida 69,0 ming, madaniy xizmatlarda 17,8 ming, sport va rekreatsion xizmatlarda 18,7 ming kishi yuridik shaxslar tarkibida band bo‘lgan. Sayohat agentliklari va bron qilish xizmatlaridagi bandlik 2023-yildagi 4,2 ming kishidan 2024-yilda 9,9 ming kishiga oshgan [8]. Bu turizm infratuzilmasining jismoniy obyektlardan tashqari tashkiliy va servis infratuzilmasini ham kengaytirayotganini ko‘rsatadi.

3. Ichki turizm iste’moli va infratuzilma talabi

Ichki turizmning iqtisodiy mazmunini baholashda ichki turizm iste’moli muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Turizm yordamchi hisobi bo‘yicha 2024-yilda ichki turizm iste’moli 76,55 trln so‘mni tashkil etgan, 2023-yilda esa ushbu ko‘rsatkich 40,53 trln so‘m bo‘lgan [9]. Nominal o‘sish qariyb 88,9 foizni tashkil etadi. Ushbu keskin o‘sish narxlar, metodologik va qamrov omillari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkinligi sababli uni turistlar sonining xuddi shuncha ko‘payishi sifatida talqin qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. Biroq mazkur ko‘rsatkich transport, joylashtirish, ovqatlanish va boshqa xizmatlarga bo‘lgan ichki talabning katta iqtisodiy hajmga ega ekanini ko‘rsatadi.

2024-yilda ichki turizm iste’moli tarkibida tashrif buyuruvchilarni joylashtirish xizmatlari 9,37 trln so‘m, umumiy ovqatlanish xizmatlari 12,78 trln so‘m, avtomobil yo‘lovchi transporti 5,17 trln so‘m, havo transporti 9,03 trln so‘m va temir yo‘l transporti 1,05 trln so‘mni tashkil etgan [10]. Demak, turizm infratuzilmasiga investitsiya transport, ovqatlanish va joylashtirish tarmoqlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni hisobga olgan holda amalga oshirilganda yuqori iqtisodiy natija berishi mumkin.

4. Hududiy investitsiya siyosatining yangi yo‘nalishi

2026-yildan turizm infratuzilmasini rivojlantirishda loyiha boshqaruviga asoslangan yangi yondashuv joriy etilmoqda. Turizm qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, hududlardagi ishlar “jozibador manzil — loyiha — infratuzilma — tadbirkor — targ‘ibot — turist” zanjiri bo‘yicha tashkil etilishi, 34 ta yirik turizm hududi uchun master-rejalar ishlab chiqilishi va 31 ta turizm obyekti rivojlantirilishi belgilangan. 2026 -yil uchun hududiy turizm infratuzilmasiga jami 950 mlrd so‘m yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan [3].

Mazkur yondashuv iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan muhimdir, chunki infratuzilma xarajati talab shakllanadigan aniq lokatsiya va biznes modeli bilan bog‘lanadi. Avval yo‘l yoki obyekt qurib, keyin turist oqimini shakllantirishga urinish o‘rniga, loyiha boshqaruvi bozor talabi, tadbirkor, xizmatlar va marketingni bir tizimga birlashtiradi. Natijada davlat infratuzilma xarajatlari xususiy investitsiyani “ochib beruvchi” katalizator vazifasini bajarishi mumkin.

2026–2027-yillarda 31 ta master-rejani amalga oshirishni boshlash, 40 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratish, joylashtirish vositalari sonini 8 250 taga yetkazish hamda turizm qishloqlari va turizm mahallalari sonini 84 taga yetkazish rejalashtirilgani hududiy infratuzilma loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy natijalariga bevosita urg‘u berilayotganini ko‘rsatadi [11].

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston hududlarida turizm infratuzilmasi kengayishi xizmatlar hajmi va bandlik o‘sishi bilan bir davrga to‘g‘ri kelayotganini ko‘rsatdi. Ammo iqtisodiy samaradorlikni faqat qurilgan obyektlar soni yoki ajratilgan mablag‘ miqdori bilan baholash yetarli emas. Infratuzilma samarali bo‘lishi uchun u hududiy talabni shakllantirishi, turistning qolish muddatini uzaytirishi va bir safar davomida hududda sarflanadigan mablag‘ni ko‘paytirishi kerak.

Birinchi muhim masala — transport kirish imkoniyati. Turistik obyektning jozibadorligi yuqori bo‘lsa ham, unga yetib borish vaqti va xarajati haddan tashqari katta bo‘lsa, ichki turist uchun talab cheklanadi. 2030-yilgacha turistik shaharlar o‘rtasidagi transport bog‘lanishini yaxshilash, ichki aviaqatnovlar sonini ko‘paytirish va yo‘lga ketadigan vaqtni kamaytirish davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan [12]. Bu hududlararo qisqa muddatli va “weekend” turizmini kengaytirish uchun bevosita iqtisodiy sharoit yaratadi.

Ikkinchi masala — joylashtirish quvvatlarining hududiy nomutanosibligi. 2024-yilgi statistikada yakka tartibdagi va boshqa joylashtirish vositalari Toshkent shahri, Xorazm, Samarqand, Toshkent va Buxoro hududlarida nisbatan ko‘p jamlangan, ayrim viloyatlarda esa ularning soni ancha past [5]. Shuning uchun barcha hududlarda bir xil turdagi obyektlarni ko‘paytirish emas, balki aniq talab va destinatsiya xususiyatiga mos investitsiya portfelini shakllantirish kerak. Tog‘ hududida ekolodj va oilaviy mehmon uylari, tarixiy shaharda butik mehmonxona va gidlik xizmati, suv havzalari yaqinida rekreatsiya hamda oilaviy dam olish obyektlari ko‘proq samara berishi mumkin.

Uchinchi masala — infratuzilmaning mahalliy iqtisodiyot bilan bog‘liqligi. Agar turistik majmua oziq-ovqat, transport, suvenir, hunarmandchilik va xizmatlarni hudud tashqarisidan xarid qilsa, turizm daromadining katta qismi mahalliy iqtisodiyotda qolmaydi. Shu sababli turizm klasterlarini tashkil etish, mehmon uylari, dehqon xo‘jaliklari, hunarmandlar, umumiy ovqatlanish korxonalari va transport xizmatlarini bitta qiymat zanjiriga birlashtirish hududiy multiplikativ ta’sirni kuchaytiradi. Hukumat qarori asosida bir qator hududlarda turizm klasterlari faoliyati yo‘lga qo‘yilayotgani ushbu yondashuvning amaliy ifodasidir [13].

To‘rtinchi masala — mavsumiylik. Yangi infratuzilma yilning faqat 2–3 oyida ishlasa, kapital qo‘yilmaning qaytish muddati uzayadi. Samaradorlikni oshirish uchun hududiy turizm mahsulotlari mavsumlar bo‘yicha diversifikatsiya qilinishi kerak. Masalan, yozgi tabiat turizmini qishki sport, gastronomik festival, sog‘lomlashtirish, biznes tadbirlari va madaniy tadbirlar bilan to‘ldirish bir xil infratuzilmadan yil davomida foydalanish imkonini beradi.

Beshinchi masala — raqamli infratuzilma. Turist uchun yo‘l, internet, navigatsiya, elektron to‘lov, bronlash, obyektlar haqida ishonchli axborot va xavfsizlik xizmatlari yagona tizimning qismlaridir. Raqamli xarita, bronlash tizimi va real vaqt ma’lumotlari bo‘lmasa, jismoniy infratuzilmaning bir qismi talabga aylanmay qolishi mumkin. Shu bois turizm infratuzilmasi investitsiya loyihalarida raqamli komponent alohida kapital xarajat emas, balki obyektning daromad generatsiya qilish qobiliyatini oshiruvchi omil sifatida ko‘rilishi maqsadga muvofiq.

Oltinchi masala — natijaga asoslangan davlat moliyalashtirishidir. Budjet mablag‘lari hisobiga qurilgan turizm infratuzilmasi bo‘yicha loyiha yakunida faqat bajarilgan qurilish hajmini emas, balki 2–3 yil davomida turist oqimi, xususiy investitsiya, yaratilgan ish o‘rinlari, yangi tadbirkorlik subyektlari, soliq tushumlari va obyektlarning yuklanish darajasini kuzatish kerak. Bunday monitoring davlat xarajatlarining real iqtisodiy qaytuvchanligini aniqlash imkonini beradi.

Hududiy turizm infratuzilmasi samaradorligini baholash uchun taklif etiladigan indikatorlar

3-jadval. Infratuzilma samaradorligini baholash tizimi

Yo‘nalish	Asosiy indikator	Iqtisodiy mazmuni
Talab	Turistlar soni, tunashlar, o‘rtacha qolish muddati	Infratuzilmaga real talab va mavsumiylikni ko‘rsatadi
Daromad	Bir turistga xarajat, xizmatlar hajmi, YQQ	Hududda yaratilayotgan iqtisodiy qiymatni ifodalaydi
Bandlik	Yangi ish o‘rinlari, 1 mlrd so‘m investitsiyaga ish o‘rni	Investitsiyaning ijtimoiy samaradorligini baholaydi
Quvvat	Mehmonxona bandligi, obyektning foydalanish kunlari	Kapital aktivlardan foydalanish darajasini aniqlaydi

Yo‘nalish	Asosiy indikator	Iqtisodiy mazmuni
Xususiy sektor	Jalb qilingan xususiy investitsiya / davlat investitsiyasi	Davlat mablag‘ining katalitik ta’sirini ko‘rsatadi
Mahalliy ta’sir	Mahalliy xaridlar ulushi, yangi MChJ/YTT, soliq tushumi	Daromadning hudud ichida qolish darajasini ko‘rsatadi
Barqarorlik	Energiya/suv tejamkorligi, chiqindi boshqaruvi	Uzoq muddatli ekologik xarajatlarni hisobga oladi

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Taklif etilayotgan indikatorlar tizimi hududlar o‘rtasida faqat turistlar soni bo‘yicha musobaqalashishdan ko‘ra, yaratilgan iqtisodiy qiymat va investitsiya samaradorligi bo‘yicha taqqoslash imkonini beradi. Masalan, turistlar soni kamroq bo‘lgan, biroq ularning o‘rtacha qolish muddati va xarajati yuqori hudud iqtisodiy nuqtai nazardan samaraliroq bo‘lishi mumkin.

XULOSA

O‘zbekistonda hududiy ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirish so‘nggi yillarda faol investitsiya yo‘nalishiga aylandi. Turizm obyektlari, joylashtirish vositalari, transport va servis infratuzilmasining kengayishi turizm tarmoqlarida yalpi qo‘shilgan qiymat va bandlikning o‘sishi bilan birga kuzatilmoqda. 2024 -yilda turizm tarmoqlarida yalpi qo‘shilgan qiymat 25,2 foizga, yuridik shaxslardagi bandlik 15,8 foizga oshgani, yakka tartibdagi va boshqa joylashtirish vositalari soni esa 35,4 foizga ko‘paygani turizm ekotizimining iqtisodiy faollashuvini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, infratuzilma obyektlari sonining tez o‘sishi kelgusida quvvatdan foydalanish samaradorligiga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi. Turizm loyihalarini turist oqimi, qolish muddati, bir turistga xarajat, bandlik, mahalliy biznes ulushi va xususiy investitsiyalarni jalb qilish darajasi orqali baholash davlat va xususiy kapitaldan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hududlarda ichki turizm infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun birinchidan, infratuzilma investitsiyalarini hududiy master-rejalar va real talab prognozlari bilan bog‘lash; ikkinchidan, transport, joylashtirish, ovqatlanish, ko‘ngilochar xizmatlar va raqamli servislarni yagona turistik qiymat zanjirida rivojlantirish; uchinchidan, davlat infratuzilma xarajatlari evaziga jalb qilingan xususiy investitsiyalarni asosiy samaradorlik indikatorlaridan biriga aylantirish; to‘rtinchidan, turizm klasterlari orqali mahalliy biznesning turistik xarajatlardagi ulushini oshirish; beshinchidan, obyektlarning yil davomida bandligini ta’minlovchi mavsumdan tashqari turizm mahsulotlarini rivojlantirish zarur.

Shuningdek, har bir yirik turizm infratuzilma loyihasi bo‘yicha “investitsiya pasporti” va “natija kartasi” joriy etilishi maqsadga muvofiq. Unda loyiha qiymati, davlat va xususiy moliyalashtirish ulushi, rejalashtirilgan turist oqimi, yangi ish o‘rinlari, xizmatlar hajmi, soliq tushumlari va ekologik ko‘rsatkichlar uch-besh yillik davrda monitoring qilinishi kerak. Bunday yondashuv hududiy turizm siyosatini qurilish hajmidan iqtisodiy natijaga yo‘naltiradi.

Umuman olganda, ichki turizm infratuzilmasi hududlarning iqtisodiy diversifikatsiyasi, xizmatlar sektori kengayishi va bandlikni oshirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Uning haqiqiy iqtisodiy samarasi esa infratuzilma, tadbirkorlik, marketing va turist talabining yagona boshqaruv tizimida birlashtirilishiga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Turizm va investitsiya masalalari muhokama qilindi. 09.04.2025. https://president.uz/oz/lists/view/8049
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Turizm infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi. 16.07.2024. https://president.uz/oz/lists/view/7405
3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Turizm sohasi loyiha boshqaruvi tizimiga o‘tmoqda. 16.05.2026. https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/166340
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi: turizm bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar. https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida turizm va rekreatsiya rivoji. Press-reliz, 12.08.2025. https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation_p37860.pdf
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Turizm tarmoqlari va boshqa tarmoqlarning ishlab chiqarish hisoblari: turizm tarmoqlari, 2019–2024. SIAT. https://siat.stat.uz/data/3321/?lang=en
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Turizm tarmoqlarida bandlik (yuridik shaxslardagi xodimlar soni) — jami, 2019–2024. SIAT. https://siat.stat.uz/data/3332/?lang=en

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Turizm tarmoqlarida bandlik — faoliyat turlari kesimida, 2019–2024. SIAT. https://siat.stat.uz/data/3333/?lang=en
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ichki turizm iste’moli — jami, 2019–2024. SIAT. https://siat.stat.uz/data/3318/?lang=en
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ichki turizm iste’moli — turizmga xos mahsulotlar kesimida, 2019–2024. SIAT. https://siat.stat.uz/data/3319/?lang=en
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Madaniyat va turizm sohasidagi yangi loyihalar ko‘rib chiqildi. 2026. https://president.uz/en/lists/view/9113
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 20.11.2025. https://www.president.uz/oz/lists/view/8692
13. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. O‘zbekistonda turizm klasterlari tashkil etilmoqda. 01.12.2025. https://gov.uz/en/uzbektourism/news/view/106699

DIGITAL TRANSFORMATION AND HUMAN CAPITAL IN THE STRATEGIC MANAGEMENT OF SOCIAL SECTOR INNOVATION IN UZBEKISTAN

Jahongir Salimbek o‘g‘li Xolmuratov
Tashkent State University of Economics, Uzbekistan

Abstract. This paper examines the integration of digital transformation and human capital development in the strategic management of social sector innovation in Uzbekistan. Drawing on the author’s dissertation, it applies institutional analysis, comparative analysis and conceptual synthesis to education, healthcare and social protection. The paper proposes a management framework connecting strategic objectives, institutional coordination, digital infrastructure, workforce capabilities and service outcomes. Its central argument is that the contribution of digital investment depends on organisational capacity and the ability of citizens to use services. Practical recommendations address staff development, coordinated implementation, inclusive access and continuous evaluation.

Keywords: social sector, strategic management, digital transformation, human capital, institutional coordination, service accessibility, innovation.

Introduction. Education, healthcare and social protection contribute to human capital development and the long-term productive capacity of an economy. Their modernisation requires coordinated decisions about financing, organisational responsibilities, workforce development and the use of technology. For Uzbekistan, an essential strategic challenge is to connect changes in service delivery with improvements in the accessibility and quality of social services.

The dissertation underlying this paper identifies institutional arrangements, digital capabilities, human capital and innovation as interconnected components of social sector development. Its analysis describes differences between sectors: digital transformation in social protection centres on the organisation of assistance; healthcare modernisation involves information systems and digital infrastructure; and educational development combines expanded access with organisational change. These findings suggest that implementation should respond to the specific needs and capacities of each sector [1].

Research objective and methodology. The objective is to develop a practical framework for integrating digital transformation and human capital into the strategic management of social sector innovation. The paper synthesises the dissertation’s findings using systems analysis, institutional analysis and comparison across the three social sectors. International digital government frameworks provide a reference for interpreting the relationship between technology, organisational capacity and service delivery. The resulting framework is a conceptual management proposal; the paper does not independently estimate the causal effects of individual digital projects.

Results and discussion. A central finding of the dissertation is the importance of connecting institutional and technological modernisation with actual social outcomes. The availability of a digital platform represents an organisational capability, while its social contribution depends on whether people can successfully obtain the services they need. This distinction requires management to examine service completion, waiting time, user experience and barriers to access alongside investment and infrastructure indicators.

International frameworks support this broader understanding of transformation. The OECD Digital Government Policy Framework identifies six dimensions, including a data-driven public sector, government as a platform and user-driven services. This provides a basis for considering digitalisation as a change in the organisation of public services. (OECD, 2020)

Similarly, the World Bank's GovTech Maturity Index addresses core government systems, online service delivery, citizen engagement and enabling conditions. The latter include institutions, strategies and digital skills. The framework therefore provides a useful reference for assessing the organisational foundations of digital transformation. (World Bank, 2025)

Building on the dissertation, this paper proposes five connected management components.

First, **strategic objectives** should express a clearly defined social need. A digital education initiative, for example, should specify the intended improvement in learning access or administrative convenience. Each objective should have an accountable institution and an observable outcome.

Second, **institutional coordination** should establish responsibilities for implementation, data quality and cooperation between service providers. Shared information can support coordinated delivery only when institutions have clear procedures for using it. Management arrangements should also specify how service problems are identified and resolved.

Third, **human capital development** should accompany technological investment. Employees require skills in using information systems, interpreting data and assisting service users. Training should be linked to actual work processes and followed by practical support. Managers also need the capacity to interpret performance information and adjust implementation decisions.

Fourth, **inclusive service delivery** should account for differences in citizens' digital literacy, connectivity and ability to use online systems. Assisted access and accessible interfaces should be included in project design. The performance of a digital service should be examined across different territories and population groups to identify who benefits and who continues to face difficulties.

Fifth, **evaluation and organisational learning** should connect service results with subsequent decisions. A practical management cycle consists of identifying needs, designing an intervention, testing it, evaluating results and adjusting implementation. Expansion should follow evidence that the intervention works in its intended setting. Where administrative processes improve but access remains uneven, the next decision should address the remaining barriers.

The proposed framework also clarifies the role of financing. Project budgets should cover the continuing requirements of service delivery, including staff development, technical maintenance and user support. This helps institutions assess whether an innovation can remain operational after its initial introduction.

Conclusion. Strategic management of social sector innovation in Uzbekistan requires a coordinated relationship between digital infrastructure, institutional responsibilities and human capabilities. The proposed framework translates this relationship into practical decisions about objectives, implementation, inclusion and evaluation. Its contribution is a management approach that connects technological change with the experiences and needs of service users. Further empirical work should test the framework in selected institutions and assess changes in service completion, accessibility, quality and user satisfaction.

References

1. Xolmuratov, J. S. (2026). *Совершенствование стратегических подходов по управлению инновационным развитием социальной сферы экономики*. PhD dissertation manuscript. Tashkent State University of Economics. Chapters 1–3 and conclusion.

2. OECD. (2020). *The OECD Digital Government Policy Framework: Six Dimensions of a Digital Government*. OECD Public Governance Policy Papers, No. 2. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/f64fed2a-en

3. World Bank. (2025). *GovTech Maturity Index: 2025 Update*. World Bank publication page.

DIGITALIZATION OF PUBLIC PROCUREMENT IN DEVELOPED COUNTRIES AS A FACTOR IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF BUDGET EXPENDITURES

Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich

Independent Researcher at Tashkent International University

ABSTRACT

The digital transformation of public procurement has become an important instrument for improving the efficiency, transparency, accountability, and economic effectiveness of budget expenditures. This study examines the experience of developed economies in applying electronic procurement platforms, open procurement data, standardized digital notices, automated evaluation, electronic contract management, and data analytics. The study

applies comparative, institutional, and structural analysis to identify the channels through which digital procurement affects transaction costs, market competition, expenditure control, and value for money. Particular attention is paid to the European Union, Estonia, and the Republic of Korea, where integrated digital procurement systems demonstrate the potential of end-to-end electronic processes. A conceptual framework is proposed in which budget expenditure efficiency is evaluated through four interrelated dimensions: competitive intensity, administrative cost reduction, compliance and transparency gains, and data-driven spending optimization. The findings indicate that digitalization produces the strongest fiscal effect when e-procurement is integrated with public financial management, supplier databases, electronic identification, contract monitoring, and performance analytics rather than being limited to the online publication of tenders.

KEYWORDS: public procurement, digitalization, budget expenditures, e-procurement, public finance, value for money, transparency, competition, open data, expenditure efficiency.

Public procurement is one of the principal channels through which governments transform budgetary resources into public goods, infrastructure, social services, and administrative capacity. Consequently, the efficiency of procurement procedures has a direct influence on the quality of public expenditure. Traditional paper-based procurement may involve fragmented information, repetitive documentation, lengthy approval procedures, limited supplier access, and weak possibilities for real-time expenditure monitoring. These shortcomings increase administrative costs and may reduce competition and value for money.

Digital technologies provide governments with an opportunity to redesign the procurement cycle rather than simply automate individual paper-based operations. The OECD defines e-procurement as the integration of digital technologies in the replacement or redesign of paper-based procedures throughout the procurement process and recommends integrated solutions covering the entire procurement cycle [1]. More recent OECD analysis emphasizes that digital public procurement is evolving from basic electronic tendering toward connected systems that combine end-to-end processes, emerging technologies, and data-driven decision-making [2]. Therefore, the central research question is not whether procurement should be digitalized, but how digitalization can be organized so that it generates measurable improvements in budget expenditure efficiency.

The purpose of this study is to examine the experience of developed economies in the digitalization of public procurement, identify the principal fiscal and institutional effects of e-procurement, and develop a practical framework for assessing its contribution to budget expenditure efficiency. The study uses comparative, structural, and institutional methods and focuses on the relationship between digital procurement tools, competition, administrative costs, transparency, monitoring, and final expenditure outcomes.

From an economic perspective, the effect of digital procurement can be understood through the reduction of information and transaction costs. When tender notices, bidding documents, evaluation results, contracts, and implementation data are available through a unified electronic environment, suppliers face lower participation costs and contracting authorities spend fewer resources on repetitive administrative procedures. At the same time, structured data make it possible to compare prices, identify procurement concentration, detect abnormal bidding patterns, and evaluate supplier performance. In this sense, digital procurement converts procurement information into a management resource for public finance.

The proposed conceptual analytical framework may be expressed as:

$$BEE = CE + TCS + CTG + DSO$$

where BEE denotes budget expenditure efficiency, CE represents the competition effect, TCS denotes transaction-cost savings, CTG represents compliance and transparency gains, and DSO denotes data-driven spending optimization. This expression is a conceptual analytical framework rather than an accounting identity or econometric equation; it demonstrates that digitalization influences expenditure efficiency through several mutually reinforcing channels rather than through direct purchase-price savings alone.

The experience of the European Union illustrates the importance of common digital standards. The EU eForms system provides a legislative open standard for publishing public procurement notices through Tenders Electronic Daily. According to the European Commission, eForms became mandatory in October 2023 and are intended to improve data quality, reduce administrative burden for public buyers, increase the ability of businesses to find procurement opportunities, and support data-driven decisions on public spending [3]. This shows that standardization is a core element of digitalization because machine-readable and comparable procurement data create the basis for both transparency and analytical control.

Estonia demonstrates the advantages of integrating procurement with a broader digital-government environment. The Estonian Public Procurement Register is a free self-service platform through which contracting

authorities can conduct procurements and economic operators can participate electronically. The system supports procedures from procurement preparation to contract completion, electronic communication, automatic evaluation, e-auctions, contract management, e-catalogues, and exchanges with other information systems [4]. Such integration reduces duplication and makes procurement data usable across administrative functions.

The Republic of Korea provides another important example. The Korea ON-line E-Procurement System (KONEPS) operates as a national single window for public procurement and covers the process from procurement request and bidding to contracting, inspection, and payment. The Korean Public Procurement Service emphasizes one-time supplier registration, online publication of bid information, and links with external systems as key elements of the model [5]. The experience of KONEPS demonstrates that the efficiency effect of e-procurement is strengthened when the platform becomes a common infrastructure for both public organizations and suppliers rather than a separate tender-announcement portal. The next-generation KONEPS entered operation in January 2025, extending the system toward a more integrated digital procurement infrastructure and the progressive consolidation of separate public procurement systems [9].

Table 1

Digital public procurement practices and their effect on budget efficiency

Country / system	Main digital feature	Efficiency channel	Expected budget effect
European Union / eForms	Standardized machine-readable procurement notices	Lower search and reporting costs; better data quality	Improved competition and expenditure analytics
Estonia / Public Procurement Register	End-to-end e-procurement integrated with digital government	Automation, interoperability, contract management	Lower administrative burden and stronger control
Republic of Korea / KONEPS	Single-window procurement from bidding to payment	One-time registration, process integration, online transparency	Lower transaction costs and faster procurement
OECD good practice	End-to-end integration, data analytics and emerging technologies	Strategic use of procurement data	Better value for money and risk management

Source: developed by the author based on OECD, European Commission, Estonian Ministry of Finance and Korea Public Procurement Service materials.

Quantitative evidence reinforces the institutional comparison. According to the Public Procurement Service, the total value of public procurement in the Republic of Korea reached KRW 225.1 trillion in 2024, while KONEPS processed KRW 145.1 trillion, accounting for 64.5% of the national public procurement market and representing an 11.1% increase from 2023 [6]. OECD analysis, based on Public Procurement Service data, estimated transaction-cost savings enabled by KONEPS at about USD 6.8 billion, including roughly USD 1.2 billion in the public sector and USD 5.6 billion in the private sector [7].

The comparison indicates that the fiscal contribution of digital procurement is generated by system architecture. A portal that only publishes tenders improves access to information, but an integrated system can generate wider efficiency gains by connecting planning, bidding, contracting, payment, and monitoring. This distinction is important because the quality of budget management depends on whether procurement data can be linked to actual commitments, contract execution, and payment information. Competition represents the first major transmission channel. Digital publication and simplified electronic participation reduce geographic and informational barriers for suppliers. A broader supplier base can increase the probability that contracting authorities receive more competitive price and quality offers. However, the number of bids alone should not be treated as a sufficient efficiency indicator. Competition should also be evaluated through the share of single-bid procedures, supplier concentration, entry of new suppliers, and the difference between estimated and awarded contract values.

Administrative efficiency represents the second channel. Electronic documents, reusable supplier information, digital signatures, automated notifications, and integrated databases can reduce the time spent on repetitive verification and paperwork. The fiscal effect is reflected in lower process costs and faster procurement

cycles. OECD analysis notes that e-procurement facilitates data collection and can support measurement of effectiveness and efficiency in public spending [8]. Therefore, process-time indicators should be incorporated into the evaluation of digital procurement reforms. Transparency and compliance constitute the third channel. A digital audit trail records the sequence of procurement decisions and makes it easier to verify whether deadlines, eligibility conditions, and evaluation rules were followed. Open procurement information also allows external stakeholders to compare procurement outcomes. This does not mean that digitalization automatically eliminates corruption or inefficiency; rather, it increases traceability and creates stronger conditions for preventive and risk-based oversight.

The fourth channel is data-driven optimization. Once procurement information is standardized and accumulated over time, governments can identify repeated purchases, compare unit prices, evaluate supplier performance, analyze contract amendments, and identify categories suitable for framework agreements or centralized purchasing. Advanced analytics can also support early warning indicators for suspicious procurement patterns. Hence, the value of procurement data extends beyond transparency: it becomes a tool for expenditure planning and portfolio-level management.

Table 2

Proposed indicator framework for assessing digital procurement efficiency

Evaluation dimension	Illustrative indicator	Interpretation	Management use
Competition	Average bids per procedure; single-bid share	Measures market participation and competitive pressure	Identify categories with weak supplier competition
Administrative efficiency	Average procurement cycle time; processing cost	Measures process simplification and automation	Detect procedural bottlenecks
Budget savings	Award value / estimated value; unit-price variance	Shows direct purchasing and price effects	Benchmark similar purchases
Transparency and compliance	Share of fully digital procedures; contract amendments; flagged risks	Measures traceability and control quality	Support audit and preventive monitoring
Data-driven performance	Share of spending covered by analytics; supplier performance indicators	Measures strategic use of procurement data	Improve planning and contract management

Source: developed by the author.

The proposed framework expands the assessment of e-procurement beyond the volume of electronic tenders. A procurement platform should be evaluated according to whether it changes the economic quality of spending. For example, a high share of electronic procedures may coexist with weak competition or repeated contract amendments. Accordingly, digitalization indicators must be linked to outcome indicators such as cycle time, bidder participation, price dispersion, contract performance, and the share of procurement data used for management decisions.

For countries modernizing public procurement, the institutional sequence of reform is also important. First, procurement data should be standardized across contracting authorities. Second, supplier registration and qualification information should be reusable rather than repeatedly submitted. Third, procurement systems should exchange information with treasury, budget, tax, business-registration, and electronic-identification systems where legally appropriate. Fourth, contract execution data should be captured in the same digital environment as tender data. Finally, dashboards and risk indicators should be used by procurement authorities, financial-control bodies, and contracting organizations to convert raw information into management decisions.

EXPECTED ECONOMIC EFFECT

The expected economic effect of an integrated digital procurement system can be divided into direct and indirect components. Direct effects include lower administrative and transaction costs, shorter procurement cycles, reduced paper processing, and potential purchase-price savings arising from stronger competition. Indirect effects

include better expenditure planning, improved compliance, lower information asymmetry, earlier identification of procurement risks, and stronger accountability for contract results.

For practical evaluation, the proposed multidimensional assessment framework can be summarized as follows:

Digital procurement effectiveness = Access + Competition + Process efficiency + Data quality + Contract performance

This formulation emphasizes that digital procurement should not be assessed only by the number or value of tenders processed electronically. A mature system should improve access for suppliers, generate competitive pressure, reduce process costs, produce reliable data, and support successful contract implementation. If these dimensions are measured jointly, public authorities can distinguish genuine fiscal efficiency from simple procedural digitalization.

CONCLUSION

The experience of developed economies confirms that digitalization of public procurement can become a significant factor in improving budget expenditure efficiency. The strongest results arise when digital technologies cover the entire procurement cycle and are integrated with wider public financial management and digital-government infrastructure. The European Union demonstrates the role of common data standards, Estonia illustrates interoperability and end-to-end electronic services, and the Republic of Korea shows the advantages of a national single-window procurement system.

The study proposes evaluating the fiscal effect of digital procurement through four principal channels: competition, transaction-cost savings, transparency and compliance gains, and data-driven spending optimization. This approach allows policymakers to move beyond formal indicators such as the share of electronic tenders and focus on the economic outcomes of procurement reform.

Accordingly, digital public procurement should be treated not merely as an information technology project but as an institutional mechanism of budget management. Standardized data, integrated electronic workflows, contract monitoring, and analytical tools can transform procurement information into a resource for improving value for money. The long-term objective should therefore be the creation of a transparent, competitive, interoperable, and analytically managed procurement ecosystem in which digitalization directly supports the efficient use of public financial resources.

REFERENCES

1. OECD. Recommendation of the Council on Public Procurement. OECD/LEGAL/0411, Paris, 2015. Available at: https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0411 (accessed 10 September 2026).

2. OECD. Digital Transformation of Public Procurement: Good Practice Report. OECD Public Governance Policy Papers, No. 77, OECD Publishing, Paris, 2025. https://doi.org/10.1787/79651651-en.

3. European Commission. eForms: Digital Standard Forms for Public Procurement Notices. Directorate-General for Internal Market, Industry, Entrepreneurship and SMEs. Available at: https://single-market-economy.ec.europa.eu/single-market/public-procurement/digital-procurement/eforms_en (accessed 10 September 2026).

4. Ministry of Finance of the Republic of Estonia. Public Procurement Register. Tallinn, updated 30 September 2025. Available at: https://www.fin.ee/en/public-procurement-state-aid-and-assets/public-procurement-policy/public-procurement-register (accessed 10 September 2026).

5. Public Procurement Service of the Republic of Korea. KONEPS: Major Functions and National E-Procurement Infrastructure. Available at: https://www.pps.go.kr/eng/content.do?key=00775 (accessed 10 September 2026).

6. Public Procurement Service of the Republic of Korea. 2024 Public Procurement Market Reached KRW 225.1 Trillion: KONEPS Transactions Totaled KRW 145.1 Trillion. Press Release, 27 June 2025. Available at: https://www.pps.go.kr/kor/bbs/view.do?bbsSn=2506270010&key=00634 (accessed 10 September 2026).

7. OECD. The Korean Public Procurement Service: Innovating for Effectiveness. OECD Public Governance Reviews, OECD Publishing, Paris, 2016. https://doi.org/10.1787/9789264249431-en.

8. OECD. Implementing the OECD Recommendation on Public Procurement in OECD and Partner Countries: 2020-2024 Report. OECD Public Governance Reviews, OECD Publishing, Paris, 2025. https://doi.org/10.1787/02a46a58-en.

Банк мижозларининг кредитга лаёқатлилигини баҳолашга янгича ёндашув

Набиев У.Б.
Мустақил тадқиқотчи
ТДИУ, Банк иши кафедраси

Глобал молия бозорида рақамлаштириш ва финтех (FinTech) технологияларининг жадал ривожланиши банк хизматларини кўрсатиш тезлиги ва сифатига янги талабларни қўймоқда. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси доирасида банк-молия тизимини ислоҳ қилиш, молиявий хизматлар оммабоплигини ошириш ва кредитлаш жараёнларини автоматлаштириш устувор вазифалардан бири этиб белгиланган.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 26 майдаги “Молиявий хизматлар оммабоплигини ошириш, кичик ва ўрта бизнесни қўллаб-қувватлашни кенгайтиришга доир навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-204-сон қарорида 2026 йил 1 декабрдан бошлаб сунъий интеллект технологияларидан фойдаланган ҳолда Платформа доирасида муқобил скоринг моделини жорий этиш вазифаси белгилаб берилган.

Амалдаги тижорат банклари амалиётида мижознинг кредитга лаёқатлилигини баҳолаш асосан мижознинг молиявий кўрсаткичлари ва кредит тарихи маълумотларига (кредит бюролари ҳисоботларига) таянади. Бироқ, ушбу ёндашув қуйидаги тизимли камчиликларга эга:

1. **Корхоналарнинг ренбателлик даражаси пастлиги:** Корхоналарнинг рентабеллик даражасини пастлиги реал тўлов қобилиятини тўлиқ баҳолаш имконини бермайди.
2. **Ахборот асимметрияси:** Янги мижозлар (янги ташкил этилган корхона ва стартаплар) учун кредит тарихининг мавжуд эмаслиги уларни хавфли гуруҳга киритилишига ва кредит ажратиш рад этилишига олиб келади.
3. **Инсоний омил ва ижтимоий масъулият:** Анъанавий моделлар мижознинг маблағга эга бўла туриб, уни қайтармаслик эҳтимолини (иродавий дефолт - *strategic default*) прогноз қила олмайди.

Ушбу муаммоларни ҳал этиш учун кредитлаш амалиётига хулқ-атвор иқтисодиёти (behavioral economics) ютуқларини ва психологик баҳолаш методларини интеграция қилиш талаб этилади. Қарз олувчининг нафақат молиявий имконияти (иқтисодий баҳо), балки унинг масъулияти ва хавф-хатарга муносабатини (психологик баҳо) умумлаштирувчи услубиётни яратиш зарурати юзага келади.

Таклиф этилаётган янгича ёндашувнинг консептуал асоси қарз олувчининг комплекс баҳосини шакллантиришдан иборат. Бу баҳо учта ўзаро боғлиқ блокдан ташкил топади:

1-жадвал.

Кредитга лаёқатлиликни комплекс баҳолаш тизимининг таркибий қисмлари[7]

Блок номи	Баҳолаш кўрсаткичлари ва элементлари	Маълумот олиш манбаси
I. Иқтисодий блок (E)	Муқобил даромадлар (коммунал тўловлар, мобил баланс айланмаси), харажатлар тузилмаси, активлар.	Банк иловалари, транзакцион таҳлил, очиқ маълумотлар.
II. Психологик блок (P)	Масъулият (Conscientiousness), импульсивлик, хавфга мойиллик, локус назорати (Locus of Control).	Рақамли психометрик тест (мобил иловада 5-7 савол).
III. Тарихий-ретроспектив блок (H)	Кредит тарихи, жорий тўлов интизоми, мажбуриятларнинг бажарилиш динамикаси.	Кредит ахборот таҳлилий маркази (КАТМ) маълумотлари.

Ушбу янгича ёндашув тижорат банклари фаолиятига жорий этиш қуйидаги ижобий натижаларни беради:

1. **Субстандарт мижозларни қамраб олиш:** Рентабеллик кўрсаткичлари паст бўлган, лекин психологик жиҳатдан масъулиятли ва интизомли бўлган мижозларга кредит олиш имкони яратилади. Бу янги ташкил этилаётган корхоналарни қўллаб-қувватлашга хизмат қилади.

2. **Зарарларни камайтириш:** Мавжуд кредитлар сегментида муаммоли кредитлар (NPL) улушини 15-20% гача қисқартириш имкони пайдо бўлади. Чунки психологик тестлардан ўта олмаган (юқори импульсивли ва молиявий бекарорликка мойил) мижозларга дастлабки босқичданоқ рад жавоби берилади ёки уларга лимитлар пасайтирилади.

3. **Автоматлаштириш ва таннархни пасайтириш:** Сўровномалар онлайн тарзда сунъий интеллект томонидан қайта ишлангани сабабли, андеррайтинг (кредит экспертлари меҳнати) харажатлари тежалади.

Анъанавий молиявий кўрсаткичларни шахс психологияси ва хулқ-атвори параметрлари билан умумлаштириш кредит рискларини бошқаришнинг энг истиқболли йўналиши ҳисобланади. Тадқиқот давомида ишлаб чиқилган интеграл баҳолаш услубиёти банк тизимида инновацион ёндашувларни жорий этиш орқали мижозларни сегментация қилиш аниқлигини янги босқичга олиб чиқади.

Ушбу модель тижорат банкларининг рақамли экотизимлари таркибига киритилиши молиявий хизматлар бозорининг барқарор ўсишини ва тизимли хавф-хатарларнинг олдини олишни кафолатлайди.

[7] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. - Тошкент: "Тафаккур", 2022.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 26 майдаги “Молиявий хизматлар оммабоплигини ошириш, кичик ва ўрта бизнесни қўллаб-қувватлашни кенгайтиришга доир навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-204-сон қарори.
3. Kahneman, D. Thinking, Fast and Slow. - New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011.
4. Thaler, R. H. Misbehaving: The Making of Behavioral Economics. - W. W. Norton & Company, 2015.
5. Schreiner, M. Credit Scoring for Microfinance: Can It Work? // Journal of Microfinance, Vol. 4, No. 2, 2002. - pp. 37-59.
6. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари: Илмий-амалий қўлланма. - Тошкент: "Молия", 2019. - 312 б.
7. [Электрон манба] Entrepreneurial Finance Lab (EFL) Global Solutions - https://www.eflglobal.com.

FINTECH TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Rajabova Umida Umurzoqovna
Xalqaro Nordik Universiteti tayanch doktoranti
francheska50701@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda FinTech texnologiyalari asosida bank xizmatlari samaradorligini oshirishning zamonaviy yo‘nalishlari tadqiq etiladi. Bank faoliyatida mobil va internet banking, raqamli to‘lovlar, sun’iy intellekt, Big Data, biometrik identifikatsiya, avtomatlashtirilgan kreditlash hamda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. FinTech yechimlarining bank operatsiyalarini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va moliyaviy xizmatlarning ommabopligini ta’minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida bank xizmatlari samaradorligini oshirish, raqamli innovatsiyalarni keng joriy etish va banklar hamda FinTech kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy yo‘nalishlar asoslanadi.

Kalit so‘zlar: FinTech, bank xizmatlari, raqamli banking, bank samaradorligi, raqamli to‘lovlar, mobil banking, sun’iy intellekt, Big Data, raqamli transformatsiya, masofaviy bank xizmatlari, biometrik identifikatsiya, moliyaviy innovatsiyalar.

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida bank xizmatlari an’anaviy filiallar orqali ko‘rsatish shaklidan raqamli va masofaviy xizmat ko‘rsatish modeliga bosqichma-bosqich o‘tmoqda. Ushbu jarayonda moliyaviy

texnologiyalar (FinTech) bank xizmatlarining samaradorligini oshirish, mijozlar ehtiyojini tezkor qondirish va yangi moliyaviy mahsulotlarni yaratishning muhim vositasiga aylanmoqda. FinTech texnologiyalarining rivojlanishi mobil banking, internet banking, elektron to‘lovlar, raqamli kreditlash, biometrik identifikatsiya va avtomatlashtirilgan moliyaviy xizmatlarning kengayishiga imkon bermoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish orqali mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilish, kredit risklarini baholash, firibgarlik holatlarini aniqlash va mijozlarga individual bank mahsulotlarini taklif qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bank xizmatlari samaradorligini oshirishda FinTech texnologiyalarining ahamiyati nafaqat xizmatlar tezligi va qulayligini oshirish, balki banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirish, inson omiliga bog‘liq xatolarni qisqartirish va resurslardan samarali foydalanish bilan ham belgilanadi. Shu bilan birga, raqamli xizmatlarning kengayishi kiberxavfsizlik, mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, raqamli moliyaviy savodxonlik va texnologik infratuzilmani takomillashtirish kabi yangi vazifalarni yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, **FinTech texnologiyalari asosida bank xizmatlari samaradorligini oshirishning zamonaviy yo‘nalishlarini aniqlash, ularning amaliy imkoniyatlarini baholash hamda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash** muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda FinTech texnologiyalarining bank xizmatlari samaradorligiga ta’siri, zamonaviy raqamli yechimlarning imkoniyatlari va ularni bank faoliyatiga samarali joriy etish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

FinTech texnologiyalarining rivojlanishi bank xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bank faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish va moliyaviy mahsulotlarni individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini bermoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, FinTech asosida bank xizmatlari samaradorligini oshirish bir nechta asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Birinchi navbatda, **mobil va internet banking xizmatlarini rivojlantirish** mijozlarga bank operatsiyalarini masofadan turib amalga oshirish imkonini bermoqda. Hisobvaraqlarni boshqarish, pul o‘tkazmalari, to‘lovlarni amalga oshirish va kredit mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatlarining yagona raqamli platformaga birlashtirilishi xizmat ko‘rsatish jarayonini soddalashtiradi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — **sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish**. Banklar mijozlarning tranzaksion faolligi va moliyaviy xatti-harakatlari to‘g‘risidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali kredit risklarini baholashi, shubhali operatsiyalarni aniqlashi va mijozlar uchun individual takliflarni shakllantirishi mumkin. Bu esa bank qarorlarini qabul qilish tezligi va aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli kreditlash ham FinTech rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biridir. An’anaviy kreditlashda hujjatlarni yig‘ish va ko‘rib chiqish ko‘p vaqt talab qilsa, raqamli

kreditlashda mijoz ma’lumotlarini avtomatik qayta ishlash va skoring tizimlaridan foydalanish kredit arizalarini tezkor ko‘rib chiqish imkonini beradi. Natijada bank resurslaridan foydalanish samaradorligi oshadi va mijozlarga xizmat ko‘rsatish vaqti qisqaradi. Shuningdek, **raqamli to‘lovlar va kontaktsiz to‘lov texnologiyalarining rivojlanishi** bank xizmatlarining qulayligini oshirmoqda. QR-kod, NFC, elektron hamyonlar va mobil to‘lovlarning kengayishi naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar banklar uchun tranzaksiyalarni avtomatlashtirish va mijozlar uchun to‘lov jarayonini soddalashtirish imkonini beradi. Bank xizmatlari samaradorligini oshirishda **biometrik identifikatsiya va masofaviy mijozni aniqlash** texnologiyalari ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur yechimlar bank xizmatlaridan masofadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, mijozni identifikatsiya qilish jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birga, raqamli xizmatlar kengayishi kiberxavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish talablarini ham kuchaytiradi.

Tahlil natijasida FinTech texnologiyalaridan foydalanish bank xizmatlari samaradorligini quyidagi yo‘nalishlarda oshirish imkonini berishi aniqlandi:

1-jadval. FinTech texnologiyalarining bank xizmatlari samaradorligiga ta’siri

FinTech yo‘nalishi	Bank xizmatlariga ta’siri
Mobil va internet banking	Xizmatlarning tezkorligi va qulayligini oshiradi
Sun’iy intellekt	Qarorlarni avtomatlashtirish va individual xizmatlarni rivojlantiradi
Big Data	Mijozlarni tahlil qilish va risklarni baholash imkonini beradi
Raqamli kreditlash	Kredit ajratish jarayonini tezlashtiradi
Raqamli to‘lovlar	Naqdsiz operatsiyalarni kengaytiradi
Biometrik identifikatsiya	Masofaviy xizmatlardan foydalanishni soddalashtiradi
Kiberxavfsizlik texnologiyalari	Moliyaviy operatsiyalar va ma’lumotlar xavfsizligini kuchaytiradi

FinTech texnologiyalari bank xizmatlari samaradorligini faqat texnologik jihatdan emas, balki **iqtisodiy, tashkiliy va mijozlarga xizmat ko‘rsatish nuqtayi nazaridan ham takomillashtirish** imkonini beradi. Kelgusida banklar va FinTech kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, sun’iy intellektga asoslangan xizmatlarni kengaytirish, raqamli kreditlashni takomillashtirish va kiberxavfsizlikni kuchaytirish bank xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlari bo‘lib qoladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, FinTech texnologiyalarining rivojlanishi bank xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mobil va internet banking, raqamli to‘lovlar, raqamli kreditlash, sun’iy intellekt, Big Data va biometrik identifikatsiya kabi texnologiyalar bank xizmatlarini tezkor, qulay va mijozlar ehtiyojiga mos shaklda tashkil etish imkonini bermoqda. Ushbu texnologiyalardan foydalanish banklarning operatsion xarajatlarini optimallashtirish, xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqartirish, kredit risklarini samarali baholash va mijozlar bilan ishlash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, FinTech texnologiyalarining keng joriy etilishi kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Kelgusida banklar va FinTech kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va raqamli infratuzilmani takomillashtirish bank xizmatlari samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Natijada zamonaviy FinTech yechimlari bank tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirib, moliyaviy xizmatlarning ommabopligi, sifati va foydalanish qulayligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arner, D. W., Barberis, J. N., & Buckley, R. P. (2016). The evolution of FinTech: A new post-crisis paradigm? *Georgetown Journal of International Law, 47*(4), 1271–1319. https://doi.org/10.2139/ssrn.2676553
2. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S., & Hess, J. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial inclusion, digital payments, and resilience in the age of COVID-19*. World Bank. https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1897-4
3. Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2017). Digital finance and FinTech: Current research and future research directions. *Journal of Business Economics, 87*(5), 537–580. https://doi.org/10.1007/s11573-017-0852-x
4. Ozili, P. K. (2018). Impact of digital finance on financial inclusion and stability. *Borsa Istanbul Review, 18*(4), 329–340. https://doi.org/10.1016/j.bir.2017.12.003
5. World Bank. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial inclusion, digital payments, and resilience in the age of COVID-19*. World Bank.
6. Arner, D. W., Barberis, J. N., & Buckley, R. P. (2016). 150 years of FinTech: An evolutionary analysis. *JASSA, 3*, 22–29.
7. Buckley, R. P., & Webster, S. (2016). FinTech in developing countries: Charting new customer journeys. *Journal of Financial Transformation, 44*, 151–159.
8. Buckley, R. P., & Mas, I. (2016). Coming of age of digital payments as a field of expertise. *University of Illinois Journal of Law, Technology & Policy*, 2016, 71–87.

ТЎҚИМАЧИЛИК ВА ЕНГИЛ САНОАТ КЛАСТЕРЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ КЎП МЕЗОНЛИ ИНТЕГРАЛ БАҲОЛАШ МЕТОДИКАСИ

Шарахмедова Мамура Дамировна
ТТЕСИ, Табиий толалар технологияси ва инженеринг кафедраси доценти

Аннотация: Ушбу тезисда тўқимачилик ва енгил саноатда вертикал интеграциялашган кластерлар фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг кўп мезонли модели таклиф этилади. Ишлаб чиқариш, молиявий барқарорлик, меҳнат унумдорлиги, экспорт салоҳияти ва ресурс тежамкорлигини қамраб олувчи Интеграл самарадорлик индекси (CEI) ҳисоблаш алгоритми ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: Кластер самарадорлиги, кўп мезонли баҳолаш, интеграл индекс, қувватлардан фойдаланиш, энергия самарадорлиги, бенчмаркинг.

Кириш ва муаммонинг долзарблиги

Кластерлар фаолиятини баҳолашда фақатгина ялпи маҳсулот ишлаб чиқариш ёки экспорт ҳажми каби бир томонлама кўрсаткичларга таяниш кластернинг ҳақиқий самарадорлигини тўлиқ очиб бермайди. Масалан, юқори ишлаб чиқариш ҳажми катта энергия ва сув сарфи, технологик брак ёки юқори қарз юки ҳисобига эришилган бўлиши мумкин.

Шу боис, кластерлар фаолиятини кўп омилли, ресурс тежамкорлиги ва ички кооперация мустаҳкамлигини ҳисобга олган ҳолда комплекс баҳолашнинг эконометрик ва услубий воситаларини ишлаб чиқиш долзарб масаладир.

Баҳолаш методологияси ва математик модели

Тадқиқотда тўқимачилик кластерининг самарадорлигини баҳолаш учун 5 та асосий функционал блокни ўз ичига олган **Кластер интеграл самарадорлик индекси (**$CEI - Cluster\ Efficiency\ Index$**)** модели таклиф этилади:

$$CEI = \sum_{i=1}^{5} w_i \times Z_i, \qquad \sum_{i=1}^{5} w_i = 1{,}0$$

бу ерда:

- CEI — кластернинг комплекс интеграл самарадорлик кўрсаткичи ($0 \le CEI \le 1{,}0$ ёки $0 - 100\%$);
- w_i — тегишли блокнинг эксперт ёки AHP (Analytic Hierarchy Process) усулида асосланган вазни;
- Z_i — нормаллаштирилган қиймат.

Кўрсаткичларни Мин-Макс усулида нормаллаштириш тартиби:

- Стимулятор омиллар (қўшилган қиймат, экспорт, унумдорлик) учун: $Z = \frac{X - X_{\min}}{X_{\max} - X_{\min}}$

• Дестимулятор омиллар (энергия сарфи, брак улуши, қарздорлик) учун: $Z = \frac{X_{max} - X}{X_{max} - X_{min}}$

1-жадвал

Кластер самарадорлигини баҳолаш блоклари ва тавсиявий вазнлар тақсимоти[8]

№	Баҳолаш блоклари	Асосий кўрсаткичлар таркиби	Блок вазни (w_i)
1	Ишлаб чиқариш ва технологик интеграция	Қувватлардан фойдаланиш даражаси, брак улуши, ички етказиб бериш салмоғи	**0,25 (25%)**
2	Иқтисодий ва молиявий натижадорлик	Қўшилган қиймат улуши, EBITDA маржаси, айланма маблағлар айланувчанлиги	**0,25 (25%)**
3	Экспорт ва бозор рақобатбардошлиги	Тайёр маҳсулот экспорти улуши, экспорт бозорлари диверсификацияси	**0,20 (20%)**
4	Меҳнат ва кадрлар салоҳияти	1 нафар ходимга тўғри келувчи қўшилган қиймат (унумдорлик), кадрлар қўнимсизлиги	**0,15 (15%)**
5	Ресурс ва экологик самарадорлик	Бирлик маҳсулотга сув ва электр энергияси сарфи, сувни қайта айлантириш улуши	**0,15 (15%)**
	ЖАМИ:	**Комплекс баҳолаш тизими**	**1,00 (100%)**

Натижалар таҳлили ва рейтинг гуруҳлари

Ҳисобланган CEI кўрсаткичи асосида кластерлар қуйидаги самарадорлик тоифаларига ажратилади:

8. $CEI \geq 0{,}80$ — Юқори самарали кластер: Барча технологик бўғинлар тўлиқ интеграциялашган, ресурс сарфи паст, экспортда тайёр маҳсулот устувор;

9. $0{,}60 \leq CEI < 0{,}80$ — Барқарор самарали кластер: Асосий қувватлар ишламоқда, аммо бўяш-пардозлаш ёки сув тежамкорлигида камчиликлар мавжуд;

10. $CEI < 0{,}60$ — Паст самарали (рискли) кластер: Занжирда узилишлар бор, асосан ярим тайёр хомашё сотилади, молиявий мажбуриятлар юқори.

Хулоса

Таклиф этилган методика тўқимачилик кластерлари раҳбариятига ички заиф бўғинларни (масалан, ортиқча энергия сарфи ёки қувватлар бекор туриши) аниқлаш, давлат ва тармоқ идораларига эса кластерларни қўллаб-қувватлаш ва субсидиялар ажратишда холис қарорлар қабул қилиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар

[8] Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

11. UNIDO. (2013). *The UNIDO Approach to Cluster Development*. Vienna: UNIDO.

12. Saaty, T. L. (2008). Decision making with the analytic hierarchy process. *Int. J. Services Sciences*, 1(1), 83–98.

13. Тоймуҳаммедов А. (2021). Саноат корхоналари самарадорлигини баҳолаш усуллари. *Молия ва банк иши*, №2, 12–18 б.

BANKLAR FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH YO‘LLARI

Sagdiyeva Maxbubaxon Rustamovna
“Agrobank” ATB Qashqadaryo viloyat boshqarmasi
Xodimlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i
Gmail: mahbubasagdiyeca@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda zamonaviy iqtisodiyot sharoitida banklar faoliyatini raqamlashtirish orqali operatsion va moliyaviy samaradorlikni oshirish masalalari tadqiq etilgan. Bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari, raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari hamda ularning bank samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi misolida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni dinamikasi o‘rganilgan. Tahlillar raqamli kanallarning kengayishi bank operatsiyalarini tezlashtirish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va banklarning raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun muhim imkoniyat yaratayotganini ko‘rsatadi. Tezisda sun’iy intellekt, Big Data, RPA, raqamli skoring, bulutli texnologiyalar va intellektual kiberxavfsizlik tizimlaridan kompleks foydalanish asosida bank samaradorligini oshirish mexanizmi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: bank, raqamlashtirish, raqamli bank, bank samaradorligi, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, Big Data, RPA, raqamli skoring, mobil banking, kiberxavfsizlik.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi moliya-bank sektorining faoliyat yuritish mexanizmlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda banklar uchun raqamlashtirish faqat elektron to‘lov yoki mobil ilovani joriy etishdan iborat emas, balki bankning biznes-modeli, boshqaruv tizimi, mijozlar bilan munosabatlari, kreditlash jarayonlari, risklarni boshqarish va ichki operatsiyalarni tubdan o‘zgartirishni anglatadi.

O‘zbekistonda ham bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni jadal

kechmoqda.Markaziy bank statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yil yanvar–iyul davrida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar 52,9 mln nafardan 69,2 mln nafarga, ya’ni 30,7% ga oshgan. 2025 yil oxiriga kelib bu ko‘rsatkich 79,3 mln nafarga, 2026 yil 1 yanvarda esa 82,9 mln nafarga yetgan. (CBU)

ASOSIY QISM.

Bank faoliyatini raqamlashtirish — bank operatsiyalari va biznes-jarayonlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish, integratsiyalash va optimallashtirish jarayonidir.

Raqamlashtirishning asosiy maqsadi bank faoliyatining quyidagi ko‘rsatkichlarini yaxshilashdan iborat:

• operatsiyalarni amalga oshirish tezligini oshirish;
• operatsion xarajatlarni kamaytirish;
• mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash;
• kredit risklarini kamaytirish;
• bank daromadlarini oshirish;
• inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish;
• bank xizmatlarining ommabopligini oshirish;
• raqobatbardoshlikni kuchaytirish.

Shu nuqtai nazardan bank raqamlashtirilishining samaradorligini faqat raqamli xizmatlar soni bilan baholash yetarli emas. Samaradorlikni baholashda:

Raqamli texnologiya → jarayonni avtomatlashtirish → xarajatlarni qisqartirish → xizmat tezligini oshirish → mijozlar sonini ko‘paytirish → daromadni oshirish → bank samaradorligini oshirish zanjiri asosida kompleks yondashuvni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta’sir mexanizmi.

Bank raqamlashtirilishining iqtisodiy samarasini quyidagi model orqali ifodalash mumkin: **Raqamli investitsiyalar - IT infratuzilmani modernizatsiya qilish - Avtomatlashtirish va AI-Operatsion xarajatlarni kamaytirish - Xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish - Mijozlar soni va raqamli operatsiyalar hajmini oshirish-Komission va boshqa daromadlarni ko‘paytirish - Bank foydaliligi va raqobatbardoshligini oshirish.**

Shuning uchun raqamlashtirishga kiritilayotgan investitsiyalarni faqat IT xarajatlari sifatida emas, balki bankning uzoq muddatli samaradorligiga yo‘naltirilgan strategik investitsiya sifatida baholash zarur.

Tadqiqot natijalari asosida banklar samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. **Raqamli bank samaradorligi indeksini joriy etish.**

Har bir bankda raqamlashtirish natijalarini yagona indikator asosida muntazam baholash zarur.

2. **AI asosida raqamli kredit skoring tizimini rivojlantirish.**

Bunda mijozning kredit tarixi bilan bir qatorda uning moliyaviy xulq-atvori va to‘lov

qobiliyatini ifodalovchi boshqa ma’lumotlardan ham foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Ilmiy yangilik:

- Bank mijozlarining raqamli platformalardagi faoliyati va fikrlarini (chat, ijtimoiy tarmoqlar, ifoda, emoji tahlili) sun’iy intellekt orqali tahlil qilish, mijoz ishonchi va xizmat sifatini baholashda “Digital Emotion Analytics in Banking” usuli (bank sohasida raqamli emotsiya tahlili) ilmiy yangiligini taklif etildi. Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida mijozlarning ovozi, yozish uslubi va mobil faoliyati asosida ularning xulq-atvorini real vaqtda baholash mumkin bo‘ladi. Shuningdek kredit skoringga emotsional indikatorlar qo‘shiladi. Natijada 8 turdagi stress holati aniqlandi hamda qarz qaytarish ehtimolini 12-18% aniqroq prognoz qilindi.

- Bank faoliyatida raqamli texnologiyalar orqali ekologik samaradorlikni oshirish (qog‘ozsiz operatsiyalar, energiya tejovchi data-markazlar, raqamli ekokreditlar tizimi)ga qaratilgan “Grenn Digital Banking Mechanism” konsepsiyasi taklif etildi. Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida tijorat banklarida karbon izini real vaqtda hisoblaydigan va har bir tranzaksiyaga “ekologik baho” beruvchi raqamli algoritm yaratilib, bu mexanizm banklarning ESG reytingini avtomatik ravishda yangilab boradi. Natijada qarzlar uchun “ekologik risk koeffitsiyenti”ni aniqlaydi hamda banklar uchun yashil loyixalarni moliyalashtirishda avtomat ball berish imkoni yaratildi. Qulay ekotizm yaratilgani uchun yil boshidan mahalliy startaplarga rekord miqdorda 264 million dollar sarmoya kiritildi.

- Predictive Cyber Immunity System (PCIS) - raqamli bank tizimida kiberxujumlarni oldindan bashorat qilish va ularga mos immunitetni avtomatik ravishda s
h
a
k

- Banklar test qiladigan raqamli mahsulotlarni sun’iy intellekt nazoratida tahlil qilish tizimi “Smart Digital Regulatory Sandbox” taklif etildi.Smart Digital Regulatory Sandbox (aqlli raqamli nazorat muhiti)- bu sun’iy intellekt, big data va avtomatik tahlil texnologiyalariga asoslangan innovatsion nazorat tizimi bo‘lib, u bank tizimida yangi raqamli xizmatlar va fintex yechimlarni real vaqtda, ammo xavfsiz test muhitida sinovdan o‘tkazish imkonini beradi. Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida bankda innovatsiya xavfini, mijoz xavfini va regulyator xavfini avtomat baholash shakllantirildi. Natijada normativ xavflar 43%ga kamaydi. Raqamli bank xizmatlarini 3-4 barobar tezroq joriy qilish imkoni yaratildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etishi natijasida operatsion xarajatlar 10 foizga kamaydi.

n **XULOSA**

i Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, banklar faoliyatini raqamlashtirish zamonaviy bank tizimining samaradorligini oshirishning muhim strategik omili thisoblanadi. Biroq raqamli foydalanuvchilar sonining o‘sishi o‘z-o‘zidan bank
a
m
i
n
l

samaradorligi oshganini anglatmaydi. Shu sababli raqamlashtirish natijalarini operatsion xarajatlar, xizmat ko‘rsatish tezligi, mijozlar qoniqishi, risklar va bank daromadlari bilan bog‘liq holda baholash zarur. Shuningdek, sun’iy intellekt, Big Data, RPA, raqamli skoring va intellektual kiberxavfsizlik texnologiyalarini o‘zaro integratsiyalash asosida **“aqlli raqamli bank”** modelini shakllantirish banklarning operatsion samaradorligi, raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.Demak, banklarni raqamlashtirishning keyingi bosqichi raqamli xizmatlar sonini ko‘paytirish emas, balki **raqamlashtirishdan maksimal iqtisodiy samara olish**ga yo‘naltirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten — 2025 yil. Toshkent, 2026. (CBU)

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni — 2026 yil 1 iyul holatiga. (CBU)

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2026 yil 1 yanvar holatiga masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar statistikasi. (CBU)

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi va to‘lov tizimiga oid statistik ma’lumotlar.

5. World Bank. Digital Financial Services and Financial Inclusion.

6. Bank for International Settlements. Digitalisation of Finance.

7. OECD. Digital Transformation in Financial Services.

8. International Monetary Fund. Fintech and Financial Services: Initial Considerations.

PENSIYA HISOBLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IJTIMOIY ADOLATNI KUCHAYTIRISH

Oqiljonov Azizjon Olimjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi yetakchi inspektori

Annotatsiya. Tezisda O‘zbekistonda pensiya hisoblash uchun olinadigan ish haqi davrini 5 yildan bosqichma-bosqich 20 yilgacha kengaytirish va hisobga olinadigan ish haqi chegarasini oshirish takliflari ijtimoiy adolat hamda actuarial fairness nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Qisqa davrga asoslangan formula mehnat faoliyatining faqat yuqori daromadli qismini aks ettirishi yoki pensiya oldi yillaridagi pasayishlarga sezgir bo‘lishi mumkin. Uzoq davr esa umr bo‘yi rasmiy mehnat va badal intizomi bilan pensiya

o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, eng past ish haqi olingan davrning 10 foizini hisobdan chiqarish mexanizmi vaqtinchalik daromad shoklarini yumshatishi mumkin.
Kalit so‘zlar: pensiya formulasi, ish haqi davri, ijtimoiy adolat, ish staji, replacement rate, rasmiy ish haqi

Abstract. The thesis examines Uzbekistan’s proposal to extend the earnings period used in pension calculation from 5 to 20 years and to raise the earnings ceiling, focusing on social and actuarial fairness. A longer reference period strengthens the link between lifetime formal employment and pension entitlement, while excluding the lowest 10% of earnings observations may soften temporary income shocks.
Keywords: pension formula, earnings history, social fairness, contribution record, replacement rate

Аннотация. В тезисе анализируется предложение по расширению периода заработка, учитываемого при расчете пенсии, с 5 до 20 лет и повышению предельной заработной платы. Более длительный период усиливает связь между официальной трудовой карьерой и пенсионным правом, а исключение 10 процентов наиболее низких доходов может смягчать временные шоки дохода.
Ключевые слова: пенсионная формула, заработок, социальная справедливость, стаж, коэффициент замещения

ASOSIY QISM

Amaldagi tartibda pensiya hisoblashda so‘nggi 10 yillik mehnat faoliyati ichidagi eng yuqori ketma-ket 5 yillik ish haqi inobatga olinadi [9]. 2026-yilgi rasmiy taklifga ko‘ra, hisobga olinadigan davr har yili 1 yildan kengaytirilib, 2041-yilda 20 yilga yetkazilishi, 2016-yildan keyingi elektron ma’lumotlar asosida eng past daromad olingan 10 foiz davrni chiqarib tashlash ko‘zda tutilmoqda [10].

Bunday o‘zgarishning iqtisodiy mantiqi uchta omil bilan izohlanadi. Birinchidan, besh yillik “eng yaxshi davr” pensiya va umr bo‘yi to‘langan badallar o‘rtasidagi bog‘liqlikni susaytiradi. Ikkinchidan, uzoq davr rasmiy ish haqini barqaror ko‘rsatishga rag‘batni kuchaytiradi. Uchinchidan, faqat uzoq davrni mexanik ravishda qo‘llash vaqtinchalik ishsizlik, parvarish tanaffusi yoki iqtisodiy inqiroz davrlarini ortiqcha jazolashi mumkin; shu sababli eng past 10 foiz davrni chiqarish kompensatsion “shock absorber” vazifasini bajaradi. Yana bir muhim parametr — pensiya hisobida inobatga olinadigan ish haqining yuqori chegarasi. 2026-yilgi rasmiy taklif 2028-yil 1-apreldan ushbu chegarani 6,0 mln so‘mdan 6,6 mln so‘mgacha, ya’ni pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 12 baravaridan 13 baravarigacha oshirishni nazarda tutadi. Rasmiy hisob-kitobga ko‘ra, bu har yili yangi pensiya tayinlanadigan 25–30 ming fuqaroning pensiyasini 277 ming so‘mgacha

[9] Pensiya jamg‘armasi. “Nega ayrimlar yuqori, boshqalar esa kam pensiya oladi?”, 24.08.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/211072.
[10] Pensiya jamg‘armasi. “Pensiya hisobida ish haqi davri kengaytiriladi”, 16.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/220523.

oshirishi mumkin [11].

Muallif fikricha, pensiya formulasini takomillashtirishda uchta prinsip birgalikda qo‘llanishi lozim: ekvivalentlik — ko‘proq va uzoqroq badal to‘lagan shaxsning huquqi kuchliroq bo‘lishi; adekvatlik — past daromadli shaxslar uchun minimal kafolat saqlanishi; barqarorlik — formula Pensiya jamg‘armasi uchun prognoz qilinadigan uzoq muddatli majburiyat yaratishi. OECD pensiya tizimlari tahlilida ham replacement rate, mehnat faoliyati davomiyligi va contribution history birgalikda baholanadi [12].

Shu sababli 5 yildan 20 yilga o‘tish faqat texnik formula almashinuvi emas. U mehnat daromadlarini rasmiylashtirish, elektron ish haqi tarixini to‘liq yuritish va fuqaroning pensiya hisob-kitobini oldindan ko‘ra olishi bilan birga joriy etilgandagina ijtimoiy adolatni kuchaytiradi. 2027-yildan “Mening pensiyam” onlayn xizmatining joriy etilishi bunday shaffoflik uchun institutsional asos yaratadi [13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pensiya hisoblash davrini kengaytirish umr bo‘yi rasmiy mehnat hissasi bilan pensiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Biroq islohotning adolatliligi past daromadli davrlarni yumshatish, tarixiy ma’lumotlar sifati va fuqaroga oldindan hisob-kitob ko‘rsatish mexanizmlariga bog‘liq.

Taklif etiladi: (1) 20 yillik davrga bosqichma-bosqich o‘tish bilan birga “eng past 10 foiz” qoidasining taqsimotga ta’sirini har yili baholash; (2) yuqori ish haqi chegarasini ish haqi dinamikasi va Pensiya jamg‘armasining aktuar imkoniyatlari bilan bog‘lash; (3) formula o‘zgarishidan oldin turli daromad guruhlari bo‘yicha replacement rate simulyatsiyalarini e’lon qilish; (4) “Mening pensiyam” xizmatida amaldagi va yangi formula bo‘yicha parallel hisob-kitobni ko‘rsatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pensiya jamg‘armasi. “Nega ayrimlar yuqori, boshqalar esa kam pensiya oladi?”, 24.08.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/211072.
2. Pensiya jamg‘armasi. “Pensiya hisobida ish haqi davri kengaytiriladi”, 16.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/220523.
3. Pensiya jamg‘armasi. “Rasmiy va yuqori ish haqi — munosib pensiyaning asosidir!”, 23.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/223249.
4. OECD. Pensions at a Glance 2025: OECD and G20 Indicators. OECD Publishing, 2025. DOI: https://doi.org/10.1787/e40274c1-en.
5. Pensiya jamg‘armasi. “Davlat pensiya ta’minotiga oid zamonaviy xizmatlar to‘liq raqamlashtiriladi”, PQ-355, 28.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/226187.
6. O‘zbekiston Respublikasi. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun, 938-XII-son. https://lex.uz/docs/-112314.

[11] Pensiya jamg‘armasi. “Rasmiy va yuqori ish haqi — munosib pensiyaning asosidir!”, 23.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/223249.

[12] OECD. Pensions at a Glance 2025: OECD and G20 Indicators. OECD Publishing, 2025. DOI: https://doi.org/10.1787/e40274c1-en.

[13] Pensiya jamg‘armasi. “Davlat pensiya ta’minotiga oid zamonaviy xizmatlar to‘liq raqamlashtiriladi”, PQ-355, 28.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/226187.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH VA XALQARO TAJRIBALAR

(pul-kredit siyosati va moliyaviy barqarorlik misolida)

Tursunov Olimboy Panjiboy o'g'li
TDIU Xalqaro ilmiy nashr bazalari bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi
olimtursunov02@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sir kanallari pul-kredit siyosati transmissiyasi, to'lov tizimlari va moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Markaziy banklarning raqamli valyutalari bo'yicha Xitoy, Rossiya va Yevrohudud tajribasi qiyosiy o'rganilib, O'zbekistonda narxlar barqarorligi va moliya tizimi mustahkamligini ta'minlashga doir takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsion targetlash, markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC), raqamli so'm, moliyaviy texnologiyalar, kiberxavfsizlik.*

Kirish

So'nggi o'n yillikda raqamli texnologiyalar iqtisodiy munosabatlarning deyarli barcha bo'g'inlariga chuqur kirib bordi: to'lovlar mobil ilovalarga ko'chdi, kredit qarorlari algoritmlar asosida qabul qilinmoqda, pul o'tkazmalari esa bir necha soniyada amalga oshirilmoqda. D. Tapskott tomonidan 1990-yillarda ilmiy muomalaga kiritilgan "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi [10] bugungi kunda davlat iqtisodiy siyosatining amaliy yo'nalishiga aylandi. Bu o'zgarishlar makroiqtisodiy barqarorlikning an'anaviy tarkibiy qismlari — narxlar barqarorligi, barqaror iqtisodiy o'sish, tashqi muvozanat va moliya tizimining mustahkamligini ta'minlash shart-sharoitlarini ham tubdan o'zgartirmoqda.

O'zbekistonda bu jarayon strategik darajada e'tirof etilgan: "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi [2] raqamli infratuzilma, raqamli hukumat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Shu bilan birga, 2019 - yil noyabr oyida qabul qilingan Farmon [1] asosida inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tilishi pul-kredit siyosatining bozor mexanizmlariga tayanuvchi zamonaviy modelini talab etadi. Ushbu ikki jarayon — raqamlashuv va pul-kredit siyosatini modernizatsiya qilish o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash tezisning asosiy tadqiqot masalasidir.

Asosiy qism

Raqamlashuvning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri ikki yoqlama xususiyatga ega. Ijobiy tomondan, naqd pulsiz to‘lovlarning kengayishi tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, iqtisodiyotning yashirin qismini qisqartiradi va pul-kredit siyosati signallarining real sektorga yetib borish tezligini oshiradi. Katta ma’lumotlar (big data) va real vaqt rejimidagi to‘lov statistikasi markaziy bankka iqtisodiy faollikni “nowcasting” usullari yordamida tezkor baholash imkonini beradi, bu esa prognozlarning aniqligi va qarorlarning o‘z vaqtidaligini oshiradi. Moliyaviy inklyuziyaning kengayishi aholining katta qismini rasmiy moliya tizimiga jalb etib, foiz stavkasi kanalining samaradorligini kuchaytiradi.

Salbiy tomondan, raqamli iqtisodiyot yangi turdagi xatarlarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, kiberhujumlar va texnologik uzilishlar to‘lov tizimlarining uzluksizligiga tahdid soladi va tizimli xatarga aylanishi mumkin. Ikkinchidan, kriptoaktivlar va xorijiy valyutaga bog‘langan steyblkoinlarning keng tarqalishi “raqamli dollarlashuv”ga, ya’ni milliy valyutaning to‘lov vositasi sifatidagi o‘rni zaiflashuviga olib kelishi va pul-kredit siyosatining ta’sirchanligini pasaytirishi mumkin. Uchinchidan, yirik texnologik kompaniyalar (BigTech)ning moliya bozoriga kirib kelishi bozor konsentratsiyasini oshiradi va regulyator nazoratidan tashqarida kreditlash hajmining ortishiga sabab bo‘ladi [5; 6].

Mazkur sharoitda ko‘plab markaziy banklar milliy pulning raqamli shaklini yaratish orqali pul suvereniteti va to‘lov tizimi barqarorligini ta’minlashga intilmoqda. Xalqaro tajribani tahlil qilish bu borada uch xil yondashuvni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Xitoy Xalq banki raqamli yuan (e-CNY) loyihasini 2019-yil oxiridan boshlab bir qator shaharlarda pilot rejimida sinovdan o‘tkazib kelmoqda. Loyiha “markaziy bank — vakolatli tijorat banklari” shaklidagi ikki pog‘onali arxitekturaga asoslangan bo‘lib, hamyonlarni identifikatsiya darajasiga ko‘ra tabaqalashtirish orqali moliyaviy nazorat va foydalanuvchi maxfiyligi o‘rtasida muvozanat izlaydi [7]. Bu yondashuvni texnologik jihatdan ilg‘or, ammo uzoq muddatli sinovlarga tayanuvchi model sifatida baholash mumkin.

Rossiya Banki tajribasi bosqichma-bosqich, majburiy joriy etish yo‘lini namoyish etadi. 2023-yildan o‘tkazilgan pilot sinovlardan so‘ng 2026-yil 1-sentabrdan raqamli rublni ommaviy joriy etish boshlandi: dastlab eng yirik banklar va yillik tushumi 120 mln rubldan ortiq savdo korxonalari raqamli rubl bilan ishlash imkoniyatini ta’minlashi shart bo‘lib, ushbu talab 2028-yil sentabrigacha barcha banklarga bosqichma-bosqich tatbiq etiladi. Jismoniy shaxslar raqamli hamyonni bank hisobvarag‘idan oyiga 300 ming rublgacha to‘ldirishi mumkin [8]. Bunday cheklovlarni bank depozitlarining

keskin oqib chiqishi xatarini yumshatuvchi vosita sifatida koʻrish mumkin.

Yevropa Markaziy banki esa ehtiyotkor, qonunchilikka tayangan yondashuvni tanlagan. 2025-yil 30-oktabrda raqamli yevro loyihasini keyingi bosqichga oʻtkazish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi: tegishli qonunchilik 2026-yilda qabul qilingan taqdirda 2027-yildan pilot sinovlar oʻtkazilishi, 2029-yilda esa birinchi emissiyaga tayyor boʻlish moʻljallanmoqda [9]. Muhokamalarda bitta hamyondagi mablagʻ miqdoriga yuqori chegara belgilash va raqamli yevroga foiz hisoblamaslik masalalari muhim oʻrin tutadi. Bu choralar tijorat banklarining resurs bazasini va, demak, pul-kredit transmissiyasini himoya qilishga qaratilgan.

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda makroiqtisodiy koʻrsatkichlar ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Milliy statistika qoʻmitasining dastlabki maʼlumotlariga koʻra, 2025-yilda yalpi ichki mahsulot joriy narxlarda 1 849,7 trln soʻmni tashkil etib, real ifodada 7,7 foizga oʻsdi, isteʼmol sektoridagi inflyatsiya darajasi esa 7,3 foizgacha pasaydi [4]. Bunda asosiy stavkaning 2025-yil mart oyida 14 foizga oshirilib, yil oxirigacha shu darajada saqlanishi bilan taʼminlangan nisbatan qatʼiy pul-kredit sharoitlari inflyatsion kutilmalarni pasaytirishda muhim rol oʻynadi. Markaziy bank 5 foizlik oʻrta muddatli inflyatsiya targetiga 2027-yilda erishishni moʻljallamoqda [3].

Raqamli valyuta masalasida Markaziy bank ehtiyotkor, bosqichma-bosqich yondashuvni tanlagan: raqamli soʻm loyihasi doirasida dastlab banklararo hisob-kitoblarga moʻljallangan ulgurji (wholesale) raqamli valyutani oʻrganishga eʼtibor qaratilmoqda, keyingi bosqichlarda amaliy ehtiyoj tasdiqlanmasa, loyihani kengaytirmaslik imkoniyati ham ochiq qoldirilgan [11]. Bizningcha, bunday yondashuv xalqaro tajriba bilan uygʻun: chakana raqamli valyutalar dunyoda hali keng ommalashmagan, Oʻzbekistonda esa tezkor toʻlov tizimlari va mobil bank xizmatlari allaqachon yaxshi rivojlangan.

Xulosa va takliflar

Oʻtkazilgan tahlil raqamli iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash anʼanaviy vositalar bilan bir qatorda yangi institutsional va texnologik yechimlarni talab etishini koʻrsatadi. Xalqaro tajribani inobatga olgan holda Oʻzbekiston uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

birinchidan, Markaziy bankning prognozlash tizimiga toʻlov tranzaksiyalari, onlayn narxlar va boshqa yuqori chastotali maʼlumotlarga asoslangan “nowcasting” modellarini keng joriy etish, bu esa pul-kredit siyosati qarorlarining oʻz vaqtidaligini oshiradi;

ikkinchidan, raqamli soʻm loyihasini ulgurji segmentdan boshlash, chakana bosqichga oʻtilgan taqdirda esa Rossiya va Yevrohudud tajribasidagi kabi hamyon

limitlari va foizsizlik tamoyillarini qo‘llash orqali bank tizimining resurs bazasini himoya qilish;

uchinchidan, kriptoaktivlar va steyblkoinlar aylanmasini “raqamli dollarlashuv” xatarlarini hisobga olgan holda tartibga solish, xorijiy valyutaga bog‘langan raqamli aktivlarning ichki hisob-kitoblarda qo‘llanilishini cheklash;

to‘rtinchidan, moliyaviy barqarorlikni stress-testlash amaliyotiga kiberxavf va fintex kompaniyalari bilan bog‘liq ssenariylarni kiritish, to‘lov tizimlarining zaxira infratuzilmasini rivojlantirish;

beshinchidan, Markaziy bankning kommunikatsiya siyosatida raqamli kanallardan faol foydalanib, inflyatsion kutilmalarni boshqarish samaradorligini oshirish.

Ushbu choralar raqamlashuv afzalliklaridan to‘liq foydalangan holda uning xatarlarini yumshatish va o‘rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-son “Pul-kredit siyosatini takomillashtirish orqali inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027–2028-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. — Toshkent, 2025. — https://cbu.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yil yanvar–dekabr oylari yakunlari: press-reliz. — Toshkent, 2026-yil 22-yanvar. — https://stat.uz
5. Adrian T., Mancini-Griffoli T. The Rise of Digital Money // IMF FinTech Notes. No. 19/001. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2019.
6. Bank for International Settlements. CBDCs: an opportunity for the monetary system // BIS Annual Economic Report 2021. Chapter III. — Basel: BIS, 2021.
7. Working Group on E-CNY Research and Development of the People’s Bank of China. Progress of Research & Development of E-CNY in China. — Beijing: PBOC, 2021.
8. Bank of Russia. Large-scale introduction of digital ruble to begin on 1 September 2026; Digital ruble launched: press releases. — Moscow, 2025–2026. — https://www.cbr.ru
9. European Central Bank. Press release on moving to the next phase of the digital euro project. — Frankfurt am Main, 30 October 2025. — https://www.ecb.europa.eu

10. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 1996.
11. Markaziy bank raqamli so‘mni ishga tushirmasligi mumkin // Kursiv Uzbekistan. — 2026-yil 24-sentabr. — https://uz.kursiv.media

Tijorat banklari resurs bazasini diversifikatsiyalash orqali likvidlik barqarorligini mustahkamlash yo‘nalishlari

Xolmatov Azizjon Avazxon o‘g‘li
Tashkent International University mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda tijorat banklari resurs bazasini diversifikatsiyalash orqali likvidlik barqarorligini mustahkamlash yo‘nalishlari tadqiq etilgan. “Agrobank” ATBning 2021–2026-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida depozitlar tarkibi, moliyalashtirish manbalari va kreditlarning depozitlarga nisbati tahlil qilingan. Tahlil natijalariga asoslanib, resurs bazasini diversifikatsiyalash, moliyalashtirish manbalari konsentratsiyasini kamaytirish hamda likvidlik barqarorligini mustahkamlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, resurs bazasi, diversifikatsiya, likvidlik barqarorligi, depozitlar, moliyalashtirish manbalari, likvidlik riski.*

Аннотация. В данном исследовании рассмотрены основные направления укрепления ликвидной устойчивости коммерческих банков посредством диверсификации их ресурсной базы. На основе финансовых показателей АКБ «Агробанк» за 2021–2026 годы проанализированы структура депозитов, источники финансирования и соотношение кредитов и депозитов. По результатам анализа разработаны предложения по диверсификации ресурсной базы, снижению концентрации источников финансирования и укреплению ликвидной устойчивости банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, ресурсная база, диверсификация, устойчивость ликвидности, депозиты, источники финансирования, риск ликвидности.

Abstract. This study examines the key directions for strengthening the liquidity stability of commercial banks through the diversification of their funding base. Based on the financial indicators of Agrobank JSCB for 2021-2026, the study analyzes the deposit structure, funding sources, and loan-to-deposit ratio. The findings provide recommendations for diversifying the funding base, reducing funding concentration, and strengthening banks' liquidity stability.

Keywords: *commercial banks, funding base, diversification, liquidity stability, deposits, funding sources, liquidity risk.*

Kirish. Zamonaviy bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, avvalo, tijorat banklarining yetarli va barqaror resurs bazasini shakllantirish hamda mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Banklar tomonidan jalb etilgan mablag‘larning tarkibi, muddatlari, qiymati va moliyalashtirish manbalari bo‘yicha taqsimlanishi ularning likvidlik holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi.

O‘zbekistonda bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish va tijorat banklarining resurs salohiyatini kengaytirishga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan yangilangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida bank tizimidagi islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish vazifalari belgilangan[1]. Xususan, strategiyada tijorat banklari depozitlari qoldig‘ini 2030-yilga qadar 560 trillion so‘mga, bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini esa 720 trillion so‘mga yetkazish maqsad qilingan. Mazkur strategik vazifalarning amalga oshirilishi banklarning ichki moliyalashtirish salohiyatini kengaytirish, depozit resurslarini jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarining barqarorligini ta’minlash masalalarini yanada dolzarb etadi[2].

Tijorat banklari resurs bazasini diversifikatsiyalash orqali likvidlik barqarorligini mustahkamlashning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, moliyalashtirish manbalari tarkibidagi nomutanosibliklarni baholash hamda aktivlar va majburiyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi tijorat banklari resurs bazasining tarkibiy xususiyatlarini o‘rganish, uning diversifikatsiya darajasi va likvidlik barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash hamda banklarning barqaror moliyalashtirish salohiyatini oshirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklari resurs bazasini diversifikatsiyalash orqali likvidlik barqarorligini mustahkamlash imkoniyatlarini baholash maqsadida “Agrobank” ATBning 2021–2026-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida muddatli depozitlarning jami depozitlardagi ulushi, depozitlarning jami majburiyatlarga nisbati hamda sof kreditlarning depozitlarga nisbati asosiy tahliliy indikatorlar sifatida tanlandi.

Mazkur ko‘rsatkichlar bankning resurs bazasi tarkibidagi o‘zgarishlarni, depozit mablag‘larining moliyalashtirish manbalari sifatidagi ahamiyatini va kredit operatsiyalarining depozit resurslari bilan qoplanish darajasini o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini beradi.

1-rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2021-2026-yillar davomida bank resurs bazasining tarkibiy ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Xususan, muddatli depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 2021-yildagi qariyb 78 foizdan 2026-yil 1-yanvar holatiga 90 foiz atrofidagi darajaga yetgan. Ushbu ko‘rsatkichning o‘sishi bank depozit portfelida muddatli mablag‘larning ahamiyati ortib borayotganini ifodalaydi. Muddatli depozitlar ulushining ko‘payishi resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish muddatlarini oldindan rejalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Shu bilan birga, depozitlarning amaldagi barqarorligi ularning shartnomaviy muddatlarigina emas, balki muddatidan oldin yechib olish imkoniyati, omonatchilar tarkibi va foiz stavkalariga sezgirligi bilan ham belgilanadi.



1-rasm. “Agrobank” ATB resurs bazasini diversifikatsiyalash orqali likvidlik barqarorlik dinamikasi (2021–2026-yillar)[3]

Bank depozitlarining jami majburiyatlarga nisbati tahlil qilinganda, mazkur ko‘rsatkich 2021-yildagi qariyb 39 foizdan 2022-yilda 28 foizgacha pasaygani kuzatiladi. Keyingi yillarda uning bosqichma-bosqich tiklanishi natijasida 2025-2026-yillarda 35-37 foiz atrofida shakllangani ko‘rinadi. Ushbu holat bank majburiyatlari tarkibida depozitlardan tashqari boshqa moliyalashtirish manbalari ham salmoqli o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Biroq depozitlar ulushining nisbatan pastligi moliyalashtirish manbalari yetarli darajada diversifikatsiyalashganini o‘z-o‘zidan anglatmaydi. Buning uchun banklararo qarzlar, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari va boshqa jalb qilingan resurslarning alohida ulushlari hamda ularning konsentratsiya darajasini baholash zarur.

Tahlil qilinayotgan davrda sof kreditlarning depozitlarga nisbati nisbatan yuqori darajada shakllangan. Jumladan, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich taxminan 2,7 baravarni

tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 3,4 baravarga, 2023-yilda esa 3,5 baravarga yetgan. Keyingi davrda ko‘rsatkichning pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2024-yilda qariyb 2,9 baravarga, 2025-yilda 2,4 baravarga qisqargan. 2026-yilning birinchi choragi yakunida esa ko‘rsatkich 2,4 baravar atrofida saqlanib qolgan. Bu bank kredit portfelining depozit resurslariga nisbatan yuqori hajmda shakllanganini va kredit operatsiyalarini moliyalashtirishda boshqa resurs manbalarining muhim ahamiyatga ega ekanini bildiradi[4].

Sof kreditlarning depozitlarga nisbati 2023-yildan keyin pasayishi bankning kredit portfeli va depozit bazasi o‘rtasidagi miqdoriy nomutanosiblik qisqarayotganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu nisbatning 2025-2026-yillarda ham ikki baravardan yuqori saqlanib qolayotgani resurslarni jalb qilish va joylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish masalasi dolzarbligini saqlab qolayotganidan dalolat beradi. Mazkur nisbatning yuqori bo‘lishi bankda bevosita likvidlik taqchilligi mavjudligini anglatmaydi, chunki kredit portfeli boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan ham shakllantirilishi mumkin. Shunga qaramay, jalb qilingan resurslarning qaytarish muddatlari, qiymati va barqarorligini hisobga olgan holda aktivlar va majburiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash bank likvidligini boshqarishning muhim vazifasi hisoblanadi.

Xususan, tijorat banklari likvidlik barqarorligini mustahkamlashda resurs bazasining faqat miqdoriy o‘sishiga emas, balki uning tarkibiy sifati va moliyalashtirish manbalarining muvozanatlashganligiga ustuvor ahamiyat qaratish zarur. Bunda depozit bazasini mijozlar va muddatlar bo‘yicha diversifikatsiyalash, barqaror uzoq muddatli resurslarni kengaytirish, moliyalashtirish manbalari konsentratsiyasini cheklash hamda kredit portfeli va jalb qilingan mablag‘larning muddatlar bo‘yicha mutanosibligini ta’minlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Tijorat banklari resurs bazasini diversifikatsiyalash orqali likvidlik barqarorligini mustahkamlashda depozit portfelini mijozlar toifalari va muddatlari bo‘yicha muvozanatlashtirish, yirik omonatchilarga bog‘liqlikni kamaytirish, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini kengaytirish hamda aktivlar va majburiyatlarning muddatlar bo‘yicha mutanosibligini ta’minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, moliyalashtirish manbalari konsentratsiyasini muntazam baholash, depozitlar barqarorligini prognozlash va likvidlik riskini stress-testlash mexanizmlarini takomillashtirish banklarning ehtimoliy moliyaviy xatarlarga bardoshliligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining likvidlik barqarorligini ta’minlashda resurs bazasining faqat miqdoriy kengayishiga emas, balki uning tarkibiy sifati, barqarorligi va diversifikatsiya darajasiga ustuvor ahamiyat qaratish zarur. Mazkur

yo‘nalishlarda kompleks boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi banklarning resurs salohiyatini mustahkamlash, likvidlik risklarini cheklash hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/uz/acts/-8050769

2. Basel Committee on Banking Supervision. (2008). Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision. Bank for International Settlements, Basel. https://www.bis.org/publ/bcbs144.htm

3. “Agrobank” ATB. Moliyaviy ko‘rsatkichlaridan foydalanib muallif tomonidan shakllantirildi. Toshkent.

4. Basel Committee on Banking Supervision. (2013). Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools. Bank for International Settlements, Basel. https://www.bis.org/publ/bcbs238.htm

Rivojlangan davlatlar qishloq xo‘jaligi sug‘urtalarining turlari.

Qo‘ldoshev Ilyos Shuxratovich
TDIU JI va XIM kafedrasi
katta o‘qituvchisi
orcid.org/0000-0003-0543-1507

Annotatsiya. Mazkur tezis qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash ishlarida qishloq xo‘jaligini turli kutilmagan xavflardan himoya qilish uchun hozirgi kundagi eng zarur bo‘lgan choralardan biri hisoblanadi. Turkiyada qo‘llaniladigan sug‘urta turlari o‘rganilgan va uning afzalliklari o‘rganilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida sug‘urta tizimi taklif etilgan va O‘zbekiston sharoitida agrosug‘urtani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: agrosug‘urta, moliyaviy tavakkalchilik, iqtisodiy samaradorlik, sug‘urta paketlari.

Qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash Turkiyada 1957 yilda boshlangan, garchi qishloq xo‘jaligi Turkiyada har doim strategik ahamiyatga ega, ammo zaif sektor bo‘lib kelgan,

chunki o‘sha paytda mamlakat aholisining aksariyat qismi qishloq joylarida yashagan. TARSIM sug‘urta tizimi yaratilgunga qadar sug‘urtalash qamrovi atigi 0,5 foizni tashkil etgan. Hozirgi kunda Turkiya qishloq xo‘jaligi sohasida sug‘urtalash qamrovi darajasi qariyb 20 foizga teng. (TARSIM Turkiyaning qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash tizimi bo‘lib, fermerlarga qurg‘oqchilik, suv toshqini, do‘l va boshqa tabiiy ofatlar bilan bog‘liq yo‘qotishlardan moliyaviy himoyani taqdim etadi. Tizim qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq xavflarni bartaraf etish va boshqarish bo‘yicha ham xizmatlar ko‘rsatadi).

TARSIM yo‘lga qo‘yilgunga qadar qishloq xo‘jaligi sektorini noqulay ob-havo hodisalaridan keyin tiklanishga yordam beradigan ikkita mexanizm mavjud bo‘lgan. Davlat ko‘magi dasturi: To‘lov ekstremal ob-havo hodisalaridan keyin amalga oshirilgan. Hukumat fermerlarga vaqti-vaqti bilan, tabiiy ofat va favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlar shaklida moddiy yordam ko‘rsatgan.

Xususiy sug‘urta kompaniyalari ham o‘z xizmatlarini taklif qilishgan, biroq ular fermerlar bilan bir qatorda risk darajasi past bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga qaratilgan edi. Mahsulot xilma xilligi juda kam bo‘lib, ekstremal ob-havo sharoitlariga uchragan zaif fermerlarning ortib borayotgan xatarlarni qondira olmas edi. TARSIM yaratilishidan oldin qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash bozoridagi vaziyat beqaror edi, chunki xususiy sug‘urtachilarni, asosan, faqat tijoriy manfaatlar qiziqtirgan bo‘lib, ular qishloq xo‘jaligi risklari bilan bog‘liq holatlikni hisobga olgan holda o‘sish imkoniyatlarini cheklab qo‘yishardi. Natijada fermerlar istalgan sug‘urta mahsulotlaridan foydalanish imkoniga ega bo‘lmay qolgan, sug‘urtachilar esa ushbu biznes yo‘nalishiga qiziqish bildirmagan.

2006 yilda ushbu tizimli tahdidlarga javoban, davlat-xususiy sheriklik asosida Ispaniyaning AGROSEGURO qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash tizimiga moslashtirilgan TARSIM kompaniyasi tashkil etildi. TARSIM operatsion modeli quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

sug‘urta badallari (mukofotlari)ning bir qismi hukumat tomonidan subsidiyalanadi;

inklyuzivlik hajmi va aylanmasidan qat’i nazar, barcha fermerlarni qishloq xo‘jaligiga qamrab olish;

markazlashtirilgan boshqaruv tuzilmasi;

standart sug‘urta mahsulotlari;

yagona qoidalar va shartlar;

qayta sug‘urtalash hamda halokatli hodisalar chog‘ida qo‘shimcha moliyaviy imkoniyatlar sifatida davlat ko‘magi.

Boshqaruv kompaniyasining mulk shakli notijorat tashkilot sifatida ro‘yxatga olingan, chunki bosh maqsad aksiyadorlar uchun foyda undirish emas, balki fermerlarning barqarorligini ta’minlash bo‘lgan. Boshqaruv har xil manfaatlarga ega turli manfaatdor tomonlardan tashkil topgan bo‘lib, bu esa umumiy ambitsiyalar va strategik yo‘nalishlar o‘rtasida tegishli muvozanatni ta’minlaydi. Sug‘urta ixtiyoriy asosda taklif etiladi, operatsiyalar esa fermerlar reyestri bilan integratsiya qilingan, bu mijozlarga ulashish, ma’lumotlarni yig‘ish, kommunikatsiya va tegishli hamkorlikning boshqa shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi.



1- rasm TARSIM korporativ tuzilmasi[14]

To‘plam boshqaruv kompaniyasi (sug‘urta to‘plami – bu risklarni birgalikda qoplash maqsadida sug‘urta kompaniyalari yoki investorlarning birlashuvi) notijorat tashkilot bo‘lishiga qaramay, xususiy sug‘urtalash sifatida faoliyat olib boradi. Uning asosiy majburiyatlariga quyidagi faoliyat turlari kiradi: mahsulotni ishlab chiqish, anderrayting bo‘yicha tavsiyalar, aktuar tahlil va tadqiqotlar, fermer xo‘jaligini monitoring qilish va tekshirish, da’volarni boshqarish, distributsiya va marketing, manfaatdor tomonlarni o‘qitish, tadqiqot va ishlanmalar, rezerv qilish.

TARSIM polislarini sotish bo‘yicha ustunlikka ega kanal Ziraat Bank qishloq xo‘jaligi banki hisoblanib, TARSIM sotuv kanallarini geterogen deb atash mumkin, ular juda yaxshi ishlaydi. Shunisi qiziqki, sug‘urta kompaniyalari hozirda sug‘urta polislari, shartnomalarini sotish jarayoniga jalb qilinmagan.

Sotish kanallari	Sug‘urta agentlari soni	Sug‘urta mukofoti ulushi %
Qishloq xo‘jaligi banki (Ziraat Bank)	2.976	55.4
Xususiy sug‘urta agentlari	2.172	25.8
Qishloq xo‘jaligi kredit uyushmalari	2.457	16.7
Boshqalar (brokerlar va bozorning professional ishtirokchilari)	36	2
Umumiy kanal	7.641	100

2- rasm. TARSIM sug‘urta polislarini sotish kanallari[15]

TARSIM qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash mahsulotlari qishloq xo‘jaligi ekinlari va fermerlarni imkon qadar ko‘proq qamrab olish maqsadida jadal rivojlanib bormoqda. Hosilni ko‘p omilli xavflardan sug‘urtalash kabi an’anaviy mahsulotlar bilan boshlangan faoliyat endi agrar sektorning qolgan tarmoqlariga tarqaldi, masalan, chorvani sug‘urtalash va boshqalar. Dasturning zararlilik ko‘rsatkichlari (zararlilikning mukofotlarga nisbati (subsidiyalar bundan mustasno)) g‘oyat qulay ko‘rsatkichlarni

[14] https://napp.uz/uz#zero-420. O‘zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi

[15] https://napp.uz/uz#zero-420. O‘zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi

namoyon etmoqda, quyida ko‘rinib turganidek bu TARSIM narxlash mexanizmlari va aktuar amaliyotlarining mosligini isbotlaydi.



3-rasm. TARSIM tarifi bo‘yicha sug‘urtalangan ekinlarni taqsimlash[16]

TARSIM amal qilgan yillar davomida sug‘urta sezilarli darajada o‘sib, polislar soni 2007 yildagi qariyb 217 mingdan 2018 yilda 1,8 mlnga oshdi. Shu holat sug‘urtalangan gektarlar hisob-kitobida ham saqlanib qolgan bo‘lib, xuddi shu davrda 0,35 mlndan taxminan 2,5 mlngacha o‘sdi.

TARSIM tomonidan muntazam sug‘urtalangan qishloq xo‘jaligi ekinlari o‘ta xilma-xil bo‘lib, Turkiya hukumatining, shuningdek boshqaruv kompaniyasi tarkibiga kiruvchi boshqa tomonlarning ustuvorliklariga mos keladi.

TARSIM erishgan asosiy yutuqlarni jamlab, quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

TARSIM qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash qamrovi darajasini 0 foizdan 20 foizga ko‘paytirdi;

Barcha yo‘nalishlar bo‘yicha o‘sish davom etmoqda: sug‘urta mukofotlarining o‘sishi, mahsulotlar ishlab chiqish, fermerlar bilan o‘zaro hamkorlik yangi texnologiyalarni moslashtirish (masalan, planshetlar yordamida yo‘qotishlarni tuzatish);

Sug‘urtalash qishloq xo‘jaligi ekinlari va fermerlarning turli guruhlarini qamrab oladi;

[16] https://napp.uz/uz#zero-420. O‘zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi

TARSIM yo‘lga qo‘yilgunga qadar amalda bo‘lgan bir martalik to‘lov sxemasidan voz kechish davlat budjetining barqarorlashuviga xizmat qildi;

Boshqaruv kompaniyasining inklyuziv tuzilmasi tufayli qishloq xo‘jaligi sektorida asosiy manfaatdor tomonlar o‘rtasida ishonch mustahkamlanib, fermerlar jamiyatining moliyaviy barqarorligi oshdi, bu esa mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi va fermerlar farovonligini oshirishga xizmat qildi.

Umuman, O‘zbekistonda quyidagi omillar evaziga TARSIM kabi qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash tizimini yaratish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud.

2017–2022 yillarda respublikada qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish va bozor mexanizmlarini joriy etish natijasida barcha turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘sishiga erishildi. 2022 yilda YAIMning 25 foizi, investitsiyalarning 7 foizi, eksport tushumining 6 foizi va band aholining 25 foizi qishloq xo‘jaligi sektori hissasiga to‘g‘ri keldi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti hajmi 1,1 mlrd AQSH dollariga yetdi. Umuman olganda, bu raqamlar qishloq xo‘jaligini sug‘urtalashga bo‘lgan potensial talab mavjudligini ko‘rsatadi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, turli ilmiy institutlar, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi hamda boshqa tashkilot va idoralar tomonidan taqdim etilgan kuchli institutsional baza – ular asosida “TARSIM”ga o‘xshash sug‘urta to‘plamini yaratish imkoniyati mavjud;

moliya institutlari (Agrobank, Biznesni rivojlantirish banki, Xalq banki va boshqalar) orqali sug‘urta polislari sotiladigan potensial kanallari tarmog‘i;

risklarni xorijiy sug‘urta bozorlariga o‘tkazish mexanizmlari va qayta sug‘urtalash kanallarini yaratish uchun sug‘urta va boshqa bozorlarda inson resurslari va professional ishtirokchilarning mavjudligi;

milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan jadal islohotlar,

qishloq xo‘jaligi sug‘urtasini rivojlantirish kun tartibining hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani bu borada mutlaqo yangicha yondashuvlarni joriy etish uchun zarur sharoitlar yaratmoqda.

IMPROVING SERVICE QUALITY IN COMMERCIAL BANKS THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

Valiyev Doniyor Baxtiyor o‘g‘li
Researcher, Tashkent International University

Abstract. This article examines how artificial intelligence can raise service quality in commercial banks, comparing international practice with Uzbekistan. Evidence from Bank of America, DBS, Klarna and TBC Bank Uzbekistan shows large efficiency gains but uneven quality outcomes. Uzbek digital banks record complaint indices above parity. Three proposals follow: a hybrid service standard, shared Uzbek-language AI infrastructure, and risk-based AI governance.

Keywords: artificial intelligence, commercial banks, service quality, SERVQUAL, E-S-QUAL, chatbot, virtual assistant, generative AI, machine learning, credit scoring, customer experience, complaint index, human-in-the-loop, algorithm aversion, AI governance, digital banking, financial inclusion, Uzbekistan.

Artificial intelligence (AI) has become the main lever of service transformation in banking. McKinsey estimates that generative AI alone could add USD 200–340 billion a year to global banking, equal to 9–15 percent of operating profits, largely through productivity gains (Kamalnath et al., 2023). Bank of America’s virtual assistant Erica served 20.6 million clients in 2025 and handled nearly 700 million interactions (Bank of America, 2026). The open question is no longer whether banks adopt AI, but whether adoption improves the quality customers actually perceive.

The issue is equally pressing in Uzbekistan. The national AI strategy to 2030 targets USD 1.5 billion of AI-based products and services and names banking and finance a priority sector (Ministry of Digital Technologies, 2024). In February 2026 the Central Bank began building a national Uzbek speech-to-text model for use across the banking system (Central Bank of the Republic of Uzbekistan, 2026). Yet only 56 percent of adults

held an account in 2024 and 34 percent made a digital payment (Umarova, 2025), while state-owned banks still control 62 percent of sector assets (Umarov, 2026). In the second quarter of 2026 the regulator received 11,331 complaints about banks (Spot, 2026b).

Literature review and state of research. Service quality is conventionally measured as the gap between expectations and perceptions across five SERVQUAL dimensions (Parasuraman et al., 1988), extended to electronic channels by E-S-QUAL, which adds recovery dimensions such as responsiveness, compensation and contact (Parasuraman et al., 2005). Davis (1989) showed that perceived usefulness and ease of use drive technology acceptance. Huang and Rust (2018) argue that AI replaces service tasks in sequence, from mechanical and analytical to intuitive and empathetic ones. Wirtz et al. (2018) conclude that service robots suit standardised tasks, whereas emotionally complex encounters remain human. Empirical work points to limits: disclosing that a chatbot is a machine sharply reduces purchase rates (Luo et al., 2019), and people abandon algorithms after seeing them err (Dietvorst et al., 2015). In lending, machine learning improves prediction but distributes gains unequally across borrower groups (Fuster et al., 2022). Königstorfer and Thalmann (2020) systematise AI applications in commercial banks. Among local scholars, Juraeva (2025) finds that AI lowers operating costs in Uzbek banks but requires infrastructure, qualified personnel and an updated legal framework. The link between AI deployment and customer-perceived quality in Uzbekistan remains unstudied.

Research problem. Banks and vendors report AI results as cost and volume metrics, whereas service quality is a customer-side construct. No evidence shows that AI adoption in Uzbek banks reduces complaints or raises satisfaction.

Aim and scientific contribution. The study aims to develop evidence-based ways of improving service quality in Uzbekistan's commercial banks through AI. Its contribution is a mapping of AI applications onto service quality dimensions with the associated risks, and a proposal to evaluate banking AI by customer outcomes rather than cost savings.

The study relies on secondary data. Comparative analysis covers four institutions with publicly reported AI results: Bank of America (United States), DBS (Singapore), Klarna

(Sweden) and TBC Bank Uzbekistan. Statistical analysis uses the Central Bank's complaint index for the first and second quarters of 2026; the index divides a bank's share of complaints by its share of customers, so values above 1 indicate disproportionately many complaints (Spot, 2026b). Conceptual analysis maps AI applications onto the SERVQUAL dimensions. Limitations: outcome figures are company-reported, the TBC figures come from sponsored content, and no bank-level statistics on AI adoption exist for Uzbekistan, which rules out econometric testing.

International evidence. Reported outcomes are large in scale but differ in what they measure (Table 1).

Institution	AI application	Reported outcome	Source
Bank of America (USA)	Erica virtual assistant	20.6 million users and nearly 700 million interactions in 2025; over 3.2 billion since 2018	Bank of America (2026)
DBS (Singapore)	Enterprise-wide AI and machine learning	About SGD 1 billion of economic value in 2025; over 2,000 models and 430 use cases	DBS (2026)
Klarna (Sweden)	Generative AI assistant	Two-thirds of service chats; resolution time cut from 11 to 2 minutes (2024). In 2025 the CEO acknowledged lower quality and resumed hiring human agents	Fisher (2024); Shibu (2025)
TBC Bank Uzbekistan	In-house Uzbek-language model with speech recognition	Over 2.3 million interactions; cost per interaction down from USD 0.35 to 0.03 (company-reported)	Hromadske Radio (2026)

Table 1. Reported outcomes of AI in bank customer service. Source: compiled by the author.

Three of the four cases report volume or cost, not perceived quality. Klarna is the only case with a documented quality reversal: after automating two-thirds of chats, its chief executive stated that AI produced lower-quality service and guaranteed customers access to a human agent (Shibu, 2025).

Evidence from Uzbekistan. Mobile-only banks, which serve customers almost entirely through automated remote channels, appear in the regulator's list of banks with the highest complaint indices in both quarters of 2026 (Figure 1).



Figure 1. Complaint index of mobile-only banks in Uzbekistan, Q1 and Q2 2026. Source: Central Bank data (Spot, 2026a, 2026b).

AVO Bank's index doubled from 2.16 to 4.42, and TBC Bank's rose from 2.06 to 2.63 although the bank reported large AI-driven savings in May 2026; Anor Bank's fell from 3.29 to 1.84. The data do not establish causation, since the index reflects all complaint sources. They show, however, that automation and cost efficiency do not by themselves bring complaints down to parity. The regulator attributes high indices to insufficient explanation of products and to remote-service, payment and credit problems not being resolved on time (Spot, 2026a), which are precisely the recovery dimensions of E-S-QUAL.

Mapping AI onto service quality. Each quality dimension has a matching AI application and a characteristic risk (Table 2).

Dimension	**AI application**	**Expected effect**	**Main risk**
Reliability	Fraud detection, transaction monitoring	Fewer errors and losses	False positives that block legitimate clients
Responsiveness	Chatbots and voice assistants available 24/7	Shorter waiting and resolution time	Dead-end dialogues without human escalation
Assurance	Machine-learning credit scoring	Faster, more consistent decisions	Opaque refusals and biased outcomes
Empathy	Personalisation, proactive alerts	Relevant advice and offers	Intrusive use of personal data
Tangibles (interface)	Uzbek-language speech and text interfaces	Access for remote and less digitally skilled clients	Weak recognition of regional dialects

Table 2. AI applications by service quality dimension. Source: author's elaboration based on Parasuraman et al. (1988) and Huang and Rust (2018).

The results support four evidence-based approaches.

First, AI should be evaluated by customer outcomes. Efficiency metrics such as containment rate or cost per interaction measure the bank's benefit; quality must be

measured through perceptions (Parasuraman et al., 1988). The Klarna case shows that the two can diverge, and algorithm aversion explains why: one failed automated dialogue lowers trust in the whole channel (Dietvorst et al., 2015).

Second, the appropriate model is hybrid. In line with Huang and Rust (2018) and Wirtz et al. (2018), AI should take over mechanical and analytical tasks such as balance enquiries, routing and fraud screening, while disputes, refusals and complaints stay with trained staff supported by AI tools.

Third, language is a structural barrier. Commercial models cover Uzbek poorly, which is why TBC built its own model (Hromadske Radio, 2026). Few banks can afford this, so shared infrastructure, such as the Central Bank's speech-to-text initiative, determines whether AI narrows or widens the gap between private digital banks and state-owned banks.

Fourth, AI in credit decisions needs explicit rules. The EU Artificial Intelligence Act classifies creditworthiness assessment as high-risk and requires transparency and human oversight (European Parliament & Council, 2024); the unequal effects documented by Fuster et al. (2022) justify a similar approach.

Practical significance. For Uzbekistan the findings give the Central Bank a basis for outcome-oriented supervision of banking AI, give banks a sequence of use cases that raises quality rather than merely cutting cost, and give state-owned banks a low-cost route to AI through shared infrastructure before privatisation.

AI delivers proven scale and cost gains in banking, but service quality improves only where automation is combined with human recovery, local-language capability and clear rules. Three practical recommendations follow.

1. **A hybrid service standard.** The Central Bank should require that any customer talking to an AI assistant be told so and be able to reach a human employee at any point. Banks should publish quarterly AI service indicators — share of requests resolved without escalation, average resolution time, repeat-contact rate and satisfaction compared with human channels — alongside the complaint index.

2. **Shared Uzbek-language AI infrastructure.** The national speech-to-text model should be extended into an open banking language stack (speech, text and banking terminology) available to all licensed banks on equal terms, with regional dialect coverage as an acceptance criterion.

3. **Risk-based AI governance.** The regulator should classify credit scoring and fraud blocking as high-risk applications and require an explanation of the main reasons for each automated refusal, a right to human review, regular bias testing, and board-level responsibility for model risk.

Once banks disclose AI service indicators, future research can test econometrically how AI adoption affects complaints, customer retention and profitability.

O‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHGA YO‘NALTIRILGAN KONTRTSIKLIK FISKAL SIYOSAT USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Qarshiyev Nodirbek Olim o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda fiskal siyosatning iqtisodiy siklga mosligini baholash va kontrtsiklik qarorlarni ishlab chiqish uslubiyoti taklif etiladi. Xalqaro valyuta jamg‘armasining 2023–2025-yillarga oid real yalpi ichki mahsulot o‘sishi va konsolidatsiyalashgan budjet saldosi ko‘rsatkichlari tavsifiy tahlil qilindi. O‘sish jadallashgan davrda budjet taqchilligi qisqargani aniqlansa-da, ushbu ikki qatorning o‘zi siyosatning kontrtsiklik ekanini isbotlamaydi. Shu sababli ishlab chiqarish tafovuti, siklik tuzatilgan birlamchi saldo, bir martalik tushumlar va fiskal impulsni birgalikda qo‘llashga asoslangan ketma-ket baholash tartibi ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuv iqtisodiy pasayishda vaqtinchalik qo‘llab-quvvatlashni, yuqori o‘sish va favqulodda tushumlar davrida esa zaxira jamg‘arishni o‘rta muddatli fiskal cheklovlar bilan bog‘laydi.

Kalit so‘zlar: kontrtsiklik fiskal siyosat, iqtisodiy sikl, ishlab chiqarish tafovuti, siklik tuzatilgan birlamchi saldo, fiskal impuls, budjet taqchilligi.

KIRISH

Iqtisodiy o‘sishning barqarorligi budjet xarajatlari va daromadlarini faqat yillik reja

bo‘yicha emas, iqtisodiy sikl bosqichiga qarab boshqarishni talab qiladi. Pasayish davrida soliq tushumlarining kamayishi va ijtimoiy xarajatlarning ortishi yalpi talabni yumshatishi mumkin; yuksalish davrida esa xarajatlarni tez kengaytirish inflyatsion va tashqi muvozanat xatarlarini kuchaytiradi. Fiskal siyosatning mazkur xususiyatlarini ajratish uchun budjetning kuzatilgan saldosi bilan hukumatning faol qarorlarini farqlash zarur [4; 5].

O‘zbekistonda real YAIM o‘sishi 2023-yildagi 6,3 foizdan 2025-yilda 7,7 foizga yetgan, shu vaqt ichida konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi YAIMga nisbatan 4,6 foizdan 2,1 foizga qisqargan [1]. Biroq budjet saldosining yaxshilanishi avtomatik tushumlar, xomashyo narxlari, xarajatlarni qayta taqsimlash va diskretsion choralar natijasi bo‘lishi mumkin. Tadqiqotning maqsadi ushbu ta’sirlarni ajratishga xizmat qiladigan, O‘zbekiston ma’lumotlari bilan muntazam yangilanadigan metodik tartibni asoslashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotning axborot bazasi sifatida XVJning 2026-yilgi IV modda maslahatlashuvi doirasida e’lon qilingan 2023–2025-yillar ko‘rsatkichlari, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining budjet ijrosi xabari hamda 2026-yilgi Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun ishlatildi [1–3]. Nazariy asos sifatida sikl holatiga bog‘liq fiskal multiplikatorlar bo‘yicha Auerbach va Gorodnichenko tadqiqoti hamda XVJning fiskal barqarorlashtirish yondashuvi olindi [4; 5]. Usullar: dinamik taqqoslash, tarkibiy ajratish va qoida asosidagi institutsional tahlil. Kuzatuvlar soni kichikligi sababli regressiya, multiplikator yoki sababiy ta’sir bahosi hisoblanmadi.

Avval real YAIMning potensial darajasi Y* aniqlanadi va ishlab chiqarish tafovuti $G = 100 \times (Y - Y^*) / Y^*$ sifatida hisoblanadi. Potensial YAIM kuzatilmaydigan kattalik bo‘lgani uchun uni ishlab chiqarish funksiyasi va trend usullari bilan alohida baholab, yakuniy xulosaning usulga sezgirligini ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Keyin umumiy saldo foiz xarajatlari, iqtisodiy sikl ta’siri va bir martalik operatsiyalar bo‘yicha tuzatiladi. Siklik tuzatilgan birlamchi saldo (STBS) budjetning diskretsion yo‘nalishini solishtirishga yaqinlashtiradi.

Fiskal impuls $FI_t = -(STBS_t - STBS_{t-1})$ formula orqali aniqlanadi: musbat qiymat kengaytiruvchi, manfiy qiymat cheklovchi yo‘nalishni anglatadi. $G < 0$ va $FI > 0$ holati kontrtsiklik yumshatish, $G > 0$ va $FI < 0$ holati kontrtsiklik mustahkamlash sifatida dastlabki tasniflanadi. Bu tasnif qarz barqarorligi, inflyatsiya, davlat korxonalari majburiyatlari va tashqi shoklar bilan birgalikda tekshiriladi; faqat saldo o‘zgarishiga tayangan hukm chiqarilmaydi.

Metodik chegaralar shundan iboratki, mazkur maqolada STBS va ishlab chiqarish tafovutining yillik qatorlari hisoblanmagan. Ularni hisoblash uchun choraklik YAIM, soliq bazalari, xarajatlarning iqtisodiy tasnifi, bir martalik tushumlar hamda davlat korxonalari bilan bog‘liq fiskal xatarlar bo‘yicha muvofiqlashtirilgan ma’lumotlar kerak. Quyidagi natijalar tavsifiy dalil va amaliy uslubiy taklif sifatida talqin etiladi.

NATIJALAR

XVJ ma’lumotlari iqtisodiy o‘sish jadallashishi bilan bir paytda kuzatilgan budjet taqchilligi qisqarganini ko‘rsatadi (1-jadval). 2023–2025-yillarda o‘sish 1,4 foiz punktga tezlashgan, saldo esa YAIMga nisbatan 2,5 foiz punktga yaxshilangan. Ma’lumotlar nominal daromadlarning o‘zgarishi yoki siyosatning aynan qaysi qarori saldo siljishini keltirganini ajratmaydi.

1-jadval. O‘zbekistonda o‘sish va budjet saldosi, 2023–2025-yillar

Ko‘rsatkich	**2023**	**2024**	**2025**
Real YAIM o‘sishi, %	6,3	6,7	7,7
Konsolidatsiyalashgan budjet saldosi, YAIMga nisbatan %	−4,6	−3,0	−2,1

Manba: XVJ, 2026-yilgi IV modda maslahatlashuvi, asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar [1]. 2025-yil budjet taqchilligining 2,1 foizlik darajasi vazirlik xabarida ham qayd etilgan [2]. Taklif etilayotgan uslubiyotda tahlil uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda iqtisodiyot holati faqat o‘sish sur’ati bilan emas, ishlab chiqarish tafovuti va inflyatsion bosim orqali baholanadi. Ikkinchi bosqichda daromad va xarajatlarning siklga bog‘liq qismlari, foiz to‘lovlari hamda bir martalik tushumlar ajratilib, STBS hisoblanadi.

Uchinchi bosqichda fiskal impuls va sikl fazasi o‘zaro solishtirilib, fiskal imkoniyatlar bilan mos keladigan chora tanlanadi.

Bu ketma-ketlik o‘sish yuqori bo‘lgan har qanday yilni avtomatik «ijobiy tafovut» deb qabul qilish xatosini kamaytiradi. Masalan, potensial o‘sish ham tezlashsa, 7,7 foizlik haqiqiy o‘sishning o‘zi iqtisodiyot qizib ketganini bildirmaydi. Xuddi shuningdek, taqchillik qisqarishi vaqtinchalik yuqori tushumlardan kelib chiqqan bo‘lsa, uning barqaror konsolidatsiya sifatidagi qiymati cheklangan bo‘ladi.

MUHOKAMA

Auerbach va Gorodnichenko fiskal multiplikator iqtisodiy holatga qarab o‘zgarishini ko‘rsatgan: pasayish va yuksalish sharoitidagi bir xil hajmdagi fiskal chora bir xil natija bermaydi [4]. Bu yondashuv O‘zbekistonda choralarni vaqt va tarkib bo‘yicha farqlash uchun ilmiy asos beradi. Biroq xalqaro bahoni bevosita mahalliy multiplikator deb qabul qilish mumkin emas; import ulushi, pul-kredit siyosati va moliyalashtirish shartlari alohida baholanishi kerak.

2-jadvalda taklifning amaliy qo‘llanish mantiqi jamlangan. Chora tanlashda vaqtinchaliklik, maqsadlilik va ochiq hisobdorlik tamoyillari birga ishlashi kerak. Xarajat majburiyati doimiy tus olsa, keyingi yillarda qarz va taqchillikni nazorat qilish qiyinlashadi.

2-jadval. Sikl holatiga mos fiskal qarorlar

Holat	**Asosiy dalil**	**Tavsiya etilgan yo‘nalish**
Salbiy tafovut	G < 0; STBS va qarz xatari baholangan	Avtomatik stabilizatorlarga yo‘l berish, muddatli va aniq manzilli qo‘llab-quvvatlash
Ijobiy tafovut	G > 0; tushumlar tarkibi tekshirilgan	Favqulodda tushumni zaxiraga yo‘naltirish, xarajat o‘sishini me’yorlash
Noaniq signal	Baholar usulga sezgir yoki ma’lumot kechikkan	Ehtiyotkor bazaviy reja, ssenariylar va choraklik qayta ko‘rib chiqish

O‘zbekistonning 2026-yilgi budjet qonunida konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi

uchun YAIMga nisbatan 3 foizlik yuqori chegara belgilangan [3]. Shu bois salbiy shokda qo‘llab-quvvatlash miqyosi o‘rta muddatli taqchillik va qarz trayektoriyasi bilan birga ko‘rilishi lozim. Fiskal qoida siklga javob berish tartibini, favqulodda holat shartlarini va normal holatga qaytish muddatini oldindan tushunarli shaklda belgilasa, uning ishonchliligi oshadi.

Tadqiqot cheklovi: 2023–2025-yillik uchta kuzatuv asosida siyosatning siklga sababiy ta’siri yoki optimal taqchillik chegarasini aniqlab bo‘lmaydi. Keyingi ishda STBSning choraklik qatori, real vaqt prognoz xatolari va turli sikl holatlari uchun mahalliy multiplikatorlar baholanishi talab etiladi.

XULOSA

Tavsifiy tahlil 2023–2025-yillarda O‘zbekistonda real YAIM o‘sishi tezlashgani va konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi qisqarganini ko‘rsatdi. Bu birgalikdagi dinamika kontrtsiklik siyosat mavjudligini yakka o‘zi tasdiqlamaydi: iqtisodiy siklning holati, avtomatik tushumlar hamda bir martalik omillar ajratilishi zarur.

Maqolada fiskal siyosatni baholashning izchil tartibi taklif etildi: ishlab chiqarish tafovutini bir nechta usulda baholash, siklik tuzatilgan birlamchi saldoni hisoblash, fiskal impulsni aniqlash va uni qarz barqarorligi bilan birga talqin qilish. Pasayishdagi vaqtinchalik maqsadli yordam hamda o‘sish davridagi zaxira jamg‘arish mazkur tartibning amaliy natijasidir.

Taklifni joriy etish uchun fiskal ma’lumotlarning choraklik ochiqligi, bir martalik tushumlarning alohida e’lon qilinishi va budjet hujjatlarida STBS hamda fiskal impuls bo‘yicha ssenariylar berilishi maqsadga muvofiq. Kelgusi empirik tadqiqot iqtisodiy siklga bog‘liq fiskal multiplikatorlarni O‘zbekiston ma’lumotlarida tekshirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation, Press Release No. 26/214, 18.06.2026. https://www.imf.org/en/news/articles/2026/06/18/pr-26214-uzbekistan-imf-executive-board-concludes-2026-article-iv-consultation

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha budjet taqchilligi haqidagi rasmiy axborot. https://gov.uz/oz/imv/news/view/172855

3. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi O‘RQ–1105-son Qonuni. https://lex.uz/uz/acts/-7949060

4. Auerbach A. J., Gorodnichenko Y. Measuring the Output Responses to Fiscal Policy. American Economic Journal: Economic Policy. 2012;4(2):1–27. https://doi.org/10.1257/pol.4.2.1

5. International Monetary Fund. Fiscal Monitor: Policies to Support People During the COVID-19 Pandemic. April 2020. https://www.imf.org/en/Publications/FM/Issues/2020/04/06/fiscal-monitor-april-2020

6. World Bank. Uzbekistan Public Expenditure Review. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/per

МЕЖДУНАРОДНЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РЕСУРСАМИ КОРПОРАТИВНЫХ СТРУКТУР И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Джуматова Гулзар Махмуд кизи
Самостоятельный соискатель Ташкентского государственного экономического университета; главный специалист отдела по работе с международными и национальными рейтингами ТГЭУ, Ташкент, Узбекистан
E-mail: gulzarjumatova@gmail.com

Аннотация. *В тезисе проанализированы англо-американская, континентально-европейская и японская модели организации корпоративных финансов, сопоставлена структура корпоративного финансирования в ряде стран по данным Всемирного банка, рассмотрены опыт Сингапура и Казахстана в управлении государственными активами, а также современные реформы в Японии и Южной Корее, направленные на повышение эффективности использования капитала. Оценены возможности применения зарубежного опыта в корпоративном секторе Узбекистана и сформулированы практические предложения.*

Ключевые слова: *корпоративные финансы, корпоративная структура, модель финансирования, банковская модель, рыночная модель, корпоративное управление, стоимость капитала, народное IPO, МСФО.*

KORPORATIV TUZILMALARDA MOLIYAVIY RESURSLARNI

BOSHQARISHNING XALQARO MODELLARI VA ULARNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Tezisda korporativ moliyani tashkil etishning anglo-amerika, kontinental-yevropa va yapon modellari, Jahon banki ma’lumotlari asosida mamlakatlarning korporativ moliyalashtirish tuzilmasi, davlat aktivlarini boshqarishning Singapur va Qozog‘iston tajribasi hamda Yaponiya va Janubiy Koreyadagi zamonaviy islohotlar tahlil qilingan. Xorijiy tajribaning O‘zbekiston korporativ sektorida qo‘llanish imkoniyatlari baholanib, amaliy takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *korporativ moliya, korporativ tuzilma, moliyalashtirish modeli, bank tizimiga asoslangan model, bozorga asoslangan model, korporativ boshqaruv, kapital qiymati, xalq IPOsi, MHXS.*

INTERNATIONAL MODELS OF FINANCIAL RESOURCE MANAGEMENT IN CORPORATE STRUCTURES AND THEIR APPLICABILITY IN UZBEKISTAN

Abstract. *The paper examines the Anglo-American, Continental European and Japanese models of corporate finance, compares the structure of corporate financing across countries using World Bank data, and reviews the experience of Singapore and Kazakhstan in managing state-owned assets, as well as recent capital-efficiency reforms in Japan and South Korea. Their applicability to the corporate sector of Uzbekistan is assessed and practical recommendations are proposed.*

Keywords: *corporate finance, corporate structure, financing model, bank-based system, market-based system, corporate governance, cost of capital, people’s IPO, IFRS.*

В современных условиях конкурентоспособность корпоративных структур во многом зависит от того, из каких источников они привлекают финансовые ресурсы, как распределяют капитал и как контролируют финансовые потоки. В Узбекистане в процессе реформирования предприятий с государственным участием, их приватизации и развития рынка капитала изучение зарубежного опыта организации корпоративных финансов приобретает особое значение [1]. В мировой практике сложилось несколько устойчивых моделей, каждая из которых связана со структурой финансовой системы, формой собственности и правовыми традициями [2; 3]. Как показали Р. Ла Порта и соавторы, уровень защиты прав инвесторов, определяемый правовой традицией страны, во многом предопределяет глубину фондового рынка и преобладающие источники финансирования компаний [6].

Англо-американская (рыночная) модель сформировалась в США и Великобритании. В ней корпорации привлекают капитал преимущественно через фондовый рынок – путём выпуска акций и корпоративных облигаций, акционерный капитал распылён, а главной целью финансового менеджмента является рост благосостояния акционеров. Контроль над менеджментом осуществляется через биржевую цену, независимых директоров, строгие

требования к раскрытию информации и рынок корпоративного контроля [4; 5]. Важную роль в развитии этой модели сыграл доклад комитета А. Кэдбери (1992), который впервые закрепил принцип «соблюдай или объясняй» и рекомендации по составу совета директоров и аудиторскому комитету [13]. Сильной стороной модели являются быстрота и ликвидность доступа к капиталу, слабой – ориентация менеджмента на краткосрочные результаты.

Континентально-европейская (банковская) модель наиболее ярко проявляется в Германии. Корпорации получают долгосрочное финансирование преимущественно у банков; в системе «Hausbank» банк одновременно может быть кредитором, акционером и членом наблюдательного совета. Двухуровневая система управления – правление и наблюдательный совет – и участие работников в управлении обеспечивают баланс интересов заинтересованных сторон [2; 6]. **Японская модель** также является банковской: система «основного банка» и группы перекрёстного владения акциями «кэйрэцу» обеспечивали корпорациям стабильное финансирование и поддержку в период финансовых трудностей, а основной банк выполнял функцию мониторинга заёмщика [7]. Исследование Р. Левина показало, что для экономического роста важнее не то, является ли финансовая система банковской или рыночной, а её общий уровень развития и защищённость прав инвесторов [3]. Сравнительная характеристика моделей приведена в таблице 1.

Таблица 1. Сравнительная характеристика моделей организации корпоративных финансов

Критерий	Англо-американская модель	Континентально-европейская модель	Японская модель
Основной источник финансирования	Акции и облигации	Банковские кредиты	Кредиты основного банка, внутригрупповое финансирование
Структура собственности	Распылённая	Концентрированная (банки, семьи)	Перекрёстное владение (кэйрэцу)
Система управления	Одноуровневый совет, независимые директора	Двухуровневая (правление и наблюдательный совет)	Одноуровневая, преобладают внутренние директора
Механизм контроля	Цена акций, рынок корпоративного контроля	Банковский мониторинг, участие работников	Основной банк, внутригрупповой контроль

Критерий	Англо-американская модель	Континентально-европейская модель	Японская модель
Финансовая цель	Рост акционерной стоимости	Баланс интересов заинтересованных сторон	Стабильность и доля рынка

Источник: составлено автором на основе [2; 4; 6; 7].

Структура корпоративного финансирования. Различия между моделями наглядно проявляются в статистике. По данным Всемирного банка, внутренний кредит частному сектору в 2023 году составлял в США 191,1% ВВП, в Японии – 186,1%, в Южной Корее – 163,5%, в Германии – 77,3%, в Казахстане – 26,0%, в Узбекистане – 32,8% ВВП [14]. Рыночная капитализация в 2025 году составила соответственно 224,0%, 171,6%, 147,2%, 57,4%, 51,7% и 16,1% ВВП [15].

Отношение капитализации к кредиту равно 1,17 в США, 0,74 в Германии и 0,49 в Узбекистане. Таким образом, формально Узбекистан относится к странам с банковской моделью, однако по уровню кредита частному сектору он отстаёт от Германии в 2,4 раза, а по капитализации – в 3,6 раза. Следовательно, ключевая проблема заключается не в выборе модели, а в недостаточной глубине обоих каналов финансирования.

Опыт управления государственными активами. Для экономик с высокой долей государства образцом служит опыт Сингапура. Инвестиционная компания «Temasek», принадлежащая государству, действует на коммерческих принципах под управлением совета директоров с независимыми членами и ежегодно публикует финансовые результаты. Её чистая стоимость портфеля на 31 марта 2025 года достигла 434 млрд сингапурских долларов, а совокупная доходность для акционера за 20 лет составила 7% годовых [8]. В Казахстане акции компаний фонда «Самрук-Казына» размещались среди населения в рамках программы «Народное IPO». В 2012 году на акции «КазТрансОйл» было подано 34 687 заявок, а спрос (59,4 млрд тенге) превысил объём удовлетворённых заявок (27,9 млрд тенге) в 2,1 раза; в 2014 году на акции KEGOC поступило 41 997 заявок. В 2018–2020 годах акции «Казатомпрома» размещены на Лондонской фондовой бирже и бирже МФЦА, в результате чего в свободном обращении находится 25% акций компании [16].

Современные тенденции. В последние годы в организации корпоративных финансов наблюдаются три общих направления. Во-первых, создание единой и сопоставимой информационной среды на основе МСФО. Во-вторых, интеграция факторов устойчивого развития в корпоративные финансы: в пересмотренной редакции Принципов корпоративного управления G20/ОЭСР, одобренной в сентябре 2023 года, впервые появились рекомендации по вопросам устойчивого развития и устойчивости к шокам, усилены требования к раскрытию информации и роли институциональных инвесторов [9]. В-третьих, использование биржевых механизмов для повышения эффективности капитала. В марте 2023 года Токийская

фондовая биржа предложила листинговым компаниям проанализировать стоимость капитала и раскрыть план её повышения. Поводом стало то, что в июле 2022 года 43% японских компаний торговались ниже балансовой стоимости (P/B < 1) против 5% в США и 24% в Европе. К марту 2025 года такие планы раскрыли более 90% компаний рынка Prime, а их средний P/B вырос с 1,1 до 1,4 [17]. По аналогичной логике в феврале 2024 года в Южной Корее была запущена программа
«Value-up»: компаниям рекомендуется раскрывать P/B, P/E, ROE, коэффициент выплаты дивидендов и трёхлетний план повышения стоимости, а в сентябре 2024 года создан индекс Korea Value-up из 100 компаний [18].

Практика Узбекистана. В стране начато внедрение ряда элементов зарубежного опыта (таблица 2). Постановлением Президента № ПП-4611 от 24 февраля 2020 года предусмотрен переход акционерных обществ, коммерческих банков и страховых организаций на МСФО [10]. В мае 2026 года 31% акций Национального инвестиционного фонда Узбекистана (UzNIF) были одновременно размещены на Лондонской фондовой бирже и в Ташкенте; привлечено 603,6 млн долларов США, а стоимость фонда оценена примерно в 1,95 млрд долларов. Управление фондом в 2025 году было передано структуре, входящей в международную инвестиционную компанию Franklin Templeton [11]. Этот подход близок к опыту Сингапура и Казахстана и предполагает передачу государственных активов в профессиональное управление и их подчинение рыночной дисциплине. Капитализация Ташкентской республиканской фондовой биржи в июне 2026 года достигла 428,06 трлн сумов, однако в котировальном листе представлены лишь 95 компаний [12], что свидетельствует о сохраняющейся зависимости корпоративного сектора от банковского кредита.

Таблица 2. Применение элементов зарубежного опыта в Узбекистане

Элемент зарубежного опыта	Страна-образец	Состояние в Узбекистане
Обязательная отчётность по МСФО	Большинство развитых стран	Предусмотрена ПП-4611 (2020)
Профессиональное управление госактивами	Сингапур («Temasek»)	Начато (UzNIF, 2025–2026)
Народное IPO как программа	Казахстан («Самрук-Казына»)	Отдельные размещения, единой программы нет
Двойной листинг (внутренняя и зарубежная биржа)	Казахстан, UzNIF	Первый опыт (UzNIF, 2026)
Раскрытие плана повышения эффективности капитала	Япония, Южная Корея	Не внедрено

Элемент зарубежного опыта	Страна-образец	Состояние в Узбекистане
Независимые директора в наблюдательных советах	Англо-американская модель, ОЭСР	Внедряется частично

Источник: составлено автором на основе [8–12; 16–18].

Подводя итог, можно отметить, что Узбекистану целесообразно не копировать полностью одну из зарубежных моделей, а использовать смешанный подход, при котором сохраняется ведущая роль банковского финансирования, а рыночные механизмы поэтапно усиливаются. Для этого предлагается: продолжить передачу активов предприятий с государственным участием в инвестиционные фонды под управлением независимых советов на принципах «Temasek»; принять единую программу размещения акций крупных предприятий через народное IPO и двойной листинг с чётким графиком; публиковать отчётность по МСФО всех листинговых эмитентов в открытом и машиночитаемом формате; по опыту Японии и Кореи ввести для листинговых и государственных акционерных обществ раскрытие показателей ROE, стоимости капитала и P/B вместе с планом их улучшения; увеличить долю независимых директоров в наблюдательных советах и поэтапно внедрить раскрытие информации об устойчивом развитии в соответствии с принципами G20/ОЭСР.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы». – www.lex.uz.
2. Allen F., Gale D. Comparing Financial Systems. – Cambridge, MA: MIT Press, 2000. – 520 p.
3. Levine R. Bank-based or market-based financial systems: Which is better? // Journal of Financial Intermediation. – 2002. – Vol. 11(4). – P. 398–428.
4. Shleifer A., Vishny R.W. A survey of corporate governance // The Journal of Finance. – 1997. – Vol. 52(2). – P. 737–783.
5. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. 13th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2020.
6. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R.W. Law and finance // Journal of Political Economy. – 1998. – Vol. 106(6). – P. 1113–1155.
7. Aoki M., Patrick H. (eds.). The Japanese Main Bank System: Its Relevance for Developing and Transforming Economies. – Oxford: Oxford University Press, 1994.
8. Temasek net portfolio value grows to record high of $434 billion // Temasek. – 2025. – https://www.temasek.com.sg/en/news-and-resources/news-room/news/2025/temasek-net-portfolio-value-grows-to-record-high-of-434-billion
9. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. – Paris: OECD

Publishing, 2023.
10. Постановление Президента Республики Узбекистан от 24.02.2020 г. № ПП-4611 «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчётности». – www.lex.uz.
11. UzNIF IPO raises USD603 million in “defining moment for Uzbekistan” // Morningstar (Alliance News). – 2026. – 13 May.
12. Uzbekistan’s stock market capitalization jumps 50% in 1H 2026 // Trend. – 2026. – https://trend.az/casia/uzbekistan/4215430.html
13. Cadbury A. Report of the Committee on the Financial Aspects of Corporate Governance. – London: Gee, 1992.
14. World Bank. World Development Indicators: Domestic credit to private sector (% of GDP). – Washington, DC: The World Bank, 2025.
15. Stock market capitalization – Country rankings (World Bank data) // TheGlobalEconomy. – 2025. – https://www.theglobaleconomy.com/rankings/Stock_market_capitalization/
16. IPO History // АО «Самрук-Казына». – 2025. – https://ipo.sk.kz/en/ipo-history
17. Yamashita H. Tokyo Stock Exchange initiative on cost of capital and stock price conscious management // Harvard Law School Forum on Corporate Governance. – 2025. – 21 October.
18. Navigating South Korea’s Corporate Value-Up Program // Glass Lewis. – 2024. – 30 September. – https://www.glasslewis.com/article/navigating-south-koreas-corporate-value-up-program

МОЛ-МУЛК СОЛИҒИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАБИАТИ ВА СОЛИҚ БАЗАСИНИ БОЗОР ҚИЙМАТИГА ЯҚИНЛАШТИРИШ ЗАРУРАТИ

Султанов Дилшод Шухратович
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси мустақил изланувчиси
https://orcid.org/0009-0005-2284-6845

Аннотация. Тезисда мол-мулк солиғининг иқтисодий табиати бўйича анъанавий, капитал солиғи ва наф ёндашувлари таҳлил қилинган, Ўзбекистонда солиқ базасини аниқлашда қўлланилаётган турли усулларнинг солиқ юки тақсимотига таъсири баҳоланган ҳамда солиқ базасини бозор қийматига босқичма-босқич яқинлаштириш заруратини асословчи хулосалар келтирилган.

Таянч сўзлар: мол-мулк солиғи, солиқ базаси, бозор қиймати, горизонтал адолат.

Мол-мулк солиғи маҳаллий бюджетларнинг энг барқарор ўз даромад манбаларидан бири ҳисобланади. Кўчмас мулк объектлари яширилиши ёки бошқа

ҳудудга кўчирилиши мумкин эмаслиги сабабли ушбу солиқ иқтисодий цикларга нисбатан кам таъсирчан бўлиб, унинг тушумлари маҳаллий жамоат хизматлари билан бевосита боғланади (Bird & Slack, 2004). Шу билан бирга, ривожланаётган мамлакатларда кўчмас мулкка даврий солиқлар ЯИМнинг 0,3–0,6 фоизидан ошмайди, ИҲТТ мамлакатларида эса ўртача 1 фоиз атрофида тушум таъминлайди (Norregaard, 2013). Мазкур тафовут солиқ салоҳиятидан тўлиқ фойдаланилмаётганидан далолат беради.

Мол-мулк солиғи бир вақтнинг ўзида бир нечта функцияни бажаради. Фискал функция маҳаллий бюджетларнинг барқарор ва прогноз қилинадиган даромад манбаини таъминлашда, тартибга солувчи функция бўш турган ер участкалари ва фойдаланилмаётган биноларга оширилган ставкалар орқали ердан ва кўчмас мулкдан самарали фойдаланишни рағбатлантиришда, тақсимлаш функцияси эса қиммат мулк эгалари зиммасига нисбатан юқорироқ солиқ юкини юклашда намоён бўлади. Назорат функцияси кўчмас мулк объектларини ҳисобга олиш ва ҳуқуқий ҳолатини тартибга солиш билан боғлиқ бўлиб, кадастр ва ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиш тизимини такомиллаштириш орқали мулк ҳуқуқлари кафолатини ҳам мустаҳкамлайди. Ушбу функцияларнинг тўлиқ амалга ошиши солиқ базасининг объект иқтисодий қийматини қанчалик аниқ акс эттиришига боғлиқ.

Илмий адабиётда мол-мулк солиғининг иқтисодий табиати бўйича учта асосий ёндашув шаклланган. Анъанавий ёндашувда у ер ва бинолардан фойдаланишга солинадиган акциз сифатида қаралади. П.Мешковский илгари сурган «янги қараш»да мамлакат миқёсидаги мулк солиғи барча капитал эгалари даромадини камайтирувчи умумий капитал солиғи сифатида талқин этилади (Mieszkowski, 1972; Zodrow, 2001). Наф ёндашувида эса мулк солиғи маҳаллий жамоат хизматлари учун тўланадиган нарх вазифасини бажаради, хизматлар сифати эса кўчмас мулк қийматида капиталлашади (Oates, 1969; Fischel, 2001). Ушбу ёндашувлардан амалий хулоса шуки, мулк солиғи маҳаллий хизматлар билан

қанчалик яқин боғланса, аҳоли уни шунчалик адолатли тўлов сифатида қабул қилади.

Ўзбекистонда кўчмас мулкни солиққа тортишда солиқ базасини аниқлашнинг камида тўртта турли усули қўлланилади: жисмоний шахслар учун кадастр қиймати, юридик шахслар учун ўртача йиллик қолдиқ қиймат (бинолар бўйича 1 кв. м учун минимал қийматдан кам бўлмаган ҳолда), қишлоқ хўжалиги ерлари учун норматив қиймат, бошқа ер участкалари учун эса майдон кўрсаткичи ҳисобга олинади. Майдонга асосланган база маъмурий жиҳатдан содда бўлса-да, объект қиймати ва жойлашувини ҳисобга олмайди; баланс қиймати амортизация сиёсатига боғлиқ бўлиб, бозор қийматидан узоқлашади; норматив қиймат эса камдан-кам қайта кўриб чиқилади.

Таҳлилларнинг кўрсатишича, объектларнинг бозор қиймати 2 баробардан зиёд фарқ қилган ҳолда амалдаги солиқ суммалари ўртасидаги фарқ атиги 25 фоизни ташкил этган. Ушбу ҳолат қиммат объектлар эгалари арзон объектлар эгаларига нисбатан ўз мулки қийматига мутаносиб равишда камроқ солиқ тўлаётганини, яъни тизим регрессив хусусият касб этаётганини кўрсатади.

Солиқ базасини аниқлаш усулларининг хилма-хиллиги маъмурий харажатларни оширади. Юридик шахслар учун баланс қийматидан фойдаланилганда солиқ органлари амортизация тўғри ҳисобланганини, фойдали хизмат муддати асосли белгиланганини ва минимал қийматга риоя этилганини текширишга мажбур бўлади. Мазкур ҳолат камерал ва сайёр текширувлар ҳажмини оширади, солиқ суммасини солиқ тўловчининг ҳисоб сиёсатига боғлиқ қилиб қўяди. Оммавий баҳолаш асосидаги ягона база солиқ мажбуриятларини марказлашган тартибда ҳисоблаш ва солиқ низолари сонини камайтириш имконини беради.

Сўнгги йилларда солиқ базаси миқдорий жиҳатдан сезиларли кенгайди: кўчмас мулк объектлари сони 2018 йилдаги 6,5 млн тадан 2026 йил бошида 8,8 млн тага, солиқ мақсадида ҳисобга олинадиган жисмоний шахслар кўчмас мулки

қиймати эса 2017 йилдаги 46,5 трлн сўмдан 2026 йилда 517,8 трлн сўмгача ошди. Бироқ база ҳажмининг ўсиши унинг бозор қийматига мос эканини англатмайди.

Фикримизча, давлат бюджети даромадларини оширишнинг устувор йўналиши солиқ ставкаларини механик равишда ошириш эмас, балки солиқ базасининг иқтисодий мазмунини такомиллаштиришдан иборат. Бунинг учун, биринчидан, ер участкаси ва ундаги бино-иншоотларни «ер + яхшиланишлар»дан иборат ягона иқтисодий актив сифатида баҳолаш; иккинчидан, солиқ базасини солиқ тўловчи тоифаси ва бухгалтерия ҳисоби усулидан қатъи назар оммавий баҳолаш асосида бир хилда аниқлаш; учинчидан, баҳолаш натижаларини ҳар 3–5 йилда янгилаб бориш мақсадга мувофиқ. Ушбу ёндашув горизонтал адолатни тиклаш билан бирга маҳаллий бюджетларнинг ўз даромадларини реал иқтисодий база билан боғлайди.

Бозор қийматига ўтиш умумий солиқ юкини автоматик оширишни англатмаслиги керак. Шу сабабли ставкалар бюджет даромадлари ва солиқ юки тақсимотига таъсирини моделлаштириш натижалари асосида, фискал нейтраллик тамойилига мувофиқ қайта белгиланиши лозим. Баҳолаш сифатини Халқаро солиқ баҳоловчилари ассоциацияси стандартларидаги баҳолаш даражаси (0,90–1,10), бирхиллик коэффициенти ва нарх бўйича табақаланиш (0,98–1,03) кўрсаткичлари орқали ҳар йили назорат қилиш мақсадга мувофиқ (International Association of Assessing Officers, 2013). Нарх бўйича табақаланиш кўрсаткичининг 1,03 дан юқори бўлиши қиммат объектлар арзон объектларга нисбатан паст баҳоланаётганини, яъни юқорида қайд этилган регрессивлик сақланиб қолаётганини билдиради.

Хулоса қилиб айтганда, мол-мулк солиғи тушумларини барқарор ошириш солиқ ставкаларини кўтариш орқали эмас, балки солиқ базасининг қамрови, баҳолаш сифати ва ундирувчанлигини биргаликда яхшилаш орқали таъминланиши лозим. Бунда солиқ базасини бозор қийматига яқинлаштириш, бир томондан, иқтисодий қиймати ўхшаш объектларга тенг солиқ юкини таъминласа, иккинчи

томондан, маҳаллий бюджетлар даромадларини ҳудуд иқтисодий ривожланиши билан боғлайди ва маҳаллий ҳокимият органларининг инфратузилмани ривожлантиришдан манфаатдорлигини оширади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Bird, R. M., & Slack, E. (Eds.). (2004). International handbook of land and property taxation. Edward Elgar.
2. Fischel, W. A. (2001). The homevoter hypothesis: How home values influence local government taxation, school finance, and land-use policies. Harvard University Press.
3. International Association of Assessing Officers. (2013). Standard on ratio studies. IAAO.
4. Mieszkowski, P. (1972). The property tax: An excise tax or a profits tax? Journal of Public Economics, 1(1), 73–96.
5. Norregaard, J. (2013). Taxing immovable property: Revenue potential and implementation challenges (IMF Working Paper No. 13/129). International Monetary Fund.
6. Oates, W. E. (1969). The effects of property taxes and local public spending on property values: An empirical study of tax capitalization and the Tiebout hypothesis. Journal of Political Economy, 77(6), 957–971.
7. Zodrow, G. R. (2001). The property tax as a capital tax: A room with three views. National Tax Journal, 54(1), 139–156.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти. (2020). Ресурс солиқлари ва мол-мулк солиғини янада такомиллаштириш тўғрисида (ПФ-6121-сон Фармон, 3 декабрь). https://lex.uz
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти. (2025). Кўчмас мулкни оммавий баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида (ПФ-43-сон Фармон, 5 март). https://lex.uz
10. Ўзбекистон Республикаси. (2019). Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси (2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599-сон Қонун билан тасдиқланган). https://lex.uz

O‘ZBEKISTONDA SIKLGA MOSLASHTIRILGAN BIRLAMCHI BUDJET SALDOSINI HISOBLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Qarshiyev Nodirbek Olim o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston uchun siklga moslashtirilgan birlamchi budjet saldosini (SMBBS) hisoblash tartibi ishlab chiqiladi. XVJning metodik ishlari asosida budjetning kuzatilgan saldosidan foiz to‘lovlari, iqtisodiy siklning daromad va xarajatlarga ta’siri hamda bir martalik operatsiyalarni izchil ajratish taklif etiladi. 2023 – 2025-yillardagi konsolidatsiyalashgan budjet saldosi rasmiy xalqaro qator asosida tahlil qilinadi; ushbu qatorning o‘zi SMBBSni hisoblash uchun yetarli emasligi ko‘rsatiladi. Maqolaning natijasi — ko‘rsatkichlar tizimi, hisoblash formulalari, ma’lumotlar talabi va sezgirlik tekshiruvlarini birlashtirgan amaliy algoritm. Shartli sonli misol formulalar ishlashini ko‘rsatadi, lekin O‘zbekistonning haqiqiy strukturaviy saldosi sifatida talqin qilinmaydi.

Kalit so‘zlar: birlamchi saldo, siklik tuzatish, potensial YAIM, ishlab chiqarish tafovuti, daromad elastikligi, fiskal impuls.

KIRISH

Kuzatilgan budjet taqchilligi hukumatning diskretsion qarorlarini va iqtisodiy faollik o‘zgarishi tufayli paydo bo‘lgan avtomatik ta’sirlarni birlashtiradi. Iqtisodiyot kengayganda soliq tushumlari ko‘payib, saldo yaxshilanishi mumkin; bu holat har doim xarajatlarning qat’iy nazorat qilinganini anglatmaydi. Fiskal siyosatning siklga javobini baholash uchun foiz xarajatlarisiz, potensial ishlab chiqarish sharoitiga keltirilgan saldo kerak [2; 3].

O‘zbekistonda konsolidatsiyalashgan budjet saldosi YAIMga nisbatan 2023-yilda −4,6, 2024-yilda −3,0 va 2025-yilda −2,1 foiz bo‘lgan [1]. Bu yaxshilanishning qaysi qismi sikl, foiz to‘lovlari yoki vaqtinchalik tushumlardan kelib chiqqanini yillik umumiy saldodan aniqlab bo‘lmaydi. Tadqiqot maqsadi O‘zbekiston ma’lumotlariga mos, qayta hisoblanadigan SMBBS uslubiyotini taklif qilishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR

Empirik manba sifatida XVJning 2026-yilgi O‘zbekiston bo‘yicha IV modda maslahatlashuvidagi 2023–2025-yillar konsolidatsiyalashgan budjet saldosi olindi [1]. Hisoblash mantiqi Fedelino, Ivanova va Hortonning siklik tuzatish bo‘yicha texnik qo‘llanmasi, XVJning strukturaviy saldo qo‘llanmasi hamda Fiskal monitoring izohlariga tayangan [2–4]. Metodlar: fiskal agregatlarni dekompozitsiya qilish, komponentlar elastikligi, shartli hisoblash va sezgirlik tahlili.

Belgilashlar: B — umumiy saldo; I — sof foiz to‘lovlari; PB = B + I — birlamchi saldo; Y — haqiqiy, Y* — potensial nominal YAIM. Ishlab chiqarish tafovuti $q = (Y/Y^* - 1) \times 100$. i-toifadagi daromad R_i uchun siklga mos qiymat $R_i^* = R_i \times (Y^*/Y)^{\varepsilon_i}$; siklga sezgir birlamchi xarajat G_j uchun $G_j^* = G_j \times (Y^*/Y)^{\eta_j}$. Bu yerda ε_i va η_j tegishli elastikliklar. Siklga sezgir bo‘lmagan komponentlar haqiqiy miqdorida qoldiriladi [2; 3].

$SMBBS = [\Sigma R_i^* + R_0 - \Sigma G_j^* - G_0]/Y^* \times 100$. R_0 va G_0 — siklga sezgir bo‘lmagan daromad va birlamchi xarajatlar. Budjet saldosini vaqtincha oshiruvchi sof bir martalik

operatsiyalar O alohida aniqlanadi: strukturaviy birlamchi saldo = SMBBS − O/Y* × 100. O manfiy bo‘lsa, vaqtinchalik xarajatning teskari tuzatishi yuz beradi. Shunday qilib, siklga moslashtirilgan va bir martalik omillardan ham tozalangan strukturaviy saldo o‘zaro aralashtirilmaydi.

Amaliy hisobning birinchi qadamida budjet qamrovi va hisoblash tamoyillari birxillashtiriladi. Ikkinchi qadamda potensial YAIM ishlab chiqarish funksiyasi va statistik trend orqali baholanib, real vaqt va keyinchalik qayta ko‘rilgan qiymatlar farqi saqlanadi. Uchinchi qadamda soliq turlari bo‘yicha elastikliklar, ishsizlikka bog‘liq xarajatlar va bir martalik operatsiyalar hujjatlashtiriladi. Yakunda SMBBS o‘zgarishi ΔSMBBS hamda fiskal impuls −ΔSMBBS hisoblanadi; kattaliklar YAIMning bir xil bazasida ifodalanadi.

Mazkur maqolada O‘zbekiston uchun elastikliklar va potensial YAIMning to‘liq qatori mavjud bo‘lmagani sababli haqiqiy SMBBS qiymati yoki ekonometrik parametr bahosi keltirilmaydi. Sonli misol faqat hisob mexanizmini ochib berish uchun shartli tarzda qurilgan.

NATIJALAR

Rasmiy ma’lumotlar kuzatilgan saldoning uch yilda 2,5 foiz punktga yaxshilanganini ko‘rsatadi (1-jadval). Biroq ushbu o‘zgarishni strukturaviy konsolidatsiya deb nomlash uchun foiz to‘lovlari, soliq bazalari, sikl va bir martalik omillar miqdori talab qilinadi.

1-jadval. Kuzatilgan fiskal saldo va SMBBS hisobiga zarur qo‘shimcha ma’lumotlar

Ko‘rsatkich	2023	2024	2025
Konsolidatsiyalashgan budjet saldosi, YAIMga nisbatan %	−4,6	−3,0	−2,1
Birlamchi saldo: sof foiz xarajatlari ajratilgach	Hisoblash kerak	Hisoblash kerak	Hisoblash kerak
Siklik tuzatish: YAIM tafovuti va elastikliklar asosida	Hisoblash kerak	Hisoblash kerak	Hisoblash kerak

Manba: birinchi qator XVJ ko‘rsatkichlari [1]; qolgan qatorlar muallifning zarur hisob bosqichlarini ifodalaydi. Jadvaldagi “hisoblash kerak” qiymat yo‘qligini bildiradi.

Formula natijasini tekshirish uchun quyidagi shartli misol keltiriladi. Faraz qilaylik, birlamchi daromad haqiqiy YAIMning 28 foizi, birlamchi xarajat 30 foizi, q = +2 foiz, barcha daromad elastikligi 1 va xarajat elastikligi 0. Bir martalik operatsiya yo‘q. Y*/Y = 1/1,02 bo‘lgani uchun daromadning siklga mos qiymati haqiqiy YAIM birliklarida 28/1,02 = 27,45; xarajat esa 30 bo‘lib qoladi. Farq −2,55 birlikni potensial YAIM 98,04 birlikka bo‘lish SMBBS ≈ −2,60 foizni beradi. Haqiqiy birlamchi saldo esa −2,00 foiz: musbat tafovut budjetning kuzatilgan ko‘rinishini 0,60 foiz punktga qulaylashtirgan.

Misoldagi 28, 30 va 2 foiz O‘zbekiston statistikasi emas. Hisoblash bazasining YAIMdan Y*ga o‘tishi e’tibordan chetda qoldirilsa, natijada xato paydo bo‘ladi. Shuningdek, bir martalik tushumni daromad elastikligiga qo‘shish uni iqtisodiy sikl sifatida noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi.

MUHOKAMA

Soddalashtirilgan umumiy elastiklik yondashuvi ma’lumot kam bo‘lganda qulay. Biroq qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i, jismoniy shaxslar daromad solig‘i va tabiiy resurslardan tushumlar bir xil siklik xulqqa ega emas. Shu sababli O‘zbekiston uchun toifalar kesimidagi elastikliklar bilan hisoblash, resurs narxi va almashuv kursi ta’sirlarini alohida sezgirlik ssenariylarida ko‘rsatish maqsadga muvofiq [3; 5].

2- jadval. Tavsiya etilgan metodik tanlov va tekshiruvlar

Bosqich	Bazaviy hisob	Sezgirlik tekshiruvi
Budjet qamrovi	Konsolidatsiyalashgan sektor va sof foizlar	Davlat korxonalari bilan bog‘liq kvazifiskal operatsiyalar
Potensial YAIM	Ishlab chiqarish funksiyasi	Trend usuli va real vaqt baholari
Elastiklik	Soliq turi bo‘yicha baho	Muqobil parametr va davrlar
Bir martalik omil	Hujjatlangan alohida ro‘yxat	Bahsli operatsiya kiritilgan/kiritilmagan holat

Siklning oxirgi davrlarini trend usuli bilan baholash qayta ko‘rish xatariga ega: bugun ijobiy ko‘ringan tafovut yangi ma’lumotlar bilan nolga yaqinlashishi mumkin. Shu bois SMBBS yagona nuqtaviy qiymat emas, q va elastiklik bo‘yicha oraliq sifatida e’lon qilinishi lozim. Hisoblash kodlari, ma’lumotlarning versiyasi va bir martalik operatsiya mezonlari ham ochiq bo‘lsa, ko‘rsatkichni tekshirish osonlashadi.

Fiskal impulsning ishorasi siyosat yo‘nalishini bildiradi, lekin uning YAIMga sababiy ta’sirini o‘lchamaydi. Natijani izohlashda pul-kredit siyosati, import ulushi, tashqi talab hamda xarajat tarkibi hisobga olinadi. XVJ ham siklga mos saldo hisobida potensial ishlab chiqarish va elastiklik haqidagi taxminlar hal qiluvchi ekanini ta’kidlaydi [2; 4]. Tadqiqot cheklovi — shartli misol va uch yillik umumiy saldo real O‘zbekiston SMBBS qatorini bermaydi. Uni empirik sinash uchun kamida choraklik fiskal tarkib, foiz xarajatlari, soliq bazalari va qayta ko‘rilgan milliy hisoblar qatori kerak.

XULOSA

O‘zbekistonda 2023–2025-yillarda budjet taqchilligining qisqarishi kuzatilgan, ammo umumiy saldo strukturaviy fiskal harakatning bevosita o‘lchovi emas. Birlamchi saldo orqali foiz to‘lovlarini, potensial YAIM va elastikliklar orqali avtomatik siklik ta’sirni, alohida reyestr orqali bir martalik operatsiyalarni ajratish zarur.

Taklif qilingan hisoblash tartibi daromad turlari va siklga sezgir xarajatlarni komponentlar bo‘yicha moslashtiradi, natijani potensial YAIMga nisbatlaydi va muqobil tafovut hamda elastiklik baholarida qayta hisoblaydi. Ushbu yondashuv budjet ijrosi yaxshilanishini diskretsion qarorlardan ajratish, o‘rta muddatli rejaning ishonchliligini baholash va fiskal impulsni izchil kuzatishga xizmat qiladi.

Keyingi amaliy bosqichda vazirlik va statistika organlarining muvofiqlashtirilgan ma’lumotlari asosida yillik va choraklik SMBBS qatorini hisoblash, oldingi yillar bahosining qayta ko‘rilish diapazonini e’lon qilish hamda natijani fiskal qoida hujjatlari

bilan bog‘lash taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. IMF. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation. 18 June 2026. https://www.imf.org/en/news/articles/2026/06/18/pr-26214-uzbekistan-imf-executive-board-concludes-2026-article-iv-consultation
2. Fedelino A., Ivanova A., Horton M. Computing Cyclically Adjusted Balances and Automatic Stabilizers. IMF Technical Notes and Manuals, 2009/05. https://www.imf.org/external/pubs/ft/tnm/2009/tnm0905.pdf
3. IMF. When and How to Adjust Beyond the Business Cycle? A Guide to Structural Fiscal Balances. Technical Notes and Manuals, 2011. https://www.elibrary.imf.org/abstract/journals/005/2011/002/article-A001-en.xml
4. IMF. Fiscal Monitor, April 2023: Methodological and Statistical Appendix. https://meetings.imf.org/en/-/media/files/publications/fiscal-monitor/2023/april/english/msa.pdf
5. IMF. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation, Staff Report. Country Report 26/152. https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2026/152/article-A001-en.xml

Jahon iqtisodiyotida yashil investitsiyalarning o‘sishi va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun imkoniyatlar

Qo‘ldoshev Ilyos Shuxratovich
TDIU JI va XIM kafedrasi
katta o‘qituvchisi
orcid.org/0000-0003-0543-1507

Annotatsiya. Ushbu tezisda yashil investitsiyalarning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati, ularni jalb qilishdagi to‘siqlar va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun imkoniyatlar tahlil qilinadi. Xalqaro tashkilotlar ma’lumotlarini qiyoslash asosida investitsiya hajmining ortishi moliyaviy resurslarning mamlakatlar o‘rtasida teng taqsimlanishini anglatmasligi ko‘rsatiladi. Moliyalashtirishni infratuzilma, kadrlar tayyorlash va loyihalarning iqtisodiy samaradorligi bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: jahon iqtisodiyoti, yashil investitsiyalar, energetika, barqaror rivojlanish, xalqaro kapital, energiya samaradorligi.

Mavzuning dolzarbligi. Jahon iqtisodiyotida energiyaga bo‘lgan talabni qondirish bilan birga ishlab chiqarishning ekologik ta’sirini kamaytirish muhim vazifaga aylanmoqda. Ushbu jarayonda qayta tiklanuvchi energiya, elektr tarmoqlari, energiyani saqlash va resurslardan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan investitsiyalar alohida ahamiyatga ega. Bunday loyihalar ekologik maqsadlar bilan bir qatorda energiya ta’minotining ishonchliligi va korxonalar raqobatbardoshligiga ham xizmat qilishi mumkin.

Xalqaro energetika agentligining 2025-yilda e’lon qilgan dastlabki bahosida global energetika investitsiyalari 3,3 trillion AQSH dollariga, toza energiya texnologiyalari va tegishli infratuzilmaga investitsiyalar esa 2,2 trillion dollarga yetishi kutilgan. Ikkinchi

ko‘rsatkich qayta tiklanuvchi energiyadan tashqari atom energetikasi, elektr tarmoqlari, saqlash tizimlari va energiya samaradorligini ham qamrab oladi. Bu raqamlar hisobot tuzilgan paytdagi baholar hisoblanadi [1].

Tadqiqot maqsadi va usuli. Tadqiqotning maqsadi yashil investitsiyalarni rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy manfaatlariga mos jalb qilish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Ishda Xalqaro energetika agentligi va UNCTAD materiallarining qiyosiy hamda mantiqiy tahlilidan foydalanildi. Mustaqil so‘rov yoki ekonometrik baholash o‘tkazilmadi.

Asosiy tahlil. Global investitsiya imkoniyatlari kengayishi barcha mamlakatlarda loyihalarni moliyalashtirish osonlashganini bildirmaydi. UNCTADning 2025-yilgi hisobotiga oid axborotida xalqaro loyihaviy moliyalashtirish qiymati 2024-yilda 26 foizga kamaygani qayd etilgan. Ushbu ko‘rsatkich faqat yashil loyihalarga tegishli emas, ammo infratuzilma uchun xalqaro mablag‘ jalb qilishdagi murakkablikni ko‘rsatadi [2].

Xalqaro energetika agentligi rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yuqori foiz stavkalari, valyuta xatarlari va investitsiya muhitidagi noaniqlik moliyalashtirishni qiyinlashtirayotganini ta’kidlaydi. Hisobotda xususiy kapitalni jalb etish uchun oldindan tushunarli tartibga solish muhiti va loyihalar xatarini boshqarishga qaratilgan moliyaviy vositalar zarurligi ko‘rsatilgan [1].

Mazkur dalillardan kelib chiqadigan muallif xulosasiga ko‘ra, yashil investitsiyalar siyosatida uchta masalaga ustuvor e’tibor berish lozim.

Birinchidan, loyiha samaradorligi faqat o‘rnatiladigan quvvat bilan baholanmasligi kerak. Elektr tarmog‘iga ulanish, ishlab chiqarilgan energiyadan foydalanish, texnik xizmat va moliyalashtirish xarajatlari birgalikda hisoblanishi zarur. Aks holda, yangi uskunalar kutilgan iqtisodiy natijani bermasligi mumkin.

Ikkinchidan, xorijiy investitsiyalar mahalliy malaka va xizmatlar bozorini rivojlantirish bilan bog‘lanishi lozim. Muhandislar, energiya auditorlari va texnik xizmat mutaxassislarini tayyorlash loyihalarning uzoq muddatli ishlashiga yordam beradi. Universitetlar va investorlar hamkorligida amaliy ta’lim dasturlarini tashkil etish shu yo‘nalishdagi imkoniyatlardan biridir.

Uchinchidan, kichik va o‘rta korxonalarda energiya tejamkorligini oshirish loyihalariga ham e’tibor qaratish kerak. Dastlab energiya auditi o‘tkazilib, keyin uskunalarni yangilashning xarajati va kutilayotgan tejami taqqoslanishi maqsadga muvofiq. Har bir loyihaning natijasi amaldagi energiya sarfi va xarajatlar o‘zgarishi orqali tekshirilishi lozim. O‘zbekiston uchun ham ushbu yondashuv investitsiyalarni jalb qilishni mahalliy ishlab chiqarish, kadrlar tayyorlash va energiya samaradorligi bilan bog‘lashga xizmat qilishi mumkin. Bunda takliflarning natijadorligi alohida loyihalar ma’lumotlari asosida baholanishi kerak.

Xulosa. Yashil investitsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun energiya ta’minotini yaxshilash va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Ushbu imkoniyatni amalga oshirish moliyaviy resurslar bilan birga sifatli loyiha tayyorgarligi,

infratuzilma va malakali kadrlarni talab etadi. Shu sababli asosiy e'tibor jalb qilingan mablag' hajmi bilan bir qatorda energiya tejami, loyihalarning barqaror ishlashi va mahalliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasiga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Energy Agency. (2025). World Energy Investment 2025. https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2025
2. UNCTAD. (2025). World Investment Report 2025: International Investment in the Digital Economy. https://unctad.org/system/files/official-document/wir2025_en.pdf

Yashil iqtisodiyot rivojlanishining bank sohasidagi ahamiyati

Mirzaxmedova A. A.
TDIU tayanch doktoranti

Yashil iqtisodiy rivojlanish atamasi, atrof-muhitni himoya qilish, resurslarni tejash va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirishni maqsad qilgan strategiyadir. Bu yondashuv, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan. Masalan, "Raqamli iqtisodiyot: innovatsion raqamli texnologiyalar" asarida, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyatini ta'kidlaganlar[17]. PhD, O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi yetakchi mutaxassisi, tadqiqotchi Sh.Karimov esa "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarning ahamiyati" mavzusidagi tadqiqotlari davomida yashil iqtisodiy rivojlanishda banklarning o'rnini quyidagilar orqali ta'kidlab o'tgan[18]:

Moliyalashtirish. Banklar yashil loyihalarni moliyalashtirishga hissa qo'shish orqali yashil iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Qayta tiklanadigan energiya loyihalari, energiya samaradorligi investitsiyalari va chiqindilarni qayta ishlash loyihalari kabi yashil loyihalarni moliyalashtirish banklar portfelida muhim o'ringa ega bo'lib bormoqda. Banklar tegishli kredit mahsulotlari, arzon kreditlar yoki yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus moliyalashtirish shartlarini taklif qilish orqali ushbu loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi.

Barqarorlik. Banklar kredit va investitsiya qarorlarida barqarorlik mezonlarini hisobga olgan holda yashil iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi. Ular atrof-muhit vaijtimoiy ta'sirlarni baholaydi va yuqori barqarorlikka ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtiradi. Bu atrof-muhitga ta'sirni kamaytiradigan, energiya samaradorligini ta'minlaydigan va toza texnologiyalardan foydalanadigan loyihalarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Ular, shuningdek, barqarorlik mezonlariga javob bermaydigan loyihalarni moliyalashtirishga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

Risklarni boshqarish. Banklar atrof-muhit va iqlim o'zgarishi xavfini baholash orqali

[17] Gulyamov, S.S., Shermuxamedov, A.T. (2022). Raqamli iqtisodiyot: innovatsion raqamli texnologiyalar.

[18]https://www.researchgate.net/publication/381382390_YASHIL_IQTISODIYOTNI_RIVOJLANTIRISHDA_BANKLARNING_AHAMIYATI

o‘zlarining risklarni boshqarish strategiyalari ni belgilaydilar. Yashil iqtisodiy rivojlanish ekologik xavflarni boshqarish va yashil moliyalashtirishni ko‘paytirishni talab qiladi. Banklar ekologik risklarni o‘zlarining moliyaviy ko‘rsatkichlariga ta’sir qiladigan tarzda baholaydilar va bu risklarga qarshi choralar ko‘radilar. Shu bilan birga, yashil loyihalar va barqaror investitsiyalarni moliyalashtirish riskni diversifikatsiya qilishi va portfelning diversifikatsiyasiga hissa qo‘shishi mumkin.

Innovatsiyalar va konsalting. Banklar yashil iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish uchun innovatsiyalar va konsalting xizmatlarini taqdim etadilar. Ular innovatsion moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish orqali yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ular, shuningdek, kompaniyalar va mijozlarga barqarorlik bo‘yicha maslahat beradi. Bu atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirlarni baholashda yordam berish, barqarorlik strategiyalarini yaratish va barqarorlik hisobotini o‘z ichiga oladi.

Markaziy bank tijorat banklarining faoliyatini tartibga soluvchi asosiy organ sifatida ekologik va ijtimoiy risklarni baholash amaliyotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda muhim ro‘l o‘ynaydi. U mamlakatdagi bank tizimi ustidan nazorat olib borib, ularga majburiy talablarni belgilash vakolatiga ega. Shu sababli, tijorat banklari yashil o‘sishni samarali rag‘batlantirishlari uchun Markaziy bankning rivojlanish jarayonidagi hissasi katta ahamiyat kasb etadi.

Har qanday davlatning iqtisodiy qudratini yuqori samarali pul-kredit siyosati va zamonaviy to‘lov mexanizmlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Tijorat banklari faoliyatining yaxshi yo‘lga qo‘yilishi va uning aniq barqarorlik sari ishlashi esa barcha rivojlangan davlatlar taraqqiyotining asosiy poydevori hisoblanadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy tizimni rivojlantirish maqsadida mazkur muhim yo‘nalishning tadrijiy rivojlanishini ta’minlovchi zarur huquqiy baza yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash yo‘lida so‘nggi yillarda izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ushbu islohotlar huquqiy asosda amalga oshirilayotgani bois, qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar alohida e’tiborga loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Sustainable Banking Practices: Impact, challenges and opportunities” Shruti Sharma, Chandan Gupta, Rupa Khanna Malhotra, Himani Upreti Graphic Era Deemed to be University, Dehradun Uttarakhand, India, E3S Web of Conferences 556, 01031 (2024)
2. Isadjanov A.A. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ekologik jihatlari. Monografiya. TDIU. Ilmiy tadqiqot markazi. 2020. 137-138 b.
3. Вахабов А. В., Хажибакиев Ш. Х. Необходимость и приоритетные направления перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. Спецвыпуск 4. – С. 3-12.
4. Li Y, Dai J, Cui L (2020) The impact of digital technologies on economic and environmental performance in the context of industry 40: A moderated mediation model. Int J Production Econ. https:// doi. org/ 10. 1016/j. ijpe. 2020. 107777

5. Mavlutova I, Spilbergs A, Verdenhofs A, Natrins A, Arefjevs I, Volkova T(2023) Digital transformation as a driver of the financial sector sustainable development: an impact on financial inclusion and operational efficiency. Sustainability (Switzerland). https:// doi. org/ 10. 3390/ su150 10207
Fayziyeva, M. (2023). Tijorat banklari taklif etgan raqamli texnologiyalardan foydalanishni baholash. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 3(3), 244–253.

APPLICATION OF MULTI-FACTOR DUPONT MODELS IN ASSESSING THE FINANCIAL MANAGEMENT EFFICIENCY OF JOINT-STOCK COMPANIES

Jumatova Gulzar Makhmud qizi

Independent researcher, Tashkent State University of Economics;

Chief Specialist, Department for International and National Rankings, Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: gulzarjumatova@gmail.com

Abstract. *The paper examines the use of three-factor and five-factor DuPont models for assessing the financial management efficiency of joint-stock companies. Using the IFRS financial statements of a large Uzbek mining and metallurgical joint-stock company for 2020–2021, it shows that the five-factor model reveals offsetting effects hidden in the three-factor model: an unchanged net profit margin of 15.7% concealed a 4.6 percentage point negative effect of the tax burden and positive effects of operating margin and interest burden. Recommendations on the use of multi-factor models in management reporting and performance evaluation are proposed.*

Keywords: *DuPont model, multi-factor analysis, return on equity, asset turnover, financial leverage, tax burden, joint-stock company.*

Annotatsiya. *Tezisda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy boshqaruv samaradorligini baholashda uch va besh omilli DuPont modellaridan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. Yirik tog‘-kon metallurgiya aksiyadorlik jamiyatining 2020–2021-yillardagi MHXS hisobotlari asosida besh omilli model uch omilli modelda yashirin qoladigan qarama-qarshi ta’sirlarni aniqlash imkonini berishi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *DuPont modeli, ko‘p omilli tahlil, xususiy kapital rentabelligi, aktivlar aylanuvchanligi, moliyaviy leverej, soliq yuki, aksiyadorlik jamiyati.*

Аннотация. *В тезисе рассмотрено применение трёх- и пятифакторной моделей DuPont для оценки эффективности финансового управления акционерными обществами. На основе отчётности по МСФО крупного горно-металлургического акционерного общества Узбекистана за 2020–2021 годы показано, что пятифакторная модель выявляет разнонаправленные влияния, скрытые в трёхфакторной модели.*

Ключевые слова: *модель DuPont, многофакторный анализ, рентабельность собственного капитала, оборачиваемость активов, финансовый рычаг, налоговая нагрузка, акционерное общество.*

Introduction. Return on equity (ROE) is the key indicator of how efficiently a joint-stock company uses its shareholders' capital. However, the level of ROE alone does not show the sources of profitability: the same ROE can be achieved through high operating efficiency or through high financial leverage, and these two situations carry different risks and different implications for company value [1]. Multi-factor models that decompose ROE into its components make it possible to identify these sources and are therefore an important tool of financial management and performance evaluation.

Three-factor and five-factor models. The classical three-factor DuPont model expresses ROE as the product of net profit margin, asset turnover and the equity multiplier:

$$ROE = (NP / S) \times (S / A) \times (A / E),$$

where NP is net profit, S is sales revenue, A is average total assets and E is average equity. The five-factor model further decomposes the net profit margin into three components – tax burden, interest burden and operating (EBIT) margin:

$$ROE = (NP / EBT) \times (EBT / EBIT) \times (EBIT / S) \times (S / A) \times (A / E),$$

where EBT is earnings before tax and EBIT is operating profit. This decomposition separates the results of operating management (EBIT margin, asset turnover) from the effects of financing decisions (interest burden, equity multiplier) and the tax environment (tax burden) [5]. D. Nissim and S. Penman showed that operating and financing components of ROE differ in persistence and should be analysed separately when forecasting profitability and value [1]. M. Soliman found that changes in asset turnover predict future profitability and stock returns, and that market participants use DuPont components in their decisions [2]. The factor contributions to the change in ROE are estimated by the chain substitution method.

Empirical illustration. The models were applied to the IFRS consolidated financial

statements of a large Uzbek mining and metallurgical joint-stock company for 2020–2021 [3]. The results are presented in Table 1.

Table 1. Three-factor and five-factor DuPont analysis of ROE

Factor	2020	2021	Contribution to ΔROE, p.p.
Three-factor model			
Net profit margin, %	15.70	15.71	0.0
Asset turnover, times	0.940	1.125	+6.0
Equity multiplier, times	2.080	1.953	−2.2
Five-factor model			
Tax burden (NP / EBT)	0.445	0.378	−4.6
Interest burden (EBT / EBIT)	0.888	0.948	+1.8
EBIT margin, %	39.7	43.9	+2.9
Asset turnover, times	0.940	1.125	+6.0
Equity multiplier, times	2.080	1.953	−2.3
ROE, %	30.7	34.5	+3.8

Source: calculated by the author based on [3]. Average values of assets and equity are used; contributions are estimated by chain substitution.

According to the three-factor model, ROE increased by 3.8 percentage points entirely due to asset turnover (+6.0 p.p.), while the net profit margin remained unchanged and the decline in the equity multiplier reduced ROE by 2.2 p.p. The five-factor model, however, shows that the unchanged net profit margin conceals offsetting effects. The operating margin rose from 39.7% to 43.9% (+2.9 p.p.) and the interest burden improved (+1.8 p.p.), but these gains were fully absorbed by a higher tax burden: income tax expense rose from 55.5% to 62.2% of earnings before tax, reducing ROE by 4.6 p.p. Thus, the improvement in operating efficiency was considerably greater than the three-factor model suggests, and the tax environment became the main factor limiting the growth of shareholder returns.

Interpretation of DuPont profiles. Multi-factor models also make it possible to classify companies by the source of their profitability. If ROE is based on high margins

and asset turnover with low leverage, profitability is driven by operating efficiency and is more sustainable. If ROE is driven mainly by high financial leverage with low asset turnover and volatile margins, profitability is exposed to interest rate and currency risks [1; 4]. Such a classification is particularly useful for comparing joint-stock companies from different industries, where absolute ROE levels are not directly comparable.

Conclusions and recommendations. The use of multi-factor models significantly increases the analytical value of financial management assessment. The three-factor model identifies the role of asset management and leverage, while the five-factor model additionally separates operating results from financing and tax effects, which can move in opposite directions. It is recommended that joint-stock companies include the five-factor decomposition of ROE in management reports to supervisory boards; that the key performance indicator systems of state-owned joint-stock companies evaluate managers on the factors under their control (EBIT margin and asset turnover) rather than on the overall level of ROE; and that companies disclose DuPont components in their annual reports to provide investors with information on the quality and sustainability of profitability [6].

REFERENCES

1. Nissim D., Penman S.H. Ratio analysis and equity valuation: From research to practice // Review of Accounting Studies. – 2001. – Vol. 6, No. 1. – P. 109–154.
2. Soliman M.T. The use of DuPont analysis by market participants // The Accounting Review. – 2008. – Vol. 83, No. 3. – P. 823–853.
3. JSC “Almalyk Mining and Metallurgical Complex”. Consolidated financial statements for the year ended 31 December 2021. – URL: https://agmk.uz/uploads/docs/679f8d723b63f0fd8f924acd1d29cfbf.pdf
4. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3, No. 4. – P. 305–360.
5. Penman S.H. Financial Statement Analysis and Security Valuation. 5th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2013.
6. Koller T., Goedhart M., Wessels D. Valuation: Measuring and Managing the Value of Companies. 7th ed. – Hoboken, NJ: Wil

Beyond Aggregate NPL Ratios: Persistence and Migration of Bank-Level Credit Risk in Uzbekistan

Gaybullaev Umidillaxon Hasan ugli
Independent Researcher at Tashkent State University of Economics
Email: ugaybullayev121@gmail.com

Abstract. Sector-wide non-performing loan (NPL) ratios are insufficient to reveal whether credit distress remains concentrated in the same banks. This paper examines the persistence and migration of reported credit risk in Uzbekistan using official year-end disclosures for 22 continuously observed banks, covering more than 98% of sector loans in each of three snapshots (1 January 2023–2025). We combine exposure-weighted and median NPL measures, Spearman rank correlations, bank-level transitions, and a 5% diagnostic screening threshold. The system NPL ratio moves from 3.59% to 3.97%, but the panel median shifts from 2.47% to 2.63%; two of the five highest-NPL-ratio banks in 2023 remain in the top five in 2025. Rank correlation is positive ($\rho = 0.69$), even as high-distress locations change materially. An illustrative reversal involves Ipoteka Bank (2.48% to 10.19%) and People's Bank (11.93% to 4.23%). The contribution is a transparent, replicable risk-migration diagnostic that complements aggregate indicators without claiming causal effects or treating reported NPL stocks as default probabilities.

Keywords: non-performing loans; bank heterogeneity; rank persistence; supervisory monitoring; credit risk; Uzbekistan

1. Introduction

Banking-sector asset-quality reports frequently summarize credit distress with a single aggregate non-performing loan (NPL) ratio. That statistic is indispensable for measuring the stock of reported problem loans, but it can obscure a changing distribution of distress across institutions. Two sectors can have the same overall ratio even when one has diffuse moderate problems and the other contains a small set of highly stressed banks. Moreover, an improvement at one institution can coincide with

deterioration elsewhere, altering supervisory priorities without substantially changing the system average.

This distinction matters in Uzbekistan, where credit expansion, ownership restructuring and bank business-model changes have proceeded alongside financial-sector reforms. The IMF (2025) argues that weaknesses in regulatory asset classification can understate distressed exposures; its assessment also reports differences between banks and warns that reported regulatory NPLs need not capture the full stock of risk. The 2024 Basel Core Principles similarly place timely monitoring of problem assets and concentration risk at the center of effective supervision (BCBS, 2024).

Research gap and question. Existing descriptive accounts emphasize total NPL levels, individual-bank comparisons or changes in portfolio size. Less attention is given to whether cross-bank distress rankings themselves remain persistent through time. Accordingly, this study asks: How stable was the ordering of reported credit distress across major Uzbek banks between January 2023 and January 2025, and what monitoring information is missed by focusing only on the sector NPL ratio?

The paper contributes a matched-bank, cross-sectional risk-migration framework: (i) an explicit denominator-aware comparison of system and median indicators; (ii) rank correlations between annual snapshots; (iii) turnover among the five highest-ratio banks; and (iv) a separation between NPL intensity and the monetary size of problem loans. Its objective is descriptive identification and supervisory prioritization—not estimation of default transition probabilities, policy causality, or economic-capital requirements.

2. Literature Review and Analytical Framework

Bank risk monitoring has at least three complementary dimensions: the proportion of exposures already classified as problematic, the distribution of this proportion across banks, and its persistence over time. The European Banking Authority (2018) links the management of non-performing and forborne exposures to institution-specific

reduction strategies, internal controls and monitoring. The BCBS (2024, Principles 17–19) distinguishes credit-risk controls, early identification of problem assets and exposure concentration. Together these frameworks imply that aggregate averages are necessary but not sufficient for risk-based surveillance.

The IMF's Uzbekistan FSAP (2025) highlights an additional measurement qualification: prudential loan classification and IFRS Stage 3 identification can differ substantially. NPL ratios in the present study are therefore treated as published regulatory indicators rather than unbiased measures of all economic impairment. Ranking changes may reflect loan deterioration, recoveries, write-offs, portfolio growth or reclassification; these channels cannot be distinguished with annual stocks alone. This interpretation is analytically separate from model-based capital estimation and from aggregate-ratio numerator–denominator decomposition.

3. Data and Methodology

The data consist of Central Bank of Uzbekistan bank-by-bank disclosure tables dated 1 January 2023, 1 January 2024 and 1 January 2025 (CBU, 2023, 2024, 2025). The baseline inclusion rule is a reported loan book of at least UZS 1,500 billion on 1 January 2023, with the same reporting entity identifiable at all three dates. Twenty-two banks satisfy this rule, providing a balanced descriptive panel of 66 bank-year observations. Qishloq Qurilish Bank is consistently matched to its successor name, Business Development Bank; similarly, Ipoteka Bank is tracked across ownership-category changes. The bank identities are matched for continuity, not classified into time-invariant state/private categories.

For bank i at date t, the NPL intensity measure is $r_{it} = 100 \times NPL_{it} / Loans_{it}$. The system measure is $R_t = 100 \times \Sigma_i NPL_{it} / \Sigma_i Loans_{it}$ over all reporting banks; the panel measure is computed over the matched sample; and M_t is the unweighted sample median. Rank persistence is summarized using Spearman's ρ between NPL rates in two years. An upper-tail screening indicator identifies sample banks with $r_{it} \geq 5\%$; this is an illustrative surveillance threshold informed by EBA guidance and is not represented as

an Uzbek regulatory limit.

To capture location changes in distress, the study compares the five highest bank-specific NPL rates at the beginning and end of the period. In parallel, the share of panel loans and NPL stocks held by banks above the 5% line distinguishes relative intensity from the size of the exposure at risk. Rates are recalculated from reported stocks rather than rounded source percentages. No regression, borrower-level transition model or causal claim is applied to these three annual observations.

4. Results

4.1 Aggregate trends and distributional indicators

Table 1. System and matched-bank indicators, as of 1 January (UZS billion except percentages)

Date	System loans	System NPL	System NPL %	Panel loan coverage %	Panel median %	Banks ≥5%	Loan share of ≥5% banks %	NPL share of ≥5% banks %
2023	390,049	13,992	3.59	99.05	2.47	2	6.25	20.38
2024	471,406	16,621	3.53	99.05	2.09	3	13.02	28.64
2025	533,121	21,185	3.97	98.63	2.63	2	10.96	26.33

Source: Authors' recalculation from CBU (2023, 2024, 2025).

Percentages in the last three columns refer to the 22-bank matched sample; system figures refer to all banks. Rounded values may not sum exactly.

The reported system NPL ratio changes only moderately between early 2023 and early 2024 (3.59% to 3.53%), then rises to 3.97% in early 2025. Over the same period the typical bank's NPL rate, measured by the panel median, first falls from 2.47% to 2.09% and then rises to 2.63%. The panel represents 98.6–99.0% of loan balances and 97.0–98.5% of reported NPL stocks, supporting its relevance to sector-level surveillance while preserving clear sample boundaries. Importantly, the bank-level median is not itself an indicator of aggregate credit losses.

4.2 Persistence combined with turnover

Rank persistence is materially positive, but far from complete: Spearman's ρ equals 0.902 between January 2023 and January 2024, 0.770 between January 2024 and January 2025, and 0.689 between the two endpoints (n = 22; endpoint two-sided

exploratory p = 0.00039). Thus, a bank that initially has a relatively high reported NPL rate tends to retain some relative risk elevation, but considerable movement occurs. Of the five banks with the highest initial ratios, only two remain in the five highest at the end of the observation window.

Table 2. Selected bank-level NPL trajectories (recalculated percentages)

Bank	Jan 2023	Jan 2024	Jan 2025	Change, pp
People's Bank	11.93	7.56	4.23	-7.70
Ipoteka Bank	2.48	4.65	10.19	+7.71
Business Development Bank	3.89	8.88	8.50	+4.61
Microcreditbank	4.77	5.99	4.62	-0.15
Kapitalbank	1.17	1.41	4.55	+3.38
Agrobank	3.84	3.80	4.88	+1.04
Tenge Bank	7.32	2.59	2.32	-4.99

Source: authors' calculations from CBU (2023–2025).

Business Development Bank was previously Qishloq Qurilish Bank; Ipoteka Bank is matched across ownership-category reclassification.



Figure 1. Selected bank NPL ratio trajectories, 2023–2025. Source: authors' calculations from CBU data.

The reversal is striking: Ipoteka Bank rises from 2.48% to 10.19% (+7.71 percentage points), whereas People's Bank declines from 11.93% to 4.23% (−7.70 points). Business Development Bank remains elevated at 8.50% by 2025, despite starting at 3.89% in 2023. Meanwhile Kapitalbank's rate rises from 1.17% to 4.55%. These are observed changes in published ratios, not identified shifts in one-year probabilities of default.

4.3 Intensity is not the same as systemic burden

At the beginning of 2025, Ipoteka Bank accounts for UZS 3,577 billion of reported NPLs (16.9% of the system total) against UZS 35,094 billion of loans (6.6% of system loans). The NBU holds a larger loan book (UZS 108,014 billion) and UZS 3,275 billion of reported NPLs, even though its bank-specific rate is much lower (3.03%). Therefore, identifying banks that are most distressed in percentage terms is different from identifying banks that contribute the largest absolute stock of reported problem loans.

Within the matched sample, banks above the 5% screening level hold only 6.25% of loans in 2023 but 20.38% of NPLs; the corresponding shares in 2025 are 10.96% and 26.33%. These ratios are not estimates of tail expected losses. Rather, they show why institution-specific monitoring cannot be replaced by a single average. The endpoint scatter in Figure 2 also reveals upward and downward movers relative to the no-change diagonal.



Figure 2. Persistence and migration in the distribution of bank NPL rates. The diagonal denotes no change.

4.4 Sensitivity and robustness

An upper-tail signal depends on where the screening line is drawn. Under a 4% threshold, seven of the 22 banks in January 2025 would be flagged, accounting for 44.58% of panel loans and 65.40% of panel NPLs. At 5%, only two banks would be flagged, accounting for 10.96% and 26.33%, respectively. In January 2023, the 4% and 5% cutoffs identified four and two banks. Hence surveillance thresholds should

be presented transparently and combined with loan volumes, rating migration and supervisory judgement rather than treated as natural statistical partitions.

Table 3. Screening-threshold sensitivity, matched panel

Criterion	January 2023	January 2025
Banks with NPL ≥ 4%	4 of 22	7 of 22
Their share of panel NPLs	37.63%	65.40%
Banks with NPL ≥ 5%	2 of 22	2 of 22
Their share of panel NPLs	20.38%	26.33%

Source: authors' calculations based on published bank-level stocks.

Thresholds are analytic screens, not estimated risk cutoffs or Uzbekistan-specific prudential limits.

Persistence also survives alternative sample definitions. Excluding KDB Bank, which reports a zero NPL stock in all three observations, produces endpoint Spearman $\rho = 0.643$ ($n = 21$). Restricting the sample to the 14 institutions holding at least UZS 5 trillion of loans at the January 2023 baseline yields $\rho = 0.556$. These checks preserve the substantive conclusion of positive but imperfect rank persistence. Nevertheless, the smaller panels make rank tests more fragile and cannot correct for common measurement bias in classified loan stocks.

5. Discussion

The results point to a dual empirical pattern: considerable persistence in relative asset-quality rankings, alongside notable migration of severe reported distress. High endpoint rank correlation is compatible with the fact that only two banks remain among the five highest-ratio institutions. Supervisory use of either finding in isolation would be misleading. Purely historical watchlists would not fully capture emerging risk in previously lower-risk banks; purely cross-sectional watchlists would overlook recurrent bank-specific weaknesses.

This finding is consistent with BCBS (2024) emphasis on both ongoing monitoring

and concentration controls. It also refines the interpretation of the IMF (2025) assessment, which warns that regulatory NPLs may understate economically distressed exposures. Under classification uncertainty, a changing observed bank ranking can reflect both true credit-quality migration and changes in loan recognition, restructuring, write-offs or denominators. Accordingly, the present evidence supports investigation and prioritization rather than direct inference about the success of specific reforms or ownership models.

The selected trajectories illustrate this distinction. Ipoteka Bank's 2025 position generates a high NPL intensity and a large nominal NPL stock, whereas People's Bank shows a substantial decline in its reported NPL rate. Without loan-level transitions, cure rates, restructuring data and detailed write-off records, the improvement or deterioration cannot credibly be attributed to a single managerial mechanism. These observations should prompt case-by-case supervisory validation of credit files and stage classifications, not a presumption that all NPL-rate changes are comparable credit events.

An important distinction emerges between cross-bank rank persistence and supervisory significance. The first is a relative ordering question: even a bank with a falling NPL rate can remain highly ranked if its peers improve faster. The second depends on the volume of exposures, loss severity, collateral enforceability and interconnectedness. A dashboard that combines rankings with the absolute NPL book makes these distinct questions operational; it cannot replace external validation of loan classification or the measurement of credit loss recoveries. The methodological contribution is a low-data-demand diagnostic that distinguishes portfolio-weighted sector outcomes, the typical bank, rank persistence and migration of upper-tail institutions. It is particularly suitable for reforming banking sectors where bank-level annual stocks are public but detailed borrower transitions remain confidential. Its contribution is measurement discipline and targeted surveillance, not identification of a new structural determinant of default.

6. Policy and Managerial Implications

For bank supervisors, a quarterly dashboard could display four complementary signals: sector NPL ratio; distribution of bank-level ratios (median and upper quartile); bank rank mobility; and contribution to the absolute NPL stock. Banks crossing a risk-screening line should trigger enhanced portfolio review rather than automatic sanctions, with borrower-grade transitions, collateral recovery and IFRS Stage 3 reconciliations used to validate underlying asset quality. Banks with large NPL stocks may require priority resolution planning even when their relative NPL rates are not among the highest.

For bank management, the same framework supports internal limit review, vintage-cohort analysis and recognition-quality controls. Rather than interpreting falling NPL shares as unqualified performance gains, management should report NPL inflows, cash collections, cures, restructuring, write-offs and loan growth separately. Institutions with rising ratios should supplement cross-sectional comparisons with internal sector, currency and borrower-concentration information before revising their risk appetite.

7. Limitations and Future Research

The study uses three annual snapshots, 22 matched institutions and publicly reported regulatory classifications. It does not estimate causal determinants of credit risk, establish how particular banks changed underwriting quality, or capture hidden Stage 3 and forborne exposures. The purposive baseline-size cutoff excludes smaller banks; although balance coverage is high, some excluded banks have extreme NPL rates. Mergers, name changes and shifting ownership categories can affect comparability. Formal inference from rank statistics is exploratory because the sample is not random and bank outcomes are jointly exposed to macroeconomic conditions.

Future research should link supervisory loan-level transitions, IFRS 9 staging, write-offs, recoveries and sectoral concentration to quarterly bank panels, using

harmonized bank identifiers and asset-quality audits. With such information it would be possible to separate underlying distress migration from reporting changes and test how risk-management practices influence validated credit outcomes.

8. Conclusion

In Uzbekistan, changes in the system-wide NPL rate over 2023–2025 masked substantial reordering of risk intensity across institutions. The matched sample exhibits meaningful persistence (endpoint Spearman $\rho = 0.689$) but only a two-bank overlap between the initial and final top-five NPL-rate rankings. The results therefore support a supervision approach that combines aggregate trends, bank-level rankings, rank mobility and nominal distressed exposures. This is a practical interpretation framework for public supervisory data; it should not be mistaken for a causal evaluation or a substitute for audited credit-risk measures.

References

1. Basel Committee on Banking Supervision (BCBS). (2024). Core Principles for Effective Banking Supervision. Bank for International Settlements. https://www.bis.org/committees/bcbs/basel-framework/standard/bcp/40/inforce/2024-04-25/published/2024-04-25

2. Central Bank of Uzbekistan (CBU). (2023). Information on Non-performing Loans of Commercial Banks as of January 1, 2023 (25 January 2023). https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/846241/

3. Central Bank of Uzbekistan (CBU). (2024). Information on Non-performing Loans of Commercial Banks as of January 1, 2024 (19 January 2024). https://cbu.uz/ru/statistics/bankstats/1569339/

4. Central Bank of Uzbekistan (CBU). (2025). Information on Non-performing Loans of Commercial Banks as of January 1, 2025 (27 January 2025). https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/2123884/

5. European Banking Authority (EBA). (2018). Guidelines on Management of Non-performing and Forborne Exposures (EBA/GL/2018/06).

https://www.eba.europa.eu/guidelines-management-non-performing-and-forborne-exposures

6. International Monetary Fund (IMF). (2025). Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program—Financial System Stability Assessment. IMF Country Report No. 25/145. https://doi.org/10.5089/9798229015103.002

7. G‘aybullaev, U. H. (2026). Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmini takomillashtirish [Unpublished PhD dissertation manuscript]. Tashkent State University of Economics.

TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR VA PASSIVLAR MUVOZANATI: KREDIT RISKI VA MOLIYALASHTIRISH XARAJATLARINING EMPIRIK TAHLILI

G‘aybullaev Umidillaxon Hasan o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
ugaybullayev121@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bankning aktivlar va passivlarini boshqarish (ALM) tizimi kredit riskiga ta’sir etuvchi ekspozitsiya, resurslar tarkibi va foiz xarajatlari bilan birgalikda baholanadi. “Ravnaqbank” (“Octobank”)ning 2022–2025-yillardagi balans ko‘rsatkichlari asosida tarkibiy koeffitsiyentlar va foiz daromadlari dekompozitsiyasi hisoblandi. Sof kreditlarning aktivlardagi ulushi 39,97 foizdan 4,05 foizga qisqargan, muddatli depozitlarning depozitlardagi ulushi esa 44,62 foizdan 74,82 foizga oshgan. Natijalar kredit ekspozitsiyasi ulushi qisqarishi fondlashning bahosi va konsentratsiyasi xavflari yo‘qolishini anglatmasligini ko‘rsatadi. ALM doirasida qo‘shma monitoring mexanizmi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: aktivlar va passivlarni boshqarish; kredit riski; depozitlar; likvidlik; sof foiz daromadi; bank strategiyasi.

Аннотация. На основе отчетных данных банка «Равнакбанк» («Octobank») за 2022–2025 гг. исследована взаимосвязь структуры активов, депозитного фондирования и процентных расходов. Доля чистых кредитов в активах сократилась с 39,97% до 4,05%, тогда как доля срочных депозитов выросла с 44,62% до 74,82%. Обоснована необходимость совместного мониторинга кредитной экспозиции, стоимости ресурсов и риска ликвидности.

Ключевые слова: управление активами и пассивами; кредитный риск; депозиты; ликвидность; процентные расходы.

Abstract. Using 2022–2025 balance-sheet data for Ravnaqbank (Octobank), this paper examines changes in credit exposure, deposit funding and interest expenses. The net-loan share of total assets declined from 39.97% to 4.05%, while the term-deposit share increased from 44.62% to 74.82%. A joint asset–liability monitoring

framework is proposed; the findings do not establish changes in borrower default probabilities.

Keywords: asset–liability management; credit risk; deposit funding; liquidity; interest expense.

KIRISH

Banklarda kredit portfelining nominal hajmi bilan kredit riskining iqtisodiy mohiyati bir xil ko‘rsatkich emas. Kreditlar aktivlar tarkibida qisqargan vaziyatda qarzdorlarga bog‘liq ekspozitsiya ulushi kamayishi mumkin, biroq resurslarni qimmat narxda jalb qilish, depozitlar konsentratsiyasi va foiz stavkasi xatari saqlanib qoladi. Shu sababli kredit riski menejmentini aktivlar va passivlar muvozanatidan ajratib tahlil qilish bankning haqiqiy risk profilini to‘liq aks ettirmaydi.

O‘zbekiston bank tizimida mazkur muammo dolzarb: Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-oktyabrda jami kreditlar 582,2 trln so‘mni, depozitlar esa 371,5 trln so‘mni tashkil etgan [2]. Bu ko‘rsatkichlar fondlash tarkibi va kreditlash o‘rtasidagi nomutanosiblikni tizimli kuzatish zarurligini ko‘rsatadi; ular ushbu maqoladagi bankning yil yakuni balanslari bilan bir davrni ifodalamaydi.

Tadqiqot bo‘shlig‘i — milliy bank misolida kreditlar ulushining pasayishi, depozitlar muddatli tarkibining o‘zgarishi hamda foiz xarajatlarining birgalikdagi dinamikasini farqlovchi ixcham diagnostik yondashuv yetarlicha qo‘llanmaganidir.

Tadqiqot savoli: aktivlar tarkibidagi kredit intensivligi pasayishi resurslar bahosi va bankning moliyaviy modeli bilan qanday birga kechadi? Maqsad — 2022–2025-yillar uchun kuzatilgan tarkibiy o‘zgarishlarni aniqlash va ALM monitoringi bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Basel qo‘mitasining likvidlikni boshqarish tamoyillarida fondlash manbalarini, muddatlarini va risklarni bank miqyosida integratsiyalash zarurligi ko‘rsatiladi [4]. 2023-yildagi xalqaro bank beqarorligidan keyingi tahlillar depozitlarning tez chiqib ketishi va foiz stavkasi risklari bir-birini kuchaytirishi mumkinligini tasdiqlaydi [5]. FSB (2024) ham depozitorlar xatti-harakati va stavkalar shokini birgalikda kuzatish muhimligini qayd etgan [6].

Haris, Yao va Fatima (2024) bank rentabelligini tushuntirishda likvidlik va kredit riskini birgalikda o‘rganadi [7]. IMF tahlili esa resurslar tarkibi, aktivlarni baholash va risk-boshqaruv kamchiliklari bank zaifligini kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi [8]. Mazkur tadqiqot ulardan farqli ravishda bir bankdagi aktivlar strukturasi, depozitlar muddati va foiz xarajatlari o‘rtasidagi hisob-kitob asosidagi tafovutni tadqiq etadi; muayyan boshqaruv qarorining sababiy ta’sirini baholashga da’vo qilmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Empirik obyekt sifatida 2023-yildan “Octobank” nomi bilan faoliyat yuritayotgan “Ravnaqbank” tanlandi. 2022–2025-yillar balans va moliyaviy natija ko‘rsatkichlari G‘aybullaev (2026) dissertatsiyasidagi yillik hisobotlardan shakllantirilgan qatorlar

asosida olingan [1]. Bankning 2025-yil yakuni bo‘yicha 12,20 trln so‘mlik aktivlari va 255,9 mlrd so‘mlik sof foydasi rasmiy axborotida ham aks etgan [3]. Qiymatlar taqqoslash uchun mlrd so‘mga o‘tkazildi; ayrim manbalardagi ko‘rsatkichlar qamrovi farq qilishi mumkin.

Tahlilda uchta diagnostik koeffitsiyent qo‘llanadi: KI = sof kreditlar / jami aktivlar × 100; MDU = muddatli depozitlar / (muddatli + talab qilib olinguncha depozitlar) × 100; FXK = foizli xarajatlar / foizli daromadlar × 100. Shuningdek, sof foiz daromadi foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar ayirmasi sifatida hisoblanadi. Ko‘rsatkichlar kredit intensivligi, fondlash muddati va resurslar xarajatini ifodalaydi; ular defolt ehtimoli, LCR, NSFR yoki tartibga soluvchi kapital normativi o‘rnini bosmaydi.

NATIJALAR

1-jadval. Octobank balans va foiz faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari (mlrd so‘m)

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025
Jami aktivlar	843,0	2 367,1	3 162,8	12 201,8
Sof kredit va lizing	337,0	242,9	189,9	494,6
Markaziy bankdagi mablag‘lar	188,9	381,5	376,4	5 530,5
Qimmatli qog‘ozlar	0,0	453,8	915,4	3 798,7
Talab qilib olinguncha depozitlar	368,4	1 443,6	1 428,1	2 730,2
Muddatli depozitlar	296,7	204,4	465,2	8 111,3
Sof foiz daromadi	25,7	27,8	76,6	53,3

Manba: [1] dagi 2.9–2.10-jadvallar asosida muallif hisob-kitobi; qiymatlar yaxlitlangan.

1-jadvalda jami aktivlar 2022–2025-yillarda qariyb 14,47 baravar, sof kreditlar esa 1,47 baravar ko‘paygani ko‘rinadi. Shunday qilib, balans kengayishi kredit qo‘yilmalarining proporsional o‘sishi bilan bir xil bo‘lmagan. 2025-yilda Markaziy bankdagi mablag‘lar va qimmatli qog‘ozlar yig‘indisi jami aktivlarning 76,46 foiziga teng bo‘lgan; bunday tarkib qarzdorlar bilan bog‘liq kredit ekspozitsiyasi ulushini qisqartirgan bo‘lsa-da, investitsiya, konsentratsiya va qayta narxlash xatarlarini alohida baholashni talab qiladi.

2-jadval. ALM tarkibiy diagnostikasi (% hisobida)

Hisoblangan indikator	2022	2023	2024	2025
Sof kreditlar / aktivlar (KI)	39,97	10,26	6,01	4,05
Muddatli depozitlar ulushi (MDU)	44,62	12,40	24,57	74,82
Foiz xarajatlari / foiz daromadlari (FXK)	68,43	66,19	55,28	79,32
Sof kreditlar / ko‘rsatilgan depozitlar	50,67	14,74	10,03	4,56

Izoh: oxirgi qator sof kreditlar bo‘yicha hisoblangan indikativ nisbat; yalpi kreditlarga asoslangan rasmiy LDR bilan aynan bir ko‘rsatkich emas.



1-rasm. Kredit intensivligi va muddatli depozitlar ulushining o‘zgarishi (2022–2025-yillar)

Kreditlarning aktivlardagi ulushi 35,92 foiz punktga pasaygan. Shu davrda muddatli depozitlar ulushi 30,20 foiz punktga oshgan, lekin o‘sish bir tekis emas: 2023-yilda u 12,40 foizgacha qisqargan. Demak, bankning fondlash strukturasini barqaror deb baholash faqat yakuniy yil holatiga tayanmasligi, depozitlar muddati, mijozlar bo‘yicha konsentratsiya va yangilanish xatti-harakatlari bilan tekshirilishi lozim.

Foiz xarajatlarining foiz daromadlariga nisbati 2024-yildagi 55,28 foizdan 2025-yilda 79,32 foizga yetgan. Natijada sof foiz daromadi 76,6 mlrd so‘mdan 53,3 mlrd so‘mga (30,4 foizga) kamaygan. Shu bilan birga, bank 2025-yilda 255,9 mlrd so‘m sof foyda ko‘rgan [3]. Demak, foydaning o‘sishi kredit portfeli rentabelligi yoki kredit sifati yaxshilanishining bevosita dalili emas; operatsion va foizsiz faoliyat tarkibini ham tekshirish kerak.

MUHOKAMA VA AMALIY TAKLIFLAR

Birinchi natija aktivlarni diversifikatsiyalash va kredit riskini boshqarishni farqlash zarurligidir. Kredit ulushining keskin qisqarishi sof kredit ekspozitsiyasining balansdagi og‘irligini kamaytiradi, biroq mavjud kreditlar bo‘yicha NPL, qarzdorlar reytingi va pul oqimlari ochiq bo‘lmasa, defolt xavfi

kamayganligi to‘g‘risida statistik xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Basel tamoyillarida risklarning birlashtirilgan nazorati aynan shu sababli talab qilinadi [4].

Ikkinchi natija — muddatli depozitlar ulushining kengayishi bilan resurslarning bahosi o‘rtasida ehtimoliy qarama-qarshilik mavjudligidir. Muddatli fondlash pul oqimlarini rejalashtirish imkonini berishi mumkin, ammo uning yuqori qiymati sof foiz daromadini qisqartiradi; depozitlar tezkor jamlangan vaziyatda kontragentlar bo‘yicha konsentratsiya qo‘shimcha muammoga aylanishi mumkin. Xalqaro tadqiqotlar ham depozitlar harakati, foiz stavkalari va likvidlik zaxiralari birga nazorat qilinishi kerakligini ko‘rsatadi [5; 6; 8].

Hisob-kitobni shartli sezgirlik tajribasi bilan to‘ldirish mumkin. Agar 2025-yil oxiridagi 8 111,3 mlrd so‘mlik muddatli depozit qoldig‘i bir yil davomida o‘zgarmasa va uning yillik fondlash bahosi 0,5 foiz punktga oshsa, boshqa omillar o‘zgarmaganda qo‘shimcha foiz xarajati 40,6 mlrd so‘mni tashkil etadi; 1,0 foiz punktlik o‘sishda esa bu miqdor 81,1 mlrd so‘mga yetadi. Ikkinchi kattalik 2025-yildagi 53,3 mlrd so‘mlik sof foiz daromadidan katta. Bu hisob prognoz emas: depozitlarning haqiqiy o‘rtacha qoldiqlari, stavkaga sezgir ulushi va aktivlar qayta narxlash jadvali noma’lum. Shunga qaramay, u ALM stress-testi uchun fondlash xarajatlarini alohida kuzatish zarurligini ko‘rsatuvchi ochiq, takrorlanadigan mezondir.

Uchinchi natija bank faoliyatini bitta universal “maqbul” kredit/depozit koeffitsiyenti bilan tavsiflab bo‘lmasligidir. Octobankning faoliyat modeli o‘zgargan; shu bois alohida ko‘rsatkichlarni boshqaruv sifati reytingiga aylantirmasdan, quyidagi ketma-ketlik tavsiya etiladi: (1) kredit portfelini qarzdor va tarmoqlar bo‘yicha segmentlash; (2) depozitlarni mijoz turi, muddati va valyutasi kesimida ajratish; (3) foizli aktiv va passivlar qayta narxlash muddatini solishtirish;
(4) depozit chiqimi hamda stavka o‘zgarishi ssenariylarini sinash; (5) ALCO va risk qo‘mitasi uchun yagona indikatorlar panelini yuritish. Ushbu panelda sof kreditlar ulushi, fondlash qiymati, konsentratsiya, likvidlik buferi, NPL va ECL alohida ko‘rsatilishi kerak [9].

Taklifning ilmiy-amaliy yangiligi kredit intensivligi dinamikasini fondlashning muddatli tarkibi va foiz xarajati bilan bir jadvalda tahlil qilish hamda natijalarni “kredit riski pasaydi” degan biryoqlama xulosadan “risk tarkibi o‘zgardi” degan tekshiriladigan talqinga o‘tkazishdan iborat. Bu yondashuv bankning risk-appetiti va rentabellik siyosatini bog‘lash uchun dastlabki diagnostika vazifasini bajaradi.

XULOSA VA CHEKLOVLAR

2022–2025-yillarda Octobank balansining jadal kengayishi kreditlarning aktivlardagi ulushi keskin qisqarishi bilan kechgan. Muddatli depozitlar ulushining 74,82 foizga yetishi fonida foiz xarajatlari yukining 79,32 foizga ko‘tarilishi resurslar miqdori va bahosini birga nazorat qilish zarurligini ko‘rsatadi. Amaliy jihatdan banklarda ALM, kredit riskini baholash va foiz marjasini boshqarish yagona monitoring konturida muvofiqlashtirilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot bir bankning to‘rt yillik ochiq balans qatorlariga asoslangan;

ma’lumotlar kuzatuv xususiyatiga ega va sababiy bog‘liqlikni isbotlamaydi. Yalpi kredit oqimlari, NPL migratsiyasi, individual depozitlar muddati va qayta narxlash tafsilotlari bo‘lmagani uchun LCR/NSFR, defolt ehtimoli yoki stressdagi likvidlik yo‘qotishlari hisoblanmadi. Keyingi tadqiqotlarda banklar paneli, segmentlangan depozitlar va oylik pul oqimlari asosida ALM ssenariylari tekshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘aybullaev U. H. (2026). Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi qo‘lyozmasi, Toshkent, 2.3-paragraf, 88–94-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Information on major indicators of commercial banks as of October 1, 2025. https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/2948472/
3. Octobank. (2026, 11-fevral). Octobank 2025-yil yakunlarini sarhisob qiladi: moliyaviy o‘sish, innovatsiyalar va xalqaro e’tirof. https://octobank.uz/matbuot-markazi/octobank-podvodit-itogi-2025-goda-finansovyy-rost-innovatsii-i-mezhdunarodnoe-priznanie
4. Basel Committee on Banking Supervision. (2008). Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision. BIS. https://www.bis.org/publications/200809-guidelines-principles-sound-liquidity-risk-management-and-supervision
5. Basel Committee on Banking Supervision. (2024). The 2023 banking turmoil and liquidity risk: A progress report. BIS. https://www.bis.org/publications/2023-banking-turmoil-and-liquidity-risk-progress-report
6. Financial Stability Board. (2024). Depositor Behaviour and Interest Rate and Liquidity Risks in the Financial System: Lessons from the March 2023 Banking Turmoil. https://www.fsb.org/2024/10/depositor-behaviour-and-interest-rate-and-liquidity-risks-in-the-financial-system-lessons-from-the-march-2023-banking-turmoil/
7. Haris M., Yao H., Fatima H. (2024). The impact of liquidity risk and credit risk on bank profitability during COVID-19. PLOS ONE, 19(9), e0308356. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0308356
8. Adrian T., Abbas N., Ramirez S., Fernandez Dionis G. (2024). The US Banking Sector since the March 2023 Turmoil: Navigating the Aftermath. IMF Global Financial Stability Notes, 2024/001. https://doi.org/10.5089/9798400267437.065
9. Basel Committee on Banking Supervision. (2026). Implementation of the Principles for effective risk data aggregation and risk reporting (BCBS 239 Principles). BIS. https://www.bis.org/publications/implementation-principles-effective-risk-data-aggregation-and-risk-reporting-bcbs-239-principles

BANK MAHSULOTI VA BANK XIZMATI TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY MOHIYATI HAMDA ULARNI FARQLASHNING AMALIY AHAMIYATI

PhD, Xujamuratov Abbos Mardonovich
ATB "O'zsanoatqurilishbank"
Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatining markaziy kategoriyalari – "bank mahsuloti" va "bank xizmati" tushunchalarining iqtisodiy adabiyotlardagi talqinlari tizimlashtirilib, ularni aniqlashning qonuniy, lingvistik, pulli va mijozga asoslangan yondashuvlari qiyosiy tahlil qilingan. Mualliflik pozitsiyasi asoslanib, bank xizmati mijozga ko'rsatiladigan harakatlar majmui, bank mahsuloti esa ushbu harakatlarning natijasi ekanligi ko'rsatib berilgan. Taklif etilgan yondashuvning bank mahsulotlarini tasniflash, hisobga olish va ularning samaradorligini baholashdagi amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: bank mahsuloti, bank xizmati, mahsulot tasnifi, mijoz ehtiyojlari, nomoddiy xususiyat, tijorat banklari, mahsulot siyosati.

Zamonaviy bozor sharoitida tijorat banklari mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda alohida o'rin tutadi, shu bois ko'plab iqtisodchi olimlar ularni iqtisodiyotning "lokomotivi" deb ataydi. Bank mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlaridan sezilarli darajada farqlanadi: ular nomoddiy tabiatga ega bo'lib, mijoz bilan o'zaro hamkorlik jarayonida shakllanadi va mijozning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Shuning uchun bank mahsulotlari siyosatini shakllantirish va ularning samaradorligini baholash uchun avvalo asosiy tushunchalarni aniq farqlash zarur bo'ladi.

Bank mahsulotlari va xizmatlarining mohiyatiga oid qarashlar O.I.Lavrushin, N.I.Valenseva, P.A.Xafizova, O.B.Veretennikova, E.G.Shatkovskaya, S.V.Zaysev, D.N.Ternovskiy kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Xususan, P.A.Xafizova bank mahsulotini moliya bozorida pul mablag'lariga bo'lgan talab va taklifga muvofiq amalga oshiriladigan operatsiyalar sifatida talqin etsa, D.N.Ternovskiy uni bank mijozlari ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan xizmat yoki o'zaro bog'liq xizmatlar majmui sifatida ko'radi. O.I.Lavrushin va N.I.Valensevalar esa bank xizmatini bank mahsulotini yaratish bo'yicha harakatlar majmui deb ta'riflaydi. Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy adabiyotlarda mazkur tushunchalar o'rtasidagi chegara yetarli darajada aniqlashtirilmagan.

Tadqiqot jarayonida bank mahsuloti va xizmatini aniqlashning to'rtta asosiy yondashuvi ajratib ko'rsatildi (1-jadval).

1-jadval. Bank mahsuloti va xizmatini aniqlashning asosiy yondashuvlari

Yondashuv	Mohiyati
Qonuniy	“Bank mahsuloti” tushunchasi milliy me’yoriy hujjatlarda tartibga solinadigan “bank operatsiyasi” tushunchasi bilan almashtiriladi; bu ta’rifni universal bo‘lmagan, milliy qonunchilikka bog‘liq toifaga aylantiradi
Lingvistik (marketing)	“Bank mahsuloti” va “bank xizmati” bir xil tushuncha sifatida, aktiv va passiv operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar to‘plami deb qaraladi
Pulli	E’tibor mahsulotning pul komponentiga qaratiladi; yondashuv tushunchani toraytiradi va pul bo‘lmagan komponentlarni qamrab olmaydi
Mijozga asoslangan	Asosiy mezon – mijoz ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish; xizmat faqat mijozga, mahsulot esa bank va mijozning o‘zaro ta’siriga qaratilgan

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, aksariyat hollarda bank mahsuloti mijozlarning mavjud ehtiyojini qondiruvchi xizmat yoki xizmatlar majmui sifatida qaraladi. Biroq bank xizmatining o‘ziga xos belgilari bu tushunchalarni bir-biriga aynan tenglashtirishga imkon bermaydi. Birinchidan, xizmat nomoddiy xususiyatga ega bo‘lib, uning moddiylashtirilgan shakli shartnoma, chek, kvitansiya yoki depozit sertifikati bo‘lishi mumkin; raqamlashtirish sharoitida esa bu shakllar tobora raqamli makonga ko‘chib bormoqda. Ikkinchidan, bank xizmatlarini ko‘rsatish jarayoni naqd yoki naqd pulsiz mablag‘lar bilan bog‘liq bo‘ladi. Uchinchidan, xizmat bir martalik yetkazib berish xususiyatiga ega, ya’ni u ko‘rsatilganidan so‘ng yakunlanadi, mahsulot esa (imzolangan shartnoma yoki plastik karta shaklida) mijozda qoladi va ma’lum muddat davomida foydalaniladi.

Masalaga yondashuvlarni qiyosiy o‘rganish bank xizmatining mustaqil mahsulot sifatida namoyon bo‘lishi mumkinligini ham ko‘rsatadi. O.B.Veretennikova va E.G.Shatkovskayalarning fikricha, bank xizmati kredit muassasasi balansidagi hisobvaraqlar orqali pul mablag‘lari harakati bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyat turi bo‘lib, mijozga operatsiya bilan birgalikda yoki mustaqil mahsulot sifatida taqdim etilishi, sinergik ta’sir ko‘rsatib bank operatsiyasi sifatini oshirishi va mijozlarning qo‘shimcha ehtiyojlarini qondirish orqali mijozlar bazasini kengaytirishi mumkin. S.V.Zaysev esa bank xizmatlarini bank operatsiyalarini amalga oshirishga hamrohlik qiluvchi va ularni optimallashtiruvchi texnik, texnologik, moliyaviy, intellektual va kasbiy faoliyat sifatida ta’riflaydi. S.S.Velichko zamonaviy sharoitda mahsulot va xizmat o‘rtasidagi chegaralar tobora kamayib borayotganini, xizmat mijoz xulq-atvoriga ta’sir qilsa, mahsulot bu ta’sirni amalga oshirishga yordam berishini ta’kidlaydi.

Muallifning fikricha, bank xizmati muayyan bank mahsulotini taqdim etish jarayonida mijozga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat va harakatlar majmui sifatida, bank mahsuloti esa mijoz ehtiyojini qondirish uchun ko‘rsatilgan xizmatlar natijasi sifatida talqin etilishi maqsadga muvofiq. Misol uchun, ipoteka krediti – bank mahsuloti, uni mijozga taqdim etish jarayoni, ya’ni kreditlash – bank xizmati hisoblanadi. Har ikki holatda ham mijozning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyoji

qondiriladi, bank esa kredit foizlari hisobidan daromad oladi. Shu bilan birga, bitta bank mahsuloti bir yoki bir nechta bank xizmatlaridan iborat bo‘lishi mumkin. Xizmat ko‘rsatish jarayonida nafaqat yangi bank mahsulotini yaratish, balki mavjud mahsulotga xizmat ko‘rsatish ham asosiy maqsad bo‘lishi mumkinligini inobatga olish zarur.

Mazkur tushunchalarni farqlash nafaqat nazariy, balki me’yoriy-huquqiy jihatdan ham muhim. Bank operatsiyalari milliy qonunchilikda aniq ro‘yxat ko‘rinishida tartibga solingani sababli, “bank operatsiyasi” tushunchasi amalda mahsulotning huquqiy asosi vazifasini bajaradi, biroq mijoz ehtiyojini qondirish nuqtai nazaridan mahsulot bundan kengroq mazmunga ega: u operatsiya, unga hamrohlik qiluvchi xizmatlar, shartlar, narx va sotish kanallarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli faqat huquqiy yoki faqat pulli yondashuv bilan cheklanish bankning mahsulot siyosatini shakllantirishda amaliy qiyinchiliklar tug‘diradi.

Amaliy nuqtai nazardan farqlash bank ichki boshqaruv hujjatlarida aniq namoyon bo‘ladi: mahsulot uchun mahsulot pasporti (mahsulot shartlari, mijoz toifasi, jarayon va risklar tavsifi) shakllantiriladi, xizmat narxi esa bank tariflari orqali belgilanadi. Bu mahsulot va xizmatning xarajat va daromadlarini alohida hisobga olish, ularning rentabelligini aniqlash hamda tariflarni asoslangan holda o‘zgartirish imkonini beradi.

Taklif etilgan yondashuvning amaliy ahamiyati bank mahsulotlarini tasniflashda yaqqol namoyon bo‘ladi. ATB “O‘zsanoatqurilishbank” faoliyatidagi mahsulotlar besh mezon bo‘yicha tizimlashtirildi: balans toifalari (aktiv va passiv), faoliyat yo‘nalishlari (korporativ, o‘rta va chakana biznes, raqamli, g‘aznachilik, investitsion banking mahsulotlari), daromad keltirishi, daromad turlari (foizli va foizsiz) hamda iqtisodiy ahamiyati va mazmuni (an’anaviy, innovatsion, raqamli, yashil va premium mahsulotlar). Bunday tasnif mahsulot darajasida daromad va xarajatlarni hisobga olish, transfert baholarini aniqlash hamda mahsulot rentabelligini baholash imkonini beradi.

Tasnifning mezonlari quyidagicha mazmun kasb etadi. Balans toifalari bo‘yicha mahsulotlar aktiv (kreditlar) va passiv (depozitlar, jalb qilingan mablag‘lar) mahsulotlariga ajratiladi; faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha mahsulotlar mijoz segmentiga (korporativ, o‘rta va chakana biznes) hamda bank bo‘linmalariga bog‘lanadi; daromad keltirishi bo‘yicha foyda keltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi mahsulotlar farqlanadi; daromad turlari bo‘yicha foizli va foizsiz (komissiya, tarif, xizmat haqi) daromadlar alohida hisobga olinadi. Bunday yondashuv bank mahsulotlari portfelini boshqarishni, ularning har biri bo‘yicha daromad va xarajatlarni hisoblashni hamda mahsulotni rivojlantirish yoki to‘xtatish haqidagi qarorlarni ob’ektiv ma’lumotlar asosida qabul qilishni osonlashtiradi.

Ilmiy yangilik nuqtai nazaridan taklif etilgan talqin iqtisodiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan, ba’zan bir-biriga zid ta’riflarni yagona mantiqiy tizimga keltirib, bank mahsulotlarini ishlab chiqish, narxlash va samaradorligini baholashga doir keyingi tadqiqotlar uchun terminologik asos yaratadi. Amaliy jihatdan esa u bank

ichki me’yoriy hujjatlarida (mahsulot pasporti, tariflar, mahsulotlar katalogi) bir xil atamalardan foydalanish, bo‘linmalar o‘rtasida mas’uliyatni aniq taqsimlash va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish imkonini beradi.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, bank mahsuloti va bank xizmati tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, mohiyatan farqlanadi: xizmat – jarayon va harakatlar majmui, mahsulot esa shu jarayonning mijoz uchun ahamiyatli natijasidir.

Ikkinchidan, mazkur tushunchalarni aniq farqlash bank mahsulotlarini ishlab chiqish, narxlash va samaradorligini baholash uchun yagona metodologik asos yaratadi.

Uchinchidan, ko‘p mezonli tasnif tijorat banklarida mahsulot siyosatini shakllantirish, mahsulotlar portfelini diversifikatsiya qilish va yangi mahsulotlarni joriy etish tartibini takomillashtirishga xizmat qiladi.

MODERN APPROACHES TO FINANCIAL RESOURCE MANAGEMENT

Murodov Orif Jumayevich
Doctor of Technical Sciences, Professor
Renaissance Education University, 17 Charxnovza Street, Samarkand Darvoza, Shaykhontokhur District. Tashkent 100071, Uzbekistan
E-mail: orifakadem81@gmail.com

Abstract. This thesis provides a theoretical analysis of modern approaches to financial resource management in enterprises. The study substantiates that financial resource management should not be limited to traditional approaches aimed solely at increasing the volume of resources, but should be carried out in close connection with cash flows, liquidity, financial risks, and financial results. The priority of a systemic and integrated approach to financial resource management is emphasized.

Keywords: financial resources, financial management, cash flows, liquidity, financial risks, modern approaches.

Introduction

In a market economy, the stability and competitiveness of enterprises directly depend on the efficiency of financial resource management. Financial resources represent the main source ensuring the continuity of enterprise production activities, and their adequate formation and rational allocation have strategic importance.

In traditional approaches, financial resources were mainly evaluated through balance sheet indicators. However, under modern economic conditions, such an

approach is no longer sufficient [1].

Today, financial resource management processes must be closely connected with cash flow movements, ensuring liquidity, and reducing financial risks. Therefore, the theoretical substantiation and systematization of modern approaches to financial resource management represent an important scientific task.

Traditional and Modern Approaches to Financial Resource Management

In traditional financial management practices, financial resources are primarily assessed through their total volume and the structure of their sources. In this approach, the main emphasis is placed on expanding financing sources and overcoming resource shortages. However, this approach does not fully reflect the efficiency of financial resource utilization.

Modern approaches consider financial resources not as a static indicator but as a dynamic process. In other words, the formation, movement, and renewal of financial resources are evaluated through cash flows. Such an approach makes it possible to consider not only the quantity of financial resources but also their turnover rate and flexibility.

Main Directions of Modern Approaches to Financial Resource Management

In the modern financial management system, financial resource management includes several interconnected directions.

First, the optimization of the structure of financial resources is of significant importance. Ensuring a balance between own funds, attracted funds, and borrowed funds contributes to improving financial stability and profitability [2].

Second, financial resources should be managed in integration with cash flows. The continuity and stability of cash flows are key conditions for the efficient use of financial resources and directly affect the maintenance of liquidity. A decline in liquidity may lead to shortages of financial resources.

In addition, a risk-oriented approach plays an important role in financial resource management. Identifying and assessing financial risks in advance increases caution in the use of financial resources and enables decision-making under conditions of uncertainty. This contributes to ensuring the stability of financial resources [3,4].

The modern approaches described above demonstrate that financial resource management is a complex and multi-stage system. Considering this process as an integrated whole allows for a clearer understanding of the interconnection between financial resources, cash flows, and financial results (**Figure 1**).



Figure 1. Modern system of financial resource management

Figure 1 presents the process of financial resource management in a systemic form, where the formation, movement, and impact of financial resources on results are shown as a continuous process. The figure demonstrates that effective financial resource management is determined not by improving individual functions separately, but by their coordinated and integrated implementation.

From this perspective, the modern approach to financial resource management requires that the enterprise's financial activity be oriented not toward short-term results but toward long-term stability and adaptive development. Management decisions made with consideration of the close interconnection between financial resources, cash flows, liquidity, and risks contribute to the stable formation of financial results. This situation confirms the scientific and practical importance of applying a systemic and integrated approach to financial resource management and highlights the need to further develop this approach through practical mechanisms in future research.

Conclusion

In conclusion, under modern conditions financial resource management requires abandoning approaches focused solely on increasing the volume of resources and instead managing them in integration with cash flows, liquidity, and financial risks. Systemic management of financial resources serves as an

important scientific and practical basis for strengthening the financial stability of enterprises, reducing risks, and improving financial results. The theoretical conclusions substantiated in this thesis create a solid foundation for further research aimed at the practical improvement of financial resource management mechanisms.

List of used literature

1. "The decision of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 11, 2023 approved the rules for the acceptance of cotton and grain and maintaining their electronic accounting." – Sputnik.uz news report.
2. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. *Financial Management: Theory and Practice.* — 15th ed. — Boston: Cengage Learning, 2017. — 832 p.
3. Murodov O.J. Modern stages of reforming state enterprises and the privatization model of Uzbekistan // *Green Economy and Development.* 2025, October. No.10, pp. 1492–1496.
4. Murodov O.J. Factors of increasing enterprise competitiveness in the economy of New Uzbekistan: integration of reforms, certification and consumer requirements // *Bulletin of Gulistan State University.* Humanities and Social Sciences Series, 2025. No.3, pp. 193–197.

КЎЧМАС МУЛК СОЛИҒИДА БОЗОР ҚИЙМАТИГА ЎТИШ ДАВРИДА АҲОЛИНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Султанов Дилшод Шухратович

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси мустақил изланувчиси

https://orcid.org/0009-0005-2284-6845

Аннотация. Тезисда кўчмас мулк солиғи базасини бозор қийматига яқинлаштириш натижасида айрим аҳоли қатламлари учун солиқ юкининг кескин ошиши хавфи, хориж мамлакатларида қўлланиладиган солиқ юкини чеклаш механизмлари таҳлил қилинган ҳамда Ўзбекистонда фискал нейтраллик ва манзилли ижтимоий ҳимояга асосланган ўтиш механизми таклиф этилган.

Таянч сўзлар: солиқ юки, фискал нейтраллик, манзилли имтиёзлар.

Кўчмас мулк солиғи базасини бозор қийматига яқинлаштириш солиққа тортишнинг адолатлилигини оширади, бироқ айрим аҳоли қатламлари учун солиқ юкининг кескин ортиши хавфини туғдиради. Уй-жой қиймати ошиши мумкин, лекин эгасининг жорий даромади ошмаслиги мумкин. Мазкур ҳолат, айниқса, пенсионерлар, ногиронлиги бўлган шахслар ва кам даромадли оилаларда «активи бор, лекин жорий даромади паст» муаммосини келтириб чиқаради (Langley & Youngman, 2021).

Ушбу хавф назарий жиҳатдан ҳам асосланган. Анъанавий ёндашувга кўра, мулк солиғи даромадга нисбатан регрессив хусусиятга эга бўлиши

мумкин, чунки кам даромадли оилалар даромадининг катта қисмини уй-жой харажатларига сарфлайди (Zodrow, 2001). Солиқ базаси бозор қийматига яқинлаштирилганда эса бу таъсир, айниқса, кўчмас мулк нархлари тез ўсаётган ҳудудларда ва пенсия ёки нафақа ҳисобига яшаётган оилаларда кучаяди. Шу сабабли баҳолаш ислоҳоти натижасида солиқ юкини объектлар қийматига мутаносиб тақсимлаш мақсади ижтимоий ҳимоя мақсади билан мувозанатлаштирилиши лозим.

АҚШда ушбу муаммони ҳал этиш учун «circuit breaker» механизми кенг қўлланилади: мол-мулк солиғи уй хўжалиги даромадининг белгиланган улушидан ошганда ортиқча қисм солиқ кредити, қайтариш ёки тўловни кечиктириш шаклида қопланади. Мазкур механизм мол-мулк солиғининг регрессив таъсирини юмшатади ва кекса ёшдаги аҳолини уйини сотишга мажбур бўлишдан ҳимоя қилади, бироқ қўшимча бюджет харажатларини ва даромадни текшириш тизимини талаб этади (Bowman et al., 2009). Россия Федерациясида жисмоний шахслар учун солиқсиз майдон чегирмаси ва солиқ суммасининг йиллик ўсишини 10 фоиз билан чеклаш механизми амал қилади.

Ўзбекистонда жисмоний шахслар учун 2018 йилда инвентаризация қийматидан кадастр қийматига ўтилганда солиқ мақсадидаги кўчмас мулк қиймати 46,5 трлн сўмдан 293,5 трлн сўмгача ошган. Солиқ юкининг кескин ўсишининг олдини олиш учун базавий ставка 1,7 фоиздан 0,2 фоизгача пасайтирилган ва 2018–2023 йилларда солиқ суммасининг йиллик ўсишини 1,2–1,3 баравар билан чекловчи механизм қўлланилган. Бу тажриба базани ўзгартириш ставкаларни қайта калибрлаш ва ўтиш механизмлари билан бирга амалга оширилиши лозимлигини тасдиқлайди.

Хориж тажрибаси баҳолаш ислоҳоти ижтимоий ҳимоя чоралари билан бир вақтда амалга оширилиши лозимлигини кўрсатади. Сўнгги йилларда АҚШда уй-жой нархлари ва баҳоланган қийматларнинг кескин ошиши натижасида кўплаб штатлар асосий турар жой бўйича солиққа тортилмайдиган қиймат миқдорини оширган, кекса ёшдагилар учун енгилликларни кенгайтирган ва баҳоланган қийматнинг йиллик ўсишига чекловлар жорий этган (Langley & Youngman, 2021). Данияда 2024 йилдан жорий этилган автоматлаштирилган баҳолаш тизимида баҳолаш хатолари хавфини ҳисобга олиш учун ҳисобланган қийматга эҳтиёткорлик чегирмаси қўлланилади ва бозор қийматига ўтиш ставкаларни пасайтириш билан бирга амалга оширилган.

Бизнингча, оммавий баҳолашга ўтишда фискал нейтраллик тамойилини қўллаш зарур. Фискал нейтрал ставка $t^* = T_0 / \Sigma V_1$ формуласи бўйича ҳисобланади, бу ерда T_0 – ислоҳотдан олдинги солиқ суммаси, ΣV_1 – оммавий баҳолаш натижасида аниқланган объектлар қийматининг йиғиндиси. 2025 йилда жисмоний шахслар мол-мулк солиғи тушумлари 2 807,9 млрд сўмни, солиқ базаси 517 791,3 млрд сўмни ташкил этгани асосида амалдаги эффектив ставка тахминан 0,54 фоизга тенг. Агар бозор

қиймати кадастр қийматидан икки баравар юқори бўлса, фискал нейтрал эффектив ставка 0,27 фоизгача пасайтирилиши, акс ҳолда аҳолидан ундириладиган солиқ бир йилда икки бараварга ошиши мумкин. Масалан, бозор қиймати кадастр қийматидан 1,5 баравар юқори бўлганда фискал нейтрал эффектив ставка 0,36 фоизни, 2,5 баравар юқори бўлганда 0,22 фоизни, 3 баравар юқори бўлганда эса 0,18 фоизни ташкил этади. Ставка ўзгаришсиз қолдирилганда эса ҳисобланадиган солиқ суммаси мос равишда 4 211,9 млрд, 7 019,8 млрд ва 8 423,7 млрд сўмгача ошиши мумкин. Бу рақамлар фискал нейтрал ёндашувсиз оммавий баҳолашни жорий этиш аҳоли учун солиқ юкининг кескин ўсишига ва солиқ қарздорлигининг кўпайишига олиб келиши мумкинлигини кўрсатади.

Фискал нейтрал ставка умумий тушумни ўзгартирмайди, бироқ солиқ юкини объектлар ўртасида уларнинг иқтисодий қийматига мутаносиб равишда қайта тақсимлайди. Шу сабабли индивидуал даражадаги кескин ўзгаришларни юмшатиш учун қуйидаги манзилли чоралар таклиф этилади: ўтиш даврида муайян объект бўйича солиқ суммасининг йиллик ўсишини 20–30 фоиз билан чеклаш; асосий турар жой қийматининг муайян қисмини солиққа тортмаслик; пенсионерлар ва ногиронлиги бўлган шахслар учун асосий турар жой бўйича тўловни кечиктириш; кам таъминланган оилалар учун даромадга боғланган солиқ чегирмаси.

